O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

FALSAFA FANIDAN

MA’RUZALAR KURSI

1-mavzu: Falsafa fanining predmeti, mazmuni va jamiyatdagi roli

Reja:

1. Falsafa atamasining kelib chiqishi.
2. Dunyoqarash va uning tarixiy shakllari.
3. Falsafaning asosiy masalalari.
4. Falsafa va fanning o'zaro mutanosibligi va farqi.

«Falsafa» tushunchasining kelib chiqishi. Har qanday noma'lum so'z mazmunini uning etimologiyasidan, ya'ni u qachon, qanday va nima uchun yuzaga kelganini aniqlashdan boshlash o'rinli bo'ladi. «Falsafa» tushunchasi yunoncha phileo – sevaman va sophia – donolik so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, mazkur atamaning dastlabki ma'nosini donolikka muhabbat deb talqin qilish mumkin. Falsafa so'zini ilk bor qadimgi yunon mutafakkiri pifagor miloddan avvalgi VI asrda tayyor holda (afsonalar, rivoyatlar, an'analar orqali) avloddan-avlodga o'tuvchi bilim va inson o'z aqliga tayanib, mushohada yuritish va borliqni tanqidiy tushunish yo'li bilan olishi mumkin bo'lgan bilimni farqlash maqsadida ishlatgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, pifagor ham, qadimgi davrning boshqa faylasuflari ham dastlab «falsafa» tushunchasiga uning keyinchalik paydo bo'lgan va mohiyat e'tibori bilan, falsafani «barcha fanlar podshosi» darajasiga ko'targan ma'nosidan boshqacharoq ma'no yuklaganlar. Ammo ilk faylasuflar o'zlarini donishmand deb hisoblamaganlar va donolikka da'vo qilmaganlar, zero, o'sha davrda keng tarqalgan tasavvurga ko'ra, haqiqiy donishmandlik ajdodlardan meros qolgan, asrdan asrga o'tib kelayotgan afsonalar, din va rivoyatlarda mujassamlashgan. Donishmandlar deb, asrlar sinovidan, eng so'nggi haqiqat manbai sifatidagi bilimlarga ega bo'lgan bashoratgo'ylar, kohinlar va oqsoqollar e'tirof etilgan. Ularning so'zlari birdan-bir to'g'ri deb qabul qilingan. Faylasuf esa, qadimgilar fikriga ko'ra, izlanuvchi, donishmandlik muxlisi bo'lishi, e'tiqod sifatida qabul qilingan tayyor haqiqatlarga emas, balki o'z aqliga tayanib, ijodiy yo'l bilan, shuningdek boshqa faylasuflar tomonidan olingan bilimlar va tajribadan foydalangan holda maqsadga intilishi lozim bo'lgan.

Falsafa shakllanishining asosiy bosqichlari. Falsafa haqida gapirish – inson dunyoqarashi, uning oqilona fikrlash qobiliyati haqida, binobarin, uning mohiyati va Yerda paydo bo'lish tarixi haqida ga'irish demakdir. Bu yerda biz hali kam o'rganilgan murakkab muammolarga duch kelamiz, zero insonning kelib chiqishi odamlar doim javobini to'ishga harakat qilgan buyuk jumboqlardan biri hisoblanadi. Ammo bilimning bu sohasida yechilmagan muammolar bugungi kunda ham bisyor. Xususan, inson nima uchun, qaerdan, qaysi sabablarga ko'ra paydo bo'lgan, degan savolga aniq, umumiy e'tirof etilgan javob hanuzgacha mavjud emas. Xuddi shuningdek, aql faqat insonga xosmi yoki uning inson borlig'ida mavjudligi ob'ektiv borliqning bir parchasi, ayrim hodisasimi?, degan savol ham hali o'z javobini to'ganicha yo'q.

Binobarin, insoniyat tarixi haqidagi hozirgi ilmiy tasavvurlar nuqtayi nazaridan ayrim masalalar mavjud bo'lib, ular xususida olimlar va mutaxassislar ma'lum bir to'xtamga kelganlar. Xususan, boy tarixiy material, arxeologiya fani olgan daliliy ma'lumotlari, shuningdek boshqa fanlarning metodlari bilan olingan natijalar (masalan, jinslar, foydali qazilmalar yoshini aniqlash va sh.k.)ni e'tiborga olgan holda, ishonch bilan inson sayyoramizda hayotning tadrijiy (evolyutsion) rivojlanishi mahsulidir, deb qayd etish mumkin. Hozirgacha mavjud bilimlar oddiy mehnat qurollarini yasagan insonsimon mavjudotlarning (lot. homo habilis – uquvli odam) qadimgi manzilgohlari taxminan 3-5 mln yil oldin paydobo'lgan, degan xulosaga kelish imkonini beradi.

Arxeologik va ilmiy ma'lumotlarga ko'ra, qaddini tik tutib yuradigan odam yoshi taxminan 1,5 mln yilni tashkil etadi. Homo sa'iens, ya'ni aqlli odamlar ti'i atigi 40-60 ming yil oldin vujudga keldi. Mutaxassislar fikricha, insonda ong paydobo'lib, ijtimoiy mavjudot sifatida uzil-kesil shakllanganidan beri, uning asosiy xususiyatlarida jiddiy o'zgarishlar yuz bergani yo'q, ya'ni u hozirgi odamlardan deyarli farq qilmaydi.

Ong paydobo'lishi esa, ilmiy tasavvurlarga muvofiq, inson tarixiy rivojlanishining odam miyasi o'sib borayotgan mehnat faolligi va verbal (nutq orqali) muloqot ta'sirida o'ta rivojlanib, murakkab mavhumliklarni tushunadigan darajaga yetgan davri bilan bog'lanadi. SHunday qilib, inson tushunchalarga ta'rif berish, mulohazalar bildirish va mushohadalar yuritish yo'li bilan sodda, lekin so'zning to'la ma'nosida aqliy ish olib bora boshladi.

Dunyoqarashning mohiyati. Ayni shu davrdan boshlab insonning ancha rivojlangan dunyoqarashi shakllangani haqida va umuman to'plangan bilimlar, amaliy ko'nikmalar, vujudga kelgan qadriyatlar, o'zi va o'zini qurshagan dunyo haqidagi tasavvurlar majmui sifatidagi odamlar dunyoqarashi to'g'risida ishonch bilan so'z yuritish mumkin.

Hayot tajribasi va empirik bilimlar asosida shakllanadigan dunyoqarash oddiy yoki empirik dunyoqarash deb ataladi va insonning dunyo haqidagi tasavvurlarining qismlarga ajralmagan, tizimsiz majmui sifatida amal qiladi. U har qanday dunyoqarashning negizi hisoblanadi va odamlarga kundalik hayoti, faoliyatida yo'l ko'rsatib, ularning xulq-atvori, aksariyat qilmishlarini belgilab, muhim regulyativ funksiyani bajaradi.

To'liqroq, kengroq ta'rif beradigan bo'lsak, *dunyoqarash – insonning o'zini qurshagan borliqqa va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatga nisbatan yondashuvlar tizimi, shuningdek odamlarning mazkur yondashuvlar bilan belgilangan hayotiy ideallari, e'tiqodlari, bilish va faoliyat tamoyillari, qadriyat va mo'ljallaridir.*

SHu tariqa ta'riflanadigan dunyoqarash faqat insonga xos bo'lib, bu unda shakllangan ong va oqilona faoliyat mavjudligi bilan bog'liqdir. Bunda inson nafaqat tushunchalar yaratish va mulohaza yuritish, xulosalar chiqarish va qoidalarni ta'riflash qobiliyatini kasb etadi, balki tayyor bilimdan yangi bilim olish uchun foydalana boshlaydi. Insonning bunday faoliyatini, uning ijodiy faolligini tavsiflovchi aql odamzod va jamiyat evolutsiyasini

jadallashtirishning qudratli omiliga aylanadi va pirovardda insonni hayvondan ajratish imkonini beruvchi asosiy belgi sifatida amal qiladi.

Dunyoqarashning tuzilishi *dunyoni sezish, dunyoni idrok etish va dunyoni tushunish kabi eng muhim elementlardan iborat.*

Dunyoni sezish – *bu o'zini qurshagan dunyoni sezgilar yordamida hissiy idrok etishdir.* Bunda tuyg'ular, kayfiyat dunyoni go'yoki ranglarga bo'yaydi, uning obrazini sub'ektiv, sof individual sezgilar orqali aks ettiradi. Masalan, bemor odamga haddan tashqari yorug' bo'lib tuyulishi mumkin bo'lgan nur, sog'lom odam uchun normal bo'ladi; daltonik ranglar gammasini, ko'rish qobiliyati normal bo'lgan odamga qaraganda butunlay boshqacha idrok etadi. Bundan dunyoni sezishning har xil, xususan o'timistik, 'essimistik, fojeaviy ti'lari kelib chiqadi.

Dunyoni idrok etish – *bu atrof borliqni ideal obrazlarda tasavvur qilishdir.* Dunyoni idrok etish to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lishi, ya'ni borliqqa mos kelmasligi mumkin. Bu holda borliq noto'g'ri tasavvur qilinadi yoki illyuziyalar, suv 'arilari, alvastilar, kentavrlar haqidagi tasavvurlarga o'xshash fantaziyalar paydo bo'ladi .

Dunyoni tushunish – *insonning va uni qurshagan dunyoning mohiyatini aniqlash, shuningdek tabiatda yuz beruvchi voqea va jarayonlarning o'zaro aloqalarini tushunishga qaratilgan aqliy-bilish faoliyatidir.*

Dunyoni sezish va qisman (elementar shakllarda) dunyoni idrok etish nafaqat insonga, balki hayvonlarga ham xos bo'lsa, dunyoni tushunish esa faqat odamlarga xos xususiyatdir.

Dunyoqarashning tarixiy shakllari. Turli davrlar bilishni yanada teranlashtirdi va inson dunyoqarashini kengaytirdi. Shunga mos ravishda oddiy (empirik) dunyoqarash ham boyib bordi, uning negizida o'zini o'zi tashkil etish qonunlariga muvofiq yanada murakkabroq tuzilmalar asta-sekin shakllandi va bu pirovard natijada dunyoqarashning alohida shakllari yoki, tarixiy ti'lari farqlanishiga olib keldi.

Tarixan dunyoqarashning dastlabki shakllari mif va din, falsafa va fan bo'lib, bu hol insoniyat tadrijiy rivojlanishining umumiy mantiqi bilan mushtarakdir. Ko'nikmalar, tajriba va oddiy bilimlar to'planishiga qarab, nafaqat ularni avloddan avlodga o'tkazish muammosi yuzaga kelgan, balki ibtidoiy odamlarning dunyoqarashi ham murakkablashib borgan. Bu dunyoqarash rivojlanishining muayyan bosqichida, to'plangan bilimlarning «yuqori bosqichiga» yetilgach, boshqa har qanday murakkab tizimda bo'lganidek, dunyoqarashda ham o'zini o'zi tashkil etish qonunlari amal qila boshlagan.

Masalan, bu hodisaning mohiyatini yaxshiroq tushunish uchun shaxsiy kutubxonada kitoblar yig'ilishi bilan bog'liq misolga murojaat etish o'rinli bo'ladi. Mazkur kutubxonada kitoblar bir nechta bo'lsa, ularni tizimga solish talab etilmaydi, ular qaerda yotgani va ularning o'zaro munosabati qandayligi ham ahamiyat kasb etmaydi. Kutubxona hajmi o'nlab kitoblar bilan o'lchangan taqdirda esa, ulardan foydalanishga qulaylik yaratish uchun kitoblarni muayyan tarzda joylashtirish, tizimga solish talab etiladi. Kitoblar soni qancha ko'p bo'lsa, ular bilan ishlash shuncha oson va qulay bo'lishi uchun ularni tasniflash, tartibga solish, ruknlarga ajratish tizimi shuncha murakkab bo'ladi.

Ibtidoiy odamlarning ancha rivojlangan dunyoqarashida o'zini o'zi tashkil etish qonunlariga muvofiq ayni shunday tartiblilik dastavval mif hamda dinning ilk shakllari ko'rinishida vujudga keldi.

Mif - dastlabki dunyoqarash shakli. «Mif» tushunchasi yunoncha "mythos" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, afsona, rivoyat degan ma'noni anglatadi. *Mif* – bu turli xalqlarning dunyoning kelib chiqishi, tabiat hodisalari, fantastik mavjudotlar, xudolar va qahramonlarning ishlari haqidagi tasavvurini ifodalovchi muayyan tarzda tizimga solingan dunyoqarashdir.

Mifda bilimlar, diniy e'tiqodlar, ma'naviy madaniyatning turli elementlari, san'at, ijtimoiy hayot kurtaklari birlashgan bo'lib, shu tariqa ibtidoiy odamlar dunyoqarashi ma'lum darajada tartibga kelgan, ularning dunyo haqidagi qarashlari esa muayyan tizimga solingan. Mazkur tizimga solishning muhim shakllari epos, ertaklar, afsonalar, rivoyatlar bo'lib, miflar avvalo ular orqali ifodalanadi. SHu tariqa to'plangan bilimlar va tajriba keyingi avlodlarga o'tishi ham ta'minlanadi.

Mifologik va diniy dunqarashning o'zaro aloqasi va farqi. *Mifologik dunyoqarashning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bu oddiy rivoyat, biron-bir voqea haqidagi hikoya emas, balki og'zaki «muqaddas» matnning arxaik ongdagi voqea-hodisalarga, insonga va u yashayotgan dunyoga ta'sir ko'rsatuvchi muayyan borliq sifatidagi in'ikosidir*. Mif, insoniyat tarixining ilk bosqichlarida, odamlar xulq-atvori va o'zaro munosabatlarini tartibga solish funksiyasini bajargan, chunki unda axloqiy qarashlar, insonning borliqqa estetik munosabati o'z ifodasini to'gan. Mifologiyaga shu narsa xoski, unda hamma narsa bir, yaxlit, ajralmasdir; tabiat narsalari va hodisalari inson bilan ayni bir qonunlarga muvofiq yashaydi, inson bilan bir xil sezgilar, istaklar, mayllarga ega bo'ladi.

SHunday qilib, mif kimningdir uydirmasi yoki «o'tmish sarqiti» emas, balki shunday bir o'ziga xos tilki, inson uning yordamida qadim vaqtlardanoq dunyoni tavsiflagan, o'zining o'sib borayotgan tarqoq bilimlarini umumlashtirgan, talqin qilgan, tasniflagan va muayyan tizimga solgan.

Mifda ota, oqsoqol hukmi va qaror to'gan an'analar ayniqsa muhim rol o'ynaydi. Rivoyat va uning mazmuniga nisbatan bunday munosabat zamirida e'tiqod, borliqni bevosita, emotsional idrok etish yotadi. *Mifologik dunyoqarash dunyoni yaxlit tushunish bo'lib, unda shubhaga o'rin yo'qdir*.

Mifologiya (miflar majmui sifatida) qadimgi odamlar dunyoqarashi bilangina uzviy bog'liq emas. Oddiy ongda yashaydigan din, falsafa, siyosat, san'atda aniq-ravshan yoki 'ardalangan ko'rinishda mavjud bo'lgan miflar bugungi kunda ham (kim uchundir ko'proq, kim uchundir kamroq darajada) odamlar hayoti va ijodida faol rol o'ynab, har qanday inson dunyoqarashining tarkibiy qismi bo'lib qolmoqda. Jamiyatning axborotlashuvi jadal sur'atlarda o'sib borayotgan sharoitda mif televideniе, radio, vaqtli matbuot, hozirgi saylov texnologiyalari

vositasida ba’zan ijtimoiy ong bilan manipulyatsiya qilish, oldindan belgilangan jamoatchilik fikrini shakllantirish vositasi sifatida qo’llanilmoqda.

Diniy dunyoqarashning shakllanishi va mohiyati. Dunyoqarashning tarixan ikkinchi shakli dindir. (Din so’zi arabchadan tarjimada e’tiqod, ishonch, ishonmoq degan ma’nolarni anglatadi.) Mif kabi, din zamirida ham e’tiqod, tuyg’ular va emotsiyalar yotadi. Garchi din kurtaklari «aqlli odam» dunyoqarashi shakllanishining dastlabki bosqichlarida, ya’ni taxminan 40-60 ming yil muqaddam paydo bo’lgan bo’lsa-da, umuman olganda u dunyoqarashning mustaqil shakli sifatida keyinroq, jumladan mif ta’sirida insonning abstrakt fikrlash qobiliyati sezilarli darajada kuchaygan davrda vujudga kelgan.

Diniy dunyoqarash odamlarning g’ayritabiiy narsalar (xudolar, «oliy aql», qandaydir absolyut va sh.k.)ga bo’lgan e’tiqodiga asoslanuvchi tegishli xulq-atvori va o’ziga xos harakatlaridir. Agar mifologiyada an’anaga, rivoyat qiluvchining, ya’ni oqsoqolning obro’siga e’tiqod kuchli bo’lsa, dinda g’ayrioddiy narsalarga e’tiqod birinchi o’rinda turadi, oliy kuchlar nomidan rivoyat qiluvchi ruhoniylar obro’si esa ikkinchi darajali rol o’ynaydi.

Xullas, din murakkab ma’naviy tuzilma va ijtimoiy-tarixiy hodisa bo’lib, unda e’tiqod muqarrar tarzda birinchi o’ringa qo’yiladi va hamisha bilimdan ustun turadi.

bga ko’ra boshqa odamlar dunyoqarashiga hech qachon o’xshamaydi.

Dinning asosiy funksiyalari. Mif bilan taqqoslaganda, din funksiyalari murakkabroqdir. Din funksiyalari orasida quyidagilarni farqlash mumkin:

- *dunyoqarashni shakllantirish funksiyasi butun borliq qachon va nima uchun paydobo’lgan va bunda g’ayrioddiy kuchning olamshumul roli qanday namoyon bo’lgan, degan savollarga javob beradi;*
- *kommunikativ funksiyasi muloqot va shaxslararo aloqalarning muayyan ti’ini ta’minlaydi, jamiyatning ji’slashuvi va yaxlitligiga ko’maklashadi;*
- *tartibga solish funksiyasi odamlar xulq-atvorini tartibga soluvchi tegishli me’yorlar va qoidalarni belgilaydi;*
- *kompensatorlik funksiyasi etishmayotgan axborot, diqqat-e’tibor, g’amxo’rlik o’rnini to’ldiradi, hayot ma’nosi, istiqbollar va shu kabilarning yo’qligini sezdirmaydi, ya’ni insonning kundalik hayotda qondirilmagan ehtiyojlari o’rnini to’ldiradi.*

Dinning asosiy ildizlari. Din qonuniy hodisa sifatida vujudga kelgan bo’lib, u insonning g’ayrioddiy narsalar va hodisalarga bo’lgan e’tiqodini to’yintiruvchi chuqur ildizlarga egadir.

Dinning psixologik ildizi avvalo inson tabiatida mavjud bo’lib, u inson intellektining rivojlanish darajasi va tanqidiy fikrlash qobiliyatidan qat’iy nazar, nafaqat tushunish, anglash, balki e’tiqod qilish istagi va hattoki ehtiyojining hamisha namoyon bo’lishidir.

Dinning gnoseologik ildizlari oqilona bilim nuqtayi nazaridan dunyo o’z rang-barangligida insonga cheksiz murakkab bo’lib tuyulishida namoyon bo’ladi. Forobiy fikricha “Din nazariy va amaliy qonunlar tuzilgan paytdagina odamlar e’tiqodi, ta’limi tarbiyasi yo’llari ishlab chiqilgandagina paydo bo’ladi va mustahkamlanadi. Ana shunday din tufayli omma baxt saodat uchun yetarli bilim olishi mumkin”[1]. Odamzod o’zini qurshagan borliqni faqat qisman anglab yetadi. Ayni shu sababli olam inson uchun sirlar va mo’jizalarga to’ladir. Odamzod o’zi e’tiqod qiladigan ko’p narsalarni faqat aqlga tayanib isbotlashga ham, rad etishga ham qodir bo’lmaganidek, yuqorida zikr etilgan sirlar va mo’jizalarga javob to’ishga ham (balki hozircha) qodir emas. psixologlar qayd etganidek, «o’ta mushkul vazifa aqlni o’tmaslashtiradi», inson yechimsiz muammolar qarshisida o’zini ojiz his qiladi va aql dalillarini uydirma, g’ayrioddiy narsalar bilan osongina to’ldiradi.

Dinning ijtimoiy ildizlari jamiyatda doimo mavjud bo’lgan tengsizlik, qashshoqlik va adolatsizlikni, odamlar qancha urinmasin o’zgartira yoki yenga olmaganligi bilan bog’liq. Adolatsizlik va foniy dunyoning nomukammalligi tuyg’usi chorasizlik va umidsizlikni yuzaga keltiradi, so’nggi zikr etilgan tuyg’ular osongina u dunyoda hayotning mavjudligiga bo’lgan ishonchga aylanadi. Vaholanki, har qanday din haqiqiy hayot u dunyodadir, deb o’rgatadi. Muammolar, qiyinchiliklarga duch kelgan va real hayotda o’ziga tayanch to’a olmagan inson g’ayrioddiy kuchlarga umid bog’lab, narigi dunyoga murojaat etadi. Ularga e’tiqod qilib, odamzod taskin va tasalli to’adi va oxir-oqibatda taqdirga tan beradi.

Dunni idrok etishda falsafiy dunqarashning o’ziga xos roli- unda dunyoni bilish, sezish, ko’rish va tushunishning butunlay yangi sohasi – falsafa vujudga kelishida namoyon bo’ladi. Darhaqiqat falsafa – bu nafaqat u yoki bu odam dunyoqarashining shakli, balki ijtimoiy ong shakli, odamlar borlig’i va bilishining umumiy tamoyillari, ularning dunyoga munosabati aks etuvchi, tabiat, jamiyat va tafakkurning eng umumiy qonunlari kashf etiluvchi va ta’riflanuvchi ma’naviy faoliyatdir. ya’ni bu dunyoga va insonning undagi o’rniga nisbatan qarashlarning umumiy tizimidir.

Bunday qarashlar zamirini savollar va insonning ularga javob to’ish istagi yotuvchi oqilona yo’l bilan olingan bilimlar majmuini tashkil etadi. Ammo bilish shunday bir tabiatga egaki, bir savolga javob ko’pincha boshqa bir talay savollarni yuzaga keltiradi va ba’zan muammoga nafaqat oydinlik kiritmaydi, balki uni yanada chigallashtirib, insonning qiziquvchanligini oshiradi va yangi tadqiqotlarga da’vat etadi. Xullas, bu yerda ijod, tinimsiz izlanish, yangilikka intilish to’g’risida so’z yuritiladi.

Agar mifologiya va dinda javobga urg’u berilsa, bilishning butun mazmuni unda mujassamlashsa, falsafada savol, masala birinchi o’rinda turadi. U to’g’ri va yaxshi ta’riflangan bo’lsa, muammoning mohiyati aniq aks etadi.

---

[1] Al –Forobiy. Fozil odamlar shahri. -T.: SHarq, 1999 –B.93-94.

Savol, masala insonni ijodga rag'batlantiradi, toki unga qoniqarli javob olinib, haqiqatning tagiga yetilganiga ishonch paydobo'lmagunicha insonni izlanishga da'vat etadi. Bunda savolning o'zi, muammoning qo'yilishi javobdan kam ahamiyat kasb etmaydi, ba'zan undan ham muhimroq deb qaraladi.

SHuni ham qayd etib o'tish lozimki, falsafa, garchi muayyan natijalarga, mukammal ta'riflarga, uzil-kesil xulosalarga intilsa-da, lekin shuning o'zi bilan kifoyalanmaydi. Falsafani avvalo inson madaniyati sohasida yuz berayotgan, turli qarama-qarshiliklar va o'zaro ta'sirlar bilan uzviy bog'liq va ayni vaqtda o'zga sohalarga o'tish va ularda gavdalanish qobiliyatiga ega bo'lgan ma'naviy jarayon sifatida tushunish lozim.

Bundan xulosa shuki, *falsafiy mushohada yuritish savol berish, shubha qilish, javoblar izlash va kuni kecha yechilgan deb hisoblangan, shak-shubhasiz bo'lib tuyulgan masalalarga qaytish demakdir*. Falsafa uchun «boqiy», uzil-kesil aniqlangan haqiqatlar, «noqulay», «ilmoqli» savollar yoki man etilgan mavzular mavjud emas. *Falsafa savollar berish, narsalar va hodisalar mohiyatini anglashga urinish orqali bilish doirasini kengaytirishga harakat qiladi.*

Xullas, *falsafa haqiqat qanday bo'lsa, uni shunday ifodalab ko'rsatishdir, din esa –uning ramziy, timsoliy aks etishi. Falsafa asos va mohiyat bo'lsa, din timsol va shakl*. Dialektik munozara usuli jamiyatning kam sonli ayonlari uchun kerak. Vahiy yo'lidagi ifoda – xalq ommasining idroki, tarbiya va ta'limi uchun kerak.

Fan- ilmiy dunqarash shakli. Bilimlarning o'sishiga qarab har xil muammolar va masalalar soni ham tinimsiz ko'payib bordi. Bu jarayon fanning rivojlanish sur'ati yanada jadallashuviga va u falsafadan yanada ko'proq ajralishiga sabab bo'ldi. Biroq fan bilimning mustaqil sohasi, dunyoqarashning alohida shakli sifatida faqat XVII-XVIII asrlarda to'la shakllandi. Muayyan darajada shartlilik bilan shuni aytish mumkinki, bu I.Nyuton klassik mexanikaning asosiy qonunlarini ta'riflab, shu tariqa tabiatshunoslikning bo'limi – asoslari asrlar mobaynida shakllangan, bosh tamoyillari esa bundan yuz yilcha muqaddam, avvalo Galileo Galiley tomonidan ta'riflangan klassik mexanikaning shakllanishiga yakun yasaganidan keyin yuz berdi.

Fanning funktsiyalari va taraqqiyotining asosiy bosqichlari. *Miloddan avvalgi I ming yillikdan XVI asrgacha bo'lgan davr ilk fan davridir*. Bu davrda asrlar mobaynida avloddan-avlodga o'tib kelgan, hayot tajribasi va mehnat faoliyati jarayonida olingan amaliy bilimlar bilan bir qatorda juda umumiy va mavhum mushohadalarga asoslangan nazariyalar xususiyatiga ega bo'lgan tabiat haqidagi dastlabki falsafiy tasavvurlar (naturfalsafa) vujudga kela boshlagan. Ilmiy bilim kurtaklari naturfalsafa doirasida uning elementlari sifatida shakllangan. Matematik, astronomik, tibbiy va boshqa masalalarni yechishda foydalaniladigan ma'lumotlar, usullar va metodlar jamlanishi bilan falsafada tegishli bo'limlar vujudga kelgan va keyinchalik asta-sekin shakllanayotgan ayrim fanlar: matematika, astronomiya, tibbiyot va hokazolarga ajralib chiqgan.

Jumladan, Aristotelning falsafiy asarlarida fizika, zoologiya, embriologiya, mineralogiya, geografiya kabi fanlarning kurtaklariga duch kelish mumkin. Miloddan avvalgi III-II asrlarda falsafiy bilim tarkibida statistik mexanika, gidrostatika, geometrik o'tika (xususan, ko'zgular haqidagi alohida fan – «ka-to'trika») farqlanadi va nisbatan mustaqil ahamiyat kasb etadi. Markaziy Osiyo mutafakkirlari al-Xorazmiy matematika, al-Farg'oniy astranomiya, al-Beruniy meneralogiya va geografiya, Ibn Sino tibbiyot, Mirzo Ulug'bek astranomiya, Alisher Navoiy adabiyot ilmi rivojiga munosib hissa qo'shdi va ular ijodi mahsullari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Biroq bu fanlarda ayrim tasodifiy kuzatishlar va amaliyot ma'lumotlari umumlashtiriladi-yu, lekin eks'erimental metodlar hali qo'llanilmaydi, aksariyat nazariy qoidalar esa asossiz va tekshirib bo'lmaydigan s'ekulyatsiyalar mahsuli hisoblanadi. Ammo ko'rib chiqilayotgan davrda vujudga kelgan ilmiy fanlar bu davr mobaynida falsafiy bilim qismlari sifatida talqin qilinishda davom etgan.

SHu narsa diqqatga sazovorki, hatto XVII asr oxirida Nyuton o'zining fizika asoslarini yaratgan «Natural falsafaning matematik asoslari» deb nomlangan asarini e'lon qilgan.

SHunday qilib, falsafadan alohida faoliyat sohasi sifatidagi fan hali mavjud bo'lmagan: u asosan falsafa doirasida, ilmiy bilimlarning boshqa manbai – hayot amaliyoti va hunarmandchilik san'ati bilan bir vaqtda va u bilan juda zaif aloqada rivojlangan.

Xullas, bu davrda Qadimgi Yunonistonda "Platon akademiyasi", Markaziy Osiyoda "Ma'mun akademiyasi" tashkil etilgan, ilmiy bilim rivojida muayyan yutuqlarga erishilgan bo'lsada, madaniyatning alohida shakli sifatida fan paydobo'lishidan oldingi «embrional» davri hisoblanadi.

2. XVI- XVII asrlar – 1 ilmiy inqilob davri bo'lib, u klassik fan davri deb nomlanadi. U Ko'ernik va Galiley tadqiqotlaridan boshlanib, Nyuton va Leybnitsning fizika va matematika sohasidagi fundamental asarlari bilan o'z cho'qqisiga ko'tarilgan. Galiley vafoti (1642 yil 8 yanvar)dan so'ng oradan bir yil o'tgach Nyuton tug'ilgani (1643 yil 4 yanvar) ramziydir. Fanning bu buyuk ijodkorlari yashagan davr – kashfiyotlar hamda yangi ilmiy g'oyalarning mualliflari sxolastika va diniy dunyoqarash dogmatizmiga qarshi kurash olib borgan romantik davrdir.

Bu davrda hozirgi vaqt tabiatshunosligining asoslari yaratilgan va mexanika qonuniga asos solingan. Hunarmandlar, tabiblar, alximiklar tomonidan qo'lga kiritilgan ayrim dalillar tizimli tahlil qilinib, umumlashtirila boshlagan. Ilmiy bilim tuzishning tabiat qonunlarini matematik ta'riflash, nazariyalarni tajribada sinash, tajribada asoslanmagan diniy va naturfalsafiy dogmalarga tanqidiy qarash bilan bog'liq bo'lgan yangi me'yorlari va ideallari vujudga kelgan. Fan o'z metodologiyasini yaratgan va amaliy faoliyat ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lgan masalalarni yechishga tobora faolroq yo'naltirilgan.

Biroq fan o'zining yangi metodologiyasini yaratib, amaliyot ruhi bilan sug'orilgani sari u o'z tarixiy ildizi – falsafa qirg'oqlaridan uzoqlasha boshlaydi. Ko'rib chiqilayotgan davr oxiriga kelib u falsafiy, diniy, teologik aqidalardan qat'iy nazar rivojlanishi mumkin bo'lgan bilimlar tizimi sifatida tushunila boshlaydi. Natijada fan faoliyatning alohida, mustaqil sohasiga aylanadi. 'rofessional olimlar paydo bo'ladi , ularni tayyorlash amalga

oshiriluvchi universitet ta’limi tizimi rivojlanadi. O’z faoliyati, muloqot va axborot ayirboshlashning alohida shakllari va qoidalariga ega bo’lgan ilmiy hamjamiyat vujud keladi.

XVII asrda dastlabki ilmiy akademiyalar: London qirollik jamiyati (1660), Parij Fanlar akademiyasi (1666) tashkil to’adi. Keyinroq Berlinda (1700), Sankt-Peterburgda (1724), Stokgolmda (1739) va Yevropaning boshqa poytaxt shaharlarida ilmiy akademiyalar ta’sis etiladi. Bu akademiyalarning eng yirigi - London qirollik jamiyati bo’lib, u tashkil etilgan paytda 55 a’zodan iborat bo’lgan. Parij Fanlar akademiyasi 21 kishidan iborat tarkibda ish boshlagan. Sankt-Peterburg akademiyasining a’zolar shtatida dastlab 11 kishi belgilangan. Yevropa mamlakatlarida XVIII asr boshiga kelib olimlar soni bir necha ming kishiga yetgan bo’lsa kerak, chunki ilmiy jurnallarning (bu davrda bir necha o’n ilmiy jurnallar nashr etilgan) tirajlari ming nusxagacha borgan.

3. *XVIII-XIX asrlar fani noklassik fan davri deb ataladi*. Bu davrda ko’plab ayrim ilmiy fanlar vujudga keladi, ularda ulkan faktik material to’planadi va tizimga solinadi. Matematika, fizika, kimyo, geologiya, biologiya, psixologiya va boshqa fanlarda fundamental nazariyalar yaratiladi. Termodinamika qonuni yaratildi. Texnika fanlari vujudga keladi va moddiy ishlab chiqarishda yanada sezilarliroq rol o’ynay boshlaydi. Fanning ijtimoiy roli ortadi, uning rivojlanishi o’sha davr mutafakkirlari tomonidan ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili sifatida e’tirof etiladi.

XVIII asrning o’rtalarida jahonda fan bilan shug’ullanuvchi kishilar 10 ming kishidan oshmagan bo’lsa, XIX asr oxiriga kelib olimlar soni 100 ming kishiga yetadi. XVI asrda «olimlar»ning yarmidan ko’prog’i diniy ma’lumot olgan kliriklar edi. XIX asrda fan ijtimoiy mehnatning mustaqil tarmog’iga aylanadi va u bilan universitetlar va institutlarning maxsus fakultetlarini tamomlagan «dunyoviy» professional olimlar shug’ullanadi. 1850 yilda jahonda mingga yaqin ilmiy jurnallar nashr etiladi, 1950 yilga kelib esa ularning soni 10 mingdan oshadi. 1825 yilda nemis kimyogari YU.Libix ilmiy laboratoriya tashkil qiladi va u olimga ko’p miqdorda daromad keltira boshlaydi. XIX asr oxiriga kelib bunday laboratoriyalar soni ko’payadi. Fan tijoratchilar, tadbirkorlar e’tiborini o’ziga tobora ko’proq torta boshlaydi. Ular olimlarning ishlab chiqarish, sanoat ahamiyatiga molik bo’lgan ishlarini mablag’ bilan ta’minlay boshlaydilar.

4. *XX asrdan fan rivojlanishida yangi bosqich boshlanadi. Bu davr fani postnoklassik deb ataladi,* chunki mazkur asr bo’sag’asida fanda inqilob yuz beradi va buning natijasida u oldingi davrning klassik fanidan sezilarli darajada farq qila boshlaydi. XIX-XX asrlar chegarasida amalga oshirilgan inqilobiy kashfiyotlar bir qancha fanlarning asoslarini larzaga soladi. Matematikada to’plamlar nazariyasi va matematik tafakkurning mantiqiy asoslari tanqidiy tahlil qilinadi, bir qancha yangi fanlar vujudga keladi. Fizikada klassik fizikaning falsafiy asoslarini qayta ko’rishga majbur qilgan fundamental nazariyalar – nisbiylik nazariyasi va kvant mexanikasi yaratiladi. Biologiyada genetika rivojlanadi. Tibbiyot, psixologiya hamda inson haqidagi boshqa fanlarda yangi fundamental nazariyalar paydo bo’ladi. Ilmiy bilimning shakl-shamoyilida, fan metodologiyasida, ilmiy faoliyatning shakl va mazmunida, uning me’yorlari va ideallarida olamshumul o’zgarishlar yuz beradi.

XX asrning ikkinchi yarmi fanni yangi inqilobiy o’zgarishlarga olib keladi. Bu o’zgarishlar adabiyotlarda ko’pincha fan-texnika inqilobi sifatida tavsiflanadi. Bu o’zgarishlar shu bilan bog’liqki, Ikkinchi jahon urushidan keyin iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda fan yutuqlari ilgari misli ko’rilmagan miqyosda amaliyotga – sanoat, qishloq xo’jaligi, sog’liqni saqlash, kundalik hayotga joriy etiladi. Fan energetikada (atom elektrostantsiyalari), transportda (avtomobilsozlik, aviatsiya), elektronikada (televidenie, telefoniya, kom’yuterlar) ayniqsa ulkan o’zgarishlar yasaydi. Fanning rivojlanishi eng yangi harbiy texnikani yaratishning asosiy omiliga aylanadi va «ikki lager»ning urushdan keyingi qarama-qarshiligi sharoitida avj olgan qurollanish ‘oygasi yirik davlatlarni ilmiy-texnikaviy tadqiqotlarga ulkan mablag’larni sarflashga majbur qiladi.

XX asrning so’nggi o’n yilliklarida fan texnika taraqqiyoti *axborot (kom’yuter) inqilobi* bosqichiga qadam qo’ydi. Bu bosqichning o’ziga xos xususiyati shundaki, axborot jamiyat rivojlanishining muhim resurslaridan biriga aylandi. SHu tariqa fan bilan bog’liq yuksak texnologiyalar, ular bilan mushtarak ta’lim endilikda har qanday jamiyatning tsivilizatsion rivojlanish darajasini belgilamoqda. Ilmiy kashfiyotlar va ularning amalga tatbiq etilishi o’rtasidagi masofa mumkin qadar qisqaradi. Ilgari fan yutuqlaridan amalda foydalanish usullarini to’ish uchun 50-100 yil vaqt sarflangan bo’lsa, endilikda bunga 2-3 yilda yoki hatto bundan ham qisqaroq vaqt ichida muvaffaq bo’linmoqda.

Davlat ham, xususiy firmalar ham fan rivojlanishining istiqbolli yo’nalishlarini qo’llab-quvvatlashga katta xarajatlar qilishi tabiiy bir hol bo’lib qoldi. Natijada XX asrning ikkinchi yarmi fani jadal sur’atlarda o’sib, ijtimoiy mehnatning muhim tarmoqlaridan biriga aylandi. «Katta fan» davri boshlandi. Ko’p sonli ilmiy muassasalar ishiga son-sanoqsiz odamlar ommasi jalb qilindi. Olim kasbi kam uchraydigan kasb bo’lmay qoldi. Hozirgi vaqtda ilmiy faoliyat o’zlarini qiziqtirgan muammolarni yechishga buning butun xavf-xatarini o’z bo’yniga olib qo’l urgan ayrim mutafakkirlarning mashg’uloti emas, balki buyurtmaga, rejali to’shiriqqa binoan ishlaydigan, uni belgilangan muddatda bajarish va o’z ishi haqida hisobot berishga majbur bo’lgan yirik jamoalarning ishi. Hozirda ilmiy mehnat – industrial mehnatning bir turi. Fan bilan shug’ullanuvchi kishilar hozir «ilmiy xodimlar» deb atalishi bejiz emas.

Fan rivojlanishning yuksak darajasiga erishgan bo’lsa-da, lekin amalda falsafa bilan uzviy bog’liq bo’lib qolmoqda. Ular faol o’zaro ta’sirga kirishib, bir-birining rivojlanishiga samarali ta’sir ko’rsatmoqda. Bu hol shu bilan izohlanadiki, falsafa daliliy materialga, sinovdan o’tgan ilmiy ma’lumotlarga tayanib, o’z mavhum g’oyalarini borliq bilan taqqoslash imkoniyatiga ega, fan esa, dalillarni qayd etish va tavsiflash bilan cheklanmay, yanada asosliroq xulosalar chiqarish imkoniyatini qo’lga kiritadi. XXI asr boshiga kelib jahonda olimlar soni qariyb olti millionga yetdi, taxminan shuncha odam fanga xizmatlar ko’rsatuvchi mehnat bilan band (laborantlar, texniklar, nashriyotlarning xodimlari va h.k.). Yerda qadim vaqtlardan boshlab to XXI asrning boshiga qadar yashagan olimlarning umumiy sonini olsak, ularning o’ndan to’qqiz qismi bizning vaqtdoshlarimiz ekanligi ayon bo’ladi.

Rivojlangan mamlakatlarda ilmiy xodimlar soni mehnatga qobiliyatli aholining qariyb 10% ni tashkil qiladi, fanni ta'minlashga milliy daromadning 5% dan ko'prog'i sarflanadi.

Hozirgi vaqt fani jamiyat, texnika, iqtisodiyot, madaniyat, turmush va kundalik hayotni yo'lga soluvchi qudratli kuchga aylandi. Ayni vaqtda odamlar bugun fanning qudratinigina emas, balki u bilan bog'liq bo'lgan xavflarni ham yaxshi anglaydilar. Hozirgi dunyo o'z yutuqlari va o'zining jo'shqinligi uchun fan oldida mas'uliyatli. Ammo ilmiy haqiqat o'z holicha odamlarning ehtiyojlariga befarq. U be'arvo va rahm-shafqatsiz. Ammo, I. A. Karimov ta'biri bilan aytganda, "kuch – bilim va taffakurda"[2] bo'lsa, bu kuch ortib borgani sari insoniyatga ziyon yetkazmaslik uchun undan yanada ehtiyotkorlik bilan foydalanish zarur.

SHuni tan olish lozimki, hozirgi vaqtda jamiyat ko'p jihatdan fanning ulkan yutuqlari tufayli o'zini o'zi yo'q qilish yoqasiga kelib qoldi. Bu ilmiy taraqqiyotni to'xtatish kerak, degani emas. Ammo ilmiy izlanishni insoniy, axloqiy munosabatga bo'ysundirish va balki uning qaysidir yo'nalishlarini cheklash zarurligi to'g'risidagi masala kun tartibiga qo'yilmoqda. Ilmiy izlanishning inson'arvarlashuvi, uning yo'llari va oqibatlariga axloqiy munosabat – bu davrimizning muhim muammolaridir.

Falsafa va fanning o'zaro mutanosibligi va farqi. Falsafa nafaqat fan, balki ijtimoiy hayotning boshqa, chunonchi: iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, huquqiy, ilmiy jabhalari, san'at va shu kabilar bilan ham uzviy bog'liq. Biz falsafa va fan munosabatlarining genezisi haqida ularning birligi va farqlarini aniqlash maqsadida so'z yuritamiz. Mazkur masalani mufassalroq o'rganishga kirishar ekanmiz, avvalo ko'rsatilgan tushunchalarning asosiy ma'nolari va mazmunlarini aniqlab olamiz.

Fanning mohiyatini tushunishga nisbatan ikki asosiy yondashuv, uning keng va tor talqinlari shakllangan.

Keng (yig'ma) ma'nodagi fan – *bu butun inson faoliyati jabhasi bo'lib, uning vazifasi borliq haqidagi ob'ektiv bilimlarni o'rganish va ilmiy nazariy tizimga solishdan iboratdir*. Bu yerda "fan", "olim" tushunchalari muayyanlashtirilmaydi va umumiy, yig'ma tushunchalar sifatida talqin qilinadi. "Fan" tushunchasi falsafaga tatbiqan ko'pincha ayni shu kontekstda qo'llaniladi, faylasuflar esa olimlar deb ataladiki, bu qisman o'rinlidir.

Muayyan ilmiy fanlar, masalan, fizika, kimyo, biologiya, tarix, matematikani ifodalash uchun «fan» tushunchasiga torroq, binobarin, izchilroq ma'no yuklanadi. Bu yerda fanga aniq ta'rif berilgan, olim esa tor mutaxassis, muayyan bilim ifodachisi hisoblanadi. U shunchaki olim emas, balki doim va albatta yo fizik, yo ximik, yo tarixchi, yo boshqa fan vakilidir. Ayni holda fan muqarrar tarzda tabiat, jamiyat, tafakkurning u yoki bu ob'ekti (hodisasi) haqidagi ilmiy bilimlarning qat'iy tartibga solingan, izchil tizimidan tashkil topadi.

Bunday fanlarning har biri faqat ularning o'zigagina xos bo'lgan maxsus qonunlar va metodlarga, mazkur fan uchun yagona bo'lgan til, kategoriyalar a''arati va hokazolarga ega bo'ladiki, bu yuz bergan jarayonlarni to'g'ri tavsiflash va tushuntirish, hozirgi davrni to'g'ri tushunish va bilimlarning tegishli sohasida albatta yuz beradigan yoki muayyan sharoitda yuz berishi mumkin bo'lgan voqealar yoki jarayonlarni ma'lum darajada aniq bashorat qilish imkonini beradi. U yoki bu fanning mazmuni ham, u erishgan natijalar ham barcha madaniyatlar va xalqlar uchun yagona bo'lib, ayrim olimning yondashuvi, nuqtayi nazari yoki dunyoqarashiga mutlaqo bog'liq emas. Ular mazkur sohada olg'a siljish uchun o'zlashtirish lozim bo'lgan, vaqt va amaliyot sinovidan o'tgan bilimlar yig'indisi sifatida avloddan-avlodga o'tadi.

Falsafada esa qadimda donishmandlik muxlislarining son-sanoqsiz savollariga tajriba yo'li bilan olingan ba'zi bir oqilona javoblar mavjud bo'lgan. Bu javoblarni haqqoniy, ya'ni amaliyot sinovidan o'tgan, kundalik hayotda o'z tasdig'ini to'gan, aniq bilim deb nomlash mumkin. Bunday javoblar masala «yo'ilishi», kun tartibidan chiqarilishiga sabab bo'lgan, boshqacha aytganda, aniq ta'riflangan va boshqa javoblarni istisno etgan.

Bunga juda ko'p misollar keltirish mumkin. Masalan, har qanday uchburchak burchaklarining yig'indisi 180 gradusga tengligi yoki suyuqlikka solingan jismga siqib chiqarilgan suyuqlik og'irligiga teng kuch ta'sir ko'rsatishi aniqlangani zahoti bu masalalar o'zining «ochiq» xususiyatini yo'qotgan, ya'ni ular o'zining boshqa variantlarni istisno etadigan aniq yechimini topgan. Bu mazkur masalalar atrofida har qanday qo'shimcha mushohada yuritish foydasizligi tufayli o'zining har qanday ahamiyatini yo'qotganligini anglatgan. Yechilgan masalalar va muammolar esa aniq, ishonchli bilim darajasiga o'tgan va shu davrdan e'tiboran o'zining falsafiy tusini yo'qotgan. XX asrda taniqli nemis faylasufi K.Yaspers bu muhim qoidani ta'riflar ekan, shak-shubhasiz asoslardan birini har kim e'tirof etgudek bo'lsa, u shu tariqa ilmiy bilishga aylanadi va bundan buyon falsafa hisoblanmaydi, balki bilimning muayyan sohalariga tegishli bo'ladi, deb qayd etdi.

Falsafa va fanning umumiy jihatlari shundaki, ular:

-avvalo aqlga tayanadi va oqilona bilimni yaratishga harakat qiladi;

-o'rganilayotgan ob'ektlar va hodisalarning qonunlari va qonuniyatlarini aniqlashga qarab mo'ljal oladi;

-kategoriyalar apparatini (o'z tilini) yaratadi, o'zlari ilgari surgan qoidalarni asoslaydi, ularga dalil-isbot keltiradi va yaxlit tizimlarni yaratishga harakat qiladi.

Falsafa va fan o'rtasidagi farq shunda namoyon bo'ladiki:

falsafa doim u yoki bu faylasuf nomi bilan bog'lanadi, bunda uning g'oyalari, asarlari o'ziga to'q bo'lishi va ularga boshqa faylasuflar qo'shilishi yoki qo'shilmasligiga bog'liq bo'lmasligi mumkin. Fan esa, mohiyat e'tibori bilan, jamoa mehnati mahsulidir;

---

[2] Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin // Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. –T.: O'zbekiston, 1999. –B.98

-falsafada (muayyan fanlardan farqli o'laroq) yagona til va yagona tizim mavjud emas. Bu yerda fikrlar rang-barangligi me'yor sanaladi. Fanda esa monizm hukm suradi, chunki hech bo'lmasa fanning u yoki bu muayyan sohasidagi asosiy tamoyillar, qonunlar va kategoriyalar tizimi (til)ga nisbatan yondashuvlar birligi albatta mavjud bo'ladi;

-falsafa ilmiy bilimlar va dalillardan keng foydalanadi, biroq uning uzil-kesil xulosalari ishonchli deb hisoblanishi mumkin emas, zero ular asosan faylasuflarning sub'ektiv fikrlari va mulohazalariga asoslanadi. Fan esa mohiyat e'tibori bilan isbotlangan va sinashta bilimlar olishga harakat qiladi, bunda olingan bilimlarni tekshirish yoki rad etish imkoniyatining mavjudligi bu bilimlar haqiqiyligi va ilmiy jihatdan asosliligining muqarrar sharti hisoblanadi;

-falsafiy bilimlarni tajribada sinash mumkin emas (aks holda ular ilmiy bilimlarga aylanadi);

-falsafa aniq 'rognoz bera olmaydi, ya'ni u ishonchli bilimlarni kelajakka tatbiq etishga qodir emas, zero unda bunday bilimlar yo'q. Ayrim faylasuf falsafiy qarashlarning muayyan tizimi yordamida faqat bashorat qilishi mumkin, lekin u olim kabi 'rognoz qilish yoki modellashtirishga qodir emas.

Falsafa fanining predmeti, funktsiyalari. Endi «Falsafa nimani o'rganadi?», degan savolni berishimiz mumkin. *Falsafaning predmeti - insonda bilishga qiziqish uyg'otadigan, mifologiya, din yoki fan javoblaridan qoniqmagan insonning o'ziga ma'lum bilimlar va tajribaga, muayyan e'tiqod, ishonch va intuitsiyaga tayangan holda oqilona asoslangan javoblar berishga harakat qiladigan, savollar tug'diradigan har qanday ob'ektiv va sub'ektiv borliqdir.* Boshqacha aytganda, inson o'z qiziqishi ob'ekti haqida muayyan tasavvur hosil qilish maqsadida savol berishga asos bo'lishi mumkin bo'lgan hamma narsa falsafaning predmet idir. SHu munosabat bilan u yoki bu odamning falsafiy qarashlari haqida va hatto uning falsafasi to'g'risida so'z yuritish mutlaqo o'rinli bo'ladi va bunga biz kundalik hayotda tez-tez duch kelamiz.

Biroq ayni holda bizni fan sifatidagi, ayrim insonning emas, balki butun jamiyatning rivojlanish mahsuliga aylangan ijtimoiy hodisa sifatidagi falsafa qiziqtiradi va ayni shu sababli yuqorida keltirilgan ta'rifda «inson» tushunchasi yig'ma ma'noda qo'llanilgan. Bu yerda shuni ta'kidlab o'tish lozimki, garchi falsafaning predmet iga biz umumiy nuqtayi nazardan ancha keng ta'rif bergan bo'lsak-da, ayrim tarixiy davrlarda odatda u yoki bu sabablarga ko'ra muayyan masalalar doirasi falsafiy tadqiqotlarda birinchi o'ringa chiqadi.

Masalan, qadimgi Yunonistonda kosmotsentrizm ilk falsafiy ta'limotlarning o'ziga xos xususiyati bo'lib, bunda asosiy e'tibor «kosmos», «tabiat»ni anglab etishga qaratilgan. Keyinchalik, qadimgi yunon shahar-'olislari ravnaq to'gan davrda faylasuflar diqqat markazidan ijtimoiy muammolar, axloq, davlat qurilishi masalalari o'rin oldi. Yevropada xristianlikning, SHarqda islom dinining keng qamrovli rivojlanishi, dinga e'tiqodning kuchayishi va davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi natijasida o'rta asrlar falsafasi teotsentrik (yunon. theos – markazdan o'rin olgan xudo) xususiyat kasb etdi, ya'ni Xudo va u yaratgan olam falsafiy qiziqishlarning asosiy predmet iga aylandi. Uyg'onish davrida falsafa san'at (estetika)ga va ko'p jihatdan insonga murojaat qilindi.. yangi davr deb nomlanuvchi XVII-XVIII asrlarda falsafa tobora kuchayib borayotgan fan bilan uzviy bog'landi, natijada falsafiy tadqiqotlarning diqqat markazidan bilish va ilmiy metodlar masalalari o'rin oldi.

XIX asrning ikkinchi yarmida yuz bergan «klassik falsafa» va oqilonalik inqirozi irratsionallik, intuitivlik, ongsizlik muammolarini namoyon etdi, XX asrning birinchi yarmida ular «noklassik falsafa» tahlilining asosiy predmet iga aylandi, bu esa, o'z navbatida, matnlar mantig'i, tili, ularni talqin qilish va sharhlashga alohida qiziqish uyg'onishiga olib keldi. XX asrning so'nggi o'n yilliklarida hozirgi madaniyatdagi inqiroz hodisalarini va yangi axborot texnologiyalarining, shuningdek ommaviy kommunikatsiya vositalarining jadal sur'atlarda rivojlanishi bilan belgilangan muammolarni kun tartibiga qo'ygan 'ostnoklassik falsafa shakllandi. Bu falsafa vakillari «tarixiy rivojlanishning tugallanganligi», barcha ma'nolar va g'oyalar «aytib bo'linganligi» haqida mushohada yuritib, inson o'ziga yog'ilayotgan axborotga ishlov berishga qodir emasligiga e'tiborni qaratar ekan, notizimlilik, Yevropa an'anaviy falsafiy bilimining negizlari, qadriyatlari va chegaralarini o'zgartirish g'oyasini ilgari surdilar.

Nihoyat, XX-XXI asr chegarasida eng yangi falsafada birinchi o'ringa chiqqan va eng muhim mavzular qatoridan o'rin olgan yana bir mavzu globallashuv jarayonlarining mohiyatini va ularning rivojlanish yo'nalishini aniqlashga alohida e'tibor qaratildi. Bu jarayonlar hozirgi vaqtda jamiyat hayotining deyarli barcha jabhalarini qamrab oldi va davrimizning olamshumul muammolarini yuzaga keltirdiki, ularning nazariy va amaliy yechimini to'ish bu muammolarni falsafiy darajada anglab etishni ham nazarda tutadi. Xalqaro miqyosda alohida e'tibor berish va kelishilgan harakatlarni taqozo etuvchi eng muhim muammolar qatoriga ekologiya, demografiya, xavfsizlik, xalqaro jinoyatchilik, energetika resurslari, qashshoqlikka chek qo'yish muammolarini kiritish mumkin.

Ko'rib turganimizdek, falsafaning predmet ini qandaydir bitta, qat'iy cheklangan, muayyan masalalar doirasi bilan bog'lash mumkin emas. U vaqt omiliga va ob'ektiv sabablar to'plamiga qarab, doim u yoki bu muammo yoki ularning muayyan majmui tarzida birinchi o'ringa chiqadi. Ammo bu boshqa mavzular, masalalar va muammolar o'z ahamiyatini yo'qotadi va falsafa chegarasidan chetga chiqadi, uning tahlil predmeti bo'lmay qoladi, degan ma'noni anglatmaydi. Bosh mavzularni ikkinchi, uchinchi yoki undan ham keyingi o'ringa surib qo'yadi, ular muayyan davrda va tegishli sharoitda falsafiy diqqat markazidan o'rin olish yoki falsafiy muammolarning ustuvor yunalishi bo'ylab yuqoriga ko'tarilish uchun o'z vaqtini «kutib», go'yoki 'anada turadi, desak, to'g'riroq bo'ladi. Ayni shu sababli biz falsafa tarixida qiziqishlardagi ustuvorliklarning muttasil o'zgarishini, u yoki bu masala bosh masalaga aylanishi, falsafiy hamjamiyatning asosiy e'tibori ma'lum vaqt mobaynida unga qaratilishini ko'ramiz.

Falsafaning funksiyalari. Falsafa u yoki bu muammolarni hal qilar, qonunlar, muayyan tamoyillarni ta'riflar yoki gipotezalar, g'oyalar va nazariyalarni ilgari surar ekan, ayni vaqtda (ba'zan shu tariqa) har xil funksiyalarni bajaradi. Falsafaning muhim funksiyalaridan dunyoqarashni shakllantirish, bilish, metodologik, integrativ, madaniy,

aksiologik, axloqiy va tarbiyaviy funksiyalarni qayd etish mumkin. Ularning barchasi bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Bu funksiyalarning roli va ahamiyati falsafaning amal qilish sohasi, u hal qilayotgan vazifalar darajasi va xususiyati bilan belgilanadi.

Dunyoqarashni shakllantirish funksiyasi. Falsafaning, dunyoqarashni shakllantirish funksiyasi, insonning dunyoga munosabati, uning o'z-o'zini va o'zini qurshagan borliqni tushunishi, shuningdek turli voqealar, hodisalarni va o'z burchini qanday talqin qilishi avvalo va bevosita uning dunyoqarashiga bog'liq bo'ladi. Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, inson dunyoqarashida e'tiqodlar va bilimlar, tuyg'ular va emotsiyalar, oqilonalik va irratsionallik, tajriba, intuitsiya va hokazolar chambarchas bog'lanadi. Ayni shu sababli falsafasiz dunyoning yaxlit manzarasini yaratish mumkin emas, chunki, «hamma narsaga aralashadigan» falsafagina dunyoqarashning o'zaro bog'lanmagan turli «parchalari»ni birlashtirib, shu tariqa odamlarning butun borliqqa nisbatan umumiy, izchil va mantiqan to'g'ri munosabatini yaratish imkonini beradi. Bunda falsafa ayrim ikir-chikirlar, ahamiyatsiz tafsilotlarni mavhumlashtiradi va umumiy aloqalarga, turli narsalar va hodisalar xossalarining birligiga e'tiborni qaratadi va shu tariqa o'zining bosh funksiyasi – dunyoqarashni shakllantirish funksiyasini bajaradi.

Falsafaning gnoseologik funksiyasi tajribada sinash, tavsiflash yoki shak-shubhasiz inkor etish mumkin bo'lmagan, ya'ni fan ochib berish, tadqiq etish va tahlil qilishga qodir bo'lmagan narsalar va hodisalarni oqilona yo'l bilan tushuntirishga harakat qilishdir. Falsafa u yoki bu mohiyati aniqlanmagan yoki kam o'rganilgan hodisalarni tushuntirishga nisbatan o'z yondashuvlari, nazariyalari va gipotezalarini taklif qilar ekan, ularni bilishga bo'lgan qondirilmagan qiziqish o'rnini ma'lum darajada to'ldiradi, shu tariqa mifologik va diniy fantaziyalarga kamroq o'rin qoldiradi. Falsafa gnoseologiyada hal qiladigan boshqa bir muhim vazifa «Haqiqat nima?», «Uning mezonlari qanday?», degan masalalar bilan bog'liq, zero har qanday bilish jarayoni oxir-oqibatda, u yoki bu tarzda haqiqatning tagiga etishga qarab mo'ljal oladi, bu esa eng muhim masaladir.

Metodologik funksiyasi to'g'risida so'z yuritganda metod tushunchasiga murojaat etish o'rinli bo'ladi. Bu tushuncha yunoncha methodos – yo'l, tadqiqot, tekshirish so'zidan kelib chiqqan bo'lib, *u yoki bu maqsadga erishishning muayyan usulini, shuningdek borliqni nazariy va amaliy o'zlashtirishga qaratilgan usullar yoki amallar majmuini anglatadi*. Boshqacha qilib aytganda, bu faylasuf yoki olim o'zi o'rganayotgan predmet ning tadqiqot yo'lidir. Odatda metodologiya muammolari falsafa doirasida o'rganilgan, biroq ayrim fanlar vujudga kelishi bilan falsafiy (umumiy) metodlar bilan bir qatorda muayyan, ayrim ilmiy metodlar ham rivojlana boshladi. Falsafaning boshqa bir muhim metodologik funksiyasi falsafada ham, ayrim fanlarda ham muhim rol o'ynaydigan har xil kategoriyalarni ishlab chiqishidan iborat. Kezi kelganda yana shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, falsafa o'ta keng tushunchalar, ya'ni kategoriyalar bilan ish ko'rar, ularni ta'riflar ekan, metodologik funksiya bilan bir vaqtda dunyoqarashni shakllantirish funksiyasini ham bajaradi.

Falsafaning integrativ funksiyasi fan bilan chambarchas bog'liq. *Real borliqning yangi va yangi ob'ektlari va hodisalari inson nazariy tadqiqotlari sohasidan o'rin olishi, shuningdek ilgari ma'lum darajada anglab yetilgan narsalar va hodisalarni yanada chuqurroq o'rganishga bo'lgan ehtiyoj ilmiy bilim o'z rivojlanishining dastlabki bosqichlaridayoq tabaqalanishiga turtki beradi.* Buning natijasida ayrim fanlar paydobo'lib, ular nafaqat o'z tadqiqot ob'ekti va predmet ini ajratdi, balki o'zining faqat mazkur fanga xos bo'lgan tili, kagegoriyalar a''arati va hokazolarni yaratdi. Ammo bu yo'lda jiddiy xavf ham mavjud bo'lib, u shundan iboratki, fanlarning ajralishi natijasida ular o'rtasidagi aloqalar susayadi, ular murakkab kompleks vazifalarni yechishda faol o'zaro aloqa qilish qobiliyatini yo'qotadi. Qarama-qarshi jarayon – ilmiy bilimlarning integratsiyalashuvi va u yoki bu muammolarni yechish uchun kuch-g'ayratni birlashtirish jarayoni bu xavfning oldini olish imkonini beradi.

Murakkab kompleks muammolarni tadqiq etuvchi hozirgi vaqt fanida ba'zan ayrim ilmiy fanlarning vakillari boshqa fanlarning vakillarini faqat ular turli tillarda, ya'ni har biri o'z fanining tilida ga'irgani bois tushunmaydi. Bu jihatdan falsafa ular uchun amalda bog'lovchi bo'g'inga, birlashtiruvchi asosga aylanadi, chunki u o'z tahlilida fanlararo muloqotga va mazmuni ayni bir kontekstda turli fanlar tomonidan qabul qilinadigan va qo'llaniladigan fundamental tushunchalarni yaratishga qarab mo'ljal oladi.

Murakkab ob'ektlarni kompleks tadqiq qilishda har bir muayyan fan o'z predmet idan kelib chiqadi. Bu predmet doirasi unga o'rganilayotgan ob'ektni yaxlit ko'rish, uning aloqalarini aniqlash imkonini bermaydi. Bu vazifani hal qilishga ham faqat falsafa qodir bo'lib, u butun vaziyatni yaxlit ko'rish imkonini beradi va bu jihatdan nafaqat fanlar o'rtasida, balki inson faoliyatining ayrim jabhalari, masalan, o'tkazilayotgan tadqiqotlar bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan huquqiy, siyosiy, axloqiy faoliyat o'rtasida ham bog'lovchi bo'g'in hisoblanadi.

Madaniy funksiyasi. Falsafa odamlar dunyoqarashini kengaytirish, ularda bilishga qiziqish uyg'otish, nazariy fikrlash madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish orqali madaniy funksiyani ham bajaradi. U dunyoni o'zlashtirish va bilishning universal shakli sifatida, insoniyatning eng yaxshi yutuqlarini o'zida mujassamlashtiradi va ularni butun insoniyat mulkiga aylantiradi. Turli mamlakatlar va xalqlarning falsafa tarixini o'rganish ularning o'tmishdagi va hozirgi madaniyatini yaxshiroq tushunish imkonini beradi, g'oyalar almashinuvi va madaniy an'analarning o'zaro ta'siriga ko'maklashadiki, bu madaniy meros bilan uzviy bog'liq bo'lgan ko'pgina muammolarni yechishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Aksiologik funksiyasi. Falsafa hayotning ma'nosi, o'lim va umrboqiylik masalalarini kun tartibiga qo'yish, u yoki bu harakat, voqea, hodisaga "yaxshi", "yomon", "muhim", "foydali", "foydasiz" kategoriyalari bilan baho berish orqali– aksiologik (yunon. axia - qadriyat) funksiyani bajaradi. U uzoq muddatli tendentsiyalarni qisqa muddatli tendentsiyalardan farqlash, yuzaki jarayonlarni fundamental jarayonlardan, muhim narsalar va hodisalarni ikkinchi darajali narsalar va hodisalardan ajratish orqali insonning qadriyatlarga munosabati bilan uzviy bog'liq

bo’lgan tegishli ehtiyojlarini shakllantiradi. SHu tariqa insonning muayyan qadriyatlari, mo’ljallari va ustuvorliklari belgilanadi, ya’ni tegishli qadriyatlar tizimi tarkib to’adi. Bu tizim odamlarning muhim xususiyati hisoblanadi, ularning hayotga munosabatini aks ettiradi va jamiyatdagi xulq-atvorini ko’p jihatdan belgilaydi.

Falsafaning axloqiy funksiyasi odamlar xulq-atvori va u yoki bu jamiyatda yuzaga keluvchi munosabatlar bilan bog’liq. Bunda, masalan, axloqiy qadriyatlar, ularning tabiati, asoslari va jamiyatdagi amaliy roli falsafaning tadqiqot predmeti hisoblanadiki, bu jamiyatda yuzaga keladigan va tabiiy yo’l bilan, ya’ni real hayot amaliyotida o’rnatiladigan me’yorlar va qoidalarga sezilarli darajada ta’sir ko’rsatadi. Bunday me’yorlar ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi muhim dastak hisoblanadi va odamlarning o’zaro aloqalari, ularning munosabatlari va o’zaro til to’ish darajasida namoyon bo’ladi. Xulosa qilib aytish mumkinki, falsafa doimo axloqda, jamiyatning barcha a’zolari xulq-atvorida namoyon bo’ladi va shu tariqa yana bir muhim funksiya – axloqiy funksiyani bajaradi.

Falsafaning tarbiyaviy funksiyasi haqida fikr yuritilganda bu masalaning xalqaro darajadagi keng va har tomonlama muhokamasi natijalarini hisobga olgan holda so’z yuritish o’rinli bo’ladi. Bugungi kunda nafaqat ayrim xalqlar, balki butun jahon hamjamiyati o’z-o’zini anglab etishga yo’naltirilgan falsafaga muhtojdir. Buni 2002 yildan Yunesko qaroriga binoan, butun dunyoda har yili noyabr oyining uchinchi ‘ayshanbasida o’tkaziladigan “Jahon falsafa kunlari” ham, hozirgi kunda dunyo uchun eng muhim masalalarga e’tiborini qaratadigan Jahon falsafa Kongresslari ham tasdiqlaydi. Darhaqiqat bunday kongress birinchi marta 1900 yilda Fransiyada o’tkazilgan, 1948 yildan boshlab uni har besh yilda bir marta o’tkazish an’anaga aylangan. Xususan, 1998 yilda Boston shahrida (AQSH) bo’lib o’tgan XX jahon falsafa kongressi “‘aydeyya: insoniyatni tarbiyalashda falsafa” mavzusiga bag’ishlangan bo’lsa, Turkiyaning Anqara shahrida o’tkazilgan XXI Jahon falsafa kongressida “Falsafa jahon muammolari bilan yuzma-yuz” mavzusi atroflicha muhokama qilindi. XXII jahon falsafa kongressi birinchi marta Osiyo mamlakati bo’lmish Koreya Respublikasining Seul shahrida “Hozirgi davrda falsafani qayta anglash” degan umumiy mavzu ostida bo’lib o’tdi. Kongresslarning mavzularidan ko’rinib turganidek, falsafa real hayot bilan uzviy bog’liq va eng muhim muammolarni anglab etishga xizmat qilib keldi. SHunday muammolardan biri – insonni shaxs sifatida tarbiyalash va kamol to’tirishda falsafaning roli va ahamiyati masalasidir. Buning uchun esa, albatta, qadimgi davr mutafakkirlarining asarlariga yana bir bor murojaat etish taqozo etiladi.

Qadimgi mutafakkirlar har tomonlama ta’lim va tarbiyani, ya’ni o’z qobiliyatlari va imkoniyatlarini ro’yobga chiqarishga qodir bo’lgan jismoniy va ma’naviy jihatdan komil insonni voyaga yetkazishni «paydeyya» (yunon. pais – bola) atamasi bilan ifodalaganlar. O’sha vaqtlarda paydeyya aristokratiyaning o’ziga xos belgisi hisoblangan; endilikda faylasuflar ta’lim va tarbiya muammolarini yana birinchi o’ringa qo’yib, ularni hal qilishda falsafaning rolini aniqlashga harakat qilar ekanlar, bu tushunchani yana esga oldilar. Xususan, Boston kongressidagi asosiy ma’ruzalarning mualliflaridan biri frantsuz faylasufi Per Obenk: «Insonning vahshiyona tabiatidan ma’rifatli tabiatga o’tish imkoniyati qay darajada mavjud?», degan savolni o’rtaga tashlaydi. Uning fikricha, insonning yagona tabiati ikki ma’noli bo’lib, faqat ma’rifat (Paydeyya) odamzodni so’zning to’liq ma’nosidagi insonga aylantiradi yoki, Platon ta’biri bilan aytganda, Paydeyya uning ko’zini ochadi.

Hozirgi davrda milliy falsafani rivojlantirish muammolari, uning xalqaro aloqalarni tashkil etishdagi ahamiyati. Bugungi kunda, tezliklar va yuksak texnologiyalar asrida falsafa kerakmi, u eskirgani yo’qmi? Uzluksiz axborot oqimi va surunkali vaqt tanqisligi sharoitida muayyan bilim falsafani siqib chiqarmaydimi? Bunday savollar mutlaqo o’rinlidir, lekin ularga javobni hayotning o’zi beradi, u hozirgi vaqt odami oldiga ko’p sonli, shu jumladan ilgari hech qachon mavjud bo’lmagan, butunlay yangi falsafiy muammolarni qo’yadi.

Jahon hamjamiyati III ming yillikning boshlanishini, biosfera holati va Yerda hayotning davom etishi uchun o’z javobgarligini tobora teranroq anglagan holda qarshi oldi. Ayni shu sababli insonning barkamol rivojlanishi, odamlar, xalqlar o’rtasida, shuningdek jamiyat va tabiat o’rtasida insoniy, yaxshi qo’shnichilik munosabatlarini o’rnatish masalalari azaliy falsafiy mavzular bilan bir qatorda falsafiy tadqiqotlarda birinchi o’ringa chiqmoqda. SHu munosabat bilan faylasuflar avvalo Yyer yuzida ta’limning holati va rivojlanish darajasidan qattiq tashvishda ekanliklarini bildirmoqdalar. Ko’pgina faylasuflar fikriga ko’ra, hozirgi muammolarning aksariyati zamirida aynan qoniqarsiz ta’lim va lozim darajadagi tarbiyaning yo’qligi yotadi. Bu muammolarni yechishda falsafa ham o’z rolini o’ynashi lozim.

Falsafa dunyoni anglash usuli sifatida. Bugungi kunda nafaqat ayrim xalqlar, balki butun jahon hamjamiyati falsafaga, o’zining hayotdagi o’rni va vazifasini falsafiy anglab etishga ayniqsa muhtojdir.

Falsafa real hayot bilan uzviy bog’liq va doim inson borlig’ining eng muhim muammolarini anglab etishga qarab mo’ljal oladi. Ayni shu sababli hozirgi davrning muhim muammosi – globallashuv va uni falsafadagi butunlay yangi mavzu sifatida falsafiy anglab etish muhim ahamiyatga ega. Falsafa predmeti va muammolarini muhokama qilishda alohida diqqatga loyiq bo’lgan boshqa bir mavzu insonni shaxs sifatida tarbiyalash va kamol to’tirishda falsafaning roli va ahamiyatidir.

Hozirgi vaqt faylasuflari bunday muammolarni yechish ustida ishni davom ettirar ekanlar, “Falsafa nima? U kimga va nima uchun kerak?”, “Falsafaning vazifasi nimadan iborat?”, “Falsafadan qanday, qaysi yoshdan va nima maqsadda tahsil berish lozim?” qabilidagi bir qarashda allaqachon o’z yechimini to’gan masalalarni yana kun tartibiga qo’ymoqdalar. Bu haqda ko’p va atroflicha so’z yuritilgan jahon kongresslari dunyoda falsafa predmet iga, shuningdek u ijtimoiy rivojlanishga izchil ta’sir ko’rsatishga qodir yoki qodir emasligiga, agar qodir bo’lsa, buni u qay tarzda amalga oshirishi mumkinligiga nisbatan yagona yondashuv avvalgidek mavjud emasligini tasdiqlaydi. Fikrlarning bunday rang-barangligi, yuqorida qayd etib o’tilganidek, falsafaning o’ziga xos xususiyati, ya’ni u fikrlar plyuralizmi, har xil fikrlash imkoniyati bor joydagina mavjud bo’lishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Falsafaning unga yaxlit ta’limotga aylanish va tilning birligiga, umumiy qonunlar va metodologiyaga tayanish imkonini bermaydigan bu kamchiligi ayni vaqtda, u fanlararo kompleks muammolarni yechish talab etiladigan murakkab tizimlar bilan ish ko’rgan holda uning afzalligiga aylanadi.

Quyidagilar hozirgi vaqtda insoniyat uchun eng muhim fanlararo kompleks muammolar hisoblanadi: barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash; ekologiya muammolari; jamiyat hayoti barcha jabhalarining globallashuvi. Bu muammolarni falsafiy nuqtayi nazardan anglab etish alohida ahamiyat kasb etadi. Ilmiy yondashuvlardan farqli o’laroq, muammoga nisbatan falsafiy yondashish dalillarni talqin qilishda ko’proq erkinlik berilishi, ilgari surilayotgan qoidalarni isbotlashga nisbatan yengilroq talablar qo’yilishi, mushohadaga asoslangan ta’riflar berish, sub’ektiv baholash huquqi va shu kabilar bilan tavsiflanadi. Bunday tadqiqotlar bir qarashda uncha katta ahamiyatga ega emasdek bo’lib tuyulishi ham mumkin. Lekin amalda bunday emas.

Birinchidan, falsafiy tadqiqot oqilona bilishning fanda olingan natijalarni tekshirish (verifikatsiya qilish) yoki rad etish (falsifikatsiya qilish) imkoniyati yo’qligi tufayli lozim darajada samara bermagan yoki umuman ojiz bo’lib chiqqan sohasida amalga oshiriladi. Insoniyat oqilona bilishning bundan boshqa usullariga ega emas.

Ikkinchidan, falsafiy refleksiya muammoni ko’rish ufqini kengaytiradi, uni tadqiq etishga nisbatan yangicha, o’ziga xos yondashuvlarni taklif qiladi, shu jumladan fanga bunday yondashuvlarni ilgari surishga ko’maklashadi. Zero, aniq ta’riflar va ishonchli dalillarga tayanadigan fan o’z fikrlari va xulosalarida bunday erkinliklarga yo’l qo’ya olmaydi. Vaholanki, falsafiy tafakkur mulohaza yuritish va baholashlarga nisbatan erkin yondashuvsiz o’zining betakrorligini yo’qotadi.

Hamonki plyuralizm falsafada me’yor hisoblanar, har bir alohida miyada esa monizmga, ya’ni qarashlarning tartibga solingan, yaxlit va nisbatan ziddiyatlardan xoli tizimiga kelish lozim ekan, falsafani qanday o’zlashtirish, undan qanday saboq berish mumkin?

Butun dunyoda aksariyat faylasuflarni birinchi navbatda ayni shu masala qiziqtiradi. Xususan Suqrot, Seneka va o’tmishning boshqa mutafakkirlari tajribasiga tayangan holda: *Falsafa faktlarni eslab qolishni o’rgatmasligi, balki mulohaza yuritish va savollarga javob berish qobiliyatini rivojlantirishi lozim. Falsafadan saboqlar inson har bir masala yuzasidan mutafakkirlar fikriga murojaat etmasdan, o’zi mustaqil o’ylashni va o’z aqliga quloq solishni o’rganishini nazarda tutmog’i darkor. Ayni shu sababli falsafaning vazifasi insonga muloqot qilishni o’rgatish, u o’z shaxsiyatining ahamiyatini ko’rsatishga emas, balki haqiqatning tagiga etishga harakat qilishiga erishishdan iborat. Bu, o’z navbatida, barcha odamlar o’ziga atrofdagilar quloq solishiga loyiq ekanligini nazarda tutadi.*

Bu juda to’ib aytilgan so’zlar falsafani fan sifatida o’rganish, uni bilimlar, tayyor qoidalar va ta’riflarning muayyan yig’indisi sifatida o’zlashtirish mumkin emas, degan fikrni yana bir karra tasdiqlaydi. *Insonga ta’lim berishda ‘aydeyya yo’lini tanlash – unga «nimani ko’rish lozimligi»ni emas, balki «qaerga va qanday qarash kerakligi»ni o’rgatish lozim.* O’z-o’zidan ravshanki, mazkur vazifani ijodiy yondashuvsiz, o’quvchi va o’qituvchining qiziquvchanligi va intiluvchanligisiz hal qilib bo’lmaydi, falsafa esa o’zining sof ko’rinishida yo’qoladi, «havoga sovuriladi», pirovard da kimdir bayon etadigan, kimdir “o’tishi”, o’rganishi va qolaversa, imtihon to’shirishi lozim bo’lgan “fan”gina qoladi. Boshqacha aytganda, falsafadan ta’lim berish va uni o’zlashtirish zamirida ham, albatta ijod yotishi lozim.

2-mavzu: Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari: Sharq falsafasi

Reja:

1. Qadimgi Sharq falsafasining vujudga kelishi va xususiyatlari.
2. Qadimgi Hindiston, Xitoy va Markaziy Osiyoda falsafiy qarashlar.
3. O'rta asr Sharq falsafasi rivojlanishining umumiy belgilar.
4. O'rta asr Sharq falsafasi. Markaziy Osiyo falsafasi.

Qadimgi Sharqda asotiriy tasavvurlar va falsafiy bilimlarning paydo bo’lishi. Sharq qadimiy madaniya o`chog`i va jahon sivilizatsiyasining beshigi deya bejiz ta`riflanmagan. G`arb madaniyati tarixini o`rganishjarayonida Ovrupasentrizm nazariyasi og`ib ketish g`ayriilmiy bo`lgani kabi, masalaning Sharq bilan bog`lik jihatinin tahlil etganda ham Osiyosentrizm g`oyalari ta`siriga tushmaslik lozim.

Shu bilan birga, Sharqninng o`ziga xosligi, unga mansub bo`lgan madaniy taraqqiyot jahon sivilizatsiyasining beshigi, dunyo xalqlari rivojiga qo`shilgan munosib hissa ekani ham sir emas. Bu hol jahonning barcha xolis mutaxassis olimlari tomonidan e`tirof etiladi. Qolaversa, Vatanimiz sivilizatsiyasining Sharq sivilizatsiyasi quchog`ida voyaga yetgani va uning qadriyatlarini o`zida aks ettirganini, unga va butun dunyo madaniyatiga ulkan ta`sir ko`rsatganini doimo esda tutish darkor.

Sharq madaniyati taraqqiyotining ilk davrlari deganda, ko`pgina mutaxassislar bizninng Vatanimiz o`tmishini, Misr, Bobil va insoniyat tarixining eng qadimgi sivilizatsiyalaridan biri bo`lgan Shumer davrlarini esga oladi. Bularning har biri insoniyat tarixida jamiyat hayoti, qadriyatlar tizimining o`ziga xosligi, boshqarish va iqtisodiy jarayonlarning muayyan tarzda namoyon bo`lishi bilan tavsiflanadi. Ushbu madaniyat o`choqlari haqida maktab ta`limi jarayonida «Eng qadigi tarix» darsliklari orqali ma`lumot berilgan. Zukko talabalar o`sha davrlarda qanday siyosiy jarayonlar kechgani, qanday podsholik va imperiyalar bo`lganini yaxshi biladi. Qadimgi SHarq falsafasi insoniyatning ilm, fan, m’naviy taraqqiyotining debochasi hisoblanadi. Ularning rivojlanishi, o’ziga xosligi va betakrorligidan qat’iy nazar, ayrim umumiy qonuniyatlarga ega.

Birinchidan, falsafiy tafakkur SHarqda ijtimoiy ongning dastlabki shakli sifatidagi mifologiya negizida vujudga kelgan. Mifologiya inson o'zini atrof muhitdan ajratishga va hodisalarni tabiiy sabablarga muvofiq tushuntirishga qodir emasligi bilan tavsiflanadi. Inson dunyoni va undagi barcha hodisalarni xudolar va qahramonlar harakati bilan tushuntiradi. Ammo mifologiyada insoniyat tarixida ilk bor bir qancha falsafiy masalalar ham qo'yiladi: dunyo qanday vujudga kelgan va u qanday rivojlanadi; hayot va o'lim nima va h.k.

Ikkinchidan, SHarq falsafasi sinfiy jamiyat va davlat paydo bo'lishi bilan ijtimoiy ong shakli sifatida vujudga kelgan. Masalan, qadimgi **Hindistonda falsafaning vujudga kelishi** taxminan uning hududida quldorlik davlatlari shakllana boshlagan miloddan avvalgi I ming yillikda yuz bergan. **Xitoyda falsafa** jamiyatning sinfiy tabaqalanish jarayoni boshlangan, chunonchi: jamoalar kasodga uchrab, yangi yer mulkdorlari va shahar boylarining iqtisodiy va siyosiy qudrati osha boshlagan miloddan avvalgi VI-V asrlarda vujudga kelgan.

Misr va Bobil falsafiy maktablari. Eramizdan avvalgi turtinchi ming yillikning oxiri va uchinchi ming yillik boshlarida qadimgi Misr va Bobil hududida dastlabki diniy-falsafiy fikrlar, olam haqidagi fanlar, ya`ni astronomiya, kosmologiya, matematika, mifologiyaga oid qarashlar birmuncha rivoj to'gan. Tabiy-ilmiy, diniy-falsafiy fikrlarning yuzaga kelishi ikki yo'nalishda borgan. Birinchi yo`nalish olam haqidagi tasavvurlarning astronomiya, kosmologiya, riyoziyot fanlari rivoji bilan bog`liqekanini, ikkinchi yo`nalish esa, bu tasavvurlarning mifologiya bilan bog`liq bo`lganini ko`rsatadi.

Birinchi holda, asosan, tabiy bilimlarga tayanilgan, kundalik hayotda duch kelinadigan voqea hodisalar aniq dalillar asosida tahlil etilgan, o`rganilgan, ulardan tegishli xulosalar chiqarilgan. Bu - o`sha davr uchun tabiiy hol edi, ya`ni u - davrning inson ongida aks etishi, kundalik turmush hodisalarining oddiy bir tarzda mfodalanishi edi. Aynan ana shu hol tabiiy bilimlar rivojiga, garchand sodda tarzda bo`lsa-da aksariyat hodisalarning falsafiy asosda izohlanishiga sabab bo'lgan.

Ikkinchi holatda esa, hali tabiat kuchlarining qarshisida nihoyatda ojiz bo`lgan odamzod, albatta, tevarak atrofdagi voqea-hodisalarni mifologik izohlashi tabiiy bir hol edi. Shu bilan birga, odamning mavjudlik xossalarini va olam qonuniyatlarini ilmiy tushunish ko`nikmasi hali shakllanib ulgurmagan o`sha qadim zamonlarda, afsona hamda rivoyatlarga asoslanib fikr yuritmaslikning imkoni ham yo`q edi. Bu - o`sha davrlardan qolgan yozma manbalarda, xususan, «Xo'jayinning o`z quli bilan hayotining mazmuni haqida suhbati», «Arfist qo`shig`i», «O'z hayotidan hafsalasi pir bo`lgan kishining o`z joni bilan suhbati» kabi bitiklari yaqqol namayon bo`lgan. Ularda hayotning, umrning mazmuni, o`sha davrdagi odamlarga xos tuyg`ular bayon qilingan.

Qadimgi Hindistonda falsafiy maktablar. Qadimgi Hindiston ham insoniyat madaniyatining beshiklaridan biridir. Unga xos dastlabki ta`limotlar yozma manba - «Veda»larda o`z aksini to'gan. «Veda»lar eramizdan bir yarim ming yil oldin yozilgan bo`lib, mutaassib dindor hindu uchun oliy muqaddas ilm va bashorat kitobidir. Hindular «Veda»ni oliy tangri Braxma tomonidan aytilgan so`zlar deb biladi. «Veda»da hindularning qadimgi tarixi, iqtisodiyoti, dini, falsafasi, axloq va nafosatiga oid fikrlari aks etgan.

«Veda»lar bizgacha to`rtta to``lam (samxitlar) shaklida etib kelgan. Bular «Rigveda», «Samaveda», «Yajurveda», «Adxarvaveda»dir.

Hind falsafasi asoslari «Upanishadalar» nomi bilan mashhur bo`lgan manbalarda ham o`z aksini topgan. «Upanishadalar» sirli bilim degan ma`noni anglatib. «Veda»larning falsafiy qismini tashkil etadi. «Upanishadalar» yaxlit kitob eki falsafiy risola bo`lmay, balki turli vaqtda turli mavzuda ijod etgan noma`lum mualliflarning matnlaridan iboratdir. Ularning mazmuni va uslubi har xil va turlicha falsafiy qarashlar mahsulidir.

Qadimgi hind falsafiy maktablar ikki guruhga bo`linadi. Hindistonlik faylasuflar bu guruhlarni astika va nastika deb ataydi. Vedanta, sank`ya, yoga, vaysheshika, n`yaya va mimansa - astika guruhiga kiruvchi falsafiy maktablar. Ushbu maktablarning tarafdorlari «Veda»ning muqaddasligini tan olib, birdan-bir haqiqat undagina ifodalangan, deyishadi. Chorvaka-lokayata, buddizm va jaynizm - nastika guruhiga kiradi.

Chorvaka-loyata, tarafdorlari materialistik ta`limotni ilgari surganlari uchun «Veda»ning muqaddasligini tan olishmaydi hamda olam ilohiy kuch tomonidan yaratilmagan, «Veda» haqiqiy bilim bermaydi, deb ta`kidlashadi. Buddizm va Jaynizm diniy-falsafiy maktablar bo`lishiga qaramay, ular ham «Veda»ning muqaddasligini tan olmagan. Sankx`ya qadimgi Hindistondagi dualistik falsafiy maktab bo`lib, olam asosida modiy unsur (prakriti) modda va ruh (purusha) etadi, deb hisoblaydi. Bu yo`nalishga, asosan, olamdagi barcha narsalar ikki unsurning turli teng miqdorda (proportsiyada) birikishidan yuzaga keladi, olam sababiyat orqali rivojlanadi, olamda uchta sabab mavjud, deyiladi. Ular quyidagilardir: moddiy sabab, yaratuvchi sabab aloqador bo`lmagan sabab.

«Upanishada»da deyarli har qanday hodisa harakat va qarama-qarshilik nuqtayi nazaridan qaraladi. Braxman ikki qiyofa: jismoniy va jismsiz, o'ladigan va o'lmas, harakatsiz va harakatchan ko'rinishlarga ega. «Upanishada»da Atman – bu ham tana, ham individual jon. Braxman va atman bir-biri bilan o'zaro bog'liq «Hamma narsa Braxman, Braxman esa atmandir», deyiladi. Atman o'zgaruvchan, uning turli holatlari mavjud: uyg'oqlik; tushli uyqu; tushsiz uyqu; turiya (atman hech narsani his qilmaydigan, o'z-o'ziga teng bo'ladigan holat).

Markaziy Osiyoda "Avesto" ta'limotidagi falsafiy fikrlar. Eramizdan avvalgi X asrdan eramizning VII asrlarigacha bo`lgan davr mahsuli bo`lgan diniy-falsafiy ta`limotlardan biri zardo`shtlikdir.

Bu ta`limotga Zardo`sht asos solgan bo`lib, Sharq va G`arbda Zaratushtra, Zaroastr nomlari bilan mashhurdir. Manbalarga ko`ra, Zardo`sht, eramizdan avvalgi VI asrning birinchi yarmida yashagan. Lekin

uning tarixiy yoki afsonoviy shaxs ekanli haqida aniq bir to`xtamga kelingan yo`q. U o`zini payg`ambar deb e`lon qilgan. Lekin uning payg`ambarligi ilohiy asosga ega. Ya`ni bu haqiqat ilohiy kitoblarda o`z tasdig`ini to'magan.

Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko`rsatmoqdaki, bu ta`limot Vatanimiz hududida, xususan, Xorazm zaminida paydo bo`lgan. U o`z davrida xalqni ezgulik va adolat g`oyalariga da`vat etish, hayotbaxsh an`analarni shakllantirish, dehqonchilik va shahar madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo`lgan, uning g`oyalari bilan bog`liq qadriyatlar bugungi kungacha yashab kelmoqda va xalqimiz turmush tarzining o`ziga xos xususiyatlarini belgilashda ulkan qimmat kasb etmoqda.

Zardushtiylikning bosh kitobi «Avesto»dir. Unda qadimgi xalqlarning dunyo to`g`risidagi tasavvurlari, o`ziga xos qadriyat va urf-odatlari aks etgan. Unda olamning azaliy qarama-qarshi kuchlari-yaxshilik va yomonlik, yorug`lik va zulmat, issiqlik va sovuqliq, hayot va o`lim borasidagi qarashlar o`z ifodasini topgan. «Avesto»da, shuningdek, tabiat falsafasi, tarix, etika, tibbiyotga oid ma`lumotlar ham berilgan.

Falsafa tarixida makedoniyalik Aleksandr (eski o`zbek tilida Iskandar deyilgan) istilosi va Grek Baqtriya davri falsafasi ham xalqimizning taraqqiyot tarixida muhim o`rin tutgan. Manbalarda Aleksandr qo`shini mahalliy xalqlarning qattiq qarshiligiga uchragani, u «Avesto»ning ko`pgina qismini yondirib yuborgani haqida ma`lumotlar bor. Bugungi kungacha ham ayirim tarixchilar Aleksandr «Avesto»ning tilini bilmagani, uni o`qiy olmagani sababli bu kitobning qadr-qimmatini tushunmagan va uni eqish to`g`risida ko`rsatma bergan, degan fikrlarni baen etadilar. Aslida unday emas. Bu - tarixiy haqiqatni, garchand u kimlar uchundir achchiq va kimlar uchundir ibratli bo`lsa-da haspo`shlashga urinishdan boshqa narsa emas. Negaki, Aleksandr o`z zamonida fanlarning otasi nom olgan falsafani fan darajasiga ko`targan, buyuk donishmand sifatida etti iqlimda tan olingan Arastudan 20 yil mobaynida muttasil ta`lim olgan edi. Binoborin, Shoh Filippning o`g`li Aleksandrni savodsiz, kitobning qadrini tushunmaydigan bir kimsa deb ta`riflash tarix haqiqatiga to`g`ri kelmaydi. Qadimgi manba “Avesto”da ko’rsatilgani kabi “qanday qilib yaxshi fikrlash, yaxshi so’zlash va yaxshi ish ko’rish mumkin”, degan savolga javob to’ishga harakat qiladi. Bu noyob mevalardan bahramand bo’lish uchun inson falsafiy donishmandlikni o’zlashtirishi lozim: u dunyo va uni anglab etish, inson va tabiat, inson hayotining mazmuni va boshqa shunga o’xshash muammolarda mo’ljal ola bilishi kerak.

Zardo’sht ta’limotida “Axriman” va “Axuramazda” yaxshilik va yomonlikning abadiy kurashi va bunda yaxshilikning g’alabasini ifodalaydi. Zardo’shtiylik falsafasiga ko’ra, yaxshilik va yomonlik kishilarning botinida-ichki dunyosida yashaydi. Inson Axriman yoki Axuramazda tarafida bo’lishi mumkin, chunki Ezgulik farishtasi uni hamisha yaxshilik qilishga, lekin yovuz Axriman uni yomonlik qilishga undaydi va bu tortishuv inson hayotining oxirigacha davom etadi.

“Avesto”da esa insonning haq-huquqlari, burch va mas’uliyati haqida fikr bildirilgan. Jumladan, agar odam olgan qarzini o’z vaqtida qaytarib bermasa, u tunda birovning uyiga o’g’irlikka kirgan odam bilan barobardir. SHuningdek unda qarindoshlarning o’zaro oila qurishi taqiqlangan, avlodlarning sog’lom, benuqson tug’ilishiga e’tibor qaratilgan. Bordi-yu erkak zurriyot qoldirishga qobiliyati bo’lib, so’qqa bosh bo’lib yursa, uning ‘eshonasiga tamg’a bosish yoki beliga zanjir bog’lab yurishga majbur ekanligi belgilangan.

SHarq falsafasida qonun muammosiga ham ko’p e’tibor beriladi. Ayrim faylasuflar uni rad etgan, ayrimlar esa unga tayangan. Xalq va podsho muammosi ham SHarq falsafasining muhim muammolaridan biri hisoblanadi**.** Jumladan, “Avesto” da huquqiy masalalar: jinoyat va jazo, oila va nikoh, mulk bilan bog’liq masalalarni tartibga soluvchi qoidalar o’z ifodasini to’gan. Oilaviy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan qoidalarda er xotinning bir-biriga xiyonati yoki nikohsiz er-xotinlik munosabatlarida bo’lgan kishilar tan jazosini olgan. “Venidat” (Devlarga qarshi kurash qonuni) ning 13, 14 boblarida suvni tejash, uni qadrlash, undan unumli foydalanish haqidagi qoidalar bitilgan. Unda har kuni ekinni ikki marta sug’orish mumkinligi, har bir kunda ekuvchi bir belkurak kenglik va chuqurlikdagi ariqqa sig’adigan suv olishga haqli ekanligi, suvni taqsimlash bilan kohinlar shug’ullanishi, suvni ifloslantirishni taqiqlovchi qoidalar belgilagan. Bu qoidalarni buzganlarga nisbatan majburiy mehnatga jalb qilish jazosi belgilangan[3]**.**

Konfutsiy va Lao Szi ta’limoti. Qadimgi Xitoyda fan va madaniyat o`ziga xos shaklda rivojlangan. Eramizdan avvalgi ikki minginchi yilning o`rtalariga kelib, Yuan-in davlatida muayyan xo`jalik shakli yuzaga kelgan. Eramizdan avvalgi XII asrda esa, urushlar natijasida davlat Chjou qabilasining qo`liga o`tgan. Bu hokimiyat eramizdan avalgi III asrgacha davom etgan. Bu vaqtda diniy mifologik dunyoqarash hukmronlik qilgan. U olam va tabiatning paydo bo`lishini o`ziga xos tarzda tushuntirgan va dunyoviy bilimlar rivojiga o`z ta`sirini o`tkazgan.

Bunday ruhdagi falsafiy g`oyalar ayniqsa qadimgi Xitoy donishmandi Konfutsiy (551-479) ijodida yaqqol aks etgan. Uning «Hikmatlari», ya`ni aforizmlari juda mashhur. Konfutsiy ta`limotida umuminsoniy qadriyatlarning xitoy xalqi turmush tarzida o`ziga xos tarzda namoyon bo`lishi, bu xalqqa xos ma`naviy mezonlar aks etgan. Bu ta`limot bir necha asrlar davomida ushbu hududda milliy g`oyalar majmui, millatning mafkurasi sifatida odamlarning ma`naviy ongi va qiyofasi shakllanishiga ta`sir ko`rsatgan. U hozirgi Xitoyda ham o`zining muayyan ahamiyatini saqlab qolgan.

Konfutsiy fikricha, olamni osmon boshqaradi. Osmon irodasi - taqdirdir. Biz yashab turgan olam, undagi tartib osmon hukmdori tomonidan yuborilgan. Jamiyat hayotidagi tartibga qattiq amal qilish talab etiladi. Tartib, Konfutsiy nuqtayi nazariga ko`ra, ilohiy mazmunga ega va uning mohiyatini «Li» tushunchasi belgilaydi, u, ya`ni tartib dunyoning mohiyatini aks ettiradi. Binobarin, jamiyatdagi barcha harakatlar unga

[3] Qarang: Sulaymonova F. SHarq va G’arb. -T.: O’zbekiston, 1997. –B.25-26.

binoan amalga oshishi lozim.

Konfutsiyning qarashlari keyinchalik jahon falsafasida axloqiy tamoyillar rivojida, adolat, birodarlik, erkinlik g`oyalari takomilida muhim o`rin tutgan. Bu ta`limot Xitoyda ikki ming yil davomida davlat dini darajasiga ko`tarilgan va xalq hayotida muhim ahamiyat kasb etgan.

Qadimgi Xitoyning ko`zga ko`ringan faylasuflaridan biri Lao-Tszidir (VI-V asrlar). Uning ta`limotiga ko`ra, olam, jamiyat va inson hayoti Dao qonuniga bo`ysunmog`i lozim. Daosizm ta`limoti ana shu tariqa shakllangan. Dao qonuni - tabiatningyashash qonunidir, undagi rang-baranglik kurashi va uyg`unligi abadiyligining e`tirof etilishidr. Bu qonunga ko`ra, olamning asosini tashkil etuvchi «Tsi», ya`ni beshta unsur - olov, suv, havo, yer va yog`och yoki metall olamdagi barcha jismlar asosini tashkil etadi hamda ularning yuzaga kelishini ta`minlaydi.

Islom dinining vujudga kelishi va falsafiy ta'limoti. Movarounnahr arablar tomonidan zabt etilishi arafasida Turk xoqonligi tizimiga kirar edi. U mayda amirliklardan iborat bo`lib, ular o`rtasida tinimsiz to`qnashuvlar ro`y berib turar edi. Ayniqsa, Turk xoqonligi bilan sosniylar Eroni o`rtasidagi to`qnashuvlar o`ta shiddatli tusda yuz berar edi. XII asrning oxiri va XIII asrning boshlarida bu xudud arab xalifaligi tomonidan bosib olindi. Bunga Movarounnahr hududida yashovchi xalqlar, ijtimoiy kuchlar orasida siyosiy hamjihatlikning yo`qligi, o`zaro qirg`in-barotlarning avj olishi sabab bo`ldi.

Movarounnahrga arablar bosqini bilan birga islom dini ham kirib keldi. Islom so`zi arabcha o`zini to'shirish, itoat, bo`ysunish, tinchlik kabima`nolarini anglatadi. Islom dini bayrog`i ostida keng hududda arab qabilalari birlashgan, mavjud tarqoqlikka chek qo`yilgan, yagona markazlashgan arab xalifaligi tashkil to'gan.

Qur`on va hadislarda islomiy ta`limotning asosi bayon qilingan. Qur`on - muqaddas kitob. Unda islom qoidalari, iymon-e`tiqod talablari, huquqiy va axloqiy meyorlar o`z ifodasini to'gan. U 114 sura va ular tarkibidagi oyatlardan tashkil to'gan.

«Sunna» esa hadislar majmui bo`lib, Qur`ondan keyinturadi va uni to`ldiradi. Unda Muhammad payg`ambarning so`zlari, xatti-harakatlari naqllar va hadis shaklida jamlangan.

Qur`on va sunnadan keyingi muhim manba - shariatdir. Shariat (to`g`ri yo`l, ilohiy yo`l demakdir) - islomda huquqiy, axlog`iy meyor va amaliy talablar tizimidir. Islomdagi asosiy yo`nalishlar - sunniylik, shialik va xorijiylik. Ular diniy ta`limot, marosimchilik, axloqiy-huquqiy meyorga oid masalalarda o`zaro faqrlanib turadi. Abu Mansur Moturidiy kalom ilmining aql maqomiga alohida e`tibor qaratgan Samarqandda Moturidiya maktabini yaratgan. Mu`taziliylar (ajralib chiqqanlar) yakka xudolikning adolatli ekanini, Qur`onning tangri tomonidan yaratilganligini, iroda erkinligini eqlab chiqqan. Uning asoschisi Vosil ibn Atodir . Uning oxirgi vakillaridan biri Zamahshariydir.

Kalom islom ilohietining o`ziga xos falsafiy ta`limotidir. U diniy aqidalarni asoslab berishga uringan. U Qur`onga tayanib, jannat va do`zaxning azaliy ekanligini, insonda iroda erkinligining yo`qligini, lekin insonning Olloh oldida o`z qilmishlari uchun mas`ul ekanligini asoslab berishga harakat qilgan.

Bunday ma`naviy jarayonlar bilan yonma-yon islomda mashshoiyunlar va tabbiiyunlarning (Arastu falsafasi va tabiatni o`rganishga ahd qilganlarning) falsafiy qarashlari shakllana borgan. Bu islomiy ma`naviyatning dunyoviy va diniy masalalarda, jahon falsafiy tafakkurida ro`y berayotgan jarayonlarga nisbatan tashabbuskor bir kuch ekanini ko`rsatib turibdi.

Ilk o'rta asr SHarq falsafasi va uyg'onish davri. Markaziy Osiyo – sivilizatsiyaning qadimgi o'choqlaridan biri. VIII-IX asrlarda Markaziy Osiyo arab xalifaligi tarkibiga kirgan. Bu davrda xalifalik markazlari – Bag'dod va Damashqda madaniyat va fan ravnaq to'di.

Xalifalar al-Mansur (754-776), Horun ar-Rashid (786-809), Ma'mun (813-833) hukmronligi davrida hind va yunon adabiyotlarining tarjimalariga qiziqish ayniqsa kuchaydi, Aristotel, Galen, Gippokrat, Arximed, Yevklid kabi yunon faylasuflarining ilmiy merosi o'rganildi. IX asr boshida Bag'dodda «Dor ul hikmat» - «Bilim uyi» tashkil etildi. Bu dargohda xalifalikning turli shaharlaridan taklif qilingan olimlar astronomiya, tibbiyot, tarix, geografiya, kimyo, falsafa va boshqa fanlarni sinchiklab o'rgandilar.

SHarq panteizmi va peripatetizmi SHarq mutafakkirlari (Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino)ning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy ta'limotlari. IX asrlar boshlangan arab istilosiga qarshi kurash mustaqil davlat qurish va xalifalikka qaramlikdan xalos bo'lish uchun kurashga aylandi. Natijada Markaziy Osiyo mo'g'ullar istilosini boshdan kechirdi va unga qarshi kurash jarayonida XIII asr boshlarida bir necha davlatlar – Tohiriylar, Somoniylar, Saljuqiylar va G'aznaviylar davlatlari paydo bo'lib, ular keyinchalik tor-mor qilindi.

IX asr boshlarida dastlab Somoniylar davlati vujudga kelgan bo'lsa, XIII asrning 20-yillarida Xorazmiylar davlati mo'g'ullarning uzluksiz hujumi ostida qoldi. Biroq, ko'p asrlik urushlarga qaramay, Markaziy Osiyoda madaniyat, fan, san'at va adabiyot rivojlanishda davom etdi.

Bu davrda al-Xorazmiy, Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, va boshqa buyuk allomalar yashab ijod qildilar. Ular yaratgan asarlar ahamiyatiga ko'ra o'sha davrni Markaziy Osiyo uyg'onish davri deb nomlash mumkin. Uyg'onish davri fani va madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Barcha odamlarni ma'rifatli qilishga intilish, bu yo'lda o'tmish merosidan va qo'shni mamlakatlarning fan, madaniyat yutuqlaridan foydalanish, tabiiy-falsafiy va ijtimoiy fanlarni rivojlantirish;

2. Tabiatni o'rganish, tabiiy-ilmiy bilimlarni oqilonalikka tayanib rivojlantirish, aqlning kuchiga ishonish, asosiy e'tiborni haqiqatni bilishga qaratish, haqiqatni inson bilimining negizi deb bilish;

3. Insonga xos tabiiy, badiiy, ma’naviy fazilatlarni yuksaltirish, insonparvarlikni ulug’lash, barkamol avlodni tarbiyalashda oliy ma’naviy qonunlarga rioya qilish;

4. Universalizm – borliq va ijtimoiy hayotning barcha muammolariga qiziqish, bu davr madaniyatining muhim jihatlaridir.

Bu davr madaniyati umuminsoniy qadriyatlarning rivojlanishiga xizmat qilgan. Savdo-sotiqning rivojlanishi, iqtisodiy aloqalarning kengayishi, xalifalikning turli viloyatlari o’rtasida madaniy qadriyatlar almashinuvi va uning boshqa mamlakatlar bilan aloqalarining kuchayishi, tabiiy va madaniy boyliklar, turli xalqlarning an’analari, tili va tarixini o’rganish bilishning eng to’g’ri yo’llari va usullarini yaratish, bilish jarayonining butun a’’aratini takomillashtirishga bo’lgan ehtiyojni kuchaytirdi. Fanning o’tika, matematika, astronomiya kabi tarmoqlarining jadal rivojlanishi tabiatni chuqur o’rganish va tadqiqot metodlarini kengaytirishga imkoniyat yaratdi.

O’rta asrlarda SHarq falsafasi mifologiya va din qo’ynidagina emas, balki fan qo’ynida ham rivojlanadi. SHarq olimlari matematika, astronomiya, geografiya, tibbiyot, tarix, alximiya sohasida qo’lga kiritgan yutuqlar ma’lum. Odatda tabib, munajjim, sayyoh bo’lgan SHarq faylasuflari asbtrakt mulohazalardan ko’ra ko’proq tabiatshunoslik va tajribaga tayanganlar. SHarq falsafiy tafakkurining yirik namoyandalari orasida Markaziy Osiyolik mashhur faylasuf, qomuschi-olim, yaqin va O’rta SHarqda aristotelizm asoschilaridan biri Forobiy, buyuk faylasuf va tabib Ibn Sino (Avitsenna), atoqli astronom, matematik, shoir va mutafakkir Umar Xayyom, tabib va faylasuf Ibn Rushd (Averroes) bor.

Abu Nasr Muhammad ibn Tarxon al Forobiy (870-950, asarlari: Kitob-ul xuruf, Fozil odamlar shahri, Ehsoul ulum, Siyosat falsafasi, Fuqarolik siyosati) falsafa va tabiiy fanlar tarixiga oid yuzga yaqin asar muallifidir. U fanlar bilish vositalari ekanligidan kelib chiqqan. Bunda mutafakkir nazariy (mantiq, falsafa, tabiiy fanlar) va amaliy (axloq, siyosat) fanlarni farqlagan. Fanlar tizimida u insonga haqiqiy bilimni soxta bilimdan farqlash imkonini beruvchi mantiqni birinchi o’ringa qo’ygan. Ayni shu sababli faylasuf inson tafakkuriga alohida e’tibor bergan. Aynan falsafa insonga borliqning mohiyatini tushunish imkonini beradi. Borliq «yagona» va ayni vaqtda «ko’p»dir. Borliqning mazkur holati emanatsiya, ya’ni «yagona» muhitdan borliqning turli muhitlari kelib chiqishi mahsulidir. Forobiy asarlarida dunyo bir-biriga kiruvchi to’qqiz gumbaz ko’rinishida namoyon bo’ladi. Bu gumbazlarda ularning Yer atrofida aylanishi sababi hisoblangan jonlar yashaydi. Gumbazlar o’z harakatini dastlabki turtkidan boshlagan. Forobiy dunyoning rang-barangligini tushuntirish uchun Aristotelning shakl va materiya haqidagi ta’limotidan foydalangan. U jonning umrboqiyligi haqidagi masalada Platon fikriga qo’shilmagan, chunki uning paydobo’lishi va o’limi tananing paydobo’lishi va o’limi bilan bir vaqtda yuz beradi, deb hisoblagan. Ayni shu sababli Forobiy ijodida bilish nazariyasi Platondagi kabi xotirlash nazariyasi emas, balki dunyoni sezgi va aql birligi sifatida anglab etish nazariyasidir. Bunda aqlli jon narsalar tabiatini sezgilar idrokidan foydalanib anglab yetadi. Narsalarning mohiyati aql bilan anglab yetiladi. Bunda aql avvalo mantiqqa tayanishi, lekin sezgi a’zolari beruvchi materialdan foydalanishi lozim.

Forobiy borliqning birinchi sababi va harakat manbai sifatida Xudo mavjud deb hisoblagan bo’lsa-da, uning falsafasi bilish va borliqning murakkab masalalarini yechishga intilish bilan tavsiflanadi. Ayni shu sababli faylasuf borliqning holatlarini, uning shakllarini: oddiy elementlar – havo, olov, yer, suvni; shuningdek minerallar, o’simliklar, hayvonlar, inson va osmon jismlarini sinchiklab o’rganadi. SHu tariqa u tashqi dunyoning ob’ektiv mavjudligiga urg’u beradi. Forobiyning falsafiy qarashlari SHarq falsafasining rivojlanishiga kuchli ta’sir ko’rsatdi.

Forobiyning gnoseologiyasi tabiatshunoslik, matematika, musiqa, tilshunoslik va boshqa fanlar sohasidagi bilimlarga asoslanadi. U tabiat insondan tashqarida va unga bog’liq bo’lmagan holda mavjuddir, deb hisoblaydi. Farobiy fikricha, ob’ekt sub’ektga qadar mavjud bo’lgan. Seziladigan narsalar sezgilardan oldin paydo bo’lganidek, bilish mumkin bo’lgan narsalar ham bilishdan oldin paydo bo’lgan[4].

Forobiy fikricha, inson bilimlarni tashqi dunyodagi hodisalarni bilish jarayonida o’zlashtiradi. Bu jarayon sezish, idrok etish, xotira, tasavvur qilish va eng muhimi – mantiqiy mulohaza yuritish, tafakkur kabi usullarni qamrab oladi. Bu vositalar yordamida inson fanni o’rganadi. Forobiy «Fan va san’atning o’ziga xos xususiyatlari» asarida tabiatni bilishning uzluksizligini, bilish – bu bilishdan bilimga, sababni bilishdan oqibatni bilishga, hodisani bilishdan mohiyatni bilishga eltuvchi yo’l ekanligini qayd etadi.

Forobiy fikricha, inson paydobo’lganidan so’ng avvalo «oziqlantiruvchi kuch» paydo bo’ladi , uning yordamida oziqlanish jarayoni yuz beradi. So’ngra sezgi organlari paydo bo’ladi , ular insonga sezish, tasavvur qilish qobiliyat va xotirani beradi. SHundan keyingina inson «orzu kuchi» yordamida bilim va hunarlarni o’zlashtiradi, foydali narsalarni foydasiz narsalardan farqlaydi, o’z xulq-atvorini tartibga soladi. Forobiy insonning barcha kuchlari ma’lum sezgi organlari bilan moddiy sabab orqali bog’lanadi, bu kuchlarning birortasi ham moddiy sababsiz mavjud bo’la olmaydi[5], deb hisoblaydi.

Forobiy inson ruhining bir tanadan boshqa tanaga o’tishini qat’iyan rad etadi va ruh ham, tana kabi substantsiyalarning individual birligidan iborat, deb hisoblaydi. Uning bu fikri noizchil bo’lgan. Bunday noizchillik Aristotelning bilish nazariyasida ham kuzatiladi.

Aristotelga ergashib Forobiy ham ayrim narsalar birlamchi, mavjud tushunchalar va g’oyalar – ikkilamchidir va ular aqlda muayyan narsalarning mavhumlashishi natijasida paydo bo’ladi, deb hisoblaydi. Forobiyning bu

---

[4] Qarang: Фароби. Комментарии к категориям Аристотеля // Избранные произведения мислителей стран Ближнего и Среднего Востока. – М., 1961. – 191-b.

[5] Qarang: Фароби. Фусус ал-Хикам. Мажему ал-Фараби. 1997. – 150-152-b

g’oyalari universaliyalar va umumiy tushunchalar haqidagi qarashlarida yanada aniqroq namoyon bo’ladi. Universaliyalar mavjud bo’lgani uchun ham umumiy tushunchalar mavjuddir, deb hisoblaydi[6] buyuk mutafakkir.

Bilish bosqichlari o’rtasidagi farqlarni tushunish Forobiyga bilish yo’llari to’g’risida mulohaza yuritish imkonini beradi. Bilishning fiziklar foydalanuvchi birinchi yo’li sezishdan boshlanishi lozim, chunki tana sezgiga yaqinroqdir. Bu hol sezgilar muayyan narsalarni aks ettirishi bilan izohlanadi. Narsalar sezgi organlarida aks etgach, jismni va uning yuzasi, chiziqlari va nuqtalarini mavxum o’rganishga o’tishi lozim. Matematiklar jismning u yoki bu jihatlarini teranroq bilish uchun foydalanuvchi bilishning ikkinchi yo’li mavhumlashtirishdan boshlanishi darkor. Bilishni mavhum nuqtadan boshlagan aql muayyan jism bo’ylab harakatlana boshlaydi, mavhum chiziq, yuza, jismni anglaydi va so’ngra muayyan jismni tushunib yetadi.

Ilmiy bilim va falsafiy tafakkurning rivojlanishi bilish yo’llariga boshqacha nazar tashlash imkonini beradi, biroq Forobiy ilgari surgan g’oya Gegel falsafasida o’zining yanada barkamolroq ifodasini to’adi. «Vazifa bilishdan iborat bo’lgani tufayli, kuzatish bilan taqqoslash haqidagi masala undan voz kechish ma’nosida yechilgandir. Endilikda masala faqat bilish doirasida nima birinchi bo’lishi va undan keyin nimalar anglab yetilishi lozimligi haqida bo’lishi mumkin. Endi tabiatga muvofiq yo’l emas, balki bilishga muvofiq yo’l talab etiladi. Bilish fikrning muayyan mazmunidan ko’ra, mavhum mazmunini anglab etishi osonroqdir»[7]. Binobarin, bilish masalasi borliqning qaysi jihati biluvchi sub’ektning ob’ekti hisoblanishidan kelib chiqib hal qilinadi. Umuman, Forobiy g’oyalari nafaqat SHarq fanining, balki G’arb ijtimoiy-falsafiy tafakkurining rivojida ham muhim rol o’ynadi.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048 yillar, asarlari: “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Hindiston”, “Minerologiya”), tabiat va uning ob’ektiv qonunlari mavjudligiga shubha qilmagan. U tabiat muttasil o’zgarish va rivojlanishda bo’ladi, materiya narsalar shaklini o’zi yaratadi va o’zgartiradi, jon (tafakkur, ma’naviy hodisalar) tananing muhim xossasidir, deb ta’kidlagan.

Ma’lumki, tajriba, eksperiment borliqni bilish usullaridan biri hisoblanadi. Beruniy shunday deb yozadi: «Mendagi ishtibohni faqat tajriba va takroriy sinov bartaraf etishi mumkin, ...so’zlovchilarning yakdilligiga qaramay, buning haqiqiyligi tajribada o’z tasdig’ini to’magan»[8].

Tadqiqotchilar fikriga ko’ra, «Beruniyni yetarli asos bilan o’rta asr fanida empirik metod yaratuvchilaridan biri deb hisoblash mumkin. U metallar va minerallarning xossalari va solishtirma og’irligini aniqlash bo’yicha bir qancha tajribalar o’tkazdi»[9]. Tajribada olingan bilimni mutafakkir ayrim me’yorlarga muvofiq ishonchli bilim deb talqin qiladi. Ularning orasida ob’ektlarning kuzatuvchanligi, tajribalarning qayta o’tkaziluvchanligi va kuzatishlarning tekshiriluvchanligini qayd etish mumkin.

Bu mulohazalar tajriba, bilim olish va uning haqiqiyligini tekshirish metodi sifatida, o’rta asr sharoitida ham ancha keng tarqalgan, deb aytish imkonini beradi.

G’oya ilgari surilgani va ishonchli bilimning olinishi tajriba bilan bog’lanishi, bilimning haqiqiyligi tajribada sinalishi muhimdir.

Beruniyning ijodida kuzatish muhim o’rin egallaydi. Tabiatni ilmiy o’rganishda kuzatish bilishning boshqa shakllari bilan o’zaro bog’langan.

Beruniy fikricha, kuzatuvchi kuzatilayotgan hodisani u yuz berayotgan joyda idrok etadi[10]. Binobarin, kuzatish u yoki bu hodisani uning muayyan ko’rinishida qayd etadi[11]. Kuzatishlarning eski ma’lumotlari ob’ektning haqiqiy ko’rsatkichini ancha buzib ifodalashi mumkin.

Beruniy tadqiqotchi o’tkazgan tajriba va uning natijasi amalda ishonchli ekanligini qayd etadi. U «Sinovdan boshqa ustuvor dastur, tajribada tekshirishdan o’zga muvaffaqiyatga eltadigan dasturilamal yo’q»[12], deb yozadi.

Beruniy astronomik kuzatishlar vositasida Oy va Quyoshning tutilishi, ularning Yerdagi hayotga ta’siri, iqlim, tabiiy va sun’iy tanlanish, saqlanish, rivojlanish anomaliyasi kabi murakkab muammolarni yangi ilg’or metod va nazariy tamoyillar yordamida yechishga harakat qildi.

Beruniy SHarqda astronomiya kuzatish asboblarini yaratish texnikasining vujudga kelishi va rivojlanishi tarixida ham yetakchi o’rinlardan birini egallaydi. U o’sha davrda ilmiy izlanishlar olib borishda foydalanilgan eski asboblarni takomillashtirish va yangilarini yaratishga alohida e’tibor bergan. Olimni o’ta aniqligi va mukammalligi bilan ajralib turuvchi kuzatish asboblarini yaratish imkoniyati masalasi qiziqtirgan.

SHunday qilib, samo jismlarining holatlarini nafaqat asboblar vositasida, balki o’rganilayotgan ob’ekt xususiyatiga muvofiq amalga oshirishni allomaning ulkan xizmatlaridan biri deb hisoblash mumkin. Bunday metodologik mo’ljal, ilmiy tadqiqotlar jabhasi cheklanganligiga qaramay, ilmiy bilishning yangi yo’llari va vositalarini to’ish borasidagi izlanishlarda muhim rol o’ynadi.

---

[6] Farabi. Kitab al-Xuruf. – Dushanbe: Ilm, 1972. – 25-b

[7] O’sha manba, –B. 36

[8] Абу Райхон ал-Бируни. Избранние произведения в 6 т. -Т. 3. –Т.: 1963. –S. 44.

[9] Хайруллаев М. Философское наследие народов Средней Азии и борба идеи.- Фаргона, 1988.- С.39.

[10] Қаранг: Абу Райхон Беруни. Избранние произведения. В 6-т. Т. 3. – Т.: 1963. – 57-б.

[11] Абу Райхон Беруни. Избранние произведения. в 6-т. Т. 3. – Т.: 1963. – В.260.

[12] O’sha manba, -B. 340.

Abu Ali ibn Sino (980-1037). O'rta Osiyoning mashhur qomusiy allomasi va faylasufidir. Buxorolik Ibn Sino (Avitsenna) 300 dan ortiq asar muallifidir. Ularning orasida «Tib qonunlari» va «Bilim kitobi»,"Donishnoma", "Xay ibn yakzon"ayniqsa keng dovruq qozongan.

Ibn Sino merosining tahlili uning ilmiy qiziqishlari doirasi benihoyat keng, u tom ma'noda qomusiy bilimlar egasi bo'lganidan dalolat beradi. Ibn Sino fanlarning ularni tadqiqot ob'ektlariga ko'ra ajratishga asoslangan tasnifini taklif qilgan.

Ibn Sino tabiat azaliy va abadiydir, uning qonunlari o'z-o'zidan o'zgarmaydi va inson ularni anglab etishga qodir, jon tana faoliyati bilan belgilanadi va uning individual umrboqiyligi mumkin emas, degan fikrni ilgari surgan.

O'sha davrda u shug'ullanmagan fanning o'zi bo'lmagan. Tibbiyot bilan bir qatorda, Ibn Sino falsafa, xususan bilish nazariyasini ham faol tadqiq etgan.

Ibn Sino moddiy dunyo predmet larini sezgilar manbai deb hisoblab, ularning ob'ektiv tabiatini tashqi moddiy dunyo in'ikosi sifatida yoritadi. Bundan tashqari, u sezgini materiyaning xossalaridan biri deb e'tirof etadi. Alloma sezgini materiyaning oliy shakllari bilan bog'laydi. Ibn Sino mavjud narsalarni tasniflar ekan, sezgi hayvonlar deb ataluvchi jismlarga xosligini qayd etadi[13].

Ibn Sino neoplatoniklarning jon hissiy narsalarni tananing biron-bir a'zosisiz idrok etadi, degan ta'limotini asossiz deb hisoblaydi. «Qadimda ayrim olimlar (neoplatoniklar) jon hissiy idrok etiluvchi narsalarni hech qanday organlarsiz bevosita sezadi, deb faraz qilganlar. Muhitga kelsak, bu, masalan, ko'rish uchun muhit bo'lib xizmat qiluvchi havo, organlarga kelsak, bu, ko'rish organi bo'lib xizmat qiluvchi ko'zdir. Biroq ular haqiqatdan uzoqdir, chunki hissiy idrok etish jonning o'zida bu organlarsiz yuz berganida, mazkur organlar behuda yaratilgan bo'lib chiqar, ulardan hech qanday naf bo'lmas edi», deb yozadi va so'zining davomida neoplatoniklarning qarashlari asossiz ekanligini ta'kidlab, haqiqat sezgilar tana a'zolariga muhtojligidadir,[14] degan xulosaga keladi.

Ibn Sino sezgilar va sezgi organlari haqida ga'irar ekan, u yoki bu sezgining yuzaga kelish mexanizmini ilmiy tushuntirishga harakat qiladi. Uning fikricha, hech qanday jism o'z holicha ovozga ega bo'lmaydi. Ovoz ikki jism to'qnashganda havo va harakatning tebranishi natijasida yuzaga keladi. Bu to'lqinlar juda tez tarqaladi. Ular quloqqa yetgach, tebranuvchi havo eshitish nervlariga tegadi va ular bundan jonni xabardor etadi[15]. Bu tavsif ancha sodda bayon etilgan bo'lsa-da, hozirgi tasavvurlarga mos keladi. SHuningdek, Ibn Sino sezgilarni hali ob'ektiv dunyoning sub'ektiv obrazi sifatida idrok etmaganidan dalolat beradi. Sezgilarni tashqi ta'sirning organizmdagi harakati sifatida tushuntirar ekan, Ibn Sino uni mexanik talqin qiladi.

Ibn Sino ko'rish haqidagi ta'limotni ishlab chiqdi. Ko'rish jarayonini tushuntirar ekan, u ayni vaqtda Platonning bu boradagi ta'limoti asossiz ekanligini ko'rsatadi. Ibn Sino yorug'likni ko'rishning asosiy vositasi sifatida alohida qayd etadi[16].

Alloma sezgilarni va tuyg'ularning barcha shakllarini o'rganib, ularning fiziologik asoslarini, ya'ni miya tuzilishida sezgi markazlarining joylashuvini tushuntirishga harakat qildi. Miyani aks ettirish faoliyatining bosh apparati deb talqin qilib, Ibn Sino hissiy bilish shaklini miya bilan bog'ladi va uni idrok etish va sezish asosi[17] deb e'tirof etdi.

Ibn Sino ta'limotiga ko'ra, in'ikos faqat aks ettiruvchi tizimga bog'liq emas. Sezish markazi miyaning old qismida, tasavvur qilish markazi – miyaning o'rta qismida, eslab qolish qobiliyati – miyaning orqa qismida joylashgan. «Kitob un-najot» asarida Ibn Sino har bir sezgining fiziologik asoslarini tadqiq etar ekan, hissiy bilish jarayonida asablar muhim rol o'ynashini qayd etadi. Uning fikricha, miya asablar vositasida sezgilar va harakatlarni insonning boshqa a'zolariga uzatadi. Asablar miya uchun o'tkazgichlar bo'lib xizmat qiladi[18]. Umumiy ma'lum tasavvurga ko'ra, asablar bosh miyada boshlanadi va ularning tarmoqlari terining yuza tomonida tugaydi[19]. Ko'rib turganimizdek, Ibn Sino hissiy bilishning fizik va fiziologik asoslarini ilmiy yo'l bilan tushuntirishga harakat qiladi.

Ibn Sino O'rta Osiyoning boshqa mutafakkirlari kabi tasavvurni ichki sezgilar qatoriga kiritadi. Ibn Sinoning falsafiy merosini qiyosiy o'rganish tabiatni hamda tasavvurning gnoseologik funksiyasini tushunishda u asosan yagona yondashuvga tayanganini ko'rsatadi. Ibn Sino tasavvurning kuchi shundaki, umumiy sezgiga kiruvchi hamma narsa bizning sezgilarimizgacha yetib boradi, deb qayd etadi[20].

SHunday qilib, Ibn Sino fikriga ko'ra, tasavvurning gnoseologik funksiyasi shundan iboratki, u tashqi narsalarning obrazlarini gavdalantiradi, hissiy idrok etiluvchi narsalar yo'qolganidan keyin ham ularni xotirada saqlab qoladi.

Ibn Sinoning fikricha, mohiyat uch tarzda namoyon bo'ladi. Birinchi – narsa sezgilarda ularni kuzatish jarayonida aks etadi. Bu yerda narsalarning sezgi organlarida bevosita aks etishi nazarda tutilmoqda. Ibn Sino in'ikos kontseptsiyasini bilish jarayoni sifatida qayd etar ekan, bilish darajalari to'g'risidagi masalani ko'taradi.

---

[13] Qarang: Ибн Сино. Трактат о разделении существующих вещей. – Т.: Шарк, 1983. – 128-б.
[14] Ибн Сина. Книга исцеления. – Т.: Фан, 1967. – 265-266-б.
[15] Qarang: Ибн Сина. Канон врачебной науки. Кн. 1. – Т.: Фан.1996 – С 260-261.
[16] Qarang: Ибн Сина. Книга спасения. – Т.: Шарк, 1986. – S 224.
[17] Qarang: Ibn Sina. Канон врачебной науки. Кн. 1. – Т.: Фан, 1986. С– 38.
[18] Ибн Сина. Канон врачебной науки. Кн. 1. – Т.: Фан, 1986. –С.41
[19] O'sha manba, –B. 99.
[20] Qarang: Ibn Sino. Donishnoma. – T.: Fan, 1976. – 264-b.

Ma’lumki, bu mo’ljal yangi davr falsafasida ishlab chiqilgan va nemis klassik falsafasida o’zining tadrijiy yakunini to’gan.

Ikkinchi – ob’ektiv borliqda amalda mavjud bo’lmagan narsaning mohiyati anglanadi[21]. Bu yerda formal ahamiyat kasb etuvchi va moddiy borliq bilan bog’lanmaydigan ideallashtirilgan ob’ektlar mohiyatini bilish nazarda tutiladi. Bu mohiyat inson aqlining ijodiy qobiliyatini namoyon etadi.

Uchinchi – narsa obrazi muayyan sharoitlarda biluvchining jonida aniq aks etishi mumkin. Bu tamoyilda narsani sezgi bog’liq bo’lgan aloqalardan mavhumlashtirish imkonini beruvchi abstraktsiyaning kuchi qayd etiladi. Bunda narsaning obrazi uning substrati mavjud emasligiga qaramay aks etishi mumkin.

SHundan kelib chiqib, Ibn Sino oqilona bilishda abstraktsiya muhim rol o’ynashini qayd etadi. «Bilish narsa obrazini mavhumlashtirishning ayrim o’zaro bog’langan bosqichlaridan iborat jarayon bo’lib, uning natijasida biluvchining ongida predmet ning mohiyati va xususiyatlarini ifodalovchi tushuncha vujudga keladi. Bunday mavhumlashtirish bosqichlari to’rtta». [22].

Ibn Sino «umumiy sezgi»ni ichki sezgilar qatoriga kiritadi. Uning fikricha, umumiy tuyg’u – bu miyaning old qismida joylashgan kuch bo’lib, u besh sezgida aks etuvchi barcha shakllarni va ular uzatuvchi kuchni mustaqil qabul qiladi[23]. Binobarin, Ibn Sino fikriga ko’ra, sezgi organlari yordamida olingan tuyg’ular umumiy sezgi vositasida birlashtiriladi va narsaning hissiy obrazi yaratiladi.

Obraz deganda alloma narsaning tashqi xususiyatlari va xossalari, materiyaning aktsidental tomonlari yig’indisini tushunadi. Masalan, inson va uning obrazi haqida so’z yuritar ekan, u shunday deb yozadi: «Uning obrazi bu uning uzunligi, kengligi, sifati, miqdori va uning holati, ya’ni inson bilan bog’liq barcha narsalardir»[24].

Ibn Sinoning yuqorida bayon etilgan g’oyalari ilmiy tafakkur shakllanishining keyingi davrlarida rivojlantirildi va yangi natijalar bilan boyitildi.

SHunday qilib, bilish jarayoni pirovard maqsadi ob’ektlar mohiyatini bilishdan iborat bo’lgan murakkab jarayondir. O’rta asr Markaziy Osiyo mutafakkirlari asosan bilish bilinayotgan ob’ektning in’ikosidir, degan nuqtayi nazardan kelib chiqdilar. Bunda insonning sezgi organlari bevosita bog’lovchi bo’g’in hisoblanadi, ya’ni sezgilar yordamida bilinuvchi ob’ektiv dunyo bilish manbai sifatida amal qiladi.

Ilk o’rta asrda tasavvuf va islom ilohitshunoslik ta’limotlari. Ularning dunqarash mazmuni. Tasavvuf o`rta asrlar musulmon Sharqida keng tarqaladi. Bu ta'limot dastlab VIII asr o`rtalarida Iroqda yuzaga kelgan. Tasavvuf ta'limoti asosida inson faoliyati va uning kamoloti yotadi. Turkiston va Movarounnahrning turli o`lkalarida tasavvufning turli tariqatlari paydo bo`ladi. Turkistonda XII asrda *Yassaviya,* XII asr oxirida Xorazmda *Kubroviya,* XIV asrda Buxoroda Naqshbandiya va boshqalar vujudga keladi. Movarounnahrda keng yoyilgan tasavvuf Yassaviya tariqati bo`lib, unga Ahmad Yassaviy asos soladi. Tariqatning asoslari Yassaviyning mashhur *"Hikmat"* asarida bayon etiladi. Ahmad Yassaviyning fikricha, shariatsiz tariqat, tariqatsiz ma'rifat, ma'rifatsiz haqiqat bo`la olmaydi. Ularning har biri ikkinchisini to`ldiradi va takomillashtiradi. Yassaviy tariqatining asosida kamolotga uzlat va tarkidunyochilik orqali yetishish g`oyasi olg`a suriladi. Unga faqat bu dunyo rohati va farog`atidan voz kechib, uzlatda toat va ibodat yo`lida zahmat chekib, mashaqqatli mehnat qila olgan kishigina yetib boradi. Xullas, Yassaviy tariqatida mashaqqatli mehnat va aziyat shariat yo`lida bo`lmog`i hamda tarkidunyochilik targ`ib etilsa-da, inson zoti sharif darajasida ulug`lanadi. Insonning har qanday mol-dunyodan va davlatdan ustun turishi ta'kidlanadi.

Tasavvuf ta'limotining buyuk siymolaridan yana biri **Najmiddin Kubro** (1145-1221) edi. U Xorazmda "Kubroviya" tariqatiga asos soladi. Yassaviy tariqatidan farqli o`laroq, Kubroviya tariqati tarkidunyochilikni rad etadi. Kamolot yo`lida olib boriladigan mashaqqatli mehnat jarayonida bu dunyo noz-ne'matlaridan bahramand bo`lishning joizligi g`oyasi ilgari suriladi. Kubroviya tariqatida xalqqa va Vatanga bo`lgan muhabbat nihoyatda kuchli bo`lib, har qanday og`ir damlarda ham omma bilan birga bo`lish, Vatanni mudofaa qilish va uning mustaqilligi uchun kurashga da'vat etiladi.

Tasavvuf XIV asrda *naqshbandiya* tariqatida yanada rivoj to’adi. _ Unga **Bahouddin Naqshband** asos soladi. U 1318-yilda Buxoro yaqinida Qasri Hinduvon qishlog`ida matolarga naqsh bosuvchi hunarmand oilasida dunyoga keladi. Yoshligida o`qish va ta'lim olish bilan bir qatorda kimxob matoga gul bosishni ‘uxta o`rganib, ota kasbi naqqoshlikni egallagan.

Xoja Bahouddin *"Hayotnoma"* va *"Dalil al-oshiqin"* nomli asarlar , yozib, o`z tariqatini yaratadi. Naqshbandiya tariqati Movarounnahr, Xuroson va Xorazmda keng tarqaladi. Naqshbandiya tariqati insonlarni halol va pok bo`lishga, o`z mehnati bilan kun kechirishga, muhtojlarga xayr-ehson berishga, sofdil va kamtar bo`lishga chaqiradi. Uning *"Dil ba yoru dast ba kor"* ("ko`ngil Allohda bo`lsin-u, qo'1 ish bilan band bo`lsin") degan hikmati Naqshbandiya tariqatining hayotiy mohiyatini ifodalaydi. U tarkidunyochilikni rad etib, mehnatsevarlik, odillik va bilimdonlikni targ`ib etadi. Naqshbandiya ta'limoti taraqqiyotiga keyingi asrlarda Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Xo`ja Ahror kabi buyuk allomalar katta hissa qo`shadilar.

Mustaqillik sharofati bilan Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro singari bobokalonlarimizning aziz nomlari tiklandi, qadamjolari obod etildi. Asarlari chop etilib, ularning bebaho ma'naviy

---

[21] Qarang: Ибн Сино. Избранние философские произведения. – М.: Наука, 1980. – Б.30.
[22] Ибн Сина. Книга спасения. – Т.: Шарк, 1986. – Б.31.
[23] Qarang: Ibn Sino. Donishnoma. – T.: Fan, 1976. – 266-b
[24] Ibn Sino. Donishnoma. – T.: Fan, 1976. – 267-b.

meroslaridan hozirgi avlodlar bahramand bo`lmoqdalar.

Mafkura — ma'lum maqsadni ro`yobga chiqarish uchun xizmat qiluvchi g'oyalar yig'indisi.

Tasavvuf (sufiylik) - musulmonlarni halollikka, poklikka, tenglikka, inson qadr-qimmatini yerga urmaslikka chorlovchi, har kimni o`zining halol mehnati bilan yashashga, boshqalarnlng kuchidan foydalanmaslikka davat etuvchi ta'limot.

Tariqat — tasavvuf qoidalarlga amal qllib yashash, ya'ni, komil inson darajasiga erishishni ko`rsatuvchi to'g'ri yo'l.

Temuriylar sulolasi davri. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy ijodida gumanizm g'oyalari. Amir Temur ibn Tarag`ay Bahodir (1336-1405) Kesh (Shahrisabz) shahri yaqinidagi Xo`ja ilg`or qishlog`ida dunyoga keldi. Uning eng asosiy tarixiy xizmatlari shundan iboratki, u mug`ullarning

bosqinchilik va vayronkorliklariga qarshi kurashib,O'rta Osiyoni ulardan xalos etdi. Mayda feodal va mulkdorlarning o`zaro nizolariga barham berib, kuchli markazlashgan davlat bar'o qildi. Mamlakatda tartib-intizom va qonun ustuvorligini ta`minladi. Uning davrida «Kuch - adolatda» tamoyili amalga

oshdi, iqtisod va madaniyat yuksaldi, o`zga mamlakatlar bilan mustahkam aloqalar o`rnatildi.

Amir Temur mohir sarkarda sifatida nom qozondi. U o`z hayotini Movarounnahr xalqining farovonligi, yurt obodonchiligi uchun sarfladi, uning davrida hashamatli binolar, qurilish inshootlari, go`zal bog`lar buned qilindi, maktab va madrasalar, masjidlar qurildi, mamlakatimiz Sharqning go`zal hududiga aylandi.

Temurning yana bir ulkan hizmati shuki, u madaniyat va ilm-fan homiysi sifatida mashhur bo`ldi, o`z saroyiga olimu fuzalo va din arboblarini to`pladi. Xoja Afzal, Jalol Xokiy, Mavlono Xorazmiy, Mavlono Munshiy va boshqalar uning saroyida ilm-fan va badiy ijod bilan mashg`ul bo`ldilar. Bobur Mirzoning xabar berishicha, o`sha davrda Samarqand eng go`zal shahar edi. Ispan sayyohi R.G.Klavixo Samarqandning go`zalligiga qoyilqolgan edi. Temur hukmronligi davrida ichki va tashqi savdo kuchaydi. Ayniqsa, Hindiston, Xitoy, Rusiya, arab mamlakatlari bilan aloqalarning kuchayishi Temur saltanati iqtisodiy qudratini oshirdi. Temur va temuriylar davrida islom dini va tasavvufga katta e`tibor berildi.

Usha zamonning eng mashxur tarixchilari Mirxond (1433-1498) va Xondamir (1475-1535) edilar. Mirxond Hirotda tavvalud topib, shu yerda ijod qilgan. Uning asosiy tarixiy asari 7 jildan iborat bo`lib, «Nabiralar, podshohlar va xalifalar tarjimai hollari haqida poklik bog`lari» deb ataladi. U olti jildini yozib vafot etadi, yettinchisini nabirasi Xondamir yozib tugatadi.

Xondamir ham Hirotda tug`ilib, eshligidan tarixnavislikka havas qo`yadi. U Agrada vafot etadi. Uning muhim risolalari «Makorim ul-axloq», «Habib us-siyar», «Vazirlar uchun qo`llanma» va boshqalardir. Mantiq ilmining yirik vakillaridan biri Sa`diddin Taftazoniydir (1322-1392) u Niso viloyatiga qarashli Taftazon qishlog`ida dunyoga keladi. yoshligidan ilohiyot fanlari, arab tili, nutq san`ati va mantiq bilan shug`ullanadi. Taftazoniy madrasalarda mudarrislik qildi. Turkiston, Hirot, Jom, G'ijduvon madrasalarida talabalarga dars berdi. Taftazoniy shuhrati, ilmiy ishlari Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlariga keng tarqaldi. Temurning taklifi bilan alloma Samarqandga kelib, shu yerda umrining oxirigacha yashadi.

Taftazoniy 40 dan ortiq risolalarning muallifidir. Muhimlari: «Tahzib al-mantiq val-kalom» («Mantiq va kalomga sayqal berish») «Muxtasar al-maoniy» (Ritorikaga oid «Qisqacha ma`nolar»), «Al-irshod al-hodiy», (Arab tili grammatikasiga oid «Yo`l boshlovchi rahbar»), «Al-maqosid attolibin» («Falsafa va kalomga oid «Tolibi ilmlarning maqsadlari») va boshqalar. Taftazoniy o`tmish olimlarining juda ko`p asarlariga sharhlar ham bitgan.

O'sha davrning yana bir atoqli allomasi Mir Sayyid Sharif Jurjoniy Astrobod shahri yaqinida tug`ilgan. Jurjoniy Istambul, Qohira, Hirot, Sheroz shaharlarida bo`lib, ulardagi olimlardan ilm sirlarini o`rganadi. Samarqand madrasalarida mantiq, falsafa, falakiyot, fiqh va adabiyot, munozara ilmi va boshqalardan dars beradi.

Jurjoniy 50dan ortiq risolalarning muallifi bo`lib, ularning aksariyati mantiq, fiqh falsafa va tabiatshunoslikning muhim muammolariga bag`ishlangan. Olimning «Atta`rifot» («Ta`riflar»), «Odob ul-munozara» («Munozara olib borishining qoidalari haqida risola»), «Sug`ro» («Kichik dalil bo`la oladigan hukm»), «Kubro» (Katta dalil bo`la oladigan hukm), «Avsat dar mantiq», («Mantiqda o`rta xulosa»), «Risolayi vujudiya» («Borliq haqida risola») va boshqa asarlari mavjud. Bulardan tashqari, Jurjoniy salaflarining, xususan, Ibn Sino, Chag`miniy va Nasriddin Tusiylarning asarlariga sharhlar yozganligi ma`lum.

Mir Sayyid Sharif Jurjoniy mantiq ilmi sohasida ham o`z fikrlarini bayon qilgan. O'zining qarashlarida mantiq ilmini falsafadan ajratmay, ayni bir vaqtda uning huquq va til bilan ham chambarchas bog`liq ekanligini isbotlab beradi. Shuning uchun ham, XIV-XV asrdan boshlab islom madrasalarida mantiq ilmini o`qitish huquq va tilshunoslik fanlari bilan bog`liq holda olib borildi.

Jahon ilm-fani taraqqiyotiga katta ulush qo`shgan buyuk falakiyotchi olim va davlat arbobi Muhammad Tarag`ay Ulug`bek(1394-1449) matematika va falakiyot sohasida barkamol ijod qilgan. Uning otasi Amir Temurning o`g`li Shohruh Mirzo edi. Ulug`bek yoshligidan ilm bilan qiziqdi, unga taniqli olimlar Qozizoda Rumiy va G`iyosiddin Jamshid ustozlik qildilar. U garchi davlat arbobi bo`lsa ham, madaniyat va ilm-fan ravnaqiga ko`p kuchini sarfladi, matematika, astronomiya, geometriya, tarix, kimyo va boshqa sohalarda ilmiy tadqiqotlar olib bordi. Olimning dunyoqarashida Aflotun, Arastu, Ptolemey, Muhammad Xorazmiy, al-Farg`oniy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy va boshqalarning asarlari muhim o`rin egalladi.

Ulug`bekning ulkan ishlaridan biri uning Samarqandda, Ko`hak tepaligida, Obi Rahmat arig`ining

bo`yida, rasadxona barpo etganligidir. Olimning eng muhim asari «Ziji jadidi Ko`ragoniy» deb ataladi. Undan tashqari,

Ulug`bek matematikaga oid «Bir daraja sinusni aniqlash haqida risola», astronomiyaga bag`ishlangan «Risolayi Ulug`bek» va tarixga oid «To'rt ulus tarixi» kitoblarini ezdi. Ulug`bek mantiq ilmi, fiqhshunoslik, musiqa va adabiyot nazariyasini yaxshi bilar edi. Olimning «Ziji» ikki qism, muqaddima va 1018 yulduzning o`rni va holati aniqlab berilgan jadvallardan iborat.

Ana shunday olimlardan biri G`iyosiddin Jamshid al-Koshoniy (1430 yilda vafot etgan) bo`lib, u yirik riyoziyotchi va falakiyotchidir. Uning asarlari «Miftoq ul-hisob» («Hisob kalidi»), «Risola al-muhitiya» («Doira haqida risola») va boshqalardir. XVI asrdan boshlab evropa mamlakatlarida uning kashfiyotidan foydalana boshladilar.

Tarihda Ali Qushchi nomi bilan mashhur bo`lgan Alouiddin Ali ibn Muhammad Qushchi (1403-1474) Ulug`bekning shogirdidir. U ilmiy ishlarini falakiet va riyoziyot sohasida olib bordi. Uning asarlari: «Arifmetika ilmi haqida risola», «Mantiq risolasi», «Astronomiyaga oid risola» va boshqalardir.

Ali Qushchi «Astronomiyaga oid risola»sida Oy va Quyosh tug`ilishi qonuniyatlarini ilmiy asoslab berdi. Olim tabiat sirlari va uning qonuniyatlarini o`rgandi, jismlar harakati va ularning oddiydan murakkabga o`tishi to`g`risida o`z fikriniilgari surdi.

Umuman shuni ta`kimlash lozimki, Ulug`bek va u asossolgan astronomiya maktabi koinotdagi hodisalarni o`rganishda muhim rol o`ynaydi, o`sha vaqtgacha fanga ma`lum bo`lmagan hodisalarni idroq qilib, inson aql-zakovatining bilish imkoniyatlarini kengaytirdi, keyingi davrlarda yashagan olimlarga samarali ta`sir ko`rsatdi.

O'rta asr mumtoz adabiyotining vakili, ulug` shoir va mutafakkir Abdurahmon Jomiy (1414-1492) dir. Jomiyni Navoiy ustoz deb hisoblar edi. Uning qalamiga mansub asarlar «Nafaqot ul-uns», «Hujjat ul-asror», «Musiqa haqida risola», «Naqshi fusus», «Vohid atamasi haqida risola», «Haj qilish yo`llari haqida risola», «Bahoriston» va boshqalardir.

Jomiyning eng yirik asari «Haft avrang» bo`lib, unga «Tuhfat ul-ahror», «Suhbat ul-abror», «Yusuf va Zulayho», «Suhbat ul-asror», «Layli va Majnun», «Salamon va Absol», «Xiradnomayi Iskandariy» dostonlari kiradi.

Barcha musulmon mutafakkirlari kabi Jomiy ham xudo abadiy, mutlaq va dunyodagi hamma narsalarning sababchisidir, xudo mavjud bo`lganda, borliq yo`q edi, dunyo o`zining boshlang`ichini Ollohdan olgan, demak, xudo hamma narsaning yaratuvchisidir, deb hisoblaydi.

Jahon madaniyati ravnaqiga ulkan hissa qo`shgan siymolardan biri, ulug` o`zbek shoiri va mutafakkiri Nizomiddin Mir Alisher Navoiy (1441-1501). U Temuriylar xonadoniga taaduqli bo`lib, otasi G`iyosiddin kichkina Shahrisabzdan Qobulga borib qolgan barlos beklaridan edi. Navoiy Hirotda

Husain Boyqaro saroyida turli lavozimlarda ishladi, dastlab muhrdor, so'ng vazir etib tayinlandi. Shoir mamlakat obodonchiligi ravnaqi va osoyishtaligi yo`lida ko`p ishlar qildi. Maktab, madrasa, masjid va xonaqolar, ko`prik, rabotlar, shifoxonalar qurdirdi, muhtoj va kambag`allarga yordam berdi, olimu shoirlarga homiylik qildi.

Naviy ijodi boy bo`lib, asarlari turli mavzularga bag`ishlangan. «Xamsa» ya`ni «Hayrat-ul abror», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sab`ai sayyor», «Saddi Iskandariy» dostonlari hamda «Lison ut-tair», «Majolis-un nafois», «Mahbub-ul qulub», «Holati pahlavon Muhammad», «Mezon ul-avzon», «Muhokamat ul-lug`atayn» va boshqalar. Bulardan tashqari, Navoiy «Hazoyyinul

maoniy» («Ma`nolara xazinasi») nomli she`riy to`plam yaratgan bo`lib, g`azal, ruboiy, qit`a va fardlardan tashkil topgan.

Shoir ijtimoiy-falsafiy qarashlarining muhim xususiyati shundan iboratki, unda falsafiy fikrlar majoziy tarzda, badiiy o'xshatish va ramziy iboralar o'rdamida, zohiriy va botiniy ma`nolarda bayon qilinadi.

Navoiyning ijodiy merosida insonparvarlik va komil inson g`oyasi muhim o`rinni egallaydi - shoirning «Xamsa»siga kirgan «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Saddi Iskandariy» kabi dostonlarining asosiy qahramonlari Iskandar, Farhod, Shirin, Layli, Majnun va boshqalar komil inson sifatida talqin qilinadi. Ular mehnatsevar, o`z kasbini ustasi, doimo o`zgalarga yordam beruvchi, shijoatkor va jasur, aqlli va bilimdon, saxovatli, to`g`ri so`z, sofdil, kamtar, o`zida xulq-odob, adolat, sabr-toqat, nafsni tiyish, olijanoblik kabi fazilatlarni mujassamlashtirgan shaxslardir.

Navoiy xalq orasida inson'arvarlik g`oyalarini tarqatdi, turli millat va elatlar o`rtasidagi do`stlikni ulug`ladi. Forobiy, Ibn Sino, Beruniy va boshqalar singari, mukammal jamiyat haqida fikr yuritdi. Xalqni farovonlikka, baxt-saodatga eltuvchi, hamma teng, zulm-istibdoddan holi bo`lgan davlat tuzumini orzu qildi. U ilm-fan egallashni afzal bildi, mol-mulkka, boylikka hirs qo`yishni, tamagirlikni qoraladi. Navoiyning yaxshilik, ezgulik, muhabbat, do`stlik, adolat, tinchlik, osoyishtalik va boshqa go`zal fazilatlar, ma`naviy-axloqiy qadriyatlar to`g`risidagi qimmatli fikrlari, nasihatomuz so`zlari respublikamiz mustaqillikka erishgandan so`ng ham barkamol insonni tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Temur avlodidan bo`lgan Zahriddin Muxammad Bobur(1483-1530) o`sha davrning eng ma`rifatli podsholaridan biri edi. Andijonda Umarshayx Mirzo xonadonida tug`ilgan Bobur keyinchalik Hindistonda ulkan saltanatga asos soldi. Bobur davrida hind dieri gullab yashnadi, undagi madaniyat yuksak darajaga ko`tarildi. Hindistonning XX asrdagi eng atoqli kishilari Mahatma Gandi va Javaharlal Neru Jahon, Avrangzeb va Akbar kabi temuriyzodalarga juda katta baho berganlar.

SHarq istilosi bilan bog'liq uyg'onish harakatlari: osiyotsentrizm, panturkizm, panislomizm, ma'rifatparvarlik va jadidchilik ta'limotlari. CHunki aynan XX asr boshlarida shakllangan jadidchilar harakati "jamiyatni ma'rifat orqali yangilash" g'oyasini ilgari surganlar, Behbudiy, A.Avloniy, A.Fitrat kabilar bir guruh yoshlarni chet elga o'qishga yuborib, yangi avlod ziyolilarini tarbiyalashga o'zlarining munosib hissasini qo'shganlar.

SHu bois, 1917 yilda bolsheviklar partiyasi g'alaba qozonib, dunyo xaritasini katta Sovet ittifoqi degan mamlakat egallab, unda partiyaviylik mafkurasi hukmronlik qilsada, O'zbekistonda falsafiy fikr rivoji to'xtab qolgan emas.

Falsafaning fidoyilari yangi qaror topgan siyosiy tizimda yashab, ishlab va juda ko'p sinovlardan o'tishlari lozim bo'ldi. Ayrim ziyolilar chet elga qochib ketdilar, ko'pchilikda esa marksizm g'oyasining haqiqiy insonparvarligiga qat'iy ishonch shakllandi va shu bois shu yo'nalishda faoliyat olib bordilar. Biroq muayyan darajada sovet mafkurasi ta'siri bo'lsada, o'tgan asrda o'zbek falsafasi to'rt yo'nalishda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti falsafa fakulteti, O'zbekiston Fanlar Akademiyasining falsafa va huquq instituti, viloyatlar oliy o'quv yurtlari falsafa bo'limlari, O'zbekiston falsafa jamiyati va O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati faoliyatida namoyon bo'ldi va olimlar o'z falsafiy qarashlarida davrning ruhini ifoda eta oldilar. Darhaqiqat, I.A.Karimov aytganlaridek, "Odam qancha chuqur bilimga ega bo'lsa, dunyoni yaxshi bilsa, yon atrofda bo'layotgan voqealarni to'g'ri anglay olsa, shundan keyingina unda g'urur-iftixor bo'ladi. SHundagina, juda murakkab, tahlikali davlarda ham ko'pchilik unga murojaat qilib, maslahatlashadi. Maslahat kimdan so'raladi – avvalombor, salohiyatli odamdan, katta falsafiy bilim va intellektual bilimga ega bo'lgan kishidan."[25]. SHunday ekan, O'zbekistondagi ijtimoiy siyosiy jarayonlarni tushunishda va ularning mohiyatini tushuntirishda yurtimiz faylasuf-olimlarining xizmati ham katta.

XX-XXI asr o'zbek falsafasi. XX asr o'zbek falsafasi. XX asr o'zbek falsafasi kam o'rganilgan ziddiyatli davrni qamrab oladi. CHunki hozirgi davr tanqidchilarida sovet davrida falsafa bo'lmagan, u davrda intellektual hayot o'lgan va uzoq muddatga qotib qolgan, faqat ayrim hollarda ba'zi mardlargina o'zlarining g'oya va qarashlarini ayta olganlar degan fikr shakllangan. Biroq bu noto'g'ri fikr. CHunki aynan XX asr boshlarida shakllangan jadidchilar harakati "jamiyatni ma'rifat orqali yangilash" g'oyasini ilgari surganlar, Behbudiy, A.Avloniy, A.Fitrat kabilar bir guruh yoshlarni chet elga o'qishga yuborib, yangi avlod ziyolilarini tarbiyalashga o'zlarining munosib hissasini qo'shganlar.

SHu bois, 1917 yilda bolsheviklar partiyasi g'alaba qozonib, dunyo xaritasini katta Sovet ittifoqi degan mamlakat egallab, unda partiyaviylik mafkurasi hukmronlik qilsada, O'zbekistonda falsafiy fikr rivoji to'xtab qolgan emas.

Falsafaning fidoyilari yangi qaror to'gan siyosiy tizimda yashab, ishlab va juda ko'p sinovlardan o'tishlari lozim bo'ldi. Ayrim ziyolilar chet elga qochib ketdilar, ko'pchilikda esa marksizm g'oyasining haqiqiy inson'arvarligiga qat'iy ishonch shakllandi va shu bois shu yo'nalishda faoliyat olib bordilar. Biroq muayyan darajada sovet mafkurasi ta'siri bo'lsada, o'tgan asrda o'zbek falsafasi to'rt yo'nalishda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti falsafa fakulteti, O'zbekiston Fanlar Akademiyasining falsafa va huquq instituti, viloyatlar oliy o'quv yurtlari falsafa bo'limlari, O'zbekiston falsafa jamiyati va O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati faoliyatida namoyon bo'ldi va olimlar o'z falsafiy qarashlarida davrning ruhini ifoda eta oldilar. Darhaqiqat, I.A.Karimov aytganlaridek, "Odam qancha chuqur bilimga ega bo'lsa, dunyoni yaxshi bilsa, yon atrofda bo'layotgan voqealarni to'g'ri anglay olsa, shundan keyingina unda g'urur-iftixor bo'ladi. SHundagina, juda murakkab, tahlikali davlarda ham ko'pchilik unga murojaat qilib, maslahatlashadi. Maslahat kimdan so'raladi – avvalombor, salohiyatli odamdan, katta falsafiy bilim va intellektual bilimga ega bo'lgan kishidan."[26]. SHunday ekan, O'zbekistondagi ijtimoiy siyosiy jarayonlarni tushunishda va ularning mohiyatini tushuntirishda yurtimiz faylasuf-olimlarining xizmati ham katta.

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti falsafa fakulteti. 1922 yilda O'rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O'zMU) ijtimoiy gumanitar fanlar fakultetida falsafa fanidan o'quv mashg'ulotlarining olib borilishi, bu boradagi dastlabki qadam bo'ldi.

1935 yilda birinchi «Dialektika va tarixiy materializm» kafedrasi tashkil qilindi. 1944 yilda Dialektika va tarixiy materializm kafedrasi tarkibidan «Falsafa» kafedrasi ajralib chiqqan. Aynan "Falsafa" kafedrasi negizida 1962 yilda "Ilmiy kommunizm", 1967 yilda "Tabiiy va gumanitar fakultetlar falsafa" kafedralari tashkil qilingan. Kafedralar tarkibi milliy kadrlar bilan boyib borgan.

1960 yillarda "Falsafa" kafedrasida 45 ta professor-o'qituvchi faoliyat olib borgan. Bu davrda falsafa mutaxassisligi bo'yicha universitetning o'zida milliy kadrlar tayyorlash imkoniyati paydobo'lgan. 'rofessor A.Ayupov, H.Umarov sa'y harakatlari bilan oliy ta'lim vazirligida bu masalaga ijobiy yondoshilib, universitetning tarix fakultetida 1963-1964 o'quv yilidan boshlab falsafa bo'limi tashkil qilingan va unga H.Umarov rahbar etib tayinlangan. O'quv rejasi asosida Respublikaning yirik olimlari jalb qilinib, falsafa bo'yicha mutaxassis kadrlar tayyorlash jarayoni boshlangan.

SHu yillarda ilmiy ishlar rivoj to'ib yuqori malakali kadrlar etishib chiqa boshlagan. 1962-1967 yillarda 18 ta falsafa fanlari nomzodi tayyorlangan. 1962-1992 yillar davomida gumanitar fakultetlar "Falsafa" kafedrasini

[25] Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat. 14-jild. –T.: O'zbekiston, 2006. –B.108-109.
[26] Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat. 14-jild. –T.: O'zbekiston, 2006. –B.108-109.

boshqargan professor A.T.Ayupov boshchiligida dotsentlar G'.SHoyusupova, A.I.Abdusamedov, K.S.Sadikov, K.I.Ivanova, I.Rahimov, V.S.Nikitchenko va boshqalar dastlab falsafa bo'limi, keyin falsafa fakultetining milliy kadrlarni tayyorlash faoliyatida katta rol o'ynadilar. O'sha yillarda falsafa bo'limi professor-o'qituvchilari nafaqat o'quv jarayoni, balki ilmiy bilish sohasida faol ishtirok qilganlar. 1974 yilda K.I.Ivanovaning "Ilmiy bilishda sababiylik tamoyili" nomli monografiyasi, professor L.E.Garber, A.T.Ayu'ov, U.Xaydarov, B.To'ychiev, V.G.CHernaxlarning "Ilmiy bilish mantig'i va metodlari"(1986) mavzusidagi turkum asarlari nashr qilingan.

O'zbekiston Fanlar Akademiyasining akademigi E.YU.YUsupov, professorlar M.V.Vohidov, I.R.Rahimovlar 1980-2005 yillarda O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy taraqqiyotining falsafiy muammolari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borish bilan birga, darslik va o'quv qo'llanmalari yozganlar, yosh kadrlarni tayyorlashga o'zlarining munosib hissasini qo'shganlar. SHu yillar davomida J.Babayevning "Falsafa asoslari" o'quv qo'llanmasi, E.YUsupovning tahririda "Falsafa" (1985) darsligi, I Raximovning "Mantiq fanidan seminar mashg'ulotlari" (1984) o'quv qo'llanmalari nashr qilingan.

Falsafa bo'limida o'qitiladigan fanlarning differentsiallashuvi natijasida "Mantiq", "Falsafa tarixi" va "Dinshunoslik" kafedralari tashkil qilingan. O'sha yillarda falsafa bo'limi professor-o'qituvchilari nafaqat o'quv jarayoni, balki ilmiy ishlar sohasida ham faol ishtirok qilganlar.

Mustahkam poydevor yaratilgach, 1979 yilda tarix fakulteti tarkibidan "Falsafa, iqtisod va psixologiya" bo'limlari ajratilib, uchta mutaxassislikni birlashtiruvchi yangi "Falsafa-iqtisod" fakulteti tashkil qilingan va falsafa fanlari nomzodi, 'rofessor G.SH.SHoyusu'ova (1979-1985) dekan lavozimiga tayinlandi.

Bu esa falsafa fanining yanada chuqur va keng o'rganilishi yo'lidagi dadil qadam bo'ldi. yangi kafedralar tashkil qilinib, falsafani o'qitishga differentsial yondoshuv shakllandi. SHu yillarda fakultetda professorlar: - M.Xayrullaev, M.Baratov, L.E. Garber, V.N. Moroz, M. Nurmatov f.f.n dotsent M.Q. Aripov, f.f.n. dotsent M.Daliev, dotsent E.N. Abramyan, Z.Mo'minova, dotsent T.M.Ramazanov, I.R.Ramazanov, R.Nosirov, SH.B.Qahharova, M. Usmonov, I.L. Turchaninov, fakultetning bitiruvchi yoshlari M. SHaripov, B.To'ychiev, E.Mo'minov, A.O'tamurodov, I.Ergashev, o'rindoshlik asosida professorlar M.N. Abdullaeva, H.Aliqulov va boshqalar ilmiy pedagogik faoliyat olib borganlar.

1990 yilda universitet yangi Nizomi qabul qilinib, uning keyingi taraqqiyot yo'llari, vazifalari, huquqlari, xalq hayotidagi mavqei yangi dunyoqarash nuqtayi nazaridan belgilab olindi. SHu bois 1991 yilda fakultet tarkibidan "Iqtisod" bo'limi ajraldi hamda Falsafa, sotsiologiya va psixologiya" bo'limlari va 9 kafedradan iborat "Falsafa" fakulteti yoshlar ongiga mustaqillik mafkurasining mazmun va mohiyatini singdirish, yangi dunyoqarashni shakllantirish yo'lida fidokorona mehnat qildilar.

1989-2007 yillarda "Falsafa tarixi va mantiq" kafedrasining mudiri lavozimida ishlagan professor S.A.Yo'ldoshev kafedra a'zolari bilan hamkorlikda SHarq va G'arb xalqlari tarixi, Markaziy Osiyo xalqlari falsafasi va ijtimoiy axloqiy qarashlarini o'rganish bilan bir qatorda, mantiq fanining keng qamrovli o'rganilishiga ham alohida e'tibor qaratib kelgan. Magistraturada ushbu yo'nalish bo'yicha mutaxassislik ochishga boshchilik qilgan. Pokiston va Eron falsafasini O'zbekistonda chuqur o'rganilishiga munosib hissa qo'shgan.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimovning 2000 yil 28 yanvardagi farmoniga ko'ra, Toshkent Davlat universitetiga "Milliy" maqomi berilishi, fakultet professor o'qituvchilariga mas'uliyat yuklashi bilan bir qatorda yangi faoliyatga chorladi. Ular falsafiy bilimlarni, yangilangan tafakkur nuqtayi nazaridan yoritish bo'yicha faol ish olib bordilar.

2002 yilda yangi "Falsafa va fan metodologiyasi" kafedrasining tashkil qilinishi falsafadagi ijtimoiy muammolar bilan bir qatorda, fundamental masalalarning o'rganilishiga keng imkoniyatlar yaratdi. "Falsafaning metodologik muammolari" ilmiy maktabiga asos solindi. Bugungi kunda ushbu maktab tadqiqotchilari tomonidan "gerontologiya" - qariyalik muammosi, "tanatalogiya" - o'lim va barhayotlik muammosi, "fenomenologiya" insonning individual ijtimoiy ongiga ta'sir qiluvchi omillar muammosi, "germenevtika" - tushunish va tushuntirish muammosi, "epistemologiya", "fan falsafasi", "Ijtimoiy vaqt", "Sinergetika", "Dialog tushunish vositasi" kabi muammolarning falsafiy tahliliga qiziqishning kundan kunga ortib borishi yangi avlod faylasuflarining yuqori intellektual salohiyatga egaligi va ayni paytda ularni ilmga yo'naltiruvchi munosib ustozlar borligidan dalolat beradi.

O'tgan yillar davomida fakultet bitiruvchilari nafaqat pedagogik faoliyati, balki ilmiy salohiyati bilan falsafiy fanlar bo'yicha yangi o'quv adabiyotlarini yaratish jarayonida ham faol ishtirok qildilar. I.Saifnazarov muallifligida "Kurs lektsiy po filosofii" (2001), "Ilmiy ijod metodologiyasi" (2004), "Fanlarning falsafiy masalalari" (2007 I.Rahimov A.O'tamurodov hamkorligida "Fanlarning falsafiy masalalari" (2005), D.Fayzixo'jaeva va M.SHarpovlar hammuallifligida "Mantiq" (2004) o'quv qo'llanmalari, S.Mamashokirov tahriri ostida Falsafa (2005 lotin tilida), "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" (2004), "O'zbekistonda yangi jamiyat qurilishining g'oyaviy-mafkuraviy masalalari" (2005), "Erkin va farovon hayot qurilishining g'oyaviy mafkuraviy masalalari" (2007) o'quv qo'llanmalari, Q.Nazarov tahriri ostida "Falsafa qomusiy lug'at" (2004), "G'arb falsafasi" (2004), "Jahon falsafasi tarixidan lavhalar" (2005), "Milliy g'oya asosiy tushuncha va tamoyillar" o'quv qo'llanmasi (2001), "Milliy g'oya asosiy tushuncha va tamoyillari lug'ati" (2005), "Milliy g'oya va rahbar mas'uliyati" (2008) kitoblari, yakka muallifligida "Bilish falsafasi" (2005), "Qadriyatlar falsafasi" (2004) o'quv qo'llanmalari, N.A.SHermuxamedova muallifligida "Filosofiya i metodologiya nauki" (2003) o'quv qo'llanmasi, "Falsafa va fan metodologiyasi" (2005), "Gnoseologiya" (2007), Gnoseologiya – bilish nazariyasi (2009) darsliklari, A.Ochildievning "Milliy g'oya va millatlararo munosabatlar" (2004), Ye.Emirovaning "Metodika prepodavaniya

filosofii” (2004), shuningdek A.Streltsova bilan hamkorlikdagi “Vvedenie v spetsialnost» (2009) o’quv qo’llanmasi kabi qator yangi adabiyotlarining nashr qilinishi fakultetning katta ilmiy salohiyatga egaligidan dalolat beradi.

O’zMUning 90 yillik tarixida Falsafa bo’limining 45 yillik, falsafa fakultetining deyarli 30 yillik faoliyati o’z o’rniga ega. Zero, bugungi kunda yangilangan tafakkur egalari o’zbek falsafasining nomini dunyoga tanitmoqdalar. Azaliy falsafiy muammolarga yangicha yondoshmoqdalar. “Ustoz va shogird” maktabining yangi avlodi shakllanmoqda, yangi ilmiy maktablarga asos solinmoqda. Fakultetning 1500 mingdan ortiq bitiruvchilaridan shu yillar davomida 40 ta fan doktorlari va 200 dan ortiq fan nomzodlari etishib chiqdi.

3-mavzu: Falsafiy tafakkur taraqqiyoti bosqichlari: G'arb falsafasi

Reja:

1. Qadimgi Yunon-Rim falsafiy maktabi.
2. Ilk o'rta asr G'arb falsafasi rivojlanishining umumiy belgilari.
3. Yangi davr G'arb falsafasidagi asosiy muammolar.
4. XX-XXI asr G'arb falsafasining oqimlari.

G’arb falsafasi miloddan avvalgi VII-VI asrlar chegarasida shahar-davlatlar («Polislar»)da avval Kichik Osiyoning G’arbiy qirg’og’ida (Ioniyada), so’ngra – Sitsiliya orolining yunonlar yashaydigan shaharlarida va nihoyat, Yunonistonda – Afinada (miloddan avvalgi V asr) vujudga kelgan va qadimgi dunyo madaniyati ravnaq to’ishi uchun shart-sharoitlar yaratgan sinfiy, quldorlik jamiyatining vujudga kelishi va rivojlanishi bilan bog’liq bo’lgan..

Antik falsafada Demokrit, Geraklit, Aflotun va Arastu ta’limotlari. Qadimgi Yunonistonda faylasuflarni bemalol suhbat qurish va istalgan savolga javob olish imkoni bo`lgan donishmandlar, hayot murabbiylari sifatida bilishgan. Yunon mutafakkirlari Olam tuzilishi va inson hayoti ma'nosini tushuntirishga harakat qilib ko`rishgan. Ular o`simliklar, hayvonlar, inson tanasi, Quyosh va yulduzlarni o`rganishgan.

Mashhur yunon faylasufi ***Geraklit*** Yyer yuzidagi hamma narsa olovdan kelib chiqqan deya uqtirar edi. Geraklit fikriga ko’ra, tabiat (olov) uzluksiz o’zgarish jarayonini boshdan kechiradi. U rivojlanish va o’zgarishlar manbaini ko’radi: «Hamma narsa kurash orqali va zaruriyat tufayli yuz beradi. Har qanday hodisa o’zining qarama-qarshiligiga o’tadi: sovuq narsa issiq narsaga aylanadi, issiq narsa sovuq narsaga aylanadi, ho’l narsa quruq narsaga aylanadi, quruq narsa ho’l narsaga aylanadi». Quyosh har lahzada yangilangani kabi, barcha hodisalar ham o’zgaradi. «Ayni bir daryoga ikki marta tushish mumkin emas: ikkinchi marta suvga tushayotgan odamga yangi suvlar oqadi». Geraklit sifat jihatidan bir-biriga zid bo’lgan hodisalar va jarayonlarni ko’radi: hayot va o’lim, uyg’oqlik va uyqu, yoshlik va qarilik va sh.k. «Eng toza va eng iflos dengiz suvi: baliqlar uchun u to’yimli va xaloskor, odamlar uchun esa u ichishga yaroqsiz va hayot uchun xavflidir». Ko’rib turganimizdek, qadimgi yunon faylasufi o’zgarishning umumiyligi va har bir xossaning qarama-qarshi holatga o’tishi narsalarning barcha sifatlariga nisbiy tus berishini, ya’ni muayyan holatlarga bog’liq qilib qo’yishini qayd etadi.

Frakiyalik ***Demokrit*** degan faylasuf Geraklit fikriga e'tiroz bildirgan, bizni qurshab turgan hamma narsa ko`zga ko'rinmaydigan maydamayda zarralar — atomlardan tashkil topgan degan ma'nodagi fikrni bayon etgan edi.

Yunon faylasufi ***Diogen*** Insonda hech qanday ehtiyojlar bo`lmasligi shart degan fikrni o`z ta'limotiga asos qilib oldi. Hayotdagi barcha qulayliklardan voz kechgan Diogen bir bochkada kun kechirgan. Makedoniyalik Aleksandr undan: "Senga qanday yordam berishim mjimkin?" deb so`raganida, Diogen: "Nariroq tursang-chi, quyoshni to`sib qo`yding!" deya kinoya qilgan ekan.

Qadimgi yunon olimi ***Aristotel*** to`plangan bilimlarni alohida tarmoqlarga ajratdi va ularni mustaqil fanlar sifatida ta'riflab berdi. Aristotelni Sharqda «Arastu» deya aytish keyinchalik odatga aylangan.

Barcha zamonlarda olimlar ilmiy masala yechimini topgan yunon fizigi va matematigi ***Arximedning*** "Evrika!" (Topdim, topdim!") qiyqirig`ini takrorlab yurishadi. Ehtimol, bu bir afsonadir, ammo yunonlar to`la ishonch bilan Arximed ko`zgular tizimidan foydalanib yorug`likni bitta yo`nalishga jamlagani va yunonlar ustiga hujum qilib kelayotgan rimliklarning kemalarini yondirib yuborgani haqida hikoya qilib berishadi. Arximed richag qonunini ishlab chiqdi va mashhur bo`lib ketgan bir iborani aytdi: "Menga tayanch nuqtasini topib bering, Yerni o`z o`qidan chiqarib yuboraman!"

Arximed boshi bilan ilm dengiziga sho`ng`igan olim timsoliga aylangan. Rimliklar uning jonajon shahri Sirakuzni bosib olganlarida qumda chizmalar chizgancha matematikaga oid bir masalani yechishga urinib o`tirgan ekan. Rimlik askar yetib kelganida: "Mening chizmalarimga qo'1 tekkizmagin!" deyishga ulgurdi, xolos: Arximedga nayza sanchilgan edi.

Platon ham ijtimoiy muammolarni tahlil qilgan. U davlatning mohiyati va shakllarini shaxs, ayniqsa podshoning shaxsi nuqtayi nazaridan o’rgangan. Uning fikricha, podsho haqiqatparvarlik, oqillik, mardlik, adolatparvarlik kabi fazilatlarga ega bo’lishi lozim; umuman olganda, odshoda inson barcha qobiliyatlarining oqilona mushtarakligi mavjud bo’lishi darkor. Platon insoniyat tarixida birinchi ideal davlat nazariyasini yaratadi. U davlatning uch shaklini tan oladi: monarxiya, aristokratiya va demokratiya. Bu shakllarning har biri ikki ko’rinishda: qonuniy va noqonuniy yoki zo’rlik ishlatishga asoslangan ko’rinishlarda amal qiladi. Platon davlatning qonuniy shaklini ma’qul ko’radi. Uning fikricha, davlatni faylasuflar hammadan yaxshiroq boshqara oladilar. Platon o’zining «Davlat» asarida bu haqda shunday deb yozadi: «Agar qashshoq va yo’qsillar o’z shaxsiy manfaatlarini qondirishni

ko’zlab, jamiyatni boshqarish imkoniyatini qo’lga kiritgan bo’lsalar, bundan yaxshi ish chiqmaydi: hokimiyat bellashuv maydoniga aylanadi va bunday ichki urush uning ishtirokchilarini ham, qolgan fuqarolarni ham halokatga mahkum etadi. Hokimiyat uni sevguvchi kishilar qo’liga o’tishi ham yaramaydi. Aks holda ular bilan bu sevgida raqiblar bellashadi...»[27].

Aristotel ham o’zining «Siyosat» asarida o’z davlat nazariyasini bayon etgan. U: «Davlat nima uchun vujudga kelgan va insonni uning jamiyatdagi hayotida boshqaruvchi hokimiyatning nechta turi bor?», degan savolni o’rtaga tashlaydi va o’zining bu savoliga shunday javob beradi: «Davlat yashash uchun yaratilmaydi, balki asosan baxtli yashash uchun yaratiladi... Davlat oilalar va jamoalar o’rtasida yaxshi hayot kechirish uchun aloqalar o’rnatilganda, farovon va o’ziga to’q mavjudlik maqsadida vujudga keladi»[28]. Davlat hokimiyati masalasiga kelsak, Aristotel uning «uch yaxshi» va «uch yomon» shaklini qayd etadi. Davlat hokimiyatining «yaxshi» shakli deganda u jamiyatga xizmat qiluvchi hokimiyat shakllari: monarxiya, aristokratiya, «politiya», ya’ni o’rta sinf hokimiyatini tushunadi. Davlat hokimiyatining «yomon» shakllari qatoriga Aristotel tiraniya, sof oligarxiya va ashaddiy demokratiyani kiritadi.

Aristotel sababiy bog’lanishlarning rang-barangligi muammosini ilgari surib, dialektikani yanada rivojlantirgan. Uning to’rt sabab: moddiy, formal, harakatlantiruvchi va yo’naltiruvchi sabablar haqidagi ta’limoti ma’lum. «Narsalar va hodisalar vujudga kelishiga sabab bo’luvchi omil (materiya, substrat) – moddiy sabab»; «narsaning mohiyatini belgilovchi omil – formal sabab»; «harakat asosi – harakatlantiruvchi sabab»; «biror narsani amalga oshirishdan ko’zlangan maqsad – yo’naltiruvchi sabab». Aristotel shakl va mazmun (materiya) dialektikasini tahlil qilishning o’z usulini taklif qildi. Narsa – bu shakl va materiyaning birligi. Narsalarning vujudga kelishi va ularning takomillashuvi shaklga bog’liqdir. SHakl o’z mohiyatiga ko’ra faol, materiya esa passivdir. SHakl – narsaning tashqi ko’rinishi, u dunyoning rang-barangligi va borlig’ini belgilaydi.

G’arb falsafasida – Pifagor va Pifagorchilar uyushmasi falsafasi, eley maktabi falsafasi, shuningdek Suqrot, **Platon falsafasi** va sh.klarda o’z ifodasini to’adi. Jumladan, miloddan avvalgi IV asrda yashab ijod qilgan qadimgi yunon faylasufi Platon ikki dunyo – “g’oyalar dunyosi” va “narsalar dunyosi” mavjudligi haqida saboq beradi. “G’oyalar dunyosi” umumiy tushunchalardan iborat, “narsalar dunyosi” esa “g’oyalar dunyosi”ning in’ikosidir: “g’oyalar dunyosi”da ideal mohiyatlar mavjud, “narsalar dunyosi” esa bu mohiyatlar mahsuli bo’lgan ayrim narsalardan iborat. Platonning g’oyalar haqidagi ta’limoti uning “Bazm”, “Fedon”, “Fedr”, “Davlat” asarlarida o’z aksini topgan, mutafakkirning “Teatet”, “Parmenid”, “Sofist”, “Kritiy” asarlari esa g’oyalarning moddiy dunyoga bo’lgan munosabati muammosiga bag’ishlangan. Platon fikriga ko’ra, materiya - g’oyaning sof “aksi”, uning “aksilmohiyati”. Materiyaning mohiyati esa - g’oya. Haqiqiy borliq - bu ‘iramidani eslatadigan ideal borliq. Uning zamirida “bilish va harakat asosining mohiyati” sifatida amal qiluvchi go’zallik g’oyasi yotadi. Uning yonidan yaxshilik g’oyasi va oqillik (haqiqat) g’oyasi o’rin oladi. SHunday qilib, Platon “g’oyalar dunyosi” “narsalar dunyosi”ni vujudga keltirishini nazarda tutuvchi ob’ektiv idealizm falsafiy tizimini yaratgan. Platon g’oyalar va narsalarni bir-biridan ajratib bo’lmasligini qayd etsa-da, lekin buyuk mutafakkir uchun “g’oyalar dunyosi” birlamchidir.

Aristotel “Metafizika” asarida Platonning narsalarning vujudga kelish asosi sifatidagi g’oyalar haqidagi ta’limotini rad etadi. U mohiyat-g’oyalar hissiy idrok etiladigan narsadan tashqarida mavjud emas, degan tezisni ilgari suradi. Platon fikrlariga e’tiroz bildirar ekan, Aristotel umumiylik faqat ayrim narsada mavjud deb hisoblaydi: “Ayrim narsa bo’lmasa, umumiylik ham bo’lmas edi”. “Metafizika”da Aristotel falsafa borliq va uning atributlarini, borliqning oliy tamoyillari yoki sabablarini o’rganishini qayd etadi. Bular “umumiy metafizika” muammolaridir. Ammo “xususiy metafizika” ham mavjud bo’lib, u “harakatsiz substantsiya yoki birinchi boqiy dvigatel”ni o’rganadi

Xristianlik va Avreliy Avgustin falsafiy ta’limotining vujudga kelishi. Xristianlik Ikki ming yil muqaddam Rim hokimiyati ostida bo`lgan Kichik Osiyo va Falastin yerlarida *Nazaret* shahrida duradgor *losif* va rafiqasi *Mariya* xonadonida "Xudoning o`g`li" nomini olmish *Iisus* (Iso) tug`ilgani haqida rivoyatlar tarqala boshladi. 30 yoshida lisus sahroda yashovchi voiz *Cho`qintiruvchi Ioann* qo`lida *lordan daryosida* cho`qintiriladi. Yovuzlikni sodir etganlar loannga tavba qilish uchun kelishardi. lisus Xristos begunoh bo`lsa-da, Yaratganga yo'l ‘oklovchi tavba-tazarrudan boshlanishini ko`rsatib berish uchun cho`qinadi.O`n ikki nafar havoriylari bilan Falastin bo`ylab sayohat qilib, Xudo oyatlari haqida hikoya qilib beradi, turli mo`jizalar ko`rsatadi — o`liklarni tiriltiradi, yashashdan umidini uzgan tuzalmas xastalarni sog`aytiradi. Yahudiy ruhoniylari Iso ‘ayg`ambarni mavjud diniy haqiqatlarni buzib talqin etishda ayblab, uni o`lim jazosiga mahkum etadilar. Rim noyibi *Pontiy Pilat* bu hukmni tasdiqlashi shart edi. Avvaliga Pontiy Pilat bu ishni qilishdan bosh tortgan, ammo ruhoniylar tazyiqi ostida rozilik beradi- Iisusni *Golgof* tog`ida xochga tortadilar, bu yerda, rivoyatlarda aytilishicha, Yyer yuzidagi ilk inson —*Odam ato* dafn etilgan. Iso Payg`ambar 3 kunda dahshatli azoblar girdobida jon beradi. Vafotidan keyin murdasini bir g`orga qo`yishadi. Uchinchi kuni dafn etish uchun kelishganda Iso Masih jasadi qo`yilgan joyida yo`qligini ko`rishadi. Iso Payg`ambar qayta tirilgan va me'rojga ko`tarilgan, vafot etgan va yashayotgan odamlarning ishlarini baholash uchun Yyer yuziga qaytib kelishga va'da bergan.

Iuisus haqidagi rivoyatlar *Yevangeliya (Injil)* nomini olgan, yunonchadan tarjima qilganda bu so`z "Xushxabar" ma'nosini anglatadi. Iso payg`ambar ta'limoti izdoshlari *xristianlar (nasroniylar)dir.* Shogirdlari

---

[27] Платон \\ Всемирная энсиклопедия. –М.: Современний литератор, 2001. –S. 782.

[28] Аристотел \\ Всемирная энсиклопедия. –М.: Современний литератор, 2001. –S. 69

apostollar (hovariylar)dir. Xristianlar jamoalariga ye'isko'lar peshvolik qiladilar. Milodiy birinchi asr xristianlik *(nasroniylik)* vujudga kelgan sana hisoblanadi. Rim hukmdorlari xristianlarni ta'qib etadilar, yirtqich hayvonlar changaliga tashlaydilar, turli qiynoqlarga soladilar.Milodiy 313-yilda imperator Konstantin xristianlik davlatning boshqa dinlari bilan teng bir din deb e'lon qilingan farmon chiqardilar. Farmon xristianlarga ibodatxonalar qurish va oshkora ibodat qilishga ruxsat berdi.

Apologetika ortidan «cherkov otalari»ning falsafiy ta'limoti – patristika (lot. Pater – ota) paydo bo'lgan. patristikaning eng yorqin vakili Gippon (SHimoliy Afrika)dagi yepiskop **Avliyo Avgustin** (354-430)dir. U o'rta asrlar falsafasiga, shuningdek falsafiy ijodning keyingi davrlardagi ko'pgina vakillariga kuchli ta'sir ko'rsatgan.

Avgustin «haqiqiy falsafa va haqiqiy din»ni bir deb hisoblagan. Xristianlik asoslarini u Platon falsafasidan to'ishga harakat qilgan. Uning fikricha, Platon g'oyalari – «bu ijodkor ijodga kirishish oldidan yuritgan mulohazalar»[29]dir. Xudo dunyoni yo'qlikdan yaratgan. Inson panoh to'ishining asosiy yo'li uning xristian cherkoviga mansubligidir. Xristian cherkovi «ilohiy shahar»ning Yerdagi vakilidir. Avgustin inson faoliyatining ikki qarama-qarshi turini tahlil qiladi: birinchi – «dunyoviy shahar», ya'ni «Xudoga nisbatan nafrat darajasiga ko'tarilgan o'z-o'ziga bo'lgan muhabbatga» asoslangan davlatchilik; ikkinchi – «o'z-o'ziga nisbatan nafrat darajasiga ko'tarilgan Xudoga bo'lgan muhabbat»ga asoslangan «ilohiy shahar». Avgustinning eng mashhur: «Ilohiy shahar», «Insoniy shahar», «Tavba» kabi asarlari mavjud.

Avgustin ikki muhim muammo: shaxs dinamikasi va kishilik tarixi dinamikasi muammolarini yechishga harakat qiladi. U «Tavba» asarida shaxsning o'zligini, uning ruhiy holatlarini o'rganadi. Avgustin shaxsning ichki dunyosini uning go'daklik yillaridan boshlab inson xristian sifatida shakllanadigan davrgacha tavsiflaydi. U shaxsga nisbatan zo'rlik ishlatishning har qanday shakllarini (maktabda bolaga zo'rlik ishlatishdan davlat darajasida zo'rlik ishlatishgacha) qoralaydi. Avgustin shaxs erkinligi muammosini ilgari suradi. Oradan bir necha asrlar o'tgach, ayni shu muammo ekzistentsializm vakillarida Avgustin falsafasiga nisbatan qiziqish uyg'onishiga sabab bo'ldi. Avgustin inson sub'ektiv tarzda erkin harakat qiladi, lekin uning barcha harakatlarini u orqali Xudo bajaradi, deb hisoblagan. Xudoning borlig'ini insonning o'zligidan, inson tafakkurining o'z-o'zi uchun ishonchliligidan keltirib chiqarish mumkin. Avgustin shaxs uchun o'zlikning rolini ko'rsatib berdi. Zero «Men» - tashqi dunyodan ajralib chiqadigan va hatto undan «berkinib» oladigan intim mavjudot. Avgustin inson o'z «Meni»ni qanday kashf etadi, degan savolga javob to'ishga harakat qiladi.

Tarix falsafasini ishlab chiqish ham, garchi atamaning o'zini Volter taklif qilgan bo'lsa-da, Avliyo Avgustindan boshlangan. Antik faylasuflarda «tarixiylik» tushunchasi mavjud bo'lmagan: yunonlar dunyoni estetik jihatdan, mukammal koinot sifatida idrok etganlar. Avgustin esa o'tmish – hozirgi davr – kelajakning o'zaro aloqasini falsafiy jihatdan anglab etishga harakat qilgan. Hozirgi davr – bir lahza, zero u o'tmishga chekinadi va kelajak sari harakat qiladi. «Insoniy shahar» (jamiyat) hayoti buni tasdiqlaydi.

Avliyo Avgustin asarlari sxolastik falsafaning yaratilishiga asos bo'lgan va uzoq vaqt mobaynida antik falsafani, asosan Platon, Aristotel hamda neoplatoniklar – Plotin, Porfiriy, Prokl, Yamvlix asarlarini o'rganish manbalaridan biri bo'lib xizmat qilgan. Plotonning universal triadasi – «yagona – aql – jon» sxolast-faylasuflar e'tiborini o'ziga tortgan.

Ilk o'rta asr G'arb falsafasi rivojlanishining umumiy belgilari. *Birinchidan, o'rta asrlar G'arb va SHarq falsafasi avvalo feodal jamiyat falsafasi bo'lib, u ilohiyot va dinning hukmronligi bilan tavsiflanadi.* Feodal tuzum sharoitida feodal mulkdorlik bilan bir qatorda hunarmandlar va dehqonlarning shaxsiy mehnatiga asoslangan xususiy xo'jaligi mavjud bo'lgan. Feodal ishchini sotishi va sotib olishi mumkin bo'lgan, lekin ishchini o'ldirish huquqi unga berilmagan. Ishlab chiqarish munosabatlarining bunday rivojlanishi ularni ijtimoiy-Psixologik va mafkuraviy jihatdan mustahkamlashni talab qilgan. Feodal madaniyatni mafkuraviy jihatdan ta'minlovchi integratsion asos din bo'lgan.

Ikkinchidan, o'rta asrlarda din G'arbda ham, SHarqda ham feodal jamiyatning hukmron mafkurasi hisoblangan. Bu davrda cherkov eng yirik kuch bo'lgan. SHuningdek, u siyosiy jihatdan ham o'ta markazlashgan tashkilot sanalgan. Dindorlar amalda birdan-bir o'qimishli odamlar bo'lgan. YUris'rudentsiya, tabiatshunoslik va falsafaning mazmuni cherkov ta'limoti bilan muvofiq holatga keltirilgan.

Muqaddas kitob aqidalari falsafiy mulohazalarning tayanch nuqtasiga aylangan. Bu davrda bilim emas, balki e'tiqod, fan emas, balki din afzal ko'rilgan. **Teotsentrizm,** ya'ni Xudoga, uning mohiyatiga dunyoning birinchi sababi va birinchi asosi sifatida yondashish o'rta asrlar falsafasiga xos xususiyatdir. Masalan, o'rta asrlarda Xitoyda dao haqidagi ta'limot din ehtiyojlariga to'la moslashtirilgan: dao tabiiy qonun sifatida emas, balki ilohiy qonun sifatida namoyon bo'lgan.

Buddizm falsafasi asosiy e'tiborni borliqning o'tkinchiligi va yo'qlikning haqiqiyligi, jonning boqiyligi va abadiy ma'naviy dunyoni anglab etish yo'lida o'zlikni kamolotga yetkazish orqali uning o'z shakl-shamoyilini o'zgartirishi muammolarini o'rganishga qaratgan.

Konfutsiychilik feodal tuzumni oqlash uchun buddizm va daosizmning idealistik va daosizm g'oyalarini o'zlashtirgan: odamlar o'zlarining «yomon» niyatlarini jilovlab, taqdirga bo'ysunishlari lozim. Hokimiyatga bo'ysunish, uni ardoqlash va hurmat qilishni talab etuvchi «Osmon qonuni» haqidagi ta'limot konfutsiychilikda eng muhim ta'limotga aylangan.

---

[29] Августин \\ Всемирная энсиклопедия. –М.: Современний литератор, 2001. –S. 11.

G’arb Yevropa feodalizmi sharoitida ham xristian dini hukmronlik qilgan. U o’zining odamlar aqli va qalbini nazorat qilish markazlashtirilgan tizimini ko’p sonli tarqoq feodal davlatlarga qarshi qo’ygan. Bu nazoratni avvalo Rim papasi boshchiligidagi katolik cherkovi amalga oshirgan. Ayni vaqtda cherkov qadimgi dunyoning «majusiycha» falsafasiga, ayniqsa materialistik ta’limotlarga yot ko’z bilan qaragan. SHu sababli antik davrning falsafiy merosini o’zlashtirishga nisbatan xolisona yondashilmagan, bu meros qismlarga bo’lib o’zlashtirilgan, asosan diniy aqidalarni mustahkamlovchi idealistik g’oyalarni tarqatishga yo’l qo’yilgan.

Ilk o’rta asrlar falsafiy tafakkur rivojida appologetika va patristika, sxolastika.

Yevropada, Vizantiyada, Old Osiyo va SHimoliy Afrikaning ellinlashgan markazlarida xristianlikning tarqalishi boshqa diniy va falsafiy oqimlar bilan qattiq kurash jarayonida yuz bergan. Bunda xristianlikka qarshi neoplatonizm falsafasidan keng foydalanilgan. Ayni shu davrda apologetika, ya’ni xristianlikni asoslash va himoya qilish falsafasi sifatida vujudga kelgan.

Apologetika ortidan «cherkov otalari»ning falsafiy ta’limoti – patristika (lot. pater – ota) paydo bo’lgan. patristikaning eng yorqin vakili Gippon (SHimoliy Afrika)dagi yepiskop **Avliyo Avgustin** (354-430)dir. U o’rta asrlar falsafasiga, shuningdek falsafiy ijodning keyingi davrlardagi ko’pgina vakillariga kuchli ta’sir ko’rsatgan.

Sxolastika (yunon. schole – maktab) – maktab ta’limida hukmronlik qilgan va ilohiyotga to’la bog’liq bo’lgan o’rta asrlar xristian falsafasi. XI asrda sxolastik falsafa doirasida nominalizm va realizm o’rtasida kurash avj olgan. Dastavval: «Xudo bir, lekin siymolarda uchta: Xudo-ota, Xudo-o’g’il va Xudo-muqaddas ruh, degan fikrni qanday tushunish kerak?», degan sof sxolastik savol o’rtaga tashlangan. Ammo bu savol atrofida avj olgan bahs-munozara uning chegarasidan chetga chiqqan va tom ma’noda falsafiy xususiyat kasb etgan: amalda yakkalik va umumiylik dialektikasining muhokamasiga aylangan. Realistlar «umuman inson», «umuman uy» kabi umumiy tushunchalar – «universaliyalar» mavjudligi to’g’risida so’z yuritganlar. Ular ayrim narsalarning mohiyati sanalgan universaliyalar narsalargacha amalda mavjud bo’ladi va narsalarni vujudga keltiradi, deb hisoblaganlar. Bu ashaddiy realizm zamirida Platonning «g’oyalar dunyosi» va «narsalar dunyosi» haqidagi ta’limoti yotadi.

Nominalizm va realizm. Nominalistlar «universaliyalar narsalardan keyin vujudga kelgan nomlardir», degan fikrni ilgari surganlar. Ayrim narsalar, masalan, odamlar, uylargina realdir, «umuman inson» yoki «umuman uy» esa faqat so’zlar yoki nomlar bo’lib, ularning yordamida odamlar ayrim predmetlarni umumlashtiradilar. Mo’tadil nominalistlar insoniy tushunchalarda ayrim narsalardagi o’xshash jihatlarning in’ikosi sifatida umumiylik mavjudligini taxmin qilganlar.

Realizm umumiylikka narsadan oldin paydo bo’luvchi ideallik sifatida yondashgan, ya’ni amalda umumiy va yakkaning aloqasi to’g’risidagi idealistik kontseptsiyani ishlab chiqqan bo’lsa, nominalizm bu muammoni materialistik yo’l bilan yechishning o’ziga xos timsoli bo’lgan.

SHunday qilib, realistlar va nominalistlar o’rtasidagi bahs falsafiy tus olgan, chunki unda umumiy va yakkaning tabiati muammolari, ularning dialektikasi amalda muhokama qilingan.

Foma Akvinskiy ta’limoti. Foma Akvinskiy (1225-1274) katolik teologiyani yaratgan va sxolastikani tizimga solgan mutafakkir sifatida e’tirof etiladi. Uning eng mashhur asarlari: «Teologiya yig’indisi», «Falsafa yig’indisi», «Majusiylarga qarshi yig’indi». Ularda muallif asosan Aristotel asarlariga tayanadi. Foma Akvinskiy Aristotel ijodi bilan SHarqqa salb yurishi chog’ida tanishadi. Uning ontologiyasida borliq ham ehtimol tutilgan, ham amalda mavjud deb qaraladi. Borliq - ayrim narsalarning mavjudligi, ya’ni substantsiyadir. Foma Akvinskiy imkoniyat va voqelik kabi kategoriyalar bilan bir qatorda materiya va shakl kategoriyalarini ilmiy muomalaga kiritadi. Bunda materiya imkoniyat sifatida, shakl esa – voqelik sifatida qaraladi.

Foma Akvinskiy Aristotelning shakl va materiya haqidagi asosiy g’oyalaridan foydalanib, din haqidagi ta’limotni ularga to’la bo’ysundiradi. Materiya shaklsiz mavjud bo’lmaydi, shakl esa oliy shaklga yoki «shakllarning shakli» - Xudoga bog’liqdir. Xudo esa sof ma’naviy mavjudot. SHaklning materiya bilan birikuvi moddiy dunyo uchungina zarur. Boz ustiga materiya (Aristoteldagi kabi) ‘assivdir. Unga shakl faol tus beradi.

Foma Akvinskiy «ilohiy borliq», hamonki u o’z-o’zidan ravshan narsa emas ekan, tafakkurimiz anglashga qodir bo’lgan narsalar orqali isbotlanishi lozim. U Xudo borligining hozirgi vaqt katolik cherkovi ham foydalanuvchi o’z dalil-isbotini taklif qiladi.

Foma Akvinskiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari ham diqqatga sazovor. U shaxs - «oqilona tabiatdagi eng olijanob» hodisa, deb hisoblagan. Uning fikricha, shaxs aql-zakovat, sezgilar va iroda bilan tavsiflanadi. Aql-zakovat irodadan ustun turadi. Ammo Xudoni bilishni Foma Akvinskiy Xudoga bo’lgan muhabbatdan keyingi o’ringa qo’yadi, ya’ni sezgilar, agar ular oddiy narsalarga emas, balki Xudoga qaratilgan bo’lsa, aqldan ustun bo’lishi mumkin.

Foma Akvinskiy o’zining «podsholar boshqaruvi haqida» asarida insonga avvalo ijtimoiy mavjudot sifatida, davlatga esa xalq farovonligi haqida g’amxo’rlik qiluvchi tashkilot sifatida yondashadi. Hokimiyatning mohiyatini u axloq, xususan yaxshilik va adolat bilan bog’laydi va hatto xalqning adolatsiz podsholarga qarshi bosh ko’tarish huquqi to’g’risida so’z yuritadi.

Foma Akvinskiy ikki qonun: Xudo odamlar ongi va qalbiga joylagan «tabiiy qonun» va cherkovning davlat va fuqarolik jamiyatidan ustunligini belgilovchi «ilohiy qonun» haqidagi muammoni ham muhokamaga kiritadi. Uning fikricha, dunyoviy hayot bo’lg’usi ma’naviy hayotga tayyorgarlikdir. Podshoning hokimiyati oliy – ma’naviy hokimiyatga bo’ysunishi lozim. Bu hokimiyatni osmonda – Iso Masih, Yerda – Rim papaasi boshqaradi. Foma Akvinskiy siyosiy hokimiyat shakllarini muhokama qilar ekan, Aristotel kabi monarxiyani afzal ko’radi.

Foma Akvinskiy falsafasi XIV asrdan boshlab dominikan sxolastlarining bayrog’iga aylandi, XVI asrdan e’tiboran iezuitlar tomonidan targ’ib qilina boshladi. Iezuitlarning mafkurachilari Foma Akvinskiy falsafiy tizimini

sharhladi va takomillashtirdi. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab uning ta'limoti hozirgi vaqt falsafiy tafakkurining qudratli oqimlaridan biri sanalgan neotomizm negiziga aylandi.

G'arb Uyg'onish davri va falsafiy tafakkurning rivojlanish xususiyatlari. Bu insoniyat tarixida yuz bergan eng buyuk ilg`or taraqqiyot davrlaridan biri edi. Uyg`onish davrida hayotning hamma tarmog`ida muhim, ilg`or, hatto aytish mumkinki, inqilobiy o`zgarishlar yuz berayotgan edi.

Uyg`onish davrida yevropada falsafaning rivojlanishi katta hissa qo`shganlardan biri nemis Nikolay Kuzanskiydir (1406-1461). Kuzanskiy ta`limoticha, xudo hamma narsalarda mavjud, shuningdek, hamma narsalar xudoda mavjud. Eng oliy haqiqatlarni bilish, sxolastik fikrlash bilan emas, balki, tajriba asosida amalga oshadi.

U xudoni borliqning oliy va yagona asosi deb hisoblaydi. Bu masalada Kuzanskiy shunday muhim kosmologik fikrlarni bayon qiladiki, hatto ma`lum darajada uni Kopernik va Brunolarning o`tmishdoshi deb hisoblash mumkin. Ikkinchi masala esa bilish nazariyasiga nisbatan uning butunlay yangicha yondoshishidir. Ushbu masalalar bo`yicha Kuzanskiy tomonidan ilgari surilgan g`oyalar ayrim hollarda XVIII asr oxiri va XIX asr boshidagi nemis filosoflari tomonidan bayon qilingan fikrlarning debochasi edi.

Filosofiya va fan rivojlanishiga eng katta hissa qo`shgan uyg`onish davrining mutafakkirlaridan biri polyak olimi Nikolay Kopernikdir (1473-1543). Ma`lumki, fan tarixida Kopernik o`zining fanda tub o`zgarish yasagan geliotsentrik ta`limoti bilan mashhur bo`lgan. Uning ta`limoticha, insonlar tomonidan kuzatiladigan quyosh va yulduzlarning harakatlari aslida yerning o`z o`qi atrofida kundalik aylanishidan va quyosh atrofida yillik aylanishidan iborat. Bizning planetamizning markazi yer emas, quyoshdir. Kopernikning buyuk kashfieti dunyoga teologik qarashga zarba berib, tabiatshunoslikda to`ntarish yasadi. Bu kashfiyot Bibliyaning dunyo tuzilishi haqidagi va o`zgarmas deb tanilgan ta`limotiga zarba berdi. Agar yer olamning markazi emas, balki Quyosh atrofida aylanuvchi planetalarning biri bo`lsa, unda dunyoni, koinotni maqsadga muvofiq xudo tomonidan odamlar uchun yaratilganligi haqidagi talimot asossiz bo`lib qolardi.

Kopernikning geliotsentrik nazariyasidan chuqur ilmiy xulosalar chiqargan mutafakkirlardan biri italiyalik Jordano Brunodir (1548-1600). U Neapol yaqinida tug`ilgan. O'zining ilg`or fikrlari uchun Bruno dahriylikda ayblanadi va cherkovdan haydaladi. Italiyadan qochishga majbur bo`ladi. Uzoq vaqt Shvetsariya, Frantsiya, Angliya va Germaniyada quvg'inda yuradi. 1592 yilda Bruno italiyaga qaytib keladi, lekin cherkov inkvizitsiyasi tomonidan ushlanib turmaga solinadi. Qiynoqlarga qaramasdan, u o`zining ta`limotidan voz kechmaydi, natijada qatl etishga huqm qilinadi, 1660 yil qu fevralda Rimda Gullar maydonida yoqib o`ldiriladi.

Bruno geliotsentrik nazariyani himoya qilish va targ`ib qilish bilan cheklanib qolmaydi. U tabiatshunoslik tajribalarini hisobga olib, bir necha muhim nazariy xulosalar qildiki, ular filosofiyani yana ham boyitdilar. Bruno ta`limoticha, haqiqiy filosofiya ilmiy tajribaga suyanishi kerak, sxolastikani tugatish kerak, uning ta`limoticha, koinot yagona, moddiy, cheksiz va abadiy. Juda ko`p dunyolar bizning quyosh sistemasidan tashqarida mavjuddir. Biz ko`rib turgan narsalar koinotining eng kichik bir qismidir. Yulduzlar - bu boshqa planeta sistemalarining quyoshi yer - cheksiz dunyoning kichik bir zarrasi. Demak, Bruno tabiy-ilmiy qarashlarida Kopernikdan ilgarilab ketib, koinotning cheksizligi haqidagi fikrni aytadi, Kopernik esa koinotni chekli deb hisoblagan edi. Bruno Kopernik ta`limotini quyosh sistemasining tuzilishi haqidagi yangi qarashlar bilan boyitdi.

Yangi va eng yangi davr falsafasining ustuvor yo'nalishlari. XVII asrdan boshlab tabiatshunoslik jadal sur'atlarda rivojlanadi. Dengizlarda kemalarning yurishiga ehtiyojning ortishi astronomiyaning rivojlanishini, shaharsozlik, kemasozlik, harbiy ish – matematika va mexanikaning rivojlanishini belgilaydi. yangi fan avvalo moddiy ishlab chiqarish amaliyotiga: to'qimachilik sanoatida mashinalar ixtiro qilinishiga, ko'mir va metallurgiya sanoatida ishlab chiqarish qurollarining takomillashuviga tayanadi. E.Torrichelli havo bosimi mavjudligini eksperimental yo'l bilan aniqladi, simobli barometr va havo nasosini ixtiro qildi. I.Nyuton mexanikaning asosiy qonunlarini, shu jumladan butun olam tortishish qonunini ta'rifladi. R.Boyl kimyoda mexanikani qo'lladi, kimyoviy element tushunchasini ishlab chiqdi. Ingliz fizigi U.Gilbert magnit xossalarini va uning amalda qo'llanilishini o'rgandi. V.Garvey qon aylanishini kashf etdi va uning rolini empirik usulda tadqiq etdi. R.Dekart va G.Leybnits matematika, mexanika, fizika va fiziologiyaning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdi. Ijtimoiy fanlarda tabiiy huquq nazariyasi ishlab chiqildi (Angliyada T.Gobbs, Gollandiyada G.Grotsiy).

Fanning bunday rivojlanishi o'z davrining falsafasiga ham ta'sir ko'rsatmay qolmadi. Falsafada sxolastika va dindan uzil-kesil ajralish yuz berdi: diniy aqidalarning hukmronligiga, cherkovning ta'siri va tazyiqiga qarshi kurashda aqlning har narsaga qodirligi va ilmiy tadqiqotning cheksiz imkoniyatlari haqidagi ta'limot vujudga keldi.

YAngi davr falsafasiga avvalo tabiatshunoslikdan kelib chiqadigan kuchli materialistik tendentsiya xos.

XVII asrda Yevropaning yirik faylasuflari qatoriga F.Bekon, T.Gobbs va J.Lokk (Angliya), R.Dekart (Fransiya), B.Spinoza (Gollandiya), G.Leybnits (Germaniya) kiradi.

YAngi davr G'arb va SHarq falsafasidagi asosiy muammolar (ontologiya va gnoseologiya). yangi davr, avvalo XVII asr falsafasida ontologiya, ya'ni borliq va substantsiya haqidagi ta'limotga katta e'tibor beriladi (ayniqsa harakat, makon va vaqt to'g'risida so'z yuritilganda).

Fan va falsafaning vazifasi – insonning tabiat ustidan hukmronligini kuchaytirishga, inson sog'lig'i va go'zalligiga ko'maklashish hodisalarning sabablarini, ularning muhim kuchlarini o'rganish zarurligi anglab etilishiga olib kelgan. SHu sababli substantsiya va uning xossalari muammolari yangi davrning deyarli barcha faylasuflarini qiziqtirgan.

Bu davr falsafasida «substantsiya» tushunchasini tavsiflashga nisbatan ikki xil yondashuv paydo bo'lgan: birinchi yondashuv substantsiyani borliqning chegaraviy asosi sifatida ontologik tushunish bilan, ikkinchi

yondashuv – «substantsiya» tushunchasini, uning ilmiy bilim uchun zarurligini gnoseologik jihatdan anglab etish bilan bog'liq.

Frensis Bekon (– ingliz faylasufi 1561-1626) birinchi yondashuv asoschisi substantsiya shakllarining xususiyatlariga tavsif bergan va substantsiyani muayyan narsalar shakli bilan ayniylashtirgan. Uning fikricha, materiya sariqlik, moviylik, qoramtirlik, iliqlik, og'irlik va boshqa shunga o'xshash xossalarga ega. Bular materiyaning eng sodda xususiyatlaridir. Bu xossalarning turli birikmalaridan tabiatning rang-barang narsalari vujudga keladi.

Materiyaning sifat jihatidan har xilligi haqidagi ta'limotni F.Bekon o'zining shakl va harakat haqidagi ta'limoti bilan rivojlantirgan. Uning talqinida shakl – bu narsaga xos bo'lgan xususiyatning moddiy mohiyati. U Platon va Aristotelning shakl haqidagi mushohadalari bilan bahsga kirishadi. Bekon fikriga ko'ra, shakl – jismni tashkil etuvchi moddiy zarralar harakatining turi. Ammo bu zarralar atomlar emas. F.Bekon qadimgi faylasuflarning materiyaning atomistik tuzilishi haqidagi ta'limotiga, ayniqsa bo'shliqning mavjudligi haqidagi ta'limotga salbiy yondashadi. U makonni bo'shliq deb hisoblamagan: Bekon uchun makon materiyaning doimiy o'rni bilan bog'liq bo'lgan. Amalda u makonni moddiy ob'ektlarning ko'lamliligi bilan ayniylashtirgan. Vaqtni Bekon moddiy jismlar tezligining ob'ektiv o'lchovi sifatida tavsiflagan. Vaqtning mohiyatini tushunishga nisbatan mazkur yondashuv diqqatga sazovordir, zero vaqt materiyaning moddiy jismlarda yuz beruvchi o'zgarishlarning davomliligidan iborat bo'lgan va bu o'zgarishlarning sur'atini tavsiflaydigan ichki xossasi sifatida e'tirof etiladi. SHunday qilib, vaqt harakat bilan uyg'un bog'lanadi.

Bekon fikriga ko'ra, harakat – materiyaning tug'ma xossasi. Materiya qanday abadiy bo'lsa, harakat ham shunday abadiydir. U harakatning tabiatdagi 19 turi yoki shaklini qayd etgan: tebranish, qarshilik, inertsiya, intilish, kuchlanish, hayot ruhi, azoblanish va b. Bu shakllar amalda o'sha davrda fanda ayniqsa mukammal o'rganilgan materiya harakati mexanik shakllarining xususiyatlari bo'lgan. Ayni vaqtda F.Bekon moddiy dunyoning ko'p sifatliligini o'rganish va tushuntirishga harakat qilgan.

Bilishning empirik metodi asoschisi F.Bekondir. U tajribaga asoslangan fanlar, kuzatish va eksperimentga alohida e'tibor bergan. Bilimlar manbai va ularning haqiqiyligi mezonlarini u tajribada ko'rgan. Bilishga tashqi dunyoning inson ongidagi in'ikosi sifatida yondashar ekan, u bilishda tajriba hal qiluvchi rol o'ynashini qayd etgan. Ammo faylasuf bilishda aqlning rolini ham inkor etmagan.

Tomas Gobbs (ingliz faylasufi 1588-1679) tomonidan F.Bekonning materialistik qarashlari tizimga solingan va rivojlantirilgan. Gobbs materiyaga birdan-bir substantsiya sifatida yondashgan, barcha hodisalar, narsalar, jarayonlarni bu substantsiyaning namoyon bo'lish shakllari deb hisoblagan. Materiya – abadiy, jismlar va hodisalar – o'tkinchi: ular vujudga keladi va yo'q bo'ladi. Fikrlashni materiyadan ajratib bo'lmaydi, zero materiyaning o'zigina fikrlaydi. Jismsiz tana bo'lmaganidek, jismsiz substantsiya ham bo'lishi mumkin emas. Aynan materiya barcha o'zgarishlar sub'ekti hisoblanadi.

Barcha moddiy jismlar ko'lamlilik va shakl bilan tavsiflanadi. Ularni o'lchash mumkin, chunki ular uzunlik, kenglik va balandlikka ega. F.Bekondan farqli o'laroq, Gobbsda materiya sifat ko'rsatkichlariga ega emas: u materiyani matematik va mexanik sifatida miqdor jihatidan o'rganadi. Unda materiya dunyosi rang, hid, ovoz kabi xossalardan mahrum. T.Gobbs talqinida materiya go'yo geometrik tus oladi va sifat jihatidan bir jinsli, rangsiz narsa tarzida, miqdoriy kattaliklarning muayyan tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Harakatni u faqat mexanik nuqtayi nazardan tushunadi. Makon va vaqt muammolarini o'rganishga nisbatan Gobbs materialistik nuqtayi nazardan yondashadi.

T.Gobbs o'zining dunyo haqidagi falsafiy qarashlarida deist sifatida ish ko'radi. Ammo uning asarlarida ateistik xususiyatga ega bo'lgan fikrlarga ham duch kelish mumkin. Masalan, u Xudo – inson tasavvurining mahsuli, degan fikrni ilgari suradi. «Tabiiy va siyosiy qonunlarning elementlari» asarida, «Falsafa asoslari» trilogiyasi («Jism haqida», «Inson haqida», «Fuqaro haqida»)da, shuningdek «Leviafan» asarida Gobbs tabiiy aloqalar va qonuniyatlar rolini takror-takror qayd etadi. Biroq, T.Gobbs Xudoni odamlar hayotidan butunlay chiqarmaydi: uning fikricha, Xudo «hamma narsani ko'rguvchi va hamma narsani boshqaruvchi», «u barcha sabablarning birinchisi»dir. Gobbs Xudo voqealarning tabiiy oqimiga aralashmasligini qayd etadi.

F.Bekon falsafasining davomchisi T.Gobbs ham gnoseologiyada asosan empirik va sensualist bo'lgan (hissiy bilishni bilishning asosiy shakli deb hisoblagan). Insonga moddiy jism ta'siri natijasida vujudga kelgan sezgini u bilishning birinchi amali deb hisoblagan. Fikrlashni u tushunchalarni qo'shish yoki ayirish deb hisoblagan, unga o'z matematik metodini to'la tatbiq etgan.

Rene Dekart (frantsuz faylasufi va matematigi 1596-1650) substantsiyaning bekoncha va gobbscha monistik talqiniga o'zining dunyoning dualistik talqinini qarshi qo'yadi.

Dekart bir-biriga bog'liq bo'lmagan ikki birinchi asos: nomoddiy yoki «fikrlovchi» substantsiya va moddiy yoki «ko'lamli substantsiya» mavjudligini taxmin qiladi. Bu ikki substantsiya parallel mavjuddir. Ularni o'rganish bilan metafizika va fizika shug'ullanadi. Metafizika avvalo ma'naviy substantsiyani, u bilan bog'liq bo'lgan bilish va borliq tamoyillarini o'rganadi. Fizika tabiat falsafasini tadqiq etadi. U dunyoning vujudga kelishi, Erda hayotning rivojlanishi (tabiat qonunlariga muvofiq) haqidagi ta'limotni o'z ichiga oladi, hayvonlar va inson tanasining tuzilishini mexanika qonunlariga bo'ysinuvchi murakkab mashinalar sifatida o'rganadi (R.Dekart asarlaridan biri «Hayvon – mashina» deb ataladi).

Dekart ilgari surgan kosmogoniya haqidagi ta'limot zamirida quyosh sistemasining tabiiy rivojlanishi g'oyasi yotadi. Uning fikricha, bu rivojlanish materiya va uning turli jinsli zarralari harakati bilan belgilanadi. Dekart materiya mustaqil ijodiy kuchga ega deb hisoblaydi. Harakatni Dekart mexanik jarayon – jismlarning makonda

ko’chishi sifatida tushunadi. SHunday qilib, R.Dekart o’z-o’zi bilan ziddiyatga kirishadi: u makonni jismning ko’lamliligi sifatida tan oladi, lekin harakatni jismlarning boshqa jismlarga nisbatan ko’chishi sifatida tushunadiki, bu makonni bo’shliq sifatida tan olishni anglatadi.

R. Dekartning bilish haqidagi ta’limoti ham diqqatga sazovor. R.Dekart o’zining «Metod haqida mulohazalar» asarida bilimlar manbai va ularning haqiqiyligi mezonini tashqi dunyodan emas, balki inson aqlidan qidirish lozim, degan xulosaga keladi. Uning fikricha, intellektual intuitsiya yoki sof mushohada – bilishning tayanch nuqtasi. Barcha g’oyalarni Dekart ikki guruhga ajratadi: sezgilar ta’sirida tug’ilgan g’oyalar va tug’ma g’oyalar. Tug’ma g’oyalar mutlaqo ishonchlidir. Ularning qatoriga Dekart Xudo g’oyasi, matematik aksiomalar va shu kabilarni kiritadi. Masalan, barcha mavjud narsalarga shubha bilan qarash kashfiyotga yo’l ochuvchi mutlaqo ishonchli asos, metod yoki vosita hisoblanadi. Ayni shu sababli Dekart hissiy narsalar, matematik haqiqatlar va hatto «hamma narsaga qodir Xudo»ning mavjudligiga shubha bilan qaraydi. Ammo, hamma narsaga shubha qilgan va hamma narsani inkor etgan holda, u shubhalanuvchi fikrning mavjudligiga shubha qilmaslik kerak, degan xulosaga keladi. SHu tariqa u fikrlash birdan-bir ishonchli faktdir, deb xulosa chiqaradi: «Fikrlayapman, demak, yashayapman».

Benedikt (Barux) Spinoza (gollandiyalik faylasuf 1632-1677) R.Dekartning substantsiya haqidagi dualistik ta’limotiga zid o’laroq, dunyo haqidagi monistik ta’limotni yaratdi. Uning monizmi panteizm ko’rinishida namoyon bo’ladi: o’z ontologiyasida Spinoza Xudo va tabiatni ayniylashtiradi, bunda Xudo yaratuvchi tabiat va yaratilgan tabiat sifatida amal qiladi. Ayni vaqtda B.Spinoza birgina moddiy substantsiya mavjud bo’lib, uning asosiy atributlari ko’lamlilik va fikrlashdir, degan fikrni ilgari suradi. SHunday qilib, butun tabiat u Xudo bo’lgani uchungina emas, balki unga fikrlash xos bo’lgani uchun ham jonli hisoblanadi. Spinoza butun tabiatni jonlantirib, shu tariqa gilozoist-faylasuf sifatida ham namoyon bo’ladi.

U moddiy substantsiya atributlari ham materiya kabi abadiydir: ular hech qachon vujudga kelmaydi va yo’q bo’lmaydi deb hisoblagan. Faylasuf substantsiyaning konkret holatlari – moduslarga ko’p e’tibor beradi. U moduslarni ikki guruhga ajratadi: abadiy, cheksiz moduslar va muvaqqat, chekli moduslar. CHeksiz moduslar substantsiya atributlari – fikrlash va ko’lamlilik bilan, chekli moduslar esa - qolgan barcha narsalar va hodisalar bilan belgilanadi.

Spinoza harakat hech qanday ilohiy turtki mahsuli emasligini isbotlashga harakat qiladi. Uning fikricha, tabiat «o’z-o’zining sababi» bo’lib, harakat uning mohiyati va manbai hisoblanadi. Ammo harakat Spinozada atribut emas, balki modusdir. Bunda harakat muayyan narsalarda kuzatiladi, substantsiya esa harakatlanish va o’zgarish qobiliyatidan mahrum va vaqtga mutlaqo bog’liq emas.

Ayni zamonda Spinoza – izchil determinist. U hodisalarning yuz berishi, mavjudligi va yo’q bo’lishi zamirida ob’ektiv sabablar yotadi, deb hisoblagan. Uning fikricha, sababiyat ikki xil: ichki (immanent) va tashqi (mexanik) bo’ladi. Ichki sababiyat substantsiyaga, tashqi sababiyat – moduslarga xos. Spinoza sababiy bog’lanishlarnigina emas, balki tasodif, zaruriyat va erkinlik munosabatlarini ham determinizm nuqtayi nazaridan o’rganadi. O’zining «Etika» asarida u tasodifni zaruriyat bilan bir qatorda mavjud bo’lgan ob’ektiv hodisa sifatida e’tirof etadi.

B.Spinoza bilishning uch turini farqlaydi: faqat mujmal va haqiqiy bo’lmagan tasavvurlar beruvchi hissiy bilish; moduslar haqida bilim olish uchun imkoniyat yaratuvchi aql yordamida bilish; bilishning eng oliy shakli – haqiqatga yo’l ochuvchi intuitsiya. Intuitiv yo’l bilan aniqlangan haqiqatlar (aksiomalar)dan deduktiv yo’l bilan – matematika metodlari yordamida qolgan barcha xulosalar chiqariladi.

Spinoza ilgari surgan g’oyalar o’sha davrda fanda hukm surgan teleologizm (tabiatda Xudo ato etgan maqsadga muvofiqlik)ga qarshi qaratilgan.

Gotfrid Vilgelm Leybnits (Nemis olimi va faylasufi 1646-1716) Spinozaning substantsiya tushunchasiga faol kuch yoki «tashabbuskorlik» tamoyilini qo’shimcha qilgan. O’zining «Monadologiya» asarida u moddiy hodisalarni bo’linmas, sodda ma’naviy birliklar – monadalarning namoyon bo’lishi deb e’lon qilgan. Bo’linmas monada ko’lamlilik xususiyatiga ega emas va makonda joylashmaydi, chunki makon cheksiz darajada bo’linuvchandir. Monada – faol kuchning nomoddiy, ma’naviy markazi. Monadalar umrboqiy va yo’q bo’lmasdir, ular tabiiy yo’l bilan vujudga kelishi yoki halok bo’lishi mumkin emas. Ular tashqi ta’sir ostida ham o’zgarmaydi. Har qanday ayrim monada – bu jon va tananing birligi. Monada ma’naviy mohiyatining sirtdagi ifodasi sondir.

Faoliyat, harakat – monadaning xossasi. Leybnits tabiatni mexanika qonunlari bilangina tushuntirish mumkin emas, maqsad tushunchasini ham kiritish lozim, deb hisoblaydi. Uning fikricha, har bir monada o’zining barcha harakatlari asosi va ayni zamonda ularning maqsadidir. Jon – jismning maqsadi, ya’ni u erishishga harakat qiluvchi mo’ljal.

Leybnits monadalarni uch toifaga ajratadi: hayot monadalari, jon monadalari va ruh monadalari. SHundan kelib chiqib u barcha murakkab substantsiyalarni uch guruhga ajratadi: hayot monadalaridan noorganik tabiat vujudga keladi; jon monadalaridan hayvonlar yaraladi; ruh monadalaridan odamlar bino bo’ladi.

Leybnits falsafasida ratsionalizm va empirizmning uyg’unligi oqilona asosda namoyon bo’ladi. «Inson aqli haqida yangi tajribalar» asarida u Lokkning ilgari sezgilarda mavjud bo’lmagan narsa aqlda mavjud emas, aqlning o’zi bundan mustasno, degan tezisini tanqid tig’i ostiga oladi. Barcha haqiqatlarni u zaruriy haqiqatlar (aql haqiqatlari) va tasodifiy haqiqatlar (fakt haqiqatlari)ga ajratadi. Aql haqiqatlari qatoriga Leybnits substantsiya, borliq, sabab, harakat, ayniyat tushunchalarini, mantiq tamoyillari, matematika tamoyillari va axloqiy tamoyillarni kiritadi. Uning fikricha, bu haqiqatlar manbai faqat aqldir.

Jon Lokk (ingliz faylasufi 1632-1704) cubstantsiya tushunchasini tahlil qilishga nisbatan gnoseologik yondashuvga asos solgan. U g’oyalar va tushunchalarning manbai tashqi dunyo, moddiy narsalardir, degan tezisni

isbotlashga harakat qilgan. Uning fikricha, moddiy jismlarga sof miqdor xususiyatlarigina xos. Materiya sifat jihatidan rang-barang emas: moddiy jismlar bir-biridan kattaligi, shakl-shamoyili, harakati va osoyishtaligi bilangina ajralib turadi. Bular – «birlamchi sifatlar». «Ikkilamchi sifatlar» - bu hid, ovoz, rang, ta'm. Ular narsalar bilan uzviy bo'lib tuyuladi, lekin amalda bunday emas: narsalarda bunday sifatlar yo'q. Ular, Lokk fikriga ko'ra, sub'ektda «birlamchi sifatlar» ta'sirida vujudga keladi.

«Birlamchi» va «ikkilamchi» sifatlarni ajratish hozirgi zamon bilimi nuqtayi nazaridan sodda va noilmiy hisoblanadi. Ammo u sub'ektiv idealizm namoyandalari tomonidan o'zlashtirilgan va o'zining tadrijiy yakuniga etkazilgan: «birlamchi sifatlar», «ikkilamchi sifatlar» bilan bir qatorda, sub'ektga bog'liq bo'lmagan, ob'ektiv mazmunga ega emas, deb e'lon qilingan.

Bilish nazariyasida J.Lokk inson ongining mazmunini hissiy tajribadan keltirib chiqarishga harakat qilgan. Lokk sensualizmining noizchilligidan Berkli foydalangan va sirtdagi tajriba omilidan butunlay voz kechgan

Jorj Berkli (ingliz faylasufi, episkop har 1685-1753) materializm, ateizm va deizmga ochiq-oydin qarshi chiqqan, har qanday sifatning ob'ektiv asosini rad etgan va amalda ularni inson sezgilariga tenglashtirgan. Berkli fikriga ko'ra, amalda avvalo «jonlar», ularni yaratgan Xudo, shuningdek Xudo odamlar joniga joylagan «g'oyalar» yoki sezgilar mavjud. Berkli tashqi dunyodagi ob'ektivlikni sub'ektivlik bilan bog'laydi: u barcha narsalarni sezgilarning «uyg'unliklari» bilan bog'laydi. Berkli uchun idrok etish mumkin bo'lgan narsalargina mavjuddir. U barcha narsalar Xudoning aqlida zohir, degan fikrni ilgari suradi.

Devid Yum (ingliz faylasufi 1711-1776) ham, **J.Berkli** kabi, substantsiyaning materialistik talqiniga qarshi chiqib, ontologiya muammolarini yechishga harakat qilgan. U moddiy va ma'naviy substantsiyaning amalda mavjudligini inkor etgan, lekin substantsiya «g'oyasi» mavjud, deb hisoblagan. Substantsiya «g'oyasi» deganda u ilmiy bilimga emas, balki oddiy bilimga xos bo'lgan inson «idroklari majmui»ni tushungan.

YAngi davr falsafasi bilish nazariyasi (gnoseologiya)ning rivojlanishida ulkan qadam tashladi. Falsafa ilmiy metodi, insonning tashqi dunyoni bilish metodologiyasi, tashqi va ichki tajriba aloqalari bosh muammolarga aylandi. Olinayotgan barcha bilimlar tizimining o'zagi hisoblangan haqqoniy bilimni olish vazifasi qo'yildi. Bu vazifani hal qilishning turli yo'llarini tanlash gnoseologiyaning ikki asosiy yo'nalishi – empirizm va ratsionalizm paydo bo'lishini belgiladi.

XVIII asr Yevropa falsafasining ma'rifiy xususiyati. Yevropada XVIII asr falsafasi XVII asr g'oyalarini davom ettiradi va rivojlantiradi. Bu davrda falsafiy tafakkur fan va ijtimoiy amaliyot sohasida erishilgan yutuqlarni umumlashtiradi. Falsafiy g'oyalar yanada kengroq targ'ib qilinadi, chunki XVII asrda falsafiy asarlar faqat lotin tilida yozilgan va ular bilan tanishish imkoniyatiga ega kishilar doirasi ancha tor bo'lgan; XVIII asrda faylasuflarning asarlari ular qaysi mamlakatda yashasa, shu mamlakat tilida yozilgan va nashr etilgan.

XVIII asr falsafasida tabiat hodisalarini tushuntirishga nisbatan qarashlarda materializm sezilarli darajada rivojlanadi. Frantsuz materializmi olamshumul tarixiy ahamiyat kasb etadi: u o'rta asrlar sxolastikasiga qarshi chiqibgina qolmasdan, balki o'z dunyoqarashi va dunyoviy manfaatlarini ham asoslashga harakat qiladi.

Albatta, XVIII asr falsafasi bir jinsli emas: unda materialistik dunyoqarash mo'ljallari ham, idealistik dunyoqarash mo'ljallari ham, ateistik va deistik qarashlar ham mavjud. Aksariyat hollarda idealizm va materializm, din va fan yonma-yon turadi.

SHuni qayd etish lozimki, XVIII asr falsafasi avvalo ma'rifat falsafasi sifatida rivojlangan; qomuslar va lug'atlar, pamfletlar va boshqa nashrlarda ilmiy va falsafiy g'oyalar keng ommaga tushunarli tarzda atroflicha bayon etilgan.

Ma'rifat davri falsafasiga **P.Gassendi** (1592-1655) asarlari, uning atomistik materializmi, Epikur g'oyalari, shuningdek uning etikasi targ'iboti, sxolastikaning tanqidi, R.Dekart asarlari, P.Beyl (1647-1706) asarlarida diniy dogmatizm tanqidi zamin yaratdi.

XVII-XVIII asrlar Yevropa Ma'rifat falsafasiga ingliz ma'rifatchilari J.Lokk va D.YUm, XVII asr nemis ma'rifatchisi G.Leybnits, shuningdek buyuk olim I.Nyuton falsafasi ham kuchli ta'sir ko'rsatdi. XVIII asr Ma'rifat falsafasida ikki yo'nalish: Volter, Russo, Volf, Monteske va boshqalarning deistik materializmi hamda Mele, Didro, Golbax, Gelvetsiy, Lametri kabi olimlarning asarlarida Nyuton, Galiley, Dekartning materialistik tabiatshunosligi negizida deizm nazariy asoslarining tanqidi farqlanadi.

Fransua Mari (Arue) Volter (1694-1778) frantsuz ma'rifatchilarining atoqli namoyandasi falsafa tarixidan otashin publitsist, Nyuton fizikasi va mexanikasi hamda Angliyadagi konstitutsiyaviy tartib va muassasalarning targ'ibotchisi, cherkov, iezuitlar, inkvizitsiya tajovuzlaridan shaxs erkinligining himoyachisi sifatida o'rin oldi. Uning «Kandid», «Orlean qizi» asarlari, «Falsafiy lug'at», «Ensiklopediya»dagi maqolalari butun Yevropada keng tarqaldi.

Jan Jak Russo (1712-1778) Yevropa inqilobiy mafkurasining vujudga kelishiga mashhur «Ijtimoiy shartnoma» asari bilan ulkan ta'sir ko'rsatdi. Erkinlik hamda yuridik huquqlarning so'zsiz tengligiga asoslangan fuqarolik jamiyatining nazariy asosi hisoblangan bu asar Buyuk frantsuz inqilobi davrida yakobinchilar uchun o'ziga xos dasturilamal bo'lib xizmat qildi.

SHarl Lui Monteske (1689-1755) Geografik determinizm asoschilaridan biri jamiyatda tartib va axloqni saqlash uchun zarur bo'lgan dinning funktsional roli kontseptsiyasini rivojlantirdi.

XVIII asrning ikkinchi yarmida ma'rifatchilik harakati keng demokratik qamrov kasb ketdi. Fransiyada bosh muharriri va tashkilotchisi D.Didro bo'lgan «Ensiklopediya» nashri atrofida jipslashgan ilg'or mutafakkirlar, olimlar va yozuvchilardan iborat «faylasuflar partiyasi» paydo bo'lgani to'g'risida so'z yuritila boshladi. Bu «faylasuflar partiyasi»da Didro bilan bir qatorda Gelvetsiy va Golbax, shuningdek Lametri etakchi rol o'ynadi. Ular

materializmning faylasuflar va falsafiy maktablarning keyingi avlodlariga kuchli ta’sir ko’rsatgan ancha rivojlangan shaklini yaratdilar.

Yangi davr G’arb falsafasidagi asosiy muammolar. Ontologik va gnoseologik muammolar. Ontologik muammolar XVIII asr frantsuz ma’rifatchilari namoyandalari tomonidan asosan materialistik va ateistik nuqtayi nazardan o’rganilgan. Bu Didro, Golbax, Lametri va Gelvetsiy falsafasining o’ziga xos jihatlaridan biridir. O’z davrida katta shov-shuvga sabab bo’lgan «Inson – mashina» asarining muallifi **Jyulen Ofre de Lametri** (1709-1751) moddiy dunyo «o’z holicha mavjud» ekanligiga, uning boshi ham, oxiri ham yo’qligiga ishonchi komil bo’lgan. Lametri materializmi Epikurning atomistik materializmi, Spinozaning materialistik ta’limoti va Lokk sensualizmi ta’sirida vujudga kelgan. Lametri jonni aql faoliyati funksiyasi va ko’rinishi deb hisoblagan va Dekartning umrboqiy nomoddiy jon haqidagi g’oyasi asossiz ekanligini isbotlashga harakat qilgan.

Pol Genrix Ditrix Golbax (1723-1789) frantsuz materializmi falsafiy qarashlarining eng izchil ifodachisidir. Uning «Tabiat tizimi» asari «XVIII asr materializmi va ateizmi kodeksi» degan nom olgan. 1770 yilda nashr etilgan bu asarda muhim ontologik muammolar, chunonchi: materiya, tabiat, harakat, makon, vaqt, sababiyat, tasodif, zaruriyat muammolari bayon etilgan. Golbax uchun tabiat barcha narsalar va hodisalar sababidir, zero u Xudo tufayli emas, o’zi tufayli mavjud. Tabiat – harakat sababi. Golbax harakatni tabiat mavjudligining zaruriy natijasi sifatida tavsiflaydi. Tabiat deganda u o’z energiyasi ta’sirida harakat qiluvchi moddalar yig’indisini tushunadi. Golbax fikriga ko’ra, barcha jismlar bo’linmas va o’zgarmas elementlar – atomlardan tashkil topadi. Materiya tushunchasini u modda tushunchasi bilan ayniylashtiradi.

Ayni vaqtda Golbax tabiatda barcha aloqalar va harakatlar zaruriyat bilan belgilanadi, deb hisoblagan. Uning fikricha, olam bir-biridan uzluksiz kelib chiqadigan sabablar va oqibatlarning uzilmas zanjiridir. SHu sababli Golbax tasodifni tabiatdan ham, ijtimoiy hayotdan ham chiqaradi. U insonni ham zaruriyat quli deb hisoblaydi: u o’z hayotida bir daqiqa ham erkin emas, uning xatti-harakatlari amalda qanday namoyon bo’lsa, shunday bo’lishi mumkin. Bu oldindan belgilanganlik Golbax determinizmining fatalistik xususiyatini belgilaydi.

Deni Didro (1713-1784) o’zining «Materiya va harakatning falsafiy printsiplari», «Tabiatni tushuntirish haqida mulohazalar», «D’Alamberning tushi» asarlarida sub’ektiv idealizmga qarshi chiqadi va muhim ontologik muammolarning o’z talqinini taklif qiladi. Uning fikricha, mavjud bo’lgan hamma narsalar moddiydir. Didro, dunyo uzluksiz paydo bo’ladi va o’ladi, har bir lahzada tug’ilish va o’lish holatida bo’ladi; o’zga dunyo hech qachon bo’lmagan va bo’lmaydi, deb ta’kidlaydi. Ko’rib turganimizdek, Didro borliq muammolarini o’rganish sohasiga dialektikani tatbiq etadi. Uning fikricha, butun materiya his qiladi (bu gilozoizm nuqtayi nazari). Ammo u «inert hissiylik» va «faol hissiylik»ni farq qiladi. «Faol hissiylik» muayyan tarzda uyushgan materiyadagina namoyon bo’ladi.

Frantsuz materializmi tabiatshunoslikda hukm surgan tabiat «saltanati» - o’simliklar, hayvonot dunyosi bilan inson o’rtasidagi tafovutni bartaraf etishga harakat qildi.

Didro, Golbax, Lametri, Gelvetsiy va Kondilyak falsafasida gnoseologiya muammolari muhimlik jihatidan ontologik muammolar bilan bir qatorda turadi. Insonning ichki va tashqi dunyosi bilimlar manbai deb e’lon qilinadi. Bu dunyolarni anglab etish mumkin. Inson bilimlarining nomukammalligi avvalo ular rivojlanishining mazkur bosqichi bilan belgilanadi. Frantsuz materialistlari hissiy va aqliy omillarning bilishdagi rolini shunda ko’radilarki, sezgilar guvohlik ko’rsatkichini bersa, aql bu ko’rsatkichlarning to’g’riligini tekshiruvchi hakam vazifasini bajaradi. Aql hissiy ko’rsatkichlardan uzoqlashishi mumkin emas, lekin u mazkur ko’rsatkichlarga haddan tashqari ishonishi ham yaramaydi. Aqlning sezgidan ajralishi bilishni amalga oshirib bo’lmaydigan ishga aylantiradi.

Kuzatish va eksperiment bilish metodlaridir. Ular mushohada qilish, mulohaza yuritish, tushunish va idrok etish, shuningdek aql uchun juda zarur.

Lametri, Didro, Gelvetsiy va Golbax ismlari bilan bog’liq bo’lgan falsafiy yo’nalishning rivojlanishida Eten Bonno de Kondilyak (1714-1780) ishlab chiqqan bilish nazariyasi ayniqsa muhim rol o’ynadi. U o’zining «Inson bilimlarining kelib chiqishi haqida tajriba», «Sezgilar haqida risola», «Tizimlar haqida risola», «Hayvonlar haqida risola» deb nomlangan asarlarida Lokkni sensualizm va empirizm tamoyilini amalga tatbiq etishda noizchillikda ayblab, bilishning sensualistik nazariyasini asoslashga harakat qiladi. Kondilyak fikriga ko’ra, inson dunyoga kelganda, u nafaqat hech narsani bilmaydi, balki sezish qobiliyatiga ham ega bo’lmaydi. Bularning barchasini u tajriba orqali o’zlashtiradi. Kondilyak sezgi azaldan biron-bir mazmunga ega emas, lekin u lazzatlanish va azob-uqubatni aks ettirishga qodir, shu bois u yoqimli va ko’ngilsiz bo’ladi va xotirada saqlanib qoladi, deb hisoblaydi.

Hissiyotdan abstrakt fikrlashga o’tish, Kondilyak fikriga ko’ra, uzluksiz jarayon sifatida yuz beradi: mayl, xotira izidan taqqoslash va mulohaza yuritish keladi. Kondilyak g’oyalarga borliqqa bog’liq bo’lmagan holda mavjudlik xossasini yuklashga bo’lgan har qanday urinishlarga qarshi chiqadi. Borliqni u g’oyalardan qat’i nazar mavjud bo’lgan hodisalar sifatida tasavvur qiladi.

XVIII asr Yevropa falsafasining ma’rifiy xususiyatlari.

Nemis klassik falsafasi. Nemis klassik falsafasining yirik vakillari Immanuil Kant, I.Fixte, F.SHelling, Georg Gegel va Lyudvig Feyerbax kabilardir.

Falsafiy tafakkur rivojlanishining bu bosqichi davrning muayyan tarixiy shart-sharoitlari bilan belgilanadi. Bu kuchli ijtimoiy ziddiyatlar, jamiyat ongida olamshumul o’zgarishlar yuz bergan davr edi. Kuchli inqilobiy harakatlardan so’ng ularning sur’ati pasayib imkoniyatlariga ishonchsizlik kuchaydi. Ijtimoiy ongda konservativ tendentsiyalar ustunlik qila boshladi. Angliya va Fransiyada monarxiya va CHerkovning oldingi mavqei tiklandi. Germaniyada pruss monarxiyasining roli kuchaydi. Tarixdagi bu ziddiyatli voqealar nemis falsafasisining asosiy xususiyatlarini belgilab berdi.

Nemis falsafasi F.Bekon va R.Dekart boshlagan inson aqli imkoniyatlarini o'rganishning umumiy yo'nalishini davom ettirdi. Biroq u o'z vazifasini nafaqat inson aqlini madh etish, balki uning chegaralarini belgilash, e'tiqod va aql, din va fanni murosaga keltirish yo'llarini ham izlashda ko'rdi. Bu nemis falsafasi bajarishi lozim bo'lgan ijtimoiy buyurtma edi.

Davrning olamshumul voqealari ijtimoiy taraqqiyot nafaqat aql va fan yutuqlari, balki axloq, ma'naviyat sohasida erishilgan muvaffaqiyatlar bilan ham o'lchanishini namoyish etdi. Inqilob va u bilan bog'liq urushlar davrida yuz bergan ma'naviy inqiroz nemis falsafasida nafaqat bilish imkoniyatlariga, balki inson ma'naviy dunyosining barcha tomonlari, uning bilish, diniy, axloqiy va estetik qobiliyatlarining o'zaro aloqasi muammosiga ham e'tiborni qaratishni talab qildi. Umuman olganda, nemis faylasuflari haqiqat, e'tiqod, yaxshilik va go'zallik ajralmasdir, degan fikrni teran asoslashga harakat qildilar.

Immanuil Kant (1724-1804) nemis klassik falsafasining asoschisi. Uning falsafasi tushunish uchun qiyin bo'lib, falsafiy bilimning barcha jihatlarini o'z ichiga oluvchi keng tizimni tashkil etsada asosiy e'tibor ontologiya, gnoseologiya va axloq masalalariga qaratiladi.

Kant kontseptsiyasi: «Sof aql tanqidi» (1781), «Amaliy aql tanqidi» (1788), «Mulohaza yuritish qobiliyatining tanqidi» (1790)da, shuningdek faylasuf ijodining o'ziga xos sarhisobi sanaluvchi asar – «Sof aql chegaralarida din» (1793) kabi kitoblarida bayon etilgan. Kant bilish nazariyasining asosiy qoidalari quyidagilardan iborat. Kant fikricha bilish jarayoni uch bosqich: 1) sezgilar darajasida bilish, 2) idrok, 3) aqldan o'tadi.

Bilishning birinchi bosqichi -sezgilar darajasida inson narsaning mavjudligini biladi, idrok yordamida uni fikrlaydi. Narsani haqiqiy bilish aynan shu ikki bosqichni sintez qilishni talab etadi. Idrok darajasidagi bilishning quroli – kategoriyalar. Ular idrokka ichdan xos. Hodisalar rang-barangligi kategoriyalar tizimida aks etadi. Kategoriyalar yordamida inson bilimi tasodifiy empirik emas, balki umumiy zarur, ya'ni ilmiy xususiyat kasb etadi. Ilmiy bilim kategorial bilimdir. Biroq shundan so'ng Kant sub'ektiv idealist sifatida mulohaza yuritadi: idrok tabiat qonunlarini ochmaydi, balki ularni tabiat uchun belgilaydi. Kant fikriga ko'ra, kategoriyalar birligi va ularning bilish (sintez qilish) qobiliyati zamirida dunyoning ob'ektiv moddiy birligi emas, balki o'zlikni anglashning transtsendental birligi yotadi.

Idrok etish – bilishning ikkinchi bosqichi. Idrokning kuchi uning sintez qilish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Biroq bu to'liq, cheksiz qobiliyat emas. Idrok tajriba chegarasidan tashqariga chiqa olmaydi. Biroq idrok o'z chegaralarini o'zi bilmaydi. U doim bu chegaralardan chetga chiqadi, ya'ni hodisalar dunyosidan o'zidagi narsalar dunyosiga kirishga harakat qiladi. Biroq tajriba chegaralarini tark etgach (shu tariqa idrok emas, balki aqlga aylangach), u echib bo'lmas ziddiyatlar sohasiga tushib qoladi, uning mulohazalari esa muqarrar tarzda xom xayolga aylanadi.

Aql – bilish jarayonining uchinchi, oliy bosqichi. U hissiyot bilan bevosita emas, balki bilvosita – idrok orqali bog'lanadi. Aql bilishning oliy bosqichi bo'lsa-da, idrokka ko'p jihatdan yutqizadi. U tajribaning mustahkam zaminidan ajralgach, dunyoqarash darajasidagi savollarning birortasiga ham uzil-kesil – ha yoki yo'q deb javob bera olmaydi. Dunyo vaqtda va makonda boshlanadimi yoki u cheksiz va boqiymi? Inson joni boqiymi yoki foniymi? Iroda erkinligi mavjudmi yoki dunyoda hech qanday erkinlik mavjud emas, hamma narsa tabiiy zarurat qonuniga ko'ra yuz beradimi? Xudo bormi yoki yo'qmi? Idrok bunday savollarni bera olmagan bo'lardi. Aql esa bunday savollarni beradi, biroq ularga javob topa olmaydi. Uning da'volari imkoniyat darajasida emas. Sof nazariy aql o'z mag'lubiyatini tan olishi lozim, chunki u o'zidagi narsalarni bila olmaydi.

Kant falsafada o'ziga xos to'ntarish yasadi va falsafani alohida fan sifatida tushunish asoslarini yaratdi. yangi bilish nazariyasini asoslashga harakat qilib, u XVII-XVIII asrlarning bilishni borliqdan ko'chirilgan andoza sifatida talqin qiluvchi empirik nazariyalarini tanqid qildi. Kant muammoni boshqa zaminga ko'chirdi va falsafada gnoseologiyaning bilish jarayoniga sub'ekt – ob'ekt munosabati sifatida qaraydigan yo'nalishiga asos soldi.

Biluvchi sub'ekt – bu muayyan individ emas, balki insonning bilish qobiliyatlari va bilim manbalarinigina o'zida mujassamlashtiruvchi qandaydir mavxum tasavvur. Inson ongida mavjud bo'lgan mazkur qobiliyatlar majmui unga o'zini qurshagan dunyoni sezgilar va aqlning aprior shakllari yordamida tartibga solishga yordam beradi. Bu inson individual, shaxsiy xususiyatlarga ega emas, degan ma'noni anglatmaydi, biroq ular bilish jarayonida etakchi rol o'ynamasligi kerak.

Sub'ekt qandaydir narsa, predmet yoki hodisaning ta'sirini sezgilar darajasida idrok etadi. Bu mushohada yuritishning aprior shakllari yordamida tartibga solinuvchi tuyg'ular rang-barangligini yuzaga keltiradi. Biroq bu bosqichda bilim sub'ektiv bo'lib qoladi. SHundan so'ng idrok ishga kirishadi va mavjud bilimlarni tushunchalar shakliga soladi, ya'ni ularda qandaydir umumiy jihatlarni aniqlaydi. SHu sababli pirovard natijada idrok va aqlni birlashtirgan biluvchi sub'ektgina bilim deb hisoblash mumkin bo'lgan birlikni yaratadi.

Binobarin, bilimning turli shakllariga muayyan tavsif berish mumkin. Masalan, matematika hissiylikning makon va vaqt kabi aprior (ya'ni tajribada ko'rilmagan) shakllariga tayanadi. Boshqacha aytganda, biluvchi sub'ekt dunyoga makon va vaqtda mavjudlik nuqtayi nazaridan qaraydi. Ayni holda makon – tashqi sezgining aprior shakli, vaqt esa – ichki sezgining aprior shakli. Bunday apriorlik matematik haqiqatlarning, demak, fan sifatidagi matematikaning ham mavjudlik imkoniyatini belgilaydi.

XX-XXI asr G'arb falsafasining oqimlari. G'arb falsafasida XIX asr oxirida boshlangan jarayonlar XX asrda uning yangi, hozirgi noklassik tipi vujudga kelishi bilan yakunlandi.

Hozirgi G'arb noklassik falsafasi muayyan yaxlitlik, birlikni ifoda etuvchi falsafiy tafakkur shakllanishining o'ziga xos bosqichidir. Unda ayrim asosiy yo'nalishlar – pozitivizm, neopozitivizm, strukturalizm va hokazolar farqlanadi.

Stsientistik tendentsiya falsafani ijtimoiy fanga aylantirish va dunyoqarash masalalaridan xalos bo'lishga intilish bilan bog'liq. Uni avvalo pozitivizmning har xil, shu jumladan sotsiologiya sohasidagi shakllari ifoda etadi.

Ularga falsafaning ijtimoiy bilim uchun ilmiylikning yagona andozasini yaratishga harakat qiluvchi yo'nalishi – strukturalizm yaqin turadi.

Antistsientistik, ko'p jihatdan irratsionalistik tendentsiya fan salbiy ijtimoiy va tabiiy jarayonlarga sabab bo'lib, ong va bilishning boshqa noilmiy shakllarini chetga chiqarib qo'yishidan kelib chiqadi. Falsafiy mulohaza yuritishning bu tipi avvalo hayot falsafasi, ekzistentsializm va germenevtikani o'z ichiga oladi.

Mavhum-metafizik tendentsiya falsafani borliq va bilishning teran asoslarini aniqlovchi «mutlaq fan» sifatida tasavvur qilish bilan bog'liq. Falsafa o'z mazmunini ijtimoiy fanlarning dalillari va qonunlaridan qat'iy nazar keng ifodalaydi, deb hisoblanadi. Bu tendentsiyani diniy falsafaning turli yo'nalishlari ifoda etadi. Bunga fenomenologiya yo'nalishi ham yaqin turadi.

Endi hozirgi zamon G'arb falsafasining muammolari tahlil qilinuvchi eng nufuzli yo'nalishlarini ko'rib chiqamiz.

Pozitivizm falsafaning keng tarqalgan yo'nalishlaridan biridir. Uning muammolari ilmiy bilimning falsafiy tahlili atrofida jamlanadi.

Pozitivizm *soxta bilimdan haqiqiy bilimni ajratishga harakat qiluvchi ijobiy bilimning falsafiy doktrinasini anglatadi*. Bunday ijobiy bilimlar ayrim fanlarni bilish bilan tenglashtiriladi: pozitivizmga dunyoqarash muammolarini o'z ichiga oluvchi an'anaviy falsafaga nisbatan o'ta salbiy munosabat xosdir.

Pozitivizmning birinchi tarixiy shakli XIX asrning 30-40-yillarida vujudga kelgan. Unga frantsuz faylasufi **O.Kont** asos solgan.

Kont fikriga ko'ra, fanning vazifasi narsani tushuntirish emas, balki unga tavsif berishdir. Fan «nima uchun?» degan savolga javob berishga qodir emas, u dalillarni qayd etish va «qay tarzda?» degan savolgagina javob berish bilan kifoyalanishi lozim. SHu holdagina u ijobiy bo'lishi mumkin.

Kontning falsafani ijobiy bilim tamoyillariga muvofiq tuzishga urinishi tabiatshunos olimlar davralarida o'z izdoshlarini topdi.

Ilk pozitivizm asoschilari olimlarni hissiy hodisalar jabhasiga chuqur kirishga urinishlardan voz kyechish va ularni tavsiflash bilan kifoyalanishga chaqirdilar. Bu yondashuv hissiylik jabhasi ortida qandaydir borliqning mavjudligini nazarda tutadi.

Ilk pozitivizmning o'ziga xos xususiyati shundaki, O.Kont va uning boshqa namoyandalari falsafaning asosiy vazifasini muayyan fanlarning amalda mavjud moddiy dunyo haqidagi ma'lumotlarini umumlashtirish va tizimga solishdan iborat deb bildilar. Boshqacha aytganda, bu bosqichda pozitivizm hali tashqi dunyoning mavjudligini tan oluvchi materialistik ta'limot bo'lib qoldi.

Pozitivizmning ikkinchi tarixiy shakli – **empiriokrititsizm** XIX–XX asrlar chegarasida yuzaga keldi. Uning eng mashhur namoyandalari – **E.Max** (1838-1916) va **R.Avenarius** (1843-1896). Ilk pozitivizmdan farqli o'laroq, empiriokrititsizm falsafaga «ikkinchi pozitivizm»ni sintez qiluvchi fan sifatida yondashadi, uni bilish nazariyasiga bog'laydi. Empiriokrititsizm «tajriba tanqidi» degan ma'noni anglatadi va «tajribani metafizik tabiatni o'zgartiruvchi barcha qoidalardan tozalash»ni nazarda tutadi. E.Max fikriga ko'ra, tajriba amalda «dunyo elementlari» hisoblanuvchi sezgilardan iboratdir.

Binobarin, pozitivizm o'zining maxizm shaklini kasb etgan ikkinchi bosqichida butun falsafiy faoliyatni inson tajribasi hissiy asosining ruhiy-fiziologik shakllari tahliliga bog'ladi. Maxizm falsafasida dunyo «sezgilar majmui» tarzida namoyon bo'ldiki, bu materializmdan butunlay voz kechilishi, ingliz faylasufi Berklining sub'ektiv idealizmi o'ziga xos tarzda tiklanishini anglatadi.

Ikkinchi pozitivizm yaratuvchilari bilish jarayonining nazariy modelini tuzishga harakat qilgan bo'lsalar, neopozitivizm, pozitivizmning uchinchi tarixiy shakli sifatida, ilmiy nazariyalarning haqiqatnamoligini, ularning nisbiy qimmatini aniqlash metodlarini o'z falsafiy faoliyatining predmetiga aylantirdi. Bu bosqich vakillari pozitivizmning asosiy tamoyillariga tayanib, an'anaviy falsafa tushunchalari noilmiydir, chunki ularni tajribada tekshirish mumkin emas, deb e'lon qildilar.

Neopozitivistlar u yoki bu ilmiy xulosalar, kontseptsiyalar va nazariyalarning to'g'riligi, haqiqiyligini tekshirish metodlariga asosiy e'tiborni qaratdilar. Ular hozirgi ilmiy bilimlarning haqiqiyligini tekshirishning asosiy tamoyillari: verifikatsiya, falsifikatsiya va konventsiya tamoyilarini ta'riflab berdilar.

Verifikatsiya (lot. «verus» - haqiqiy va «facio» - bajaraman) tamoyili nuqtayi nazaridan hissiy tajriba dalillari bilan tasdiqlanuvchi ilmiy qoidalargina haqiqiy hisoblanadi. Boshqacha aytganda, tajribada sinalishi mumkin bo'lgan mulohazalargina ahamiyat kasb etadi.

Neopozitivizm metafizik farazlarni aniqlash ishida verifikatsiya tamoyili muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlagan. Biroq bu tamoyil o'zini oqlamadi, chunki u fan tuzilishi va dinamikasiga mos kelmasdi. Verifikatsiya tamyiliga qarshi quyidagi e'tirozlar mavjud:

Fanda tajribada sinash mumkin bo'lmagan bilimlar hanuzgacha mavjud. Biroq ularni keyinchalik, kuzatish va eksperiment texnikasi rivojlanganidan so'ng tekshirish imkoniyati paydo bo'lishi mumkin. Masalan, O.Kont osmon jismlarining kimyoviy tarkibi haqidagi masalani metafizik masala deb hisoblagan. U mazkur masalaning echimini topish mumkin emasligini qayd etgan. O. Kont vafotidan so'ng oradan ikki yil o'tgach spektral analiz paydo bo'ldi va uning yordamida osmon jismlarining kimyoviy tarkibi aniqlandi.

Tarixiy bilim – o'tmish haqidagi, hozir mavjud bo'lmagan narsalar haqidagi bilim. Verifikatsiya tamoyili esa mavjud borliqqa tayanishni talab qiladi. Biroq o'tmishni ham bilish mumkin. Verifikatsiya tamoyiliga ko'ra esa, barcha tarixiy mulohazalar ma'nosizdir.

Ma'noli mulohazalar majmuini neopozitivizm ikki turga – sintetik va analitik mulohazalarga ajratadi. Verifikatsiya tamoyilining o'zini mulohazalarning qaysi turiga kiritish mumkin? Bu tavtologiya ham, tajribada sinalgan (sintetik) mulohaza ham emas. Mazkur tamoyilning kelib chiqishi falsafiy xususiyatga ega, mohiyat e'tibori bilan bu mantiqiy pozitivizm qabul qila olmaydigan metafizik qoidadir.

Falsifikatsiya tamoyili ilgari surilgan qoidalarni tasdiqlashga emas, balki rad etishga qarab mo'ljal oladi. U ilmiylikka da'vogar bo'lgan qoidalarni rad etishga harakat qilishni nazarda tutadi. Ilgari surilgan qoidani rad etib bo'lmasa, uni haqiqiy yoki hech bo'lmasa o'rinli deb hisoblash mumkin. Rad etilgan qoidadan esa voz kechilishi lozim.

Fanni o'rganish sohasidagi falsafiy yo'nalish sifatida, Neopozitivizm, 50-yillar oxiri – 60-yillarning boshlarida o'z nufuzini yo'qotdi, va shu davrda «To'rtinchi pozitivizm» yoki postpozitivizm maydonga chiqdi. Uning eng mashhur namoyandalari qatoriga K.Popper, I.Lakatos, T.Kun, S.Tulmin, P.Feyerabend, D.Agatstsini kiritish mumkin.

Postpozitivizm. Postpozitivizmning neopozitivizm bilan g'oyaviy aloqasi shunda ifodalanadiki, ular asosan ilmiy bilim tahlili bilan shug'ullangan, tilga katta e'tibor bergan. Biroq, *mantiqiy pozitivizm asosan mavjud ilmiy bilim tuzilishini o'rganishga e'tiborni qaratgan bo'lsa, postpozitivizmning bosh muammosini ilmiy bilim dinamikasi tashkil etadi.* Bu o'zgarish fanni falsafiy o'rganish masalalari doirasining ham o'zgarishiga sabab bo'ldi. Postpozitivizmni avvalo ilmiy bilimning ijtimoiy-madaniy omillari, yangi nazariyalarning yuzaga kelishi, ularning olimlar hamjamiyati tomonidan qabul qilinishi, raqobatlashuvchi ilmiy kontseptsiyalarni taqqoslash va tanlash mezoni qiziqtiradi.

Agar mantiqiy pozitivizmga empirik bilimni ishonchli va barqaror bilim sifatida ishonchsiz va o'zgaruvchan nazariy bilimga qarshi qo'yish xos bo'lsa, postpozitivizm esa, aksincha, bilimning bu ikki darajasi bir-biriga o'tishi haqidagi qarash xosdir. Zero postpozitivizm ta'limoti nazariyaning empiriyaga ta'siri kuchli emasligi, dalillarni aniqlash uchun nazariya talab etilishi, shu sababli dalillar nazariyaga ma'lum darajada bog'liq bo'lishi yoki hatto ularni belgilashi yoritib berilgan.

Postpozitivizm kontseptsiyasining navbatdagi xususiyati – shundaki ilmiy bilimning rivojlanishini talqin qilishda kumulyativizmdan voz kechilgan. Ilk pozitivizm ilgari surgan kumulyativistik yondashuv fanning izchil rivojlanishi, bilimlarning asta-sekin to'planib borishini nazarda tutadi. Postpozitivizm fan haqidagi bunday tasavvurdan voz kechadi. U fan tarixida inqilobiy o'zgarishlar yuz berishi muqarrarligini asoslashga harakat qiladi. Postpozitivistlar fikriga ko'ra, inqilob natijasida fanda ilgari e'tirof etilgan va asoslangan bilimlar, nafaqat nazariyalar, balki metodlar va omillar ham qayta ko'riladi.

Uchinchi va to'rtinchi pozitivizm o'rtasida fanni soxta fan (metafizika)dan farqlash masalasida ham jiddiy tafovutlar mavjud. Pozitivizm metafizikani fandan chiqarib tashlashni bosh vazifalaridan biri deb hisoblagan. Postpozitivizm esa ilmiy bilim va falsafa o'rtasida qat'iy chegara o'tkazishdan bosh tortadi. U falsafiy qoidalarning asosliligini va ularni fanlardan chiqarib tashlash mumkin emasligini tan oladi. Fan falsafasida keng qo'llaniluvchi «paradigma» (T.Kun), «ilmiy tadqiqot dasturi» (I.Lakatos) kabi tushunchalar falsafiy (metafizik) unsurlardan iborat. SHuningdek, postpozitivizmning ayrim namoyandalari (P.Feyerabend) fan, falsafa va afsona o'rtasida biron-bir farqni ko'rishdan butunlay bosh tortadi.

Postpozitivizm fan tashqi (ijtimoiy, madaniy) omillar bilan belgilanishi haqidagi g'oyani tan oladi. Bu jihatdan ham postpozitivizm mazkur falsafiy yo'nalishning oldingi shakllaridan ancha farq qiladi. Quyida postpozitivizm vakillarining qarashlari bilan tanishamiz.

XX-XXI asr G'arb faylasuflari ijodida fan falsafasining rivoji. Tomas Kunning (1922-1996) epistemologik kontseptsiyasi uning «Ilmiy inqiloblar strukturasi» asarida ifodalangan bo'lib, bu erda u pozitivistik an'analarni tanqid qiladi. T. Kun fikriga ko'ra, fan tarixi epistemologiyaning bazisi va asosiy materialiga aylanishi lozim.

Fan – bilimlar tizimi emas, balki avvalo ilmiy hamjamiyatlar faoliyatidir. Muammo bunday qo'yilganida falsafa fanining dastlabki nuqtayi nazarlari va xatti-harakatlarida mujassamlashgan alohida normativlik va mantiqiy-metodologik mustaqillikka bo'lgan barcha da'volar o'z ahamiyatini yo'qotadi. Ular ilmiy hamjamiyat faoliyatining asosiy usuliga, uning zaminida shakllangan fan matritsasi va paradigmasiga bog'liq bo'lib qoladi. T.Kunning «Ilmiy inqiloblar strukturasi» asari ta'sirida ilmiy hamjamiyat tushunchasi fanning barcha sohalaridan mustahkam o'rin oldi. Fanning o'zi g'oyalar tizimining rivojlanishi sifatida emas, balki ilmiy hamjamiyat faoliyatining mahsuli sifatida tushunila boshlandi.

Ilmiy hamjamiyatni ma'lum ixtisoslikka va o'xshash ilmiy tayyorgarlikka ega tadqiqotchilar tashkil etadi. Ilmiy hamjamiyat vakillari, odatda, o'xshash kasbiy ko'nikmalarga ega va ilmiy adabiyotlarning muayyan majmuini o'zlashtirgan bo'ladi. Ilmiy hamjamiyat bu muayyan bilim sohasi mutaxassislarining hamjamiyati yoki ma'lum ilmiy muammoni o'rganuvchi tadqiqotchilar guruhidir.

Fanning rivojlanish jarayonida ilmiy hamjamiyatning rolini quyidagicha tavsiflash mumkin:

-mazkur hamjamiyat vakillari fan maqsadlarini va o'z sohasining vazifalarini bir xil tushunadilar. SHu tariqa ular u yoki bu fanning predmeti va uning rivojlanishi haqidagi tasavvurlar tizimini tartibga keltiradilar;

-ularga universalizm xos bo'lib, buni ular o'z tadqiqotlarida va o'z hamkasblarining tadqiqotlariga baho berishda hisobga oladilar, bu erda ular bilimlarni asoslash va isbotlashning umumiy mezonlari va qoidalariga amal qiladilar;

-ilmiy hamjamiyat tushunchasi bilimlarni jamlashning kollektiv xususiyatini qayd etadi. U bilishning kollektiv sub'ekti nomidan ish ko'radi, bilish faoliyati natijalariga kelishib baho beradi, ichki me'yorlar va ideallar tizimi – fan etosini yaratadi va quvvatlaydi;

-ilmiy hamjamiyatning barcha a'zolari muayyan paradigmaga – ilmiy muammolarni qo'yish va yechish modeli (andozasi)ga amal qiladi. Yoki, T.Kun ta'biri bilan aytganda, paradigma tadqiqotchi olimlar guruhini boshqaradi. Olimlarning o'zlari ko'proq paradigma haqida emas, balki nazariya yoki nazariyalar to'plami haqida so'z yuritishni ma'qul ko'radilar.

Stiven Tulmin (1922-1997) butunlay boshqacha metodologik mo'ljal – evolyutsion epistemologiya asoschisi. Mazkur yo'nalishning umumiy ma'nosi shundan iboratki, u bilishni jonli tabiat evolutsiyasining lahzasi sifatida o'rganadi va bilish mexanizmlarini evolutsiya nuqtayi nazaridan yoritadi. Evolyutsion epistemologiya sof evolutsiya va bilish jarayoni biologiyasining o'xshashligi g'oyasiga asoslangan va insonning bilish apparati bu biologik evolutsiya jarayonida rivojlangan moslashuvlar mexanizmidir, degan tasavvurga tayangan. Evolyutsion epistemologlar fikriga ko'ra, ayni shu sababli bilish mexanizmi evolyutsion tip bo'yicha rivojlanadi va tegishli ravishda hozirgi zamon evolutsiya nazariyasiga muvofiq tushunilishi mumkin.

Evolyutsion epistemologiya insonning biologik evolutsiya mahsuli sifatidagi talqinidan kelib chiquvchi bilish nazariyasidir.

SHunday qilib, evolyutsion epistemologiyaning asosiy nazariy manbasi sifatida organik evolutsiya kontseptsiyasi amal qiladi. Evolyutsion epistemologiyaning ikki xil ma'nosini farqlash lozim:

1. bilish vositalari, shakllari va metodlarining (bilish organlarining) rivojlanishini evolyutsion sxema yordamida tushuntirishga urinish;
2. bilim mazmunini (axborotning paydo bo'lishini) evolyutsion tushuntirishga harakat qilish. Bu yerda o'zgaruvchanlik, tanlash va mustahkamlash tushunchalari ma'lum ahamiyat kasb etadi.

Evolyutsion epistemologiyaning birinchi ma'nosida dunyoni aniq aks ettirish imkoniyatini ta'minlovchi bilish organlari, kognitiv strukturalar va bilish qobiliyatlarining evolutsiyasi masalalariga urg'u beriladi. U bizning bilish apparatimiz evolutsiya mahsulidir, degan fikrni ilgari suradi. Tirik organizmlarning nerv sistemasi va idrok etish organlari millionlab yillar mobaynida borliqni mumkin qadar aniq aks ettirishni ta'minlaydigan tarzda o'zgarib borgan.

Agar organizm bunday moslamalar bilan ta'minlanmaganida, uning mavjudligi va rivojlanishi mumkin bo'lmas edi. Pertseptual tizimi o'zi yashaydigan muhit sharoitlarida mos ravishda va qoniqarli harakat qilish imkonini beruvchi organizmlargina yashab qoladi va nasl qoldiradi. Bilishning sub'ektiv strukturalari borliqqa mos tushadi, chunki aynan shunday holat yashab qolish imkoniyatini ta'minlaydi.

Evolyutsion epistemologiyaning ikkinchi ma'nosi falsafa fanining bevosita predmetidir, chunki unda o'z xususiyatiga ko'ra evolyutsion bo'lgan ilmiy bilimning o'sishi modeliga urg'u beriladi.

Bu erda falsafa fani kontseptsiyalaridan biri sifatidagi evolyutsion epistemologiya to'g'risida so'z yuritiladi. U evolutsiya dinamikasining mantiqiy talqiniga mos tushuvchi ilmiy bilim dinamikasini ko'rsatadi. Mazkur yo'nalish ham fanning evolyutsion nazariyasi deb ataladi.

Karl Popper (1902-1994). Eng muhim asarlari: «Ilmiy tadqiqot mantiqi» (1935), «Ochiq jamiyat va uning dushmanlari» (1945), «Tarixiylikning qashshoqligi» (1963), «Ob'ektiv bilim. Evolyutsion yondashuv» (1972), «Realizm va fan maqsadi» (1983).

Popper falsafaning bosh maqsadi ilmiy bilimning o'sishini, ayniqsa – ilmiy kosmologiyani o'rganishdan iborat deb bilgan. Ilmiy kosmologiya dunyoni, shu jumladan insonni (va uning bilimini) bu dunyoning qismlari sifatida bilishni nazarda tutadi. Popper fikriga ko'ra, falsafaning alohida metodi mavjud emas – masalalar aniq qo'yiluvchi va taklif etilgan echimlar tanqidiy tahlil qilinuvchi har qanday oqilona munozara metodi mavjud. U verifikatsiya tamoyiliga zid o'laroq falsifikatsiya metodini (har qanday fikrni rad etish mumkinligi printsipini) taklif qildi, bilimni tashkil etish nazariy va empirik darajalarining uyg'un birligini, shuningdek gipotetik xususiyati va xato qilishi mumkinligini (har qanday fanning fallibilizmi printsipini) qayd etdi. Falsifikatsiya tamoyili fan uchun muayyan ahamiyatga egadir. Salbiy tekshirish u yoki bu qoidaning haqiqiyligini isbotlamasa, uni uzil-kesil rad etadi. Biroq falsifikatsiya tamoyili faqat rad etishga qarab mo'ljal oladi: u bilimlarni o'stirish jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini bermaydi, agar u yoki bu nazariyani rad etuvchi ma'lumotlar topilsa, bu nazariyadan butunlay voz kechiladi.

Nazariyalar o'rtasida vorisiylik mavjud bo'lib, u Nils Borning muvofiqlik tamoyilida o'z ifodasini topgan.

Ilmiy bilimni noilmiy bilimdan, fanni metafizikadan ajratishni (yoki demarkatsiya muammosini) Popper muhimlik mezonlarini yaratish mo'ljallariga qarshi o'laroq muhim ahamiyatga ega deb belgilaydi.

Ilmiy bilimning o'sishini Popper ijtimoiy o'zgarishlar umumiy jarayonlarining ayrim hodisasi sifatida talqin qiladi (va ularning doirasida muammolar va ularni yechishga alohida e'tibor qaratilishi lozim deb hisoblaydi). Ilmiy bilish tarixi – bu dadil farazlar va ularni permanent rad etishlar tarixidir. Popper ta'biri bilan aytganda, «fan» degan odam «taraqqiyot» deydi va aksincha (Vena to'garagi vakillaridan farqli o'laroq, Popper normal fanga rivojlanuvchi fan sifatida yondashadi va uning o'sishini qadrsizlantiruvchi metodologiyani tuzishga harakat qiladi). Birdan-bir ilmiy bilimga erishish, shuningdek haqiqatning tagiga etishga yaqinlashish, Popper nuqtayi nazaridan, faqat xatolar va Yanglishishlar eliminatsiyasi mahsuli sifatida amalga oshishi mumkin: fan yaxlitligining asosi sifatida oldindan

belgilangan ideal va ilmiy tilning haqiqiyligi emas, balki borliqning birligi amal qiladi. Fanlar bu borliqni anglash jarayonida o'sib boruvchi tarzda bir-biriga yaqinlashadi. Oqilonalashuv darajasi, Popper fikriga ko'ra, ilmiy inqiloblarning intensivligi bilan belgilanadi.

Popper ta'limoti kontekstida falsafa va fanning o'zaro nisbati yo'lidagi eng katta to'siq - falsafiy bilimning o'ziga xosligi. Popper fikriga ko'ra falsafa va fanni aniq ajratish naturfalsafaning spekulyativ tamoyillari va fan farazlarini farqlash uchun zarurdir.

Bu kontekstda Popper fan va falsafani emas, balki dogmatik va evristik bilimni ajratishni ma'qul ko'rgan.

Imre Lakatos (1922-1974). Ilmiy bilimning o'sishi muammosi qaysi yo'nalishga mansubligi va qaysi g'oyalarni ilgari surishidan qat'iy nazar, barcha metodologlar, olimlar va mutafakkirlarni qiziqtiruvchi muhim muammodir.

Britaniyalik fan faylasufi va tarixchisi Imre Lakatos (1922-1974) o'zining ilk asarlarida farazlar va rad etishlar mantiqining o'ziga xos variantini bilimning o'sishi muammosining rekonstruktsiyasi sifatida tuzishga harakat qildi. XVII-XIX asrlar matematikasi uning tahlili predmetiga aylandi. Keyinchalik u, o'z fikriga ko'ra, fanlarning rivojlanish zamirida yotuvchi ilmiy tadqiqot dasturlarining raqobati g'oyalarini asoslashga yaqinlashdi. «Mening yondashuvim tadqiqot dasturlaridan iborat «raso fan» bilan sinov va xatolarning siyqasi chiqqan andozasidan tashkil topgan «noraso fan»ni farqlashning yangi mezonini nazarda tutadi»[30], deb yozadi olim. Lakatos o'z kontseptsiyasini asoslashda fan tarixini o'rganishga alohida e'tibor bergan.

Lakatos fikriga ko'ra, ilmiy dastur ilmiy bilimning asosiy birligidir. U ilgari surgan kontseptsiya nuqtayi nazaridan fanning rivojlanishi tadqiqot dasturlarining o'zgarishidir. «Men fanning uzluksizligiga Popper ko'zoynagi orqali qarayman, - deb tan oladi u. – Shu sababli Kun paradigmalarni ko'rgan joyda men oqilona tadqiqot dasturlarini ham ko'raman». Tadqiqot dasturi uzluksiz rivojlanuvchi asos, g'oyalar va tamoyillar birligi bilan bog'liq nazariyalar majmui va ketma-ketligi sifatida tushuniladi. Bosh nazariya keyingi nazariyalarning yuzaga kelishiga asos bo'ladi va ularning har biri oldingi gipotezaga qo'shimcha gipoteza kiritish orqali rivojlanadi. Lakatos «raso fan» va «noraso fan»ni farqlaydi. «Raso fan» shu bilan tavsiflanadiki, u:

1. ilgari ma'lum bo'lmagan dalillarni bashorat qiladi;
2. yangi yordamchi nazariyalarni oldindan aytib beradi;
3. evristik kuchga ega bo'ladi;
4. nazariy jihatdan mustaqil bo'ladi.

Uzluksiz dastur alohida normativ qoidalar bilan muhofaza qilinadi.

Tadqiqot dasturi tarkibiga qattiq o'zak, fundamental farazlar, ijobiy evristika qoidalari (ular tadqiqotlarni amalga oshirish yo'llarini belgilaydi) va salbiy evristika qoidalari (ular taqiqlarni, qaysi yo'llardan yurmaslik kerakligini ko'rsatadi) kiradi. Fundamental farazlar o'ziga xos xususiyat kasb etadi va shartli ravishda rad etilmagan deb olinadi. Qattiq o'zak ilmiy dasturning barcha nazariyalarida o'zgarishsiz saqlanayotgan muayyan ilmiy va ontologik farazlar majmuidan tashkil topadi.

4-mavzu: Borliq – falsafa kategoriyasi

Reja:

1. Falsafa tarixida borliq muammosi.
2. Borliq shakllarining tasnifi: tabiat borlig'i va ma'naviy borliq, ijtimoiy borliq va inson borlig'i.
3. Falsafada substantsiya va materiya muammosi.
4. Falsafada makon, vaqt, harakat va rivojlanish masalalari.

Borliq tushunchasining tahlili. Biz dunyo, materiya tuzilishi, makon, vaqt, harakat, hayot, ong va shu kabilar haqida tasavvur hosil qilish uchun asosan fizika, astronomiya va biologiya kabi tabiatshunoslik fanlariga murojaat etamiz. Lekin bu falsafada borliq muammolari o'rganilmaydi, degan ma'noni anglatmaydi.

Bugungi kunda olimlar notirik, tirik dunyo va ijtimoiy dunyo nima, degan savollarga javob to'ishda jiddiy yutuqlarga erishganlar. Ular dunyo haqida o'tgan asrlarda yashagan o'z hamkasblariga qaraganda to'laroq va teranroq tasavvurga egadirlar. Ammo, dunyoning mohiyati haqidagi ko'pgina muhim savollarga hozir ham aniq va uzil-kesil javoblar mavjud emas. Masalan, nafaqat makon yoki vaqt tushunchalariga, balki nisbatan soddaroq hodisa bo'lmish gravitatsiya tushunchasiga ham dunyoda biron-bir fizik bugungi kunda ham aniq (ayni paytda tajribada tasdiqlanadigan) ta'rif bera olmaydi.

SHu sababli insonning dunyo haqidagi qarashlarida muhim rol o'ynaydigan, biroq ilmiy yechimini topmagan muammolarni falsafiy anglab yetishga kuchli ehtiyoj doimo mavjud bo'lgan va hozir ham saqlanib qolmoqda. Bu muammolarning aksariyati haqli ravishda «boqiy» muammolar deb ataladi, chunki ular predmeti mos kelsa ham bilish metodlari va vositalari har xil bo'lgan fan va falsafa e'tiborini o'ziga jalb qilmoqda. Shuni ta'kidlash lozimki, fizika va boshqa muayyan fanlarga joiz bo'lmagan narsalar falsafa uchun joizdir. Aniq dalillarga tayanadigan va ularga muvofiq qarashlar birligiga erishishga harakat qiladigan tabiatshunoslikdan farqli o'laroq, falsafa yakdillikka intilmaydi va ayni bir muammolar bo'yicha ba'zan qarama-qarshi, bir-birini istisno etuvchi javoblar beradi. SHu tariqa u dunyoqarashni kengaytiradi, eski muammolarning odatdagi talqinini o'zgartiradi, aniq fanlarning metodlari bilan amalga tatbiq etiladigan yangi yechimlar ustida ijodiy izlanishga da'vat etadi.

[30] Лакатос И. Доказателство и опровержение. -М.: ЭКСМО, 2005.- S.78.

SHu tariqa falsafa evristik va metodologik rolni bajarar ekan, ayni zamonda o'zi ham tabiatshunoslik oluvchi ishonchli natijalarga muhtoj bo'ladi va ulardan yangi nazariyalar tuzish uchun asos sifatida foydalanadi. SHu sababli biz borliqning asosiy shakllari va fundamental asoslarini falsafa nuqtayi nazaridan o'rganar ekanmiz, albatta yo ishonchliligi shubha uyg'otmaydigan, yo borliqni yaxshiroq tushuntirgani uchun qabul qilinadigan tabiiy-ilmiy material va daliliy ma'lumotlarga tayanamiz.

Falsafa tarixida borliq muammosi. O'quv kurslarida asosiy falsafiy muammolarni o'rganish odatda ontologiyadan boshlanadi. Ontologiya falsafiy bilimlarning alohida sohasi bo'lib, unda borliq va yo'qlik, mavjudlik va nomavjudlik muammolariga doir masalalarning keng doirasi o'rganiladi, shuningdek mavjudlik sifatiga ega bo'lgan barcha narsalarning mohiyati aniqlanadi. «Ontologiya» atamasi falsafada faqat XVII asrdan beri ishlatiladi, lekin u yunoncha o'zaklarga ega bo'lib (ontos – borliq, logos – so'z, ta'limot), borliq haqidagi ta'limot degan ma'noni anglatadi. Ontologiya falsafada alohida o'rin egallaydi. Ikki yarim ming yillik faol falsafiy izlanishlar natijasida falsafiy bilim tizimida ontologiyadan tashqari falsafaning muhim falsafiy mazmun kasb etadigan gnoseologiya, aksiologiya, ijtimoiy falsafa, axloq, estetika, mantiq kabi tarkibiy qismlari paydobo'ldi. Lekin ularning barchasi zamirida ontologiya yotadi. O'z navbatida ontologiya har qanday falsafiy dunyoqarashning negizi hisoblanadi va shu tariqa o'z tarkibiga kirmaydigan boshqa falsafiy muammolar talqinini ko'p jihatdan belgilaydi.

«Borliq» kategoriyasi. Aksariyat falsafiy tizimlarning kategoriyalar a''aratini tashkil etadigan ko'p sonli falsafiy kategoriyalar orasida «borliq» kategoriyasi doimo markaziy o'rinni egallaydi. CHunki u har qanday predmet , hodisa, voqea va shu kabilarning eng muhim xususiyatini, aniqroq aytganda, ularning mavjud bo'lish, bevosita yoki bilvosita namoyon bo'lish, o'zaro ta'sirga kirishish qobiliyatini aks ettiradi.

Bu inson o'zligini va o'zini qurshagan borliqni anglashga ilk urinishlaridayoq duch keladigan har qanday ob'ektning, borliq har qanday qismining umumiy xossasidir.

Inson aqlli jonzot sifatida shakllanish jarayonining ilk bosqichlaridayoq o'z dunyoqarashining negizini tashkil etadigan muhim savollarga javob to'ish zaruriyati bilan to'qnash keladi:

1. «Men kimman?»
2. «Meni qurshagan borliqning mohiyati nimada?»
3. «Borliq qanday va qaerdan paydobo'lgan?»
4. «Dunyoni nima yoki kim harakatlantiradi?»
5. «Dunyoning rivojlanishida biron-bir maqsadga muvofiqlik, maqsad, mo'ljal bormi?»

Inson bunday savollarga javob berishga kirishar ekan, uning ongi avvalo o'zi nima bilan bevosita ish ko'rayotganini qayd etadi. Buni aniq anglamasdan, u o'zining dunyo haqidagi mulohazalarini aniq-ravshan narsalarni qayd etishdan boshlaydi. SHu tariqa inson va uning ongi o'zini qurshagan barcha narsalar avvalo mavjud bo'lish qobiliyatiga ega ekanligiga ishonch hosil qiladi.

SHunday qilib, borliq masalasi insonning dunyoni oqilona anglash yo'lidagi ilk urinishlaridayoq duch kelgan barcha masalalarning negizi hisoblanadi. Muayyan narsalar mavjudligi yoki mavjud emasligi masalasi inson falsafiy mulohaza yurita boshlagani zahotiyoq uning diqqat markazidan o'rin oldi. Mifologiyaning bosh vazifasi – «borliqni kim yaratgani» haqida ga'irib berishni falsafa «borliqning nimaligi, u qaerdan paydobo'lgani va qaerga yo'qolishi»ni oqilona tushuntirish bilan almashtirgani tasodifiy emas. Bunday tushuntirishga urinish jarayonida faylasuflar barcha zamonlarda quyidagi savollarga javob to'ish zaruriyati bilan to'qnash kelganlar:

- falsafiy kategoriya sifatidagi «borliq» nima?
- bu atama nimaga nisbatan tatbiq etilishi mumkin?
- unga qanday falsafiy ma'no yuklanadi?

Bu savollarga keng javob berish falsafa tarixiga ham, mazkur tushunchaning etimologiyasiga ham murojaat etishni nazarda tutadi. Mazkur dastur bo'yicha ta'lim oluvchilar tarixiy-falsafiy kurs bilan tanish bo'lishlari lozimligini hisobga olib, bu yerda faqat falsafiy tafakkur tarixiga qisqacha to'xtalamiz va mazkur muammoni anglab etish jarayonidagi muhim bosqichlarinigina qayd etamiz.

Borliq va yo'qlik dialektikasi. Keltirilgan fikr amalda mavjud narsagina borliqqa ega bo'lishi mumkin, degan xulosa chiqarish imkonini beradi. «Yo'qlik» har qanday tilda amalda mavjud bo'lmagan narsa bilan tenglashtiriladi va boshqacha tushunilishi mumkin ham emas. Boshqacha aytganda, yo'qlik borliqni inkor etadi va narsa, jism, hodisa, ong... (ya'ni amalda mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan narsalar) o'zligini yo'qotgan holda «yo'qlik» atamasi ayni shu ma'noda ishlatiladi va ular haqida ular «yo'qlikka chekindi», mavjud emas, deyiladi.

Lekin sof falsafiy ma'noda bu fikrni to'g'ri deb bo'lmaydi. Borliq va yo'qlik o'rtasida dialektik o'zaro aloqa mavjud.

Birinchidan, dunyo haqidagi hozirgi tasavvurlarga ko'ra, biz yashayotgan Olam bo'shliqdan bino bo'lgan. Bo'shliq materiyaning alohida holati. Bo'shliq fizik borliqning eng boy tipi, o'ziga xos potentsial borliq sifatida namoyon bo'ladi, zero unda mumkin bo'lgan barcha zarralar va holatlar mavjud, biroq ayni zamonda unda aktual tarzda hech narsa yo'q[31].

Yana shuni ham e'tiborga olish lozimki, fiziklar (D.A.Landau, va boshqalar) nuqtayi nazaridan biz yashayotgan Olam ham dunyoda yagona emas, chunki u rivojlanishning turli sikllarini boshdan kechirayotgan turli

[31] Qarang: Малюкова О.В. Материя, пространство и время с точки зрения физики XX века / Онтология, гносеология, логика и аналитическая философия. – СПб.: 1997. – S.93.

Olamlarning cheksiz sonidan tashkil to'adi. SHu ma'noda borliq va yo'qlikning o'zaro aloqasi ham nisbiy xususiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, amalda mavjud bo'lgan narsaning ob'ektiv borlig'i yo'qlikka chekinadi, lekin, shunga qaramay u haqda gapirilayotgan, ya'ni u muayyan narsa sifatida fikrlanayotgan bo'lsa, bu narsa ongda mavjud bo'ladi va o'zining «ikkinchi» borlig'ini saqlaydi, ayni holda u dastlabki ob'ektning nusxasi, ideal obraz bo'lib qoladi.

SHunday qilib, *o'tgan zamondagi borliq yo'qlikdir*, deb aytish mumkin. *Borliq doim hozirgi zamonda mavjud bo'ladi, u faqat hozirgi zamonda o'zini namoyon etadi,* basharti u dolzarb va amalda namoyon bo'lish imkoniyatiga ega bo'lsa, agar u potentsial, ya'ni axborot manbalarida mavjud yoki uning paydo bo'lishi ob'ektiv rivojlanish mantig'i bilan belgilangan bo'lsa. Amalda yo'q bo'lgan narsa haqida ideal obraz sifatida fikrlash mumkin. Boshqacha aytganda, unga ideal obraz tarzidagi ideal borliq shakl-shamoyilini berish mumkin. O'tmishga tatbiqan biz borliq haqida faqat shu ma'noda so'z yuritishimiz mumkin.

Ayni shu ma'noda biz g'oyalar, narsalar, voqealar, tarixiy shaxslar yoki o'zimizga yaqin odamlar to'g'risida so'z yuritamiz, bunda ular yo'qlikka aylanmagani, balki yangicha mavjudlik, xotira tarzidagi o'zgacha borliq kasb etganini nazarda tutamiz.

SHunday qilib, *borliq falsafiy kategoriya sifatida dunyoni butun rang-barangligi va turli-tuman namoyon bo'lish shakllari bilan yaxlit aks ettirish imkonini beradi.* Bunda narsalar, predmet lar, hodisalar o'z xususiyatlari, xossalari bilan jamuljam holda aks etadi. Dunyoni va uning tarkibiy qismi bo'lmish insonni bilish yo'lidagi bu muhim qadam bilan dunyoning tabiati va mohiyati, uning rang-barangligi, turli darajalari, ko'rsatkichlari, ramz-alomatlari, shakllari va hokazolar haqidagi mulohazalarning asosiy koordinatalar sistemasi belgilanadi. Buning uchun mohiyat, hodisa, substantsiya, materiya, ong, makon, vaqt, qonun kabi yangi falsafiy kategoriyalar muomalaga kiritiladi.

Inson o'zi va umuman dunyo haqida o'ylar ekan, odatda muayyan narsalar va ayrim tabiiy hodisalar bilan ish ko'radi. Ayni zamonda u o'zini qurshagan dunyoni sinchiklab o'rganish va uning butun rang-barangligini tushunib etish uchun muayyan tayanch nuqtasi bo'lib xizmat qiladigan qandaydir asosning shak-shubhasiz mavjudligini qayd etadi. Falsafa tarixidan biz bunday asos sifatida, masalan, Suqrotdan oldingi qadimgi yunon faylasuflarida tabiat elementlari, o'rta asrlar falsafasida Xudo, Dekartda: «Men fikrlaya'man, demak, mavjudman», degan ongli inson amal qilganini ko'ramiz.

Ammo inson bilishning bu birinchi bosqichida to'xtab qolmagan va o'zini qurshagan borliqning ko'p sonli turli-tuman holatlari orasida qolgan barcha narsalardan sezilarli darajada farq qiladigan narsalarni, borliqning ayni shu shakli voqelikning boshqa shakllari va holatlaridan nima bilan farq qilishini aniqlashga harakat qilgan. Bugungi kunda insoniyat borliqning ko'p sonli turli-tuman shakllaridan ularning ayniqsa aniq bo'lgan bir nechtasini farqlash imkonini beradigan tajriba va bilim to'pladi.

Borliq shakllarining tasnifi: tabiat borlig'i va ma'naviy borliq, ijtimoiy borliq va inson borlig'i. Inson barcha jonli narsalar jonsiz narsalardan butunlay farq qilishiga qadimdayoq e'tibor bergan, lekin buni ancha keyin tushunib ketgan. O'z navbatida, jonli narsalar dunyosida inson alohida o'rin egallaydi. U barcha jonli narsalardan butunlay farq qiladi. Insonning bu asosiy farqi uning ongida, ideal obrazlar bilan ish ko'rish, ya'ni abstrakt fikrlash va o'zini fikrlovchi jonzot sifatida anglash qobiliyatida namoyon bo'ladi.

SHunday qilib, borliqning umumiy manzarasini yaratish zaminidan notirik tabiat o'rin oladigan o'ziga xos 'iramida hosil bo'ladi. ya'ni borliqning shakllari notirik tabiat, tirik tabiat, ijtimoiy borliq va inson borlig'i kabilardir. So'nggi yillarda virtual borliq shakli haqida fikr yuritilmoqda. Borliqning bu umumiy shakllari o'ziga xos xususiyatga, o'zining betakror mohiyatiga egadir.

Tabiat borlig'i. U mufassallashtiriladi va o'z navbatida ,birlamchi tabiat borlig'i (ya'ni inson va uning faoliyatidan qat'i nazar mavjud bo'lgan narsalar va jarayonlar borlig'i) va ikkilamchi (yoki odamlar tomonidan yaratilgan narsalar va jarayonlar borlig'i)ga bo'linadi. Birlamchi tabiat notirik tabiat narsalari va jarayonlarining borlig'i – bu butun tabiiy va sun'iy dunyo, shuningdek tabiatning barcha holatlari va hodisalari (yulduzlar, sayyoralar, yer, suv, havo, binolar, mashinalar, aks sado, kamalak, ko'zgudagi aks va sh.k.)dir.

Birlamchi tabiat borlig'i ikki darajani o'z ichiga oladi.

Birinchi daraja jonli ruhsiz jismlardan, ya'ni ko'payish qobiliyatiga ega bo'lgan, atrof muhit bilan moddalar va energiya almashinuvini amalga oshiradigan, lekin ongga ega bo'lmagan barcha narsalar, ya'ni sayyoramiz hayvonot va o'simliklar dunyosini o'z ichiga olgan butun biosferadan iborat.

Ikkinchi daraja – bu inson va inson ongining borlig'i bo'lib, bu: ikkilamchi tabiat inson yaratgan yoki o'zgartirgan tabiatdir.Tabiat makon va vaqtda cheksiz hamda abadiydir. Ikkinchi yoki inson tomonidan yaratilgan tabiat birinchi tabiatga bog'liq. Bir tomondan, ikkinchi tabiatda birinchi tabiat materiali, boshqacha aytganda ob'ektiv, birlamchi borliq mujassamlashgan, boshqa tomondan esa – unda insonning mehnati, irodasi va bilimlari, uning qalbi o'z ifodasini to'gan. Ikkilamchi tabiat – bu mehnat qurollari va sharoitlari, aloqa vositalari, inson ruhining ehtiyojlari, ma'rifatli borliq, moddiy va ma'naviy madaniyatni belgilovchi barcha narsalar va jarayonlardir.

Inson borlig'ining. tahlilida insonning tabiatning bir qismi sifatida jismoniy mavjudligini va alohida inson borlig'ini farqlash o'rinli bo'ladi.

Inson tabiatning bir qismi hisoblanadi va shu ma'noda uning qonunlariga bo'ysunadi. Tananing mavjudligi inson o'limga mahkum ekanligini belgilaydi. Inson borliq va yo'qlik dialektikasi bilan bog'lanadi, barcha tabiat jismlari kabi vujudga kelish, shakllanish va halok bo'lish holatlaridan o'tadi. Barcha tabiat jismlari kabi, inson tanasiga ham modda va energiyaning saqlanish qonunlari o'z ta'sirini ko'rsatadi, ya'ni uning tarkibiy qismlari tabiatning boshqa holatlariga o'tadi. Inson tanasi mavjud bo'lishi uchun uni muttasil quvvatlash (ovqatlanish,

sovuqdan va boshqa xavf-xatarlardan saqlash) talab etiladi. Fikrlash uchun inson tanasining tirikligini ta'minlash zarur. Bundan hayotni saqlash, insonning o'z-o'zini saqlashi va insoniyatning yashovchanligini ta'minlash zaruriyati kelib chiqadi, bu oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak, turar joy, sof atrof muhitga ega bo'lish ehtiyojida o'z ifodasini to'adi;

Ma'naviy borliq sub'ektiv individuallashgan va ob'ektiv (noindividual) ma'naviy borliq sifatida mavjud. Individuallashgan ma'naviy borliq - bu insonning ichki dunyosi. U onglilik va ongsizlikni qamrab oladi. Bunday yondashuvga ko'ra, ruh – individual ong bilan ayniy tushuncha, tor ma'noda esa u tafakkurdir. Ong – inson bosh miyasining dunyo borlig'ini izchil aks ettirish, uni obrazlar va tushunchalarga aylantirish qobiliyati. U taassurotlar, sezgilar, kechinmalar, fikrlar, shuningdek g'oyalar, e'tiqodlar, qadriyatlar, mo'ljallar, andozalarning ko'rinmas jarayoni sifatida mavjud. Ong tez oqadigan va bir xil bo'lmagan orqaga qaytmaydigan xususiyatga ega. SHaklan bu jarayon tartibsiz, lekin shu bilan bir vaqtda unda muayyan tartib, barqarorlik, struktura, muayyan darajada intizom va iroda mavjud.

Inson ongi ayni vaqtda uning o'z-o'zini anglashi, ya'ni o'z tanasi, fikrlari va tuyg'ularini, o'zining boshqa odamlarga bo'lgan munosabatini va o'zining jamiyatdagi o'rnini anglab etishi, ya'ni o'zini o'zi bilishdir. O'zlikni anglash – bu ongimizning o'ziga xos markazidir.

Individual ong o'zining o'limga mahkumligi bilan tavsiflanadi, lekin uning ayrim qismlari noindividual ma'naviy shakl-shamoyil kasb etadi, shuningdek boshqa kishilar mulkiga aylanadi. Xatti-harakatlarda inson ongining fragmentlari moddiylashadi, ularga qarab odamlarning niyatlari, mo'ljallari, maqsadlari, g'oyalari haqida xulosa chiqariladi. Noindividual ma'naviy borliqning o'ziga xos xususiyati shundaki, uning elementlari saqlanadi, takomillashadi va ijtimoiy makon va vaqtda erkin harakatlanadi;

Ijtimoiy borliq ayrim insonning jamiyatdagi borlig'i va jamiyatning o'z borlig'iga bo'linadi. Har bir inson boshqa odamlar bilan muttasil aloqa qiladi, turli ijtimoiy guruhlar: oila, ishlab chiqarish jamoasi, millatning a'zosi hisoblanadi. U boshqa individlar bilan yaqin aloqa qilib yashaydi. Odamlarning barcha faoliyati mazkur sotsiumga xos bo'lgan ijtimoiy munosabatlar, chunonchi: siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, axloqiy va boshqa munosabatlar doirasida amalga oshiriladi.

Xullas, «borliq» kategoriyasi o'ta umumiy falsafiy abstraktsiya bo'lib, u turli-tuman tabiat hodisalari va jarayonlarini, odamlar jamoalari va ayrim kishilarni, ijtimoiy institutlarni, inson ongining darajalari, shakllari va holatlarini mavjudlik belgisiga ko'ra birlashtiradi. Garchi bu hodisalar va jarayonlar borliqning turli sohalariga taalluqli bo'lsa-da, ularning barchasini umumiy asos birlashtiradi. Ammo cheksiz darajada rang-barang dunyoning yagonaligi to'g'risida so'z yuritish mumkinmi? Bu savolga «ha» deb javob berish orqali biz butun borliqning umumiy asosi haqida tasavvur hosil qilamiz. Bu haqda keyingi paragrafda so'z yuritiladi.

Virtual borliq tushunchasi. *Virtual borliq - inson real borliqda harakat qilayotgani illyuziyasini kom'yuterda yaratish imkonini beruvchi interfaol texnologiya*. Bunda ob'ektiv borliqni tabiiy sezgi organlari yordamida idrok etish o'rnini maxsus interfeys, kom'yuter grafikasi va ovoz vositasida sun'iy yaratilgan kom'yuter axboroti egallaydi. Virtual borliq amalda yo'q narsa, uni qo'l bilan tutish, uning ta'mi va hidini his qilish mumkin emas. SHunga qaramay, u mavjud va inson bu xayoliy olamga kirib, uni nafaqat kuzatadi va boshdan kechiradi, balki unga ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ham ega bo'ladi, ushbu olamda mustaqil harakat qiladi, uni o'zgartira oladi. *Virtual olam – inson borlig'ining o'ziga xos shakli va odamlar ma'naviy aloqasining alohida madaniy shaklidir.*

Virtual borliq *texnologiyasi zamirida birinchi marta XX asr 60-yillarining o'rtalarida paydobo'lgan kom'yuterlar yordamida foydalanuvchi boshqara oladigan dunyolar model yaratish mumkin*, degan g'oya yotadi. Virtual borliq tizimlari ilmiy davralarda texnologiyalar ongda o'zgarish yasaydigan kelajakning qiyofasi xususida qizg'in bahsga sabab bo'lmoqda. Ammo virtual borliq tizimlarini ishlab chiqish va kiber maydonni yaratish inqilobiy - ijtimoiy natijaga olib keladi, degan fikrni virtual borliq texnologiyasining ilk yaratuvchilari ham, kiborg-postmodernizm nazariyachilari ham qo'llab-quvvatlamoqda.

Inson qo'lida dunyoni bilishning qudratli quroli, uning yordamchisi, ijodiy faoliyat uchun shart-sharoit yaratish vositasi bo'lib xizmat qiluvchi axborot texnologiyasi ayni vaqtda dunyoni bilishning an'anaviy verbal usulini audiovizual bilish usuli bilan almashtirmoqda, odamlarda sun'iy olamga kirish illyuziyasini vujudga keltirmoqdaki, ular bu sun'iy borliqni amalda mavjud borliq deb qabul qilmoqdalar. Bu borliq «virtual borliq» deb nomlanadi. Virtual negizga ega bo'lgan bu borliq odatdagi fizik borliq bilan bir qatorda ob'ektiv tarzda mavjuddir.

«Virtual borliq» atamasi 1970 yillarning oxirida Massachuset texnologiya institutida Jeron Lener tomonidan o'ylab to'ilgan. U 1984 yilda dunyoda birinchi virtual borliq firmasini tashkil etdi. Bu atama kompyuterda yaratiladigan muhitda insonning mavjudligi g'oyasini ifoda etadi. Virtual (lotincha Virtualis – mumkin bo'lgan) – narsalar va hodisalarning zamon va makonda moddiy mavjudligiga qarama-qarshi o'laroq, ob'ektiv narsalar yoki sub'ektiv obrazlar mavjudligining nomoddiy turi. «Virtual borliq» atamasi muomalaga amerikalik kinematografchilar tomonidan kiritilgan. Ular muayyan sabablarga ko'ra tabiiy yo'l bilan amalga oshirib bo'lmaydigan xayoliy imkoniyatlarni belgili-grafik shaklda sun'iy amalga oshirish mumkinligi haqidagi kinolentani shu nom bilan chiqarganlar.

Olamning birligi, chekliligi va cheksizligi. Falsafada olamning chekliligi va cheksizligi bilan bog'liq masalalar muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda har bir konkret narsaning chekli ekanligi, umumiy olamning cheksiz va chegarasizligi e'tirof etiladi. CHeksizlikni ifodalash uchun **ichki (intensiv) va tashqi (ekstensiv) shakllar** mavjudligi ko'plab falsafiy adabiyotlarda qayd etilgan.

Materiyaning ichdan nihoyasizligi intensiv cheksizlik haqidagi tasavvur bilan qamrab olinadi. Intensiv cheksizlik tabiatda ichki tuzilishga ega bo'lmagan, mutlaqo elementar ob'ektlar yo'qligini ko'rsatadi. Intensiv cheksizlik mikrozarralarni o'rganish jarayonida materiyaning kichikroq qismlarga cheksiz bo'linishi sifatida qaralishi mumkin emas. Zarralarning bir-biriga aylanuvchanligi ular ancha murakkab tabiatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Ekstensiv cheksizlik tashqi cheksizlikdir. U mazkur ob'ekt doirasidan tashqarida, «katta» dunyoda kuzatiladi va ob'ektdan tashqaridagi cheksizlikni ifodalaydi. Bu yerda ob'ekt xossalari va sifatlarining atrofdagi narsalar bilan o'zaro ta'sirlar tizimiga bog'liqligi muammosi muhimroqdir. Amalda cheksizlik mavjud bo'lib, u bilish qaratilgan yo'nalishdan kelib chiqib, intensiv yoki ekstensiv deb tushunilishi mumkin. ***Ekstensiv va intensiv cheksizlik – haqiqiy cheksizlikning o'ziga xos proektsiyalaridir.*** Ularni geometrik shaklning koordinatalar o'qidagi 'roektsiyalariga o'xshatish mumkin.

Kosmologiya cheklilik va cheksizlikning talqiniga juda ko'p yangiliklar kiritdi. *Kosmologiya fan sifatida olamning tuzilishi va xossalarini, makon va vaqtning cheksizligi muammosini o'rganishga harakat qiladi*. Dunyoning makon va vaqtda cheksizligi haqidagi tasavvurlar asrlar davomida shakllangan. Uning ildizlari antik naturfalsafa va kosmogoniyaga borib taqaladi. Nyutoncha fizikaga asoslangan XVIII asr kosmologiyasida cheksizlik g'oyasining ancha asosli nazariy dalillari ta'riflab berildi. Nisbiylik nazariyasining paydobo'lishi kosmologiya muammolarini butunlay o'zgartirib yubordi. Umumiy nisbiylik nazariyasi ta'sirida yuzaga kelgan va XX asrning ikkinchi o'n yilligida jadal rivojlangan relyativistik kosmologiya doirasida olamning makon va vaqtda cheksiz hamda chekli modellarini tuzishga muvaffaq bo'lindi.

Olamning relyativistik kontseptsiyasi bo'lishi ehtimol tutilgan butun moddiy dunyoni qamrab olgani sababli, uning «ibtidosi» g'oyasida cheksizlik g'oyasi butunlay inkor etilib, fanda to'ntarish yasalishiga olib keladigandek bo'lib tuyuldi. Relyativist kosmologlarning kengayib borayotgan olam – Metagalaktikaning yagonaligi va u hamma narsani qamrab olishi haqidagi ta'limoti o'tmishda ko'p karra takrorlangan olamda Yerning yagonaligi, Quyosh sistemasi yoki Galaktikaning yagonaligi haqidagi g'oyalarni eslatadi. Amalda olamning kosmologik modellari, garchi butun dunyoni tushuntirish uchun tuzilgan bo'lsa-da, uning ayrim qisminigina tushuntirgan. Mazkur sohaga taalluqli, butun dunyodagi makon va vaqtga nisbatan tatbiq etilmaydi, deb talqin qilingan makon va vaqtning chekliligi hamda cheksizligi haqidagi kosmologik tasavvurlar cheksizlik g'oyasini inkor etmagan.

Kosmologiya rivojlanishining hozirgi bosqichi relyativistik kosmologiyaning ustuvorligi bilan tavsiflanadi. **Relyativistik kosmologiya** butun dunyoni mukammal tavsiflashga da'vo qilmaydi, lekin cheklilik va cheksizlikni biz yashayotgan olamga tatbiqan, uning fizikaviy-makon tuzilishi tomonidan o'rganadi. Relyativistik kosmologiya asoschilari A.Eynshteyn va A.Fridman hisoblanadi.

A.Eynshteyn 1916 yilda umumiy nisbiylik nazariyasini yaratgach, oradan bir yil o'tib (1917) **olamning birinchi relyativistik modelini** tuzdi, uning ma'nosi qo'yidagicha:

1. *Modda va nurlanish olamda bir tekis tarqalgan. Bundan olam maydoni bir xil va izotro' tuzilishga ega, degan xulosa kelib chiqadi*. Garchi og'ir ob'ektlar yaqinida makon-vaqt geometriyasi o'zgarsa-da, bu o'zgarish olamning o'zgarmas egrilikka ega bo'lgan bir xil izotrop maydonidan chetga ahamiyatsiz og'ishdir, xolos.

2. *Olam turg'un, vaqtda o'zgarmasdir. SHu bois maydon geometriyasi evolutsiyaga ega bo'lishi mumkin emas*. A.Eynshteyn dunyosi, odatda, «silindrsimon dunyo» deb ataladi, chunki uni cheksiz ko'lamli to'rt o'lchovli tsilindr ko'rinishida tasavvur qilish mumkin. Silindrning yasovchisi bo'ylab vaqt o'qi o'tadi, u o'tmishga ham, kelajakka ham cheksiz qaratilgan. Silindr kesimi maydonni beradi. Mazkur modelda bu o'zgarmas musbat egrilikka ega uch o'lchovli doirasimon maydon bor. U chekli hajmga ega. Buning ortida hech narsa mavjud bo'lmagan dunyoning qandaydir chekkasi bor, deb tushunmaslik kerak. Ayni holda maydon «o'z-o'zida tutashadi» va bu unda hech qachon to'siqqa uchramasdan cheksiz aylanish imkonini beradi.

Biroq A.Eynshteynning «silindrsimon dunyo»si o'tmishda qolgan. Uning olamning turg'un modelini yaratishga urinishlari, hozirgi davrda olamning abadiyatda o'zgarmas holda mavjudligi haqidagi an'anaviy tasavvurlarga hurmat sifatida qaraladi. Olamning turg'un modelini A.Eynshteyn maxsus taxmin asosida yaratganini ham e'tiborga olish kerak.

Mazkur muammoning yangi yechimini A.Fridman taklif qilgan va uni belgiyalik kosmolog M.Lemetri rivojlantirgan. *A.Fridman dunyoning turg'unligi haqidagi taxmindan voz kechdi, lekin uning bir xilligi va izotro'ligi haqidagi 'ostulatni saqlab qoldi. Bu muammoning uch xil yechimini taklif qilish imkonini berdi:*

1. Agar olamda modda va nurlanishning zichligi ayrim kritik kattalikka teng bo'lsa, maydon evklid maydoni bo'ladi, ya'ni egriligi nolga teng bo'ladi va dunyo cheksiz bo'ladi.

2. Agar zichlik kritik kattalikdan kichkina bo'lsa, olam maydoni Lobachevskiy geometriyasi bilan tavsiflanadi, u manfiy egrilik va cheksiz hajmga ega, ochiq va bel ko'rinishida bo'ladi.

3. Agar olamda moddaning zichligi kritik darajadan katta bo'lsa, maydon musbat egrilikka ega, lekin hajmi cheklangan bo'ladi. Dunyo berk va chekli bo'lib, Riman geometriyasi bilan tavsiflanadi.

Kengayuvchi olam gipotezasi. Kosmologiya muammosining taklif qilingan yechimlariga nisbatan munosabat bir xil emas. Ayrim olimlar cheksiz **kengayuvchi Olam gipotezasi**ni qabul qilganlar va «Katta portlash» kontseptsiyasiga ko'ra, taxminan 17-20 milliard yil oldin olam juda kichkina hajmda o'ta zich singulyar holatda bo'lgan, deb hisoblaydilar. Yuz bergan «katta portlash» olamning kengayish jarayonini boshlab bergan. Bu kengayish jarayonida moddaning zichligi o'zgargan, maydonning egriligi to'g'rilanib borgan. Ayrim olimlar fikriga ko'ra, kengayish o'rnini yana torayish egallaydi va butun jarayon takrorlanadi. SHu asosda **harakatlanuvchi Olam gipotezasi** ilgari surilgan bo'lib, unga ko'ra taxminan har 100 milliard yilda yangi sikl «katta portlash»dan

boshlanadi. Aqlga sig'maydigan gipotezalarning birida «dastlabki portlash» natijasida gravitatsion maydonda singulyar holatdan faqat bizning metagalaktikamiz emas, balki ko'plab metagalaktikalar vujudga kelgani, ularning har biri barcha fizik ko'rsatkichlarning turli ifodalariga, chunonchi, alohida to'ologiyali (o'lchovlar miqdori har xil bo'lgan mahalliy ochiq yoki mahalliy yo'iq) makoni va o'z kosmologik vaqtiga ega bo'lishi mumkinligi taxmin qilinadi.

Hozirgi «ko'p sonli dunyolar» kontseptsiyalarida olamning ajabtovur manzarasi chiziladi. Bu fundamental falsafani moddiy dunyoning makon va vaqtdagi cheksizligini metrik cheksizlik ma'nosida emas, balki materiyaning makon va vaqt strukturalarining benihoya rang-barangligi sifatida tushunish lozim, degan asosiy qoidasi bilan hamohangdir.

Olam kengayishda davom etadimi yoki torayish jarayoni boshlanadimi, degan savol javobsiz qolmoqda. Ammo «qizil siljish» hodisasi hozirgi vaqtda nurlanish manbai uzoqlashib borayotganini, ya'ni galaktikalar taxminan o'zigacha bo'lgan masofaga proportsional tezlikda har yoqqa «tarqalayotgani»ni tasdiqlovchi umumiy e'tirof etilgan fakt hisoblanadi.

Qizil siljish va torsion maydonlar. *1912 yilda V.M.Slayfer galaktikadan tashqaridagi tumanliklar nurlanishlarining spektr chiziqlari spektrning qizil uchi tomonga siljiyotgani - «qizil siljish»ni aniqladi*. Oradan ma'lum vaqt o'tgach (1929 yilda) Edvin Xabbl tumanlik kuzatuvchidan qancha uzoqda bo'lsa, «qizil siljish» kattaligi ham, uning tumanlikdan uzoqlashish tezligi ham shuncha katta bo'ladi, degan qonunni va katta masofalarda galaktikalarning tezligi ulkan ifodalarga etishini aniqladi.

SHunga qaramay, olamning kengayishi bilan bir qatorda, uning torayishini yoki makonda cheklangan, lekin vaqtda cheksiz olam navbatma-navbat dam kengayuvchi, dam torayuvchi harakatlanuvchi olam modelini ham taxmin qilish uchun nazariy imkoniyat mavjud.

Substantsiya va substrat tushunchasilari. *Falsafa tarixida o'zining mavjudligi uchun o'zidan boshqa hech narsaga muhtoj bo'lmagan birinchi asosni ifodalash uchun «substantsiya» (lot. substantia – mohiyat, asos) kategoriyasi qo'llaniladi.* Ilk falsafiy yo'nalishlarning vakillari barcha narsalar asosini tashkil etuvchi moddani birinchi asos sifatida tushunganlar. Odatda, bunday asos sifatida o'sha davrda umumiy e'tirof etilgan birinchi stixiyalar: yer, suv, havo, olov yoki fikriy konstruktsiyalar, «birinchi g'ishtlar» - apeyron, atomlar qaralgan. "Avesto"da birlamchi substantsiya olov deb atalgan. Keyinchalik substantsiya kategoriyasi o'zgarmas, nisbatan barqaror va hech narsa bilan bog'liq bo'lmagan holda mavjud o'ta keng asosga aylandi. Inson idrok etadigan dunyoning butun rang-barangligi va o'zgaruvchanligi substantsiya bilan bog'lana boshladi. Bunday asoslar sifatida falsafada asosan materiya, Xudo, ong, g'oya, flogiston, efir va shu kabilar amal qilgan.

«Substantsiya» tushunchasi o'z-o'zini to'liq belgilovchi borliqni ifodalashga xizmat qiladi. Substantsiya kategoriyasida o'zini asoslash uchun boshqa hech narsani talab qilmaydigan negiz, birinchi asos g'oyasi mujassamlashgan. Niderland faylasufi Benedikt Spinoza (1632-1677) buni «causa sui» – «o'z-o'zining sababchisi» iborasida juda to'g'ri ifodalagan. Substantsiya deganda u o'z holicha mavjud bo'lgan va o'zi orqali zohir bo'lgan, ya'ni o'zining mavjudligi uchun boshqa narsaga muhtoj bo'lmagan narsani tushungan. Bunda bir tomondan, substantsiya materiya sifatida tushuniladi, boshqa tomondan – u o'zining barcha shakllari sababi va «sub'ekti» sifatida amal qiladi. Bu B.Spinozani substantsiyani bir vaqtning o'zida ham tabiat, ham Xudo sifatida ta'riflagani va bu ikki tushunchani tenglashtirishganidan dalolatdir. B.Spinoza Xudoni tabiatga butunlay singdirib yuborgan, uni tabiiylashtirishga va ilohiy mazmundan ajratishga harakat qilgan. Uning panteizmi shundan iborat bo'lgan.

B.Spinoza ilgari surgan substantsiyani tabiiylashtirish g'oyasini Golbax izchil rivojlantirdi. U barcha substantsiyali narsalarni tabiatga va faqat tabiatga bog'ladi. «Tabiat hamma narsaning sababchisidir; u abadiy mavjuddir; tabiat o'z-o'zining sababchisidir...». «Tabiat qandaydir buyum emas; u doim o'z holicha mavjud bo'lgan; hamma narsa uning bag'rida vujudga keladi; u barcha narsalar bilan ta'minlangan ulkan ustaxonadir...»[32]. SHu ma'noda tabiat ham, substantsiya ham sirtdan hech qanday turtkiga muhtoj emas. Leybnits esa: «Har qanday haqiqiy substantsiya faqat va faqat ta'sir ko'rsatadi[33]», deganida haq bo'lgan.

Modomiki, substantsiya hamma narsani o'z ichiga oluvchi va o'zi uchun boshqa hech qanday asos yoki shartni nazarda tutmaydigan birinchi sabab ekan, u o'ziga bog'liq bo'lmagan holda mavjud har qanday narsaning mavjud bo'lish imkoniyatini istisno etadi. U xoh Xudo, xoh g'oya, o'zlik, ruh yoki ekzistentsiya bo'lsin – substantsiya yagonadir! «Substantsiya» tushunchasi ko'plikda qo'llanilishi mumkin emas. Uning ko'pligi g'oyasi mazkur tushunchaning ta'rifiga zid, chunki mazkur maqomga da'vogar ikki yoki bir necha narsa mavjud bo'lgan taqdirda, ularning birontasi ham substantsiya hisoblanmaydi. Substantsiyalilik paradoksi ana shundan iborat.

Alximiklar mazkur atamani ko'plikda qo'llab, «substantsiyali shakllar», «substantsiyaga xos sifatlar» to'g'risida so'z yuritganda, unga qo'pol fizik ma'no yuklaganlar. Ayni holda substantsiya moddaga tenglashtirilgan. Ular substantsiyaning xossa va shakllari o'zgarmas, lekin tegishli ta'sirlar natijasida bir-biriga aylanishi mumkin, degan noto'g'ri xulosaga kelganlar.

Substantsiyaning o'z-o'zidan amalga oshishi hodisalarning umumiy, uzviy xossalari – atributlarda va narsalarning muayyan, alohida xossalari – moduslarda sodir bo'ladi.

---

[32] Голбах // Всемирная энсиклопедия. –М.: Современний литератор, 2001. –С. 246.

[33] Лейбниц Г. //. Всемирная энсиклопедия. –М.: Современний литератор, 2001. –С. 548.

Falsafa tarixida substantsiyaga monistik, dualistik, plyuralistik yondashuvlar. Substantsiya g'oyasidan turli falsafiy ta'limotlar dunyoning birligi va uning kelib chiqishi haqidagi masalaga o'zlari qanday javob berishiga qarab har xil foydalanadilar.

Monizm. *Dunyoning narsalar va hodisalar rang-barangligi bir substantsiyadan iborat degan ta'limot «monizm» (yunon. monos – bitta, yagona) deb ataladi*. Dunyoning kelib chiqishi va mohiyati haqidagi hozirgi ilmiy tasavvurlar, shuningdek birinchi asos muammosiga nisbatan falsafa tarixidagi eng salmoqli yondashuvlar kurashi nuqtayi nazaridan substantsiya tabiatini tushunishga nisbatan ancha keng tarqalgan ikki yondashuv – materialistik va idealistik monizmni qayd etish lozim.

Materialistik monizm *dunyo yagona va uzviy, u azaldan moddiy va dunyoning birligi zamirida ayni shu moddiylik yotadi*, deb hisoblaydi. Bu kontseptsiyalarda ruh, ong va ideallikdan emas, balki moddiylikdan keltirib chiqariladi. Bunday yondashuvlarning o'ta rivojlangan ko'rinishlariga biz Fales, Geraklit, Spinoza va uning izdoshlari asarlarida duch kelamiz.

Idealistik monizm esa, *materiyani har qanday borliqning boqiy mavjudligi, yo'q bo'lmasligi va birinchi asosiga ega bo'lgan qandaydir ideal narsaning mahsuli* deb hisoblaydi. Bunda ob'ektiv-idealistik monizmni (masalan, Platonda – bu o'lmas g'oyalar, zardo'shtiylikda olov, o'rta asr falsafasida – Xudo, Gegelda – yaratilmaydigan va o'z-o'zidan rivojlanadigan «mutlaq g'oya») va sub'ektiv-idealistik monizmni (masalan, borliqning barcha jismoniy va ruhiy holatlarini «neytral» asosdan – dunyoning qandaydir mavhum konstruktsiyalari, «elementlari»dan keltirib chiqargan Max) farqlash mumkin.

Dualizm *birinchi asos sifatida ikkita substantsiya olingan falsafiy yondashuv* (lot. dualis – ikki yoqlama). Nemis faylasufi X.Volf XVIII asr boshida «dualizm» atamasini falsafiy muomalaga kiritgan. X.Volf dunyoda barqaror tartibning shakllanishida tafakkur, g'oyalar va aql-idrokning alohida o'rnini aniqlashga harakat qilgan. X.Volfning falsafaga oid qo'llanmalari barcha o'quv yurtlarida o'qitilgan va eskirgan (sxolastik) jihatlarni siqib chiqargan. Ular universitet ta'limining asosiy manbalari sifatida amal qila boshlagan.

Frantsuz materialist faylasufi J.Lametri (1709-1751) o'zining «Ruhning tabiiy tarixi» deb nomlangan asarida dualizmni inkor qiladi. U o'zida tajriba o'tkazgan – bezgak kasalligiga chalingach, uning kyechishini kuzatgan, pirovardida, insonning ruhiy holati uning jismoniy vujudiga bog'liq, degan xulosaga kelgan. J.Lametri monistik-materializmni himoya qilib, cheksiz takomillashuvchi yagona moddiy substantsiya mavjud, degan g'oyani ilgari surgan. Substantsiyaga xos sezish va fikrlash qobiliyati vujudli jismlarda mavjud bo'ladi. Sezish va fikrlash qobiliyatining o'zi tashqi jismlarning miyaga ta'siri bilan bog'liq. SHu sababli aynan tashqi dunyo insonning «miya ekrani»da aks etadi, tana ehtiyojlari esa, J.Lametrining fikriga ko'ra, «aql mezoni» sifatida amal qiladi.

Ikki asos, aytaylik, muhabbat va nafrat, yaxshilik va yomonlik, erkinlik va zaruriyatning teng huquqliligi g'oyasi ilgari surilgan har qanday falsafiy nazariya dualistik nazariya sifatida amal qilgan.

Rene Dekart falsafa tarixidan dualizmning yorqin vakili sifatida o'rin oldi. R.Dekartning radikal mexanitsizmi uni materiyaning butunlay ruhsizligi haqidagi yondashuvga olib keldi. R.Dekart nazarida, moddiy jismoniy substantsiya o'z atributi sifatida uzunlik, kenglik va chuqurlik ko'lamigagina ega. U mutlaq bo'shliqni istisno etadi, harakatlanish, ya'ni jismoniy zarralarni bo'lish, joydan-joyga ko'chirish va o'zgartirish qobiliyatiga ega.

Ma'naviy hayot faylasuf nazarida moddiy hayotdan alohida, o'zining bilish va fikrlash faoliyati, intellektual intuitsiya va deduktsiya kabi o'ziga xos ko'rinishlarida namoyon bo'ldi. U ruhiy substantsiyaning butunlay jismsizligini e'tirof etdi. Garchi R.Dekart yangi falsafa va fan asoschilaridan biri bo'lsa-da, uning g'oyalarida o'rta asr falsafasidan meros qolgan «substantsiya» atamasining alohida narsani tushunish uchun qo'llanilishiga, shuningdek, u ikki muhim - universal va cheksiz substantsiya – fikrlash va ko'lamni alohida erkin maqomga ega, deb e'lon qilganiga duch kelish mumkin. R.Dekartning «cogio ergo sum» – «men fikrlayapman, demak, mavjudman», degan iborasi falsafiy tafakkurni barcha narsalarning negizi sifatida tan olganligidan dalolat beradi. R.Dekart fikrlovchi substantsiyaning uzviyligini va har bir «Men», ya'ni aqlli jonzotga bevosita, ko'lamli substantsiya esa – bilvosita ochiqligini isbotladi. Ajralmas substantsiya (aql) metafizikaning o'rganish predmet ini, ajraluvchi substantsiya (ko'lam) esa fizika predmet ini tashkil etadi.

Ikki substantsiya – ma'naviy va moddiy substantsiyalarni farqlash, bu mantiqiy nuqtayi nazardan noto'g'ri va ratsional ma'noda juda ko'p qiyinchiliklarga sabab bo'lishi mumkin. Fikrlash va ko'lamga ikki substantsiya tarzida, ya'ni bir-biriga bog'liq bo'lmagan mustaqil asoslar sifatida yondashilganida, «ruh» va «tana» o'z harakatlarida qanday uyg'unlashishi, umuman, «tana» qanday qilib fikrlash qobiliyatini kasb etishi mumkinligini tushunish qiyin. Mohiyat-e'tiboriga ko'ra, substantsiya butun mavjudot asosi, hamma narsani o'z ichiga oluvchi va o'zini namoyon qilish uchun hech narsaga muhtoj bo'lmagan yagona birinchi asos sifatida namoyon bo'lgan

Plyuralizm *dunyoning negizida ikkita emas, balki undan ko'proq mohiyat borligini tan oluvchi ta'limotdir*. «plyuralizm» (lot. – ko'plik, ko'p xillik, ko'p sonlik) atamasini ham X.Volf 1712 yilda taklif qilgan. Bu tushuncha ontologiyada ayniqsa, jiddiy qiyinchiliklar tug'dirgan. CHunki ayni shu ta'limotda borliqning ko'p sonli mustaqil va o'zaro bog'lanmaydigan asoslari ilgari surilgan.

Leybnitsning «monadologiyasi», ya'ni monadalar haqidagi ta'limoti plyuralizmning klassik ko'rinishi hisoblanadi. Ushbu ta'limotga ko'ra, dunyo son-sanoqsiz ruhiy substantsiyalardan tashkil to'adi. Ammo, plyuralistik yondashuvning bundan oldinroq ilgari surilgan ko'rinishlari ham mavjud. Masalan, Em'edokl yaratgan dunyoning to'rt asosi haqidagi ta'limot plyuralistik ontologiyaning turlaridan biri sifatida amal qiladi.

Ba’zan plyuralizmga mustaqil ta’limot sifatida emas, balki dualizmning o’zgargan ko’rinishi sifatida qaraladi. Lekin plyuralistlar o’z nazariyasining asosiy vazifasini dualistik munozaralarda yechimini to’magan ruh va tabiat o’rtasidagi qarama-qarshilik masalasidan farq qiladi, deb biladilar.

Substantsiyani barcha o’zgarishlar va o’z-o’zining sababchisi -causa sui sifatida tushunish I.Kant tomonidan qabul qilinib, yuksak baholangan. U substantsiyani «hodisalarning vaqtdagi barcha munosabatlarini aniqlashga yordam beruvchi o’zgarmas asos», deb ta’riflagan. Uningcha, substantsiya har qanday tajriba va har qanday idrok etishning asosiy shartidir. U barqaror holatda bo’ladi, har qanday mavjudlik va vaqtdagi o’zgarish uning modusi, ya’ni o’zgarmas narsaning mavjudlik usuli sifatida qaralishi mumkin.

Substrat *borliqning eng quyi va asosiy qatlami sifatida tushuniladi.* Falsafada «Substantsiya» kategoriyasi «substrat» (lot. – to’shama, negiz) tushunchasiga yaqin turadi, deb qaraladi. Qadimgi atomistik ta’limotlarda atomlar ana shunday asos hisoblangan. Har qanday substrat muayyan vujudga kelish jarayonining o’ziga xos xususiyatini ifodalaydi. Hozirgi talqinda, *muayyan fizik jarayonlarning substrati sifatida elementar zarralar va fundamental (kuchli, kuchsiz, elektromagnit va gravitatsion) o’zaro ta’sirlar amal qiladi.* Turli moddalarning hosil bo’lish va o’zgarish jarayonlarida o’zining barqaror holatini saqlab qoluvchi atomlar kimyoviy jarayonlarning substrati sifatida namoyon bo’ladi. Elementar «hayot birliklari» sifatida amal qiluvchi nuklein kislotalar (DNK va RNK) va oqsil moddalarining molekulalari biologik jarayonlar substrati bo’lib xizmat qiladi. Barcha ijtimoiy o’zgarishlar zamirida maqsadga muvofiq faoliyati mavjud bo’lgan inson ijtimoiy hayot substrati hisoblanadi.

Hozirgi zamon falsafasida substantsiya kategoriyasining ontologik mazmuni o’zaro ta’sir sifatida tushuniladi. CHunki aynan o’zaro ta’sir dunyo yaralishining haqiqiy va pirovard sababchisi – narsalarning o’z-o’zini yakuni (causa finalis) hisoblanadi. Narsalarni substantsiyalilik nuqtayi nazaridan o’rganish ularning mavjudligini ichki sabablar va o’zaro ta’sirlar nuqtayi nazaridan yoritish, demakdir. SHu ma’noda, substantsiyani ichki birlik nuqtayi nazaridan, uning cheksiz va rang-barang o’zgarishlaridan qat’iy nazar, qaraladigan ob’ektiv borliq sifatida, harakatning barcha shakllari, mazkur harakat jarayonida yuzaga keluvchi va yo’q bo’luvchi tafovut va qarama-qarshiliklar nuqtayi nazaridan yondashiladigan materiya sifatida ta’riflash mumkin.

Substantsiyaning asosiy xususiyatlari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- o’z-o’zini belgilash (o’z-o’zining sababchisi hisoblanadi, uni yaratib va yo’q qilib bo’lmaydi);
- universallik (hech narsaga bog’liq bo’lmagan, barqaror, o’zgarmas va mutlaq birinchi negizni ifodalaydi);
- kauzallik (barcha hodisalarning umumiy sababiy bog’liqligini o’z ichiga oladi);
- yagonalik (birinchi negizning yagonaligini nazarda tutadi);
- yaxlitlik (mohiyat va mavjudlikning birligini ko’rsatadi).

Materiya tushunchasi va uning tashkillashuv darajalari. Materiya» tushunchasi qadimgi mutafakkirlar bizni qurshagan dunyoning barcha rang-barang narsalari yaratib va yo’q qilib bo’lmaydigan, odamlarga ham, xudolarga ham bog’liq bo’lmagan umumiy va yagona «birinchi asos»dan kelib chiqqani haqidagi g’oyani ilgari surgan paytdan e’tiboran falsafiy kategoriya sifatida ishlatila boshlagan. Bu «birinchi asos»ni ular barcha narsalarni yaratish uchun asosiy material bo’lib xizmat qiluvchi qandaydir modda sifatida tasavvur qilgan. Ayni shu material materiya deb atalgan.

«*Materiya» atamasi lotincha materia so’zidan kelib chiqqan bo’lib, modda degan ma’noni anglatadi*. SHunga qaramay, falsafa tarixida «materiya» tushunchasining mazmuni bir necha marta o’zgargan, tabiatshunoslikning va falsafaning rivojlanishiga muvofiq rivojlangan.

Qadimgi yunon falsafasida materiyaning etimologik talqinidan keng foydalanilgan. «Materiya» tushunchasini asosiy falsafiy kategoriya sifatida ilk bor Platon ishlatgan. U hyle atamasini muomalaga kiritgan va u bilan kattaligi va shakl-shamoyili har xil jismlar paydobo’lishiga asos bo’lib xizmat qiladigan sifatlardan mahrum substrat (material)ni ifodalagan. Platon talqinida materiya shaklsiz va nomuayyan bo’lib, har qanday geometrik shakl ko’rinishini kasb etishi mumkin bo’lgan makon bilan tenglashtiriladi.

Darhaqiqat, hamma narsalarning asosi bo’lgan birinchi modda haqidagi tasavvur materiya bilan bog’langan. Materiya yuzaga keluvchi hamma narsalarning substrati sifatida namoyon bo’lgan.

Materiya haqidagi tasavvur shakllanishining quyidagi bosqichlari farqlanadi.

I - bosqich Antik falsafa. Materiya birlamchi material (suv, olov, atom va sh.k.) sifatida. Falsafa tarixida materiya haqidagi tasavvurlarning shakllanishini *«dastlabki stixiyali materializm»*deb ataladi. Ushbu materializm o’z rivojlanishining birinchi bosqichida tabiat hodisalarining cheksiz rang-barangligiga asoslangan birlikni tabiiy hol deb hisoblaydi va uning sabablarini muayyan moddiy, o’ziga xos narsadan izlaydi (xuddi Fales bu asosni suv deb izohlaganidek).

Antik qarashlarga ko’ra materiya – jismlar va narsalarning o’zagini belgilovchi birlamchi materialdir. Masalan, qadimgi yunon faylasufi *Fales* suv o’simliklar, hayvonlar va odamlarga zarurligini qayd etib, suvni barcha narsalar asosi deb e’lon qilgan. *Geraklit* quyosh, yulduzlar va boshqa jismlarni yaratuvchi olovni hamma narsaning asosi deb hisoblagan.

Tabiatni ilmiy bilishning samarali dasturi yaratilishiga olib kelishga qodir bo’lgan materiyaning birinchi kontseptsiyasini miloddan avvalgi V asrda qadimgi atomistlar (Demokrit va boshqalar) taklif qilgan.

II - bosqich XVI-XVII asrlar metafizik materializmi. Materiya muayyan o’zgarmas xossalar yig’indisi sifatida tahlil qilingan. O’sha davrda materiya tushunchasi fizikada qabul qilingan muayyan o’zgarmas xossalar yig’indisi sifatidagi «modda» tushunchasi bilan ayniylashtirilgan. Masalan, ingliz materialistlari F.Bekon va T.Gobbs bunday xossalar qatoriga ko’lamlilik, shakl, og’irlik va hokazolarni kiritgan. Ba’zan materiya tushunchasi bitta muayyan «birlamchi» xossa, masalan ko’lamlilik yoki massa bilan ayniylashtirilgan (*R.Dekart, I.Nyuton*).

*III - bosqich XVIII-XIX asrlar. Materiya inson sezgi a'zolari orqali idrok etish*ga qodir bo'lgan ob'ektiv borliq sifatida talqin qilingan. Bu davrda «materiya» tushunchasi tabiiy fanlarning rivojlanish jarayonida olimlar bilimning muayyan sohalarida aniqlagan belgilar bilan boyib bordi. Masalan, mexanikada makrojismlarning alohida xossasi – massa aniqlandi. U materiyaning eng muhim belgisiga aylandi, materiya massa bilan bir xil, deb hisoblana boshlandi.

IV - bosqich Hozirgi zamon falsafasi. Ob'ektiv borliqni ifodalash uchun mo'ljallangan falsafiy kategoriya bo'lib, uni inson o'z sezgi a'zolari orqali idrok etadi, uni tushunishi mumkin va tushunishga harakat qiladi, lekin bunda materiya insondan qat'iy nazar mavjuddir. Bu davrda *materiyani tushunishda tabiiy ilmiy jihat emas, balki falsafiy jihat birinchi o'ringa qo'yildi. Bu materiyaga narsalar va hodisalar butun rang-barangligining ichki yagonaligi zamirida yotuvchi mohiyat – substantsiya sifatida yondashuvdir.* Bu esa materiyaga ob'ektiv borliq sifatida yondoshuv ifodasidir. XIX va XX asrlar chegarasida falsafa va tabiatshunoslikda yuzaga kelgan vaziyatni tahlil qilgan faylasuflar (ularni faqat sobiq marksizm vakillaridan iborat, deb tushunmaslik lozim), xususan, «materiya» tushunchasidan voz kyechish yo'lidan emas, balki unga tabiatshunoslikdagi ixtirolarni umumlashtirish orqali chiqarilgan yangi va yangi xulosalarni kiritish yo'lidan borishni taklif qildilar. «Materiya» falsafiy kategoriyasining vazifasi amalda mavjud materiya turlarining butun cheksiz rang-barangligini qamrab olish va uni ong bilan bog'lash mumkin emasligiga urg'u berishdan iborat. Muammoga falsafiy munosabatni uning tabiiy-ilmiy talqinidan farqlash imkonini beruvchi mazkur yondashuv juda muhim ahamiyat kasb etadi, aks holda mazkur sohadagi tadqiqotlar va bilish imkoniyatlari doirasi asossiz ravishda torayadi. Bunga, masalan, neo'ozitivizm yo'nalishlaridan biri – lingvistik falsafada duch kelishimiz mumkin. Uning taniqli namoyandalari J.Mur, L.Vitgenshteyn va boshqalar hamonki «materiya» va «ong» kabi tushunchalarga ilmiy nuqtayi nazardan aniq ta'rif berish mumkin emas ekan, ulardan voz kyechish lozim, deb hisoblaydi.

Materiyaning tarkibiyligi g'oyasining ildizlari antik falsafaga, xususan, Demokrit, Epikur va Lukretsiy Karning atomistik ta'limotiga borib taqalsada, bu g'oya tabiatshunoslikning rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Hozirgi zamon falsafasida u ancha salmoqli va ilmiy asoslangan materiyaning tizimli tuzilishi kontseptsiyasida mujassamlashgan.

Keyinchalik materiya haqidagi tasavvurlar asosan uning muayyan xossalari - massa, energiya, ko'lam bilan bog'langan va uning muayyan turlari - modda, atomlar, korpuskulalar va sh.k. bilan tenglashtirilgan.

Bu masalalarga nisbatan hozirgi yondashuvlar ancha o'zgargan va materiya haqidagi tabiiy-ilmiy, masalan, fizik yoki kimyoviy tasavvurlar bilan bir qatorda uni anglab etishning falsafiy darajasini ham nazarda tutadi. Boshqa hozirgi falsafiy yo'nalishlarning aksariyatida bu tushunchalar faol qo'llaniladi va muhim metodologik rol o'ynaydi. Xususan, uning substantsiyalilik, cheksizlik, yo'q bo'lmaslik, harakat, makon, vaqt kabi uzviy xossalari farqlanadi.

Materiyaning tuzilishiga nisbatan kim qanday yondashmasin, u bir qancha alohida va katta guruhlarga bo'linadi. Zero, barcha moddiy ob'ektlar tartibga solingan, izchil ichki tuzilishga ega.

Materiyaning cheksizligini hozirgi zamon tabiatshunosligi ham tasdiqlaydi. Materiyaning notirik, tirik va ijtimoiy kabi tarkibiy darajalari farqlanadi. Ular borliqning asosiy shakllari bilan mos keladi. Bunda turli darajalar bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Ayni vaqtda ularning tarkibida muayyan ierarxiya va soddaroq shakllardan (jonsiz materiyadan) murakkabroq shakllar (jonli va ijtimoiy materiya) sari yuksalish kuzatiladiki, bugungi kunda ularning mavjudligi faqat sayyoramizga nisbatan o'zining ilmiy tasdig'ini to'gan. Jonsiz tabiatning tuzilishi va rang-barangligi haqidagi tasavvurlar esa, mikro, makro va megadunyolarni qamrab olib, tinimsiz kengayib va teranlashib bormoqda.

XX asrda bu borada ayniqsa katta yutuqlarga erishildi. Asr boshida modda diskret zarralardan iborat qandaydir uzluksiz narsa sifatida, maydon esa uzluksiz moddiy muhit sifatida tushunilar edi. Endilikda, kvant fizikasi, nisbiylik nazariyasi va boshqa tabiiy-ilmiy g'oyalarning rivojlanishi bilan modda va maydon o'rtasidagi farq nisbiy tus oldi, kashf etilayotgan elementar zarralar esa o'zining rang-barangligi bilan kishini hayratga solmoqda. Bu sohada yechilmagan muammolar hali bisyor bo'lsa-da, fan materiya tashkil to'ishining «subelementar» darajasini o'rganib, elementar zarralarning yagona tabiatini tushunishda sezilarli darajada yutuqqa erishdi. Bu yerda so'nggi yillarda plazma, materiyaning alohida holati sifatidagi fizik bo'shliq hodisalari va materiyaning cheksizligi haqidagi g'oyani tasdiqlovchi boshqa jarayonlar kashf etildi va o'rganilmoqda.

Hozirgi davrda materiyaning uch tarkibiy darajasi farqlanadi:

- mikrodunyo – atomlar va elementar zarralar dunyosi. (bunda ...dan tashkil to'adi» tamoyili amal qilmaydi)
- megadunyo – koinot dunyosi (sayyoralar, yulduzlar komplekslari, galaktikalar, megagalaktikalar);
- makrodunyo – barqaror shakllar va insonga mos kattaliklar dunyosi (unga molekulalarning krisstallashgan komplekslari, organizmlar, organizmlarning hamjamiyatlari ham kiradi);

Materiya tarkibiy darajalarining aniq chegarasini aniqlash mushkul. Uni fan doimo qayd etavermaydi. Bizning bilimlarimiz tobora chuqurlashib, darajalarning yangi va yangi sifat chegaralarini aniqlaydi. Materiyaning tarkibiy darajalari to'g'risida so'z yuritilganida, subelementar, mikroelementar, yadroviy, atom, molekular, makroskopik va kosmik darajalar ham tilga olinadi. Materiyaning mikroskopik darajasida fizika taxminan 10-15 sm uzunlikda taxminan 10-22 ga teng vaqt ichida yuz beruvchi jarayonlarni o'rganish bilan shug'ullanadi. Megadunyoda esa, kosmologiya taxminan 1010ga teng vaqt (Koinot yoshi) ichida yuz beruvchi jarayonlarni o'rganadi. Materiyaning tarkibiy darajalari g'oyasi metodologiya mutaxassislari tomonidan sababiyat va dunyoni bilish mumkinligi g'oyasi bilan bir qatorda juda yuksak baholanadi.

Ayni vaqtda shuni qayd etish zarurki, materiyaning tarkibiy darajalari tasnifi zamirida chiziqli ierarxiya tamoyili yotadi. Bu yerda «qism butundan kichkina» tamoyili amal qiladi. Lekin bu dunyolarning biri soddaroq,

ikkinchisi murakkabroq, degan ma’noni anglatmaydi. Dunyolar qism va butun sifatida taqqoslanmaydi, ular universumning o’ziga xos teran o’zgarishlarini ifodalaydi. SHu bois bu tasnifni mutlaqlashtirish kerak emas.

Yuqorida aytilganlarga ishonch hosil qilish uchun misol keltiramiz. Butun sonlar qatori 1, 2, 3, 4 , 5, 6 , 7, 8, 9, ... n ni olamiz, bu to’plamdan kichik to’plam – juft sonlar qatori 2, 4, 6, 8, 10, 12, 14, ...n ni ajratamiz. Dastlab juft sonlar qatori butunning, ya’ni butun sonlar qatorining bir qismigina bo’lib tuyuladi. Ammo ularni taqqoslasak, juft sonlar qatori butun sonlar qatori kabi cheksiz ekanligini ko’ramiz. Binobarin, bu yerda qism butun bilan teng.

Bundan tashqari, mikrodunyoda o’tkaziluvchi barcha eks’erimentlar g’ayrioddiy natijaga olib keladi. Mikrodunyo azaldan jumboqlarga to’la, deb aytish mumkin. Ikki elementar zarra to’qnashuvidan keyin hech qanday kichikroq elementar zarralar hosil bo’lmaydi. To’qnashgan zarralar bilan bir xil, ya’ni elementar zarralar, masalan, ikki ‘roton to’qnashuvidan keyin boshqa ko’plab elementar zarralar, shu jumladan, protonlar, mezonlar, giperonlar vujudga keladi. Zarralarning «ko’plab tug’ilishi» hodisasini Geyzenberg quyidagicha tushuntirgan. Elementar zarralar to’qnashganida ko’p miqdordagi kinetik energiya moddaga, paydobo’luvchi zarralarga aylanadi va biz zarralarning ko’plab tug’ilishi jarayonini kuzatamiz. yarim asr muqaddam elementar zarralarning atigi uch turi - moddaning eng kichik elementlari – elektron va proton hamda energiyaning eng oz portsiyasi hisoblangan foton ma’lum bo’lsa, hozir 200 dan ortiq elementar zarralar kashf etilgan. Oddiy ob’ektlar tarkibini aniqlash uchun, «qandaydir kichikroq elementlardan tashkil topadi» formulasi mos kelsa, bu mikrodunyoni tavsiflashga mos kelmaydi.

Mikrodunyoning boshqa bir g’ayrioddiy effekti mikrozarraning ikki yoqlama tabiati, ya’ni u ham korpuskula, ham to’lqindan iborat ekanligi bilan bog’liq. SHu sababli bunday zarra makon va vaqtda aniq o’rin olishi mumkin emas. Bu xususiyat Geyzenbergning nomuayyanliklarning o’zaro nisbati tamoyilida o’z aksini to’gan.

Materiyaning tarkibiy darajalari ierarxiyasida inson markaziy o’rinni egallaydi. Qadimdayoq protagor «Inson hamma narsalarning o’lchovidir», degan edi. Dunyoni o’zlashtirishda inson qadriyatlari shkalasini andoza sifatida qabul qiluvchi falsafiy ta’limot – «Antropologizm» zamirida ana shu tezis yotadi. Materiya tuzilishining inson tomonidan kuzatiluvchi darajalari odamlar yashovchi muhitning tabiiy shart-sharoitlarini, ya’ni bizning dunyoviy qonuniyatlarimizni hisobga olgan holda o’zlashtiriladi. Lekin bu bizdan ancha olisdagi darajalarda materiyaning mavjud shakllari va holatlaridan butunlay farq qiluvchi, mutlaqo boshqacha xossalar bilan tavsiflanuvchi «g’ayritabiiy» shakl hamda holatlari mavjud bo’lishi mumkin, degan taxminni istisno etmaydi. SHu munosabat bilan olimlar geotsentrik va nogeotsentrik moddiy tizimlarni farqlay boshladi.

SHunday qilib, **materiya kategoriyasining funksiyalari qo’yidagilar:**

- ongga, ma’naviy kuchlarga bog’liq bo’lmagan ob’ektiv borliqning mavjudligi haqidagi fikrni ifodalaydi;
- barcha narsalarda mavjud bo’lgan umumiy xossalarni tavsiflaydi;
- barcha narsalarni bilishga eltuvchi yo’lni, ularni bilishda amal qilish lozim bo’lgan umumiy dastur yoki strategiyani umumiy ko’rinishda belgilaydi.

Bu funksiyalarni materiya kategoriyasi falsafaning keyingi rivojlanishi jarayonida saqlab qoldi.

Materiya tuzilishining inson tomonidan kuzatiluvchi darajalari odamlar yashovchi muhitning tabiiy shart-sharoitlarini, ya’ni bizning dunyoviy qonuniyatlarimizni hisobga olgan holda o’zlashtiriladi. Lekin bu bizdan ancha olisdagi darajalarda materiyaning mavjud shakllari va holatlaridan butunlay farq qiluvchi, mutlaqo boshqacha xossalar bilan tavsiflanuvchi «g’ayritabiiy» shakl hamda holatlari mavjud bo’lishi mumkin, degan taxminni istisno etmaydi. SHu munosabat bilan olimlar geotsentrik va nogeotsentrik moddiy tizimlarni farqlay boshladi.

Olamning paydo bo’lishi va evolyutsiyasi. Notirik tabiat o’z shakllari va holatlarining son-sanoqsizligi va rang-barangligi bilan aqlni lol qoldiradi. U turli jismlar, predmet lar, zarralar, gazlar, maydonlar, xossalar, hodisalar ko’rinishida amal qilar ekan, muttasil harakat va o’zgarishlar jarayonini boshdan kechiradi.

Dunyoning paydo bo’lishi va evolutsiyasi haqidagi hozirgi ilmiy tasavvurlar so’nggi 400 yil ichida vujudga keldi, galaktikalar va ularning to’dalari, makro va mikrodunyoning hayratomuz rang-barangligi haqida odamlar XX asrdagina xabar to’dilar. Olamning cheksiz bo’shlig’i qarshisida bizning dunyo haqidagi tasavvurlarimiz hozir ham dengizdan bir tomchi bo’lib tuyuladi. Lekin, shunga qaramay, bugungi kunda biz bilgan va tushungan narsalar butun Olam va uning ayrim qismlari evolutsiyasi va muttasil o’zgaruvchanligi haqida ancha asosli xulosa chiqarish imkonini beradi. Boshqacha aytganda, dunyo u yoki bu bosqichda ma’lum narsalar vujudga kelib, o’z borlig’ini kasb etadigan va qachondir yo’q bo’ladigan, ya’ni o’zining avvalgi borlig’ini yo’qotib, modda va energiyaning saqlanish qonuniga binoan boshqa narsaga aylanadigan muttasil davom etuvchi jarayondir.

Notirik tabiatning hozirda mavjud bo’lgan butun rang-barangligi o’z asosiga ega, ya’ni u qachondir vujudga kelgan. Bu fikrni kengayib borayotgan Olam haqidagi hozirgi ilmiy tasavvurlar ham tasdiqlaydi. Biroq, olimlar fikriga ko’ra, biz yashayotgan Olam tarixi boshlanishiga asos bo’lgan Katta ‘ortlash nazariyasi dunyoning mohiyati va uning tuzilishi xususida yangi va yangi masalalarni kun tartibiga qo’ymoqda. Tabiiy fanlarning ma’lumotlari taxminan 15 milliard yil muqaddam *ayrim osmon jismlari mavjud bo’lmagani, bizning Olam deyarli bir jinsli kengayib borayotgan ‘lazmadan tashkil to’ganidan dalolat beradi*. Endilikda bir-biridan uzoqlashayotgan galaktikalar tarkibiga kiruvchi yulduzlar, sayyoralar, asteroidlar va boshqa ko’plab kosmik jismlar mavjud bo’lib, bu galaktikalarning to’dalarida vaqti-vaqti bilan fanga ma’lum bo’lmagan sabablarga ko’ra ulkan tadrijiy va inqilobiy o’zgarishlar yuz beradi.

Harakat - materiyaning yashash sharti. Bizni qurshagan dunyoning yana bir muhim xususiyati – Koinotda va uning barcha tarkibiy qismlarida yuz beradigan tinimsiz o‘zgarishlardir.

Tabiatning o‘zgaruvchanligi falsafa paydobo‘lishidan ancha oldin yaxshi ma’lum bo‘lgan, falsafa vujudga kelgach esa, masalalarning mazkur doirasi alohida o‘rganish predmet iga aylandi va vaqt o‘tishi bilan uning negizida

falsafiy bilimlarning maxsus bo‘limi – dialektika yuzaga keldi. Uning (yaxlit ta’limot sifatidagi) ildizlari qadimgi yunon falsafasiga, xususan «Hamma narsa oqib, o‘zgarib turadi», «Ayni bir daryoga ikki marta tushib bo‘lmaydi» kabi mashhur iboralar muallifi Geraklit ijodiga borib taqaladi. Shundan beri ob’ektiv borliqning turli-tuman miqdor va sifat o‘zgarishlarini ifodalash uchun «harakat» va «rivojlanish» kategoriyalari qo‘llaniladi. «Keng» ma’noda umuman har qanday o’zgarish haqidagi tasavvur sifatida talqin qilinadi. Harakatni umuman o’zgarish sifatida tushunish harakat turlarining butun rang-barangligini uning muayyan bir turiga bog’lash to’g’ri emasligi haqida ogohlantiradi va harakat shakllarining umumiy xususiyati va bir-biriga aylanish qobiliyatiga ishora qiladi. «Umuman o’zgarish» deganda, bizning ular haqidagi fikr-mulohazalarimizdan qat’iy nazar, ob’ektiv mavjud bo’lgan barcha o’zgarishlar, turli jarayonlar nazarda tutiladi.

O’z-o’zidan harakat yo butun tabiatga, yo uning yuksak darajada uyushgan tarkibiy qismi – tirik organizm va jamiyatga xos xususiyatdir. Qotib qolgan materiyaga mansub ayrim narsa yoki ob’ektga nisbatan o’z-o’zidan harakat, o’z-o’zidan rivojlanish holati xos deb aytish o’rinli emas. CHunki, ushbu ob’ektni muayyan element sifatida o’z ichiga olgan tabiat o’z-o’zidan rivojlanuvchi yaxlit tizim hisoblanadi.

O’z-o’zidan harakat biron-bir narsaning unga ichdan (immanent tarzda) xos bo’lgan omillar ta’sirida o’zgarish va rivojlanish jarayonlarini ifodalovchi kategoriya sifatida amal qiladi. «O’z-o’zidan harakat» tushunchasi butun borliqning substantsional negizi sifatidagi materiya harakat va o’zgarish jarayoni yuz berayotganida o’z faolligining pirovard sababi sifatida amal qiladi. O’z-o’zidan harakat shakli sifatidagi faollik sirtdan olib kirilgan tashqi kuch sifatida tushunilmasligi kerak. SHu munosabat bilan: «Bu qanday yuz berishi mumkin?», degan savol yaxshi rivojlanmagan, nodialektik tafakkur uchun ancha mushkul masala hisoblanadi. SHakllanish jarayonini qadimgi mashhur «panta rei» – «hamma narsa oqadi» ta’rifida ifodalagan Geraklit an’anasiga, shuningdek, nemis faylasufi F.Gegelga xos yetuk metodologiyaga ko’ra, *o’z-o’zidan harakatning manbai ziddiyat hisoblanadi*. Bunda ziddiyat narsalar, hodisalar va jarayonlarning qarama-qarshi tendentsiyalari hamda tomonlarini taqozo etuvchi, nazarda tutuvchi, ayni vaqtda, inkor etuvchi o’zaro ta’sir sifatida tushuniladi.

O’z-o’zidan harakat tabiatshunoslik va falsafaning eng qadimgi g’oyasi hisoblanadi. Uning yuzaga kelishi borliq harakatining sababini tushuntirish, o’z-o’zidan yuz berayotgan doimiy umumiy o’zgarishni tan olish asosida butun olamdagi o’zgarish jarayonlarining manbaini aniqlashga urinishlar bilan bog’liq. Antik falsafada barcha jismlarga xos bo’lgan, chetdan aralashuvsiz yuz beradigan tabiiy harakatni belgilovchi intilish to’g’risida atroflicha so’z yuritilgan. Dunyo zamirida materiya bilan uzviy bog’liq bo’lgan qandaydir intilish, qandaydir haqiqiy, lekin g’ayritabiiy kuch yotadi va uning o’z-o’zidan harakatiga turtki beradi, deb qaralgan. Ayni vaqtda, o’z-o’zidan harakat g’oyasi barcha faylasuflar tomonidan yakdillik bilan qabul qilinmaganini ham qayd etib o’tish lozim. Parmenidning: «Borliq mavjud, yo’qlik mavjud emas», degan mashhur tezisi barqarorlik, o’zgarmaslik, muayyanlikning mutlaqligini tan olishni anglatgan. Boshqacha aytganda, bunda o’zining boshqa holatiga aylanish sifatidagi o’z-o’zidan harakat g’oyasiga o’rin yo’q bo’lgan dunyo tan olingan. Keyinroq ta’riflangan neoplatonik Proklning tezisi uning muqobili sifatida amal qilgan. Prokl harakat, o’z-o’zidan harakat va harakatsizlikni farqlashni taklif qildi. U «Mavjud hamma narsalar yo harakatsiz, yo harakatdadir, – degan. – Agar narsa harakatda bo’lsa, u o’zi bilan o’zi yoki boshqa narsa bilan harakatdadir. Agar u o’zi bilan o’zi harakatda bo’lsa, o’z-o’zidan harakatda, boshqa narsa bilan harakatda bo’lsa – boshqacha harakatdadir. Binobarin, hamma narsalar yo harakatsiz, yo o’z-o’zidan harakatda, yo boshqacha harakatda bo’ladi»[34].

SHunday qilib, o’z-o’zidan harakat g’oyasi dunyoni tushunish kontseptsiyalari maydonida bir necha muqobil yondashuvlar bilan birga amal qiladi. Butun borliqning to’xtovsiz harakati haqidagi tezis o’z-o’zidan harakat g’oyasining «sherik-raqiblari»dir. «Qarama-qarshiliklar birligi» sifatidagi rivojlanishdan farqli o’laroq, rivojlanishga «kamayish va ko’payish sifatida, takrorlanish sifatida» qarovchi yondashuv ikkinchi muqobilga aylandi. Birinchi muqobil metafizik, ikkinchisi – dialektik kontseptsiya deb nomlandi va u mutlaqlashtiriladi. Sobiq sovet davri falsafasida bunday mutlaqlashtirish quyidagicha izohlangan: «Harakatning birinchi kontseptsiyasida o’z-o’zidan harakat, uning harakatlantiruvchi kuchi, manbai va sababi panada qoladi. Ikkinchi kontseptsiyada asosiy e’tibor aynan «o’z-o’zi»dan harakat manbaini bilishga qaratiladi. Birinchi kontseptsiya jonsiz, bo’sh, yuzaki. Ikkinchisi – hayotiy. Faqat ikkinchi kontseptsiya «butun borliq»ning o’z-o’zidan harakatini tushunib etish, «sakrashlar», «tadrijiylikning uzilishi», «qarama-qarshilikka aylanish», «eskining yo’q bo’lishi va yangining vujudga kelishi» mohiyatini anglash imkonini beradi»[35]. Aslida bu qarashlarni falsafiy tafakkur rivojida qo’lga kiritilgan yondashuvlar sifatida tushunish ma’qul.

Abadiy harakat, o’zgarish va harakatsizlikning o’zaro nisbati. Falsafada harakat nafaqat turli jismlarning makonda mexanik siljishi sifatida, balki tabiiy jarayonlar va hodisalar holatlarining har qanday o’zgarishi sifatida ham tushuniladi. Kengayib borayotgan Metagalaktika ham, o’zaro ta’sirga kirishayotgan elementar zarralar ham, ko’payayotgan, moddalar almashinuvini amalga oshirayotgan tirik hujayralar ham, ijtimoiy jarayonlar va hokazolar, shu jumladan fikrlash faoliyati jarayonlari ham harakatda bo’ladi.

Agar biz biron-bir tabiiy ob’ekt yoki hodisani ularning tabiiy holatida anglab yetmoqchi bo’lsak, «harakat» tushunchasini chetlab o’tishimiz mumkin emas. Bir qarashda, oddiy ong nuqtayi nazaridan bu noto’g’ri, zero, Alp tog’lari yoki Misr ehromlarini kuzatar ekanmiz, biz ular abadiy harakatsizlik holatida ekanligining guvohi bo’lamiz. Ammo bu harakatsizlik nisbiydir. Umuman olganda, butun Koinot ulkan aylanma harakat holatida bo’lib, bu yerda

[34] Prokl // Vsemirnaya ensiklopediya. –M.: Sovremenniy literator, 2001.-S.236.
[35] Чумаков А.Н. Буччило Е. Философия. -М.: Современний литератор, 2007.-С.54

bizning sayyoramiz Quyosh atrofida, u bilan birga – bizning galaktikamiz markazi atrofida, u bilan birga esa – galakatik sistema markazi atrofida aylanadigan kichik bir zarradir.

Harakatsizlik holatidagi narsalar strukturasi ham tinimsiz o'zgarish jarayonini boshdan kechiradi, chunki uzluksiz harakatda bo'lgan elementar zarralardan tashkil to'adi. Temperatura o'zgarishlari, kimyoviy tarkib o'zgarishlari va shu kabilar bunday harakatning tashqi ko'rinishlari hisoblanadi. SHuningdek, atomlar va molekulalar ham Koinotda yuz bergan evolutsiya jarayonlari mahsulidir. Ular bizning Metagalaktikamiz mavjudligiga zamin hozirlagan Katta portlashdan keyingina vujudga kelgan. Buning ustiga hozirgi zamon geografiyasi qit'alar bir-biriga nisbatan siljishini isbotladi. Ular ajralgan muz bo'laklari kabi Yerning qaynoq magmasi bo'ylab yiliga bir necha santimetr tezlikda harakatlanadi.

SHunday qilib, harakat abadiy va yo'q bo'lmas, materiyadan ajralmas va mutlaqdir. Harakatsizlik esa nisbiy bo'lib, o'tkinchi xususiyatga ega. Harakat shuning uchun ham mutlaqki, u umumiy ahamiyat kasb etadi va (harakatsizlikdan farqli o'laroq) biron-bir tashqi omilga bog'liq bo'lmaydi. Oqilonalik nuqtayi nazardan u boqiydir, chunki dunyoda uning boshi ham, oxiri ham ko'rinmaydi va zamirida kamida ikki kuch – tortish va itarish yotuvchi har qanday borliqning o'z-o'zidan harakati sifatida amalga oshadi.

Harakatning tiplari va shakllari. Harakat shakllarini tasniflashda qaysi tamoyillarga rioya qilinishiga qarab bunday shakllarning har xil miqdori farqlanadi. Masalan, *XIX asrda materiya tashkil topishining turli darajalariga asoslanib, materiya harakatining besh asosiy shakli: mexanik, fizik, kimyoviy, biologik va ijtimoiy harakat qayd etgan*.

Harakatning mazkur shakllari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, bunda har bir keyingi harakat o'zidan oldingi harakatdan kelib chiqadi, unga asoslanadi, biroq, shunga qaramay, quyi shakl bilan bog'lanmaydi. *Harakatning murakkab shakllarini soddaroq shakllarga bunday bog'lashga urinishlar falsafa tarixida «mexanitsizm», «reduktsionizm» (lot. reductio – ortga surish) degan nom olgan, harakat ijtimoiy shakllarini biologik shakllar darajasigacha soddalashtirish biologizatorlik kontseptsiyalarida mavjud.*

Dunyoning kelib chiqishi va rivojlanishi haqidagi hozirgi tasavvurlar nuqtayi nazaridan ko'rsatilgan shakllar harakatning mavjud va taxmin qilingan usullarining butun rang-barangligini aks ettirmaydi. Xususan, elementar zarralarning o'zgarish jarayonlari, XIX asrda noma'lum bo'lgan mikro- va makrodunyo darajasidagi boshqa o'zgarishlar materiya harakati mexanik, fizik va kimyoviy shakllarining o'zaro nisbatiga doir masalani endi yangidan qo'ymoqda. Bu yerda mexanik shakl endi barcha fizik jarayonlar negizi sifatida qaralmaydi. Endilikda biologik harakatning elementar zarralari, ilgari taxmin qilinganidek, oqsilli molekulalar emas, balki XX asrda kashf etilgan DNK va RNK hisoblanadi. Ayrim olimlar yer po'sti hamda Yer ostida yuz berayotgan jarayonlar haqidagi hozirgi tasavvurlarga asoslanib harakatning geologik shaklini farqlamoqdalar.

XIX asr oxirlarida materiyaning harakat shakllari tasnifi ishlab chiqilayotganida, ilmiy davralarda fanlarni tasniflashga nisbatan kontcha yondashuv shakllangan edi. pozitivizm asoschisi O.Kont har bir fan predmet ini materiya harakatining alohida shakli tashkil etishi, turli fanlarning ob'ektlari esa bir-biridan keskin farq qilishiga ishonchi komil edi (mexanika, fizika, kimyo, biologiya, sotsiologiya va hokazo). Mazkur muvofiqlik fanlarni muvofiqlashtirish tamoyili deb nomlandi. Bunda turli fanlar o'rganadigan ob'ektlar bir-biri bilan qanday bog'langanligi va bir-biriga o'tishiga e'tibor berildi. Quyidan oliyga, oddiydan murakkabga sari yuksalib boradigan harakatlanuvchi materiyaning progressiv rivojlanish jarayonini aks ettirish g'oyasi tug'ildi. *Mexanika fizika bilan bog'lanishi va unga o'tishi, fizika kimyoga, kimyo biologiya va ijtimoiy fanlarga o'tishini nazarda tutuvchi yondashuv (mexanika → fizika → kimyo → biologiya → ijtimoiy fanlar) subordinatsiya tamoyili deb nomlanadi*. Darhaqiqat, qaerga nazar tashlamaylik, biz harakatning boshqa shakllariga mutlaqo bog'liq bo'lmagan biron-bir harakat shaklini to'a olmaymiz, hamma joyda bir harakat shaklining boshqa harakat shakliga aylanish jarayonlarigina mavjud. Materiya harakat shakllarining o'zaro ta'siri va bir-biriga aylanishi uzluksiz-uzlukli jarayonida mavjud bo'ladi.

O'sha davrda noorganika sohasiga nisbatan tatbiq etilgan (mexanik, fizik, kimyoviy) «energiya» tushunchasi fandan mustahkam o'rin olgan edi. Ammo vaqt o'tishi bilan jonli va jonsiz tabiat o'rtasida aniq chegara bo'lishi mumkin emasligi ayon bo'ldi. O'tuvchi shakl va jonli ziddiyat - virus buning yorqin dalili bo'ldi. U organik muhitga tushgach, o'zini xuddi tirik jism sifatida tuta boshlaydi. Holbuki, noorganik muhitda virus o'zini bunday namoyon etmaydi. XIX asrda materiyaning bir harakat shakli boshqa harakat shakliga o'tishi olimlar tomonidan bashorat qilingan, deb aytish mumkin, chunki bu davrgacha mexanik va issiqlik shakllari o'rtasidagi o'tishlargina o'rganilgan edi. Tez orada buyuk kashfiyotlar aynan fanlar tutashgan joyda, chegaradosh sohalarda yuz berishi haqidagi taxmin ham diqqatga sazovor bo'ldi. Ba'zi faylasuflar tomonidan tabiat va jamiyatni bog'lovchi shunday chegaradosh sohalardan biri o'rganilib, antro'osotsiogenezning mehnat bilan bog'liq nazariyasi taklif qilindi. O'z vaqtida Darvin inson va maymunni anatomik jihatdan qiyosiy o'rganish asosida insonning sof hayvoniy nasl-nasabi haqidagi xulosaga kelgan edi. Boshqalar esa ijtimoiy omillar roliga, xususan, inson va kishilik jamiyatining shakllanishi – antro'osotsiogenez jarayonida mehnatning alohida roliga baho berdilar. Bu asosda materiyaning harakat shakllarini tasniflashning quyidagi tamoyillari ishlab chiqilgan;

- materiya harakatining har bir shakli muayyan moddiy tashuvchi bilan bog'liq bo'lishi lozim;
- materiyaning harakat shakllari sifat jihatidan turlicha va o'zaro bog'lanmaydi;
- tegishli shart-sharoitlarda ular bir-biriga aylanadi;
- materiyaning harakat shakllari murakkablik darajasiga ko'ra farq qiladi, oliy shakl quyi shakllar sintezi sifatida tushuniladi. Bunda oliy shakllarning quyi shakllardan uzoqlashishiga ham, oliy shakllarning quyi shakllarga mexanik bog'lanishiga ham yo'l qo'ymaslik muhimdir;

- moddiy tizimlarning har bir turida bosh, oliy va ikkinchi darajali va quyi shakllar farqlanishi lozim;

- materiya harakat shakllarining tasnifi fanlar tasnifining negizi hisoblanadi.

Materiya harakat shakllarining tasnifi: materiya harakatining mexanik shaklini boshqa har qanday shaklga kiruvchi eng sodda shakl sifatida;

- fizika o'rganuvchi issiqlik, yorug'lik, elektr kuchini;

- kimyoviy jarayonlarni;

- organik hayotni qamrab oladi. Ular tabiatdagi asosiy shakllar hisoblanadi. Ulardan yuqorida ijtimoiy-tarixiy jarayon, materiya harakatining ijtimoiy shakli, shuningdek, fikrlash jarayonlari turadi.

Materiya harakati asosiy shakllarining keltirilgan tasnifi fan tabiat rivojlanishining teran aloqalarini endigina aniqlay boshlagan XIX asrning saksoninchi yillarida yaratilgan edi. O'sha davrda hali ko'p narsa noma'lum, ko'p narsalarni aniqlash lozim edi

Makon va vaqt - borliqning fundamental shakllari. Bizni qurshagan dunyo mazmuni, borliqning umumiy xossasi bo'lgan borliq haqida so'z yuritar ekanmiz, makon va vaqt tushunchalarini chetlab o'tishimiz mumkin emas. Zero, har qanday jism, narsa, hodisa doim borliqning boshqa predmetlari va hodisalari bilan yonma-yon keladi, ko'lamlilik xususiyatiga ega bo'ladi. SHuningdek ular o'z ichki va tashqi holatlarini bir-biriga nisbatan o'zgartiradi va bu turli hollarda har xil tezlik, marom, sur'at va davomlilik bilan yuz beradi. Alohida holda ayrim yagona deb qaraladigan bu ko'rsatkichlar majmui bizga vaqt haqida tasavvur beradi. Makon va vaqt o'z rang-barangligida cheksiz borliqning shakllari sifatida amal qiladi.

Falsafa tarixida makon va vaqtga substantsional va relyatsion yondashuvlar. Makon va vaqt mohiyati haqida odamlar o'z rivojlanishining dastlabki bosqichlaridayoq fikr yuritganlar va o'tmishning aksariyat mutafakkirlari ularning tabiatini aniqlashga harakat qilganlar. Bu avvalo inson amaliyoti va bilishining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan. Zero ular kengayib va takomillashib, mazkur kategoriyalarni yanada aniqroq va teranroq tushunishni talab qilgan. Xususan, antik davrdayoq falsafadan ko'lamli shakllar va ularni o'lchash usullari haqidagi fan sifatida ajralib chiqqan geometriya ilk aniq fanlardan biriga aylandi. Vaqtga astronomik kuzatishlar hamda koinotning boqiyligi va inson hayotining tezoqarligi haqidagi mulohazalar nuqtayi nazaridan ham alohida e'tibor qaratilgan. Keyinchalik «makon» va «vaqt» kategoriyalariga qiziqish hech qachon susaymagan. Ular bilan bog'liq ko'p sonli masalalar yuzaga kelgan. Ularning eng muhimlaridan biri quyidagicha yangraydi: makon va vaqt mustaqil mohiyatlarmi yoki ular faqat nimagadir bog'liq holda keladimi? Shu munosabat bilan falsafa tarixida shakllangan ikki muhim va bir-biridan butunlay farq qiladigan yo'nalish – substantsional va relyatsion yo'nalishlarni farqlash mumkin.

Substantsional yo'nalishda makon va vaqt materiya va ongga bog'liq bo'lmagan mustaqil mohiyatlar sifatida qaralgan. Substantsional kontseptsiya asoschilari Demokrit (makon muammosi bo'yicha) va Platon (vaqtga nisbatan yondashuvlarda) makon va vaqtni materiyaga ham, bir-biriga ham bog'liq bo'lmagan mustaqil mohiyatlar sifatida talqin qilganlar. Demokrit atomlar harakatlanuvchi bo'shliq amalda mavjudligi haqidagi yondashuvni ilgari surgan. Uning fikricha, bo'shliqsiz atomlar harakatlanish imkoniyatidan mahrumdir. Demokrit va Epikur makonni atomlardan iborat joy deb tasavvur qilgan va uni bo'shliq bilan tenglashtirgan. Makon mutlaq, bir jinsli va harakatsiz bo'ladi, vaqt esa bir tekis oqadi deb hisoblangan. Demokrit, Epikur va Lukretsiy Kar ta'limotiga ko'ra, makon ob'ektiv, bir xil va cheksiz. U atomlar joylashadigan joy. Vaqt (zamon)ni abadiyat bilan tenglashtirish mumkin –u o'tmishdan kelajak sari bir maromda kechuvchi sof davomlilikdan iborat. Vaqt - voqealar yuz beruvchi joy. Qadimgi yunon faylasuflari materiya, harakat, makon va vaqtni mustaqil substantsiyalarga ajratuvchi bu g'oyalar keyinchalik Nyuton klassik mexanikasida rivojlantirildi. XVIII-XIX asrlarda substantsional kontseptsiya – mutlaq makon va vaqt kontseptsiyasi falsafada tabiatshunoslikda yetakchilik qildi. Bu o'z mohiyatiga ko'ra metafizik kontseptsiya edi, chunki u harakatlanuvchi materiya, makon va vaqtning aloqadorligini e'tiborga olmas edi. Mazkur kontseptsiyaga ko'ra, materiyadan tashqarida sof makon yoki moddiy jarayonlar bilan mutlaqo bog'liq bo'lmagan vaqt mavjud bo'lishi mumkin edi. SHunga qaramay, makon va vaqt haqidagi bu tasavvurlar muayyan empirik asosdan xoli emas edi. Odatdagi tajriba va past tezliklar sohasida, makrodunyoda (makrodunyo esa inson yashaydigan asosiy muhitdir) makon, vaqt va harakatlanayotgan narsa o'rtasida bevosita aloqa kuzatilmaydi. Ob'ekt muayyan joydan uzoqlashishi mumkin, lekin buning natijasida makon o'zgarmaydi va yo'qolmaydi. Vaqt ham shunday tushuniladi, u ob'ektlarga bog'liq emas. SHuning uchun ham bunday yondashuvlar saqlanib qolgan, ayniqsa, tabiatshunoslik mikrodunyoni o'rganishga hali yaqinlashmagan sharoitda keng tarqalgan.

Ammo dialektik tafakkur sohibi bo'lgan F.Gegel bunday yondashuvlarni qat'iy inkor etgan. U makon mustaqil bo'lishi mumkin emasligini qayd etgan, vaqt haqida esa shunday degan: «hamma narsa vaqtda yuzaga kelmaydi va yuz bermaydi, balki vaqtning o'zi shu shakllanish, yuzaga kelish va yuz berishdir»[36] va bu e'tirozlarida F.Gegel haq edi. Umuman, Gegelning ob'ektiv idealizmida makon va vaqtga e'tibor qaratmagan, chunki u vaqtdan tashqari, boqiy, «sof mantiqiy» xususiyatga ega bo'lgan bilimlarning mutlaq tizimini yaratishga harakat qilgan.

Relyatsion (lot. relativus – nisbiy) yo'nalish makon va vaqtni mustaqil mohiyatlar sifatida emas, balki real dunyo ob'ektlari va jarayonlari o'rtasidagi alohida munosabatlar sifatida tushunish bilan bog'lanadi. «Vaqt nima?», degan savolga javob berar ekan, Aristotel shunday mulohaza yuritadi: harakatda ham, vaqtda ham doim muayyan «oldin» va undan farq qiluvchi «keyin» mavjud. Aynan harakat tufayli biz har xil, o'zaro mos kelmaydigan «hozir»ni farqlaymiz. Vaqt shu «hozir»ning ketma-ketligi, ularning almashuvi, sanog'i, hisobi,

[36] Гегел Г. Наука логика. -М.: Наука, 1994. –С.161

«oldingi va keyingiga bog'langan harakatlar soni»dir[37]. Aristotelda makon harakatsiz yulduzlar sohasi bilan cheklangan, ularning ortida – makon va vaqtdan tashqarida yotuvchi va hamma narsani harakatga keltiruvchi boqiy, harakatsiz, ilohiy osmon joylashgan.

Mazkur nuqtayi nazardan ko'rsatilgan munosabatlar doirasidan tashqarida makon va vaqt mavjud bo'lmaydi. Bu yo'nalishning atoqli namoyandasi G.Leybnits (1646-1716) hisoblanadi.

Makon va vaqt talqinidagi bu ikki tendentsiya, ya'ni makon va vaqt borliqning mustaqil, ob'ektiv hamda moddiy mazmunga bog'liq bo'lmagan asoslari sifatida yoki harakatlanuvchi materiyaning ajralmas qismi sifatida talqin qilish keyinchalik o'z rivojini to'di. Birinchi substantsional kontseptsiya ayrim o'zgarishlar bilan yigirma asrdan ko'proq davr amal qildi. Nyutonning materiya joylashadigan harakatsiz, uzluksiz va bir xil uch o'lchovli joy sifatidagi makon to'g'risidagi fikri o'z mohiyatiga ko'ra, Demokritning makon haqidagi g'oyalari bilan bir edi. Nyuton kontseptsiyasiga ko'ra, makon absolyut bo'lib, cheksiz ko'lamga ega. SHuning uchun u o'zida barcha materiyani sig'dira oladi va turli jarayonlarga bog'liq emas. Ushbu kontseptsiyaga ko'ra, vaqt ham absolyut bo'lib, turli o'zgarishlarga bog'liq bo'lmagan holda kechadigan teng davriylikdir. Unda barcha narsalar paydova yo'q bo'lib turadi. Muxtasar qilib aytganda, Nyuton makon va vaqt bir-biridan ajralgan va materiya bilan harakatga bog'liq bo'lmagan mustaqil narsa, deb tushungan.

Ijtimoiy makon va ijtimoiy vaqtda tarix vaqti va davr ruhining mutanosibligi. Makon va vaqt munosabatlarining yanada murakkabroq manzarasi ijtimoiy tuzilmalarda kuzatiladi. Bu insonning dunyoga munosabati bilan belgilangan, inson faoliyati va amaliyotining o'ziga xos xususiyatlariga tarixiy bog'liq bo'lgan ijtimoiy makon to'g'risida so'z yuritish o'rinli bo'ladi. U alohida insoniy ma'no kasb etadi va biosfera, sayyora va koinot darajasidan bir vaqtda o'rin oladi, shu bilan birga inson yaratgan infratuzilma, o'zlashtirilgan hududlar, foydalanilayotgan suv va fazo okeanlari, jamuljam holda inson yashaydigan makonga aylangan koinot kengliklari ko'rinishida ulardan ajralib turadi. Bunda ko'lamli strukturalar o'z holicha, xatolik tarzda vujudga kelmaydi, balki jamiyat evolutsiyasi ob'ektiv jarayonlarining mahsuli hisoblanadi va muayyan xalqlarning turmushi va madaniyatini, ularning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasini, ma'lum vaqt ruhini o'zida aks ettiradi. Bularning barchasi pirovardida «ikkilamchi tabiat»ni tashkil etadigan tegishli arxitektura, o'zgartirilgan landshaft va shu kabilarda o'z aksini to'adi.

Ijtimoiy vaqt ham o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, u, biologik va 'lanetar-kosmik vaqtdan farqli o'laroq, notekis oqadi. Insoniyat shakllanish jarayonining dastlabki bosqichida boshlangan ijtimoiy vaqt keyingi davrlarda deyarli o'zgarishsiz kechdi va fan-texnika taraqqiyotining ilk alomatlari paydobo'lishi bilan, XVII-XVIII asrlardan e'tiboran jadalroq sur'at kasb eta boshladi. XX asrda yuz bergan fan-texnika inqilobi ijtimoiy makonni keng qamrab oldi va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning rivojlanishiga alohida tus berib, vaqt harakatini misli ko'rilmagan darajada jadallashtirdi. Yer kurrasi «kichrayib», insoniyat uchun tor bo'lib qoldi, uning bir chetidan narigi chetiga o'tish endilikda soatlar bilan (Oy, Mars, Venera va boshqa kosmik jismlarga uchish tezligi va vaqtini hisobga olmaganda) o'lchanmoqdaki, XX asrda buni hatto tasavvur qilish ham mumkin emas edi.

Ijtimoiy vaqtda muayyan odamlar, ijtimoiy jamoalar, ayrim hamjamiyatlar, millatlar, davlatlar va pirovard natijada butun insoniyat borlig'ining vaqt ko'rsatkichlarini farqlab, ijtimoiy vaqt strukturasining murakkabligi to'g'risida ham so'z yuritish mumkin. Ulardan har birining yashash vaqti va sur'ati har xil bo'lib, o'z xususiyatiga ega. Aslini olganda, turli mamlakatlar va xalqlar jamuljam holda butun insoniyatni ifoda etsa-da, amalda turli tarixiy davrlarda: kimdir o'tmishda, kimdir hozirgi davrda, kimdir esa kelajakda yashaydi. Bunga, xususan, amerikalik taniqli futurolog E.Toffler e'tiborni qaratadi. Uning fikricha, «Er aholisining 70% o'tmishda (turli o'tmishda), 25% - hozirgi davrda, 3% - kelajakda yashaydi, qolganlar esa marginallar bo'lib, ular har qanday vaqtdan tashqaridadir»[38].

Hozir «Ijtimoiy vaqt mavjudmi» degan masala bahsli emas. Muammo uning mazmunida qanday ustuvorliklar va konstantalar mavjudligida. *Ijtimoiy vaqt individ vaqti va avlod vaqtiga bo'linadi. U kishilik jamiyatining o'zgaruvchan informatsion sig'imiga bog'liq.* Falsafiy adabiyotlarda vaqt jarayonlariga makon xossalarining kirishi, ya'ni ijtimoiy vaqt uzunligi – hayot sikllari bosqichlarining ketma-ketligi sifatida, kengligi – faoliyat turlarining miqdoriy rang-barangligi sifatida, chuqurligi – individning o'zi ishtirok etayotgan faoliyat turlaridagi faollik darajasi sifatida ko'rsatilishi bilan bog'liq fikrlarga ham duch kelish mumkin. Makon va vaqt aloqasi hamma joyda har xil bo'lgan «mahalliy vaqt» tushunchasida yorqin namoyon bo'ladi.

O'z-o'zidan tashkillashuv – materiyaning atributi Hozirgi ilmiy tasavvurlar har qanday jonli organizmni ochiq tipdagi o'z-o'zini tashkil etuvchi, ya'ni atrof muhit bilan moddalar, energiya va axborot almashinuvini amalga oshiruvchi sistema sifatida tavsiflash imkonini beradi. Jonli narsalarning yana bir o'ziga xos belgisi shundaki, ular ko'payish qobiliyatiga egadir. Barcha jonsiz narsalardan farqli o'laroq, faqat jonli organizmlargina o'ziga o'xshash organizmlarni yaratishi, sirtdan o'sish va hayotni quvvatlash uchun zarur moddalarni olib, o'z faoliyati chiqindilarini atrof muhitga chiqarib, o'sishi, rivojlanishi mumkin. Boshqacha aytganda, jonli organizmlar borlig'i funktsionaldir, u jarayon sifatida yuz beradi, ya'ni muayyan jonli narsa mavjud bo'ladi yoki, ta'bir joiz bo'lsa, u faoliyat ko'rsatayotgani uchun ham unda hayot mavjud bo'ladi. Bundan tashqari, jonli organizmlar mavjudligi uchun tegishli va mutlaqo muayyan fizik va kimyoviy muhit talab etiladi, zero ularning hayot faoliyati faqat muayyan sharoitda: joiz tem'eratura, havo, namlik, oziq va shu kabilar mavjud bo'lgan holda yuz berishi mumkin.

---

[37] Аристотел // Всемирная энсиклопедия. Философия. -М.: Современний литератор. 2001.-С.69

[38] Қаранг: Вестник Российского университета дружбы народов. Сериа «Философиа». 2006. №1(11). –С. 46.

Qayd etilgan omillar aniq va ularni tekshirish mumkin bo'lsa-da, jonli va jonsiz narsalar o'rtasida uzil-kesil chegara o'tkazish oson ish emas. Masalan, virusli zarralar jonli organizm hujayralaridan tashqarida moddalar almashinuvini amalga oshirmaydi, ko'paymaydi va h.k. Bu ayrim olimlar ularni jonli narsalar qatoriga, ayrimlarning esa – jonsiz narsalar dunyosiga kiritishiga asos bo'ladi. CHuqurlikda muzlatilgan taqdirda quritilgan urug'lar yoki o'ta sodda organizmlarda ham yashash jarayonlari nomuayyan vaqtga to'xtaydi, ammo ular avvalgi (normal) sharoitga qaytarilgach, mazkur jarayonlar tiklanadi.

Fan rivojlanishi bilan sabab-oqibat aloqalarining statistik qonuniyatlari va ehtimoliy tabiati haqidagi tasavvur yuzaga keladi. Murakkab sistemalarning o'z-o'zini tashkil etishi haqidagi fan – sinergetika determinizm talqiniga ma'lum aniqliklar kiritdi. Bir qator ilmiy dalillar olimlar har qanday tabiiy hodisalar stoxastik xususiyatga ega va muayyan noaniqlik sharoitida yuz beradi, degan xulosa chiqarishiga olib keldi. Murakkab sistemalar uchun, odatda, rivojlanishning bir necha muqobil yo'llari mavjud bo'ladi. Sinergetika sabab-oqibat aloqalari nomutanosib sistemalarda namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradi. Bu sistemalarning rivojlanishi ko'p variantlidir. Bunda evolutsiyaning har qanday turi emas, balki yo'llarning muayyan doirasi mavjud bo'lishi mumkin. Rivojlanishda kutilmagan burilishlar yuz berish ehtimoli mavjud, chunki u tasodifiy aloqalar orqali sodir bo'ladi. Nomutanosib sistemalar tashqi omillarga o'ta ta'sirchandir. SHu bois intensivlik darajasiga ko'ra ahamiyatsiz bo'lgan ta'sirlar ham kutilmagan natijalarga olib keladigan shikastli oqibatlar sababi bo'lishi mumkin.

5-Mavzu: Bilish nazariyasi: yo'nalishlari va asosiy muammolari

Reja:

1. Bilish nazariyasining predmeti va o'ziga xos xususiyatlari.
2. Hissiy, empirik, nazariy, mantiqiy va intuitiv bilish darajalari.
3. Haqiqatning asosiy shakllari va kontseptsiyalari.
4. Falsafada metod va metodologiya, metodika tushunchalari.

Bilish nazariyasining predmeti. Gnoseologiyaning mohiyati va mazmuni. «Gnoseologiya» - sof falsafiy kategoriya. Uning nomi yunoncha gnosis – bilim, ilm va logos – ta'limot, fan so'zlaridan kelib chiqqan. So'zma-so'z ma'nosi - «bilish haqidagi ta'limot (fan)», «ong haqidagi ta'limot (fan)». Falsafiy adabiyotlarda, shu jumladan falsafiy qomuslar va lug'atlarda «gnoseologiya» atamasi «bilish nazariyasi» deb tarjima qilingan. SHu bilan bir qatorda, ayni shu mazmunni ifodalash uchun falsafiy adabiyotlarda «epistemologiya» so'zi ham qo'llaniladi.

SHuni ta'kidlash lozimki, gnoseologiyaga tatbiqan bilish nazariyasi va epistemologiya nomlarining qo'llanilishini o'rinli deb bo'lmaydi. Zotan, «episteme» so'zi «pistis» - e'tiqod so'zi bilan uzviy bog'liq. Biroq, biz biladigan (gnosio) va biz ishonadigan (pistio), mavjudligiga e'tiroz bildirmaydigan narsalar – falsafiy va ilmiy bilimlarning hozirgi darajasida mazmunan har xil tushunchalardir. SHu bois G'arbiy Yevropa falsafasida epistemologiyaning mazmuni ikki xil, ba'zan esa – uch xil talqin qilinadi.

Umuman olganda, hozirgi zamon falsafasida gnoseologiya bilish jarayonining umumiy, aniqroq aytganda – falsafiy mohiyati hamda umumiy muammolariga e'tiborni qaratadi. Epistemologiya esa, bizning muayyan narsalar haqidagi bilimlarimiz va (yoki) e'tiqodlarimizning ishonchlilik darajasini o'rganadi.

Gnoseologiya yoki bilish nazariyasi falsafiy bilimlar (falsafa fani) bo'limi bo'lib, unda 1)insonning dunyoni bilish imkoniyati;

2) insonning o'zlikni anglash jarayoni; 3)bilishning bilmaslikdan bilim sari yuksalishi, 4)bilimlar tabiati va ularning mazkur bilimlarda aks etuvchi narsalar bilan o'zaro nisbati o'rganiladi.

SHunday qilib, umuman olganda, gnoseologiya ong, bilish, bilimni o'rganish bilan shug'ullanadi.

Gnoseologiyaning asosiy muammosi bizning barcha bilimlarimiz tajribada sinalganmi? degan «oddiy» masalani yechishdan iborat: Bu savolga javob izlash va masalaning echimini topishda gnoseologiyada ikki muxolif an'ana: bilimlarimiz tajribada sinalganini qayd etuvchi empirizm va buni inkor etuvchi ratsionalizm to'qnashadi.

Ratsionalizm (ratsionalistlar) *insonda tug'ma g'oyalar, adolat, insoniylik, uyg'unlik g'oyalari va tajribadan olinishi mumkin bo'lmagan boshqa g'oyalar mavjudligidan kelib chiqadi*. Zotan, tajriba to'la adolat, yalpi insoniylik mavjud emasligini, bizni qurshagan dunyoda uyg'unlik ustidan xaos hukm surishini ko'rsatadi. Bunda ayrim ashaddiy ratsionalistlar (masalan, Platon, Avgustin va ularning hamfikrlari) ko'rsatib o'tganidek g'oyalar inson aqliga xos tug'ma g'oyalar bo'lib, ularni inson faqat o'z aqlidan olishini qayd etadilar; boshqa, mo''tadil ratsionalistlar (masalan, Leybnits, Volf, Baumgarten) esa, g'oyalar aqlga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lsa-da, biroq ular faqat aqlda tafakkur va falsafiy mushohada yuritish jarayonida tug'ilishini ta'kidlaydilar.

Empirizm (empiristlar, F. Bekon, J. Lokk, T. Gobbs, D. YUm, L. Feyerbax), aksincha, *inson, insoniyat shaxsiy yoki ijtimoiy tajribaga ega bo'lgunga qadar biron-bir g'oya mavjud bo'linishni inkor etadilar*. Ular barcha g'oyalar inson ongi zamirida yo shaxsiy tajriba, yo boshqalar tajribasi, butun insoniyat tajribasini umumlashtirish orqali tug'ilishini qayd etadilar va bu tezisni isbotlashga harakat qiladilar. Ularning fikriga ko'ra, tajriba inson ongida uning sezgilari va o'zini qurshagan dunyoni idrok yetishi orqali aks etadi. Falsafada idrok yetishni pertseptsiya (lotincha «perception» - idrok yetish) deb atash odat tusini olgan. Pertseptsiya *o'zini qurshagan dunyodagi narsalar va hodisalarni sezgilar orqali idrok yetishga aytiladi*, appertseptsiya *borliqni aql bilan anglash, bilish, ularni g'oyalarda ifodalash*dir.

Gnoseologiya inson bilimining chegaralari to'g'risidagi masalani yechishni ham o'z ichiga oladi. Ko'pgina empiriklar (masalan, David YUm, Dyubua Raymond, agnostiklar) va ratsionalistlar (masalan, Kant va uning hamfikrlari) inson nafaqat umumiy narsa va hodisalarni, balki muayyan, konkret narsalarni ham bilishi mumkin

emas, degan fikrga qo'shiladilar. Ayrim narsalar, hodisalar va kontseptsiyalar borki, ular pertseptsiyamizning chegaralariga ham, tafakkurimiz, refleksiyamiz (lotincha «reflexes» - orqaga qaytish) doirasiga ham sig'maydi. Masalan, Kant Koinot ibtidosi yoki ibtidosizligi, Xudoning borligi yoki yo'qligi, jonning boqiyligi yoki foniyligi, axloqning sababiyligi yoki sababsizligi aqlning bilish chegaralariga sig'maydigan, oqilona o'rganib bo'lmaydigan transtsendental (lotincha «transcendentalism» - chegaraga sig'maydigan) masalalardir, deb hisoblagan. XX asr pozitivistlari, empirizm g'oyalarini himoya qilgan yirik olimlar (Moris SHlik, Rudolf Karnap, A.J.Ayer) Kantning transtsendental muammolarini mantiqsiz deb e'lon qildilar.

Optimizm. Skeptitsizm. Agnostitsizm. Inson aqli bilish pillapoyasidan yuqoriga ko'tarilar ekan, har bir yangi pog'onada qayta-qayta quyidagi savolga javob topishga harakat qiladi: dunyoni bilish mumkinmi?, bilishning chegaralari bormi? Falsafada bu savollarga javob beruvchi uch asosiy yo'nalishni farqlash mumkin: optimizm, skeptitsizm va agnostitsizm (Kant va boshqalar). **Optimistlar** *dunyoni bilish mumkinligini ta'kidlaydilar,* **agnostiklar**, *aksincha, buni rad etadilar* (I.Kant – «narsa o'zida»). **Skeptiklar** *dunyoni bilish mumkinligini inkor etmaydilar (XVIII asrda D.YUm), biroq bilimning haqiqiyligiga shubha bildiradilar.* Odatda, skeptitsizm paradigmalar, qadriyatlar, ijtimoiy tizimlar va hokazolar o'zgarayotgan davrda (yoki uning arafasida), ilgari haqiqiy deb hisoblangan xulosalar fan va amaliyot olgan yangi ma'lumotlar nuqtayi nazaridan soxta, asossiz bo'lib chiqqan holda ravnaq topadi. Skeptitsizm psixologiyasiga xos xususiyat shundan iboratki, u darhol nafaqat eskirgan, balki yangi, shakllanayotgan fikrlar, g'oyalarni ham toptay boshlaydi. Bu psixologiya zamirida tadqiqotchining yangilikka tashnaligi va inson tafakkurining kuchiga bo'lgan ishonch emas, balki qachondir qabul qilingan «qulay» tamoyillarga tayanish yotadi. Skeptitsizm ta'limot sifatida, hech shubhasiz, zararlidir, chunki u insonning bilish borasidagi deyarli barcha imkoniyatlarini kamsitadi.

Bilimga chanqoq bo'lgan, bilishga harakat qilayotgan odam **optimist:** «Men buning nimaligini bilmayman, biroq bilishga umid qilaman», deydi. **Agnostik** esa, «Men buning nimaligini bilmayman va hech qachon bila olmayman», deb ta'kidlaydi. YUzaki skeptitsizm, ko'r-ko'rona fanatizm kabi, dunyoqarashi tor odamlarda ko'p uchraydi. F.Laroshfuko ta'biri bilan aytganda, kaltabin odamlar odatda o'z dunyoqarashi doirasidan chetga chiqadigan hamma narsani qoralaydi. Biroq oqilona darajadagi skeptitsizm foydali va hatto zarur. Bilish usuli sifatida skeptitsizm shubha shaklida amal qiladi, bu esa haqiqatning tagiga yetish sari tashlangan qadamdir. SHubha eskirgan, qotib qolgan aqidalarning tagiga suv quyadi, ularga putur etkazadi. U – rivojlanayotgan fanning muhim unsuri. Bilimsizlik qayd etadi va inkor qiladi, bilim – shubhalanadi.

Kant agnostitsizmining qisqacha mazmuni quyidagicha: biz biladigan narsa (fenomen) va o'z holicha mavjud bo'lgan narsa (noumen) mutlaqo har xildir. Biz hodisalar mohiyatini qay darajada teran anglamaylik, bizning bilimimiz baribir o'zicha mavjud bo'lgan narsalardan farq qiladi. SHunday qilib, I. Kant fikricha, bizning ongimiz, hissiyotimiz, tafakkurimizga bog'liq bo'lmagan narsalar olami mavjud. Uni faylasuf «narsa o'zida» sifatida ta'riflaydi. I.Kantning fikricha, bilish jarayoni «narsa o'zida»ning sezgi a'zolarimizga bevosita ta'siri ostida his-tuyg'uning uyg'onishidan boshlanadi. Vaholanki, his-tuyg'ular, tushuncha va hukmlar o'z holicha «narsa o'zida» haqida muayyan nazariy bilim berishga qodir emas. Lekin bundan ishonchli bilim yo'q ekan, degan xulosaga kelmaslik kerak. Matematika va tabiatshunoslik aynan shunday ishonchli bilim manbaidir. Ammo ular qay darajada ishonchli bo'lmasin, «narsa o'zida» haqidagi haqiqiy bilim bo'la olmaydi. Kant bizning tafakkurimizda shakllangan tushunchalar «narsa o'zida»ni qay darajada to'g'ri yoki noto'g'ri aks ettira oladi, degan savolga aniq javob mavjud emas, deb ta'kidlaydi.

Gnoseologik relyativizm – *borliq hodisalari va voqealarini bilish o'zgaruvchanligi, o'tkinchiligini mutlaqlashtiruvchi agnostitsizmning yo'nalishlaridan biridir*. Relyativizm tarafdorlari dunyoda hamma narsa o'tkinchi, haqiqiy dunyoviy darajada ham, hattoki ilmiy darajada ham bizning olam hodisalari haqida olgan faqat shu paytdagi bilimlarimizni ifodalaydi, kecha haqiqat deb hisoblangan narsa bugun ishtiboh, xato sifatida tan olinadi: xuddi dori kabi, haqiqatning ham saqlanish muddati bor. Nisbiy mushohadalar bundan ham omonatroq. Bu ijtimoiy hayotda, axloq normalari va estetik didlarda ayniqsa yaqqol seziladi. yaqindagina shak-shubhasiz deb e'tirof etilgan narsa endi do'zaxdan chiqqan balo sifatida inkor etiladi.

Skeptiklarga xos bo'lgan bu yondashuv antik davrdayoq yuzaga kelgan. Dunyoda hamma narsa shu qadar tez o'zgaradiki, unda mutlaqo o'zgarmas bo'lgan hech narsa mavjud emas, deb hisoblagan Kratil ta'limoti ashaddiy relyativizmga misol bo'lishi mumkin.

Barcha bilimlarimizni faqat nisbiy deb hisoblash, mohiyat e'tibori bilan, bilishda o'zboshimchalik hukm surishini tan olish bilan barobardir. Bu holda bilish nisbatan o'zgarmas, ishonchli narsalar mavjud bo'lmagan, haqiqat bilan ishtiboh o'rtasida farq qolmaydigan, har qanday qoida va tamoyilga ishonch yo'qoladigan, binobarin, hayotda hech narsaga amal qilib bo'lmaydigan uzluksiz oqimga aylanadi. Bilish nazariyasida mutlaq relyativizm – bu tafakkur «boyligi»ning namoyon bo'lish shakllaridan biri. Unga quyidagi mushohada xos: haqiqat albatta mutlaq bo'lishi kerak, agar haqiqat mutlaq bo'lmasa, u haqiqat emas. Bu fikr zamirida nafaqat nisbiy, balki mutlaq haqiqatga ham ishonchsizlik yotadi. Relyativizm namoyandalari odatda haqiqiy deb hisoblangan qoidalar keyinchalik soxta deb inkor etilgan va aksincha, soxta deb hisoblangan qoidalar fan rivojlanishi jarayonida haqiqiy deb e'tirof etilgan hollar fan tarixida ko'p ekanligiga ishora qiladilar. Ilmiy bilishning harakat yo'li – amalda to'g'ri chiziq emas, balki kesimlarida Yanglishish hollari yuz berishi mumkin bo'lgan egri chiziqdan iborat. Biroq bu bizning barcha bilimlarimiz safsata ekanligini isbotlamaydi. Relyativist «bilimda nisbiylik unsuri mavjud» degan

to’g’ri qoidani «bilim doimo nisbiydir», binobarin, bilim kerak emas, degan Yanglish qoidaga almashtiradi. «Bu eng yomon fikr: agar men hamma narsani bila olmasam, men hech ish qilmayman»[39].

Bilimning asosiy turlari. Bilim nima? Bilim tushunchasiga aniq ta’rif berish qiyin, balki hatto mumkin ham emas. Gap shundaki, **birinchidan**, bu tushuncha eng umumiy tushunchalardan biri hisoblanadi, umumiy tushunchalarga esa doim aniq ta’rif berish qiyin. **Ikkinchidan**, bilimning juda ko’p turlari mavjud va ularning hammasini yonma-yon qo’yib bo’lmaydi. SHuni e’tiborga olib, bilim nima ekanligini aniqlashga harakat qilib ko’ramiz. Odatda, biz nimanidir bilishimiz haqida gapirganimizda, o’zimiz bu «nimadir» haqida ancha to’g’ri tasavvurga egamiz, deb hisoblaymiz. SHuningdek, bizning tasavvurimiz xom xayol yoki faqat o’z shaxsiy fikrimiz emasligiga ham ishonchimiz komil bo’ladi. Nihoyat, biz bu ishonchni mustahkamlovchi qandaydir dalillar keltirishimiz mumkin. SHunday qilib, o’z shaxsiy hayotimizda biz amaldagi holatga mos keladigan va ma’lum asoslarga ega bo’lgan ishonch, e’tiqodni bilim deb hisoblaymiz.

- **haqiqiylik (muvofiqlik) sharti – «agar P haqiqiy bo’lsa, u holda S P ni biladi»**. Biz CHimyon Toshkentdan shimolroqda joylashganligini bilaman, basharti CHimyon chindan ham Toshkentdan shimolroqda joylashgan bo’lsa. Agar biz Amudaryo Tinch okeaniga quyiladi, deb aytsak, bizning bu fikrimiz bilim emas, balki Yanglish fikr, xato bo’ladi.
- **ishonchlilik (e’tiqod, maqbullik) sharti – «agar S P ni bilsa, u holda S P ga ishonadi (uning mavjudligiga e’tiqodi komil bo’ladi).** Masalan, agar biz O’zbekistonda dengiz bor desak, biz uning amalda mavjudligiga ishonamiz. Odatda bilim shunday ishonch yoki shunday e’tiqod hisoblanadi va ularni ajratish mumkin emas. SHunday bir vaziyatni tasavvur qiling: siz oyna oldiga kelib, tashqarida yomg’ir yog’ayotganini ko’rasiz. Siz: «YOmg’ir yog’yapti, lekin men bunga ishonmayman», deysiz. Bu iboraning anoto’g’riligi bilimimiz bizning e’tiqodimiz ekanligini ko’rsatadi.
- **asoslilik sharti «S P ni biladi, basharti u o’zining P ga bo’lgan ishonchini asoslab bera olsa».** Bu shart bilimni to’g’ri chiqadigan taxminlar yoki tasodifan mos kelish hollaridan farqlash imkonini beradi. Aytaylik, siz besh yashar bolakaydan: «Quyosh sistemasida nechta sayyora bor?», deb so’radingiz va «To’qqizta», degan javobni eshitdingiz. Siz bola sayyoralar sonini tasodifan to’g’ri aytdi deb hisoblaysiz. Agar u o’z javobini hech bo’lmasa buni onasidan eshitganini aytib, asoslab bera olmasa, siz bolakayda bu dalil haqida haqiqiy bilim mavjud emas, degan to’xtamga kelasiz.

SHunday qilib, bu «uch qismli» talqinga muvofiq, quyidagi muxtasar ta’rifni berish mumkin: **bilim – bu haqiqatga mos keladigan va asoslangan ishonchdir.**

Balki bilimni standart tushunish haddan tashqari taxminiy va nisbiydir? Qisman shunday, biroq bilim-bir ta’rif chegaralariga sig’dirish juda qiyin bo’lgan rang-barang hodisa ekanligi muhimroq. Agar **«bilmoq»** so’zi tilimizda qanday qo’llanilishiga nazar tashlasak, bilim turlari juda rang-barang ekanligini ko’rishimiz mumkin. Quyidagi gaplarni ko’rib chiqamiz. Men bu mashinani qanday qilib tuzatish mumkinligini bilaman. Men gitara chalishni bilaman. Men Po’latni o’n yildan beri bilaman. Men Toshkentni yaxshi bilaman. Men uchburchak burchaklarining yig’indisi ikki to’g’ri burchakka teng ekanligini bilaman. Men kit sut emizuvchilar oilasiga mansub ekanligini bilaman.

Bu bir qarashda o’xshash gaplarda **«bilaman»** so’zi har xil ma’nolarda keladi. Dastlabki ikki gapda bilish nimanidir bajara olishni anglatadi. Gnoseologiyada u «bilim-ko’nikma» deb ataladi. Keyingi ikki misolda bilish – bu «bilim-tanishuvlik» demakdir. U inson yoki qandaydir ob’ektni tanish qobiliyatini anglatadi. So’nggi gaplarda bilim «nimanidir bilish»ni ifodalaydi, chunonchi: u narsalarda qandaydir xossalar, nisbatlar, qonuniyatlar va shu kabilarning mavjudligini tavsiflaydi. Bilim bu erda ma’lum axborot ko’rinishida keladi deb aytish mumkin.

Bilim shakllari - Inson o’zini qurshagan olamni anglab etadi, uni har xil usullar yordamida o’zlashtiradi. Bu usullardan ikkita eng muhimini qayd yetish mumkin. Birinchi – moddiy-texnikaviy usul – tirikchilik vositalarini ishlab chiqarish, mehnat, amaliyot. Ikkinchi – ma’naviy (ideal) usul; uning doirasida sub’ekt va ob’ektning bilishga doir munosabatlari ular o’rtasidagi ko’p sonli munosabatlarning biridir. O’z navbatida, bilish jarayoni va unda olinadigan bilimlar amaliyot va bilishning tarixiy rivojlanishi mobaynida tabaqalanadi va o’zining har xil shakllarida mujassamlashadi. Bilishning bu shakllari, garchi o’zaro bog’liq bo’lsa-da, lekin bir-biriga o’xshamaydi va har bir biri o’ziga xos xususiyatlarga ega.

Kundalik amaliy bilim. *Tabiat haqida, shuningdek odamlarning o’zlari, ularning yashash sharoiti, ijtimoiy aloqalari va hokazolar to’g’risida elementlar bilimlar beruvchi kundalik-amaliy bilimlar bilishning tarixan eng birinchi shakli hisoblanadi*. Bilishning bu shakli kundalik hayot, odamlar amaliy tajribasidan kelib chiqqan.

Kundalik bilim – bu har xil faoliyat shakllari – jumladan ishlab chiqarish faoliyati, estetik faoliyat, siyosiy faoliyat va hokazolarning ta’sirida shakllanadigan turmush bilan bog’liq tushunchalar majmui avlodlar to’plagan jamoa kollektiv tajribasi mahsuli hisoblanadi.

SHaxsiy darajada kundalik bilim muayyan shaxsning emotsional kechinmalari va o’z hayot tajribasini anglab yetishi bilan bog’liq. Inson dunyoni nafaqat ilmiy o’rganish, balki o’z hayoti, kundalik amaliyotida o’zlashtirish jarayonida ham tushunib yetadi. Bunday o’zlashtirishning universalligini hozirgi zamon nemis faylasufi Gadamer **«dunyoni sinash»** deb nomlagan. Kundalik bilim zamirida odamlar faoliyatining rang-barang shakllari yotadi. Bu faoliyat turlari urf-odatlar, rasm-rusumlar, bayramlar, marosimlar, jamoa harakatlari (o’yin, raqs va h.k.), axloqiy qoidalar va taqiqlar bilan tartibga solinadi. Ular odamlarni jamoaviy ijtimoiy, madaniy tajribaga jalb yetish vositalari

[39] Толстой И.Н. Воспоминания-М Прогресс, 1991.-8.3

bo’lib xizmat qiladi, odamlarning tabiatga va bir-biriga munosabatini tartibga soladi, yangi bilimlarning shakllanishiga xizmat qiladigan boshlang’ich bilim sifatida amal qiladi.

O’yin vositasidagi bilim nafaqat bolalar, balki kattalar faoliyatining ham muhim unsuri hisoblanadi. O’yin jarayonida shaxs qizg’in bilish faoliyatini amalga oshiradi, bilimlarning katta hajmini o’zlashtiradi, madaniy boylik – ishga doir o’yinlar, sport o’yinlari, aktyorlarning o’yinlari va shu kabilarni qon-qoniga singdiradi. O’yin bolalarning qiziquvchanligini qondirish, ularning ma’naviy dunyosi va ma’lum bilimlari, o’zaro til topish ko’nikmalari va shu kabilarni shakllantirishda muhim ijtimoiy rol o’ynaydi.

Hozirgi zamonda o’yin tushunchasidan matematika, iqtisodiyot, kibernetika va boshqa fanlarda keng foydalanilmoqda.

Mifologik bilim ayniqsa, insoniyat tarixining dastlabki bosqichida muhim rol o’ynagan. *Mifologik bilimning o’ziga xos xususiyati shundan iboratki, u borliqning fantastik in’ikosi hisoblanadi.* Mifologiya doirasida tabiat, koinot va odamlar, ular mavjudligining shart-sharoitlari, aloqa shakllari va hokazolar haqidagi muayyan bilimlar shakllangan

Ayrim hozirgi tadqiqotchilarning fikricha, bizning davrimizda mifologik bilishning ahamiyati pasayayotgani yo’q. Masalan, P.Feyerabend dunyo yutuqlari madaniyatga asos solgani, ratsionalistlar esa faqat uni doim yaxshi tomonga o’zgartirishganiga ishonchi komil.

Mif – ibtidoiy odam tafakkurining tabiat hodisalarini tushunish va tushuntirishning o’ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Mif narsa va obraz, jism va xossa, «asos» va tamoyillarni farqlamaydi. Voqealar o’xshashligi yoki ketma-ketligini sabab va oqibat bog’lanishi sifatida talqin qiladi. Mif oliy darajada universal voqealar, chunonchi: inson o’limi va uning mangu barhayotligi, dunyoning vujudga kelishi, qahramonona qilmishlar, madaniyat yutuqlari (masalan, olovning o’g’irlanishi haqidagi mif) va shu kabilar haqida hikoya qiladi.

Bilishning mifologiya bilan uzviy bog’liq bo’lgan qadimgi shakllari diniy va falsafiy bilishdir.

Diniy bilim *insoniyat to’plagan tajribaga tayanib, inson hayotining muhim ko’rinishlari, chunonchi: oila va turmushdagi xulq-atvor, axloqiy qoidalar, mehnat, tabiat, jamiyat va davlatga munosabatni tartibga soladi*. Dinning asosiy vazifasi – inson hayoti, tabiat va jamiyat borlig’ining mazmunini aniqlashdan iborat. Din universumning pirovard mazmunlari haqidagi o’z tasavvurini asoslab, dunyo va insoniyatning birligini tushunishga ko’maklashadi. U inson hayotini o’zgartirishga qodir bo’lgan haqiqatlar tizimidan iborat. Diniy ta’limotlarning o’ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular jamoa tajribasini ifodalaydi va shu bois nafaqat har bir dindor odam, balki dinga sig’inmaydiganlar uchun ham qadrlidir.

Diniy ta’limotlarning vazifasi Xudo bormi, uni qanday qilib bilish mumkin, umuman, Xudoni bilish mumkinmi, degan savollarga javob berishdan iborat. Din o’z dunyoqarashini Muqaddas Kitob matnlarida, shuningdek diniy rasm-rusum va urf-odatlarda ifoda etadi. Diniy rasm-rusumlarning bir unsuri ramziy ahamiyatga egadir. Diniy ramzlar g’oya va obraz muvozanatini o’zida mujassamlashtiradi.

Meditatsiya – o’z tafakkurini bir ob’ektga qaratish, inson e’tiborini chalg’ituvchi barcha begona omillarni chetga chiqarish yo’li bilan fikr yuritish, narsa, g’oya, dunyoni idrok yetishdir. Dinda meditatsiya shaxsiy ongning Absolyut bilan birikuvini anglatadi. Xristianlikda meditatsiya inson shaxsi va ilohiy shaxsning muayyan oqibati sifatida talqin qilinadi. Meditatsiya, odatda, tabiiy refleksiya jarayoniga aylanadigan harakatlarning muayyan ketma-ketligi bilan bog’liq. U ayrim psixotexnik usullardan foydalanishni nazarda tutadi. Bunda dindor mazkur usullar yordamida o’zini boshqarish, o’zlikni yoki tabiatni anglashga ko’maklashuvchi g’ayritabiiy ruhiy kuchlardan foydalanayotganiga ishonchi komil bo’ladi. Meditatsiyaning bilish usuli sifatidagi samaradorligini fan tan oladi; davolash uchun mo’ljallangan psixotexnika va autogen mashq tizimlari diniy-mistik g’oyalar bilan bog’liq emas.

Odamlar asrlar va ming yilliklar mobaynida to’plagan diniy va boshqa bilimlar xazinasi sifatida, masalan, Injil va Qur’onni qayd yetish mumkin. Biroq din (mifologiya kabi) bilimni izchil va nazariy shaklda ifodalamagan. U umumiy, yaxlit, o’ziga to’q va isbotlangan ob’ekt sifatida bilim ishlab chiqarish vazifasini hech bajarmagan va bajarmaydi.

Agar diniy bilishga dunyoga emotsional munosabatning g’ayritabiiy narsalar va hodisalarga ishonch bilan birikuvi xos bo’lsa, ilmiy bilishning zamirida emotsiyalar va e’tiqodni o’ziga bo’ysundiruvchi oqilonalik yotadi.

Falsafiy bilim. Falsafa san’at va din kabi, bilish vazifalarini yechish bilangina kifoyalanmaydi. *Uning bosh vazifasi san’at va din bilan uyg’un holda– insonning dunyoda ma’naviy mo’ljal olishiga ko’maklashishdan iborat.* Falsafiy bilish ayni shu maqsadga bo’ysundirilgan. Falsafa umuman dunyo, uning «birinchi» asoslari, hodisalarning universal o’zaro aloqasi, borliqning umumiy xossalari va qonunlari haqida umumiy tasavvurni shakllantiradi. Falsafa dunyoni insonga bog’lab o’rganadi. Falsafa umuman dunyoga va madaniyat sub’ekti sifatidagi insonga murojaat etadi. Falsafiy bilim donishmandlik sifatida tavsiflanadi. Donishmandlik – dunyoni va insonning undagi o’rnini yaxlit tushunish andozasi. Falsafa barcha odamlar uchun muhim bo’lgan haqiqatlarning tagiga yetish uchun (ilmiy va noilmiy) bilimdan foydalanadi. Kant falsafa inson aqlining boshqa bilimlarga oliy qadriyat tusini beruvchi eng so’nggi maqsadlarini anglab yetishni tushunishga, bu bilimlarning inson uchun ahamiyatini aniqlashga yordam beradi deb hisoblagan.

Din kabi, falsafiy bilimning ham bosh maqsadi – insonni kundalik tashvishlar sohasidan olib chiqish, unda yuksak ideallarga qiziqish uyg’otish, uning hayotiga chin mazmun baxsh yetish, eng zamonaviy qadriyatlar sari yo’l ochishdir. Biroq din – ommaviy ong bo’lsa, falsafa – nafaqat iste’dod, balki kasbiy bilim va ko’nikmalarni ham talab qiluvchi elitar ongdir.

Falsafiy bilimda ikki asos – **ilmiy-texnikaviy** va **nazariy-ma’naviy** asoslarning uyg’unlashishi uning ongning betakror shakli sifatidagi o’ziga xos xususiyatini belgilaydi.

Biroq falsafiy bilimning nazariy qismi, ya’ni uning ichki mantiqi ancha murakkabdir. Bu falsafiy g’oyaning serma’noliligi, u rivojlantirilishi, har xil, hatto qarama-qarshi yo’nalishlarda davom ettirilishi mumkinligi bilan izohlanadi. Masalan, Lokk (XVII asr ingliz faylasufi) falsafasidan uning izdoshlari (idealist Berkli va frantsuz ma’rifatchi materialistlari Didro, Golbax) bir-birini mutlaqo istisno etuvchi xulosalar: Berkli – sub’ektiv-idealistik, frantsuz mutafakkirlari – esa ma’rifatchilik bilan bog’liq xulosalar chiqarganlar. Kant, va Gegelning falsafiy g’oyalari hozirgi zamon tafakkuriga asos soldi. Biroq har bir kantchi, gegelchining o’z Kanti, o’z Gegeli bor, ularning har biri o’z o’tmishdoshlarini o’zicha talqin qiladi. Boz ustiga, biron-bir yirik faylasuf o’z g’oyalarini bitta yagona manbadan olmagan. Kant Leybnits va YUmga, Forobiy Aristotel va Platonga tayangan va hokazo. Bularning barchasi yangi falsafiy bilimning vujudga kelishiga asos bo’ladi. SHakllangan bu yangi falsafiy bilimda esa ijodiy tanqid muhim rol o’ynaydi.

Har qanday bilim singari, falsafiy bilim ham haqiqat va ishtiboh birligidir. Biroq gnoseologiyada bu tushunchalar alohida mazmun kasb etadi. Bu mazmun ijtimoiy-tarixiy, ijtimoiy-ma’naviy xususiyatga ega bo’lib, u muqarrar tarzda nafaqat bizning tafakkurimizni, balki unga bog’liq bo’lgan, unga asoslangan bizning harakatlarimizni ham baholashni o’z ichiga oladi.

Masalan, kommunistlarning barcha yo’llar bizning asrimizga, jamiyatni erkinlik, tenglik va birdamlikka yetaklaydi, degan umid va ishonchlarini xatoga yo’yish mumkin, chunki ularning birontasi ham o’z tasdig’ini topmadi. Biroq xatolar zamirida teran mazmun yotadi. Axloqiy imperativ (ideal, orzu) borliq emas, biroq u mazkur borliqning darakchisi. Jamiyatda axloqiy tushunchalar, qadriyatlarga munosabatning o’zgarishi insoniyat millionlab kishilar hayotida olamshumul o’zgarishlar yuz berishi arafasida turganining eng aniq ko’rsatkichidir. Zotan, g’oyalar yo’q joydan paydo bo’lmaydi, osmondan tushmaydi. Ilmiy bilim ma’nolar, maqsadlar, qadriyatlar va insonning qiziqishlariga befarq bo’lsa, falsafiy bilim insonning dunyodagi o’rni va roli haqidagi bilimdir.

Ilmiy bilim. Bilishning eng oliy shakli fandir. Ayrim fanlarning vakillari fanni ta’riflar ekanlar, uni muayyan tadqiqotlar sohasi bilan bog’laydilar. Ilmiy bilim boshqa bilim turlaridan o’zining aniqligi bilan ajralib turadi.

Ilmiy bilim, ma’naviy ishlab chiqarishning barcha shakllari kabi, pirovardida inson faoliyatini tartibga solish uchun zarur. Bilishning har xil turlari bu vazifani turlicha bajaradi va mazkur farqning tahlili ilmiy bilimning o’ziga xos xususiyatlarini aniqlashning birinchi va muhim sharti hisoblanadi.

Fan amaliy faoliyat predmetlarining (boshlang’ich holatdagi ob’ektning) tegishli mahsulotlarga (pirovard holatdagi ob’ektga) aylanish jarayonini oldindan ko’ra bilishni o’z oldiga pirovard maqsad qilib qo’yadi. Bu o’zgarish har doim ob’ektlarning o’zgarish va rivojlanish qonunlari bilan belgilanadi, faoliyat shu qonunlarga muvofiq bo’lgan taqdirdagina muvaffaqiyatli bo’lishi mumkin. SHu sababli fanning asosiy vazifasi ob’ektlarning o’zgarish va rivojlanish qonunlarini aniqlashdan iborat.

SHaxsiy bilim. Bilim shakllari to’g’risida so’z yuritar ekanmiz, M.Polani tomonidan ishlab chiqilgan shaxsiy bilim kontseptsiyasini chetlab o’tishimiz mumkin emas. Olim o’z kontseptsiyasini tuzishda bilim – anglash mumkin bo’lgan narsalarni faol o’zlashtirish, alohida mahorat va alohida vositalarni talab qiluvchi harakat, degan tamoyildan kelib chiqqan. Madomiki fanni odamlar yaratar ekan, bilish faoliyati jarayonida olinadigan bilimlarni (xuddi shu jarayonning o’zi kabi) odamlardan ajratish mumkin emas. Demak, odamlarni (aniqrog’i, o’z qiziqishlari, maqsadlari va mo’ljallariga ega bo’lgan olimlarni) ular yaratayotgan bilimlardan ajratib yoki boshqa odamlar bilan almashtirib bo’lmaydi.

Polani fikriga ko’ra, *shaxsiy bilim muqarrar tarzda intellektual salohiyatni talab qiladi. Unda nafaqat bilish borlig’i, balki bilishga harakat qilayotgan shaxs, uning bilimga qiziqishi, bilimni talqin qilish va undan foydalanishga nisbatan shaxsiy yondashuvi, uni o’ziga xos tarzda anglab yetishi mujassamlashadi.*

SHaxsiy bilim nafaqat qandaydir fikr-mulohazalar majmui, balki shaxsning kechinmalari hamdir. SHaxs bilimni shunchaki qayd etmaydi, balki u bilan birga yashaydi.

Ijtimoiy bilim asosan o’zi o’rganayotgan borliqning sifat tomonini tavsiflashga qarab mo’ljal oladi. Bu erda hodisalar va jarayonlar miqdor va umumiylik nuqtayi nazaridan emas, balki sifat va xususiylik nuqtayi nazaridan o’rganiladi. SHu sababli miqdor metodlarining ulushi bu erda tabiiy-matematik siklga mansub fanlarga qaraganda kamroq. Biroq bilimning matematikalashuvi, kompyuterlashuvi jarayonlari bu erda ham tobora kengroq tus olib bormoqda.

«Inson borlig’i», ijtimoiy bilim predmeti sifatida, o’ziga xos xususiyatga ega bo’lganligi tufayli, unda matematik apparatdan foydalanish ancha mushkul. Bu sohaga matematik metodlarni tatbiq yetishga ijtimoiy ob’ektlarning o’ta individualligi (va hatto betakrorligi), sub’ektiv (shu jumladan sof irratsional) jihatlar doimo mavjudligi, nazorat qilib bo’lmaydigan, tasodifiy munosabatlarning ko’pligi, ma’nolarning mujmalligi, nomukammalligi va hokazolar xalaqit beradi.

Ijtimoiy bilimda empirik va nazariy unsurlarning o’ziga xos uyg’unligi kuzatiladi. Ijtimoiy bilimda empirik metodlarning imkoniyatlari cheklangan bo’lsa-da, ular bu erda tobora kengroq va o’ziga xos tarzda qo’llanilmoqda. Bular, avvalo, ko’rib chiqilayotgan hodisalarning sof ob’ektiv xossalarini emas, balki ularning insoniy ko’rsatkichlarini aniqlashga qaratilgan so’rovlar, anketalash, testlash, modelda eksperiment o’tkazish va hokazolardir.

Bilishda sub’ekt va ob’ektning o’zaro aloqasi. Bilish dunyoning ob’ekt va sub’ektga bo’linishini nazarda tutadi.

Falsafada bu tushunchalar jonli mavjudot bo’lgan insonni bilish jarayoniga olib kiradigan va bu jarayonga salbiy ta’sir ko’rsatadigan sub’ektivlikdan uzoqlashish uchun ishlab chiqilgan. Bilimning ob’ektivligi, haqiqatning sub’ektdan mustaqilligini e’lon qilinganda namoyon bo’ladi.

Sub'ekt – bu bilish faolligining manbai. Sub'ekt deganda odatda individ tushuniladi. Biroq bu uncha to'g'ri emas. Sub'ekt – bu, albatta, avvalo bilish qobiliyatiga ega bo'lgan individ. Sub'ekt – bu mikroguruh, ijtimoiy guruh sinf, jamiyat hamdir. Tafakkur jarayoni amalga oshadigan bosh miya po'stlog'ida tafakkur muayyan insonning harakatlari, uning kechinmalari, his-tuyg'ulariga qaratilishi mumkin: bu holda ong o'zining alohida jihati – o'zlikni anglash sifatida amal qiladi, tafakkur (individ doirasida) nimaga qaratilgan bo'lsa, shu ob'ekt bo'ladi.

Sub'ekt negizi butun ijtimoiy yaxlitlikni tashkil etuvchi murakkab ierarxiyadan iborat. Pirovard natijada bilim va donishmandlikning oliy yaratuvchisi – butun insoniyat. Uning tarixiy rivojlanishida uncha yirik bo'lmagan birliklar ajratiladi, bu birliklar sifatida ayrim xalqlar amal qiladi. Har bir xalq o'z madaniyatida qayd etiladigan me'yorlar, g'oyalar va qadriyatlarni yaratib, asrdan asrga bilish faoliyatining alohida sub'ekti sifatida o'tib keladi. U tabiat hodisalari, hayvonlar yoki o'simliklarning shifobaxsh xossalari, turli xalqlarning huquqlari va urf-odatlari haqida ma'lumotlar to'playdi. Jamiyatda maxsus vazifasi va mashg'uloti hayot uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan bilimlar yaratishdan iborat bo'lgan individlarning tarixiy guruhlari ajratiladi. Xususan, sub'ekti olimlar hamjamiyati bo'lgan ilmiy bilimlar shunday bilimlar jumlasidan. Bu hamjamiyatda qobiliyati, iste'dodi va bilimi bilan bilish sohasida yuksak natijalarga erishadigan ayrim individlar alohida o'rin tutadi.

Bu odamlarning ismlari tarixda ilmiy g'oyalar evolutsiyasidagi buyuk bosqichlar ramzi sifatida saqlanib qoladi.

Borliqning muayyan parchasi izlanayotgan tafakkur diqqat markazidan o'rin olgach, bilish ob'ektini tashkil etadi, sub'ekt bilan «sub'ekt – ob'ekt» munosabatlariga kirishib, ma'lum ma'noda sub'ektning «mulki»ga aylanadi. Binobarin, sub'ektning ongiga bog'liq bo'lmagan o'zicha borliq va sub'ekt bilan yuqorida zikr etilgan munosabatga kirishgan borliq mavjud. U go'yo sub'ektni o'zini bilishga da'vat etadi. Bir so'z bilan aytganda, sub'ekt bilan munosabatga kirishgan ob'ekt oddiy borliq emas, balki u yoki bu darajada anglab etilgan, ya'ni ong – o'zining bilishga intilishida ijtimoiy belgilangan ong daliliga aylangan borliqdir, shu ma'noda bilish ob'ekti endi ijtimoiy dalilga aylanadi.

Ob'ekt *– bu sub'ektning bilish faoliyati qaratilgan narsa yoki hodisa.* Asbob ham (o'rganilayotgan va ta'mirlanayotganida), boshqa individ ham, individ bilan bog'liq narsa va hodisalar ham ob'ekt bo'lishi mumkin. «Ob'ekt» tushunchasini ob'ektiv borliq bilan aralashtirmaslik kerak. Masalan, hayvonlarning hujayralaridagi xromosomalar ular tsitologiya va genetikada o'rganish «ob'ekti»ga aylanishidan oldi ham ob'ektiv mavjud bo'lgan, biroq kashf etilganidan keyingina o'rganish «ob'ektlari»ga aylangan.

Bu tushunchalar nafaqat bilish faoliyati, balki amaliy va baholash faoliyati bilan ham bog'liq.

Bilish faoliyatida sub'ekt ob'ektsiz, ob'ekt esa – sub'ektsiz mavjud bo'lmaydi. Masalan, gen jonli narsalar tarkibida mavjud bo'lgan holda, nafaqat antik davrda, balki J.B.Lamark va CH.Darvin uchun ham ilmiy tafakkur ob'ekti bo'lmagan. Olimlar bu ko'zga ko'rinmas biologik borliqni ma'lum zamongacha o'z bilish faoliyatining ob'ekti sifatida aniqlay olmaganlar. Bunga nisbatan yaqinda, dunyoning umumiy ilmiy manzarasida jiddiy o'zgarishlar yuz berganidan so'ng muvaffaq bo'lindi.

Hozirgi zamon gnoseologiyasida bilish ob'ekti va predmetini farqlash odat tusini olgan. Bilish ob'ekti deganda borliqning o'rganilayotgan amalda mavjud bo'laklari tushuniladi. **Bilish predmeti** – bu izlanayotgan fikrning diqqat markazidan o'rin olgan muayyan jihatlar. Masalan, inson juda ko'p fanlar – biologiya, tibbiyot, psixologiya, sotsiologiya, falsafa va hokazolarning tadqiqot ob'ekti hisoblanadi. Biroq ularning har biri insonni o'rganishga o'z nuqtayi nazaridan yondashadi: masalan, psixologiya insonning ruhiyati, ichki olami, xulq-atvorini, tibbiyot – insonning kasalliklari va ularni davolash usullarini o'rganadi va h.k. Binobarin, tadqiqot predmetiga tadqiqotchining muhim mo'ljali kiradi, ya'ni u tadqiqot vazifasi nuqtayi nazaridan shakllanadi.

SHunday qilib, ijtimoiy bilishda inson o'z faoliyatining mahsuli, amaliy faol jonzot bo'lgan o'zi bilan ham ish ko'radi. Bilish sub'ekti bo'lgan inson shu tariqa uning ob'ektiga ham aylanadi. SHu ma'noda ijtimoiy bilish insonning ijtimoiy o'zlikni anglash jarayonidir. Bunda inson tarixiy rivojlanish jarayonida yaratiladigan o'zining ijtimoiy mohiyatini o'zi uchun kashf etadi va o'rganadi.

SHu sababli ijtimoiy bilishda sub'ekt va ob'ektning o'zaro aloqasi murakkablashadi, bu erda ob'ekt bir zamonning o'zida tarixiy ijod sub'ekti hamdir.

Ijtimoiy bilishda hamma narsa va hodisalar inson sohasida aylanadi: bilish ob'ekti – odamlarning o'zi va ular faoliyatining natijalari, bilish sub'ekti ham insondir. Bilish jarayoni shohidlarning guvohliklari, hujjatlar, so'rovlar, so'rovnomalarsiz, odamlar yaratgan mehnat qurollari va madaniy yodgorliklarisiz bo'lishi mumkin emas.

Bularning barchasi ijtimoiy bilishga ma'lum darajada o'z ta'sirini o'tkazadi va uning o'ziga xos xususiyatlarini shakllantiradi. Ayni shu sababli ijtimoiy bilishda olimning grajdanlik pozitsiyasi, uning ma'naviy qiyofasi, haqiqat ideallariga sodiqligi juda muhimdir.

Bilish faoliyat turi sifatida. Insonning o'zini qurshagan dunyoni tushunib yetishi muhim falsafiy muammolardan biridir. Mohiyat e'tibori bilan, dunyoni bilish mumkinmi, degan masala dunyoning inson ongida aniq va to'liq aks yetish, insonning bu dunyoda ongli va erkin mo'ljal olish va faoliyat olib borish imkoniyati to'g'risidagi masaladir.

Insonning o'zini qurshagan dunyoda mo'ljal olish funksiyasini bilim bajaradi. Bilim – inson ong yordamida oladigan dunyo haqidagi ma'lumotlarning eng oliy darajasidir. Bilim obrazlar va belgilar shaklida mavjud bo'ladi va undan odamlar amaliy faoliyatining ideal rejasi sifatida foydalanadi. Bilimsiz (oddiy, ilmiy, badiiy va boshqa bilimlarsiz) dunyoning manzarasini shakllantirish mumkin emas. F.Bekon shu munosabat bilan bilim kuchdir deb ta'kidlagan edi. Bilimni Gegel ta'biri bilan aytganda faqatgina sub'ektiv tasavvur, erkin mulohaza, tasavvur mahsuli

bo’lgan fikrdan farqlay bilish lozim. Insonning dunyoni bilishga intilishining mohiyati u aniq yoki noaniq bilimlarni faol va izchil izlashi va ularni olishidan iborat.

Bilish va bilim to’g’risida so’z yuritganda o’rta asrlardagi kabi bilim va e’tiqodni qarama-qarshi qo’yish yaramaydi. E’tiqod – moddiy va ma’naviy dunyo narsalari, jarayonlari va hodisalarini dalil-isbotsiz bilish demak. «Men Xudoning borligiga ishonaman»; «men yaqinda bahor kelishiga ishonaman»; «men o’z ishimning muvaffaqiyatiga ishonaman» va h.k. va sh.k. E’tiqod – bu insonning ishonchi. Bilim bizga aniq-ravshan ko’rinib turadigan narsalarni kashf yetish imkonini bersa, e’tiqod, ishonch insonga hozircha ko’rinmaydigan sirli narsalarni aniqlashga yordam beradi. SHu tariqa e’tiqod bilish jarayonida faol ishtirok etadi va uning muhim unsuri hisoblanadi. Biroq, shu bilan bir zamonda, zamirida aqlning so’qirligi, mutaassiblik va insonning kuchsizligi yotuvchi soxta e’tiqod ham mavjudligini qayd etib o’tish lozim.

Bilish – *inson qo’lga kiritadigan axborotning eng oliy darajasi.* Bu axborotni u bilish muammolari va vazifalarini qo’yish va yechish yo’li bilan, izchil anglab etadi. Axborot miyaning mvhumlashtiruvchi faoliyati yordamida belgi shaklini (2 + 2 = 4) kasb etadiki, bu unga ishlov berish, saqlash va keyinchalik undan foydalanish uchun qulaydir.

Bilish inson izchil va ijodiy faoliyatining ijtimoiy jarayoni bo’lib, unda tashqi dunyoning ideal obrazlari yuzaga keladi va bilish maqsadi bo’lgan bilim shakllanadi.

Bilish jarayoni tarix falsafasida ma’lum zamon mobaynida (masalan, XVIII asr falsafiy materializmida) insonning sezgi a’zolariga tabiatning mexanik ta’siri sifatida qaralgan. Inson passiv mavjudot va tabiat uni o’z maqomiga yo’rg’alatadi, deb hisoblangan. «Biz qo’g’irchoqlarmiz va taqdir bizni iplarimizdan tortib o’ynatadi», deb yozgan edi V.Gyugo. Biroq amalda bilish doim ancha faol xususiyatga ega bo’lgan va shunday bo’lib qoladi. Bu odamlarning ehtiyojlari va manfaatlari, ularning umumiy maqsadlarga erishish yo’lidagi hamkorligi va boshqa omillar bilan belgilanadi. Boshqacha aytganda, bilish ijtimoiy tabiat, jihat va xususiyatlarga ega. Bunga, jumladan, nemis klassik falsafasida sub’ektning faolligi kontseptsiyasida (I.Fixte va boshqalar) alohida e’tibor qaratilgan.

Bilish jarayonini muomala vositasi sifatidagi til yordamidagina amalga oshirish mumkin. U butun jamiyatning jamoa boyligi, insoniyat madaniyatining muhim unsuri hisoblanadi. Fan uchun esa til, avvalo, axborotni jamg’arish va saqlash vositasi, dunyo haqidagi bilimlar va ma’lumotlarning ulkan omboridir.

Ijtimoiy munosabatlar sub’ekt bilish ob’ektiga o’z manfaatlaridan kelib chiqib yondashishini belgilaydi. SHundan ijtimoiy hayotning aynan bir hodisalari va muammolarini har xil, ba’zan hatto bir-biriga teskari idrok yetish va talqin qilish hollari yuz beradi. Masalan, tarixda insoniyatning kelajakdagi rivojlanish yo’li va shakli har xil tasavvur qilingani ma’lum. Hozirgi siyosiy hayotda aynan bir hodisalar (xususiy mulk instituti, bozorning shakllanishi va boshqalar) ayrim ijtimoiy guruhlar tomonidan ijobiy baholansa, boshqa ijtimoiy guruhlar tomonidan salbiy baholanadi. Bularning barchasi ijtimoiy hodisalarni bilishda mafkura, ya’ni muayyan ijtimoiy hodisalarni har xil ijtimoiy guruhlar va tabaqalar nuqtayi nazaridan baholash mavjudligidan dalolat beradi.

Bilishga insonning sezgilari, uning ehtiroslari dunyosi kuchli ta’sir ko’rsatadi. SHu munosabat bilan K.Gelvetsiy: «...ehtiroslar bo’lmasa, buyuk artistlar ham, buyuk sarkardalar ham, buyuk ministrlar ham, buyuk shoirlar ham, buyuk faylasuflar ham bo’lmas edi»[40], deb yozgan edi. Ehtiroslar tadqiqotchiga kuch-g’ayrat beradi va bilish jarayonini olg’a suradi. Inson ehtiroslarisiz haqiqatni izlash mumkin emas.

SHunday qilib, insonning bilishi rivojlanib boruvchi, faol jarayondir. Bu, avvalo, jamiyatda yangi ehtiyojlarning tug’ilishi, tegishli ravishda amaliyotning rivojlanishi va takomillashuvi bilan belgilanadi. Ayni shu sababli bilish «mangu harakat, qarama-qarshiliklarning yuzaga kelishi va ularning echilishi jarayoni» deb qaralishi lozim. Bilish jarayonining ichki mantig’i (izchilligi) qanday?

Xulosalar. Bilish jarayoni ma’lum qarama-qarshiliklardan ham xoli emas. Ular bilishning murakkab muammolarga to’la xususiyatini aks ettiradi. Bilish jarayonida mavjud qarama-qarshiliklarning ayrimlarini aytib o’tamiz.

Sub’ekt va ob’ekt (ya’ni inson va tashqi dunyo) o’rtasidagi qarama-qarshilik mangu va mutlaqo tabiiydir. U insonning dunyoni amalda o’zgartirish ehtiyoji bilan bu dunyo haqidagi bilimlarning kamligi (yoki umuman mavjud emasligi) o’rtasidagi nomuvofiqlikni ifodalaydi. Aslida bilish jarayoni doim ayni shu nomuvofiqlikdan boshlanadi.

Ba’zan bilishga sezgi a’zolari ma’lumotlari bilan tashqi dunyoning fikr va tushunchalardagi in’ikosi o’rtasidagi qarama-qarshilik xosdir. Ma’lumki, Quyoshning chiqishini faqat Quyosh harakatsiz Er atrofida aylanishini taxmin qilib, sezgi a’zolari yordamida tushuntirish mumkin. Biroq bu hodisani ilmiy mushohada yordamida, ikkala osmon jismining harakatchanligini isbotlash yo’li bilan ham tushuntirish mumkin. Bu qarama-qarshilik taxminlarimizning mantiqiy dalillar va mulohazalar tizimi yordamida tajribada sinash yo’li bilan echiladi.

SHakllangan nazariya bilan olingan yangi ilmiy dalillar va eksperimental ma’lumotlar o’rtasidagi qarama-qarshilik ham bilish uchun tabiiy bir holdir. Bunda mazkur dalillar yordamida nazariyaga aniqlik kiritish yoki, aksincha, uni eskirgan va o’z ahamiyatini yo’qotgan deb topish talab etiladi.

Bilish jarayonida fandagi oqimlar, maktablar va ayrim nazariyalar o’rtasida qarama-qarshiliklar yuzaga keladi. Bunday qarama-qarshilik falsafada ham, masalan, «Demokrit yo’nalishi» va «Platon yo’nalishi» o’rtasida mavjud. Insonning tashqi dunyoni to’liqroq va aniqroq bilishga intilishi bilan buning uchun sub’ektiv va ob’ektiv chegaralar (inson qobiliyatining cheklanganligi, fan va texnika rivojlanish darajasining yetarli emasligi va boshqalar) mavjudligi o’rtasidagi nomuvofiqlik odatdagi hol hisoblanadi. Faol va rivojlanuvchi jarayon bo’lgan

[40] Голвеций //История философия энсиклопедия – Минск Книжний дом 2002 –с 310

inson bilishi uchun qarama-qarshiliklarning mavjudligi tabiiy bir holdir. Ularning umumiy negizini amaliyot, ijtimoiy hayot tashkil etadi. Qarama-qarshiliklar amaliyot jarayonida yangi metodlar va dalillarni izlash, bilish sub'ektining intellektual qobiliyatini takomillashtirish yo'li bilan echiladi.

Hissiy darajadagi bilimning shakllari. Sezgi a'zolari orqali olingan bilim – hissiy bilimlardir. *Sezgi a'zolari yoki narsalarning xossalarini sezgi a'zolari sezish va idrok yetishi natijasida olingan bilim hissiy bilamdir.* Masalan, inson uchayotgan samolyotni ko'radi va buning nimaligini biladi.

Sezgi. *Bilish faoliyatida sezgi – narsalar ayrim xossalarining sezgi a'zolari orqali his qilingan oddiy obrazi, in'ikosi, nusxasi yoki o'ziga xos surati dastlabki sezgi obrazi hisoblanadi*. Masalan, aplesinda biz to'q sariq rang, o'ziga xos hid, ta'mni sezamiz. Sezgilar insondan tashqaridagi muhitda yuz berayotgan va uning sezgi a'zolariga ta'sir ko'rsatayotgan jarayonlar ta'sirida yuzaga keladi. Ovoz va yorug'lik to'lqinlari, mexanik bosim, kimyoviy ta'sir va hokazolar tashqi ta'sirlantiruvchilar hisoblanadi.

Forobiy bilishning ikki shakli – hissiy va oqilona bilishni farqlaydi. Insonni tashqi dunyo bilan bog'lovchi sezgilar roliga e'tiborni qaratar ekan, Forobiy ularni besh turga ajratadi. U sezgilarni bilimning asosiy manbai deb hisoblab, sezgilar faqat narsaning in'ikosi narsaning o'ziga mos tushgan holda haqiqiy bo'lishi mumkin[41] deb qayt etadi. Forobiyning bilishda va umuman hissiy idrok yetishda sezgilarning roli haqidagi qarashlari Aristotelning «sezmaydigan odam hech narsani bilmaydi va tushunmaydi», degan fikriga juda o'xshash.

Insonning hayvondan farqi shundaki, u aql va sezgilar yordamida bilimlarni o'zlashtirishga qodir. «Aql kuchi» borliq narsalarining fikriy in'ikosini o'zida gavdalantiradi. Dunyoviy hodisalarning mohiyati va sabablarini bilgan aql osmon jismlari va ularning shakllarini bilishga harakat qiladi. SHu oxirgi bosqichda insonga ta'sir ko'rsatuvchi koinot aql bilan birikadi va boqiylik xususiyatini kasb etadi.

Aql dunyoning yaralish bosqichlari sifatida inson va birinchi sabab o'rtasida bog'lovchi bo'g'in bo'lib xizmat qiladi, birinchi sabab esa, o'z navbatida, aqlga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Harakatlanuvchi aql jon bilan ruh orqali bog'lanadi, jon inson tanasidan o'rin oladi, shunday qilib, nodunyoviy hayot jihatlari insonga o'tadi va pirovardida inson mohiyati, bilimlari – uning aqli boqiylik xususiyatini kasb etadi.

Forobiy fikricha, sezgilar tartibga ega bo'lganidek, aqlning ham o'z tegishli tartibi mavjuddir[42]. Birinchi metod tabiiy fanlar (fizika)ga, ikkinchisi – matematikaga mos tushadi. Ikkala metoddan ham faqat fanda narsa va hodisaning u yoki bu jihatini teranroq tushunish maqsadida foydalaniladi.

Sezishning ko'rish, eshitish, tebranish, paypaslash, ob-havo, og'riq, muvozanat va tezlashishni his yetish, hid, ta'm bilish kabi umumiy organik turlari farqlanadi. Sezgilarning har bir shakli o'zining ayrim ko'rinishi orqali materiya harakatining mazkur shakli va turi, masalan, elektromagnit, ovozli tebranishlar, kimyoviy ta'sirlar va hokazolarning umumiy xossalarini aks ettiradi.

Sezgi – ob'ektiv dunyoning sub'ektiv obrazi, degan tamoyil sifatlarni birlamchi va ikkilamchiga mexanik tarzda ajratishga qarshi yo'nalgan. Bu nuqtayi nazardan birlamchi sifatlar (shakl, hajm va h.k.) narsalarning ob'ektiv mavjud xususiyatlari in'ikosi hisoblanadi, ikkilamchi sifatlar (rang, ovoz va h.k.) sof sub'ektiv xususiyat kasb etadi. Ayni bir sezgiga narsalarning har xil xossalari mos kelishi mumkin: oq rang sezgisi ko'rish doirasidagi to'lqinlar barcha uzunliklarining elektromagnit xossalari qorishmasini ham, qo'shimcha ranglar har qanday juftligi (qizil va ko'k-yashil, sariq va safsar) qorishmasini ham aks ettiradi. Bundan oq rang to'lqin yoki narsa yuzasining ob'ektiv xossasi sifatida qaralishi mumkin emas, degan Yanglish xulosa chiqariladi. Qora rang to'lqin xossasi emas: uning sharti – ko'rish doirasida nurlanishning yo'qligi. To'lqin yo'q narsa haqida axborot bera olmaydi. Bundan quyidagi soxta xulosa kelib chiqadi: rang, hid – bu narsalarning xossalari emas, balki bizning sezgilarimizdir (E.Max); «rang» so'zi bilan ruhiy kechinmalarning muayyan toifasi belgilanadi (V.Ostvald). Dunyo esa ovozsiz, bo'yoqlar va hidlardan xoli. Unda issiq ham, sovuq ham mavjud emas. Bularning hammasi – faqat bizning sezgilarimiz.

Xotira, xayol va tasavvur. Garchi sezish va idrok yetish insonning barcha bilimlari manbai sanalsa-da, hissiy bilish ular bilangina kifoyalanmaydi. U yoki bu predmet insonning sezgi a'zolariga ma'lum zamon mobaynida ta'sir ko'rsatadi. So'ngra bu ta'sir barham topadi. Biroq predmetning obrazi izsiz yo'qolmaydi. U xotirada gavdalanadi va saqlanib qoladi. Binobarin, biron-bir narsa haqida u yo'qolganidan keyin ham fikr yuritish mumkin, chunki u haqda muayyan tasavvur qoladi. YUmiq ko'zlar bilan ham biz nimalarnidir tasavvur qilamiz.

SHunday qilib, biz haqiqatga eltuvchi yo'l naqadar og'ir ekanligini ko'ramiz: u amalda jonning barcha kuchlari – xotira, iroda, tasavvur, intuitsiya va aqlning bor kuchini ishga solishni nazarda tutadi. Masalan, xotirani olaylik. Bilish haqida xotirasiz fikr yuritish mumkinmi? Albatta, yo'q: xotirasiz jon – baliqsiz to'r degan gap. Bu ajoyib hodisasiz bilishni tasavvur qilish mumkin emas.

Sezish va idrok yetish jarayonlari o'zidan keyin miyada «iz» qoldiradi. Bu izlarning mohiyati insonga ayni lahzada ta'sir ko'rsatmayotgan narsalarning obrazlarini gavdalantirish qobiliyatidan va iborat.

Xotira *o'tmish va hozirgi zamonni birlashtiradi, ularning bir-biriga o'tishini ta'minlaydi.* "Tovushlar va so'zlar soni ko'paygandan keyin, odamga uning xotirasi yordamga keladi... YOzuv ham xotira bilan birga inson imkoniyatlarini oshiradi"[43]. Agar obrazlar miyada unga predmet ta'sir ko'rsatgan paytda paydo bo'lib, bu ta'sir to'xtaganidan keyin darhol g'oyib bo'lganida, inson narsalarni har safar mutlaqo notanish narsalar sifatida qabul qilgan, u mazkur narsalarni tanimagan, demak, ularni anglamagan bo'lar edi. Biror narsani anglash uchun aqlning

---

[41] Қаранг Фаробий Китоб ал-Хуруфс-сДушанбе. Илм 1972 – 23 б

[42] Фаробий Китоб ал-Хуруфс-сДушанбе. Илм 1972. – 24-b.

[43] Қarang.S.M.Ҳotamiy. Islom tafakkuri tarixidan. -T.: Minҳoj, 2003.- B.74

ishlashi – hozirgi holatni oldingi holat bilan taqqoslashi talab etiladi. Tashqi ta'sirlarning idrok etilishi va ularning zamonda saqlanishi natijasida xotirada tasavvurlar uyg'onadi.

Xayol insonning muhim xossasi. Xayol tafakkur oqimida yetishmayotgan ko'rgazmalilik o'rnini to'ldiradi. *Xayol kuchi tajribada (ongda) mavjud obrazlarni nafaqat qayta chaqiradi, balki ularni bir-biri bilan bog'laydi va shu tariqa ularni umumiy tasavvurlar darajasiga ko'taradi*. Obrazlarni qayta gavdalantirish xayol kuchi bilan erkin va bevosita kuzatish yordamisiz amalga oshiriladi. Tasavvurlar paydo bo'lishining bu shakli bunday erkin faoliyat ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lmagan, biroq amalda kuzatishga muhtoj bo'lgan va obrazlar beixtiyor paydo bo'lishiga yo'l qo'yadigan oddiy eslashdan shu bilan farq qiladi.

Tasavvurlar – *bu bir paytlar insonning sezgi a'zolariga ta'sir ko'rsatgan va keyinchalik miyada saqlanib qolgan aloqalar bo'yicha gavdalanadigan narsalarning obrazlaridir.*

Sezish va idrok yetish ong, fikr gavdalanishining boshlanishi hisoblanadi. Xotira olingan axborotni qayd etadi va saqlaydi. Tasavvurda esa ong ilk bor o'zining bevosita manbaidan ajraladi va nisbatan mustaqil sub'ektiv hodisa sifatida mavjud bo'la boshlaydi. Inson nisbatan yangi obrazlarni erkin yaratishga qodir. Tasavvur – bu idrok yetish va nazariy tafakkur o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in.

Empirik bilim va uning shakllari. *Empirik bilim mavjud narsaning bevosita emas, balki bilvosita in'ikosi*. Masalan, olim o'zi ko'rmayotgan tegishli ob'ektning holati haqida unga axborot berayotgan asbob ko'rsatkichi yoki elektrokardiogrammaning elektr chizig'ini ko'radi. Boshqacha aytganda, bilishning empirik darajasi har xil asboblardan foydalanish bilan bog'liq; u kuzatish, kuzatilayotgan narsa yoki hodisani tavsiflash, bayonnomalar yuritish, hujjatlardan foydalanishni nazarda tutadi, masalan, tarixchi arxivlar va boshqa manbalar bilan ishlaydi. Xullas, bu oddiy sezgi darajasida bilishga qaraganda bilishning yuqoriroq darajasidir.

Empirik bilimlar nazariy bilim negizini tashkil etuvchi ilmiy dalillar majmuidir. Empirik bilim ikki kuzatish va eksperiment metodlari yordamida shakllanadi.

Kuzatish – *bilish ob'ektining muhim xossalari va munosabatlarini aniqlash maqsadida ataylab amalga oshiriladigan izchil idrok yetishdir*. Kuzatish maqsadini belgilash, uning usullarini aniqlash, o'rganilayotgan ob'ekt xulq-atvorini nazorat qilishning rejasini tuzish, asboblardan foydalanish kabilar kuzatishning muhim xususiyatlaridir. Kuzatishlarning natijalari bizga borliq haqida ilmiy dalillar ko'rinishida dastlabki axborot beradi.

Kuzatish bevosita yoki bilvosita, masalan, mikroskop yordamida bo'lishi mumkin. Hozirda elektron mikroskop yordamida molekulalarni vizual kuzatish mumkin. Kuzatish – bu faoliyatning muayyan ob'ektlarga qaratilgan maqsadlar va vazifalarni ta'riflashni nazarda tutadigan faoliyat shakli. Biron-bir narsani bilishni xohlagan har qanday odam o'z ko'zlarini kuzatuvchanlikka o'rgatishi lozim.

Zehnli, ijodkor va teran aql narsa va hodisalarning ko'pchilik e'tibor bermaydigan muhim jihatlarini ko'rish va sezish qobiliyati bilan ajralib turadi. Bu qobiliyat fan va san'atdagi novatorlik omilidir. Kuzatish maxsus tayyorgarlikni talab qiladi. Kuzatishlarni tayyorlashda kuzatish vazifalari, u javob berishi lozim bo'lgan talablarni aniqlash, kuzatish rejasi va usullarini oldindan ishlab chiqish muhim o'rin tutadi. Kuzatish tabiatning o'zida mavjud narsalar va hodisalarni qayd etadi. Biroq inson kuzatuvchi roli bilan kifoyalana olmaydi. U eksperimentlar o'tkazish orqali faol sinovchiga aylanadi. Miyada tasavvur qilingan model ustida o'tkaziladigan fikriy eksperiment bilishning alohida shaklini tashkil etadi. Unga xayol va tafakkurning uzviy aloqasi xosdir.

Eksperiment – *bu shunday tadqiqot metodiki, uning yordamida ob'ekt yo sun'iy tarzda yaratiladi, yo tadqiqot maqsadlariga mos keladigan ma'lum shart-sharoitlarda o'rganiladi*. Eksperimentda tadqiqotchi ilmiy tadqiqotni o'tkazish shart-sharoitlariga faol aralashadi. U jarayonni istalgan bosqichda to'xtatishi mumkin bo'lib, bu ob'ektni yanada mufassalroq o'rganish imkonini beradi. Tadqiqotchi o'rganilayotgan ob'ektni boshqa ob'ektlar bilan har xil tarzda bog'lashi yoki u ilgari kuzatilmagan shart-sharoitlarni yaratishi va shu tariqa fanga ma'lum bo'lmagan yangi xossalarni aniqlashi mumkin.

Eksperiment o'rganilayotgan hodisani sun'iy tarzda gavdalantirish va nazariy yoki empirik bilim natijalarini amalda sinash imkonini beradi.

Eksperiment doim, ayniqsa hozirgi zamon fanida ba'zan juda murakkab texnika vositalari, ya'ni asboblardan foydalanish bilan bog'liq. Asbob – bu insonning sezgi a'zolari bilishi mumkin bo'lmagan hodisalar va xossalar haqida axborot olish uchun mo'ljallangan, kerakli xossalarga ega bo'lgan moslama yoki moslamalar tizimidir. Asboblar bizning sezgi a'zolarimizni kuchaytirishi, ob'ekt xossalarining faollik darajasini o'lchashi yoki ularda o'rganilayotgan ob'ekt qoldirgan izlarni aniqlashi mumkin.

Eksperimentning asosiy maqsadi – o'rganilayotgan ob'ekt mavjud bo'lgan odatdagi shart-sharoitlarni o'zgartirish. U o'rganilayotgan ob'ekt xossalari bilan shart-sharoitlar o'rtasidagi sababiy bog'lanish, shuningdek shart-sharoitlarning o'zgarishi munosabati bilan bu xossalarning o'zgarish xususiyatini aniqlash imkonini beradi.

Eksperimentni ko'p takrorlash va shu yo'l bilan xulosalarni kuzatuvlarning ko'proq soniga tayangan holda asoslash mumkin. Eksperiment o'tkazish uchun dastlabki bilimlar kerak, I.P.Pavlov qayd etganidek, dalillarni rivojlantirish predmet haqida umumiy tasavvurga ega bo'lish lozim. Bu umumiy tasavvurlar, farazlar, gipotezalar oldingi kuzatishlar, eksperimentlar va insoniyatning barcha tajribasidan olinadi. Ular eksperimentga yo'l ko'rsatadi. Aniq anglanmagan maqsadsiz, ko'r-ko'rona amalga oshiriladigan kuzatish, eksperiment samara berishi mumkin emas. Kallada g'oya bo'lmasa, hech qanday dalilni ko'rolmaysan[44], degan edi I.P.Pavlov.

[44] Павлов.И.П Полн собр соч. 2 изд Т.1. –М.: 1951. –с. 67.

Kuzatish va eksperiment o'tkazish jarayonining natijasi tavsiflash yoki bayon yetish yo'li bilan ifodalanadi. U umumiy qabul qilingan atamalar yordamida tuzilgan, grafiklar, rasmlar, foto va kinotasvirlar ilova qilingan, matematik, kimyoviy formulalar kiritilgan hisobot ko'rinishida ifodalanishi ham mumkin. Tavsifga qo'yiladigan asosiy ilmiy talab – kuzatish va eksperiment ma'lumotlarini to'g'ri va aniq aks ettirishdir. Tavsif to'liq yoki noto'liq bo'lishi mumkin, biroq u doim materialni ma'lum darajada tizimga solishni, ya'ni uni guruhlash va umumlashtirishni nazarda tutadi: sof tavsif ilmiy ijod doirasidagina qoladi.

Bilish empirik metodlarining muhim unsuri – taqqoslash, ya'ni o'rganilayotgan ob'ektlarning kuzatish yoki eksperimentda aniqlanayotgan xossalari o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlashdir.

O'lchash – taqqoslashning ayrim ko'rinishi. *O'lchash – ob'ekt xossalarining rivojlanish darajasini tavsiflovchi kattalikni aniqlash jarayoni.* Kuzatish va eksperiment natijalari o'lchash yo'li bilan ifodalangan taqdirdagina ilmiy ahamiyatga ega bo'ladi.. U o'lchash birligi sifatida qabul qilingan boshqa kattalik bilan taqqoslash shaklida amalga oshiriladi.

Ilmiy dalil. Ilmiy dalil empirik bilishning natijasi hisoblanadi. Dalil (yoki dalillar)ni aniqlash ilmiy tadqiqotning zarur shartidir. Dalil – bilimining tasdiqlangan boyligiga aylangan moddiy yoki ma'naviy dunyo hodisasi, biron-bir hodisa, xossa yoki munosabatni qayd yetishdir. A.Eynshteyn so'zlari bilan aytganda, fan dalillardan boshlanishi va boshlanish bilan tugallanish o'rtasida qanday nazariy tuzilmalar bo'lishidan tuzilishidan qat'iy nazar, dalillar bilan yakunlanishi lozim[45]. Dalil tushunchasi har xil ma'no-mazmunga ega. «dalil» atamasining ko'p sonli ta'riflari orasida quyidagilarni qayd yetish mumkin. Birinchidan, borliq hodisasi, asos qilib olish mumkin bo'lgan voqea, hodisa, holat sifatidagi dalil. Bu inson tomonidan anglangan yoki anglanmaganligidan qat'i nazar mavjud bo'lgan hayot dalillaridir.

Ikkinchidan, «dalil» tushunchasi borliqning anglab etilgan voqealari va hodisalarini belgilash uchun qo'llaniladi. Inson bilish imkoniyatlarining serqirraligi shunda namoyon bo'ladiki, borliqning ayni bir dalili bilishning oddiy va ilmiy darajalarida, san'at, publitsistika yoki yuridik amaliyotda anglab etilishi mumkin. SHu sababli turli usullar bilan aniqlanadigan har xil dalillarning ishonchlilik darajasi ham har xil bo'ladi. Ko'pincha ilmiy dalil bilan borliq voqeasi o'xshash bo'lib ko'rinadi va bu ayrim faylasuflar va olimlarga dalil haqiqatini mutlaq haqiqat sifatida tavsiflash imkonini beradi. Bunday tasavvur bilishning haqiqiy manzarasiga mos kelmaydi, uni dogmaga aylantiradi va soddalashtiradi.

Dalillar murakkab tuzilishga ega. Ular borliq haqidagi axborot, dalil talqini, uni olish va tavsiflash usulini o'z ichiga oladi.

Dalilning muhim tomoni – borliq yoki uning ayrim xossalari haqida tasavvurning shakllanishiga imkoniyat yaratuvchi borliq to'g'risidagi axborot. Dalilning borliqqa muvofiqligi uni haqiqiy deb tavsiflash imkonini beradi. SHu sababli dalillar fanning empirik asosi, nazariyani tasdiqlash yoki inkor yetishning muhim usuli hisoblanadi. Dalil yordamida borliq xolisona, nazariyaga bog'lanmagan holda anglab etiladi. Dalillar eski nazariya doirasiga sig'maydigan, unga zid bo'lgan hodisalarni kashf yetish imkonini beradi.

Talqin qilish dalilning muhim unsuri bo'lib, u har xil shakllarda amalga oshiriladi. Ilmiy dalil nazariya bilan bilvosita bog'liq. Nazariya yordamida empirik tadqiqotning vazifalari aniqlanadi va uning natijalari talqin qilinadi

Dalillar ularni talqin qiluvchi nazariya, tasniflash metodi mavjud bo'lgan va boshqa dalillarga bog'lab anglab etilgan holdagina ilmiy ahamiyat kasb etadi. Faqat o'zaro bog'langan va yaxlit ko'rinishda dalillar nazariy umumlashtirish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Alohida va tasodifan, hayotdan ajratib olingan dalillar biron-bir narsa yoki hodisani asoslashga qodir emas. Noto'g'ri tanlab olingan dalillardan har qanday nazariyani tuzish mumkin, biroq u hech qanday ilmiy ahamiyatga ega bo'lmaydi.

Nazariy bilim va uning shakllari. Ilmiy dalillar nazariyaga nisbatan ham ikki xil vazifani bajaradi: mavjud nazariyaga nisbatan ilmiy dalil yo uni mustahkamlaydi (verifikatsiya qiladi), yo u bilan to'qnashadi va uning asossizligini ko'rsatadi (falsifikatsiya qiladi). Biroq, boshqa tomondan, nazariya empirik tadqiqot darajasida olingan ilmiy dalillar yig'indisini shunchaki umumlashtirishgina emas. Uning o'zi yangi ilmiy dalillar olish manbaiga aylanadi. SHunday qilib, empirik va nazariy bilim yaxlit hodisa – ilmiy bilim ikki tomonining birligi hisoblanadi. Bu tomonlarning muayyan ilmiy bilish jarayonidagi o'zaro aloqasi va harakati, ularning o'zaro nisbati nazariy bilimga xos bo'lgan shakllarning izchil qatori yuzaga kelishini belgilab beradi. *Nazariy bilim muayyan maqsadga yo'nalgan ilmiy asoslangan bilim darajasi*. Nazariy bilimning asosiy shakllari: ilmiy muammo, gipoteza, nazariya, tamoyillar, qonunlar, kategoriyalar, paradigmalardir.

Ilmiy muammo. Har qanday ilmiy bilish muammodan boshlanadi.

Muammo – bilishning rivojlanish jarayonida ob'ektiv tarzda yuzaga keladigan, echimini topish muhim amaliy yoki nazariy ahamiyatga ega bo'lgan masala yoki masalalar majmuidir. SHuningdek muammo, hal qilishni talab etuvchi nazariy yoki amaliy masala; fanda – biron-bir hodisalar, ob'ektlar, jarayonlarni tushuntirishda qarama-qarshi yondashuvlar ko'rinishida amal qiluvchi va uni yechish uchun muvofiq nazariyani talab etuvchi ziddiyatli holatdir.

Muammoni to'g'ri qo'yish uni muvaffaqiyatli yechishning muhim shartidir. To'g'ri qo'yilmagan muammo yoki soxta muammo haqiqiy muammolarni yechishdan chalg'itadi.

[45] Эйнштейн А Физика в жизни моего поколения .-М.: 1963.-с.89.

Muammoni qo'yish – ilmiy bilish jarayonining dastlabki bosqichi. Muammoni qo'yishda, avvalo, ayrim holatni masala sifatida anglab yetish, qolaversa, muammoning mazmunini aniq tushunish, ma'lum va noma'lum narsalarni ajratgan holda uni ta'riflash lozim.

Ilmiy muammolar predmetga yoki protseduraga doir bo'ladi. *Predmetga doir muammolarda o'rganilayotgan ob'ektlar, protseduraga doir muammolarda esa – bilim olish va uni baholash usullari aks etadi.* O'z navbatida, predmetga doir muammolarning empirik va kontseptual, protseduraga doir muammolarning metodologik va baholash bilan bog'liq turlari farqlanadi.

Metodologik muammolar asosan tadqiqotni rejalashtirish bilan bog'liq: ularni yechish yo'li bilan ayrim kelishuvlar tuziladi, muammoni yechish, kuzatish va eksperimentlar o'tkazish tartibi aniqlanadi, mo'ljallanayotgan kontseptual protseduralar belgilanadi va h.k.

Baholash bilan bog'liq muammolar empirik ma'lumotlar, gipotezalar, nazariyalar va shu kabilarni baholash, hatto muammoning o'zi qay darajada to'g'ri tuzilgan va ta'riflanganligini baholashni nazarda tutadi. Muammo to'g'ri qo'yilgan deb hisoblanishi uchun:

1) o'rganilayotgan muammoning tarkibiga kiritish mumkin bo'lgan muayyan ilmiy bilim (ma'lumotlar, nazariya, metodika) mavjud bo'lishi;

2) muammo shaklan to'g'ri tuzilgan bo'lishi;

3) muammo o'rinli bo'lishi, ya'ni uning asoslari soxta bo'lmasligi;

4) muammo muayyan darajada chegaralangan bo'lishi;

5) echimning mavjudlik sharti va uning yagonaligi ko'rsatilgan bo'lishi;

6) maqbul echim belgilari hamda echimning maqbulligini tekshirish usullari haqidagi shartlar qabul qilinishi lozim.

SHunday qilib, pirovard natijada barcha ilmiy muammolar ham o'z echimini topavermaydi:

Ilmiy muammo boshqa muammolardan quyidagi belgilari bilan ajralib turadi:

- U olimni doim haqiqiy bilim olishga yo'naltiradi.
- yangi bilim olishga qarab mo'ljal oladi. Olim ongli ravishda yangilik sari intiladi.

SHuni ta'kidlash lozimki, «dunyoning birinchi materiyasi nima?», «ob'ekt nima?», «harakat nima?», «aql nima?» qabilidagi olamshumul muammolar ayrim fanlarning chegaralarinigina belgilashi mumkin, biroq ilmiy tadqiqotning dastlabki bosqichi hisoblanmaydi.

Gipoteza – y*angi dalillarning mohiyatini tushuntiruvchi qonun mavjudligi haqidagi asosli taxmindir*. Gipoteza olimlar tomonidan ilmiy muammoning qo'yilishiga sabab bo'lgan ilmiy dalillarni taxminiy tushuntirish maqsadida ilgari suriladi. Gipoteza tekshiriladigan bo'lishi lozim, u empirik tekshirish imkonini beruvchi oqibatlarga olib keladi. Agar bunday tekshirishning iloji bo'lmasa, gipoteza ilmiy jihatdan asossiz hisoblanadi.

Nazariya – *hodisalarning muayyan turkumi, bu turkumdagi hodisalarning mohiyati va ularga nisbatan amal qiladigan borliq qonunlari haqidagi bilimlarning mantiqiy asoslangan va amaliyot sinovidan o'tgan tizimidir.* U o'rganilayotgan hodisalarning mazmunini yorituvchi tabiat va jamiyat umumiy qonunlarining kafsh etilishi natijasida shakllanadi

Nazariya tushuntirish, bashorat qilish, amalda sinash va sintez qilish kabi muhim funksiyalarni bajaradi. Nazariya ilmiy dalillar tizimini tartibga soladi, ularni o'z tarkibiga kiritadi va o'zini tashkil etuvchi qonunlar va tamoyillardan oqibatlar sifatida yangi dalillarni yaratadi. Puxta ishlab chiqilgan nazariya fanga ma'lum bo'lmagan hodisalar va xossalarni bashorat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Nazariya odamlar amaliy faoliyatining negizi bo'lib xizmat qiladi, ularga tabiiy va ijtimoiy hodisalar dunyosida yo'l ko'rsatadi. Nazariyada ilmiy g'oyalar, ya'ni unda aks ettirilgan ob'ektlar turkumi doirasida amal qiluvchi fundamental qonuniyatlar haqidagi bilimlar markaziy o'rinni egallaydi. Ilmiy g'oya mazkur nazariyani tashkil etuvchi qonunlar, tamoyillar va tushunchalarni mantiqan izchil yaxlit tizimga birlashtiradi.

Tamoyillar-*asosiy nazariy bilim, ilmiy dalillarni tushuntirishda dasturilamal bo'lib xizmat qiluvchi ustivor g'oyalardir.* Tamoyillar sifatida, jumladan, isbotlab bo'lmaydigan va isbot talab qilmaydigan aksiomalar, postulatlar amal qilishi mumkin.

Paradigma – *fan tarixining muayyan davrida uning rivojlanishini belgilovchi barqaror tamoyillar, umumiy me'yorlar, qonunlar, nazariyalar va metodlar majmui.* U butun ilmiy hamjamiyat tomonidan fanning mazkur darajasida yuzaga keluvchi vazifalarni qo'yish va yechish usullarini belgilaydigan andoza sifatida tan olinadi. Paradigma tadqiqotchilik faoliyati, ilmiy eksperimentlarning natijalarini talqin qilishga yo'l ko'rsatadi, yangi dalillar va nazariyalarning bashorat qilinishini ta'minlaydi. U o'ziga mos kelmaydigan kontseptsiyalarni inkor etadi va tadqiqotchilik vazifalarini yechish uchun andoza bo'lib xizmat qiladi. Paradigma tushunchasi bilish nazariyasiga amerikalik faylasuf T.Kun tomonidan kiritilgan. Uning fikricha, «normal fan»ga tegishli ilmiy paradigmaga tayangan holda muayyan vazifalarni yechish xosdir. Fan rivojlanishidagi normal davrlar inqiloblar bilan almashadi. Ular eski paradigma doirasiga sig'maydigan hodisalarning kashf etilishi bilan bog'liq. Natijada fanda inqiroz davri boshlanadi va u eski paradigma o'z ahamiyatini yo'qotishi va yangi paradigmaning yuzaga kelishi bilan yakunlanadi. yangi paradigmaning qaror topishi fanda inqilob yasalishiga sabab bo'ladi.

Tafakkur va uning shakllari. Inson hamisha nimalar haqidadir o'ylaydi. O'ysiz holat ham, psixologlar fikriga ko'ra, amalda hech bo'lmasa hech narsa haqida o'ylamaslikni o'ylash holatidir. Bilishning dialektik yo'li sezgi a'zolari orqali bilish, dalillarni aniqlashdan mantiqiy tafakkur sari olib boradi. *Tafakkur– bu insonning narsalar muhim xossalari va munosabatlarini izchil, bilvosita va umumiy aks ettirishidir*. Ijodiy tafakkurlash amaliyot, fan, texnikada yangi natijalar olishga qaratiladi. Tafakkurlash – muammolar qo'yish va ularni yechishga

qaratilgan faol jarayon. Tirishqoqlik – fikrlayotgan odamning muhim belgisi. Sezgidan fikrga o'tish zamirida bilish ob'ektining ichki va tashqi mohiyatning ifodasi, ayrim va umumiyga bo'linishi yotadi. Zotan, ilmiy va falsafiy bilim faqat sezgi va tasavvurlardan iborat emas: sezgi idroki naqadar go'zal bo'lmasin, mazmunan qashshoqdir – u narsaning mohiyatini yoritmaydi.

Mantiqiy tafakkur – *tafakkur qoidalari, qonunlari va tamoyillariga muvofiq bir haqiqatdan boshqa, yanada teranroq haqiqatga intilishdir.* Tafakkur qoidalari, qonunlari fan sifatidagi mantiqning mazmunini tashkil etadi. Bu qoidalar va qonunlar tafakkurga ichdan xosdir. Mantiqiy qonunlar – narsalarning ob'ektiv munosabatlarini amaliyot asosida umumlashtirishdir. Demak inson tafakkurining barkamollik darajasi uning mazmuni ob'ektiv borliq mazmuniga qay darajada muvofiqligi bilan belgilanadi. Bizning aqlimiz amaliy harakatlar mantiqi va ma'naviy madaniyat tizimida aks etgan narsalar mantiqiga bo'ysunadi. Tafakkur jarayoni amalda nafaqat ayrim shaxs miyasida, balki butun madaniyat tarixi shakllanadi. Asosiy qoidalar to'g'ri bo'lgan holda fikrning mantiqiyligi uning tafakkurda, tushunchalar harakatida aks yetishida namoyon bo'ladi. Inson teran fikr yuritishida, mantiq qonunlariga bo'ysunadi, uning biron-bir tamoyilini buzmaydi.

Hozirgi zamon fani va texnikasi qarshisida ko'ndalang bo'lgan muammolarning murakkabligi mantiqni faol rivojlantirish, tafakkurning mantiqiy apparatini, ayniqsa kibernetika texnikasining juda o'sgan talablari bilan muvofiq holatga keltirishni talab qildi. Bu muhim ehtiyoj mantiqda yangi yo'nalishlar – ko'p ma'noli, ehtimol tutilgan va boshqa mantiqiy fanlarning paydo bo'lishini belgilab berdi, formal mantiqni matematika bilan yaqinlashtirdi va matematik mantiq yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Ob'ektiv borliq jarayonlarining aloqasi, ularning rivojlanishi o'ziga xos «narsalar mantig'i», ob'ektiv mantiqni tashkil etadi. Bu mantiq bizning tafakkurimizda tushunchalar aloqasi ko'rinishida aks etadi – bu sub'ekt tafakkuri mantig'i. Fikrlarimizning mantiqiyligi shu bilan belgilanadiki, biz narsalarni ular amalda qanday bog'langan bo'lsa, shunday bog'laymiz. Hamonki borliq dialektika qonunlariga bo'ysunar ekan, inson tafakkurining mantig'i ham shu qonunlarga bo'ysunishi lozim.

Tafakkur va borliqning birligi. Tafakkur bilan borliq o'rtasida birlik mavjud. Tafakkur ularning birligi zamirida mantiqiy shakllar va tafakkur qonunlarini shakllantiruvchi ijtimoiy amaliyot yotadi. Dunyo rivojlanishining ob'ektiv umumiy qonuniyatlaridan mantiqiy qonuniyatlarning farqi shundaki, inson mantiqiy qonuniyatlarni ongli ravishda qo'llashi mumkin, tabiatda esa dunyoning rivojlanish qonuniyatlari o'ziga ongsiz tarzda yo'l ochadi.

Inson o'zini qurshagan dunyo haqidagi barcha bilimlarni pirovard natijada sezgi a'zolari orqali oladi. Biroq ular ayrim soxta g'oyalar, masalan, Erning yassi tuzilishi, Quyosh Er atrofida aylanishi kabi g'oyalar manbai hamdir. Bu ko'pincha sezgi a'zolarining ma'lumotlariga ishonchsizlik uyg'otgan, ratsionalistlar bu a'zolarning bilishdagi rolini kamsitishi va bilishda asosiy rolni tafakkur o'ynashini qayd yetishiga sabab bo'ladi. Biroq empiriklar bu fikrga e'tiroz bildirib, bilishda xatolarga ko'proq tafakkur yo'l qo'yganini qayd etadilar. Ularning fikricha, hayvon tabiat yo'llaridan chetga chiqa olmaydi: uning motivlari zamirida sezgi a'zolari orqali idrok etiladigan narsalar yotadi. Hayvonlar hech narsani o'ylab topmaydi va shuning uchun ham ular aqlsizlik holatiga tushmaydi. Inson esa har xil xom xayollar qurboni bo'ladi.

Sezgi darajasida bilishning rolini mutlaqlashtiradigan va mavxum nazariy tafakkurga ishonmaydigan empirizm ilmiy bilishning rivojlanishiga monelik qiladi. Mutaxassislar qayd yetishicha, qadimgi matematiklar, faylasuflar, pifagorchilar, matematikaga irratsional, ba'zan – kasr sonlarining kiritilishiga qarshi chiqqanlar, o'z fikrlarini bu sonlarning noaniqligi bilan isbotlashga harakat qilganlar. Bunday fikrlar yunonlarni algebrani fan sifatida inkor yetishga majbur qilgan, bu esa matematikaning analitik metodlari Uyg'onish davriga qadar zamondan orqada qolishining sabablaridan biri bo'lgan. Qadimgi mutafakkirlar sezgida bo'lmagan narsa tafakkurda ham bo'lmaydi deb qayd etgan. Tafakkur jarayoni modellar, sxemalar, tabiiy, sun'iy til va hokazolar ko'rinishidagi sezgi unsurlariga tayanmay ish ko'ra olmaydi.

Tafakkurning asosiy shakllari. Tafakkur jarayonining oqilona mazmuni tarixiy rivojlanish jarayonida yaratilgan mantiqiy shakllar qobig'iga o'raladi. Tafakkur o'zining asosiy shakllari – tushunchalar, mulohazalar va xulosalar ko'rinishida yuzaga kelgan, rivojlanmoqda va amalga oshirilmoqda.

Tushuncha – *narsalar va hodisalarning umumiy, muhim xossa va aloqalari aks etuvchi fikr.* Tushuncha – tafakkur, tushunish faoliyatining mahsuli. Ular nafaqat narsalar va hodisalarning umumiy jihatlarini aks ettiradi, balki ularni bir-biridan ajratadi, ular o'rtasida mavjud farqlarga qarab ularni guruhlaydi, tasniflaydi. Bundan tashqari, biz biror narsa haqida tushunchaga ega ekanligimizni ta'kidlar ekanmiz, bunda mazkur ob'ektning mohiyatini tushunishimizni nazarda tutamiz. Masalan, «inson» tushunchasi nafaqat muhim umumiy, ya'ni barcha odamlarga xos bo'lgan jihatni, balki har qanday odamning boshqa har qanday narsalardan farqini ham aks ettiradi, mazkur odamning mohiyatini tushunish esa, umuman insonning mohiyati, ya'ni inson haqidagi tushunchaning mazmunini bilishni nazarda tutadi: «Inson – aql, so'zlashish va mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan bioijtimoiy mavjudot».

Sezgi, idrok va tasavvurlardan farqli o'laroq, tushunchalar ko'rgazmalilik yoki hissiylikdan xolidir. Idrok daraxtlarni, tushuncha – umuman daraxtni aks ettiradi. Tushunchaning mazmunini ko'pincha aniq obraz ko'rinishida tasavvur qilish mumkin emas. Inson, masalan, yaxshi odamni tasavvur qilishi mumkin, biroq u yaxshilik, yomonlik, go'zallik, qonun, yorug'lik tezligi, sabab, qiymat kabi tushunchalar va jarayonlarni sezgi obrazi ko'rinishida tasavvur qila olmaydi. Har qanday fanning barcha tushunchalari haqida shu fikrni aytish mumkin. Ularning ob'ektiv ta'rifi ko'rgazmalilik chegaralaridan tashqarida bilvosita aniqlanadi.

Tushuncha muhim jihatlar va xossalarni aniqlaydi va ularni o'zida mujassamlashtiradi: tushuncha mohiyatning fikrda ifodalangan obrazidir. SHuning uchun ham oz sonli tushunchalar son-sanoqsiz narsalar –

xossalar va munosabatlarni qamrab oladi. Tushunchalar turli davrlarda mazmunan har xil bo'lgan. Ular ayni bir inson rivojlanishining turli darajalarida har xildir. Haqiqiy ilmiy tafakkur madaniyati biron-bir tushunchani aniq ta'rifsiz qoldirmaslikni o'zi uchun qoida deb biladi. Buyuk mutafakkir Suqrot tushunchalarni mantiqiy jihatdan aniq ta'riflash haqiqiy bilimning bosh shartidir, degan edi. Tushunchalar inson ongida ma'lum bog'lanishda, mulohazalar ko'rinishida yuzaga keladi va mavjud bo'ladi. Tafakkur – biror narsa haqida hukm chiqarish, narsaning turli tomonlari o'rtasidagi yoki narsalar o'rtasidagi muayyan aloqalar va munosabatlarni aniqlash demakdir.

Mulohaza – *fikrning shunday bir shakliki, unda tushunchalarni bog'lash yo'li bilan biror narsa haqidagi biron-bir fikr tasdiqlanadi* (yoki rad etiladi). Masalan, «Terak – o'simlik» degan shunday bir mulohazaki, unda terak haqida uning o'simlik ekanligi xususida fikr bildiriladi. Tasdiqlash yoki rad yetish, soxtalik yoki haqiqiylik, shuningdek ehtimol tutilgan narsalar bor joyda biz mulohazalarga duch kelamiz.

Agar bizning ongimizda faqat tasavvurlar, o'z holicha tushunchalar mavjud bo'lgan va ular bir-biri bilan mantiqan bog'lanmaganida, tafakkur jarayoni ham bo'lmas edi. Ma'lumki, so'zning hayoti faqat nutqda, gapdagina haqiqiydir. Xuddi shuningdek, tushunchalar ham faqat kontekstda «yashaydi». Ayrim tushuncha sun'iy «preparat», masalan, organizmdan ajratib olingan hujayra bilan barobar. Tafakkur – biror narsa haqida xulosa chiqarish demak. Bunda biz mulohaza ko'rinishida ifodalay olmaydigan tushuncha biz uchun mantiqiy ma'noga ega bo'lmaydi.

Mulohaza (yoki mulohazalar) – keng ma'noda ifodalangan tushuncha, tushunchaning o'zi esa – toraytirilgan mulohaza (yoki mulohazalar), deb aytish mumkin. Nima yuksakroq - tushunchami yoki mulohaza, degan masala atrofidagi bahslar sxolastik, shuning uchun ham besamardir.

Fikrning bevosita, moddiylashtirilgan ifodasi bo'lgan gap mulohazani ifodalashning og'zaki shaklidir. Har qanday mulohaza sub'ektning predikat, ya'ni tavsiflanayotgan narsa yoki hodisa bilan birikuvidir. SHu sababli mulohazalarning mantiqda ko'rilmaydigan turlari sub'ekt, predikat va ular o'rtasidagi aloqaning ehtimol tutilgan modifikatsiyalari bilan bog'liq. Biz: «Olov kuydiradi», deymiz. Bu – mantiqan sub'ekt predikat bilan bog'langan hukm. Olovni ham, kuyishni ham sezish mumkin, biroq ular o'rtasidagi aloqani fikrimiz anglaydi.

Sub'ektning o'zgarishiga qarab mulohazalar, masalan, shaxssiz bo'lishi mumkin: «Tong otyapti», «Kayfiyat yo'q». yakka, ayrim va umumiy mulohazalar farqlanadi: «Nyuton tortilish qonunini kashf etgan», «Ayrim odamlar yovuz niyatli bo'ladi», «Suyak – faol to'qimalardan biri». Mulohazalar tasdiqlovchi va inkor etuvchi bo'ladi: «Tanang kuchni o'simlik sharbatlaridan oladi», «Sayyoralar yulduzlar emas».

Inson u yoki bu mulohazaga biron-bir dalilni bevosita kuzatish orqali yoki bilvosita yo'l bilan – xulosa chiqarish yordamida kelishi mumkin.

Tafakkur faqat mulohaza yuritish emas. Tafakkur jarayonida amalda tushunchalar va mulohazalar alohida o'rin to'tmaydi. Ular aqlning yanada murakkabroq harakatlari zanjiri – mushohadaning bo'g'inlari hisoblanadi.

Xulosa – mushohadaning nisbatan tugallangan birligi. Mushohada yuritish jarayonida mavjud mulohazalardan yangi mulohaza – xulosa chiqariladi. *Xulosa chiqarish tafakkurning shunday bir amaliki, unda ayrim fikrlarni taqqoslash yo'li bilan yangi mulohaza yaratiladi.*

Inson narsalarning, xossalari va munosabatlarini teran bilish orqali vaqti vaqti bilan hozirgi zamon chegaralaridan o'tib, sirli kelajakka nazar tashlashi, hali ma'lum bo'lmagan narsalarni oldindan ko'rishi, yuz berishi ehtimol tutilgan va muqarrar bo'lgan voqealarni bashorat qilishi mumkin.

Bashorat qilish «murakkab narsani oddiy narsaga aylantirish»ning oliy darajasini tashkil etadi. Ilmiy bilim taraqqiyoti ilmiy bashorat kuchining o'sishi va mazkur hodisa chegaralarining kengayishi bilan bog'liq. Bashorat qilish jarayonlarni nazorat qilish va boshqarish imkonini beradi. Ilmiy bilish nafaqat kelajakni bashorat qilish, balki bu kelajakni ongli ravishda shakllantirish uchun imkoniyat yaratadi. Har qanday fanning hayot mazmunini shunday tavsiflash mumkin: bashorat qilish uchun bilish, ish ko'rish uchun bashorat qilish kerak. Masalan, D.I.Mendeleev yuz yil keyin kashf etilgan kimyoviy elementlarning mavjudligini bashorat qilgan edi.

Intuitsiya – *haqiqatni mantiqiy dalillar yordamisiz, bevosita anglab yetish qobiliyatidir*. U doim inson aqli va joni birgalikda amalga oshirgan katta ish mahsuli hisoblanadi. SHu ma'noda faqat iste'dodli, mehnatkash va tirishqoq odamlargina intuitiv bilishga qodir.

Intuitsiya muammosi falsafa va tabiatshunoslik tarixida har xil, ba'zan bir-birini istisno etuvchi yondashuvlar, nuqtayi nazarlar va tasavvurlar bilan tavsiflanadi. Antik falsafadayoq bu muammo atrofida keskin bahslar bo'lgan. Ioniya falsafasi namoyandalari intuitsiyaga bevosita bilim, sezgi a'zolari orqali bilish shakli deb qaragan bo'lsalar, eley maktabi vakillari, shuningdek Levkipp va Demokrit bevosita bilim va sezgi a'zolari orqali bilishni rad etganlar, sezgilarni soxta deb e'lon qilganlar. Suqrot talqinida intuitsiya «daymoniy» yoki «predmet g'oyasiga egalik»dir. Platon ham hissiy bilishni haqiqat emas deb hisoblagan.

YAngi davrda Dekart, Spinoza, Leybnits intellektual intuitsiya haqidagi ta'limotni yaratdi. Dekart intuitsiya deganda sezgilarning omonat guvohligi va tartibsiz xayolning aldamchi mulohazasiga bo'lgan ishonchni emas, balki teran va zehnli aqlni tushunadi. Spinoza intuitsiyani narsalarning mohiyatini qamrab oluvchi eng ishonchli bilish deb hisoblaydi. Sensualistlar sezgi darajasidagi intuitsiyani targ'ib qiladi, sezgi a'zolari orqali, bevosita bilishni birinchi o'ringa qo'yadi. J.Lokk fikriga ko'ra, aql – sezgi a'zolari faoliyatining haqiqiy natijalarini uzluksiz qayd etuvchi ko'zgu, xolos. Bilishning bu tomonini rad etib bo'lmaydi: aql shu tomonga o'z e'tiborini qaratgani zahoti u, xuddi quyoshning yorqin nurlari kabi, o'zini bevosita idrok yetishga majbur qiladi. Ikkilanish, shubhalanish, o'rganishga hech qanday o'rin qolmaydi: aql shu zahoti uning yorqin nurlari bilan to'ladi, isbotlash yoki o'rganishga muhtoj bo'lmaydi, biroq haqiqatni faqat unga o'z e'tibori qaratilganligi tufayli idrok etadi.

Muammoni o'rganishga nemis klassik falsafasi muhim hissa qo'shdi. Kant intellektual intuitsiya qobiliyatini inkor etib, sof apertseptsiya g'oyasini ilgari suradi. Biroq keyinchalik Fixte Kantning sof apertseptsiyasi amalda

intellektual intuitsiyaning o’zi ekanligini, u Dekart, Spinoza va Leybnitsning amalda mavjud narsalarni bilish qobiliyati sifatida qaralgan intellektual intuitsiyasidan Kantda intuitsiya faoliyatni bilishga qaratilganligi bilan farq qilishini ko’rsatdi. Fixtening o’zi intellektual intuitsiyani amalda mavjud narsalarni emas, balki mutlaq narsalar faoliyatini bilish sifatida tushunadi. SHelling Kant-Fixte yo’nalishini rivojlantirib, ularning ta’limotini o’zining transtsendental idealizmi – «substantsiyani bilish uchun» o’z naturfalsafasi bilan to’ldiradi, estetik tasavvurni birinchi o’ringa qo’yadi. O’tmish ratsionalistlaridan farqli o’laroq, u intuitsiyaning sabablarini idrok emas, balki aql faoliyatidan qidiradi.

Gegel o’z o’tmishdoshlarining intellektual intuitsiya haqidagi ta’limotlariga tanqidiy yondashib, bilish mantig’i, nazariyasi sifatida dialektikani ishlab chiqadi. U falsafani tafakkur faniga aylantiradi, uning sof tafakkurga asoslangan mantiqiy oqilona tizimini yaratadi, shu sababli uning ta’limotida intellektual intuitsiya o’rnini dialektika egallaydi.

XX asr boshida har xil maktablar: jumladan, Gusserlning fenomenologik intuitsiya (reduktsiya), Bergsonning intuitivizm, Freydning ong osti intuitsiyasi va boshqa yo’nalishlar yuzaga keldi. Bu maktablar intuitsiyani bilishning instinkt, ong osti hodisasi, diniy e’tiqod va hokazolarni o’zida uyg’unlashtirgan irratsional harakati sifatida tushunadi. Bu yo’nalishlarning o’ziga xos xususiyati shundaki, ular dunyoni ilmiy bilishda aqlning, tushunchalar vositasida tafakkurning rolini kamsitadi. Tafakkur o’rniga predmetni keraksiz ratsionalistik mulohazalarsiz «asl holicha» qamrab olish imkonini beruvchi intuitsiya qo’yiladi.

Bugungi kunda irratsionalizm g’oyalarini ekzistentsializm, neopozitivizm va hozirgi zamon falsafasining ayrim boshqa yo’nalishlari rivojlantirmoqda. Masalan, ekzistentsialist Xaydegger fikriga ko’ra, «ekzistentsiya»ni mantiqiy tushunish mumkin emas. yaspersda e’tiqod, intuitiv tarzda qaraladigan mistik «vahiy» birinchi o’ringa qo’yiladi. Marsel «abstraktsiyalar ruhi»ga qarshi ayovsiz kurashni targ’ib qiladi. Inglizlar Ross, Mur, Richard moddiy narsalarni bilishning sezgi va aql darajalarini chetlab o’tib, qandaydir mistik intuitsiya yordamida, bevosita bilish mumkinligini isbotlashga harakat qiladi.

SHunday qilib, o’tmishda faylasuflar intuitsiya deganda insonning haqiqiy borliqni bilish qobiliyatini tushungan, ularning ayrimlari (Spinoza) intuitsiyaga aqlning oliy ko’rinishi sifatida yondashgan bo’lsalar, hozirgi intuitivistlar aqlning, tafakkurning rolini kamsitadilar yoki inkor etadilar, alogizm va mistik irratsionalizmni targ’ib qiladilar.

Mantiq sifatida tushuniladigan dialektika intuitsiyaning shakllanishi va uning natijalariga tanqidiy yondashilishiga imkoniyat yaratadi. Garchi intuitsiya deduktiv nazariyaning muhim bo’g’inlarini ko’rsatib bersa-da, u bizni ularni isbotlash zaruriyatidan xalos etmaydi. Bevosita, kutilmagan va anglab etilmagan bilim sifatida intuitsiya quruq joyda emas, balki vazifalarni yechish, echimni «intuitiv» topishni belgilaydigan muayyan asoslar mavjud bo’lgan holda yuzaga keladi. Biroq intuitsiya natijalarini bilimning tegishli shart-sharoitlar mavjud bo’lgan sohalarida tekshirish lozim. Masalan, matematika va fizikada olingan natijalarni faqat tajriba o’tkazish yo’li bilan tekshirish mumkin.

Inson ruhiyati hissiy, oqilona va eydetik bilimning yangi shakllarini yaratish uzluksiz jarayoni sifatida amal qiladi. Ingliz olimi G.Uolles ma’naviy ijod jarayonlarining tayyorgarlik, etilish, anglash va tekshirish quyidagi bosqichlarini qayd etgan. Ijodning muhim bosqichi – yangilikni intuitiv anglash, tushunib yetish. Intuitsiya – kutilmaganda bevosita olingan bilim.

Hissiy, empirik va nazariy bilish birligi. Ko’p sonli ma’lumotlar sezgi a’zolari orqali va oqilona bilish nafaqat bir-biri bilan bog’liq, balki bir-birini taqozo yetishidan dalolat beradi. Inson ruhiyati bir-birini belgilashning ko’p sonli zanjirlariga ega bo’lgan murakkab tizimidir. SHu sababli, sezgining mazmuni nafaqat tashqi ta’sirlantiruvchi kuch, balki tafakkur, xotira, xayolning holati bilan ham belgilanadi. Sezish va tafakkur mumkin bo’lgan narsalar o’zaro mushtarakdir.

Aytaylik, bizni - sariq, yumaloq va shirin «olma»ning ruhiy obrazi qiziqtiradi. Bu erda uch tushuncha: rang tushunchasi, geometrik shakl tushunchasi va ta’m tushunchasi aniq-ravshan ko’rinib turibdi. Rang tushunchasi har xil ranglarni qamrab oladi, biroq ayni holda ularning orasida faqat sariq rang mavjud. Ta’m tushunchasi ayni holda «shirin» tushunchasi bilan ifodalangan. Olmaning ruhiy obrazi ko’p sonli tushunchalar va ularning sezgi darajasida aniqlash mumkin bo’lgan ko’rsatkichlarining kesishuvi sifatida amal qiladi.

Agar tushunchalarni chiziqlar, sezgi shakllarini – nuqtalar bilan ifodalasak, har qanday ob’ektning ruhiy obrazi chiziqlar va nuqtalarning kesishish markazi sifatida amal qiladi.

Bilishning sezish va tafakkur shakllari kesishish nuqtasida yaxlit bir butun narsani hosil qiladi. «Bu olma»ning yaxlit ruhiy obrazi sifatida «olma» tushunchasi bilan olma haqidagi tasavvurning sintezi amal qiladi. Olma tushunchasi aynan «shu» olmaning yaxlit ruhiy obrazi emas. Olma haqidagi tasavvur olma obrazini yaratmaydi. Faqat birgalikda, bir-biri bilan chatishgan holda olma tushunchasi va olma haqidagi tasavvur «bu olma»ning yaxlit ruhiy obrazini yaratadi.

Sezgi a’zolari orqali va oqilona bilishning birligini ifodalash uchun alohida atama kerak. Antik falsafa va adabiyotda qo’llanilgan «eydos» atamasi, bizningcha, sezgi a’zolari orqali va oqilona bilishning birligini ifodalash uchun eng qulay va aniq atamadir. Eydos «ko’rinish, obraz» degan ma’noni anglatadi. Antik falsafada eydos deganda ko’pincha tafakkur va ko’rish mumkin bo’lgan narsalar tushunilgan. «Eydos» atamasi odatda sezgi a’zolari orqali va aql bilan bilish mumkin bo’lgan narsalar to’g’risida so’z yuritilgan hollarda qo’llaniladi.

Bilish nafaqat sezish va anglash mumkin bo’lgan narsalar, balki eydoslardan ham iborat. Hodisaning eng yaxlit ruhiy obrazi eydosdir.

Bilishning empirik va nazariy darajalarini farqlash mezonlari. Nazariy va empirik narsalar va hodisalar muammosi xususida juda ko'p metodologik adabiyotlar mavjud. Bilishning bu darajalari XX asrning 30-yillarida pozitivizm ta'limotida fan tilini tahlil qilish natijasida empirik va nazariy atamalar ma'nosidagi farqlar aniqlangan. Bu farq tadqiqot vositalariga ham taalluqli. Biroq, bundan tashqari, tadqiqot predmetining xususiyati va uni o'rganish metodlarining har xilligini e'tiborga olib, ilmiy bilishning ikki darajasini ham farqlash mumkin. Bu farqlarni mufassalroq ko'rib chiqamiz. Nazariy va empirik tadqiqot vositalarining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi.

Empirik tadqiqot zamirida tadqiqotchining o'rganilayotgan ob'ekt bilan amalda bevosita aloqa qilishi yotadi. U kuzatishlarni amalga oshirish va eksperiment o'tkazishni nazarda tutadi. SHu sababli empirik tadqiqot amalda kuzatish va eksperiment kuzatishda asboblar, moslamalar va boshqa vositalarni o'z ichiga oladi.

Nazariy o'rganishda tadqiqotchi ob'ektlar bilan amalda bevosita aloqa qilmaydi. Bu darajada ob'ekt faqat bilvosita, amalda emas, balki tafakkur yo'li bilan amalga oshiriladigan eksperimentda o'rganilishi mumkin.

Eksperimentlar va kuzatishlarni tashkil yetish bilan bog'liq vositalardan tashqari, empirik tadqiqotda tushunchalar apparatidan ham foydalaniladi. Tushunchalar bu erda ko'pincha fanning empirik tili deb ataladigan alohida til sifatida amal qiladi. Bu til ancha murakkab tuzilishga ega bo'lib, unda empirik atamalar va nazariy til atamalari o'zaro ta'sirga kirishadi.

Empirik atamalar empirik ob'ektlar deb nomlash mumkin bo'lgan alohida abstraktsiyalarni anglatadi. Ularni borliq ob'ektlaridan farqlash lozim. Empirik ob'ektlar – bu amalda narsalar xossalari va munosabatlarining ayrim to'plamiga ega bo'lgan abstraktsiyalardir. Borliq ob'ektlari empirik bilishda aniq qayd etilgan va cheklangan belgilar to'plamiga ega bo'lgan ideal ob'ektlar obrazida namoyon bo'ladi.

Nazariy bilishga kelsak, unda boshqa tadqiqot vositalari qo'llaniladi. Bu erda o'rganilayotgan ob'ekt bilan moddiy, amaliy o'zaro ta'sirga kirishish vositalari mavjud emas. Biroq nazariy tadqiqot tili ham empirik tavsiflar tilidan farq qiladi. Uning negizi sifatida nazariy ideal ob'ektlarni anglatuvchi nazariy atamalar amal qiladi. Ular shuningdek ideallashtirilgan ob'ektlar, mavxum ob'ektlar yoki nazariy konstruktlar deb ham ataladi. Ular borliqning mantiqiy rekonstruktsiyalari hisoblanadigan alohida abstraktsiyalardir. Birorta ham nazariya bunday ob'ektlar yordamisiz yaratilmaydi.

Bilishning empirik va nazariy turlari nafaqat tadqiqot faoliyatining vositalari, balki metodlariga ko'ra ham farq qiladi. Empirik darajada asosiy metodlar sifatida amalda eksperiment o'tkazish va kuzatishdan foydalaniladi. Bu erda o'rganilayotgan hodisalarni ob'ektiv tavsiflashga qaratilgan empirik tavsiflash metodlari ham muhim o'rin tutadi.

Nazariy darajada bilishga kelsak, bu erda alohida metodlar, chunonchi: ideallashtirish (ideallashtirilgan ob'ektni yaratish metodi); ideallashtirilgan ob'ektlar bilan nazariy eksperiment o'tkazish; nazariyani yaratishning alohida metodlari (mavxumdan muayyanga yuksalish, aksiomatik va gipotetik-deduktiv metodlar); mantiqiy va tarixiy o'rganish metodlari va hokazolardan foydalaniladi.

Metodlar va vositalarning bu o'ziga xos xususiyatlari empirik va nazariy o'rganish predmetining o'ziga xosligi bilan bog'liq. Bu darajalarning har birida tadqiqotchi ayni bir ob'ektiv borliq bilan ish ko'rishi mumkin, biroq u mazkur borliqni har xil nuqtayi nazardan o'rganadi, shu sababli uning bilimlardagi ifodasi har xil ko'rinishga ega bo'ladi

Shunday qilib, empirik va nazariy bilimlar bir-biridan predmeti, tadqiqot vositalari va metodlariga ko'ra farq qiladi. Biroq ularning har birini farqlash va alohida ko'rib chiqish abstraktsiyadan iborat. Amalda bilimning bu ikki qatlami doimo o'zaro aloqa qiladi.

Haqiqat – bilish nazariyasining bosh kategoriyasi. U borliqning bilishdagi ideal ifodasi, chunki haqiqat ongdan, bilayotgan sub'ektdan tashqarida va undan qat'iy nazar mavjuddir. Haqiqat – bilimlarning ob'ektiv borliqqa muvofiq bo'lgan mazmuni. U bilish jarayoni, bilish in'ikosining natijasidir. Haqiqat ilmiy nazariyada mujassamlashgan anglab etilgan tasdiqlovchi mulohazalar ko'rinishida o'z ifodasini topadi. Har qanday ilmiy nazariya rivojlantirilishi, ba'zan boshqa, yanada haqiqiyroq nazariya bilan almashtirilishi lozim. SHu ma'noda haqiqat – bilish rivojlanishining yakuni va omilidir.

Falsafa tarixida haqiqat (bilimlarning haqiqiyligi) muammosi qadimgi davrlardayoq ta'riflangan. "Avesto"da haqiqat oliy sharofatdir deyiladi. Darhaqiqat insoniyat doimo haqiqatga intilgan. Zero haqiqat adolatga, sharofatga eltadigan buk qudrat. Aristotel fikricha haqiqat – mulohazalar va amaldagi holat o'rtasidagi muvofiqlikdir.

Platon haqiqatni g'oyalar dunyosiga mos keluvchi g'ayritabiiy mustaqil ideal mohiyat sifatida tushungan, inson bilimi jonning shu g'oyalar dunyosi bilan mushtarakligi darajasidagina haqiqiydir, deb hisoblagan.

Foma Akvinskiy haqiqat Yolg'on narsalarda emas, balki aqlda mavjud bo'ladi, har bir narsa o'zi bog'liq bo'lgan aqlga munosabati darajasidagina haqiqiy deb nomlanishi mumkin, deb qayd etgan.

Beruniy fikricha haqiqat bilimning voqelikka muvofiqligidir. Forobiy fikricha haqiqatni bilish aqlning kamolotiga bog'liq. Bu aql inson qalbidadir, uning kamolotiga esa faol aqlga qo'shilish orqali erishiladi. Faol aqlda borliqning eng oliy darajasi bo'lgan. Birinchi sababdan boshlab to oxirgi haqiqatning barcha sura shakllari mavjud. SHuningdek Forobiy va uning izdoshlari fikricha, haqiqat bir nechta bo'lishi mumkin emas, haqiqat bitta, shu bois

falsafa ham bir nechta bo'lishi mumkin emas. Forobiy haqiqatning o'zgarmasligiga ishongan va falsafani haqiqatning birdan bir ifodasi deb hisoblagan[46].

Haqiqat-tasavvufda ruhni kamolotga va uning so'nggi maqsadi –YAratganning diydoriga erishuv yo'llaridagi to'rtinchi bosqichdir. Bunda sufiy shaxs sifatida tugab, Xudoga mo'ljallangan haqiqatga yetishishi, ollohga singib kyetishi va natijada abadiylikka erishuvi zarur. Bu jarayon ma'lum davomli vaqtni talab etadi. Maxsus ruhiy, jismoniy harakat, faoliyat, sig'inish, ibodatlar, ohanglar yordamida amalga oshiriladi"[47]. Bahovuddin Naqshbandiy haqiqat bu Allohni anglashdir deb hisoblagan. Haqiqat so'fiylar talqinida shariat doirasidan chetga chiquvchi ichki mazmunni anglatadi. Ilk so'fiylar shariat va haqiqat o'rtasida jarlik yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslikka harakat qilganlar. Keyingi so'fiylar, masalan, Abu Bakr az Zakok haqiqat haqidagi fan shariat sari yo'lni oydinlashtiradi deb hisoblaydi. Darhaqiqat, diniy aqidalarni rad yetish va odam shariat va tariqat bosqichlaridan o'tib, haqiqatga erishganidan keyingina o'zining «haqiqiy borlig'i»ni kasb yetishi, haqiqat bilan birikishi va o'zi ham haqiqatga aylanishi haqidagi ta'limot so'fizm rivojlanishining keyingi bosqichlari mahsuli sifatida vahdati vujud (borliqning birligi), ya'ni mistik panteizm haqidagi ta'limot asoschilari sanalgan Boyazid Bistomiy, Halloj va boshqalarning asarlarida ilgari surilgan.

Gegelda haqiqatni tushunish uning falsafasi asosiy tamoyili bilan bog'liq. Bu tamoyilga binoan g'oya o'zining to'liq va muayyan ko'rinishida «o'zida va o'zi uchun borliqqa ega bo'lgan haqiqat»dir. Gegel fikricha haqiqat o'zining mavhum ko'rinishida muayyan mazmunning o'ziga muvofiqligini anglatadi. Hamonki bu mazmunning to'liqligiga mutlaq g'oyaning o'z-o'zidan harakati natijasida erishilar ekan, Gegel o'zining haqiqatni tayyor holda berilishi va shu holda cho'ntakka solib qo'yish mumkin bo'lgan zarb etilgan tanga sifatida emas, balki sof tafakkur sohasida bilimlarning dialektik shakllanish jarayoni sifatida tushunish lozimligi haqidagi mashhur tezisini ta'riflaydi: «...hamma gap haqiqiy narsani substantsiya sifatida emas, balki shuningdek sub'ekt sifatida», ya'ni tafakkur faoliyati sifatida ham tushunish va ifodalashda[48].

Haqiqatni ob'ektiv-idealistik tushunishning o'ziga xos xususiyati unga dunyoning ongda aks yetish jarayoniga bog'lamasdan qarash va uni insonning ob'ekt haqidagi bilimi xossasi sifatida emas, balki empirik borliqqa qo'shimcha tarzda ob'ektivlashgan qandaydir vaqtdan tashqaridagi g'oyaning xossalari sifatida talqin qilishda namoyon bo'ladi.

Haqiqatni sub'ektiv idealistik tushunish esa inson bilimining xossalari va tarkibi bilan bog'lanadi, biroq mazkur bilim unda tashqi, mustaqil dunyoning aks yetishiga bog'lanmaydi, chunki bunday dunyoning mavjudligi inkor etiladi. Haqiqat «tafakkurning tejamkorligi» sifatida (Max), foydali natijalarga erishish imkonini beruvchi jarayon, tafakkurimiz obrazidagi qulaylik sifatida (Jeyms), inson tajribasining mafkuraviy ta'rifni tashkil etuvchi shakli sifatida (Bogdanov) talqin qilinadi.

Idealizm falsafasi hal qila olmagan haqiqatni tushunib yetishdagi qiyinchiliklar shunga olib keldiki, faylasuflar insonga haqiqatni vahiy vositasida ochuvchi ta'limotni ilgari surdilar. Bu yo'nalish intuitivizm degan nom oldi. Unga Shopengauer asos soldi. U aql va ilmiy bilishning ustuvorligini rad etdi, fanni intuitsiyadan keyingi o'ringa qo'ydi. Ilmiy izlanish intuitsiyaga asoslanadi, demak, unga bog'liq bo'ladi va bo'ysunadi. Shopengauerning qarashlarini Bergson rivojlantirdi. U intuitiv bilimning ustunligini himoya qilar ekan, qumursqalarning instinktiv xulq-atvoriga ishora qiladi, ya'ni instinkt – intuitsiyaning bir turi, degan g'oyani ilgari suradi. Uning fikricha, qumursqalar haqiqatni darhol – tug'ilgani zahoti anglab etadi. Buni aql tushunishga qodir emas. Aql faqat munosabatlarni bilish bilan shug'ullanadi. Narsalarning mohiyatini faqat instinkt tushunishga qodir. Inson texnikasi qay darajada qudratli bo'lmasin, u qumursqa osongina bajaradigan ishni uddalay olmaydi. Bergson aqlga ishonmaslik va ko'proq intuitsiyaga tayanishni maslahat beradi. Garchi inson intuitsiyasi qumursqalarning intuitsiyasi darajasida kuchli bo'lmasa-da, har qalay, uning aqlidan kuchliroqdir, chunki aql «hayotni organik tushunish bilan tavsiflanadi». Bergson intuitsiyaga aqlga qarama-qarshi turuvchi instinkt nuqtayi nazaridan yondashadi va uni haqiqatdan ustun qo'yadi.

Hozirgi zamon bilish nazariyasida haqiqiy bilim va uning shakllari haqida turli fikrlar mavjud.

Ob'ektiv haqiqat – *bilimlarimizning inson insoniyatga bog'liq bo'lmagan mazmuni.* Bizning bilimlarimizda doim yo muayyan odamga, yo muayyan ijtimoiy guruhga bog'liq bo'lgan unsur mavjud bo'ladi. Binobarin, o'z bilimlarimizda sub'ektiv unsurlarga bog'liq bo'lmagan va shu sababli ob'ektiv hisoblanadigan mazmunni qayd yetishimiz lozim. Ob'ektiv haqiqat rivojlanib, ikki shakl: nisbiy va mutlaq haqiqat shakllarida amal qiladi.

Mutlaq haqiqat – *predmetni kelajakda to'ldirilishi yoki unga aniqlik kiritilishi mumkin bo'lmagan tarzda to'la, mukammal bilishdir*. Olam vaqt va makonda cheksizligi tufayli bunday bilimga amalda erishish mumkin emas. Haqiqat tushunchasini mutlaq haqiqat tushunchasi bilan tenglashtirib, biz unga erishib bo'lmasligi, demak, umuman bilish mumkin emasligi haqida gapiramiz. Biroq fanning haqiqiy tarixi buning teskarisidan dalolat beradi: fan rivojlanadi, chunki u nisbiy va mutlaq bilimning birligi sifatida tushuniladigan haqiqatni bilishga qodir. Boshqacha aytganda, ob'ektiv haqiqat to'la va mukammal ko'rinishdagi mutlaq haqiqatdir. Ayrim hollarda, agar haqiqat vaqt o'tishi bilan o'zgarmasa, ya'ni vqat shart-sharoitlariga bog'liq bo'lmasa, u boqiy haqiqat deb ataladi.

---

[46] Қаранг С.М.Хоразмий Ислом тафаккури тарихидан –Т.: Минҳоj, 2003.-В.126

[47] Қarang. Xayrullaev M. Ўrta Osiyo va uyғonish davri madaniyati. -T.: Fan, 1994. –B62

[48] Қarang. Gegel G. Fenomenologiya duxa. -M.: Nauka, 1994. –S.196

Nisbiy haqiqat – *borliqni asosan to'g'ri aks ettirsa-da, obraz ob'ektga uncha mos emasligi bilan ajralib turadigan bilim*. Nisbiy haqiqat to'g'ri, biroq noto'liq, taxminiy, vaqt va joyning ma'lum tarixiy shart-sharoitlari bilan cheklangan haqiqatdir.

Nisbiy va mutlaq haqiqat bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Nisbiy haqiqatlar bilish taraqqiyoti jarayonida rivojlanib, o'z chegarasi bo'lgan mutlaq haqiqatga yaqinlashadi.

Biroq bilishning tarixiy rivojlanish jarayoni nafaqat nisbiy haqiqatlarning mutlaq haqiqatga aylanish jarayoni, balki ayrim mutlaq haqiqatlarning yuzaga kelish jarayoni hamdir. Bu fikrni fizikada atom va uning tuzilishi haqidagi tasavvurlarning rivojlanishi misolida ko'rish mumkin. YUz yil muqaddam fiziklar va ximiklar atomlar amalda mavjud va ajralmas sharchalar ko'rinishida, deb taxmin qilar edilar. Bu tasavvur zamirida mutlaq haqiqat unsurlari mavjud edi. Bundan: «Kimyoviy elementlarning atomlari amalda mavjud», degan xulosa kelib chiqadi. Fizika va kimyoning keyingi rivojlanishi mutlaq haqiqatning bu elementini bekor qilmadi. Biroq bu tasavvurlarda xatolar mavjudligi (taranglik, ajralmaslik va h.k.) aniqlandi.

XIX asr oxirida elektronlar kashf etilishi natijasida atom tuzilishining yangi manzarasi yaratildi. Tomson musbat zarralar va manfiy zaryadli elektronlardan tashkil topgan atom modelini yaratdi. Atomning bu nisbatan haqiqiy manzarasida mutlaq haqiqatning yangi unsurlari paydo bo'ldi: Darhaqiqat atom musbat zaryadli zarralardan iborat.

Atom haqidagi tasavvur rivojlanishining uchinchi bosqichi Rezerford-Bor modeli bilan bog'liq. Bu modelda atom yadro va uning atrofida aylanuvchi elektronlardan tashkil topadi. Umuman olganda, avvalgi modellardan aniqroq bo'lgan bu modelda mutlaq haqiqat unsurlari mavjud. Hozirgi zamonda atom tuzilishi haqidagi tasavvurlar zamirida kvant mexanikasi va atom yadrosini o'rganish natijalari yotadi. Hozirda elektronlarning atom yadrosi atrofidagi harakatini zichligi notekis bo'lgan bulut harakatiga o'xshatish mumkinligi, chunki elektronlar korpuskulyar va to'lqin xossalariga ega ekanligi, yadro esa protonlar va neytronlardan iborat sistema hisoblanishi va hokazolar ma'lum. Hozirgi zamon fizikasida atom manzarasi N. Bor nazariyasidagiga qaraganda to'liqroq va aniqroq, unda mutlaq haqiqat unsurlari ko'proq. Biroq atomning hozirgi manzarasi kelajakda o'zgarishi, unga aniqlik kiritilishi, unda yangi haqiqat va xatolar aniqlanishi shubhasiz. Haqiqatda nisbiy va mutlaq jihatlar uzviy, o'zaro bog'langan: bir tomondan, nisbiy haqiqatda doim mutlaq haqiqat unsurlari mavjud bo'lsa, boshqa tomondan, inson bilimlarining rivojlanishi jarayonida nisbiy haqiqatlardan mutlaq haqiqat yuzaga keladi.

Nisbiy va mutlaq haqiqat dialektikasi bizning bilimimiz atrofimizdagi olamni har tomonlama va aniq qamrab olishga intilib, qarama-qarshiliklarni echib, ob'ektiv borliqni yanada teranroq va mukammalroq aks ettirishini ko'rsatadi.

Haqiqatning korrespondent, kogerent va pragmatik kontseptsiyalari mavjud. Ularning har biri fanda rivojlanish jarayonida katta qiyinchiliklarga duch keladi.

Haqiqatning **korrespondent kontseptsiyasi** *nazariyaning tajribada olingan ma'lumotlarga muvofiq bo'lishini talab qiladi*. Bu talab fanda qabul qilinadi, u taklif qilinayotgan - gipoteza fan sohasiga taalluqli yoki taalluqli emasligini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kogerent (nazariy) ***kontseptsiya*** *eksperimentga muvofiq bo'lishi, unga zid kelmasligi, uning natijalarini bashorat qilish imkonini berishi lozim.* Masalan, neopozitivistlar eksperimentni nazariya to'g'ri ekanligining mukammal tavsifi deb hisoblaganlar. Nazariya eksperimentda tekshiriladi, verifikatsiya qilinadi: u yo mazkur sinovdan muvaffaqiyat bilan o'tadi, yo o'tmaydi; u yo to'g'ri, yo noto'g'ri. K.Popper bu fikrda kamchilik topdi: hamonki nazariyalar ertami, kechmi inkor etilar, falsifikatsiya qilinar ekan, ularning eksperimentga avvalgi muvofiqliklari amalda haqiqiy sinov hisoblanmaydi. Popperga e'tiroz bildirish mumkin: agar nazariya eksperimentda olingan ayrim ma'lumotlar bilan ziddiyatga kirishgan bo'lsa, bu nazariyadan mazkur ma'lumotlarni sharhlash uchun foydalanish mumkin emas, biroq u boshqa eksperimental ma'lumotlar uchun o'z ahamiyatini saqlab qoladi. Fanda yangi nazariya eskisini doim ham istisno etavermaydi. Fizikada ba'zi bir fizik hodisalarni talqin qilish uchun Nyuton mexanikasidan hozirgacha foydalaniladi. Vaholanki, u eng yangi fizik nazariyalar bilan rad etilgan. Nyuton mexanikasi nisbiylik nazariyasi va kvant fizikasining ayrim, nisbatan sodda ko'rinishi sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolgan.

Nazariyaning eksperimentga nomuvofiqligini oddiy vositalar yordamida, xususan eski nazariyani takomillashtirish yo'li bilan bartaraf yetish mumkin. Bunday hollarda ish ilmiy inqilobgacha etib bormaydi. Lakatos fikriga ko'ra, nazariyaning eng muhim qoidalari muhimlik ikkinchi darajali qoidalardan tashkil topgan himoya qobig'i bilan o'ralgan bo'lib, u eksperimental ma'lumotlarning dastlabki «zarbalari»ni o'ziga qabul qiladi. Nazariyaning o'zagi uning himoya qatlamidan o'tilganidan keyingina buzilishi mumkin.

Shuni ta'kidlash lozimki, eksperimentda nazariyaning u yoki bu ayrim qoidasi emas, balki umuman nazariya sinovdan o'tadi yoki rad etiladi. Har qanday muayyan qoida umuman nazariya mahsulidir. SHu sababli eksperiment butun nazariyaga nisbatan tatbiq etiladi.

Haqiqatning pragmatik kontseptsiyasida *amaliyot mezoni ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri eksperiment tushunchasi bilan bog'lanadi.* Biroq ilmiy amaliyot faqat eksperimentdan iborat emas, u fanda qo'llaniladigan butun maydonni, uning inson uchun hayotiy ahamiyatini qamrab oladi. SHuni hisobga olganda, insonning butun hayoti, uning fandan amalda foydalaniladigan barcha jabhalari fanning haqiqiyligini sinash maydoniga aylangan, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Fanning sertarmoq, murakkab xususiyati uni talqin qilishga jiddiy talablar qo'yadi. Fanning kuchi nimada? U qanday ideallarga ega? Fandan «Hodisalar qanday yuz beradi?» yoki «Ular nima uchun aynan shunday yuz beradi?» degan savolga javob berishni talab qilishning o'zi kifoyami? Fan san'at, dinga, inson hayotining boshqa sohalariga

zid emasmi? Fan insoniyatni pirovard natijada halokatga olib kelmaydimi?, degan savollar fanning haqiqatni bilish jarayonida shakllangandir.

Isbotlash va rad yetish. Fanning u yoki bu qoidasining haqiqiyligi yoki soxtaligi, aniq-ravshan ko'rinib turmaydi. Faqat eng sodda mulohazalar o'zining haqiqiyligini tasdiqlash uchun sezgi idrokidangina foydalanishni talab qiladi: ko'rsatish mumkin bo'lgan narsani isbotlashning hojati yo'q.

Fanning aksariyat qoidalari sezgi a'zolari orqali bilish darajasida va boshqa haqiqatlardan alohida emas, balki mantiqiy tafakkur darajasida, boshqa haqiqatlarga bog'langan holda, ya'ni isbotlash yo'li bilan haqiqiy deb qabul qilinadi. Isbotlash – ilmiy tafakkurning muhim vositasi.

Har qanday isbotda tezis, isbotlash uchun asoslar (dalillar) va isbotlash usuli mavjud. *Haqiqiyligi yoki soxtaligi isbotlash yo'li bilan aniqlanayotgan qoida tezis deb ataladi. Tezisning soxtaligini aniqlash rad yetish deb ataladi.* Isbotlashda foydalanilayotgan va isbotlanayotgan tezisning haqiqiyligini ko'rsatayotgan barcha qoidalar asoslar yoki dalillar deb ataladi. Asoslar va dalillar ishonchli dalillar haqidagi qoidalar, ta'riflar, aksiomalar va ilgari isbotlangan qoidalardan tashkil topadi.

Qoidaning haqiqiyligini isbotlash u yaxshi tekshirilgan dalillar haqidagi qoidalardan bevosita kelib chiqishini ko'rsatish demakdir. Biroq hayot shu darajada murakkabki, amalda juda ko'p, hatto aqlga mutlaqo zid qoidalarni tasdiqlash uchun ham ayrim dalillar to'plash mumkin. Bunda ayni shu qoidalarni rad etuvchi dalillar ham mavjudligi bir-biridan va atrof muhitdan ajratib olingan ayrim dalillar o'zicha hech narsani isbotlamasligidan dalolat beradi. Dalillar haqidagi fikrlar o'zaro bog'liq holda qaralgan taqdirdagina isbotlash uchun asos bo'lish mumkin. Isbotlash uchun asoslar jumlasiga mazkur fan asosiy tushunchalarining ta'riflari kiradi. Bu mazkur fanning barcha tushunchalari ta'riflanishi lozim degan ma'noni anglatmaydi. Ta'riflash – noma'lumni ma'lumga, murakkabni soddaga bog'lash demak.

Isbotlanayotgan tezis tayanadigan isbotlash uchun asoslar qatoriga fanning asosiy tushunchalari ta'riflari va aksiomalardan tashqari tezisni asoslash uchun zarur bo'lgan fanning ilgari isbotlangan qoidalari ham kiradi. Fan o'z qoidalarining dalil-isbotlarini qancha ko'p rivojlantirsa, har bir yangi qoidani isbotlash uchun oldingi asoslar soni shuncha ko'payadi.

V.F.Asmus fikriga ko'ra, asoslar va ulardan chiqarilgan xulosalarning aloqasi, agar u isbotlanayotgan tezisning haqiqiyligi tan olinishiga olib kelgan bo'lsa, isbotlash usuli deb ataladi. Fanning ayni bir qoidasini isbotlash har xil, masalan, deduktsiya, induktsiyaga, analogiyadan foydalanishga, modellashtirishga asoslangan bo'lishi mumkin.

Emotsiyalar. iroda, ishonch, ideal. Ilgari sezgilar hodisalarning muhim jihatlariga nisbatan neytral deb qaralar edi. Odatda bu neytrallik mavjud bo'lmaydi. Bu holda sezgilar sub'ektga yuz berayotgan voqeaning shaxsiy ma'nosini tushunish imkonini beruvchi kechinmalar sifatida amal qiladi. *Hodisalar va holatlar ahamiyatini bevosita his yetish emotsiyalar deb ataladi. Ijobiy emotsiyalar – lazzatlanish, quvonch, hayrat, muhabbat va sh.k. Salbiy emotsiyalar - qo'rquv, hayiqish, nafrat, qayg'u va sh.k*. Insonning emotsiyalar dunyosi juda murakkab bo'lib, uni psixologiya atroflicha o'rganadi. Falsafiy jihatdan emotsiyalar dunyosini ekzistentsializm ko'proq o'rgangan bo'lib, bu erda ekzistentsial deganda ko'pincha vaziyatli emotsiyalar (kuchli ruhiy hayajonlanish, ehtiroslar) emas, balki inson borlig'ining barqaror strukturalari tushuniladi. Inson emotsiyalariga uning butun hayot tajribasi kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ba'zan bir so'z bilan ifodalangan qisqacha xabar inson o'limiga sabab bo'lgan hollar ma'lum.

Iroda *inson ruhiyatining har xil shakllari orasida – sub'ektning o'z faoliyatini o'zi tartibga solishi muhim ahamiyatga ega*. Kant va Fixte uchun iroda axloqiy tamoyillarni ro'yobga chiqarish manbai, inson amaliy faoliyatining negizi hisoblanadi. SHopengauer va Nitsshe uchun iroda – borliqning irratsional impulsi. Bu erda iroda ruhiyat doirasidan butunlay chiqariladi.

Ishonch *insonning qadriyatlari va mo'ljallari dunyosida biron-bir narsa yoki hodisani haqiqiy deb qabul qilishi muhim ahamiyatga ega*. Ishonchga shubha zamin hozirlaydi, u bir qancha ruhiy holatlar natijasida ishonchga aylanadi. Ilohiyotchilardan farqli o'laroq, faylasuflar shubha va ishonchning o'zaro nisbatiga ko'proq e'tibor beradilar. Diniy e'tiqod odatda vahiyning bevosita mahsuli sifatida isbotlashga muhtoj emas deb qaraladi. SHveytsariyalik taraqqiyparvar ilohiyotchi Karl Bart e'tiqodning isboti uning o'zida deb hisoblagan. Faylasuf Karl yaspers uchun falsafiy e'tiqod – falsafiy mushohada yuritish natijasidir.

Ideal – *pirovard kelajakning muayyan obrazi emas, balki qayta ko'rilishi mumkin bo'lgan har xil nazariy va boshqa tasavvurlarning kelajakka qaratilgan majmui.* Ideal doim ham pirovard maqsadning ustunligiga bog'lanmaydi. Muayyan pirovard maqsadning ustunligi, ayniqsa, agar u olis kelajakda bo'lsa, utopiyaga olib keladi. Ayrim utopistlar erkinlikning ustunligini tan oladi, boshqa utopistlar bu o'ringa adolatni qo'yadi, utopistlarning uchinchi toifasi faqat ijtimoiy mulkni tan oladi, to'rtinchi toifasi esa, aksincha, xususiy mulkni hamma narsadan ustun qo'yadi. Xullas, ideal yaratish, agar unga yetarli darajada mas'uliyat bilan yondashilmasa, utopiyaga olib keladi. Ayni vaqtda, ideal yaratish – inson yutuqlarining muhim negizi. Agar insoniyat ideal yaratish bilan shug'ullanmaganida, o'zining hozirgi taraqqiyotiga erisha olmagan bo'lar edi. Biroq ideal yaratish jarayoni oqilona kyechishi uchun rivojlangan, zamonga hamohang falsafa bo'lishi lozim. To'g'ri falsafiy mo'ljallar utopizmdan saqlaydi. Asosan XX asrda shakllangan noklassik falsafa ideallar bilan juda ehtiyot bo'lib muomala qiladi.

Bilish natijalarini baholash. Erishilgan natijani baholash – bilishning zarur unsuridir. Baholash yo'li bilan inson olingan bilimning haqiqiyligi yoki soxtaligi, undan amaliy faoliyatda foydalanish mumkin yoki mumkin emasligini aniqlanadi. U olingan bilim keyingi bilish jarayonida ishtirok yetishi yoki ishtirok etmasligini belgilaydi, uning insonga va shaxsning ma'naviy faoliyatiga ta'sir o'tkazish imkoniyatlarini aniqlaydi. SHu sababli baholash uchun asos sifatida nafaqat gnoseologik, balki amaliy, mafkuraviy va axloqiy mezonlar amal qiladi.

Olim o’z faoliyatida nafaqat o’zining metodlari va ilmiy natijalarini baholaydi, balki ularga ilmiy jamoatchilik, hokimiyat, din namoyandalarining munosabatiga qarab mo’ljal oladi. Umuman olganda, har qanday bilish haqiqatni izlashdir. Bu inson aqlining azaliy vazifasidir. Bilimlarimizning haqiqiyligi muammosi bilish faoliyatining har qanday turlarida muhim ahamiyatga ega. SHu sababli bilimning haqiqiyligi uning muhim asosi hisoblanadi. Haqiqat – bilishning mutlaq qadriyati.

Bilishning ma’naviy qadriyatlari. Har qanday ilmiy tadqiqotda ma’naviy qadriyatlar va me’yorlar mavjuddir. Ilmiy metod negizini ob’ektivlik va oqilonalik kabi an’anaviy ma’naviy qadriyatlar tashkil yetishi lozim. Ob’ektivlik olim tadqiqot me’yorlarini tanlashga nisbatan vijdonan yondashishi, shaxsiy manfaatdorlikni siqib chiqarishi, haqiqatni guruh manfaatlaridan ustun qo’yishini nazarda tutadi.

Ayrim ilmiy kontseptsiyalar eskirishiga qarab o’ziga xos «timsol» belgilarini kasb etadi. Eskirgan kontseptsiyalardan voz kyechish ko’pincha ularni yaratuvchilarning qarshiligini bartaraf yetish bilan bog’liq. Olim ba’zan fanda inqilobga yo’l ochuvchi yangi g’oyalarni afzal ko’rishga o’zida kuch topa olmay, eskicha yondashuvlar asiri bo’lib qolishi mumkin.

Bilim va haqiqat amalda ayniy tushunchalardir. Bilish – narsalarning haqiqiy holatiga mos keluvchi ishonchli axborotga ega bo’lish demak. Haqiqiy bilimga erishish mumkinmi? Qanday bilimni haqiqiy deb hisoblash mumkin? Bilim haqiqiyligining ob’ektiv va mutlaq mezonlari mavjudmi? Bu savollarga javoblar fan va falsafaning rivojlanishiga doimo yo’ldosh bo’lgan. Masalan, Aristotel haqiqatni borliq bilan tenglashtirgan. Uning fikricha, o’zgarmas narsalargina haqiqiydir, haqiqat borliqning oliy shaklidir.

Skeptitsizm vakillari, aksincha, bilimning predmetga muvofiqligi masalasi bahsli bo’lib, uni isbotlash mumkin emas, chunki bilishni chalg’ituvchi yoki unga monelik qiluvchi omillar mavjud, deb hisoblaganlar. Bilimning nomuvofiqligi sabablari bilish ob’ektining tarkibida bo’lishi mumkin. Dunyo shu darajada cheksizki, inson o’z tafakkuri bilan uni qamrab olishga qodir emas. Haqiqiy bilimga erishishga biluvchi sub’ektning xossalari ham monelik qilishi mumkin. Inson sezgi a’zolarining aldamchiligi va ishonchsizligi antik davrdayoq qayd etilgan edi. Keyinchalik Yum, Berkli va uning izdoshlari insonning sezgilar dunyosini mutlaqo sub’ektiv deb ko’rsatdilar va shu yo’l bilan insonning sezgi a’zolariga ishonchsizlik bildirdilar.

Bilishning taraqqiyoti jarayonida olimlar bilimlar haqiqiyligining ishonchli mezonlarini topish yo’lida ham izlanishlar olib bordilar. Haqiqatning mutlaq mezonlari mavjudmi? Bu mezonlarni bilimning barcha turlariga nisbatan tatbiq yetish mumkinmi yoki u faqat ilmiy bilimga nisbatan amal qiladimi? Falsafada bilimning barcha turlariga nisbatan tatbiq etilishi mumkin bo’lgan mezonlar, shuningdek faqat ilmiy bilim talablariga javob beradigan mezonlar yaratilgan. Ular orasida quyidagilar qayd etilgan: umumiy ahamiyatga moliklik mezoni (ko’pchilik qabul qiladigan narsa haqiqiydir); g’oyaning foydaliligi, amaliy samaradorligi va ishga yaroqliligi, uning u yoki bu maqsadga erishish uchun foydaliligi mezoni (pragmatizm). Odamlar ishonadigan narsalar, olimlar o’rtasidagi shartli kelishuvga mos keladigan narsalar va hodisalar (konventsionalizm), mavjud nazariyaga muvofiqlik mezoni talablariga javob beruvchi narsalar va hodisalar haqiqiy deb atalgan.

Verifikatsiya tamoyiliga *binoan dunyo haqidagi har qanday fikrning haqiqiyligi pirovard natijada uni sezgi a’zolari orqali olingan ma’lumotlarga taqqoslash yo’li bilan aniqlanishi lozim*. SHu nuqtayi nazardan parapsixologiyaning «energiya», «biomaydon» kabi tushunchalari mantiqqa ega emas, chunki verifikatsiyalanmaydi. Bu tamoyilni e’lon qilgan pozitivistik falsafa go’yoki bilishda ahamiyatga ega bo’lmagan falsafiy tushunchalarni ilmiy muomaladan chiqarishga harakat qilgan. Biroq mazkur tamoyil izchil qo’llanilgan holda sezgi a’zolari orqali olingan ma’lumotlar bilan tasdiqlanmaydigan ko’pgina nazariy qoidalarni ham ilmiy muomaladan chiqarish kerak bo’ladi.

Karl Popper nazariy tizimlarning falsifikatsiyalanish mezonini taklif qildi. Bu mezonga ko’ra amalda sinash va rad yetish mumkin bo’lgan nazariyalar ilmiy hisoblanadi. Popper verifikatsiya bilan falsifikatsiya o’rtasida nomutanosiblikning mavjudligini mezon sifatida qaragan: agar verifikatsiya qilish uchun oqibatlarning cheksiz soni tasdiqlanishi lozim bo’lsa, falsifikatsiya qilish uchun bitta qarshi misolning mavjudligi kifoya. Amalda falsifikatsiyalanish talabi inson bilimi natijalariga nisbatan tanqidiylik talabining muayyanlashtirilishidir. Krititsizm fan ruhini eng oqilona ko’rinishda ifodalaydi.

Yolg’on haqiqatning qarama-qarshisi. *Yolg’on odatda noto’g’riligi ayon bo’lgan tasavvurlarni bila turib haqiqat darajasiga ko’tarish sifatida tushuniladi.*

Yolg’on kundalik va ijtimoiy hayotda keng tarqalgan bo’lib, odamlar o’zaro aloqa qiluvchi hamma joyda uchraydi; u individlar va ijtimoiy guruhlar manfaatlarining «uchrashuvi» yuz beradigan har qanday insoniy munosabatlar funksiyasidir. Gap Yolg’on mavjud yoki mavjud emasligida emas (oddiy hayot tajribasi uning mavjudligidan dalolat beradi), balki har bir muayyan holda uning ulushi qanchaligidadir.

Beruniy fikricha ”SHunday kishilar bo’ladiki, ularning tabiatiga Yolg’on xabar tarqatish o’rnashib qolib, go’yo unga shu vazifa yuklatilgandek bo’ladi va Yolg’on xabar tarqatmasdan turolmaydi...Ba’zan kishi Yolg’on xabar tarqatuvchiga taqlid qilib, bilmasdan Yolg’on xabar tarqatadi. Bu xabarchilar birinchi marta ataylab Yolg’on xabar tarqatgan kishi bilan eng keyin Yolg’on xabarni eshituvchi oralig’ida vositachi bo’ladilar. Yolg’onchilik kishini adolatdan yuz o’girtiradi, zulm, Yolg’on guvohlik, omonatga xiyonat qilish, boshqalar mulklarini hiyla bilan bosib olish, o’g’irlik, dunyo va xalqning buzilishiga sabab bo’ladigan boshqa yomon xulqlarni kishilar yaxshi qilib ko’rsatadilar”[49]. Beruniy insonni rostgo’ylik qolib, Yolg’onchilik yo’lidan yurmasligi, boshqalarga yaxshilik qilish,

[49] Беруний. Ҳиндистон -Т.: Фан, 1966 –В. 25.

yaxshilik qilish imkoniyati bo'lmasa, yaxshi tilaklar izhor qilishga chorlaydi. Rostgo'ylik, odillik Beruniy fikricha yuksak ma'naviyat, go'zal odob – axloq belgisidir.

Insonning individual rivojlanish jarayonida Yolg'on bolada jazodan qutulib qolishga harakat qilish, kattalar o'rnagi va shu kabilar orqali shakllanadi. Keyinchalik bunda jamiyat kuchliroq ta'sir ko'rsatadi. Insonni bu tomonga itaruvchi omillar majmui orasida ehtiroslar, shu jumladan muhabbat tobora kengroq o'rin egallay boshlaydi. Muhabbat «son-sanoqsiz Yolg'onni vujudga keltiradi. Oshiq odam o'zining narxini oshirish uchun Yolg'on so'zlaydi, o'z raqibining obro'sini tushirish uchun, rashk o'tini yoqish uchun... sovib borayotgan muhabbat otashini qayta o't oldirish uchun aldaydi, nihoyat, muhabbat yo'qolgan holda Yolg'on gapiradi»[50]. Yolg'on takabburlik, irodasizlik, muvaffaqiyatga intilish, pulga, hokimiyatga o'chlik va hokazolar zaminida yuzaga keladi.

Yolg'on individlar uchun ijobiy ma'noda ham muhimdir (bu jihatdan o'layotgan odam to'shagi oldida Yolg'on gapirish hollari diqqatga sazovor). Lekin Yolg'on ko'pincha o'zgalar hisobidan va ularning manfaatlariga zid ravishda qandaydir afzalliklarni qo'lga kiritish bilan bog'liq. Yolg'onni yashash uslubiga aylantirgan odamlar ham bor.

SHunga qaramay, halol, vijdonli odamlar ko'proq. Ularni Yolg'onchilardan qanday farqlash mumkin? CHinakam samimiyat ikki asosiy belgi: «achchiq haqiqat bilan birovga ozor etkazishga va o'z xatolarini ochiq-oydin tan olishga qodirlik» bilan ajralib turadi. «Xayrixoh bo'lgan holda, Yolg'on gapirmay sizga ozor etkazishi mumkin bo'lgan odamni, siz xohlagan va kutgan javobni berish o'rniga, sizni xafa qilishdan cho'chimay, haqiqatni yuzingizga aytgan odamni samimiy deb hisoblash mumkin. Lekin samimiy odamni uning o'z xatolarini tan olish jasoratiga ko'ra farqlash mumkin, ya'ni rostgo'y odam o'zining nomaqbul qilmishiga hech qanday vaj-korsonlarsiz iqror bo'ladi, deb aytish mumkin. Yolg'onga bunday iqror bo'lishni afzal ko'rish – rostgo'ylikning shak-shubhasiz mezonidir»[51].

Yanglishish – *o'z predmeti bilan mushtarak bo'lmagan, unga mos kelmaydigan bilim*. Yanglishish haqiqat yoyilishi va teranlashuvining barcha bosqichlarida uning doimiy va zaruriy hamrohi Yanglishishdir. Haqiqat nima va uni Yanglishishlardan (Bekon ta'biri bilan aytganda, «tafakkur butlari»dan) qanday qilib xalos yetish mumkin, degan savollar odamlarni (faqat fan sohasidagina emas) doim qiziqtirib kelgan. Haqiqat va Yanglishish kategoriyalari bilish nazariyasidagi yagona bilish jarayonining ikki qarama-qarshi, lekin bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan ikki tomonini ifodalovchi asosiy kategoriyalardir. Bu tomonlarning har biri o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, ularni quyida ko'rib chiqamiz.

Bilimning noto'g'ri shakli bo'lgan Yanglishishning bosh manbai ijtimoiy-tarixiy amaliyot va bilishning cheklanganligi, norasoligi yoki zaifligidir. Yanglishish o'z mohiyatiga ko'ra borliqning ayrim jihatlarini bilish natijalarining mutlaqlashtirilishi natijasi sifatida yuzaga keluvchi borliqning noto'g'ri in'ikosidir. Masalan, «nazariy astrologiya», garchi unda haqiqatning ayrim unsurlari mavjud bo'lsa-da, umuman olganda Yanglishish hisoblanadi. Xuddi shuningdek ilmiy astronomiyada ham Yanglishishlar mavjud, lekin umuman olganda bu kuzatishlar jarayonida o'z tasdig'ini topgan haqiqiy bilim tizimidir.

Yanglishishlar haqiqatning tagiga yetishni qiyinlashtiradi, biroq ular muqarrardir, bilishning haqiqat sari harakatining zaruriy unsuri, mazkur jarayonning mumkin bo'lgan shakllaridan biridir. Masalan, moddalar haqidagi fan – kimyoning shakllanishi «ulkan Yanglishish» - alximiya shaklida yuz bergan.

Yanglishishlar o'z shakllariga ko'ra rang-barangdir. Ilmiy va noilmiy, empirik va nazariy, diniy va falsafiy Yanglishishlarni farqlash lozim. Xususan, falsafiy Yanglishishlar orasida empirizm, ratsionalizm, sofistika, eklektika, dogmatizm va relyativizm mavjud.

Yanglishishni Yolg'ondan – haqiqatni g'arazli maqsadlarda ataylab buzib ko'rsatish va bu bilan bog'liq bo'lgan soxta bilim berish, dezinformatsiyadan farqlash lozim. Yanglishish bilim xususiyati bo'lsa, xato – individning inson faoliyati muayyan jabhasidagi noto'g'ri harakatlari natijasidir: hisoblashdagi, siyosatdagi, turmushdagi xatolar va h.k. Mantiqiy xatolar – (formal yoki dialektik) mantiq tamoyillari va qoidalarini buzish va predmetni, ishlarning asl holatini bilmaslik bilan belgilanuvchi haqiqiy xatolar farqlanadi.

Xulosalar. Haqiqat bilishning mezonidir. Inson amaliy faoliyati haqiqatni aniqlashga yo'naltirilgan. Biroq haqiqat Yolg'on bilan yonma-yon turadi. Yolg'on inson hayotining tarkibiy qismi sifatida amal qiladi.

Amaliyot va bilishning rivojlanishi u yoki bu Yanglishishlar ertami, kechmi bartaraf etilishi: yo sahnadan tushishi (masalan, «abadiy dvigatel» haqidagi ta'limot kabi), yo haqiqiy bilimga aylanishi (alximiyaning kimyoga aylanishi)ni ko'rsatadi. Yanglishishlarni yuzaga keltirgan ijtimoiy sharoitlarni o'zgartirish va takomillashtirish, ijtimoiy-tarixiy amaliyotning etukligi, bilimning rivojlanishi va teranlashuvi Yanglishishlarni bartaraf yetishning muhim omillaridir. Bu esa borliqqa nisbatan apologetik (himoyalovchi-oqlovchi) yondashuvni emas, balki konstruktiv-tanqidiy yondashuvni, «sinovlar va xatolar» metodini amalga oshirishni (Popper) taqozo etadi.

Amaliyot. *Bilishning negizini amaliyot tashkil etadi*. Bu insonning butun bilish jarayoni sezgilardan boshlab ilmiy mavhumliklarga qadar ijtimoiy-amaliy faoliyat asosida rivojlanishi, uning ehtiyojlari va muvaffaqiyatlari bilan belgilanishi va yo'lga solinishini anglatadi.

Amaliyot mazmuni va shakllariga ko'ra, moddiy ne'matlar yaratish; ijtimoiy-siyosiy faoliyat; ilmiy-amaliy faoliyat kabi turlardan iborat.

SHuningdek amaliyot odamlar ijtimoiy-tarixiy faoliyatining rang-barang shakllarini qamrab oladi.

50

Ijtimoiy amaliyot ehtiyojlari doim bilish rivojlanishining negizi va harakatlantiruvchi kuchi sifatida amal qiladi. Er maydonlarini o'lchash, vaqtni hisoblash, savdoda hisob-kitoblarni amalga oshirish zarurati matematik bilimlarning rivojlanishiga yo'l ochdi. Binolar, ariqlar, to'g'onlar, kemalar, mashinalar va hokazolarni qurish ehtiyojlari mexanikaning rivojlanishiga olib keldi.

Ijtimoiy amaliyot bilishning negizi hisoblanishi haqida so'z yuritganda ilmiy bilish jarayonining nisbatan mustaqil ekani unutmaslik kerak. Zero amaliyot bilan bilish belgilangan murakkab bilvosita xususiyatga ega. Bilishning har bir bosqichida ilmiy tafakkurning oldingi rivojlanish jarayonida yuzaga kelgan muammolar echiladi. SHu sababli fanning u yoki bu yutuqlarini u yoki bu tarixiy davrning amaliy tajribasi va ehtiyojlariga bog'lashga urinish xato bo'lur edi.

Inson tafakkuri doimo oldingi avlodlardan olingan bilimlar majmui va fanning oldingi rivojlanish jarayonida qo'yilgan muammolar bilan ish ko'radi. Fan bu muammolarni yechib, amaliyotdan o'zishi va unga ongli ravishda yo'l ko'rsatishi mumkin va lozim.

Amaliyot – odamlarning tarixan shakllangan ehtiyojlarini qondirish uchun u yoki bu ob'ektni o'zgartirish maqsadidaga ta'sir ko'rsatish faoliyatidir. Bilishga nisbatan amaliyot uch xil vazifani bajaradi. Birinchidan, u bilishning manbai, harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi, bilishga umumlashtirish va nazariy o'rganish uchun zarurni material beradi. SHu tariqa amaliyot bilishni oziqlantiradi, u real hayotdan uzoqlashishga yo'l qo'ymaydi. Ikkinchidan, amaliyot bilimlarni tatbiq yetish sohasidir. SHu ma'noda u bilishning maqsadidir. Uchinchidan, amaliyot bilish natijalarining haqiqiyligini tekshirish mezoni. Bilishning amaliyot sinovidan o'tgan natijalarigina amalda ob'ektiv ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, amaliyot – barcha bosqichlarda bilishning shakllanish va rivojlanish negizi, bilim manbai, bilish jarayoni natijalarining haqiqiyligi mezondir. Tajriba tushunchasi har xil ma'noga ega: tajriba (empiriya) mavhum fikr yuritishga qarshi qo'yiladi va shu ma'noda u kuzatish va eksperimentni tushuncha hisoblanadi. Hayot tajribasi, mashina haydash, ma'ruzalar o'qish va shu kabilar ma'nosidagi bilim va ko'nikmalar darajasi ham tajriba deb ataladi.

O'z-o'zidan ravshanki, inson borliqni yolg'iz o'zi tushunib etmaydi: haqiqatni bilish tajribaga asoslanadi, deganda, ildizlari o'tmishga, asrlarning yig'ma va jamlanib boradigan tajribasiga borib taqaluvchi vorisiy axborot nazarda tutiladi. Individual tajriba, agar u mavjud bo'lgan taqdirda ham, haqiqatni anglash uchun mutlaqo yetarli bo'lmaydi.

Ilmiy tadqiqot predmetini tanlashga, bilimning rivojlanish yo'nalishi va sur'atlariga, uning yutuqlaridan foydalanish xususiyatiga juda ko'p ijtimoiy omillar, chunonchi: moddiy ishlab chiqarish ehtiyojlari; ijtimoiy-siyosiy hayot; jamiyatning iqtisodiy tizimi; hukmron dunyoqarash xususiyati; ijtimoiy ongning turli shakllari; ishlab chiqarish, texnika, ma'naviy madaniyat, maorifning rivojlanish darajasi, shuningdek ilmiy bilishning ichki mantig'i ta'sir ko'rsatadi. Bu omillar orasida moddiy ishlab chiqarish ehtiyojlari birinchi o'rinda turadi. Ular bilish oldiga muayyan tadqiqot vazifalarini qo'yadilar. Ishlab chiqarish ilmiy bilish natijalarining asosiy foydalanuvchisi va bilish texnika vositalari – asboblar, moslamalarni etkazib beruvchi hisoblanadi. Ilmiy ijoddagi muvaffaqiyat nafaqat olimning iste'dodi, zehnining o'tkirligi bilan, balki kerakli texnik jihozlarning mavjudligi bilan ham belgilanadi. Aynan texnikaning rivojlanishi fanni eksperimental va mantiqiy o'rganishning qudratli vositalari bilan ta'minladi. Masalan, elektromagnit va atom o'rganish jarayonlari jamiyat ishlab chiqarish rivojlanishining fandagi bu hodisalarni bilish uchun zarur vositalar bilan ta'minlanganlik yuksak darajaga etganidan keyingina tadqiqot predmetiga aylandi.

Ilmiy ijod natijalari faqat moddiy ishlab chiqarish, texnikadagina o'zining amaliy ifodasini topmaydi. Ilmiy bilimning har bir sohasi tegishli qonuniyatlarni yoritish, muayyan hodisani tushuntirish yo'li bilan dunyoning yagona manzarasini yaratish, dunyoqarashni shakllantirishda ishtirok etadi. E.SHredinger ta'biri bilan aytganda, fan biz kim va nima uchun dunyoga kelganmiz, degan savolga ham javob berishi lozim. Bu ham metafizik, ham amaliy mazmun kasb etadi.

Amaliyot nafaqat jamiyat uchun zarur bo'lgan hodisalarni aniqlaydi balki insonni qurshagan narsalar va hodisalarni o'zgartiradi, ularning shu paytgacha insonga ma'lum bo'lmagan va shu sababli o'rganilmagan tomonlarini aniqlaydi. Nafaqat dunyoviy jismlar, balki biz o'zgartirmaydigan osmon jismlari ham ongimiz va idrokimiz qarshisida saf tortadi va dunyoda mo'ljal olish vositalari sifatida hayotimizga kirib kelishiga qarab anglab etiladi.

Ilmiy bilish tarixi biron-bir kashfiyot amalda qo'llanilishi natijasida bilishning tegishli sohasi jadal sur'atlarda rivojlana boshlashini, texnikaning rivojlanishi fanda inqilob yasashini ko'rsatadi.

Nafaqat tabiat haqidagi fan, balki jamiyat haqidagi fanning rivojlanishi zamirida ham amaliyot yotadi.

"Metod" va "metodologiya" tushunchalari. Metod (yunon. metods — usul) keng ma'noda yo'l, ijodiy faoliyatning har qanday shakli kabi ma'nolarni anglatadi. Metodologiya tushunchasi ikki asosiy mazmunga ega — faoliyatda qo'llaniladigan ma'lum usullar tizimi (fanda, siyosatda, san'atda va h.k.); tizim haqidagi ta'limot yoki metod nazariyasi.

Hozirgi davrda metodologiya faqat ilmiy bilish sohasi bilan cheklanishi mumkin emasligi ayon bo'ldi va y albatta, bilish chegarasidan chiqishi va o'z sohasida amaliyotda ham qo'llanishi zarur. Bunda bilish va amaliyotning uzviy aloqadorligiga e'tibor qaratmoq kerak.

Metodologiyaga faqat metodlarni emas, balki tadqiqotni ta'minlovchi boshqa vositalarni ham o'rganish xos. Tamoyil, qoida va ko'rsatmalar, shuningdek, kategoriya hamda tushunchalar mana shunday vositalar jumlasiga kiradi. Nomuvoziy, beqaror dunyo sharoitlarida voqelikni metodologik o'zlashtirishning o'ziga xos vositalarini

ajratish fan rivojlanishining «postnoklassik», deb nomlangan hozirgi bosqichida ancha dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Fan metodologiyasi uning strukturasi, taraqqiyoti, ilmiy tadqiqot vositalari va usullari, uning natijalarini asoslash yo'llari, bilimni tajribaga tatbiq qilish mexanizmlari va shakllarini o'rganadi. SHuningdek, metodologiya metodlar yig'indisi va faoliyat turi haqidagi ta'limotdir.

Metod u yoki bu shaklda ma'lum qoida, tartib, usul, harakat va bilim mezonlarining yig'indisi hamdir. U tamoyillar, talablar tizimi bo'lib, sub'ektni aniq vazifani bajarishga, faoliyatning shu sohasida ma'lum natijalarga erishish sari yo'naltiradi. U haqiqatni izlashda vaqt, kuchni tejaydi, maqsadga eng yaqin va oson yo'l bilan yetishishga yordam beradi.

Metodning asosiy vazifasi faoliyatning bilish va boshqa shakllarini boshqaruvdan iborat. Biroq:

-birinchidan, metod va metodologik muammolarning rolini inkor qilish yoki to'g'ri baholamaslik ("metodologik negavizm");

-ikkinchidan, metodning ahamiyatini bo'rttirish, mutlaqlashtirish, uni barcha masalalarning kaliti, ilmiy yangiliklarni yaratishning eng qulay vositasi (metodologik eyforiya), deb tushunish noto'g'ridir.

Har qanday metod ma'lum nazariya asosida yaratiladi va tadqiqotning zaruriy sharti sifatida namoyon bo'ladi. Har bir metodning samaradorligi uning chuqur mazmun va mohiyatga egaligi, nazariyaning fundamentalligi bilan asoslanadi. O'z navbatida, metod mazmuni kengayib boradi, ya'ni bilimning chuqurlashishi va kengayishi, tajribaga tatbiq etilishi bilan metodning ko'lami ham o'zgaradi.

Ilmiy bilishda nafaqat ilmiy natija (bilimlar majmui) va predmetning mohiyatini anglash, balki unga eltuvchi yo'l, ya'ni metod ham haqiqiy bo'lmog'i lozim. SHunga ko'ra, predmet va metodni bir-biridan ayri holda tushunish mumkin emas. Har qanday metod u yoki bu darajada real hayotiy jarayonlarda shakllanadi va yana unga qaytadi. Metod har qanday tadqiqot boshlanishida to'la holda namoyon bo'lmasa-da, ma'lum darajada predmetning sifat o'zgarishi bilan har safar yangidan shakllanadi.

Metod bilish predmeti va harakatni sun'iy ravishda bog'lamaydi, balki ularning xususiyatlari o'zgarishi bilan o'zgarib boradi. Ilmiy tadqiqot predmetga daxldor dalil va boshqa belgilarni jiddiy bilishni talab qiladi. U ma'lum materialning harakati, uning xususiyatlari, rivojlanish shakllari va h.k.larda namoyon bo'ladi. Demak, metodning haqiqiyligi, eng avvalo, tadqiqot (ob'ekt) predmetining mazmuni bilan bog'liq.

Metod sub'ekt bilan chambarchas bog'liqdir. Boshqacha qilib aytgan-da, "inson umum metodologiyaning markazidir" (Feyerbax). Ikkinchidan, har qanday metod y yoki bu darajada boshqaruv quroli vazifasini bajaradi.

Metod sub'ekt va ob'ektning murakkab dialektikasi acosida rivojlanadi va bunda oxirgisi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. SHu ma'noda, har qanday metod, eng avvalo, ob'ektiv, mazmunli va konkret bo'lsada, ayni paytda, y sub'ektiv hamdir. Biroq u faqat mavjud qoidalar tizimi emas, balki ob'ektiv ilmiylikning davomi sifatida namoyon bo'ladi.

Metod metodikada konkretlashadi. Metodika daliliy materiallarni yig'ish va saralash vositasi, aniq faoliyat turidir. U metodologik tamoyillardan farq qilsada, ularga asoslanadi.

Metodlar xilma-xilligiga qarab, turli mezonlar asosida klassifikatsiya qilinadi. Eng avvalo, ma'naviy, g'oyaviy (shuningdek, ilmiy) va moddiy, amaliy faoliyat metodlarini ajratmoq lozim.

Falsafa metodlarining asoslari bevosita amaliy faoliyat bilan bog'liq. Fan tarixida metodlar yangi nazariyalarni yaratish jarayonida shakllanadi. yangilik yaratish san'ati yangiliklar jarayonida kamol topadi. Dastlabki tadqiqot tajribada shakllanar ekan, metod tadqiqotning boshlang'ich nuqtasi, amaliyot bilan nazariyani bog'lovchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Metod va nazariyaning uzviy aloqasi ilmiy qonunlarning metodologik rolida o'z aksini topadi. Har qanday fanga oid qonun insonni voqeliqdagi narsa va hodisalarni shu fanga mansub sohaga mos fikrlashga undaydi. Masalan, energiyaning saqlanish qonuni bir vaqtning o'zida metodologik tamoyil bo'lib, y oliy nerv faoliyatining reflektorlik nazariyasi, hayvonlar va inson axloqini tadqiq qilishning metodlaridan biri hamdir.

Ilmiy tadqiqot jarayoni tarixan ishlab chiqilgan metodlar asosida amalga oshiriladi. Hech kim hech qachon haqiqatni yo'qdan bor qila olgan emas. Albatta, olim izlanishlar, xatolar qurshovida harakat qiladi. Ba'zi hollarda bir narsani izlash jarayonida butunlay boshqa narsa yaratiladi.

Fanda, ko'p hollarda tanlangan metod tadqiqotning taqdirini hal qiladi. Aynan bir daliliy materialni turli metodlar asosida o'rganish ziddiyatli xulosalarga olib kelishi mumkin. Ilmiy bilishdagi to'g'ri metodni xarakterlar ekan, F.Bekon uni yo'lovchining yo'lini yorituvchi chiroq bilan qiyoslaydi. Noto'g'ri yo'ldan bora turib, y yoki bu masalani hal qilishda muvaffaqiyatga erishishga umid qilish mumkin emas. Зepo nafaqat natija, balki unga eltuvchi yo'l ham to'g'ri bo'lmog'i lozim.

Metod o'z-o'zidan tadqiqotning muvaffaqqiyatli bo'lishini ta'minlay olmaydi, chunki nafaqat yaxshi metod, balki uni qo'llash mahorati ham muhimdir. Ilmiy bilish jarayonida turli metodlardan foydalaniladi. Umumiy darajasiga ko'ra, ular keng yoki tor ko'lamda qo'llaniladi. Har qanday fan o'z predmetini o'rganishda y yoki bu ob'ektning mohiyatidan kelib chiquvchi turli xususiy metodlardan foydalanadi. Masalan, ijtimoiy jarayonlarni o'rganish metodi olamning ijtimoiy shakli, uning qonuniyatlari, mohiyatining xususiyatlari bilan belgilanadi.

Turli konkret vazifalarni hal qilishning zaruriy shartlaridan biri universal xususiyatga ega bo'lgan umumiy falsafiy metodlarga murojaat qilishdir. Bu metodlar haqiqatni anglashda umumiy yo'lni ko'rsatadi. Mazkur metodlarga falsafaning qonun va kategoriyalari, kuzatish va tajriba, taqqoslash, analiz, sintez, induktsiya, deduktsiya va h.k.lar taalluqli. Agar maxsus metodlar ob'ektning qonuniyatlarini o'rganishning xususiy usullari sifatida namoyon bo'lsa, falsafiy metodlar shu ob'ektlarda namoyon bo'ladigan, alohida xususiyatlardagi harakat,

taraqqiyotning eng umumiy qonuniyatlarini o'rganadi. Aynan shu o'rinda tajriba hal qiluvchi ahamiyatga ega. Har bir metod ob'ektning alohida tomonini bilishga imkoniyat yaratadi. Metodlar umumiylik darajasi va amal qilish doirasiga ko'ra bir necha guruhga bo'linadi. Ular: *fan metodlari xususiy ilmiy metodlar umumilmiy tadqiqot metodlari Fanlararo tadqiqot metodlari, falsafa metodlari, Ijtimoiy-gumanitar fanlar metodlari kabilardir***.** Quyida ularning mazmunini tahlil qilamiz.

Fan metodlari – *ma'lum fan tarmog'iga kiruvchi yoki fanlar tutashgan joyda vujudga kelgan muayyan fan sohasida qo'llaniladigan usullar tizimi.* Har bir fundamental fan, mohiyat-e'tibori bilan, o'z predmetiga va o'ziga xos tadqiqot usullariga ega bo'lgan sohalar majmuidir.

Fan metodlarining guruhlarga bo'linishi bir nechta asoslarga ega. Bilish jarayonida uning roli va o'rni nuqtayi nazaridan: formal, empirik, nazariy tadqiqot, izohlash, shuningdek, boshqa metodlarga ajratish mumkin. O'z navbatida, bilishning sifat va son, bilvosita va bevosita original hamda faoliyatli metodlari ham mavjud. Metodlarni tanlash va turli metodik tadqiqot faoliyatida qo'llash o'rganilayotgan hodisa tabiati va qo'yilgan vazifalar bilan xarakterlanadi.

Xususiy ilmiy metodlar – *materiya harakatining asosiy shakliga mos bo'lgan muayyan fanda qo'llaniladigan bilish usullari, tamoyillari, tadqiqot usullari va tartib-taomillari majmui.* Mexanika, fizika, kimyo, biologiya va ijtimoiy-gumanitar fanlarning metodlari shular jumlasidandir. Xususiy fanlar metodlarining o'ziga xos xususiyatlari moddiy ifodasini topgan bilish vositalari: mikrofizikada zarralarni tezlatgichlar, tibbiyotda a'zolar faoliyatini qayd etuvchi turli o'lchagichlar va shu kabilar hozirgi zamon metodologik tadqiqotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi

Umumilmiy tadqiqot metodlari *falsafa bilan maxsus fanlarning fundamental nazariy-metodologik qoidalari o'rtasida o'ziga xos «oraliq metodologiya» bo'lib xizmat qiladi.* Umumilmiy tushunchalar qatoriga ko'pincha «axborot», «model», «tuzilma», «funksiya», «tizim», «element», «oqilonalik», «ehtimollik» singari tushunchalar kiritiladi.

Birinchidan, bir qancha xususiy fanlar hamda falsafiy kategoriyalarning alohida xossa, belgi va tushunchalari umumilmiy tushunchalarning mazmuniga «singdirib» yuborilganligi, ikkinchidan, (falsafiy kategoriyalardan farqli o'laroq) matematik nazariya va simvolik mantiq vositalari bilan ularni formallashtirish, ularga aniqlik kiritish mumkinligi umumilmiy tushunchalarning o'ziga xos jihatlaridir.

Agar falsafiy kategoriyalar umumiylikning mumkin bo'lgan eng yuqori darajasi – muayyan umumiy darajani o'zida mujassamlashtirgan bo'lsa, umumilmiy tushunchalarga ko'proq umumiy abstrakt (bir xil) daraja xoski, bu ularni abstrakt-formal vositalar yordamida ifoda yetish imkonini beradi. Falsafaning asosiy masalasini (to'la hajmda) yechishda «ishtirok yetish» sharti muayyan «tafakkur shaklini yaratish»ning «falsafiyligi», «dialektikligi» darajasini aniqlashning muhim mezonidir.

Umumilmiy tushuncha va kontseptsiyalar asosida bilishning tegishli metodlari, tamoyillari ta'riflanadi, ular esa, o'z navbatida, falsafaning maxsus ilmiy bilim va uning metodlari bilan oqilona o'zaro aloqasini ta'minlaydi. *Umumilmiy metodlar qatoriga tizimli va strukturaviy-funktsional, kibernetik, ehtimoliy yondashuvlar, modellashtirish, formalizatsiya hamda boshqalar kiradi*.

Umumilmiy tushunchalarning muhim roli shundan iboratki, ular o'zining «oraliq xususiyati» bilan falsafiy va alohida ilmiy bilimning (shuningdek tegishli metodlarning) o'zaro o'tishini ta'minlaydi. Gap shundaki, birinchi bilim ikkinchi bilimga sof yuzaki tarzda, bevosita o'tmaydi. SHuning uchun ham maxsus ilmiy mazmunni darhol falsafiy tushunchalar tilida ifodalashga urinishlar, qoida tariqasida, nokonstruktiv va samarasiz bo'ladi.

Fanlararo tadqiqot metodlari*–asosan fan sohalari tutashgan joyda amal qiladigan (metodologiyaning turli darajasi elementlarini birlashtirish natijasida yuzaga kelgan) bir qancha sintetik va integrativ usullar majmui.* Mazkur metodlar kompleks ilmiy dasturlarni amalga oshirishda keng qo'llaniladi.

Falsafa metodlari. Falsafaning eng qadimgi keng tarqalgan metodlardan biri dialektika bo'lsa, ikkinchisi metafizikadir. Biroq falsafa metodlari bular bilan cheklanmaydi. Bugungi kunda uning sofistika, eklektika, analitik, (hozirgi zamon analitik falsafasi), intuitiv, fenomenologik, sinergetik, germenevtik (tushunish) va boshqa turlari ham mavjud. Endilikda turli metodlarni birlashtirish jarayoni ham ro'y bermoqda (masalan, Gadamer germenevtikani ratsional dialektika bilan birlashtirishga harakat qiladi).

Dialektika (yunon. dialektika — bahs, suhbat) tabiat, jamiyat va bilish taraqqiyoti qonuniyatlari hamda ularning asosida shakllanadigan umumiy tafakkur uslubi va amaliy faoliyat haqidagi ta'limotdir. U grek tilida bahs va suhbatlashish san'ati, degan ma'noni anglatadi. Antik dunyo faylasuflari uni haqiqatga erishish yo'li va usuli sifatida talqin etganlar. Hozirgi davrga kelib dialektika olamdagi narsa va hodisalar doimo o'zgarishda, o'zaro aloqadorlik va bog'liklikda, taraqqiyot va rivojlanishda, deb tushunishga asoslanadi

Falsafa tarixida dialektika to'g'risida xilma-xil qarashlar bo'lgan. Antik davr dialektikasi sodda va stixiyali bo'lib, asosan, hayotiy tajribaga asoslangan. O'sha davrda "Dialektika" so'zini birinchi bo'lib, Sukrot (er.av. 469—399 y.) o'z falsafiy faoliyatida qo'llagan. Suqrot dialektikani mayevtika (harflarni yaratish san'ati) bilan taqqoslagan. Zotan, mulohaza qilish shunday dialektik usuldirki, uning natijasida raqib nutqidagi ichki ziddiyatlar ochiladi yoki fikrlash jarayonida yangi ixtilofli fikr-mulohazalar paydo bo'ladi. Suqrot boshqalarni haqiqatni izlashga da'vat etar ekan, o'z onasi doya Fenareti ishini davom ettirayapman, deb izohlaydi.

"Dialektika" so'zi paydo bo'lishiga qadar antik falsafada mazmuniga ko'ra dialektik bulgan nazariyalar shakllana boshlagan. O'tmish mutafakkirlar o'z vaqtida dunyoning yagona birligi sokinlik, bu bir butunlik ichida doimiy uzluksiz o'zgarishlar, yaratish jarayoni sodir bo'luvchi koinot haqidagi fikrlarni ilgari surganlar. , olovning efirga aylanishi va qayta takrorlanishi bilan xarakterlanadi, deb hisoblaganlar.

Masalan, Geraklit (er.av 540—483 y.) umumiy o'zgaruvchanlikning universalligini shunday izohlaydi: "Ariqda oqayotgan muayyan suvga ikki marta tushib bo'lmaydi, chunki yangi va yangi suvlar oqib kelaveradi. O'zgaruvchanlikning manbai kurashdir"[52]. O'zgaruvchanlik antik dialektik nazariyada yangini yaratmasdan bir-birini takrorlovchi jarayon sifatida mavhum tushunilgan. Aynan shundan biri ikkinchisini taqozo qiluvchi dunyoning yagona birligi sifatida cheksiz koinot obrazi yaratilgan. SHunga ko'ra, Geraklit ziddiyatlarning ayniyligini yaxshilik va yomonlikning bir xil ekanligini ta'kidlaydi, Bu mutafakkir ijodining qonuniy natijasi bo'lib, u reallikning nazariy modelini yaratadi. Geraklit ziddiyatlar haqida gapirmaydi, bu tushuncha fanga Aristotel tomonidan kiritilgan, Aristotel (Arastu) (er.av. 384—322 y.) Aflotun ta'limotini tanqidiy o'rganar ekan, o'zgaruvchanlik muammosini taraqqiyot omili sifatida tahlil qiladi. Uning dialektikasiga xoc alohida xysusiyatlar, avvalo, taraqqiyotni moddiylik, harakatda, formal va sababiy bog'lanishdaligini tan olishda, yangi bosqichni boshqalari bilan bog'liq emas, deb tushunishda yaqqol ko'rinadi. Ikkinchidan, Aristotel ziddiyatlar bilan bog'liq bo'lgan muammolar doirasini yaratadi. Ziddiyatlarning mutlaq mos kelishini inkor qilar ekan, mutlaqo mos kelmasligini ham inkor qiladi, biroq ularning qandaydir holatida mavjudligini tan oladi. Uchinchidan, Aristotel formal mantiqqa acoc solar ekan, uning ontologiyada namoyon bo'lishi va u esa, o'z navbatida, mazmunan progressiv, shaklan mukammal falsafiy metodni yaratish zarurligiga olib keladi, deb hisoblaydi. To'rtinchidan, Aristotel o'sha davrdayoq bu asosiy falsafiy metodning yo'nalishini belgilab beradi.

Dialektik metod yangi davrda, xususan, nemis falsafasida, ayniqsa, Kant, Fixte, SHelling va Gegel tomonidan yanada chuqurroq tahlil qilingan.

YAngi davrning o'ziga xoc xususiyati shundaki, bu davrga kelib taraqqiyotga yangicha munosabat shakllandi. Dialektik metod predmetlarda emas, balki munosabatlarda o'z aksini topa boshladi. Bu cheksizlik haqidagi g'oyani qayta ishlash bilan bog'liq edi. CHeksizlik g'oyasining yangicha talqini paradoksal nazariya shaklida namoyon bo'ldi. Bu Kantning planetar sistemalarning tumanlikdan paydo bo'lganligi haqidagi gipotezani yaratishi bilan bog'liq. Bilish nazariyasida Kant ikki mulohazaning ziddiyatliligi antinomiyasini ochib tashlar ekan, bunda har ikkalasini yetarli asosga ega, deb hisoblaydi. Masalan: 1. Dunyo vaqtda boshlang'ich nuqtaga ega va vaqtda cheklidir. 2. Dunyo vaqtda boshlang'ich nuqtaga ega emas va vaqtda cheksizdir.

Kant ziddiyatlarga eskicha, ya'ni inson aqlining illyuziyasi sifatida qaraydi. U bu ziddiyatlarni yangi nazariya yaratish jarayonida kashf qiladi, biroq undan qutilish yo'lini ko'rsata olmaydi. Ularga aqlning xatosi sifatida qarash kerakmi? Hissiy idrok qilishda xatoga yo'l qo'yilar ekan, aqlning xatoligidan shubhalanish to'g'rimikan? — degan savollarga javob izlagan Kant aqldagi ziddiyatlarni bartaraf qilish yo'lini topadiki, aynan shu yo'l pozitiv dialektikaning asosi bo'ladi. Bunda inson aqli o'zgaruvchanligining tarixiyligi tan olinadi, aqlning xatosi esa, tarixiy asosga ega bo'lib, u taraqqiyotning cheksizligi, bilish jarayonini to'g'ri tushunish qobiliyatiga ega emas. Kant dialektika metodidan yangicha foydalanish imkoniyatini ko'rsatdi, taraqqiyot muammosini yangicha qo'yish va hal qilish zaruriyatini e'tirof etdi. Taraqqiyotning yangi nazariyasini Kant sub'ekt aqlining dialektik xarakteri bilan bog'laydi va sub'ektiv dialektikani asoslab beradi.

Dialektika taraqqiyotining keyingi imkoniyatlari Gegel falsafasida o'z ifodasini topdi.

Gegel dialektikani falsafa taraqqiyotining umumiy nazariyasi sifatida asoslab bergan. Ma'lumki, o'rta acp ratsionalizmi tajribaning ahamiyatini va nazariyaning empirik paydo bo'lishini tan olishi bilan xarakterlanar edi. Gegel fikrlari boshqacha xarakterga ega. U falsafa o'z xususiyatlarini asoslovchi metodga ega bo'lmas ekan, fan bo'la olmaydi, deb hisoblaydi.

Gegel dialektik metodni mukammallashtirish mumkinligini va u yagona haqiqiy metodligini ta'kidlaydi. Falsafa metodi tabiat va ruh taraqqiyotini ifodalovchi fikr harakatiga adekvat bo'lishi lozim. Gegel o'z metodida shunday adekvatlikka erishilganligiga ishonadi. Gegel dialektikasini tushunish uchun dastavval, gegelcha dialektikaning rezonans, salbiy, pozitiv dialektika kabi shakllarini tahlil qilish lozim.

Rezonans (sub'ektiv) dialektika — sub'ekt tafakkuri bo'lib, u predmetdagi ziddiyatlarni ifodalaydi, biroq mavjud ziddiyatlardan ilgarilab ketadi. Sub'ekt faqat buni izohlash bilan kifoyalanadi, xolos.

Salbiy (ob'ektiv) dialektika rezonans dialektikadan ba'zi ustuvorlikka ega, chunki u boshlanishidan ancha ilgariroq harakat qiladi. "U tomon", "Bu tomon" kabi izohlashlar mutlaq butunlikni inkor qiladi. Salbiy dialektika mustahkam narsalarni sindirishga intiladi. Uning kuchi aynan shundadir. Ojizligi esa, ularning o'zidagi cheklanganlikni izohlar ekan, judayam kam maqsadga erishiladi. Uning natijasi nol, salbiy, tasdiqlash unda hali namoyon bo'lgan emas.

Dialektikaning rezonans va salbiy shaklidan farq qiluvchi yuqoriroq shakli ichki (immanent) dialektikadir. Bu nafaqat rezonans va inkor qiluvchi, balki yaratuvchi dialektikadir. CHunki *immanent dialektika predmetning immanent harakat birligidagi taraqqiyot mantig'i sifatida namoyon bo'ladi.* SHunga binoan, fan predmetni immanent o'rganadi. Predmetni immanent o'rganmoq nima? Bu mazmunni sof tushunchada isbotlamoq, ya'ni predmetning mohiyatini isbotlamoqdir. Gegel fikricha, dialektik ziddiyatlar — ruhning ziddiyati. Pirovard natijada mazkur ziddiyatlar real borlikdagi ziddiyatlarni aks ettiruvchi sub'ekt tafakkuridagi ziddiyatlar bo'lib, Gegel uni g'oyaning o'z-o'zini namoyon qilishidagi ziddiyatlar sifatida aks ettiradi. Gegel fikricha, dialektika mutlaqlikdan boshlanadi va u bilan tugaydi. Dialektik nuqtai-nazardan faqat mutlaqlik real bo'lishi mumkin. SHuning uchun, Gegel dialektikasi mutlaq aql faoliyatining nazariyasi, mantig'i va metodi sifatida namoyon bo'ladi. Ta'kidlash

[52] Гераклит // История философия Энсиклопедия – Минск : 2002. –с.238.

joizki, idealistik dialektika bo'lgani singari materialistik dialektika ham bor. U moddiylikning yashash tamoyillari, kategoriyalar va qonunlarining yagona, bir butun tizimini ifodalaydi.

"Metafizika" (yunon.— fizikadan keyin) - dialektika kabi universal metoddir. Bu so'z ilmiy muomalaga er. av. I asrda Aristotelning shogirdi, uning she'rlari sharhovchisi Rodosskiy tomonidan kiritildi. Mutafakkir asarlarini bir tizimga solar ekan, u borliq va bilish haqidagi umumiy masalalarni fizikadan so'ng "birinchi falsafa"ning (mohiyat, sabab va boshqa) ikkinchi falsafadan farqli xususiy-ilmiy bilimlarni o'rganadigan qismi sifatida talqin qilgan.

Ko'p hollarda, dialektikaga qarama-qarshi deb talqin etiladigan *metafizika olamdagi narsa va hodisalarni o'rganishda ularning muayyan vaqt davomida nisbatan o'zgarmasdan, alohida turgan holatiga diqqatni ko'proq qaratadigan usuldir*.

Hozirgi davr fanida metafizika uch asosiy ma'noga ega:

1. Falsafa umumiy hodisalar haqidagi fandir. Bu ta'limotning asoschisi Aristotel bo'lib, u "narsaning birinchi turi" haqidagi ta'limotdir. Bu ma'noda, "metafizika" tushunchasini XX acpning yirik nemis faylasufi M. Xaydegger ham o'rganadi. Uningcha, bu kategoriya bilishning ob'ekti va sub'ektini bir vaqtda ifodalovchi tushunchadir.

2. Maxcyc falsafiy fan ontologiya, umuman, borliq haqidagi ta'limot bo'lib, nazariya bilish mantig'i va uning xususiy ko'rinishlaridan mustasnodir. SHu ma'noda, bu tushuncha G'arb falsafasida o'tmishda ham (Dekart, Leybnits, Spinoza va h.k.), hozirda ham keng qo'llaniladi.

3. U bilish (tafakkur) va harakatni falsafiy tushunish ma'nosida dialektikaga qarama-qarshi qo'yiladi. Bunda shu ma'nodagi tushuncha, ya'ni antidialektika haqida so'z boradi. Uning eng asosiy xususiyatlaridan biri bir tomonlamalik bilish jarayonining faqat bir qismini mutlaqlashtirishdir.

Falsafa tarixida metafizika (dialektika kabi) hech qachon o'zgarmasdan qolmagan. U turli tarixiy shakllarda namoyon bo'lgan.

Eski metafizika XVII—XIX acp falsafasi va fanida ayniqsa kamol topdi (metafizik materializm, naturfalsafa, falsafa tarixi va h.k.) *Metafizikaning bu shakliga xoc xususiyat umumiy o'zaro aloqadorlik va taraqqiyotni inkor qilish, olamga bir butun tizimli yondashuvning yo'qligi, tafakkurning ikkilanuvchanligi, umumiy dunyoviy aloqadorlikning tugaganligiga ishonishdir.*

Eski metafizik tafakkur uslubi shakllanishining ob'ektiv asoslari butunning alohida elementlari xususiylikni, alohida tomonlar (fikran) nima uchun bir butunlikdan ayri holda bo'lishi va bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan holda rivojlanishini tushuntirish zaruriyatidir. Bu usul kundalik turmushda, aql darajasida, predmet taraqqiyotidagi aloqa munosabatlarda zarur va to'g'ridir. SHuning uchun metafizikaning bu shakli predmetlardagi barqarorlikni, ulardagi o'zgarishlarni tizimli o'rganish, taraqqiyotning manbalari va mexanizmlarini aniqlash bilan bog'liq.

XIX—XX acplarda eski metafizikadagi keskin kurashda taraqqiyot g'oyasining yangi dalillar bilan mustahkamlanishi ikki muhim natijaga olib keldi: dialektik tafakkurning yangi uslublari paydo bo'ldi; XX asrda eski metafizikaning ilmiy dalillarini inkor qiluvchi yangi metafizika shakllandi.

Yangi metafizika *eski metafizikadan farqli o'laroq, narsalarning umumiy aloqadorligini va ular taraqqiyotini inkor qilmaydi.* Bu fandagi va jamiyatdagi buyuk kashfiyotlar davrida absurddir. Antidialektika Yangi shaklining asosiy xususiyati — taraqqiyotni izohlashning turli variantlari va yo'llarini izlashdan iborat.

Buni quyidagi yo'nalishlarda tushunish mumkin:

a)eng umumiy, abadiy o'sish, o'zgarish yoki aksincha kichrayish (tekis evolyutsionizm) tarzida;

b)xuddi sifat o'zgarishlari kabi sakrashlar zanjiri (katastrofizm) shaklida;

v)takrorlash sifatida qat'iy liniyali yo'nalishga ega bo'lgan doimiy jarayon (to'g'ri chiziqli rivojlanish) holatida;

g)hech qanday Yangiliklarsiz aylana doirasidagi abadiy harakat ko'rinishida;

d)mohiyatidan ziddiyat kelib chiquvchi harakat sifatida;

e)progress sifatida, ya'ni oddiydan murakkabga, pastdan yuqoriga intilish tarzida. Taraqqiyotning o'zaro aloqadorlik va ta'sirning boshqa aralash izohlari ham bo'lishi mumkin.

Metafizikaning turlari har xil asoslar, mezonlar bilan farqlanishi mumkin. Bilishning metafizik metodi — byurokratizm, konservatizm, volyuntarizm va h.k. amaliy faoliyatning boshqa bir tomonlama harakatlari tarzida namoyon bo'lishi ham mumkin.

Bilimning metafizik usullari turlicha bulib, idealizm, sensualizm, ratsionalizm, empirizm, dogmatizm, relyativizm va boshka shakllarda namoyon bo'lib, bilimning alohida shakllari natijalarini mutlaqlashtirish jarayonida paydo bo'ladi.

Sofistika. Sofistika falsafiy metodlar jumlasidan bo'lib, qadimgi Yunonistonda mil. av. V va IV asrning birinchi yarmida ijtimoiy-siyosiy hayotda xususiy bir yo'nalish sifatida paydo bo'lgan. Sofistika namoyandalari Protagor, Gorgiy, Gippiy, Antifont va boshqalardir. Sofistikaning paydo bo'lishi antik Yunonistonda iqtisodiy taraqqiyotga bo'lgan ehtiyoj bilan bog'liq. Bu oila urug' an'analaridagi turg'unlikni bartaraf qilish, Yangi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarga ehtiyoj davri edi. Sofistikaning inqirozi eramizdan avval IV acp o'rtalarida boshlandi. Eramizning II asrida klassik yunon sofistlarining g'oya va uslublarini qayta ishlashga intiluvchi Yangi oqim paydo bo'ldi.

Sofistika mavjud nazariya va ma'lumotlarni saqlashga intiladi. U Yangi fikr eski fikrning bir qismi ekanligini asoslashga yoki mantiq qonunini tuzib, mavjud bilimlar tizimini barcha ziddiyatlardan tozalashga harakat qiladi. Bu metoddan semantik va mantiqiy qonunlarda istalgan narsani isbotlash uchun foydalaniladi. Ko'pgina darslik va qo'llanmalarda bu ibora yunon tilidagi "sopism" so'zi asosida, ya'ni ataylab xilma-xil ma'noga ega bo'lgan

tushunchalarni ishlatish orqali kerakli, ammo haqiqatga to'g'ri kelmaydigan, ko'chma ma'no-mazmunga erishish usuli, deb ta'kidlanadi. Bu usul qo'llanilganda fikrning mazmuni ko'chma ma'noda bayon qilinadi, ya'ni "Qizim, senga aytaman, kelinim, sen eshit ", deganga o'xshash holat nazarda tutiladi. U, nafaqat, kadimgi Yunoniston, balki o'pta asrlarda Yevropada ham keng tarqalgan. Agar bu usul Yolg'on xulosalarga olib kelsa, nega o'z davrining ko'pgina dono kishilari undan foydalanganlar, degan savol tug'ilishi mumkin. Ma'lumki, insoniyat tarixida hurfikrlilik va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga munosabatni to'g'ri ifodalashning iloji qolmagan zamonlar ko'p bo'lgan. Bunday holni inkvizitsiya hukmron bo'lgan o'pta asrlar Yevropasiga ham tatbiq yetish mumkin. O'sha davrda ham ko'pgina ziyolilarning ana shu usulga suyanmasdan iloji yuq edi. Umuman olganda, falsafada "do'ppi tor kelib qolgan" ana shunday zamonlarda fikrni Gulxaniyning mashhur "Zarbulmasal" acapi kabi ifodalash hollari uchrab turadi. Buni o'rta asrlar Yevropasiga nisbatan olsak, unda Servantesning "Don Kixot" acapi nima sababdan shunday yozilganligi, uning bosh qahramoni esa nima uchun shamol tegirmonlariga qarshi jang qilganligi va bu lavhalar zamirida qanday botiniy mazmun yashiringani aniq bo'ladi.

Sofizm — qarama-qarshi fikrlar asosida ixtiyoriy tanlangan foydali mulohaza bo'lib, uning yordamida har qanday narsa yoki fikrni isbotlay olish mumkin. Masalan, Aristotelning yozishicha, bir afinalik ayol o'g'liga, jamoa ishlariga aralashma, chunki agar to'g'ri gapirsang, seni odamlar; Yolg'on so'zlasang — Xudolar yomon ko'radi, degan ekan. Sofizmga ko'ra afinalik ayolga shunday rad javobi berish mumkin: sen jamoa ishlarida ishtirok qilishing kerak, chunki to'g'ri so'zli bo'lasan va buning uchun seni Xudolar ham, odamlar ham yaxshi ko'radi.

Sofistika mavjud bilimlar tizimidan ziddiyatlarni siqib chiqaradi, bu bilan eski va Yangi bilimlarni murosaga keltiradi. Sofistika inson bilimi doirasida cheksiz relyativizmni ulug'laydi. Predmet haqida har narsa deyish mumkin. Qanday maqsad ko'zlanmasin, so'zlar ifodasida hech qanday chegara yo'q (masalan, asal — shirin; asal — achchiq; qo'rg'on — aylanasimon, qo'rg'on — to'rtburchak va h.k.) shunga ko'ra sofist — mohir usta, so'zamol donishmand ma'nolarini anglatadi.

Eklektika. Eklektika hech qanday bilim faoliyati bilan bog'lanmagan, bir-biriga zid dalillarga asoslanadi va olamni buzib Yolg'on aks ettiradi. U bilim tizimi rivojidagi yo'nalish, u hech qanday yagona nazariy asosga ega emas va ba'zida ob'ektni o'rganishning ziddiyatli jihatlarini xarakterlovchi bilim elementlaridir.

Metodologik usul sifatida eklektika birinchi marta qadimgi yunon falsafasida paydo bo'ldi va iqtiboslarga asoslangan o'rta acp sxolastik bahslarida, Yangi davr XV-VIII asrlar falsafiy bahslarida keng foydalanildi. U hozirgi davrda ham reklama va tashviqotda, ommaviy kommunikatsiya tizimida qo'llanilib, inson psixikasidagi an'analar, ko'nikmalar, intilishlarni bo'rttiradi. Bunday usulning bema'niligini Suqrot va Aristoteldan boshlab, hozirgi davr mutafakkirlarigacha tanqid qiladilar. Ammo bu undan foydalanilmaslikni anglatmaydi. Eklektika olam, narsa va hodisalarning bir butunligini, umumiy asoslarini parchalab tashlash uslubiga tayanadi.

Sinergetika. Hozirgi zamon fanida sinergetika metodi keng qo'llanilmokda. Sinergetika so'zi yunoncha ("sinergena") bo'lib, kelishuv, hamkorlik, o'zaro ta'sir kabi ma'nolarni anglatadi. German Xakenning fikricha, sinergetika ko'p qismlardan iborat bo'lgan, o'zaro murakkab aloqadorlikdagi komponentlar tizimini o'rganadi. Xaken fikricha *sinergetika hamkorliqdagi harakat bo'lib, butunning tizim sifatida aks etuvchi qismlarining kelishilgan faoliyati ma'nosida talqin qilinadi*.

Barcha ta'limotlar paydo bo'ladi, rivojlanadi va, nihoyat, eskiradi. Xaken sinergetikasi ham vorisiylikka asoslangan. Uning davomi bo'lgan I.SHerringtonning sinergetik uslubi, C.Ulamning sinergiyasi, I.Zabusskiyning sinergetik yo'nalishlari ana shular jumlasidandir.

I.SHerrington sinergetik yoki integrativ tafakkurni muskullar harakatining boshqaruvida (orqa miya) asab sistemasidagi kelishilgan ta'sirni izohlash usulidir, deb tushunadi. S.Ulam esa, EHMning birinchi avlodi vakillaridan biri bo'lib, u sinergiyaning, ya'ni mashina va uning operatori orasidagi uzluksiz hamkorlikning foydaliligi, ahamiyatining hozirgi davrdagi ta'siriga e'tiborni qaratadi.

I.Zabusskiy 60-yilning o'rtalarida liniyasizlik masalalarini hal qilishda analitik jihatdan cheklanganlik bir yoklamalikka yo'l ochganligini ta'kidlaydi. Liniyasiz matematika va fizika masalalarida sinergetika usulining tatbiq etilishini odatdagi matematika hisoblash mashinasining faoliyatini tahlil qilish bilan qiyoslaydi.

Hozirgi davrda I. Prigojinning sinergetika to'g'risidagi fikrlari ham ko'pchilikning e'tiborini tortmokda.

Yuqoridagi barcha holatlarda uzluksiz harakat haqida so'z boradi. Sinergetika orqali sodda tizimlardan murakkablarini yaratuvchi o'lik tabiatdagi o'z-o'zidan harakatning tamoyili shakllandi. Sinergetika bilan fizikada evolyutsion yo'nalish paydo bo'ldi va fan ijodkorlikdan Yangilik yaratish tushunchasi tomon rivojlandi. Sinergetika fanning makroskopik darajalariga tasodifiylikni kiritdi va bu bilan mexanika metodlarini makroskopik darajaga, ya'ni mikrodunyo masalalariga tatbiq qildi. Sinergetika nisbiylik nazariyasidagi energiya va narsaning o'zaro bir-biriga o'tishini tasdikdaydi va narsalarning paydo bo'lishini o'ziga xoc tarzda izoxlaydi. U biz yashayotgan makrosistemalar qanday paydo bo'lganligi masalasini hal yetishga harakat qiladi.

Sinergetika nazariyasida energiya kristall sifatida qotib koladi va kinetiklikdan potentsiallikka aylana boshlaydi, deb talqin qilinadi. Bunga ko'ra, narsa qotib qolgan energiyadir. Energiya faoliyatning ishlab chiqarish qobiliyatini xarakterlovchi tushuncha, lekin hozirda energiya nafaqat mexanik faoliyat, balki Yangi strukturalarni yaratuvchisi sifatida ham o'rganilmoqtsa. Sinergetika tabiatdagi evolutsiya nimaning hisobiga sodir bo'lishi mumkinligini asoslaydi. Barcha Yangi strukturalar yaratilayotgan joyda energiyaning kuchli to'lqini va muhit bilan almashinuv zarur (evolutsiya hayot kabi), metabolizmni talab qiladi. Agar osmon jismlari evolutsiyasida biz ishlab chiqarishning natijasini kuzatsak, sinergetika tabiatni yaratish jarayonini o'rganadi. Sinergetika nisbiylik nazariyasining xulosalarini tasdiklaydi: energiya olamning yanada yuqoriroq darajalarini yaratadi.

Xullas, sinergetika — olamning o'z-o'zini tashkil yetishi, makon va vaqtda narsa va voqealarning azaliy ketma-ketligi, o'zaro aloqadorligi, ularning muayyan tizimlardan iborat sababiy bog'lanishlar asosida mavjudligini e'tirof yetishga asoslangan ilmiy qarashlar majmuidir. Bu ta'limotni dialektika asosida shakllangan va uni to'ldiradigan ilmiy qarashlar majmuasi deydiganlar ham bor. Ularga qarshi o'laroq, dialektika endi kerak emas, uni sinergetika bilan almashtirish lozim, deb hisoblovchilar ham yo'q emas.

Sinergetikada bifurkatsiya, fluktuatsiya, tartibsizlik, dissipatsiya, g'alati attraktorlar, chiziqsizlik singari tushunchalar mashhur. Ulardan tizimlar barcha turlarining, jumladan old organizmik, organizmik, ijtimoiy, etnik, ma'naviy va boshqa tizimlarning xulq-atvorini tushuntirish uchun foydalaniladi.

Bifurkatsiya *ikkilanish nuqtalarining mavjudligini hamda rivojlanish davomining har xilligini nazarda tutadi*. Ularning faoliyati natijalarini oldindan bashorat qilish qiyin. I. Prigojinning fikriga ko'ra, bifurkatsiya jarayonlari tizimning murakkablashuvidan dalolat beradi. N. Moiseevning fikricha, «ijtimoiy tizimning har bir holati bifurkatsiya holatidir».

Fluktuatsiyalar *umumiy holda ta'sirlantirishni anglatadi. Ularning ikki katta turkumi: tashqi muhit yaratadigan fluktuatsiyalar va tizimning o'zida vujudga keladigan fluktuatsiyalar farqlanadi.* Ba'zan fluktuatsiyalar juda kuchayib, tizimni to'la egallab olishi va mohiyat e'tibori bilan uning mavjudlik tartibini o'zgartirib yuborishi mumkin. Ular tizimni unga xos bo'lgan «tartib turi»dan olib chiqadi, ammo xaosga olib chiqadimi yoki yo'qmi[53] – bu masalaning boshqa tomoni.

Dissipativ tizim *ta'sirlar tarqaladigan tizim hisoblanadi. Umuman olganda, bu fluktuatsiyalar to'la qamrab olgan tizim xulq-atvorining xususiyatidir.* Har xil ta'sirlarga o'ta ta'sirchanlik va buning natijasida haddan tashqari nomuvoziylik – dissipativ tizimning asosiy xossasidir.

Attraktorlar *to'plamlarni o'ziga tortuvchi, elementlar intiladigan markazlarni hosil qiluvchi tuzilma*. Masalan, bir erga olomon to'planganida, o'z yo'nalishida harakatlanayotgan odam unga e'tibor bermasdan o'tib keta olmaydi. Uning traektoriyasi olomon tomonga buriladi. Kundalik hayotda bu qiziquvchanlik, deb ataladi. O'z-o'zini tashkil yetish nazariyasida mazkur jarayon «to'planish nuqtasiga siljish» deb nomlanadi. Attraktorlar o'z atrofiga stoxastik elementlarni to'playdi, shu tariqa muhitni tuzilmalarga ajratadi va tartib o'rnatish ishtirokchisiga aylanadi.

Dunyoning postnoklassik manzarasida tartiblilik va tuzilmalarga ajratilganlik tartibsizlik va stoxastiklik singari voqelikning ob'ektiv, universal xususiyatlari, deb e'tirof etilgan. Ular rivojlanishning barcha strukturaviy darajalarida namoyon bo'ladi. Nomuvoziy tizimlarning nomuntazam xulq-atvori muammosi sinergetikaning diqqat markazida turadi. Sinergetika – strukturogenezning eng umumiy qonuniyatlarini aniqlashni o'z predmetiga aylantirgan o'z-o'zini tashkil yetish nazariyasidir.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar metodlari. *Ijtimoiy-gumanitar fanlarda kuzatish natijalari ko'p jihatdan kuzatuvchining shaxsiga, uning hayotiy qarashlariga va boshqa sub'ektiv omillarga bog'liq bo'ladi.* Mazkur fanlarda oddiy (faktlar va hodisalar chetdan turib qayd etiladi)) kuzatish va ishtirokchilikka asoslangan ichdan turib(bunda tadqiqotchi ma'lum ijtimoiy muhitga qo'shiladi, unga moslashadi va hodisalarni «ichdan» tahlil qiladi) kuzatish farqlanadi. Psixologiyada kuzatishning o'z-o'zini kuzatish (introspektsiya) va empatiya (boshqa odamlarning ruhiy kechinmalariga kirib borish, ularning ichki dunyosi–sezgilari, fikrlari, xohish-istaklarini tushunishga intilish va h.k.) farqlanadi.

Etnometodologiya *ichdan turib kuzatishning turlaridan biri bo'lib, u ijtimoiy hodisa va voqealarni tavsiflash hamda kuzatish natijalarini ularni tushunish g'oyalari bilan to'ldirishni nazarda tutadi*. Mazkur yondashuv hozirda etnografiya, ijtimoiy antropologiya, sotsiologiya va kulturologiyada tobora keng qo'llanilmoqda.

Ijtimoiy eksperimentlar *ular ijtimoiy tashkil yetish va jamiyatni boshqarishni oqilonalashtirishning Yangi shakllarini amalga tatbiq yetishga ko'maklashmoqda.* Ijtimoiy eksperiment ob'ekti odamlarning ma'lum guruhi eksperimentning bevosita ishtirokchilaridan biri bo'lib, ularning manfaatlari bilan hisoblashishga to'g'ri keladi, tadqiqotchi esa o'zi o'rganayotgan vaziyatga bevosita qo'shiladi. Ijtimoiy eksperimentlar tadqiqotchidan axloqiy va yuridik norma va tamoyillarga qat'iy rioya yetishni talab qiladi. Bu erda (tibbiyotda bo'lgani singari) «ziyon etkazma!» tamoyili muhim ahamiyatga ega. Insonning intim dunyosiga kirish quroli bo'lib xizmat qilish - ijtimoiy eksperimentlarning asosiy xususiyati.

SHakllantiruvchi eksperimentda *muayyan ruhiy faoliyat qanday shakllanishini aniqlash uchun tajriba o'tkazilayotgan shaxs turli eksperimental sharoitlarga qo'yiladi va unga ma'lum masalalarni hal qilish taklif etiladi.* Bunda murakkab ruhiy jarayonlarni shakllantirish va ularning tuzilishini yanada chuqurroq tadqiq qilish mumkin. Mazkur yondashuv pedagogik psixologiyada qo'llaniladi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarda falsafiy va umumilmiy vositalar, metod va amallardan tashqari, mazkur fanlarning predmeti bilan bog'liq maxsus vositalar, metod va amallardan ham foydalaniladi. Ularning jumlasiga quyidagilar kiradi:

Ideografik metod–*alohida tarixiy faktlar va hodisalarning o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflash*.

Dialog *(«savol-javob metodi» ikki va undan ortiq kishilr orasidagi muloqot.*

Tushunish va oqilona (intentsional) tushuntirish (bu haqda ushbu bobning keyingi paragrafida batafsil so'z yuritiladi).

Hujjatlarni tahlil qilish–*son va sifat jihatidan tahlil qilish (kontent-analiz).*

---

[53] Моисеев Н. Современний рационализм. -М.: 1995. -С 48.

So’rovlar o’tkazish– *maxsus tayyorlangan savolar yordamida u yoki bu masalaga oid ijtimoiy fikrni aniqlash.* «YUzma-yuz» so’rov (intervyu) yoki sirtdan (so’rovnoma yordamida, pochta, telefon orqali va sh.k.) so’rov o’tkazish, ommaviy va maxsus so’rovlar farqlanadi. Maxsus so’rovlarda professional ekspertlar axborot olishning bosh manbai hisoblanadi.

Proektiv metodlar (psixologiyaga xos)–*insonning produktiv faoliyati natijalariga qarab, uning shaxsiy xususiyatlarini bilvosita o’rganish usuli.*

Testlash *(psixologiya va pedagogikada)–standartlashtirilgan topshiriqlar bo’lib, ularni bajarish natijalari ayrim shaxsiy xususiyatlar (bilim, ko’nikma, xotira, zehn va sh.k.)ni o’lchash imkonini beradi*. Testlarning ikki asosiy guruhi farqlanadi–intellekt testlari (mashhur Q koeffitsienti) va erishilgan (kasbda, sportda va h.k.) natijalar testlari. Testlar bilan ishlashda axloqiy jihat muhim ahamiyat kasb etadi. Zotan, layoqatsiz yoki g’irrom tadqiqotchining qo’lida testlar jiddiy zarar keltirishi mumkin.

Biografik va avtobiografik metodlar *yordamida u yoki bu kishining hayot yo’li o’rganiladi..*

Sotsiometriya metodi–*ijtimoiy hodisalarni o’rganishda matematika vositalaridan foydalanish*. Undan ko’pincha «kichik guruhlar»ni va ulardagi shaxslararo munosabatlarni o’rganishda foydalaniladi.

O’yin metodlari–*boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishda qo’llaniladi*. Imitatsion o’yinlar (ishbilarmonlik o’yinlari) va ochiq o’yinlar (ayniqsa, nostandart) vaziyatlarni tahlil qilishda farqlanadi. O’yin metodlari orasida psixodrama va sotsiodrama alohida o’rin tutadi. Ularda ishtirokchilar muayyan individual va gruppaviy vaziyatlarni ko’rib chiqadilar.

Hozirgi zamon metodologiyasi. «Kumatoid», «case studies», «abduktsiya» tushunchalari an’anaviy metodologik tushunchalar ruhida tarbiyalangan odamga erish tuyulishi mumkin. Ammo, aynan ular metodologiyaning hozirgi rivojlanish bosqichining o’ziga xos xususiyati ilmiy muomalaga mutlaqo Yangi tushunchalarni kiritish bilan bog’liq ekanligini ko’rsatadi. Mazkur tushunchalarning aksariyati muayyan (xususiy) fanlar sohasi bilan bog’liq. Bunday tushunchalar qatoriga hozirda ancha mashhur bo’lgan bifurkatsiya, «fluktuatsiya», «dissipatsiya», «attraktor» tushunchalarini, shuningdek, «kumatoid» (yunoncha–to’lqin) degan innovatsion tushunchani kiritish mumkin.

Kumatoid - *suzayotgan ob’ektni anglatadi va ob’ektlarning tizimli xususiyatini aks ettiradi. U vujudga kelishi, hosil bo’lishi, shuningdek yo’qolishi, parchalanishi mumkin.* U o’zining barcha elementlarini birvarakay emas, balki o’ziga xos «hissiy-o’ta hissiy» tarzda namoyon etadi. Masalan, tizimli ob’ekt–o’zbek xalqini ma’lum vaqt, makon bo’lagida ifoda yetish va mahalliylashtirish mumkin emas. Boshqacha qilib aytganda, ob’ektni yaxlit ifoda yetish uchun o’zbek xalqining barcha vakillarini yig’ish mumkin emas. SHu bilan birga, mazkur ob’ekt soxta emas, realdir. Uni kuzatish, o’rganish mumkin. U butun tsivilizatsion-tarixiy jarayonning yo’nalishini ko’p jihatdan belgilab beradi. yana bir misol–talabalar guruhi. U dam paydo bo’ladigan, dam ko’zdan yo’qoladigan suzuvchi ob’ekt sifatida o’zaro aloqalarning deyarli barcha tizimlarida namoyon bo’ladi. Masalan, o’quv mashg’ulotlari tugaganidan keyin guruh yaxlit ob’ekt sifatida mavjud bo’lmaydi, ammo institutsiyaviy belgilangan ma’lum vaziyatlar (guruh raqami, talabalar soni, guruh tuzilishi, umumiy xususiyatlari)da u ob’ekt sifatida namoyon bo’ladi va o’z-o’zini identifikatsiya qiladi. Bundan tashqari, mazkur kumatoid guruh a’zolari o’rtasidagi do’stlik, raqobat va boshqa munosabatlar bilan ham qo’llab-quvvatlanadi.

Kumatoidning o’ziga xos xususiyati shundaki, u vaqt va makonda mahalliylashishga befarq bo’libgina qolmay, substrat–o’zini tashkil etuvchi materialga ham qattiq bog’lanmagan. U tizimli xususiyatlarga ega emas. Binobarin, mazkur xususiyatlar uning tarkibiy qismlariga mavjud yoki mavjud emasligiga, ayniqsa, ularning rivojlanish yo’nalishi yoxud xulq-atvor tarziga bog’liq. Kumatoidni moddiy tarzda mustahkamlangan ma’lum bir xususiyat yoki bunday xususiyatlar to’plami bilan aniq identifikatsiya qilish mumkin emas. Butun ijtimoiy hayot suzuvchi ob’ektlar–kumatoidlar bilan to’lib-toshgan.

«Case studies», ya’ni vaziyatli tadqiqotlar o’tkazish hozirgi zamon metodologiyasidagi muhim Yangilikdir. Mazkur tadqiqotlarni o’tkazishda fanlararo tadqiqotlar o’tkazish metodologiyasiga tayaniladi, ammo individual sub’ektlarni, mahalliy gruppaviy dunyoqarashlar va vaziyatlarni o’rganish nazarda tutiladi. *«Case studies» atamasi pretsedentning, ya’ni kuzatish ostida bo’lgan va tushuntirishning mavjud qonunlari doirasiga sig’maydigan individuallashtirilgan ob’ektning mavjudligini aks ettiradi.* Vaziyatli tadqiqot metodologiyasi neokantiantlar Baden maktabining idiografik metodi bilan bog’liq.

Vaziyatli tadqiqotlarning ikki tipi: matnli va maydondagi tadqiqotlar farqlanadi. Ularning ikkalasida ham mahalliy determinatsiya birinchi darajali ahamiyatga ega. Mahalliy determinatsiya «ichki ijtimoiylik» tushunchasi bilan muayyanlashadi va ayni guruh yoki vaziyatga xos bo’lgan faoliyat, muloqot shakllari ta’sirida shakllanadigan bilimning noaniq shartlarining tutash tizimi deb, alohida so’zlar va harakatlarning ma’no-mazmunini belgilaydigan ijtimoiy-madaniy kontekst deb tushuniladi. Vaziyatli tadqiqotlarning ustunligi shundaki, ularda bilim tizimining mazmuni shartlarning pirovard to’plami, hayotiy vaziyatlarning muayyan va alohida shakllari nuqtayi nazaridan ochib beriladi.

Hozirgi zamon metodologiyasi o’z an’anaviy metodlarining universalligi cheklanganligini tushunadi. Masalan, gipotetik-deduktiv metod ishni tayyor gipotezalardan boshlab, «dalillarni eng yaxshi tushuntirish» bosqichidan sakrab o’tganligi uchun tanqid qilinadi.

Abduktsiya *fikr yuritish orqali empirik faktlardan ularni tushuntiruvchi gipotezaga yuksalishni nazarda tutadi.* Bunday fikr yuritish turmushda va amaliyotda ko’p uchraydi. Har bir inson tushuntirish yo’llarini izlashda beixtiyor abduktsiyaga murojaat etadi. Masalan, vrach kasallik alomatlariga qarab, uning sababini, detektiv esa jinoyat izlariga qarab jinoyatchini qidiradi. Xuddi shuningdek, olim ham sodir bo’layotgan hodisani tushuntirishda

abduktsiya metodidan foydalanadi. Mazkur atama induktsiya va deduktsiya singari mashhur, keng e'tirof etilgan bo'lmasa ham, u Yangi hamda samarali metodologik strategiyani ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi.

Evristika. Evristika yunoncha heurisko–topaman, kashf etaman, degan so'zdan kelib chiqqan. «Evristika» atamasining qo'llanilishi qadimgi yunon olimi aleksandriyalik Papp (miloddan avvalgi III asr) nomi bilan bog'lanadi. Bu nuqtayi nazardan evristika matematika masalalarini yechishni o'rganishni istaganlarga mo'ljallangan qoidalarning maxsus to'plami sifatida namoyon bo'ladi. «Mahorat sirlari» hamisha qat'iy sir tutilgan va tavsiflanmagan. Evristikani kashfiyotlar to'g'risidagi fan sifatida tavsiflash barcha zamonlarda ham juda murakkab vazifa hisoblangan. G. Leybnitsning «Kashfiyot san'ati» g'oyasi amalga oshmadi. B. Spinoza to'g'ri metod oqilona tanlashni ta'minlashi, noma'lumni bilish qoidalariga ega bo'lishi, foydasiz imkoniyatlarni chetlatish tartibini belgilashi lozimligini qayd etgan bo'lsa-da, buni asoslovchi nazariyani yaratmadi.

Muayyan ilmiy bilimdagi barcha ikkilamchi, noaniq metodologik qoidalar evristika sohasini to'ldiradi. SHuning uchun ham evristika ba'zan qayg'urish, ilhomlanish, insayt bilan bog'lanadi. Metodologik tafakkurning izchil tizimida evristikaga ko'pincha yetarli darajada anglab bo'lmaydigan, ammo izlash va topish salohiyati katta bo'lgan soha deb qaraladi. Formal mantiqiy metodlar evristik metodlarga qarama-qarshi qo'yiladi. Barcha mumkin bo'lgan hollarda evristikadan bilim mazmunini kengaytirish, ilgari ma'lum bo'lmagan Yangilikni yaratish kutiladi.

Ko'pincha «evristika» tushunchasini tafakkurga bog'lab, «evristik tafakkur» tarzida qo'llaniladi. Aytish mumkinki, bunday hollarning barchasida tafakkurning yaratuvchi funksiyasi to'g'risida so'z yuritiladi. G'arb falsafasida evristik tafakkurni tushuntirishga harakat qiluvchi nazariyalarning uch turkumi farqlanadi: «tinch oqar suv» yoki o'rtacha hisobga keltirilgan mehnat nazariyasi; blitskrig yoki insayt nazariyasi; yaxshi qopqon yoki oqilona metodologik qoida nazariyasi.

Darhaqiqat, evristika o'ziga xos metodologiya, ya'ni ijodiy faoliyat metodlarining majmui sifatida ma'lum talablar qo'yadi:

– u oddiy tanlash usullariga emas, balki muammoni hal qilish vaqtini qisqartirish imkonini beradigan usullarga tayanadi;

– qo'llaniluvchi usullar an'anaviy qabul qilingan va eskirgan usullardan jiddiy farq qilishi mumkin;

– usullardan foydalanishga tadqiqot ko'rsatkichlariga qo'yiladigan tashqi cheklashlar qarshilik ko'rsatadi;

– izlanish modellari jiddiy darajada individuallashtirilgan bo'lib, bilish sub'ektining ruhiy va motivatsion faoliyati bilan chambarchas bog'liq.

6-Mavzu: Falsafaning metod, qonun va kategoriyalari

Reja:

1. Falsafa tarixida rivojlanish haqidagi qarashlar evolyutsiyasi.
2. Falsafaning asosiy qonunlari.
3. Kategoriya tushunchasi va ularning turlari.
4. Fan va falsafa kategoriyalarining tasnifi.

Falsafa tarixida rivojlanish haqidagi qarashlar evolyutsiyasi. Rivojlanish bu - muayyan sistemaning muayyan vaqt va fazodagi yaxlit, kompleks, orqaga qaytmaydigan, ilgarilanma yo`nalishga ega bo`lgan, miqdoriy va sifatiy o`zgarishidir. Rivojlanish jarayoni ham ikki turda bo`ladi. Birinchi turdagi rivojlanish bo`yicha, jismda har qanday sifatiy o`zgarish ro`y berishiga qaramasdan, uni tashkil etgan materiyaning sifatiy tuzilish darajasi o`zgarmasdan qolaveradi.

Masalan, notirik tabiatga mansub bo`lgan Quyoshdagi ravojlanishni olib qaraylik. Olimlarning taxminlariga ko`ra, hozir sirtida bir necha ming, ichida esa bir necha mln. darajali haroratga ega bo`lgan Quyosh borib-borib soviydi va qizil gigantga aylanadi, ya`ni Quyoshning markazidagi termoyadro energiyasi so`ngach, ichki zichligi pasayadi va markazdagi tortishish quvvati susayadi. Oqibatda Quyosh shisha boshlaydi va yer orbitasini ham o`z ichiga olgan ulkan qizil yulduz vujudga keladi, u asta-sekin sovib, qizil karlikka, so`ngra esa «qora karlikka», keyin bo`lsa neytron yulduzga aylanadi. Bunday o`zgarishlar natijasida borliqning tashkiliy struktura darajasi o`zgarmaydi, ya`ni jonsiz tabiat shaklidagi darajasi saqlanadi.

Jonli tabiatning vujudga kelishi, o`simliklar va hayvonot olamining paydo bo`lishi, odamning shakllanishi, jamiyatning vujudga kelishi singari sifatiy o`zgarishlar esa, rivojlanishning ikkinchi turiga kiradi.

Falsafa fanida harakatning bir-biridan sifatiy farq qiluvchi bir qancha boshqa shakllari ham o`rganiladi. Materialist bo`lgan faylasuflar harakat shakllarini turkumlaganida, quyidagi mulohazalarga tayanib ish yuritidilar:

1) harakat shakllari bir-birlari bilan sifat jihatidan farq qilib, ularning har biri materiyaning tashkiliy tuzilishi darajalarining muayyan bosqichida namoyon bo`ladi.

2) materiyaning harakat shakllari bir-biri bilan genetik jihatidan, kelib chiqishi jahatdan ketma-ket bog`langan, ya`ni harakatning murakkabroq shakllari uning nisbatan soddaroq shakllaridan kelib chiqqandir.

3) harakatning yuqori shakllari tarkibidagi quyi shakllari uning yuqori shakllariga ham mansubdir, ammo harakatning yuqori shakli o`zidan quyi shakldagi harakatga mansub emasdir.

Harakat shakllarini turlash bo`yicha quiydagi tabiiy-ilmiy kontseptsiya ham diqqatga sazovordir. Mazkur kontseptsiya bo`yicha harakat shakllari quyidagicha turlanadi: fizik harakat (elementar

zarrachalar, maydon va atomlarning harakati), ximiyaviy harakat (atomlar va molekularning harakati) va bunda harakatning rivojlanishi ikki yo`nalishida ajraladi, 1) harakat rivojlanishning yuqori yo`nalishida biologik harakat shakllanadi.

2) harakat rivojlanishining quyi yo`nalishida esa geologik harakat shakllanadi, biologik harakatning taraqqiyoti ijtimoiy harakatga olib boradi.

Rivojlanish kontseptsiyalari. Ijtimoiy harakat bizga ma`lum bo`lgan harakat shakllari ichida eng murakkabi bo`lib, unda insonning ongli faoliyati, inson tafakkuri, ijtimoiy guruhlarning faoliyati, o`zaro munosabatlari, jamiyat miqyosidagi ijtimoiy fikr birgalikda harakatga keladi. Bu harakatni chiziqli, batartib harakatlar bilan mutlaqo taqqoslab bo`lmaydi. Uning kelajagini bashorat qilish ham o`ta murakkabdir.

Borliqning asosiy yashash shakllariga fazo va vaqt kiradi. Fazo narsalarning ko`lamini, hajmini, o`zaro joylashish tartibini, uzlukli yoki uzluksizligini ifodalasa, vaqt hodisalarning ketma-ketligi, jarayonlarning davomiyligini ifodalaydi.

Ma`lumki, har qanday moddiy jism joyga, ko`lamga, hajmga ega. Fazo - vaqtning muayyan lahzasida olamni tashkil etgan nuqtalarning o`zaro joylashish tartibini aks ettirsa, vaqt esa fozoning muayyan nuqtasida ro`y beruvchi xodisalar ketma-ketligi tartibini ifodalaydi. Fazo va vaqt tushunchalari, ko`p hollarda, forsiy til ta`sirida ezilgan adabietlarda makon va zamon deb ham ataladi. Bu tushunchalar fazo va vaqitning tashqi, nisbiy xususiyatlarinigina aks ettiradi xolos. Fazo narsalar joylashadigan joy ma`nosida, vaqt esa hodisalar bo`lib o`tadigan muddat ma`nosida ishlatiladi.

**Fazo va vaqtni tushunish bo`yicha substantsial va relyatsion yondashishlar mavjud**. Substantsial kontseptsiya tarafdorlari fazoni narsalar joylashadigan idish, bo`shliq deb bilishadi. Ularning fikricha, hamma narsa fazo ichiga joylashtirilgan. Fazo o`ziga narsalarni sig`diruvchi substantsiya. Hech narsasi yo`q, ya`ni narsalar solinmagan fazo ham bo`lishi mumkin, deyiladi. Relyatsion kontseptsiya tarafdorlari esa, narsalar fazoviy o`lchamga ega, deyishadi.

Rivojlanish. Jonsiz tabiatda rivojlanishga yulduzlarda yuz berayotgan evolutsiya jarayonlari; jonli tabiatda – turli organizmlarning o'sishi; jamiyatda – fan, texnika, sanoat ishlab chiqarishining o'sishi, ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishi va shu kabilar misol bo'lib xizmat qilishi mumkin. *«Rivojlanish» tushunchasi nafaqat moddiy, balki ideal dunyoga, xususan, inson tafakkuriga nisbatan, masalan, umuman ongning yoki ayrim fikr, g'oya, nazariyaning rivojlanishi to'g'risida so'z yuritilgan holda, qo'llanilishi mumkin.* Fikrning rivojlanishi uning «pishib yetilishi»ni, ya'ni murakkablashuvi, takomillashuvi, yanada aniqroq ma'no kasb etishi va shu kabilarni anglatadi. Biroq, shuni ta'kidlash lozimki, narsalar va hodisalarning ob'ektiv dunyosidan farqli o'laroq, sub'ektiv konstruktsiyalar (tafakkur, g'oyalar, nazariyalar) harakati va rivojlanishiga nisbatan ko'lam ko'rsatkichlari tatbiq etilishi mumkin emas. Ayni vaqtda ideal narsalar va hodisalar darajasida rivojlanish jarayonlari, xuddi moddiy narsalar dunyosidagi kabi vaqtda kechadi.

Barqarorlikning o'zgaruvchanligi. Barqarorlik va beqarorlik nisbati. Ayrim dialektiklar esa, harakatning asosiy ziddiyati sifatida uning uzluksizligi-uzlukliligini qayd etadi. Bahzan harakatning asosiy ziddiyati sifatida barqarorlik va o'zgaruvchanlik jarayonlari ko'rsatiladi. Ammo bunda harakat, o'zgarishning mutlaqligini tan olish obhektlar yoki jarayonlarning abadiy o'zgarmasligi sifatidagi mutlaq harakatsizlik holatini to'la istisno etishini, lekin muqarrar tarzda harakatning tashqi qarama-qarshiligi emas, balki, uning ichki ziddiyatli mohiyatining ifodasi hisoblanuvchi nisbiy harakatsizlik holatini nazarda tutishini tushunish muhimdir. Vaqtinchalik barqarorlik va muvozanat holati sifatida tushuniluvchi nisbiy harakatsizlik materiyaning har qanday muayyan holatiga xos. U materiyaning sifatini namoyon etadi. Nisbiy tinchlik tufayli narsalarning chegaralari mavjud bo'ladi, dunyo sifat va miqdor o'zgarishlarining rang-barangligi sifatida namoyon bo'ladi. Materiya harakati shuning uchun ham mutlaqki, u sirtdan hech narsaga bog'liq emas. SHu mahnoda«Dunyoda abadiy harakatdagi materiyadan boshqa hech narsa yo'q» tarzidagi fikrlar o'rinli va asoslidir.

Rivojlanishning tiplari. Rivojlanish manbai va rivojlanishni harakatlantiruvchi kuchni farqlash lozim. Rivojlanish manbai–ichki hodisa, predmetning ichki ziddiyatlaridir.

Vaholanki, tashqi ziddiyat ham rivojlanishni harakatlantiruvchi kuch bo'lishi mumkin. Masalan, siz shamollab qoldingiz. Ayni holda tashqi muhit sizning holatingiz o'zgarishini harakatlantiruvchi kuch bo'ldi. Dialektik ziddiyat tarkibida asosiy tomon manfiy xususiyatga ega, chunki u mazkur ziddiyatni bartaraf etish, inkor qilishga qaratilgan. Musbat tomon mazkur ziddiyatni saqlashga qaratilgan.

SHaklan rivojlanish bir chiziqli ham, aylanma ham emas, balki rang-barang-roq va murakkabroq, chunonchi: bir chiziqli va ko'p chiziqli, to'g'ri chiziqli va zigzag-simon, umumiy va xususiy, uyg'un va nouyg'undir.

Yo'nalish jihatidan rivojlanish progressiv va regressiv bo'ladi. Rivoj-lanish tizim ayrim elementlarining tanazzuli bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Butun tizim tanazzulga uchrashi, uning ayrim elementlari esa taraqqiy etishi mumkin emas. Obhektga nisbatan tashqi kuchlar tahsirida yuz berishi mumkin bo'lgan harakatdan farqli o'laroq, rivojlanish o'z-o'zidan harakat, ichki jarayon bo'lib, ziddiyat, bir-birini istisno etuvchi tomonlar, tendentsiyalar uning man-bai hisoblanadi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, Gegelg' falsafasida rivojlanish tushunchasi inkor va inkorni-inkor kategoriyalarida yoritiladi. Mazkur terminologiya mutafakkirning mantiq tizimi negiziga aylantirilgan obhektiv-idealistik falsafasi kontekstida tasodifiy bir hol emas. Avval«inkor» kategoriyasining mazmunini aniqlaymiz. Inkor nima? Unga ikki xil– metafizik va dialektik munosabat mavjud.

Metafizik«inkor» asosiy ehtiborni eskining yo'q bo'lishiga qaratadi,

yangining saqlanishi va uni yaratish jarayonlarini deyarli ehtiborga olmaydi. SHunday qilib, metafizik inkor–inkor qilish rad etish, yo'q qilishni anglatadi.

Dialektik inkor eski sifatdan yangi sifatga o'tish bo'lib, bunda eski sifatning muayyan tomonlari, mazmuni va funktsiyasining elementlari o'zgargan ko'rinishda yangi sifatga o'tadi. Dialektik inkor– bu narsani butunlay yo'q qilish emas, balki eski sifatning bahzi bir jihatlarini saqlagan va o'zgartirgan holda uni yangi narsaga aylantirishdir. U yangi va eski sifat o'rtasida aloqa mavjudligidan dalolat beradi. Dialektik inkor uch muhim jihat bilan tavsiflanadi:

1) eskini vayron qilish, buzish;

2) eskining elementlarini saqlash(vorisiylik);

3) yangini yaratish, tuzish.

Qonun tushunchasi. Qonun – tizimning elementlari o'rtasidagi umumiy va invariant aloqa. Ularning uchta turi mavjud.

Voqelik qonunlari *bizning ongimizdan, biz ularni bilish-bilmasligimizdan qat'i nazar mavjud va amal qiladi*.

Fan qonunlari *odamlar tomonidan anglab etilgan voqelik qonunlarining ongimizdagi in'ikosi hisoblanadi.* Har bir fan voqelikning muayyan sohasini o'z predmeti sifatida o'rganar ekan, mazkur sohada amal qiluvchi qonunlarni aniqlaydi. Ilmiy nazariya bilan qamrab olingan soha qancha keng bo'lsa, uning qonunlari shuncha umumiy bo'ladi. Fanda qonunlarning umumiylik darajasiga ko'ra murakkab ierarxiyasi mavjud. Umumiylik darajasi pastroq bo'lgan qonunlar umumiyroq qonunlarning ayrim ko'rinishlari sifatida amal qiladi va so'nggi zikr etilgan qonunlardan ularning oqibatlari sifatida keltirib chiqariladi.

Masalan, geometrik optikada yorug'likning aks etish va sinish qonunlari elektromagnit to'lqinlar tarqalishining umumiyroq qonunlaridan, ular esa, o'z navbatida, elektromagnit maydoni nazariyasining yanada umumiyroq qonunlaridan kelib chiqadi.

Har qanday qonun muayyan sharoitda amal qiladi. Qonun amal qilishining bazis va lokal sharoitlarini farqlash lozim.

*Bazis sharoitlar qatoriga qonunning amal qilish sohasini belgilovchi sharoitlar kiradi***.** Mazkur sharoitlardan tashqarida qonun amal qila olmaydi (ular yo'q bo'lgan taqdirda ularda amal qilayotgan tizim ham yo'q bo'ladi). *Lokal sharoitlar qatoriga qonunning amal qilish sohasidagi sharoitlar kiradi.qonun bu sharoitlarning har qanday variatsiyasida o'z kuchini saqlab qoladi, lekin ularning o'zgarishlari qonunning amal qilish natijalarining o'zgarishlariga sabab bo'ladi.* Aytish mumkinki, qonun lokal sharoitlarga nisbatan invariant, lekin u bazis sharoitlarga nisbatan invariant emas.

Masalan, Arximed qonuni uchun suyuqlik va unga solingan jismning, og'irlik kuchining mavjudligi bazis sharoitlar hisoblanadi. Bu sharoitlarga nisbatan Arximed qonuni noinvariantdir: ular mavjud bo'lmasa, qonun amal qilmaydi. Bu erda suyuqlikning tarkibi va solishtirma og'irligi, jismning fizik tuzilishi va shakli lokal sharoitlar hisoblanadi. Ularga nisbatan qonun invariantdir. Ammo uning amal qilishi turli natijalarda aks etishi mumkin: ayrim hollarda jism suvda suzadi, ayrim hollarda esa – u cho'kib ketadi.

Odamlar qonunlarning amal qilish sharoitlarini o'zgartirib, ulardan o'zlari istagan natijalarga erishish uchun foydalanish imkoniyatini qo'lga kiritadilar. yangi bazis sharoitlarni yaratish yo'li bilan esa ular ayrim qonunlarning amal qilishini to'xtatish va boshqa qonunlarni amalga kiritishga qodirlar.

Hodisalarning muntazamligi, takroriyligida qonunlarning amal qilishi (shuningdek fenomenlogik qonun, empirik bog'lanish) qonuniyat-deb ataladi. **Qonuniyatlar – bu qonunlarning namoyon bo'lishidir.**

Falsafa qonunlari tizimida dialektik ziddiyatlilik qonuni markaziy o'rinni egallaydi. Qonunning muhim jihatlarini aniqlash uchun uning asosiy kategoriyalarini ko'rib chiqish kerak. Tahlilni qarama-qarshilik tushunchasidan boshlaymiz.

Qarama-qarshilik birligi va kurashi qonuni. *Predmetning bir-birini istisno etuvchi va bir-birini nazarda tutuvchi tomonlaridir*. Qarama-qarshiliklar – o'zaro bog'lanishli bo'lgan tushunchalar. Turli jihatlardan olingan taqdirda, ular o'zaro birlikni tashkil etmaydi va bir-biriga zid bo'lmasligi mumkin. Qarama-qarshilik – narsalar va hodisalardagi bir-birini taqozo qiluvchi va bir-birini istisno etuvchi tomonlar, xossalar, tendentsiyalar, jarayonlarni aks ettiruvchi falsafiy kategoriya (assimilatsiya – dissimilatsiya, o'zgaruvchanlik – tug'malik, ishlab chiqarish – iste'mol qilish, yaxshilik – yomonlik va sh.k.).

Qarama-qarshiliklar o'rtasida ikki xil munosabat mavjud: yagonalik munosabati va qarshi harakatga doir munosabat. (qonunning klassik ta'rifida «kurash» atamasi ishlatiladiki, u qonunning mohiyatini soddalashtiradi, chunki mazkur atama ko'proq jamiyatga tegishlidir.)

Qarama-qarshilik birligi nima? *Birinchidan, qarama-qarshiliklar birligi – bu ularning uzviyligi.* Har bir qarama-qarshilik boshqa bir qarama-qarshilikning mavjudlik sharti hisoblanadi. Ular alohida-alohida mavjud bo'lishi mumkin emas (agar qarama-qarshiliklardan biri yo'q bo'lsa, ularning ikkinchisi ham yo'q bo'ladi). *Ikkinchidan, qarama-qarshiliklar birligi ular bir-birini taqozo etgan va bir-biriga o'tgan holdagina muayyan mazmun kasb etadi.* Har qanday qarama-qarshilik o'zida mavjud bo'lmagan, lekin boshqa qarama-qarshilikda mavjud bo'lgan jihatga muhtoj bo'ladi. Ular bir-biri bilan o'zaro ta'sirga kirishadi. Qarama-qarshiliklar bir-biriga ta'sir ko'rsatish orqali bir-biriga o'tadi. Bu qarama-qarshiliklar makonda bir-biridan ajratilgan, turli jinsli hodisalar sifatida mavjud bo'lmasligini, ularning har biri o'zida boshqasining muayyan jihatini mujassamlashtirishini anglatadi (masalan, o'quv jarayoni o'qituvchi va talablar mavjudligini nazarda tutadi).

Qarama-qarshiliklarning qarshi harakat («kurash»)ga doir munosabati nima? Qarama-qarshiliklar bir-birini taqozo etar va rivojlanar ekan, biri boshqasiga «be'arvo» bo'lmaydi, balki bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatadi. Ularning o'rtasida qarshi harakat, kurash boradi. Uning mohiyati yagonalikka barham berishdan iborat. Qarama-qarshiliklarning har biri ikkinchisini o'zidan itarib chiqaradi, undan xalos bo'lishga harakat qiladi. SHunday qilib, *qarama-qarshilikliklar kurashi qarama-qarshiliklar bir-birini inkor etgan, bir-birini istisno qilgan holda yuz beradi.*

Qarama-qarshiliklar birligi narsaning barqarorligini aks ettiradi va nisbiy, o'tkinchi hisoblanadi. Qarama-qarshiliklarning kurashi mutlaq xususiyat kasb etadi, u hech qachon to'xtamaydi.

Miqdor va sifat o'zgarishlari dialektikasi. Hodisalarga makon-vaqt mezoni nuqtayi nazaridan tavsif berish jarayonida «qayerda?» va «qachon?» savollari birinchi o'ringa chiqadi. Ularni bilishga nisbatan boshqa bir yondashuv «nima?» savoli bilan bog'liq. Ma'lum joyda va ma'lum vaqtda mavjud bo'lgan mazkur hodisa nimadan iborat? U qanday xossalar bilan tavsiflanadi? Boshqa hodisalardan uning farqi nimada va qay jihatdan ularga o'xshash? Bunday savollarga javob hodisalarni sifat va miqdor jihatidan tavsiflash orqali beriladi. Mazkur tavsif predmeti sifat va miqdor kategoriyalari bilan ifodalanadi. Eng sinchkov tahlil ham hodisada sifat yoki miqdor jihatidan tavsiflash mumkin bo'lmagan narsani aniqlash imkonini bermaydi. Binobarin, sifat va miqdor – hodisaning qoldiqsiz «parchalanuvchi» ikki tomonidir.

Miqdor va sifat o'zgarishlarining bir-biriga o'tishi qonuni rivojlanish jarayonining mexanizmini yoritadi, u qay tarzda va qanday shakllarda amalga oshirilishini ko'rsatadi. Bu qonunning xususiyatini, u qanday namoyon bo'lishi va amal qilishini aniqlash uchun uning asosiy tushunchalari: sifat, miqdor, me'yor, sakrashning mazmunini yoritish talab etiladi.

Sifat *narsalarga xos va ularning borlig'i bilan ayniy bo'lgan hamda ularni muayyan aloqalar tizimidagi boshqa narsalardan farqlash imkonini beradigan o'ziga xos xususiyatni aks ettiradi*. Narsalarning sifati ularning chekliligi bilan uyg'un bog'liq, zero mazkur sifat yo'q bo'lishi bilan narsaning o'zi ham yo'q bo'ladi, u boshqa narsaga aylanadi. Barcha narsalar, jarayonlar, hodisalar sifat bilan bir qatorda muayyan miqdorga ham ega bo'ladi. Ular muqarrar tarzda muayyan o'lcham, hajm, massa va shu kabilar bilan tavsiflanadi. Sifat – narsaning ichki xususiyati, predmet ni mazkur jihatdan farqlash uchun zarur va yetarli bo'lgan xossalar majmui. Sifat – xossalarning oddiy majmui emas, balki ularning muayyan yaxlitlikdan o'rin olgan va predmet ning alohida mohiyat sifatida mavjudligini belgilovchi tizimidir. Predmetlarning munosabatlari va aloqalarining rang-barangligi ayni bir predmet da qarama-qarshi xossalar va sifatlar mavjudligini izohlaydi. Bir jihatdan yengil narsa boshqa bir jihatdan og'ir bo'ladi, bir aloqada oq narsa boshqa bir aloqada qora bo'ladi va h.k. Masalan, suv va bug' bir-biridan sifat jihatidan farq qiladimi yoki miqdor jihatidanmi? Moddaning agregat holatini taqqoslaydigan bo'lsak, suv va bug' sifat jihatidan farq qiladi. Taqqoslash suv va bug'ning kimyoviy tarkibini aniqlashni nazarda tutsa, ularning o'rtasida miqdoriy farq mavjud bo'ladi. Ammo har qanday narsa bir jihatdan bitta sifatga va turli jihatlardan ko'plab sifatlarga ega bo'ladi

Xossa- *predmetning jihati bo'lib, uning boshqa predmet lardan farqi yoki ular bilan o'xshashligini belgilaydi va ular bilan o'zaro aloqada namoyon bo'ladi.* Xossalar muhim va ikkinchi darajali bo'lishi mumkin. Muhim xossalar predmet ning sifatini belgilaydi. Ularning yo'qolishi mohiyatini mazkur xossalar tashkil etgan predmet ning ham yo'qolishini anglatadi. Ikkinchi darajali xossalar o'zlashtirilishi yoki predmet ning sifatini o'zgartirmasdan yo'qolishi mumkin. Har qanday xossa (temperatura, hajm, energiya va sh.k.) muayyan miqdor va sifatga ega bo'ladi. Har qanday predmet o'zining mavjudligini belgilovchi barcha xossalar majmuidir..

Miqdor-*predmet muayyan xossasining namoyon bo'lishi, intensivligi darajasi.* U sifat jihatidan o'xshash xossalar yoki butunning qismlarini taqqoslash yo'li bilan aniqlanadi. Miqdoriy munosabatlar sifatga bog'lanmasdan aniqlanishi mumkin. SHuningdek, miqdor turli predmet larning ayrim umumiy xossasi sifatida, predmet larni sifat jihatidan tenglashtiradi. SHu ma'noda miqdor sifatning ziddidir. Ammo predmet ning sifat xususiyatini mavhumlashtirish sifat jihatidan har xil tuzilmalarni o'rganishga tadqiqotning miqdoriy metodlarini jalb qilish imkonini beradi. Masalan, o'lchash taqqoslashning o'rganilayotgan ob'ektning miqdor ko'rsatkichlarini aniqlovchi ayrim ko'rinishi sifatida, sifat haqida aniqroq xulosa chiqarish imkonini beradi. Matematikada miqdoriy munosabatlar son, qiymat, funksiya, to'plam tushunchalarida ifodalanadi. Hozirgi zamon fani aniq matematik apparatdan foydalanib, mikrodunyoning teran qatlamlariga kiradi, Olamning cheksiz makonlarini tadqiq etadi. Matematika tabiat va jamiyatni o'rganishning samarali vositalaridan biriga aylangan.

Har qanday predmet miqdor va sifat qarama-qarshiliklarining muayyan sintezidir. Uning borlig'i ob'ektga xos bo'lgan muhim xossalarni saqlashni nazarda tutadi. Olamning ko'p sifatliligi uning elementlari nisbatan barqarorligi va mustaqilligi bilan ta'minlanadi. Ammo olam, shu jumladan har qanday predmet muttasil o'zgarishda bo'ladi. Hech narsa boqiy emas. Butun borliq qachondir paydobo'lgan va qachondir halok bo'ladi. Dunyo o'zgaradi va ayni zamonda o'zligini saqlab qoladi, o'z-o'ziga nisbatan ayniy bo'ladi.

Me'yor-*predmet borlig'ining chegarasi*. U predmet xossalari miqdor va sifat o'zgarishlarining xususiyati bilan belgilanadi. *Me'yor – bu miqdor va sifatning shunday bir birligiki, bunda muayyan sifat faqat muayyan miqdor bilan bog'liq.* Me'yor – bu miqdor ko'rsatkichlari yoki o'zgarishlarining tegishli sifat mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan muayyan oralig'i hamdir Me'yor – bu shunday bir chegaraki, unda miqdor o'zgarishlari narsaning sifatiga putur yetkazmaydi. Gegel fikricha, «Hamma narsa o'z me'yoriga ega, ya'ni miqdor jihatidan aniqdir»[54]. Masalan, vodorod peroksidi va suv bir-biridan molekulalardagi kislorod atomlarining miqdoriga ko'ra farq qiladi.

[54] Гегел Г.В. энсиклопедиb философских наук. Сосъ. Т. 1. -М.: – С.145

Huquqiy, axloqiy va estetik hodisalar tavsifida me'yor tushunchasi normativlik xususiyatini kasb etadi. «Aynan «ko'proq» va «kamroq» orqali yengiltaklik me'yori buziladi va butunlay boshqa narsa – jinoyat namoyon bo'ladi, aynan «ko'proq» va «kamroq» orqali adolat haqsizlikka, fazilat nuqsonga o'tadi»[55]. Masalan, huquqda qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasi va jazo chorasi o'rtasidagi muvofiqlikka rioya etiladi. Me'yor tushunchasida miqdor va sifat xossalarining o'zaro aloqasi aks etadi. Tabiatda kuzatiladigan narsalarning bir holatdan boshqa holatga o'tishi dunyo evolutsiyasining muhim va keng tarqalgan mexanizmlaridan birini aks ettiradi. Me'yor tushunchasi evolutsiya tendentsiyalarini aniqlash, turli sistemalarning o'tmishi va kelajagi xususida gipotezalar tuzish imkonini beradi. Miqdor sifat jihatidan bir jinsli hodisalarning muayyan ob'ektiv ko'rsatkichi bo'lib, u mazkur hodisalarning kattaligini, mavjudlik muddatini va umuman hodisa yoki uning ayrim tomonlari rivojlanishining faollik darajasini tavsiflaydi.

SHunday qilib, narsalar va hodisalar sifat va miqdor xususiyatlariga ega bo'ladi. Ammo narsalar va hodisalarning bu tomonlari o'rtasida uzviy aloqa mavjud emasdek, ularning biri ikkinchisiga bog'liq emasdek bo'lib tuyulishi mumkin. Lekin amalda bunday emas. Miqdor va sifat o'rtasida dialektik aloqa mavjud: muayyan sifatni aks ettirmaydigan miqdor mavjud emas va shu bilan bir vaqtda miqdorsiz sifat ham yo'q. Mazkur sifatga qo'shimcha tarzda doim qandaydir emas, balki muayyan miqdor javob beradi. Biz, masalan, uzunligi Amudaryo ustida qurilgan ko'prikning uzunligiga teng bo'lgan stolni ko'rmaganmiz. SHuningdek oyoqlarining uzunligi 5 m bo'lgan odamni tasavvur qilish ham qiyin. SHunday qilib, har qanday sifat falsafada me'yor deb ataladigan miqdor chegarasiga ega bo'ladi. Miqdorning me'yor doirasida o'zgarishi sifatning o'zgarishiga sabab bo'lmaydi, lekin me'yordan oshilganda narsa o'zining avvalgi mohiyatini yo'qotadi. Miqdor va sifat o'zgarishlarining bunday o'zaro ta'siriga ko'p sonli faktlarni keltirish mumkin. Masalan, jismning tezligi sekundiga 1000, 2000, 7910 metr bo'lsa, u yerga yiqiladi. Agar jismning tezligi atigi bir birlikka oshirilsa va u sekundiga 1911 metrga yetkazilsa, jism Yerdan ko'tariladi va uning yo'ldoshiga aylanadi. Demak, miqdor o'zgarishlari, agar ular me'yor doirasida yuz bersa, sifatni butunlay o'zgartirmaydi. Biroq, agar bu o'zgarishlar me'yor chegarasidan chetga chiqsa, o'zining muayyan miqdori va o'z me'yoriga ega bo'lgan yangi sifat vujudga keladi.

Miqdor va sifat o'zgarishlarining o'zaro bog'liqligi haqidagi qoida umumiy ahamiyat kasb etadi. U atrof borliqning barcha narsalari va hodisalariga nisbatan o'rinli, ya'ni dialektika qonuni kuchiga ega. U quyidagicha ta'riflanadi.

Miqdor va sifat o'zgarishlarining bir-biriga o'tishi qonuni *narsaning miqdor va sifat tomonlarining shunday bir o'zaro aloqasini aks ettiradiki, uning ta'sirida miqdor o'zgarishlari me'yor chegarasidan chetga chiqib, albatta tub sifat o'zgarishlariga sabab bo'ladi, bu sifat o'zgarishlari esa, o'z navbatida, yangi miqdor ko'rsatkichlariga olib keladi.* Bu qonunga muvofiq rivojlanish bir-biridan farq qiladigan, lekin o'zaro bog'langan ikki bosqich – uzluksizlik va uzluklilikning birligi sifatida yuz beradi. Rivojlanishda uzluksizlik – bu juda sust, ko'zga ko'rinmas miqdor o'zgarishlari bosqichi. Rivojlanishda uzluklilik sakrash deb ataladi.

Sakrash-*bu bir sifatning boshqa sifatga aylanish vaqti, shakli, usuli, miqdor o'zgarishlarining uzluksizligi, bosqichma-bosqichligidagi uzilishdir*. Masalan, sakrash-bu Yerda hayotning paydobo'lishi, hayvonlar dunyosidan insonning ajralib chiqishi, bir ijtimoiy tuzum o'rniga boshqa ijtimoiy tuzum kelishi, buyuk ilmiy va texnikaviy kashfiyotlardir. Har qanday sakrash rivojlanishda o'tish davrini tavsiflaydi. O'z tabiatiga ko'ra u doim ziddiyatlidir, chunki yangining tug'ilishidan ham, eskining qarshiligidan ham dalolat beradi.

Sakrashlarning shakllari rang-barang bo'lib, rivojlanayotgan hodisaning tabiati, shuningdek unda sifat o'zgarishlari yuz berayotgan konkret sharoit bilan belgilanadi. Sakrashlar:

1*) o'zgarishning davomliligiga ko'ra (jadal, sust);*

2) o'zgarish shakliga ko'ra (bir karra, ko'p karra);

3) o'zgarishning chuqurlik darajasiga ko'ra (qisman, to'liq);

4) o'zgarishning yo'nalishiga ko'ra (progressiv, regressiv, yo'nalishsiz) farq qiladi.

Sakrashlarni tahlil qilish chog'ida «evolutsiya», «inqilob», «islohot» kabi atamalar ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. «Evolutsiya» tushunchasi keng va tor ma'nolarda qo'llaniladi. Keng ma'nodagi «evolutsiya» asta-sekin rivojlanish jarayoni bo'lib, u miqdor o'zgarishlarinigina emas, balki sifat o'zgarishlari, shu jumladan inqiloblarni ham o'z ichiga oladi. Tor ma'noda «evolutsiya» deganda inqilobdan, uning tayyorlanishidan oldingi davr tushuniladi. «Inqilob» tushunchasi ijtimoiy hodisalarni tavsiflash uchun ishlatiladi. Bu jamiyatni asta-sekin o'zgartirmaydigan, balki unda tub o'zgarish yasaydigan sakrashdir. Islohot jamiyat hayotining biron-bir muhim tomonini o'zgartirish bo'lib, bunda uning iqtisodiy va davlat tartibi asoslari saqlanib qoladi.

SHunday qilib, miqdor va sifat o'zgarishlarining bir-biriga o'tish qonuni, rivojlanishning umumiy qonuni sifatidagi mazmuni haqida yaxlit tasavvur hosil qilish imkonini beradigan «sifat», «miqdor», «me'yor», «sakrash» kategoriyalari yordamida muayyanlashtiriladi. Mazkur qonun butun borliqning rivojlanishi, harakati va o'zgarishi qanday, qay tarzda yuz beradi, degan savolga javob berib, ob'ektiv voqelikning har qanday sohasida yangi sifatga o'tishning ichki mexanizmini yoritadi. Ko'rib chiqilgan qonunlar rivojlanish manbai va uning mexanizmini yoritib bersa, inkorni-inkor qonuni – rivojlanishning umumiy tendentsiyasini, uning yo'nalishini aks ettiradi.

Inkorni-inkor qonuni va vorisiylik. Inkorni-inkor qonunining mohiyati nimadan iborat? Ayni bir atama bunday ketma-ket qo'llanilishining ma'nosi nimada? Inkor kategoriyasi rivojlanayotgan ob'ekt tarixidagi bir lahzanigina tavsiflaydi. Bitta inkor harakati o'zgarish qaysi yo'nalishda yuz berayotgani, oldingi va keyingi voqealar

[55] Гегел Г.В. Наука логики. Т. 1. – М.: 1970. – С. 467.

oqimida u qanday ahamiyatga ega ekanligini, yuz bergan voqeaning mazmunini aniqlash uchun doim ham imkoniyat yaratavermaydi. Boshqacha aytganda, inkorni-inkor tushunchasi rivojlanish jarayonining muhim xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

«Inkor» va «inkorni-inkor» kategoriyalari dialektikaga Gegel tomonidan kiritilgan bo'lib, ayni shu mutafakkirning sa'y-harakatlari bilan ular umumiy falsafiy kategoriyalar maqomini olgan. Inkor va inkorni-inkor kategoriyalaridan Gegel rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlarini yoritish vositasi sifatida foydalangan. Gegel, shuningdek uning o'tmishdoshlari va izdoshlari ko'rsatib bergan ba'zi bir o'ziga xos xususiyatlarni ko'rib chiqamiz.

Birinchidan, inkorni-inkor rivojlanish yo'nalishini ko'rish uchun imkoniyat yaratadi. Mazkur hodisa taraqqiyot yoki tanazzul alomati ekanligini bir inkor harakatining o'zidan aniqlash mushkul. SHu bois, masalan, qabul qilingan muayyan qonun, saylov natijalari va shu kabilar haqida xulosa chiqarishga shoshilmaslik kerak.

Ikkinchidan, inkorni-inkor rivojlanish shaklining tavsifi bo'lib xizmat qiladi. Ma'lumki, Gegelning dialektika tizimida rivojlanish mantiqiy ziddiyatning yuzaga kelishi va uning bartaraf etilishi sifatida tavsiflanadi. Bu jarayon «tezis – antitezis – sintez» formulasiga muvofiq yuz beradi. Dialektika kontekstida rivojlanishning uch bosqichi ijtimoiy va tabiiy tizimlar rivojlanishining ko'p sonli stsenariylaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Ammo Gegel qayd etgan rivojlanishning siklliligi, uning chiziqsizligi tabiat va jamiyatda jarayonlar kyechishining ancha keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Uchinchidan, tabiiy va ijtimoiy sikllarda rivojlanish ham, tanazzul ham bo'lmasligi mumkin: o'zgarish aylanma harakat qiladi.

Inkorni-inkorda rivojlanish quyi bosqichining o'ziga xos xususiyatlari yuqoriroq bosqichda takrorlanishi yuz beradi. Avvalgi holatlarga qaytish imkoniyati, ya'ni o'tilgan holatlarning ayrim xossalari rivojlanishning yuqoriroq bosqichida takrorlanishi bilish va tarixning rivojlanishini tushunish uchun o'z ahamiyatini saqlab qoladi.

Demak, inkor rivojlanish yangi sifat paydobo'lishiga olib keladigan aniq yo'naltirilgan, qaytmas o'zgarish sifatida tavsiflanadi. **SHaklan rivojlanish** *bir chiziqli ham, aylanma ham emas, balki rang-barangroq va murakkabroq, chunonchi: bir chiziqli va ko'p chiziqli, to'g'ri chiziqli va zigzagsimon, umumiy va xususiy, uyg'un va nouyg'undir*.

Yo'nalish jihatidan rivojlanish *progressiv va regressiv bo'lishi mumkin.* Rivojlanish tizim ayrim elementlarining tanazzuli bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Butun tizim tanazzulga uchrashi, uning ayrim elementlari esa taraqqiy etishi mumkin emas. Ob'ektga nisbatan tashqi kuchlar ta'sirida yuz berishi mumkin bo'lgan harakatdan farqli o'laroq, rivojlanish o'z-o'zidan harakat, ichki jarayon bo'lib, ziddiyat, bir-birini istisno etuvchi tomonlar, tendentsiyalar uning manbai hisoblanadi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, Gegel falsafasida rivojlanish tushunchasi inkor va inkorni-inkor kategoriyalarida yoritiladi. Mazkur terminologiya mutafakkirning mantiq tizimi negiziga aylantirilgan ob'ektiv-idealistik falsafasi kontekstida tasodifiy bir hol emas. Avval «inkor» kategoriyasining mazmunini aniqlaymiz. Inkor nima? Unga ikki xil – metafizik va dialektik munosabat mavjud.

Metafizik «inkor» asosiy e'tiborni eskining yo'q bo'lishiga qaratadi, yangining saqlanishi va uni yaratish jarayonlarini deyarli e'tiborga olmaydi**.** SHunday qilib, metafizik inkor - inkor qilish rad etish, yo'q qilishni anglatadi.

Dialektik inkor eski sifatdan yangi sifatga o'tish bo'lib, bunda eski sifatning muayyan tomonlari, mazmuni va funksiyasining elementlari o'zgargan ko'rinishda yangi sifatga o'tadi. Dialektik inkor – bu narsani butunlay yo'q qilish emas, balki eski sifatning ba'zi bir jihatlarini saqlagan va o'zgartirgan holda uni yangi narsaga aylantirishdir. U yangi va eski sifat o'rtasida aloqa mavjudligidan dalolat beradi. *Dialektik inkor uch muhim jihat bilan tavsiflanadi:*

1) eskini vayron qilish, buzish;

2) eskining elementlarini saqlash (vorisiylik);

3) yangini yaratish, tuzish.

Biz inkor kategoriyasi metafizik va dialektik talqinining mohiyatini aniqladik. Endi qo'sh inkor nimadan iborat ekanligini ko'rib chiqamiz.

«*Inkorni-inkor» shuni qayd etadiki, rivojlanish jarayoni eski sifatni inkor qilishdan boshlanadi, uni esa oradan ma'lum zamon o'tgach yangi sifat inkor etadi*. Ammo rivojlanish qanday yuz beradi? To'g'ri (yuksalib boruvchi) chiziq bo'ylabmi yoki egri chiziq bo'ylabmi? Bu masala quruq ga' emas, balki u muhim ahamiyatga ega. CHunki rivojlanish jarayonida eski va yangining aloqasi bo'lmaganda, vorisiylik ham bo'lmasdi, eski butunlay yo'q bo'lar, rivojlanishni grafik ko'rinishda yangi eskidan farq qiladigan, eski esa yangida takrorlanmaydigan to'g'ri (yuksalib boruvchi) chiziq sifatida tasvirlash mumkin bo'lardi. Biroq amalda yangida eski saqlanadi, uning elementlari yangida takrorlanadi. Ammo bu takrorlanish yuqoriroq darajada yuz beradi. Eskining jihatlari, elementlari yuqoriroq asosda takrorlanishi biz muhokama qilayotgan qonunning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Bundan qonunning boshqa bir xususiyati kelib chiqadi. Hamonki eskining oliy asosda qaytarilishi mavjud ekan, rivojlanish to'g'ri chiziq bo'ylab emas, balki spiralsimon chiziq bo'ylab yuz berishi, sikldan-siklga eskiga yaqinlashishi (chunki takrorlanib turishlik mavjud) va undan uzoqlashib borishi (chunki bu yangi) ayon bo'ladi.

Nima uchun bu takrorlanib turishlik muqarrar?

Gap shundaki, inkor ziddiyat bilan uzviy bog'liq, u mazkur ziddiyatning yechilishi bilan belgilanadi. O'ziga xos ziddiyat bilan vujudga kelgan har qanday yangi narsani olaylik. Ziddiyatning rivojlanish jarayonida narsa o'zining qarama-qarshiligiga aylanadi. Ammo inkorning mazkur bosqichida dastlabki narsada mujassamlashgan

ziddiyat faqat qisman yechiladi. Bu to'liqsizlik narsa o'zini inkor qilishda davom etishini belgilaydi. Birinchi inkor o'rniga ikkinchi inkor keladi va ikkinchi narsaga qarama-qarshi bo'lgan yangi, uchinchi narsa vujudga keladi, u ikkinchi narsaning inkori, ya'ni birinchi narsaning inkorining inkori hisoblanadi. Ikkinchi inkor bosqichida birinchi narsaga xos bo'lgan ziddiyat to'la yechiladi.

Qo'sh inkor natijasida, dastlabki nuqtaga qaytilishi bilan rivojlanishning yuqoriroq darajasiga erishiladi, rivojlanishning boshlang'ich, lekin boyitilgan shakli tiklanadi. Rivojlanish chizig'i go'yo «spiral o'rami» aylanasini tashkil etadi, lekin uning boshi oxiri bilan tutashmaydi. SHunday qilib, rivojlanish harakatning bosqichma-bosqichligi va sikllilig i jihatlarini o'zida birlashtiradi. Bu qoida ham umumiy ahamiyat kasb etadi. U atrof borliqning barcha narsalari va hodisalariga nisbatan o'rinli, ya'ni dialektika qonuni kuchiga ega. U quyidagicha ta'riflanadi.

Inkorni-inkor qonuni – bu shunday bir qonunki, unga muvofiq rivojlanish jarayoni yangining eskini dialektik inkor etishlari cheksiz zanjiridan iborat bo'ladi, bunda rivojlanish avvalgi bosqichlarining barcha muhim jihatlari yangida saqlanadi va umuman bu jarayon hujumkor, yuksalib boruvchi yo'nalishga ega bo'ladi. Ayni vaqtda rivojlanish jarayonida uning oliy bosqichlarida avvalgi bosqichlarning ayrim jihatlari va tomonlari sifat jihatidan yangicha asosda takrorlanadi va ayni hol to'g'ri chiziq, tutash doira bo'ylab emas, balki s'iralga yaqinlashuvchi egri chiziq bo'ylab yuksalishni belgilaydi. Harakatning spiralsimonligi rivojlanishning sikllиligini aks ettiradi.

Dialektikaning asosiy qonunlari yagona rivojlanish jarayonining turli jihatlarini tavsiflab, alohida-alohida emas, balki uzviy dialektik birlikda amal qiladi. Masalan, miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi va buning aksi ziddiyatni ham, dialektik inkorni ham o'z ichiga oladi. Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi miqdor-sifat munosabatlarini va inkorni-inkorni o'z ichiga oladi. Xuddi shuningdek inkor jarayonida yagonaning eski va yangiga ikkilanishi, ularning o'rtasida qarama-qarshilik, shuningdek miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi yuz beradi. Boshqacha qilib aytganda, moddiy dunyoning yagonaligi qonunlar amal qilishining umumiyligini nazarda tutadi. Ammo shuni e'tiborga olish lozimki, dialektika qonunlari bir vaqtda amal qilganda, ularning har biri nisbatan mustaqil bo'ladi, zero rivojlanish mohiyatining muayyan jihatini (manba, mexanizm, yo'nalish) aks ettiradi. Rivoshlanishning zaruriy sharti sifatida tavsiflanadi: o'z mavjudligining avvalgi shakllarini inkor etmaydigan rivojlanish bo'lishi mumkin emas. Inkor harakatida rivojlanishga monelik qiladigan narsalarning rad etilishi, yo'q qilinishi yuz beradi. Umuman olganda inkor – ob'ektiv jarayon. Masalan, hozirgi zamon fani ma'lumotlariga ko'ra, kengayib borayotgan plazmani yo'q qilib tashlagan Katta portlashsiz biz yashayotgan Olam, uning galaktikalari, yulduzlari va sayyoralari ham, inson ham bo'lmas edi. Ammo inkorni sof yo'q bo'lish sifatida talqin qilishdan ehtiyot bo'lish lozimligini Gegel ham, boshqa faylasuflar ham qayd etadi. Bunday inkor «behuda», metafizik inkor deb e'tirof etiladi. U tabiatda ham, jamiyatda ham mavjud. Lekin oddiy yo'q bo'lish jamiyatni ortga uloqtirib tashlaydi, xolos. Vaholanki, tarix kultepasida jo'yali bir narsa yuzaga kelishi mushkul.

Dialektik inkor rivojlanish omili hisoblanadi, chunki u bartaraf etishni o'z ichiga oladi. Gegel fikricha, bartaraf etish «ikki xil ma'no kasb etadi: u asrash, saqlab qolishni va ayni vaqtda to'xtatish, chek qo'yishni anglatadi»[56]. Gegel talqinida inkor rivojlanish omili sifatida yashash qobiliyatini yo'qotgan narsani yo'q qilish va erishilgan rivojlanishni saqlashni nazarda tutadi. Masalan, A.Eynshteyn yangi va eski nazariyalarning o'zaro nisbatini shunday tavsiflaydi: «Yangi nazariya... eski nazariya yutuqlarini chetga chiqarib tashlaydi, deb hisoblash to'g'ri bo'lmaydi. yangi nazariya eski nazariyaning afzalliklarini ham, kamchiliklarini ham namoyon etadi va bizga eski tushunchalarga teranroq nuqtayi nazardan baho berish uchun imkoniyat yaratadi... Biz eski nazariya o'rinli bo'lgan sohada faktlar o'rganilayotganda har safar undan foydalanishimiz mumkin»[57]. Ammo har qanday hodisa yaxlit bo'lgani bois, bartaraf etish haqidagi masalaning qo'yilishi abstrakt xususiyat kasb etadi. XIX asr falsafiy ta'limotlarida bartaraf etishning tabiat va tarixdagi ko'rinishlarini erishilgan rivojlanishni o'zgartirilgan holda saqlash sifatida yoritib, bu tushunchani to'ldiradi. yangilik va eskilikning ichki ziddiyatlariga chek qo'yish sifatidagi o'z-o'zini inkor dialektik inkorning muhim xususiyati bo'lib, bu rivojlanishning hujumkorligini belgilaydi. Bu qonun dialektikaning boshqa qonunlarini umumlashtiradi, ularni sintez qiladi.

Kategoriya tushunchasi va ularning turlari. Kategoriya nima? Bu savolga javob berish uchun biz qanday fikrlashimiz va o'z fikrlarimizni boshqa odamlarga qanday yetkazishimizni ko'rib chiqamiz. Biz tushunchalar, mulohazalar va mushohadalar ko'rinishida fikrlaymiz. Fikrlash jarayonining asosiy materiali tushunchalar bo'lib, predmet lar o'z umumiy va muhim belgilarida ular orqali fikrlanadi. Tushunchalar yordamida biz voqea va hodisalar ma'nosini anglaymiz, ularning o'zimiz uchun ahamiyatini aniqlaymiz. Tushuncha va tushunish o'zakdosh so'zlardir, shu sababli bizning dunyoni tushunishimiz, dunyoga ongli munosabatimiz inson ixtiyorida mavjud bo'lgan tushunchalar apparati bilan belgilanadi. Biz o'z fikrlarimizni so'zlar yordamida ifodalaymiz. *So'z – fikr va dunyo o'rtasidagi vositachi*. U fikrlash omili, fikrni ifodalash, uni boshqalarga yetkazish vositasi hisoblanadi. So'z boyligimiz qancha katta bo'lsa, bizning dunyoni anglash borasidagi imkoniyatlarimiz shuncha keng bo'ladi. Ob'ektiv borliqni aniqroq va teranroq aks ettirish uchun inson fikrlash mantiqiy vositalarining muayyan majmuini, tushunchalarning muayyan doirasini yaratadi. Tushuncha – bu shunday bir fikrki, unda narsaning takrorlanuvchi xossalari, aloqalari va tomonlari aks etadi. Tilda tushuncha so'z bilan ifodalanadi. Masalan, «talaba», «universitet», «auditoriya» so'zlari ma'lum darajada umumiy, abstraktdir. Ammo shunday tushunchalar ham borki, ularda

[56] Гегел Г.В. Сосъ. Т. 5. – М.: 1997. – С.99.
[57] Эйнщтейн А., Инфелд Л. эволутси физики. – М.: 1956. – С.156.

shunchaki umumiy emas, balki o’ta umumiy narsalar va hodisalar qayd etiladi. Bunday tushunchalar juda yuqori darajadagi mavhumlashtirish (muayyandan uzoqlashish) mahsuli hisoblanadi.

Mana bunday mavhumlashtirishning taxminiy yo’li: «bu atirgul» («bu» so’zi bilan aniq belgilangan); «atirgul» (bu yerda «bu» ishorasi mavhumlashtirilgan); «atirgul» so’zi «bu atirgul» iborasidagidan umumiyroq narsani qayd etadi. SHundan so’ng bu iboraga «gul» so’zini qo’shamiz va u amalda mavjud barcha gullarni qamrab oladi. SHunday qilib biz gullarning muayyan rang-barangligidan fikran uzoqlashamiz, chunki e’tibor barcha gullarda mavjud bo’lgan umumiy jihatga qaratiladi. «O’simlik» so’zi butun o’simliklar dunyosini o’z ichiga oladi va yanada kengroq abstraktsiya hisoblanadi. Mavhumlashtirish (muayyandan uzoqlashish) yo’lida harakatni davom ettiramiz. Bu yo’lda «tirik» tushunchasi yanada umumiyroq bo’ladi, chunki o’simliklar dunyosinigina emas, balki hayvonot dunyosini ham o’z ichiga oladi. «Tiriklik» tushunchasi mavhumlashtirishning yanada yuqoriroq darajasida turadi. Bunday tushunchalar kategoriyalar (yunon. – asos, umumiy baho) deb ataladi.

Fikr bizning dunyo bilan o’zaro aloqa qilish tajribamizni u yoki bu darajada umumlashtiradi. Dunyo o’z xossalari, narsalari va munosabatlarining rang-barangligi jihatidan cheksiz darajada boydir. Bizning so’z boyligimiz o’zimiz yashayotgan dunyodan qashshoqroqdir. Fanda yangi kashf etilgan hodisalarni ifodalash uchun mos keladigan atamani to’ish zaruriyati tez-tez yuzaga kelishi tasodifiy hol emas. Bizning dunyo haqidagi tasavvurlarimizni ifodalovchi so’zlarning ma’no boyligi qancha aniq bo’lsa, tafakkurimiz shuncha teranroq bo’ladi, bizning tushunchalar a’’aratimiz qancha keng bo’lsa, fikrlash qobiliyatimiz shuncha komilroq bo’ladi.

Har qanday tushuncha muayyan narsalar va hodisalarning jamuljam ifodasi hisoblanadi. Ammo uning hajmi, ya’ni unda fikrlangan narsalar va hodisalar miqdori har xil bo’ladi. Masalan, har qanday xalqning tarixan vujudga kelgan tilida odamlar kundalik hayoti va faoliyatining tajribasi qayd etiladigan va anglab yetiladigan tushunchalar mavjuddir. Ijtimoiy hayotning murakkablashuvi tabiiy til so’z boyligining kengayishi va boyishiga turtki beradi. Fan va falsafaning rivojlanishi alohida maqomga ega bo’lgan va bilish jarayonida maxsus funksiyalarni bajaradigan tushunchalar shakllanishiga olib keldi. Bu tushunchalar kategoriyalar deb nomlandi.

Kategoriya (yunon. kategoria – ta’rif, mulohaza) – borliq hodisalari va unda hukm suruvchi munosabatlarning muhim, ti’ik mazmunini o’zida aks ettiradigan o’ta keng tushuncha. SHunday qilib, tabiiy til tushunchalari fan va falsafa kategoriyalari bilan tinimsiz boyib boradi. Kategoriyalarni tasniflash, borliqning turli shakllari haqidagi falsafiy tasavvurlarga muvofiq amalga oshiriladi. Odatda fan kategoriyalari, xususiy-ilmiy kategoriyalar va falsafa kategoriyalari farqlanadi.

Fan va falsafa kategoriyalarining tasnifi. Tabiiy tildan farqli o’laroq, fan tushunchalari va kategoriyalari atamalar (terminlar) hisoblanadi, ya’ni erkin talqinga yo’l qo’ymaydigan aniq belgilangan hajm va mazmunga ega bo’ladi.

Har qanday fan borliqning muayyan tomonlarini o’rganar ekan, albatta o’z kategoriyalar a’’aratini shakllantiradi. Matematika «son», «differentsial», «integral» kabi kategoriyalar bilan bog’liq. Biologiyada «tur», «irsiyat», «o’zgaruvchanlik» kabi kategoriyalar mavjud. Ammo, muayyan fanlarning kategoriyalari ma’lum darajada umumiy bo’lsa-da, borliqning ayrim sohalaridagina qo’llaniladi va mazkur sohalarga xos bo’lgan aloqalar va munosabatlarni aks ettiradi

Xususiy ilmiy kategoriyalar *alohida olingan xususiy ilmiy anlarda qo’llaniladigan, mohiyat nuqtayi nazaridan boshqa fanlarda qo’llanilishi mumkin bo’lmagan kategoriyalardir*. Masalan, fizika, kimyo geologiya, geografiya fanlari kategoriyalari xususiy xarakterga ega

Falsafiy kategoriyalar *fan kategoriyalaridan butunlay farq qiladi. Falsafiy kategoriyalarning muhim xususiyati, ular o’ta keng tushunchalar ekanligidir.* Ayni shu sababli falsafiy kategoriyalar hech qachon hajman cheklangan tabiiy til tushunchalari darajasida soddalashtirilishi mumkin emas.

Tushunchalar sifatida kategoriyalar fikrlashning zaruriy shakllari hisoblanadi. O’ta keng tushunchalar sifatida ular universal qo’llanish va butun olamni tavsiflashga da’vogar bo’lishi mumkin. SHu boisdan falsafiy kategoriyalar dunyoning manzarasini yaratish vositasi bo’lib xizmat qiladiki, bu, umuman olganda, falsafaning bosh vazifasi hisoblanadi. Har qanday tushunchalar kabi, kategoriyalar instrumental funksiyani bajaradi, fikrlash omili va vositasi sifatida amal qiladi. SHuningdek falsafiy kategoriyalar insonning turli hodisalarni bilish va o’zlashtirish usuli sifatida ham instrumental funksiyani bajaradi. Falsafiy kategoriyalar ilmiy bilishning muayyan metodologiyasini, umuman borliqni, ayniqsa inson borlig’ini tushunish me’yorlarini yaratish orqali normativ funksiyani ham bajaradi. Kategoriyalarning ahamiyati va universalligi shu bilan belgilanadiki, bilish natijalari muqarrar tarzda kategoriyalarda qayd etiladi, kategoriyalar shakl-shamoyilini kasb etadi. Ular fan tarkibining zaruriy qismi hisoblanadi. Zero fan ob’ekti faqat kategoriyalar yordamida fikrlanishi va tushunilishi mumkin.

Falsafaning vujudga kelishi va rivojlanishi jarayonida falsafiy bilish predmet ining o’ziga xosligini va falsafiy tafakkur xususiyatlarini aks ettiruvchi kategoriyalar tizimi mavjud. Ularni mazmunan talqin qilish dunyoqarashning shakllanish jarayoni bilan uzviy bog’liq bo’lib, fan, falsafa va umuman ma’naviy madaniyatning rivojlanishiga qarab o’zgarib boradi. Falsafiy kategoriyalar tarkibi ham kengayadi. Fanning aksariyat kategoriyalari falsafiy maqom kasb etadi. Ilgari mavjud bo’lmagan yangi jarayonlar va hodisalar vujudga kelishi bilan bog’liq ijtimoiy rivojlanish tegishli tarzda falsafiy idrok etiladiki, bu falsafaning tushunchalar apparatini yanada boyitadi. Falsafiy tushunchalar va kategoriyalar bilan ish ko’rish mahoratini o’zlashtirish talabaning falsafiy madaniyatini, umuman fikrlash madaniyatini shakllantirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Falsafiy kategoriyalar – borliqning umumiy, muhim tomonlari, xossalari, aloqalari va munosabatlari haqida fikrlash uchun qo’llaniladigan o’ta keng tushunchalar majmuidir. Falsafiy kategoriyalar tizimida shartli ravishda uch muhim guruhni farqlash mumkin.

1. *Falsafiy kategoriyalarning birinchi va eng muhim guruhi – har qanday falsafiy muammolarni tahlil qilishda qo'llaniladigan umumiy kategoriyalar, ya'ni borliq kategoriyalaridir* (falsafiy adabiyotlarda bu kategoriyalarni dialektika kategoriyalari deb nomlash odat tusini olgan).

2. *Ikkinchi guruhni falsafaning turli bo'limlariga tegishli bo'lgan maxsus kategoriyalar tashkil etadi*. Masalan, ontologiya borliq va yo'qlik, substantsiya, dunyoning birligi, materiya, ong, makon, zamon, harakat kabi kategoriyalar mazmunini aniqlaydi va muayyan tarzda talqin qiladi. Naturfalsafa, gnoseologiya, antro'ologiya, praksiologiya, ijtimoiy falsafa, globallashuv falsafasi ham o'z kategoriyalar a''aratiga egadir.

3. *Uchinchi guruhni maxsus falsafiy fanlar: mantiq, axloq (etika), estetika kategoriyalari tashkil etadi.* Masalan, axloq fanida falsafiy bilimning ayni shu sohasi va falsafaning axloq bilan turdosh bo'limlari – antropologiya, ijtimoiy falsafa, aksiologiyaga xos bo'lgan kategoriyalar tizimi (yaxshilik va yomonlik, sha'ni va qadr-qimmat, hayot ma'nosi, baxt va boshqalar) vujudga kelgan. Tushunchalar, mulohazalar, mushohadalar, dalillash va hokazolar mantiq kategoriyalari hisoblanadi. Estetikada go'zallik va xunuklik, fojeaviylik va kulgililik, ulug'vorlik va tubanlik kabi kategoriyalar qo'llaniladi. Biz esa falsafaning umumiy kategoriyalarini ko'rib chiqamiz.

Falsafa kategoriyalari muayyan fanlarning kategoriyalaridan ancha farq qiladi. Bu farq shundan iboratki, dialektika kategoriyalari ob'ektiv dunyo hodisalari turkumlarining muhim xossalari va aloqalarinigina emas, balki barcha moddiy jarayonlarga xos bo'lgan eng umumiy xossalar va aloqalarni aks ettiradi. SHunday qilib, dialektika kategoriyalari ob'ektiv dunyoni ideal aks ettirishning o'ta keng shakllari bo'lib, ular voqelikni bilish va ma'naviy-amaliy o'zgartirishning asosiy printsiplari bo'lib xizmat qiladi.

Dialektika kategoriyalarini ikki turga ajratish mumkin: substantsion kategoriyalar va munosabatdosh kategoriyalar. Substantsion kategoriyalar – bu boshqa kategoriyalardan qat'iy nazar, alohida-alohida qo'llaniladigan kategoriyalar. Bunday kategoriyalar qatoriga «borliq», «materiya», «harakat», «rivojlanish», «makon», «vaqt », «ziddiyat» va hokazolar kiradi. Ular ob'ektiv voqelikning muayyan umumiy xossalarini qayd etadi, lekin bu kategoriyalarning boshqa kategoriyalar bilan aloqalari haqida bevosita tasavvur hosil qilish imkonini bermaydi.

Munosabatdosh kategoriyalar biri ikkinchisi bilan uyg'un bog'liq bo'lib, bilish jarayonida biri ikkinchisini nazarda tutadi; ularning biri haqida tasavvur hosil qilganda boshqasini hisobga olmaslik mumkin emas. Bunday kategoriyalar qatoriga quyidagilar kiradi: yakkalik va umumiylik; hodisa va mohiyat; shakl va mazmun; qism va butun; sabab va oqibat; tasodif va zaruriyat; imkoniyat va voqelik.

Biz falsafa kategoriyalarini batafsilroq ko'rib chiqamiz.

Umumiylik, yakkalik, xususiylik *kategoriyalari borliq narsalari va hodisalarining nisbatan mustaqilligi, ularning rang-barangligi va birligi in'ikosi* hisoblanadi.

Kundalik hayotda biz «yakka», «xususiy», «umumiy» tushunchalarini ko'p ishlatamiz va ularning mazmuni bizga ba'zan oydek ravshan bo'lib tuyuladi. Ammo mazkur tushunchalar bilan ifodalanadigan predmet yoki predmet lar turkumini to'ishga harakat qilganimiz zahoti katta qiyinchiliklarga duch kelamiz. Masalan unga ikkita bolaning suhbatini asos bo'lishi mumkin:

- Umringda hech qushni ko'rganmisan?

- Ha, ko'rganman. Mana u (kanareykaga ishora qiladi).

- E, bu qush emas, kanareyka-ku. Kanareykani ham sen hech qachon ko'rmagansan. Sen faqat bitta kanareykani, bizning kanareykamizni ko'rgansan.

Sog'lom fikr kanareykada qushni ko'rgan bola u hech qachon qushni ko'rmaganini aytayotgan boladan ko'proq haq ekanligidan dalolat beradi. Ammo umuman qush, meva, daraxtini ko'rganini kim uzil-kesil qayd eta oladi? Biz bu qush, bu daraxt, bu mevani o'z tajribamizda ko'rganimiz hech qanday shubha uyg'otmaydi. Umumiy tushunchalar amalda ob'ektiv mazmunga ega yoki ega emasligi falsafa tarixida qizg'in munozaralarga sabab bo'lgan. Umumiy tushunchalar tabiati masalasi atrofida bahs o'rta asrlardan beri davom etib keladi. Umumiy tushunchalar amalda mavjudmi? Nima haqiqiy borliq hisoblanadi – yakkalikmi yoki umumiylikmi? Umumiylik va yakkalik munosabati hodisalar xossalarining emas, balki hodisalarning munosabati sifatida qaraladigan darsliklarga hozir ham duch kelish mumkin. Xo'sh, bugungi kunda falsafada mazkur masala qanday yechilmoqda?

Yakkalik – *faqat mazkur ob'ektga xos bo'lgan xossalarni ifodalovchi kategoriya. ya*kkalik ayrim narsalar nisbatan mustaqil mavjudligini ham, mazkur narsaning bu nisbatan mustaqilligi, diskretligi, alohidaligi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan individual betakror belgilarni ham qayd etadi.

Umumiylik *ayrim narsaning muayyan turkumga mansub barcha narsalar bilan o'xshashligini belgilovchi xossalar umumiylik kategoriyasi bilan ifodalanadi.*

Umumiylik yakka narsaning mohiyatini aks ettiradi. Umumiylikni faqat mohiyatni aniqlash orqali ochib berish mumkin. yakkaliksiz umumiylik sezgilar darajasida idrok etiladigan belgilardan, yakkalikning betakror individualligi, boyligidan mahrum bo'lgan abstraktsiya bo'lib qoladi. yakkalik va umumiylikning keltiriladigan ta'riflari ularni ayni bir ayrim ob'ektning tomonlari sifatida tavsiflaydi. Masalan, hayot bugungi kunda oqsilli jismlar va nuklein kislotalarning mavjudlik shakli sifatida tavsiflanadi. Irsiyat va o'zgaruvchanlik – butun tiriklikning umumiy xossalari. Ammo oqsilning kimyoviy tarkibi va ayniqsa tuzilishi har bir organizmda individual darajada betakrordir. Bu bir jonzotni boshqa jonzotdan farqlash imkonini beruvchi birdan-bir xossadir. Mantiqda y*akkalik va umumiylik – tushunchalar tavsifidir*. Umumiylik tushunchasida ikki va undan ortiq predmet , yakkalik tushunchasida esa – bitta predmet tushuniladi. Grammatik *jihatdan umumiylik turdosh ot bilan, yakkalik esa – atoqli ot bilan ifodalanadi*. Falsafada y*akkalik va umumiylik borliq hodisalarining o'xshashligi va farqlarini belgilovchi xossalardir.*

«Yakkalik» kategoriyasi narsada, hodisada faqat shu narsaga, hodisaga xos bo'lgan jihatni aks ettiradi. «Umumiylik» - bu narsalar va hodisalar o'rtasida muayyan sifat jihati doirasida amalda mavjud bo'lgan ayniylikdir. Yakkalik ham, umumiylik ham mustaqil mavjud bo'lmaydi. Ayrim narsalar, hodisalar, jarayonlar mustaqil mavjud bo'ladi. Umumiylik ham, yakkalik ham faqat ayrim narsa yoki hodisadagina mavjuddir. Har qanday ayrim narsa yoki hodisa qarama-qarshiliklar birligi hisoblanadi. Bir vaqtning o'zida u ham yakkalik, ham umumiylikdir. Har qanday umumiylik ayrim narsa, hodisaning tarkibiy qismi, elementi hisoblanadi, chunki u ayrim narsa yoki hodisani to'liq emas, balki bir yoqlama – narsalarda mavjud ayniy jihatlarni aks ettiradi. yakkalik o'z mohiyatiga ko'ra mavhum hisoblangan umumiylikdan boyroqdir. Ammo umumiylik narsaning mazmuni, mohiyatini chuqurroq yoritadi

O'rta asrlar falsafasida umumiy tushunchalar tabiati haqidagi masala atrofidagi bahs uning ishtirokchilari realistlar va nominalistlarga bo'linishiga olib keldi. Realistlar umumiylikni yakkalikdan ajratib, umumiylikni mustaqil holda mavjud hodisa sifatida, narsalar paydo bo'lgunga qadar – narsalarning (Xudo aqlidagi) ilk timsoli sifatida, narsalarda – Xudoning ro'yobga chiqarilgan g'oyasi sifatida talqin qilganlar. SHunday qilib, realistlar fikricha umumiylik narsalarga qadar, narsalarda va narsalardan keyin narsaning muayyan g'oyasi sifatida mavjud bo'ladi. Nominalistlar esa, aksincha, faqat yakka narsalar amalda mavjud, umumiy tushunchalar esa, ayrim narsalarning nomlari, xolos, deb hisoblaganlar. Mazkur tasavvurlar aks sadosiga bugungi kunda ham, masalan, umumiylik ob'ektlar to'plami bilan, yakkalik esa – bitta predmet bilan tenglashtirilgan holda duch kelish mumkin. Amalda umumiylik va yakkalik kategoriyalari ob'ektlarni emas, balki ularning xususiylik tomonlari sifatida birgalikda mavjud bo'lgan xossalarini aks ettiradi. Umumiylik va yakkalikning birligi o'ziga xosdir, chunki ularning har bir ob'ektdagi ko'rinishi, uyg'unligi, birining ikkinchisidan ustunligi betakrordir. SHu sababli har bir ayrim hodisa, narsa – xususiydir.

Xususiylik tushunchasi zikr etilgan kategoriyalar mazmunini ochib beruvchi asosiy tushunchadir. Xususiylik – «narsa» tushunchasining sinonimi, ya'ni borliqning nisbatan mustaqil, sifat jihatidan muayyan parchasi. U xossalar to'plamiga ega. «Xususiylik» yakkalik va umumiylik o'rtasidagi oraliq kategoriya hisoblanadi. *Xususiylik – yakkaga nisbatan umumiy bo'lgan va umumiyga nisbatan yakka bo'lgan narsa yoki hodisa*. Masalan: modda (qonun moddasi) – yakka; qonun – xususiy; huquq - umumiy. «Qonun» tushunchasi «modda» tushunchasiga nisbatan umumiydir. O'z navbatida «qonun» tushunchasi «huquq» tushunchasiga nisbatan yakkalikni aks ettiradi.

Yakkalik, umumiylik va xususiylik kategoriyalari bilish jarayonida uning tayanch nuqtalari, bilimsizlikdan bilim sari bosqich rolini o'ynaydi.

Ontologik va munosabatdosh kategoriyalar. *Dialektika kategoriyalarini ikki turga ajratish mumkin: substantsion kategoriyalar va munosabatdosh kategoriyalar*. Substantsion kategoriyalar – bu boshqa kategoriyalardan qat'iy nazar, alohida-alohida qo'llaniladigan kategoriyalar. Bunday kategoriyalar qatoriga «borliq», «materiya», «harakat», «rivojlanish», «makon», «vaqt », «ziddiyat» va hokazolar kiradi. Ular ob'ektiv voqelikning muayyan umumiy xossalarini qayd etadi, lekin bu kategoriyalarning boshqa kategoriyalar bilan aloqalari haqida bevosita tasavvur hosil qilish imkonini bermaydi.

Munosabatdosh kategoriyalar biri ikkinchisi bilan uyg'un bog'liq bo'lib, bilish jarayonida biri ikkinchisini nazarda tutadi; ularning biri haqida tasavvur hosil qilganda boshqasini hisobga olmaslik mumkin emas. Bunday kategoriyalar qatoriga quyidagilar kiradi: yakkalik va umumiylik; hodisa va mohiyat; shakl va mazmun; qism va butun; sabab va oqibat; tasodif va zaruriyat; imkoniyat va voqelik.

YAkkalik – *faqat mazkur ob'ektga xos bo'lgan xossalarni ifodalovchi kategoriya. ya*kkalik ayrim narsalar nisbatan mustaqil mavjudligini ham, mazkur narsaning bu nisbatan mustaqilligi, diskretligi, alohidaligi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan individual betakror belgilarni ham qayd etadi.

Umumiylik *ayrim narsaning muayyan turkumga mansub barcha narsalar bilan o'xshashligini belgilovchi xossalar umumiylik kategoriyasi bilan ifodalanadi.*

Umumiylik yakka narsaning mohiyatini aks ettiradi. Umumiylikni faqat mohiyatni aniqlash orqali ochib berish mumkin. yakkaliksiz umumiylik sezgilar darajasida idrok etiladigan belgilardan, yakkalikning betakror individualligi, boyligidan mahrum bo'lgan abstraktsiya bo'lib qoladi. yakkalik va umumiylikning keltiriladigan ta'riflari ularni ayni bir ayrim ob'ektning tomonlari sifatida tavsiflaydi. Masalan, hayot bugungi kunda oqsilli jismlar va nuklein kislotalarning mavjudlik shakli sifatida tavsiflanadi. Irsiyat va o'zgaruvchanlik – butun tiriklikning umumiy xossalari. Ammo oqsilning kimyoviy tarkibi va ayniqsa tuzilishi har bir organizmda individual darajada betakrordir. Bu bir jonzotni boshqa jonzotdan farqlash imkonini beruvchi birdan-bir xossadir. Mantiqda ya*kkalik va umumiylik – tushunchalar tavsifidir*. Umumiylik tushunchasida ikki va undan ortiq predmet, yakkalik tushunchasida esa – bitta predmet tushuniladi.

Xususiylik tushunchasi zikr etilgan kategoriyalar mazmunini ochib beruvchi asosiy tushunchadir. Xususiylik – «narsa» tushunchasining sinonimi, ya'ni borliqning nisbatan mustaqil, sifat jihatidan muayyan parchasi. U xossalar to'plamiga ega. «Xususiylik» yakkalik va umumiylik o'rtasidagi oraliq kategoriya hisoblanadi. *Xususiylik – yakkaga nisbatan umumiy bo'lgan va umumiyga nisbatan yakka bo'lgan narsa yoki hodisa*. Masalan: modda (qonun moddasi) – yakka; qonun – xususiy; huquq - umumiy. «Qonun» tushunchasi «modda» tushunchasiga nisbatan umumiydir. O'z navbatida «qonun» tushunchasi «huquq» tushunchasiga nisbatan yakkalikni aks ettiradi.

Mohiyat va hodisa. Bu kategoriyalar bilishning turli bosqichlarini belgilaydi va ularning har biri ob'ektni anglab etishning chuqurlik darajasini aks ettiradi. Mohiyat *ob'ektiv borliqning ichki, nisbatan yashirin va barqaror tomonini ifodalash uchun mo'ljallangan bo'lib, u narsaning, jarayonning tabiatini va ularga xos bo'lgan*

qonuniyatlarini belgilaydi. Hodisa – *bu narsada, jarayonda qarshimizda bevosita namoyon bo'luvchi xossalar, tomonlar yig'indisini ifodalash uchun mo'ljallangan kategoriya.*

Hozirgi falsafiy adabiyotlarda mohiyat predmet borlig'i barcha rang-barang va qarama-qarshi shakllarining barqaror birligidan iborat bo'lgan predmetning ichki mazmuni sifatida tavsiflanadi. Mohiyat har qanday sistemaning asosiy jihatlari va tendentsiyalarini belgilovchi teran aloqalar, munosabatlar, xossalar va ichki qonunlar majmuidir. Muayyan mohiyatsiz jism, jarayon bo'lmaganidek, muayyan hodisada o'z ifodasini topmagan mohiyat ham bo'lishi mumkin emas.

Falsafada hodisaning ikki ma'nosi shakllangan. Birinchidan, hodisa *voqea, tabiat va jamiyatdagi jarayonladir.. U mazkur jarayonlar bizning ongimiz, idrokimizda aks etishini anglatadi*. Masalan, momaqaldiroq, kamalak, qor yog'ishi, suv toshishi, er qimirlashi, vulqon otilishi – bularning barchasi tabiat hodisalaridir. Inson tabiat hodisalarini tushunish, tushuntirishga harakat qilgan va ularning o'z ongidagi in'ikosi bilan amaldagi ifodasi o'rtasida muayyan farq mavjudligini aniqlagan. Tabiat hodisalarini ularning inson birinchi navbatda idrok etadigan va pirovard natijada uni aldaydigan yuzaki, o'zgaruvchan jihatlari tavsiflaydi. SHu tariqa hodisa kategoriyasining mohiyatning ziddi sifatidagi falsafiy ma'nosiga ega bo'ladi.

Ikkinchidan hodisa – *mohiyatni aniqlash usuli.* U, odatda, narsalar o'zaro ta'sirga kirishganida, mohiyat o'zini namoyon etishi natijasida yuz beradi. Narsa qanday bo'lsa, ko'rsatilgan aloqalar va o'zaro ta'sirlar xususiyati ham shunday bo'ladi. Masalan, yirtqich hayvon uni o'txo'r hayvonga aylantirishga qancha urinmasinlar, baribir yirtqich bo'lib qoladi. Ammo u qanday muhitda va o'z ishtahasining qaysi potentsial qurboni bilan to'qnash kelishiga qarab, uning xulq-atvori o'zgaradi. Ayni shu sababli hodisa narsaning mohiyatini, uning muayyan ichki va muhim xossasini u yoki bu tarzda namoyon etadi.

Mazmun va shakl. Mazmun va shakl tushunchalari, ularning dialektikasi qadimdayoq sinchiklab o'rganilgan. Uyg'unlik, go'zallik, mutanosiblik tuyg'usi, aql va tananing barkamolligi qadimgi yunonlar uchun juda muhim bo'lgan. Ularning tilida shakl tushunchasi tabiatning oddiy materiali go'zal shakl-shamoyil kasb etishiga imkoniyat yaratadigan g'oya tushunchasining sinonimi sanalgan. Aristotel g'oya, ya'ni shaklni materiya bilan uzviy deb hisoblagan. Qadimgi Yunonistonda mazmun va shakl muammosi qo'yilgan bo'lsa, keyingi ming yillikda bu muammoni turli yo'nalish mutafakkirlari yechishga harakat qildi.

Mazmun. Mantiqda *mazmun tushunchasi uning muhim belgilari majmuini anglatadi.* Falsafada *mazmun narsaning negizini tashkil etadigan, uning mavjudligi, rivojlanishi va shakllarining o'zgarishini belgilaydigan qismlar, elementlarning muayyan tarzda tartibga solingan majmuidir.* Ko'rib turganimizdek, mantiq va falsafadagi mazmun tushunchalari bir-birini istisno etmaydi, balki bir-birini to'ldiradi. Demak, **mazmun – mazkur narsa, jarayon, hodisani belgilovchi elementlar, tomonlar, xossalar, aloqalar va tendentsiyalarning yig'indisi.** Har qanday narsa, hodisa aniq mazmun bilangina emas, balki muayyan shakl bilan ham tavsiflanadi.

SHakl – bu narsalar va jarayonlarning mazmunini belgilovchi tomonlar, xossalar va aloqalarni uyushtirish usuli. Boshqacha aytganda, narsaning shakli – bu elementlar o'rtasidagi barqaror ichki aloqalarni uyushtirishning unga yaxlitlik sifatida namoyon bo'lishi va o'ziga xos bo'lgan barcha funksiyalarni bajarish imkonini beruvchi usuli. SHakl – narsaning tuzilishi, strukturasini, mazmun elementlarining uyushish, bir-biri va tashqi omillar bilan o'zaro aloqa qilish usulini tavsiflovchi ichki aloqa.

7- Mavzu: Tarixiy jarayonda jamiyatning madaniy va ma'naviy qadryatlari.

Reja:

1. Tarixga formatsion va tsivilizatsion yondashuvlar.
2. Jamiyat rivojlanuvchi tizim sifatida.
3. Sivilizatsiya rivojining asosiy bosqichlari.
4 Qadriyat tushunchasining tavsifi va mohiyati.

Jamiyat haqidagi ilk falsafiy qarashlar qadimdan boshlab Markaziy Osiyo mintaqasida shakllangan. Markaziy Osiyodagi ijtimoiy-falsafiy bilimlarning shakllanishi uzoq tarixga ega. U dastlab boy ma'naviy merosimiz – xalq og'zaki ijodida, so'ng esa qadimiy yozma madaniy yodgorliklarda o'z ifodasini topgan. Bu madaniy yodgorliklarda; a) qadimgi bitiklar; «Avesto». Buyuk allomalarimiz qoldirgan manbalar kiradi.

Jamiyat va insonni falsafiy anglash muammolarni Markaziy Osiyolik buyuk mutafakkirlarni Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy yirik olim, shoir Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy asarlarida ko'tarilgan.

XIX asrga qadar falsafiy qarashlarda ijtimoiy falsafaga doir ikki muammo o'z yechimini topgan.

1. Jamiyatni, uning falsafiy tahlil etish.
2. Jamiyat tarixini falsafiy anglash.

Jamiyat tushunchasi. Jamiyat fanga ma'lum tizimlar orasida eng murakkabi bo'lib, uni o'rganish jiddiy qiyinchiliklar tug'diradi. Jamiyat hayoti juda faol bo'lib, har bir xalq o'zining alohida, betakror tarixiga ega. Jamiyat hayotining barcha jarayonlari bir-biri bilan shu darajada uzviy bog'liqki, ba'zan turli vaziyatlarda belgilovchi va belgilanuvchi jarayonlar o'rin almashadi. Tarixiy jarayonda tasodiflar va sub'ektiv omil ayniqsa muhim rol o'ynaydi.

Jamiyat hayoti asrlar osha olimlar va faylasuflarning tadqiqot ob'ekti bo'lib kelmoqda. U turli fanlar, chunonchi: sotsiologiya, tarix, siyosatshunoslik, huquqshunoslik, etnografiya, iqtisodiy nazariya va hokazolar doirasida o'rganiladi. Fanning vazifasi – jamiyat tuzilishini o'rganish, tarixiy jarayonda takrorlanuvchi, umumiy xossalar, jihatlar, omillar va qonuniyatlarni aniqlashdan iborat. Ilmiy bilim tarixiy jarayondan taqqoslab bo'lmaydigan darajada qashshoqroq bo'lsa-da, u jamiyatga zarur, chunki uning haqiqiy tarixini o'rganish, uning o'tmishda va hozirgi davrda rivojlanishining muqobil imkoniyatlarini aniqlash, bugungi kunning muhim vazifalarini hamda hozirgi zamon va kelajakka ta'sir ko'rsatish yo'llarini belgilash imkonini beradi.

Muayyan fanlardan farqli o'laroq, falsafaning vazifasi tarixiy jarayonning umumiy jihatlarini o'rganishdan iborat. Falsafa muayyan hodisalarning sabablari nimada degan savolga javob topish vazifasini o'z oldiga qo'ymasada, tarix fanining metodologik asoslarini yaratadi, mazkur sabablarni aniqlashga nisbatan qanday yondashish kerak, degan savolga javob beradi. U dunyoqarashga doir o'z mo'ljallariga tayanadi, ijtimoiy va gumanitar fanlarning kategoriyalar apparatini ishlab chiqishda ishtirok etadi. O'z kategoriyalarining ijtimoiy mazmunini yoritar ekan, falsafa shunga asoslanib muayyan-tarixiy jarayonlarni tahlil qilishni amalga oshiradi. Tarix falsafasining muammolaridan biri bu tarixiy jarayonning birligi muammosi va tarixni davriylashtirish tamoyillarini belgilashdir. Falsafaning vazifasi jamiyat hayotining asosiy negizlarini, uning tizim tashkil etadigan omillarini aniqlashdan iborat. Tarix falsafasida dunyoqarashga doir mo'ljallarining rang-barangligi bilan ajralib turadigan ko'plab oqimlar va yo'nalishlar mavjud bo'lgan. SHu sababli har bir faylasuf, odatda, o'z mo'ljallariga amal qiladi, nafaqat dunyoni, balki jamiyatni ham o'ziga xos tarzda tushuntiradi.

Madaniy-tarixiy tiplar g'oyasi. XIX asrda madaniy-tarixiy tiplar nazariyasi vujudga kelgan bo'lsada, aslida bu haqdagi dastlabki qarashlar Forobiy ijodiga mansub. Forobiy insonlar jamiyatini ikki madaniy- tarixiy tiplarga ajratadi: Birinchisi to'liq jamiyat bo'lib, u o'zida a) er yuzidagi jami insonlarni qamrab oluvchi yirik jamiyat, b) Yerning muayyan qismida yashovchi bir millat yoki bir dinga mansub kishilarning o'rta jamiyati v) muayyan qavm yoki dinga mansub bir shahar jamiyatini qamrab oladi. Ikkinchisi bir qishloq, ovul, yoki bir oiladan iborat bo'lgan to'liqsiz jamiyat.[1] Forobiy fikricha "Eng yaxshi fazilat va oliy darajadagi komillikni kichik birligi shahar hisoblanadigan madaniy jamiyat ichidagina qo'lga kiritish mumkin. To'liqsiz jamiyatlar insonni takomillashtirishga qobil emaslar".[2] Forobiyning bu fikrlari Platon va Aristotelning jamiyatga oid qarashlaridan farq qiladi, chunki u jamiyatdagi o'zgarishlarni inobatga olgan. Jamiyatni to'liq va to'liqsizga ajratar ekan, Forobiy shahar to'liq jamiyatning birinchi bosqichidir deb e'tirof etadi. Platon va Aristotel esa to'liq jamiyatni shahar bilan chegaralaganlar va shahar insoniyat jamiyati takomilining oxirgi darajasi, jamoaviy baxt saodatning bosh markazi deb ta'kidlaganlar. Forobiy esa, butun dunyodagi jamiyat haqida fikr yuritib, uning xukmdori qandaydir alohida olingan xalq, qavm yoki jamoa boshlig'i emas, balki butun madaniy dunyodir deb ta'kidlaydi va bu fikri bilan yunon faylasuflaridan ilgarilab ketadi.

Madaniy-tarixiy tiplar tushunchasi sotsiologiyaga N.YA.Danilevskiy tomonidan kiritilgan bo'lib, u tarixni «o'ziga xos sivilizatsiyalar»ning o'zaro munosabatlari sifatida tasavvur qilgan. Bu sivilizatsiyalarning rivojlanishi etnik guruhlarning til jihatidan birligi va sivilizatsiyani tashkil etadigan xalqlarning siyosiy mustaqilligi; (ular bir tipning asoslarini boshqa tipga o'tkazmaydilar, lekin boshqa o'tmishdagi va hozirgi sivilizatsiyalar ta'sirini his qiladilar); barcha sivilizatsiyalarning etnik jihatdan rang-barangligi va rivojlanish jarayonining birligi (ular o'sish, qisqa muddat ravnaq topish va tanazzul bosqichlarini boshdan kechiradi) kabi qonunlar bilan belgilanadi. N.Danilevskiyning g'oyalari keyinchalik SHpengler va Toynbi kontseptsiyalarida rivojlantirildi, lekin ularning ilmiy asoslarini P.A.Sorokin taklif qildi.

P.A.Sorokin (1889-1968). Taniqli faylasuf P.A.Sorokin tarix falsafasining rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. U jamiyatga individlar va ijtimoiy guruhlarning o'z ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faoliyati bilan belgilanadigan bir-biri va jamiyat bilan o'zaro munosabatlari natijasida vujudga keladigan integral yaxlitlik sifatida qaragan. P.A.Sorokin jamiyatni gorizontal, vertikal yo'nalishlarda va fluktuatsiya (tebranish) tarzida murakkab harakatda bo'lgan ijtimoiy-madaniy tizimlarning rang-barangligini tan olish nuqtayi nazaridan tavsiflagan. P.A.Sorokin sotsiologiyasida o'tmish va hozirgi sotsiologiya fanining muhim g'oyalari uyg'un birlikda jamlangan va ifodalangan.

Jamiyatning vujudga kelishiga doir qarashlar. Jamiyatning vujudga kelishi haqida ajdodlarimiz hayotining arxeologlar topgan va odamlarning ko'plab avlodlari bosib o'tgan murakkab va fojialarga to'la tarixiy yo'ldan dalolat beradigan izlarga qarab xulosa chiqarish mumkin. SHunga qaramay inson va jamiyat kelib chiqishining to'liq manzarasi fanda hanuzgacha yaratilmagan. Jamiyat kelib chiqishining diniy talqini ham (u o'z mifologiyasini haqiqat deb tan olishni talab qiladi), idealistik kontseptsiya (o'zining spekulyativligi tufayli) va materializm (ilmiy dalillar yetarli emasligi bois) ham asosli e'tirozlar uyg'otadi. Kant materializmdan inson ruhining tabiatini tushuntiruvchi tamoyil sifatida foydalanish hech qachon mumkin emas, deganida, ma'lum ma'noda haq edi. Ammo, daliliy ma'lumotlar ozligiga qaramay, biz jamiyatning vujudga kelish manzarasini ancha aniq yaratish imkonini beradigan ilmiy dalillarga ishonch bilan qarash lozim, deb hisoblaymiz.

Jamiyatning kelib chiqishini ilmiy tavsiflash borasidagi qarashlar. Bunday qarashlar mehnat va mehnat qurollari markscha nazariyasi doirasida amalga oshirilgan. Bu nazariyaga ko'ra mehnat, so'ngra burro nutq inson jamiyatini yaratgan. Inson hayotida mehnat qurollarining ahamiyatini rad etmagan holda, bu farazni tasdiqlovchi

---

[1] Forobiy Fozil shaxar axolisi.-T.: SHarқ, 1999. –B.82-83

[2] Forobiy Fozil shaxar axolisi.-T.: SHarқ, 1999.-B..69

aniq ilmiy dalillarga duch kelmadik. Z.Freyd inson vijdonini uning kelib chiqish manbai deb hisoblagan. Etnografik tadqiqotlar bu farazni umuman tasdiqlamaydi. Y.Xeyzinga o'yin va o'yin faoliyatiga madaniyatning insonni shakllantiruvchi asosiy tamoyil sifatida qaraydi. Ernst Kassirer (1875-1945) ilgari surgan farazga ko'ra, simvolik shakllar, ya'ni inson va uning ongi paydo bo'lishini belgilagan ramzlar va belgilar madaniyatning turli shakllarini birlashtiruvchi oliy va universal tamoyil hisoblanadi. Kassirer fikriga ko'ra, qadimgi ajdodlarimiz ularning yashab qolishini ta'minlovchi yetarli tabiiy kuchga ega bo'lmagan. Inson o'zining hayvonlar xulq-atvorini kuzatish va ularga taqlid qilish qobiliyati bilan yashab qolish imkoniyatini qo'lga kiritgan. O'z navbatida taqlidga asoslangan xulq-atvor ramziy belgilar, keyinchalik esa nutq vujudga kelishiga asos bo'lgan.

To'plangan tajribani belgilar tizimida qayd yetish va avloddan-avlodga o'tkazish qobiliyatining shakllanishi hayvonlar to'dasi kishilik hamjamiyatiga aylanishining muhim omili bo'lgan deb taxmin qilish mumkin. Bunday qobiliyatga hayvonlarning biron-bir turi ega emas. Namoyish yetish, o'rnak ko'rsatish, taqiqlar va cheklashlar tizimi muloqotning nafaqat noverbal, balki asta-sekin shakllangan verbal vositalarida ham o'z ifodasini topgan. Muloqot mehnat ko'nikmalarini mustahkamlash, ovqat topish va unga ishlov berishni tartibga keltirish, o'z jamoa harakatlarini muvofiqlashtirish imkonini bergan. Etnografik ma'lumotlar tajribani avloddan-avlodga o'tkazish va jamoa faoliyati ko'nikmalarini shakllantirish shakli sifatida o'yin ulkan ahamiyat kasb etganidan dalolat beradi.

Ma'lum taqiqlar orasida ovqatga doir xulq-atvor bilan bog'liq taqiqlar, shuningdek seksual cheklashlar, avvalo yaqin qarindoshlar jinsiy aloqaga kirishishi – intsestning taqiqlanishi ayniqsa ajralib turadi. Ular insoniyat kelajagi uchun olamshumul ahamiyat kasb etgan. Zero tartibsiz jinsiy aloqalar naslning buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan. Aslida, olingan tajriba yaqin qarindoshlar o'rtasida nikohning taqiqlanishiga sabab bo'lgan. Bu nikoh aloqalari tizimini tartibga solish, ularni qat'iy qayd yetish, ayollar, qizlar, singillarni ayirboshlash, so'ngra bu bilan o'xshashlik bo'yicha – oziq-ovqat, buyumlar, so'z-belgilar ayirboshlashni yo'lga qo'yish imkonini bergan. Mazkur jarayonlar odamlar o'rtasida muloqot, munosabatlar va xulq-atvor me'yorlari o'rnatilishi va ularga rioya yetish zarurligi anglab etilishiga turtki bo'lgan. Me'yorlarning mustahkamlanishiga mifologik va ilk diniy tasavvurlar hamda taqiqlar tizimi ko'maklashgan. Jamoadan tashqarida yashab qolish imkoniyati mavjud emasligini anglagan jamoaning har bir a'zosi unda o'rnatilgan kundalik xulq-atvor me'yorlariga rioya qilgan. SHunday qilib, jamiyat ishlab chiqarish va ko'payish ehtiyojlari bilan belgilangan odatlar, me'yorlar va qadriyatlar bilan tartibga solinadigan odamlarning birgalikdagi faoliyati va ularning o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimi sifatida vujudga kelgan. Me'yorlar inson hayot faoliyatining barcha sohalariga nisbatan tatbiq etiladi, hamda madaniyat va sivilizatsiya vujudga kelishiga zamin hozirlaydi. Jamiyatda qanday o'zgarishlar yuz bermasin, u odamzot bilan birga vujudga kelgan mazkur muhim tarkibiy elementlarni saqlab qoladi.

Iqtisodiy kichik tizim. **Ijtimoiy ishlab chiqarish tushunchasi.** Hozirgi ko'rinishda jamiyat takror ishlab chiqarish, o'zini o'zi boshqarish va o'zini o'zi tashkil yetish ichki mexanizmlariga ega bo'lgan tarixan muayyan, yaxlit va barqaror tizim sifatida namoyon bo'ladi. *Jamiyat – bu odamlarning shunday bir birlashmasiki, uning yaxlitligi ijtimoiy ishlab chiqarish, ya'ni odamlarning umuman ishlab chiqarish, o'z hayotini quvvatlash va takror ishlab chiqarishga qaratilgan birgalikdagi faoliyati bilan ta'minlanadi.*

Ijtimoiy ishlab chiqarish – vaqtda davom etadigan va vaqti-vaqti bilan takrorlanadigan jarayon (takroriy ishlab chiqarish). Ayni vaqtda u o'zgaruvchanlikni, muayyan ijtimoiy dinamikani (ya'ni sof ishlab chiqarishni) o'z ichiga oladi. Ko'rsatilgan omillarning birligi, bir tomondan, an'ana, ijtimoiy merosga, boshqa tomondan esa, amaliy va ma'naviy tajribaning oshishi va to'planishiga asoslanadi. Ijtimoiy dinamika, jamiyatning rivojlanishi ishlab chiqarishda va odamlar xulq-atvorini boshqarishda to'plangan tajribani saqlash va kelgusi avlodlarga qoldirish usullarini takomillashtirish bilan ta'minlanadi. Tajribani baham ko'rishning muhim vositalari – til, namoyish yetish, o'rnak ko'rsatish va eng muhimi – tajribani o'zlashtirayotgan odam qaysi xalq vorisi bo'lsa, shu xalqning ijtimoiy boyligi va madaniy mulki hisoblanadi.

Keng ma'noda ijtimoiy ishlab chiqarish – ijtimoiy hayotning barcha elementlarini o'z ichiga oluvchi serqirra jarayon. Unga odamlarning ko'payishi; moddiy ishlab chiqarish, ya'ni odamlar hayotini saqlash va quvvatlashning moddiy omillarini yaratish; ma'naviy ishlab chiqarish, ya'ni bilim, tajriba, qadriyatlarni yaratish; odamlarni boshqarish, ular faoliyatining muvofiqligini, jamiyatning yaxlitligi va uyushqoqligini ta'minlash kabilar kiradi. Ijtimoiy ishlab chiqarish –jamoaning ishi. Ayni shu sababli u ijtimoiy hayotning har bir elementiga xos bo'lgan munosabatlar tizimini o'z ichiga oladi. Ularning asosiylari – oila-ro'zg'or, ishlab chiqarish munosabatlari, ijtimoiy, ma'naviy (mafkuraviy), siyosiy munosabatlardir. Ijtimoiy hayot murakkablashuviga qarab jamiyatda tabaqalanish va mehnat taqsimoti kuchayib boradi. Natijada jamiyatning nisbatan mustaqil bo'lgan alohida muhim kichik tizimlari vujudga keladi. Bu kichik tizimlarning har biri butun ijtimoiy organizm uchun muhim bo'lgan funksiyalarni bajaradi. Jamiyatning muhim kichik tizimlari: iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy kichik tizimlardir.

Moddiy ishlab chiqarish *iqtisodiy kichik tizim ishlab chiqarish faoliyati va kishilarning bu jarayondagi munosabatlari shakllarining majmuidir*. Har bir jamiyat o'z mavjudligi va rivojlanishi uchun zarur tabiiy boyliklarga ega. Ammo ijtimoiy boylik inson mehnati bilan yaratiladi. Ajdodlar yaratib qoldirgan boyliklarni saqlash va ulardan foydalanish hamda jamiyatning ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish ijtimoiy boylikning o'sishiga olib keladi. Buning natijasida mulk instituti ijtimoiy ishlab chiqarishning muhim vositasi va rag'batlantiruvchi omili sifatida vujudga keladi. Dastavval kuch huquqi, obro' va odatga tayangan mulkiy munosabatlar keyinchalik yuridik shakl-shamoyil kasb etadi. Rivojlangan ko'rinishda mulk ijtimoiy boylikning ma'lum ulushiga egalik qilish, uni tasarruf yetish va undan foydalanish huquqini anglatadi. U turli shakllarda mavjud bo'lgan va hozir ham mavjud bo'lib, bu ijtimoiy ishlab chiqarishning shaklini ham belgilaydi.

Iqtisodiy tizim moddiy va ma’naviy ishlab chiqarishni hamda moddiy va ma’naviy xizmatlar ko’rsatishni o’z ichiga oladi.

Ishlab chiqarish kuchlari va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. *Xodimlar, ularning mehnati va ishlab chiqarish vositalari – mehnat qurollari va vositalari ishlab chiqarishning muhim omillari hisoblanadi*. Ishlab chiqarish moddiy-texnika vositalari va ularni ishga solishga qodir bo’lgan odamlar majmui jamiyatning ishlab chiqarish kuchlarini tashkil etadi. Ishlab chiqarish jarayonida odamlar o’rtasida turli-tuman munosabatlar yuzaga keladi. Ularning orasida tashkiliy-iqtisodiy, ishlab chiqarish-texnologik va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Ishlab chiqarish-texnologik munosabatlar texnika va ishlab chiqarish texnologiyasining xususiyati rivojlanish darajasiga ko’p jihatdan bog’liq bo’lsa, tashkiliy-iqtisodiy va ayniqsa ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar asosan ishlab chiqarish vositalariga bo’lgan mulk shakllari bilan belgilanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar ishlab chiqarish natijasida yaratiladigan ne’matlar va xizmatlarni ayirboshlash, taqsimlash va iste’mol qilish jarayonida yuzaga keluvchi munosabatlarni o’z ichiga oladi. Mazkur munosabatlar tizimi ijtimoiy normalar va huquq normalari bilan tartibga solinadi va ijtimoiy ishlab chiqarish vositalariga bo’lgan mulk huquqining xususiyati bilan belgilanadi.

Mulk. *Mulk – xo’jalik jabhasi, iqtisodiy jabhada vujudga keladigan institut*. *U nafaqat ishlab chiqarish vositalari, balki iste’mol predmetlari va ishlab chiqarilgan mahsulotga nisbatan ham tatbiq etiladi*. Ijtimoiy boylikning barcha elementlari – ishchi kuchi, ishlab chiqarish vositalari, er va er osti boyliklari, moddiy ishlab chiqarish, ma’naviy ijodiy va o’zga aqliy faoliyat mahsullari va hokazolar mulk bo’lishi mumkin. Mulk iqtisodiy hokimiyatga kim ega bo’lishini, xo’jalik faoliyatidan olingan foyda kimga tegishini va u qanday moddiy mulkiy manfaatlarni yuzaga keltirishini belgilaydi. Mulk shakllari ishlab chiqarish ijtimoiylashuvining amaldagi darajasi bilan belgilanadi, unga esa, o’z navbatida, umumiy texnologik taraqqiyot ta’sir ko’rsatadi. Mulkning davlat mulki, xususiy mulk, shaxsiy mulk jamoa mulki kabi shakllari mavjud.

Ma’naviy kichik tizim. Odamlarning ma’naviy faoliyati jamiyat mavjudligining zaruriy shartidir. Odamlar ongli mavjudotlar bo’lib, ular o’z tafakkuri bilan ijtimoiylikning barcha ko’rinishlarini anglab etadi. Bu jarayonda olimlar, rassomlar, jurnalistlar, turli partiyalar va harakatlarning mafkurachilari va shu kabilarning ixtisoslashgan kasbiy ma’naviy faoliyati muhim rol o’ynaydi. Ularning nisbatan mustaqil kasbiy faoliyati ijtimoiy hayotning turli jabhalariga xizmat ko’rsatadi. Ma’naviy ishlab chiqarishda iqtisodiy kichik tizim qonuniyatlari, ya’ni jamiyatning xo’jalik jarayonlari o’rtasidagi takrorlanuvchi muhim-zaruriy bog’lanishlar o’ziga xos tarzda namoyon bo’ladi. Ularning qatoriga ehtiyojlarning yuksalish qonuni, ijtimoiy takror ishlab chiqarish qonunlari, qiymat qonunini kiritish mumkin.

Jamiyat ma’naviy kichik tizimining vujudga kelishi rang-barang ijtimoiy va shaxsiy ma’naviy ehtiyojlar bilan belgilanadi. Ularning eng muhimlari – ma’rifiy, axloqiy, estetik, diniy ehtiyojlardir. Ularni qondirish axborot va kommunikatsiya turli vositalarining mavjudligini nazarda tutadi. Axborot va kommunikatsiya ham shaxs va jamiyatning muhim ma’naviy ehtiyojlaridan biri hisoblanadi. Ma’naviy muloqotga bo’lgan ehtiyoj ma’naviy ehtiyojlar orasida alohida o’rin egallaydi. Jamiyatda ma’naviy ishlab chiqarishning alohida tarmoqlari va institutlari asta-sekin vujudga keladi. Ular turli ma’naviy ehtiyojlarni qondirishni nazarda tutadi. Masalan, ilmiy institutlar va olimlarning turli-tuman birlashmalari tabiat, jamiyat va insonni o’rganish bilan shug’ullanadi va shu tariqa odamlar faoliyatini ilmiy jihatdan ta’minlaydi. Fanda ham ijtimoiy amaliyotga bevosita chiqish imkoniyatiga ega bo’lmagan o’z muammolari yuzaga keladi. Mazkur muammolarni yechish fan rivojlanishining sharti, uning ichki ehtiyoji hisoblanadi.

Axborot va kommunikatsiya. Ma’naviy ishlab chiqarishning axborot almashinuviga bo’lgan ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan sohalari mavjud. Bu avvalo aholiga to’g’ridan-to’g’ri axborot berish vositalaridir. Qadimda bular podsholarning farmonlarini maydonlarda o’qib eshittirgan jarchilar, voizlar, shoirlar va baxshilar, masxarabozlar, teatr, shuningdek yozma adabiyot bo’lgan. Keyinchalik, axborot texnika vositalari rivojlanishi bilan ma’naviy muloqotga bo’lgan ehtiyojlar bosma nashrlar (kitoblar, gazetalar, jurnallar) bilan qondirilgan, so’ng radio, kino, televidenie, ya’ni hozirgi ko’rinishdagi ommaviy axborot vositalari (OAV) paydo bo’lgan. Hozirgi sharoitda ommaviy axborot vositalari o’z mahsulotini ishlab chiqaradigan va uni bozorda sotadigan sanoatning alohida tipidir.

Ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi odamlarning bevosita shaxsiy va kollektiv muloqotiga bo’lgan ehtiyojga chek qo’ymaydi. Mazkur ehtiyoj butunlay boshqa vositalar bilan va o’zga sharoitda (uyda yoki teatrda, o’quv auditoriyasida yoki yozishmalar orqali va h.k.) qondiriladi. SHunga qaramay ommaviy axborot vositalari hozirgi jamiyatda ma’naviy muloqotning muhim elementi hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda va kundalik nutqda «axborot» va «kommunikatsiya» tushunchalari ko’pincha sinonimlar sifatida ishlatiladi. Ammo ma’naviy muloqotning mazkur hodisalari amalda har xil ma’noni anglatadi. *Axborot deganda Yangi bilimni aks ettiradigan va mazkur axborotni idrok etuvchi shaxs yoki guruh xulq-atvorini o’zgartiradigan xabar tushuniladi*. *Kommunikatsiya - g’oyalar, qarashlar, baholar almashinuvini nazarda tutadigan ma’naviy muloqot turi. U odamlar o’rtasida hamjihatlikning mavjudligi bilan belgilanadi.*

Insonga ta’lim va tarbiya berish ma’naviy ishlab chiqarishning alohida sohasi hisoblanadi. Jamiyatda ta’lim va tarbiya muassasalarining tarmoqlangan tizimi: , bolalar maktabgacha tarbiya muassasalari, maktab ta’limining turli-tuman shakllari: kollejlar, pansionatlar, internatlar oliy o’quv yurtlari tashkil etiladi. Axloqiy va estetik tarbiya berish, dunyoqarashni shakllantirish o’quvchilar ongida dunyoning ilmiy manzarasini shakllantirish yo’li bilan, shuningdek san’at, falsafa va diniy muassasalar yordamida amalga oshiriladi. Tarbiyalash funksiyasini oila, do’stlar va tanish-bilishlar davrasi, davlat muassasalari, huquqiy tartibot organlari, shuningdek ommaviy axborot vositalari bajaradi.

Ijtimoiy ong ma’naviy kichik tizimning bosh bo’g’ini hisoblanadi. U bilimlar, g’oyalar, qarashlar, fikrlar, dunyoqarashga doir mo’ljallar, qadriyatlar va hokazolarning butun rang-barangligida namoyon bo’ladi.

Individual ijtimoiy ong. *Individual ong – ayrim insonda uning yashash sharoiti va ruhiy xususiyatlari ta’sirida shakllanadigan dunyoning sub’ektiv obrazi.* U shaxsning ichki borlig’iga ega bo’ladi, aksariyat hollarda hammadan yashirin ong oqimini tashkil qiladi. *Ijtimoiy ong ijtimoiy birliklar va guruhlar tashqi omillar – jamiyat hayotining moddiy sharoitlari va uning ma’naviy madaniyati ta’sirida shakllantiradigan kollektiv tasavvurlarni tavsiflaydi.*

Individual va ijtimoiy ongning farqi faqat ijtimoiy onggina sotsial xususiyat kasb yetishini anglatmaydi. Individual ong – jamiyat ongining ajralmas qismi. Jamiyatda asrlar mobaynida shakllangan madaniyat shaxsni ma’naviy jihatdan boyitadi va individual ongning uzviy qismiga aylanadi. Har bir individ o’z xalqi, etnosining, o’zi istiqomat qiladigan joyning vakili bo’lib, uning ongi jamiyat bilan chambarchas bog’liq. Ayni vaqtda ijtimoiy ong faqat individual ong bilan muttasil o’zaro ta’sirga kirishish orqali rivojlanadi.

Ijtimoiy ong tuzilishi. *Ijtimoiy ong murakkab tuzilishga ega. U ikki daraja: kundalik ong va nazariy ongni o’z ichiga oladi.* Kundalik ong o’z tuzilishiga ko’ra turli jinslidir. U ajdodlar to’plagan mehnat faoliyati tajribasini, axloqiy me’yorlar, odatlarni, kundalik turish-turmush qoidalarini, tabiatni kuzatish natijasida shakllangan tasavvurlarni, dunyoqarashga doir ba’zi bir mo’ljallarni, xalq og’zaki ijodi (folklor) va hokazolarni o’z ichiga oladi. Kundalik ong asosan mehnatga, kundalik turish-turmushga va odamlarning ular bilan bog’liq bo’lgan yashash sharoitlari va munosabatlariga qarab mo’ljal oladi. Kundalik hayot, ya’ni faoliyat, odatlar va munosabatlarning uzluksiz takrorlanadigan shakllari kundalik ong mazmunini tavsiflovchi asosiy tushuncha hisoblanadi. U o’zining sinkretik xususiyati, mazmunan qashshoqligi, emotsiyalarga boyligi, stixiyaliligi va amaliyotga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Kundalik ongning bilish imkoniyatlari cheklangan: u hodisalar mazmunini teran anglashga, dalillarni tizimga solishga qodir emas. Nazariy ong kundalik ongga tayanadi, lekin uning tor doirasidan tashqariga chiqa oladi.

Mazkur darajalar ijtimoiy ong tuzilishini bilish harakatidagi uning ob’ektga muvofiqlik darajasi bilan farq qiladigan jihatlari sifatida tavsiflaydi. Ayni vaqtda ijtimoiy birliklar va guruhlar ma’naviy faoliyatining mahsuli sanalgan ijtimoiy ong ularning sub’ektiv qobiliyatlarini o’zida mujassamlashtiradi. Ijtimoiy ong manbalarining o’ziga xos xususiyatlari ta’siri ijtimoiy psixologiya va mafkurada aks etadi.

Tabaqalar va sinflar. Jamiyatning ijtimoiy tuzilishida tabaqalar va sinflar salmoqli o’rin egallaydi. *Tabaqalar – sanoatlashish bosqichidan oldingi jamiyatlarda vujudga kelgan, yuridik yoki odatga asoslangan va avloddan-avlodga meros bo’lib o’tadigan huquqlar va burchlarga ko’ra farq qiladigan ijtimoiy guruhlar.* Tabaqaviy bo’linish jamiyatning murakkab ierarxiyaviy tuzilishining shakllanishiga sabab bo’ladi.

Yirik guruhlar orasida iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy-psixologik maqomiga ko’ra farqlanadigan sinflar alohida o’rin egallaydi. Iqtisodiy belgi sinfning bosh belgisi hisoblanadi, zero sinfiy bo’linish shakllari ishlab chiqarish vositalariga bo’lgan munosabat hamda mulk shakllari bilan belgilanadi. Hozirgi zamon sotsiologiyasida sinflarni farqlashning boshqa asoslari ham mavjud. Masalan, ijtimoiy guruhlar ega bo’lgan ijtimoiy boylik ulushiga ko’ra ular oliy, o’rta va quyi sinflarga bo’linadi. Bunda daromad manbai hisobga olinmaydi, shu bois oliy sinf vakillari orasidan mashhur kinoaktyorlar, estrada yulduzlari va bankirlar ham o’rin olishlari mumkin. Bu hol o’rta va hatto quyi sinflarda ham kuzatiladi. SHuningdek ijtimoiy mehnatni tashkil yetishdagi roliga ko’ra boshqaruvchilar sinfi farqlanadi.

Hozirgi zamon jamiyatida yuqori malakali aqliy mehnat bilan professional tarzda shug’ullanadigan kishilarning katta ijtimoiy guruhi – ziyolilar alohida rol o’ynaydi. Ziyolilar soni tinimsiz ko’payib, ularning jamiyat hayotidagi roli ortib bormoqda. Bu avvalo fan-texnika taraqqiyoti, shuningdek hozirgi jamiyatda ma’naviy xizmatlarga bo’lgan ehtiyojning ortishi bilan bog’liq. Ziyolilar guruhi o’z kelib chiqishiga ko’ra ham, ijtimoiy maqomiga ko’ra ham turli jinslidir. Tegishli ravishda uning siyosiy mo’ljallari ham har xildir.

Institutlar. Jamiyatning rivojlanish jarayoni alohida muhim vazifalarni bajaradigan va aniq tashkiliy tuzilmaga ega bo’lgan ijtimoiy va siyosiy tashkilotlar – institutlarning tarmoqlangan tizimi yaratilishi bilan tavsiflanadi. *Institutlar jamiyat normal faoliyatining zaruriy omili sanalgan ijtimoiy muhim faoliyatni amalga oshiradi.* Bunday institutlar qatoriga davlat va uning institutlari, partiyalar va harakatlar, ommaviy axborot vositalari, diniy muassasalar, ta’lim va madaniyat muassasalari, sog’liqni saqlash va sanitariya xizmati tizimlari, bozor, banklar va hokazolar kiradi. Ijtimoiy institutlar faoliyati ijtimoiy hayotning barcha jabhalari: oila va ishlab chiqarish, tovarlar va pullar harakati, ishlab chiqarish, iste’mol va hokazolarga nisbatan tatbiq etiladi. Institutlar turli birliklar va guruhlarning manfaatlarini muvofiqlashtirishni amalga oshiradi, ularning samarali o’zaro aloqasini ta’minlaydi, vujudga kelgan ijtimoiy qadriyatlarni mustahkamlaydi va Yangilarini yaratadi.

Hududiy guruhlar. Aksariyat mamlakatlarda hududiy guruhlarning o’zaro munosabatlarida jiddiy muammolar yuzaga keladi. Bu ma’naviy hayot an’analari va iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko’ra farq qiladigan viloyat va markaz, poytaxt va chekka o’lka hamda yirik mintaqalarning munosabatlari bo’lishi mumkin (masalan, AQSH yoki Italiyada SHimol va Janub munosabatlari). Etnik yoki diniy farqlar, bir ma’muriy birlikning boshqa ma’muriy birliklarga hududiy e’tirozlari hududiy guruhlar o’rtasidagi ziddiyatni kuchaytirishi mumkin.

Jamiyat rivojlanishiga qarab uning ijtimoiy tuzilmasi murakkablashib boradi. Bu miqdor va sifat jihatidan har xil ijtimoiy guruhlarning o’zaro aloqasi va manfaatlarini muvofiqlashtirishni talab etadi. Ijtimoiy birliklar va guruhlarning turlari ularning o’rtasidagi munosabatlar va ijtimoiy aloqalar xususiyatini ham belgilaydi. Aloqalar uzoq yoki qisqa muddatli, mustahkam yoki bo’sh va zaif, bevosita yoki bilvosita bo’lishi mumkin. Aloqalar xususiyatining shakllanishida manfaatlar muhim rol o’ynaydi, ularni muvofiqlashtirish vazifasini esa jamiyatning maxsus institutlari, avvalo siyosiy tizim hal qiladi.

Narzulla Jo'raev (1952) fikricha, zamon o'tgan sari insoniyat tafakkuri kengayib, ijtimoiy fanlar taraqqiy topib borishi natijasida tarix falsafasi atrofidagi mulohazalar kengayadi. Uning predmeti va ob'ektiga aniqlik kiritiladi. SHu ilmiy haqiqatdan kelib chiqib, N.Jo'raev hozirgi zamon tarix falsafasining quyidagi vazifalarini belgilaydi:

- insoniyat tarixi rivojlanish qonuniyatlarini, ularning manbalari va mohiyatini o'rganish;
- insoniyat tarixini, jumladan, milliy tarixni ham hozirgacha ta'sirini o'tkazib kelayotgan kommunistik mafkura asosidagi ilmiy metodologiyada mavjud bo'lgan tamoyillardan voz kechib, milliy istiqlol g'oyasi asosida o'rganish va davrlashtirish muammosini hal yetish;
- sivilizatsiyalar va madaniyatlar yuzaga kelishining yaxlit tizimini ishlab chiqish, ular inqirozi sabablarini chuqur tahlil yetish;
- tarixiy jarayonning umumiy shaklini tahlil yetish, ularni o'tmish, bugun, kelajak tizimida mantiqan o'rganish hamda insoniyat istiqboli haqida tasavvurlarga aniqlik kiritish;
- tarixiy taraqqiyot omillarini diniy va dunyoviy qonunlar nuqtayi nazaridan o'rganish, nazariy jihatdan baquvvat ilmiy va amaliy asoslangan xulosalarni ishlab chiqish;
- qadriyatlar tizimini hozirgi zamon talablari nuqtayi nazaridan tadqiq yetish va baholash;
- insoniyat tarixida to'plangan moddiy, ma'naviy va madaniy qadriyatlarning tarixiy tahlili orqali mantiqiy va falsafiy asoslarini o'rganish;
- tarixni anglashning Yangi yo'nalishlarini hozirgi zamon falsafiy tafakkur mezonlari asosida belgilash hamda unga tayangan holda ijtimoiy taraqqiyot maqsadlarini aniqlash orqali, tarixning murabbiylik rolini oshirish;
- yaxlit insoniyat taraqqiyoti omillarini va manbalarini o'rganish, shu asosda jahon tarixiy taraqqiyot istiqbollarini belgilash;
- tarix fani predmeti va metodologiyasini hozirgi zamon talablari asosida qayta ishlab chiqish hamda tarixni tadqiq yetishning turli yo'nalishlarini, jumladan, siyosiy tarix, iqtisodiy tarix, din tarixi, san'at tarixi, etnogenezis va boshqa yo'nalishlar bilan mushtarak holda kompleks tadqiqotlarni olib borish orqali, inson, insoniyat va uning tarix yaxlit mohiyatini ochib berish[58]. Ana shu vazifalarni hal yetishda tarix falsafasi va tarix fanining hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Uning fikricha, bir qarashda tarix falsafasi va tarix fani bir-biridan ayri yo'nalishdek ko'rinadi. Zotan, real jarayonga, real voqelikka, insoniyat tarixida qaysidir hodisaga tarixchi tarix ko'zi bilan qarasa, faylasuf faylasuf ko'zi bilan qaraydi. Aslida har ikki qarashlar zamirida inson taqdiri, tafakkur tarzi va manfaatlar ustuvorligi yotadiki, bu inson fenomeni va hayot falsafasining mantig'idir.

Tarix falsafasining predmeti, tuzilishi va funksiyalari. «Tarix falsafasi» nima va uning predmeti nimadan iborat? Bu savolga javob berar ekanmiz, tarix falsafasi tushunchasiga «Falsafiy qomusiy lug'at» mualliflari bergan ta'rifni keltirish o'rinli bo'ladi deb o'ylaymiz: «Tarix falsafasi – falsafaning tarixiy jarayonni va tarixiy bilishni talqin qilish bilan bog'liq bo'lgan bo'limi»[59]. SHunday qilib, tarix falsafasi falsafaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Tarix falsafasining predmeti esa tarixiy jarayon va tarixiy bilishni talqin qilish, ularning mazmunini yoritib berishdan iborat. Ammo bu tarix falsafasini tavsiflashga nisbatan birdan-bir yondashuv emas, chunki tarixiy rivojlanish jarayonida tarix falsafasining predmeti va muammolari sezilarli darajada o'zgargan va hozirgi zamonda tarix falsafasining turli yo'nalishlari tomonidan har xil talqin qilinadi.

Masalan, antik davr tarixchilari va faylasuflari (Gerodot, Platon, Fukidid, Aristotel, Plutarx va b.)ning tadqiqotlari o'tgan va hozirgi zamon kishilarining qilmishlari, tabiat va insonning o'zaro aloqasi haqida ma'lumotlar yig'ishdan, ya'ni tarixiy dalillarni ularni nazariy jihatdan anglab etmasdan va yagona falsafiy-tarixiy tizimga solmasdan tavsiflash va o'rganishdan iborat bo'lgan.

O'rta asrlarda (Avgustin va b.) tarix falsafasining predmeti sifatida avvalo Xudo va insonning o'zaro aloqasi muammosi, harakatlantiruvchi kuchi ilohiy vahiy sanalgan tarixiy jarayonning mazmunini aniqlash, tarixiy asarlarning mohiyati va vazifasini o'rganish amal qilgan.

SHarqda tarix falsafasining (A.Beruniy, Ibn Xaldun, A.B.Narxashiy, R.Hamadoniy) predmeti sifatida jahon tarixi, umumiy tarixiy taraqqiyot qoidalari, yo'nalish va omillarini belgilovchi kishilik jamiyatining o'ziga xos davriylik nazariyasi alohida o'rin tutadi. "Odamlar kabi davlat ham o'zining hayotiy davriga ega"[60]. Beruniy tarixni o'rganish tahlil qilish va so'ng xulosalar chiqarish zaruligini tavsiya qilar ekan, uni davrlarga bo'lish, har bir davrning o'ziga xos jihatlarini aniqlash va ana shu usul orqali ijtimoiy hayotga, kishilik jamiyatiga tegishli va asosli baho berish mumkin deb hisoblaydi.

Uyg'onish davrida va Yangi davrda (Nikkolo Makiavelli, Jambattista Viko, Frensis Bekon, Tomas Gobbs va b.) tarixning maqsadi, yo'nalishini, shuningdek tarixiy jarayonda insonning, sinflarning rolini aniqlash (Ogyusten Terri, Fransua Gizo, Ogyust Mine) tarix falsafasining predmetiga aylangan. Yangi davrda «tarix falsafasi» atamasi ham paydo bo'lgan, *uni ilk bor 1765 yilda tarixchi tarixiy voqealarni shunchaki tavsiflabgina qolmasdan, balki tarixiy jarayonni falsafiy jihatdan anglab yetishga harakat qilishi lozim, deb hisoblagan frantsuz ma'rifatchisi Volter ishlatgan*. Keyinchalik tarixiy jarayonning umumiy qonuniyatlari va dialektikasini aniqlash yo'lida izlanishlar olib borish Georg Gegel hamda dialektik materializm asoschilari Karl Marks va Fridrix Engels uchun tarix falsafasining asosiy predmetiga aylangan.

---

[58] N. Jo'rayev Tarix falsafasining nazariy asoslari. -T.: Ma'naviyat, 2008. -B.186.

[59] Философский энсиклопедический словар – М.: Современний литератор, 1989. – 700 b.

[60] Қарang. Ҳотamiy S.M. Islom tafakkuri tarixidan.-T.: Ma'naviyat, 2003. –B.256

XIX asr oxiri – XX asr boshida tarix falsafasining ko'pgina Yangi yo'nalishlari vujudga kelgan. Ularning har biri o'z tadqiqot predmetiga ega bo'lgan. Masalan, tarixning aylanma harakati nazariyasi namoyandalari (Nikolay Danilevskiy, Osvald SHpengler, Arnold Toynbi), o'z o'tmishdoshlari kabi, o'z oldiga tarixiy jarayon qonuniyatlarini aniqlash vazifasini qo'ygan. Xristian tarix falsafasining ko'p sonli yo'nalishlari: neotomizm (Jak Mariten, Eten Anri Jilson va b.), neoavgustizm (Moris Blondel, Gabriel Marsel, Jan Lakrua), teyyardizm (Per Teyyar de SHarden) va qisman ekzistentsializm (Karl yaspers) namoyandalari tarixning mazmuni muammosini bosh muammo deb hisoblaganlar. Tarixiy bilish gnoseologik nazariyasi va tanqidi namoyandalari (Vilgelm Diltey, Benedetto Kroche) esa tarixshunoslik (istoriografiya) doirasi bilangina cheklanib qolmaganlar, balki so'zning keng ma'nosidagi tarixiy ongni ham tahlil qilganlar. Neokantchilik tarix falsafasi (Vilgelm Vindelband, Genrix Rikkert) va «analitik» tarix falsafasi (Ernest Nagel, Karl Gempel va b.) ham o'zining alohida predmetiga ega. XX asr tarix falsafasi aksariyat hozirgi yo'nalishlarining muhim xususiyati shundan iboratki, ularning predmeti sifatida jahon tarixi, hozirgi sivilizatsiyaning global muammolari amal qiladi.

Bu muxtasar sharhdan ko'rinib turganidek, turli falsafiy-tarixiy maktablarda tadqiqot predmeti muammosiga nisbatan yagona yondashuv mavjud emas. Ayni hol avvalo shu bilan bog'liqki, tarixiy voqelikning mohiyati turli tadqiqotchilar tomonidan har xil tushunilishi o'z-o'zidan tarixiy jarayonning, ya'ni «tarix falsafasi»ning ko'p sonli falsafiy talqinlarini vujudga keltiradi. Ammo mazkur yondashuvlarni umumlashtirish tarix falsafasi – bu falsafaning tarixiy jarayon mazmuni, uning qonuniyatlari va asosiy yo'nalishlarini tushuntirish bilan shug'ullanuvchi, shuningdek uni bilish metodlarini asoslovchi bo'limi, degan xulosaga kelish imkonini beradi.

Tarix falsafasi predmetining umumiy tavsifi uning tuzilishi va funksiyalarini o'rganishga o'tish imkonini beradi.

Tarix falsafasining tuzilishi. Tarix falsafasining tuzilishini tavsiflar ekanmiz, bu element tarix falsafasi u yoki bu yo'nalishi namoyandalarining metodologik mo'ljallari bilan uzviy bog'liq, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Tarix falsafasining asosiy tarkibiy qismlarini aytib o'tamiz va ularga qisqacha to'xtalamiz

Tarix falsafasi ontologiyasi – bu tarix falsafasining tarixiy borliq muammolari, chunonchi: tarixning mazmuni va yo'nalishi, ijtimoiy taraqqiyot, ijtimoiy determinizm, yagona tarixiy makonning vujudga kelishi, jahon tarixining yagonaligi asoslarini, insonning koinotdagi o'rnini aniqlash, tarixiy vaqt masalasi va hokazolarni o'rganish bilan shug'ullanuvchi tarkibiy qismi. Mazkur bo'limda jamiyatning rivojlanish mantig'ini, uning turli tomonlari o'rtasidagi aloqalar va o'zaro bog'lanishlarni o'rganish ham muhim o'rin egallaydi.

Tarix falsafasi gnoseologiyasi asosiy e'tiborni tarixiy bilish muammolariga, tarixiy faktlar va voqealarni o'rganish, tahlil qilish va tushuntirish, tarixiy bilimning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, shuningdek tarixiy bilishda haqiqatning tagiga yetishga qaratadi.

Tarix falsafasi tarixi tarix falsafasining vujudga kelishi va rivojlanishi, tarix falsafasi predmetining shakllanishi muammolarini, tarix falsafasining turli yo'nalishlar va oqimlar vujudga kelishiga sabab bo'lgan ichki differentsiatsiyalanish jarayonini o'rganadi. Tarix falsafasi mazkur bo'limining muhim muammolari qatoriga tarixiy jarayonni davriylashtirish, boshqa ijtimoiy fanlar orasida tarix falsafasining o'rnini aniqlash masalalari ham kiradi.

Tarix falsafasi antropologiyasi insonning tarixiy jarayondagi o'rnini, bu jarayonda tarix sub'ektlarining rolini aniqlaydi va «Tarixni kim harakatga keltiradi?», degan savolga javob beradi. Odatda, tarix falsafasining turli yo'nalishlari tarixiy jarayon sub'ektlari qatoriga xalq, millat, omma, olomon, ijtimoiy sinflar va atoqli shaxslarni kiritadi va qo'yilgan savolga har xil javob beradi.

Tarix falsafasining funksiyalari. Tarix falsafasining funksiyalari to'g'risidagi masalani hal qilmasdan uning predmeti va o'ziga xos jihatlarini to'la anglab yetish mumkin emas. Tarix falsafasi falsafaning tarkibiy qismi ekanligiga asoslanib, tarix falsafasining funksiyalari umuman falsafaning funksiyalari bilan asosan bir xil, deb taxmin qilish mumkin. Ayni vaqtda shuni ham unutmaslik kerakki, tarix falsafasi o'z alohida ob'ekti, predmeti, metodlari, tadqiqot maqsadlari va vazifalariga ega va bu uning muayyan xususiyatlari mavjudligidan dalolat beradi. Quyida ularni ko'rib chiqamiz

Tarix falsafasining dunyoqarashga doir funksiyasi shundan iboratki, u insonda tarixga, ya'ni jamiyatning mavjudligi va rivojlanishi, tarixiy jarayonning yagonaligi va rang-barangligiga, uning mazmuni va yo'nalishiga, insonning undagi o'rni, roliga va hokazolarga nisbatan umumiy munosabatni shakllantiradi.

Tarix falsafasining nazariy funksiyasi shundan iboratki, u tarixiy jarayonni teran anglab yetish va u haqda nazariya, ya'ni tarixiy jarayonning mavjudligi, mazmuni, rivojlanish yo'nalishi haqidagi qarashlar tizimi darajasida xulosa chiqarish imkonini beradi. Tarix falsafasining mazkur funksiyasi tarixiy o'tmishni nazariy darajada rekonstruktsiya qilishni amalga oshirish, tarixiy dalillar va voqealarning haqqoniylik darajasini aniqlash uchun imkoniyat yaratadi.

Tarix falsafasining metodologik funksiyasi uning qoidalarini tarixiy o'tmishning u yoki bu ijtimoiy fanlar doirasida o'rganiluvchi ayrim hodisalari va voqealarini o'rganish jarayonida amalga tatbiq yetish imkoniyatidan iborat. Bu holda tarix falsafasining qoidalari va xulosalari tarix, sotsiologiya, iqtisod, siyosatshunoslik, huquq falsafasi, psixologiya va boshqa fanlar sohasida amalga oshiriluvchi tadqiqotlarda qudratli metodologik vosita rolini o'ynaydi.

Tarix falsafasining prognostik funksiyasi shundan iboratki, tarixiy jarayon qonuniyatlarini bilish jamiyat, uning ayrim kichik tizimlarining rivojlanish tendentsiyalarini, tarix voqealari, kishilar faoliyatining yaqin va uzoq kelajakdagi oqibatlarini bashorat qilishga yordam beradi. Bunday bashorat negizida u yoki bu ijtimoiy hodisalar va umuman jamiyatning rivojlanishini prognoz qilish mumkin.

SHuni qayd yetish lozimki, tarix falsafasining ko'rib chiqilgan funksiyalari bir-biri bilan uzviy bog'liq va bir-biriga o'tadi. Ularning har biri qolganlarini nazarda tutadi va ularni o'z tarkibiga u yoki bu tarzda kiritadi.

Tarix falsafasining hozirgi kontseptsiyalari. «Tarix falsafasi» atamasi nisbatan yaqinda paydo bo'lgan bo'lsa-da, dastlabki falsafiy-tarixiy g'oyalar qadim zamonlardayoq vujudga kelgan. SHu sababli tarix falsafasining hozirgi kontseptsiyalari mohiyatini yaxshiroq anglab yetish uchun tarixiy o'zlikni anglashning tadrijiy rivojlanish jarayoniga nazar tashlash lozim. Tarixiy jarayonning yagonaligi va rang-barangligi, uni davriylashtirish va uning shakllarini tizimga solish haqidagi tasavvurlar, shuningdek insoniyat tarixiy rivojlanishini harakatlantiruvchi kuchlar va uning yo'nalishi haqidagi masala har doim yuqorida zikr etilgan jarayonning muhim tarkibiy qismlari hisoblangan.

Tarixiy harakat yo'llarini, tarixiy jarayon tendentsiyalari va yo'nalishini anglab yetish muammosi antik davr mutafakkirlari, avvalo Gerodot, Fukidid, Aristotel, Teofrast, Pliniy Katta va boshqalarda kuchli qiziqish uyg'otgan. Bu tarixchi va faylasuflarning asarlarida insoniyatning o'tmishi va kelajagi haqida muayyan tasavvurlar, odamlarning qilmishlari haqida, tarixiy voqealarning yo'nalishi va mazmuni to'g'risida mulohazalar mavjud bo'lgan. Keyinchalik bularning barchasi jamuljam holda «tarix falsafasi» deb nomlangan, lekin ular hali qarashlarning mukammal tizimini tashkil etmagan. Bundan tashqari, qadimgi faylasuflar va tarixchilarning aksariyati diniy-mifologik dunyoqarashga amal qilgan. Bu dunyoqarashga ko'ra, jamiyatda, xuddi tabiatdagi kabi, aylanma harakat mavjud, odamlarning xatti-harakatlari taqdirga yoki xudolar irodasiga bo'ysunadi. Buyuk shaxslar – jamoa oqsoqollari, siyosiy arboblar, qahramonlarga xos bo'lgan, o'z tabiatiga ko'ra o'zgarmas sanalgan ehtiros va iroda inson xulq-atvorini belgilovchi omil hisoblanadi.

O'rta asrlar falsafiy tafakkurining namoyandalari Avreliy Avgustin, Foma Akvinskiy va b. Injil va yunon-rim falsafiy-tarixiy tafakkurini sintez qilib, tarixning Yangi, teologik kontseptsiyasini yaratdi, tarixiy voqealarning mazmuni, tarixiy asarlarning mohiyati va vazifalari haqida Yangicha tasavvurlarni ilgari surdi. Mazkur kontseptsiyaga muvofiq, xristian mualliflari, tarix orqali ilohiy niyatni tushunib yetishga harakat qilib, aylanma harakat g'oyasini rad etdilar va tarixiy jarayonni o'tmishdan kelajak (bo'lg'usi panohga erishish, masihning kelishi) sari chiziqli harakat sifatida tasavvur qildilar.

Markaziy Osiyo mutafakkiri Abu Rayxon Beruniy podsholiklar tarixi orqali o'tmishni davrlarga bo'lishni taklif qiladi. Tarix uning fikricha, fikr va tafakkur manbai. U doimo turli fanlarning o'zaro ta'sirining uzviyligi va uyg'unligi natijasida takomillashadi. SHu bois, tarix har qanday olim uchun tadqiqotning muhim manbai bo'lib xizmat qiladi. Beruniy tarixiy tadqiqotlarni boshqa turdosh fanlarni o'rganish bilan uyg'un holda olib borish, muayyan natijaga olib kelishini ta'kidlaydi. Zero, tarixiy manbani o'rganish, uning asosli yoki asossiz ekanligini isbotlash tarixiy tadqiqot uchun mas'uliyatli jarayondir. CHunki tarixiy manba yaratganlar, turli hujjatlarni bitganlar yoki o'z manfaatlari, maqsadlari doirasida dalil to'playdilar. SHu holat nuqtayi nazaridan Beruniy "xabar-xabarchilar tufayli rost va Yolg'on tusini oladi"[61], deb e'tirof etgan. Tarixiy haqiqatni tiklash, tarixiy tafakkur va tarixiy ma'lumotlarni yig'ish SHarq tarix falsafasida aniq me'yorlar vositasida amalga oshirilgan.

Feodalizmning inqirozi, kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi, hurfikrlilikning kuchayishi ijtimoiy ong tarixga nisbatan teologik yondashuvdan xalos bo'lishiga ko'maklashdiki, bu fanning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Uyg'onish davri (XIV-XVI asrlar) mutafakkirlari xristian tarixchilaridan farqli o'laroq, tarixiy jarayonni dunyoviy sharoitlardan, insonning tabiatidan kelib chiqib tushuntirishga harakat qildilar. Masalan, Nikkolo Makiavelli (1469-1527) o'z asarlarida moddiy manfaat, xususiy mulkni asrash va ko'paytirishga intilish jamiyatning rivojlanishini harakatlantiruvchi kuch ekanligini isbotlab, siklli rivojlanish g'oyasini asoslashga harakat qildi. Uning ayrim asarlarida ijtimoiy hodisalarning qonuniyatlariga doir farazlar ham mavjud, lekin u mazkur qonuniyatlarni ta'riflashning uddasidan chiqmagan.

XVII-XVIII asrlar Yevropa uchun burjua industrial sivilizatsiyasi vujudga kelishiga va ijtimoiy rivojlanish jarayonining jadallashuviga olib kelgan sanoat va ijtimoiy-siyosiy inqiloblar davriga aylandi. Yangi davr mutafakkirlari qarashlarining shakllanishida tabiiy fanlar ulkan rol o'ynadi. Bu davrda ijtimoiy fanlarning rivojlanishiga tabiatshunoslik shu darajada kuchli ta'sir ko'rsatganki, tarix aksariyat hollarda tabiiy ilmiy nuqtayi nazardan tushuntirilgan.

Ayni shu davrda yuqorida sanab o'tilgan sabablar ta'sirida tarix falsafasining bir nechta naturalistik (lot. naturalis – tabiiy, natural) kontseptsiyalari vujudga kelgan. Mazkur kontseptsiyalarning namoyandalari tabiatga butun borliqni, shu jumladan tarixiy jarayonni tushuntirishning universal tamoyili sifatida yondashgan. Bunda naturalizm tushunchasi turlicha talqin qilingani bois, quyidagi yo'nalishlar ajralib chiqqan: ijtimoiy hodisalar tabiiy muhit ta'sirida tushuntirilgan geografik naturalizm (SHarl Lui Monteske, Iogann Gerder va b.); tarixiy jarayonlarni demografik determinizm yordamida tushuntirgan demografik naturalizm (Tomas Maltus); jamiyatdagi o'zgarishlarni avvalo inson tafakkuri bilan bog'lovchi idealistik naturalizm (Klod Gelvetsiy, Jan Jak Russo).

Tarixiy o'zlikni anglashning rivojlanishiga o'z tadqiqotlarida tarixni inson aqlli tabiatining evolutsiyasi va rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan alohida borliq sifatida falsafiy jihatdan anglab yetishga urg'u bergan Volter (1694-1778) asarlari, shuningdek tarixiy jarayon g'oyasini birinchilardan bo'lib asoslab bergan Mari Jan Kondorse (1743-1794) tadqiqotlari ham kuchli ta'sir ko'rsatdi.

G.V.F.Gegel (1770-1831) ijtimoiy rivojlanishning o'ziga xosligini ob'ektiv idealizm nuqtayi nazaridan anglab yetish yo'lida Yangi qadam tashladi. U tarixga har bir davr betakror tarzda rang-barang bo'lgan holda, ayni

[61] А.Беруний танланган асарлар 1-жилд -Т.: Фан, 1968. –В.50

vaqtda insoniyat rivojlanishining qonuniy bosqichi sanalgan yagona qonuniy jarayon sifatida yondashdi. Bu rivojlanish tabiiy qonuniyatlar sohasi bilan taqqoslaganda boshqacha xususiyat kasb etadi. Bu erda tarixiy qonunlar kishilarning ongli faoliyati vositasida amalga tatbiq etiladi, lekin shu bilan birga tarixda muayyan ob'ektiv mantiq ham amalga oshiriladi va tarixiy jarayon dunyoviy aql, mutlaq g'oyaning cheksiz tarzda o'z-o'zidan rivojlanishi, o'zini o'zi ro'yobga chiqarish jarayoni sifatida namoyon bo'ladi.

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshida tarixiy bilim sifat jihatidan Yangi darajaga ko'tarildi. Turli matnlarning tarixiy va lingvistik tahlili metodlarining takomillashishi, arxeologiyaning rivojlanishi, o'tmish guvohliklariga yanada tanqidiyroq yondashish natijasida tarixiy bilim fan maqomini qo'lga kiritdi. SHu bilan bir vaqtda tarixiy va tabiiy ilmiy bilimlar butunlay har xil ob'ektlarga mansub bo'libgina qolmasdan, o'zlari ham bir-biridan butunlay farq qilishi yanada teranroq anglab etildi.

Tarixiy o'zlikni anglash jarayoni evolutsiyasining keltirilgan tavsifi bizga tarix falsafasining hozirgi kontseptsiyalariga nazar tashlash imkonini beradi. Bu kontseptsiyalar orasida gnoseologik yo'nalish (tanqidiy tarix falsafasi), ontologik kontseptsiya, aksiologik kontseptsiya, tarixning texnokratik kontseptsiyalari alohida o'rin egallaydi.

Tarix falsafasining gnoseologik yo'nalishi XIX asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran mazkur fanning mustaqil yo'nalishi sifatida shakllana boshladi. Bu yondashuv namoyandalari (Vilgelm Diltey, Benedetto Kroche, Georg Zimmel, Robin Kollingvud, Raymon Aron va b.) tarix falsafasining asosiy predmeti – tarixiy o'tmishni o'rganishning mantiqiy-nazariy va metodologik muammolari, uni nazariy jihatdan rekonstruktsiya qilish va tarixiy dalillarning haqiqiyligini aniqlash, deb hisoblaganlar.

Tarix falsafasi mazkur yo'nalishining asoschisi sifatida haqli ravishda nemis madaniyat faylasufi Vilgelm Diltey (1833-1911) e'tirof etiladi. Uning nazariyasida inson borlig'i usuli, madaniy-tarixiy voqelik sifatidagi hayot tushunchasi markaziy o'rinni egallaydi (shu sababli Diltey nuqtayi nazari ko'pincha «hayot falsafasi»ning tarixiy varianti deb ataladi). Olim fikriga ko'ra, inson o'z tarixiga ega emas, lekin uning o'zi tarixdir va aynan shunda uning mohiyati namoyon bo'ladi. Boshqacha aytganda, Diltey uchun hayot va tarix ayniydir.

Dilteyning tarix falsafasiga ijtimoiy va tabiiy fanlarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish xos. U inson tabiatni tushuntiradi, ijtimoiy hayotni esa faqat tushunadi, deb hisoblagan. Uning fikricha, mazkur tushunish har xildir, chunki har bir inson tarixiy voqealarga o'z nisbiy mushohadalari nuqtayi nazaridan yondashadi. Bundan xulosa shuki, ilmiy haqiqatning tagiga yetish, tarixiy jarayonni ilmiy nuqtayi nazardan xolisona bilish amalda mumkin emas.

Xo'sh, bu holda tarix falsafasi nimani o'rganishi lozim? Dilteyning izdoshi – Kollingvud fikriga ko'ra, tarix falsafasi tarixchining fikr-mulohazalarini va shu bilan bir vaqtda mazkur fikr-mulohazalarning ob'ektini o'rganadi. SHu sababli tarixiy jarayonni o'z holicha o'rganish tarix falsafasi vazifalari qatoridan chiqarib tashlanadi: tarixiy jarayon faylasufga unda hodisalarning tarixiy bilim mohiyatini belgilovchi xususiyatlari to'g'risida so'z yuritilgani uchungina tegishlidir.

Gnoseologik yo'nalish, ba'zan tanqidiy tarix falsafasi deb ham ataladi. Bu hol shu bilan bog'liqki, mazkur yo'nalish vakillari tarixni tanqidiy o'rganishgina insoniyat tarixi modelini yaratish, tarixiy dalillarning haqqoniylik darajasiga baho berish va tarixiy voqelik manzarasini nazariy jihatdan gavdalantirish imkonini beradi, deb hisoblaganlar. Mazkur yondashuv kurtaklarini tarixiy bilishning metodologik muammolari, insoniyat tarixining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish bilan shug'ullangan neokantchilik Baden maktabidan izlash lozim. Aksariyat tadqiqotchilar tomonidan bu maktabning asoschisi sifatida frantsuz faylasufi Raymon Aron (1905-1983) e'tirof etiladi. Uning asarlaridan biri «Tanqidiy tarix falsafasi» deb ataladi.

Ontologik kontseptsiya namoyandalari tarix falsafasining predmeti deganda ijtimoiy hodisalar, jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar majmuini tushunganlar. Mazkur tadqiqotlar shunday umumfalsafiy ontologik muammolar bilan bog'liqki, ularni yechishda jamiyat tarixining qolgan ijtimoiy hodisalardan farqini hisobga olish lozim. Ushbu yondashuv namoyandalari (R.Mel, R.Ramon, E.Kallo va b.) tarix falsafasining diqqat markazida avvalo ontologik muammolar, chunonchi: insoniyat tarixining mazmuni va vujudga kelishi, tarixiy jarayonning mohiyati kelajakni bashorat qilish imkoniyatlari, tarixiy jarayonda insonning o'rni va roli muammolari turishi lozim. Masalan, ijtimoiy rivojlanishni harakatlantiruvchi kuchlar to'g'risidagi masalani o'rganish jarayonida inson ongi, erkinligining tarixiy jarayondagi roli to'g'risidagi masala yuzaga keladi. Ammo, insondan boshqa rivojlangan ongga ega bo'lgan mavjudotlar fanga ma'lum emasligi tufayli, jamiyatning rivojlanishida ongning roli to'g'risidagi masalalar jamiyat, tarixiy jarayonlar haqidagi masalalar hisoblanadi.

Tarix falsafasining aksiologik kontseptsiyasi tarixning qimmati muammosiga, shuningdek tarixiy bilimning ayrim hodisalarini qimmatga ega yoki ega emas deb e'lon qiluvchi mulohazalar uchun oqilona asoslarni aniqlashga alohida e'tibor beradi.

Mazkur kontseptsiyaning rivojlanishiga nemis faylasuflari – neokantchilik Baden maktabi namoyandalari Vilgelm Vindelband (1848-1915) va Genrix Rikkert (1863-1936) salmoqli hissa qo'shgan. Bu tadqiqotchilar falsafani qadriyatlar haqidagi umumiy fan sifatida tavsiflaganlar. Rikkert qadriyatlar «sub'ekt va ob'ektning narigi tomonida joylashgan butunlay mustaqil saltanat»ni tashkil qiladi, deb hisoblagan. Vindelband va Rikkert nazariy va amaliy aqlning kantcha tafovutidan kelib chiqib, qadriyatlar haqida mulohaza yuritish va joizlikni bilishga asoslangan normativ ta'limot sifatidagi tarix falsafasini nazariy mulohaza yuritish va «borliq» haqidagi empirik ma'lumotlarga tayanuvchi tajribaga asoslangan fanlarga qarshi qo'ygan. Ular qonuniyatni tarixiy bilishning asosiy tamoyili sifatida rad etib, uni «qadriyatlarga mansub deb topish» tamoyili bilan almashtirgan. Vindelband va Rikkert fikriga ko'ra, qadriyatlar tarixdan ustun xususiyat kasb etadi va jamuljam holda odamlarga bog'liq bo'lmagan ideal

transtsendental (narigi) dunyoni tashkil qiladi. Bu dunyodan tegishli g'oyalar, avvalo transtsendental joizlik g'oyasi kelib chiqadi. U mazkur qadriyatlarning vaqt va makon bilan cheklanmagan shak-shubhasiz, mutlaq ahamiyatiga ishora qiladi. Odamlar ularni anglab yetishlariga qarab qadriyatlarga tegishli munosabat va talablarni yaratadilar va ularga hayotda, xulq-atvorda, kundalik va tarixiy faoliyatda amal qiladilar.

Vindelband va Rikkert ijtimoiy borliq va ma'naviy hayotning o'zaro nisbatini o'rganib, jamiyat tarixida ma'naviy hayot borliqqa nisbatan etakchi rol o'ynaydi, degan xulosaga kelgan va shu bois ular K.Marks taklif qilgan, jamiyatning rivojlanishida iqtisodiy omil (ya'ni borliq)ning hal qiluvchi ahamiyati asoslangan tarixni materialistik tushunishga tanqidiy ko'z bilan qaragan. Rikkert fikriga ko'ra, mazkur yondashuv noilmiydir, chunki u proletariat g'alabasini «mutlaq qadriyat» deb e'lon qiluvchi marksizm siyosiy dasturi bilan belgilanadi.

Bu mulohzalardan kelib chiqqanda, tarix falsafasi qadriyatlarning tabiati va mohiyatini, shuningdek ularning odamlar hayoti va faoliyatidagi ahamiyati va tajassumini yoritib beruvchi qadriyatlar haqidagi fan sifatida amal qiladi.

Hozirgi zamon G'arb ijtimoiy falsafasi va tarix falsafasida texnokratik kontseptsiyalar ijtimoiy tafakkurning ijtimoiy hayotda va jamiyat taraqqiyotida texnika hal qiluvchi rol o'ynaydi deb hisoblovchi va sanoatlashishgina jamiyat hayoti va shaxsni oqilona tartibga solish va kamol toptirishga qodir, degan fikrni asoslashga harakat qiluvchi yo'nalishlaridan biridir. Mazkur kontseptsiyalar qatoriga postindustrial jamiyat yoki axborot jamiyati kontseptsiyasini (Daniel Bell, Olvin Toffler), texnotron jamiyat kontseptsiyasini (Zbignev Bjezinskiy), Yangi industrial jamiyat kontseptsiyasini (Jon Gelbreyt)ni kiritish mumkin.

Mazkur texnologik determinizm jamiyat rivojlanishining asosiy omillari qatoriga avvalo ishlab chiqarish kuchlari, texnika, fan va informatikaning rivojlanish darajasini kiritadi. Masalan, postindustrializm kontseptsiyasi hozirgi zamon jamiyatida iqtisodiyotning birlamchi sohasi qishloq xo'jaligi, ikkilamchi soha sanoat emas, balki axborot hal qiluvchi rol o'ynaydigan uchlamchi soha (xizmatlar sohasi) etakchilik qilishidan kelib chiqadi. Postindustrial jamiyatda sodir bo'layotgan mikroelektron inqilob mehnatni emas, balki axborotni jamiyatning rivojlanishi zamirida yotuvchi fundamental ijtimoiy omilga aylantirishi qayd etiladi.

Sivilizatsiya. Sivilizatsiya (lot. civilis – fuqarolik, davlatga doir) atamasi har xil ma'noda ishlatiladi. Birinchidan, *sivilizatsiya – insoniyat rivojlanishida varvarlikdan keyin boshlangan va sinflar, davlat vujudga kelishi, urbanizatsiya va yozuv paydo bo'lishi bilan tavsiflanadigan tarixiy bosqich.* Mazkur talqinda «sivilizatsiya» atamasi «jamiyat» tushunchasi bilan qisman mos keladi va jamiyat hayotini tashkil yetishning ijtimoiy shaklini tabiiy vujudga kelgan urug'doshlik shakllariga qarama-qarshi qo'yishga xizmat qiladi. Hozirgi adabiyotlarda «sivilizatsiya» atamasi o'zining varvarlikka qarama-qarshi sifatidagi dastlabki ma'nosini saqlab qolmoqda.

Ikkinchidan, *sivilizatsiya – barcha madaniyatlar yaxlitligining tavsifi, ularning umuminsoniy birligi sifatida («jahon sivilizatsiyasi», «ma'rifatli hayot tarzi» va sh.k.)namoyon bo'ladi.*

Uchinchidan, *sivilizatsiya – «moddiy madaniyat» atamasining sinonimi sifatida: qulay narsa, texnika yaratadigan qulaylik (turar joy, ro'zg'or texnikasi, transport va aloqa, xizmatlar ko'rsatish va sh.k.)ni ifodalaydi.*

To'rtinchidan, *sivilizatsiya – tarixiy jarayon birligining tavsifi sifatida xarakterlanadi.* Bu tushuncha ijtimoiy boylik rivojlanishi munosabati bilan tarixning muayyan bosqichlariga qiyosiy baho berish mezoni bo'lib xizmat qiladi. Ayni holda jamiyatning rivojlanishi «ma'rifatlilik», «sivilizatsiya rivojlanishining quyi bosqichi», «sivilizatsiyaning umumiy darajasi», «sivilizatsiyaning oraliq bosqichlari» tushunchalari bilan tavsiflanadi. Ammo sivilizatsiyaning mazkur talqini to'liq emas, chunki uning rivojlanish darajasi yoki bosqichini aniqlash imkonini beradigan mezon yo'q.

Ibn Xaldun (1332-1406) o'z davrida birinchi bo'lib, sivilizatsiyalarning yuzaga kelishi, rivojlanishi va tanazzuli haqida ilmiy asosslangan g'oyalarni ilgari suradi. Jumladan madaniyatlar va davlatlarning paydo bo'lishi, yashashi va inqirozi muayyan tarixiy qonuniyat ekanligini, unga tabiiy geografik va iqtisodiy omillar, turmush tarzi va dunyoqarashlar jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini aytadi.

XVIII asr o'rtalarida sivilizatsiya tushunchasidan inson «tabiiy» holatining ziddi sifatida foydalanilgan, sivilizatsiya taraqqiyotining mezoni sifatida esa ijtimoiy farovonlik g'oyasi turli ko'rinishlarda ilgari surilgan. Kant sivilizatsiya va madaniyat o'rtasida farq mavjudligini qayd etgan. SHpengler sivilizatsiyani madaniyatning rivojlanishidagi bir bosqich sifatida tavsiflab, bu farqni mutlaqlashtirgan. Uning (keyinchalik P.Sorokin, A.Toynbi va boshqa mutafakkirlarning) kontseptsiyasida sivilizatsiya madaniyatning zavol topish bosqichi sifatida, madaniyatda mujassamlashgan tabiiy-hayotiy asosni siqib chiqaradigan texnik-mexanik elementlar saltanati sifatida tavsiflanadi.

XIX-XX asrlarda amalga oshirilgan etnografik tadqiqotlar sivilizatsiyaning mazmunini tushunishga muhim hissa qo'shdi. Ular turli xalqlar ma'naviy dunyosi, hayoti, odatlari, iqtisodiyoti va madaniyatining ulkan boyligi va rang-barangligini yoritib berdi. XIX asrning mashhur etnograflaridan biri CH.Teylor madaniyat va sivilizatsiya odamlar tarix jarayonida o'zlashtiradigan bilimlar, e'tiqodlar, ma'naviy-axloqiy kontseptsiyalar, yuridik qoidalar, odatlar va amaliy ko'nikmalar majmuini ifodalaydi deb hisoblab, bu tushunchalar ayniydir degan xulosaga keldi.

I.A. Karimov "Har qanday sivilizatsiya ko'pdan ko'p xalqlar, millatlar, elatlar faoliyatining va samarali tar'sirining mahsulidir. Bir so'z bilan aytganda ko'chmanchilar, bosqinchilar kelib ketaveradi, lekin xalq boqiy qoladi, uning madaniyati abadiy yashaydi"[1] deb ta'kidlaydi.

Sivilizatsiya odamlar mavjudligi va ijtimoiyligining xususiyati va yo'nalishini belgilaydi. Ijtimoiy normalarning muhimligi ularni uzatishning tegishli usullari (kommunikatsiya vositalari)ni va ularni

[1] И.А.Каримов Тарихий хотирасиз келажак йўқ .-Т.: Шарқ, 1998.-В.21

mustahkamlovchi institutlarni shakllantirishni taqozo etgan. Har bir sivilizatsiya ijtimoiy normalarda o'ziga xos ifodasini topgan ijtimoiy tajribani aniqlash, saqlash va avloddan-avlodga qoldirish alohida tizimini yaratgan. Jazolar tizimi, shuningdek jamoa, ommaviy ong shakli sifatida din va uning nomidan ish ko'ruvchi ijtimoiy institutlar ijtimoiy normalarni saqlash va ijro yetish kafili hisoblangan. Din va cherkov ta'sirida sivilizatsiya qiyofa kasb etgan. Huquqiy normalarning tarmoqlangan tizimini o'z ichiga olgan davlatdan iborat oliy hokimiyat sivilizatsiyaning uni saqlashni kafolatlaydigan oliy birlashtiruvchi asos sifatida amal qilgan. Turli sivilizatsiyalar davlat hokimiyatining turli: teokratik, tabaqaviy, huquqiy, siyosiy tizimlarini yaratgan.

Markaziy Osiyoda sivilizatsiya axloq shaklida yuzaga kelgan. U o'zida yaxshilik va yomonlik, muhabbat va nafrat o'rtasidagi kurashda yaxshilik va muhabbat g'alabasi bilan bog'liq ma'naviy axloqiy me'yorlarni mujassamlashtirgan. Inson mohiyatida aks etuvchi bu me'yorlar sharq sivilizatsiyasining asosini tashkil qilgan.

Sivilizatsiyalarning tiplari. Noyevropacha sivilizatsiyalar ancha katta guruhni tashkil etadi (A.Toynbi tasnifiga ko'ra, bunday sivilizatsiyalar 21 ta). Bu sivilizatsiyalarning aksariyati betakror tarzda o'ziga xos va ayni vaqtda umumiy tipologik jihatlarga ega. Bular Yevropacha sivilizatsiyadan ancha oldin vujudga kelgan an'anaviy sivilizatsiyalardir. An'anaviy jamiyat juda sust rivojlanadi va mavjud hayot tarzini asrlar va hatto ming yilliklar osha saqlashga qodir. Noyevropacha sivilizatsiyalarning xo'jalik faoliyati qishloq xo'jalik-hunarmandchilik ishlab chiqarishi va texnologiyasining hukmronligiga asoslanadi. An'anaviy sivilizatsiyaning ma'naviy sohasida diniy-mifologik tasavvurlar hukm suradi, ilmiy bilimlarning dastlabki shakllari asosan mavjud faoliyat turlari uchun retseptura vazifasini bajaradi. Noyevropacha sivilizatsiyalar evolutsiyasi sikllиligi va o'ziga xos institutlar va normalarga ega bo'lgan davlat vaqti-vaqti bilan dam kuchayib, dam zaiflashib turishi bilan tavsiflanadi. Bunday jamiyat halokati sivilizatsiya tipini o'zgartirmaydi, u ijtimoiy vorisiylik mexanizmlari yordamida avloddan-avlodga o'tadi.

Sivilizatsiyaning «Yevropacha» va «noyevropacha» tiplari tushunchalari umumiy, muhim, jins bildiruvchi belgilarni qamrab oladi. Mazkur tiplar doirasida mavjud turga oid farqlar pirovard natijada jahon tarixida Yevropacha sivilizatsiyaning betakrorligini e'tirof yetish bilan bog'liq. Ayrim mutaxassislar fikriga ko'ra, u an'anaviy jamiyat madaniyatining mutatsiyasi natijasida vujudga kelgan va insoniyat tarixida uning o'xshashi mavjud emas. SHunga qaramay sivilizatsiyalar tipologiyasi Yevropacha va noyevropacha rivojlanish xususiyatlari bilan cheklanmaydi, chunki insoniyat tarixida ozmi-ko'pmi o'xshash bo'lgan ko'p sonli sivilizatsiyalar mavjud.

Jumladan, *madaniy-tarixiy birlik belgisiga ko'ra G'arbiy, SHarqiy va Janubi-SHarqiy Yevropa mamlakatlarini, shuningdek Yevropacha sivilizatsiyaga mansub bo'lgan, lekin o'z madaniyatining xususiyatiga ko'ra farq qiladigan AQSH va Kanadani farqlash mumkin.*

Vujudga kelish va halok bo'lish davriga ko'ra hozirgi zamon sivilizatsiyalari va o'lik sivilizatsiyalar (masalan, meksika, xaldeylar yoki qadimgi somiylar sivilizatsiyasi) farqlanadi.

Sivilizatsiyalar tipologiyasida madaniy-diniy birlik belgisi ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. A.Toynbi, S.Xantington va boshqa olimlar taklif qilgan sivilizatsiyalar tasnifida diniy omil muhim rol o'ynaydi. *A.Toynbi tasnifiga ko'ra hozirgi vaqtda G'arb-xristian, pravoslav-xristian, islom, hind, Uzoq SHarq sivilizatsiyalari mavjud.*

O.Toffler, D.Bell, K.Pekka ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasini tasniflash uchun asos qilib olib, *quyidagi sivilizatsiyalarni farqlaydilar:*

- *ilk sivilizatsiya (arxaik, an'anaviy yoki ibtidoiy jamoa);*
- *qishloq xo'jalik-hunarmandchilik sivilizatsiyasi;*
- *industrial (sanoatlashgan) sivilizatsiya;*
- *hozirgi postindustrial yoki informatsion sivilizatsiya*

Ijtimoiy-siyosiy hayot xususiyatiga ko'ra an'anaviy, liberal va oraliq sivilizatsiyalar farqlanadi.

Liberal sivilizatsiya *yoki G'arb sivilizatsiyasi madaniy va siyosiy plyuralizm hamda jamiyatning asosiy qadriyati – huquq tizimining vujudga kelishi bilan bog'liq*. Uning ildizlari xususiy mulk va erkin bozor hukm surgan davrda vujudga kelgan antik sivilizatsiyaga borib taqaladi. O'z navbatida, bozor va xususiy mulk individ uchun kafolatlarni, mulkdor imtiyozlarini, mulkdorlar guruhining ma'muriyatdan ustunligini, shaxs erkinligi va o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish tamoyillarini o'z ichiga olgan huquqiy tamoyillar va institutlar tizimi vujudga kelishiga sabab bo'lgan.

An'anaviy sivilizatsiyalar *ijtimoiy hayotning varvarlikka chek qo'yish bilan bog'liq dastlabki shaklidan iborat*. Bular barcha a'zolari bevosita emotsional muloqot jarayonida bo'lgan nisbatan kichkina lokal hamjamiyatlardir. Ular jamoa qadriyatlarining ustunligi, qabila oqsoqollariga nisbatan hurmat, o'tmishga qarab mo'ljal olishga asoslangan. An'anaviy sivilizatsiyaning o'ziga xos jihatlari – past malakali, lekin ancha keng byurokratiyaga tayanuvchi jabr-zulmga asoslangan hokimiyat, tabaqalarning huquqsizligi, jamoaviy tuzilma, huquqning norasoligi, individning kamsitilishi kabilardir.

Oraliq sivilizatsiya *yoki o'tish davri sivilizatsiyasi ulkan inshootlar (to'g'onlar, kanallar va sh.k.) barpo yetish, Yangi hududlarni bosib olish yoki o'z hududini tashqi dushmandan himoya qilish (masalan, Buyuk Xitoy devori) zaruriyati tufayli vujudga keladi.* Natijada an'analari va qadriyatlariga ko'ra har xil lokal hamjamiyatlarning mexanik birlashuvi yuz beradi. Mazkur birlashuv rasmiy xususiyat kasb etadi va idrok yetish ancha qiyin bo'lgan normativ-huquqiy qoidalarga muvofiq va jamiyatni tashkil yetishning lokal hamjamiyatlar ko'nikkan hayot tarziga zid bo'lgan shakllarida amalga oshiriladi. Aksariyat hollarda jamiyatni birlashtirish vazifasi davlat tomonidan va asosan kuch ishlatish yo'li bilan hal qilinadi. Ayni shu sababli normalar tizimi asosan birlashtiruvchi mexanizm sifatidagi davlat ehtiyojlarini aks ettiradi. Bundan o'tish davri sivilizatsiyalariga xos bo'lgan huquqiy nigilizm kelib

chiqadi. Davlat qadriyatlari va lokal hamjamiyatlarning qadriyatlari asosan bir-biriga zid bo'lgani bois ularning o'rtasida to'qnashuv yuz berishi mumkin. Qattiq davlat intizomi, ko'p sonli soliqlar to'lash, amaldorlarning o'zboshimchaligi, rekrut majburiyati, urushlarda ishtirok yetish zaruriyati kabi davlatning bu talablari aholining aksariyat qismida norozilik uyg'otadi.

SHunday qilib, jamiyatning muhim xususiyatlari ijtimoiy hayotni tashkil yetishning keng ko'lamli shakli sanalgan sivilizatsiyaga asoslanadi. Sivilizatsiyalar vaqtda va makonda o'ta barqaror bo'ladi, individlar va ijtimoiy guruhlarning aloqalarini tartibga soladigan va jamiyatning moddiy asoslarini ham, ma'naviy asoslarini ham belgilaydigan umumiy normalarga asoslanadi. Ular madaniyat va ijtimoiy munosabatlarning umumiy shakllarini yaratib, jamiyat hayotining tizim tashkil etadigan muhim asosi sifatida amal qiladi. *Sivilizatsiya – avlodlar vorisiyligini ta'minlovchi tarixiy tajriba manbaidir.*

Insoniyat tarixining ilk davrlaridayoq odamlar narsalarning muayyan qimmatga ega ekanligini, insonning u yoki bu ehtiyojlarini qondira olishini, biron sohada foydali bo'lishi mumkinligini kashf etganlar. Shu bilan narsalarning qadriyaviy xususiyati ochilgan.

Dastlabki paytlarda bu xususiyat buyumlarning amaliy foydasi bilan bog'lanar edi. Keyinchalik qadriyat maqomi boshqa ijtimoiy instutlar va ma'naviy hodisalarda ham tan olina boshlandi.

Inson o'z faoliyatini yo'naltirishi lozim bo'lgan ne'matlar va qadriyatlar muammosi *qadimgi sharq falsafasi* va falsafaga qadar bo'lgan fikr tarixida muhim o'rin tutadi. *Braxmanlikda* - bu qayta tug'ilish orqali yanada yuksakroq varnaga[62] erishish. Insonning keyingi hayotida qaerda tug'ilishi uning taqvodorligi bilan bog'liq, taqvodorlik esa o'z varnasining dxarmasiga xizmat qilish va uning ko'rsatmalaridan chetga chiqmasligini anglatar edi. Oliy maqsadga faqat braxmanlar erishishlari mumkin bo'lib, u hamma narsadan (oiladan, boylikdan, olimlikdan) voz kechish va sansaradan ozod bo'lish yo'li. Zohidlik, xayr-ehson, poklik, kuch ishlatmaslik, yaqin kishilarga hamdard bo'lish, o'z ehtiroslarini jilovlash - braxmanlikning yetakchi qadriyatlari. Upanishadlarda ideal braxman hyech narsaga ko'ngil qo'ymaydigan, qayg'u, baxillik, umid tuyg'ularidan ozod, osoyishta, yolg'on va hatto o'z-o'zini idrok etishdan ham xoli bo'lgan tafakkuri berilgan kishi sifatida tasvirlanadi[63].

Braxmanlikda salmoqli o'rin tutuvchi qadriyatlar qadimgi hind jamiyatidagi kastalarga bo'linish bilan chambarchas bog'liq. Bunday bog'liqlik (bunga har bir kasta vakili amal qilishi kerak) braxmanlikka nisbatan muxolifatda bo'lgan *bxagavatgizm, jaynizm* va boshqa oqimlarda ham mavjud. Biroq *charvaklar* falsafasida bunday xildagi aloqaning asoslanganligi shubha ostiga olinadi. Bundan tashqari charvaklarda asketizmning targ'ib qilinishi o'rnini baxtni lazzat sifatida tushunishga yo'naltirilgan *gedonistik* dastur egallaydi.

Qadimgi Xitoy falsafiy tizimlarida ham qadriyaviy ideallar shakllantirilgan. *Konfutsiylikda* bu qadimiylikka yo'naltirilganlik, «oltin o'rtaliq», «insonsevarlik», «hamdamlik» singari tamoyillardir. Konfutsiylikning asosiy tamoyili shunday: «o'zingga ravo ko'rmaganni o'zgalarga ravo ko'rma»[64]. Konfutsiylikning axloqining asosida - fuqaroning podshohga, xotinning erga, o'g'ilning otasiga, kichikning kattaga hurmati va bo'ysunish yotadi.

*Daosizm*da konfutsiylik qadriyatlari inkor etiladi. «Mutlaq donolarcha» xulq-atvorning asosiy tamoyili - faoliyatsizlik tamoyilidir: hamma narsa tabiiy yo'l hisoblanuvchi *dao* yo'lida ketishi kerak.

yevropa falsafasida qadriyatlar muammosi *Qadimgi Gretsiya*da qo'yilgan edi. Bu muammoni birinchilardan bo'lib *Suqrot* ko'tarib chiqdi. U aksiologiyaning asosiy masalasini «Ne'mat nima?» degan savol bilan ifodaladi. Uning bu savolga murojaat etishi tasodifiy emas edi. Bu hol Afina demokratiyasining tanglikka uchrashining qonuniy natijasi sifatida yuzaga keldi. Mazkur savolga javob berish Yangi ijtimoiy ideallarni qidirishda yordam berishi lozim edi. Keyingi davrlarda ham qadriyatlar falsafasi tarixning burilish davrlarida, an'anaviy qadriyatlar qadrini yo'qotgan, jamiyatning ijtimoiy negizlari obro'sizlangan paytlarda dolzarb ahamiyat kasb etganligini ko'rishimiz mumkin.

Antik an'ana doirasida qadriyatlar muammosini ishlab chiqishda *Demokrit* katta rol o'ynadi. Qadriyatlar tabiatini naturalistik (ob'ektivistik) talqin qilish an'anasini u boshlab berdi. Antik faylasufning fikriga ko'ra, baxt-saodat, ezgulik, adolat, go'zallik mezonlari tabiatning o'zida, hamma narsaning o'z tabiiy oqimida ketishidadir. Nimaiki tabiatga mos bo'lsa - yaxshi, nimaiki unga zid bo'lsa - yomon. Bizning xuzur-halovatimiz va azoblarimiz, qoniqishimiz va noroziligimizning asosi ana shunda.

Aflotunga ham qadriyatlarni ob'ektivistik tushunish xos edi. Biroq materialist Demokritdan farqli o'laroq Aflotun ularning manbaini tabiatda (narsalar olamida) emas, balki vujudsiz mohiyatlar (ob'ektivlashtirilgan tushunchalar) - g'oyalar olamida ko'radi. «Katta Gippiy» asarida Aflotunning Suqrot ismli qahramoni Gippiy bilan suhbatda u yoki bu narsalarni go'zal qiluvchi narsa nima ekanligini bilishga urinadi. Go'zallikning ayrim narsalardagi in'ikosini namoyish qilish orqali go'zallikning nima ekanligini idrok etish mumkin emasligi faylasufni *go'zallik «g'oya»si*ga olib keladiki, ana shu go'zallikning qandaydir bir narsaga qo'shilishi uni go'zal qiladi. Aflotun g'oyalari bir-biriga bo'ysunuvchi muayyan tartibda joylashadi. Mazkur g'oyalar piramidasining cho'qqisi *baxt-saodat* g'oyasidir. Aynan shu g'oya ijobiy fazilatlarning, go'zallikning, haqiqat va uyg'unlikning manbai bo'lib xizmat qiladi.

Qadriyatlarning boshqa bir relyativistik (sub'ektivistik) konsepsiyasi ham mavjud bo'lib, unga *Protagor* asos solgan. Mazkур konsepsiyaga muvofiq qadriyatlarning bahosi nisbiy bo'lib, u insonga bog'liqdir.

---

[62] Қадимги ҳинд жамияти 4 варналардан – брахманлар, кшатрийлар, вайшьялар ва шудралар табақаларидан иборат эди.

[63] Чанышев А.Н. Начало философии. М., 1982. 138-б.

[64] Древнекитайская философия. В 2-хт. М., 1972. Т.1.167-б.

Qadriyat muammosiga antik davrdayoq shakllangan yondashuvlar o‘z ko‘rinishlarini muayyan darajada o‘zgartirgan holda keyingi falsafiy tizimlarda ham saqlab keldilar. Aksiologiya muammosini ishlab chiqishga *I.Kant, G.Lotse, G.Rikkert, N.Gartman, F.Nitsshe* va boshqalar o‘z hissalarini qo‘shdilar.

Qadriyat tushunchasi

XIX asr o‘rtasiga qadar falsafada «borliq» va «qadriyat» tushunchalari bir-biridan ajratilmagan edi. *Aksiologiya* (yunoncha axia - qadriyat va logos ta'limot so‘zlaridan) mustaqil fan sifatida borliq tushunchasi ikki komponentga ajralgan paytda yuzaga keladi: bir narsaning mavjud bo‘lishi va uning mohiyati. Boshqacha qilib aytganda, ob'ekt va sub'ektning o‘zaro ta'siri paytda sub'ekt uchun ob'ektda shunday bir narsa ayon bo‘ladiki, uni ob'ektning mavjud bo‘lishining o‘zigagina bog‘lab bo‘lmaydi, ya'ni u go‘yo ushbu mavjudlik chegarasidan tashqarida turadi va u uchun muayyan ahamiyatga ega bo‘ladi. Ob'ekt va sub'ektning o‘zaro ta'sirini ana shunday tushunish qadriyat tushunchasini hozirgi zamon falsafasining kategorial apparatining elementi sifatida shakllanishi uchun boshlang‘ich nuqta bo‘lib xizmat qildi.

Qadriyatlar - voqyelikdagi muayyan hodisalarning qimmatini belgilash uchun xizmat qiluvchi falsafiy kategoriya bo‘lib, u mazkur hodisaning sub'ekt tomonidan aks ettirilishi natijasida paydo bo‘ladi.

Qadriyatlarning tabiati haqida so‘z ketar ekan, falsafiy adabiyotlarda bir-biri bilan raqobat qiluvchi to‘rtta asosiy yondashuvlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. *Birinchi yondashuv*ga ko‘ra, qadriyatlar dunyosi alohida, mustaqil, sub'ektga ham, ob'ektga ham nisbat berib bo‘lmaydigan olam sifatida talqin etiladi. Neokantianlikning klassiklaridan biri G.Rikkert yozganidek, «qadriyatlar sub'ekt va ob'ektdan tashqarida joylashgan butunlay mustaqil saltanatni tashkil etadi».[65] *Ikkinchi yondashuv*ga ko‘ra esa, qadriyaviy xususiyatlar narsalarning o‘zida mavjuddir. Boshqacha qilib aytganda qadriyatlar manbai tashqi voqyelik xususiyatlarida ko‘rinadi. Ana shu bilan bog‘liq ravishda qadriyatlar narsalarning muayyan ehtiyojlarni qondira olishga bo‘lgan ob'ektiv qobiliyati sifatida qaraladi. *Uchinchi yondashuv*ning mohiyati shundan iboratki, tabiatda qadriyatlar mustaqil mavjud emas. U yoki bu narsalar faqat sub'ektning baholash faoliyati tufayli o‘z qadr-qimmatiga ega bo‘ladi. Bunga misol sifatida g‘arb estetikasi antologiyalaridan birining tuzuvchisi bo‘lgan M.Reyderning fikrini keltirish mumkin: «Haqiqatlarga qarama-qarshi o‘laroq, qadriyatlar shunchaki tasavvur qilinadi xolos... Faktlar kuzatuvchilar guruhi uchun bir xil xususiyatga ega bo‘lsa, qadriyat har bir baholovchining sub'ektiv fikri bilan bog‘liq ravishda turli tabiatga ega bo‘ladi»[66]. Bir kishi uchun qimmatli bo‘lgan narsa boshqa kishi uchun unday bo‘lib ko‘rinmaydi. *To‘rtinchi yondashuv*da esa oldingi yondashuvlarning o‘ziga xos sintezi amalga oshiriladi va qadriyatlarning ikki yoqlama (ob'ektli va sub'ektli) tabiatga ega ekanligi ta'kidlanadi.

Qadriyat tasnifi

Falsafiy adabiyotlarda qadriyatlarning turli tiplari ajratib ko‘rsatiladi.

1. Qadriyatlar quyidagi belgi bo‘yicha farqlanishi mumkin: Nima baholanyapti va nimaga asosan baholanyapti? Shu bilan bog‘liq ravishda ular quyidagicha turlarga ajratiladi:

a) *predmetli qadriyatlar* - qadr-qimmat munosabatlarining ob'ektlari, ya'ni voqyelikdagi sub'ekt uchun muayyan qimmatga ega bo‘lgan hodisalar. Ularga quyidagilar kiritiladi:

- tabiiy ob'ektlar, jarayonlar va hodisalar;
- ijtimoiy ob'ektlar, jarayonlar va hodisalar.

b) *sub'ektli qadriyatlar* - u yoki bu hodisalarni baholash tadbirini o‘tkazishda asos bo‘lib xizmat qiluvchi usullar va mezonlar. Ularga quyidagilar kiradi:

-me'yoriy taqdimnomalar sifatida bayon etilgan ko‘rsatmalar, baholar, imperativlar, maqsadlar, loyihalar.

2. Qadriyatlar sotsiumining qanday sohasi bilan bog‘liq ekanligiga qarab ham bir-biridan farq qiladi. Shundan kelib chiqib *axloqiy, badiiy, utilitar, ilmiy, diniy* va boshqa qadriyatlar farqlanadi.

3. Qadriyatlar umumiylik darajasiga qarab, ya'ni, u yoki bu hodisa qancha miqdordagi sub'ektlar uchun qimmatga ega ekanligiga qarab ham farqlanadi. Shu bilan bog‘liq ravishda quyidagi turlar ajratib ko‘rsatiladi;

- *individual qadriyatlar;*
- *guruhiy qadriyatlar* (milliy, diniy, jinsiy, yosh); ushbu guruhlar doirasida *g‘arb va sharq qadriyat* tizimlari haqida so‘z yuritish mumkin.
- *umuminsoniy*;

4. Qadriyatlar ular sub'ekt tomonidan qay darajada o‘z xususiy maqsadi yoki tamoyillari sifatida tan olinishi yoki tashqi sharoitdan kelib chiquvchi bir narsa sifatida qabul qilinishiga ko‘ra farq qilishi mumkin. Shu bilan bog‘liq ravishda *tashqi* va *ichki* qadriyatlar ajratiladi.

5. Qadriyatlar inson hayoti va faoliyatining negizlari uchun, uning ehtiyojlari va mo‘ljallarining mohiyatini ifodalash uchun qayo darajada qimmatga ega ekanligiga qarab ham farqlanadi. Shu munosabat bilan ular quyidagi turlarga ajratiladi:

- *mutlaq* yoki boqiy qadriyatlar (konstantalar);
- *vaziyatli*, o‘tkinchi yoki qadriyatlar va qadriyaviy mezonlarining muayyan tarixiy shakllari (empirik o‘zgaruvchan qadriyatlar).

---

[65] Риккерт Г. О понятии философии. – «Логос», Кн.1. Спбю.ю 1910. 33-б.

[66] Современная книга по эстетике. Антология. М., 1957.

6. Qadriyatlar ular bajaradigan funksiyaga ko‘ra ham farqlanadi. Shu bilan bog‘liq ravishda qadriyatlar *mezon usuli* sifatida, qadriyatlar ijtimoiy guruhlarda *nazorat usuli* sifatida, qadriyatlar ijtimoiy tartibni yaratish va saqlashda *funksional zarur* bo‘lgan me'yorlar sifatida ajratiladi.

Qadriyaviy yondashuv

Aksiologiyada juda ko‘p an'anaviy va hozirgi zamon falsafiy muammolari Yangicha ko‘rib chiqiladi. Masalan, an'anaga ko‘ra, *haqiqat*ga yetish ilmiy bilishning ideali, shaksiz ne'mat, yaxshilik deb hisoblangan. Biroq XX asr ushbu qarashga o‘z tuzatishlarini kiritdi. Industrializmning va texnitsistik yondashuvlarning salbiy oqibatlari, ommaviy qirg‘in qurollarining yaratilishi va qo‘llanishi, gen muhandisligining paydo bo‘lishi shuni ko‘rsatadiki, muammoga sof gnoseologik yondashuv yetarli emas. Bugungi kunda «faqat haqiqatning qadri haqidagina emas, balki uning bahosi haqidagi masala ham paydo bo‘ladi, bunda boshlang‘ich hisob nuqtasi sifatida inson va uning baxt-saodati namoyon bo‘ladi»[67]. Haqiqat tobora ko‘proq aksiologik kategoriyalar ko‘zgusi orqali qarala boshlanmoqda.

Lozim va zarur narsalar haqida qadriyaviy ideallar sifatida so‘z yuritar ekan, aksiologiya borliqning muammoli masalalari borasida bizning tasavvurlarimiz doirasini kengaytirdi. Ilgari me'yoriy hodisa deb hisoblangan narsalar hozirgi zamon aksiologik yondashuvlari ko‘zgusida unday bo‘lib ko‘rinmaydi. Qadriyaviy mezon va qadriyaviy qarash amalda hayotimizning barcha sohalariga kirib bormoqda. Bugungi kunda shu narsa ayon bo‘lyaptiki, biron bir ijtimoiy institut, biron bir muhim ijtimoiy muammo, jamiyatning biron bir sohaga aksiologik yondashuvlardan tashqarida ko‘rib chiqilishi mumkin emas. Bunda qadriyatlarni qayta baholash lokal masalalarga ham, global masalalarga ham birdek tegishlidir. Texnik taraqqiyot baxt-saodat keltiradimi? Insonni klonlashtirish mumkinmi? Evtanaziya - bu ezgulikmi yoki qotillikmi? Agar uning kashfiyotlaridan foydalanish odamlarning halok bo‘lishiga sabab bo‘lsa, olim o‘z kashfiyotining oqibatlari uchun javobgar bo‘ladimi? Ilmiy va siyosiy ongda asta-sekin sof iqtisodiy, sof texnologik, qadriyaviy komponentlardan tashqarida qaraluvchi sof tadqiqotchilik loyihalaridan voz kechish tamoyili yuzaga kelayotganini ko‘rish mumkin.

O‘z navbatida qadriyatlarning o‘ziga, munosabat va qadriyaviy ongga gnoseologik, sotsiologik, psixologik, semiotik va boshqa yondashuvlar nuqtayi nazaridan qaralmoqda.

8-Mavzu: Falsafiy antropologiya (Inson falsafasi)

Reja:

1. Inson borlig'ining o'ziga xos xususiyatlari.
2. Sharq va G'arb falsafasida inson muammosi.
3. Hayotning mazmuni va unda insonning vazifasi.
4. Inson borlig'ida faoliyatning tuzilishi va atributlari.

Inson falsafiy muammo sifatida. Falsafa tarixida insonga murojaat etmagan, inson moddiy va ma’naviy borlig’ining turli tomonlarini bevosita yoki bilvosita tahlil qilmagan faylasuf yoki falsafiy yo’nalishni topish deyarli mumkin emas. Aksariyat falsafiy va diniy tizimlar katta olam yoki makrokosmga zid o’laroq, insonga mikrokosm yoki kichik Koinot sifatida qarab, uni butun olamni tushunish kaliti deb hisoblaganlar. Faylasuflar inson sirining tagiga yetish borliq jumbog’ining tagiga yetish bilan barobar ekanligini qayta-qayta anglab etganlar. Zero Forobiy aytganidek - ”Odamlar o’zlarining xos xususiyatlariga va tabiiy ehtiyojlariga ko’ra jamiyat tuzadilar. Ularning harakat va fe’llarini dastavval bora-bora odatlarga aylanadigan tabiiy qobiliyatlar belgilaydi”[68]. O’z-o’zingni angla va shu orqali dunyoni anglaysan. Dunyoni insonning teran qatlamlariga kirmasdan sirtdan bilishga bo’lgan barcha urinishlar narsalar haqida faqat yuzaki tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Insondan sirtga qarab yuradigan bo’lsak, narsalar mohiyatini hech anglay olmaymiz, zero bu mohiyat insonning o’zida mujassamlashgan.

Bu fikr qadimgi mutafakkirlargayoq yaxshi ma’lum bo’lgan. Unga turli ko’rinishlarda Sharqda ham, yunon-rim falsafiy an’anasida ham duch kelish mumkin. Xususan, antik davrda Delfidagi Apollon ibodatxonasiga kiraverishda ustunga o’yib yozilgan, rivoyatlarga qaraganda Suqrot takrorlashni yaxshi ko’rgan «O’z-o’zingni angla», degan ibora ayniqsa mashhur bo’lgan. Ajablanarlisi shundaki, oradan ikki yarim ming yil vaqt o’tgach, hozir ham bu fikr o’z ahamiyatini yo’qotgani yo’q. U nafaqat narsalar dunyosini, balki inson borlig’ining mohiyatini, inson va ijtimoiy munosabatlarning asl tabiatini tushunishga harakat qilayotgan har bir odam uchun o’z-o’zini anglashga chorlovchi fikr bo’lib qolmoqda. Buni faqat shu bilan izohlash mumkinki, ayni holda har bir Yangi avlod o’z davri hamda tabiiy-ilmiy va falsafiy tasavvurlarning tegishli darajasi nuqtayi nazaridan yechishga harakat qiladigan o’ta murakkab, «boqiy» falsafiy masalalardan biri to’g’risida so’z yuritiladi.

Tarixga boshqa ko’p sonli iboralar ham ma’lum bo’lib, ular vaqt, madaniyat va diniy e’tiqoddan qat’iy nazar, “inson” barcha davrlarda butun dunyo mutafakkirlarining diqqat markazida bo’lgani va hozir ham shunday ekanligi, tayanch nuqtasi va hatto bilish mezoni bo’lib xizmat qilishidan dalolat beradi. Xususan, qadimgi xitoy faylasufi Lao Szi fikriga ko’ra, «boshqalarni biluvchi – oqil, o’zini biluvchi – donishmanddir». Protagorning: «Inson barcha narsalar mezonidir», degan fikri ham juda mashhur. «Tangri saltanati bizning ichimizdadir», deb o’rgatgan Iso Masih. Buddaviylarning: «O’zligingga nazar tashla, sen Buddasan», degan chorlovi ham yuqoridagi fikr bilan hamohangdir. Islomda «Kimki o’zini bilsa, u o’z Allohni ham bilgaydir», deyiladi.

---

[67] Фролов И.Т. О человеке и гуманизме. М., 1989. 215-б.

[68] Ал-Фаробий Философия политики – М.: 1989. – с.529.

Demak, inson o'zini dunyodan oldinroq va ko'proq biladi, ayni shu sababli u dunyoni o'zidan keyin va o'zi orqali anglab etadi. *Falsafa dunyoni inson orqali ichdan bilishdir, fan esa insondan tashqaridagi dunyoni yuzaki bilish demakdir. Insonda mutlaq borliq, insondan tashqarida esa – nisbiy borliq namoyon bo'ladi.*

Falsafa tarixida inson muammosi. Antik davrdan boshlab insonga bo'lgan qiziqish dam kuchayib, dam ma'lum vaqt pasayib turgan, lekin hech qachon yo'qolmagan. «Inson nima?», degan savol bugungi kunda ham avvalgidek jahon falsafasidagi o'ta muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda, insoniyatning eng o'tkir aql-zakovat sohiblari e'tiboridan tushmay va ayni vaqtda o'zining uzil-kesil, umumiy e'tirof etilgan echimini topmay kelmoqda.

Inson har safar mutafakkirlar diqqat markazidan o'rin olar ekan, uning mohiyatini Yangi tarixiy sharoitda va Yangicha nuqtayi nazardan anglab yetishga harakat qilib, uni qayta va qayta Yangidan kashf etganlar. Pirovardida, falsafa fanida insondan murakkabroq va ziddiyatliroq predmet yo'q, desak, hech mubolag'a bo'lmaydi.

Inson barcha yaxshi fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan o'ziga xos, betakror va barkamol mavjudot – cheksiz mikrokosm sifatida ham, inson tabiatining norasoligi va buzuqligi tufayli halokatga mahkum bo'lgan tabiat xatosi sifatida ham, Xudo yaratgan banda sifatida ham, boshqa odamlar faoliyatining mahsuli sifatida ham talqin qilinadi. Xususan, SHarq mutafakkiri A.Beruniy jahon fanida birinchi marta inson va tabiat, odam va olam o'rtasidagi munosabatlarni dunyoviy fan nuqtayi nazaridan o'rganadi. U "odamlar tuzilishining rang, surat, tabiat va axloqda turlicha bo'lishi faqatgina nasablarining turlichaligidan emas, balki tuproq, suv, havo va erning, odam yashaydigan joylarning turlichaligi hamdir. Tillarning turlicha bo'lishiga sabab odamlarning guruhlarga ajralib kyetishi, bir-biridan uzoq turishi, ularning har birida turli hoxishlarni ifodalash uchun zarur bo'lgan so'zlarga ehtiyoj tug'ilishidir. Uzoq zamonlar o'tishi bilan bu iboralar ko'payib, yodda saqlangan va takrorlanish natijasida tarkib topib, tartibga tushgan"[69], deb hisoblaydi. Demak, Beruniy fikricha, insonning fe'l-atvori va ma'naviy qarashlari surati va siyrati bevosita tabiiy muhit ta'sirida shakllanadi. Zero, aynan shu tabiiy muhit, geografik sharoit xalqlar, millatlar shakllanishining muhim asosi bo'la oladi. "Inson o'z tabiatiga ko'ra murakkab tanaga egadir. Insonning tanasi bir-biriga qarama-qarshi qismlardan iborat bo'lib, bu qismlar tobelik kuchi asosida birlashgan"[70]. Beruniy fikricha, hamma odamlarda o'zaro bir-biriga o'xshash va ayni paytda farq qilib turadigan jihatlar mavjud. Ibn Sino, "Inson boshqa barcha hayvonot olamidan so'zi, tili va aqli, tafakkur qilishi bilan farq qiladi. Inson aqli turli fanlarni o'rganish yordamida boyiydi"[71], deb hisoblaydi. Forobiy fikricha, inson o'z tabiatiga ko'ra hayotini tartibga keltirish, mustahkamlash va takomillashtirish uchun boshqa insonlarga muhtoj bo'ladi. yakka holda hech kim bunnig uddasidan chiqa olmaydi. "Inson shunday maxluqotki, u faqat jamiyatda o'z ehtiyojlarini qondirishi va oliy ma'naviy darajaga ko'tarilishi mumkin"[72]. Inson o'z hayotining me'mori, ijodkori bo'lmog'i, o'zida fozila xislatlar, iste'dodlarni tarbiyalashi lozim. Bunga esa u jamiyatda yashab faoliyat ko'rsatgandagina erishadi. Inson ijtimoiy mavjudod. YOlg'izlik uzlat uni qashshoqlashtiradi, insoniy qiyofasini va baxtga olib boradigan iste'dodini yo'qotadi. Ibn Xaldun, insonga ijtimoiy voqelik sifatida qaraydi. Undan ijtimoiy mohiyat izlaydi. Inson jonzot sifatida ezgulik va yovuzlik olamidir. SHunga ko'ra, u umrining har daqiqasida yovuzlikdan ko'ra ezgulikka, yomonlikdan ko'ra yaxshilikka, nafratdan ko'ra muhabbatga intilib yashashga mahkum etilgan aql sohibi, bebaho ne'matdir.

G'arb va Sharq falsafasidagi asosiy muammolar fan va falsafaning vazifasi – insonning tabiat ustidan hukmronligini kuchaytirishga, inson sog'lig'i va go`zalligiga ko`maklashish hodisalarning sabablarini, ularning muhim kuchlarini o`rganish zarurligi anglab etilishiga olib kelgan. Shu sababli substantsiya va uning xossalari muammolari Yangi davrning deyarli barcha faylasuflarini qiziqtirgan.

Inson barcha ijtimoiy munosabatlar majmuidir, degan fikr insonga mexanistik nuqtayi nazardan yondashgan Ma'rifat davri mutafakkirlari, xususan «Inson-mashina» deb nomlangan asar muallifi frantsuz J.Lametri (1709-1751) ilgari surgan g'oyalar bilan to'qnashadi.

Boshqa bir mashhur frantsuz faylasufi – R.Dekart (1596-1650) asarlarida inson mohiyati masalasiga nisbatan butunlay o'zgacha yondashuvga duch kelamiz. U «inson fikrlovchi narsadir», deb hisoblaydi.

Atoqli frantsuz faylasufi va teologi P.T. de SHarden (1881-1955). «Inson, u uzoq vaqt o'ylaganidek, dunyoning statik markazi emas, balki evolutsiyaning o'ziga va cho'qqisi bo'lib, bu ancha go'zalroqdir»[73], deb qayd etadi

Unga zid o'laroq, A.SHopengauer (1788-1860) inson nuqsonli mavjudot ekanligini ta'kidlaydi, uni «tabiat xalturasi» deb ataydi.

Frantsuz yozuvchisi va faylasufi J.P.Sartr (1905-1980) bu fikrni butunlay rad etadi. Uning fikricha, inson kelajakka qarab intiladi va shu tariqa o'zini o'zi yaratadi. U «Inson – odamzot kelajagidir», deb ta'kidlaydi.

SHunday qilib, falsafaning ikki yarim ming yillik tarixi mobaynida insonga juda ko'p ta'riflar va tavsiflar berildi, u ko'p sonli sinonimlar orttirdiki, falsafiy tahlilning boshqa biron-bir ob'ektida bunday holga duch kelish mushkul. Zero, falsafa tarixida inson:

- «aqlli mavjudot»;
- «siyosiy hayvon»;

---

[69] А.Беруний Танланган асарлар 1 жилд –Т.: Фан, 1968.-В.16-17.
[70] Қаранг: Ирисов Беруний хикматлари -Т.: Ёш гвардия 1973. –В.40-43
[71] Ибн Сино Донишнома – Т.: Фан, 1976.-С..59
[72] Фаробий фозил одамлар шахри . -Т.: А.Қодирий номли халқ мероси нашриёти 1993-69 б
[73] Де Шарден Феномен человека -М.: 1987.-с.40

- «tabiat gultoji»;
- «hayotning boshi berk ko'chasi»;
- «hayotning soxta qadami»;
- «mehnat qurollari yasovchi hayvon»;
- «o'zlikni anglash qobiliyatiga ega mavjudot»;
- «ma'naviy va erkin mavjudot» va hokazolar sifatida talqin qilingan.

Fikrlarning bunday rang-barangligi sababini, avvalo, insonning o'z tabiatidan izlash lozim. Inson tabiatining siri «boqiy muammolar»dan biri bo'lib, falsafa o'z predmetining mohiyati va xususiyatiga ko'ra unga qayta-qayta murojaat etgan va shunday bo'lib qoladi. Bu erda mazkur sohadagi barcha fikr-mulohazalarga mo'ljal beruvchi insonning kelib chiqishi haqidagi masala ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Inson qaerdan va qanday paydo bo'lgani haqidagi ko'p sonli g'oyalar orasidan eng muhimlarini ajratib olsak, ularning barchasini ma'lum darajada shartlilik bilan *ikki asosiy kontseptsiya – insonning tabiiy va g'ayritabiiy kelib chiqishi haqidagi kontseptsiyalar doirasida birlashtirish mumkin.*

Insonning kelib chiqishi haqidagi birinchi tabiiy yondashuv *insonning paydo bo'lishiga olib kelgan tabiatning qonuniy rivojlanishi g'oyasidan kelib chiqadi. Bunda inson jonsiz, keyinchalik esa – jonli moddaning tabiiy evolutsiyasi mahsuli sifatida qaraladi*. Mazkur kontseptsiya 1859 yilda inson kelib chiqishining tabiiy-ilmiy talqiniga asos bo'lgan CH.Darvinning «Hayvon va o'simlik turlarining kelib chiqishi haqida» deb nomlangan mashhur asarini e'lon qilgan evolyutsion nazariyasiga tayanadi va hozirgi vaqtda molekular biologiya va gen injeneriyasi sohasida erishilgan eng so'nggi yutuqlar ta'sirida o'z shakl-shamoyilini sezilarli darajada o'zgartirib, aksariyat olimlar uchun ularning ilmiy faoliyatida o'ziga xos dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Yana shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, insonda nafaqat o'ta rivojlangan tirik jonzotlar, balki o'ta sodda mavjudotlar bilan ham kuchli genetik o'xshashlik mavjud. Xususan, shimpanze bilan bunday o'xshashlik 98% ni, kalamush bilan – 80% ni va hatto banan bilan o'xshashlik – 50% ni tashkil etadi.

Biroq, shuni ta'kidlash lozimki, «tabiiy» yondashuv tarafdorlari inson kelib chiqishining dunyoviy kontseptsiyasiga ham (masalan, darvinchilar bilan bog'liq holda bo'lganidek), kosmik kontseptsiyasiga ham tayanishlari mumkin.

Ikkinchi yondashuv *insonga, Xudo yoki kosmik Aql mehnatining mahsuli sifatida qarab, uni g'ayritabiiy asosdan keltirib chiqaradi*. Garchi bu kontseptsiya isbotlanganlik jihatidan birinchi ta'limotga hozirgi zamon tabiatshunosligi nuqtayi nazaridan yon bersa-da, lekin falsafiy nuqtayi nazardan u insonning tabiiy-ilmiy kelib chiqishi kontseptsiyasi kabi mavjudlik huquqiga egadir, zero birinchi yondashuv ham, ikkinchi yondashuv ham oqilona asoslangan va uzil-kesil dalil-isbotlar keltirmaydi.

Insonga falsafa nuqtayi nazaridan yondashuv. Biz insonga nisbatan sof falsafiy yondashuvga hali qaytamiz va falsafa inson bilan qancha shug'ullanmasin, u haqda hamma narsani bilishi va mazkur bilimni uzil-kesil va eng so'nggi haqiqat deb hisoblashi mumkin emasligini ko'rsatib beramiz. Hozir esa shuni qayd yetishni istar edikki, o'zi haqida va o'zini qurshagan dunyo haqida inson falsafa paydo bo'lishidan ancha oldin mulohaza yurita boshlagan. Ammo keyinchalik, «donolikka muhabbat» paydo bo'lgach ham, inson mavzusi falsafaning diqqat markazidan darhol o'rin olgani yo'q.

Insonni qurshagan tabiat haqida bilimlar to'planishi va ularning rivojlanishiga qarab, odamzotning o'z-o'ziga bo'lgan qiziqishi ham kuchayib bordi, inson borlig'ining bu sohadagi tadqiqotlar uchun yanada kengroq imkoniyatlar yaratuvchi Yangi va Yangi o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi. Odatda, jamiyat hayotida tarixan qisqa vaqt ichida jiddiy va teran o'zgarishlar yuz bergan, insoniy munosabatlar negizini tashkil etuvchi eskicha tasavvurlar va qarashlar ta'sirida butunlay o'zgargan davrlarda insonga bo'lgan falsafiy qiziqish ayniqsa kuchaygan. Bunday davrlarda falsafada insonning mohiyati, uning burchi, vazifasi va yuz berayotgan voqealar uchun javobgarligi haqidagi azaliy masalalarga bo'lgan qiziqish yana kuchaygan. SHunday qilib, falsafaning ontologiya, gnoseologiya, etika, estetika kabi bo'limlari bilan bir qatorda, inson haqidagi bilimlar sohasi antropologiya asta-sekin shakllanib bordi. Bu erda inson nafaqat turli tomonlardan tahlil qilindi, balki uning ijtimoiy, tabiiy va kosmik jarayonlar bilan o'zaro aloqalari ham o'rganildi.

Xo'sh, bilimning bu sohasida asrlar mobaynida qanday ijobiy bilimlar to'plangan? Insonni tushunish borasida taraqqiyotga erishildimi? Falsafa va fan sohasida erishilgan insonning mohiyatini tavsiflovchi, uning muhim xususiyatlarini yoritib beruvchi qanday shak-shubhasiz yutuqlarni qayd yetish mumkin?

Insonni bilish borasidagi ko'p asrlik sa'y-harakatlarni bir erga jamlab, ularning orasidan uzil-kesil echilgan deb hisoblash mumkin bo'lganlarini ajratib olsak, shak-shubhasiz yutuqlar soni uncha ko'p bo'lmaydi. Ular orasida avvalo shu dalilni qayd yetish lozimki, insonning paydo bo'lishi Erda hayotning rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, u o'z ibtidosi va muayyan tarixiga egadir. Xususan, 1982 yil Vatikandagi Rim Papasi fanlar akademiyasi tashkil etgan kongress ishtirokchilari – dunyoga mashhur antropologlar, bioximiklar va genetiklar hozirgi zamon tabiatshunosligiga tayanib, inson va hayvonot dunyosi o'rtasida yaqin aloqa mavjud, degan umumiy xulosaga keldilar.

Inson va uni qurshagan dunyo tadrijiy rivojlanishini isbotlangan deb hisoblash mumkin. Bu nafaqat arxeologiya va Er geologik tarixi bilan tasdiqlanadi, balki Erdagi hayotga doir hozirgi tasavvurlardan va umumiy e'tirof etilgan «kengayib boruvchi Olam» nazariyasi tushuntiradigan dunyodagi evolyutsion jarayonlardan ham kelib chiqadi.

Biroq fan, ayniqsa genetika ba’zan bizning avvalgi tasavvurlarimizni butunlay o’zgartiradigan Yangi kashfiyotlar qilishda davom etmoqda. Xususan, jonli mavjudotlarning biologik nusxalarini yaratish imkoniyatini beruvchi klonlash ketidan genetiklar, shov-shuvga sabab bo’lgan eng so’nggi xabarlarga ko’ra, qadimgi faylasuflarning ilgari faqat odatdagi tajribaga tayangan o’lmaydigan odam yo’qligi haqidagi taxminiy (induktiv) xulosani jiddiy shubha ostida qoldirishga qodir natijaga yaqinlashdilar. Jumladan, italyan olimlari sut emizuvchilarning qarish jarayonini P66SHC sifatida ma’lum bo’lgan alohida gen boshqarishini aniqladilar. Ular mazkur genni «nazorat osti»ga olish va shu tariqa sinalayotgan hayvonlar umrini populyatsiya bo’yicha umrning o’rtacha uzunlik ko’rsatkichiga nisbatan 35% ga uzaytirishga muvaffaq bo’ldilar.

SHunga qaramay, bugungi kunda jismoniy umrboqiylik ilmiy nuqtayi nazardan biologiyaning fundamental qonunlariga zid hisoblanadi. Bu qonunlarga muvofiq hujayralarning bo’linish yo’li bilan ko’payish qobiliyatining susayib borishi inson hayotini cheklaydi. Xususan, insonning etuk organizmi taxminan 50 000 milliard hujayradan iborat ekanligi aniqlangan. «Odamda uning umri mobaynida bir hujayra avlodida ketma-ket bo’linishlar soni elliktagacha bo’ladi. Bo’linish jarayonlari maromini hisobga olganda, shuni taxmin qilish mumkinki, inson umrining uzunligi (ba’zi bir istisno hollardan tashqari) 110 yoshdan oshishi mumkin emas»[74].

Biroq fan bir joyda to’xtab turgani yo’q va shu bois matbuotda vaqti-vaqti bilan paydo bo’layotgan genetik olimlarning hujayra qarishini to’xtatadigan moddani topish, shuningdek organizmda mazkur moddaning ajralishini boshqaradigan genni aniqlash borasidagi urinishlari haqidagi xabarlar jiddiy e’tiborni talab qiladi.

Inson nima va uning mohiyati qanday degan savollarga javob topishga yo’l ochadigan ba’zi bir muhim muammolarning ta’riflanishini ham ilmiy tadqiqotlarning shak-shubhasiz natijasi deb hisoblash lozim. Ularning eng muhimi – insonning kelib chiqishi, shuningdek ong, til, ijod, axloq, ma’naviyat va shu kabilarning tabiatini aniqlashdir.

Ko’rsatilgan muammolarni anglab yetishga ahd qilgan har qanday odam,

- hayot nima?
- birinchi odam qaerda va qachon paydo bo’lgan?
- inson ma’naviyatining tabiati qanday?
- Erda inson paydo bo’lishining sababi nimada?
- bunda muayyan mantiq, qonuniyat, azaldan belgilangan muqarrarlik mavjudmi yoki bunga qandaydir tasodif, anomaliya, kimningdir xohish-istagi sabab bo’lganmi?
- hayot kosmik hodisami yoki faqat bizning sayyoramizda mavjudmi?
- inson butun Koinotdagi birdan-bir aqlli mavjudotmi?, kabi masalalarni e’tibordan chetda qoldirishi mumkin emas.

Bu va boshqa shunga o’xshash masalalar echimini topish ustida falsafiy tafakkur ham, ilmiy tafakkur ham tinimsiz izlanadi. Ammo tabiatshunoslik uchun ularning aksariyati nafaqat mushkul, balki echib bo’lmaydigan, ba’zi bir hollarda esa umuman ochiq masalalar hisoblanadi, chunki ular xususida mavjud bilimlar shu qadar oz, yuzaki va muammolarga to’laki, bunday bilimlarga asoslangan mulohazalar (boshqacha mulohazalar umuman mavjud emas) o’zining ishonchlilik darajasiga ko’ra taxminiy xususiyatga ega bo’lishi mumkin.

Ammo fan o’z kuchini yo’qotgan, yoki, hali kuchga to’lmagan joyda aniq ta’riflar, bir xillashtirilgan til, yagona metodologiya va ishonchli dalillar bilan cheklanmagan falsafa o’zini erkin his qiladi. Bu muayyan soha – antropologiyada o’z ifodasini topadi.

Falsafa «boqiy» masalalarni o’rganar va butun borliqning dastlabki asoslari va muhim qadriyatlarini aniqlashga harakat qilar ekan, u uzil-kesil echimlar va shak-shubhasiz javoblar olishga da’vogarlik qilmaydi. Sinovdan o’tkazilgan dalillar va isbotlangan asoslarning yo’qligi uni xijolatga solmaydi, zero falsafa intuitsiya, g’oyibona ta’sir, ilhom, mantiqiy kuchga asoslangan farazlar, taxminlar, to’ldirishlar bilan kifoyalanadiki, bu unga mavjud bilimlar va shakllangan tasavvurlar doirasidan chetga chiqib, aniq isbotlangan ilmiy echimga ega bo’lmagan narsa yoki hodisani o’zgacha tarzda, erkin tushuntirish imkonini beradi. SHu tariqa falsafa insonni bilish chegaralarini kengaytirib, uni nafaqat yuqoriroq darajaga ko’taradi, balki Yangi muammolarni qo’yish imkonini beruvchi Yangicha yondashuvlar, o’zgacha nuqtayi nazarlar va eng muhimi – eski muammolarning Yangicha talqinlari bilan boyitadi.

SHu ma’noda Sa’diy SHeroziy «Inson nimadan boshlanadi?», degan savolga hech ikkilanmasdan: «Inson marhumga motam tutishdan boshlanadi», deb javob beradi[75]. Dunyoga keldimu, bozorga bordim, kafanni oldimu, mozorga bordim[76].

SHunday qilib, haqiqiy falsafada muayyan masalalar, ayniqsa inson bilan bog’liq murakkab masalalar xususida bir xil fikrlash hollari kuzatilmaydi. Bundan farqli o’laroq, fanda bir fikrlilik u yoki bu muammoning uzil-kesil echimi topilganidan dalolat beradi. Masalan, «abadiy dvigatel»ni yaratish masalasi xususida olimlar orasida to’la bir fikrlilik hukm suradi: hozirgi zamon tabiatshunosligi qonunlariga muvofiq bunday dvigatelni yaratish mumkin emas. Ammo fandan farqli o’laroq, falsafaning o’ziga xos xususiyati shundan iboratki, u har qanday hodisani o’rganish va tushunishda tayaniladigan qadriyatlar va mo’ljallar tizimidan tashkil topadi. Ayni shu sababli

---

[74] Ж.Годфруа Что такое психология. – М.: 1996. – с.10.

[75] Қаранг Саьдий Шерозий Рубоийлар –Т.: Шарқ, 1995. –б.26

[76] Қаранг Саьдий Шерозий Рубоийлар –Т.: Шарқ, 1995. –б.26

bu erda u yoki bu faylasufning dunyoni qanday tushunishi, uning hayotga munosabati, ayniqsa, muhim rol o'ynaydi. U qaysi aksiomalarni ilgari surishi, qaysi ustuvorliklarni qayd yetishi, nimani muhim deb hisoblashi, nimaga ishonishi yoki ishonmasligidan faylasufning boshqa narsalarga bo'lgan tegishli munosabati, uning umumiy va xususiy masalalarga doir falsafiy pozitsiyasi kelib chiqadi.

SHunday qilib, bilimni umumiy maxrajga keltirish an'anasi uzoq vaqt hukm surgan fandan farqli o'laroq, falsafa har xil, shu jumladan bir-birini istisno etadigan nuqtayi nazarlarni ilgari suradi, ayni bir hodisalar va ob'ektlarni tushunishga nisbatan har xil yondashuvlarni ta'riflaydi. Insonni tushunishga doir turli-tuman falsafiy kontseptsiyalarning ko'pligi ayni shu hol bilan izohlanadi. Bu kontseptsiyalarda inson azaldan dam umumiy obraz sifatida, dam o'z individual borlig'idagi muayyan odam sifatida, dam boshqa odamlar, jamoa, jamiyat, insoniyat bilan, nihoyat, tabiat, kosmos bilan uzviy bog'liq bo'lgan aqlli mavjudot sifatida talqin qilinadi.

Insonning ko'p o'lchovliligi. SHu bilan bir qatorda insonni o'rganishga nisbatan boshqa ko'p sonli yondashuvlarni ham qayd yetish mumkin bo'lib, ularning orasida «introvertiv» va «ekstrovertiv» yondashuvlar ayniqsa ajralib turadi.

Introvertiv yondashuv insonning ong, jon, ruhiyat, instinktlar, nuqsonlar, fazilatlar kabi muhim xususiyatlarini tahlil etib, uni «ichdan» tushunish, anglab yetishni nazarda tutadi. Bunda insonning jismoniy va ma'naviy mohiyati haqidagi falsafiy mulohazalar aksariyat hollarda tabiiy fanlarning empirik ma'lumotlariga, avvalambor biologiya va psixologiya yutuqlariga tayanadi, lekin ba'zan mistika, ezoterika, okkultizm bilan belgilanadi. Bunday yondashuvlar ayniqsa nemis antropologlari M.SHeler (1874-1928) va A.Gelen (1904-1976), avstriyalik faylasuf K.Lorents (1903-1989) ijodiga xosdir.

Ekstravertiv yondashuv insonga nazar tashlash, uning mohiyatini tahlil qilish go'yoki «sirtdan» amalga oshiriladiki, buning natijasida diqqat markazidan uning ijtimoiy va tabiiy mohiyati o'rin oladi; tegishli mo'ljallarga muvofiq insonning Xudo, kosmos, universum va shu kabilar bilan aloqasi tahlil qilinadi. Bu erda falsafa ko'pincha tarix, sotsiologiya, ekologiya, teologiya bilan ittifoq tuzadi, bu hol N.A.Berdyaev, S.N.Bulgakov, S.L.Frank, N.O.Losskiy kabi diniy falsafa vakillari ijodiga ko'proq xosdir.

SHunday qilib, insonni falsafiy tushunish uchun yagona asos mavjud emas, xuddi shuningdek bunday asos yaqin kelajakda paydo bo'lishiga umid qilish uchun ham asoslar yo'q. Hozircha faqat shuni qayd yetish mumkinki, diqqat markazidan yuqorida sanab o'tilganlardan qaysi biri, chunonchi: kosmos, tabiat, Xudo, jamiyat yoki bevosita inson o'rin olganiga qarab, falsafa tarixida insonni tushunish bilan bog'liq masalalarni hal qilishda asos bo'ladigan turli falsafiy nuqtayi nazarlar farqlanadi. Ularning orasida kosmotsentrizm, teotsentrizm, sotsiotsentrizm va antropotsentrizm ayniqsa keng tarqalgan bo'lib, turli davrlarda ularning har biri har xil ko'rinishda namoyon bo'lgan, lekin inson muammolarini o'rganuvchi falsafiy kontseptsiyalarda doim u yoki bu tarzda mavjud bo'lgan.

SHarq falsafasida inson. *Qadimgi SHarq, xususan Xitoy falsafiy tizimlari asosan sotsiotsentrik kontseptsiyalardan iborat bo'lib, ularda inson, odatda, jamiyat, sotsium bilan uzviy bog'liq deb qaraladi*. «Ideal munosabatlar qonuni»ga odamlar o'rtasida, oila, jamiyat, davlatda rioya qilish inson hayotining muhim ma'nosi hisoblanadi; bunga jamiyatda qabul qilingan me'yorlar, qoidalar, rasm-rusumlar va shu kabilarga izzat-ikrom bilan yondashish imkoniyat yaratadi. Boshqacha aytganda, inson o'z shaxsiy hayotini doim jamiyat ravnaqi, kamoloti bilan o'lchashi lozim, xususan, u keyinchalik oila va davlatni takomillashtirishga harakat qilish uchun o'zini kamol toptirishi lozim. SHu ma'noda mashhur qadimgi xitoy faylasufi Konfutsiy (mil. av. 551-479 yillar)ning fikrlari diqqatga sazovor bo'lib, u shunday deb saboq beradi: «qilmishlarning asoslari va tamoyillarini o'rgansang, yaxshilik va yomonlik haqidagi fikrlaring (axloqiy bilimlar) barkamollikning eng so'nggi darajasiga etadi. Niyatlar sof va xolis bo'lsa, qalb rostgo'y va samimiy bo'ladi. Qalb rostgo'y va samimiy bo'lsa, inson to'g'ri yo'lga kiradi, kamol topadi. Inson to'g'ri yo'lga kirsa va kamol topsa, oilada tartib o'rnatiladi. Oilada tartib hukm sursa, xalqlarni boshqarish osonlashadi. Xalqlarni boshqarish osonlashsa, butun dunyo tinch-totuv yashaydi»[77].

Qadimgi hind falsafasiga dunyoning ichki dunyosini birinchi o'ringa qo'yish, ya'ni antropotsentrizm xosdir.

Masalan, buddizmda nirvanaga erishish inson barcha niyatlarining pirovard maqsadi deb e'lon qilinadi. Nirvana jonning shunday bir holatiki, bunda har qanday mayllar yo'qoladi va ichki uyg'unlik yuzaga keladi, mutlaqo erkinlik va tashqi dunyoga qaram emaslik tuyg'usi paydo bo'ladi.

Qadimgi hindlarning boshqa bir diniy-falsafiy ta'limoti – jaynizm nuqtayi nazaridan inson o'zining ma'naviy mohiyati bilan moddiy mohiyatni nazorat qilish va boshqarishga erishish uchun uzoq va og'ir yo'l – jonning erkinlashuvi yo'lini bosib o'tishi lozim.

Markaziy Osiyo mutafakkirlari qarashlarida insonni nazariy aql boshqaradi. Jumladan al-Forobiy fikricha "Inson shaxsini shakllantiradigan, uni boshqa maxluqotlardan ajratib turadigan va unda insoniy xislatlarni rivojlantiradigan narsa uning faol aqlidir. Bu kuch avval- boshda faqat qobiliyatdir, bu quvvat o'ylash, mulohaza yuritishga qobil, ammo hayotga tadbiq yetish, ya'ni joriy qilishga qobil emas"[78]. Aqlni hayotga tadbiq yetish uchun, unga tashqi kuch ta'sir yetishi kerak, bu esa faol aqldir.Faol aql - mustaqil quvvat bo'lib, o'z mohiyati, birinchi, ikkinchi va boshqa sabablar mohiyati haqida fikrlay oladi. Aynan shu faol aql odam imkoniyatlarining tashqi voqealarga ta'sir yetishi va uni rivojlantirishga turtki beradi. Forobiy ta'biri bilan "moddiy aqldan amaliy aqlning yuqoriroq pillapoyasiga ko'tariladi va uning faol aqlga munosabati quyosh bilan ko'zni solishtirlandek bo'ladi"[79].

---

[77] Будда Конфуций Жизнь и учение – М.: 1995. – с.139.
[78] Ал-Фаробий Фозил одамлар шахри -Т.: Шарқ, 1999.- б. 69
[79] Ўша манба , –б.73.

Agar quyosh bo'lmasa, inson narsalarni ko'ra olmaydi. Faol aql quyoshi inson ruhida paydo bo'lganidan keyin, aqliy quvvat faol aqlga qaraydi. Inson tabiat gultoji, ya'ni aqlli mavjudod. YUsuf Xos Xojib fikricha, inson dunyoda abadiy emas, bu dunyoga kelgan har qanday odam vaqti etgach ketadi. Inson umrining qimmati necha yil yashagani bilan emas, qanday ezgu ishlarni amalga oshirganligi, hayotda qoldirgan izi bilan belgilanadi. U kishi olamdan o'tgandan so'ng, bu dunyoda undan ikki xil, biri yomon, ikkinichisi yaxshi degan nom qoladi Inson iloji boricha o'zidan yaxshi nom qoldirishi, yaxshi olqish olishi lozim deb ta'kidlagan.

Umuman olganda, barcha zamonlarda insonda umumiy asosni izlash bilan band bo'lgan SHarq tafakkuriga hozir ham insonni va uning tashqi dunyo bilan aloqasini tushunishga nisbatan G'arb falsafasidagidan o'zgacha yondashuv xosdir. XX asr boshida hind mutafakkiri S.Vivekananda shunday deb yozgan edi: "Inson tabiatni o'ziga bo'ysundirish uchun tug'iladi va bu o'rinlidir, ammo G'arb «tabiat» deganda faqat moddiy, tashqi dunyoni tushunadi. Bu tashqi tabiat o'zining barcha tog'lari, okeanlari, daryolari, o'zining cheksiz kuchlari, cheksiz rang-barangligi bilan juda ulug'vor, lekin undan ham ulug'vorroq dunyo borki, bu insonning ichki dunyosidir. U quyosh, yulduzlar, er va butun moddiy Koinotdan yuksakroq, bizning shaxsiy jajji hayotlarimizning tor chegarasiga sig'maydigan dunyodir. G'arb odami tashqi dunyoda «o'ziniki» bo'lganidek, bu ichki dunyoda SHarq odami ham xuddi shunday «o'ziniki»dir. SHu bois... G'arb ma'naviy dunyo nima ekanligini, xudo nima ekanligini, inson joni nima ekanligini bilmoqchi, dunyoning siri va mazmuni nimada ekanligini anglab etmoqchi bo'lsa, u SHarq oyoqlari ostiga cho'kib quloq solishi kerak. Hamonki dunyo hozir ma'lum ma'naviy uyg'onishga muhtoj ekan, bunda u kuchni SHarqdan oladi"[80].

Ibn Xaldun fikricha, inson tabiatida ezgulik va yovuzlik mavjud. Agar odamlar o'z holiga qo'yilsa va insoniylik ruhida tarbiyalanmasa, unda Xudo ne'matini qo'lga kiritish kamdan –kam kishiga muyassar bo'ladi. Xayr va sharr oralig'ida qolib, har ikkisidan birini tanlash lozim bo'lganida, juda kam odam xayr tomoniga o'tadi. CHunki inson tabiati xayrdan ko'ra sharrga moyil. Adolatsizlik va boshqalarga hujum qilish insonlarga xos xislat. SHuning uchun badaviy jamiyatda ham, shahar jamiyatida ham kishilarning bir-birlariga jabr qilmasliklariga yo'l qo'ymaslik uchun muhim omil mavjud bo'lishi zarur[2] . Keltirilgan so'zlar nafaqat teran ma'noga ega, balki hozirgi dunyoning globallashuvi va yagona insoniyatning shakllanishi nuqtayi nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi.

G'arb falsafasida inson. SHarq tafakkurida insonga nisbatan yuqorida qayd etilgan yondashuvlar bilan bir qatorda tabiat, kosmos muammolari ham qadimdan muayyan o'rin egallab keladi. Bunda insonga ulkan dunyodagi bir zarra sifatida qaraladi. Ammo dunyoga nisbatan kosmotsentrik yondashuv antik falsafa rivojlanishining ilk bosqichlariga ko'proq xosdir. Dunyoning mazkur talqiniga muvofiq birinchi o'ringa Suqrot davridayoq falsafaning diqqat markazidan o'rin olgan inson haqida mulohaza yuritish uchun ham tegishli zamin hozirlovchi dunyo va kosmos muammolari chiqadi.

Kosmotsentrizm nuqtayi nazaridan (Demokrit) inson avvalo kosmosning bir qismi sifatida, «kichkina dunyo» sifatida, ba'zan jonli organizm sifatida tasavvur qilinadigan makrokosm bilan uzviy bog'liq bo'lgan mikrokosm sifatida idrok etiladi. Antik faylasuflar (Platon, Aristotel) Koinotni va unda mavjud tartibni tushunish orqali insonning o'zini ham anglab yetish mumkin deb hisoblaganlar. Bunda tafakkur, bilim, aql-zakovat va donishmandlik muhim rol o'ynagani bois, ular doim kosmotsentristlar tomonidan yuksak baholangan, inson va uning qobiliyatlariga baho berishda birinchi o'ringa qo'yilgan.

Bunday qarashlar Yevropa falsafiy an'anasida V asrgacha, ularning o'rnini teotsentrizm kontseptsiyasi egallagunga qadar kuzatiladi. *Teotsentrizm kontseptsiyasiga muvofiq hamma narsani Xudo belgilaydi.* Xristianlikning mohiyatini aks ettiruvchi turli kreatsionistik nazariyalarga ko'ra butun dunyo, shu jumladan jonli dunyo (o'simliklar, hayvonlar, inson) darhol va o'zining mukammal ko'rinishida yaratilgan. Injilning dunyo olti kunda yaratilgani haqidagi rivoyatiga asoslangan bu nuqtayi nazar Yevropaliklar tafakkurida CHarlz Darvinning evolyutsion nazariyasi paydo bo'lgunicha, ya'ni XIX asrning o'rtalariga qadar hukm surdi. Xristianlar dunyosi dindor odamlari orasida u bugungi kunda ham amal qilmoqda.

Teotsentrizm nuqtayi nazaridan insonning mohiyatini anglab yetish, masalan, qadimgi yunon faylasuflari yoki keyingi materialistik falsafiy kontseptsiyalardagi kabi oqilona fikrlash yo'li bilan emas, balki Muqaddas Kitobda ta'riflangan vahiylar yordamida amalga oshiriladi. Bu vahiylarni faqat Injil aqidalariga e'tiqod qilish orqali tushunib yetish mumkin. Teotsentrizm nuqtayi nazaridan e'tiqod nuridan charog'on bo'lgan aql dunyodagi ilohiy tartibning tarkibiy qismi sanalgan va «Xudoning timsoli» sifatida amal qiladigan insonning o'zini emas, balki uning ba'zi bir jihatlarinigina aniqlashga yordam beradi. Ayni shu sababli xristianlik, Xudoni oliy mohiyat deb e'tirof etadigan va insonga U yaratgan banda sifatida qaraydigan boshqa teotsentrik falsafiy tizimlar kabi, insonni Xudoning o'zi singari tagiga yetish mumkin bo'lmagan sir, jumboq deb e'lon qiladi.

Uyg'onish davrida insonga doir qarashlarda jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. *O'rta asrlarda inson u yoki bu korporatsiya vakili sifatida amal qilgan bo'lsa, Uyg'onish davrida u o'zlikni anglash tuyg'usi va ijtimoiy nuqtayi nazari o'sishi natijasida o'z manfaatlarini ifoda eta boshladi.* Inson shaxs sifatida kamol topdi. U o'zini o'z shaxsiy hayoti va taqdirining bunyodkori sifatida tobora kuchliroq anglay boshladi. Inson mustaqillikka erishishga va tabiatni o'ziga bo'ysundirishga harakat qildi, o'z ijodiy imkoniyatlari cheksiz ekanligiga ishona boshladi. Mazkur qarashlar italyan faylasufi Piko della Mirandolaning «Inson qadr-qimmati haqida so'z» deb nomlangan mashhur asarida o'z aksini topdi. Tasviriy san'at, me'morchilik, axloq, estetika, adabiyot va pedagogikani yaxshi

---

[80] Вивекананда Свами философия йога – Магнитагорск 1992. – с.488-489.

[2] Қаранг. Hotamiy S.M. Islom tafakkuri tarixida. -T.: Minxoj, 2003 –B.250

tushunadigan har tomonlama komil inson o'sha davrning idealiga aylandi. Uyg'onish davri bu idealga to'la mos keladigan Leonardo da Vinchi, Alberti Bottichelli, Rafael kabi atoqli shaxslarni dunyoga berdi.

O'sha davr falsafasida insonga bo'lgan qiziqishning kuchayishi bilan bir qatorda tabiatga bo'lgan qiziqish ham tiklandi. N.Kuzanskiy, J.Brunoning panteistik kontseptsiyalari xristianlar Xudosini siqib chiqara boshladi. YUnonlarning kosmotsentrizmi tabiiytsentrizm sifatida qayta anglab etildi. Bunda antik faylasuflarning markazida Er joylashgan pirovard kosmos haqidagi tasavvurlari cheksiz va markazsiz kosmosga o'rin bo'shatdi.

Bunday kosmos umumiyroq va kengroq tushuncha – «tabiat» bilan tenglashtiriladi. SHundan beri u turli falsafiy tizimlarda faol o'rganiladi. Xususan, Ma'rifat davri falsafasida fundamental tushunchaga aylanadi, SHelling ijodida markaziy o'rin egallaydi, shuningdek ekologiyaga qarab mo'ljal oluvchi ayrim hozirgi falsafiy kontseptsiyalarda dunyo va insonni tushunishda tayanch nuqtasi hisoblanadi. Mazkur yondashuvga ko'ra inson tabiatning ajralmas qismi sifatida qaraladi. Bunday qarashlarning izchil tarafdorlari, masalan, XX asrning ikkinchi yarmida rivojlangan ijtimoiy ekologiya namoyandalari e'tiborni haddan tashqari keng qaratadigan tabiatdan uning muayyan qismiga – inson o'z hayot faoliyatini amalga oshiradigan biosferaga qaratish lozimligini qayd etadilar va bunda antropotsentristik qarashlardan voz kechib, ularni biosferotsentrizm bilan almashtirishni talab qiladilar. *Biosferotsentrizmda falsafiy tadqiqotlar markaziga inson o'rniga tabiatni qo'yish taklif qilinadi va shu tariqa tabiat inson ehtiyojlari nuqtayi nazaridan qaralmaydi, inson mohiyati va uning ehtiyojlari esa tabiiy qonunlarni va biosferaning tadrijiy rivojlanish tendentsiyalarini bilish nuqtayi nazaridan tadqiq etiladi.*

Yangi davrda inson falsafaning diqqat markazidan tushmadi, lekin unga bo'lgan qiziqish asosan, ijtimoiy munosabatlardagi ishtiroki bilan bog'landi. Yangi davrda insonga biluvchi sub'ekt sifatida yondashildi. Masalan, Dekart insonning mohiyati, o'ziga xos xususiyatini uning tafakkuri, fikrlash qobiliyatida ko'rdi. XVIII asr frantsuz materialist faylasuflari (Didro, Golbax, Gelvetsiy, Lametri) tabiatshunoslik va mexanika sohasida erishilgan hayratomuz yutuqlar ta'sirida insonning jonini ong bilan, tanasini esa – avtomat, mashina bilan tenglashtirib, uni mexanistik talqin qildilar.

Buyuk nemis faylasufi I.Kant (1724-1804) insonni tushunish yo'lida muhim qadam tashladi. U inson betakror mavjudot va u haqda alohida falsafiy mulohaza yuritish mumkin, deb hisoblar edi. Ayni vaqtda, u «inson uchun maktab bo'lib xizmat qiladigan madaniyat sohasidagi barcha muvaffaqiyatlarning maqsadi o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni amalga tatbiq yetishdan iboratdir. Ammo bu bilimlar tatbiq etilishi mumkin bo'lgan dunyodagi eng muhim predmet insondir, zero u o'zi uchun pirovard maqsaddir»[81], deb qayd etadi.

Dunyoning butun rang-barangligi orasida I.Kant tabiatning turli, lekin bir-biri bilan uzviy bog'langan uch darajasi: notirik tabiat, tirik tabiat va inson tabiatini farqladi. Uning fikricha, bu darajalarning har birida tabiat o'z qonunlariga, chunonchi: notirik tabiat – mexanika qonunlariga, tirik tabiat – maqsadga muvofiqlikka bo'ysunadi, inson tabiati esa erkinligi bilan tavsiflanadi. Ayni vaqtda u inson tabiatini qolgan ikki tabiatga bog'lash va ular orqali bilish mumkin emasligini ta'kidlaydi. Inson tabiatini faqat uning erkinlikdan kelib chiqadigan o'z qonunlariga muvofiq anglab yetish mumkin. SHunday qilib, I.Kant inson tabiatning undagi boshqa jonli va jonsiz ob'ektlar kabi o'ziga to'q ob'ekti hisoblanishi haqidagi fikrni ilgari surish orqali insonni o'rganish uchun Yangi imkoniyatlar yaratdi va shu tariqa falsafiy bilimning mustaqil bo'limi sifatida falsafiy antropologiyaning yaratilishiga yo'l ochdi.

I.Kantdan keyin nemis klassik falsafasida inson asosan madaniyat dunyosini yaratuvchi ma'naviy faoliyat sub'ekti sifatida, umumiy ideal asos – ruh, aql manbai sifatida tushunildi. L.Feyerbax (1804-1872) bu yondashuvga qarshi chiqdi. O'sha davrda ob'ektiv idealizm falsafasida hukm surgan tushunchalar («g'oya», «ruh»)ga zid o'laroq, u «inson» kategoriyasini ilgari surdi. *Feyerbax insonga tarixiy ma'naviy rivojlanish mahsuli sifatida emas, balki avvalo biologik, hissiy-jismoniy mavjudot sifatida yondashib, undagi tabiiy-biologik asosga murojaat etdi. Unda inson Xudo yaratgan banda emas, balki tabiatning bir qismi bo'lib, frantsuz faylasuflari qayd etganidek mexanizm emas, balki organizmdir.*

Ayni shu sababli Feyerbax falsafasi «antropologik materializm» degan nom oldi. Uning insonga nisbatan yondashuvi shu bilan tavsiflanadiki, insondagi tabiiylik va ijtimoiylik materialistik monizm nuqtayi nazaridan tushuntiriladi. Bu inson bir vaqtning o'zida notirik va tirik tabiatning tadrijiy rivojlanishi mahsuli sanalgan biologik mavjudot sifatida ham, mohiyati ijtimoiy munosabatlar bilan belgilanadigan ijtimoiy mavjudot sifatida ham qaralishini anglatadi.

XIX asrdan boshlab Yevropa falsafiy tafakkuri F.SHelling, A.SHopengauer, M.SHtirner, S.Kerkegor, F.Nitsshe, N.Berdyaev, A.Bergson kabi faylasuflarning sa'y-harakatlari bilan inson mavjudligini individual va tarixiy muayyanlashtirish sari yuz burdi. Hayot, sezgilar, xohish-iroda, irratsionallik tushunchalari maxsus falsafiy tahlil predmetiga aylandi va keyinchalik ekzistentsializm, intuitivizm va personalizm falsafasida rivojlantirildi.

Xususan, ekzistentsializm nuqtayi nazaridan ob'ektiv dunyo – bu avvalo «inson borlig'i» bo'lib, insondan tashqarida dunyo haqida biron-bir gap aytish mumkin emas. Inson borlig'i to'g'risida so'z yuritish o'rinli bo'ladi, chunki inson borliq xususida savollar beradi, uning mazmunini tashkil etgan holda uni boshdan kechiradi, anglab etadi.

Inson muammosiga qisqacha tarixiy-falsafiy nazar tashlash XX asr boshiga kelib falsafada bilimning Yangi mustaqil sohasi – inson haqidagi ta'limot, ya'ni falsafiy antropologiya vujudga kelishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilganini ko'rsatadi.

---

[81] И.Кант Соч. Т. 6. t.2. – М.: 1966.– с.351.

Falsafiy antropologiyaning vujudga kelishi va rivojlanishi. YUnoncha sophia – donishmandlik, anthropos – inson va logos – ta'limot so'zlaridan kelib chiqqan «falsafiy antropologiya» atamasi etimologik jihatdan inson haqidagi falsafiy ta'limotni anglatadi. Falsafiy antropologiya insonning alohida borliq manbai sifatida kelib chiqishi, tadrijiy rivojlanishi va mavjudligining o'ziga xos xususiyatlariga doir falsafiy qarashlarni aks ettiradi.

Yuqorida qayd etilganidek, inson haqidagi falsafiy ta'limotlar qadimda vujudga kelgan va butun falsafa tarixi orqali o'tadi. Konfutsiy, Suqrot, Geraklit, stoiklar, kiniklar, Avgustin, Foma, Forobiy, Ibn Sino, A.Navoiy, A.Jomiy, Dekart, Russo, Kant, Feyerbax, Nitsshe va boshqalar insonning falsafiy, nazariy obrazini yaratib, falsafiy antropologiya falsafiy bilimning mustaqil bo'limi sifatida vujudga kelishi uchun zamin hozirladi.

SHu ma'noda falsafiy antropologiyaning ilk ildizlariga XVIII asr frantsuz materialistlarining asarlarida duch kelish mumkin. Ammo I. Kant, shuningdek, insonning mohiyati muammosini falsafaning «birdan-bir, universal va oliy» predmeti darajasiga ko'taruvchi antropologik tamoyillarni falsafaga kiritgan va asoslab bergan Feyerbax sa'y-harakatlari bilan falsafiy antropologiya mustaqil falsafiy fan sifatida shakllana boshladi.

Falsafiy antropologiya XX asrning 20-yillarida asosan M.SHeler, A.Gelen, X.Plesner asarlari ta'sirida uzil-kesil vujudga keldi. Xususan, M.SHelerning «Insonning kosmosdagi o'rni» asarida inson haqida fundamental fan yaratish lozimligi qayd etiladi va uni falsafiy bilish dasturi taklif qilinadi. Muallif fikriga ko'ra, insonni yaxlit falsafiy bilish inson borlig'ining turli jabhalariga nisbatan olingan muayyan ilmiy natijalar bilan birikishi lozim.

M.SHeler falsafiy antropologiya insonning yaxlit kontseptsiyasini yaratib, uni muayyan ilmiy, falsafiy va diniy jihatdan anglab yetishda birlashtiruvchi rol o'ynashi lozim, deb hisoblaydi. U «Falsafiy antropologiyaning vazifasi insonning barcha o'ziga xos monopoliyalari, ishlari va amallari: til, vijdon, asboblar, qurol, davlat, rahbarlik, mif, din, fan... inson borlig'ining asosiy strukturasidan qanday kelib chiqishini aniq ko'rsatib berishdan iboratdir»[82], deb qayd etadi.

Falsafiy antropologiya fanining mohiyati. Inson haqidagi bilimlarni birlashtirish lozimligi xususida SHelerdan oldinroq ham so'z yuritilgan edi. XIX asr o'rtalariga kelib inson o'ta murakkab struktura ekanligi, uni faqat falsafa yoki boshqa biron-bir muayyan fan metodlari bilan to'la anglab yetish mumkin emasligi, ya'ni inson jamuljam holda aniq bilim predmeti bo'la olmasligi aniq-ravshan bo'lib qoldi. SHuningdek, ayrim tabiiy fanlar, har biri o'z sohasida, vaqt o'tishi bilan umumiyroq xulosalarga kelishni talab etuvchi salmoqli material to'pladi.

Bunday umumlashtirishga ehtiyoj Darvinning evolyutsion nazariyasi paydo bo'lishi bilan ayniqsa bo'rtib ko'rina boshladi. Bu nazariya insonga oid tabiiy-ilmiy tadqiqotlarga kuchli turtki berdi, shuningdek materialistik falsafiy kontseptsiyalar rivojlanishi uchun qo'shimcha asos bo'lib xizmat qildi.

Mazkur yondashuv tarafdorlari inson ko'p o'lchovli va muttasil o'zgaruvchi mavjudot ekanligidan kelib chiqadi. Garchi uning muhim xususiyatlari ming yillar mobaynida o'zgarishsiz qolayotgan bo'lsa-da, ular insonning mohiyatini to'la namoyon etmaydi. Bu yondashuv tarafdorlari inson o'z oldiga Yangi va Yangi jumboqlar qo'yayotgan, tashqi dunyoni, o'zining undagi o'rnini aniqlashga harakat qilayotgan, atrof muhitni o'rganish orqali uni o'z ixtiyoriga ko'ra o'zgartiradigan faol asos sifatida amal qiladigan mikrokosm hisoblanishiga ham e'tiborni qaratmoqdalar.

Boshqacha aytganda, *inson bunyodkor va ayni vaqtda madaniyat mahsuli, o'zini qolgan jonli dunyodan farqlash imkonini beruvchi ma'naviyat manbaidir.*

Falsafiy antropologiya tarafdorlari insonning mazkur talqinidan kelib chiqib, bu fan izchil ilmiy qarashlarni ilgari surishga da'vogar bo'la olmasligini va ayrim fanlar: psixologiya, sotsiologiya, biologiya va boshqa ijtimoiy fanlarning turli yondashuvlari va xulosalarini sintezlovchi inson haqidagi bilimlar tizimini yaratishga qaratilishi lozimligini qayd etmoqdalar. Ularning fikricha, bu fan o'z predmeti sifatida inson borlig'ini belgilaydi, uning mohiyatini va o'ziga xos xususiyatlarini tahlil etib, shu tariqa insonning o'zini ham, uni qurshagan dunyoni ham falsafa nuqtayi nazaridan anglab yetishga harakat qiladi. «Antropologiya yoki aniqroq aytganda – antropologik ong nafaqat ontologiya va kosmologiyaga, balki gnoseologiya va bilish falsafasiga, har qanday falsafa va har qanday bilishga zamin yaratadi»[83].

XX asrning 60-70-yillarida falsafiy antropologiya shunday bir g'oyaviy harakatga aylandiki, uning doirasida olimlar insonning hozirgi holatini nazariy jihatdan anglab yetish va talqin qilish, uning tabiatiga nisbatan Yangicha yondashuvni ilgari surishga harakat qildilar. Bu davrda yuz bergan fan-texnika taraqqiyoti va insonning o'z ilmiy va amaliy faoliyati natijalari uchun javobgarlik tuyg'usining kuchayishi falsafiy antropologiyaning rivojlanishiga qo'shimcha turtki berdi. SHunday qilib, u endi inson haqidagi bilimlarning umumiyroq majmui – umumiy antropologiyaning tarkibiy qismiga aylandi. Bu fan turli-tuman ta'limotlar, kontseptsiyalar va yo'nalishlarni o'z ichiga oladiki, ularning orasida falsafiy yo'nalishdan tashqari biologik, teologik (diniy), sotsiologik, psixologik, madaniy (etnografik), strukturalistik, pedagogik va boshqa yo'nalishlarni qayd yetish mumkin.

Ularning har biri, falsafiy yo'nalishdan farqli o'laroq, insonning muayyan bir tomonini yoritadi. Masalan, *biologik antropologiya* anatomiya, fiziologiya, irq haqidagi ta'limot va shu kabilarga tayanib, insonning qolgan barcha tirik mavjudotlardan farqini uning jismoniy tuzilishi nuqtayi nazaridan aniqlaydi. *Teologik antropologiya* inson haqidagi tegishli tasavvurlarni uni Xudo yaratgani nuqtayi nazaridan shakllantiradi. *Falsafiy antropologiya* esa butunlay boshqa vazifani hal qiladi – u vaziyatga yaxlit yondashadi va fanlararo xususiyatga ega bo'lgan xulosalar chiqaradi.

---

[82] М.Шелер Избранние произведения – М.: 1994. –с. 187.
[83] Н.А.Бердяев Смысл творчества – М.: 1989. – с.293.

Falsafiy bilimning tarkibiy qismi sifatida falsafiy antropologiya ijtimoiy falsafa, axloq, sotsiologiya va psixologiya bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular bilan birgalikda inson haqidagi fanlar majmuini tashkil etadi.

Insonnning bioijtimoiy mohiyati. Falsafiy antropologiya echadigan muhim muammolar orasida inson biologik va ijtimoiy mohiyatining o'zaro nisbati to'g'risidagi masala alohida o'rin egallaydi. Inson jonli tabiatning bir qismi, shuningdek biologik evolutsiya mahsuli ekanligi hozirgi zamon tabiatshunosligi fanida nafaqat olimlar va mutaxassislar, balki ma'rifatli odamlarning keng doirasi uchun ham aniq-ravshan va deyarli shak-shubhasiz dalilga aylandi. Har bir inson o'z biologik xususiyatlari: genetik kodi, vazni, bo'yi, mijozi, terisi va sochining rangi, yashash muddati va shu kabilarga ko'ra betakrordir. Biroq ayni vaqtda inson ijtimoiy mavjudot ekanligi, uning o'ziga xosligi va betakrorligi odamzotning ijtimoiy tabiati, u kamol topgan, ta'lim-tarbiya olgan, madaniy va axloqiy qadriyatlar va mo'ljallarni o'zlashtirgan ijtimoiy muhit bilan belgilanishi ham shak-shubhasizdir.

Ayni shu sababli inson individi nafaqat biologik, balki ijtimoiy mavjudot sifatida ham o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Boshqacha aytganda, insonning kamol topishi jamiyatda va faqat jamiyatda yuz beradi.

Insonni tushunishda dualizm va monizm. Odamlar o'rtasidagi biologik va ijtimoiy farqlarni va ularni betakrorligini tan olishdan *inson tabiatining yaxlitligini tushunishga nisbatan ikki muhim yondashuv: dualistik va monistik yondashuvlar kelib chiqadi.*

Qadim zamonlarda vujudga kelgan insonga nisbatan *dualistik yondashuv shundan iboratki, odamzot, bir tomondan, moddiy organizmdan, boshqa tomondan esa – mustaqil mohiyat sanaladigan va bu organizmni boshqaradigan nomoddiy jondan tashkil topgan mavjudot sifatida qaraladi.* Bu yondashuv, masalan, boqiy g'oyalar dunyosida yashaydigan o'lmas jon inson tug'ilayotgan paytda uning tanasiga xuddi zindonga tushgandek kirib o'rnashadi, uning o'limidan keyin esa vujudni tark etib, yana g'oyalar dunyosiga qayta, deb hisoblagan Platon falsafasida ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi. Jonlarning o'lmasligi g'oyasi SHarq falsafiy an'anasiga ham xosdir.

Hozirgi olimlarning aksariyati qo'llab-quvvatlaydigan inson talqinining *monistik kontseptsiyasi inson ruhiyati, uning tuyg'ulari, fikrlari, emotsiyalari va kayfiyati inson organizmining tarkibiy qismi sanalgan bosh miya nerv hujayralari hayot faoliyatining mahsulidan o'zga narsa emas, degan tushunchadan kelib chiqadi*. Bu yondashuv tarafdorlarining fikriga ko'ra, ruhiy hodisalar qandaydir nomoddiy asosga ega, deb hisoblash uchun yetarli dalillar mavjud emas, shu sababli ruhiyat tabiatini tushuntirishda inson organizmida yuz beradigan moddiy jarayonlar chegarasidan chetga chiqishning hojati yo'q.

SHunday qilib, tavsiflangan muammo inson o'z tabiatiga ko'ra faqat biologik mavjudotmi yoki faqat ijtimoiy mavjudotmi, degan masala bilan bog'lanmaydi. U, hech shubhasiz, ham biologik, ham ijtimoiy mavjudotdir.

Ammo bu ikki asosning o'zaro nisbati qanday, ularning biri ikkinchisidan ustunroqmi va inson mohiyatini nima belgilaydi – bu qizg'in bahs-munozaralar predmetidir. Mazkur masalalar hanuzgacha o'zining uzil-kesil echimini topgani yo'q, hozirda mavjud turli biologik, psixologik va falsafiy maktablar bu savollarga har xil javoblar beradi.

Yuqorida zikr etilgan muammoning echimiga nisbatan mavjud yondashuvlar orasida insonning bioijtimoiy tabiatini tushunishga nisbatan qarama-qarshi nuqtayi nazarlar ifodasi sanalgan biologizatorlik va sotsiologizatorlik kontseptsiyalari alohida o'rin egallaydi. Bunda ularning har biri boshqasini butunlay rad etmaydi, ammo insonning muayyan bir (biologik yoki ijtimoiy) tabiatini ustunroq qo'yadi yoki hatto mutlaqlashtiradi.

Biologizatorlik *kontseptsiyalarining tarafdorlari insonni uning tabiiy, biologik asosidan kelib chiqib tushuntirishga harakat qiladi*. XVIII asr oxirida jamiyat hayotiga ayrim odamlarning o'z mavjudligi uchun kurash maydoni sifatida qarashni taklif qilgan T.Maltus nazariyasini bunday tushuntirishga bo'lgan birinchi jiddiy urinish deb hisoblash mumkin. Maltus fikricha, bu kurashda kuchlilar g'olib chiqadi, kuchsizlar esa halok bo'lishga mahkumdir. Mazkur kurashga tabiiy omillar turtki beradi. Xususan, aholi soni geometrik progressiya bo'yicha ko'payib boradi, tirikchilik vositalari esa faqat arifmetik progressiya bo'yicha o'sadi, bu esa muqarrar tarzda ocharchilik, epidemiyalar, urushlar va boshqa ijtimoiy tangliklarga olib keladi. Mazkur omillarga Maltus kuchlilarning yashab qolishini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlarning «tabiiy», muqarrar va hatto zarur tartibga solish vositalari sifatida qaraydi.

Demografik muammolarning echilmagani, shuningdek ular XX asrda yanada keskinroq tus olishi shunga sabab bo'ldiki, Maltus g'oyalari neomaltuzchilar deb nomlangan o'z davomchilarini topdi va topishda davom etmoqda.

Biologizatorlik yondashuvlari XIX va XX asrlar chegarasida Darvinning tabiiy tanlanish haqidagi ta'limotini mutlaqlashtirib, nafaqat insonning kelib chiqishi, balki uning mohiyatini, pirovard natijada esa – butun ijtimoiy munosabatlar tabiatini tushuntirishga harakat qilgan sotsial-darvinistlarga ham xosdir. Hozirgi zamonda bu yo'nalishni odamlarga ham, hayvonlarga ham teng darajada xos bo'lgan irsiyatga urg'u beruvchi sotsiobiologiya davom ettirmoqda. *Sotsiobiologlar fikriga ko'ra, inson xulq-atvori ham, hayvon xulq-atvori ham irsiy omillar bilan belgilanadi va hech kim o'z irsiyati ta'sirini – u xoh yaxshi bo'lsin, xoh yomon – engishga qodir emas.*

Inson tabiati xususida shunga o'xshash qarashlarga ayrim odamlarning boshqa odamlardan ustunligini faqat ularning «oliy» yoki «past» irqqa mansublik belgisiga ko'ra e'lon qiluvchi irqchilik kontseptsiyalarida ham duch kelish mumkin. Bu, xususan, «irqiy tozalik» uchun kurash olib borgan va «irqiy tanlanish»ni amalga oshirish g'oyasini faol ilgari surgan fashistik mafkurada ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi. *Irqiy tanlanish g'oyalari zamirida asosan XIX asr oxiri – XX asr boshlarida keng tarqalgan «inson irsiyatining oliy sifati»ga qanday vositalar bilan va qay tarzda erishish mumkinligi haqidagi ta'limot – evgenika yotadi.*

XX asr boshlarida bu ta’limot shu darajada keng tarqaldiki, ayrim mamlakatlarda davlat siyosati bilan uzviy bog’landi. Xususan, 1920-1930-yillarda Daniya, SHvetsiya va Norvegiyada jamiyatda tabiiy tanlanishni ijtimoiy mustahkamlovchi irqiy qonunlar qabul qilindi.

Sotsiologizatorlik kontseptsiyalari inson tabiatini ijtimoiy munosabatlarda ko’rishga harakat qiladilar. Bunda ular ba’zan nafaqat insonning ijtimoiy asosini uning biologik asosiga qarama-qarshi qo’yadilar, balki so’nggi zikr etilgan asosni hayvoniy va hattoki tuban, shu bois jiddiy e’tiborga loyiq emas, deb hisoblaydilar. Asosiy e’tibor ijtimoiy munosabatlar tahliliga va individ, shaxsning shakllanishida jamiyat qanday rol o’ynashini aniqlashga qaratiladi. Pirovardda ijtimoiy asos individual asosga qaraganda ustunroq ahamiyat kasb etadi, uni o’ziga bo’ysundiradi va qamrab oladi. Mazkur yondashuv total ijtimoiy tizimlarga va ularni asoslashga harakat qiluvchi falsafiy ta’limotlarga, xususan, Platon falsafasiga ayniqsa xosdir. Umuman olganda, bu individualizm va kollektivizm muammosidir.

Insonning mohiyati. Insonning mohiyatini tushunishga harakat qilish jarayonida u nafaqat tashqi, balki ichki, pinhona xususiyatlarga ham ega ekanligini, ular jamuljam holda insonning individ, individuallik, shaxs kabi tushunchalarda aks etadigan muayyan obrazini shakllantirishini ham hisobga olish lozim. Boshqacha aytganda, insonning mohiyatini uning ichki va tashqi borlig’i birligida, uning dunyoga faol munosabatida izlash kerak.

SHunday qilib, *individ muayyan insonning umumiy obrazi sifatida amal qilsa, individuallik uni muayyan o’ziga xos xususiyatlar sohibi sifatida tavsiflaydi,* «shaxs» tushunchasiga esa yanada torroq ma’no yuklanadi, chunki ayni holda inson uning barcha ijtimoiy sifatlari bilan jamuljam holda olinadiki, bu faqat ijtimoiy munosabatlarning u yoki bu tizimini nazarda tutgan holda shaxs to’g’risida so’z yuritish imkonini beradi. ya’ni *keng talqindagi «individ» va «individuallik» tushunchalari nafaqat insonga nisbatan, balki individual xususiyatlarga ega bo’lgan ayrim tirik mavjudot, hayvonga nisbatan ham tatbiq etilishi mumkin. «SHaxs» tushunchasi esa doim ijtimoiy mavjudot sifatidagi inson bilangina bog’liq bo’lib, faqat shu ma’noda, ayrim insonni uning jamiyatdagi o’rni, «ijtimoiy qiyofasi» nuqtayi nazaridan tavsiflaydi.*

Kezi kelganda yana shuni ham ta’kidlab o’tish lozimki, har qanday shaxs zamirida oqilona faoliyat yotuvchi ongli-ixtiyoriy faollik tavsiflanadi. SHuningdek inson Yangi moddiy va ma’naviy boyliklar yaratib, o’z ijodiy imkoniyatlarini izchil ro’yobga chiqarish orqali shaxs sifatida namoyon bo’ladi.

Hozirgi zamon fanida *shaxsning shakllanishiga ta’sir ko’rsatuvchi uch muhim omil: irsiyat, madaniy muhit va yashash sharoiti farqlanadi*. Bu omillar o’zaro ta’sirga kirishishi natijasida inson shaxs sifatida o’ziga xos xususiyatlar majmui: tegishli ehtiyojlar, qiziqishlar, qobiliyatlar, maqsadlar, mo’ljallar, ma’naviyat va shu kabilarga ega bo’ladi. Insonning mazkur betakror individual xususiyatlari asosan u yashayotgan muhitdagi ijtimoiy va madaniy shart-sharoitlar ta’sirida shakllanadiki, bu shaxsning shakllanishi va kamol topishida jamiyat juda muhim rol o’ynashini qayd yetish imkonini beradi. Ayni vaqtda shaxs umumiy e’tirof etilgan me’yorlarga muvofiq yoki ularga zid shakllanishi va kamol topishi mumkin. Bu ma’noda ijobiy shaxslar to’g’risida ham, salbiy shaxslar to’g’risida ham so’z yuritish mumkin.

Hozirgi zamonda aksariyat olimlar va faylasuflar inson evolutsiyasidagi ijobiy jarayonlarni va ijtimoiy o’zgarishlar imkoniyatlarini ijtimoiy munosabatlarning insonparvarlashuvi, odamlar ongidan umuminsoniy me’yorlar mustahkam o’rin olishi bilan bog’lamoqdalar. Bunda inson o’zining butun umri mobaynida, bir tomondan, o’z oldiga qo’ygan maqsadlariga erishishga harakat qilib, boshqa tomondan esa – o’zini qurshagan ijtimoiy va tabiiy muhit ta’sirini his etib, yaxlit bir butun hodisa sifatida, uzluksiz tadrijiy rivojlanishini e’tiborga olish lozim. Boshqacha aytganda, o’zining kamol topish jarayonida u doim ham sub’ekt, ham ob’ekt hisoblanadiki, bu shaxsning o’z imkoniyatlarini ro’yobga chiqarishi va hayot mazmunini izlashi bilan bog’liq bo’lgan yana bir muhim falsafiy muammo yuzaga kelishini belgilaydi.

Hayotning mazmuni va insonning vazifasi. Inson hayotning tezoqarligini yodda tutishi, uning shomini kuzatishi, odamzot hayotining bebaholigi haqida o’ylashi, o’lim haq ekanligini unutmasligi lozimligi haqidagi fikrlarga biz falsafa fani shakllanish jarayonining ilk bosqichidayoq, G’arb falsafiy an’anasida ham, SHarq falsafasida ham duch kelishimiz mumkin. SHundan beri o’tgan ikki yarim ming yildan ko’proq vaqt mobaynida bu borada deyarli hech qanday o’zgarish yuz bergani yo’q, zero, avvalgidek, odamzotning hayot yo’li tug’ilish va o’lish sanalari bilan chegaralanadi. SHuningdek, birinchi sana doim muayyan, aniq bo’lsa, ikkinchi sana inson umrining oxirgi soniyalarigacha mavhum bo’lib qoladi.

Ayni shu sababli hayotning mazmuni muammosi har bir inson qarshisida ertami-kechmi ko’ndalang bo’ladi va u o’ziga aniq va uzil-kesil javob topish mumkin bo’lmagan savollarni beradi. «Bu dunyoda nima uchun yashayapman?», deb so’raydi o’zidan inson va agar bu savolga o’zi javob bermasa, o’z hayotiga muayyan mazmun baxsh etmasa, bu ishni uning o’rniga hech kim va hech qachon bajarmasligini vaqt o’tishi bilan anglay boshlaydi. Abadiyat qarshisida, o’lim qarshisida har kim oxir-oqibatda o’zi bilan o’zi tanho qoladi.

Albatta, jamiyatda inson o’zini bu darajada yolg’iz his etmaydi, biroq, ekzistentsialistlar fikriga ko’ra, bu hol toki inson boshqalarning ham o’z hayoti borligi va ular ham o’z hayotining mazmuni va o’zining vazifasi haqidagi shaxsiy muammolarni mustaqil yechish zaruriyati qarshisida turganini anglab etgunga qadar davom etadi.

Bundan ekzistentsializm falsafasida yolg’izlik muammosi kelib chiqadi. Aslida, mazkur muammo falsafiy antropologiyada ham inson borlig’i tahlilidagi bosh muammolardan biri hisoblanadi.

Hayotni tark yetish bosqichlari. Biologik mavjudot sifatida har bir inson o’limga mahkumdir. Buni qadimgi mutafakkirlar ham yaxshi tushungan. Xususan, o’z muxoliflaridan birining: «O’ttiz tiran seni o’limga hukm etdi», degan gapiga Suqrot: «Ularni esa o’limga tabiat hukm etgan», deb javob bergan. Ammo odamzot ijtimoiy mavjudot sifatida ham o’limga mahkumdir.

Hozirgi zamon fanida o'lish jarayonining to'rt bosqichi farqlanadi. Bu bosqichlarga organizmda yuz beradigan va uning qarishini tavsiflaydigan orqaga qaytarib bo'lmaydigan biologik o'zgarishlar sabab bo'ladi.

Xususan, 25 yoshdan boshlab va ayniqsa 45 yoshdan keyin insonda har kuni u tug'ilgan paytga qadar «jamlangan» va boshqa hech qachon Yangilanmaydigan o'n minglab nerv hujayralari (neyronlar) halok bo'ladi. Ammo bosh miya qobig'ida bunday hujayralar soni 40 milliardga etadi va shu sababli «qariyotgan normal miya uchun bu jiddiy oqibatlarga sabab bo'lmaydi, chunki unda yana o'n milliardlab neyronlar normal faoliyat ko'rsatishda davom etadi»[84].

Amalda insonning hayotni tark yetishi u odamlardan o'zini olib qochib, jamiyatdan uzoqlashishi bilan tavsiflanadigan *ijtimoiy o'lim* yuz berganida boshlanadi. Surunkali giyohvand moddalarini iste'mol qilish, kashandalik, ichkilikbozlik, o'z hayotidan doimiy norozilik ijtimoiy o'limni bildiradi. So'ngra *ruhiy* o'lim yuz beradi, bunda inson hayot tugagani va o'limning muqarrar ekanligini va o'z hayoti davomida hech narsaga erisha olmaganini anglaydi. *Miya o'lishi* bilan bosh miya faoliyati butunlay to'xtaydi, organizmning turli funksiyalarini boshqarish barham topadi. Bu jarayon *fiziologik o'lim* bilan yakunlanadi. Bunda insonning uni tirik organizm sifatida tavsiflovchi barcha funksiyalari uzil-kesil to'xtaydi.

Muayyan inson o'z hayoti so'nishining yuqorida sanab o'tilgan bosqichlarini anglamasligi ham mumkin (aksariyat hollarda shunday bo'ladi), ammo u o'z hayot yo'lidan ilgarilar ekan, bu dunyoda nima uchun yashayapman, degan savolga o'z harakatlari, qilmishlari bilan javob beradi. Agar inson ularni hali to'la anglab etmagan bo'lsa, mazkur vazifani yechish o'z hayot yo'lini endigina tanlayotgan odam uchun ham, umrining shomida ortga nazar tashlab, o'z hayotini sarhisob qilayotgan odam uchun ham teng darajada mushkul ish bo'lib qoladi.

Inson o'z tabiatiga ko'ra o'limga mahkum, ammo, buni tushungan holda, u o'zi bilan bog'liq hamma narsa o'zining tug'ilish va o'lish sanalari bilan chegaralangan qisqa vaqt oralig'ida jamlanganini tan olishni istamaydi. U o'z taqdirini ijtimoiy muhim maqsadlar, ma'naviy uyg'onish bilan bog'lashga harakat qilishi ayni shu hol bilan izohlanadi.

Yana bir yo'lni din taklif qiladi. Bu erda u yoki bu e'tiqodlarga qarab, hayotning mazmuni va shaxsiy umrboqiylikka erishish haqidagi savolga shaklan har xil, lekin mazmunan juda o'xshash javoblar beriladi. Ularda asosan u dunyo chin dunyo ekanligi, bu dunyoda bajarilgan ishlarga haqiqiy baho u dunyoda berilishi va shu kabilar to'g'risida so'z yuritiladi.

Praksiologiya (yunon. praktikos – faol) – falsafaning inson faoliyatini o'rganishga bag'ishlangan bo'limlaridan biri. Faoliyat tushunchasi inson borlig'ining tabiati va mohiyatini, uning shaxsiy imkoniyatlari, ijtimoiy aloqalari va munosabatlarini, inson ma'naviy dunyosi va moddiy amaliyot jabhasini teranroq tushunish imkonini beradi. Inson faoliyati o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, hayvonlar faolligidan butunlay farq qiladi. U individ va umuman jamiyat borlig'ining alohida usuli hisoblanadi.

Ijtimoiy yo'nalganligiga qarab faoliyatning turli fanlarda o'ziga xos xususiyatlari bo'ladi. *Ijtimoiy falsafa* shaxsning ijtimoiylashuvi, ya'ni jamiyat to'plagan tajriba, qadriyatlar va me'yorlarni o'zlashtirish usuli sifatidagi faoliyat mazmunini yoritadi. *Sotsiologiyada* faoliyat (ijtimoiy harakat) ijtimoiy organizmning sub'ektiv motivatsiya va boshqalarga qarab mo'ljal olish bilan tavsiflanadigan hamda shaxs va jamiyatning aloqasini ta'minlaydigan hujayrasi sifatida qaraladi. *Ontologiyada* faoliyat inson borlig'i usuli bo'lib, unda odamzotning mohiyatini belgilovchi kuchlar to'la aks etadi. *Bilish nazariyasida* asosiy e'tibor bilishning negizi va bilimlarimiz haqiqiyligining muhim mezoni bo'lgan amaliyot sifatida tushuniladigan faoliyatga qaratiladi. *Axloq va huquq falsafasida* xohish-iroda erkinligi muammolari va inson faoliyatini tartibga solish usullari o'rganiladi. Inson faoliyatining madaniyat bilan aloqasi mazkur faoliyatning o'ziga xos xususiyatini aks ettiruvchi muhim falsafiy muammolardan biridir. To'g'ri, inson yaratgan barcha narsalar ham madaniyatga mansub bo'lavermaydi, lekin ijodiy faoliyatsiz madaniyat mavjud bo'lishi mumkin emas. YOndashuvlarning bunday rang-barangligi tasodifiy bir hol emas, chunki inson faoliyati uning yashash omili hisoblanadi va odamzotning tabiatga, jamiyatga, o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlari doirasini to'la qamrab oladi. Moddiy va ma'naviy ne'matlar ishlab chiqarish, siyosat va boshqaruv, muloqot va bilish, badiiy ijod va falsafiy mulohaza yuritish, tarbiya va o'zini o'zi tarbiyalash – bularning barchasi faoliyatni insonning dunyoga va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatining universal shakli, shaxs va jamiyatning rang-barang ehtiyojlarini qondirish usuli sifatida tavsiflaydi.

Faoliyat tushunchasining mazmuni. *Falsafada faoliyat insonga xos bo'lgan va tashqi dunyoni oqilona o'zgartirishga qaratilgan faollikning alohida shakli sifatida tavsiflanadi.* Ijtimoiy falsafada faoliyat ijtimoiy jarayonlarni amalga oshirish, insonning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, o'zini qurshagan dunyo bilan aloqaga kirishish usuli sifatida qaraladi[85]. Faoliyat muayyan faoliyat turi bilan shug'ullanish qobiliyati uning amaldagi moddiy ifodasiga o'zaro o'tishini nazarda tutadi. Bu faol inson tashqi dunyoni o'zgartirishi va o'zi ham o'zgarishini anglatadi. Forobiy fikricha "inson faoliyatsiz turaolmaydi, ammo har qanday faoliyat va harakat insonni inson qilib ko'rsata olmaydi. CHunki o'z tabiatiga ko'ra hayvonlar ham harakat qiladilar. Hayvon ovqatni ko'radi va unga intiladi va bunda ongsiz harakatni amalga oshiradi. Odamni hayvondan ajratadigan narsa- alohida iroda bo'lib, u ixtiyor deb nomlanadi"[86]. Ixtiyor – komillikka intilish va unga erishish sari harakat demakdir. Inson maqsadni

---

[84] Ж.Годфруа Что такое психология – М.: 1996. – с.11.

[85] Falsafa qomusiy luғat.Nazarov Q. taxriri ostida. –T.: SHarқ, 2004. –B. 186

[86] Forobiy Fozil odamlar shaxri. -T.: A Qodiriy nomidagi nashriyot, 1993 –B.55.

ham, unga erishish vositalari, yo'lni ham bilib oladi. Natijada u o'z maqsadiga yetish uchun ongli faoliyat olib boradi. Inson juda ko'p narsani orzu qilib yashaydi, biroq ularning hammasiga ham ega bo'lmaydi. SHu bois haqiqiy baxtga u dunyoda erishiladi, oxiratda mutloq baxtga erishishga qaratilgan har qanday harakat – fazilatdir deb hisoblaydi.

XX asrning atoqli mutafakkiri E.Kassirer insonning eng muhim xususiyati, uning o'ziga xos belgisi metafizik yoki jismoniy tabiati emas, balki uning faoliyatidir, deb qayd etgan edi. Insoniyat sohasini aynan mehnat, faoliyat turlari tizimi belgilaydi. Kassirer til, mif, din, san'at, fan, tarixni inson faoliyati tizimining turli bo'limlari sifatida qayd etadi. Insonni tushunish bu faoliyat turlaridan har birining teran qatlamlari haqida tasavvur hosil qilish va ayni vaqtda uni yaxlit bir butun organizm sifatida tushunish demakdir.

Faoliyatni sotsiologik jihatdan tavsiflash qilmish, xatti-harakat, xulq-atvor tushunchalari yordamida amalga oshiriladi. Bu tasodifiy bir hol emas.. Jamiyat odamlar birgalikda amalga oshiradigan faoliyat shakllaridan biri hisoblanadi, shu sababli inson faoliyati doim ijtimoiy xususiyat kasb etadi, garchi u o'z shaxsiy ehtiyojlari va egoistik tushuniladigan manfaatlar yo'lida amalga oshirilsa-da, boshqalarga qaratilgan bo'ladi. *Qilmish – shaxs faolligi namoyon bo'lishining bir shakli bo'lib, uning ijtimoiy ahamiyatga molik natijalar uchun javobgarligini nazarda tutadi*. Ayni holda mazkur natijalar shaxsning muayyan maqsadlari yoki mo'ljallari bilan belgilangan yoki belgilanmagani ahamiyatga ega bo'lmaydi. *Xatti-harakat – shaxsning ma'naviy o'zlikni anglashi natijasi sanalgan ongli harakati (yoki harakatsizligi) bo'lib, unda mazkur shaxsning o'z-o'ziga va boshqa odamlarga, tabiatga va umuman jamiyatga bo'lgan munosabati aks etadi.* SHaxsning axloqiy mo'ljallari ro'yobga chiqadigan qilmishlar tizimi uning xulq-atvorini tavsiflaydi. *Xulq-atvor faoliyatning tashqi ko'rsatkichi hisoblanadi, shu sababli uning ichki mexanizmlari xulq-atvorda bilvosita namoyon bo'ladi va inson o'z faoliyatida amal qiladigan motivlarni doim ham namoyon etavermaydi.*

Psixologiyada faoliyat insonning dunyo bilan munosabatlari dinamik tizimi sifatida talqin qilinadi. Bunda sub'ektda ruhiy obraz yuzaga keladi va u ob'ektda mujassamlashadi. Sodda qilib aytganda, faoliyat insonning har qanday ob'ektga (dunyoga) shunday bir munosabatini aks ettiradiki, uning zamirida nafaqat ob'ekt (dunyo) haqidagi bilim, balki uni o'zgartirish natijasida inson nimaga erishishi mumkinligi haqidagi tasavvur ham yotadi. Psixologiyada bilim va maqsadning inson ehtiyojlari bilan belgilangan o'ziga xos chatishuvi faoliyat jarayonida ob'ektda gavdalanadigan obraz sifatida qaraladi. SHunday qilib, *faoliyat sub'ektning borliqqa bo'lgan munosabatlarini ro'yobga chiqarish usuli hisoblanadi.* Ammo faoliyatning o'zi insonning tashqi dunyoga bevosita munosabati bilan emas, balki uni anglab yetishi, ya'ni ruhiy motivlar, maqsadlar, vositalar (mehnat qurollari) bilan tavsiflanadi.

Faoliyatning tuzilishi. Faoliyatning umumiy tuzilishi ehtiyojlar bilan belgilanadi Insonning ehtiyojlari uning faollik manbai hisoblanadi. *Hayot ehtiyojlari* (insonning jonli mavjudot sifatidagi ehtiyojlari)*, ijtimoiy ehtiyojlar* (ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlari, shuningdek shaxsning jamiyatga moslashuv ehtiyojlari) va *ma'naviy ehtiyojlar* (ma'rifiy, diniy, axloqiy, estetik va sh.k.) farqlanadi. Ehtiyojlarning rang-barangligi inson faoliyati turlarining rang-barangligini belgilaydi. Faoliyat turlarini tasniflash zamirida yotuvchi eng muhim omil u qaratilgan va faoliyat motivini tashkil etadigan predmetlar farqidir. *Faoliyat motivsiz bo'lmaydi, «motivlashtirilmagan» faoliyat sub'ektiv pinhona motivga ega bo'ladi.*

Harakatlar va amallar. Faoliyat harakatlardan tashkil topadi. Harakat alohida maqsadga, ya'ni erishilishi lozim bo'lgan natija haqidagi tasavvurga bo'ysunadigan jarayon sifatida tavsiflanadi. Maqsad inson ongida ehtiyoj va motiv bilan faoliyat ob'ektiv holatlarining nisbatlashuvi jarayonida yuzaga keladi. O'z navbatida, holatlar maqsadga erishish yo'llarini belgilaydi. Bular faoliyat shartlari bilan belgilanadigan amallar hisoblanadi. SHunday qilib, umuman *faoliyat motiv bilan, harakat – maqsadlar bilan, amallar – shartlar bilan belgilanadi*.

Faoliyatning atributlari. Inson faoliyati o'ta rang-barangdir. Yuqorida qayd etib o'tilganidek, faoliyat turlarini tasniflash uchun asos bo'lib uning inson tomonidan o'zgartiriladigan ob'ekt: tabiat, jamiyat, insonning o'ziga qaratilganligi xizmat qiladi. *Faoliyat atributlari (xossalari) faoliyatni motivlashtirish va amalga oshirish mexanizmlarini tavsiflaydi. Faoliyat atributlari orasida avvalo sub'ektlilik va moddiylik qayd etiladi.*

Sub'ektlilik va moddiylik. Faoliyatning sub'ektliligi shu bilan izohlanadiki, u shaxsning o'tmishdagi tajribasi, uning ehtiyojlari va mo'ljallari, motivlari va maqsadlari, emotsiyalari va irodasini tavsiflovchi xususiyatlari, bilish qobiliyatlari va hokazolar bilan belgilanadi. Faoliyatning moddiyligi insondan tashqarida joylashgan va uning qo'li bilan o'zgartiriladigan tabiat va jamiyat kuchlariga qaratilganini anglatadi. Ammo insonning o'zi, uning o'z-o'zini kamol toptirishi, o'z-o'zini tarbiyalashi va shaxs o'z oldiga qo'yadigan maqsadlarga erishishga qaratilgan tegishli harakatlar ham o'zgartirish faoliyatining predmeti bo'lishi mumkin.

Moddiylashtirish va moddiylikdan chiqarish. Moddiylik faoliyat jarayoni va natijasining materialga bog'liqligini belgilaydi. Faoliyat natijasi inson oqilona o'zgartirgan materialda o'z aksini topadi, moddiylashadi (predmetga aylanadi). Faoliyat natijasi inson kuchlari va qobiliyatlarining o'ziga xos in'ikosi hisoblanadi. Nemis klassik falsafasining taniqli namoyandasi I.G.Fixte fikricha, "Amaliyot o'zgartirilgan tabiat predmetlarini insonning ko'zgudagi aksiga o'xshaydi"[87]

Moddiylashuv nima ekanligi haqida amalda tasavvur hosil qilish uchun chevar, g'isht teruvchi, ma'ruzachi va shu kabilarning ishini kuzatadigan bo'lsak, inson qanday ishlashi, uning faoliyati natijasida nima vujudga kelganiga qarab insonning o'zi haqida xulosa chiqarish, uning aql-zakovat darajasi, irodasi, kasbiy mahorati, estetik didi,

[87] Қаранг И.Г.Фихте Назначение человека.: 2006. – с.81.

mehnatga munosabati, axloqiy mo'ljallari va hokazolarni aniqlash mumkinligini ko'ramiz. SHu ma'noda faoliyat doim individ va umuman insoniyatning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi demakdir. Individning ijtimoiyligi aynan faoliyatda namoyon bo'ladi. Faoliyat orqali u ijtimoiy jarayon ishtirokchisiga aylanadi.

Inson faoliyati mehnat qurollari yordamida amalga oshiriladi. Uning hayvonlar faolligidan asosiy farqlaridan biri qurollilik hisoblanadi. «Quruq qo'l ham, o'z ixtiyoriga tashlab qo'yilgan aql ham katta kuchga ega emas, - degan edi F.Bekon. – Ish qo'lga ham, aqlga ham kerak bo'lgan qurollar va vositalar yordamida bajariladi»[88].

Onglilik va maqsadga muvofiqlik. Inson faoliyati oqilona, ongli va maqsadga muvofiq bo'ladi. «Oqilonalik – inson faoliyatining barcha turlariga amalda xos bo'lgan jihat»[89], deb qayd etadi E.Kassirer. Oqilonalik insonning o'z faoliyati maqsadlarini aqlga muvofiq tarzda belgilash va ularni erkin va ongli boshqarish qobiliyatini anglatadi. I.G.Fixte inson tabiat kabi zaruriyat taqozosiga ko'ra emas, balki ongli niyat bilan ish ko'rishini ta'kidlaydi. Ayni shu sababli tabiat va jamiyatni o'zgartirish insoniyatning ma'naviy burchidir[90].

Onglilik va maqsadga muvofiqlik – inson faoliyatini hayvonlar faolligidan farqlash imkonini beruvchi muhim xossalardir. Ammo ular «sof ko'rinish»da mavjud bo'lmaydi. SHu sababli onglilik va maqsadga muvofiqlikka zid bo'lgan xossalarni inson faoliyatining talqini doirasidan chiqarish o'rinli bo'lmaydi. Xususan, insonning barcha faoliyati ham ongli bo'ladimi, degan savol ustida mulohaza yuritib ko'raylik. Amalda faoliyat ayrim ko'nikmalar shakllanishini nazarda tutadi (kasbiy mahorat esa aksariyat ko'nikmalarni avtomatizm darajasiga ko'taradi); faoliyatda anglanmaydigan mayllar, mo'ljallar, tajriba, o'tmishda (aksariyat hollarda – bolalikda) olingan taassurotlar o'z ta'sirini ko'rsatadi. Faoliyat «onglilik – ongsizlik» qarama-qarshiligining birligidir, deb aytish uchun asoslar mavjud. Ziddiyatli vaziyatlar – mutlaqo ongsiz va ongga butunlay bo'ysungan faoliyatni hayotda juda kam uchraydigan muayyan abstraktsiya sifatidagina tasavvur qilish mumkin. SHuningdek, ongga to'la bo'ysunadigan harakat ko'pincha samarasiz bo'ladi.

Onglilik faoliyatning maqsadga muvofiqligini belgilaydi, chunki maqsadni qo'yish o'z ehtiyojlarini hamda mavjud vaziyatni bu ehtiyojlarni qondirish sharti sifatida anglashni nazarda tutadi. Maqsadga muvofiq faoliyat oldindan mo'ljallangan muayyan natijaga qarab mo'ljal oladi. Entoni Giddens o'zining «Jamiyat tuzilishi» asarida inson faoliyati mo'ljallanmagan natijasining ahamiyatiga e'tiborni qaratadi. Ammo faoliyat maqsadsiz bo'lishi, ya'ni jarayonning o'ziga bo'lgan ehtiyojni qondirishga qaratilishi ham mumkin. Albatta, ongsiz faoliyat mantiqsizdir, chunki hech qanday maqsadni ko'zlamaydi, lekin uning natijasi maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin. Masalan, suzishni bilmagan, lekin suvda oyoq-qo'llari bilan tinimsiz harakat qilayotgan odam cho'kmaydi. Ammo har qanday maqsadsiz faoliyat ham ongsiz bo'lavermaydi (masalan, o'yin).

Moddiy va ma'naviy faoliyat. Moddiy faoliyatni soddalashtirib predmetlar bilan ish ko'rish sifatida, ma'naviy faoliyatni esa – predmetlarning obrazlari bilan ish ko'rish sifatida tasavvur qilish mumkin. Abstrakt mulohaza yuritish orqali moddiy va ma'naviy faoliyatni «sof ko'rinish»da, muayyan qarama-qarshilik sifatida tasavvur qilish mumkin. Ammo ma'naviyatdan xoli bo'lgan moddiy faoliyat behudadir. Ma'naviy faoliyat «sof ko'rinishda» mavjudmi? Ob'ektiv idealizm tizimida muayyan mutlaq va o'z-o'zidan rivojlanuvchi g'oya uning moddiy manbasidan tashqarida mavjud bo'lishi tan olinadi. Ammo insonning real hayotidagi ma'naviy faoliyati moddiy faoliyatdan tashqarida mavjud bo'lmaydi, amalda moddiy va ma'naviy faoliyat unsurlari turli darajada aks etgan faoliyat rang-barang shakllarining kontinuumi (lot. continuum – uzluksiz to'plam)gina mavjuddir.

Interiorizatsiya tushunchasi. Ong va faoliyatning aloqasi g'oyasining eng mukammal tavsifiga nemis klassik idealizmi namoyandalarining asarlarida duch kelish mumkin. Nafaqat, Fixte, balki SHelling va Gegel ham ma'naviy hodisalar sababini amaliyotda, odamlar faoliyatida izlagan. Xususan, SHelling amaliyotga, inson faoliyatiga odamzotning o'zini o'zi tabiatda gavdalantirishi, ya'ni ob'ektivlashtirishi sifatida yondashgan. U inson faoliyati natijasida ikki dunyo: tabiat dunyosi va inson dunyosi, ya'ni o'zgartirilgan insoniylashtirilgan tabiat dunyosi mavjud ekanligini qayd etadi. Dunyoga nisbatan harakatda SHelling umuman ong negizini ko'radi. Insonning insonga ta'sirini u ongning ikkinchi manbai deb hisoblaydi: aqlli mavjudotlarning tinimsiz o'zaro ta'siri ongning zaruriy omili hisoblanadi. XX asrda psixologlar aynan faoliyat shaxsning ijtimoiy tajribasini o'zlashtirish, uning qobiliyatlari, irodasi va ongini shakllantirish mexanizmi hisoblanishini tajriba o'tkazish yo'li bilan va ko'p sonli etnografik va tarixiy materialga asoslangan holda ko'rsatib berdilar. Individual va umuminsoniy rivojlanish jarayonida faoliyatning mustaqil sohasi sanalgan faollik ko'rinishlari murakkabroq madaniy tuzilmalarga qo'shilib, asta-sekin ong shakllariga aylangan. Sirtda birlamchi xususiyatga ega bo'lgan faoliyat sof ichki (interiorizatsiyalashgan) xususiyat kasb yetishi mumkin.

Interiorizatsiya tushunchasi faoliyatning tabiatan sirtqi jarayonlarini ichda, avvalo ongda yuz beradigan jarayonlarga o'tishini ifodalash uchun xizmat qiladi. E.From bu tushunchaga shunday deb tavsif beradi: «Inson yomonlik qilar ekan, uning o'zi ham yanada tubanlashadi»[91]. Ajdodlarimiz ruhiyatining shakllanishida muhim rol o'ynagan qadimgi madaniy institutlar (rasm-rusumlar, din, o'yin) hozirgi inson ruhiyatida o'z-o'zidan amal qilishini

---

[88] Ф.Бекон Новый Органон Афоризмы об истолковании природы и царства человека Соч Т. 2. – М.: 1978.–с. 12

[89] Kassirer E. Opit o cheloveke: vvedenie v filosofiyu chelovecheskoy kulturi // Problema cheloveka v zapadnoy filosofii. – M.: 1988. – S.28.

[90] Qarang: Fixte I.G. Izbr. soch. T. 1. – M.: 1916. – S.402.

[91] Fromm E. Duxovnaya sushnost cheloveka. Sposobnost k dobru i zlu // CHelovek i ego tsennosti. – M.: 1988. – S. 56

nazarda tutadigan tarixiy interiorizatsiya g'oyasi sirtdagi harakatning shaxs ichki mulkiga aylanish mexanizmini tushuntiradigan interiorizatsiya tushunchasini to'ldiradi.

Interiorizatsiya mexanizmi. Yuqorida qayd etilganidek, faoliyat insonning dunyoga va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatining universal, umumiy usulidir. Ammo inson qay tarzda ish ko'rmasin, o'z faoliyatida qaysi vazifalarni hal qilmasin, uning barcha elementlari: faoliyat predmeti, vositalari va jarayoni doim ramziy tabiatga ega bo'ladi. Til, ya'ni so'z eng universal ramz hisoblanadi. XIX asr oxirida tilga ijodning birinchi mahsuli deb tavsif berilgan. Verbal (og'zaki) til va noverbal til (imo-ishoralar, kiyim-kechak va zeb-gardonlar, san'at va etiket tili) mavjud. Tilning bu ikkala turini ham biz bolalikdan o'zlashtiramiz va inson o'zgartirgan tabiat dunyosida, ijtimoiy munosabatlar dunyosida, madaniyat dunyosida til yordamida mo'ljal olamiz.

Tilda uch element: ovoz, ma'no va obraz farqlanadi. Ma'noning moddiy ifodalovchilari sanalgan ovoz yoki grafik tasvir so'zga xosdir. O'zga ramzlar butunlay boshqacha moddiy ifodalovchilarga ega bo'lishi mumkin (mehnat amali, imo-ishora, rasm-rusum, rassom asarining elementlari va sh.k.). SHunga qaramay, har qanday ramzlarning qolgan barcha elementlari umumiydir: moddiy ifodalovchi, ma'no va obraz shular jumlasidandir. Faoliyatning hissiy idrok etiladigan har qanday elementi moddiy ifodalovchi bo'lishi mumkin. Masalan, so'zda bu ovoz yoki grafik tasvir, lekin bunday ifodalovchi vazifasini imo-ishora, mehnat amali yoki boshqa har qanday shunga o'xshash signal ham bajarishi mumkin.

Ma'noda insoniyatning o'tmishdagi tajribasi mujassamlashadi. Har qanday ramz ma'nosi insoniyat uchun umumiy xususiyat kasb etadi, ayrim turdagi narsalar, aloqalar, munosabatlar yoki harakatlarning shartli, konventsional mustahkamlangan ifodasi hisoblanadi. Inson faoliyat jarayonida madaniy ramzlarning ma'nolarini anglab etar ekan, o'zini qurshagan dunyoni boshqacha idrok eta boshlaydi, chunki unda har qanday hodisani uning so'zdagi ifodasi bilan bog'lashga ehtiyoj va qobiliyat yuzaga keladi. Ma'nolar inson ongida dunyoni aks ettiradi.

Obraz – narsa yoki hodisaning o'ziga xos ma'nosi bo'lib, u har qanday ramzning haqiqiy ma'nosidan ancha farq qilishi mumkin. Masalan, «tuz» so'zi hamma uchun ayni bir ma'noni anglatadi – u barcha odamlar ovqatga qo'shib iste'mol qiladigan moddani ifodalaydi. Ammo kimyogar, yozuvchi yoki oshpaz uchun «tuz» so'zi butunlay boshqacha ma'no kasb yetishi mumkin. Oshpaz tuzda ovqatga xushxo'r bo'lishi uchun solinadigan qo'shilmani ko'radi, kimyogar tuz deganda ionli tuzilish xos bo'lgan kimyoviy birikmalar turkumini tushunadi va h.k. Xullas, har qanday so'z ko'plab ma'nolarga ega bo'ladi. Obraz – haqiqiy ma'no va ayrim ma'noning shaxs manfaatlari va ehtiyojlari, uning tuyg'ulari va mayllari mujassamlashgan o'ziga xos sintezidir.

Inson faoliyati o'z tabiatiga ko'ra madaniydir, til ramzlari esa madaniyatning muhim boyligi hisoblanadi. Inson faoliyat jarayonida tashqi madaniy ramzni o'zlashtirar ekan, nafaqat rang-barang mehnat qurollaridan foydalanishni, balki ularning boshqalar va o'zi uchun ahamiyatini anglashni ham o'rganadi. Madaniyat ramzlari psixologik vositalar hisoblanadi: inson mehnat qurollaridan ularning asl mazmuniga muvofiq foydalanish orqali tabiat dunyosini o'zgartirishi mumkin. Ammo mehnat qurollari inson uchun muayyan ahamiyat kasb etadigan ramzlar ham sanalgani bois, odamzot ularning yordamida o'z ruhiy funksiyalari – zehni, irodasi, tafakkurini ham boshqaradi. Ayni shu sababli insonning tabiiy iste'dodi aynan faoliyatda namoyon bo'ladi, uning qobiliyatlari shakllanadi va ehtiyojlari qondiriladi.

Interiorizatsiya nazariyasining tanqidi. SHaxsning shakllanish jarayonida faoliyat qay darajada muhim rol o'ynamasin, uni mutlaqlashtirish yaramaydi. Psixolog S.L.Rubinshteyn insonning kamol topishida faoliyat rolining mutlaqlashtirilishiga qarshi e'tiroz bildirar ekan, shunday deb qayd etgan edi: «Inson qobiliyatlarining rivojlanish jarayoni u yaratadigan narsalarning rivojlanish jarayoni emas, balki insonning kamol topish jarayonidir, chunki qobiliyatlar insonda narsalardan yaralmaydi»[92]. Inson tashqi ta'sirlarni tanlash va ularni o'zining betakror, hech kimnikiga o'xshamaydigan individualligining ichki mantiqiga muvofiq qabul qilishda erkindir. Interiorizatsiya nazariyasi ijod omiliga putur etkazadi, inson hayot faoliyatida qadriyatlarning rolini (ayniqsa san'at, din va axloq sohasida) inkor etadi, insonning ichki dunyosini soddalashtiradi. SHu sababli bola tarbiyasi bilan shug'ullanganda uning individualligini hisobga olish, bunda uning ichki ruhlantiruvchi motivlariga tayanish, uni faoliyatga majburlamaslik, balki jalb qilish, uning imkoniyatlari va qobiliyatlarini aniqlash va ularga tayanish lozim.

Interiorizatsiya nazariyasining tanqidi shaxsning shakllanishiga faoliyatning ta'sirini rad etmaydi, balki uning imkoniyatlari chegarasini ko'rsatadi. Zero, shaxsning shakllanishida faoliyatning rolini tushunish uchun insonning muayyan faoliyat turlariga bo'lgan munosabatini belgilaydigan ichki xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. Ichki xususiyatlar deganda avvalo shaxsning qobiliyatlari va irodasi zamirida yotuvchi tabiiy iste'dod nishonalari, oliy nerv faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari (mijoz), umumiy ta'sirchanlik (ya'ni sezish va idrok yetish individual qobiliyati), miya yarim pallasi asimmetriyasi va hokazolar nazarda tutiladi. SHaxsning ichki xususiyatlari nafaqat irsiy (genetik) va tug'ma (embrional rivojlanish jarayoni bilan belgilangan) xossalar, balki shaxs hayoti, tarbiyasi, bilimi, hayot tajribasining o'ziga xos holatlari ta'sirida shakllangan individual belgilar tushunchasini ham qamrab oladi.

9-Mavzu: Globallashuv va global muammolarning falsafiy jihatlari

Reja:

1. Global jarayonlarning shakllanish tarixi.

[92] С.И.Рубинштейн Проблеми обўеу психологи – М 1973. – с.227.

2. 2017-2021 yillardagi O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida global muammolarning tavsifi.
3. Global muammolarni xal qilishda xalqaro kuchlar birlashuvi.
4. Texnika va texnologiya tushunchalarining falsafiy mohiyati.

Globallashuv hodisasi. Hozirgi davr haqida aniqroq tasavvur hosil qilish uchun XX asr boshigacha jahon tarixi asosan mustaqil rivojlangan va bir-biriga jiddiy ta'sir ko'rsatmagan sivilizatsiyalardan iborat bo'lganini nazarda tutish muhimdir. Hozirgi zamonda dunyo so'nggi yuz yillik ichida yuz bergan jamiyat hayoti barcha jabhalarining faol integratsiyalashuvi natijasida sezilarli darajada o'zgardi va yaxlit bir butun organizmga aylandi. Buning oqibati o'laroq, ayrim xalqlar va butun insoniyatning ijtimoiy ongida global jarayonlar va ularning ta'sirida yuzaga kelgan umumiy (dunyo miqyosidagi) muammolar bilan belgilangan jiddiy o'zgarishlar yuz bera boshladi. Jahon hamjamiyati o'z rivojlanishining Yangi bosqichiga qadam qo'ygani, u avvalgi bosqichlardan nafaqat o'zgarishlar miqyosi, balki faollik darajasi va universal xususiyati bilan ham farq qilishi ayon bo'ldi.

Bu o'zgarishlarning butun majmui, shuningdek ularning sabablari 1990-yillarda globallashuv (lot. globus – er kurrasi) deb nomlandi. *Globallashuv jamiyat hayotining turli jabhalarida butun Er sayyorasi uchun yagona bo'lgan tuzilmalar, aloqalar va munosabatlarning shakllanishi, universallashuv jarayonidir.* SHuningdek globallashuv global makonning tutashligi, yagona jahon xo'jaligi, umumiy ekologik o'zaro aloqadorlik, global kommunikatsiyalar va shu kabilar bilan tavsiflanadi.

Globalistika. Jahon rivojlanishining eng Yangi tendentsiyalarini anglab yetish borasidagi ko'p sonli sa'y-harakatlar globallashuv jarayonlarining mohiyati, tendentsiyalari va sabablarini, ular ta'sirida yuzaga kelayotgan global muammolarni aniqlash va bu jarayonlarning oqibatlarini anglab yetishga qaratilgan fanlararo ilmiy tadqiqotlar sohasi – **globalistika** paydo bo'lishiga olib keldi. Kengroq ma'noda «*globalistika» atamasi globallashuvning turli jihatlari va global muammolarga oid ilmiy, falsafiy, madaniy va amaliy tadqiqotlarni, jumladan ularning natijalarini, shuningdek ularni ayrim davlatlar darajasida ham, xalqaro miqyosda ham iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jabhalarda amalga joriy yetish borasidagi amaliy faoliyatni ifodalash uchun qo'llaniladi.*

SHuni ta'kidlash lozimki, globalistika odatda ilmiy bilimning tabaqalanishi natijasida yoki turdosh fanlar tutashgan joyda paydo bo'ladigan ayrim fanlar qatoriga kirmaydi. Uning vujudga kelishi zamirida qarama-qarshi jarayonlar – hozirgi zamon faniga xos bo'lgan integratsiyalashuv jarayonlari yotadi. Globalistika tadqiqotlar va bilishning shunday bir jabhasiki, bu erda turli fanlar bir-biri bilan uzviy aloqada, har biri o'z predmeti va metodi nuqtayi nazaridan, globallashuvning turli jihatlarini tahlil qiladi, global muammolarni bir-biridan alohida va yaxlit tizim sifatida o'rganib, ularning echimlarini taklif qiladi.

Globalistika mustaqil ilmiy yo'nalish va ijtimoiy amaliyot sohasi sifatida 1960-yillarning oxirlarida shakllana boshladi, lekin uning paydo bo'lishi uchun ob'ektiv asoslar ancha oldin yuzaga kelgan edi.

Global jarayonlarning shakllanish tarixi. Hozirgi globallashuv jarayonlarining ilk nishonalariga XV asr oxirlaridan boshlab duch kelish mumkin, XIX asr boshiga kelib esa u amalda real shakl-shamoyil kasb etdi. Bu pirovardida yagona geografik, ma'lum darajada iqtisodiy va siyosiy jahon maydoni shakllanishiga olib kelgan Buyuk geografik kashfiyotlar yuz bergan davr edi. Ayni shu davrda dunyoni tushunishga nisbatan geotsentrik yondashuvlar geliotsentrik yondashuvlarga o'rin bo'shatdi, insoniyat esa, nihoyat, kun va tunning almashishini to'g'ri talqin qilishga muvaffaq bo'ldi. Fan falsafadan ajralib chiqib, bilimlar to'planishi va texnikaning rivojlanishiga kuchli turtki berdi, fan-texnika taraqqiyoti va sanoat inqilobi yuz berishiga sabab bo'ldi. So'nggi zikr etilgan voqealar pirovard natijada insonning tabiatni o'zgartiruvchi imkoniyatlari va uning atrof muhit bilan munosabatini butunlay o'zgartirdi.

Er kurrasi shar (globus) ko'rinishida ekanligini nazariy va amaliy jihatdan isbotlab insoniyat o'z tarixida birinchi bo'lib savdo-sotiq sohasida dunyo darajasiga chiqdi va dunyo miqyosida xalqaro munosabatlarga asos soldi. Ayni shu davrda ilk transmilliy savdo kompaniyalari vujudga keldi. Tez orada ularning faoliyati sof savdo chegarasidan tashqariga chiqdi va ular qullarni qo'lga kiritish va ularni ekspluatatsiya qilish, bosib olingan hududlarda plantatsiyalar va manzilgohlar barpo yetish jarayonida ishtirok eta boshladi, nihoyat, o'z davlatlari amalga oshirayotgan mustamlakachilik siyosatining asosiy ijrochisiga aylandi.

Bularning barchasi jiddiy migratsiya jarayonlari yuz berishiga ham sabab bo'ldi; xususan, mustamlakachilar qora tanli qullarni Afrikadan Amerikaga ommaviy tarzda tashib keltira boshladilar va shu tariqa uning demografik tarkibini butunlay o'zgartirdilar. SHuning o'ziyoq globallashuv turli xalqlarning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti bilan avvalboshdan uzviy bog'liq bo'lgan, degan xulosaga kelish imkonini beradi.

XVII asr boshlariga kelib sharq va g'arb savdogarlari ulkan hududlarni o'zlashtirdilar va deyarli butun dunyo bo'ylab joylashdilar. SHu tariqa ular insoniyat tarixida birinchi bo'lib yagona global iqtisodiy va siyosiy tizimning zaruriy asoslarini yaratdilar va mazkur tizim shakllanishi uchun zamin hozirladilar.

SHunday qilib, XV-XVI asrlarda yuz bergan buyuk geografik kashfiyotlar jahon tarixining rivojlanish jarayonida tub burilish yasadi va «Yevropa siyosatining keskin, misli ko'rilmagan darajada kengayishiga olib keldi. Dunyo chegaralari muayyan darajada kengaydi. Endilikda Yevropa mamlakatlari o'rtasidagi turli ziddiyatlarga mustamlakalar uchun kurashda raqobat ham qo'shildi»[93]. SHu tariqa Yangi xalqaro iqtisodiy va siyosiy

[93] Б.Харенберг Хроника человечства – М.: Слово, 2000. – .387.

munosabatlarga, turli madaniyatlarning o'zaro ta'siriga va G'arbiy Yevropa dengiz davlatlarining o'zlari kashf etgan er kurrasining turli hududlaridagi ekspansiyasiga asos solindi.

Fundamental globallashuv *dunyo miqyosidagi aloqalar, tuzilmalar va munosabatlar yuzaga kelishi bilan bog'liq.* Mazkur jarayonlar natijasida dunyo o'zining deyarli barcha jihatlarida yaxlit bir butun organizm sifatida uzil-kesil shakllandi. Fundamental deb nomlanuvchi bunday globallashuvning ilk alomatlari XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'ldi, XX asr o'rtalariga kelib esa u to'la darajada borliqqa aylandi.

Ayni shu davrda dunyoni iqtisodiy bo'lib olish yakunlandi va buning natijasida turli mamlakatlar va xalqlarning kuchayib borayotgan o'zaro bog'liqligidan kelib chiqadigan mutlaqo Yangicha tusdagi keskin xalqaro muammolar yuzaga keldi. Bu jarayonlar nafaqat iqtisodiyot, siyosat va ijtimoiy hayotni, balki aloqa va kommunikatsiya vositalarini, shuningdek ma'naviy jabha – madaniyat, fan va falsafani ham qamrab oldi. Turli-tuman xalqaro tashkilotlar, forumlar, s'ezdlar, kongresslar vujudga kela boshladiki, bunga o'sha davrda aloqa va ommaviy kommunikatsiya vositalarining faol rivojlanishi ham imkoniyat yaratdi.

SHunday qilib, amalda butun dunyo kuchli davlatlar va yirik monopoliyalar o'rtasida keskin kurash va ta'sir doiralarini bo'lib olish maydoniga aylandi va bu pirovardda Birinchi jahon urushi boshlanishiga olib keldi. Bu urushda jahonning ko'p sonli xalqlari bevosita yoki bilvosita ishtirok etdi, chunki shu davrgacha dunyo miqyosida yuzaga kelgan iqtisodiy va siyosiy bog'liqlik sayyoraning birorta ham yirik davlatiga urushdan yoki hech bo'lmasa uning ta'siri va oqibatlaridan butunlay chetlashish imkonini bermas edi. Bu mazkur davrdan e'tiboran tarix faqat Yevropa tarixi yoki, aytaylik, alohida Xitoy, Rossiya, Amerika, G'arb, SHarq tarixi bo'libgina qolmasdan, insoniyat tarixiga, ya'ni tom ma'nodagi jahon tarixiga ham aylanganidan dalolat beradi.

1918 yilda Birinchi jahon urushining tugashi xalqaro maydonda kuchlarning Yangicha nisbati yuzaga kelishiga sabab bo'ldi va turli davlatlarning urushdan keyingi munosabatlari, manfaatlari va qarama-qarshiliklarini yanada tarangroq tugunga bog'lagan oqibatlarga olib keldi, shu tariqa butun dunyoni barcha asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha jahon hamjamiyatiga aylantirdi. Pirovardda Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari oralig'idagi davrda globallashuv jarayonlari yanada bo'rtibroq namoyon bo'ldi. Bu davrda, *globallashuvning asosiy beligilari*:

a) biosferaga antropogen ta'sirning kuchayishi va insonning real «geologik kuch»ga aylanishi;

b) ommaviy madaniyat, avvalo kino, musiqa, adabiyot, keng iste'mol mollari ishlab chiqarish sohasida faol rivojlana boshlashi;

v) televizorning ixtiro etilishi, vaqt o'tishi bilan u ommaviy madaniyatning asosiy targ'ibotchisiga va globallashuv ramziga aylanishi;

g) makon va vaqtni ilk bor insonning kundalik hayoti ko'rsatkichlariga qadar uzil-kesil «qisqartirgan» havo kemalarida qit'alararo qo'nmay, to'g'ri uchib o'tishlarlarda namoyon bo'ldi.

Ammo echilmagan ziddiyatlar va umumiy bog'liqlikning kuchayishi insoniyat tarixidagi eng katta va davomli urush – Ikkinchi jahon urushi boshlanishiga olib keldi. Bu safar dunyo miqyosidagi urushda Er aholisining to'rtdan uch qismi ishtirok etdi, Birinchi jahon urushiga qaraganda bir necha baravar ko'proq qurbonlar berildi.

Dunyo miqyosidagi jarayonlarning globallashuvi nuqtayi nazaridan bu urushlarning ikkalasi ham amalda ayni bir global urushning turli bosqichlari edi. Ularning o'rtasidagi farq faqat miqdor ko'rsatkichlarida ko'rinadi. *Mohiyat e'tibori bilan, ikkala urush ham ayni bir masalalarni yechish – XX asr boshida bo'lib olingan, yaxlit va o'zaro bog'langan dunyoni qayta bo'lib olishga qaratilgan edi.* Urush olib borish usullari ham deyarli bir edi, farqi esa, texnik jihozlanish darajasi va miqyosi Ikkinchi jahon urushida bir necha baravar yuqori, mafkuraviy ta'sir esa avvalgi urushda yo mavjud bo'lmagan radio, telefon, yo hali yaxshi rivojlanmagan aviatsiya, dengiz, temir yo'l, avtomobil transporti aloqa va kommunikatsiya vositalaridan keng foydalanish bilan ko'p karra kuchaytirilishida namoyon bo'ldi.

Ikkinchi jahon urushi ham, xuddi avvalgi jahon urushidek, urushdan keyingi dunyoviy tartibning o'ziga xos xususiyatiga aylangan bir qator olamshumul oqibatlarga olib keldi. Ularning orasida eng muhimi shu bo'ldiki, urush mutlaqo Yangi qurol turi (atom va reaktiv qurol) yaratish borasidagi tadqiqotlar va amaliy ishlarni rag'batlantirdi. Mazkur davrda ularning ilk namunalari jangovar sinovdan o'tkazildi va insoniyatga butun dunyoni xarobazorga aylantirish va barcha tirik mavjudotlarni qirib tashlash uchun cheksiz imkoniyatlar yaratdi. Fan-texnika taraqqiyotining ayni shu yutuqlari keyinchalik «sovuq urush» davrida avj olgan qurollanish poygasining mohiyati va mazmunini belgilab berdi va sayyoramizning nozikligi va makonda tutashligini amalda namoyish etdi.

Ikkinchi jahon urushining boshqa bir oqibati jamiyat hayotining ijtimoiy-siyosiy sohasida yuzaga keldi va u turli-tuman xalqaro tashkilotlarning mislsiz darajada o'sishida namoyon bo'ldi. Ularning orasida Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), hech shubhasiz, ajralib turadi. Yevropadagi integratsiya jarayonlari ham urushning tugashi bilan bog'liq bo'lib, Buyuk Britaniya bosh vaziri U.CHerchill Yevropa qo'shma SHtatlarini tuzishga chaqirgan 1946 yilni ularning sanoq boshi deb hisoblash mumkin.

Bosh harbiy jinoyatchilar guruhi va natsistlarning asosiy tashkilotlari ustidan o'tkazilgan Nyurnberg sud jarayoni yana bir muhim tadbir va ayni vaqtda xalqaro munosabatlarni huquqiy tartibga solish sohasida dunyo miqyosidagi hamkorlikning ilk tajribasi bo'ldi. Bu jarayon 1945 yil 8 avgustda g'olib mamlakatlar – SSSR, AQSH, Buyuk Britaniya va Fransiya tomonidan tashkil etilgan tarixdagi birinchi Xalqaro harbiy tribunal tomonidan amalga oshirildi va hozirgi xalqaro sud tizimini tashkil qilish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi. Ayni shu davrda liberalizm va demokratiya g'oyalari dunyo miqyosida keng tarqala boshladi, ijtimoiy borliq asoslarini, jamiyatning axloqiy negizlari va ijtimoiy rivojlanishning asosiy tamoyillarini qayta anglab yetishga qaratilgan jiddiy tadqiqotlar va nazariy ishlovlar majmui paydo bo'ldi.

Globallashuvning serqirraligi. *Dunyo miqyosidagi tahdidlar va globallashuv jarayonlarini aholining keng qatlamlari anglab yetishi, shuningdek jahon hamjamiyati va unga mos keluvchi qadriyatlarga munosabat, madaniyat, turmush tarzining shakllanishi gldoballashuv serqirraligi bosqichiga xos xususiyat hisoblanadi.* 1970-yillardan globallashuv o'z rivojlanishining Yangi bosqichiga ko'tarildi va serqirra tus oldi. Ayni shu davrda axborot-texnologiya inqilobining rivojlanishi jadallashdi, mif, din, falsafa, fan, ekologiya bilan bir qatorda global ong ijtimoiy ongning yana bir shakli sifatida paydo bo'ldi.

Globallashuvning serqirragi jahon bozorini sezilarli darajada o'zgartirdi, jahon xo'jaligi o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etib, milliy xo'jaliklardan kuchliroq va muhimroq tus olishiga imkoniyat yaratdi. Quyidagilar *globallashuv serqirraligining muhim xususiyatlari hisoblanadi:*

a) «rezonans effekti»ning paydo bo'lishi, bunda iqtisodiy yuksalishlar yoki tangliklar bir mamlakatdan u bilan uzviy bog'liq bo'lgan boshqa mamlakatlar va mintaqalarga o'tadi;

b) turli tovarlar va xizmatlar jahon bozorlarining yaratilishi;

v) ko'rsatilgan tovarlar va xizmatlarga jahon narxlarining shakllanishi, ular mazkur tovarlar va xizmatlar milliy ishlab chiqaruvchilarining siyosatini ko'p jihatdan belgilashi.

Iqtisodiyotning internatsionallashuvi va pul rolining unifikatsiyalashuvi bilan bir qatorda ommaviy jamiyat va unga mos keluvchi ommaviy madaniyatning shakllanishi serqirra globallashuvning o'ziga xos xususiyatiga va muayyan darajada uning qonuniy mahsuliga aylandi.

Zamonaviy transport va aloqa vositalari sharofati bilan makon va vaqt omillari amalda muhim ahamiyatga ega bo'lmay qolgan globallashuv sharoitida, til turli xalqlarning iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, maishiy va hokazo aloqalari va muloqoti yo'lidagi oxirgi jiddiy to'siq bo'lib qoldi. Umumiy qabul qilingan tilga ob'ektiv ehtiyoj doimo mavjud bo'lgan, lekin jahon savdosi va kapitallarni bir joydan boshqa joyga o'tkazish hajmlari ko'p karra o'sgan, siyosiy munosabatlar global darajagacha kengaygan, xalqaro jamoat tashkilotlari, sport musobaqalari, turistik industriya va shu kabilar paydo bo'lgan serqirra globallashuv davrida u ayniqsa kuchaydi. Bugungi kunda ingliz tili bir qator ob'ektiv sabablarga ko'ra madaniyatlararo muloqot tiliga aylandi.

1991 yilda Internet paydo bo'lganidan so'ng dunyo informatsion jihatdan ham uzil-kesil tutashdi. Kompyuter inqilobi va Internet tarmog'ining rivojlanishi chegaralardan boshqa hamma narsa mavjud bo'lgan Yangi axborot maydonini vujudga keltirdi.

Globallashuvning serqirraligi siyosatning ham sezilarli darajada o'zgarishiga olib keldi. 1990-yillargacha «sovuq urush» holatida bo'lgan ikki harbiy-siyosiy blokning qattiq qarama-qarshiligi bilan tavsiflangan ikki qutblilik xalqaro munosabatlarning asosiy xususiyati sanalgan bo'lsa, sotsialistik tizim parchalanishi bilan vaziyat butunlay o'zgardi.

So'nggi yillarda milliy davlatlar faoliyati bilan bir qatorda xalqaro munosabatlarning Yangi, «noan'anaviy» sub'ektlarining faolligi va ta'siri ham ancha o'sdi. Bu sub'ektlar o'z soni, moliyaviy imkoniyatlari va siyosiy ta'siriga ko'ra ayrim davlatlar bilan bemalol bellasha oladi. Xalqaro munosabatlarning mazkur sub'ektlari orasida eng muhimlari hukumatlararo tashkilotlar, transmilliy korporatsiyalar, xalqaro nohukumat tashkilotlar hisoblanadi. «YAshillar», «muqobillar», antiglobalistlar kabi ijtimoiy harakatlar ham keng dovruq qozondi.

Globallashuvning serqirraligi madaniyat, xalqaro munosabatlar va xalqaro huquq sohasida jiddiy tarkibiy o'zgarishlar yasash bilan bir qatorda axloq, xulq-atvor me'yorlari, qadriyatlarga munosabat va mo'ljallarda ham muhim o'zgarishlarga kuchli ehtiyojni yuzaga keltirdi. *Mutlaqo Yangi hodisa – jahon jamoatchilik fikri yuzaga keldi va sayyoramizda o'zini jahon fuqarosi deb hisoblovchi odamlar soni ko'paydi.*

Jahon hamjamiyati Yangi ming yillik chegarasidan o'tib, o'z tarixiy rivojlanishining butunlay Yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Bu bosqich jahon ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy aloqalarining tarqoqligi va parokandaligidan ularning birligi, yaxlitligi, yagonaligi va globalligiga o'tish bilan tavsiflanadi.

Global muammolar globallashuvning oqibati sifatida. Ko'rib chiqilgan globallashuv jarayonlari odamlarga Yangi g'am-tashvishlar va ijtimoiy hayotning internatsionallashuvidan kelib chiqadigan Yangi (global) muammolar keltirdi. Yuqorida qayd etib o'tilganidek, ular ijtimoiy rivojlanishda, shuningdek «jamiyat-tabiat» tizimida uzoq vaqt mobaynida yuz bergan miqdor va sifat o'zgarishlari mahsuli bo'ldi.

Shuni ta'kidlash lozimki, jahon hamjamiyati nafaqat yanada rang-barang, balki avvalgidan ham ziddiyatliroq shakl-shamoyil kasb etgani bilan tavsiflanadigan hozirgi vaziyat tarixda hech qachon bo'lmagan.

Bir tomondan, u bir-biriga o'xshamaydigan, katta va kichik, rivojlangan va qoloq, tinchliksevar va urushqoq, yosh va qadimgi ko'p sonli madaniyatlar, millatlar va davlatlardan iborat. Boshqa tomondan esa, insoniyat uchinchi ming yillikka yagona organizm sifatida, bir «umumiy uy», aniqroq aytganda, yashash sharoitlari nafaqat tabiiy ko'rsatkichlar, ya'ni yashash uchun yaroqli hudud bilan, balki hayot faoliyati uchun zarur resurslar mavjudligi bilan ham chegaralangan Er deb atalmish katta va odamga to'lib ketgan «kommunal kvartira» aholisi sifatida qadam qo'ydi. Bu to'la anglab yetish jarayoni so'nggi o'n yilliklardagina yuz bergan va endilikda u bilan barcha mamlakatlar va xalqlar hisoblashishga majbur bo'lgan borliqdir.

Ayni vaqtda shuni ta'kidlash lozimki, *global muammolarning paydo bo'lishi qandaydir Yanglishish, kimningdir xatosi yoki ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishning ataylab tanlangan strategiyasi natijasi emas. Bu tarix injiqligi yoki tabiiy anomaliyalar mahsuli ham emas.* Ushbu muammolarning ildizlari ancha chuqur bo'lib, industrial jamiyat, umuman texnokratik yo'naltirilgan madaniyatning keng miqyosdagi inqirozini yuzaga keltirgan hozirgi sivilizatsiyaning vujudga kelish tarixiga borib taqaladi.

Mazkur inqiroz odamlarning bir-biri bilan, jamiyat va tabiat bilan o'zaro aloqalarining butun majmuini qamrab oldi va deyarli butun jahon hamjamiyatiga, rivojlanayotgan mamlakatlarga va rivojlangan mamlakatlarga

o’z ta’sirini ko’rsatdi. Insonning atrof muhitga salbiy ta’siri aynan rivojlangan mamlakatlarda, asosan bu erda jadal sur’atlarda va stixiyali tarzda rivojlangan iqtisodiyot bilan bog’liq sabablarga ko’ra oldinroq va bo’rtibroq namoyon bo’ldi. SHu ma’noda 2008 yilda boshlanib, butun dunyoni larzaga solgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi nafaqat rivojlangan sanoat mamlakatlari, balki rivojlanayotgan, ayniqsa bozor munosabatlari qaror topayotgan davlatlarda ham o’z salbiy oqibatini o’tkazmasdan qolmadi. Ayni paytda global moliyaviy inqiroz jahon moliya bank tizimida jiddiy nuqsonlar mavjudligi va uni tubdan isloh qilishning zarurligini ko’rsatib berdi. Ushbu moliyaviy-iqtisodiy inqirozning har qanday davlatdagi miqyosi, ko’lami va oqibatlari ko’p jihatdan bir qator omillarga, xususan, mamlakat moliya valuta tizimi nechog’lik mustahkam ekanligi, milliy kredit institutlarining qay darajada kapitallashuvi va likvidligi, oltin valuta zahirasining hajmi, xorijiy kreditlarni qaytarish qobiliyati, shuningdek, iqtisodiyotning barqarorlik, diversifikatsiya va raqobatbardoshlik darajasi bilan bog’liq. Darhaqiqat, I.A.Karimov aytganlaridek ”mamlakatimizda jahon iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf yetish bo’yicha 2009-2010 yillarga mo’ljallab qabul qilingan Inqirozga qarshi choralar dasturi O’zbekistonni 2009 yilda ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo’nalishi bo’lib qoladi”[1]. Bu esa respublikamiz moliyaviy-iqtisodiy va bank tizimlarining barqaror va ishonchliligi, ularning himoya mexanizmlarini kuchaytirish uchun, xalqaro moliya inqirozining mamlakat bank tizimiga ta’siri darajasini e’tiborga olgan holda, Markaziy bankning pul-kredit siyosati dastaklari, likvidligini tartibga solish instrumentlarini yanada takomillashtirish, bank xizmatlaridagi innovatsiyalarni hisobga olgan holda banklar faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni yanada takomillashtirishni talab qiladi. Hozirgi kunda bu vazifa bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Ijtimoiy rivojlanishning jadallashuvi. Bunday rivojlanish, avvalo, atrof muhitning tanazzuliga olib keldi va tez orada insonning o’zi ham tanazzulga yuz tutganini namoyon etdi. Zero inson xulq-atvori, tasavvurlari va fikrlash tarzi uning atrofida yuz bera boshlagan o’zgarishlarga muvofiq o’z vaqtida o’zgarishga qodir bo’lmay qoldi. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning jadal sur’atlarda rivojlanishiga esa insonning o’zi va uning fan va texnika sohasidagi Yangi va Yangi yutuqlar bilan ko’p karra kuchaytirilgan izchil o’zgartiruvchi faoliyati sabab bo’ldi.

So’nggi o’n yilliklarning o’zida fan-texnika yutuqlari o’sishi natijasida jamiyat ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishida avvalgi yuz yilliklarga qaraganda ko’proq o’zgarishlar ro’y berdi. Bunda o’zgarishlar jarayoni o’sib boruvchi tezlikda rivojlandi va ijtimoiy-iqtisodiy jabhalarda yanada chuqurroq va jiddiyroq o’zgarishlar yasadi. Masalan, verbal (og’zaki) muloqotdan yozuvning yaratilishiga qadar insoniyat taxminan uch million yilga, yozuvdan kitob bosmasi ixtiro qilingunga qadar taxminan besh ming yilga, kitob bosmasidan telefon, radio, televidenie kabi audiovizual vositalar yaratilgunga qadar taxminan besh yuz yilga teng yo’lni bosib o’tgan bo’lsa, odatdagi audiovizual vositalardan zamonaviy kompyuterlarga o’tish uchun ellik yildan kamroq vaqt talab etildi. Misli ko’rilmagan sur’atlarda-atigi 10-15 yil ichida odamlar Internet va uyali aloqa yordamida muloqot qilish uchun cheksiz imkoniyatlarni qo’lga kiritdilar. Yangi ixtirolar yaratilganidan ular amalga joriy etilgunga qadar o’tadigan vaqt ham yanada qisqardi; ular endi aksariyat hollarda yillar bilan emas, balki oylar va hatto kunlar bilan o’lchanadi. XXI asrning eng so’nggi kashfiyotlaridan biri bo’lmish nanotexnologiyalarning (mitti texnologiyalar)yaratilishi insonning barcha sohadagi imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. (Bu haqda Axborot va axborotlashuvning falsafiy asoslari mavzusida batafsil ma’lumot berilgan).

SHunday qilib, atigi ikki-uch yuz yil muqaddam turli millatlar asosan alohida-alohida yashagan, ularning o’zaro aloqalari yaxshi yo’lga qo’yilmagan bo’lsa, endilikda Erda nafaqat «oq dog’lar», ya’ni inson oyog’i etmagan joylar qolmadi, balki tabiiy holatiga inson bevosita yoki bilvosita ta’sir ko’rsatmagan sof hududlar, suv va fazo bo’shliqlari ham deyarli mavjud emas. Bularning barchasi endi bizning sayyoramizni «umumiy uy», «Koinotdagi orolcha», «qattiq to’lqinlanayotgan okeandagi qayiq», «dunyoviy qishloq» deb, barcha odamlar uchun umumiy tus olgan muammolarni esa - olamshumul, umuminsoniy, global deb nomlash uchun asos bo’lmoqda.

Global tendentsiyalarni anglashning ahamiyati. Jahonda yuz berayotgan o’zgarishlarning ba’zi bir tendentsiyalari olimlar va faylasuflar diqqat markazidan bu o’zgarishlar barchaga ravshan bo’lishidan oldinroq o’rin oldi. Masalan, ijtimoiy rivojlanishga turli sivilizatsiyalarning oldinma-ketin almashishi sifatida qaragan ingliz tarixchisi A.Toynbi (1889-1975) kompyuter inqilobidan ancha oldin «XX asrda umumjahon tarixi boshlandi» degan xulosaga keldi. SHu tariqa tub o’zgarishlar nafaqat jamiyat qurilishi negizlarida, balki dunyo miqyosida yuz berayotgan ijtimoiy jarayonlarning asosiy tendentsiyalarida ham aks etgani ta’kidlandi.

Hozirgi zamon nemis falsafasining atoqli namoyandasi K.YAspers (1883-1969) bu xususda yanada aniqroq fikr bildirdi. U 1948 yilda e’lon qilgan «Tarix kurtaklari va uning maqsadi» asarida, jumladan, shunday deb yozadi: «Ilk bor olamshumul ahamiyat kasb etgan bizning tarixan Yangi sharoitimiz Erda odamlarning real birligidan iboratdir. Zamonaviy aloqa vositalarining texnik imkoniyatlari sharofati bilan sayyoramiz insonga to’la ochiq bo’lgan yagona yaxlitlikka aylandi»[94].

Bu, yuqorida ko’rsatib o’tilganidek, tarixiy o’lchovlarga ko’ra jadal sur’atlarda emas, balki misli ko’rilmagan shitob bilan yuz berdi. Bunda dunyoning yagonaligi tarixiy taraqqiyotni belgilovchi muhim omilga aylandi. Ikkinchi jahon urushi jahon hamjamiyatining parokandaligiga uzil-kesil chek qo’ydi. Urush tugagani zahoti K.YAspers «SHu davrdan e’tiboran yaxlit bir butunning yagona tarixi sifatidagi jahon tarixi boshlanadi, - deb qayd etdi. Endi butun dunyo asosiy muammo va vazifaga aylandi. SHu tariqa tarixning butunlay o’zgarishi yuz beradi. Dunyo

---

[1] Karimov I. Jaҳon moliyaviy-iқtisodiy inқirozi, Ўzbekiston sharoitida uni bartaraf yetishning yўllari va choralari. - T.: 2009. –B.30

[94] Ясперс Смысл и назначение истории – М.: 1991. –с. 141.

mamlakatlari va xalqlari tutashdi. Er kurrasi yaxlit va yagona tus oldi. Yangi xavflar va imkoniyatlar paydo bo'lmoqda. Barcha muhim muammolar dunyo miqyosidagi muammolarga, vaziyat – butun insoniyat vaziyatiga aylandi»[95].

Borliq, ong, hayotning mazmuni azaliy falsafiy muammolariga va falsafada muttasil muhokama qilinadigan boshqa masalalarga **hozirgi davr shu tariqa ilgari hech qachon mavjud bo'lmagan, mutlaqo Yangi mavzu – insoniyatning yagona taqdiri va Yerdagi hayotni saqlash** mavzusini qo'shimcha qildi.

Strategiya – bu Yangilanish jarayonlarining haqiqiy harakatlar dasturidir. Bu hujjat hozirgi vaqtda hayotga izchil joriy etilmoqda. 2017-yil mamlakatimizda Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili, deb e'lon qilindi. Bizning maqsadimiz – yurtimizda xalq hokimiyatini nomiga emas, balki amalda joriy qilish mexanizmlarini mustahkamlashdan iborat. Ishonchimiz komil: xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak.

Mamlakatimizning barcha hududlarida Prezidentning Virtual va Xalq qabulxonalari tashkil etildi. Hozirgi kunga qadar bir milliondan ortiq fuqarolarimiz bu qabulxonalar orqali o'zlarining dolzarb muammolarini hal qildi. Xalqaro mehnat tashkiloti bilan hamkorlikda bolalar mehnati va majburiy mehnatga barham berish bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rildi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari janob Al-Husaynning tashrifi yakunlari bo'yicha inson huquqlarini himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash yuzasidan chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi.

Odamlarning erkin harakat qilishini cheklaydigan xorijga chiqish vizalari singari umrini mutlaqo o'tab bo'lgan o'tmish qoldiqlari bekor qilindi. Inson huquqlarini himoya qilish masalalari bo'yicha milliy va xalqaro nodavlat tashkilotlar bilan ochiq muloqotimiz faollashib bormoqda. Insonparvarlik tamoyillaridan kelib chiqib, shaxsni qamoqda saqlash bilan bog'liq ko'plab holatlar qayta ko'rib chiqildi. Ekstremizm g'oyalari ta'siriga tushib qolgan, to'g'ri yo'ldan adashgan fuqarolar ijtimoiy reabilitatsiya qilinmoqda, ularni sog'lom hayotga qaytarish uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda. Endilikda inson huquq va erkinliklarini himoya qilish sohasidagi barcha huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati parlament va fuqarolar tomonidan doimiy nazorat qilib borilmoqda. Mamlakatimizda siyosiy partiyalar, fuqarolik jamiyatining roli ortib bormoqda, sud organlarining chinakam mustaqilligi ta'minlanmoqda. Ommaviy axborot vositalarining o'rni sezilarli darajada ortib bormoqda. Iqtisodiyot tizimini liberallashtirish, qulay investitsiya muhitini yaratish amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning eng muhim yo'nalishlaridir.
Biz oddiy bir xaqiqatdan kelib chiqmoqdamiz: xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va qudratli bo'ladi.

O'zbekiston shu oyning boshidan milliy valyutani erkin konvertatsiya qilish tizimiga to'liq o'tdi. Bu borada aholi uchun yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarni yumshatish bo'yicha barcha zarur choralar ko'rildi. Mamlakatimizda ilk bor tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha Ombudsman instituti joriy etildi. Biznes sohasidagi soliqlar sezilarli ravishda qisqartirildi, kredit olish imkoniyatlari kengaytirildi. Yangi erkin iqtisodiy zonalar tashkil etildi, ularda investorlarga keng imtiyozlar yaratib berildi.

Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik muvaffaqiyatli rivojlanmoqda, biz Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan sheriklik aloqalarini Yangitdan tikladik.

Harakatlar strategiyasining mazmun-mohiyati Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan to'la hamohang ekanini ta'kidlashni istardim.
Hurmatli majlis ishtirokchilari! Biz qat'iy ishonamiz, Birlashgan Millatlar Tashkiloti bundan keyin ham xalqaro munosabatlarda hal qiluvchi o'rin tutadi. O'zbekiston ushbu tashkilotning bosqichma-bosqich isloh etilishi tarafdoridir. Biz Xavfsizlik Kengashini bugungi kun talablariga mos ravishda kengaytirish zarur, deb hisoblaymiz.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yangi rahbariyati tomonidan tashkilotni boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarni qo'llab-quvvatlaymiz.
Ishontirib aytmoqchiman, O'zbekiston BMTning tuzilmalari bilan hamkorlikni bundan keyin ham izchil davom ettiradi.

Biz janob Bosh kotib Antoniu Guterrishning yaqinda O'zbekistonga tashrifi yakunlari bo'yicha ishlab chiqilgan "yo'l xaritasi"ning amaliy ijrosini ta'minlash bo'yicha qat'iy choralar ko'ramiz.

O'zbekiston bugungi kunda o'zining tashqi siyosatida Markaziy Osiyo mintaqasiga ustuvor ahamiyat qaratmoqda. Bu – har tomonlama chuqur o'ylab tanlangan yo'ldir.

Markaziy Osiyoning qoq markazida joylashgan O'zbekiston ushbu mintaqa barqarorlik, izchil taraqqiyot va yaxshi qo'shnichilik hududiga aylanishidan bevosita manfaatdordir.

Tinch-osoyishta, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan Markaziy Osiyo – biz intiladigan eng muhim maqsad va asosiy vazifadir.

O'zbekiston o'zaro muloqot, amaliy hamkorlik va yaxshi qo'shnichilikni mustahkamlashning qat'iy tarafdoridir.

Biz Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hech istisnosiz barcha masalalar bo'yicha oqilona murosa asosida hamkorlik qilishga tayyormiz.

Birgalikdagi sa'y-harakatlarimiz tufayli keyingi oylarda mintaqamizda siyosiy ishonch darajasi sezilarli darajada oshdi. Ko'plab masalalar bo'yicha prinsipial jihatdan muhim yechimlar topishga erishildi.

---

[95] Там же –с. 142

Sentabr oyining boshida O‘zbekiston – Qirg‘iziston davlat chegaralari to‘g‘risidagi shartnoma imzolanishi tom ma’noda muhim voqea bo‘ldi. Tomonlar o‘z siyosiy irodasini, o‘zaro maqbul qarorlar qabul qilishga tayyor ekanini namoyon etgani tufayli o‘tgan yigirma olti yil davomida birinchi marta ushbu g‘oyat nozik masala bo‘yicha katta natijaga erishildi. Bir so‘z bilan aytganda, o‘tgan qisqa vaqt mobaynida mintaqada mutlaqo Yangi siyosiy muhit yaratishga erishildi.

Bu tendensiyaning mustahkamlanishi Markaziy Osiyo davlatlari Prezidentlari muntazam uchrashuvlar o‘tkazishi uchun imkoniyat yaratgan bo‘lur edi, deb hisoblayman.

Biz noyabr oyida Samarqandda Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida o‘tkaziladigan "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik" mavzusidagi yuqori darajadagi xalqaro anjumanda mintaqadagi fundamental muammolarni muhokama qilishni rejalashtirganmiz.

Ushbu anjuman yakunida biz Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining Markaziy Osiyo davlatlarining xavfsizlikni ta’minlash va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash borasidagi sa’y-harakatlarini qo‘llab-quvvatlashga doir maxsus rezolutsiyasini qabul qilish taklifini kiritishni mo‘ljallaganmiz. Bu taklifni BMT rahbariyati va xalqaro hamjamiyat qo‘llab-quvvatlaydi, deb ishonamiz.

Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash bilan bog‘liq muammolar to‘g‘risida so‘z yuritar ekanmiz, mintaqaning umumiy suv zaxiralaridan oqilona foydalanish kabi muhim masalani chetlab o‘tolmaymiz.

BMT Bosh kotibining "suv, tinchlik va xavfsizlik muammolari o‘zaro chambarchas bog‘liq", degan pozitsiyasini to‘la qo‘llab-quvvatlaymiz.

Ishonchim komil, suv muammosini hal qilishning mintaqa mamlakatlari va xalqlari manfaatlarini teng hisobga olishdan boshqa oqilona yo‘li yo‘q. O‘zbekiston BMTning preventiv diplomatiya bo‘yicha mintaqaviy markazi tomonidan ishlab chiqilgan Amudaryo va Sirdaryo havzalari suv resurslaridan foydalanish to‘g‘risidagi konvensiyalar loyihalarini qo‘llab-quvvatlaydi. Bugungi kunning eng o‘tkir ekologik muammolaridan biri – Orol halokatiga yana bir bor e’tiboringizni qaratmoqchiman. Mana, mening qo‘limda – Orol fojiasi aks ettirilgan xarita. O‘ylaymanki, bunga ortiqcha izohga hojat yo‘q. Dengizning qurishi bilan bog‘liq oqibatlarni bartaraf etish xalqaro miqyosdagi sa’y-harakatlarni faol birlashtirishni taqozo etmoqda.

Biz BMT tomonidan Orol fojiasidan jabr ko‘rgan aholiga amaliy yordam ko‘rsatish bo‘yicha shu yil qabul qilingan maxsus dastur to‘liq amalga oshirilishi tarafdorimiz.

Afg‘onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish nafaqat mintaqaviy, balki global xavfsizlikni ta’minlashning muhim sharti bo‘lib qoladi. Aminmizki, Afg‘onistonda tinchlikka erishishning yagona yo‘li – markaziy hukumat va mamlakat ichidagi asosiy siyosiy kuchlar o‘rtasida oldindan hech qanday shart qo‘ymasdan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot olib borishdir.

Muzokaralar afg‘onistonliklarning o‘zlari hal qiluvchi o‘rin tutadigan holda, Afg‘oniston hududida va BMT shafeligida o‘tishi lozim. Donishmand afg‘on xalqi o‘z taqdirini o‘zi mustaqil hal qilishga haqlidir.

AQSh Prezidenti janob Donald Tramp ma’muriyatining Afg‘oniston bilan qo‘shni mamlakatlarni afg‘on muammosini tinch yo‘l bilan hal qilishga ko‘maklashishga oid da’vatini qo‘llab-quvvatlaymiz. O‘zbekiston Afg‘onistonning iqtisodiy tiklanishiga, uning transport va energetika infratuzilmasini rivojlantirishga, milliy kadrlarini tayyorlashga katta hissa qo‘shmoqda va bundan keyin ham hissa qo‘shadi. Afg‘oniston masalasi global miqyosdagi masalalar markazida bo‘lishi lozim. Xalqaro hamjamiyatning sa’y-harakatlari, birinchi navbatda, Afg‘onistondagi o‘tkir ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishga qaratilishi kerak. Bu jafokash yurtda tinchlik o‘rnatishga ko‘maklashish yo‘lidagi bizning umumiy qat’iy harakatlarimiz aslo susaymasligi lozim.

Dunyoda terrorizm tahdidlari ayniqsa, so‘nggi yillarda kuchayib borayotgani ularga qarshi asosan kucha ishlatish yo‘li bilan kurashish usuli o‘zini oqlamayotganidan dalolat beradi. Bu borada ko‘p hollarda tahdidlarni keltirib chiqarayotgan asosiy sabablar bilan emas, balki ularning oqibatlariga qarshi kurashish bilangina cheklanib qolinmoqda. Xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murosasizlik tashkil etadi, deb hisoblayman. Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma’rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir. Ekstremistik faoliyat va zo‘ravonlik bilan bog‘liq jinoyatlarning aksariyati 30 yoshga yetmagan yoshlar tomonidan sodir etilmoqda. Bugungi dunyo yoshlari – son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda. Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo‘ravonlik g‘oyasi "virusi" tarqalishining oldini olishdir. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz. Shu munosabat bilan O‘zbekiston globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat – BMTning Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqishni taklif etadi.

Bizning nazarimizda, mazkur hujjatni imzolaydigan davlatlar ushbu sohani o‘z ijtimoiy siyosatining asosiy va muhim hayotiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri darajasiga ko‘tarish bo‘yicha qat’iy majburiyatlarni o‘z zimmasiga olishi kerak.

Biz butun jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa, deb hisoblaymiz. Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Biz muqaddas dinimizni zo‘ravonlik va qon to‘kish bilan bir qatorga qo‘yadiganlarni qat’iy qoralaymiz va ular bilan

hech qachon murosa qila olmaymiz. Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da'vat etadi.

Markaziy Osiyo Uyg'onish davrining ko'plab yorqin namoyandalarining islom va jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan bebaho hissasini alohida qayd etmoqchiman. Ana shunday buyuk allomalardan biri Imom Buxoriy o'z ahamiyatiga ko'ra islom dinida Qur'oni karimdan keyingi muqaddas kitob hisoblangan "Sahihi Buxoriy"ning muallifi sifatida butun dunyoda tan olingan.

Bu ulug' zotning g'oyat boy merosini asrab-avaylash va o'rganish, ma'rifatiy islom to'g'risidagi ta'limotini keng yoyish maqsadida biz Samarqand shahrida Imom Buxoriy nomidagi Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qildik. Toshkentda tashkil etilayotgan Islom sivilizatsiyasi markazining faoliyati ham shu maqsadga xizmat qiladi.

Bugungi sessiya ishtirokchilariga BMT Bosh Assambleyasining "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolutsiyasini qabul qilish taklifi bilan murojaat qilmoqchiman.

Bu hujjatning asosiy maqsadi – barchaning ta'lim olish huquqini ta'minlashga, savodsizlik va jaholatga barham berishga ko'maklashishdan iborat. Ushbu rezolutsiya bag'rikenglik va o'zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta'minlash, e'tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslikka ko'maklashishga qaratilgan.

O'zbekiston hech qanday blokka qo'shilmaslik maqomini saqlab qolgan holda, ochiq muloqotga tayyordir. Biz barcha sheriklarimiz bilan tinchlik, taraqqiyot va farovonlik yo'lida hamkorlikni kengaytirishdan manfaatdormiz.

Biz mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi inson, uning ehtiyoj va manfaatlarini ta'minlashdan iborat bo'lgan eng muhim ustuvor vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning hal qiluvchi sharti aynan shunda mujassam, deb bilamiz.[96]

XX asrda fan va texnika sohasidagi aqlni lol qoldiradigan natijalar ta'sirida ilk texnokratik ijtimoiy nazariyalar paydo bo'ldi. SHulardan birining muallifi – amerikalik iqtisodchi va sotsiolog T.Veblen jamiyatning rivojlanishida sanoat ishlab chiqarishi va texnika taraqqiyotining etakchi rolini birinchilardan bo'lib falsafiy jihatdan asoslab berdi. Uning fikricha, hozirgi zamon davlati muhandislar va texniklar tomonidan boshqarilishi lozim, chunki ishlab chiqarishni jamiyat manfaatlarida rivojlantirish (bu g'oya T.Veblen texnokratik nazariyasining mag'zini tashkil etadi) faqat ularning qo'lidan keladi va siyosiy hokimiyat ularga ayni shu maqsadni ro'yobga chiqarish uchun kerak.

SHu davrda Yangi tendentsiyalarga nisbatan boshqacha munosabatni ilgari suruvchi yondashuvlar ham paydo bo'ldi. Xususan, tabiat bilan jamiyatning o'zaro munosabati muammolarini anglab yetishda V.I.Vernadskiyning roli va u noosferani yaxlit umumbashariy hodisa sifatida tushunishi mhim ahamiyatga ega bo'ldi.. SHunga o'xshash fikrlarni taniqli frantsuz faylasufi, teolog P.Teyyar de SHarden ham ilgari suradi. Biosferaning tarkibiy qismi sifatida insonning betakrorligini asoslashga harakat qilar ekan, u insonning tabiat bilan munosabatlarini uyg'unlashtirish kontseptsiyasini rivojlantirdi va butun insoniyatning birlashishi yo'lida egoistik niyatlardan voz kyechishga chaqirdi[97].

SHunday qilib, faylasuflar va olimlar XX asrning birinchi yarmidayoq nafaqat Yangi davr – umumbashariy hodisalar davri boshlanayotganini, balki bu Yangi sharoitlarda odamlar tabiiy va ijtimoiy stixiyaga faqat bahamjihat qarshilik ko'rsata olishi mumkinligini ham anglab etdilar.

Texnooptimizm. Ammo qayd etilgan qarashlar 60-yillarning boshlariga kelib texnokratik kayfiyatlarning Yangi to'lqini bilan chetga surib qo'yildi va qariyb ikki o'n yillik mobaynida ommaviy ongga o'z ta'sirini yo'qotdi. Bunga urushdan keyingi davrda jahonning deyarli barcha iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarini qamrab olgan sanoat yuksalishi sabab bo'ldi. 50-60-yillarda ijtimoiy taraqqiyot istiqbollari G'arbda ham, SHarqda ham aksariyat mamlakatlar uchun porloq bo'lib tuyular edi.. *Ijtimoiy ongda har qanday dunyoviy va hatto koinot muammolarini fan va texnika yordamida hal qilish mumkin degan illyuziyani yaratgan texnooptimistik kayfiyatlar kuchaydi* Bunday qarashlar «iste'mol jamiyati»ni ijtimoiy rivojlanish maqsadi deb e'lon qilgan ko'p sonli nazariyalarda o'z aksini topdi. Ayni shu davrda «industrial», «postindustrial», «texnotron», «informatsion» jamiyatlarning turli kontseptsiyalarini yaratish ustida faol ish olib borildi.

1957 yilda taniqli iqtisodchi va sotsiolog J.Gelbreyt «Serobgarchilik jamiyati» kitobini e'lon qildi va uning asosiy g'oyalarini keyinchalik o'zining «Yangi industrial jamiyat» deb nomlangan boshqa asarida rivojlantirdi. Uning asarlarida inson fan va texnika sohasida erishayotgan yutuqlarga yuksak va faqat ijobiy baho beriladi, mazkur yutuqlar ta'sirida jamiyat iqtisodiy va ijtimoiy tuzilmalarida chuqur o'zgarishlar yuz berayotganiga e'tibor qaratiladi.

Taniqli frantsuz faylasufi R.Aron asarlarida, shuningdek, uning 1956-1959 yillarda Sorbonna universitetida o'qilgan ma'ruzalarida, amerikalik siyosatshunos U.Rostouning 1960 yilda chop etilgan va o'z davrida shov-shuvga sabab bo'lgan «Iqtisodiy o'sish bosqichlari. Nokommunistik manifest» kitobida «industrial jamiyat» nazariyasi yanada to'laroq asoslab berildi.

Bu olimlar fikriga ko'ra, fan-texnika inqilobi ta'sirida «odatdagi» agrar jamiyat o'rnini sanoat jihatidan taraqqiy etgan «industrial» jamiyat egallaydi va bu erda bozor sharoitida ommaviy ishlab chiqarish birinchi o'ringa

---

[96] SH.Mirziyoyev BMTning 72 sessiyasidagi nutqidan

[97] Қаранг P.T.. de SHarden. Феномен человека – M.: 1987. – c.194

chiqadi. Sanoatning rivojlanish va texnika yutuqlaridan foydalanish darajasi bunday jamiyat progressivligining bosh mezonlariga aylanadi.

Jamiyat hayotining barcha sohalariga kompyuterlarning keng joriy etilishi Yangi nazariyalar, chunonchi: «postindustrial», «informatsion» (D.Bell, G.Kan, J.Furaste, A.Turen), «texnotron» (Z.Bjezinskiy, J.J.Servan-SHrayber), «o'ta industrial», «kompyuter» (A.Toffler) jamiyati nazariyalari yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Ularda ijtimoiy taraqqiyotning asosiy mezoni sifatida texnika yutuqlari, aniqrog'i faqatgina ular emas, balki fan va ta'limning rivojlanishi amal qiladi. Kompyuter texnikasi negizida yaratilgan Yangi texnologiyalarning amalga joriy etilishi taraqqiyotning muhim mezoni hisoblanadi.

Amerikalik taniqli faylasuf va sotsiolog D.Bell bo'lg'usi ijtimoiy qurilish shakl-shamoyillarini belgilar ekan, hali Internet paydo bo'lishidan ancha oldin shunday degan edi: «SHunga ishonchim komilki, axborot va nazariy bilim postindustrial jamiyatning strategik resurslaridir. Bundan tashqari, o'zining Yangi rolida ular hozirgi tarixning tub burilish nuqtalaridir»[98].

D.Bell *birinchi burilish nuqtasi sifatida hozirgi jamiyatda «umumiy bilim» sifatida asosiy ishlab chiqaruvchi kuchga aylangan fan xususiyatining o'zgarishini qayd etadi. Ikkinchi burilish nuqtasi Yangi texnologiyalar paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lib, ular, sanoat inqilobi davri texnologiyalaridan farqli o'laroq, o'ta moslashuvchan va osongina qayta ixtisoslashtirilishi mumkin.* U «Hozirgi texnologiya betakror va ayni vaqtda rang-barang natijalarga erishish uchun ko'p sonli muqobil yo'llar ochadi, bunda moddiy ne'matlar ishlab chiqarish mislsiz darajada o'sadi. Bular – imkoniyatlar, hamma gap ularni ro'yobga chiqarishda»[99], deb qayd etgan edi.

Texnopessimizm *fan texnika yutuqlari insoniyatni boshi berk ko'chaga olib kiradi va pirovardda u halok bo'ladi deb hisoblaydi*. Ko'rib chiqilayotgan nazariyalarning ayrim tarafdorlari fan-texnika inqilobining salbiy oqibatlariga, xususan atrof muhitning ifloslanishi muammolariga ma'lum darajada e'tibor bergan bo'lsalar-da, lekin, umuman olganda, ularning hech biri bundan 1980-yillarning o'rtalarigacha jiddiy tashvishga tushmadi. CHunki, fan-texnika taraqqiyoti hamma narsaga qodir ekanligiga ishonch haddan tashqari katta edi.

Ayni zamonda 1960-yillarning oxirlaridan ekologik qiyinchiliklardan tashqari aksariyat davlatlar va hatto qit'alarga tahdid solgan boshqa muammolar: aholining nazoratsiz o'sishi, turli mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasining notekisligi, xom ashyo resurslari va oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash va boshqalar tobora bo'rtibroq namoyon bo'la boshladi. Tez orada ular fan va falsafa diqqat markazidan o'rin olib, qizg'in bahs va munozaralar predmetiga aylandi.

Ko'rsatilgan muammolarni falsafiy tahlil qilish borasidagi dastlabki urinishlarning o'ziyoq texnokratik tendentsiyalarga zid bo'lgan, keyinchalik «**texnologik pessimizm**» deb nomlangan qarashlarni namoyon etdi. *«ekopessimizm», asosiy e'tibor inson faoliyatining salbiy oqibatlari va atrof muhit muammolariga qaratilgan, ularni yechish imkoniyatlari salbiy tusda ko'rilgan holdir.*

Ko'pgina taniqli olimlar va faylasuflar, xususan G.Markuze, T.Rozzak, P.Gudmen va boshqalar o'z o'tmishdoshlarini shafqatsiz stsientizmda[100], insonni fan va texnika quliga aylantirishga urinishda ayblab, fan-texnika taraqqiyotiga qarshi chiqdilar. Fan-texnika taraqqiyotiga va umuman ijtimoiy taraqqiyotga qarshi norozilikning Yangi to'lqini yuzaga kela boshladi. Bu to'lqin ta'sirida paydo bo'lgan g'oyalar «aksiliste'mol» jamiyatini asoslashga harakat qilar va «o'rtacha odam»ni ozginaga qanoat qilish lozimligiga ishontirishga qaratilgan edi. Global muammolar paydo bo'lishining aybdorini topishga urinish jarayonida asosiy ayb «zamonaviy texnologiya»ga qo'yildi. Nafaqat fan yutuqlari, balki taraqqiyot g'oyasi ham shubha ostiga olindi. O'z davrida J.J.Russo ilgari surgan «tabiat bag'riga qaytish»ga chorlovlar paydo bo'ldi, iqtisodiy rivojlanishni erishilgan darajada «to'xtatish» taklif qilindi.

Rim klubi. Yuqorida qayd etilgan qarashlardagi tub burilish asosan Rim klubi faoliyati ta'sirida yuz berdi. 1968 yil Rimda o'zining birinchi majlisiga yig'ilgan olimlar, faylasuflar va jamoat arboblarining bu nufuzli xalqaro tashkiloti hozirgi davrning eng muhim umuminsoniy muammolari bo'yicha ma'ruzalar tayyorlash va e'lon qilishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ydi. Bu tashkilotning 1972 yilda e'lon qilingan «O'sish chegaralari» deb nomlangan birinchi ma'ruzasiyoq juda katta shov-shuvga sabab bo'ldi, chunki insoniyat o'zi anglamagan holda «poroxli bochka ustida o'tirib, gugurt o'ynayotgani»ni ko'rsatib berdi. Rim klubining asoschisi va birinchi prezidenti Aurelli Pechchei mazkur tadqiqotga yozgan so'zboshisida shunday deb qayd etgan edi: «Endilikda ona-Erimiz har qanday o'sish sur'atlariga dosh berishga, insonning har qanday erkaliklarini ko'tarishga qodir ekanligiga sog'lom fikrlaydigan odamlarning birortasi ham ishonmaydi. O'sish chegaralari borligi ravshan, lekin ularning qandayligi va qaerdaligini hali aniqlash lozim»[101].

Mazkur ma'ruza mualliflari shunday aniqlash bilan shug'ullandilar. Olingan natijalarning muxtasar mazmuni shundan iborat ediki, sayyoramiz hajmining chegaralari muqarrar tarzda inson imkoniyatining chegaralarini ham nazarda tutadi; moddiy o'sish cheksiz darajada davom yetishi mumkin emas; ijtimoiy rivojlanishning haqiqiy chegaralari moddiy omillar bilan emas, balki ekologik, biologik va hatto madaniy omillar bilan belgilanadi. Ular jahon rivojlanishi asosiy tendentsiyalarining kompyuter modelini tuzib, mazkur tendentsiyalar saqlangan holda

---

[98] Bell Сотсиалние рамки инфармационного обўества / Новая технократическая волна на западе – М., 1986. – с.342

[99] Там же – с.342

[100] Stsientizm (ingl. *science* – fan) – fanning jamiyat ҳayotidagi rolini mutlaқlashtiruvchi kontseptsiya

[101] Pechchei A. CHelovecheskie kachestva. – M.: 1980. – S.123, 124.

uchinchi ming yillik boshidayoq insoniyat voqealar ustidan nazoratni butunlay yo'qotishi va natijada halokatga yuz tutishi mumkin, degan to'xtamga keldilar. Bundan ishlab chiqarishning o'sishini to'xtatish, tobora ko'payib borayotgan aholi sonini esa tegishli ijtimoiy siyosat yordamida barqarorlashtirish lozim, degan xulosaga kelindi.

Ma'ruza jahonning ko'plab tillariga o'girildi va dunyo bo'ylab keng tarqaldi, ishlab chiqarishning o'sishini to'xtatish g'oyasi tarafdorlari va muxoliflari o'rtasida qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'ldi. So'ngra navbatdagi ma'ruzalar majmui (bugungi kunda ular yigirmatadan oshib ketdi) paydo bo'ldi. Bu ma'ruzalar umuminsoniy muammolarning ko'pgina jihatlarini yoritib berdi va ularga nafaqat olimlar va faylasuflar, balki siyosatchilar, jamoat arboblari, umuman jahon hamjamiyati e'tiborini qaratdi.

Global muammolarni yechishda falsafaning roli. Og'ir va murakkab vazifalarni yechishda insonga fan doim yordam bergan. Bir paytlar erishib bo'lmaydigan, inson imkoniyatlari darajasidan tashqarida bo'lib tuyulgan narsalarning aksariyatiga aynan fan yordamida erishilgan. Ayni shu sababli global muammolar xavf solayotgani haqidagi ilk ogohlantirishlarning o'ziyoq odamlarni fanga o'z e'tiborini qaratishga, olimlarni esa bu muammolarni yechish yo'llarini izlashga majbur qildi.

Yuzaga kelgan vaziyatning o'ziga xosligi va Yangiligi shundan iboratki, har qanday muayyan muammolarni ayrim fan yoki bir necha fanlar majmui doirasida o'rganish mumkin bo'lsa, inson, jamiyat va tabiatni ularning ko'p sonli o'zaro aloqalari va o'zaro bog'liqliklarida qamrab oluvchi murakkab tizimdan iborat global muammolarni tadqiq yetishga ayrim fanlar qodir emas. Zero o'z tadqiqoti ob'ekti – u yoki bu ayrim muammoni boshqa global muammolar kontekstida talqin qilishga muayyan fanlar doirasi torlik qiladi. SHu sababli u yoki bu fan qaysi muayyan vazifalarni yechishidan qat'iy nazar, ular bilan bog'liq jarayonlar va hodisalarga, ya'ni butun vaziyatga, shu jumladan oxir-oqibatda olingan natijalarga nisbatan falsafiy yondashuv doimo tadqiqotning zaruriy sharti hisoblanadi.

Har qanday ayrim fanlar muayyan bosqichda o'z tadqiqot predmetini falsafiy jihatdan anglab yetishga u yoki bu darajada muhtoj bo'ladi. Muayyan fan predmetiga va insoniyat oldida turgan muammolarga nisbatan bunday keng yondashuvsiz fundamental kashfiyotlar qilish ham, umuman fanning rivojlanishi ham mumkin emas.

SHunday qilib, ayni holda, bir tomondan, masalalarning falsafiy echimi to'g'risida, boshqa tomondan esa – falsafa fanlarning keng doirasi o'zaro aloqa qilishini rag'batlantirishi, bunda ularning fanlararo birlashuvi muhim o'rin tutishi to'g'risida so'z yuritiladi.

Garchi falsafa odamlarning kundalik hayoti va amaliyotidan ancha uzoqda bo'lgan haddan tashqari umumiy masalalarni o'rganadi, degan fikr mavjud bo'lsa-da, u (falsafa) global muammolarni yechishda muhim rol o'ynaydi. Zero, umumiy nazariyalar ba'zan bilimning aksariyat muayyan sohalariga qaraganda ko'proq samara berishi mumkinligi yaxshi ma'lum.

Albatta, falsafa siyosiy va boshqa qarorlar qabul qilish jarayoniga muqarrar tarzda va bevosita ta'sir ko'rsatadi, deb aytish uncha o'rinli bo'lmaydi. Zero, uning bosh vazifasi dunyoqarashni shakllantirish va shu tariqa amaliy qarorlar ishlab chiqish jarayoniga bilvosita ta'sir ko'rsatishdan iborat. Uning vazifasi global muammolarning tabiiy-ilmiy va texnikaviy jihatlarini bevosita o'rganishdan emas, balki boshqa fanlar taklif qiladigan tegishli echimlarning falsafiy, metodologik, madaniy va axloqiy negizini ta'minlashdan iborat.

Falsafiy tadqiqot muayyan fanlarning mazkur sohadagi yutuqlariga tayanib, masalaning ayrim jihatlarini mavhumlashtiradi va global muammolarni ular bir-birini qay darajada taqozo yetishi nuqtayi nazaridan o'rganadi. Boshqacha aytganda, falsafiy yondashuv global muammolarni ularning ijtimoiy ahamiyati va ijtimoiy belgilanganligi nuqtayi nazaridan yaxlit o'rganishni nazarda tutadi. Bunday tadqiqot avvalo global muammolarning mohiyatini aniqlashni nazarda tutadi, chunki ularning asl tabiati va genezisini aniqlash bu muammolarning ilmiy va amaliy echimini topish yo'llarini ko'p jihatdan belgilab beradi.

Global muammolarni falsafiy anglab yetishning o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflar ekanmiz, falsafaning asosiy funksiyalaridan kelib chiqadigan va bilishning shu shakligagina xos bo'lgan xususiyatlarni qayd etib o'tamiz.

Birinchidan, falsafa, dunyoqarashni shakllantirar ekan, inson faoliyati yo'nalishini ko'p jihatdan belgilaydigan muayyan mo'ljallar beradi. SHu tariqa falsafa o'zining dunyoqarashni shakllantirish va aksiologik funksiyalarini bajaradi.

Ikkinchidan, turli fanlar doirasida o'rganiladigan murakkab tizimlar haqida yaxlit tasavvur mavjud emasligi bu fanlarning o'zaro hamkorligi yo'lida jiddiy to'siq hisoblanadi. SHu ma'noda falsafaning mazkur fan doirasida yuzaga keladigan nazariyalarni umumlashtiruvchi metodologik funksiyasi ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ilmiy bilimning integratsiyalashuviga ko'maklashadi.

Uchinchidan, falsafa ijtimoiy hodisalar va jarayonlarni tarixiy kontekstda tushuntirish imkonini beradi. U jamiyat va tabiat rivojlanishining umumiy qonunlarini ta'riflaydi va shu sababli global muammolarni o'rganishda ularni ijtimoiy taraqqiyot bilan uzviy bog'liq bo'lgan qonuniy hodisa sifatida tushunishga yo'l ko'rsatadi. SHunday qilib, global muammolarning paydo bo'lishi tasodif yoki insoniyatni halokatga oldindan mahkum etuvchi taqdirning hukmi sifatida emas, balki qarama-qarshiliklarga to'la insoniyat tarixi ob'ektiv rivojlanish jarayonining mahsuli sifatida qaraladi.

To'rtinchidan, falsafa global muammolar rivojlanishining umumiy tendentsiyasini, ularning o'zaro aloqasi va bir-birini taqozo yetish darajasini falsafiy nuqtayi nazardan anglab yetish imkonini beradi.

Beshinchidan, falsafa nazariy fikrlash madaniyatini rivojlantirish uchun imkoniyat yaratish orqali ma'naviy - madaniy funksiyani bajaradi. Turli xalqlarning falsafa tarixini o'rganish, ularning madaniyati bilan ham tanishish imkonini beradi. Muayyan xalqlar oldida turgan muammolarning birortasini ham ularning madaniyatiga bog'lamasdan yechish mumkin emas.

Oltinchidan, global muammolarga oid ilmiy axborotning shiddat bilan o'sib borayotgan oqimida yanada aniqroq mo'ljal olish imkoniyati tabiiy-tarixiy jarayonni yaxlit ko'rish va uni talqin qilishga nisbatan dialektik yondashuv mahsuli hisoblanadi.

Yettinchidan, falsafa inson hayotining mazmuni, o'lim va umrboqiylik masalalarini kun tartibiga qo'yadiki, bu insoniyatga global muammolar tahdid solayotgan sharoitda ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

Nihoyat, falsafaning yana bir muhim metodologik funksiyasi shundan iboratki, u insoniyatning hozirgi muhim muammolari bilan bevosita bog'liq bo'lgan va bashariyat rivojlanishining ob'ektiv tendentsiyalarini tushunish va anglab yetishda ulkan rol o'ynaydigan «tabiat», «jamiyat», «sivilizatsiya», «ijtimoiy taraqqiyot», «fan-texnika inqilobi» kabi boshqa kategoriyalarni ishlab chiqadi.

Hozirgi davrning global muammolarini o'rganishga nisbatan falsafiy yondashuv haqida muayyan tasavvur hosil qilgach, endi globallashuv jarayonlari kuchayishiga qarab ahamiyati oshib borayotgan muammolarning o'zini shu nuqtayi nazardan ko'rib chiqamiz.

Global muammolarning mohiyati. *«Hozirgi davrning global muammolari» tushunchasi 1960-yillar oxiri – 1970-yillarning boshlarida keng tarqaldi va shundan beri ilmiy va siyosiy muomala(leksikon) hamda ommaviy ongdan mustahkam o'rin oldi.* Aksariyat hollarda u global sanalmagan voqealar va hodisalarga nisbatan qo'llaniladigan atama sifatida ishlatiladi. Bunday holga milliy va umumbashariy ahamiyatga molik voqealar tenglashtirilganida, masalan, muayyan bir mamlakatning ijtimoiy muammolarini nazarda tutib, ular «global» deb nomlangan holda duch kelish mumkin.

Falsafada bu vazifani yechish uchun tegishli mezonlar belgilangan bo'lib, ularga muvofiq u yoki bu muammo global deb belgilanadi va shu tariqa bunday xususiyatga ega bo'lmagan boshqa ko'p sonli muammolardan farqlanadi.

Etimologik jihatdan «global» atamasi, «globallashuv» atamasi kabi, er kurrasi bilan bog'liq. Ayni shu sababli *butun insoniyat manfaatlariga daxldor muammolarni ham, dunyoning turli nuqtalaridagi har bir ayrim insonga tegishli bo'lgan, ya'ni umuminsoniy xususiyat kasb etadigan muammolarni ham «global» deb nomlash odat tusini olgan*. Ular jahon iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining muhim ob'ektiv omili sifatida ayrim mamlakatlar va mintaqalarning rivojlanishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Ularni yechish aksariyat davlatlar va tashkilotlarning kuch-g'ayratini xalqaro darajada birlashtirishni nazarda tutadi. Ayni vaqtda global muammolarning echilmay qolishi butun insoniyat kelajagi uchun halokatli oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Muammolarning turli darajalari. Global muammolar butun dunyogagina tegishli bo'lmay, uning mintaqalari va hatto ayrim mamlakatlar darajasida namoyon bo'lgani bois, ilmiy adabiyotlarda ularning umuminsoniy ahamiyatini tan olish bilan bir qatorda, ularni mohiyati o'zgacha, ta'sir doirasi esa torroq bo'lgan ayrim, mahalliy, mintaqaviy muammolardan farqlash ham amalga oshiriladi. Turli darajadagi muammolarni «umumiylik», «xususiylik» va «yakkalik» falsafiy kategoriyalarining muayyan ifodasi sifatida o'rganar ekanlar, ularni odatda shunday talqin qiladilarki, xususiy muammolar ayrim muammolar sifatida, mahalliy va mintaqaviy muammolar – xususiy muammolar sifatida, global muammolar esa – umumiy muammolar sifatida amal qiladi. Zikr etilgan muammolarni farqlash zamirida yotuvchi asosiy mezon ham ayni shu yondashuvni belgilaydi. U geografik deb ataladi, chunki makon omilini yoki, boshqacha aytganda, muayyan muammolar mavjud hududni aks ettiradi.

Xususiy muammolar *davlat faoliyatining muayyan jabhasiga, ayrim aholi yashaydigan punktlarga yoki kichik tabiiy ob'ektlarga tegishli bo'lgan muammolardir.* Bular, odatda, turli avariyalar, nosozliklar natijasida yuzaga keladigan har xil muammolar, mahalliy ijtimoiy konfliktlar va sh.k.

Mahalliy muammolar *tushunchasi yuqoriroq darajadagi muammolarga, aniqroq aytganda, ayrim mamlakatlarga yoki yirik mamlakatlarning ancha katta hududlariga tegishli bo'lgan muammolarga nisbatan tatbiq etiladi.* Bu erda odatda kuchli zilzilalar, yirik suv toshqinlari yoki, masalan, kichik davlatdagi fuqarolar urushi nazarda tutiladi.

Milliy muammolar *tushunchasi ijtimoiy-siyosiy va ilmiy muomalada ba'zan muayyan davlat yoki milliy hamjamiyatning ma'lum qiyinchiliklari, g'am-tashvishlarini aks ettiradi. Miqyos darajasiga qarab ular mintaqaviy yoki mahalliy muammolar sifatida talqin qilinishi mumkin.*

Mintaqaviy muammolar *ayrim qit'alar, dunyoning yirik ijtimoiy-iqtisodiy hududlari yoki ancha yirik davlatlarda yuzaga keladigan muhim masalalar doirasini qamrab oladi*. Bunday muammolarga SHarqiy Yevropaning bir necha mamlakatlari hududi radioaktiv zaharlanishiga olib kelgan CHernobil fojiasi yoki bir qator davlatlarni qamrab oluvchi ancha katta hududlarda yuz bergan iqlim o'zgarishlari misol bo'lishi mumkin. Masalan, 1968 yilda Saxel mintaqasida yuz bergan qurg'oqchilik «asr falokati» degan nom oldi. U Afrika qit'asining 18 davlatini qamrab oldi, bunda ocharchilik natijasida 250 mingdan ko'proq odam halok bo'ldi, taxminan 18 million bosh qoramol nobud bo'ldi, xavfli kasalliklarning epidemiyalari yuzaga keldi, bu ulkan mintaqa hududi esa deyarli to'la sahroga aylandi.

Global muammolar *butun er kurrasini, uning nafaqat odamlar bevosita yashaydigan qismini, balki Erning qolgan yuzasi, er osti bo'shliqlari, atmosfera, gidrosfera va hatto inson faoliyati doirasiga kiruvchi kosmik fazoni qamrab olishi bilan izohlanadi.*

SHunday qilib, global muammolar to'g'risida so'z yuritilganda butun sayyora nazarda tutiladi, uning eng yirik tarkibiy birligi sifatida esa mintaqa qabul qilinadi. Bunda mintaqalar soni va ularning miqyosi ko'rib chiqilayotgan muammolar xususiyati bilan belgilanadi. Masalan, dunyo miqyosidagi iqtisodiy qoloqlik muammosini tadqiq yetishda odatda butun sayyorani ikki mintaqa – rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarga ajratish bilan

kifoyalaniladi. Demografik, energetik muammolar yoki xom ashyo muammolarini o'rganishda esa, mintaqalar soni ko'payadi va har safar tadqiqotning muayyan maqsadlari bilan belgilanadi.

Bunda shuni qayd yetish lozimki, har qanday muammo sayyoraning istalgan mintaqasiga nisbatan muhim sanalgan, ya'ni ularning har birida namoyon bo'lgan holdagina global deb hisoblanishi mumkin. Aks holda bir yoki bir necha mintaqalarning muammolari (yoki bundan ham kichikroq miqyosdagi muammolar) to'g'risida so'z yuritiladi.

Bundan barcha global muammolar ayni vaqtda mintaqaviy ahamiyat ham kasb etadi, lekin mintaqaviy darajada aniqlangan barcha muammolar ham global bo'lavermaydi, degan xulosa kelib chiqadi. O'z-o'zidan ravshanki, global muammolar soni kamroq bo'ladi. Boshqa darajalarga kelsak, global muammolar bevosita mahalliy yoki xususiy ko'rinishga ega bo'lmasligi yoki bu erda uncha sezilmasligi mumkin.

Masalan, Antarktidada yoki sayyoramizning atrof muhit ifloslanadigan asosiy markazlari va manbalaridan ancha uzoqda joylashgan boshqa burchaklarida havo yoki suv havzalarining holati qoniqarli bo'lishi, tabiiy muhitga antropogen ta'sir esa deyarli sezilmasligi mumkin. SHunga qaramay bu keskinlik darajasi tabiiy muhitga antropogen ta'sirning notekisligiga bog'liq bo'ladigan ekologik muammoning global xususiyatiga shak-shubha tug'dirmaydi. O'z navbatida, barcha mahalliy yoki xususiy muammolar global muammolar bilan bog'lanavermaydi, zero ularning soni taqqoslab bo'lmaydigan darajada ko'proqdir.

Keltirilgan mulohaza global va mintaqaviy muammolarni nafaqat ilmiy balki, amaliy jihatdan ham farqlash imkonini beradi, chunki barcha global muammolar o'z miqyosida o'zgarmaydigan yagona tizim – butun sayyoraga tegishlidir. SHu sababli mazkur tizim uchun ularning soni ma'lum tarixiy bosqichda muayyan hisoblanadi. Ayni vaqtda boshqa darajadagi muammolar sonining aniq hisobini yuritish mumkin emas, zero mintaqalarning va turli hududlarning chegaralari tadqiqotning maqsad va vazifalariga qarab shartli olinadi.

Globallik mezonlari. Fan va falsafada global muammolarni yanada aniqroq tavsiflash uchun yuqorida zikr etilgan «geografik» mezondan tashqari bu muammolarni boshqa tomondan – ularning sifati, va muhim xususiyatlari nuqtayi nazaridan tavsiflovchi qo'shimcha mezonlar qo'llaniladi.

Birinchidan, *global muammolar o'z mohiyatiga ko'ra nafaqat ayrim kishilarning manfaatlariga, balki butun insoniyat taqdiriga daxldordir*.

Ikkinchidan, *ularni bartaraf yetish uchun butun sayyora aholisi hech bo'lmasa aksariyat qismining kuch-g'ayratini birlashtirish va ular bahamjihat, izchil ish ko'rishi talab etiladi.*

Uchinchidan, *bu muammolar dunyo rivojlanishining ob'ektiv omili hisoblanadi va biron-bir mamlakat ularni e'tiborga olmasligi mumkin emas*.

To'rtinchidan, *global muammolarning echilmagani kelajakda butun insoniyat va uning yashash muhiti uchun jiddiy, balki tuzatib bo'lmaydigan oqibatlarga olib kelishi mumkin.*

Qayd etilgan mezonlardan tashqari ba'zan global muammolarning boshqa bir qator xususiyatlari ham ko'rsatiladi. Xususiy, mahalliy va mintaqaviy muammolardan farqli o'laroq, global muammolar nisbatan turg'unroqdir. Ular globallikning yuqorida sanab o'tilgan barcha mezonlariga mos kelishdan oldin zimdan va uzoq shakllanadi, echilishiga qarab esa (nazariy jihatdan) quyiroq darajaga tushib, dunyo miqyosida o'z ahamiyatini yo'qotishi mumkin. Ammo tendentsiyalarni teskari yo'nalishda o'zgartirish kamida butun jahon hamjamiyatining izchil harakatlarini talab etuvchi o'ta og'ir ish bo'lib, hali bunga erishilganicha yo'q. Global muammolar mavjudligining nisbatan qisqa tarixiga nafaqat ularning quyiroq darajaga tushishi, balki susayish hollari ham ma'lum emasligining sababi ana shundadir.

Global muammolarning boshqa bir muhim xususiyati – ularning barchasi bir-biriga shu darajada bog'liqki, ulardan birini yechish hech bo'lmasa unga boshqa muammolarning ta'sirini hisobga olishni nazarda tutadi.

Global muammolarning tasnifi. Global muammolarning keltirilgan mezonlari va o'ziga xos xususiyatlari asosan mazkur sohadagi aksariyat tadqiqotchilarning qarashlarini aks ettiradi va global muammolarni boshqa barcha muammolardan farqlab, aniq aytish imkonini beradi. Bunda u yoki bu muammoning keskinlik va muhimlik darajasini belgilash, uning boshqa muammolar bilan o'zaro nisbatini aniqlash uchun odatda turli tasniflashlar amalga oshiriladi, ular alohida guruhlarga ajratiladi.

Tasniflash birdan-bir maqsad hisoblanmaydi, balki hozirgi davrning o'ta keskin ziddiyatlarini kompleks o'rganishning muhim elementi sifatida amal qiladi va mazkur muammolarni ularning o'zaro aloqasi va bir-birini taqozo yetishi nuqtayi nazaridan o'rganish imkonini beradi. U muhim aloqalarni farqlash, ustuvorliklarni va ob'ektiv mavjud global muammolarning keskinlashuv darajasini aniqlash imkonini beradi. Bundan tashqari, tasniflash global muammolarning tizimli o'zaro aloqasini yanada teranroq tushunishga ko'maklashadi va amaliy qarorlar qabul qilish ketma-ketligini belgilashga yordam beradi.

Izchil va aniq amalga oshirilgan tasniflash bilishning mazkur sohasidagi avvalgi tadqiqotlarni ma'lum darajada sarhisob qiladi va ayni vaqtda bunday tadqiqotlarning rivojlanishida Yangi bosqich boshlanganini qayd etadi.

Hozirgi zamonda global muammolarni tasniflashga nisbatan har xil yondashuvlar orasida ayniqsa keng e'tirof etilgan tasnifga muvofiq global muammolarning barchasi ularning keskinlik darajasi va echimining ahamiyatiga, shuningdek real hayotda ularning o'rtasida qanday sababiy bog'lanishlar mavjudligiga qarab uch katta guruhga ajratiladi.

Birinchi guruh eng katta umumiylik va muhimlik darajasi bilan tavsiflanadigan muammolar. Ular turli davlatlar o'rtasidagi munosabatlardan kelib chiqadi. Ayni shu sababli ular *interijtimoiy global muammolar deb*

ataladi. Bu erda jamiyat hayotidan urushni bartaraf yetish va adolatli dunyoni ta'minlash; Yangi xalqaro iqtisodiy tartib o'rnatish kabi ikki o'ta muhim muammo farqlanadi:

Ikkinchi guruh jamiyat va tabiatning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladigan muammolar bo'lib, ular odamlarni energiya, yonilg'i, chuchuk suv, xom ashyo resurslari va shu kabilar bilan ta'minlash kabilardir. Bu guruhga ekologik muammolar, shuningdek Jahon okeani va kosmik fazoni o'zlashtirish ham kiradi.

Uchinchi guruhni «inson – jamiyat» tizimi bilan bog'liq muammolar ya'ni demografiya muammosi, sog'liqni saqlash, ta'lim, xalqaro terrorizm tahdidi ma'naviyat masalalari va shu kabilardir.

U yoki bu muammoning muayyan guruhga kiritilishi ma'lum darajada shartli xususiyat kasb etadi va muhim omillarga, ularni ajratish asoslariga bog'liq bo'ladi. SHu sababli har qanday tasnif masala echimining uzil-kesil varianti sifatida emas, balki murakkab tizimni qayta tuzishning global muammolar o'zaro aloqasi tabiatini yaxshiroq tushunishga ko'maklashadigan usullaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Endi butun insoniyatga jiddiy xavf tug'dirayotgan eng muhim muammolarga qisqacha tavsif beramiz.

Asosiy global muammolar tizimi. Hozirgi davrning global muammolari o'z holatini zamonda tinimsiz o'zgartiradigan yagona, faol va ochiq tizim hisoblanadi, chunki unga umuminsoniy ahamiyatga molik bo'lgan Yangi muammolar kirishi, avvalgi muammolar esa, ularning echilishiga qarab, yo'qolishi mumkin. Rim klubining asoschisi va birinchi prezidenti A.Pechchei bu holatga e'tiborni qaratib, insoniyat qarshisida ko'ndalang bo'lgan aksariyat muammolar «bir-biri bilan mahkam chirmashib oldi, ulkan sprut changali yanglig' butun sayyorani o'z iskanjasiga olmoqda... echilmagan muammolar soni o'sib bormoqda, ular yanada murakkabroq tus olmoqda, ularning chirmashuvi yanada chigallashmoqda, ularning «iskanjasi» esa sayyoramizni o'z changalida tobora qattiqroq siqmoqda», [1] deb yozgan edi.

Ammo global ziddiyatlar tuguni qanchalik chigal bo'lmasin, uni fan va falsafa yordamida yechish, ya'ni sababni oqibatdan, muhim tafsilotlarni ikkinchi darajali tafsilotlardan, ob'ektivni sub'ektivdan farqlash uchun nazariy jihatdan anglab yetish lozim. Dunyo miqyosidagi jarayonlarga ta'sir ko'rsatish uchun odamlarning imkoniyatlari va resurslari cheklanganini hisobga olib, muammolarning qaysi biri darhol yechishni talab qilishi va qaysi biri ikkinchi darajali ahamiyat kasb yetishini ham farqlash muhimdir.

G'arb mamlakatlarida ijtimoiy prognoz qilish ilmiy bashoratning turii sifatida «futurologiya» (lot. futurum – kelajak va yunon. logos – ta'limot) degan nom bilan vujudga kelgan. Bu atamani ilk bor G'arbiy Berlin universiteti huzuridagi Otto Zur nomidagi institut professori O.Flextgaym ishlatgan. SHuni qayd yetish lozimki, «futurologiya» atamasi umumiy e'tirof etilgani yo'q. Misol uchun, bashorat muammolari bo'yicha frantsuz mutaxassislarining aksariyati futurologiya insonning kelajakni ishonch bilan bashorat qilish qobiliyati haqida xom xayol qilish uchun asos bo'ladi, deb hisoblaydi. Futurologiya o'rniga «fyutyuribli» atamasi taklif qilingan bo'lib, u «ehtimol tutilgan kelajak» degan ma'noni anglatadi. Bunda kelajakning shartliligi, ko'p variantliligiga urg'u beradi.

Hozirgi davrda ijtimoiy bashorat bilan bog'liq tadqiqotlar «prognostika» degan nom olgan. *Prognostika prognoz qilish qonunlari, tamoyillari va metodlarini o'rganadi, mantiq muammolarini va har xil tipdagi prognostik tadqiqotlarning tasniflarini ishlab chiqadi*. U endigina shakllanish davrini boshdan kechirmoqda, lekin hozirning o'zidayoq kelajakning ilmiy muqobillarini yaratishning muhim vositasi hisoblanadi. O'zbekistonda prognozdashtirish masalasi bilan K Tulenova shug'ullanadi.

Ijtimoiy bashorat: turlari, tiplari, metodlari. *Bashorat – kelajak haqidagi, ya'ni hali amalda mavjud bo'lmagan, lekin rivojlanishning kutilayotgan rivojini belgilovchi ob'ektiv va sub'ektiv omillar ko'rinishida hozirgi zamonda potentsial mavjud bo'lgan hodisalar va jarayonlar haqidagi bilim.* Bashorat o'z gnoseologik tabiatiga ko'ra gipotezani ilgari surishga yaqin turadi. Ammo gipoteza – o'tmishni ham, hozirgi zamonni ham, kelajakni ham bilishga tatbiq etiladigan mantiqiy shakl, bashorat esa kelajakka yoki hali ma'lum bo'lmagan hozirgi davrga qarab mo'ljal oladi.

Kelajakni oldindan aytish usuli, teranlik va aniqlik darajasiga ko'ra *bashoratning turlarini farqlash mumkin: Mifologik bashorat; kundalik bashorat ;astrologik bashorat; intuitiv bashorat; ilmiy bashorat*.

Mifologik bashorat arxaik ong darajasidagi (eng qadimgi) bashorat turlaridan biri bo'lib, unda voqelar obrazlarning harakatlarida ifodalanadi. Masalan olimlar Mayya qabilalarining "Drezden qo'lyozmalari"da 2012 yil 21 dekabr qiyomat kuni deb belgilanganligi aniqladilar. Xususan, qo'lyozmalarda to'p o'ynayotgan navkarlar, baland tepalikda to'p tushishi mumkin bo'lgan doira hamda boshi tanasidan judo qilingan navkar ramzi ifodalangan. Olimlar fikricha to'p Quyosh ramzi,balandlikdagi doira Somon yo'li ramzi muvozanat markazining ifodasi. Navkarlar to'pni tepib doiraga kiritishi lozim. Doiraga to'pni kirita olmagan navkarnnig boshi olingan. Olimlar to'pning doiraga tushishini qiyomat kuni, ya'ni muvozanatning buzilishi ramzi deb tahlil qilmoqda. SHuningdek, Mayya qabilalari qo'lyozmalarida dunyoviy suv toshqini ham obrazlarda ifodalangan. Darhaqiqat, bundan ikki ming yil ilgari arxaik ong darajasidagi bashorat XX asrdagi tez-tez takrorlanayotgan zilzilalar, suv toshqinlari, dengiz to'fonlari va shu kabi boshqa tabiiy ofatlarda namoyon bo'lmoqda. SHu bois, bugungi kunda pessimist olimlar qiyomat kuni yaqin deb ayyo hannos solsalar, optimistlar bu astronomik sikllar almashinuvi xolos deb bashorat qilmoqda. Insoniyatni yaqin kelajakda nima kutmoqda. Bu savolga inson o'z faoliyati maqsadi va natijalariga ko'ra javob berishi lozim.

Kundalik bashorat insonning kundalik hayot tajribasiga, tabiat va jamiyatda u yoki bu voqealarning tez-tez takrorlanishini bevosita kuzatishga asoslanadi. Kundalik bashoratlarga xalqda mashhur bo'lgan ob-havo alomatlari misol bo'lishi mumkin. Masalan, quyosh botayotganda odatdagidan uzoqroq ushlanib qolgan bo'lsa, yomg'irni

[1] A.Pechchei . Человечские качества – M.: 1980. – c.7

kutish kerak; yozda ertalab tuman tushgan bo'lsa, demak kunduzi havo ochiq bo'ladi; SHarqdan shamol essa, tez orada yomg'irlar tugaydi.

Astrologik bashorat osmon jismlarining harakati, Oy va Quyosh tutilishi sikllarini kuzatishga asoslanadi. Astrologik bashorat o'rta asrlarda keng tarqalgan bo'lsada keyinchalik unga munosabat o'zgargan. Lekin, XX asrda ezoterik bilimlarning rivoji astrologik bashoratlarning asosli ekanligini tan olmoqda.

Intuitiv bashorat ilmiy tajriba va mantiqiy mushohadasiz haqiqatning tagiga bevosita yetishdir. Bashoratning bu turi hali yaxshi o'rganilmagan va ko'pincha unga yetarlicha baho berilmaydi. Holbuki, aqlni lol qoldiradigan faktlar ma'lum. Masalan, to'rt yuz yil oldin yashagan frantsuz tabibi Mishel Nostradamus misli ko'rilmagan bashoratgo'ylik qobiliyatiga ega bo'lgan. O'zining mashhur «TSenturiyalari» va boshqa asarlarida u XX asrning texnik kashfiyotlari – suv osti kemalari, samolyotlar, vodorod bombasinigina emas, balki frantsuz va rus inqiloblarini, shuningdek de Goll, Franko, Lenin, Stalin, Gitler, Mussolini kabi shaxslarning paydo bo'lishini ham bashorat qilgan.

O'z davrining mashhur folbini Aleksandra Filippovna Kirxgof buyuk shoir Aleksandr Pushkinga uning hayotidagi muhim voqealarni: tez orada ko'p pul olish, ikki surgun, uylanish, mashhurlik, 38 yoshda hayotni tark yetish ehtimolini bashorat qilgan. Afsuski, bu bashorat to'la ro'yobga chiqqan.

Ukrainalik atoqli faylasuf va shoir Grigoriy Skovoroda ham bashorat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan. U o'z qishlog'i – Ivanovkaga oxirgi marta kelganda kasal bo'lmagan. Hammaga o'zining o'limi yaqinligini e'lon qilgan, o'zi o'ziga qabr qazgan, o'z «xonaqosi»ga qaytib kelgan, ich kiyimini almashtirgan, boshiga o'z asarlarini qo'ygan va vafot etgan.

Boshqa ko'plab g'ayrioddiy faktlarni keltirish mumkin. Ularning barchasi intuitiv bashoratni e'tibordan soqit yetish yaramasligidan dalolat beradi.

XX aso oxiri XXI asr boshlarida dunyo tan olgan va e'tirof etgan bashoratchilar Vanga xonim, Juna Davitashvili, er-xotin Pavel va Tamara Globalar bo'lib, ular 1989 yildayoq 1991 yilda SSSR parchalanishini, o'sha davrda hukumatni boshqarayotgan V. Gorbachevning taxtdan ag'darilishini va Mustaqil hamdo'stlik mamlakatlari tashkil etilib, jamiyat hayotida Yangi davr boshlanishini bashorat qilganlar.

Ilmiy bashorat fan doirasida yoki uning yordamida amalga oshiriladi va o'rganilayotgan jarayonning qonuniyatlarini bilishga asoslanadi. U kelajakni ancha samarali bashorat qilish va oldindan ko'ra bilish imkonini beradi.

Ilmiy bashoratning ayrim elementlari qadimgi dunyodayoq mavjud bo'lgan. Masalan, faylasuf Fales (miloddan avvalgi 640-562 yillar) miloddan avvalgi 585 yilda quyosh tutilishini bashorat qilgani ma'lum. Ammo bashorat haqidagi dastlabki bilimlar XV-XVII asrlardagina tabiiy va ijtimoiy fanlarning rivojlanishi bilan bir vaqtda ilmiy tizimga solina boshlagan. Bu jarayon XX asrning 60-yillarida ancha yaxlit ilmiy nazariyalarning yaratilishi bilan yakunlangan.

Inson faoliyati sohalari va bilish ob'ektiga qarab ilmiy bashoratning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, harbiy va boshqa turlari farqlangan. Ijtimoiy bashoratning xususiyatini qayd yetish uchun «prognoz qilish» tushunchasi muomalaga kiritilgan. *Prognoz qilish bashoratning alohida shakli bo'lib, u ijtimoiy jarayonlarni o'rganishda yuqori darajada ilmiy asoslanganlik va ob'ektivlik bilan ajralib turadi*. Ilmiy bashoratning boshqa shakllaridan farqli o'laroq prognoz qilish – o'z metodologiyasi va texnikasiga ega bo'lgan maxsus tadqiqot.

Bugungi kunda ijtimoiy prognoz qilish muammolari bilan maxsus xalqaro tashkilotlar shug'ullanadi. Ularning orasida quyidagilar bor: Gudzon instituti, REND va Kelajak uchun resurslar korporatsiyalari, CHikago va Kaliforniya universitetlari (AQSH); Keyingi 30 yilda Angliya, Fransiya, Germaniya, Gollandiyadagi futurologiya institutlari va b. Yirik xalqaro uyushmalar: Jahon futurologlar jamiyati, Kelajak dunyosi, Fyutyuribllar xalqaro tashkiloti tuzilgan. Bu futurologik tashkilotlar orasida Rim klubi alohida o'rin egallaydi. Mazkur xalqaro nohukumat tashkiloti 1968 yil aprelda italiyalik jamoat arbobi, «Olivetti» kompaniyasining vitse-prezidenti, FIAT kompaniyasi ma'muriy kengashining a'zosi Aurelio Pechchei tashabbusi bilan ta'sis etilgan. Klub Jenevadagi maxsus reestrda shtat va budjetga ega bo'lmagan, a'zolari soni cheklangan tashkilot sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan. Bugungi kunda Rim klubiga jahonning 47 mamlakatida yashab ijod qiluvchi, ilmiy-texnika inqilobi davrida insoniyat rivojlanishining istiqbollarini aniqlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan yuzdan ortiq fan va madaniyat arboblari a'zo. Klub faoliyatining asosiy shakli – hozirgi davrning olamshumul muammolarini o'rganishni tashkil yetishdan iborat.

Ijtimoiy prognoz qilishning asosiy xususiyatlari nimadan iborat?

Ijtimoiy prognoz qilish asosan quyidagi ilmiy-nazariy xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

1. *Prognoz qilish jarayoni ob'ektiv va sub'ektiv asoslarga ega. Prognoz qilishning ob'ektiv asosi o'tmish, hozirgi zamon va kelajakning qonuniy aloqasi bilan belgilanadi*. Kelajak hozirgi zamonda bo'lg'usi oqibatni vujudga keltiruvchi sabab ko'rinishida; muayyan sharoitlarda muqarrar tarzda voqelikka aylanuvchi imkoniyat ko'rinishida; hozirgi davrning kelajakda Yangi sifat paydo bo'lishiga olib kelishi muqarrar bo'lgan hodisalaridagi muayyan miqdoriy va tarkibiy o'zgarishlar ko'rinishida zohirdir. Kelajak hozirgi zamonda hodisalarning ular mavjudligining muayyan sharoitlaridagi muhim aloqalarini ochib beruvchi qonunlar ko'rinishida zohirdir. Bularning barchasi bilish jarayonida ma'lumdan noma'lumga, o'tmish va hozirgi zamondan kelajakka o'tish imkonini beradi. Agar biron-bir hodisaning (jarayonning) rivojlanish qonuni ma'lum bo'lsa, bu hodisani (jarayonni) o'rganish orqali biz uning hozirgi holatini qayd etibgina qolmasdan, balki yuz berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarning yo'nalishi va xususiyati haqida xulosalar chiqarishimiz ham mumkin. SHunday qilib, kelajakni prognoz qilish uchun real

voqelikni bilishdan, aniqroq aytganda, tizimning hozirgi holatida zohir bo'lgan imkoniyatlar, tendentsiyalar, qonuniyatlarni anglab yetishdan boshqa yo'l yo'q.

Bashorat qilishning sub'ektiv asosi inson tafakkurining o'tmishdan hozirgi zamon orqali kelajakka eltuvchi qonuniy tendentsiyalarini aniqlash va qayd yetish asosida kelajakni oldindan aytish imkoniyatida zohirdir. Kelajakni oldindan aytish bo'lg'usi voqealar haqida xulosalar chiqarish qobiliyati ko'rinishini kasb etgan.

Prognoz qilishning ob'ektiv va sub'ektiv asoslarini aniqlash uni ba'zan bashorat bilan bog'lanadigan soxta bashoratgo'yliklardan farqlash imkonini beradi. Odatda, soxta bashoratgo'yliklar ob'ektiv jarayonlarni o'rganishga emas, balki sub'ektivistik o'zboshimchalikka, ya'ni ko'ngliga kelgan fikrni ilgari surishga asoslanadi.

2. *Ijtimoiy prognoz qilish mavjud nazariyalar bilan uzviy bog'liq, ulardan kelib chiqadi*. Ma'lumki, har qanday nazariya uch funksiyani: sintez qilish, tushuntirish va prognoz qilishni bajaradi. ya'ni nazariya u yoki bu sohada mavjud holatni tushuntiradi va uning rivojlanish tendentsiyasini bashorat qiladi. Binobarin, ilmiy prognoz qilish nazariyadan boshlanadi.

Ilmiy bashoratning keyingi mantiqiy tuzilishi quyidagi ko'rinishga ega:

- bashorat muammosini aniqlash;
- gipotezani ilgari surish;
- prognoz qilish (bashoratning umumiy muammosi doirasida ayrim vazifalarni yechish uchun prognozlarni ilgari surish);
- ilgari surilgan prognozlar asosida prognostik faoliyat rejasini tuzish;
- prognozlarning haqqoniyligi, ishonchliligini asoslash va ularni imkoniyat darajasida amaliyot sinovidan o'tkazish yo'li bilan tasdiqlash.

Bilish jarayonida olingan Yangi xulosalar odamlarning bu xulosalarga muvofiq amalga oshirilgan muayyan harakatlari mo'ljallangan natijalarni bergan holdagina ishonchli deb e'tirof etiladi. Bashorat qilingan, Yangi bilimlarga muvofiq ta'riflangan natijaning olingan Yangi bilimlarni hisobga olib erishilgan amaliy natija bilan mos kelishi odamlar tomonidan aks ettirilgan ob'ektlar rivojlanishining muayyan qonunlari va xossalari haqiqiy ekanligiga ishonch hosil qilish uchun asos bo'ladi.

3. *Ijtimoiy prognoz qilish kelajakni muayyan tarzda davriylashtirishni nazarda tutadi*. Kelajak haqidagi bilimlar hozirgi davrdan uzoqlashishiga qarab o'zining muayyanlik va aniqlik xossalarini yo'qotib, umumiyroq va nomuayyanroq tus olib borgani bois, bevosita, ko'zga ko'rinadigan va uzoq kelajak haqida so'z yuritilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Bevosita kelajakning vaqtdagi chegarasi 30 yildan oshmaydi. Ilmiy kashfiyot yaratilganidan u amalda gavdalantirilgunga qadar taxminan 20 yil vaqt o'tadi. SHunga asoslanib iqtisodiyotning joriy yuz yillikning 40-yillaridagi texnologik darajasi haqida ishonch bilan hukm chiqarish mumkin. Joriy yuz yillikning kattagina qismini qamrab oluvchi ko'zga ko'rinadigan kelajakka kelsak, bizning u haqdagi bilimlarimiz, ta'bir joiz bo'lsa, haqiqatnamo xususiyat kasb etadi va ularga ehtiyotkorlik bilan yondashish talab etiladi. Jahon aholisi sonining jadal sur'atlarda o'sishi XXI asrning ikkinchi yarmida to'xtashini, 2100 yilga borib u taxminan 10-12,5 mlrd. kishiga yetishini kutish mumkin. Keyingi yuz yillik chegarasi ortida yotgan uzoq kelajak xususida real imkoniyatlarga ega bo'lmagan turli gipotetik farazlarga muvofiq hukm chiqarish mumkin. Ammo bu farazlar tarixiy muddatlar va ularning hayotda gavdalanish shakllari nuqtayi nazaridan muayyan taxminiy baholar bo'lishi ham mumkin emas.

4. *Prognoz qilish – bu maxsus ilmiy metodlar yordamida kelajak haqida bilimlar olish jarayoni*. Bu metodlar prognoz tuzish maqsadida empirik axborotni tanlash va tahlil qilish usullari va amallari yig'indisidan iborat. Prognoz qilishning ilmiy vositalari to'plami kelajakni bilishning 200 dan ortiq metodlari, maxsus metodikalari va mantiqiy vositalarini o'z ichiga oladi. Ammo ularni besh asosiy guruhga birlashtirish mumkin (qolganlari ularning variantlari hisoblanadi):

Prognozlashtirishning metodlari:

1. Ekstrapolyatsiya metodlari.
2. Tarixiy analogiya.
3. Modellashtirish.
4. Ekspertiza usulida baholash.
5. Kelajak stsenariylari.

Ko'rsatilgan kelajakni bashorat qilish metodlarining har biri o'z afzalliklari va kamchiliklariga ega.

Ekstrapolyatsiya metodlari - qonuniyatlari o'tmishda va hozirgi davrda yaxshi ma'lum bo'lgan tendentsiyalarni kelajakka tatbiq yetishga asoslanadi. Masalan, biron-bir tizimga o'tmishda muayyan o'zgarmas tezlik yoki tezlanish bilan rivojlanish xos bo'lgan bo'lsa, bizda bu tezlik yoki tezlanish kelajakda ham muayyan zamon oralig'ida o'zgarishsiz qoladi deb hisoblash uchun asoslar bor. SHunday qilib, o'sish (pasayish) egri chiziqlarini grafik yoki analitik usulda davom ettirish va prognoz ob'ekti bo'lg'usi holatining miqdor ko'rsatkichlarini hisoblab chiqarish mumkin. SHunga qaramay, agar o'rganilayotgan tendentsiya boshqa tendentsiyalar bilan o'zaro ta'sirga kirishish natijasida o'zgarsa va bu o'zaro ta'sirni lozim darajada o'rganish imkoniyati mavjud bo'lmasa, ekstrapolyatsiya metodi uncha samarali bo'lmasligi mumkin.

Tarixiy analogiya – bu taqqoslash yo'li bilan kelajakni bilish. Taqqoslanayotgan ijtimoiy hodisalar o'rtasida farq ham, o'xshashlik ham mavjud bo'lishi kerak. Taqqoslash uchun asos bo'luvchi omillar taqqoslanishi lozim bo'lgan hodisalarga qaraganda tanishroq bo'lishi lozim. Tarixiy analogiyaning ijtimoiy bashoratga moslashuvchanlik darajasi cheklangan. Bu tabiiy bir holdir, zero kelajakka boshqa tarixiy sharoitlar yo'ldosh. Tarixiy analogiya ko'proq tarixiy faktni faol tanqidiy tahlil qilishga ko'maklashadi.

Modellashtirish metodi bilish ob'ektlarining o'zini emas, balki ularning modellarini o'rganishga asoslanadi. Tadqiqot ob'ektini modellashtirish – uni prognostik xususiyatga ega bo'lgan xulosalar chiqarish uchun qulay bo'lgan sodda, sxematik ko'rinishda gavdalantirishdir. Tadqiqot natijalari modeldan ob'ektga ko'chiriladi. Prognoz qilishning modelli metodlari shakllarining rang-barangligi bilan tavsiflanadi. Modellashtirishning moddiy, fizik, belgili (matematik), imitatsion, kompyuterda modellashtirish kabi turlarini farqlash mumkin.

Ekspertiza usulida baholash- bu ilmiy metodning mohiyati ekspertlar (fan va texnikaning turli sohasidagi etakchi mutaxassislar) tomonidan muammoni tahlil qilish va so'ngra natijalarni formallashtirilgan asosda qayta ishlashdan iborat. Ekspertlarning umumiy xulosasi muammoning mumkin bo'lgan eng maqbul echimi sifatida qabul qilinadi. Bu metodlar guruhiga, odatda, quyidagilar kiritiladi: konsensus (kelajakka doir muayyan masala bo'yicha ekspertlar umumiy bir to'xtamga kelishi); «aqliy hujum» (muammolarni yechish vositasi va prognoz qilish usuli, ayniqsa kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan bir nechta vaziyatni ko'rib chiqishga ehtiyoj tug'ilgan holda). Metodning mohiyati shundan iboratki, muammoga doir har qanday, hatto «g'alati» g'oyalar ilgari suriladi; bu g'oyalar rivojlantiriladi, o'z g'oyalarini taklif qilish mumkin, lekin ularni tanqid qilishga ruxsat etilmaydi; «Delfi» metodi (qadimgi Yunonistonning mashhur orakuli ismi bilan atalgan). U ekspertlar o'rtasida so'rov o'tkazishga asoslangan. Bunda oldinma-ketin so'rov jarayonida har bir ekspert boshqa ekspertlarning fikrlari bilan tanishtiriladi; bir nechta sikllar natijasi o'laroq ustuvor fikr aniqlanadi. Ekspertiza usulida baholashning yana bir o'ziga xos metodi – sotsiologik so'rov mavjud bo'lib, u so'nggi yillarda bizda ham, chet elda ham tobora keng qo'llanilmoqda.

Kelajak stsenariylari – bu kuzatilayotgan tendentsiyaning ehtimol tutilgan kelajagi haqidagi u yoki bu taxminni asoslovchi dastlabki farazlarning tartibga solingan yig'indisi. Stsenariylar: a) u yoki bu nazariy vaziyatni qay yo'l bilan bosqichma-bosqich amalga oshirish mumkinligini; b) voqealarning muayyan rivojiga yo'l qo'ymaslik, ularni engillashtirish yoki chetlab o'tish uchun voqealarning ishtirokchisi uchun har bir bosqichda qanday variantlar mavjudligini aniqlaydi.

SHunday qilib, stsenariy murakkab tizimlarni o'rganishga nisbatan tizimli va tarixiy yondashuvlarni birlashtiruvchi ko'p variantli prognozdir; aksariyat hollarda u tavsifiy xususiyat kasb etadi va kompleks prognozlarni tuzishda keng qo'llaniladi.

SHuni qayd etib o'tish lozimki, ko'rib chiqilgan metodlarning birortasi ham alohida holda prognozning yuksak darajada ishonchliligini ta'minlay olmaydi. SHu sababli amalda odatda murakkab, kompleks metodlardan foydalaniladi. Mazkur yondashuv ayrim metodlarning kamchiliklarini bartaraf yetish va prognozlarning ko'proq darajada aniqligi va ishonchliligini kafolatlash imkonini beradi.

Ijtimoiy hodisalar va jarayonlarning rivojlanish imkoniyatlarini prognoz qilish natijasi prognoz hisoblanadi. U kelajak u yoki bu muammolarining rivojlanishi va ularni yechishning mumkin bo'lgan barcha variantlarini, ularning bir-birini istisno etuvchi variantlarini, stixiyali va ongli jarayonlarni, ularning vaqt va ko'lam parametrlarini aniqlash imkonini beradi. Kelajakning ijtimoiy prognozlar taklif qilayotgan tavsifining mazmuniga qarab, ular insonni yo unga faol intilishga, yo uning yuz berishiga qarshi harakat qilishga, yo uni passiv kutishga da'vat etadi. SHu sababli har qanday ijtimoiy prognoz ilmiy-bilishga doir mazmunni ham, muayyan mafkuraviy vazifani ham o'zida birlashtiradi. Bunda bilishga doir funksiya ustunlik qilishi ham, mafkuraviy funksiya ustunlik qilishi ham mumkin.

Prognozlarning mazmuni va vazifasidan kelib chiqib, ularning to'rt asosiy tipini farqlash mumkin.

Qidiruv prognozi – ijtimoiy ob'ektning kelajagi qanday bo'lishi mumkinligini ko'rsatish uchun tuziladigan prognoz. U rivojlanish qaysi yo'nalishda yuz beradi, kelajakning muayyan davrida prognoz ob'ektining holati qanday bo'lishi mumkin, degan savollarga javob beradi.

Normativ prognoz – boshqaruvni optimallashtirish yo'llarining oqilona tashkil etilgan tahlili. Bu prognoz obrazli qilib «teskari prognoz» deb ataladi, chunki unda o'rganish teskari yo'nalishda – kelajakdan hozirgi davrga qarab amalga oshiriladi. Normativ prognoz qo'yilgan maqsadlarga erishish yoki qo'yilgan vazifalarni yechish uchun nima qilish mumkin yoki kerak, degan savolga javob beradi. Normativ prognozning predmeti sifatida ijtimoiy jarayonlar xususiyatini butunlay o'zgartirishga qodir bo'lgan g'oyalar, gipotezalar, farazlar, axloqiy me'yorlar, ijtimoiy ideallar, maqsadlar va mo'ljallar amal qiladi.

Analitik prognoz kelajakni o'rganishning turli metodlari va vositalarining bilishga doir qimmatini ilmiy maqsadlarda aniqlash uchun tuziladi.

Prognoz-ogohlantirish kishilarni ehtimol tutilgan kelajakning masalan, yuz berishi kutilayotgan ekologik halokatlarning oldini olishga majbur qilish maqsadida ularning ongi va xulq-atvoriga bevosita ta'sir ko'rsatish uchun ishlab chiqiladi.

SHuni qayd yetish lozimki, *prognozlarning asosiy tiplari o'rtasidagi farq shartlidir; ayni bir konkret ijtimoiy prognozda bir necha turdagi belgilar mavjud bo'lishi mumkin.*

SHunday qilib, ijtimoiy hayotni tartibga solishning ijtimoiy qonun, zaruriyat, ehtiyoj, manfaat, muammo, maqsad, vazifa, ideal, norma, kishilar faoliyatining tamoyili vositalaridan ongli ravishda foydalanish zamirida prognoz qilish yotadi. U bilishni amaliyot bilan bog'lovchi bo'g'in sifatida amal qiladi, fanning nazariyani kundalik hayot bilan, bilishning amaliy voqeligi bilan uzviy bog'lovchi funksiyasi hisoblanadi. Ilmiy boshqarish, xususan, uning muhim funksiyalaridan biri – rejalashtirish prognoz qilishga asoslanadi. *Prognoz qilish yuz berishi muqarrar bo'lgan yoki ehtimol tutilgan maqbul ijtimoiy hodisalar haqidagi bilimlarni ham, nomaqbul ijtimoiy hodisalar haqidagi bilimlarni ham shakllantiradi.*

10 – Mavzu: Mantiq ilmining predmeti, asosiy qonunlari. Tushuncha tafakkur shakli sifatida

Reja:

1. Tafakkurning mantiqiy shakllari va qonunlari.
2. Mantiq ilmining fanlar tizimidagi o'rni.
3. Tushunchaning ta'rifi, tuzilishi va turlari.
4. Tushunchalar bilan bajariladigan mantiqiy amallar.

Kelib chiqishiga ko’ra arabcha bo’lgan “mantiq” (grekcha–logos) atamasi «fikr», «so’z», «aql», «qonuniyat» kabi ma’nolarga ega. Uning ko’pma’noligi turli xil narsalarni ifoda qilishda o’z aksini topadi. Xususan, mantiq so’zi, birinchidan, ob’ektiv olam qonuniyatlarini (masalan, «ob’ektiv mantiq», «narsalar mantig’i» kabi iboralarda), ikkinchidan, tafakkurning mavjud bo’lish shakllari va taraqqiyotini, shu jumladan, fikrlar o’rtasidagi aloqadorlikni xarakterlaydigan qonun-qoidalar yig’indisini (masalan, «sub’ektiv mantiq» iborasida) va uchinchidan, tafakkur shakllari va qonunlarini o’rganuvchi fanni ifoda etishda ishlatiladi.

Mantiq ilmining o’rganish ob’ektini tafakkur tashkil etadi. «Tafakkur» ham arabcha so’z bo’lib, o’zbek tilidagi «fikrlash», «aqliy bilish» so’zlarining sinonimi sifatida qo’llaniladi. Tafakkur bilishning yuqori bosqichidir. Uning mohiyatini yaxshiroq tushunish uchun bilish jarayonida tutgan o’rni, bilishning boshqa shakllari bilan bo’lgan munosabatini aniqlab olish zarur. Bilish voqelikning, shu jumladan, ong hodisalarining inson miyasida sub’ektiv, ideal obrazlar shaklida aks etishidan iborat. Bilish jarayonining asosini va oxirgi maqsadini amaliyot tashkil etadi. Barcha hollarda bilish insonning hayotiy faoliyati bilan u yoki bu darajada bog’liq bo’lgan, uning ma’lum bir ehtiyojini qondirishi mumkin bo’lgan narsalarni tushunib etishga bo’ysundirilgan bo’ladi. Bilish jarayonini amalga oshirar ekan, kishilar o’z oldilariga ma’lum bir maqsadni qo’yadilar. Ular o’rganilishi lozim bo’lgan predmetlar doirasi, tadqiqot yo’nalishi, shakllari va metodlarini belgilab beradi.

Bilish murakkab, ziddiyatli, turli xil darajalarda va shakllarda amalga oshadigan jarayondir. Uning dastlabki bosqichini hissiy bilish – insonning sezgi organlari yordamida bilishi tashkil etadi. Bu bosqichda predmet va hodisalarning tashqi xususiyatlari va munosabatlari, ya’ni ularning tashqi tomonida bevosita namoyon bo’ladigan va shuning uchun ham inson bevosita seza oladigan belgilari haqida ma’lumotlar olinadi.

Hissiy bilishning barcha shakllariga xos bo’lgan xususiyatlari qatoriga quyidagilar kiradi:

Birinchidan, hissiy bilish ob’ektning (predmetning yoki uning birorta xususiyatining) sub’ektga (individga, to’g’rirog’i, uning sezgi organlariga) bevosita ta’sir etishini taqozo etadi. Tasavvur ham bundan istisno emas. Unda obrazi qayta hosil etilayotgan (yoki yaratilayotgan) predmet emas, u bilan bog’liq bo’lgan boshqa predmet–signal ta’sir etadi.

Ikkinchidan, hissiy bilish shakllari: sezgi, idrok va tasavvur predmetning tashqi xususiyatlari va munosabatlarini aks ettiradi.

Uchinchidan, hissiy bilish shakli predmetning yaqqol obrazidan iborat.

To’rtinchidan, hissiy bilish konkret individlar tomonidan amalga oshirilganligi uchun ham har bir alohida holda konkret insonning sezish qobiliyati bilan bog’liq tarzda o’ziga xos xususiyatga ega bo’ladi.

Beshinchidan, hissiy bilish bilishning dastlabki va zaruriy bosqichi hisoblanadi. Usiz bilish mavjud bo’la olmaydi. Chunki inson tashqi olam bilan o’zining sezgi organlari orqali bog’langan. Bilishning keyingi bosqichi, boshqa barcha shakllari sezgilarimiz bergan ma’lumotlarga tayanadi.

Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, hissiy bilish tafakkur bilan uzviy bog’liq. Xususan, nazariy bilimlarning chinligi oxir-oqibatda empirik talqin qilish yo’li bilan, ya’ni tajribada bunday bilimlarning ob’ektini qayd etish orqali asoslanadi. O’z navbatida, hissiy bilish, umuman olganda, aql tomonidan boshqarilib turadi, bilish oldida turgan vazifalarni bajarishga yo’naltiriladi, ijodiy fantaziya elementlari bilan boyitiladi. Masalan, guvohlarning bergan ko’rsatmalari asosida jinoyatchining portreti (kompyuter yordamida fotoroboti yaratiladi yaqqol his qilinadi va qidiriladi.

Lekin, shunga qaramasdan, hissiy bilish o’z imkoniyatlari chegarasiga ega. U bizga alohida olingan predmetlar (yoki predmetlar to’plami), ularning tashqi belgilari haqida ma’lumot beradi. Unda mavjud predmetlar o’rtasidagi aloqadorlik (masalan, muz bilan havoning harorati o’rtasidagi bog’lanish) o’rganilmaydi, predmetlarning umumiy va individual, muhim va nomuhim, zaruriy va tasodifiy xususiyatlari farq qilinmaydi.

Predmet va hodisalarning mohiyatini tushunishga tafakkur yordamida erishiladi. Tafakkur bilishning yuqori-rastional (lotincha ratio – aql) bilish bosqichi bo’lib, unda predmet va hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlari aniqlanadi, ular o’rtasidagi ichki, zaruriy aloqalar, ya’ni qonuniy bog’lanishlar aks ettiriladi. Tafakkur quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

1. Tafakkurda voqelik mavhumlashgan va umumlashgan holda in’ikos qilinadi. Hissiy bilishdan farqli o’laroq, tafakkur bizga predmetning nomuhim, ikkinchi darajali (bu odatda bilish oldida turgan vazifa bilan belgilanadi) belgilaridan fikran chetlashgan, mavhumlashgan holda, e’tiborimizni uning umumiy, muhim, takrorlanib turuvchi xususiyatlariga va munosabatlariga qaratishimizga imkon beradi. Xususan, turli kishilarga xos individual belgilarni (xulq-atvor, temperament, qiziqish va shu kabilar) e’tibordan chetda qoldirgan holda, ular

uchun umumiy, muhim belgilarni, masalan, ongga ega bo'lish, maqsadga muvofiq holda mehnat qilish, ijtimoiy munosabatlarga kirishish kabi xislatlarni ajratib olib, «inson» tushunchasini hosil qilish mumkin. Umumiy belgilarni aniqlash predmetlar o'rtasidagi munosabatlarni, bog'lanish usullarini o'rnatishni taqozo etadi. Turli xil predmetlar fikrlash jarayonida o'xshash va muhim belgilariga ko'ra sinflarga birlashtiriladi va shu tariqa ularning mohiyatini tushunish, ularni xarakterlaydigan qonuniyatlarni bilish imkoniyati tug'iladi. Masalan, yuqorida keltirilgan «inson» tushunchasida barcha kishilar bitta mantiqiy sinfga birlashtirilib, ular o'rtasidagi muhim bog'lanishlar (masalan, ijtimoiy munosabatlar) bilib olinadi.

2. Tafakkur borliqni nafaqat bevosita, balki bilvosita tarzda ham aks ettira oladi. Unda Yangi bilimlar tajribaga har safar bevosita murojaat etmasdan, mavjud bilimlarga tayangan holda hosil qilishi mumkin. Fikrlash bunda predmet va hodisalar o'rtasidagi aloqadorlikka asoslanadi. Masalan, bolaning xulq-atvoriga qarab uning qanday muhitda tarbiya olganligi haqida fikr yuritish mumkin. Tafakkurning mazkur xususiyati, ayniqsa, xulosaviy fikr hosil qilishda aniq namoyon bo'ladi.

3. Tafakkur insonning ijodiy faoliyatidan iborat. Unda bilish jarayoni borliqda real analogiga ega bo'lmagan narsalar – yuqori darajada ideallashgan ob'ektlar (masalan, absolyut qattiq jism, ideal gaz kabi tushunchalar)ni yaratish, turli xil formal sistemalarni qurish bilan kechadi. Ular yordamida predmet va hodisalarning eng murakkab xususiyatlarini o'rganish, hodisalarni oldindan ko'rish, bashoratlar qilish imkoniyati vujudga keladi.

4. Tafakkur til bilan uzviy aloqada mavjud. Fikr ideal hodisadir. U faqat tilda – moddiy hodisada (tovush to'lqinlarida, grafik chiziqlarda) reallashadi, boshqa kishilar bevosita qabul qila oladigan, his etadigan shaklga kiradi va odamlarning o'zaro fikr almashish vositasiga aylanadi. Boshqacha aytganda, til fikrning bevosita voqe bo'lish shaklidir.

Tafakkur shakli va tafakkur qonuni tushunchalari

Tafakkur uch xil shaklda: tushuncha, hukm (mulohaza) va xulosa chiqarish shaklida mavjud. Tafakkur shakli fikrning mazmunini tashkil etuvchi elementlarning bog'lanish usuli, uning strukturasi (tuzilishi)dir. Fikrlash elementlari deganda, predmetning fikrda ifoda qilingan belgilari haqidagi axborotlar tushuniladi. Tafakkur shaklining tabiatini konkret misollar yordamida ko'rib chiqamiz.

Ma'lumki, ayrim predmetlar, ularning sinfi (to'plami) kishilar tafakkurida turli xil mazmunga ega bo'lgan tushunchalarda aks ettiriladi. Masalan, «davlat» tushunchasida o'zining maydoniga, aholisiga, boshqaruv vositalariga ega bo'lgan siyosiy tashkilot aks ettiriladi. "Milliy g'oya" tushunchasida esa millatning, xalqning kelajak bilan bog'liq orzu-havaslari, maqsadlari, tub manfaatlari ifoda etiladi. Mazmun jihatidan turli xil bo'lgan bu tushunchalar mantiqiy shakliga ko'ra bir xildir: har ikkalasida predmet uning muhim belgilari orqali fikr qilingan. Xususan, «o'z maydoniga egaligi», «aholisining mavjudligi», «boshqaruv vositalarining bor ekanligi», «siyosiy tashkilotdan iboratligi» davlatning muhim xususiyatlari hisoblanadi. Xuddi shuningdek, «millatning orzu-havaslari, maqsadlarini aks ettirishi», «uning tub manfaatlarini ifoda etishi» milliy g'oyaning muhim belgilaridir. Agar tushuncha aks ettirayotgan predmetni A bilan, unda fikr qilinayotgan muhim belgilarni, ya'ni fikrlash elementlarini a, v, s,..., n bilan belgilasak, tushunchaning mantiqiy strukturasini A (a, v, s,..., n) shaklida simvolik tarzda ifodalash mumkin.

Hukmlarda predmet bilan uning xossasi, predmetlar o'rtasidagi munosabatlar, predmetning mavjud bo'lish yoki bo'lmaslik fakti haqidagi fikrlar tasdiq yoki inkor shaklda ifoda etiladi. Masalan, «Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch» degan hukmda predmet (yuksak ma'naviyat) bilan uning xossasi (yengilmas kuch) o'rtasidagi munosabat qayd etilgan. «Axloq huquq bilan uzviy aloqada» degan hukmda ikkita predmet (axloq va huquq) o'rtasidagi munosabat qayd etilgan. Mazmun jihatdan turli xil bo'lgan bu hukmlar tuzilishiga ko'ra bir xildir: ularda predmet haqidagi tushuncha (S) bilan predmet belgisi haqidagi tushuncha (P) o'rtasidagi munosabat qayd etilgan, ya'ni R ning S ga xosligi tasdiqlangan. Umumiy holda hukmning mantiqiy strukturasini (shaklini) S—R formulasi yordamida ifoda etish mumkin.

Xulosa chiqarishda ham yuqoridagiga o'xshash hollarni kuzatish mumkin. Masalan,

"Daraxt – o'simlik".

"Terak – daraxt".

Demak, "Terak – o'simlik".

yoki

"Har bir kimyoviy element o'z atom og'irligiga ega".

"Mis – kimyoviy element".

Demak, "Mis o'z atom og'irligiga ega" kabilar.

Bu xulosa chiqarish hollari mazmuni bo'yicha turlicha bo'lishiga qaramasdan, bir xil mantiqiy strukturaga ega. Har ikkalasida xulosani tashkil etuvchi tushunchalar xulosa chiqarish uchun asos bo'lib xizmat qilayotgan hukmlarda uchinchi bir tushuncha (birinchi misolda – «daraxt», ikkinchi misolda – «kimyoviy element» tushunchasi) orqali bog'langan.

Yuqoridagi keltirilgan misollardan tafakkur shakli fikrning konkret mazmunidan nisbatan mustaqil holda mavjud bo'lishi va, demak, o'ziga xos qonuniyatlarga egaligi ma'lum bo'ldi. SHuning uchun ham mantiqda uni alohida o'rganish predmeti sifatida olib qarash mumkin.

Tushuncha, hukm (mulohaza) va xulosa chiqarish tafakkurning universal mantiqiy shakllari, uning asosiy strukturaviy elementlari hisoblanadi. Muhokama yuritish ana shular va ularning o'zaro aloqalarga kirishishi

natijasida vujudga keladigan boshqa mantiqiy strukturalar (masalan, muammo, gipoteza, nazariya, g'oya va shu kabilar)da amalga oshadi.

Muhokama yuritishda ishonchli natijalarga erishishning zaruriy shartlari qatoriga fikrning chin bo'lishi va formal jihatdan to'g'ri qurilishi kiradi. CHin fikr o'zi ifoda qilayotgan predmetga muvofiq keluvchi fikr hisoblanadi (masalan, «temir – metall»). Xato fikr predmetga mos kelmaydigan fikrdir (masalan, «temir – metall emas»). Fikrning chin yoki xato bo'lishi uning mazmuniga tegishli xususiyatlaridir.

Fikrning chin bo'lishi mantiqiy fikr yuritishning zaruriy sharti bo'lsa-da, o'z holicha yetarli emas. Fikr muhokama yuritish jarayonida formal jihatdan to'g'ri qurilgan ham bo'lishi kerak. Bu xususiyat fikrning shakliga taalluqli bo'lib, tafakkurda hosil bo'ladigan turli xil mantiqiy strukturalarda sodir bo'ladigan har xil mantiqiy amallarda o'z aksini topadi.

Fikrni to'g'ri qurishga tafakkur qonunlari talablariga rioya qilgandagina erishish mumkin. Tafakkur qonuni muhokama yuritish jarayonida qatnashayotgan fikrlar (fikrlash elementlari) o'rtasidagi mavjud zaruriy aloqalardan iborat. Tafakkur qonunlari mazmunidan kelib chiqadigan, muhokamani to'g'ri qurish uchun zarur bo'lgan talablar fikrning aniq, izchil, yetarli darajada asoslangan bo'lishidan iborat.

Muhokamani to'g'ri qurish bilan bog'liq talablar haqida gapirganda, birinchi navbatda, ularning muayyan prinstiplar, qoidalar tarzida, ya'ni to'g'ri tafakkur prinstiplari sifatida amal qilishiga e'tibor berish zarur. Mazkur qoidalarning buzilishi muhokamaning noto'g'ri qurilishiga sabab bo'ladi. Bunda, xususan, chin fikrlardan xato xulosa chiqishi (masalan, «Qonun – rioya qilish zarur bo'lgan huquqiy hujjat», «Buyruq – qonun emas», demak, «Buyruq – rioya qilish zarur bo'lgan huquqiy hujjat emas») yoki xato qurilgan muhokamadan chin xulosa chiqishi (masalan, «Barcha moddiy jismlar – kimyoviy elementlar», «Temir – moddiy jism», demak, «Temir – kimyoviy element») mumkin.

Tafakkur ko'p qirrali jarayon bo'lib, uni turli xil tomonidan, xususan, mazmuni va shakli (strukturasi) bo'yicha, tayyor holida yoki kelib chiqishi va taraqqiyotida olib o'rganish mumkin. Bularning barchasi mantiq ilmining vazifasini tashkil etadi, uning turlicha metodlardan foydalanishiga, har xil yo'nalishlarga ajralishiga sabab bo'ladi.

Mantiq fanining predmeti

Formal mantiq to'g'ri tafakkur shakllari va qonunlarini o'rganuvchi fan sifatida Mantiq keng ma'noda olamdagi qonuniy, zaruriy bog'lanish va aloqalar, tartib va izchillik, tafakkurimizning ichki aloqadorligi, tadrijiy rivojlanishi, turli fikrlar o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishlarni ifodalaydi. Tafakkur voqelikni umumlashtirib va mavhumlashtirib, muayyan mantiqiy shakllarda, ya'ni tushuncha, hukm va hulosa chiqarish hamda ular o'rtasidagi aloqalar shaklida aks ettirib, ma'lum mantiqiy qonun – qoidalarni vujudga keltiradiki, to'g'ri, aniq, izchil, ziddiyatlardan holi fikrlash ana shu qonun – qoidalarga amal qilishni taqoza etadi. Bu qonun-qoidalar amaliyotda vujudga kelgan bilimlarni isbotlashga yoki rad etishga, ularning to'g'riligi yoki xatoligini tasdiqlashga yoki inkor etishga xizmat qiladi.

Tafakkurni mantiq fanidan tashqari falsafa, fiziologiya, psixologiya, dialektika, kibernetika fanlari ham o'z predmeti nuqtayi nazaridan o'rganadi. Grammatika mantiq faniga yaqin. Tushuncha va hukmlarning ifodalanish strukturasini aniqlashda grammatikaning roli katta. Biroq yuqorida tilga olingan fanlarning har biri tafakkurga o'z nuqtayi nazaridan yondoshadi, uning turli qirralarini ochib beradi. Hozirgi kunda mantiq ilmining o'zining ham turli yo'nalishlari,tarmoqlari mavjud, ular orasida inson tafakkurini eng oddiy qonun – qoidalar bilan qurollantiradigan, uni to'g'ri fikrlashning tamoyillari bilan tanishtiradigan muhim tarmog'i formal mantiq bo'lib, u tarixiy kelib chiqishini e'tiborga olgan holda an'anaviy mantiq, ommaviyligi nuqtayi nazaridan esa, umumiy mantiq deb ham yuritiladi.

Mantiq fani inson tafakkurining eng umumiy shakllari, qonunlari va fikrlash usullarini o'rganadi. Mantiq fani tafakkurni rivojlantiradi, insonda umumiy tushunchalar, kategoriyalar bilan ish ko'rish ko'nikmalarini hosil qiladi. Bu esa, bugungi fan texnika rivoji jadallashgan sharoitda ilmiy tadqiqotlar olib borish hamda ilmiy – nazariy ma'lumotlarni samarali tahlil qilishda muhim rol o'ynaydi.

Formal va dialektik mantiq fanlari

Falsafiy adabiyotlarda dialektik mantiq bilan formal mantiq mavjudligi ta'kidlanadi. Bularning birinchisi tafakkur shakllarini ularning rivojlanishida olib qarasa, ikkinchisi ularni shakllangan fikrlar sifatida o'rganadi. SHuningdek, dialektik mantiq tafakkurni uning mazmuni va shakli birligida olib o'rgansa, formal mantiq fikrning shaklini uning konkret mazmunidan chetlashgan hamda nisbatan mustaqil holda olib tadqiq etadi. SHuning uchun dialektik mantiq fikrlarimizning taraqqiyoti, rivojlanishini, formal mantiq esa nisbiy turg'unligini aks ettiradi. Dialektika fikrlashning formal mantiq qonun – qoidalariga amal qilishni taqazo etadi. Dialektika ham, formal mantiq ham hamma vaqt falsafa tarkibida rivojlanib kelgan.

Dialektika esa rivojlanish jarayonida aynanlik, tafovutlar va qarama – qarshiliklar darajasiga ko'tariladi, nozidlik taraqqiyot manbai bo'lmay, balki ular o'rtasidagi qarama – qarshilik taraqqiyotni ta'minlaydi, deb ko'rsatadi. Formal mantiq va dialektik mantiq bir – biriga muqobil metodlarga asoslanadi. Ular mustaqil ta'limot hisoblanadi. Dialektik mantiq falsafiy metod sifatida, falsafaning muhim tarkibiy qismi sifatida mavjud bo'lsa, formal mantiq mustaqil fan sifatida shakllangan ta'limotdir.

Matematik mantiq fani

Matematik mantiq – fikrlash jarayonini turli simvollar yordamida, matematik usul asosida o'rganadi. Bu ta'limot mantiq fanining rivojlanishidagi Yangi bosqich hisoblanadi. Ammo matematik mantiqning matematikaning o'zidan ham, mantiq ilmidan ham farqli tomonlari bor. Shuning uchun matematikaning barcha tomonlarini bu

mantiq qonunlari bilan izohlab bo'lmaydi. Shuningdek, mantiqiy qonun va shakllarining hammasini ham matematik usul bilan hal qilib bo'lmaydi. SHunga qaramasdan matematik usul mantiq faniga singib bormoqda, uning ajralmas qismi bo'lib takomillashmoqda.

Hozirgi zamon mantiq ilmini simvollarsiz, matematik mavhumiyliksiz tasavvur qilib bo'lmaydi. SHuning uchun mantiq ilmi mutaxassislari matematik mantiq asoslari bilan tanish bo'lishlari zarur.

Mantiq jarayonini turli simvollar bilan ifodalashga intilish Arastu asarlaridayoq ko'zga tashlanadi. XVI – XVII asrlarga kelib, mexaniqa va matematika fani rivojlanishi bilan matematik metodni mantiqqa tadbiq etish imkoniyati kengaya bordi. Nemis faylasufi Leybnist har xil masalalarni echishga imkon beruvchi mantiqiy matematik metod yaratishga intilib, mantiqni matematiklashtirishga asos soldi. Mantiqiy jarayonni matematik usullar yordamida ifodalash asosan XIX asrlarga kelib rivojlana boshladi. Bu davrda yashagan rus olimi I. S. Porestkiy, nemis va ingliz olimlari J. Bul, Fure, Morgan, SHryoder kabilar o'zlarining asarlarida bu masalaga oid muhim fikrlarni ilgari surishdi. Hozirgi vaqtda matematik mantiq metodlari fan va texnikada, kibernetikada tarjimon mashinalarda va boshqa ko'p halq xo'jaligi sohalarida qo'llanilmoqda.

Mantiq fanining yo'nalishlari

Formal mantiq - fikrlashning tuzilishi va uning qonunlari haqidagi fandir. Formal mantiq fikrlashning rivojlanishini, uning takomillashish jarayonini o'rganishni o'zidan soqit qiladi. U fikrlashning mantiqiy tuzilishini, shaklini o'rganadi. Insonning fikrlash shakli, tuzilishi turli qonunlarga asoslanadi va ularni keltirib ham chiqaradi. Mantiqiy shakllarni simvollar yordamida ifoda etish mumkin. Masalan, «Hamma ziyolilar aqliy mehnat bilan shug'ullanadilar», «Hamma kapalaklar hasharotdir» degan fikrlarning mazmuni turlicha bo'lsada, ularning tuzilishi, shakli bir xildir. SHuning uchun ularni «Hamma S – R dir» yoki «Hamma a – v dir», deb ifodalash mumkin.Formal mantiq va klassik mantiq tushunchalari sinonim tushunchalar bo'lib,unda muloxazalar ikki qiymatli, ya'ni chin yoki xato bo'ladi.

Klassik mantiqdan farq qiluvchi hozirgi zamon mantig'i turli yo'nalishlardan iborat bo'lib, ular birgalikda noklassik mantiq deb nomlanadi.

Ko'p ma'noli mantiq hozirgi zamon noklassik mantig'ining bir tarmog'i bo'lib, fikrlashni «chin», «xato», «qisman chin», «qisman xato», kabi tushunchalar orqali ifodalaydi. Agar umumiy formal mantiqda mulohazalar ikki qiymatli (chin yoki xato) bo'lsa, ko'p ma'noli mantiqda mulohazalar uch va undan ortiq qiymatlidir. Shuning uchun bu mantiq «ko'p ma'noli mantiq» deb yuritiladi. Bu mantiqda eng oddiy sistema uch ma'nolidir. Masalan, Siz "inson huquqlari deklarastiyasi"ni bilasizmi? -degan savolga "ha", "yo'q", "ozgina bilaman " kabi javoblarni olish mumkin.

Induktiv mantiq (lot. Intuitio – dikqat bilan e'tibor berish, diqqat bilan kuzatish) – Xozirgi zamon noklassik mantig'i tarmog'i bo'lib, matematik intuistiya prinstiplaridan kelib chiqadi. Bu prinstiplar XX asr olimlari L. E. Brauer va A. Geytinglar tomonidan ishlab chiqilgan. Ma'lumki, nemis olimi Kantor ishlab chikqan to'plam nazariyasi bir necha hal qilib bo'lmaydigan paradokslarga uchragandan so'ng, bu krizisdan qutilish uchun logistizm, formalizm, konstruktivizm, intuistionizm kabi oqimlar paydo bo'ladi. Bular bunday ziddiyatni formal mantiq asosida hal qilishga harakat qildilar.

Klassik mantiqqa asoslangan matematikada $\forall XA$ (x) ifoda quyidagicha o'qiladi: «Hamma X A xossasiga ega». Klassik mantikqa ko'ra, agar bu ifodalar arifmetika akstiomalariga mos kelsa, to'g'ri (chin) deb qabul qilinadi. Matematika uchta musbat sonlarning bir butuni h dan tuzilgan, uni A (h)ning tashkil topish usuli qiziqtirmaydi. Intuitiv mantiqda bu sonning tuzilish usuli ma'lum bo'lgandagina AxA (X) ifodasi chin (to'g'ri) hisoblanadi. A ning to'g'riligidan (chinligidan) V ning to'g'riligini bevosita keltirib chiqarish metodi ishlab chiqilgandagina, implikastiya ($a \rightarrow v$) chin (to'g'ri) hisoblanadi.

Konsruktiv mantiq – hozirgi zamondagi matematik mantiqning asosiy oqimlaridan biri. Bu mantiq konstruktiv matematikaga asoslanib, intuitiv mantiq qoidalarini tanqidiy o'rganish asosida paydo bo'lgan. Mantiqdagi bu oqim ham Kantor to'plam nazariyasidagi paradoksni hal qilishga urinish asosida paydo bo'ldi.Konstruktiv mantiq real voqelikda mavjud bo'lmagan ham, lekin fikrda qurish mumkin bo'lgan ob'ektlarni mantiqiy taxlil qiladi. Xususan, Sokrat mayovtika usulini, Demokrit "Kanon"da (kanon – mezon, qoida) tayyor bilimlarning chin yoki xatoligini aniqlaydigan usullarni ishlab chiqqan, Arastu "Organon"ida (organon – bilim quroli) fikrni mantiqan to'g'ri qo'rish va bilimlarni hosil qilish vositalarini tadqiq etadi. Keyinchalik mantiq kanonmi yoki organonmi ? degan savol mantiqda keng muhokama kilingan.

Logistizm – bu oqim ham Kantor to'plam nazariyasidagi paradokslarni hal qilishga intilish asosida vujudga kelgan. Logistizm ham noklassik mantiqning tarmog'i bo'lib, mantiq ilmini matematikadan ustun qo'yishga intilgan oqimdir. Bu tarmoq vakillari matematika va mantiq ikki xil fan emas, balki bitta yagona fandir, deb ta'kidlaydilar. Matematikani mantiq doirasiga to'laligicha kiritish mumkin, buning uchun xech qanday qo'shimcha tushunchalar talab qilinmaydi deb ko'rsatadilar. Bu fikr matematik haqiqatni aniqlashda juda katta ahamiyatga ega edi. Matematika rivoji uchun boshqa fanlarga nisbatan mantiq juda katta ahamiyat kasb etadi. Undagi teoremalar, aksiomalar kuchli mantiqiy asosga ega. Matematika qadimdan mantiqan izchil fan deb hisoblangan. Biroq matematikani mantiq ilmi bilangina izohlash mumkin emasligini ko'pchilik matematik va mantiqshunoslar tan olishadi.

Logistizmni XVIII asr nemis faylasufi Leybnist boshlab bergan bo'lib, uni XX asr ingliz faylasufi B. Rassel nixoyasiga etkazdi. G. Frege, D. A. Bochvar, A. Chyorch kabi matematik va mantiqshunoslar B. Rassel karashini keskin tanqid qildilar va noklassik mantiqni boshqa yo'nalishlarda rivojlantirdilar.

Mantiq fani va ilmiy bilish metodologiyasi

Mantiq bilish, to'g'ri fikrlash metodlarini o'rganuvchi fandir. Ilmiy bilish jarayonida metod muammosi qadimgi davr falsafasida qo'yilgan.Xususan, Sokrat mayevtika usulini, Demokrit "Kanon"larda (kanon-mezon, qoida) tayyor bilimlarning chin yoki xatoligini aniqlaydigan usullarni ishlab chiqqan. Aristotel "Organon"ida (organon-bilish quroli) fikrni mantiqan to'g'ri qurish va chin bilim hosil qilish vositalarini tadqiq etgan. Keyinchalik mantiq kanonmi yoki organonmi?, degan savol mantiqda keng muhokama qilingan.

Yangi davrda F. Bekon birinchilardan bo'lib metod muammosini mantiq fani doirasida taxlil qilgan. R. Dekart va I. Kantlar ham bu masalaga alohida e'tibor qaratganlar. Gegel metodologiya rivojiga muhim xissa qo'shdi. Albatta, ilmiy bilish jarayonida har bir fan konkret tadqiqot ob'ektiga ega ekan, o'zining maxsus tadqiqot usullarini ishlab chiqishi zarur. Masalan, fizikaga N.Bor qo'shimcha qilish prinstipini kiritgan.

Ba'zi bir fanlar tadqiqot ob'ektlari bo'yicha bir – biriga yaqin bo'lgani uchun, ularning tushunchalari, qonunlari va metodlari ham bir – biriga yaqindir. Xususan, bilishda xususiylik va umumiylik vazifasini bajaruvchi usullar mavjuddir. Ko'pchilik fanlarda qo'llaniladigan usullar umumiy usul deyiladi. Umumiy usul qo'llanilishi doirasiga ko'ra umumiy bo'lgani bilan o'z maxsus vazifasiga ega. Bunga misol qilib mantiq fanidagi tushuncha hosil bo'lishining analiz va sintez, umumlashtirish va mavhumlashtirish kabi usullarini, shuningdek indukstiya va dedukstiya, qiyoslash va modellashtirishni ko'rsatish mumkin. Bular bilishning umummantiqiy metodlari bo'lib hisoblanadi Dialektika barcha fanlar uchun eng umumiy metod vazifasini bajaradi.

Shunday qilib, bilish jarayonida ilmiy tadqiqotning xususiy, umumiy va eng umumiy usullari mavjud bo'lib, ular o'zaro bir – biriga bog'liq.

Ilmiy bilish metodlarining nazariy asosi rivojlanib borayotgan fanning extiyojlari taqozasi bilan yuzaga kelgan bo'lib, u tabiat, jamiyat va inson ongining murakkab hodisalarini to'g'ri ob'ektiv talqin etishga, fanning tabiiy aloqalarini ochishga imkon beradi. Hozirgi davrda ilmiy bilish faoliyatining takomillashgan shakllari va usullari, tartib qoidalari, mantig'i va tuzilmalari fanda Yangi – Yangi yutuqlarni qo'lga kiritish imkonini yaratmoqda.

Mantiq fanining vazifalari

Tafakkur shakllari va qonunlarini o'rganish, ulardan ongli ravishda foydalanish fikrlash madaniyatini o'stiradi, xususan, fikrni to'g'ri qurish malakasini rivojlantiradi, bahs yuritishda o'zining va boshqalarning fikriga tankidiy munosabatda bo'lishga, suhbatdoshining mulohazalaridagi xatolarni aniqlashga, argumentlashdagi zaif bo'g'inlarni ochib tashlashga yordam beradi.

Muhokamani to'g'ri qurish, formal ziddiyatlar, xatolarga yo'l qo'ymaslikka erishish, aytish mumkinki, o'ziga xos san'at-mantiq san'ati hisoblanadi. Bu san'atning nazariy asoslarini chuqur egallagan kishigina uning imkoniyatlarini amaliy muhokama yuritishda namoyish qila oladi. Shu o'rinda buyuk mutafakkir Farobiyning mantiq ilmining ahamiyati haqida bildirgan quyidagi fikrlarining alohida e'tiborga loyik ekanligini ta'kidlash zarur. U shunday yozadi: "Bizning maqsadimiz aqlni, xatoga yo'l qo'yish mumkin bo'lgan barcha xollarda, to'g'ri tafakkurga etaklaydigan, uning yordamida har safar hulosa chikarayotganda adashishga qarshi ehtiyot choralarni ko'radigan san'atni-mantiq san'atini o'rganishdir. Uning asosiy qonun-qoidalarining aqlga bo'lgan munosabati grammatika san'ati qoidalarining tilga bo'lgan munosabatiga o'xshash; xuddi grammatika kishilarning tilini to'g'rilash ehtiyoji sababli yaratilgani, unga xizmat qilishi zarur bo'lgani singari, mantiq ham tafakkur jarayonini yaxshi amalga oshirish maqsadida xatoga yo'l qo'yish mumkin bo'lgan barcha hollarda aklni to'g'rilab turadi"[102].

Mantiq ilmining ta'lim sohasidagi vazifalari ham jiddiydir. O'quv jarayonining samaradorligi ma'lum bir darajada ishlatiladigan tushunchalarning, terminlarning aniq bo'lishiga, muammolarning mantiqan to'g'ri qo'yilishi va hal qilinishiga, mavjud gipotezalar strukturasini to'g'ri tahlil qila olishga, argumentlash qoidalaridan to'g'ri foydalanishga bog'liq.

Fan uchun formal mantiq murakkab muammolarni echish vositasini beradi. Bunday vositalar, odatda, ilmiy nazariyaning strukturasini o'rganishda, unda ishlatiladigan formalizmning mohiyatini tushuntirib berishda, formal ziddiyatlar bo'lsa, ularni aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Mantiq va insonparvarlik

Zamonamiz fanlarining barchasiga inson qadr – qimmati, uning axloqi, madaniyati nuqtayi nazaridan qarash kerak. Mantiq fani ham bundan istisno emas. Inson muammosining xal qilinishi, uning turmush tarzi, moddiy, ma'naviy, axloqiy nuqtayi nazardan takomillashishiga bog'liq.

Insoniylik muammosini hal qilishda mantiq ilmi, ma'naviy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida, alohida ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, hozirgi zamon fanida yuksak kashfiyotlar, ijtimoiy hayotda murakkab munosabatlar yuz bermoqda, bularni tahlil qilish uchun esa mantiqiy fikrlash madaniyati kerak. Fan yordamida inson faoliyati rivojlandi, uning oyoq, qo'li va boshqa organlarining o'rnini bosadigan mashinalar paydo bo'ldi. Mantiq ilmini tadbiq etish natijasida inson intellektini rejalashtiruvchi «aqliy mashina» lar vujudga keldi, binobarin, sun'iy aql vujudga kelmoqda.

Bularning barchasi insonning aqliy va jismoniy mehnatini bajaradigan mashina yaratishning chegarasi bormi?, Agar chegarasi bo'lmasa, insonning o'zi kelajakda qanday axvolga tushib qoladi ?, kabi savollarni keltirib chiqarmoqda va ularga javob berishni taqozo etadi. Bu hozirgi davrda hal qilinishi zarur bo'lgan dolzarb

[102] Ал-Фараби. Вводный трактат в логику. // Материалы по истории прогрессивной общественно-философской мысли в Узбекистане. – Т.: «Фан», 1976, с. 128.

muammolardan biridir. SHuning uchun har qanday fan, shu jumladan mantiq ilmi, inson hayotining tabiiy va ijtimoiy tomonlarini mutanosib saqlash va takomillashtirishga alohida ahamiyat berishi kerak.

Mantiq fanining nazariy va amaliy ahamiyati.Mantiq fanining ilmiy ishonch – e'tiqodning shakllanishida tutgan o'rni

Faktlar va boshqa dalillarga tayanib yuritiladigan fikr yuksak ishontirish kuchiga ega bo'ladi, kishilarda ishonch-e'tikodni mustahkamlaydi. Bilishning maqsadi ilmiy asosga ega bo'lgan e'tiqodni yaratishdan iborat. Ana shuning uchun ham yoshlarda ilmiy asosga ega ishonch-e'tiqodni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.Argumentlash ishonch-e'tiqodni shakllantirish vositasidir. Ishonch-e'tiqod esa, insonning komillik mezonlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Ishonch –e'tiqod- bu kishillarning xulq-atvori va hatti –harakatini belgilab beradigan qarashlari va tasavvurlaridir.

Vatanimizning gullab-yashnashi, barqaror rivojlanishi ma'lum bir darajada yoshlarning chuqur bilimga, mustahkam ishonch-e'tiqodga va, umuman, komil inson bo'lishlariga bog'liq. Bu haqda Prezidentimiz I. A. Karimov shunday deb ta'kidlagan: «Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'la oladigan, bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz. Ongli, bilimli odamlarni oldi-qochdi gaplar bilan aldab bo'lmaydi. U har bir narsani aql, mantiq tarozisiga solib ko'radi. O'z fikr-o'yi, xulosasini mantiq asosida qurgan kishi etuk odam bo'ladi».[103]

Chuqur tahlilga, mantiqqa asoslanmagan bir yoqlama fikr odamlarni chalg'itadi. Faqat bahs-munozara, tahlilga asoslangan to'g'ri xulosalargina haqiqatni bilishga yo'l ochadi. Bahs, munozara yuritishning, chin fikrlarni isbotlay bilishning, xato fikrlarni rad etishning o'ziga xos qonun-qoidalari mavjud. Bu qoidalarni bilish har bir insonga, shu jumladan, talabalarga chin fikrni xato fikrdan ajrata bilish, to'g'ri tafakkurlash madaniyatini shakllantirish imkonini beradi.

Mantiq ilmining fan va texnika taraqqiyoti uchun ahamiyati

Mantiqiy kategoriyalarning universal harakterga ega bo'lishi ularni bilishda, ishlab chiqarish jarayonlarida, texnika tarmoqlarida ixtisoslashtirilgan holda tadbiq etish imkoniyatini tug'diradi. Bu esa, mantiqdan turli fanlarning konkret masalalarini hal qilishda foydalanishning keng imkoniyatlarini vujudga keltiradi.

Fanning tobora rivojlanib borishi, borliqning murakkab qonunlarining kashf etilishi ilmiy bilish metodi va mantiq apparatini shunga moslashtirishni, tafakkurning har bir konkret masala xaqida aniq, xatosiz, tez hulosalar bera olishini talab qiladi.

Ilmiy va texnik jarayonning bunday talabi natijasida turli fanlarga ixtisoslashgan mantiq tarmoqlari vujudga keldi.

Fan qadriyatlar tizimida o'ziga xos o'ringa ega. U katta ilmiy saloxiyatni, ijodiy kuch – quvvatni birlashtiradi, millat dunyoqarashini shakllantiradi, ta'lim – tarbiya, axloq me'yorlarini vujudga keltiradi, ma'naviy barkamol insonni tarbiyalaydi, mamlakatda qudratli ilmiy potenstialni yaratishga xizmat qiladi.

Mantiqni bilish, ayniqsa, ilm fan bilan shug'ullanish, ilmiy - tadqiqot ishlarini olib borish, borgan sari ko'payib borayotgan ilmiy axborotlarni tartibli ravishda o'zlashtirish, ilmiy masalalarning tuzilishini tez bilib olish uchun ham muhim rol o'ynaydi. Mantiqning ilmiy – nazariy ishlar hamda insonning amaliy faoliyati uchun bo'lgan ahamiyatini alohida uqtirish bilan birga, chin hulosa chiqarishning hal qiluvchi sharti – hayotni chuqur o'rganish, har bir voqelikdagi hollarni mantiq talablari asosida bilish zarur.

Mantiq fanining fikr yuritish madaniyatini o'stirishdagi ahamiyati

Mantiq inson tafakkuri madaniyatini ko'tarish va insoniyatning uzoq tajribasi natijasida takomillashgan tafakkur shakllari, qonunlari va qoidalarini bilish uchun xizmat qiladi. U inson fikrining ketma – ket, ziddiyatsiz va asosli bo'lishini ta'minlaydi. Mantiq fani mazmunini chuqurroq o'rganish kishilarning o'z tafakkuri va o'zgalar tafakkuri natijalariga tanqidiy qarash xislatlarini rivojlantiradi. Tafakkurning bu sifatlari esa insonning turli ilmiy va amaliy faoliyatlari sohasidagi ishi uchun katta ahamiyatga ega. Mantiqiy usullardan to'g'ri foydalana olish, ta'lim tarbiya jarayonida isbot va raddiyaning mantiqiy tomonlarini bilish talabalarda o'z nutqining asosli bo'lishini ta'minlaydi, fikrdagi ziddiyatlarni ochishga yordam beradi.

Mantiqni yaxshi bilish turli ilmiy uchrashuvlar, munozaralar, muhokamalarda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Xususan, bunday hollarda fikrlash sub'ekti haqiqatni aniqlash yoki uning sofligini saqlab qolish, asoslash uchun mantiqiy qonun – qoidalarni to'g'ri tadbiq eta bilishi, suxbatdoshining fikridagi xatolarni tez topa olishi, o'z fikrini dalilli qilib bayon etishi zarur. Bu esa uning mantiq fanini yaxshi bilishiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Til – axborot belgilari tizimi

Til tafakkur bilan uzviy bog'langan, fikrimizning bevosita mavjud bo'lishini ta'minlaydigan va kishilar o'rtasida aloqa o'rnatishga xizmat qiladigan axborot belgilari tizimidan iborat. Tilni o'rganish mantiq fanining muhim vazifalaridan birini tashkil etadi. Ma'lumki, tafakkur olamni mavhumlashtirib va umumlashtirib aks ettiradigan ideal hodisadir. Mavhum narsalarni, umumiylikni faqat til yordamidagina qayd qilish mumkin.

Til va tafakkurning birligi nutqda o'z ifodasini topadi. Nutq og'zaki va yozma holda mavjud bo'lib, unda fikrimiz moddiy shaklga, ya'ni hissiy idrok etiladigan shaklga kiradi va shu tariqa u endi bir shaxsga emas, balki jamiyatga tegishli bo'lib qoladi.

---

[103] I.Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. //Asarlar to'plami. 7 jild. - T.: "O'zbekiston", 1999, 134-bet.

Til kishilarning ijtimoiy mehnat faoliyati negizida vujudga kelgan va rivojlana borgan. Ana shuning uchun ham u chuqur ijtimoiy mazmunga ega hamda madaniyatimiz va tariximizning muhim bir qismini tashkil etadi.

Til yordamida bilimlar hosil qilinadi, to'planadi va bir avloddan boshqa avlodga etkazib beriladi. SHu tariqa u ta'lim va tarbiya ishlarini amalga oshirishga, madaniyatimizni taraqqiy ettirishga yordam beradi.

Belgi bilish jarayonida boshqa bir predmetning vakili vazifasini bajaruvchi hamda u haqida ma'lum bir xabarlar berish, uni saqlash, qayta ishlash va uzatishga imkoniyat yaratuvchi moddiy predmetdir. Har qanday belgi ham til belgisi bo'la olmaydi. Tilga aloqasi bo'lmagan belgilar qatoriga nusxa-belgilar (masalan, fotografiya kartochkasi, barmoq izi va shu kabilar), indeks-belgilar yoki ko'rsatuvchi belgilar (masalan, badan haroratining ko'tarilishi – kasallik belgisi, tutun – olovning belgisi va shu kabilar) kiradi.

Til belgisi simvol–ramzlar shaklida mavjud bo'lib, o'zi ifoda qiladigan predmetlar bilan tuzilishiga ko'ra hech qanday o'xshashlikka ega emas. Mantiq o'z e'tiborini ana shunday til belgilarini o'rganishga qaratadi.

Til belgilari o'z ma'nosiga va mazmuniga ega. Til belgisining mazmunini u ifoda qilayotgan, ko'rsatayotgan ob'ekt tashkil etadi. Masalan, «auditoriya» so'zi real mavjud ob'ektni – auditoriyani aks ettiruvchi fikr mazmunini ifoda etadi. Til belgisining ma'nosini esa u ifoda qilayotgan ob'ektning xarakteristikasi (tavsifi) tashkil etadi. Masalan, «Auditoriya» so'zining ma'nosini «Mashg'ulot o'tkazish uchun mo'ljallangan xona», «Maxsus jihozlangan xona» va shu kabi ekanligi haqidagi axborotlar tashkil etadi.

Belgilarning bilishdagi vazifasini o'rganishga Arastu, Leybnist kabi mutafakkirlar katta e'tibor berganlar. Belgilar haqidagi ta'limotni taraqqiy ettirish XIX asrda aktual masalaga aylangan. Mana shu davrda amerikalik faylasuf CHarlz Pirs (1839–1914 y.y.) belgilar haqidagi fan – semiotikaga asos solgan. Bu fan til belgisini uch xil yo'nalish bo'yicha tahlil qiladi. Birinchisini semantika tashkil qilib, u belgi bilan u ifoda qilayotgan ob'ekt o'rtasidagi munosabatni o'rganadi. Ikkinchisi pragmatika bo'lib, u kishilarning belgilarga munosabatini hamda belgilar yordamida kishilar o'rtasida vujudga keladigan munosabatlarni o'rganadi. Uchinchisi, sintaksis deyilib, u belgilar o'rtasidagi munosabatlarni (tilni qurish qoidalarini) o'rganadi. Mantiq fanini ko'proq til belgilarining semantikasi qiziqtiradi.

Tabiiy va sun'iy tillar

Tilning ikkita turi mavjud. Ular tabiiy va sun'iy tillardir. Tabiiy yoki milliy tillar tarixan shakllangan tovushlar (nutq) va grafika (yozuv)ning axborot belgilari tizimidan iborat. Tabiiy tilning alohida olingan har qanday belgisi o'z holicha hech narsani ifoda qilmaydi. Bu belgilar inson amaliy faoliyati va tafakkuri taraqqiyotining negizida vujudga kelgan til sistemasiga kirgandagina ma'lum bir ma'no va mazmun kasb etuvchi belgilarga aylanadi.

Tabiiy til ob'ektiv olamning va bilishning turli xil sohalariga tegishli bo'lgan predmetlar, hodisalar hamda ularning xossalari va munosabatlarini qamrab olish va ifoda qilishdek katta imkoniyatga ega. U semantik jihatdan yopiq tizim hisoblanadi. Boshqacha aytganda, tabiiy til boshqa tillarga murojaat qilmagan holda mustaqil ravishda o'zini qurishi va ifoda qilishi mumkin.

Shuning bilan bir qatorda, tabiiy tildan foydalanish bilish jarayonida ayrim qiyinchiliklarni ham keltirib chiqaradi. Ular quyidagilar bilan bog'liq: 1) tabiiy tildagi so'zlarning ma'nosi vaqt o'tishi bilan o'zgarib turadi; 2) tabiiy tilda bir so'z bir qancha tushunchani ifoda qilishi (omonimlar) yoki bir tushuncha bir qancha so'zlarda ifoda qilinishi (sinonimlar) mumkin; 3) tabiiy tildagi ba'zi so'zlar yordamida ifoda qilingan fikr aniq ma'noga ega bo'lmay qoladi (masalan, «Karim chet tilini yaxshi bilmaydi» degan fikrda Karimning kimga nisbatan yoki qanday vazifani bajarishga nisbatan chet tilini yaxshi bilmasligi ko'rsatilmagan). Tabiiy tildagi mana shu kabi hodisalardan xoli bo'lish uchun ilmiy bilishda atamalardan (terminlardan) foydalaniladi. Atama o'zining qat'iy va aniq ma'nosiga ega so'z bo'lib, bu ma'no definistiya (ta'rif) yordamida ko'rsatiladi. SHuningdek, tabiiy tilda aniqlikka sun'iy tildan foydalanish yo'li bilan ham erishiladi.

Sun'iy til tabiiy til negizida yaratilgan yordamchi axborot belgilari tizimidan iborat bo'lib, u mavjud xabarlarni aniq hamda tejamli bayon qilish va uzatish uchun xizmat qiladi. Sun'iy tilda sun'iy yo'l bilan yaratilgan maxsus belgilar, ya'ni simvollar – ramzlar ishlatiladi. Tabiiy tildagi konkret mazmunga ega bo'lgan fikrlar ilmiy bilishda ana shunday simvollar bilan almashtiriladi. Demak, sun'iy til fikrimizning konkret mazmunidan chetlashgan holda, faqat simvollar bilan ish olib borishni ta'minlaydi.

Sun'iy tillar hozirgi zamon fani va texnikasida keng qo'llaniladi. Ularning, ayniqsa, matematika, fizika, kimyo, kibernetika, hisoblash texnikasi va shu kabi sohalar rivojlanishida hissasi katta. Sun'iy tillarning ishlatilishiga misol qilib matematikadagi to'g'ri burchakli uchburchak tomonlarini ifoda qiluvchi $Sos^2a+Sin^2a=1$ formulasini, kimyodagi suvni ifoda qiluvchi N_2O formulani, mexanikadagi tezlikni ifoda qiluvchi $V=\frac{S}{t}$ formulasini va shu kabilarni ko'rsatish mumkin. Elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlar tuzishda esa maxsus algoritmik tillar ishlatiladi. Ular «Algol – 60», «Algol – 65», «Fortran», «Kobol», «PL – 1»,

«Assembler», «Beysik» va boshqalardan iborat. Sun'iy tildan mantiq fani ham fikrimiz tuzilishini nazariy jihatdan tahlil qilishda foydalanadi.

Demak, ilmiy bilishda tabiiy tildan ham, sun'iy tildan ham foydalaniladi. Ilmiy til esa tabiiy til, sun'iy til va maxsus atamalardan tashkil topgan bo'ladi.

Mantiqning formallashgan tili

Umumiy mantiq o'zining ilmiy, formallashgan maxsus tiliga ega. U inson tafakkurining tuzilishini aniq va ravshan holda ifoda qilish maqsadida yaratilgan. Buning mohiyatini tushunish uchun formallashtirishning o'zi nima ekanligini aniqlab olish zarur.

Formallashtirish konkret mazmunga ega bo'lgan fikrlarni simvollar bilan almashtirish, ya'ni propozistional funkstiya hosil qilish, formulalar kiritish, mantiqiy qoidalarni yaratish orqali tafakkurning (fikrning) tuzilmasini ifoda qilish demakdir. Tafakkurning tuzilmasi bilan mantiqning tilda ifoda qilinishi tuzilmasi o'rtasida o'zaro muvofiqlik mavjud, ya'ni har bir konkret fikr tuzilmasiga ma'lum bir til tuzilmasi muvofiq keladi. Buni propozistional funkstiya hosil qilish misolida ko'rishimiz mumkin. «Toshkent – O'zbekistonning poytaxti» degan fikrdagi «Toshkent» tushunchasini – S, «O'zbekistonning poytaxti» tushunchasini – R bilan almashtirsak, S–R ko'rinishiga ega bo'lgan propozistional funkstiya hosil bo'ladi. Propozistional funkstiya o'zgaruvchi qiymatga ega ifoda bo'lib, bu qiymat argument bilan almashtirilganda konkret mazmunli fikr hosil bo'ladi.

Formallashgan til quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1. Asosiy belgilar aniq ifoda qilingan bo'lishi kerak. Bu belgilar asosiy tushunchalar, atamalarni ifodalaydi.

2. Ta'riflashning barcha qoidalari ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Bu qoidalarga asoslangan holda mavjud belgilar yordamida Yangi, qisqaroq belgilar hosil qilinadi.

3. Formulalarni tuzishning barcha qoidalari berilgan bo'lishi kerak. Bunga misol qilib tushunchalardan gap hosil qilish qoidalarini ko'rsatish mumkin.

4. Xulosa chiqarish qoidalarining barchasi ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Bu qo'llaniladigan belgilarning (so'z, gap, simvollar) grafik usul bilan ifodalanishiga tegishlidir.

5. Qo'llaniladigan belgilarning ma'nosini talqin qilish qoidalari ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Formallashgan tilga ega bo'lgan mantiq chin fikrni ifoda qiluvchi bir formula yordamida xuddi shunday chin fikrni ifoda qiluvchi boshqa formulani keltirib chiqara oladi. Bunda berilgan fikrning konkret mazmuni e'tiborga olinmaydi.

Formallashgan tilning ustunligi shundaki, unda mantiqiy xulosa chiqarishda ko'zda tutilmagan asoslarning qatnashib qolishi mumkin emas. Matematika va mantiqning ko'p masalalari faqat mana shu yo'l bilan echilishi mumkin.

Nihoyat, formallashgan tilning yana bir qimmatli tomoni shundaki, unda bir sohada yaratilgan formallashgan tildan boshqa bir sohaga oid masalalarni echishda foydalanish mumkin. Masalan, mantiqda sinflar bilan bo'ladigan amallarda matematika tilidan (qo'shish, ko'paytirish, to'ldirish kabi atamalardan hamda ularni ifoda qiluvchi belgilardan) fikr tuzilishini ifoda qilish uchun foydalanish mumkin. Bunda, albatta, foydalanilayotgan belgilarga maxsus ma'no beriladi.

Formallashgan tilning kamchiligi esa shundaki, u tabiiy tilga qaraganda ob'ektni yuzaki holda ifoda qiladi. Hozirgi davrda mavjud formallashgan tillar borliqning va bilishning juda kam sohalarini qamrab olgan. Bilishning qaysi sohalarida formallashgan tilni yaratish mumkinligini oldindan aytish qiyin. Shuningdek, formallashgan til empirik tadqiqotlarning o'rnini bosa olmaydi. Ana shuning uchun ham ilmiy til formallashgan tildan foydalanish bilan chegaralanib qolishi mumkin emas. Shunga qaramasdan, formallashgan til hozirgi paytda ilmiy bilishda va amaliy hayotda muhim ahamiyatga ega. U, ayniqsa, fikrning tuzilishini o'rganishga, uning mantiqiy qiymatini, ya'ni chin yoki xatoligini aniqlashga to'liq qulay sharoit yaratadi. SHuning uchun mantiqning formallashgan tilini yaratishga va uni chuqurroq o'rganishga qiziqish katta.

Tafakkurning mantiqiy shaklini o'rganishda semantik kategoriyalar muhim ahamiyatga ega. Semantik kategoriyalar til ifodalarining sinflaridan iborat bo'lib, ular bir-birlaridan qanday ob'ektlarni aks ettirishi bilan farq qiladilar. Asosiy semantik kategoriyalar qatoriga gap va uning tarkibida nisbatan mustaqil holda mavjud bo'lgan qismlari – deskriptiv va mantiqiy atamalar kiradi.

Gap hukmni, savolni va normani ifoda qilishi mumkin. Hukmni ifoda qiluvchi gap predmetga birorta belgining (xossa yoki munosabatning) xosligini tasdiqlaydi va inkor qiladi. U darak gapdan iborat. Gapda predmetlarni, ularning xossalari va munosabatlarini aks ettiruvchi ifodalar deskriptiv atamalar deyiladi. Deskriptiv atamalar predmetlar nomlari yoki termalar (predmetlarni, predmetlar to'plamini aks ettiruvchi ifodalar) va predikatorlar (predmetlarning xossalari va munosabatlarini aks ettiruvchi ifodalar)ga bo'linadi.

Predmetlarning nomlari ayrim so'zlar va so'z birikmalari bo'lib, ular moddiy (planeta, elektr toki) va ideal (sezgi, tafakkur) predmetlarni ifodalaydi. Predmet nomi belgidan iborat bo'lganligi uchun o'z mazmuni va ma'nosiga ega. Nomning mazmuni predmetni ifoda qiladi va mantiqda denotat deb ataladi. Nomning ma'nosi esa predmetning muhim, umumiy belgilarini ifoda qiladi va konstept deb ataladi. Masalan, «Arastu», «Mantiq fanining asoschisi», «Topika asarining muallifi» kabi ifodalarning mazmuni bir xil, ya'ni bitta predmetni ifodalaydi, ma'nosi esa turli xil, ya'ni fikr qilayotgan ob'ektning har xil belgilarini qayd qiladi.

SHuningdek, nomlar yakka («Toshkent shahri») yoki umumiy («shahar») bo'lishi mumkin. Bunda yakka nom bitta predmetni, umumiy nom esa, predmetlar sinfini aks ettiradi.

Predikatorlar gapda kesim o'rnida kelib, o'zi taalluqli bo'lgan nomning miqdoriga bog'liq holda bir o'rinli yoki ko'p o'rinli bo'lishi mumkin. Bunda predmetning xossasini ifoda qiluvchi predikatorlar bir o'rinli, ular o'rtasidagi munosabatlarni ifoda qiluvchi predikatorlar ko'p o'rinli predikatorlar hisoblanadi. Masalan, «O'zbekiston mustaqil respublikadir» degan mulohazada predikator bir o'rinli, «O'zbekiston Turkiya bilan iqtisodiy shartnoma tuzdi» degan fikrda «iqtisodiy shartnoma tuzdi» predikatori ikki o'rinli, «O'zbekiston Sirdaryo va Amudaryo oralig'ida joylashgan» degan fikrda «oralig'ida joylashgan» predikatori uch o'rinlidir.

Mantiqiy atamalar (mantiqiy konstantalar) doimiy mantiqiy qiymatga ega bo'lib, gapda deskriptiv atamalarni bog'lashda ishlatiladi. Ular o'zbek tilida «va», «ham», «hamda», «yoki», «yoxud», «barcha», «hech bir», «ba'zi», «emas» kabi so'zlar orqali ifodalanadi va turli xil (oddiy va murakkab) hukmlar, mulohazalarni hosil qiluvchi elementlar hisoblanadi. Masalan, «Hech bir tovar qiymatsiz emas» degan fikrda «hech bir», «emas» mantiqiy atamalar bo'lib, ularsiz deskriptiv atamalarni – «tovar», «qiymat» so'zlarini bog'lab bo'lmaydi.

Mantiqning formallashgan tilini yaratishda semantik kategoriyalar aniq ta'riflanishi va tavsiflanishi kerak. Bunga semantik kategoriyalarni konkret simvollarda aks ettirish orqali erishish mumkin. Ana shu simvollar mantiqning formallashgan tilining alifbosini tashkil etadi. Mantiqda ikkita til – predikatlar mantig'i tili va mulohazalar mantig'i tili mavjud.

Mulohazalar mantig'i hukmlarining ichki tuzilishini o'rganishdan chetlashib, ularning o'zaro mantiqiy aloqasini hisobga olgan holda muhokama etish jarayonini tahlil qiladigan formallashgan mantiqiy tizimdir. Mulohazalar mantig'i tili alifbosi ifodalar ta'riflarini va ularning talqin qilinishini o'z ichiga oladi. Xususan, bu til alifbosi quyidagilardan tashkil topgan:

1. r, q, r – propozistional o'zgaruvchilar, ya'ni hukmlar uchun simvollar.

2.$\wedge$ – kon'yunkstiya belgisi; u o'zbek tilidagi «va», «ham», «hamda» kabi bog'lovchilarga to'g'ri keladi. Masalan, «Ma'ruza tugadi (r) va uning muhokamasi boshlandi (q)», degan hukmni p$\wedge$q shaklida ifoda qilish mumkin.

3.$\vee$ – dizyunkstiya belgisi; u o'zbek tilida «yo», «yoki», «yoxud» kabi so'zlarga to'g'ri keladi. Masalan, «Elektr toki yo o'zgaruvchan (r), yo o'zgarmas bo'ladi (q)», degan hukm p$\vee$q shaklida yoziladi.

4. $\rightarrow$ – implikastiya belgisi; unga o'zbek tilida «Agar... bo'lsa, ... bo'ladi», degan ifoda to'g'ri keladi. Masalan, «Agar talaba mustaqil ishlasa (r), o'quv materiallarini yaxshi o'zlashtiradi (q)» degan hukm p$\rightarrow$q shaklida yoziladi.

5. $\equiv$– ekvivalentlik belgisi; unga o'zbek tilida «Faqat va faqat shundaki...» degan ibora to'g'ri keladi. Masalan, «Faqat juft sonlargina (r) ikki ga qoldiqsiz bo'linadi (q)», degan hukm r$\equiv$q tarzida yoziladi.

6. $\neg$ — inkor qilish belgisi. Masalan, «Ahmedov Anvar talabadir» (r) degan hukm inkor qilinganda «Ahmedov Anvar talaba emas» r hukmiga aylanadi, ya'ni r o'zining inkori bo'lgan $\neg$r ga o'zgaradi.

Predikatlar mantig'i – muhokama jarayonini hukmlarning ichki tuzilishini hisobga olgan holda o'rganuvchi formallashgan mantiqiy tizimdir. Predikatlar mantig'i alifbosi mulohazalar mantig'i alifbosiga Yangi simvollar qo'shish orqali hosil qilinadi. Ular quyidagilar:

1. a, v, s,..., – predmet nomlarini ifodalovchi simvollar, ular konstantlar deb ataladi.

2. x, u, z,..., – predmetlarning umumiy nomlarini bildiruvchi simvollar.

3. R^1, Q^1, R^1... , P^n, Q^n, R^n – predikatorlar uchun simvollar; bunda 1– bir o'rinli predikatorni, n–n o'rinli predikatorni bildiradi.

4. Hukmning miqdorini bildiruvchi simvollar: $\forall$ – umumiylik kvantori; unga o'zbek tilida «barcha», «har bir», «hech bir» kabi so'zlar to'g'ri keladi. Masalan, «Hech bir ota-ona o'z farzandiga yomonlik tilamaydi», degan hukm

$\forall$ (x)P(x) ko'rinishida yoziladi.

∃ – mavjudlik kvantori; unga o’zbek tilida «ba’zi», «ayrim» kabi so’zlar to’g’ri keladi. Masalan, «Ba’zi kishilar yakka tartibda ishlaydi» degan hukm ∃(x)R(x) ko’rinishida yoziladi.

Mulohazalar mantig’i va predikatlar mantig’i natural xulosa chiqarish tizimi (yoki aksiomatik) tizim sifatida qurilishi mumkin.

Formal mantiqning asosiy qonunlari (prinsplari)

Falsafada qonun tushunchasi narsa va hodisalarning muhim, zaruriy, umumiy, nisbiy barqaror munosabatlarini ifodalaydi. Mantiq ilmida qonun tushunchasi fikrlash elementlari o’rtasidagi ichki, muhim, zaruriy aloqadorlikni ifodalaydi.

Mantiqiy tafakkur ikki turdagi qonunlarga bo’ysunadi. Ular dialektika qonunlari va formal mantiq qonunlaridir. Dialektika qonunlari ob’ektiv olam va bilish jarayoniga xos bo’lgan eng umumiy qonunlar bo’lib, dialektik mantiqning o’rganish sohasi hisoblanadi. Formal mantiq qonunlari esa faqat tafakkurdagina amal qiladi. Dialektika qonunlari mantiqiy tafakkurni uning mazmuni va shakli birligida olib o’rgansa, formal mantiq qonunlari esa, fikrning to’g’ri tuzilishini, uning aniq, izchil, ziddiyatsiz va asoslangan bo’lishini e’tiborga olgan holda o’rganadi.

Formal mantiq qonunlari (yoki tafakkur qonunlari) deyilganda fikrlashga xos muhim, zaruriy bog’lanishlar tushuniladi. Tafakkur qonunlari ob’ektiv voqelikning inson miyasida uzoq vaqt davomida aks etishi natijasida vujudga kelgan va shakllangan.

Bu qonunlar fikrlashning to’g’ri amalga oshishini ta’minlab turadi. Ular tafakkur shakllari bo’lgan tushunchalar, mulohazalar (hukmlar) hamda xulosa chiqarishning shakllanishi va o’zaro aloqalarini ifodalaydi.

Tafakkur qonunlariga amal qilish to’g’ri, tushunarli, aniq, izchil, ziddiyatsiz, asoslangan fikr yuritishga imkon beradi. Aniqlik, izchillik, ziddiyatlardan xoli bo’lish va isbotlilik (asoslanganlik) to’g’ri tafakkurlashning asosiy belgilaridir. Bular mantiqiy qonunlarning asosini tashkil etuvchi belgilar bo’lganligi uchun, ularning har birini alohida-alohida ko’rib chiqamiz.

Ayniyat qonuni

Biror buyum yoki hodisa haqida fikr yuritilganda, ularga xos bo’lgan barcha muhim belgilar, tomonlar qamrab olinadi. Predmet haqidagi fikr necha marta va qanday holatlarda takrorlanishiga qaramasdan doimiy, o’zgarmas va qat’iy mazmunga ega bo’ladi. Tafakkurga xos bo’lgan bu aniqlik xususiyati ayniyat qonunining mohiyatini tashkil etadi.

Ayniyat qonuniga ko’ra, ma’lum bir predmet yoki hodisa haqida aytilgan ayni bir fikr ayni bir muhokama doirasida ayni bir vaqtda o’z-o’ziga tengdir. Bu qonun formal mantiq ilmida «A–A» dir formulasi bilan ifodalanadi.

Ayniyat qonuni simvolik mantiq ilmida, ya’ni mulohazalar mantig’i va predikatlar mantig’ida o’ziga xos ko’rinishga ega.

Mulohazalar mantig’ida a → a va a ↔ a. (Bunda, a – har qanday fikrni ifodalovchi belgi, → implikastiya belgisi, «↔ ekvivalentlik belgisi.)

Predikatlar mantig’ida (x(R(x)→R(x)). Bu ifoda quyidagicha o’qiladi: har qanday X uchun, agar X R belgiga ega bo’lsa, X shu belgiga ega, degan fikr to’g’ri bo’ladi.

Ayniyat qonunining asosiy talabi quyidagicha: fikrlash jarayonida turli fikrlarni aynanlashtirish va, aksincha, o’zaro aynan bo’lgan fikrlarga teng emas, deb qarash mumkin emas. Bu mantiqiy tafakkurning muhim shartlaridan biridir. Fikrlash jarayonida bu qonunni bilib yoki bilmasdan buzish holatlari uchraydi. Ba’zan bu holat bir fikrning tilda turli xil ifodalanishi bilan bog’liq bo’ladi. Masalan, «dialektika qonunlari» va «tabiat, jamiyat va inson tafakkurining eng umumiy qonunlari» tushunchalari shakliga ko’ra turlicha bo’lsa ham, mazmunan aynandir.

Ayniyat qonuni predmet va hodisalarning nisbiy barqarorligini ifoda etgan holda, tafakkurning rivojlanishini, tushunchalar va bilimimizning o’zgarib, boyib borishini inkor etmaydi. Bu qonun fikrning mazmuni predmet va hodisalarni to’laroq bilib borishimiz bilan o’zgarishini e’tirof etadi va uni hisobga olishni taqozo qiladi.

Ayniyat qonuni tafakkurga, uning barcha elementlari, shakllariga xos bo’lgan umumiy mantiqiy qonundir. Bu qonunning talablari tafakkurning har bir shakliga xos bo’lgan konkret qoidalarda aniq ifodalanadi. Tafakkurning tushuncha, mulohaza (hukm), xulosa chiqarish shakllari, ular o’rtasidagi munosabatlar shu qonunga asoslangan holda amalga oshadi.

Nozidlik qonuni

Inson tafakkuri aniq, ravshan bo’libgina qolmasdan, ziddiyatsiz bo’lishi ham zarur. Ziddiyatsizlik inson tafakkuriga xos bo’lgan eng muhim xislatlardan biridir. Ma’lumki, ob’ektiv voqelikdagi buyum va hodisalar bir vaqtda, bir xil sharoitda biror xususiyatga ham ega bo’lishi, ham ega bo’lmasligi mumkin emas. Masalan, bir vaqtning o’zida, bir xil sharoitda inson ham axloqli, ham axloqsiz bo’lishi mumkin emas. U yo axloqli, yo axloqsiz bo’ladi.

Bir vaqtning o’zida bir predmetga ikki zid xususiyatning taalluqli bo’lmasligi tafakkurda nozidlik qonuni sifatida shakllanib qolgan. Bu qonun fikrlash jarayonida ziddiyatga yo’l qo’ymaslikni talab qiladi va tafakkurning ziddiyatsiz hamda izchil bo’lishini ta’minlaydi.

Nozidlik qonuni ayni bir predmet yoki hodisa haqida aytilgan ikki o’zaro bir-birini istisno qiluvchi (qarama qarshi yoki zid) fikr bir vaqtda va bir xil nisbatda birdaniga chin bo’lishi mumkin emasligini, hech bo’lmaganda ulardan biri, albatta, xato bo’lishini ifodalaydi. Bu qonun «A ham V, ham V emas bo’la olmaydi» formulasi orqali beriladi. Mulohazalar mantig’ida bu qonun quyidagi formula orqali yoziladi ¥x(P(x)*P(x)), ya’ni har qanday (x) mulohaza uchun r(x) va uning inkori birgalikda chin bo’lmasligi to’g’ridir.

Nozidlik qonuni qarama-qarshi va zid mulohazalarga nisbatan qo’llaniladi. Bunda qarama-qarshi mulohazalarning har ikkalasi ham bir vaqtda xato bo’lishi mumkin; o’zaro zid mulohazalar esa, bir vaqtda xato bo’lmaydi, ulardan biri xato bo’lsa, ikkinchisi albatta chin bo’ladi. Qarama-qarshi mulohazalarda esa, bunday bo’lmaydi, ya’ni ulardan birining xatoligidan ikkinchisining chinligi kelib chiqmaydi. Masalan: “Arastu — mantiq fanining asoschisi” va “Arastu — mantiq fanining asoschisi emas” — bu o’zaro zid mulohazalardir. Bu zid mulohazalarning har ikkalasi bir vaqtda xato bo’lmaydi. Ulardan birinchisi chin bo’lganligi uchun, ikkinchisi xato bo’ladi. O’zaro qarama-qarshi bo’lgan “Bu dori shirin” va “Bu dori achchiq” mulohazalarining esa ikkalasi bir vaqtda, bir xil nisbatda xato bo’lishi mumkin.

Uchinchisi – istisno qonuni

Bu qonun fikrlar o’rtasidagi zid munosabatlarni ifodalaydi. Agarda zid munosabatlar fikrning to’liq mazmunini qamrab olmasa, ikki zid belgidan boshqa belgilarning ham mavjudligi ma’lum bo’lsa, unda uchinchisi istisno qonuni amal qilmaydi.

Masalan:

Talaba imtihonda «a’lo» baho oldi.

Talaba imtihonda «ikki» baho oldi.

Bu mulohazalar munosabatida nozidlik qonuni amal qiladi. Chunki bu mulohazalarning har ikkisi ham xato bo’lishi va talaba imtihonda «o’rta» yoki «yaxshi» baho olishi mumkin.

Agar, «Talaba imtihonda «a’lo» baho oldi» va «Talaba imtihonda «a’lo» baho olmadi» mulohazalarini tahlil qilsak, unda bu mulohazalardan biri chin, boshqasi xato, uchinchisiga o’rin yo’q ekanligi ma’lum bo’ladi. Chunki «yaxshi», «o’rta» va «ikki» baholar – «a’lo» baho emas.

Uchinchisi istisno qonuni quyidagi holatlarda qo’llaniladi:

1. Alohida olingan yakka buyumga nisbatan bir xil vaqt va munosabat doirasida o’zaro zid fikr bildirilganda. Masalan:

Toshkent – O’zbekistonning poytaxti.

Toshkent – O’zbekistonning poytaxti emas.

Bu mulohazalar birgalikda chin ham, xato ham bo’la olmaydi. Ulardan biri chin, ikkinchisi xato, uchinchi mulohazaga o’rin yo’q. Uchinchisi istisno qonuni o’zaro zid umumiy mulohazalar doirasida amal qilmaydi. Chunki umumiy mulohazalarda buyumlar sinfiga va shu sinfga mansub har bir buyumga nisbatan fikr bildiriladi.

Masalan:

Hamma faylasuflar notiqdir.

Hech bir faylasuf notiq emas.

Bu mulohazalardan birining xatoligidan ikkinchisining chinligi haqida xulosa chiqarib bo’lmaydi. Bunday holatda «Ba’zi faylasuflar notiqdir» degan uchinchi bir mulohaza chin hisoblanadi.

Uchinchisi – istisno qonuni:

1.Ikki zid yakka mulohazalarga nisbatan.

2.Umumiy tasdiq va juz’iy inkor mulohazalarga nisbatan.

3.Umumiy inkor va juz’iy tasdiq mulohazalarga nisbatan qo’llaniladi.

Uchinchisi – istisno qonunining amal qilishi uchun olingan zid munosabatlarni ifodalovchi mulohazalardan biri tasdiq, ikkinchisi inkor bo’lishi yoki tushunchalardan biri ijobiy va boshqasi salbiy bo’lishi shart emas. Olingan ikki tushuncha yoki mulohazaning bir-birini hajm jihatdan to’liq inkor etishi kifoya. Masalan, erkak va ayol tushunchalarining har ikkisi ijobiy bo’lib, inson tushunchasining to’liq mazmunini qamrab oluvchi zid belgilarni ifodalaydi.

Uchinchisi – istisno qonunida ham, nozidlik qonunidagi kabi vaqt, munosabat, ob'ekt aynanligiga rioya etish shart, aks holda bu qonun o'z kuchini yo'qotadi, fikrning izchilligiga zarar etadi va mantiqsizlikka yo'l qo'yiladi.

Uchinchisi – istisno qonuni, boshqa mantiqiy qonunlar singari, ziddiyatli mulohazalarning chin yoki xatoligini aniqlab berolmaydi. Buning uchun voqea va hodisalarni, ularning rivojlanish qonuniyatlarini bilish talab qilinadi. Inson o'z bilimlariga asoslangan holda o'zaro zid mulohazalardan qaysi biri chin yoki xato ekanligini aniqlaydi. Bu qonun o'zaro zid mulohazalar bir vaqtda chin bo'lmasligini tasdiqlaydi.

Uchinchisi – istisno qonunini bilish, muhokama yuritishda to'g'ri xulosa chiqarish uchun muhim bo'lib, o'zaro zid qarashlarni aralashtirib yuborishga yo'l qo'ymaydi.

Yetarli asos qonuni

To'g'ri fikrlashga xos bo'lgan muhim xususiyatlardan biri isbotlilik, ishonchlilikdir. Fikrlash jarayonida buyum va hodisalar haqida chin muhokama yuritibgina qolmasdan, bu muhokamaning chinligiga hech qanday shubha bo'lmasligi uchun uni isbotlashga, asoslashga harakat qilinadi. Bunda chinligi avvaldan ma'lum bo'lgan va o'zaro mantiqiy bog'langan mulohazalarga asoslaniladi, ya'ni bayon qilingan fikrning chinligi avvaldan ma'lum bo'lgan, chinligi tasdiqlangan boshqa bir fikr, mulohaza bilan taqqoslanadi. Tafakkurning bu xususiyati yetarli asos qonuni orqali ifodalanadi.

Inson tafakkuriga xos bo'lgan bu qonunni birinchi marta nemis faylasufi va matematigi G. Leybnist ta'riflab bergan. Uning ta'kidlashicha, barcha mavjud narsalar o'zining mavjudligi uchun yetarli asosga ega. Har bir buyum va hodisaning real asosi bo'lgani kabi, ularning in'ikosi bo'lgan fikr-mulohazalar ham asoslangan bo'lishi kerak. Yetarli asos qonunining bu talabi quyidagi formula orqali ifodalanadi: «Agar V mavjud bo'lsa, uning asosi sifatida A ham mavjud».

Yetarli asos qonunida to'g'ri tafakkurning eng muhim xususiyatlaridan biri bo'lgan fikrlarning izchillik bilan muayyan tartibda bog'lanib kelish xususiyati ifodalanadi. Bu qonun avvalgi ko'rib o'tilgan qonunlar bilan o'zaro bog'liq holda amal qiladi. Fikrlash jarayonida berilgan mulohazaning chinligini asoslash uchun keltirilgan chin mulohazalar mantiqiy asos deb, berilgan mulohazaning o'zi esa mantiqiy natija deb yuritiladi. Mantiqiy asos bilan ob'ektiv, haqiqiy real asosni aralashtirib yuborish mumkin emas. Asos va natija orasidagi mantiqiy bog'liqlikni sabab va oqibat aloqadorligidan farqlash zarur. Masalan, «Bu kishi bemor», degan mulohazani «U shifoxonada davolanyapti», degan fikr bilan asoslash mumkin. Aslida shifoxonada davolanish dastlabki mulohazaning sababi emas, balki oqibatidir. Ko'rinib turibdiki, mantiqiy asos hamma vaqt ham hodisaning sababi bilan mos kelmaydi. Fikrlarning yetarli asosga ega bo'lishligining ob'ektiv manbai faqat sabab-oqibat munosabatinigina emas, shuningdek, fikrning izchilligi, asoslanganligini, isbotlangan bo'lish xususiyatlarini ham, ya'ni ob'ektiv mazmuni sabab-oqibat munosabatlaridan tashqarida bo'lgan boshqa munosabatlarni ham o'z ichiga oladi.

Fikr-mulohazalarni asoslash murakkab mantiqiy jarayon bo'lib, unda bir yoki undan ortiq o'zaro bog'langan muhokamalar tizimidan foydalaniladi. Keng ma'noda biror mulohazani asoslash deganda, shu mulohazaning chinligini tasdiqlovchi ishonchli va yetarli dalillarning mavjudligini aniqlash tushuniladi. Bu ishonchli va yetarli dalillarni shartli ravishda ikki guruhga: empirik va nazariy asoslarga bo'lish mumkin. Bulardan birinchisi asosan hissiy bilish, tajribaga asoslansa, ikkinchisi aqliy bilish, tafakkurga tayanadi. Empirik va nazariy bilimlarning chegarasi nisbiy bo'lgani kabi, empirik va nazariy asoslar o'rtasidagi farq ham nisbiydir.

Insonning shaxsiy tajribasi fazo va zamonda chegaralangan bo'lib, sezgilari bergan ma'lumot esa hamma vaqt ham to'g'ri bo'lmaydi. SHunga qaramasdan, mulohazalarni empirik asoslashning ahamiyati katta, Chunki bilish jonli hissiy mushohadadan, bevosita kuzatishdan boshlanadi. Hissiy tajriba insonni tashqi olam bilan bog'lab turadi. Nazariy bilim esa empirik bazisning ustqurmasi hisoblanadi.

Umumiy-chin mulohazalar sifatida fanlarning qonun-qoidalaridan, tushunchalarning ta'riflaridan, shuningdek, aksiomalardan foydalaniladi. Bularning barchasi nazariy asoslashning rastional yoki demonstrativ usullari bo'lib, ular umumilmiy ahamiyatga ega bo'lgan isbotlash metodlarining asosini tashkil etadi.

SHuningdek, asoslashning sub'ektiv xarakterda bo'lgan va bevosita tajriba natijalariga yoki nazariy fikr yuritishga taalluqli bo'lmagan usullari mavjud. Intuistiyaga, e'tiqodga, avtoritetlarga va urf-odatlarga asoslanish shunday usullar jumlasiga kiradi. Bu usullardan ko'proq kundalik ong darajasida foydalaniladi.

Intuistiya hech qanday muhokama va isbotlarsiz to'g'ridan-to'g'ri haqiqatga erishish qobiliyatini ifodalaydi. Intuistiya – lotincha intuitio so'zidan olingan bo'lib, «diqqat bilan tikilib qarayman», degan ma'noni bildiradi. Intuistiya bilish jarayonida sezilarli ahamiyatga ega bo'lib, hissiy va aqliy bilishdan o'zgacha bir ko'rinishni tashkil etmaydi; o'ziga xos fikr yuritish, tafakkur qilish usulini ifodalaydi. Intuistiya orqali inson murakkab hodisalarning mohiyatini, uning turli qismlariga e'tibor bermagan holda, fikran yaxlit qamrab, tushunib oladi. Bunda tafakkur jarayonining alohida qismlari u yoki bu darajada anglanmaydi va asosan fikr yuritish natijasi – haqiqatgina anglangan holda aniq, ravshan qayd etiladi. Intuistiya haqiqatni aniqlashda yetarli asos hisoblansada, lekin bu haqiqatga boshqalarni ishontirish uchun yetarli hisoblanmaydi.

E'tiqod – kishining ishonchini qozongan va shuning uchun ham uning faoliyatida xatti-harakatlarini belgilab beradigan, uning dasturi bo'lib xizmat qiladigan qarashlarning majmuasidan iborat. E'tiqod chinligi isbotlangan

mulohazalarga yoki tanqidiy tahlil qilib ko'rilmagan, chinligi noma'lum boshlang'ich bilimlarga asoslangan bo'lishi mumkin. Intuistiya kabi e'tiqod ham sub'ektiv xarakterda bo'lib, davr o'tishi bilan o'zgarib turadi. «Anglash uchun e'tiqod qilaman», degan edi Avliyo Avgustin va Anselm Kenterberiyskiylar (1033–1109 y.y.).

Fransuz faylasufi va teologi Per Abelyar (1079–1142 y.y.) esa aql va e'tiqodning o'zaro nisbatini haqqoniy ko'rsatgan holda «E'tiqod qilish uchun tushunaman», deydi. Albatta, e'tiqod haqida fikr yuritganda ko'r-ko'rona e'tiqod bilan tarixiy va hayotiy tajriba natijasi bo'lgan, bilimga asoslangan e'tiqodni farqlash zarur. Faqat ilmiy bilimga asoslangan e'tiqodgina fikr va mulohazalarning chinligini aniqlashda yetarli asos bo'ladi. SHuning uchun ham ular inson qalbida mustahkam o'rnashib qoladi. Prezidentimiz I.A. Karimov: «Milliy mafkura – bu xalqning, millatning o'tda yonmaydigan, suvda cho'kmaydigan o'lmas e'tiqodidir» , deganda aynan shuni nazarda tutgan edi.

Avtoritet (autoritas – hokimiyat, ta'sir) – keng ma'noda ijtimoiy hayotning turli sohalarida biror shaxsning yoki tashkilotning ko'pchilik tomonidan tan olingan norasmiy ta'siridir. Yetarli asos qonuni bilan bog'liq bo'lgan masalalarni hal qilishda avtoritet tushunchasi obro'li, e'tiborli, nufuzli manba ma'nosida qo'llaniladi. Avtoritetlarga asoslanish deganda esa, biror fikr, mulohazaning chinligini asoslashda obro'li, e'tiborli, nufuzli manbalarga murojaat qilish tushuniladi. Nufuzli manba sifatida alohida shaxslarning fikr va mulohazalari, muqaddas diniy kitoblardagi bitiklar, xususan Qur'onda yozilgan sura va oyatlar, xalq maqollari va hikmatli so'zlaridan foydalaniladi.

Avtoritetlarning amal qilish doirasi va davomiyligi turli xil bo'ladi. Tor doirada amal qiladigan, qisqa muddatli avtoritetlardan fikr-mulohazalarni asoslashda hamma vaqt ham foydalanib bo'lmaydi. Chunki vaqt o'tishi yoki amal qilish doirasining o'zgarishi bu avtoritetlarning mavqeini tushirib yuborishi mumkin.

Keng doirada amal qiladigan va doimiy, muntazam bo'lgan avtoritetlargina fikr-mulohazalarning chinligini aniqlash uchun yetarli asos bo'ladi. Bunday avtoritetlar tarixiy sharoitning, siyosiy o'zgarishlarning ta'sirida o'z qadr-qimmatlarini yo'qotmaydilar, vaqt sinoviga bardoshli bo'ladilar. Umuminsoniy ma'naviy madaniyat xazinasidan joy olgan buyuk mutafakkirlarning hikmatli so'zlari, umuminsoniy-axloqiy qadriyatlar, xalqlarning ijtimoiy-tarixiy tajribasini aks ettirgan maqollar fikr-mulohazalarning chinligini asoslashda yetarli dalil hisoblanadi. Masalan, «Ilm olish uchun tinimsiz izlanish zarur» ekanligi haqidagi fikrni hazrat Mir Alisher Navoiyning «Bilmaganni so'rab o'rgangan olim, orlanib so'ramagan o'ziga zolim» so'zlari bilan, shuningdek, hadislarda keltirilgan «Beshikdan to qabrgacha ilm izla» kabi fikr-mulohazalar yordamida asoslash mumkin.

Avtoritetlarga asoslanish bilan avtoritar tafakkurni o'zaro farqlash zarur. Avtoritarlik – asoslanganlikning o'zgargan, buzilgan ko'rinishi bo'lib, unda mulohaza yuritish va uning chinligini aniqlash vazifasi avtoritetlar zimmasiga yuklanadi.

Avtoritar tafakkur yuritayotgan kishi biror muammoni o'rganishdan avval o'zini «asosiy mulohazalar yig'indisi» bilan cheklab qo'yadi. Bu mulohazalar yig'indisi tadqiqotning asosiy yo'nalishini belgilab beradi va ko'pincha avvaldan ma'lum bo'lgan natijani keltirib chiqaradi. Dastlabki asos bo'lgan fikrlar sistemasi namuna sifatida qabul qilinadi va boshqa fikrlar unga bo'ysundiriladi. Agar asosiy mulohazalarning deyarli barchasi avtoritetlar tomonidan aytilgan bo'lsa, uning davomchilariga bu fikrlarni tushuntirish va izohlash qoladi, xolos. Bu Yangiliklardan va ijodiylikdan mahrum bo'lgan fikr yuritish usuli bo'lib, dialektik tafakkurga ziddir. Avtoritetlar, nufuzli manbalar, jamiyat a'zolari, xususan, yoshlarda milliy mafkura va milliy g'oyani shakllantirishda asosiy omillardan biridir. SHu o'rinda matbuotning, ayniqsa, radio va televideniening u yoki bu manbaning avtoritet deb tan olinishidagi roli e'tiborlidir. Bu haqda Prezidentimiz I. Karimov: «Bizning matbuotimiz, televideniemiz ham tarixga oid maqolalar chop etganda, ko'rsatuvlar tayyorlaganda bir kishining fikrini yagona haqiqat sifatida qabul qilinishiga yo'l qo'ymasligi darkor. Muayyan masalada turli fikrlarni berish, bahs orqali haqiqat oydinlashuviga erishish lozim», deb ta'kidlagan.

Avtoritetlar masalasi murakkab va ko'p qirralidir. Shu sababdan fikr-mulohazalarning chinligini asoslashda avtoritet hisoblangan fikrlardan konkret sharoitga mos ravishda, me'yorga amal qilgan holda foydalanish zarur. Urf-odat avloddan avlodga meros bo'lib o'tadigan va muayyan jamiyat yoki ijtimoiy guruh tomonidan qabul qilingan bir xil shakldagi xatti-harakat, xulq-atvor usuli bo'lib, kishilarning turmush tarzi va fikr yuritishiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Urf-odatlarga asoslangan holda fikr yuritish va harakat qilish ko'pincha kishilarning turmushi, axloqiy me'yorlar va xalq marosimlari doirasida namoyon bo'ladi. Milliy g'oya va milliy mafkura urf-odatlar orqali ham jamiyat a'zolarining ongiga singib boradi. Jamiyat yoki ijtimoiy guruh tomonidan biror shaxs yoki voqea-hodisaga nisbatan bo'lgan munosabat muayyan urf-odatlar bilan asoslanadi. Bunda biror xatti-harakatni asoslash uchun «urf-odatlarimizga ko'ra...», deb fikr yuritiladi.

Fikr-mulohazalarni asoslash murakkab mantiqiy jarayon bo'lib, unda bir yoki undan ortiq o'zaro bog'langan muhokamalar sistemasidan foydalaniladi. Mulohazalarning chinligini asoslash tafakkurning eng muhim xususiyatlaridan biri bo'lib, fikrlarimizning mantiqli, tartibli, ishonarli bo'lishini ta'minlaydi. Shunday qilib, to'g'ri tafakkurning yuqorida ko'rib o'tilgan qonunlarining har biri chin bilimga erishish uchun xizmat qiladi. Bu qonunlar tafakkur jarayonida alohida-alohida yoki birin-ketin emas, balki bir vaqtda, birgalikda fikrlar bog'lanishining xarakteriga qarab amal qiladi. Ayniyat qonuniga ko'ra, fikrlash jarayonida har bir mulohaza qat'iy mazmunga ega

bo’lishi, aynan shu fikr doirasida o’zgarmasligi talab qilinadi. Bu talabning buzilishi fikrda mantiqiy ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Zid mulohazalarning chin yoki xatoligini aniqlash ularni mantiqiy asoslashni taqozo etadi.

Demak, bu qonunlarning talablari bir-birini to’ldirgan holda yaxlit mantiqiy tafakkurning chin bo’lishini ta’minlaydi.

11-mavzu: Mulohaza. Xulosa chiqarish

Reja:

1. Mulohaza tafakkur shakli va xulosa chiqarishning tarkibiy qismi sifatida.
2. Oddiy va murakkab mulohazalar va ularning turlari.
3. Xulosa chiqarishning umumiy mantiqiy tavsifi: tuzilishi, turlari va umumiy qoidalari.
4. Xulosa chiqarish turlari: deduktsiya, induktsiya va analogiya; ularning o'zaro aloqadorligi.

Hukm – predmetga ma’lum bir belgining (xossaning, munosabatning) xosligi yoki xos emasligini ifodalovchi tafakkur shaklidir. Hukmning asosiy vazifasi predmet bilan uning xususiyati, predmetlar o’rtasidagi munosabatlarni ko’rsatishdir. Ana shuning uchun ham u doimo tasdiq yoki inkor shakldagi fikrdan iborat bo’ladi. Fikr yuritish jarayonida biz predmet va hodisalarning, tashqi xususiyatlari bilan birga ularning ichki, zaruriy bog’lanishlarini, munosabatlarini bilib boramiz. Predmet va hodisalarning xususiyatlarini ketma-ket o’rganib, ular haqida hukmlar hosil qilamiz. Bilimlarimiz turlicha bo’lgani uchun ularni ifodalaydigan hukmlar ham har xil bo’ladi. Ba’zi hukmlarda aniq, tekshirilgan bilimlar ifodalansa, boshqalarida belgining predmetga xosligi taxmin qilinadi, ya’ni noaniq bilimlar ifodalanadi.

Hukmlar nisbatan tugal fikrdir. Unda konkret predmet bilan uning konkret belgisi haqida bilim ifoda qilingan bo’ladi. Hukmlar voqelikka mos kelish darajasiga ko’ra chin, xato va noaniq (ehtimol, taxminiy) bo’ladi. Ob’ektiv voqelikka mos kelgan, uni to’g’ri ifodalagan hukmlar chin, mos kelmaganlari xato bo’ladi. Ayni vaqtda chinligini ham, xatoligini ham aniqlab bo’lmaydigan hukmlar – noaniq hukmlardir.

Hukmlar tilda gaplar orqali ifodalanadi. Hukm mantiqiy kategoriya bo’lsa, gap grammatik kategoriyadir. Hukmlar asosan darak gap orqali ifodalanadi. Faqat darak gaplardagina fikr tasdiq yoki inkor holda bo’ladi.

Masalan, «Vaqt orqaga qaytmaydi», «Hayot – bu harakat» kabi gaplar hukmni ifoda qiladilar.

Oddiy hukmlar

Hukmlar tuzilishiga ko’ra oddiy va murakkab bo’ladi. Oddiy hukm deb, tarkibidan yana bir hukmni ajratib bo’lmaydigan mulohazaga aytiladi. Tarkibidan ikki yoki undan ortiq hukmni ajratish mumkin bo’lgan mulohazalarga murakkab hukm deyiladi. Masalan, «Mantiq ilmini o’rganish to’g’ri fikrlash madaniyatini shakllantiradi», degan mulohaza oddiy hukmni ifodalaydi. «Mantiq ilmi tafakkur shakllari va qonunlarini o’rganadi», degan mulohaza murakkab hukmdir. Bu mulohazaning tarkibi ikki qismdan: «Mantiq ilmi tafakkur shakllarini o’rganadi» va «Mantiq ilmi tafakkur qonunlarini o’rganadi», degan ikki oddiy hukmdan iborat.

Mulohaza (hukm) tarkibida mantiqiy ega va mantiqiy kesimni ajratib ko’rsatish mumkin. Mantiqiy ega – sub’ekt (S) fikr qilinayotgan predmet va hodisani bildiradi. Mantiqiy kesim – predikat (P) predmet xususiyatini, munosabatini bildiradi. Predikatda ifodalangan bilimlar hisobiga sub’ekt haqidagi tasavvur boyitiladi. Hukmning sub’ekt va predikati uning terminlari deb ataladi.

Hukmning uchinchi zaruriy elementi mantiqiy bog’lamadir. U sub’ekt va predikatni bir-biri bilan bog’laydi, natijada hukm hosil bo’ladi. Oddiy qat’iy hukmning formulasi quyidagicha yoziladi: S-P.

Oddiy hukmlar sifati va miqdoriga ko’ra turlarga bo’linadi. Sifatiga ko’ra, tasdiq va inkor hukmlar farqlanadi. Hukmning sifatini mantiqiy bog’lama belgilaydi. Tasdiq hukmlarda belgining predmetga xosligi, inkor hukmlarda, aksincha, xos emasligi ko’rsatiladi. Masalan, «A. Oripov O’zbekiston Respublikasi Madhiyasining muallifidir»– tasdiq hukm, «Matematika ijtimoiy fan emas» – inkor hukm. Miqdoriga ko’ra oddiy hukmlar yakka, umumiy va juz’iy hukmlarga bo’linadi. Bunda sub’ektda ifodalangan predmetlarning sonidan, ya’ni uning hajmidan kelib chiqiladi.

Yakka hukmlarda birorta belgining bir predmetga xosligi yoki xos emasligi haqida fikr bildiriladi. Masalan: «O’zbekiston Respublikasi mustaqil davlatdir», «Ahmedov tarixchi emas».

Umumiy hukmlarda birorta belgining yakka predmetlar sinfining hammasiga yoki undagi har bir predmetga taalluqli yoki taalluqli emasligi haqida fikr bayon qilinadi. Masalan, «Har bir inson baxtli bo’lishni xohlaydi» va «Hech bir aqlli odam vaqtini behuda sarflamaydi».

Juz’iy hukmlarda birorta belgining predmetlar to’plamining bir qismiga xos yoki xos emasligi haqida fikr bildiriladi. Masalan, «Ba’zi yoshlar tadbirkor». «ayrim talabalar dangasa emas». Juz’iy hukmlarda «ba’zi» so’zi «hech bo’lmasa bittasi, balki hammasi», degan ma’noda qo’llaniladi. SHunga ko’ra, «Ba’zi toshlar tirik mavjudot emas», degan hukm chin bo’ladi, chunki hech bir tosh tirik mavjudot emas.

Ma’lum ma’noda yakka hukmlarni umumiy hukmlar bilan tenglashtirish mumkin. CHunki har ikki hukmda ham to’plamdagi predmetlarning har biriga nimadir taalluqli yoki taalluqli emas, deb ko’rsatiladi. YAkka hukmlarda esa bu to’plam birgina predmetdan iborat bo’ladi.

Mulohazalarning to’g’ri yoki noto’g’riligini aniqlashda va ba’zi boshqa holatlarda oddiy hukmlarning miqdor va sifati bo’yicha birlashgan klassifikastiyasi (asosiy turlari)dan foydalaniladi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Umumiy tasdiq hukmlar. Ular bir vaqtning o’zida ham umumiy, ham tasdiq bo’lgan fikrni ifodalaydi. Masalan, «Hamma talabalar mantiq ilmini o’rganadilar». Bu hukmlar lotin alifbosidagi A harfi bilan belgilanadi va «Hamma S–Pdir» formulasi orqali ifodalanadi.

2. Umumiy inkor hukmlar bir vaqtning o’zida ham umumiy, ham inkor bo’lgan fikrni ifodalaydi. Masalan, «Hech bir ishbilarmon rejasiz ish yuritmaydi». Bu hukm «Hech bir S–P emas» formulasi orqali ifodalanadi va lotincha E harfi bilan belgilanadi.

3. Juz’iy tasdiq hukmlar bir vaqtning o’zida ham juz’iy, ham tasdiq bo’lgan fikrni ifodalaydi. Masalan, «Ba’zi talabalar mas’uliyatli». U lotincha I harfi bilan belgilanadi va «Ba’zi S–Pdir» formulasi orqali ifodalanadi.

4. Juz’iy inkor hukm bir vaqtning o’zida ham juz’iy, ham inkor bo’lgan fikrni ifodalaydi. Masalan, «Ba’zi talabalar sport bilan shug’ullanmaydilar». Uning formulasi «Ba’zi S–P emas» bo’lib, lotincha O harfi bilan belgilanadi.

Oddiy hukmlarda terminlar hajmi. Oddiy hukmlardagi terminlar (S va P) tushunchalar orqali ifodalanganligi tufayli ularning hajmiga ko’ra, o’zaro munosabatlarini aniqlash mumkin. Hukmlarda terminlar (S va P) to’liq yoki to’liqsiz hajmda olingan bo’ladi. Termin to’liq hajmda olinganda uning hajmi boshqa terminning hajmiga to’liq mos bo’ladi yoki mutlaqo mos bo’lmaydi (ularning hajmi bir-birini istisno qiladi). Termin to’liqsiz hajmda olingan bo’lsa, unda uning hajmi boshqasining hajmiga qisman mos keladi yoki undan qisman istisno qilinadi. Oddiy hukmlarda terminlar hajmi quyidagicha bo’ladi:

1. A – Umumiy tasdiq hukmlarning sub’ekti hamma vaqt to’liq hajmda olingan bo’ladi. Predikati esa ba’zan to’liq, ba’zan to’liqsiz hajmda bo’ladi. Masalan, «Hamma insonlar tirik mavjudotdir».

Bu hukmning sub’ekti – «inson», predikati – «tirik mavjudot» tushunchasidir, «hamma» – umumiylik kvantori. Bu hukmning sub’ekti to’liq hajmda olingan, chunki unda hamma insonlar to’g’risida fikr bildirilgan va bu tushuncha «tirik mavjudot» tushunchasining hajmiga to’liq kirishadi. Uning predikati to’liq hajmda olinmagan, chunki unda tirik mavjudotlarning bir qismi – insonlar haqida fikr yuritiladi. Buning doiraviy shakli quyidagicha: (1-chizma).



1-chizma.



2-chizma.

Umumiy tasdiq hukmlarning ba’zilarida S ham, R ham to’la hajmda bo’lishi mumkin. Masalan, «Hamma musulmonlar Islom diniga e’tiqod qiladilar» (2-chizma).

2. Ye – Umumiy inkor hukmlarning sub’ekti ham, predikati ham to’liq hajmda olingan bo’ladi. Masalan, «Hech bir dindor e’tiqodsiz emas». Bu hukmda S – dindorlarni, P – e’tiqodsizlarni ifodalaydi, hech bir – umumiylik kvantoridir. Bunda har ikki terminning hajmi bir-birini istisno qiladi (3-chizma).

3-chizma.

3. I – Ju diq hukmlarning sub’ekti hamma y iqsiz hajmda olinadi, predikati esa ba’zan to’liq, ba’zan to’liqsi la bo’ladi. Masalan, «Ba’zi tala gliz tilini biladi» degan hukmning terminlari quyidagicha: S alar, R – ingliz tilini biladiganlar, mavjudlik kvantori. Bu hukmda S ham, R ham to’liqsiz hajmda olingan bo’lib, har ikki terminning hajmi bir-biriga qisman mos keladi (4-chizma).



4-chizma.

YAna bir misolni ko’ramiz: «Ba’zi shifokorlar xirurgdir». Bu hukmda S – shifokorlar, R – xirurglar, ba’zi – mavjudlik kvantoridir. Hukmda sub’ekt to’liq hajmda olinmagan, chunki unda ba’zi shifokorlar haqida fikr bildirilgan, predikat esa to’liq hajmda olingan, chunki xirurglarning hammasi shifokordir. Predikatning hajmi sub’ektning hajmiga kirgani uchun u to’liq hajmda olingan bo’ladi (5-chizma).



5-chizma.

4. O – Juz’iy inkor hukmlarning sub’ekti hamma vaqt to’liqsiz hajmda, predikati esa to’liq hajmda olinadi. Masalan, «Ba’zi yoshlar hunarmand emas». Bu hukmning terminlari: S – yoshlar, R – hunarmand emaslar; ba’zi – mavjudlik kvantori. Hukmning sub’ekti to’liq hajmda olinmagan, unda yoshlarning bir qismi haqida fikr yuritiladi, xolos. Hukmning predikati esa to’liq hajmda olingan. Unda hunarmandlarning hammasi haqida fikr bildirilgan (6-chizma).

6-chizma. 

YUqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytish mumkinki, umumiy hukmlarning sub’ekti hamma vaqt to’liq hajmda, juz’iy hukmlarning sub’ekti to’liqsiz hajmda olinadi. Inkor hukmlarning predikati hamma vaqt to’liq hajmda bo’ladi. Tasdiq hukmlarning predikati R< S bo’lgandagina to’liq hajmda bo’ladi, boshqa hollarda esa to’liqsiz hajmda olinadi.

Hukmlarda terminlar hajmini aniqlash qat’iy sillogizmni to’g’ri tuzishda va bevosita xulosa chiqarishda muhim ahamiyatga ega.

Oddiy hukmlarda terminlar hajmini quyidagi shakl orqali yaqqol ifodalashda «+»,«-» belgilaridan foydalinadi. Bunda «+» to’liq hajmni, «–» to’liqsiz hajmni bildiradi.

	S	P
A	+	- (+)
E	+	+
J	-	- (+)
O	-	+

Predikatning mazmuniga ko’ra oddiy hukm turlari. Ular quyidagilardan iborat: atributiv hukmlar, mavjudlik hukmlari va munosabat hukmlari. Atributiv (sifat va xususiyat) hukmlarda biror xususiyatning predmetga xosligi yoki xos emasligi aniq, qat’iy qilib ko’rsatiladi. SHuning uchun atributiv hukmlarni birorta predmetning sinfga kirishi (mansubligi) yoki kirmasligi (mansub emasligi) haqidagi hukm deb ta’riflasa bo’ladi.

Masalan, «Hamma daraxtlar o’simliklardir» va «Hech bir o’simlik hayvon emas». Birinchi hukmda daraxtlarning o’simliklar sinfiga kirishi haqida fikr bildirilsa, ikkinchi hukmda o’simliklar va hayvonlar sinfining o’z holicha umumiylikka ega emasligi haqida fikr bildirilgan.

Ikkita, uchta va hokazo predmetlar o’rtasida muayyan munosabatlarning bo’lishi yoki bo’lmasligini ifodalagan hukmlarga munosabat hukmlari deyiladi. Masalan: «Butun bo’lakdan katta». «Ikki–uchdan kichik son». Birinchi hukmda «kattalik» munosabati butun va bo’lak o’rtasida bo’lishi tasdiqlansa, ikkinchi hukmda uch soni bilan ikki sonining munosabati haqidagi fikr tasdiqlangan.

Munosabat hukmlari sifatiga ko’ra, tasdiq yoki inkor hukm turlariga bo’linadi. Tasdiqlovchi munosabat hukmlarida predmetlar o’zaro muayyan munosabatda ekanliklari haqida fikr bildiriladi. Inkor etuvchi munosabat hukmlarida esa predmetlar o’rtasidagi muayyan munosabatlarning mavjud emasligi haqida fikr bildiriladi.

Munosabat hukmlari miqdoriga ko’ra ham turlarga bo’linadi. Xususan, ikki o’rinli munosabat hukmlari miqdoriga ko’ra yakka-yakka, umumiy-umumiy, juz’iy-juz’iy, yakka-umumiy, yakka-juz’iy, umumiy-juz’iy, juz’iy-umumiy turlarga bo’linadi.

Masalan, «Ukasi akasidan baland» (yakka-yakka); «Guruhimizning har bir talabasi fakultetimizdagi hamma o’qituvchilarni biladi» (umumiy-umumiy); «Guruhimizdagi ba’zi talabalar ba’zi hind kino yulduzlarini yaxshi biladilar» (juz’iy-juz’iy); «Tarix o’qituvchisi guruhimizdagi har bir talabani yaxshi biladi» (yakka-umumiy); «Do’stim ba’zi masalalarni yecha oladi» (yakka-juz’iy); «Guruhimizdagi hamma talabalar ingliz tilini o’rganadilar» (umumiy-yakka); «Guruhimizdagi ba’zi talabalar franstuz tilini o’rganadilar» (juz’iy-yakka); «Guruhimizdagi ba’zi talabalar «Paxtakor» komandasining har bir o’yinchisini biladilar» (juz’iy-umumiy).

Uch o’rinli, to’rt o’rinli va hokazo munosabat hukmlari ham yuqoridagi kabi turlarga bo’linadilar.

Atributiv va munosabat hukmlaridan boshqa yana mavjudlik hukmlari (Kutubxonada mantiq darsligi bor), ayniyat hukmlari («A–B» ko’rinishda bo’lgan) va modal hukmlar (ehtimol yomg’ir yog’adi)ni ko’rsatish mumkin. Ba’zi darsliklarda ular oddiy qat’iy hukm turlari sifatida talqin qilinadi. Biz bu hukm turlarini alohida ko’rib chiqmaymiz, chunki mavjudlik hukmlarini ko’pincha atributiv hukmlar ko’rinishida, ayniyat hukmlarini munosabat hukmlari ko’rinishida talqin qilish mumkin.

SHuningdek, oddiy hukm turlari sifatida ajratib ko’rsatuvchi va istisno qiluvchi hukmlar ham farqlanadi. «Guruhimiz talabalaridan faqat 4 kishi musobaqada qatnashadi». Bu ajratib ko’rsatuvchi hukmdir. «Mantiq tarixi» kursidan boshqa hamma o’qitiladigan fanlardan darsliklar yetarli». Bu istisno qiluvchi hukmdir.

Murakkab hukmlar

Hukm terminlari birdan ortiq bo’lsa, murakkab hukm deb ataladi. Murakkab hukmlar «va», «yoki», «agar... unda» kabi mantiqiy bog’lamalar, inkor qilish va modal terminlarni qo’llash orqali ikki va undan ortiq oddiy hukmlarning o’zaro birikishidan hosil bo’ladi. Mantiqiy bog’lovchining mazmuniga ko’ra murakkab hukmlarning quyidagi asosiy turlarini farq qilish mumkin: birlashtiruvchi, ayiruvchi, shartli, ekvivalent.

Birlashtiruvchi (kon’yunktiv) hukmlar deb ikki va undan ortiq oddiy hukmlarning «va», «ham», «hamda» kabi mantiqiy bog’lovchilar vositasida o’zaro birikishidan hosil bo’lgan hukmlarga aytiladi. Masalan, 1.«Qo’ng’iroq

chalindi va dars boshlandi». 2.«A. Navoiy shoir va davlat arbobi bo'lgan». 3.«Muhammad Xorazmiy va Ahmad Farg'oniylar matematika fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar».

Birinchi birlashtiruvchi hukm ikki mustaqil oddiy hukmning bog'lanishidan hosil bo'lgan. Ikkinchi hukmda bir xil sub'ektga ega bo'lgan ikki oddiy hukm o'zaro bog'langan. Uchinchi birlashtiruvchi hukmda esa bir xil predikatga ega bo'lgan ikki oddiy hukm o'zaro bog'langan. O'zbek tilida birlashtiruvchi hukmlar «ammo», «lekin», «biroq» kabi bog'lamalar va (,) vositasida ham tuziladi. Mantiqiy bog'lamalar kon'yunkstiya belgisi «∧»orqali ifodalanadi. Formulasi r∧q.

Kon'yunktiv (birlashtiruvchi) hukm tarkibidagi oddiy hukmlarni «r» va «q» shartli belgilari bilan belgilasak, unda bu hukm «∧» formulasi orqali ifodalanadi. Kon'yunktiv hukm tarkibidagi oddiy hukmlar chin yoki xato bo'lishi mumkin. Tarkibidagi hamma oddiy hukmlar chin bo'lganda, birlashtiruvchi hukm chin bo'ladi. Boshqa hamma holatlarda esa xato bo'ladi. Masalan, «YOlg'on gapirish va o'g'irlik qilish jinoyatdir» hukmidagi birinchi oddiy gap «YOlg'on gapirish jinoyatdir» chin bo'lmaganligi uchun bu hukm chin bo'lmaydi.

Ayiruvchi (diz'yunktiv) hukm deb «yo», «yoki», «yoxud» mantiqiy bog'lamalari vositasida oddiy hukmlardan tashkil topgan mulohazaga aytiladi. Bu bog'lovchilar ikki oddiy hukmni yoki bir qancha predikatlarni. yoki bir qancha sub'ektlarni bir-biridan ayirib turadi. Masalan, «Qodirov falsafa yoki sostiologiya, yoki psixologiya bo'limida o'qiydi». «Konstertda birinchi yoki ikkinchi kurs talabalari qatnashadilar». Ayiruvchi bog'lamalar «V» – diz'yunkstiya belgisi orqali ifodalanadi. Ayiruvchi (diz'yunktiv) hukmlar oddiy yoki qat'iy turlarga bo'linadi. Oddiy diz'yunktiv hukm tarkibidagi oddiy hukmlardan biri yoki hammasi chin bo'lishi mumkin, qat'iy diz'yunktiv hukmda esa tarkibidagi oddiy hukmlardan faqat bittasi chin bo'ladi. Oddiy diz'yunktiv hukm pVq formulasi bilan, qat'iy diz'yunktiv hukm pVq formulasi bilan belgilanadi.

«A.Avloniy shoir yoki dramaturgdir». Bu oddiy diz'yunktiv hukm. «Abdullaev musobaqada yo yutadi, yo yutmaydi». Bu qat'iy diz'yunktiv hukm.

SHartli (implikativ) hukm ikki oddiy hukmning «agar... unda» mantiqiy bog'lamasi orqali birikishidan tashkil topadi. SHartli hukmning mohiyatini aniqlash uchun zaruriy va yetarli shart tushunchalarini farqlash zarur. Hodisaning zaruriy sharti deb, uning mavjudligini ta'minlaydigan holatga aytiladi. Agar hodisaning sharti zaruriy bo'lmasa, hodisa ham bo'lmaydi. Masalan, «Agar o'simlik suvsiz qolsa, u quriydi».

Hodisa uchun yetarli bo'lgan shart deb, har safar shu shart bo'lganda, o'sha hodisa kuzatiladigan holatga aytiladi. Masalan, «Agar yomg'ir yog'sa, unda uylarning tomi ho'l bo'ladi». SHartlar «etarli, lekin zaruriy bo'lmagan», «zaruriy, lekin yetarli bo'lmagan», «zaruriy va yetarli» bo'lishi mumkin. Masalan, N sonining ikki va uchga bo'linishi uning oltiga bo'linishi uchun zaruriy va yetarli shart hisoblanadi. N sonining ikkiga bo'linishi uning oltiga bo'linishi uchun zaruriy, lekin yetarli bo'lmagan shartdir. N sonining o'nga bo'linishi uning ikkiga bo'linishi uchun yetarli, lekin zaruriy bo'lmagan shartdir.

SHartli hukm tarkibida asos va natija qismlari farqlanadi. SHartli hukmning «agar» va «unda» so'zlari oralig'idagi qismi – asos, «unda» so'zidan keyingi qismi – natija deb ataladi. «agar yomg'ir yog'sa, unda uylarning tomi ho'l bo'ladi» hukmida «yomg'ir yog'sa» hukmi asos, «uylarning tomi ho'l bo'ladi» hukmi – natija hisoblanadi.

Demak, asosda ko'rsatilgan hodisa, natijada qayd etilgan hodisaning kelib chiqishi uchun yetarli shartni ifodalagan hukm shartli hukm deyiladi.

SHartli (implikativ) hukmlar «agar ... unda» mantiqiy bog'lamasi (→) belgi bilan ifodalanadi. Hozirgi zamon mantiq ilmida esa ba'zan (⊃) simvoli bilan belgilanadi. Bu simvollar moddiy implikastiya belgisi deb ataladi. SHartli hukm esa implikativ hukm deb yuritiladi. Implikativ hukmning asosi – antestedent, natijasi – konsekvent deyiladi. Implikativ hukm antestedent – chin, konsekvent – xato bo'lgan holatdan boshqa hamma ko'rinishlarda chin bo'ladi.

Ekvivalentlik hukmlari «agar va faqat agar ... unda» mantiqiy bog'lovchisi yordamida ikki oddiy hukmning o'zaro bog'lanishidan hosil bo'ladi. Tabiiy tilda ekvivalentlik hukmi shartli hukm ko'rinishida ifodalanadi. Bunday holatlarda shartli hukmning ekvivalent hukm ekanligini aniqlash zarur bo'ladi. Agar shartli hukmning asosi natijada qayd etilgan fikr uchun zaruriy va yetarli shart hisoblansa, unda bu hukm ekvivalent hukm bo'ladi. Masalan, «Agar berilgan butun son juft son bo'lsa, unda u ikkiga qoldiqsiz bo'linadi».

Ekvivalent hukmning mantiqiy bog'lovchisi (↔) simvoli, ya'ni (moddiy) ekvivalentlik belgisi bilan ifodalanadi. Ekvivalent hukmning asosi va natijasi chin bo'lganda yoki ham, natijasi xato bo'lganda,u chin hisoblanadi.

Murakkab xukmlarning chin bo'lish shartlari

P	Q	p^q	pVq	pVq	p→q	p↔q
chin	Chin	chin	chin	xato	chin	chin
chin	Xato	xato	chin	chin	xato	xato
xato	Chin	xato	chin	chin	chin	xato
xato	Xato	xato	xato	xato	chin	chin

Hukmlarning inkor qilinishi. Ikki hukm bir-biriga zid bo'lib, ulardan biri albatta chin, boshqasi xato bo'lsa, bu hukmlar bir-birini inkor qiluvchi hukmlar bo'ladi. Inkor qilinayotgan hukm chin bo'lsa, inkor qilayotgan hukm xato bo'ladi. Inkor qilinayotgan hukm xato bo'lsa, inkor qilayotgan hukm chin bo'ladi.

Quyidagi hukmlar bir-birini inkor qiladi:

1. A–O. Hamma o'zbek ayollari oliy ma'lumotli (xato).

Ba'zi o'zbek ayollari oliy ma'lumotli (chin).

2. Ye–I. Hech bir inson tosh emas (chin).

Ba’zi insonlar toshdir (xato).

Hukmlarni predikatning sub’ektga taalluqli emasligini ko’rsatish va hukmni xato deb ko’rsatish orqali inkor qilish mumkin. Birinchisi ichki inkor, ikkinchisi tashqi inkor deyiladi.

Masalan:

Ba’zi talabalar a’lochi emas (ichki inkor).

Quyoshning Yer atrofida aylanishi – noto’g’ri fikrdir (tashqi inkor).

Kon’yunktiv va diz’yunktiv hukmlar inkor qilinganda ularning mantiqiy bog’lamalari almashadi va tarkibidagi oddiy hukmlar inkor qilinadi.

1) Ayiruvchi hukmni inkor qilish.

Men darsdan so’ng yo kutubxonaga, yo do’stimnikiga boraman. Men darsdan so’ng kutubxonaga ham, do’stimnikiga ham bormadim.

pVq ≡ p^q

2) Ayiruvchi inkor hukmni inkor qilish.

«Hunar o’rganmagan yoki ilm olmagan insonlar hayotda o’z o’rnini topmaydi». «Hunar o’rgangan, ilm olgan insonlar hayotda o’z o’rnini topadi».

pVq ≡ p^q

3) Birlashtiruvchi hukmni inkor qilish.

«Halol va vijdonli odamlar axloqli bo’ladilar». «Halol bo’lmagan yoki vijdonli bo’lmagan odamlar axloqsiz bo’ladilar».

p^q ≡ pVq

4) Birlashtiruvchi inkor hukmni inkor qilish.

«A’lochi va jamoatchi bo’lmagan talabalar tanlovda ishtirok etmaydilar». «A’lochi yoki jamoatchi bo’lgan talabalar tanlovda ishtirok etadilar».

p^q ≡ pVq

Bu formulalar de-Morgan qonunlari deb ataladi.

Agar murakkab hukm tarkibida shartli hukm bo’lsa, formula unga aynan teng bo’lgan, implikastiyasi bo’lmagan boshqa formulaga almashtiriladi. Masalan, «Agar bo’sh vaqtim bo’lsa, unda televizor ko’raman». «Bo’sh vaqtim bo’ldi, lekin televizor ko’rmadim».

Xukmlar o’rtasidagi munosabatlar

Hukmlar ham tushunchalar kabi taqqoslanadigan (umumiy sub’ekt yoki predikatga ega bo’lgan) va taqqoslanmaydigan turlarga bo’linadi. Taqqoslanadigan hukmlar sig’ishadigan yoki sig’ishmaydigan bo’ladi. Mantiqda ikki hukm (r va q) dan birining chinligidan ikkinchisining xatoligi zaruriy kelib chiqadigan bo’lsa, ular o’zaro sig’ishmaydigan hukmlar deyiladi. Sig’ishmaydigan hukmlar bir vaqtda chin bo’la olmaydi. Sig’ishadigan hukmlar aynan bir fikrni to’liq yoki qisman ifodalaydi. Sig’ishadigan hukmlar o’zaro ekvivalentlik, mantiqiy bo’ysunish va qisman mos kelish (subkontrar) munosabatida bo’ladi.

Sig’ishmaydigan hukmlar qarama-qarshilik (kontrar) va zidlik (kontradiktorlik) munosabatida bo’ladi. Hukmlar o’rtasidagi munosabatlarning shakliy ifodasi «mantiqiy kvadrat» deb ataladi. Mantiqiy kvadrat orqali «hukm»lar o’rtasidagi chinlik munosabatlari aniqlanadi.

Masalan, «Har bir jamiyat o’z axloqiy normalariga ega». Bu A – umumiy tasdiq hukm Ye, I, O ko’rinishlarda quyidagicha ifodalanadi:



E. Hech bir jamiyat o’z axloqiy normalariga ega emas.

I. Ba’zi jamiyatlar o’z axloqiy normalariga ega.

O. Ba’zi jamiyatlar o’z axloqiy normalariga ega emas.

Bu hukmlar taqqoslanadigan hukmlar bo’lib, ular o’rtasida chinligiga ko’ra o’ziga xos munosabatlar mavjuddir.

Sig’ishmaydigan hukmlar o’rtasida qarama-qarshilik (kontrar) va zidlik (kontradiktorlik) munosabatlari bo’ladi. Qarama-qarshilik munosabati mazmuniga ko’ra turlicha bo’lgan umumiy hukmlar o’rtasida mavjud bo’lib, bu munosabatga ko’ra ularning har ikkisi bir vaqtda chin bo’la olmaydi. Bu hukmlar bir vaqtda xato bo’lishi mumkin; agar ulardan birining chinligi aniq bo’lsa, unda boshqasi, albatta, xato bo’ladi. YUqoridagi misollardan A– hukm chin, Ye – hukm xato ekanligi ma’lum bo’ladi.

Zidlik munosabati mazmuni va hajmiga ko'ra turlicha bo'lgan hukmlar o'rtasida mavjud bo'ladi. Bu hukmlarning har ikkisi bir vaqtda chin ham, xato ham bo'lmaydi. Ulardan biri hamma vaqt chin, boshqasi esa xato bo'ladi. YUqoridagi misollardan A – hukm chin bo'lib, O – hukm xatodir. SHuningdek, I – hukm chin, Ye – hukm xatodir.

Sig'ishadigan hukmlardan mazmuni bir xil, hajmi turli xil bo'lgan hukmlar o'zaro bo'ysunish munosabatida bo'ladi. Bunda umumiy hukmlar bo'ysundiruvchi, juz'iy hukmlar bo'ysunuvchi bo'ladi. Bo'ysunish munosabatida umumiy hukmlar chin bo'lsa, ularga bo'ysunuvchi juz'iy hukmlar ham chin bo'ladi. Lekin juz'iy hukmlar chin bo'lganda, umumiy hukmlar noaniq (chin yoki xato) bo'ladi. YUqoridagi misoldan A – hukm chin bo'lgani uchun unga bo'ysunuvchi I – hukm ham chin bo'ladi. Agar umumiy hukmlar xato bo'lsa, ularga bo'ysunuvchi juz'iy hukmlar noaniq (chin yoki xato) bo'ladi. Misolimizda Ye – hukm xato bo'lgani uchun O – hukm ham xato bo'ladi. Ba'zi holatlarda umumiy hukmlar xato bo'lsa, juz'iy hukmlar chin bo'ladi.

Qisman moslik (subkontrar) munosabati mazmuni har xil bo'lgan juz'iy hukmlar o'rtasida mavjud bo'ladi. Bu hukmlar bir vaqtda chin bo'lishi mumkin, lekin har ikkisi bir vaqtda xato bo'lmaydi. Agar ulardan birining xatoligi aniq bo'lsa, unda boshqasi, albatta, chin bo'ladi. YUqoridagi misolimizda O – hukmning xatoligi aniq bo'lgani uchun I – hukm chindir.

Ekvivalentlik munosabatidagi hukmlar hamma vaqt chin bo'ladi, chunki ularda aynan bir fikr turli shaklda ifodalanadi. Masalan, «A. Oripov O'zbekiston Respublikasi Madhiyasining muallifi» va «A. Oripov – O'zbekiston Qahramoni» hukmlari o'zaro ekvivalentdir, ya'ni ular bir xil sub'ektga, lekin har xil predikatga ega bo'lgan hukmlardir.

Hukmlarning chinligiga ko'ra munosabatini ifodalovchi yuqorida ko'rsatilgan qonuniyatlar bilishda katta ahamiyatga ega.

Hukmlarning modalligi. Atributiv va munosabat hukmlari, shuningdek, ulardan tashkil topgan murakkab hukmlar assertorik (lot. assero – tasdiqlayman) yoki voqelik hukmlari deyiladi. Ularda predikatda ko'rsatilgan belgining sub'ektda bor yoki yo'qligi haqida fikr bildiriladi. Modal hukmlarda esa predikatning sub'ektga tegishli yoki tegishli emasligi haqidagi fikr qat'iy, kuchli (zaruriy) yoki qat'iy bo'lmagan, kuchsiz (ehtimol) tasdiq yoki inkor shaklida bayon qilinadi. Boshqacha aytganda, modal hukmlarda sub'ekt va predikatning o'zaro munosabati haqida muayyan nuqtayi nazardan fikr bildiriladi. Masalan, «Inson abadiy yashamaydi» assertorik hukmi «Inson abadiy yashashi mumkin emas», deb bayon qilinganda modal hukm ko'rinishida ifodalanadi. Bu hukm avvalgisiga nisbatan kuchli. «Ukam ingliz tilini o'rganadi» hukmiga nisbatan «Ukam ingliz tilini o'rganishi mumkin» hukmi kuchsiz tasdiq hukm hisoblanadi. Bu hukmlardan birinchisi assertorik, ikkinchisi modal hukmdir.

Assertorik (voqelik) hukmlarga shart, zarur, mumkin kabi modal tushunchalar (operatorlar)ni kiritish orqali modal hukmlar hosil qilinadi. Modal operator M harfi bilan belgilanadi.

Modal hukmlar modal mantiqda o'rganiladi. Unda aletik (zaruriy), epistemik (eng ishonchli bilim), deontik (majburiylik), aksiologik (baholash) va vaqt modalligini ifodalovchi hukmlar tahlil qilingan.

Biz bulardan aletik modal hukmlarini ko'rib chiqamiz. Aletik modal hukmlar sub'ekt va predikat o'rtasidagi ikki turli aloqadorlikni o'z ichiga oladi: zaruriy va problematik (ehtimoliy).

Modal hukmlarni ifodalash uchun turli modal operatorlardan foydalaniladi. Masalan, aletik modal hukm-larda quyidagi modal operatorlardan foydalaniladi:

«□ A» – A zaruriydir.

« Δ A» – A tasodifiydir.

«◊A» – A bo'lishi mumkin.

«¬ A» – A bo'lishi mumkin emas.

Ba'zan «Lp» –«r zaruriydir», «Mr» – «r bo'lishi mumkin» belgilaridan ham foydalaniladi.

Zaruriy modal hukmlar turli fanlarning qonunlarini, shu jumladan, mantiq qonunlarini va ulardan kelib chiqadigan holotlarni ifodalaydi. Masalan, «Butun bo'lakdan katta», «Har bir fuqaro qonunlarga bo'ysunishi shart».

Qonunlarga zid bo'lgan, ularni va ulardan kelib chiqadigan turli holotlarni inkor etuvchi hukmlar ehtimoliy hukmlari deyiladi. Masalan, «Simob daryosining bo'lishi mumkin emas».

Qonunlar va ulardan kelib chiqadigan holatlarga zid bo'lmagan, qonunlarni ham, ularning oqibatlarini ham ifodalamaydigan hukmlar tasodifiy hukmlar deyiladi. Masalan, ba'zi hududlarda dengiz ko'pigining toshqini bo'lishi tasodifiydir.

Ehtimollik hukmlari deb, qonunlar va ularning oqibatlariga zid bo'lmagan fikrlarga aytiladi. Masalan, «Marsda hayot bo'lishi mumkin».

Modal tushunchalardan hamma sohalarda foydalanish mumkin.

Xulosa chiqarish

Xulosa chiqarish – tafakkurning mantiqiy shakli

Voqelikni bilish jarayonida inson Yangi bilimlarga ega bo'ladi. Bu bilimlar abstrakt tafakkur yordamida, mavjud bilimlarga asoslangan holda vujudga keladi. Bunday bilimlarni hosil qilish mantiq ilmida xulosa chiqarish, deb ataladi.

Xulosa chiqarish deb, bir va undan ortiq chin mulohazalardan ma'lum qoidalar yordamida Yangi bilimlarni keltirib chiqarishdan iborat bo'lgan tafakkur shakliga aytiladi.

Xulosa chiqarish jarayoni asoslar, xulosa va asoslardan xulosaga o'tishdan tashkil topadi. To'g'ri xulosa chiqarish uchun, avvalambor, asoslar chin mulohazalar bo'lishi, o'zaro mantiqan bog'lanishi kerak.

Masalan, «Arastu – mantiq fanining asoschisi» va «Platon yunon faylasufidir» degan ikki chin mulohazadan xulosa chiqarib bo'lmaydi. CHunki bu mulohazalar o'rtasida mantiqiy aloqadorlik yo'q.

Xulosa asoslari va xulosa ham o'zaro mantiqan bog'langan bo'lishi shart. Bunday aloqadorlikning zarurligi xulosa chiqarish qoidalarida qayd qilingan bo'ladi. Bu qoidalar buzilsa, to'g'ri xulosa chiqmaydi. Masalan, «Talaba A – a'lochi» degan mulohazadan «Talaba A – odobli», deb xulosa chiqarib bo'lmaydi.

Xulosa chiqarish xulosaning chinlik darajasiga ko'ra, aniqrog'i, xulosa chiqarish qoidalarining qat'iyligiga ko'ra hamda xulosa asoslarining soniga va fikrning harakat yo'nalishiga ko'ra bir qancha turlarga bo'linadi.

Xulosa



Mazkur tasnifda xulosa chiqarishni fikrning harakat yo'nalishi bo'yicha turlarga ajratish nisbatan mukammalroq bo'lib, u xulosa chiqarishning boshqa turlari haqida ham ma'lumot berish imkonini yaratadi. Xususan, deduktiv xulosa chiqarish zaruriy xulosa chiqarish, induktiv xulosa chiqarish (to'liq indukstiyani hisobga olmaganda) va analogiya ehtimoliy xulosa chiqarish, deb olib qaralishi, bevosita xulosa chiqarish esa deduktiv xulosa chiqarishning bir turi sifatida o'rganilishi mumkin.

Deduktiv xulosa chiqarish

Deduktiv xulosa chiqarishning muhim xususiyati unda umumiy bilimdan juz'iy bilimga o'tishning mantiqan zaruriy xususiyatga egaligidir. Uning turlaridan biri bevosita xulosa chiqarishdir.

Faqat birgina mulohazaga asoslangan holda Yangi bilimlarning hosil qilinishi bevosita xulosa chiqarish, deb ataladi. Bevosita xulosa chiqarish simvolik mantiqda quyidagicha ifodalanadi: XYSP, bunda X va Y oddiy

qat'iy mulohazalarni (A, E, I, O), S va P lar esa mulohazalarning sub'ekti va predikatini ifodalaydi. XSP– xulosa asosi yoki antesedent, YSP – xulosa yoki konsekvent, deb ataladi. Bevosita xulosa chiqarish jarayonida mulohazalarning shaklini o'zgartirish orqali Yangi bilim hosil qilinadi. Bunda asos mulohazaning tarkibi, ya'ni sub'ekt va predikat munosabatlarining miqdor va sifat tavsiflari muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bevosita xulosa chiqarishning quyidagi mantiqiy usullari mavjud:

I. Aylantirish (lot.–obversio) shunday mantiqiy usulki, unda berilgan mulohazaning miqdorini saqlagan holda, sifatini o'zgartirish bilan Yangi mulohaza hosil qilinadi. Bu usul bilan xulosa chiqarilganda qo'sh inkor sodir bo'ladi, ya'ni avval asosning predikati, keyin bog'lovchisi inkor etiladi. Buni quyidagi ko'rinishda yozish mumkin:

$$\frac{S - P}{\overline{\overline{S - P}}}$$

Inkor qilish jarayonida inkor yuklamalaridan (-ma; -siz; -mas) yoki inkor qilinayotgan tushunchaga zid bo'lgan tushunchalardan foydalaniladi. Oddiy qat'iy mulohazalarning hammasidan aylantirish usuli bilan xulosa chiqariladi. Xulosa asosi bo'lgan mulohaza xulosada quyidagicha ifodalanadi:

		Xulosa asosi		Xulosa
1	A	Hamma S-P	E	Hech bir S-Psiz emas
2	E	Hech bir S-P emas	A	Xamma S emas P dir
3	I	Ba'zi S-P	O	Ba'zi S-P siz emas
4	O	Ba'zi S-P emas	I	Ba'zi S emas P dir

Aylantirish usuli bilan hulosa chiqarilganda "biror nimaning qo'shinkori uning tasdig'i bilan tengdir " degan qoida amal qiladi.

Masalan:

1. A. Hamma ilmiy qonunlar ob'ektiv xarakterga ega.

Ye. Hech bir ilmiy qonun sub'ektiv xarakterga ega emas.

II. Almashtirish (lot.–conversio) shunday mantiqiy xulosa chiqarish usuliki, unda xulosa berilgan mulohazadagi sub'ekt va predikatning o'rnini almashtirish orqali keltirib chiqariladi.

Almashtirishda berilgan mulohazadagi terminlar hajmi e'tiborga olinishi shart.

		Xulosa asosi		Xulosa	Almashtirish turi
1	A	Hamma S-P	A	Hamma P-S	Sof almashtirish
2	E	Hech bir S-P emas	E	Hech bir P- S emas	Sof almashtirish
3	I	Ba'zi S-P	I	Ba'zi P - S	Sof almashtirish
4	A	Hamma S-P	I	Ba'zi P - S	Toraytirilgan almashtirish
5	I	Ba'zi S-P emas	A	Hamma P - S	Kengaytirilgan almashtirish

Juz'iy inkor mulohazadan (0) almashtirish usuli bilan xulosa chiqarib bo'lmaydi.

Almashtirishga misol:

*A.*Hamma shifokorlar oliy ma'lumotlidir.

I. Ba'zi oliy ma'lumotlilar shifokorlardir.

Demak, almashtirish usuli qo'llanilganda mulohazadagi sub'ekt va predikat hajmi aniqlanadi va shu asosda mulohazadagi terminlarning o'rni almashtirilib, xulosa chiqariladi. Bu usul, ayniqsa, tushunchaga berilgan ta'riflarning to'g'riligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

III. Predikatga qarama-qarshi qo'yish (lot.– contrapositio) bevosita xulosa chiqarishning mantiqiy usullaridan biri bo'lib, bu usul qo'llanilganda berilgan mulohaza avval aylantiriladi, so'ngra almashtiriladi. Natijada hosil qilingan mulohazaning (xulosaning) sub'ekti asos mulohaza predikatiga zid, predikati esa uning sub'ektiga mos bo'ladi:

$$\frac{S - P}{\overline{\overline{P} - S}}$$

Bunda, xulosada S ning inkor shaklida bo'lishi xulosa bog'lovchisining inkor etilishi natijasidir. Predikatga qarama-qarshi qo'yishda A-E ga, Ye-I ga, 0-I ga o'zgaradi.

Turli mulohazalardan bu usul vositasida xulosa chiqarish quyidagi shaklda ko'rsatilgan:

		Xulosa asosi	Xulosa
	A	Hamma S-P	Hech bir R emas S emas
	E	Hech bir S - P emas	Ba'zi R emas S dir
	O	Ba'zi S - P emas	Ba'zi R emas S dir

Masalan:

1. A. Hamma musulmonlar Islom diniga e'tiqod qiladilar.Islom diniga e'tiqod qilmaydiganlar musulmon emas.

Juz'iy tasdiq (I) mulohazadan predikatga qarama-qarshi qo'yish usuli bilan xulosa chiqarib bo'lmaydi. CHunki, «Ba'zi S-P mulohazani aylantirsak «Ba'zi S-P mas emas», ya'ni juz'iy inkor hukm kelib chiqadi. Undan almashtirish orqali xulosa chiqarib bo'lmaydi.

IV. Mantiqiy kvadrat orqali xulosa chiqarish.

Bunda oddiy qat'iy mulohazalarning o'zaro munosabatlarini (qarang: mantiqiy kvadrat) e'tiborga olgan holda, mulohazalardan birining chin yoki xatoligi haqida xulosa chiqariladi. Bu xulosalar mulohazalar o'rtasidagi zidlik, qarama-qarshilik, qisman moslik va bo'ysunish munosabatlariga asoslanadi.Bu munosabatlarning taxliliga ko'ra xulosa chin bo'lgan quyidagi holatlarni ko'rsatish mumkin.

1.Asos mulohaza va xulosa chin bo'lgan : A→I, Ye→0.

2.Asos mulohaza xato va xulosa chin bo'lgan:I→O, O→I

Masalan: A. Hamma mustaqil davlatlar BMT ga a'zo.

I.Ba'zi mustaqil davlatlar BMT ga a'zo.

Bevosita xulosa chiqarish usullari bilishda mavjud fikrni aniqlab olishga, uning mohiyatini to'g'ri tushunishga, shuningdek, bir fikrni turli xil ko'rinishda bayon qilishga, Yangi bilimlar hosil qilishga imkoniyat beradi.

Oddiy qat'iy sillogizm

Deduktiv xulosa chiqarish aslida sillogizm shaklida bo'ladi. Sillogizm qo'shib hisoblash, degan ma'noni beradi. Bu munosabatlarning taxliliga ko'ra i anglatadi. Bu termindan mantiqda, odatda, deduktiv xulosa chiqarishning ko'proq ishlatiladigan turi hisoblangan oddiy qat'iy sillogizmni ifoda qilish uchun foydalaniladi. Sillogizm xulosa chiqarishning shunday shakliki, unda o'zaro mantiqiy bog'langan ikki qat'iy mulohazadan uchinchi – Yangi qat'iy mulohaza zaruriy tarzda kelib chiqadi. Bunda dastlabki mulohazalardan biri, albatta, yo umumiy tasdiq, yoki umumiy inkor mulohaza bo'ladi. Hosil qilingan Yangi mulohaza dastlabki mulohazalardan umumiyroq bo'lmaydi. SHunga ko'ra sillogizmni umumiylikka asoslangan xulosa chiqarish, deb atasa bo'ladi. Masalan, quyidagi mulohazalar berilgan bo'lsin:

Hech bir xasis saxiy emas.

Ba'zi boylar xasisdir.

Bu mulohazalardan zaruriy ravishda – «Ba'zi boylar saxiy emas», degan uchinchi mulohaza kelib chiqadi. Sillogizmning tarkibi oddiy qat'iy mulohazalardan tashkil topgani uchun u oddiy qat'iy sillogizm deyiladi.

Sillogizmning tarkibi xulosa asoslari (praemissae) va xulosa (conslusio)dan tashkil topgan. Xulosa asoslari va xulosadagi tushunchalar terminlar deb ataladi. Xulosaning mantiqiy egasi – S – kichik termin (terminus minor), mantiqiy kesimi – R – katta termin (terminus major), deb ataladi. Xulosa asoslari uchun umumiy bo'lgan, lekin xulosada uchramaydigan tushuncha – M – (terminus medius) o'rta termin deb ataladi. Asoslarda katta terminni o'z ichiga olgan mulohaza katta asos, kichik terminni o'z ichiga olgan mulohaza kichik asos deb ataladi.

S – kichik termin;
M – o'rta termin;
R – katta termin.



O'rta termin katta va kichik terminni bog'lovchi mantiqiy element hisoblanadi.

Sillogizm aksiomasi

Aksiomalar isbotsiz chin deb qabul qilingan nazariy mulohazalar bo'lib, ular vositasida boshqa fikr va mulohazalar asoslab beriladi. Sillogizmning aksiomasi xulosalashning mantiqiy asoslanganligini ifodalaydi. Sillogizm aksiomasini terminlarning hajmiga yoki mazmuniga ko'ra, ya'ni atributiv ta'riflash mumkin.

Sillogizm xulosasining asoslardan zaruriy keltirib chiqarilishi quyidagi qoidaga asoslanadi: «Agar bir buyum ikkinchi buyumda joylashgan bo'lsa, ikkinchi buyum esa uchinchi bir buyumning ichida bo'lsa, unda birinchi buyum ham uchinchi buyumning ichida joylashgan bo'ladi» yoki «Bir buyum ikkinchi buyumda joylashgan bo'lsa, ikkinchi buyum esa uchinchi bir buyumdan tashqarida bo'lsa, unda birinchi buyum ham uchinchi buyumdan tashqarida joylashgan bo'ladi». Bu qoidani quyidagi shakllar yordamida yaqqol ifodalash mumkin.



Bu qoida sillogizm aksiomasining mohiyatini terminlarning hajmi munosabatlari asosida tushuntirib beradi. Demak, sillogizm aksiomasining mohiyati quyidagicha: buyum va hodisalarning sinfi to'g'risida tasdiqlab yoki inkor etib bayon qilingan fikr shu sinf ichiga kiruvchi barcha buyum va hodisalarning har biri yoki ayrim qismiga ham taalluqli fikr hisoblanadi.

Masalan:

Tafakkur shakllari ob'ektiv xususiyatga ega.

Tushuncha tafakkur shaklidir.

Tushuncha ob'ektiv xususiyatga ega.

Sillogizm aksiomasini atributiv ifodalaganda predmet bilan uning belgisi o'rtasidagi munosabatga asoslaniladi: biror buyum, hodisa belgisining belgisi, shu buyum, hodisaning belgisidir; buyum, hodisa belgisiga zid bo'lgan narsalar buyum, hodisaning o'ziga ham ziddir.

Sillogizm aksiomalarida fikr shakli va mazmuni o'zaro uzluksiz, ob'ektiv bog'langan bir butunning ayrim tomonlarini ifodalaydi. Bu bir tomondan, hamma umumiylikka juz'iylik va yakkalik xos ekanligini va har bir yakkalik juz'iylik, umumiylik xislatiga ega bo'lishini ifodalasa, ikkinchi tomondan, buyum va belgining o'zaro uzviy bog'langanligini, ya'ni buyumlar jinsi ayrim o'ziga xos belgiga ega bo'lsa, albatta, bu belgi shu jinsdagi hamma buyumlar uchun ham xos belgi bo'lishini ifodalaydi. Bular esa, o'z navbatida, yakkalik va umumiylik hamda miqdor va sifat o'rtasidagi dialektik aloqadorlikning tafakkur jarayonida o'ziga xos namoyon bo'lishidir.

Sillogizmning umumiy qoidalari

Xulosa asoslarining chin bo'lishi xulosaning chin bo'lishi uchun yetarli emas. Xulosa chin bo'lishi uchun yana ma'lum qoidalarga amal qilish ham zarur. Bu sillogizmning umumiy qoidalari deb ataladi. Ular sillogizmning terminlari va asoslariga taalluqli bo'lgan qoidalar bo'lib, quyidagilardan iborat:

1. Sillogizmda uchta termin: katta, kichik va o'rta terminlar bo'lishi kerak. Ma'lumki, sillogizmning xulosasi katta va kichik terminlarning o'rta terminga bo'lgan munosabatiga asoslanadi; shu sababdan ham terminlar soni uchtadan kam yoki ortiq bo'lmasligi talab qilinadi. Agar terminlar soni uchtadan kam bo'lsa, xulosa Yangi bilim bermaydi.

II.Ayiruvchi xulosa chiqarish deb, har ikki asosi yoki asoslaridan biri ayiruvchi hukm bo'lgan sillogizmga aytiladi.

Sof ayiruvchi xulosa chiqarish deb, har ikki asosi va xulosasi ayiruvchi hukm bo'lgan sillogizmga aytiladi.

Masalan:

Tushunchalar hajmiga ko'ra umumiy yoki yakka, yoki bo'sh hajmli bo'ladi.

Har bir umumiy tushuncha yo ayiruvchi, yoki to'plovchi bo'ladi.

Demak, tushunchalar hajmiga ko'ra yo ayiruvchi, yoki to'plovchi, yoki yakka, yoki bo'sh hajmli bo'ladi.

Sof ayiruvchi sillogizmning formulasi quyidagicha:S-aVbVc

a-dVf

S-dVfVbVc

Ayiruvchi-qat’iy xulosa chiqarishda xulosa asoslaridan biri ayiruvchi hukm bo’lsa, boshqasi oddiy qat’iy hukm bo’ladi. Bunday xulosa chiqarishning ikki modusi bor:

1. Tasdiqlab-inkor etuvchi pVq

P

¬q

modus ponendo tollens

2. Inkor etib tasdiqlovchi

modus tollendo ponens

$p \vee q$

$\neg p$

q

Masalan:

1. Tushunchalar mazmuniga ko’ra, konkret yoki abstrakt bo’ladi.

Bu – konkret tushuncha.

Demak, bu – abstrakt tushuncha emas.

2. Hukmlar tuzilishiga ko’ra oddiy yoki murakkab bo’ladi.

Berilgan hukm oddiy hukm emas.

Demak, berilgan hukm murakkab hukmdir.

Ayiruvchi sillogizmda to’g’ri xulosa chiqarish uchun quyidagi qoidalarga amal qilish zarur:

1. Ayiruvchi hukm tarkibidagi oddiy hukmlar bir-birini inkor qilishi, hajmiga ko’ra, kesishmasligi shart, aks holda xulosa xato bo’ladi.

Masalan: Kitoblar qiziqarli yoki fantastik bo’ladi.

Bu kitob qiziqarli.

Bu kitob fantastik emas.

Kitob ham qiziqarli, ham fantastik bo’lishi mumkin. Bunda ayiruvchi hukm tarkibidagi oddiy hukmlar bir-birini inkor etmaydi va hajmiga ko’ra, kesishadi. SHuning uchun xulosa xato.

2. Ayiruvchi hukmda bir-birini inkor etuvchi muqobillar to’liq ko’rsatilgan bo’lishi shart.

Burchaklar o’tkir yoki o’tmas burchakli bo’ladi.

Bu burchak o’tkir burchakli emas.

Bu burchak o’tmas burchaklidir.

Xulosaning xato bo’lishiga sabab, ayiruvchi hukmdagi muqobillar to’liq ko’rsatilmagan, ya’ni to’g’ri burchakning mavjudligi e’tibordan chetda qolgan.

Ayiruvchi sillogizmlardan ko’proq bir necha yechimga ega bo’lgan masalalarni yechishda, ya’ni muqobil holatlardan birini to’g’ri tanlab olishda foydalaniladi.

III. SHartli – ayiruvchi – lemmatik (taxminlab) xulosa chiqarish deb, asoslardan biri ikki yoki undan ortiq shartli hukmlardan, ikkinchisi esa ayiruvchi hukmdan iborat bo’lgan sillogizmga aytiladi. Ayiruvchi asosdagi a’zolarning soniga ko’ra, bunday xulosalar dilemma (ayiruvchi asos ikki a’zodan iborat bo’lgan), trilemma (ayiruvchi asos uch a’zodan iborat bo’lgan) va polilemma (ayiruvchi asos to’rt va undan ortiq a’zodan iborat bo’lgan) deb ataladi.

Dilemma oddiy yoki murakkab bo’ladi. Oddiy dilemmaning shartli asosidagi hukmlar yo shartiga, yo natijasiga ko’ra o’xshash bo’ladi. Murakkab dilemmaning shartli asosidagi hukmlar ham shartiga, ham natijasiga ko’ra bir-biridan farq qiladi. Dilemmalar konstruktiv (tuzuvchi) yoki destruktiv (buzuvchi) turlarga bo’linadi. Demak, dilemmalar to’rt xil bo’ladi: 1. Oddiy konstruktiv dilemma. 2. Oddiy destruktiv dilemma. 3. Murakkab konstruktiv dilemma. 4. Murakkab destruktiv dilemma.

Oddiy konstruktiv dilemmaning formulasi:

$a \to s, b \to s$

$a \vee b$

s

Oddiy destruktiv dilemmaning formulasi

$a \to b, a \to c$

$\bar{b} \vee \bar{c}$

$\bar{a}$

Masalan:

Agar yoshlar ilm o’rgansalar, hayotda o’z o’rinlarini topadilar.

Agar yoshlar hunar o’rgansalar, hayotda o’z o’rinlarini topadilar.

YOshlar yo ilm, yoki hunar o’rganadilar.

Demak, ular hayotda o’z o’rinlarini topadilar.

Agar talaba chet tilini yaxshi bilsa, konkursda ishtirok etadi.

Agar talaba chet tilini yaxshi bilsa, chet elga o’qishga boradi.

Talaba konkursda ishtirok etmadi yoki chet elga o’qishga bormadi.
Talaba chet tilini yaxshi bilmaydi.

Murakkab konstruktiv dilemmaning formulasi:

$a \to b,\ c \to d$

$a \vee c$

$b \vee d$

Murakkab destruktiv dilemmaning formulasi:

$a \to b, c \to d$

$\bar{b} \vee \bar{d}$

$\bar{a} \vee \bar{c}$

Masalan:
Agar inson yaxshi amallarni bajarsa, uni yaxshi nom bilan eslashadi.
Agar inson yomon amallarni bajarsa, uni yomon nom bilan eslashadi.
Inson yo yaxshi, yoki yomon amallarni bajarishi mumkin.
Demak, uni yo yaxshi, yoki yomon nom bilan eslashadi.
Agar inson boshqalarga yaxshilik qilsa, unga ham bosh-qalar yaxshilik qiladi.
Agar inson boshqalarga yomonlik qilsa, boshqalar ham unga yomonlik qiladi.
Insonga yo yaxshilik, yoki yomonlik qaytadi.
Demak, u boshqalarga yaxshilik ham, yomonlik ham qilmadi.

Dilemmalarni to’g’ri tuzish va hal qilish uchun ko’rilayotgan masalaning barcha yechimlarini aniqlash zarur. Dilemmani ba’zan unga qarama-qarshi mazmundagi boshqa bir dilemma orqali rad etish mumkin. Bunga mantiq ilmi tarixidan quyidagi misolni keltiramiz: «Afinalik ayol o’g’liga shunday maslahat beradi: Jamoat ishlariga aralashmagin, chunki agar haqiqatni gapirsang, seni odamlar yomon ko’radi, agar yolg’on gapirsang, unda seni xudolar yomon ko’radi. Bunga Arastu quyidagicha rad javobni o’ylab topadi: Men jamoat ishlarida ishtirok etaman, chunki agar haqiqatni gapirsam, meni xudolar yaxshi ko’radi, agar yolg’on gapirsam, meni odamlar yaxshi ko’radi».

Trilemmada berilgan masalaning uch xil yechimi haqida taxminlab fikr yuritiladi. Trilemma ham to’rt turga bo’linadi:

1. Oddiy konstruktiv trilemma

$a \to d,\ b \to d,\ c \to d$

$a \vee b \vee c$

d

2. Oddiy destruktiv trilemma

$a \to b,\ a \to c,\ a \to d$

$\bar{b} \vee \bar{c} \vee \bar{d}$

$\bar{a}$

3. Murakkab konstruktiv trilemma

$a \to b,\ c \to d,\ m \to n$

$a \vee c \vee m$

$b \vee d \vee n$

4. Murakkab destruktiv trilemma

$a \to b,\ c \to d,\ m \to n$

$\bar{b} \vee \bar{d} \vee \bar{n}$

$\bar{a} \vee \bar{c} \vee \bar{m}$

Masalan:
Agar tergov qilinayotgan shaxs jinoyatga bevosita aloqador bo’lsa, u qattiq jazolanadi.
Agar tergov qilinayotgan shaxs jinoyatga bavosita aloqador bo’lsa, u yengil jazolanadi.
Agar tergov qilinayotgan shaxs jinoyatga aloqador bo’lmasa, u ozod qilinadi.
Tergov qilinayotgan shaxs jinoyatga yo bevosita, yoki bilvosita aloqador, yoki mutlaqo aloqasizdir.
Demak, tergov qilinayotgan shaxs yo qattiq jazolanadi, yoki yengil jazolanadi, yoki ozod qilinadi.
Bu murakkab konstruktiv trilemma ko’rinishidagi xulosa chiqarishdir.

SHartli-ayiruvchi xulosalash masalani hal qilishning bir necha uslullari mavjudligini, bularning har biri turli oqibatlarni keltirib chiqarishini aniqlab beradi. Sohibqiron Amir Temur ta’biri bilan aytganda, bu oqibatlardan qaysi biri davlat va ulus manfaatlariga mos bo’lsa, ya’ni «savobliroq yoki kam xatarli bo’lsa», shunisi tanlab olinadi.

Induktiv xulosa chiqarish

Biz avvalgi mavzuda zaruriy xulosa chiqarish bilan (deduktiv xulosa chiqarish asosida) tanishib chiqqan edik. Mantiqda ehtimoliy xulosa chiqarish ham o’rganiladi.

Ehtimoliy xulosa chiqarish turli xil shakllarda, shu jumladan, induktiv xulosa chiqarish shaklida amalga oshishi mumkin. Ularning barchasiga xos xususiyat – xulosaning asoslardan mantiqan zaruriy ravishda kelib chiqmasligi hamda faqat ma’lum bir darajada tasdiqlanishidir. Asoslarning xulosani tasdiqlash darajasi mantiqiy ehtimollik, deb nom olgan.

Ehtimoliy xulosa chiqarish ba’zan indukstiya (lotincha– inductio – yagona asosga keltirish) - juz’iy bilimdan umumiy bilimga mantiqan o’tish shaklida sodir bo’ladi.

Induktiv xulosa chiqarish empirik umumlashtirish shaklida amalga oshib, unda *birorta belgining ma’lum bir sinfga mansub predmetlarda takrorlanishini kuzatish asosida, shu belgining mazkur sinfga tegishli barcha predmetlarga xosligi haqida xulosa chiqariladi*.

Indukstiya asosida chiqarilgan xulosalar ilmiy bilishda o'rnatilgan turli empirik qonunlar, yaratilgan umumlashmalar tarzida o'z aksini topadi, predmet va hodisalar haqidagi bilimlarimizni kengaytirishga olib keladi.

Induktiv xulosa chiqarish bilvosita xulosa chiqarish hisoblanadi, ya'ni uning asoslari ikkita va undan ortiq mulohazalardan tashkil topgan bo'ladi. Ular, odatda, yakka predmet yoki predmetlar sinfining bir qismini ifoda qiladilar. Xulosada esa, bir mantiqiy sinfga mansub predmetlarning barchasiga nisbatan umumiy hukm tarzidagi fikr hosil qilinadi.

Demak, induktiv xulosa chiqarishda yakkalik, juz'iylik va umumiylikning dialektik aloqasini kuzatamiz. Ayrim faktlarni ifodalaydigan, juz'iy xarakterga ega bo'lgan bilimlar umumiy bilimlarni hosil qilish uchun mantiqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Takrorlanib turuvchi turg'un aloqalar, odatda, predmetlarning muhim zaruriy aloqalaridan iborat bo'lgani uchun, bu umumiy bilimlar qonuniyatlarni ifoda qiladilar. Asoslardagi yakka va juz'iy faktlar haqidagi bilimlar esa ana shu qonuniyatlarning namoyon bo'lishini qayd etadilar.

Induktiv xulosa chiqarishning ikkita turi: to'liq va to'liqsiz indukstiyalar farq qilinadi.

To'liq indukstiya induktiv xulosa chiqarishning shunday turiki, unda birorta belgining ma'lum bir sinfga mansub har bir predmetga xosligini aniqlash asosida, shu belgining berilgan sinf predmetlari uchun umumiy belgi ekanligi haqida xulosa chiqariladi.

To'liq indukstiya predmetlarning kichik sinfiga, elementlari yaqqol ko'zga tashlanib turadigan, miqdor jihatdan cheklangan yopiq sistemalarga nisbatan xulosa chiqarishda ishlatiladi. Masalan, Quyosh tizimiga kiruvchi planetalar, NATOga a'zo davlatlar, birorta shaharda joylashgan korxonalar va shu kabilar haqida xulosalarni to'liq indukstiya yo'li bilan olish mumkin. Xususan, Quyosh tizimiga kiruvchi planetalar harakatining yo'nalishi soat strelkasi harakati yo'nalishiga teskari ekanligi haqidagi xulosa aynan ana shu usul yordamida hosil qilinadi. To'liq indukstiyada muhokamaning qurilish shakli quyidagi ko'rinishga ega:

S1 predmeti R belgiga ega.
S2 predmeti R belgiga ega.
... ...
Sn predmeti R belgiga ega.
Faqat S1, S2,..., Sn largina S
sinfini tashkil etadi.
S sinfining har bir predmeti R belgiga ega.
Simvolik ifodasi esa quyidagicha:

R (x1)
R (x2)
... ...
R (xn)
<x1, x2,..., xn>ЄS

∀x((xЄS) →(x))

To'liq indukstiya predmetlarning kichik sinfi haqida empirik materiallarni umumlashtirish yo'li bilan xulosaviy bilim olishning samarali vositasi bo'lib, xulosasi aniq bo'lishi bilan ajralib turadi.

To'liqsiz indukstiya shunday ehtimoliy xulosa chiqarish turiki, unda birorta belgining bir mantiqiy sinfga tegishli predmetlarning bir qismiga (bir nechtasiga) xosligini (yoki xos emasligini) aniqlash asosida shu belgining berilgan sinfga mansub barcha predmetlarga xosligi (xos emasligi) haqida xulosa chiqariladi.

To'liqsiz indukstiyada fikrimiz, xuddi to'liq indukstiyadagidek, juz'iylikdan (yakkalikdan) umumiylikka, kamroq umumiylashgan bilimdan ko'proq umumiylashgan bilimga qarab harakat qiladi. Lekin unda, to'liq indukstiyadan farqli o'laroq, xulosa kuzatish, tajriba davomida qayd etilmagan, o'rganilmagan predmetlarga ham tegishli bo'ladi. To'liqsiz indukstiyaning evristik mohiyati aynan ana shundadir.

To'liqsiz indukstiyada fikrimiz quyidagi shaklda quriladi:

S1 predmeti P belgiga ega.
S2 predmeti P belgiga ega.
... ...
Sn predmeti P belgiga ega.
S1, S2,..., Sn predmetlari C sinfiga tegishli.

Ehtimol, S sinfining har bir predmeti R belgiga egadir.

Bu shaklni simvolik ko'rinishda quyidagicha yozish mumkin:

R (x1)
R (x2)
... ...
R (xn)
x1, x2,..., xn... ЄC

x ((xЄS) →R(x))

Xulosa yuqoridagidek o'qiladi, ya'ni: «Ehtimol, S sinfining har bir predmeti R belgiga ega bo'lsa kerak».

Masalan:

2 soni 2 ga qoldiqsiz bo'linadi.

4 soni 2 ga qoldiqsiz bo'linadi.

... ...

n soni 2 ga qoldiqsiz bo'linadi.

2, 4,..., n... sonlari juft sonlardir.

Ehtimol, juft sonlarning barchasi 2 ga qoldiqsiz bo'linsa kerak.

To'liqsiz indukstiyada xulosaviy bilimning empirik asosi to'liq aniqlanmaydi, ana shuning uchun ham undagi amalga oshirilgan umumlashtirish to'liqsiz bo'ladi. Xususan, unda berilgan mantiqiy sinfga mansub predmetlarning barchasi emas, faqat S dan Sn gacha bo'lgan qismigina o'rganiladi, xolos. Ana shu o'rganilgan predmetlarga birorta P belgining xosligi (xos emasligi) kuzatilsa, uning o'rganilayotgan sinfga mansub barcha predmetlarga xosligi (xos emasligi) haqida ehtimoliy tarzdagi xulosa chiqariladi.

Masalan, tabiatda gaz haroratining o'zgarishi uning hajmining o'zgarishiga olib kelishi, jamiyatda iqtisod bilan siyosatning bog'liqligi, bilishda fakt va qonunning o'zaro aloqasi zaruriy (muayyan sharoitda, albatta, vujudga keladi) va umumiy (muayyan sharoit paydo bo'lgan barcha hollarda takrorlanadi) aloqalardan, borliqda amal qilayotgan qonuniyatlardan iborat.

Zaruriy aloqalarning bir vaqtning o'zida umumiy aloqalardan iborat bo'lishi (predmetlarning birorta sinfi, to'plamiga xos bo'lishi), ularning esa, o'z navbatida, yakka, ayrim predmetlarda namoyon bo'lishi, ya'ni ularning xususiyatlari sifatida yuzaga chiqishi ilmiy bilish va amaliy muhokama yuritishda birorta mantiqiy sinf haqida unga mansub predmetlarning ayrimlarini o'rganish asosida fikr bildirish mumkinligini anglatadi.

Haqiqatan ham, kundalik turmushimizda biz ana shunday yo'l tutamiz. Xususan, paxta, bug'doy, sut, metall prokati, gazlama va shu kabi ommaviy ravishda ishlab chiqariladigan mahsulotlarning katta hajmining sifati haqida ulardan olingan kichkina namunalarni tekshirish natijalariga tayangan holda fikr bildiramiz.

Bunda ko'p hollarda hosil qilgan xulosaviy fikrlarimiz haqiqatdan yoki haqiqatga yaqin fikrdan iborat bo'ladi.

O'z-o'zidan ravshanki, bu yo'l bilan olingan xulosalar hamma vaqt ham to'g'ri bo'lavermaydi. Ba'zan chiqarilgan xulosalar xato ham bo'lishi mumkin.

Demak, to'liqsiz indukstiya bo'yicha xulosa chiqarishga xos xususiyatlardan biri asoslardan xulosaning mantiqan kelib chiqishining kuchsiz bo'lishidir.

To'liqsiz indukstiya uchun xarakterli bo'lgan bu kamchilikni «tuzatish» uchun bir qancha metodologik talablarga rioya qilish zarur. Bu ma'lum bir darajada xulosaning chin bo'lishi ehtimolining ortishiga imkoniyat yaratadi. Ular quyidagilardan iborat:

1.Ekstensiv metoddan foydalanish, ya'ni o'rganilayotgan predmetlar sonini oshirish. Bu bir oz bo'lsa ham xulosaning chin bo'lishi ehtimolini orttiradi. Lekin bu yerda bir narsani hisobga olish zarur. Tajriba tugal bo'lmagan, ya'ni sinfning barcha predmetlari emas, faqat bir nechtasi o'rganiladigan bir sharoitda keyingi o'tkaziladigan tajribalardan birida avvalgi tajribalar natijalariga zid bo'lgan holni kuzatish ehtimoldan xoli emas. Bunda o'rganilayotgan hodisalar sonini ko'paytirish yo'li bilan ko'zlangan maqsadga erishishga urinish kam samara beradi. Tajribani tugal qilishga erishib bo'lmaydi, chunki bilish ob'ekti ko'p hollarda ochiq tizimdan – hodisalar va holatlar soni amalda cheksiz bo'lgan ob'ektdan iborat bo'ladi.

2.Tajriba natijalarining sifat jihatidan xilma-xil bo'lishiga erishish, ya'ni bir xil sharoitda takrorlanadigan belgilarnigina emas, balki turli xil sohalar, holatlarda takrorlanadigan o'xshash belgilarni ham qayd etish muhimdir.

3.SHuningdek, tajriba natijalarining kuchli bo'lishi, «bexosdan» aniqlanishi ham muhim ahamiyatga ega.

4.Keyingi ikkita metodologik talab to'liqsiz indukstiyada empirik materiallarni tanlab olishni taqozo etadi.

Dastlabki empirik materiallarni kuzatish va tajriba natijalarini tanlab olish usuliga ko'ra to'liqsiz indukstiyaning ikkita turi: sanash orqali to'liqsiz indukstiya (enumerativ indukstiya) va istisno qilish orqali to'liqsiz indukstiya (eliminativ indukstiya) ajratilishi mumkin.

Sanash orqali to'liqsiz indukstiya yoki ommabop indukstiya (enumerativ indukstiya) induktiv yo'l bilan umumlashtirishning shunday turiki, unda bir sinfga mansub predmetlarning bir qanchasida birorta belgining takrorlanishini kuzatish asosida, uning shu sinfga kiruvchi barcha predmetlarga xosligi haqida ehtimoliy tarzdagi xulosa chiqariladi.

Sanash orqali to'liqsiz indukstiyaning ob'ektiv asosini insonlarning ko'p yillik hayotiy faoliyati, avloddan avlodga o'tib kelayotgan turmush tajribalari natijalari tashkil etadi. Masalan, yoz juda issiq kelganda, qishda qattiq sovuq bo'lishi mumkinligi, qaldirg'ochlarning janub tomonga uchib ketayotgani havoning soviy boshlaganini bildirishi va shu kabi xulosalar insonlarning ob-havoni uzoq yillar davomida kuzatishining natijasidan iborat.

Kishilarning kundalik hayotiy tajribasiga asoslangani, sog'lom aql yuritishga xos xususiyatlarni o'zida mujassamlantirgani uchun ham xulosa chiqarishning bu usulini ommabop indukstiya deb atashadi.

Ommabop indukstiyaning muhim xislatlaridan biri kuzatilayotgan hollarga zid bo'lgan holning yo'qligiga ishonch hosil qilishdir. YA'ni bunda birorta belgining berilgan sinf predmetlarining bir nechtasida takrorlanishini qayd etish bilan cheklanmasdan, ularga zid bo'lgan holning yo'qligi ham aniqlanadi. Bu, odatda, ommabop indukstiya asosida qat'iy xulosaga kelishdan oldin «SHoshmay tur-chi, qani, yana bir tekshirib ko'raylik!» degan fikrga suyanib ish qilishga undaydi, «Etti o'lchab, bir kesish»ga chaqiradi. Ana shuning uchun ham ommabop indukstiyani xalq donishmandligining namoyon bo'lishi turlaridan biri, deb aytish mumkin.

Ilmiy indukstiya

Ilmiy indukstiya ehtimoliy xulosa chiqarishning shunday turiki, uning asoslarida birorta belgining bir sinfga mansub predmetlarning bir qanchasida takrorlanishi qayd etilishi bilan bir qatorda, u belgining sababiy aloqasi haqida ham ma'lumot mujassamlashgan bo'ladi va ular xulosada berilgan predmetlar sinfiga nisbatan hosil qilingan fikrda o'z aksini topadi.

Ommabop indukstiyadan farqli o'laroq, ilmiy indukstiyada bir sinfga mansub predmetlarda takrorlanuvchi belgi shunchaki qayd etilib qolmasdan, balki u haqida to'laroq ma'lumotga ega bo'lish, uning mavjud bo'lishi sababini aniqlash uchun predmetning boshqa belgilari bilan bo'lgan aloqalari, xususan, sababiy bog'lanishlari o'rganiladi. Ana shuning uchun ham, ya'ni hodisalarning sababini aniqlashga, ularni ifoda etuvchi qonunlarni ochishga qaratilgani uchun ham to'liqsiz indukstiyaning bu turi ilmiy indukstiya deb ataladi.

Ma'lumki,ilmiy bilish, fanning bosh maqsadi o'rganilayotgan ob'ektni tavsiflaydigan qonunlarni ochish orqali uning (ob'ektning) tabiatini, mohiyatini tushuntirishdan iborat. Bu esa, birinchi navbatda, hodisaning (yoki uning belgisining) mavjud bo'lish sababini aniqlashni taqozo etadi.

SHuni aytish kerakki, sababiy aloqadorlik hodisalar o'rtasidagi umumiy bog'lanishlarning boshqa turlari (masalan, tarkibiy, funkstional, genetik bog'lanishlar) kabi hodisalarning tabiatini belgilaydi. Ana shuning uchun ham sababiy aloqadorlikni o'rganish hodisalarning mohiyatini tushunish, turli jarayonlarni oldindan ko'rish, Yangiliklar yaratish imkonini beradi.

Sababiy aloqadorlikni aniqlash ancha murakkab ish, chunki u borliqda yuqorida qayd etib o'tilgan hodisalar o'rtasidagi umumiy aloqadorlikning boshqa turlari bilan birgalikda mavjud. Uni ilmiy bilishda «toza» holda ajratishga hamma vaqt ham osonlikcha erishib bo'lmaydi. Buning uchun sababiy aloqadorlikning tabiatini, xususiyatlarini yaxshi bilish kerak.

Sababiyat (kauzallik) ikki hodisa o'rtasidagi zaruriy aloqa bo'lib, muayyan sharoitda ulardan biri (sabab hodisa) ikkinchisini (oqibatni) keltirib chiqaradi. Uning muhim xususiyatlari quyidagilar: 1) aloqaning umumiyligi; 2) vaqtdagi izchilligi, birin-ketinligi; 3) aloqaning zaruriyligi; 4) sabab va oqibatning bir ma'noli bog'lanishda bo'lishi.

1. *Sababiy aloqalarning umumiyligi* deganda, olamda hech bir hodisaning sababsiz mavjud bo'la olmasligi tushuniladi. U har qanday hodisaning o'z holicha, boshqa hodisalardan mustaqil holda vujudga kela olmasligini, boshqa hodisalar bilan bevosita yoki bilvosita bog'lanib ketganini, turli xil hodisalar ta'sirida paydo bo'lishi, o'zgarishi, yo'q bo'lishi hamda, o'z navbatida, boshqa hodisalarga ta'sir o'tkazishini bildiradi. Borliqdagi har bir hodisa o'z sababiga ega bo'lib, uni ertami yoki kechmi bilib olish mumkin.

Turli xil aloqalar, mavjud holatlar orasida noma'lum bo'lib qolayotgan sabab-hodisani topish uchun boshqa omillar, xususan, sababiy aloqada bo'lgan hodisalarning vaqtdagi ketma-ketligi, izchilligi hisobga olinishi zarur.

2. *Sababiy aloqadorlikda bo'lgan hodisalarning vaqtdagi birin-ketinligi* deganda, sabab-hodisaning oqibat (natija) hodisadan doimo oldin kelishi nazarda tutiladi. Sabab-hodisa bilan oqibat-hodisaning ro'y berishi orasida turli muddat o'tishi mumkin. Ba'zan oqibat (natija)–sabab-hodisadan bir zumdan keyin paydo bo'lishi mumkin. Masalan, o'qning otilishi bilan u tekkan ob'ektning zararlanishi o'rtasida o'tadigan vaqt juda qisqa, organizmga tushgan mikrob bilan u qo'zg'aydigan kasallikning vujudga kelishi o'rtasida o'tadigan vaqt uzoqroq (bir qancha daqiqa, soat, kun) bo'ladi. Sababiy aloqadorlik ijtimoiy hayotda (masalan, kishilarning huquqiy ongi bilan uni shakllantirishga yo'naltirilgan xatti-harakatlar), geologiyada (masalan, ma'lum bir jarayonlar ta'sirida tog'larning paydo bo'lishi) va boshqa shu kabi sohalarda ancha ko'p vaqt davomida amalga oshadi.

Sabab-hodisa oqibat-hodisadan avval keladigan bo'lgani uchun, u bilishda doimo oqibatdan oldin keladigan hodisalar orasidan qidiriladi. Bunda oqibat bilan bir vaqtda yoki undan keyin keladigan hodisalar istisno (eliminastiya) qilinadi, ya'ni chiqarib tashlanadi.

Sabab va oqibatning vaqtdagi izchilligi, birin-ketinligi hodisalar o'rtasidagi sababiy aloqadorlikni aniqlashning zaruriy sharti, lekin o'z holicha ko'zlangan maqsadga erishish uchun yetarli emas. Oldinma-ketin kelgan hodisalarning hammasi ham sababiy aloqadorlikda bo'lavermaydi. Bu holat hisobga olinmasa, «undan keyin, demak, shu sababga ko'ra», deb ataladigan xato (lotincha – post noc, ergo propter noc) ro'y beradi. Masalan, chaqmoq chaqish hodisasi momaqaldiroqdan avval keladi. Avval kishilar chaqmoq chaqishni momaqaldiroqning sababi deb tushunganlar, vaholanki haqiqatda bunday emas. Momaqaldiroqning chaqmoqdan keyin kelishiga sabab tovush tezligining yorug'lik tezligidan kamroq bo'lishidir. Aslida esa ular bir vaqtda vujudga keladi. Xuddi shu singari, jinoyat sodir bo'lishidan avval u sodir etilgan joyda bo'lgan kishilarning hammasi ham jinoyatchi bo'lavermaydi.

3. *Sababiy aloqadorlikning zaruriyligi* oqibatning faqat uni vujudga keltiradigan sababning mavjud bo'lganidagina paydo bo'lishini anglatadi. Sabab-hodisaning yo'qligi oqibat-hodisaning ham yuzaga chiqmasligini bildiradi. Ana shuning uchun ham sababiy aloqadorlikni aniqlashda oqibatdan avval keladigan hodisalardan oqibat-hodisani keltirib chiqarmaydiganlari olib tashlanadi, ya'ni eliminastiya qilinadi.

4. *Sababiyatning bir ma'noli aloqadorlik* ekanligi muayyan sababning o'ziga muvofiq keladigan muayyan oqibatni keltirib chiqarishini ifoda etadi. Buni sabab va oqibat o'rtasidagi aloqadorlikdagi simmetriyaning mavjudligi, ya'ni sabab-hodisaning o'zgarishining oqibat-hodisaning o'zgarishiga olib kelishi tasdiqlaydi. Sababiyatning bu xususiyati uni aniqlash jarayonida faqat o'zaro birgalikda o'zgaruvchi hodisalarni olib qolib, qolganlarini chiqarib yuborishga undaydi.

Sababiy aloqadorlikning biz ko'rib chiqqan xususiyatlarini hisobga olish uni aniqlashni osonlashtiradi.

Sababiy aloqadorlik murakkab strukturaga ega. Xususan, sabab-hodisa turli xil sharoitlarda turli oqibatlarni keltirib chiqarishi (masalan, havo namligining yuqoriligi turli xil kasalliklarning sababi bo'lishi) yoki aksincha, bir

oqibat turli sharoitlarda har xil sabablar ta’sirida paydo bo’lishi (badan haroratining ko’tarilishi tumovning, buyrak kasalligining, ichak kasalligining va shu kabilarning oqibati bo’lishi) mumkin.

Ana shuning uchun ham sababiy aloqadorlikni aniqlash empirik tadqiqotlar natijalarini samarali tahlil qilishga imkon beruvchi prinstiplarni qo’llashni taqozo etadi. Ular sababiy aloqadorlikda bo’lgan hodisalarni ularning borliqdagi tabiiy mavjud bo’lish sharoitidan «ajratib olib», maxsus bilish sharoitlarida o’rganishga imkon beradi. Xususan:

1. Oqibatdan avval kelgan hodisa murakkab tarkibga ega, u a, b, c, d va hokazo holatlardan tashkil topgan, deb hisoblanadi.

2. Mazkur holatlarning har biri mustaqil holda mavjud va boshqalari bilan o’zaro ta’sirda bo’lmaydi, deb qaraladi.

3. Qayd etilgan holatlar mavjud bo’lishi mumkin bo’lgan holatlarning tugal to’plami, deb olinadi.

Bu prinstiplar bilan bir qatorda sababiy aloqadorlikni aniqlashning boshqa bir qancha metodlari ham mavjud. Ular mantiqda ilmiy indukstiya metodlari deb yuritiladi.

Ilmiy indukstiya metodlari

O’xshashlik metodi. Unda o’rganilayotgan hodisaning sababi haqidagi xulosa shu hodisaning bir qancha kuzatilayotgan hollarini solishtirish, ularning o’xshash tomonini aniqlash asosida hosil qilinadi. Masalan, kimyoviy tarkibi, zichligi, og’irligi, kattaligi turlicha bo’lgan mayatniklar uzunligi bir xil sterjenlarga – ilgaklarga ilintirilib, harakatga keltirilganda, bir xil tebranish davriga ega bo’lgan. Bunda hodisaning vujudga kelishi kuzatilayotgan barcha hollarda undan avval kelayotgan holatlarning faqat bittasigina takrorlanadi. Ana shunga tayanib, mazkur takrorlanuvchi holat kuzatilayotgan hodisaning vujudga kelishining sababi bo’lsa kerak, degan tarzda ehtimoliy xulosa chiqariladi.

O’xshashlik metodi bo’yicha muhokama yuritish shakli quyidagi ko’rinishga ega:

Hollar	Hodisa vujudga kelishdan avval mavjud bo’lgan holatlar	Hodisa
1	AVS	d
2	DEV	d
3	VSD	d

Ehtimol, V holat d hodisaning sababidir.

Demak, o’xshashlik metodining mohiyatini quyidagicha ifodalasa bo’ladi:

Agar hodisaning kuzatilayotgan hollari uchun faqat bitta holatgina umumiy bo’lsa, ana shu holat mazkur hodisaning sababidir.

O’xshashlik metodining amalga oshish mexanizmi quyidagi mantiqiy amallarni ishlatishni o’z ichiga oladi.

Birinchidan, o’rganilayotgan hodisaning taxminiy sabablari haqida ma’lumotlar to’planadi. Bizning shaklda bu A, V, S, D, Ye holatlari d hodisasidan avval kelib, uning paydo bo’lishiga sabab bo’luvchi holatlar sifatida olib qaralgan. Uni «A yoki V yoki S yoki D yoki Ye d hodisasini keltirib chiqaradi» shaklidagi diz’yunktiv hukm deb qabul qilsak bo’ladi.

Ikkinchidan, mavjud holatlar ichidan kuzatilayotgan hodisa bilan zaruriy ravishda bog’lanmagan, sababiy aloqadorlikka xos belgilarga ega bo’lmagan holatlar chiqarib yuboriladi. YUqoridagi sxemada d hodisasi birinchi holda D va Ye holatlari, ikkinchi holda A va S holatlari, uchinchi holda A va Ye holotlari bo’lmaganda ham vujudga kelyapti. Ana shuning uchun ular zaruriy ravishda bog’lanmagan va demak, uning sababi bo’la olmaydigan holatlar sifatida muhokamadan chiqarib yuborilishi kerak. Uni, «A ham S ham D ham Ye ham d hodisasining sababi emas», degan ko’rinishdagi inkor hukmdan iborat, deb olishimiz mumkin.

Bu amaldan keyin hodisaning asl sababi bo’lishi mumkin bo’lgan holatlar doirasi qisqaradi.

Uchinchidan, barcha hollar uchun o’xshash bo’lgan, hammasida turg’un ravishda takrorlanadigan holat ajratib olinadi. Bizning shaklda u V holatidan iborat.

Aynan ana shu holat kuzatilgan hollarda boshqa o’xshash holatlar bo’lmagani uchun, hodisaning sababi bo’lsa kerak, deb taxmin qilinadi.

YUqorida sodir etilgan mantiqiy amallar natijalarini to’plab, tartibga solsak, yuritilgan muhokamaning umumiy shakli ayiruvchi-qat’iy sillogizmning tasdiq-inkor (tollendo ponens) modusi shaklida ekanligini ko’ramiz:

A yoki V yoki S yoki D yoki Ye d hodisasini keltirib chiqaradi.

A ham S ham D ham Ye ham d hodisasining sababi emas.

Ehtimol, V holat d hodisaning sababidir.

SHuni aytish kerakki, o’xshashlik metodidan foydalanib hosil qilingan xulosaning asoslanganlik darajasi ko’p omillarga, xususan, kuzatish va eksperiment o’tkazilayotgan sharoitlarning xilma-xilligi, ko’rib chiqilayotgan hollarning miqdori va shu kabilarga bog’liq. Agar o’xshash holat kuzatilayotgan hollar soni qanchalik ko’p bo’lsa, u holat turli xil sharoitlarda har xil boshqa holatlar bilan turlicha komplekslarda olinsa, uning vujudga kelayotgan hodisaning sababi bo’lish ehtimoli ortadi.

Lekin shunga qaramasdan bu metod vositasida olingan xulosaning chinligi ehtimoliy xarakterga egaligicha qolaveradi.

Tafovut metodi. Bu metod faqat ikki holatda, ya’ni hodisaning vujudga kelgan va kelmagan hollarini taqqoslash asosida hodisaning sababini aniqlash usuli bo’lib, unda mavjud hollar bir-biridan faqat bitta holati bilan farq qiladi: birida u yo’q, ikkinchisida – bor va faqat ana shu holat bor holdagina hodisa yuzaga keladi. Ana shuning uchun ham mazkur holat kuzatilayotgan hodisaning sababi bo’lsa kerak, deb taxmin qilinadi, ya’ni ehtimoliy xulosa hosil qilinadi. Uning sxemasi quyidagicha:

Hollar	Hodisa vujudga kelishdan avval mavjud bo'lgan holatlar	Hodisalar
1	ASD	-
2	AVSD	d

Ehtimol, V holat d hodisaning sababidir.

Tafovut metodidan bilishning turli xil sohalarida keng foydalaniladi. Masalan, yaxshi ishlayotgan va yaxshi ishlamayotgan korxonalar solishtirilib, korxonaning yaxshi ishlamasligi sababi aniqlanadi. Medistinada esa ikkita hayvonlar guruhi – eksperiment o'tkazilayotgan va nazorat qiluvchi guruhlar qiyos qilinib, eksperiment o'tkazilayotgan guruhda sinalgan preparatning samaradorlik darajasi aniqlanishi mumkin. Bunda har ikkala guruh bir xil sharoitda saqlanib (A, S, D), eksperiment davomida bittasiga V holati qo'shiladi. Bu esa avvalgi holda yo'q bo'lgan d hodisasining vujudga kelishiga sababchi bo'ladi. Ana shunga asoslanib, «V holati d hodisaning sababi bo'lishi mumkin», degan xulosaga kelinadi.

Demak, tafovut metodiga muvofiq, *hodisa vujudga kelayotgan va vujudga kelmayotgan hollar ulardan avval kelayotgan holatlarning bittasidagina farq qilib, qolganlarida o'xshash bo'lsa, ana shu bitta holat kuzatilayotgan hodisaning sababidir*.

Yo'ldosh o'zgarishlar metodi.

Yo'ldosh o'zgarishlar metodiga muvofiq, *bir holatning o'zgarishi hodisaning o'zgarishiga ham olib kelsa, shu holot kuzatilayotgan hodisa o'zgarishining sababidir.*

Yo'ldosh o'zgarishlar metodi yordamida juda ko'p qonunlar, shu jumladan, fizikadagi gazning harorati bilan uning zichligi, tortishish kuchi bilan masofa, iqtisodiyotdagi talab va taklif o'rtasidagi bog'lanishlar va shu kabilar o'rganiladi.

Hodisadan avval kelayotgan holatlarni A, V, S lar bilan, bu holatlarning o'zgarishi darajasini 1,2,..., n bilan, hodisani d bilan belgilasak, yo'ldosh o'zgarishlar metodida muhokama jarayonining quyidagi shakl bo'yicha amalga oshishini ko'ramiz:

Hollar	Hodisa vujudga kelishdan avval mavjud bo'lgan holatlar	Hodisalar
1	AVS1	D1
2	AVS2	D2
		....
N	AVS n	dn

Ehtimol, S holat d hodisaning sababidir.

Masalan, Quyoshning dastlabki holotdagi aktivligi S1 ga teng bo'lganda, Yerda radiastiya darajasini d1 deb olsak, Quyosh aktivligining S2 darajasiga ko'tarilishi Yerdagi radiastiya darajasining ham d2 gacha ko'tarilishiga olib keladi.Yo'ldosh o'zgarishlar metodining qo'llanishi ma'lum bir shart sharoitlarga rioya qilishni taqazo etadi.

Birinchidan, o'rganilayotgan hodisaning sababi bo'lishi mumkin deb ehtimol qilingan holotlar aniqlanishi kerak. Bu holatlarni A, V, S lar deb hisoblasak, «A yoki V yoki S holat d hodisasini keltirib chiqaradi», degan ayiruvchi hukm ko'rinishidagi fikr hosil bo'ladi.

Ikkinchidan, yuqoridagi holatlar ichidan sababiy aloqadorlikning bir ma'noli bo'lishi xususiyatiga ega bo'lishi, ya'ni konkret holatning o'zgarishi hodisadagi konkret o'zgarishga olib kelishi shartiga muvofiq kelmaydiganlari chiqarib yuborilishi (eliminastiya qilinishi) zarur. Yuqoridagi shaklda A va V holatlari aynan shunday bo'lib, ular muhokama jarayonidan chiqarib yuborilishi kerak.

Uchinchidan, eliminastiyadan keyin qolgan yagona holat ajratib olinib, uning o'zgarishi hodisaning o'zgarishiga sababdir, degan xulosaga kelinadi. Bizning shaklda bunday holat S bo'lib, uning S1 dan Sngacha bo'lgan o'zgarish intensivligi hodisaning d1dan dngacha bo'lgan o'zgarishi intensivligi bilan birgalikda kechayapti.

Yo'ldosh o'zgarishlar to'g'ri va teskari yo'nalishlarga (proporstionallikka) ega bo'lishi mumkin.

To'g'ri yo'nalishdagi (proporstionallikdagi) bog'lanish deganda, hodisadan avval keladigan holatning o'zgarish intensivligining ortishi hodisaning o'zgarishi intensivligining ortishiga olib keladigan aloqadorlik nazarda tutiladi. Masalan, Quyoshdagi dog'ning kattalashishi magnit bo'ronining kuchayishiga olib keladi.

Teskari yo'nalishdagi (proporstionallikdagi) bog'lanish deganda esa, hodisadan avval kelayotgan holatning intensivligining ortishi hodisaning o'zgarish intensivligining kamayishiga olib keladigan aloqadorlik tushuniladi. Masalan, tushunchaning hajmi kengaytirilganda, uning mazmuni torayadi.

Qoldiqlar metodi. Bu metod tatbiq etiladigan ob'ekt murakkab hodisadan iborat bo'lib, bittasidan boshqa qismlarining sabablari aniq bo'lganda, ana shu qolgan qismni vujudga keltiruvchi sababni topish maqsadida qo'llaniladi. Uning muhokama yuritish jarayonida amal qilish shakli quyidagicha:

Hollar	Hodisa vujudga kelishdan avval mavjud bo'lgan holatlar	Hodisalar
1	AV	xy
2	AVS	xyz

Ehtimol, S holat z ning sababidir.

Qoldiqlar metodini qo'llash natijasida geliy, rubidiy kabi kimyoviy elementlar, Neptun planetasi topilgan va boshqa turli sohaga oid ko'p hodisalar aniqlangan.

Bu metodni qo'llaganda muhokama yuritish jarayonining qanday kechishini Neptun planetasining kashf etilishi misolida ko'rib chiqamiz. Uran planetasining harakatini kuzatar ekanlar, olimlar uning hisoblab chiqilgandan ko'proq miqdorda og'ishgan orbita bo'ylab harakat qilishini qayd etganlar. Ma'lumki, planetaning og'ishish miqdorining bir qismi unga shu paytgacha ma'lum bo'lgan planetalarning ta'sir o'tkazishi bilan bog'liq. Qolgan qismining esa boshqa bir kuch ta'sirida bo'layotganini bu yerda tushunib olish qiyin emas. Olimlar, shu paytgacha noma'lum planeta mavjud bo'lib, ana shuning ta'sirida Uran planetasining og'ishish miqdori ko'payayotgan bo'lsa kerak, degan taxminiy fikr bildirishgan. Oradan ma'lum bir vaqt o'tgandan keyin Levere hisoblash yo'li bilan Yangi planetaning – Neptunning joylashishini aytib beradi. Nihoyat, I. Galle 1846 yili Yangi qurilgan teleskop yordamida uni osmon sferasidan topadi.

Agar Uran planetasiga ta'sir etuvchi planetalarni A, V, S lar, Uran planetasining umumiy og'ishish miqdorini tashkil etuvchi qismlarini a, v, s, d bilan belgilagan holda, og'ishishning a miqdorini — A planetasi, v miqdorini — V planetasi, s miqdorini – S planetasi ta'siri bilan bog'lasak, unda d miqdori «Qandaydir noma'lum X planetasi mavjud bo'lib, ana shuning ta'sirida vujudga kelsa kerak», degan xulosani hosil qiluvchi muhokamaning amalga oshayotganini ko'ramiz.

Uning formulasi quyidagicha bo'ladi:

A, V, S lar a, v, s, d larni keltirib chiqaradi.

A a ni keltirib chiqaradi.

V v ni keltirib chiqaradi.

S s ni keltirib chiqaradi.

Ehtimol, qandaydir X mavjud bo'lib, u d ni keltirib chiqarayotgan bo'lsa kerak.

Demak, qoldiqlar metodi mohiyatini shunday ifodalash mumkin: *agar o'rganilayotgan murakkab hodisani tashkil etuvchi hodisaning (yoki hodisa qismining) bitta holatdan boshqa holatlar bilan aloqasi zaruriy tavsifga ega bo'lmasa, ana shu qoldiq holat mazkur hodisaning (hodisa qismining) sababi bo'lishi mumkin.*

Ilmiy indukstiyaning boshqa metodlari singari qoldiqlar metodi ham ehtimoliy bilim olish vositasi hisoblanadi.

SHunday qilib, sababiy aloqadorlikni aniqlashning biz ko'rib chiqqan induktiv metodlari o'z mantiqiy tarkibiga ko'ra yetarli darajadagi murakkab muhokama yuritish usullari bo'lib, ularda induktiv umumlashtirish deduktiv xulosa chiqarish ishtirokida amalga oshadi. Xususan, dedukstiya tasodifiy holatlarni muhokama jarayonidan chiqarib tashlash (eliminastiya qilish) yo'li bilan (ayiruvchi-qat'iy sillogizmning tollendo ponens modusi asosida) induktiv umumlashtirish yo'nalishini belgilashga, uning xulosasining asoslanganlik, ishonchlilik darajasining ortishiga hizmat qiladi.

Statistik umumlashtirish

U to'liqsiz indukstiyaning alohida bir turi bo'lib, ilmiy indukstiya singari, xulosa chiqarishda eliminastiya qilish usuliga, ya'ni keraksiz holatlarni muhokamadan chiqarib tashlash yo'li bilan kerakli holatlarni ajratib olishga asoslanadi. U ommaviy tusga ega, keng ko'lamda sodir bo'ladigan hodisalarni o'rganishda qo'llaniladi. Masalan, u iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarini o'rganish, tug'ilish va o'lish haqidagi ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va shu kabi hollarda muvaffaqiyatli qo'llaniladi.

Ommaviy tusdagi hodisalarni o'rganish tasodifiy belgilar, ularning mavjud hodisalarda takrorlanishi, ko'lamini aniqlashga yordam beradi va shu tariqa sababiy aloqalarni o'rnatishni osonlashtiradi.

Statistik umumlashtirish ko'proq ommaviy tusdagi hodisalarning miqdoriga tegishli ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish, umumlashtirish bilan bog'liq. Bunday miqdoriy ma'lumotlar hodisalar taraqqiyotining nisbatan turg'un tendenstiyalarini o'zida ifoda qilgani holda, ularning taraqqiyot yo'nalishlarini belgilashga, strategik va taktik ahamiyatga molik vazifalarni hal etishni tashkil qilishga yordam beradi. Masalan, u aholiga xizmat ko'rsatish, turli xil kasalliklarning tarqalishi, qonunbuzarlik kabi hodisalarning oldini olish maqsadida profilaktika ishlarini amalga oshirishga imkon beradi.

Ommaviy tusdagi hodisalar haqida ularni yoppasiga qarab chiqish yo'li bilan emas, balki ayrimlarini tanlab olib o'rganish asosida, ularga xos bo'lgan turg'un belgilar, aloqalar, qonuniyatlarni mantiqan butun sinfga ko'chirish orqali xulosalar hosil qilinadi. Xulosa chiqarish bunda statistik umumlashtirish tarzida sodir bo'ladi.

Statistik umumlashtirish – to'liqsiz indukstiya bo'yicha xulosa chiqarishdan iborat bo'lib, unda asoslarda o'rganilayotgan hodisalar guruhida — namunada muayyan belgining chastotasi haqidagi miqdoriy axborot xulosada shu jinsdagi hodisalarning butun sinfiga ko'chiriladi.

Statistik umumlashtirishda asosda qayd etilgan miqdoriy ma'lumot o'z ichiga quyidagilarni oladi: 1) ommaviy tusdagi hodisalarning o'rganilayotgan guruhi (namuna)ni tashkil etuvchi hollarning umumiy soni; 2) tadqiqotchini qiziqtirayotgan belgining takrorlanayotgan hollari soni; 3) shu belgining paydo bo'lish chastotasi.

Statistik umumlashtirishning amalga oshish shaklini qurish uchun quyidagi shartli belgilardan foydalanamiz: S – tadqiq etilayotgan hodisalar guruhi yoki namuna; R – tadqiqotchini qiziqtirayotgan belgi; n – kuzatilayotgan hollarning (namuna elementlarining) umumiy soni; m-r belgisi xos bo'lgan hodisalar (hollar) soni; f (p) – r belgisining chastotasi; K – populyastiya, ya'ni ommaviy tusdagi hodisalarning butun sinfi (belgi chastotasi yoyiladigan hodisalar sinfi).

$\frac{m}{n}$ $\frac{m}{n}$

S – namunada r belgisining paydo bo'lishi chastotasi $\frac{m}{n}$ ga teng. Uni f(p)= $\frac{m}{n}$ ko'rinishda yozish mumkin.

Masalan, avtomobil avariyalarining 100 tadan 17 tasini haydovchining mast holatda avtomobilni boshqarishi keltirib chiqaradi, deb faraz qilaylik. Unda mast holda haydovchining avtomobilni boshqarishi natijasida sodir bo'lgan avariya chastotasi 17\100 ni, ya'ni 17% ni tashkil etadi.

Umumiy holda hodisalarni statistik tasvirlashda r belgining paydo bo'lish chastotasi 0 dan 1 gacha bo'lgan intervaldagi qiymatni tashkil etadi.0‹f(p)‹1

Buning sababi shundaki, statistik namunada (s) r belgining paydo bo'lgan hollari soni (m) kuzatilayotgan elementlar umumiy sonidan (n) doimo kichik bo'ladi. Bunda n>m bo'lgani hamda f (r) qiymati ga teng bo'lgani uchun

u doimo 1 dan kichik, 0 dan katta bo'ladi.f(p)=0 ifodasi r belgisining kuzatilayotgan hodisalardan birortasiga ham xos emasligini anglatadi. Undan induktiv umumlashtirish asosida r belgisi butun K sinfiga xos emas, degan umumiy inkor hukm shaklidagi xulosa chiqariladi. ifodasi esa r belgisining kuzatilayotgan hodisalarning har biriga, ya'ni namunaga xos umumiy xususiyat ekanligini bildiradi. Uni umumlashtirish asosida, ya'ni r belgisini S dan – namunadan K ga – butun sinfga ko'chirish (generalizastiya qilish) asosida, «r K sinfining har bir hodisasiga xosdir», degan umumiy tasdiq hukm hosil qilinadi.

Statistik umumlashtirish to'liqsiz indukstiyaning bir turi bo'lgani uchun uning xulosasi ehtimoliy bilim bo'ladi.

Demak, o'rganilayotgan namunaning statistik tasviri aniq bo'lishi va belgi chastotasining populyastiyaga ko'chirilishining mantiqan asoslangan bo'lishi xulosaning chin fikrga yaqin bo'lishiga, undan bilish va amaliyotda samarali foydalanishga imkoniyat yaratadi.

Induktiv xulosa chiqarishni tahlil etishga yakun yasar ekanmiz, uning dedukstiya bilan bo'lgan aloqasini alohida ta'kidlab o'tish zarur. Bu aloqadorlik xuddi analiz va sintez o'rtasidagi aloqadorlik kabi zaruriydir.

Falsafa va demak, mantiq ilmi taraqqiyoti davomida ayrim mutafakkirlar bilishda dedukstiyaning roliga yuqori baho berib, uni tadqiq etishga alohida e'tibor qaratgan bo'lsa (masalan, Arastu, Dekart), boshqalari indukstiyaning imkoniyatlarini yuqori deb hisoblaganlar (Demokrit, Suqrot, F.Bekon, J.S.Mill), ba'zilari esa ularni o'zaro bog'liq holda olib qarashga uringan (Galiley, Gegel). Buning o'z sababi bor. Indukstiya va dedukstiya bilishning turli bosqichlarida, turli xil bilish vazifalarini hal etishda turlicha ahamiyatga ega bo'ladi. Xususan, bilishning dastlabki bosqichlarida, ayniqsa, tajriba natijalarini umumlashtirish jarayonida indukstiyaga ko'proq murojaat qilinadi. Ana shuning uchun F. Bekon Yangi davrda tabiatshunoslikning eksperimentga asoslanadigan yo'nalishlari rivoji uchun indukstiya muhim ahamiyatga ega, deb ta'kidlagan. Bilishning nazariy bosqichida, ayniqsa, aksiomatika qo'llaniladigan hollarda, dedukstiyaga ko'proq murojaat qilinadi. Matematika va mantiqda bunday hollar ko'p uchraydi. O'z paytida Dekart buni yaxshi asoslagan.

Lekin, shunga qaramasdan, bilishning barcha bosqichlari, sohalari, yo'nalishlarida induktiv va deduktiv xulosa chiqarishning o'zaro aloqadorligini, birining ikkinchisisiz mavjud bo'la olmasligini kuzatish mumkin. Xususan, deduktiv xulosa chiqarishning asoslarini induktiv yo'l bilan hosil qilingan umumiy bilimlar tashkil etadi. O'z navbatida, indukstiya xulosasining chinligi dedukstiya yordamida tekshiriladi.

Indukstiya va dedukstiyaning ob'ektiv asosini borliqdagi yakkalik, juz'iylik va umumiylikning o'zaro aloqasi, ularning birini ikkinchisi orqali namoyon bo'lishi tashkil etadi. Dedukstiyada fikrimiz umumiylikdan juz'iylik va yakkalikka, indukstiyada – yakkalik va juz'iylikdan umumiylikka qarab harakatlanadi. Buni barcha mutafakkirlar yaxshi tushunishgan. Ana shuning uchun ham Arastu dedukstiya nazariyasining (sillogistik nazariyaning) asoschisi sifatida indukstiyaning bilishdagi tutgan o'rnini inkor etmagan. Xuddi shuningdek, F. Bekon, J.S. Mill induktiv metodning jiddiy tadqiqotchilari sifatida bilishda dedukstiyaning o'z o'rniga ega ekanligini ta'kidlashgan.

Indukstiya va dedukstiyaning o'zaro aloqadorligini biz ilmiy indukstiya metodlarining qo'llanilishi jarayonida kuzatdik. Xuddi shunday, uni isbotlash va rad etishda, ilmiy nazariyalarni qurishda va shu kabilarda ham ko'rishimiz mumkin.

Analogiya

Analogiya (grek. – moslik, o'xshashlik) bavosita xulosa chiqarishning bir turidir. deduktiv xulosa chiqarishda fikr umumiylikdan juz'iylikka qarab, indukstiyada juz'iylikdan umumiylikka qarab harakatlansa, analogiyada bir juz'iy holatdan boshqa juz'iy holatga qarab harakatlanadi.

Analogiyada predmetlarning o'xshash xossalariga asoslanib xulosa chiqariladi. Tabiat va jamiyatda ob'ektiv turli-tumanlik bilan bir qatorda, ob'ektiv o'xshashlik ham mavjuddir. Ular inson ongida o'z ifodasini topadi. Ob'ektiv reallikning turli sohalariga oid qonun va qoidalar tuzilishi jihatidan o'xshash bo'lsa, ular aks ettirgan voqelikdagi turli narsa va hodisalar ham ma'lum ma'noda o'xshash bo'ladi.

Analogiya bo'yicha xulosa chiqarish ob'ektiv reallikning cheksiz ko'rinishlari hamda unda mavjud bo'lgan turli sistemalarning xossalari, munosabatlari, tarkiblaridagi o'xshashliklarga asoslanadi. Masalan, sayyoralar, davlatlar, ijtimoiy tuzumlar mohiyatida o'xshashlik bor. Bilishda muhim va nomuhim xossalar o'xshashligi asosida analogiya bo'yicha xulosa chiqariladi.

Analogiya vositasida bir predmetdan (modeldan) boshqa predmetga (prototipga) axborot o'tkaziladi. Xulosa asoslari modelga, xulosa prototipga taalluqli bo'ladi. Masalan, qadimgi greklarning «Dedal va Ikar» afsonasida

aytilishicha, ota va bola qullikdan ozod bo'lish uchun o'zlariga qanot yasashadi va uchib ketishadi. Bunda xulosa chiqarish quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

Qush tirik mavjudot, uning qanoti bor, u uchadi.

Inson ham tirik mavjudot, uning qanoti yo'q, u uchmaydi.

Insonning ham qanoti bo'lsa, u, ehtimol, uchadi.

Analogiya bo'yicha xulosa chiqarish boshqa xulosa chiqarishlar kabi asoslardan, xulosadan va asoslar hamda xulosa o'rtasidagi mantiqiy aloqadan iboratdir. Uning xulosasi ehtimoliy shaklda bo'lib, keyingi tekshirishlarni talab qiladi. Aniq asoslardan ba'zan aniq, ba'zan ehtimoliy xulosa chiqadi.

Analogiya o'zining ob'ektiv asosiga ega. Bular predmetlar, ularning xossalari o'rtasidagi aloqalar va munosabatlardir.

Xususiyatlar va munosabatlar analogiyasi

Modeldan prototipga o'tkazilayotgan axborotning tabiatiga ko'ra analogiyaning ikki turi farqlanadi: xususiyatlar analogiyasi va munosabatlar analogiyasi.

Xususiyatlar analogiyasida ikki yakka predmet yoki bir turdagi ikki predmetlar sinfi o'xshash belgilariga ko'ra o'zaro taqqoslanadi. O'xshash belgilarga asoslanib, birida mavjud bo'lgan belgining boshqasida ham bo'lishi mumkinligi haqida xulosa chiqariladi. Masalan, Yer va Quyosh qator muhim xossalariga ko'ra o'xshashdir, ya'ni ular bir sayyoralar tizimiga kiruvchi osmon jismlaridir, ikkisi ham harakatda, kimyoviy tarkibi ham o'xshash. Ana shu o'xshashliklarga asoslanib olimlar Quyoshda topilgan Yangi element – geliy Yerda ham bo'lsa kerak, degan xulosaga kelganlar. Analogiya yo'li bilan chiqarilgan bu xulosaning chinligi ko'p o'tmay tasdiqlandi – Yerda ham geliy elementi topildi.

Bu misolda ikki predmetning o'xshashligiga asoslanib, birida mavjud bo'lgan belgining boshqasida ham borligi haqida xulosa chiqarildi. O'xshatilayotgan predmetlarni A va V harflari bilan, belgilarni a, v, s harflari bilan ifoda qilsak, xususiyatlar analogiyasini quyidagi formula orqali ifodalash mumkin:

A predmet a, v, s, d belgilarga ega.

V predmet a, v, s belgilarga ega.

Ehtimol, V predmet d belgiga egadir.

Bu analogiya bo'yicha xulosa chiqarishning keng tarqalgan shaklidir. Unda bir predmet haqidagi bilim shunga o'xshash boshqa predmet haqidagi bilimdan xulosa shaklida keltirib chiqariladi.

Munosabatlar analogiyasida ikki yakka predmet yoki bir turdagi ikki predmetlar sinfi o'rtasidagi munosabatlarning o'xshashligiga asoslaniladi. Ikki turdagi (a R b) va (m R1 n) munosabatlarni taqqoslasak, a m ga, b n ga o'xshash emas, lekin ular o'rtasidagi R-R1 munosabatlarning o'xshashligi bizga xulosa chiqarish imkonini beradi. Masalan, I. Kepler planetalar harakatining qonunini ochganda, samoviy jismlarning o'zaro tortishish kuchini insonlar o'rtasidagi muhabbatga taqqoslaydi, shu asosda astronomiyaga tortishish kuchi tushunchasini kiritadi.

Munosabatlar analogiyasida ikki predmetlar o'xshashligi haqida emas, ikki predmet o'rtasidagi munosabatni o'rganish asosida boshqa ikki predmet o'rtasidagi munosabat haqida xulosa chiqariladi.

Analogiyani turlarga ajratganda xulosaning aniqlik darajasiga ham e'tibor beriladi. SHu jihatdan analogiyani qat'iy (aniq), qat'iy bo'lmagan, noaniq va xato analogiyaga ajratamiz. Qat'iy analogiyaning o'ziga xos xususiyati shundaki, ko'chirilayotgan va o'xshatilayotgan belgilar o'rtasidagi aloqa zaruriy bo'ladi. Aniq fanlarda, modellashtirishda fikr qat'iy analogiya shaklida yuritiladi.

Qat'iy bo'lmagan analogiyada o'xshash bo'lgan va ko'chirilayotgan belgi o'rtasidagi zaruriy aloqa ehtimollik darajasiga ega bo'ladi. Ijtimoiy, tarixiy voqealarni o'rganishda va aniq, tabiiy fanlarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilganda fikr yuritish qat'iy bo'lmagan analogiya tarzida bo'ladi. Masalan, nemis olimi SHpenglerning ta'kidlashicha, jamiyat ham tirik organizmlar kabi to'rtta rivojlanish bosqichini bosib o'tadi. Bular: paydo bo'lish, rivojlanish, yetuklik davri va yemirilish davri.

Agar yolg'on hukmni 0 bilan, chin hukmni 1 bilan, xulosaning ehtimollik darajasini R (a) bilan belgilasak, qat'iy analogiyada R (a)=1; qat'iy bo'lmagan analogiyada 1>R (a)>0 bo'ladi.

Analogiya bo'yicha chiqariladigan xulosaning aniqlik darajasini oshirish uchun, ya'ni xulosaning chin bo'lish ehtimolini oshirish uchun ma'lum shartlarga rioya qilish zarur. Bular quyidagilardan iborat:

1. Taqqoslanayotgan predmetlarning imkoni boricha ko'proq o'xshash belgilari aniqlanishi lozim. SHunda xulosaning chinlik darajasi, chin xulosa chiqarish imkoni ortadi.

2. Taqqoslanayotgan predmetlarning o'xshash belgilari predmetlar uchun muhim belgilar bo'lishi kerak. SHunda xulosa chin fikrga yaqinlashadi.

3. Taqqoslanayotgan predmetlarning ko'chirilayotgan belgisi bilan boshqa belgilari zaruriy aloqada bo'lishi kerak. SHunda xulosaning ishonarli, aniq bo'lish shartlari bajarilgan bo'ladi.

4. Taqqoslanayotgan predmetlarning ko'chirilayotgan belgisi bilan o'xshash belgilari bir turda bo'lishi kerak.

5. Taqqoslanayotgan predmetlarning farq qiluvchi belgilarining miqdori kam bo'lishi va bu belgilar zaruriy, muhim bo'lmasligi shart. Agar predmetlar muhim, zaruriy belgilari bilan bir-biridan farq qilsa, analogiyaning xulosasi xato bo'ladi.

YUqoridagi qoidalarning buzilishi yolg'on analogiyaga, ya'ni xulosaning xato bo'lishiga sabab bo'ladi.

Analogiya modellashtirish metodining mantiqiy asosini tashkil etadi. Modellashtirishda (konkret yoki abstrakt) ob'ektlar modellarda, ya'ni shartli obrazlar, shakllar, ob'ektning kichraytirilgan nusxalarida tadqiq etiladi.

Ma'lum sabablarga ko'ra tekshirilayotgan ob'ektni tabiiy sharoitlarda o'rganish qiyin bo'lganda yoki mumkin bo'lmaganda modellashtirishdan foydalaniladi. Bu o'z navbatida bilish jarayonini yengillashtiradi.

Modellarni uch turga bo'lish mumkin:

1. Tabiiy modellar – o'rganilayotgan ob'ekt bilan bir turda bo'ladi va undan faqat o'lchamlari, jarayonlarining tezligi va ba'zi hollarda yasalgan materiali bilan farq qiladi.
2. Matematik modellar – prototip (asl nusxa)dan jismoniy tuzilishi bilan farq qiladi, lekin prototip bilan bir xil matematik tasvirga ega bo'ladi.
3. Mantiqiy matematik modellar – belgilardan iborat bo'lib, abstrakt model hisoblanadi va tafakkur jarayonini o'rganishda qo'llaniladi.

Modellarning bu turlaridan alohida-alohida va birgalikda foydalaniladi.

So'nggi vaqtlarda modellashtirish ko'pincha kompyuter vositasida amalga oshirilmoqda. Masalan, Yangi avtomobilning modeli kompyuterda yasalib, uning o'lchamlari, turli afzalliklari matematik modellashtirish vositasida aniqlanadi.

12-mavzu: Argumentlash va bilimlar taraqqiyotining mantiqiy shakllari

Reja:

1. Isbotlash va rad etishning umumiy tavsifi, turlari.
2. Bilimlar taraqqiyotining mantiqiy shakllari: muammo, gipoteza, nazariya.
3. Savol va javobning muhokama yuritishdagi ahamiyati.
4. Mantiq ilmining nazariy va amaliy ahamiyati.

Isbotlash *bir hukmning chinligini u bilan bog'langan boshqa chin hukmlar yordamida asoslashdan iborat bo'lgan mantiqiy amaldir.* Uning tarkibi uch elementdan tashkil topgan: tezis, argumentlar (asoslar), isbotlash usuli – demonstrastiya.

Tezis – chinligi asoslanishi lozim bo'lgan hukm, u isbotlashning markaziy figurasi hisoblanadi; butun diqqat-e'tibor uning chinligini ko'rsatishga qaratiladi. Tezis bir mulohazaning o'zidan, yoki mulohazalar tizimidan, yoki teoremalardan, yoki aniq faktlarni umumlashtirish natijalaridan, yoki hodisalarning sababini ko'rsatuvchi mulohazalardan va shu kabilardan iborat bo'ladi.

Argumentlar – tezisning chinligini asoslash uchun keltirilgan hukmlar. Argumentlar bo'lib faktlarni qayd qiluvchi hukmlar, ta'riflar, aksiomalar, teoremalar, qonunlar hamda boshqa empirik va nazariy umumlashmalar xizmat qiladi. Argument sifatida keltirilgan faktlar, albatta, o'zaro bog'langan va tezisning mohiyatiga aloqador bo'lishi lozim.

Ta'riflar ham chin hukmlar bo'lib, ulardan argument sifatida foydalanish mumkin. Masalan, «Harakat – bu har qanday o'zgarishdan iborat», degan ta'rif chin hukmdir.

Aksiomalar chinligi o'z-o'zidan ravshan bo'lgan, isbotlashni talab qilmaydigan fikrlardir. Inson tajribasida ko'p martalab takrorlanganligi uchun ham ularni isbotlash zarur emas.

Teoremalar va qonunlarning chinligi isbotlangan bo'ladi, ularni hech ikkilanmasdan argument qilib olish mumkin.

Isbotlash usuli – demonstrastiya tezis bilan argumentlar o'rtasidagi mantiqiy aloqadan iborat. U xulosa chiqarish shaklida bo'ladi, ya'ni tezis argumentlardan xulosa sifatida mantiqan keltirib chiqariladi.

Isbotlashning ikki turi mavjud: bevosita isbotlash, bavosita isbotlash. Bevosita isbotlashda tezisning chinligi to'g'ridan-to'g'ri argumentlar bilan asoslanadi, unda tezisga zid bo'lgan hukmlardan foydalanilmaydi. Tezis ko'p hollarda yakka hodisani ifoda qilib keladi va ma'lum bir umumiy bilimdan, masalan, qonundan argument sifatida foydalanilib, uning chinligi asoslanadi. Masalan, «O'zbekiston – mustaqil davlatdir», degan hukm (tezis)ning chinligi «O'zbekistonning mustaqil davlat deb e'lon qilinishi, uning xalqaro miqyosda e'tirof etilishi» kabi asoslar yordamida isbotlanadi.

Bavosita isbotlashda esa tezisning chinligi unga zid bo'lgan hukmning (antitezisning) xatoligini ko'rsatish orqali asoslanadi. Antitezis qanday shaklda ifodalangan bo'lishiga qarab apagogik isbotlash va ayiruvchi isbotlash farq qilinadi. Apagogik isbotlashda tezis (a) va antitezis ($\bar{a}$) o'rtasidagi munosabatga asoslaniladi. Masalan, «Materiya harakatsiz mavjud emas», degan hukmning chinligini asoslash uchun unga zid bo'lgan «Materiya harakatsiz mavjud», degan hukm olinadi.

Apagogik isbotlashda antitezis topilib (1-bosqich), vaqtincha chin deb qabul qilinadi va undan ma'lum bir natijalar keltirib chiqariladi (2-bosqich), so'ngra bu natijalarning xatoligi ko'rsatiladi (3-bosqich) va demak, tezisning chinligi isbotlanadi. Masalan, «Materiya harakatsiz mavjud», degan hukm chin bo'lsa, «Moddiy predmetlar strukturasiz mavjud», degan fikr (antitezisdan kelib chiqqan natija) ham chin bo'ladi. Bizga ma'lumki, moddiy predmetlar tarkibsiz (uni tashkil qiluvchi elementlar va ularning o'zaro aloqasisiz) mavjud emas. Demak, «Materiya harakatsiz mavjud», degan fikr xato, shu tariqa «Materiya harakatsiz mavjud emas», degan fikrning chinligi asoslanadi.

Ayiruvchi isbotlashda tezis sof ayiruvchi hukmning (kuchli diz'yunkstiyaning) bir a'zosi bo'lib, uning chinligi boshqa a'zolarining (antitezisning) xatoligini ko'rsatish orqali asoslanadi. Masalan, "Jinoyatni yo A, yo V, yo S shaxslar sodir etgan», degan fikr tekshirilib, «Jinoyatni V shaxs ham, S shaxs ham sodir etmagan"ligi aniqlanadi va shu tariqa «Jinoyatni A shaxs sodir qilgan», degan hukmning chinligi asoslanadi. Bu misolda ayiruvchi isbotlash ayiruvchi – qat'iy sillogizmning inkor etib, tasdiqlovchi modusi bo'yicha qurilgan.Ayiruvchi isbotlashda barcha muqobil variantlar to'liq olingandagina xulosa chin bo'ladi,ya'ni tezis isbotlanadi.

Raddiya. Rad etish usullari.

Raddiya – isbotni buzishga qaratilgan mantiqiy amaldir.

Birorta fikrning chinligini rad etish ayni paytda unga zid bo'lgan fikrning xatoligini ko'rsatishdan iborat bo'lganligi uchun raddiyani isbotlashning xususiy ko'rinishi, deb hisoblash mumkin. Raddiya ham isbotlash kabi tezis (rad qilinishi lozim bo'lgan hukm), argumentlar (tezisni rad qiluvchi hukmlar) va demonstrastiya (rad etish usuli) dan tashkil topgan bo'ladi. Raddiya birorta masalani muhokama qilish, ya'ni bahs, munozara jarayonida uchraydi. Bahs qatnashchilaridan biri ma'lum bir tezisni ilgari surib, uni himoya qilsa (proponent), boshqasi unga qarshi chiqadi (opponent). Hal qilinmagan, Munozarali masalalar bo'yicha olib boriladigan bahslar polemika hisoblanib, unda qarama-qarshi tezislar asoslanibgina qolmay, balki tanqidiy analiz ham qilinadi.

Raddiya uch xil usul bilan amalga oshiriladi:

I) Tezisni rad etish;

II) Argumentlarni rad etish;

III) Demonstrastiyani rad etish.

I. Tezisni rad etish.

Tezisni rad etishning quyidagi usullari mavjud:

1.Faktlar orqali rad etish. Bu eng ishonchli va samarali usuldir. Bunda bo'lib o'tgan voqealarga, statistik ma'lumotlarga asoslanib tezis rad etiladi. Masalan, «Sovet davrida O'zbekiston to'laqonli mustaqil respublika bo'lgan», degan tezisni rad etish, ya'ni uning noto'g'ri ekanligini isbotlash uchun tarixiy faktlarga asoslanamiz. O'sha davrda respublika rahbariyati birorta muhim masalani Moskvaning ruxsatisiz hal qila olmaganligiga dalillar keltirib, tezisni rad etamiz.

2.Tezisdan kelib chiqadigan natijalarning xatoligini (yoki ziddiyatli ekanligini) ko'rsatish orqali rad etish. Bunda tezisdan kelib chiqadigan natijalarning chin emasligi asoslab beriladi. Bu usul «bema'nilikka olib kelish», deb ataladi. Rad etilayotgan tezis vaqtincha chin deb tan olinadi, undan kelib chiqadigan natijalar aniqlanib, bu natijalarning haqiqatga zid, noto'g'ri ekanligi isbotlanadi. CHin asosdan xato natija kelib chiqmaydi, aks holda bu bema'nilik bo'ladi. «Bema'nilikka olib kelish» usulining formulasi quyidagicha$(a\rightarrow b)\rightarrow((a\rightarrow b)\rightarrow a)$

3.Tezisni antitezisni isbotlash orqali rad etish. Rad etilayotgan tezisga zid bo'lgan Yangi tezis (antitezis) olinadi va isbotlanadi. Uchinchisi istisno qonuniga muvofiq, antitezisning chinligidan tezisning xatoligi keltirib chiqariladi. Masalan, Prezidentimiz I.A. Karimov «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» nomli maqolasida «Amir Temur buyuk sarkarda bo'lgan va yovuzliklar qilgan», degan tezisni shunday rad etadi: «Inson bir paytning o'zida ham bunyodkor, ham yovuz bo'lishi mumkin emas. Ne-ne madrasayu masjidlar, oliy koshonalarni qurgan, ne-ne olimu fuzalolarning boshini silagan, Qur'oni karimni yod bilgan inson yovuz bo'lmaydi. Qonxo'r odam «Kuch – adolotda», deyishi mumkinmi?»

II.Argumentlarni rad etish.

Tezisni isbotlash uchun opponent tomonidan keltirilgan argumentlar tanqid qilinib, ularning xatoligi yoki tezisni isbotlash uchun yetarli emasligi aniqlanadi.

Argumentlarning xatoligi tezisning ham xato ekanligini isbotlamaydi, bunda tezis chin bo'lishi ham mumkin:

Argumentlarni rad etish orqali tezisning isbotlanmaganligi asoslab beriladi.

III.Isbotlash usulini tanqid qilish orqali rad etish.

Rad etishning bu usulida isbotlashda yo'l qo'yilgan xatolar aniqlanadi. Bunda rad etilayotgan tezisning chinligi uni asoslash uchun keltirilgan argumentlardan bevosita kelib chiqmasligi asoslab beriladi. Isbotlash usulida yo'l qo'yilgan xato aniqlanganda tezis rad etilmaydi, uni qayta isbotlash talab qilinadi.

Rad etishning yuqorida ko'rsatilgan usullari ko'pincha birgalikda, bir-birini to'ldirgan holda qo'llaniladi.

Isbotlash va rad etish qoidalari, ularni buzganda kelib chiqadigan mantiqiy xatolar

<u>Tezisga aloqador qoidalar</u>:

1. Tezis mantiqan aniq va ravshan bo'lishi kerak. Bu qoida buzilsa, isbotlash yoki rad etish o'zining aniq predmetiga ega bo'lmay qoladi, uni amalga oshirishga urinish behuda ish hisoblanadi.

2. Tezis isbotlash yoki rad etishning boshidan oxirigacha o'zgarmasligi kerak. Bu qoida buzilsa, «tezisni almashtirish» degan xato kelib chiqadi.

<u>Argumentlarga nisbatan qoidalar</u>:

1. Tezisni asoslash uchun keltirilgan argumentlar chin hukmlar bo'lishi va bir-biriga zid bo'lmasligi lozim.

2. Argumentlar tezisni asoslash uchun yetarli bo'lishi kerak.

3. Argumentlar tezisdan mustaqil holda chinligi isbotlangan hukmlar bo'lishi lozim.

<u>Isbotlash usulining qoidasi:</u>

1. Tezis argumentlardan mantiqiy tarzda kelib chiqadigan xulosa bo'lishi lozim. Buning uchun isbotlash yoki rad etishda xulosa chiqarish qoidalariga rioya qilish zarur.

Isbotlash va rad etish qoidalarining buzilishi mantiqiy xatolarga olib keladi. Bu xatoliklar uch turga bo'linadi:

<u>I. Isbotlanayotgan tezisga aloqador xatoliklar</u>:

1.Tezisni almashtirish. Tezis isbotlash yoki rad etish davomida o'zgarmasligi shart, degan qoidaning buzilishi tezisning almashtirilishiga sabab bo'ladi. Tezis ataylab yoki bilmasdan boshqa tezis bilan almashtiriladi va bunda Yangi tezis isbotlanadi yoki rad etiladi. Tezis mazmunining toraytirilishi yoki kengaytirilishi ham bahs jarayonida tezisning o'zgarishiga olib keladi. Masalan, respublikamiz taraqqiyoti uchun milliy mafkura, milliy g'oyaning ahamiyati to'g'risidagi tezisni isbotlash davomida umuman jamiyatga mafkura kerakmi yoki yo'qmi, degan masalani isbot etishga harakat qilinsa, unda tezisning mazmuni kengayib ketadi va tezis almashinadi.

2.Insonning shaxsiy sifatini bahona qilib tezisni almashtirish. Bahs jarayonida mavzudan chetga chiqib, opponentning shaxsiy, ijtimoiy hayoti, yaxshi fazilatlari yoki kamchiliklari xususida fikr yuritib, shu asosda tezisni isbotlangan yoki rad etilgan, deb ta'kidlash tezisning almashinishiga sabab bo'ladi. Bunday xatoga ataylab yo'l qo'yiladi. Tinglovchilarning his-tuyg'ulariga ta'sir qilish orqali isbotlanmagan tezisning chin deb qabul qilinishiga urinish ham tezisni almashtirish hisoblanadi.

3.Ortiqcha yoki kam isbotlashga urinish natijasida tezisning almashinishi. Fikr ortiqcha isbotlansa, berilgan tezis o'rniga undan kuchliroq tezisni isbotlashga harakat qilinadi. Agar A hodisadan V kelib chiqsa, lekin V hodisadan A kelib chiqmasa, unda A hodisani ifodalovchi tezis V hodisani ifodalovchi tezisdan kuchliroq bo'ladi. Masalan, «A shaxs birinchi bo'lib janjalni boshlamagan» degan tezis (V) o'rniga, «A shaxs umuman janjal bo'lgan yerda yo'q edi» degan tezisni (A) isbotlashga harakat qilinadi. Ikkinchi tezisni isbotlab bo'lmaydi, chunki A shaxsning janjalda qatnashganligini ko'rgan guvohlar bor.

II. Argument (asos)larga taalluqli xatolar:

1.Asoslarning xatoligi. Tezis isbotlanganda yoki rad etilganda xato argumentlarga chin deb asoslanish natijasida ataylab yoki bilmasdan mantiqiy xatoga yo'l qo'yiladi. Masalan, Qadimgi grek faylasufi Fales o'z ta'limotini hamma narsa suvdan paydo bo'lgan, degan fikrga asoslanib yaratgan.

2.Asoslarni avvaldan taxminlash shaklidagi xato. Tezis isbotlanmagan argumentlarga asoslansa, bunday argumentlar tezisning chinligini isbotlamaydi, balki tezisning chinligi taxminlanadi, xolos.

3.«Aylanma isbot etish» deb nomlanuvchi xato. Tezisning chinligi argumentlar orqali, argumentlarning chinligi tezis orqali isbotlansa mantiqiy xatoga yo'l qo'yiladi. Masalan, «So'zning qudrati fikr bilan o'lchanadi», degan tezisni «Fikrning qudrati so'z bilan o'lchanadi», deb isbotlasak, yuqorida aytilgan xatoga yo'l qo'yiladi.

III. Isbotlash usuli (demonstrastiya) bilan bog'liq xatolar.

1.«YOlg'on (soxta) isbotlash». Agar tezis uni isbotlash uchun keltirilgan argumentlardan bevosita kelib chiqmasa, mantiqiy xatoga yo'l qo'yiladi. Bunda tezisga aloqador bo'lmagan argumentlarga asoslaniladi. Masalan, «A shaxs yomon odam», degan tezis «Tunda yomon odamlargina ko'chada yuradi», «A shaxs ko'chada tunda yuribdi» degan argumentlar bilan asoslansa, fikr yuzaki (soxta) isbotlangan bo'ladi.

2.Shartlangan fikrdan shartlanmagan fikrga o'tish. Muayyan vaqt, munosabat doirasida chin bo'lgan (shartlangan) fikrni, doimiy, o'zgarmas chin fikr deb qabul qilish natijasida mantiqiy xatoga yo'l qo'yiladi.

3.Xulosa chiqarish qoidalarining buzilishi bilan bog'liq bo'lgan xatolar:

a) deduktiv xulosa chiqarishda uchrashi mumkin bo'lgan mantiqiy xatolar. Bu haqda deduktiv xulosa chiqarish mavzusida batafsil ma'lumot berilgan;

b) induktiv xulosa chiqarishda uchrashi mumkin bo'lgan mantiqiy xatolar. Bular «shoshib umumlashtirish» va «undan keyin, demak, shuning uchun», deb ataluvchi xatoliklardir. Masalan, bir-ikki talabaning darsga mas'uliyatsizlik bilan munosabatda bo'lishini umumlashtirib, «hamma talabalar mas'uliyatsiz», deb ta'kidlash xatodir;

v) analogiyada uchrashi mumkin bo'lgan mantiqiy xatolar. Bular «yolg'on analogiya» bilan bog'liq xatolardir. Unda tasodifiy belgining zaruriy deb olinishi, faqat birgina o'xshash belgiga asoslanishi yoki mutlaqo taqqoslab bo'lmaydigan hodisalarning o'zaro taqqoslanishi natijasida fikrda chalkashliklar yuzaga keladi.

Mantiqiy xatolar tafakkur qonunlarini buzish, xulosa chiqarish qoidalariga amal qilmaslik natijasida yuzaga keladi. Mantiq tarixida isbotlash jarayonida ataylab (qasddan) xatoga yo'l qo'yuvchilar – sofistlar deb, ularning ta'limoti esa sofizm (grek. – ayyorlik) deb ataladi. Fikr yuritish jarayonida bilmasdan mantiqiy xatoga yo'l qo'yilsa, paralogizm deyiladi. CHinligini ham, xatoligini ham birday isbotlash mumkin bo'lgan fikrlar esa paradoks deb ataladi.

Bahs yuritish san'ati (eristika) o'ziga xos qonun-qoidalarga amal qilishni talab etadi.

Bularga asosan quyidagilar kiradi:

– zaruriyatsiz bahslashmaslik;

– mavzusiz bahs yuritmaslik va bahs davomida mavzudan chetga chiqmaslik yoki mavzuni o'zgartirmaslik;

– bahs mavzusi yuzasidan o'zaro zid yoki qarama-qarshi fikrlar bo'lmasa, bahsni to'xtatish;

– mavzuni yaxshi biladigan, aqlli odamlar bilangina bahslashish;

– bahs yuritishda mantiqiy qonun-qoidalarga amal qilish, o'zining va muxolifining fikrlaridan xulosa chiqara olish, mantiqiy ziddiyatlarni aniqlash va bartaraf etish, asoslar to'g'ri bo'lsa, isbotlashning ham to'g'riligini e'tirof etish va h.k.;

– bir bahs doirasida bahslashish usullarini aralashtirib yubormaslik.

Argumentlashning mantiqiy asoslarini bilish va bahs yuritish qoidalariga amal qilish tafakkur madaniyatini yuqori darajaga ko'tarish imkonini beradi.

Muammoni qo'yish va hal etish

Muammoli vaziyatni tahlil qilish Yangi muammoni qo'yishga olib keladi.

Muammo – javobi bevosita mavjud bilimda bo'lmagan va yechish usuli noma'lum bo'lgan savoldir.

SHuning uchun ham muammoni qo'yish va hal qilish mavjud bilimlarni qayta ishlash, ba'zi hollarda esa, hatto, ular doirasidan chetga chiqishni, Yangicha yechish usuli, metodlarini qidirishni taqozo etadi. Qanday muammolarni ilgari surishni, uni muhokama qilishning xususiyatini amaliy faoliyatimiz va bilishimiz ehtiyojlari belgilab beradi.

Muammoni muvaffaqiyatli hal qilishning zarur shartlaridan biri uni to'g'ri qo'yish va aniq bayon qilishdan iborat. To'g'ri qo'yilgan savol, V. Geyzenberg aytganidek, muammoni yechishning yarmidan ko'prog'ini tashkil etadi.

Muammoni to'g'ri qo'yish uchun muammoli vaziyatni aniq tasavvur qilishning o'zi yetarli emas. Buning uchun muammoni hal qilishning turli xil usullari va vositalarini ham oldindan ko'ra bilish kerak.

Muammolarni qo'yishda kishilarning hayotiy tajribasi, bilimlari va talanti muhim ahamiyatga ega bo'ladi. SHuning uchun ham, odatda, ko'p hollarda Yangi muammolar ilmiy bilishning u yoki bu sohasining yirik mutaxassislari, boy tajribaga ega va chuqur bilimli olimlari tomonidan ilgari suriladi hamda ular ba'zan uzoq yillar davomida tadqiq qilinadi. Buni, masalan, milliy g'oya va milliy mafkurani yaratish muammosining qo'yilishi va tadqiq etilishi misolida ko'rish mumkin. Jahon tajribasiga murojaat qilsak, «millatning mafkurasi bir emas, balki bir necha avlodning umri davomida ishlab chiqilishi va takomilga erishuviga guvoh bo'lishimiz mumkin»[104].

Uni shakllantirish uchun kuchli iste'dod va «yorqin tafakkur»ga ega bo'lgan Konfustiy, Maxatma Gandi, Forobiy, Bahouddin Naqshband kabi buyuk zotlar zahmat chekkanlar[105].

Hozirgi paytda esa Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganidek, «Milliy g'oya, milliy mafkurani ishlab chiqish, uni shakllantirish uchun har qaysi millatning eng ilg'or vakillari, kerak bo'lsa, mutafakkirlari, ziyolilari mehnat qilishi lozim»[106].

Muammoli vaziyatni tahlil qilishga turli xil munosabatda yondashish mumkin bo'lganligi uchun ham hal qilinishi lozim bo'lgan vazifa turli xil muammolar tarzida bayon qilinishi mumkin. Bunda ba'zi muammolar asosiy vazifani ifoda qilsa, ba'zilari bu vazifaning ayrim tomonlarini aks ettiradi va shuning uchun ham juz'iy xususiyatga ega bo'ladi. Ko'p hollarda bir-biri bilan bog'lanib ketgan mana shunday juz'iy muammolar hal qilingandan keyingina asosiy muammoni aniqroq bayon qilish va yechish imkoniyati vujudga keladi.

Muammolarni to'g'ri qo'yish va bayon qilish ularni yechishdan kam ahamiyatga ega emas. Muammoni to'g'ri qo'yish uchun uning ilmiy bilish taraqqiyotida tutgan o'rni va ahamiyatini to'g'ri baholash, uni hal qilishning metodlarini topish zarur. Bu amalda qo'yilishi mumkin bo'lgan turli xil muammolar ichidan eng muhimi va to'g'risini tanlab olishni bildiradi. Muammoni tanlash ma'lum bir darajada tadqiqotning umumiy yo'nalishini va xususiyatlarini belgilab beradi.

Oxir-oqibatda qaysi muammoni qo'yish amaliy faoliyatimiz ehtiyojlariga bog'liq. CHunki faqat amaliy faoliyatdagina kishilarning ehtiyojlari va maqsadlari bilan ularni hal qilish vositalari o'rtasidagi ziddiyat yaqqol namoyon bo'ladi, ilmiy izlanish predmeti aniqlanadi va shu asosda bilish oldiga konkret vazifalar qo'yiladi.

Ilmiy muammo, odatda, ma'lum bir nazariya doirasida vujudga keladi

(Nazariya haqida bobning oxirida kengroq ma'lumot beriladi).

Nazariya keyinchalik ilgari surilishi mumkin bo'lgan muammoni umumiy holda belgilashga va uni to'g'ri tanlashga yordam beradi. SHuningdek, har bir muammo ma'lum bir nazariya yordamida hal qilinadi. Ba'zi hollarda esa muammo mavjud nazariyani modifikastiya qilishni, muammoni yechishga moslashtirishni talab qiladi.

Muammoni yechish uchun dastlabki tayyorgarlik ishlari qilinadi. Ular quyidagilardan iborat:

a) mavjud nazariyalar doirasida tushuntirib bo'lmaydigan fakt va hodisalarni aniqlash;

b) muammoni hal qilish g'oyalari va metodlarini tahlil qilish va ularga baho berish;

v) muammoni hal qilish turini, maqsadini, olingan natijani tekshirish yo'llarini belgilash;

g) muammoning negizi bilan uni yechish uchun ilgari surilgan g'oyalar o'rtasidagi aloqaning xususiyatlarini ko'rsatish.

Bu dastlabki ishlar amalga oshirilib bo'lgandan keyin muammoni yechishga bevosita kirishiladi.

Shuni alohida qayd qilib o'tish kerakki, muammoning yechilishi nisbiy xususiyatga ega. Boshqacha aytganda, muammoning mutlaq to'la yechimini topish qiyin. Chunki o'rganilayotgan hodisaning barcha tomonlarini qamrab olib bo'lmaydi. SHuning uchun ham ilmiy izlanish davomida Yangi muammolar vujudga kelishi mumkin bo'lib, u mavjud muammoni boshqacha talqin qilishni taqozo etadi. Bunga misol qilib I. Nyuton tomonidan jismlarning o'zaro tortishishi muammosining qo'yilishini ko'rsatish mumkin. Butun olam tortishish qonunini kashf qilib, u faqat tortishuvchi jismlar o'rtasidagi miqdoriy aloqalarnigina topganligini uqtirib o'tgan edi.

A. Eynshteynning nisbiylik nazariyasi jismlarning o'zaro tortishishi muammosini boshqacha talqin qiladi va bu muammo haqidagi tasavvurlarimizni ma'lum bir darajada kengaytiradi.

Jismlarning o'zaro tortishishining tabiati, amalga oshish mexanizmi hozirgacha to'la ochib berilmagan. Boshqacha aytganda, muammo uzil-kesil hal bo'lmagan.

Ba'zi hollarda muammolarning yechimini uzoq vaqtgacha topib bo'lmaydi. Masalan, rak kasalining sababini o'rganish bilan bog'liq muammo hozirgacha to'la hal bo'lmagan.

Bu, albatta, ayrim muammolar butunlay yechimiga ega emas, degan fikrni bildirmaydi, balki ularni mavjud metodlar, vositalar yordamida yechib bo'lmaslikni ko'rsatadi xolos, va shu tariqa yechishning Yangi vositalarini qidirib topishga undaydi. Demak, muammo hal qilinmaguncha ilmiy izlanish davom etadi.

Gipoteza

Muammoni hal etish jarayonida ma'lum bir gipotezalar ilgari suriladi va asoslanadi.

---

[104] I.A. Karimov. Milliy istiqlol mafkurasi – xalқ e'tiқodi va buyuk kelajakka ishonchdir. // Asarlar to'plami 8 jild. – T.: "O'zbekiston", 2000, 25-bet.

[105] Qarang. O'sha yerda.

[106] Qarang. O'sha yerda.

Gipoteza – o’rganilayotgan hodisaning sabablari va xususiyatlarini tushuntiradigan asosli taxmin tarzidagi bilim shaklidir.

Gipotezani, avvalambor, bilimlarning mavjud bo’lish shakli sifatida olib qarash zarur. CHin, ishonchli bilimlar hosil bo’lgunga qadar qo’yilgan muammolar, masalalar haqidagi fikr-mulohazalar kuzatish, eksperiment natijalarini tahlil qilish va umumlashtirishga asoslangan bo’lib, ular turli xil taxminlar, farazlar shaklida quriladi va mavjud bo’ladi.

Masalan, Levkipp va Demokritning jismlarning atomlardan tashkil topganligi haqida bildirgan fikrlari dastlab gipotetik shaklda bo’lib, eng oddiy, kundalik tajribada minglab marta kuzatiladigan hodisalar: qattiq jismning suyuqlikka aylanishi, hidning tarqalishi va shu kabilarni tahlil qilishga asoslangan, ularning sababini tushuntirishga qaratilgan. «Jismlar mayda, bo’linmas zarrachalardan tashkil topmaganda bunday hodisalar bo’lmas edi», degan fikr o’zining ma’lum bir mantiqiy kuchiga ega.

Hodisaning sababi haqidagi fikr dastlab, odatda, gipoteza shaklida vujudga keladi va shu ma’noda u bilimlarning mavjud bo’lishining umumiy mantiqiy shakllaridan biri hisoblanadi.

Gipotezani qurish o’rganilayotgan hodisani tushuntiradigan taxminiy fikrlarni ilgari surishdan iborat bo’ladi. U qayd etilgan faktlar, ular uchun xarakterli bo’lgan qonuniyatlar haqidagi hukmlar (mulohazalar) yoki hukmlar tizimi tarzida bo’ladi. Uni ifoda qiluvchi asosiy gap mulohazalar sistemasini hosil qiluvchi element, deb hisoblanadi. Ana shu gap (mulohaza)da, odatda, gipotezaning bosh g’oyasi aks etadi. Muhokama jarayoni uning negizida, atrofida quriladi va ma’lum bir ishchi gipotezalar – vaqtincha quriladigan, mo’ljalni to’g’ri olishga yordam beradigan taxminlarning ilgari surilishiga, ular yordamida hodisaning yanada chuqurroq tadqiq qilinishiga olib keladi.

Gipotezalarni ilgari surishning asosiy mantiqiy vositasi ehtimoliy xulosa chiqarish: analogiya, to’liqsiz indukstiya, turli ko’rinishdagi ehtimoliy sillogizmlar – eng kamida bitta qoidasi buzilgan, asoslaridan biri ehtimoliy hukm bo’lgan sillogizmlar (shartli, ayiruvchi – qat’iy, shartli – ayiruvchi sillogizmlar shakllarida) hisoblanadi.

SHuningdek, gipoteza ba’zi hollarda qat’iy xulosa chiqarish shakllarida hamda turli xil xulosa chiqarish usullarining ko’p qavatli mantiqiy qurilmasi tarzida ham shakllantirilishi mumkin.

Gipotezada ilgari suriladigan mulohaza empirik materiallarni tahlil qilish, qayta ishlash, tartibga keltirish, umumlashtirish, talqin etish natijasida paydo bo’ladi. Ana shuning uchun ham gipoteza – bu har qanday taxmin emas, balki ma’lum bir darajada asoslangan, o’zining muayyan mantiqiy kuchiga ega mulohaza, farazdir.

Gipoteza qurishning murakkab mantiqiy jarayon ekanligini quyidagi misol tasdiqlaydi. Issiqlik dvigatellari nazariyasi asoschilaridan biri franstuz injeneri Sadi Karno birinchi bo’lib faqat issiqlikning qattiqroq qizigan jismdan sovuqroq jismga o’tishidagina foydali ish vujudga kelishi va aksincha, issiqlikni sovuq jismdan qizdirilgan jismga berish uchun ish sarflanishi zarur, degan fikrni ilgari surgan. Ayni paytda Karno shu davrda keng tarqalgan issiqlikning namoyon bo’lish sababi uning tarkibida alohida vaznsiz suyuqlik – teplorodning bo’lishidir, degan fikrga tayanuvchi teplorod konstepstiyasini ham to’g’ri, deb hisoblagan. Teplorodni suvga, haroratlar (temperaturalar) o’rtasidagi farqni – suv darajasiga qiyos qilib, Karno, xuddi suv darajasining pastga tushishida ish suv og’irligining uning darajalari o’rtasidagi farqqa bo’linishi bilan o’lchangani kabi, bug’ mashinasida ish, ishchi moddaning (suv, spirt va boshqalar) tabiatidan qat’i nazar, teplorod miqdorining haroratlar (temperaturalar) farqiga bo’linishi bilan o’lchanadi, degan xulosaga keladi. Bu issiqlik mashinasi ish hajmining (miqdorining) isitgich va sovutgich haroratlarining qiymatlariga bog’liqligini anglotardi. «Karno prinstipi» keyinchalik termodinamikaning ikkinchi qonunining yaratilishiga asos bo’lgan.

Keltirilgan misolda Sadi Karnoning gipotezani ilgari surishda analogiyaga asoslanganligini payqab olish qiyin emas.[107]

Ilgari surilgan gipoteza, albatta, asoslanishi zarur. Bu bosqichda gipotezadan ma’lum bir natijalar keltirib chiqariladi va ular verifikastiya qilinadi, ya’ni ularning mavjud faktlarga (yoki boshqa ishonchli bilimlarga) muvofiqligi aniqlanadi.

Bu yerda shuni unutmaslik lozimki, gipotezani ishonchli, chin bilimga aylantirish uchun unda ilgari surilgan fikrlarga yetarli asos bo’la oladigan miqdordagi natijalar (gipotezaning asosiy g’oyasidan kelib chiqadigan) yig’indisi verifikastiya qilinishi kerak.

Gipotezaning chinligini asoslashning boshqa usullari ham mavjud: 1) gipotezani deduktiv yo’l bilan chinligi avval isbotlangan bilimlardan mantiqan keltirib chiqarish; 2) asosi ishonchli bilim bo’lmasa, uni tasdiqlash (bu ko’proq asoslari ehtimoliy hukm bo’lgan sillogizmlar vositasida qurilgan gipotezalarga tegishli); 3) gipotezaning asoslarini ishonchli bilim olish uchun yetarli bo’lgan miqdorga yetkazish (bu gipoteza to’liqsiz indukstiya vositasida qurilgan hollarga tegishli).

Gipotezani tasdiqlashning qanday kechishini tasavvur qilish uchun quyidagi misolga murojaat qilamiz.

Termodinamika asoschilaridan biri nemis fizigi R.Klazius yuqorida biz qayd etib o’tgan “Karno prinstipi”ni unga qilingan ko’p hujumlardan himoya qilgan. Bu prinstipni tasdiqlash maqsadida, uning chinligini intuitiv ravishda muqarrar deb hisoblagan postulatdan deduktiv yo’l bilan keltirib chiqaradi. Bu postulatga muvofiq issiqlik o’z holicha sovuqroq jismdan issiqroq jismga o’ta olmaydi.[108] Bu yerda urg’u aynan shu “o’z holicha o’ta olmaslikka” beriladi, chunki amalda “majburan” o’tish ham (sovitish qurilmalarida, aralashmalarda va boshqalarda)

---

[107] Мисол қуйидаги манбаадан олинди сборник упранениий по логике пособие для вузов / А.С. Клевчани Минск Университетское , 1990. с. 214.

[108] Qarang. O’sha kitob, 220-bet.

mavjud bo'lib, u muayyan kompensastiya qiluvchi (o'rnini qoplovchi) holatning yuzaga kelishi bilan birgalikda kechadi.

Gipoteza rad qilinishi ham mumkin. U gipotezadan kelib chiqadigan natijalarni falsifikastiya qilish yo'li bilan aniqlanadi. Mazkur mantiqiy jarayon shartli-qat'iy sillogizmning inkor modusi tarzida kechadi, ya'ni natijaning xatoligini aniqlashdan asosning xatoligini ko'rsatishga o'tiladi. Uning simvolik ifodasi quyidagicha:

$$((H \rightarrow P) \wedge \neg p) \rightarrow \neg H$$

Gipotezaning natijalarini topa olmaslik, garchi bu gipotezaning mavqeini ancha pasaytirsa-da, lekin uni rad eta olmaydi. Gipotezaning chinligi undan kelib chiqadigan natijalarga zid bo'lgan holatlar aniqlangandagina uzil-kesil rad etiladi. Masalan, Ptolomeyning Yerning harakatlanmaydigan markaz ekanligi haqidagi gipotezasi Kopernikning geliostentrik nazariyasi asoslanadigan faktlarga zid kelganidan keyin rad etildi.

SHuni alohida ta'kidlash zarurki, o'rganilayotgan hodisa haqida bir vaqtning o'zida bir qancha gipotezalar ilgari surilishi mumkin. Masalan, hozirgi paytgacha qushlar uchayotganda to'g'ri yo'lni qanday topa olishini mavjud gipotezalardan hech biri to'liq tushuntira bera olmagan. Ularda turli xil fikrlar bildirilgan: qushlarni ba'zilar magnit maydoniga, boshqalar Quyoshga, yulduzlarga qarab mo'ljal olishadi, deb hisoblashgan. Ukraina olimlari esa 1980 yillarning ikkinchi yarmida qushlar o'z harakati marshrutlarini Yerning gravitastiya maydoniga asoslanib, shu marshrut davomida og'irlik kuchining o'zgarishini «hisoblab» belgilashadi, degan fikrni bildirganlar. Lekin hozirgacha ularning birortasi uzil-kesil tasdiqlanmagan ham, rad etilmagan ham.

Gipoteza tasdiqlanmaguncha o'zining bilishdagi ahamiyatini yo'qotmaydi. Rad etilsa, o'rniga boshqa gipoteza quriladi va bu hol to gipotezalardan birortasi tasdiqlanmaguncha davom etadi.

Ilgari surilayotgan gipotezalar turli xil darajada umumlashgan bo'lishi mumkin. Ana shunga muvofiq holda umumiy va juz'iy gipotezalarni ajratish mumkin.

Umumiy gipoteza deb tabiat, jamiyat, bilish hodisalarining qonuniyatlari haqida bildirilgan asosli taxminga aytiladi. Bunga misol qilib neft kelib chiqishining organik va noorganik tabiati haqidagi gipotezalarni, Yerda hayotning paydo bo'lishi, ongning kelib chiqishi, ijtimoiy progress haqidagi farazlarni ko'rsatish mumkin. Umumiy gipotezalar borliqning muhim qonuniyatlarini ochishga imkon bergani uchun ilmiy nazariya «qurish materiallari», deb hisoblanadi. Isbotlangach, bunday gipotezalar nazariyalarga aylanadilar va ilmiy tadqiqotlarning strategik yo'nalishlarini belgilab beradilar.

Juz'iy (xususiy) gipoteza ayrim faktlar, konkret predmet va hodisalarning kelib chiqishi, xususiyatlari haqidagi bildirilgan asosli taxminiy fikrdan iborat. Konkret jinoyatning motivi haqidagi sud versiyasi, arxeologik qazishlarda topilgan predmetlarning tabiati, qaysi davrlarga oid ekanligi haqidagi taxminlar juz'iy gipotezaga misol bo'ladi.

Mantiqda ishchi gipotezalar ham farq qilinadi.

Ishchi gipoteza tadqiqotning dastlabki bosqichida ilgari suriladigan taxmin bo'lib, o'z oldiga o'rganilayotgan hodisaning sababini aniqlashni maqsad qilib qo'ymaydi; u faqat kuzatish va eksperiment natijalarini tasvirlashga, tartibga solishga yordam beradi.

SHunday qilib, gipoteza fikrlarimizning qurilishi, bilimlarimizning mavjud bo'lish va rivojlanish shaklidir.

Nazariya

«Nazariya» termini keng ma'noda aqliy bilish, tafakkurni anglatadi, uni amaliyotdan farq qiluvchi faoliyat turi sifatida ifodalaydi. Tor ma'noda esa, nazariya ma'lum bir sohaga oid tasavvurlar, tushunchalar, g'oyalar, gipotezalarni tizimga soladigan, predmetni yaxlit tarzda anglashga imkon beradigan bilim shaklini bildiradi.

Nazariyaning bunday talqini ilmiy bilishda empirik va nazariy bosqichlarning farq qilinishi bilan bog'liq.

Empirik bosqichda ilmiy faktlar to'planadi, o'rganiladi, tizimga solinib, turli xil jadvallar, shakllar, grafiklar tuziladi; muayyan bir umumlashmalar, xususan, empirik tushunchalar, farazlar, empirik qonunlar shakllanadi.

Ilmiy bilishning keyingi taraqqiyoti empirik bilish bosqichida hosil qilingan, lekin bir-biri bilan bo'lgan aloqasi hali aniqlanmagan bilimlar o'rtasida munosabatlarni o'rnatish, ularni umumlashtirish, shu asosda Yangi fundamental tushunchalar, umumiy qonunlarni yaratish, ilmiy bashoratlar qilish bilan uzviy bog'liq.

Bilishning bu ikki bosqichi o'rtasida zaruriy aloqadorlik mavjud. Xususan, nazariyani yaratish empirik bilish jarayonida hosil qilingan predmetning ayrim tomonlari, xususiyatlarini aks ettiruvchi tushunchalar, qonunlar, farazlar o'rtasida mantiqiy aloqalarni o'rnatishga, predmet haqida yaxlit tasavvur hosil qilishga, uning mohiyatini tushuntirishga bo'lgan ehtiyoj bilan belgilanadi.

Nazariya ma'lum bir predmet sohasiga oid tushunchalar, qonunlar, gipotezalar, g'oyalarni sistemaga solib, u haqida yaxlit tasavvur hosil qiladigan, Yangi fundamental umumlashmalar yaratishga olib keladigan, shu sohadagi hodisalarni tushuntirish, oldindan ko'rish imkonini beradigan ishonchli bilimdan iborat.

Ilmiy nazariya quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topadi: 1) empirik asos: nazariyaga aloqador faktlar, ularga mantiqiy ishlov berish natijalari; 2) boshlang'ich nazariy asos: nazariyaning asosiy tushunchalari, postulatlari (aksiomalari), fundamental qonunlar (prinstiplar); 3) nazariyaning mantiqiy apparati: tushunchalarni hosil qilish va ta'riflash qoidalari, xulosa chiqarish (isbotlash) qoidalari; 4) olingan natijalar (xulosalar).

Ilmiy nazariya oxir-oqibatda real tizimni, ob'ektni aks ettiradi, uning tabiatini tushuntiradi va shu ma'noda o'zining empirik asosiga ega. Lekin empirik asosining mavjudligi nazariyaning barcha tushunchalari ifoda etadigan predmet va belgilarning hissiy idrok qilinishi yoki nazariyaning barcha hollarda mavjud hodisalarni, ularning real xususiyatlari va munosabatlarini aks ettirishini anglatmaydi.

Nazariyada borliq, asosan, modellar yordamida ideallashgan holda in'ikos qilinadi. Ideallashtirish jarayonida mavjud ob'ektlar haqidagi empirik bilimga tayangan holda, haqiqatda mavjud bo'lmagan va ba'zan mavjud bo'lishi

mumkin ham bo'lmagan, lekin real mavjud predmetlarga ma'lum bir munosabatda o'xshash ob'ektlar haqidagi tushunchalar hosil qilinadi. Masalan, mexanika yechimini qidiradigan ko'p masalalarda jismning shakli va o'lchamlari (eni, bo'yi, hajmi va shu kabilar) unchalik muhim ahamiyatga ega emas. Ayni bir paytda massa muhim ahamiyatga ega va shuning uchun ham massasi bir nuqtaga jamlangan xayoliy jism – moddiy nuqta hosil qilinadi.

Barcha real mavjud jismlar shaklga va o'lchamlarga ega, moddiy nuqta esa ideal ob'ekt bo'lib, ba'zi masalalarni yechishda real jismlarning o'rnini bosadi, ularning nazariy bilishdagi ekvivalenti bo'lib xizmat qiladi. Fizikadagi mutlaq qattiq jism, geometriyadagi nuqta, tekislik, to'g'ri chiziq va boshqa fanlardagi shu kabi ko'p tushunchalar ideal ob'ektlarni ifoda qiladilar.

Ideal ob'ektlar yordamida predmetning hissiy idrok etilmaydigan muhim xususiyatlari, munosabatlari o'rganiladi. Ularsiz nazariy bilish o'z oldiga qo'yadigan maqsadiga erisha olmaydi. Nazariy bilishning zaruriy vositasi bo'lganligi uchun ularni ba'zan nazariy ob'ektlar deb ham atashadi.

Nazariya ideal xarakterga ega bo'lgan tushunchalar, mulohazalar tizimidan – konsteptual tizimdan iborat bo'lib, u real ob'ektning nazariy modelini ifoda qiladi. Masalan, mexanikadagi boshqa tizimlar ta'siridan ajratib qo'yilib, yopiq tizim tarzida fikr qilinadigan mexanik tizim tushunchasi real ob'ektning nazariy modeli hisoblanadi. Uning yordamida real mavjud bo'lgan mexanik tizimning harakat qonunlari o'rganiladi.

Nazariy modelning ideal xususiyatga ega bo'lgan ob'ektlari, ularni aks ettiruvchi tushunchalar o'rtasidagi aloqadorlik nazariyaning fundamental qonunlari, prinstiplarida o'z ifodasini topadi.

Mazkur qonunlar, prinstiplar boshlang'ich tushunchalar va mulohazalar bilan birgalikda nazariyaning konsteptual o'zagini tashkil etadi. Masalan, klassik mexanikaning negizini harakatning uchta qonuni hamda ular bilan bog'liq bo'lgan fazo, massa, vaqt, kuch, tezlik, tezlanish tushunchalari tashkil etadi. Klassik termodinamikaning asosini esa uning uchta muhim qonuni hosil qiladi. Matematik nazariyalarning konsteptual o'zagi ularning asosiy tushunchalari va aksiomalarida o'z ifodasini topgan.

Har bir nazariya o'zining tushunchalarini hosil qilish, ta'riflash qoidalariga ega. Bunga misol qilib formallashgan tilni yaratish qoidalari, mulohazalar mantig'ini natural xulosa chiqarish tizimi sifatida qurish qoidalarini ko'rsatish mumkin. Xuddi shuningdek, har qanday nazariya xulosalar tarzidagi o'z natijalariga ega.

Demak, ilmiy nazariyaning tarkibida uning har bir elementi o'z o'rniga ega.

Ilmiy nazariya bilishda bir qancha muhim vazifalarni bajaradi.

Birinchidan, nazariyada birorta sohaga oid barcha bilimlar yaxlit bir tizimga birlashtiriladi. Bunday tizimda, odatda, bilimlarning katta qismini nazariyaning nisbatan kamroq bo'lgan boshlang'ich tushunchalaridan keltirib chiqarishga harakat qilishadi. Ular matematikada aksiomalar, tabiatshunoslikda gipotezalar, deb yuritiladi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad – qayd etilgan faktlarni ayrim boshlang'ich prinstiplar, gipotezalarning natijasi sifatida talqin etish. Nazariy tizimda har bir fakt, har bir tushuncha, har bir qonun yoki faraz boshqalariga nisbatan o'z o'rniga ega bo'lishi, ana shundan kelib chiqib, talqin qilinishi (yoki qayta talqin qilinishi) zarur. Talqin etish jarayonida mavjud nazariyalar hamda Yangidan qurilayotgan nazariyaning elementlariga murojaat qilinadi. Bu esa, bir tomondan, mavjud faktlarning tabiatini to'g'ri tushunishga yordam bersa, ikkinchi tomondan, bevosita empirik usul yordamida qayd etib bo'lmaydigan Yangi faktlarni topishga imkon beradi.

Ikkinchidan, nazariyani qurish berilgan sohaga oid bilimlarni aniqlashtirish, kengaytirish va chuqurlashtirishga yordam beradi. Buning sababi shundaki, nazariyaning boshlang'ich asoslari – aksiomalar, postulatlar, qonunlar, prinstiplar, gipotezalar nazariyadagi boshqa ilmiy bilimlarga nisbatan mantiqan kuchliroq hisoblanadi. Ana shuning uchun ham nazariyani qurish mavjud bilimlarni tartibga solishdan, ya'ni koordinastiya qilishdangina iborat bo'lib qolmaydi. Bunda mantiqan kuchli bilimlardan mantiqan kuchsiz bilimlar keltirib chiqariladi, ya'ni subordinastiya qilinadi. U esa mazmunan chuqurroq bo'lgan tushunchalar, qonunlar, prinstiplarga murojaat qilishga, ular yordamida mavjud tushunchalarni talqin etishga, Yangi fundamental umumlashmalar hosil qilishga olib keladi. Masalan, Nyutonning harakatning uchta qonuni hamda butun olam tortishish qonuniga tayanadigan klassik mexanikasi Galileyning jismlarning erkin tushishi qonuni va Keplarning planetalar harakati qonunini tushuntirish va aniqlashtirish imkonini berdi. Xususan, Galiley qonunining jismning gravitastiya kuchi ta'sirida harakat qilishining juz'iy holini ifoda etishi ma'lum bo'ldi. Gravitastiya ta'siridan tashqarida, ya'ni Yer radiusi uzunligidan ortiq bo'lgan masofada Galiley kashf etgan qonun amal qilmaydi. Xuddi shuningdek, Keplerning Quyosh sistemasida harakat qiluvchi planetaning elliptik orbita bo'yicha harakat qilishi qonunining boshqa planetalarning ta'sirini hisobga olmasligi va ana shuning uchun ham unchalik aniq emasligi ma'lum bo'ldi.

Uchinchidan, nazariya o'rganilayotgan hodisani ilmiy asosda tushuntira oladi. To'g'ri, birorta hodisani tushuntirish uchun, odatda, uni tavsiflaydigan qonunga murojaat qilishadi. Lekin shuni yoddan chiqarmaslik zarurki, fanda qonunlar o'z holicha emas, balki ma'lum bir nazariya tarkibida mavjud bo'ladi. Bunda empirik qonunlar ma'lum bir nazariy qonunlardan keltirib chiqariladi. Hatto, alohida olingan nazariy qonun ham hodisani tushuntirish uchun yetarli bo'lmasligi mumkin. Ilmiy tajriba shuni ko'rsatadiki, hodisaning mohiyatini tushuntirish uchun nazariyaning barcha g'oyalari yig'indisi, qonunlar jalb etiladi.

Nazariyaning ilmiy bilishdagi alohida ahamiyati yana uning Yangi, ilgari kuzatilmagan hodisalarning mavjudligini oldindan ko'rish imkonini berishidadir. Masalan, Maksvellning elektromagnit nazariyasi radio to'lqinlarining mavjudligini oldindan aytishga imkon bergan. Bu to'lqinlarni ancha vaqt o'tgandan keyin G. Gerst eksperimental yo'l bilan qayd etgan. Xuddi shuningdek, Eynshteynning umumiy nisbiylik nazariyasi gravitastiya maydonida yorug'lik nurining og'ishini bashorat qilishga olib kelgan.

To’rtinchidan, ilmiy nazariya o’zida o’rganilayotgan predmet sohasiga oid barcha bilimlar o’rtasida mantiqiy aloqalarni o’rnatgani, yaxlit bir tizimda mujassamlantirgani va umumlashtirgani uchun uning ob’ektiv haqiqatlik darajasi va demak, ishonchliligi ortadi.

Beshinchidan, nazariya muammoni qo’yish, gipotezalarni yaratish, qonunlarni shakllantirish, g’oyalarni ilgari surish va asoslashdan iborat bilishning uzoq va mashaqqatli yo’lini bosib o’tishning natijasi bo’lganligi uchun u bilishga xos qonunlarni aniqlash, ularni o’rganish imkonini beradi.

Nazariyani qurish murakkab jarayon bo’lib, ko’p hollarda bir qancha olimlarning hamkorlik qilishini taqozo etadi.

Dastlabki bosqichda nazariyaning predmet sohasi va tadqiqot yo’nalishi aniqlanadi. Amaliy hayotimiz ehtiyojlari, u bilan uzviy bog’liq bo’lgan tadqiqot maqsadi va vazifalari bunda muhim ahamiyat kasb etadi. SHuningdek, predmet sohasi va tadqiqot aspektini aniqlashda berilgan sohaga oid bilimlarning ko’lami, chuqurligi katta rol o’ynaydi.

Nazariyani qurishning keyingi zaruriy bosqichi boshlang’ich asosni aniqlashdir. U o’rganilayotgan sohaga oid eng asosiy tushunchalar, aksiomalar, gipotezalar yig’indisidan iborat bo’ladi. Nazariyaning boshqa barcha tushunchalari, gipotezalari va qonunlari ana shu boshlang’ich asosdan deduktiv yo’l bilan keltirib chiqariladi. Bunda, albatta, nazariyaning barcha tushunchalari – asosiylari va keltirib chiqariladiganlari, Yangidan hosil qilinadiganlari muhim g’oya (yoki g’oyalar tizimi) negizida birlashtirilishi kerak.

Tabiiyki, nazariya ma’lum bir metod yordamida, ya’ni metodologik prinstiplar, usullarni qo’llash asosida quriladi.

Qurilgan nazariya bilishning keyingi bosqichlarida aniqlashtiriladi, Yangi faktik materiallar asosida mazmunan boyitiladi, qayta talqin qilinadi.

Nazariyaning turlari

Ilmiy nazariyaning juda ko’p turlari mavjud. Ularni turli xil asoslarga ko’ra tasniflash (turkumlash) mumkin. Xususan, qurilish metodiga ko’ra nazariyalarni to’rt turga ajratish mumkin: 1) tajriba bilan ish ko’radigan fanlarning mazmundor nazariyalari; 2) gipotetik-deduktiv (yoki yarim aksiomatik) nazariyalar; 3) aksiomatik nazariyalar; 4) formallashgan nazariyalar.

«Mazmundor» nazariyalarda ma’lum bir sohaga oid faktlar tizimga solinadi, umumlashtiriladi va tushuntiriladi. Ular asosan tajriba natijalari, empirik materiallarga tayanadi, ularni tahlil qiladi, tartibga soladi va umumlashtiradi. Ana shuning uchun ham ularni «tajribaga tayanuvchi nazariyalar», deb atashadi. «Mazmundor» deb atalishiga sabab, ularni matematika va mantiqdagi formallashgan nazariyalardan farq qilishdir. Mazmundor nazariyalarni sof empirik nazariyalar deb bo’lmaydi. Ular faqat empirik materiallargagina emas, balki nazariy qonunlarga ham tayanadi. Masalan, mazmundor, deb hisoblanadigan CH. Darvinning evolyustiya nazariyasi, I.P. Pavlovning oliy asab faoliyatining shartli reflektorlik nazariyasi va shu kabilar chuqur nazariy g’oyalarga suyanadi, ular yordamida to’plangan materiallarni rastional usul bilan anglaydi, qayta ishlaydi va tushuntiradi.

Gipotetik-deduktiv nazariyalar tabiatshunoslikda uchraydi. U turli xil mantiqiy kuchga ega gipotezalar tizimidan iborat bo’lib, unda mantiqan kuchlilaridan mantiqan kuchsizroqlari dedukstiya qilinadi. Gipotetik-deduktiv tizimni gipotezalar zanjiri (ierarxiyasi) tarzida olib qarash mumkin. Bunda empirik asosdan uzoqlashgan sari gipotezaning kuchi ortib boradi, chunki har bir keltirilib chiqarilgan gipoteza o’zidan avvalgi gipotezalarda mavjud bo’lgan bilimlarni sintez qilish natijasi sifatida gavdalanadi.

Gipotetik-deduktiv nazariyalarning o’ziga xos jihatlaridan biri undagi gipotezalarning darajalari bo’yicha qat’iy izchil joylashishidir. Gipotezaning darajasi qanchalik yuqori bo’lsa, xulosalarni mantiqiy yo’l bilan keltirib chiqarishda uning ishtiroki shunchalik ko’p bo’ladi.

Nazariyaning gipotetik-deduktiv modeli empirik materiallarni ishlashda ko’p qulayliklarga ega bo’lishi bilan bir qatorda ayrim kamchiliklardan ham xoli emas. Xususan, boshlang’ich gipotezalar qanday tanlab olinishi kerak, degan savolga haligacha aniq, qat’iy holdagi javob yo’q.

Aksiomatik tizimlarda nazariya elementlarining katta qismi kichkina boshlang’ich asosdan – asosiy aksiomalardan deduktiv yo’l bilan keltirilib chiqariladi. Aksiomatik nazariyalar asosan matematikada quriladi.

Aksiomatik metod birinchi marta Yevklid tomonidan elementar geometriyani qurishda muvaffaqiyatli ishlatilgan. Mazkur geometriyaning asosiy aksiomatik tushunchalari «nuqta», «to’g’ri chiziq», «tekislik» bo’lib, ular ideal fazoviy ob’ektlar sifatida olib qaralgan; geometriyaning o’zi esa fizikaviy fazoning xususiyatlarini o’rganuvchi ta’limot sifatida talqin qilingan. Yevklid geometriyasining qolgan barcha tushunchalari ular yordamida hosil qilingan.

Quyidagi misolga murojaat qilaylik: «Tekislikdagi bitta nuqtadan baravar uzoqlikda yotadigan nuqtalar to’plamiga aylana deyiladi», unda «aylana» tushunchasi «nuqta va tekislik» tushunchalari yordamida hosil qilingan, ya’ni ulardan dedukstiya qilingan.

Matematikaning taraqqiyoti davomida aksiomatik metod takomillashib borgan, uni qo’llash mumkin bo’lgan sohalar doirasi kengaygan. Xususan, asta-sekin Yevklid aksiomalarining faqat geometrik ob’ektlarnigina emas, balki boshqa matematik va hatto, fizik ob’ektlarni ham tasvirlash uchun yaroqli ekanligi ma’lum bo’ldi. Masalan, nuqtani haqiqiy sonlarning uchtasining to’plami – to’g’ri chiziq va tekislikni, chiziqli tenglamalarni bildiradi, deb qabul qilinganda, mazkur nogeometrik ob’ektlar xossalarining Yevklid geometriyasi aksiomalari talablariga javob berishi aniqlangan.

SHuni aytish kerakki, aksiomatikaga bunday abstrakt tarzda yondashishga ma’lum bir darajada N.I. Lobachevskiy, B. Riman va boshqalar noevklid geometriyalarining yaratilishi yaxshi imkoniyat yaratdi.

Hozirgi zamon matematikasida abstrakt aksiomatik tizimlar keng qo’llaniladi. Bunday tizimlarning muhim xususiyatlari ularning yopiq tizimdan iborat bo’lishi, ya’ni miqdor jihatidan cheklangan aksiomalar, tushunchalar, prinstiplardan tashkil topishi, ular qatoriga ixtiyoriy ravishda, asossiz Yangi aksiomalar, tushunchalarni qo’shib bo’lmaslik; tizimlarning mantiqan ziddiyatsiz va ma’lum bir darajada to’la bo’lishi va shu kabilardan iborat. Ana shuning uchun ham ular uzoq vaqt davomida o’zining barqarorligini saqlaydi, Yangi bilim olishning ishonchli vositasi bo’lib qoladi.

Aksiomatika tabiatshunoslikda ham qo’llaniladi. Tajriba bilan bog’liq bo’lganligi va shuning uchun ham zaruriy ravishda empirik talqinga muhtoj ekanligi sababli tabiatshunoslikning faqat o’zagini tashkil etadigan tushunchalarnigina aksiomalashtirish mumkin.

Abstrakt matematik strukturalar faqat aksiomatik tizimlardagina emas, balki formallashgan nazariy tizimlarda ham tasvirlanishi va tushuntirilishi mumkin.

Formallashgan nazariyalar mantiqda keng qo’llaniladi. Bunga misol qilib mulohazalar mantig’i, predikatlar mantig’ini ko’rsatish mumkin. SHuningdek, u matematikada ham uchraydi.

Nazariyaning yuqorida biz ko’rib chiqqan turlari va boshqalari nazariy bilishning muhim vositalari sifatida fanda nihoyatda qadrlanadi. Ular tafakkurning strukturasi va qonuniyatlarini yaxshi bilib olishga imkon beradi.

Savol va javob

Bilimlarimiz predmet va hodisalar haqida avvalgi hosil qilingan hukmlar (mulohazalar)dan Yangi, ularni to’ldiradigan, kengaytiradigan hukmlarni yaratishga qarab taraqqiy etib boradi. Bu jarayon ma’lum bir savollarni qo’yish va ularga javob qidirish tarzida sodir bo’ladi.

SHuni aytish kerakki, savol so’roq gap yordamida ifoda qilingani uchun hukmni ifoda qila olmaydi. Ular bilishda turlicha vazifalarni bajaradi. Xususan, hukmning vazifasi predmet haqidagi mavjud bilimlarni qayd qilishdan iborat bo’lsa, savol uning Yangi xususiyatlari, aloqalarini qidirib topishga, o’rganishga qaratilgan bo’ladi. Savol bir qancha muhim mantiqiy xususiyatlarga ega. Birinchidan, savolda ma’lum bir boshlang’ich bilim mujassamlangan bo’ladi. Masalan, «Qanday sabablarga ko’ra GFR va GDR yagona davlatga birlashdi?» degan savolda mustaqil Germaniya Federativ Respublikasi va Germaniya Demokratik Respublikasining mavjud bo’lganligi, ularning yagona davlatga birlashishidan avval qandaydir voqealarning sodir bo’lganligi haqida ma’lumot berilgan. Ikkinchidan, savolda mavjud bo’lgan bilim noaniq bo’ladi. YUqorida keltirilgan misolda yagona nemis davlati – GFR haqida ma’lum bir ma’lumot mavjud bo’lsa-da, u fikrlash predmetini tushunish uchun yetarli emas. SHuning uchun ham savol qo’yish va unga javob qidirish yo’li bilan yagona nemis davlatining paydo bo’lish shart-sharoitlari haqida bilim hosil qilinishi zarur. Uchinchidan, savolda predmet haqida to’laroq bilimga ega bo’lish ehtiyoji o’z ifodasini topadi.

Ana shundan kelib chiqib, savol bilimlarimizdagi noaniqliklarni, shubhalarni yo’qotish, hamda aniqroq va to’laroq bilimlar hosil qilishga bo’lgan ehtiyojni qondirishga xizmat qiladigan fikrlash vositasidir, deb aytishimiz mumkin.

Savol o’z-o’zidan paydo bo’lmaydi. U o’zining asosiga (datum questioins), bazisiga ega. Savolning asosini unda mujassamlashgan bilim (axborot) tashkil etadi.

Savollarning bir qancha turlarini farq qilsa bo’ladi. Xususan, savol o’zining asosiga ko’ra to’g’ri va noto’g’ri qo’yilgan savollarga bo’linadi. Asosi chin va ziddiyatsiz bilimdan iborat bo’lsa, savol to’g’ri qo’yilgan bo’ladi. «Milliy g’oya nima?» degan savol bunga misol bo’la oladi. Xato va ziddiyatli asosga ega savol esa, noto’g’ri qo’yilgan savol hisoblanadi. Masalan, «Arvoh qanday kun kechiradi?» desak, savol noto’g’ri qo’yilgan bo’ladi.

Bilishdagi funkstiyasi savollarni bo’yicha aniqlovchi va to’ldiruvchi savollarga ajratish mumkin. «I. Prigojin haqiqatan ham sinergetikaning asoschisimi?» degan savol aniqlovchi savol, «O’zbekiston Respublikasi Konstitutstiyasi qachon qabul qilingan?» to’ldiruvchi savol hisoblanadi.

Tarkibiga ko’ra oddiy va murakkab savollar mavjud. Agar tarkibida boshqa savol bo’lmasa, oddiy savol, bo’lsa – murakkab savol deb yuritiladi. Masalan, «Suv necha gradusda muzlaydi?» – oddiy savol, «Assimilyastiya va dissimilyastiyalar organizmning mavjud bo’lishida qanday o’rin tutadi?» – murakkab savoldir.

Masala – savolning alohida bir turi bo’lib, uni hal qilish savolning asosini mantiqan o’zgartirishni, yetishmayotgan ma’lumotlar bilan to’ldirishni, muhim tomonlarini ajratishni, muhim bo’lmaganlarini chiqarib tashlashni taqozo etadi.

Savolni to’g’ri qo’yish uchun ma’lum bir qoidalarga rioya etish zarur:

1. Savol til talablariga javob berishi kerak.
2. Savol aniq, ravshan, qat’iy holda ifoda qilingan bo’lishi kerak.
3. Savolning asosi (bazisi) chin hukmlardan iborat bo’lishi kerak.

Javob – predmet haqidagi avvalgi bilimni qo’yilgan savolga muvofiq holda aniqlashtiradigan, to’ldiradigan Yangi hukm (mulohaza) dan iborat. U savolning asosini (bazisini) tashkil etuvchi bilimga tayanilgan holda, Yangi bilim olishga imkon beradi. Javobning mohiyatini savolda mavjud bo’lgan noaniqlikni kamaytirish (yoki yo’qotish) tashkil etadi.

Savolga javob qidirish davomida, odatda, bilimlarning konkret sohalariga murojaat qilinadi. Ular javobni qidirish sohasi, deb ataladi.

Mantiqda javobning bir qancha turlari: bevosita (to'g'ri) va bilvosita javoblar, to'liq va to'liqsiz javoblar, chin va xato javoblar, qisqa va batafsil javoblar, aniq va noaniq javoblar ajratiladi.

Bevosita (to'g'ri) javob – savolda ko'rsatilgan noma'lum sohaga taalluqli mulohazalar to'plamidan iborat. Masalan, «O'zbekiston Respublikasi Konstitustiyasi (Asosiy qonuni) qachon qabul qilingan?» degan savolga «O'zbekiston Respublikasi Konstitustiyasi (Asosiy qonuni) 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan», deb berilgan javob bevosita javob hisoblanadi.

Bilvosita javob – javobni qidirish sohasidan chetga chiqib, qo'shimcha ma'lumotlarga murojaat qilish asosida hosil qilinadigan mulohazalar to'plamidan iborat bo'lib, bevosita (to'g'ri) javob ulardan xulosa chiqarish yo'li bilan hosil qilinadi. Masalan, «Mantiq falsafiy fanmi?» degan savolga «Mantiq tafakkurning shakllari va qonunlarini o'rganuvchi fan», deb beriladigan javob bilvosita javob bo'ladi.

To'liq va to'liqsiz javoblar javobda beriladigan ma'lumotlar miqdori bo'yicha farq qilinadi. To'liq javob – o'zida savolning barcha elementlari (qismlari) haqida ma'lumotlarni mujassamlashtirgan mulohazalar to'plamidir, «O'zbekiston Respublikasi Madhiyasini kim yozgan?» degan savolga «O'zbekiston Respublikasi Madhiyasi matnini A. Oripov yozgan, uning musiqasini esa, M. Burxonov bastalagan», deb berilgan javob to'liq javob bo'ladi. To'liqsiz javob – savolni tashkil etuvchi elementlarning bir qismi haqidagina ma'lumotni ifoda etgan mulohazalardan iborat. Masalan, «Jamiyatni demokratiyalashning mohiyati nimada?» deb qo'yilgan savolga «Jamiyatni demokratiyalash xalqning davlatni boshqarishda ishtirok etishini taqozo etadi», deb berilgan javob to'liqsiz bo'ladi, chunki unda jamiyatni demokratiyalashtirishning boshqa mezonlari haqida ma'lumotlar yo'q.

Mantiqiy qiymati bo'yicha, ya'ni borliqqa munosabatiga ko'ra chin va xato javoblar farq qilinishi mumkin. Agar javobda ifodalangan fikr-mulohazalar borliqqa muvofiq kelsa, uni adekvat holda aks ettirsa, u chin javob va aksincha, borliqqa muvofiq kelmasa, adekvat tarzda aks ettirmasa, u xato javob bo'ladi. Masalan, «Tib qonunlari» asarining muallifi kim?» deb berilgan savolga «Tib qonunlari» asarining muallifi Ibn Sinodir», deb berilgan javob – chin, «Tib qonunlari» asarining muallifi Ar-Roziydir», deb berilgan javob esa, xato hisoblanadi.

Grammatik shakliga ko'ra, javoblar qisqa yoki batafsil bo'ladi. Qisqa javob «ha» yoki «yo'q» tarzida beriladigan tasdiq yoki inkor shaklidagi bitta so'zdan iborat. Batafsil javob savolning har bir elementi takrorlanadigan mulohazadir. Masalan, «Muhammad payg'ambar tarixiy shaxsmi?» degan savolga «Ha», deb berilgan javob – qisqa javob, «Ha, Muhammad payg'ambar tarixiy shaxs», deb berilgan javob – batafsil javob bo'ladi.

Javobning aniq yoki noaniq bo'lishi savolning sifatiga, uning mantiqiy tarkibiga bog'liq. Ma'lumki, savol va javob mantiqan bog'langan bo'ladi, ya'ni javobning mazmuni qo'yilgan savolning sifatiga bog'liq. SHuning uchun ham bahs yuritish jarayonida «savoliga yarasha javob» degan qoida amal qiladi. Noaniq, ko'p ma'noli savollarga aniq javob olish qiyin.

Aniq javob – mantiqan to'g'ri qo'yilgan savolga bildiriladigan mulohazadan iborat bo'lib, unda ishlatilayotgan tushunchalar, so'zlarning mazmuni va ma'nosi konkret va ravshan bo'ladi. Noaniq javobni ifoda etuvchi mulohazalar ikki xil ma'noli tushunchalar, so'zlarni ishlatish natijasida hosil bo'ladi. U ko'pincha sofizmlarda uchraydi. Masalan, «uyum» sofizmida sofistning «agar qum uyumidan bir dona qumni olib tashlansa, uyum saqlanadimi?» degan savoliga «ha», deb javob berishadi. Uning «YAna bir qum donasini olib tashlasak-chi? Unda ham qum uyumi saqlanib qoladimi?» degan navbatdagi savoliga ham «Ha», javobi beriladi. Bu hol, ya'ni tasdiqlovchi javob birorta ham qum donasi qolmaguncha berilaveradi. Bu yerda mantiqiy xato «uyum» tushunchasi mazmunining noaniqligidan kelib chiqadi. Mazkur tushuncha faqat uyumning ma'lum bir miqdordagi qumlar to'plamini ifoda qilishi, ya'ni o'zining hajmiga ega bo'lishi bilangina emas, balki sifatiy tavsifiga: shakliga, ko'lamiga va shu kabilarga ham, ya'ni mazmuniga ham ega. Sofist esa urg'uni uning miqdoriga beryapti. Ana shuning uchun ham javob oxir-oqibatda xato bo'lib chiqadi.

Beriladigan javob to'g'ri bo'lishi uchun ma'lum bir metodologik talablarga rioya qilish zarur. Ular quyidagilardir:

1. Javob aniq, ravshan va, iloji boricha, ixcham bo'lishi shart.
2. Javob mantiqan ziddiyatsiz bo'lishi zarur.
3. Javob yetarli darajada asoslangan bo'lishi kerak.
4. Javob savoldagi noaniqlikni kamaytirishi, iloji boricha to'la bo'lishi zarur.

Mantiq fanining nazariy va amaliy ahamiyati

Mantiq fanining ilmiy ishonch – e'tiqodning shakllanishida tutgan o'rni

Faktlar va boshqa dalillarga tayanib yuritiladigan fikr yuksak ishontirish kuchiga ega bo'ladi, kishilarda ishonch-e'tikodni mustahkamlaydi. Bilishning maqsadi ilmiy asosga ega bo'lgan e'tiqodni yaratishdan iborat. Ana shuning uchun ham yoshlarda ilmiy asosga ega ishonch-e'tiqodni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.Argumentlash ishonch-e'tiqodni shakllantirish vositasidir. Ishonch-e'tiqod esa, insonning komillik mezonlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Ishonch –e'tiqod- bu kishillarning xulq-atvori va hatti –harakatini belgilab beradigan qarashlari va tasavvurlaridir.

Vatanimizning gullab-yashnashi, barqaror rivojlanishi ma'lum bir darajada yoshlarning chuqur bilimga, mustahkam ishonch-e'tiqodga va, umuman, komil inson bo'lishlariga bog'liq. Bu haqda Prezidentimiz I. A. Karimov shunday deb ta'kidlagan: «Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'la oladigan, bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz. Ongli, bilimli odamlarni oldi-

qochdi gaplar bilan aldab bo'lmaydi. U har bir narsani aql, mantiq tarozisiga solib ko'radi. O'z fikr-o'yi, xulosasini mantiq asosida qurgan kishi yetuk odam bo'ladi».[109]

CHuqur tahlilga, mantiqqa asoslanmagan bir yoqlama fikr odamlarni chalg'itadi. Faqat bahs-munozara, tahlilga asoslangan to'g'ri xulosalargina haqiqatni bilishga yo'l ochadi.

Bahs, munozara yuritishning, chin fikrlarni isbotlay bilishning, xato fikrlarni rad etishning o'ziga xos qonun-qoidalari mavjud. Bu qoidalarni bilish har bir insonga, shu jumladan, talabalarga chin fikrni xato fikrdan ajrata bilish, to'g'ri tafakkurlash madaniyatini shakllantirish imkonini beradi.

Mantiq ilmining fan va texnika taraqqiyoti uchun ahamiyati

Mantiqiy kategoriyalarning universal harakterga ega bo'lishi ularni bilishda, ishlab chiqarish jarayonlarida, texnika tarmoqlarida ixtisoslashtirilgan holda tadbiq etish imkoniyatini tug'diradi. Bu esa, mantiqdan turli fanlarning konkret masalalarini hal qilishda foydalanishning keng imkoniyatlarini vujudga keltiradi.

Fanning tobora rivojlanib borishi, borliqning murakkab qonunlarining kashf etilishi ilmiy bilish metodi va mantiq apparatini shunga moslashtirishni, tafakkurning har bir konkret masala xaqida aniq, xatosiz, tez hulosalar bera olishini talab qiladi.

Ilmiy va texnik jarayonning bunday talabi natijasida turli fanlarga ixtisoslashgan mantiq tarmoqlari vujudga keldi.

Fan qadriyatlar tizimida o'ziga xos o'ringa ega. U katta ilmiy saloxiyatni, ijodiy kuch – quvvatni birlashtiradi, millat dunyoqarashini shakllantiradi, ta'lim – tarbiya, axloq me'yorlarini vujudga keltiradi, ma'naviy barkamol insonni tarbiyalaydi, mamlakatda qudratli ilmiy potenstialni yaratishga xizmat qiladi.

Mantiqni bilish, ayniqsa, ilm fan bilan shug'ullanish, ilmiy - tadqiqot ishlarini olib borish, borgan sari ko'payib borayotgan ilmiy axborotlarni tartibli ravishda o'zlashtirish, ilmiy masalalarning tuzilishini tez bilib olish uchun ham muhim rol o'ynaydi. Mantiqning ilmiy – nazariy ishlar hamda insonning amaliy faoliyati uchun bo'lgan ahamiyatini alohida uqtirish bilan birga, chin hulosa chiqarishning hal qiluvchi sharti – hayotni chuqur o'rganish, har bir voqelikdagi hollarni mantiq talablari asosida bilish zarur.

Mantiq fanining fikr yuritish madaniyatini o'stirishdagi ahamiyati

Mantiq inson tafakkuri madaniyatini ko'tarish va insoniyatning uzoq tajribasi natijasida takomillashgan tafakkur shakllari, qonunlari va qoidalarini bilish uchun xizmat qiladi. U inson fikrining ketma – ket, ziddiyatsiz va asosli bo'lishini ta'minlaydi. Mantiq fani mazmunini chuqurroq o'rganish kishilarning o'z tafakkuri va o'zgalar tafakkuri natijalariga tanqidiy qarash xislatlarini rivojlantiradi. Tafakkurning bu sifatlari esa insonning turli ilmiy va amaliy faoliyatlari sohasidagi ishi uchun katta ahamiyatga ega. Mantiqiy usullardan to'g'ri foydalana olish, ta'lim tarbiya jarayonida isbot va raddiyaning mantiqiy tomonlarini bilish talabalarda o'z nutqining asosli bo'lishini ta'minlaydi, fikrdagi ziddiyatlarni ochishga yordam beradi.

Mantiqni yaxshi bilish turli ilmiy uchrashuvlar, munozaralar, muhokamalarda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Xususan, bunday hollarda fikrlash sub'ekti haqiqatni aniqlash yoki uning sofligini saqlab qolish, asoslash uchun mantiqiy qonun – qoidalarni to'g'ri tadbiq eta bilishi, suxbatdoshining fikridagi xatolarni tez topa olishi, o'z fikrini dalilli qilib bayon etishi zarur. Bu esa uning mantiq fanini yaxshi bilishiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

13-mavzu: "Etika" fanining predmeti va jamiyat hayotidagi ahamiyati

Reja:

1."Etika" fanining predmeti, mohiyati va tuzilmasi.
2. XXI asrda global etosfera (axloqiy muhit)ni yaratishning zaruriyati.
3. Etikaning kategoriyalari, tamoyillari, me'yorlarining shaxs va jamiyat munosabatlarida namoyon bo'lishi.
4. Ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov.

Axloqshunoslik bir necha ming yillik tarixga ega bo'lgan qadimiy fan. U bizda «Ilmi ravish», «Ilmi axloq», «Axloq ilmi», «Odobnoma» singari nomlar bilan atab kelingan. Ovro'pada esa «Etika» nomi bilan mashhur, biz ham yaqin-yaqingacha shu atamani qo'llar edik. U dastlab manzildoshlik, yashash joyi, keyinchalik esa odat, fe'l, fikrlash tarzi singari ma'nolarni anglatgan; yunoncha «ethos» so'zidan olingan.

Uni birinchi bo'lib yunon faylasufi Arastu ilmiy muomalaga kiritgan. Arastu fanlarni tasnif qilarkan, ularni uch guruhga bo'ladi: nazariy, amaliy va ijodiy. Birinchi guruhga falsafa, matematika va fizikani; ikkinchi guruhga etika va siyosatni; uchinchi guruhga esa san'at, hunarmandchilik va amaliy fanlarni kiritadi. SHunday qilib, qadimgi yunonlar axloq haqidagi ta'limotni fan darajasiga ko'targanlar va «Etika» (ta ethika) deb ataganlar.

Biroq bizda milliy-mintaqaviy axloqiy qadriyatlarimizning, dastlabki axloqiy g'oyalarning vujudga kelishi qadimgi yunonlar yashagan davrdan o'nlab asrlar avval ro'y bergan. Ajdodlarimizning eng ko'hna e'tiqodiy-axloqiy kitobi - «Avesto» buning yorqin dalilidir. SHu sababli endilikda bu fanni ham ilmiy-tarixiy, ham zamonaviy-hayotiy talablar nuqtayi nazaridan «Axloqshunoslik» deb atashni maqsadga muvofiq deb bildik.

Axloqshunoslik axloqning kelib chiqishi va mohiyatini, kishining jamiyatdagi axloqiy munosabatlarini o'rganadi. «Axloq« so'zi arabchadan olingan bo'lib, insonning muomala va ruhiy xususiyatlari majmuini, fe'lini, tabiatini anglatadigan «xulq» so'zining ko'plik shaklidir. «Axloq« iborasi ikki xil ma'noga ega: umumiy tushuncha

---

[109] И.А.Каримов Тарихий хотирасиз келажак йўқ // Асарлар тўплами 7 жилд - Т.: "Ўзбекистон", 1999,134 б.

sifatida u fanning predmetini anglatsa, muayyan tushuncha sifatida inson fe'l-atvori va xatti-harakatining eng qamrovli qismini bildiradi. Axloqni umumiy tushuncha sifatida olib, uni doira shaklida aks ettiradigan bo'lsak, doiraning eng kichik qismini odob, undan kattaroq qismini - xulq, eng qamrovli qismini axloq egallaydi.

Odob - inson haqida yoqimli taassurot uyg'otadigan, lekin jamoa, jamiyat va insoniyat hayotida burilish yasaydigan darajada muhim ahamiyatga ega bo'lmaydigan, milliy urf-odatlarga asoslangan chiroyli xatti-harakatlarni o'z ichiga oladi.

Xulq - oila, jamoa, mahalla-ko'y miqyosida ahamiyatli bo'lgan, ammo jamiyat va insoniyat hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydigan yoqimli insoniy xatti-harakatlarning majmui.

Axloq - jamiyat, zamon, ba'zan umumbashariy ahamiyatga ega, insoniyat tarixi uchun namuna bo'la oladigan ijobiy xatti-harakatlar yig'indisi, insoniy kamolot darajasini belgilovchi ma'naviy hodisa.

Bu fikrlarimizni misollar orqali tushuntirishga harakat qilamiz. Deylik, metroda yoshgina yigit, talaba hamma qatori o'tiribdi. Navbatdagi bekatdan bir keksa kishi chiqib, uning ro'parasida tik turib qoldi. Agar talaba darhol: «O'tiring, otaxon!» deb joy bo'shatsa, u chiroyli a'mol qilgan bo'ladi va bu a'moli bilan atrofdagilarda yaxshi kayfiyat uyg'otadi; chetdan qarab turganlar unga ich-ichidan minnatdorchilik bildirib: «Baraka topgur, odobli yigitcha ekan», deb qo'yadilar. Aksincha, talaba yo teskari qarab olsa, yoki o'zini mudraganga solib, qariyaga joy bo'shatmasa, g'ashimiz keladi, ko'nglimizdan: «Buncha beodob, surbet ekan!» degan fikr o'tadi, xullas, u bizda yoqimsiz taassurot uyg'otadi. Lekin, ayni paytda, talabaning qariyaga joy bo'shatgani yoki bo'shatmagani oqibatida vagondagi yo'lovchilar hayotida darhol biror-bir ijobiymi, salbiymi - muhim o'zgarish ro'y bermaydi.

Xulqqa quyidagicha misol keltirish mumkin: mahallamizdagi oila boshliqlaridan biri imkon boricha qo'ni-qo'shnilarning barcha ma'rakalarida xizmatda turadi, qo'lidan kelgan yordamini hech kimdan ayamaydi, ochiqko'ngil, ochiqqo'l, doimo o'z bilimini oshirib borishga intiladi, tirishqoq, oila a'zolariga mehribon va h.k. Unday odamni biz xushxulq inson deymiz va unga mahallamizning namunasi sifatida qaraymiz. Bordi-yu, aksincha bo'lsa, u qo'ni-qo'shnilar bilan qo'pol muomala qilsa, to'y-ma'rakalarda janjal ko'tarsa, sal gapga o'dag'aylab, musht o'qtalsa, ichib kelib, oilada xotin-bolalarini urib, haqoratlasa, uni badxulq deymiz. Uning badxulqliligidan oilasi, tevarak-atrofdagi ba'zi shaxslar jabr ko'radi, mahalladagilarning tinchi buziladi, lekin xatti-harakatlari jamiyat ijtimoiy hayotiga yoki insoniyat tarixiga biror-bir ko'zga tashlanadigan ta'sir o'tkazmaydi.

Biroq, bu fikrlardan odob va xulqning jamiyatdagi roli u qadar ahamiyatli emas ekan, degan xulosa chiqmasligi kerak; fuqarolar orasida odoblilik va xushxulqlilikning keng yoyilishi jamiyat axloqiy hayotigagina emas, balki butunisicha ijtimoiy taraqqiyotga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir tufayli garchand jamiyat birdaniga yuksalib ketmasa-da, asta-sekinlik bilan, muntazam ravishda yaxshilanib, ravnaq topib boradi.

Axloqqa kelsak, masala o'ta jiddiy mohiyat kasb etadi: deylik, bir tuman yoxud viloyat prokurori o'zi mas'ul hududda doimo qonun ustuvorligini ta'minlash uchun intiladi, adolat qaror topishini ko'zlab ish yuritadi, lozim bo'lsa, hokimning noqonuniy farmoyishlariga qarshi chiqib, ularning bekor qilinishiga erishadi; oddiy fuqaro nazdida nafaqat o'z kasbini e'zozlovchi shaxs, balki haqiqiy huquq posboni, adolatli tuzum timsoli tarzida gavdalanadi; u-umrini millat, Vatan va inson manfaatiga bag'ishlagan yuksak axloq egasi; u, o'zi yashayotgan jamiyat uchun namuna bo'laroq, o'sha jamiyatning yanada taraqqiy topishiga xizmat qiladi. Agar mazkur prokuror, aksincha, qonun himoyachisi degan nomi bo'laturib, o'zi qonunni buzsa, shaxsiy manfaati yo'lida oqni qora, qorani oq deb tursa, u axloqsizlik qilgan bo'ladi: oddiy fuqaro nazdida birgina kishi-prokuror-amaldor emas, balki butun jamiyat adolatsiz ekan, degan tasavvur uyg'onadi. Bunday tasavvurlarning muntazam kuchayib borishi esa oxir-oqibat o'sha jamiyat yoki tuzumni tanazzulga olib keladi.

Albatta, har uchala axloqiy hodisa va ularning ziddi nisbiylikka ega. CHunonchi, hozirgina misol keltirganimiz prokurorning axloqsizligi darajasi bilan o'z yakka hukmronligi yo'lida millionlab begunoh insonlarni o'limga mahkum etgan Lenin, Stalin, Hitler, Pol Pot singari shaxslar axloqsizligi orasida farq bor: agar prokurorning axloqsizligi bir millat yoki mamlakat uchun zarar qilsa, totalitar tuzum hukmdorlari xatti-harakatlari umumbashariy miqyosdagi fojealarga olib keladi.

Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlash joizki, axloqiy tarbiya natijasida odoblilik - xushxulqlilikka, xushxulqlilik-yuksak axloqiylikka aylangani kabi, axloqiy tarbiya yo'lga qo'yilmagan joyda muayyan shaxs, vaqti kelib, odobsizlikdan-badxulqlilikka, badxulqlilikdan-axloqsizlikka o'tishi mumkin.

SHunday qilib, axloqshunoslik mazkur uch axloqiy hodisani bir-biri bilan uzviylikda va nisbiylikda o'rganadi. Ana shu uch axloqiy hodisaning umumlashmasini, ya'ni mazkur fanimizning predmeti bo'lgan umumiy tushuncha sifatidagi axloqni quyidagicha ta'riflash mumkin:

Axloq-barcha odamlar uchun birdek taalluqli hisoblangan, ijtimoiy talablar hamda ehtiyojlarning munosabatlar shaklidagi ko'rinishidan iborat bo'lgan, insonga berilgan ixtiyor erkinligining xatti-harakatlar jarayonida ichki iroda kuchi tomonidan oqilona cheklanishini taqozo etuvchi ma'naviy hodisa.

SHuningdek, atoqli faylasuf Erkin Yusupovning: «Umuman, axloq ijtimoiy munosabatlar zaminida alohida shaxs sifatida mavjud bo'lgan insonlarning o'z-o'zini idora qilish shakllari va me'yori, o'zaro muloqot va munosabatlarda ularga xos bo'lgan ma'naviy kamolot darajasining namoyon bo'lishidir»-degan ta'rifi ham diqqatga sazovor.[110]

Axloqshunoslik qadimda fizika, metafizika va mantiq bilan birgalikda falsafaning uzviy (uchinchi) qismi hisoblanar edi. Keyinchalik (Arastudan so'ng) u alohida falsafiy yo'nalishdagi fan maqomini oldi. Bu fikrni

[110] *Юсупов Э.* Инсон камолотининг маънавий асослари. Т., Университет, 1998, 38-б.

quyidagicha kengaytiribroq talqin etish mumkin. Ma’lumki, falsafaning fanlar podshosi sifatidagi vazifasi barcha tabiiy va ijtimoiy ilmlar erishgan yutuqlardan umumiy xulosalar chiqarib, insoniyatni haqiqatga olib borishdir. SHundan kelib chiqqan holda, falsafaning predmetini tafakkur deb belgilash maqsadga muvofiq. Axloqshunoslik axloqiy tafakkur taraqqiyotini, uning nazariy muammolarini tadqiq etadi va amaliyotda insonni ezgulik orqali haqiqatga olib borishga xizmat qiladi. SHu bois uni axloq falsafasi yoxud ezgulik falsafasi deb ham atash mumkin.

Bugungi kunda falsafiy fan sifatida uch yo’nalishda ish olib boradi, ya’ni axloqshunoslik axloqni: 1) bayon qiladi; 2) tushuntiradi; 3) o’rgatadi. SHunga ko’ra, u tajribaviy-bayoniy, falsafiy-nazariy va mezoniy-me’yoriy tabiatga ega. Qadimgilar uni amaliy falsafa deb ataganlar. Zero, sof nazariy axloqshunoslikning bo’lishi mumkin emas. U insoniyat o’z tajribasi orqali erishgan donishmandlik namunalarini hikmatlar, naqllar, matal-maqollar tarzida bayon etadi, kishilarni axloqiy qonun-qoidalarga o’rgatadi, ularga axloqning mohiyatini tushuntiradi va falsafiy xulosalar chiqaradi. Ya’ni axloqshunoslik fanida Aflotun, Arastu, Epikur, TSitseron, Seneka, Avgustin, Forobiy, Ibn Sino, G’azzoliy , Nasafiy, Spinoza, Kant, Hegel, SHopenhauer, Foyerbax, Kirkegaard, Nitsshe, Vl. Solovьyov, Losskiy singari buyuk faylasuflar yaratgan axloq nazariyasiga doir ta’limotlar bilan birgalikda «Panchatantra», «Qutadg’u bilik», «Qobusnoma», Sa’diyning «Guliston», Jomiyning «Bahoriston», Navoiyning «Mahbub ul-qulub», Montenning «Tajribanoma», Laroshfukoning «Hikmatlar», Gulxaniyning «Zarbulmasal» kabi amaliy axloqqa bag’ishlangan asarlari ham o’z mustahkam o’rniga ega. Axloqshunoslikning boshqa falsafiy fanlardan farqi ham, o’ziga xosligi ham undagi nazariya bilan amaliyotning ana shunday omuxtaligidadir.

Qadimiy ona sayyoramizdagi hayot odatda uch olamdan iborat deb qabul qilingan. Bular – nabotot, hayvonot va bashariyat olami; ularning o’zaro munosabatlari zaminimizdagi hayotning asosiy omili hisoblanadi. Har uchalasiga ham paydo bo’lish, rivojlanish, o’zini muhofaza qilish, nasl qoldirishga intilish instinkti berilgan va hayotining bir kunmas–bir kun o’lim bilan nihoya topish qismati belgilangan. CHunonchi, o’simlik urug’dan paydo bo’ladi, rivojlanadi, singan shoxlari o’rnini sirach chiqarib davolaydi – muhofaza qiladi, urug’ini qoldirib, bir kun quriydi. Hayvon shu xususiyatlar bilan birgalikda sezish a’zolari va qobiliyatiga hamda muayyan darajada idrok etish xislatiga ega. Insonda esa bulardan tashqari mulohaza qilish, fikrlash qobiliyati va uyat hissi, bir so’z bilan aytganda, aql bor. Uni Imom G’azzoliy oltinchi sezgi yoki ikkinchi yurak, yurak ichidagi yurak deb ataydi. Ana shu aql ixtiyor erkinligini, ixtiyor erkinligi esa axloqni taqozo etadi.

Bu fikrni yoyibroq tushuntirish uchun insonning paydo bo’lishi tarixiga nazar tashlamoq joiz.

Avvalo, shuni aytish kerakki, insonning paydo bo’lishi eng bahsli muammolardan biri hisoblanadi. Bu borada bir–biriga qarama–qarshi ikki qarash mavjud. Biri – diniy, ikkinchisi – dahriycha qarash. Diniy–e’tiqodiy nuqtayi nazardan odamni Xudo yaratgan. Dahriycha qarash esa buni inkor etib, odamni tabiat yaratgan, u tabiatning bir qismi, degan g’oyani ilgari suradi. Ular orasida ingliz tabiiyotshunosi CHarlz Darvin (1809– 1882) fikrlari alohida e’tiborga molik.

Darvin tabiiy turlarning tanlov yo’li bilan kelib chiqishi haqidagi evolyutsion ta’limotni yaratdi. U odam bilan odamsimon maymunlarning qardoshligini isbotlashga urindi, biroq u to’g’ridan–to’g’ri odam maymundan tarqalgan jonzot, degan fikrni aytgan emas. SHuningdek, Darvin dahriy bo’lmagan, hamma qatori nasroniylik qonun–qoidalariga amal qilib yashagan. Buning ustiga uning o’zi Kembrij universiteti qoshidagi Iso kollejini tugatgan. Darvin tarjimai holi asosida roman yozgan ingliz yozuvchisi Irving Stoun uning Xudoni inkor etmaganini bir necha o’rinda ta’kidlaydi. Mana shulardan biri: «Mening nazariyam Xudoning borligini inkor etmaydi. Tabiat Uning qonunlariga bo’ysunadi xolos».[111] Marks o’zining dahriycha qarashlarini isbotlash uchun undan material so’rab xat yozganida, Darvin unga rad javobini beradi.[112] SHunga qaramay markschilar, Darvinning mohiyatini tushunmaganlari holda, uning nomini bayroq qilib, ta’limotini o’z foydalariga soxtalashtirishga tinimsiz harakat qildilar. Dahriycha qarashni Darvin nomi bilan bog’lab ish ko’rish yaqin–yaqingacha «sotsialistik lager» hududiga kirgan mamlakatlarda rasmiy, davlat yondashuvi sifatida hukm surib keldi. Totalitar tuzumga asoslangan bu davlatlar tanazzulga uchragach, yana insonni Xudo yaratgan degan fikr ularda yetakchilik mavqeini egalladi.

To’g’ri, bu o’rinda Darvinning evolyutsiya nazariyasi va Xudoning olamni olti kunda yaratgani haqidagi diniy aqida bir–biri bilan qanday sig’ishadi, degan savol tug’iladi. Gap shundaki, makon va zamonda ro’y bergan, milliardlab yil davom etgan evolyutsiya: nabotot – hayvonot – odamzod doirasi makon va zamondan tashqaridagi fazoviy, Ilohiy Vaqt nuqtayi nazaridan juda qisqa muddatda voqe bo’lishi mumkin. Xudoning olti kuni o’z ichiga makon va zamonni sig’dirgan Mutlaq Vaqtga, evolyutsiya nazariyasiga asos qilib olingan milliardlab yillar esa – makon va zamon ichidagi nisbiy, insoniy vaqtga taalluqlidir.

Umuman olganda, insoniyatning intellektual tarixida, hatto nisbatan dahriylik asri bo’lmish XX asrda ham, insonni Xudo yaratgan, degan fikr kamida to’qson foizni tashkil etadi. Biz ham ana shu ko’pchilik tomonidamiz. Ayni paytda, kamchilik bildirgan va bildirayotgan aksilfikr ham yashash huquqiga ega ekanini tan olamiz. Respublikamiz Prezidenti Islom Karimovning mana bu gaplari bizning fikrlarimiz uchun e’tiborli xulosa bo’la oladi deb o’ylaymiz:

«SHu o’rinda ta’kidlamoqchi edimki, dunyoviylik, ayrim aqidaparast kimsalarning da’volaridan farqli o’laroq, aslo dahriylik emas. Biz bunday noto’g’ri va g’arazli talqinlarga mutlaqo qarshimiz».[113]

---

[111] *Стоун И.* Происхождение. Роман – биография Чарлза Дарвина. М., Политиздат. 1983. С. 273.

[112] *Қаранг: Аъзамов А.* Фан ва дин: одамзоднинг пайдо бЎлиши. «Тафаккур» журнали, 1999, 4-сон, 32-б.

[113] *Каримов И.А.* Донишманд халқимизнинг мустаҳкам иродасига ишонаман. «Фидокор» газетаси, 2000, 8 июн.

XX asr buyuk olmon faylasufi Karl Yaspers, odamni boshqa jonzotdan keltirib chiqarishning nojoizligi haqida gapirib, inson transtendental bog'liqlikka ega, uning imkoniyatlarini, erkini hech bir jonzotniki bilan qiyoslab bo'lmaydi, inson hatto imkoniyatlari naqadar cheksiz ekanini o'zi ham bilmaydi, deb uni ulug'laganida, bizningcha, tamomila haq edi. Agar diqqat qilsak, asrimiz mutafakkirining fikri Qur'oni karim «Baqara» surasida marhamat qilingan quyidagi oyatlarga hamohangdir: «30. Eslang (Ey Muhammad), Parvardigoringiz farishtalarga: «Men Yerda (Odamni) xalifa (yordamchi) qilmoqchiman», deganida, ular aytdilar: «U yerda buzg'unchilik qiladigan, qonlar to'kadigan kimsani (xalifa) qilasanmi? Holbuki, biz hamdu sano aytish bilan Seni ulug'laymiz va Sening nomingni mudom pok tutamiz». (Alloh) aytdi: «Men sizlar bilmagan narsalarni bilaman». 31. Va U zot odamga barcha narsalarning ismlarini o'rgatdi. So'ngra ularni farishtalarga ro'baro' qilib dedi: «Agar xalifalikka biz haqdormiz degan so'zlaringiz rost bo'lsa, mana bu narsalarning ismlarini Menga bildiring!». 32. Ular aytdilar: Ey pok Parvardigor, biz faqat Sen bildirgan narsalarnigina bilamiz. Albatta Sen o'zing ilmu hikmat sohibisan». 33. (Alloh): «Ey Odam, bularga u narsalarning ismlarini bildir», dedi. (Odam) ularga barcha narsalarning ismlarini bildirganidan keyin (Alloh) aytdi: «Sizlarga, Men Yeru osmonlarning sirlarini va sizlar oshkor qilgan va yashirgan narsalarni bilaman, demaganmidim?». 34. Eslang (Ey Muhammad), Biz farishtalarga Odamga ta'zim qiling, deyishimiz bilan sajdaga egildilar. Faqat Iblis kibr va or qilib – kofirlardan bo'ldi».

Vaholanki, sajda bungacha faqat Tangrigagina bajo keltirilar edi. Demak, Xudo bu bilan barcha mavjudotlardan oliy, daraja nuqtayi nazaridan o'zidan keyin turadigan buyuk zotni yaratganini e'lon etdi. Odam – Xudoning yerdagi xalifasi.

SHu o'rinda «xalifa» so'zining amaliy ma'nosi haqida to'xtalmoq o'rinli. Uni oddiy hayotiy misol bilan tushuntiradigan bo'lsak, kosiblikka, hunarmandchilikka murojaat qilish maqbul. Ma'lumki, qadimda kosib yoki hunarmand ustaning odatda bir necha shogirdi bo'lgan. Ular orasidagi eng aqlli, tadbirkori, ustaning muhabbatini qozongani usta tomonidan xalifa etib tayinlangan. Xalifaga usta o'zining bir qancha vakolatlarini, jumladan, biror yoqqa safarga ketsa, shu muddat mobaynida boshqa shogirdlarni boshqarib, rahbarlik qilib turishni topshiradi. SHunday qilib, usta qaytib kelgunga qadar xalifa uning aytganlari yoki ko'rsatmalarini amalga oshirish bilan mashg'ul bo'ladi. Odam ham Allohga nisbatan ana shunday xalifadir: to u qiyomatga qadar, ya'ni Tangri dargohiga borgungacha nabotot va hayvonot olami ustidan hukmronlik qilib turadi.

Hukmronlik qilish uchun, tabiiyki, muayyan darajada erkinlikka, erkin harakatni ixtiyor etish huquqiga ega bo'lish, falsafiy ibora bilan aytganda, ixtiyor erkinligi zarur. Ana shu ixtiyor erkinligi faqat insonga berilgan. Farishtalar bunday ma'naviy ne'matdan mahrum – ular faqat Allohning buyrug'ini bajaradilar. Lekin insondagi ixtiyor qilish erkinligi ham cheklangan – u Alloh tomonidan Qur'oni karimda umumiy tarzda belgilab berilgan doiradagina mavjud bo'lishi kerak. SHu bois mutlaq erkinlik insonga emas, faqat Yaratganga xos.

SHunday qilib, axloq – oliy mavjudotga ato etilgan oliy ne'mat. Ya'ni axloqning kelib chiqishi ilohiy manbadandir. Ana shu ilohiy asosni asrab–avaylab, taraqqiy toptirish har bir insonning asosiy vazifasi, burchi. SHu bois o'z–o'zini va, iloji bo'lsa, o'zgalarni axloqiy tarbiyalash barcha muqaddas kitoblarda savob sanaladi.

Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlash kerakki, inson aynan hozirgi paytdagi ko'rinishida yaratilgan degan gap haqiqatdan yiroq. U mohiyatan har tomonlama mukammallikka, komillikka qarab boruvchi, taraqqiyotining mohiyati tadrijiylik bilan belgilanadigan jonzotdir, uning jismoniy, aqliy va axloqiy taraqqiyoti o'zaro bog'liqlikda rivojlanadi: vaqt mobaynida insonning ham ko'rinishi, ham tafakkuri, ham axloqiy xatti–harakati o'zgarib boradi. SHu jihatdan olib qaraganda, odamzodning xunuklikdan chiroylilikka, nodonlikdan oqillikka, qo'pollikdan noziklikka yo'nalganligi tabiiy hol. Demak, uning axloqiy xatti–harakatlari tadrijiy tarzda noziklashib borgan. Biroq, bunday noziklashuv shaklan qo'polroq bo'lgan soddalikdan chekinib, botiniy qo'pollikni zohiriy nazokat bilan yopishga, niqoblashga ham olib kelgan. Natijada insoniyat tarixi qanchalik ko'p davrni o'z ichiga olsa, axloqning xilma–xil ko'rinishlari shuncha ko'payib borgan. Lekin ularning hammasi, zamonaviy axloq nazariyasiga ko'ra, ikki katta guruh ostida voqe bo'ladi, ya'ni axloqiy xatti–harakatlar asos–e'tibori bilan ikki turga bo'linadi. Ulardan biri – obro'parvarlik (avtoritar) axloqi, ikkinchisi insonparvarlik – (humanitar) axloqi. Endi qisqacha ularning mohiyati va sifatlari bilan tanishib chiqamiz.

«Obro'parvarlik axloqiga ko'ra, – deb yozadi Erix Fromm, – bir odam – obro' egasi inson uchun nima yaxshiligini belgilab beradi, o'zni tutish qonun–qoidalari va me'yorlarini ham o'ylab topadi, o'rnatadi. Insonparvarlik axloqi esa bu qonun – qoidalar va me'yorlarni o'zi yaratishi, o'zi boshqarishi hamda ularga o'zi amal qilishi bilan farqlanadi»[114]

Fromm obro'parvarlik axloqinining ikki asosini ko'rsatib o'tadi: birinchisi – ratsional obro'parvarlik, unga ko'ra, ratsional obro' egasi o'ziga yuklangan vazifani omilkorlik vositasida bajarib, mazkur vazifani yuklaganlar tomonidan hurmatga sazovor bo'ladi. Biroq ratsional obro'parvarlik vaqtinchalik hodisa, u obro' egasi faoliyatining samaradorligi bilan bog'liq. Ikkinchisi – noratsional obro'parvarlik, u bir tomondan hukmronlikka, ikkinchi tomondan, qo'rquvga asoslanadi va uzoq muddat davom etadi: muayyan tarixiy davrni o'z ichiga oladi. Noratsional obro'parvarlik tanqidni na faqat tan olmaydi, balki taqiqlaydi. Ratsional obro'parvarlik obro' egasi tamonidan sub'ektga nisbatan axloqiy tenglikni taqozo etsa, noratsional obro'parvarlik aynan tengsizlik asosiga quriladi. Bunda obro' egasiga «gap qaytarmaslik», «quloq solish» – fazilat, «quloq solmaslik» – illat hisoblanadi. Odatda, obro'parvarlik axloqi deganda, ko'proq noratsional obro' egasi o'rnatgan qonun–qoidalar, me'yorlar nazarda tutiladi.

---

[114] *Фромм Э.* Человек для себя. Минск, «Харвест», 2004. С. 18.

SHunday qilib, insonparvarlik axloqi sub’ektning o’z insoniylik tabiatini, barcha fazilatlarini, ochiq–oydin namoyon etishini ta’minlaydi. Obro’parvarlik axloqida esa, aksincha, sub’ektga, obro’ egasiga bo’ysunish, quloq qoqmaslik, o’z individualligini yo’qotish hodisalari ro’y beradi. Lekin, fojea shundaki, buni insonning o’zi anglamaydi: atrof–muhitdagi obro’ egasining ulug’ligi, bilimdonligi qahramonligi, muruvatliligi, xalqqa otalarcha g’amxo’rligi va zaruriy qatiqqo’lligi haqida to’qilgan miflar, uning shaxsiga sig’inish bunga yo’l bermaydi. Bunday odamlar jamiyatda asosiy ko’pchilikni tashkil etadi, obro’parvarlikning mohiyatini tushunib yetgan, ommaga qo’shilmagan, o’z individualligi va ichki erkinligini saqlab qolgan shaxslar esa juda kam bo’ladi. Natijada jamiyatning asosiy ko’pchiligi ezgulik deb hisoblagan narsa aslida yovuzlik bo’lib chiqadi, xalq ommasi anglamasdan yovuzlikka xizmat qilganini keyin, obro’ egasi shaxsiga sig’inish fosh etilganidan so’nggina tushunib yetadi. CHunonchi, Hitlerga ergashganlar o’sha paytlar Olmoniyada ko’pchilikni tashkil etardi, ular o’zlarining yo’li to’g’ri ekaniga qattiq ishongan edilar: «Fyurer adashmaydi!» Hozir esa Hitler kim–u, uning tutgan yo’li qanday ekanini hamma yaxshi biladi, Olmoniya aholisining asosiy ko’pchiligi fashizmga, uning obro’parvarlik axloqiga qarshi. Bizning mamlakatimiz ham sobiq SHo’rolar Ittifoqi tarkibida Lenin, Stalin va komunistik partiya o’rnatgan obro’parvarlik axloqini boshidan kechirdi, mustaqillik tufayligina xalqimiz insonparvarlik axloqi me’yorlari bilan hayot kechirish yo’liga kirdi. Jahon afkor emmasi, erkin, demokratik jamiyatlarining hammasi ana shu axloqiy yo’ldan bormoqda. Aynan shunday axloq jamiyat va shaxsning erkinligidan, individning ixtiyor erkinligidan kelib chiqadi. SHu sababli ixtiyor erkinligi axloqshunoslikning eng muhim, eng dolzarb muammosi sifatida alohida e’tiborga molik, unga to’xtalib o’tmaslikning iloji yo’q.

Qadimiy ona sayyoramizdagi hayot odatda uch olamdan iborat deb qabul qilingan. Bular – nabotot, hayvonot va bashariyat olami; ularning o’zaro munosabatlari zaminimizdagi hayotning asosiy omili hisoblanadi. Har uchalasiga ham paydo bo’lish, rivojlanish, o’zini muhofaza qilish, nasl qoldirishga intilish instinkti berilgan va hayotining bir kunmas–bir kun o’lim bilan nihoya topish qismati belgilangan. CHunonchi, o’simlik urug’dan paydo bo’ladi, rivojlanadi, singan shoxlari o’rnini sirach chiqarib davolaydi – muhofaza qiladi, urug’ini qoldirib, bir kun quriydi. Hayvon shu xususiyatlar bilan birgalikda sezish a’zolari va qobiliyatiga hamda muayyan darajada idrok etish xislatiga ega. Insonda esa bulardan tashqari mulohaza qilish, fikrlash qobiliyati va uyat hissi, bir so’z bilan aytganda, aql bor. Uni Imom G’azzoliy oltinchi sezgi yoki ikkinchi yurak, yurak ichidagi yurak deb ataydi. Ana shu aql ixtiyor erkinligini, ixtiyor erkinligi esa axloqni taqozo etadi.

Bu fikrni yoyibroq tushuntirish uchun insonning paydo bo’lishi tarixiga nazar tashlamoq joiz.

Avvalo, shuni aytish kerakki, insonning paydo bo’lishi eng bahsli muammolardan biri hisoblanadi. Bu borada bir–biriga qarama–qarshi ikki qarash mavjud. Biri – diniy, ikkinchisi – dahriycha qarash. Diniy–e’tiqodiy nuqtayi nazardan odamni Xudo yaratgan. Dahriycha qarash esa buni inkor etib, odamni tabiat yaratgan, u tabiatning bir qismi, degan g’oyani ilgari suradi. Ular orasida ingliz tabiiyotshunosi CHarlz Darvin (1809– 1882) fikrlari alohida e’tiborga molik.

Darvin tabiiy turlarning tanlov yo’li bilan kelib chiqishi haqidagi evolyutsion ta’limotni yaratdi. U odam bilan odamsimon maymunlarning qardoshligini isbotlashga urindi, biroq u to’g’ridan–to’g’ri odam maymundan tarqalgan jonzot, degan fikrni aytgan emas. SHuningdek, Darvin dahriy bo’lmagan, hamma qatori nasroniylik qonun–qoidalariga amal qilib yashagan. Buning ustiga uning o’zi Kembrij universiteti qoshidagi Iso kollejini tugatgan. Darvin tarjimai holi asosida roman yozgan ingliz yozuvchisi Irving Stoun uning Xudoni inkor etmaganini bir necha o’rinda ta’kidlaydi. Mana shulardan biri: «Mening nazariyam Xudoning borligini inkor etmaydi. Tabiat Uning qonunlariga bo’ysunadi xolos».[115] Marks o’zining dahriycha qarashlarini isbotlash uchun undan material so’rab xat yozganida, Darvin unga rad javobini beradi.[116] SHunga qaramay markschilar, Darvinning mohiyatini tushunmaganlari holda, uning nomini bayroq qilib, ta’limotini o’z foydalariga soxtalashtirishga tinimsiz harakat qildilar. Dahriycha qarashni Darvin nomi bilan bog’lab ish ko’rish yaqin–yaqingacha «sotsialistik lager» hududiga kirgan mamlakatlarda rasmiy, davlat yondashuvi sifatida hukm surib keldi. Totalitar tuzumga asoslangan bu davlatlar tanazzulga uchragach, yana insonni Xudo yaratgan degan fikr ularda yetakchilik mavqeini egalladi.

To’g’ri, bu o’rinda Darvinning evolyutsiya nazariyasi va Xudoning olamni olti kunda yaratgani haqidagi diniy aqida bir–biri bilan qanday sig’ishadi, degan savol tug’iladi. Gap shundaki, makon va zamonda ro’y bergan, milliardlab yil davom etgan evolyutsiya: nabotot – hayvonot – odamzod doirasi makon va zamondan tashqaridagi fazoviy, Ilohiy Vaqt nuqtayi nazaridan juda qisqa muddatda voqe bo’lishi mumkin. Xudoning olti kuni o’z ichiga makon va zamonni sig’dirgan Mutlaq Vaqtga, evolyutsiya nazariyasiga asos qilib olingan milliardlab yillar esa – makon va zamon ichidagi nisbiy, insoniy vaqtga taalluqlidir.

Umuman olganda, insoniyatning intellektual tarixida, hatto nisbatan dahriylik asri bo’lmish XX asrda ham, insonni Xudo yaratgan, degan fikr kamida to’qson foizni tashkil etadi. Biz ham ana shu ko’pchilik tomonidamiz. Ayni paytda, kamchilik bildirgan va bildirayotgan aksilfikr ham yashash huquqiga ega ekanini tan olamiz. Respublikamiz Prezidenti Islom Karimovning mana bu gaplari bizning fikrlarimiz uchun e’tiborli xulosa bo’la oladi deb o’ylaymiz:

«SHu o’rinda ta’kidlamoqchi edimki, **dunyoviylik,** ayrim aqidaparast kimsalarning da’volaridan farqli o’laroq, aslo **dahriylik** emas. Biz bunday noto’g’ri va g’arazli talqinlarga mutlaqo qarshimiz».[117]

---

[115] *Стоун И.* Происхождение. Роман – биография Чарлза Дарвина. М., Политиздат. 1983. С. 273.

[116] *Қаранг: Аъзамов А.* Фан ва дин: одамзоднинг пайдо булиши. «Тафаккур» журнали, 1999, 4-сон, 32-б.

[117] *Каримов И.А.* Донишманд халқимизнинг мустаҳкам иродасига ишонаман. «Фидокор» газетаси, 2000, 8 июн.

XX asr buyuk olmon faylasufi Karl Yaspers, odamni boshqa jonzotdan keltirib chiqarishning nojoizligi haqida gapirib, inson transtendental bog'liqlikka ega, uning imkoniyatlarini, erkini hech bir jonzotniki bilan qiyoslab bo'lmaydi, inson hatto imkoniyatlari naqadar cheksiz ekanini o'zi ham bilmaydi, deb uni ulug'laganida, bizningcha, tamomila haq edi. Agar diqqat qilsak, asrimiz mutafakkirining fikri Qur'oni karim «Baqara» surasida marhamat qilingan quyidagi oyatlarga hamohangdir: «30. Eslang (Ey Muhammad), Parvardigoringiz farishtalarga: «Men Yerda (Odamni) xalifa (yordamchi) qilmoqchiman», deganida, ular aytdilar: «U yerda buzg'unchilik qiladigan, qonlar to'kadigan kimsani (xalifa) qilasanmi? Holbuki, biz hamdu sano aytish bilan Seni ulug'laymiz va Sening nomingni mudom pok tutamiz». (Alloh) aytdi: «Men sizlar bilmagan narsalarni bilaman». 31. Va U zot odamga barcha narsalarning ismlarini o'rgatdi. So'ngra ularni farishtalarga ro'baro' qilib dedi: «Agar xalifalikka biz haqdormiz degan so'zlaringiz rost bo'lsa, mana bu narsalarning ismlarini Menga bildiring!». 32. Ular aytdilar: Ey pok Parvardigor, biz faqat Sen bildirgan narsalarnigina bilamiz. Albatta Sen o'zing ilmu hikmat sohibisan». 33. (Alloh): «Ey Odam, bularga u narsalarning ismlarini bildir», dedi. (Odam) ularga barcha narsalarning ismlarini bildirganidan keyin (Alloh) aytdi: «Sizlarga, Men Yeru osmonlarning sirlarini va sizlar oshkor qilgan va yashirgan narsalarni bilaman, demaganmidim?». 34. Eslang (Ey Muhammad), Biz farishtalarga Odamga ta'zim qiling, deyishimiz bilan sajdaga egildilar. Faqat Iblis kibr va or qilib – kofirlardan bo'ldi».

Vaholanki, sajda bungacha faqat Tangrigagina bajo keltirilar edi. Demak, Xudo bu bilan barcha mavjudotlardan oliy, daraja nuqtayi nazaridan o'zidan keyin turadigan buyuk zotni yaratganini e'lon etdi. Odam – Xudoning yerdagi xalifasi.

SHu o'rinda «xalifa» so'zining amaliy ma'nosi haqida to'xtalmoq o'rinli. Uni oddiy hayotiy misol bilan tushuntiradigan bo'lsak, kosiblikka, hunarmandchilikka murojaat qilish maqbul. Ma'lumki, qadimda kosib yoki hunarmand ustaning odatda bir necha shogirdi bo'lgan. Ular orasidagi eng aqlli, tadbirkori, ustaning muhabbatini qozongani usta tomonidan xalifa etib tayinlangan. Xalifaga usta o'zining bir qancha vakolatlarini, jumladan, biror yoqqa safarga ketsa, shu muddat mobaynida boshqa shogirdlarni boshqarib, rahbarlik qilib turishni topshiradi. SHunday qilib, usta qaytib kelgunga qadar xalifa uning aytganlari yoki ko'rsatmalarini amalga oshirish bilan mashg'ul bo'ladi. Odam ham Allohga nisbatan ana shunday xalifadir: to u qiyomatga qadar, ya'ni Tangri dargohiga borgungacha nabotot va hayvonot olami ustidan hukmronlik qilib turadi.

Hukmronlik qilish uchun, tabiiyki, muayyan darajada erkinlikka, erkin harakatni ixtiyor etish huquqiga ega bo'lish, falsafiy ibora bilan aytganda, ixtiyor erkinligi zarur. Ana shu ixtiyor erkinligi faqat insonga berilgan. Farishtalar bunday ma'naviy ne'matdan mahrum – ular faqat Allohning buyrug'ini bajaradilar. Lekin insondagi ixtiyor qilish erkinligi ham cheklangan – u Alloh tomonidan Qur'oni karimda umumiy tarzda belgilab berilgan doiradagina mavjud bo'lishi kerak. SHu bois mutlaq erkinlik insonga emas, faqat Yaratganga xos.

SHunday qilib, axloq – oliy mavjudotga ato etilgan oliy ne'mat. Ya'ni axloqning kelib chiqishi ilohiy manbadandir. Ana shu ilohiy asosni asrab–avaylab, taraqqiy toptirish har bir insonning asosiy vazifasi, burchi. SHu bois o'z–o'zini va, iloji bo'lsa, o'zgalarni axloqiy tarbiyalash barcha muqaddas kitoblarda savob sanaladi.

Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlash kerakki, inson aynan hozirgi paytdagi ko'rinishida yaratilgan degan gap haqiqatdan yiroq. U mohiyatan har tomonlama mukammallikka, komillikka qarab boruvchi, taraqqiyotining mohiyati tadrijiylik bilan belgilanadigan jonzotdir, uning jismoniy, aqliy va axloqiy taraqqiyoti o'zaro bog'liqlikda rivojlanadi: vaqt mobaynida insonning ham ko'rinishi, ham tafakkuri, ham axloqiy xatti–harakati o'zgarib boradi. SHu jihatdan olib qaraganda, odamzodning xunuklikdan chiroylilikka, nodonlikdan oqillikka, qo'pollikdan noziklikka yo'nalganligi tabiiy hol. Demak, uning axloqiy xatti–harakatlari tadrijiy tarzda noziklashib borgan. Biroq, bunday noziklashuv shaklan qo'polroq bo'lgan soddalikdan chekinib, botiniy qo'pollikni zohiriy nazokat bilan yopishga, niqoblashga ham olib kelgan. Natijada insoniyat tarixi qanchalik ko'p davrni o'z ichiga olsa, axloqning xilma–xil ko'rinishlari shuncha ko'payib borgan. Lekin ularning hammasi, zamonaviy axloq nazariyasiga ko'ra, ikki katta guruh ostida voqe bo'ladi, ya'ni axloqiy xatti–harakatlar asos–e'tibori bilan ikki turga bo'linadi. Ulardan biri – obro'parvarlik (avtoritar) axloqi, ikkinchisi insonparvarlik – (humanitar) axloqi. Endi qisqacha ularning mohiyati va sifatlari bilan tanishib chiqamiz.

«Obro'parvarlik axloqiga ko'ra, – deb yozadi Erix Fromm, – bir odam – obro' egasi inson uchun nima yaxshiligini belgilab beradi, o'zni tutish qonun–qoidalari va me'yorlarini ham o'ylab topadi, o'rnatadi. Insonparvarlik axloqi esa bu qonun – qoidalar va me'yorlarni o'zi yaratishi, o'zi boshqarishi hamda ularga o'zi amal qilishi bilan farqlanadi»[118]

Fromm obro'parvarlik axloqinining ikki asosini ko'rsatib o'tadi: birinchisi – ratsional obro'parvarlik, unga ko'ra, ratsional obro' egasi o'ziga yuklangan vazifani omilkorlik vositasida bajarib, mazkur vazifani yuklaganlar tomonidan hurmatga sazovor bo'ladi. Biroq ratsional obro'parvarlik vaqtinchalik hodisa, u obro' egasi faoliyatining samaradorligi bilan bog'liq. Ikkinchisi – noratsional obro'parvarlik, u bir tomondan hukmronlikka, ikkinchi tomondan, qo'rquvga asoslanadi va uzoq muddat davom etadi: muayyan tarixiy davrni o'z ichiga oladi. Noratsional obro'parvarlik tanqidni na faqat tan olmaydi, balki taqiqlaydi. Ratsional obro'parvarlik obro' egasi tamonidan sub'ektga nisbatan axloqiy tenglikni taqozo etsa, noratsional obro'parvarlik aynan tengsizlik asosiga quriladi. Bunda obro' egasiga «gap qaytarmaslik», «quloq solish» – fazilat, «quloq solmaslik» – illat hisoblanadi. Odatda, obro'parvarlik axloqi deganda, ko'proq noratsional obro' egasi o'rnatgan qonun–qoidalar, me'yorlar nazarda tutiladi.

---

[118] *Фромм Э.* Человек для себя. Минск, «Харвест», 2004. С. 18.

SHunday qilib, insonparvarlik axloqi sub'ektning o'z insoniylik tabiatini, barcha fazilatlarini, ochiq–oydin namoyon etishini ta'minlaydi. Obro'parvarlik axloqida esa, aksincha, sub'ektga, obro' egasiga bo'ysunish, quloq qoqmaslik, o'z individualligini yo'qotish hodisalari ro'y beradi. Lekin, fojea shundaki, buni insonning o'zi anglamaydi: atrof–muhitdagi obro' egasining ulug'ligi, bilimdonligi qahramonligi, muruvatliligi, xalqqa otalarcha g'amxo'rligi va zaruriy qatiqqo'lligi haqida to'qilgan miflar, uning shaxsiga sig'inish bunga yo'l bermaydi. Bunday odamlar jamiyatda asosiy ko'pchilikni tashkil etadi, obro'parvarlikning mohiyatini tushunib yetgan, ommaga qo'shilmagan, o'z individualligi va ichki erkinligini saqlab qolgan shaxslar esa juda kam bo'ladi. Natijada jamiyatning asosiy ko'pchiligi ezgulik deb hisoblagan narsa aslida yovuzlik bo'lib chiqadi, xalq ommasi anglamasdan yovuzlikka xizmat qilganini keyin, obro' egasi shaxsiga sig'inish fosh etilganidan so'nggina tushunib yetadi. CHunonchi, Hitlerga ergashganlar o'sha paytlar Olmoniyada ko'pchilikni tashkil etardi, ular o'zlarining yo'li to'g'ri ekaniga qattiq ishongan edilar: «Fyurer adashmaydi!» Hozir esa Hitler kim–u, uning tutgan yo'li qanday ekanini hamma yaxshi biladi, Olmoniya aholisining asosiy ko'pchiligi fashizmga, uning obro'parvarlik axloqiga qarshi. Bizning mamlakatimiz ham sobiq SHo'rolar Ittifoqi tarkibida Lenin, Stalin va komunistik partiya o'rnatgan obro'parvarlik axloqini boshidan kechirdi, mustaqillik tufayligina xalqimiz insonparvarlik axloqi me'yorlari bilan hayot kechirish yo'liga kirdi. Jahon afkor emmasi, erkin, demokratik jamiyatlarining hammasi ana shu axloqiy yo'ldan bormoqda. Aynan shunday axloq jamiyat va shaxsning erkinligidan, individning ixtiyor erkinligidan kelib chiqadi. SHu sababli ixtiyor erkinligi axloqshunoslikning eng muhim, eng dolzarb muammosi sifatida alohida e'tiborga molik, unga to'xtalib o'tmaslikning iloji yo'q.

Axloqshunoslikda inson xatti–harakatining ikki qutbi – axloqiylik bilan axloqsizlik holatlari tahlil va tadqiq etiladi. Axloqiylik – fazilatlarda, axloqsizlik esa illatlarda namoyon bo'ladi. Bu ikki qutb – tushuncha kun–tun, oq–qora singari bir–birini inkor va ayni paytda, taqozo etgani holda mavjuddir. Zero, fazilat, Arastudan tortib Ibn Sinogacha bo'lgan qadimgi faylasuflar ta'kidlaganlaridek, ikki illat oralig'ida ro'y beradi. Boshqacha qilib aytganda, fazilat ikki manfiylik o'rtalig'ida yuzaga keladigan musbat hodisadir. CHunonchi, adolat – zulm bilan mazlumlikning, saxiylik – isrofgarchilik bilan baxillikning, iffat – qizg'anchiqlik bilan rujuning o'rtalig'i sifatida voqe bo'ladi.

Fazilat va illat shunday yirik hamda qamrovli atamalarki, ularning har biri o'z ichiga bir necha emas, o'nlab emas, balki yuzlab tushunchalarni oladi. SHu jihatdan axloqshunoslik barcha falsafiy fanlar ichida tushunchalarining ko'pligi va xilma–xilligi bilan alohida ajralib turadi. Ularni avvalgi ilmiy–uslubiy adabiyotlarda, xususan, lug'atlarda axloqshunoslik mezoniy tushunchalari yoxud kategoriyalari, axloqiy mezoniy tushunchalar, axloqiy tamoyillar, axloqiy me'yorlar, axloqiy munosabatlar, axloqiy hissiyotlar singari guruhlarga bo'lib taqdim etilgan. Bunday «maydalashtirish», bizningcha, shart emas. CHunki u, birinchidan, tizimni murakkablashtiradi, ikkinchidan, muayyanlikdan yiroqlashtiradi, uchinchidan, tushunchalar bilan hissiyotlarni, me'yorlar bilan tamoyillarni farqlashda chalkashliklarga olib keladi, ularni rosmana idrok qilishda qiyinchiliklar tug'diradi. Zero, fan mazmunini taqdim etishdagi har qanday murakkablashtirishlar, chalkashliklar, tabiiyki, tushunmovchilikni keltirib chiqaradi. Natijada mazmun mo'ljallangan «o'z egasiga» risoladagidek yetib bormaydi.

SHu sababli axloqshunoslik fanida qo'llaniladigan barcha tushunchalarni uch guruhga bo'lishni maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Bularning birinchisi – axloqiy bilish bilan real hayot o'rtasidagi eng muhim aloqa va munosabatlarni in'ikos ettiruvchi, axloq ilmining mezonini ifodalovchi tushunchalardir; ularni biz axloqshunoslikning mezoniy tushunchalari yoxud kategoriyalari sifatida olib qaraymiz. Nisbatan qamrovli ikkinchi guruh tushunchalarini – axloqiy tamoyillar, uchinchi guruhni esa axloqiy me'yorlar deb taqdim etamiz. Birinchi guruh tushunchalari umumlashtiruvchilik, mushtaraklik xususiyatiga ega, ular faqat nazariyaga taalluqli. Ikkinchi va uchinchi guruh tushunchalari esa amaliy axloqqa tegishli bo'lib, nisbatan muayyan, tor qamrovga ega; ular birinchi guruh uchun «moddiy asos» vazifasini o'taydilar.

SHu o'rinda «tushuncha» atamasining mohiyatiga nazar tashlashni joiz deb o'ylaymiz. Avvalroq biz axloqiy hissiyotlarning axloqiy onglash uchun ma'lum ma'noda material ekani to'g'risida birrov to'xtalib o'tgan edik. Bu haqda mumtoz faylasuflar ham e'tiborga sazovor fikr bildirganlar. CHunonchi, buyuk ingliz mutafakkiri Jon Lokk, tushunchada nimaiki bor ekan, u bundan avval hissiyotda mavjud bo'lgan, deb ta'kidlaydi. «Tabiat qonuni borasidagi tajribalar» asarida u shunday deb yozadi: «Agar hissiyotdan aqlga narsalar qiyofasi yetkazib berilmasa, u holda tafakkur uchun hech qanday material berilmagan bo'ladi va aql bilishni taraqqiy ettirishi borasida me'mor bino qurishda tosh, yog'och, qum va hokazo qurilish materiallarisiz qanchalik ish qila olsa, xuddi shuncha ish bajara biladi».[119]

Aqlni ideallashtirish, hissiyotni ikkinchi darajali omil sifatida talqin etish, Lokk va unga o'xshash ba'zi mutafakkirlar fikrlarini hisobga olmaslik, afsuski, keyingi davrlarda ayniqsa kuchaydi. Hegel singari faylasuflar esa butun borliqni mantiqiylashtirish yo'lidan bordilar. Lekin XIX asrning ikkinchi yarmidan keyin G'arb allomalari bu yo'lning ko'p jihatdan Yanglish ekanini anglay boshladilar. XX asr mutafakkiri, ruhiy tahlil falsafasidagi Yangi froydchilik oqimining atoqli namoyandalaridan biri Karl Yung Tibet mayyitlar kitobi – «Bardo Tyodol»ga yozgan sharhida shunday deydi: «G'arb kishisi, «psixologik» («ruhiy») so'zini eshitganida, uning uchun u «bor–yo'g'i psixologik» tarzida jaranglaydi. Uning uchun «psixe» – qalb qandaydir, achinarli darajada kichik, e'tiborga noloyiq, shaxsiy, sub'ektiv va h.k. SHu sababli «ruh» (qalb) o'rniga «aql» so'zini ishlatishni ma'qul ko'radi...».[120] Boshqa bir o'rinda barcha metafizik mulohazalar uchun ijodiy zamin aynan ana shu qalb ekanini, ong esa qalbning ko'zga

---

[119] *Локк Ж.* Сочинения в 3 т. Т.3 М., «Мысль», 1988. С. 21.

[120] *Тибетская* «Книга» мёртвых. М., «Подиум», 1992. С. 79.

ko’rinmas in’ikosidan iboratligini ta’kidlaydi. Darhaqiqat, «yurak va aql», «hissiyot va ong» bahsida G’arb, ayniqsa, XX asrda, so’zsiz, birinchilikni aqlga, ongga beradi. Yuqoridagi kabi fikrlar istisnoli hollardir. SHu bois axloqshunoslik nuqtayi nazaridan muhabbat haqida gap ketsa, uni hissiyot deb, yana buning ustiga, ta’riflash qiyin bo’lgan tuyg’u, deb ataydilar va uni tushuncha tarzida olib qarashdan cho’chiydilar. Vaholanki, muhabbat aynan axloqiy hissiyot va axloqshunoslikning bosh mezoniy tushunchasidir.

Muhabbat bosh mezoniy tushuncha sifatida deyarli barcha asosiy tushunchalarda va tamoyillarda o’z «hissa»siga ega. SHu jihatdan atoqli tasavvufshunos Najmiddin Komilov: «Juda ko’p irfoniy tushuncha–istilohlarning sharhi muhabbatga borib taqaladi», – der ekan, ayni haqiqatni aytadi.[121] Na ezgulikni, na yaxshilikni, na vatanparvarlikni, na insonparvarlikni muhabbatsiz tasavvur etib bo’lmaydi. O’tgan boblarning ba’zilarida biz bu tushunchaning mohiyati, turlari haqidagi Ilohiy Og’ustin, Imom G’azzoliy , Erix Fromm singari mutafakkirlar fikrlarini keltirgan edik. Qo’shimcha qilib shuni aytish mumkinki, muhabbat – insoniy mohiyatning erkin tarzda namoyon bo’lishidir, u zo’ravonlik yoki zo’rma–zo’rakilik bilan chiqisha olmaydigan hodisa. U me’yorlar, an’analar, qonunlarga bo’ysunmaydi, lekin yuksak axloqiylik ifodasi tarzida insonga ulkan mas’uliyat yuklaydi, uni jasoratga chorlaydi, u – insonni tash–qi va transtendental olam bilan bog’laydigan, uni yolg’izlikdan olib chiqadigan buyuk kuch.

Muhabbatning ob’ekti doimo go’zallik, manfaatsiz go’zallik. U – Allohmi, Vatanmi, yormi – muhabbat egasiga undan–da go’zalroq narsa yo’q. Ayni paytda bir ob’ektni sevgan kishi boshqa ob’ektlarni ham sevishi tabiiy. Deylik, yorga bo’lgan haqiqiy muhabbat Vatanga, insoniyatga muhabbatni inkor etmaydi, aksincha, barqaror qiladi. Zero, «o’z–o’zicha», «yakka», «xudbin» muhabbatning bo’lishi mumkin emas. Inson o’zi o’zgaga aylanganida, o’zgani o’ziga aylantira olganida haqiqiy muhabbat egasi hisoblanadi. Mana shu ob’ekt bilan sub’ekt orasidagi farqning «yo’qolishi» eng buyuk, eng mukammal lazzatdir. Buni mavlono Fuzuliy nihoyatda go’zal qilib, bir baytda shunday ifodalaydi:

Ishqdir ul, nasha’i komilkim, andandir mudom
Mayda tashviri harorat, nayda ta’siri sado.[122]

Komil nash’a, komil lazzatga faqat komil insongina erisha oladi. Demak, muhabbat inson axloqiy hayotining cho’qqisi, komillik belgisidir. SHu bois haqiqiy muhabbat egalari yoshlar tomonidan doimo axloqiy ideal tarzida qabul qilinadi: Farhod va SHirin, Romeo va Juletta, Otabek, Kumush va h.k. SHunday qilib, muhabbatni shaxs erkinligining axloqiy zarurat sifatidagi o’ziga xos ko’rinishi, baxtga erishuvning asosiy omili deyish mumkin.

Ta’kidlash lozimki, muhabbat – oliy tuyg’u, shu ma’noda u oliy tushuncha. Lekin uni tuban, quyi narsa–hodisalarga nisbatan ham qo’llash hollari uchrab turadi. CHunonchi, Fromm singari g’arblik mutafakkirlar, ba’zi rus faylasuflari muhabbat tushunchasini o’likka (nekrofil), mol–dunyoga, pulga nisbatan qo’llaydilar. Ularga nisbatan «o’chlik», «ruju», «hirs» singari tushunchalarni qo’llash ma’qul emasmikan?

Muhabbat ham, axloqshunoslikdagi ko’pgina tushunchalardek, «juftlik» xususiyatiga ega, uning ziddi – nafrat. Nafrat tushunchasi, albatta, muhabbat singari keng qamrovli emas. U aksil muhabbat tarzida namoyon bo’ladi, ob’ektdan chetlashishni, undan begonalashishni taqozo etadi. Hazar, jirkanch hissi nafratning kundalik turmushdagi tor, «mayda» ko’rinishidir. Nafratning ularga nisbatan «yirikligi» uning ijtimoiy hodisa sifatida mavjudligidir.

Ayni paytda, nafrat g’azabdan keskin farq qiladi. U, g’azabga o’xshab, o’z ob’ektini yo’qotishga intilmaydi, undan faqat yuz buradi. Uni muhabbat egasida o’z muhabbati ob’ektiga nisbatan tashqi bir kuchning noinsoniy, adolatsiz, noinsoflarcha munosabati tufayli o’sha kuchga qarshi qo’zg’aladigan hissiyot deyish mumkin. U davomiylik tabiatiga ega, g’azab kabi o’tkinchi hodisa emas. Agar g’azabning asosida inson fe’lining salbiy holati – oniy badjahllilik yotsa, nafrat uchun chuqur o’ylab qabul qilingan uzil–kesil qaror yotadi. Ko’rinishdan nafrat kishida yoqimsiz taassurot uyg’otsa–da, ko’p hollarda u illat emas, axloqiy fazilat sifatida insonning vijdonliligidan, botiniy jasoratidan dalolatdir.

SHu o’rinda buyuk fransuz yozuvchisi Emil Zolyaning «Nima menda nafrat uyg’otadi» degan estetikaga doir kitobiga yozgan so’zboshisidan olingan quyidagi fikrni keltirish maqsadga muvofiq:

«Nafrat – muqaddas. Nafrat bu – kuchli va qudratli yuraklarning noroziligi, bu – o’rtamiyonalik va pastkashliklardan qahrlanadigan odamlarning jangovar jirkanchi. Nafratlanmoq – sevmoq degani, o’zida otashin va mardona qalbni his qilmoq, nimaiki sharmandalik va nodonlik bo’lsa, o’shanga nisbatan chuqur hazar tuyg’usini tuymoq degani.

Nafrat yengillik beradi, nafrat adolat o’rnatadi, nafrat yuksaltiradi»[123]

Nafratdan tashqari yana rashk tushunchasi borki, u – ijtimoiy hodisa emas, ko’p hollarda jinsiy muhabbat bilan yonma–yon keladi. Ma’lumki, muhabbat egasi o’z sevgisini va sevgilisini qizg’anib, asrab qolishga harakat qiladi. Ana shu qizg’anish hissi me’yoridan oshib ketganda rashkka aylanadi. Rashk esa, uni qanchalik ta’rif–tavsif qilmaylik, me’yorning buzilishi, illat. CHunki uning mohiyati xudbinlikka borib taqaladi: muhabbat egasi muhabbat lazzatiga noil bo’lgani holda uning iztirobidan qochishga intiladi; o’zi chekishi lozim bo’lgan iztirobni o’z muhabbat ob’ektiga o’tkazishga harakat qiladi. Natijada ba’zan iztirobni yo’qotishga intilish muhabbat ob’ektining o’zini yo’q qilishga, fojeaga olib keladi.

---

[121] *Комилов Н.* Тасаввуф. I китоб. Т., «Ёзувчи», 1996, 48-б.
[122] *Фузулий.* Асарлар. Икки жилдлик. I жилд. Т., F. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашрёти, 1968, 27-б.
[123] *Золя Э.* Собрание сочинений в 26 томах. Т. 24. М., ИХЛ, 1966. С. 7.

Asosiy tushunchalar orasidagi yana bir juftlik – ezgulik va yovuzlik; ezgulik axloqshunoslikdagi eng muhim kategoriyalardan. U inson faoliyatining asl mohiyatini anglatadi – Tangri irodasining inson qalbidagi tajassumi sifatida namoyon bo'ladi. «Ezgu o'y, ezgu so'z, ezgu a'mol» uchligi «Avesto» dan tortib, barcha muqaddas kitoblarda yetakchi o'rinni egallashi ham shundan.

Ezgulik – insonga eng kuchli ma'naviy lazzat bag'ishlaydigan, uni ijtimoiy shaxsga aylantirib, haqiqiy baxtga olib boruvchi fazilat; shaxsni komillikka, jamiyatni esa yuksak taraqqiyotga yetkazuvchi yuksak qadriyat. U insonning axloqiy faoliyati tufayli muayyanlashadi, yuzaga chiqadi. Uni sinfiylik yoxud partiyaviylik qobig'iga o'rash mumkin emas. CHunonchi, «sinfiy dushmanni», ya'ni biror bir shaxsni yoki guruhni faqat boshqa sinfga mansub bo'lgani uchun jisman yo'qotish, qanchalik bo'yab–bejalmasin, ezgulik bo'lolmaydi. U tom ma'nodagi yovuzlikdir. Totalitar tuzumlar mafkurasida ezgulikni bunday talqin etishning noilmiyligi, soxtaligi hozirgi kunda hammaga ayon.

Ezgulik va uning ziddi yovuzlik odatiy, kundalik hayot mezonlari bilan o'lchanmaydi, ular ham muhabbat singari qamrovli va ijtimoiylik xususiyatiga ega. Ezgulikning axloqiy ideal bilan bog'liqligi shundan. SHu tufayli u amaliyotda qahramonlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, jasurlik singari tamoyillarni o'z ichiga oladi.

SHuni ham aytish kerakki, muhabbat va nafrat juftlik tushunchasida nafrat muhabbatni inkor etmay, aksincha, uning barqarorligidan dalolat bersa, ezgulik va yovuzlik juftligida har ikki tushuncha bir–birini tamomila inkor etadi. Nafaqat inkor etadi, balki ular orasida hayot–mamot kurashi ketadi va bu kurash abadiy kurash sifatida, olamni harakatga keltiruvchi kuch tarzida namoyon bo'ladi. Lekin, ayni paytda ular orasida muayyan tarzdagi dialektik aloqadorlik bor: ular hech qachon bir–biridan mutlaq alohida holda voqe bo'lolmaydi.

Ezgulik va yovuzlikning yana bir o'ziga xos tomoni shundaki, bu juftlik tushuncha inson faoliyatini baholash xususiyatiga ega. Uni odam bolasining ulug'ligi va tubanligini o'lchaydigan muqaddas tarozuga o'xshatish mumkin. Insonning komilligi, jamiyatning takomilga erishgan–erishmagani shu mezon bilan o'lchanadi. CHunonchi, Lenin, Stalin, Hitler, Pol Potlarni yovuz insonlar, sobiq sho'rolar ittifoqini esa jamiyat sifatida «Yovuzlik saltanati» deb baholanishi buning yorqin misolidir.

Yaxshilik va yomonlik. Ezgulik va yovuzlik haqida gap borganida, yaxshilik va yomonlik nima, bu ikki juftlik mazmunan bir emasmi, degan savol tug'iladi. Bu tabiiy. CHunki hozirgacha bizga ma'lum o'zbek tilidagi barcha axloqshunoslikka doir adabiyotlarda ezgulik va yovuzlik mezoniy tushunchalar sirasiga kiritilmagan, u bor–yo'g'i yaxshilik va yomonlikning sinonimi tarzida taqdim etib kelingan. To'g'ri, yaxshilik tushunchasining ko'pgina unsurlari ezgulikdan, ezgulikning ba'zi unsurlari yaxshilikdan joy olishini inkor qilish mumkin emas. Ularning ziddida ham shunday «singishib ketish» mavjud. Lekin bunday dalillar aslo mazkur ikki juftlikni aynanlashtirishga asos bo'la olmaydi.

Bu ikki juftlik tushunchalar orasida qat'iy farq mavjud: ezgulik, yuqorida aytganimizdek, ijtimoiylik xususiyatiga ega, yaxshilik esa unday emas. Yaxshilik asosan shaxsning odobiga, xulqiga bog'liq bo'lgan ijobiy hodisa. Zero, unda mardlik, ochiqko'ngillilik, halollik singari axloqiy me'yorlar tajassum topadi. Biroq unga asos bo'lgan amaliy xatti–harakatlar qahramonlik, jasorat, vatanparvarlik kabi tamoyillar darajasiga ko'tarila olmaydi. Misol tariqasida buyuk shoirimiz Alisher Navoiyning faoliyatini olaylik. U surunkasiga ijodiy mehnatga umrini bag'ishladi, xalqi uchun, xalqlar uchun «Xazoyin ul–maoniy»dek, «Xamsa»dek buyuk asarlar yaratdi. Bu – ezgulik, u ma'lum ma'noda abadiylik xususiyatiga ega, chunki Navoiy asarlari millionlab odamlarga yuzlab yillar mobaynida zavq–shavq ulashib, ularni komillikka chorlab kelmoqda. Ayni paytda, Navoiyning o'zi bevosita ko'plab yaxshiliklar qildi – muhtoj odamlarga qarz berdi, bergan qarzlaridan kechib yubordi va h.k. Uning bu yaxshiliklari ajoyib ijobiy hodisa bo'lgani holda, o'tkinchilik tabiatiga ega, shuningdek, istisnoli hollarda namoyon bo'luvchi qahramonlik ham, buyuk jasorat ham emas.

Demak, ezgulik asosan bilvosita amalga oshiriladigan, uzoqni ko'zlovchi, kelajakka ham mo'ljallangan, ya'ni strategik ahamiyatga molik axloqiy xatti–harakatlar majmui; yaxshilik esa, odatda, bevosita shu kun uchun dolzarblik xususiyatiga ega, ya'ni taktikaviy axloqiy faoliyatdir. SHunday qilib, yaxshilikni yirik ijtimoiy hodisa – ezgulik bilan aynanlashtirish to'g'ri emas.

Bu ikki juftlikning yana bir farqli tomoni shundaki, voqe bo'lgan ezgulik hech qachon to'g'ridan–to'g'ri yovuzlikka aylanmaydi, yovuzlik esa har qanday zamonda, har qanday sharoitda ham yovuzlik bo'lib qolaveradi. Yaxshilik va yomonlikda esa bunday emas: biror ob'ektga qilingan yaxshilik boshqa bir ob'ekt uchun yoki yaxshilik qilgan sub'ekt uchun yomonlikka aylanishi mumkin. Mashhur o'zbek xalq ertaklaridan biridagi ovchilar quvib kelayotgan bo'rini qopga yashirib, qutqarib qolgan dehqonning holatini bunga misol sifatida keltirish mumkin: bo'ri o'ziga yaxshilik qilib, o'limdan qutqargan odamni yemoqchi bo'ladi, xayriyatki, tulki dehqonning joniga oro kiradi.

Xullas, muayyan ijtimoiy cheklanganligiga qaramay, yaxshilik va yomonlik qamrovli mezoniy tushunchalardan.

Adolat. Axloqshunoslikning yana bir asosiy tushunchasi – adolat. Uning ezgulik va yovuzlik hamda yaxshilik va yomonlikdan asosiy farqi shundaki, adolatning o'zi biror–bir qadriyatni anglatmaydi, lekin qadriyatlar orasidagi nisbatni belgilaydi, ularni baholash maqomiga ega. SHu bois unda jamiyatni tartibga soluvchilik xususiyati bor; unda ham axloqiy, ham huquqiy talablar mujassamlashgan. Uni ma'lum ma'noda axloq sohasidagi miqdor o'lchovchi ham deyish mumkin: u talab bilan taqdirlashni o'lchab turadigan tarozidir. Adolat bor joyda ijtimoiy jabrga, beboshlikka yo'l yo'q.

Ma'lumki, axloqdagi eng oddiy, ibtidoiy fazilatlar, chunonchi, mehribonlik, shafqat, muruvvat hayvonlarda ham mavjud. Lekin hayvonlarda ular o'z guruhiga, eng avvalo, o'z zurriyotiga qaratilgan bo'ladi. Odamzod esa o'ziga qondosh–qarindosh bo'lmagan o'zgalarga – qavmdoshlariga ham ushbu hissiyotlarni namoyish etadi.

SHunday qilib, axloqning ba’zi unsurlari hayvonlarda ham mavjud, faqat ular insondagidek aqlga emas, tabiiyyatga asoslangan. Buni adolat mezoniy tushunchasida yaqqol ko’rish mumkin. Albatta, hayvonlar uni tushuncha sifatida anglamaydilar, lekin u tabiiyyat tarzida hayvonlar xatti–harakatida namoyon bo’ladi. Masalan, Afrika savannalarida yoki changalzorlarida qurg’oqchilik mavsumida hayvonlarning suvloqdagi xatti–harakatini olib ko’raylik. Unday paytda suvloq hududida vahshiy hayvonlar, qanchalik och bo’lmasin, o’z o’lja!lariga tashlanmaydilar: adolat yuzasidan ularning ham chan–qoqlarini qondirishlariga yo’l qo’yib beradilar – barcha hayvonlar bir–birlari tomonidan tashna jonzotlar sifatida qabul qilinadi. Biroq suvloqdan ma’lum masofa nariga o’tilgach, yana o’sha hayot – kushanda va o’ljaning yashash uchun kurashi boshlanadi. Demak, adolatning ibtidoiy ko’rinishini hayvonlarda ham uchratish mumkin ekan. Qizig’i shundaki, u yakka holda emas, ko’pchilik hayvonlar – tashna jonzotlar jamoasida ro’y beradi. Bu hodisa adolat tushunchasining ijtimoiylik xususiyatiga xos ba’zi holatlar insoniyat jamiyatidan ham ibtidoiyroq ekanini, uning tarixi yanada qadimiyroqligini ko’rsatadi.

Adolatning mezoniylik xususiyati, ayniqsa, huquqda darhol ko’zga tashlanadi. Huquq vazirligining hatto adliya vazirligi deb atalishi, jinoyatga yarasha jazoni belgilovchi, hukm chiqaruvchi idoralarning odil sud degan nomlar bilan yuritilishi buning dalilidir. Lekin adolatni faqat huquqiy tushuncha sifatida talqin etish to’g’ri emas. U, yuqorida aytganimizdek, keng qamrovli axloqiy tushuncha. U nafaqat fuqarolar orasidagi munosabatlarni, balki davlat bilan xalq, jamiyat bilan shaxs o’rtasidagi aloqalar mezonini ham o’z ichiga oladi. Xalq orasida ming yillar mobaynida odil podsho idealining yashab kelgani bejiz emas.

Deyarli bir yarim asr mobaynida adolatsizlikni, milliy kamsitishni, milliy iftixor hissining oyoqosti qilinishini, begona irodaning zo’rlab qabul qildirilishi kabi holatlarni boshdan kechirgan xalqimiz, endilikda mustaqillikka erishib, adolatli fuqarolik jamiyati tuzishga kirishdi. Adolat bugungi kunda bizning mustaqil, kelajagi buyuk davlatimizning mohiyatini anglatuvchi tushunchaga aylanib bormoqda.

SHafqat. SHafqat istilohi xozirgacha axloqshunoslikka doir asosiy o’quv adabiyotlarda va ilmiy tadqiqotlarda asosiy mezoniy tushuncha sifatida taqdim etilmaydi. Vaholanki shafqatning ildizi inson shaxsiga bo’lgan muhabbatga borib taqaladi, u ham muhabbat kabi qamrovli hissiyot. Agar muhabbat mehrga asoslansa, shafqat muruvvat bilan bog’liq. Lekin u ayni paytda muruvvatdan jiddiy farq qiladi. Muruvvat bir insonning ko’p xollarda o’ziga aloqasi yo’q boshqa bir insonga achinish hissi orqali yordamga qo’l cho’zishi bo’lsa, shafqat kishining o’ziga aloqador odamga, aybdor, gunohkor, ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy jazolanishga loyiq kimsaga kechirimlilik orqali insonparvarlik ko’rsatishdir.

SHafqat hissi shafqatga muhtoj kishi o’rniga xayolan o’zini qo’yib fikr yuritish orqali vujudga keladigan, o’zga bir inson iztiroblarini yengillatishga qaratilgan axloqiy hodisa. Masalan: ro’zg’orinni zo’rg’a tebrayotgan qo’shningizning kasbiy xizmat yuzasidan ham, biror bir jamiyatga a’zoligi jihatidan ham, biznesdagi hamkorlik masalasida ham sizga aloqasi yo’q, shuningdek, u sizga do’st yoki dushman sifatida ham aloqador emas. Siz unga ehson qilib, og’ir sharoitdan chiqib olishiga iqtisodiy yordam berdingiz, bu – muruvvat. Boshqa bir holatda, deylik jang maydonida sizga butunlay begona, buning ustiga safdoshingizga o’ldirgan dushman askarini mag’lub qildingiz. Endi oldingizda ikki yo’l bor: xohlasangiz, uni o’ldirishingiz, o’ch olib g’azabingizni bosishingiz, xohlasangiz, g’azabingizni bosib, u dushman, lekin men kabi odam, uni ham menga o’xshab bu maydonga jang qilish uchun yuborganlar, uni o’ldirganim bilan biror ulkan o’zgarish ro’y bermaydi, deb asir olgansiz, hayotini saqlab qolgansiz, bu – shafqat. G’azab insondagi hayvoniy xislat bo’lsa, shafqat insoniylik belgilaridan biridir.

Demak, muruvvat agar sizning oldingizda burchli bo’lmagan kimsaga ko’rsatgan yordamingiz bo’lsa, shafqat esa oldingizda javobgar, jazoga loyiq odamni, uning insoniy huquqini va tabiatini hisobga olib, kechirishdir.

Jahon axloqshunosligida, jumladan bizda ham, yuqorida aytganimizdek, shafqat asosiy tushunchalar sirasiga kiritilmagan. Vaholanki, adolat, insonparvarlik aynan ana shu hissiyot bilan bog’liq. Buni birinchi bo’lib olmon faylasufi Artur SHopenhauer anglab yetdi. U shafqat hissini ahloqning asosi, shafqat tushunchasini axloqshunoslikning asosiy tushunchasi deb ataydi. Uning nazdida shafqat universal tabiatiga ega u, insonning na faqat insonga, balki hayvonga bo’lgan munosabatida ham namoyon bo’ladi, zero xayvonga beshafqatlilik qilgan odam insonga shafqatli bo’lmaydi[124].

SHafqat tushunchasining ahamiyati – inson hayotini oliy qadriyat deb e’tirof qilish, uning yashashga bo’lgan huquqini himoyaga olish hozirgi sharoitda yana ham dolzarblik kasb etmoqda. Bu bir tomondan, ikkinchi tomondan, diniy aqidaparastlik, ekstremistik g’oyalar va mafkuraviy kurashlar beshafqatlikka asoslanganligini hisobga olsak, shafqat tushunchasining ahamiyati yanada ortib borayotganligi uchun ham bugungi kunda jahon axloqshunosligi shafqat tushunchasini SHopenhauer aytganidek, ahloqni asosi sifatida tahlil, talqin va targ’ib qilmog’i lozim. Uning XXI asr jamiyati uchun eng muhim axloqiy xodisa ekanligi e’tirof etish zamon talabidir.

Yana bir muhim mezoniy tushuncha – burch. Burch, mohiyatan, jamiyat, davlat va shaxslarga nisbatan muayyan individdagi munosabat, ular oldidagi majburiyat. U, yuqorida aytganimizdek, vijdon, e’tiqod, mas’uliyat kabi tushunchalar bilan mustahkam bog’liq. Umuman, hayotda insonning har bir xatti–harakati zamirida burch tushunchasi – burchga sadoqat yoki xiyonat yotadi.

Burchning insonlik burchi, musulmonlik burchi, nasroniylik burchi, fuqarolik burchi, otalik burchi, onalik burchi, farzandlik burchi singari keng qamrovli, barcha davrlar uchun umumiy bo’lgan tushunchalari ham, jurnalistlik burchi, shifokorlik burchi, olimlik burchi kabi kasbiy odob doirasidagi tushunchalari ham mavjud.

Burch tushunchasining o’ziga xos jihatlaridan yana biri – uning vaqt va jamiyatda muayyanlashish xususiyati. CHunonchi, bir tuzum yo jamiyatda ijobiy hisoblangan burch talablari ikkinchi bir tuzum yoki jamiyat uchun salbiy

[124] Қаранг: *Шопенгауэр А.*. Свобода воли и нравственность. М., «Республика», 1992. С. 224 - 229.

ma’no kasb etishi mumkin. Sobiq sho’rolar fuqarosining o’sha davr–dagi mavjud tuzum oldidagi burchi hozirgi kunda o’ta salbiy hodisa sifatida baholanishi bunga yorqin misol bo’la oladi.

Harbiylashgan va o’ta mafkuraviylashgan, ya’ni, yagona mafkura hukmronlik qilgan jamiyatlarda esa burch omma hamda shaxs hayotida fojeiy hodisaga aylanadi. O’ta ustalik bilan yo’lga qo’yilgan targ’ibot natijasida bunday jamiyatlar a’zolarining ko’pchiligi oqni – qora, qorani – oq deb qabul qiladilar. Buni umumbashariy va milliy qadriyatlarni oyoqosti qilgan beshafqat sho’rolar sotsializmi yoki fashistlarning milliy sotsializmi yaqqol isbotlab berdi. Yuz minglab, hatto millionlab odamlar aldandilar, keyinchalik, uzoq yillar mobaynida vijdon azobida yashadilar. Demak, jamiyat qurilishida totalitarchilikka yo’l qo’yilishi o’sha jamiyat a’zolari tomonidan burchning noto’g’ri tushunilishiga va buning oqibatida ba’zi hollarda beixtiyor, omilik tufayli, ba’zan esa ixtiyoriy–majburiy tarzda yuz beradigan ommaviy axloqsizlikka olib keladi.

SHunday holatlar ham bo’ladiki, unda burch shaxsning ko’pgina mayl–istaklariga qarshi hodisaga aylanadi: uni huzur–halovatdan, turmush lazzatlaridan mahrum etadi. Masalan, Furqat mustamlakachilar mafkurasiga xizmat qilganida, uning hayoti rohat–farog’atda kechishi mumkin edi. Lekin u Vatan oldidagi, millat oldidagi burchni deb muhojirlikning og’ir qismatiga duchor bo’ldi: uni mustamlakachilar, avval aytganimizdek, mamlakat hududidan chiqarib yuborib, qayta kiritmadilar. Furqat xorijda vafot etdi.

Ba’zan burch tufayli odamlar o’z sevgisidan, jon–dilidan sevgan kishisidan, hatto aka–ukasi, opa–singlisi yoki farzandidan kechishga ham majbur bo’ladilar. Xullas, burch axloqshunoslik mezoniy tushunchalari ichidagi eng «qattiqqo’l», eng «shafqatsizi».

Vijdon. Axloqshunoslikning nihoyatda ta’sir doirasi keng tushunchalaridan biri vijdondir. Vijdon – Zigmund Froyd ta’biri bilan aytganda, **a’lo men**, **men** ustidan nazorat o’rnatib, uni boshqarib turuvchi ikkinchi bir, yuqori darajadagi **men.** Agar uyat hissi insonning tashqi, jamiyatga bog’liqligidan kelib chiqsa, vijdon uning ichki o’z–o’ziga bog’liqligini namoyon etadi. Bu ichki bog’liqlik tashqi bog’liqlikka nisbatan teran va doimiydir: uyat ma’lum bir vaqt ichida odamning o’z nojo’ya harakati tufayli yuzaga kelgan o’ng’aysizligi bo’lsa, vijdon azobi, bu – oddiy o’ng’aysizlik emas, balki qalbdagi, odamdagi odamiylikka e’tiqodning faryodi, talabi; uni qondirmas ekansiz, hech qachon azob to’xtamaydi. Uyat bilan vijdonni, shu bois, dengizdagi muz tog’iga – aysbergga o’xshatish mumkin: yuzaga uyat tarzida chiqib turgan qismi teranlikdagi qismidan yuz, balki ming barobar kichik.

Vijdon ham axloqshunoslikning boshqa ba’zi asosiy tushunchalari kabi baholash xususiyatiga ega. Lekin bu baholash hech qachon ob’ektga qaratilmaydi, u sub’ektning xatti–harakatlarini baholaydi, ya’ni unda sub’ekt o’zi uchun ichki ob’ekt vazifasini o’taydi. Ba’zan jamiyat talablari bilan vijdon o’rtasida ixtiloflar chiqishi mumkin. Bunda vijdon emas, jamiyat talablarining o’tkinchilik xususiyati, ma’lum ma’noda eskirganligi aybdordir. Zero, vijdon ko’zga ko’rinmas, lekin ulkan va mutlaq aybsiz axloqiy hodisadir.

Ko’pincha vijdon tushunchasi o’rnida imon iborasini uchratish mumkin. Imon aslida diniy tushuncha. Lekin hayotda vijdon tushunchasining sinonimi tarzida ishlatiladi. Masalan, kimnidir birov «imonli odam» deganida, uning musulmonlikka imon keltirgan–keltirmagani haqida o’ylab o’tirmaydi, buning ustiga, u odam musulmon emas, nasroniy bo’lishi ham mumkin. CHunki gap bu yerda o’sha odamning dindorligi haqida emas, balki vijdonli, halol, rostgo’y ekanligi to’g’risida ketyapti. SHu ma’noda vijdon bilan imonni egizak tushunchalar deyish mumkin. Diniy e’tiqodlarga munosabatlarning rasmiy tilda «vijdon erkinligi» deb atalishi ham ular orasidagi chambarchas bog’liqlikdan dalolat beradi.

Afsuski, odatda, ko’pchilik adabiyotlarda vijdon mezoniy tushunchasiga «sub’ektiv» hodisa tarzida qarab, adolat, burch, nomus singari tushunchalarni unga qaraganda ijtimoiy ahamiyatliroq deb baholash, ularni «to’rga chiqarish» hollari tez–tez uchrab turadi. Vaholanki, vijdonsiz odamdan hech qachon adolatni ham, burchga sadoqatni ham, or–nomusni ham kutish mumkin emas. Vijdonli odamlargina haqiqiy erkin, demokratik fuqarolik jamiyatini yarata oladilar. Zero, vijdon, eng avvalo, o’zgalarga nisbatan burch va mas’uliyatni taqozo etadi.

Nomus. Asosiy tushunchalardan yana biri – nomus. Nomus tushunchasi bir tomondan, burch bilan bog’liq bo’lsa, ikkinchi jihatdan, qadr–qimmat tushunchasiga aloqador. Zero, nomus mohiyatan shaxsning o’z qadr–qimmatini anglab yetishi, shu qadr–qimmatning jamiyat tomonidan tan olinishi yoki olinmasligiga nisbatan bo’ladigan munosabati bilan belgilanadi.

Biroq, bu – nomus qadr–qimmat tushunchasi bilan bir xil ma’noga ega, degani emas. CHunki qadr–qimmat shaxsdan o’zining boshqa odamlarga nisbatan kamsitilmasligini, atrofdagilardan barcha insonning teng huquqliligi tamoyilini o’ziga nisbatan qo’llashlarini talab qiladi. Nomus esa o’z qadr–qimmatini bilishdan tashqari, har bir shaxsning jamiyatda alohida, o’ziga xos tarzda egallagan mavqei va shu mavqeni dog’ tushirmay saqlash–saqlamasligi bilan bog’liq. Bu mavqe esa, shubhasiz, o’sha shaxsning ijtimoiy hayotdagi o’rni, kasbi, yoshi va unga nisbatan beriladigan axloqiy daraja bilan muayyanlashadi. Masalan, uyingizda bir kun kelib oddiy ishlarni bajarib ketadigan mardikor bilan nomi ketgan mashhur binokor–ustaning, bosh vazir bilan kotibaning, bobo bilan nabiraning nomusni tushunishi bir xil emas. SHu ma’noda qadr–qimmatni nomus tushunchasining dastlabki bosqichi, ibtidosi deb aytish mumkin.

Gohida nomusni or tushunchasi bilan chalkashtirish hollari ham uchrab turadi. Lekin, aslida, nomusga nisbatan or ancha tor qamrovdagi, nisbatan zalvorsiz tushuncha. CHunonchi, oriyatli odam deganda, o’z so’zining ustidan chiqadigan, sadaqa tarzida qilingan muruvvatlardan baland turadigan shaxs tushuniladi. Beor odam – o’z sha’niga aytilgan gaplarga parvo qilmay, ishini bajarib ketaveradigan, aytilgan–aytilmagan joylarga suqilib kiraveradigan surbetnamo kishi. Nomusning esa toshi og’ir – ijtimoiylik xususiyatiga ega, keng qamrovli. Nomus yo’lida inson hatto o’z hayotidan kechishi mumkin, odamlar o’z nomusi, oila nomusi, millat nomusi deb kurashadilar. Bu haqda ko’plab badiiy asarlar, pand–o’gitlar yaratilgan.

Mehnat, sport singari sohalarda jamoa nomusi ham alohida ahamiyatga ega; unda nomus obro' tushunchasi bilan bog'lanib ketadi. Bularning hammasi o'zini hurmat qilish, o'ziga nisbatan atrofdagilarning hurmat–izzatini yo'qotmaslik uchun o'z–o'zini nazorat qilish hissidan kelib chiqadi.

Qadr–qimmat. Qadr–qimmat tushunchasi inson o'z qadrini, bu dunyoda uning hayoti oliy qadriyat ekanligini, o'z shaxsi oldida o'zi ma'sul ekanligini anglashi uchun xizmat qiladigan hissiyot. U nomus, g'urur tushunchalari bilan bog'liq, bir tomondan insonning o'z qadrini har qanday holatda ham yerga urmasligini taqozo etadi. Masalan, iste'dodli, vijdonli, ziyoli odam biror bir shaxsiy ishini hal qilishi uchun nokas boyvachchaga yoki to'pos rahbarga yalinsa, garchand o'z maqsadiga yetsa ham, bu o'zi tomonidan o'z qadrini yerga urishdir. Pirovard natijada o'zini kamsitilgan his qiladi, bundan afsus bilan yashaydi.

Qadr–qimmatning yana bir jixati – insonning boshqalar yoki jamiyat tomonidan kamsitilishi bilan bog'liq. Bunda kishining hayotida egallagan haqiqiy o'rinni atayin tan olmaslik, boshqa birov, guruh yoki jamiyat tomonidan ko'ra–bila turib, uni chetga surib qo'yish va shu orqali uni iztirobga solish kabi usullarni qo'llaniladi. Bunday usullar ma'naviy saviyasi past odamlar orqali, qonunlari ishlamaydigan totalitar va avtoritar boshqaruv hukmronlik qilgan jamiyatda ro'y beradi. Bunga misol tarzida Abdulla Qodiriy, CHo'lpon kabi buyuk siymolarning qamashga, otishga hukm etilishini yoki iste'dodli ziyolilarga atayn unvonlar bermaslik, iloji boricha ular nomini xalqqa yetkazmaslikka harakat qilish hollarini keltirishimiz mumkin. Faqat bugina emas, sho'rolar tuzumida «sovet xalqi» deb atalgan millionlab fuqarolarning qadr–qimmati oyoqosti qilindi: ular ochlikka, surgunlarga, konsentratsion lagerlar azoblariga mahkum etildilar, qiynoqlarga solindilar. Bularning hammasi faqat iqtisodiy qiyinchiliklar oqibati emas, balki mustabid tuzum tomonidan inson g'ururini oyoqosti qilib, uni qo'rqoq, bo'ysunuvchi jonzotga aylantirish uchun olib borilgan mash'um siyosat edi. CHunki g'ururini yo'qotgan kishida qadr–qimmat hissi o'ladi, u haqiqat, adolat va insoniy huquqlar tantanasi uchun kurashdan o'zini olib qochadi. Zotan, qadr–qimmat insoniy g'ururning jamiyatdagi ijtimoiy–axloqiy munosabatlarda in'ikos etish shaklidir.

Lekin g'urur me'yorida bo'lishi kerak, ya'ni kishining asl qadr–qimmatiga mos kelishi lozim. G'ururdagi me'yorning buzilishi kishini kibrga olib keladi: u o'zining va boshqalarning qadr–qimmati to'g'risida noto'g'ri tasavvurga ega bo'lgani uchun kibrlanadi, manmanlikka beriladi. Kibrli kishi o'zini zo'r deb biladi. Bu shunchaki ro'y bermaydi. Aslida u o'z qadr–qimmatining boshqalarnikidan past ekanligi tufayli uni sun'iy ko'tarishga harakat qiladi, ma'naviy bo'shliqni boshqalarga past nazar bilan qarash orqali to'ldirishga intiladi, bu yo'lda yolg'on va maqtanchoqlikdan toymaydi. Pirovard natijada u atrofdagilardan ajralib qoladi, o'zgalarning nafratiga sozovor bo'ladi, asl o'zligini topolmagan axloqsiz kimsaga aylanadi. SHu bois doimo insonning «o'z o'rnini» – qadr–qimmatini real bilishi, o'zgalargagina emas, birinchi navbatda o'ziga baho bera olishi muhimdir. Xullas, qadr–qimmat – insonning o'zi, o'zgalar va jamiyat tomonidan oliy qadriyat sifatida e'tirof etilishi, uning ma'naviy huquqlarining tan olinishidir.

Biz yuqorida ko'rib o'tganlarimiz – asosiy mezoniy tushunchalarning barchasi baholash tabiatiga ega. Yana qator muhim axloqiy tushunchalar borki, ular o'z yechimini talab qilishi bilan, ya'ni muammolik xususiyati bilan ajralib turadi. Ideal, baxt, hayotning ma'nosi singari tushunchalar shular jumlasidandir.

Biz yuqorida ko'rib o'tganlarimiz – asosiy mezoniy tushunchalarning barchasi baholash tabiatiga ega. Yana qator muhim axloqiy tushunchalar borki, ular o'z yechimini talab qilishi bilan, ya'ni muammolik xususiyati bilan ajralib turadi. Ideal, baxt, hayotning ma'nosi singari tushunchalar shular jumlasidandir.

Ideal. Bir qaraganda, idealda ham baholash xususiyati mavjuddek tuyuladi. Lekin aslida u qiyoslashga asoslanadi. Antiqa tomoni shundaki, idealda nomavjud, xayoldagi insonga voqelikdagi real, mavjud inson, hayotdagi hodisalar qiyoslanadi, ya'ni bor narsa yo'q narsa bilan o'lchanadi. Zero, ideal hayotda mavjud bo'lishi mumkin emas – bu hammaga ayon gap. Buning ustiga, ideal, yirik ma'noda, hozirgi zamonda ham, kelajakda ham bo'lmaydi, uning mavjudlik sharti – o'tgan zamon. SHunday qilib, idealga intilish shaxsning o'z zamonasidagi odatiy sharoitga sig'maslik, uni tezroq kengaytirish uchun qilingan xatti–harakatidir. Bu xatti–harakat uchun namunani inson, hozirgina aytganimizdek, kelajakdan topolmaydi, chunki namuna tarixiylikni, tajribaviylikni talab etadi; axloqiy idealga aylangan shaxs tarixiy tajribadagina mavjud bo'ladi va muayyan zamonga kelib, u ma'lum ma'noda mubolag'aviy hamda afsonaviy ta'rif–tavsif bilan boyitiladi, ya'ni ideallashtiriladi. Bunga ideal odil podsho No'shiravon, odil yoki ideal sahovat egasi, jo'mard inson Hotam Taiy Yamaniy siymolari yorqin misol bo'la oladi.

Inson ideal sari intiladi, o'z hayotini unga qiyoslaydi, unga taqlid qiladi. U inson hayotidagi eng oliy axloqiy talabki, uning bajarilishi shaxsni komillikka yetkazadi. Albatta, hayotda bunga to'la erishib bo'lmaydi, lekin inson ana shu komillikni o'ziga namuna bilib, idealga intilib yashashi jarayonida nisbiy–hayotiy komillikni qo'lga kiritadi.

Dunyoviy ideal bilan, aniqrog'i, ijtimoiy–axloqiy ideal bilan diniy ideal, bir qaraganda, o'xshashdek ko'rinsa–da, aslida keskin farq qiladi. CHunonchi, musulmonlar uchun – Muhammad alayhissalom, nasroniylar uchun – hazrati Iso, yahudo dinidagilar uchun – hazrati Muso ideal hisoblanadi. Ular ideal sifatida hech qachon o'zgarmaydi, boqiy. Ijtimoiy–axloqiy ideallar esa o'zgarishi mumkin va ko'p hollarda o'zgarib turadi. Masalan, sho'rolar davrida o'sha tuzum asoschisi Lenin – eng yuksak axloqiy ideal sifatida talqin etilardi va ko'pchilik tomonidan shunday qabul qilinardi. Hozir esa «Kuch – adolatda!» degan shiorni hayotining ma'nosi deb bilgan buyuk ajdodimiz Amir Temur ko'pchilik tomonidan ijtimoiy–axloqiy ideal, adolatli davlat rahbarining namunaviy timsoli tarzida qabul qilinadi. Demak, muayyan tuzum talablaridan va jamiyat ravnaqidan kelib chiqqan holda, ijtimoiy–axloqiy ideallar o'zgarishi mumkin.

Biroq har bir tuzumning umri umumiy tarixiy jarayonda nisbatan qisqa vaqtni o'z ichiga oladi. Yolg'on, ko'zbo'yamachilik va zo'ravonlikka asoslangan tuzum esa uzoq muddat yashay olmaydi. CHunki zimdan

axloqiylikni inkor etgan siyosatning bir kunmas bir kun albatta asl basharasi ochiladi. SHu bois faoliyati niqoblangan axloqsizlikdan iborat bo'lgan Lenin, Stalin, Hitler kabi ijtimoiy ideallarning umri uzoq bo'lmadi – aldangan ko'pchilik qisqa vaqt mobaynidagina ularni ideal deb bildi.

Bunday salbiy hodisalarga qaramay, ideal, umuman, jamiyatda, shaxs hayotida ijobiy hodisa. U insoniyat tarixida yorug' mayoq vazifasini o'tab kelmoqda, bundan keyin ham uning asosiy vazifasi shunday bo'lib qolajak. CHunki idealda har bir inson o'z baxtining hissiyotli ifodasini ko'radi, hayotining ma'nosini unga qarab intilishda deb biladi.

H**ayotning ma'nosi.** Mashhur alloma Majididdin Xavofiy, yashash uchun ovqatlanurlar, ovqatlanish uchun yashamaslar, degan hikmatni ko'p takrorlar ekan. Xo'sh, aslida inson nima uchun yashaydi? Yashashdan maqsad nima? Inson hayotining ma'nosi nimada?

Har bir inson o'z umri mobaynida ana shu savollarga javob topishga urinadi va hayotining ma'nosini o'ziga xos tarzda tushunadi. SHu bois hayotning ma'nosi axloqshunoslikning ancha murakkab tushunchalaridan hisoblanadi.

Avvalo shuni aytish joizki, hayotning ma'nosini yashashdan maqsad degan tushuncha bilan qorishtirib yuborish hollari ko'p uchraydi. Vaholanki, ularni aynanlashtirish mumkin emas, chunki hayotning ma'nosi maqsadga nisbatan juda qamrovli tushuncha, o'z ichiga o'nlab, balki yuzlab maqsadlarni oladi, aniqrog'i, u muayyan maqsadlar tizimidan tashkil topadi. SHu bois kimningdir biror–bir ezgu maqsadi amalga oshmay qolsa, uning hayotini «ma'nosiz» deb bo'lmaydi.

Ba'zan hayot «ma'nosiz» kechishi ham mumkin. Bunda kishidagi maqsadlar o'tkinchi, mayda, yuksak orzu–intilishlardan yiroq, hayvoniy, tuban, hatto yovuz bo'lishi mumkin. Mazkur kishi – «hayot egasi»ning bunday tabiati jamiyat erishgan axloqiy daraja bilan baholanadi. Zero, kimdir o'z hayoti ma'nosini qanday yo'l bilan bo'lmasin boy–badavlat, to'kin–sochin yashashda deb tushunadi: harom–xarishning farqiga borib o'tirmaydi, birovning haqidan qo'rqmaydi yoki qanday vositalar bilan bo'lmasin, martabaga erishishni o'z oldiga hayotiy maqsad qilib qo'yadi, faqat «yulsam» deydi. Boshqa birov esa, qonunni buzmaydi, lekin o'zgalarga qayishishni xayoliga ham keltirmaydi, hech kim bilan ishi bo'lmaydi, faqat «o'z qobig'ida» yashashni afzal ko'radi.

Yana bir toifa odamlar borki, ular hayotining ma'nosini eng yuksak qadriyatlar bilan bog'laydilar va jamiyatda yuksak axloq egasi, go'zallik oshuftasi, e'tiqodi but kimsalar sifatida e'tibor qozonadilar. Ular oliy ideallarga intilib, fidoyilarcha umr kechiradilar. Hayotining ma'nosini o'zidan keyin qoldiradigan «ikkinchi umr»da ko'radilar. Har bir jamiyatning taraqqiy topishi yoki tanazzuli hayotning ma'nosini ana shu tarzda tushunuvchilarning ko'pligi yoki kamligi natijasida ro'y beradi, bir so'z bilan aytganda, bunday tom ma'noda «elim deb, yurtim deb yonib yashaydigan» odamlar yuksak axloqli, demokratik, erkin jamiyatning ustunlaridir.

Biz yuqorida ko'rib chiqqan toifalar ikki umumiy ijtimoiy–ma'naviy guruhning biriga, ta'bir joiz bo'lsa, shartli ravishda dunyoviy deb ataladigan qismiga mansub.

Ikkinchi guruhni esa e'tiqodiy–diniy deb nomlash mumkin. Bu guruh hayotning ma'nosini Xudoni topishda, Unga yetishishda deb biladi. Bunda goho cherkov yoki shariat aqidalari orqali emas, balki muhabbat vositasida ham Xudoga murojaat qiladilar. Masalan, buyuk rus mutafakkiri va yozuvchisi, pravoslav cherkovidan ronda qilingan Lev Tolstoy hayotning ma'nosini quyidagicha tushunadi: «Men faqat Xudoga ishongan onlarimdagina haqiqiy yashaganimni esladim... Xudoni tanish va yashash degani bir xil gap, Xudo hayot demakdir», – deb yozadi u o'zining mashhur «Iqrornoma» asarida.[125]

O'z hayotining ma'nosini Xudoga yetishish uchun harakatda deb bilgan Tolstoy ayni paytda bu harakatni dunyoviy muammolarning hal qilinishi bilan bog'laydi. Xuddi shunday holatni biz avval ham bir necha bor misol qilib keltirganimiz buyuk mutasavvif bobokalonimiz Alisher Navoiy shaxsida ham ko'rish mumkin. Gap shundaki, har ikki alloma o'zlari tanlagan tariqatlar orqali Xudoga yetishishga intiladilar, ulardagi Xudoga bo'lgan ilohiy ishq U yaratgan har bir jonzotga, har bir giyohga, eng avvalo, insonga muhabbat sifatida namoyon bo'ladi, ya'ni ular hayotida diniylik dunyoviylikni inkor etmaydi. SHu nuqtayi nazardan qaraganda, ba'zi ekstremistchi guruhlar mafkurachilarining «dinni dunyoviylikdan tozalash» haqidagi safsatalari ulardagi hokimiyatni qo'lga olishga intilishdan boshqa narsa emas, mohiyatan dinga aloqasi yo'q, xudbinlikning niqoblangan ko'rinishi, xolos. Zero, Alloh u dunyoda jannatiy bo'lish uchun o'z bandalariga bu dunyoda go'zal yashashni, chiroyli a'mollar qilishni buyuradi.

Ko'rib o'tganimizdan ma'lum bo'lyaptiki, hayotning ma'nosini tushunishda har ikki ijtimoiy–ma'naviy guruhda ham turli qarashlar mavjud. Lekin ular bir masalada yakdil: ular hayotning ma'nosi o'z manfaatlarini o'zgalar manfaati bilan bog'lab, oliy qadriyatlar va yuksak aqidalarni ichki shior qilib yashashdadir, degan axloqiy qoidaga binoan umr kechiradilar.

Baxt. Hayotning ma'nosi ideal bilan bog'liq bo'lgani kabi baxt atamasini ham hayotning ma'nosi tushunchasidan ajratib olingan holda tahlil etish mumkin emas. Zero, baxt inson o'z hayoti ma'nosini qay darajada tushungani va shu ma'nodan umri mobaynida qoniqish hosil qilib borishidan iboratdir. Har bir insonda qoniqish hissi undagi maqsadlarning takomilga yetganidagina ro'y beradi. Faqat bu takomilga yetish jarayoni bir umr davom etadi. SHu ma'noda buyuk ajdodimiz Abu Nasr Forobiy: «Baxt – har bir inson intiladigan maqsad, zotan u muayyan komillikdir», – deganida ko'p jihatdan haq edi.[126]

---

[125] *Толстой Л.Н.* Собрание сочинений в 22 т. Т. 16. М., ИХЛ, 1983. С. 151.

[126] *Аль – Фараби.* Социально-этические трактаты. Алма – Ата, «Наука», 1973. С. 3.

Faqat bu qoniqish ham davomiylik tabiatiga ega ekanini unutmaslik lozim, uni lazzat bilan aynanlashtirish to'g'ri emas. Lazzat oniylik xususiyatiga ega, o'zini faqat jarayondagina namoyon etadigan hodisa va u moddiy hayotdagi real, ammo o'tkinchi ehtiyojlardan kelib chiqadi. Masalan, gastronomik yoki shahvoniy lazzatni olib ko'raylik: deylik, siz kabobni xush ko'rasiz va lazzatlanib yeya boshlaysiz, lekin bir oz muddat o'tgach, to'yasiz, boshqa yegingiz kelmay qoladi; shahvoniy lazzat ham shunday. Baxt esa ma'naviy ehtiyoj bilan bog'liq, unda maqsadlarga birin–ketin erisha borish, qoniqish jarayoni, boya aytganimizdek, bir umr to'xtamaydi va doimo lazzat va zavqni o'z ichiga oladi.

Baxt garchand, orzu kabi idealning hissiy–ehtirosli shakli sifatida ko'zga tashlansa-da, aslida undan farqli o'laroq, shaxsning intilishini emas, shu intilishning ro'yobini anglatadi. Har bir intilishning ro'yobga chiqishi esa muayyan tayyorgarlikni va kurashni taqozo etadi. Buyuk shoirimiz G'afur G'ulomning:

Taqdirni qo'l bilan yaratur odam,
G'*oyibdan kelajak baxt bir afsona, –*
degan hikmatli satrlari shu jihatdan diqqatga sazovor.[127]

Baxt haqida gap ketganda, albatta, omad to'g'risida to'xtalib o'tish lozim. Omad ham lazzatga o'xshash oniylik tabiatiga ega. Lekin bu oniylikda lazzatdagidek takrorlanish xususiyati yo'q: odamga omad hayoti mobaynida kamdan–kam kulib boqadi. Omadning ana shu jihati haqida qrim–tatarlarning qadimgi asotiri bor. Unga ko'ra, Omad ma'buda ekan, kunlardan birida uning o'g'li Yerni tomosha qilaman deb osmondan tushibdi–yu, qaytib chiqmabdi. SHu–shu Omad Yerga tushib, hanuz bolasini qidirarmish. Ma'budaning yuzi yo'q, faqat qoq miyasi ustida bittagina ko'zi bor ekan. SHu bois u to'g'ri kelgan o'tkinchini tutib olib, o'g'limmikan deb, balandga ko'tarib, ko'ziga olib borib qararkan va o'g'li emasligiga ishonch hosil qilgach, osmonu falakdan pastga qaratib itqitib yuborarkan. Omad o'z qo'liga tushganlarning hammasiga shunday munosabatda bo'lar ekan.

Darhaqiqat, mazkur asotirda omadning o'tkinchilik mohiyati juda chiroyli va majoziy ochib berilgan; bir umr omadli odam yo'q, omad – tasodif, baxt – zaruriyat; omad – istisnoli, baxt – qonuniy hodisa. Omad – shaxsning bir zumlik holatini aks ettiradi, baxt esa inson nimaga erishmog'i lozim, degan savolga bir umr mobaynidagi amaliy javobdir.

Baxtni tushunish har bir davrda, ma'lum tarixiy sharoitda millat, shaxs va jamiyatning taraqqiyot darajasiga qarab, turlicha muayyanlashish xususiyatiga ega. Ya'ni, ideal kabi uning ham tabiati o'zgaruvchan. Axloqshunoslikda baxt mezoniy tushunchasini alohida o'rganadigan an'anaviy evdeymonchilik deb ataladigan yunoncha «eudaimonja» (baxt) so'zidan olingan yo'nalish mavjud.

O'lim va o'lmaslik. O'lim va o'lmaslik ahloqshunoslikdagi eng murakkab tushunchalar. Avvalo shuni aytish kerakki, o'lim shu paytgacha ahloqiy tushuncha sifatida «rasmiy» olib qaralmagan. Vaxolanki uni eng katta yovuzlik, eng ulkan baxtsizlik tarzida talqin etish odat tusiga kirgan. Mantiqan olib qaralganda, ezgulik va baxtning ziddi bo'lgan bu tushuncha axloqqa taaluqli, ya'ni illatdir. Zero o'lim oliy qadriyat bo'lmish inson hayotini kesib qo'yadi, uning ezguliklar, yaxshiliklar qilishga bo'lgan imkoniyatini yo'qqa chiqaradi. Masalan, Ibn Sino, juda bo'lmaganda, yana o'n yil yashaganida, 67 yoshga kirganida qanchadan–qancha ezgu ishlar qilgan, falsafa, tibbiyot va badiiy adabiyot sohasida ko'plab buyuk asarlar yaratgan bo'lur edi. O'lim uni, u orqali bizni ham ana shu ma'naviy ezguliklaridan mahrum qildi. Demak, o'lim, faqat biologik yoki tabiiy tushuncha emas, uning mohiyati ahloqiylik bilan chambaras bog'liq. To'g'ri, o'lim – haq. Lekin bu yerda o'limning turlari mavjudligini unutmaslik lozim.

O'limning birinchi turi, bu tabiiy, tashqi tabiat va inson ichki tabiati bilan bog'liq o'lim. U ikki xil bo'ladi: birinchisi – odatiy o'lim, u qarilik tufayli, inson a'zolarining hayotni davom ettirishga yaroqsizligi tufayli ro'y beradi. Ikkinchisi – halokat, u biror bir tabiiy ofat, yoki tasodiflar tufayli voqe bo'ladigan o'lim.

Ikkinchi turdagi o'lim – jamiyat bilan bog'liq, u ham ikki xil bo'ladi. Birinchisi – majburiy o'lim, u odatda jazo shaklida amalga oshiriladi. Ikkinchi xili – bu dunyodagi azob–uqubatlardan, ular hoh ruhiy, hoh jismoniy bo'lsin, qutilib, uyqu bilan mangu orom olish uchun ixtiyoriy tarzda amalga oshiriladigan o'lim, totli o'lim yoki evtanaziya deb ataladi. Ayni ana shu ikkinchi turdagi o'lim ahloq bilan bog'liq. CHunonchi ikkinchi turdagi o'limning birinchi xili – ulkan yovuzlik hisoblanadi. SHunga ko'ra, o'lim jazosi yovuzlikka qarshi yovuzlik ko'rsatishdir. Bu haqda keyinroq bafurja to'xtalamiz.

Ixtiyoriy o'lim, aytilganidek, ba'zan ruhiy iztiroblar orqali hayotda o'z o'rnini topa olmaganligi, o'zi uchun eng ulug' hisoblangan maqsadiga erisha bilmaganligi natijasida ro'y beradi. Bunday holat goho ommaviy tus olishi ham mumkin, o'tgan asr 80 yillarining ikkini yarmida sobiq totalitar rejim iskanjasidagi O'zbekistonda ayollar orasida o'zlarini yoqib yuborish xolatlari ko'plab yuz berdi. Yuzlab ayollar (asosan kolxozchilar) og'ir jismoniy mehnat, quvonchsiz shaxsiy hayot, reaksion urf–odatlar, turmushdagi yetishmovchiliklar tufayli hayotdan ko'z yumdilar. Ular ixtiyoriy o'limni qabul qildilar. Bunday o'lim aslida yashashni istamaslik emas, balki aksincha, SHopenenhauer aytganidek, yashash istagi tufayli yuz beradi, ya'ni o'zini o'ldirayotgan odam yashashni istaydi, faqat o'zi yashayotgan hayotdagi shart sharoitdan, jamiyat qoidalaridan norozi, hayotni emas, anna shu noinsoniy sharoitni tark etish maqsadda shunday qiladi, kimlargadir yoki jamiyatga achiqma–achchiq hayotdan ko'z yumadi.

Ixtiyoriy o'limning ikkinchisi ko'proq inson salomatligini yo'qotishi, kuchli jismoniy og'riqlardan xalos bo'lishga intilishi, yuqorida aytilganidek, o'limni mangu orom, totli abadiyat sifatida qabul qilishi bilan izohlanadi. Bunday o'lim ko'pincha tibbiyot odobi masalalari bilan bog'liq. Masalan, surunkali jismoniy og'riq natjasida, faqat

[127] *Гулом Ғ.* Танланган асарлар. Т., Ўздавнашр, 1953, 363-б.

kuchli narkotik dorilar bilan uyquga ketadigan og'ir ahvoldagi bemor, oxir–oqibat bir – ikki oydanmi, bir–ikki yildan keyinmi, baribir, o'limga maxkumligini his etgach, tibbiyot xodimidan o'zini dori dozasini kuchaytirish orqali o'ldirib qo'ya qolishni iltimos qiladi. Tibbiyot xodimi qanday qaror qabul qilishi kerak? Bemorni o'ldirish orqali og'ir azoblardan qutqarish axloqiylikka kiradimi yoki axloqsizlikkami? Bu muammolar hali uzil–kesil hal etilgan emas. Bundan tashqari. har ikki holatdagi o'limda o'z xohishi bilan o'limni barvaqt istagan, Xudo bergan umrni o'zi qisqartirishga ahd qilgan odam ahloqlimi yoki ahloqsizmi?

O'zini o'zi o'ldirish gunoh, lekin o'zini ham, oila a'zolarini ham qiynab yashash–chi? Ikkinchi xolatda u matonat, mardlik ko'rsatib, «o'ladigan kasalning o'lgani, bo'ladigan ishning bo'lgani ma'qul» degan maqolga amal qilgani ahloqiylikmi yoki ahloqsizlikmi? Bu savollarga birdan va bir tomonlama, qat'iy javob berish hozir ham mushkul, barcha davrlarda ham mushkul bo'lib kelgan.

O'lim borasidagi mulohazalarda yana bir muhim masalaga to'xtalamoq joiz. Xo'sh o'lim, odatda qabul qilingan tarzida, eng ulkan yovuzlikmi? Bunga dialektik yondashuv orqali javob berish lozim. O'lim og'ir yo'qotish. «Lekin o'z-o'zicha u tabiiy hodisa – yovuzlik emas... U uzoq davom etgan biologik evolyutsiya mobaynida foydali va zarur ahamiyatga ega bo'ldi»[128].

Darhaqiqat, o'lim va hayot, boshqacha aytganda, hayot va mamot bir – biri bilan uzviy dialektik bog'liq tabiiy hodisalardan. Bu dunyoda hayotsiz o'lim, o'limsiz hayotning bo'lishi mumkin emas. Buni Lametri obrazli qilib shunday izohlaydi: «Narsalar dunyosida, o'lim arifmetikadagi nolning o'zgasini boshqa narsa emas»[129] Faqat bevaqt, fojeaviy o'limni yovuzlik tarzida talqin etish mumkin. CHunki aynan shunday o'lim tufayli, yuqorida aytganimiz, insonni jamiyat va oila uchun qiladigan ezgu ishlar to'xtaydi.

Biz fojeaviy o'lim deganda ham ikki xil o'limni tushunishimiz lozim: birinchisi – tasodifiy, tabiiy yoki texnikaviy halokatlar tufayli ro'y beradigan o'lim. Unda tabiiylik mavjud, ikkinchisi – estetikadagi fojeaviylik tushunchasiga taaluqli o'lim, unda fojeaviylik qaxramonlikni vujudga keltiradi, o'lim – ijtimoiy hodisaga aylanadi. Boshqacharoq aytganda, Yangi g'oya uchun zamon bilan kurashib, o'zini fido qilgan shaxs qahramonlarcha halok bo'ladi, ya'ni erkinlik sub'ektda, zaruriyat ob'ektda beriladi va ob'ekt sub'ektning ustidan g'alaba qozonadi, lekin bundan buyog'iga, sub'ektning g'oyalari bilan yashaydi, bundan o'sha inson ijtimoiy – axloqiy ideal sifatida maqom topadi, jisman halok bo'ladi, lekin ruhan, ma'nan u uzoq zamonlar yashaydi yo abadiiy o'lmaslikka erishadi.

CHunki fojeaviy qahramon «o'z erkini yo'qotishi bilan aynan ana shu erkinlikning mavjudligini isbotlab, o'zining erkin ixtiyorini e'lon qilib, halok bo'ladi».[130]

Biz o'lmaslik deganida asosan ana shu holatni, ijtimoiy – ahloqiy ideal sifatidagi o'lmaslikni tushunamiz. Jisman o'lmaslik to'g'risidagi fikrlar esa tibbiyot muammosi bo'lib, unga erishishning imkoni yo'q, zero, keksayish, inson a'zolarining qarishi mavjud ekan, ular albatta o'limga olib boradi.

Ba'zi tadqiqotchilar, chunonchi, I. V. Vishev, inson kosmosga chiqmasdan oldin, kosmos haqida fikrlagan, ilmiy ishlar olib borgan edi, o'lmaslik haqida ham shunday fikr bildirsa bo'ladi, fan taraqqiyoti shunga olib kelish mumkin degan hayotbaxsh ruhdagi farazni ilgari suradi. Ayni paytda bu masalada «amaldagi o'lmaslik» tushunchasi bilan «o'lmaslik» tushunchasini qorishtirib yubormaslik muxim shart» ekanini ta'kidlab o'tadi.[131]. Demak, o'lmaslik mavjud va u ahloqiy tushuncha sifatida olib qaralishi lozim. SHu ma'noda axloqiy yuksak, fidoyi, ijtimoiy–axloqiy idealga aylangan insonlargina abadiylikka daxldordir.

SHunday qilib, biz axloqshunoslik mezoniy tushunchalarini imkon qadar ko'rib chiqdik. Ushbu nisbatan qisqacha tahlilning o'zi ham ularning axloqshunoslik sirlarini ochishda ilmiy kalit sifatida naqadar katta ahamiyatga ega ekanini ko'rsatib turibdi. Boshqacha qilib aytganda, mezoniy tushunchalar axloq nazariyasining asosini tashkil etuvchi mehvarlardir, barcha qolgan katta–kichik tushunchalar ular atrofida aylanib, axloq haqidagi ilmni vujudga keltiradi.

Axloqiy tamoyillar

Asosiy mezoniy tushunchalar – kategoriyalar singari axloqiy tamoyillar ham axloqiy anglash shakllaridan hisoblanadi. Ularda axloqiy talab nisbatan umumiy tarzda ko'zga tashlanadi. Ular jamiyat tomonidan shaxsga qo'yiladigan talab shaklida namoyon bo'lib, insonning axloqiy mohiyatini, uning hayoti mazmunini, odamlar bilan o'zaro aloqalaridagi asosiy jihatlarni belgilab beradi. Natijada tamoyillar, inson xatti–harakatining umumiy yo'nalishini ko'rsatgan holda, ko'pgina axloqiy me'yorlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Insonparvarlik. Axloqiy tamoyillarning eng qadimiy va eng muhimlaridan biri – insonparvarlik. U – insonning yuksak ijtimoiy vazifasini belgilaydigan va barqaror etadigan g'oyalar, qarashlar va e'tiqodlar majmui, shaxs erki, qadr–qimmati, uning baxtli bo'lish huquqini talab etish imkonining mavjudligiga yengilmas ishonch. Insonparvarlik tamoyilini dastlab Ovro'pa Uyg'onish mutafakkirlari ilgari surganlar, degan fikr mavjud. Aslida, insonparvarlik dastavval SHarqda o'rtaga tashlangan, insoniylik, insonparvarlik degan ma'noni bildiruvchi «namlulu» so'zi bundan 3–4 ming yillar avvalgi Qadimgi Somir giltaxtalarida uchraydi.

Umumjahoniy dinlarning hammasida ham insonparvarlik g'oyalari ustuvor hisoblanadi. CHunonchi, musulmon manoqiblarida turli variantlarda uchraydigan mashhur rivoyat bor. Rivoyat qilinishicha, Xudoga yetishgan odamning xonadoniga yemak so'rab bir majusiy kiradi. Mezbon, unga musulmon bo'lsang, qorningni to'ydiraman, bo'lmasa yo'q, deydi. Majusiy ko'nmay chiqib ketadi. SHunda Xudodan, nega unga taom bermading,

---

[128] *Ламонт К.* Иллюзия бессмертия - М., Политиздат, 1984. С. 276.

[129] *Ламетри Ж.О.* Сочинения . М., «Мысль», 1983. С. 371.

[130] *Шеллинг Ф.* Философия исскуства М., «Мысль», 1966. С. 403.

[131] *Вишев И.В.* Проблема личного бессмертия. Новосибирск, «Наука», Сибирское отделение, 1990. С. 217.

degan nido keladi. Mezbon, u kofirlikdan kechmagani uchun shunday qildim, deb javob beradi. SHunda Tangri mezbonga, kofir bo'lsa ham, axir mening bandam–ku, inson–ku, deb tezda uni qaytarib kelib, qornini to'ydirishni buyuradi.

Demak, insonparvarlikning ibtidosi Tangridan va har bir inson boshqalarga mehr–muhabbat, muruvvat bilan munosabat qilmog'i lozim. Zero, Hadisi sharifda «Odamlarga rahmli bo'lmagan kishiga Allohning ham rahmi kelmaydi», deyiladi. Ushbu hadis so'zlariga mos misolni nasroniylikda ham uchratish mumkin. Buyuk rus faylasuf yozuvchisi F.Dostoevskiyning «Aka–uka Karamazovlar» romanida «Bir bosh piyoz» degan bob bor. Unda roman qahramonlaridan biri Grushenka tilidan shunday rivoyat keltiriladi:

Qadimda bir johil kampir bo'lgan ekan, o'libdi–yu, o'lganidan so'ng undan biror–bir yaxshilik qolmabdi; shaytonlar uni olovli ko'lga irg'itishibdi. O'ng farishta o'ylab qolibdi: qani endi kampirning biror–bir fazilatini topsa–yu, Xudoga yetkazsa! SHunda kampirning tomorqadan bir bosh piyozni yulib olib, gadoy ayolga sadaqa qilganini eslabdi–da, uni Xudoga aytibdi. Xudo shunda farishtaga: bor, o'sha bir bosh ko'k piyozni olib, uzat, agar unga osilib ko'ldan chiqsa, kampir jannatga kirsin, mayli, agar piyoz uzilib ketsa, o'sha yerda qoladi, debdi. Farishta kampirga piyozni uzatibdi va kampir osilib chiqa boshlabdi, endi qutulib chiqay deganda, qarasa, boshqa gunohkorlar ham uning ketidan chumoliday osilib ko'ldan chiqib boryapti. Badfe'l kampir ularni tepib pastga tushirishga urinib: «Senlarni emas, meni tortib chiqaryapti, piyoz senlarniki emas, meniki», debdi. SHu gaplarni aytib bo'lar–bo'lmas piyoz uzilib ketibdi va kampir hozirgacha o'sha olovli ko'lda azob chekar emish.[132]

Misollardan ko'rinadiki, insonparvarlik – umuminsoniy qadriyatlar sirasiga kiradi. SHu sababli uni sho'rolar davrida sinfiylik nuqtayi nazaridan soxtalashtirish muvaffaqiyatsizlikka uchradi, proletar diktaturasi va totalitar sotsialistik tuzum hamda ular ijodkorlarining insonparvarligi haqidagi afsonalar juda qisqa umr ko'rdi. Sotsializm mafkurachilarining bu boradagi sa'y–harakatlari o'sha davrlardayoq noilmiyligi, yolg'onga sug'orilganligi bilan kishilarning g'ashini keltirgan edi. Bunday insonparvarlikni xalq qabul qilmaydi. CHunki u aynan o'ta mavhum «xalq» tushunchasiga qaratilgan, vaholanki, insonparvarlik markazida muayyan shaxs turmog'i lozim. Har bir shaxs insoniy huquqlarini ta'minlash uchun kurashish – mana, insonparvarlikning asosiy vazifasi. Bu borada umumbashariy ma'naviy qadriyatlarni ustuvor deb bilgan bizning davlatimiz ham mamlakat ichkarisida, ham dunyo miqyosida ko'zga ko'rinarli ishlar qilmoqda. Zero, biz qurayotgan erkin fuqarolik jamiyati nafaqat insonga mehr–muhabbat va izzat–hurmat ko'rsatishni asosiy tamoyil qilib olgan, balki shaxsning har tomonlama kamol topishi uchun zarur bo'lgan haqiqiy insoniy shart–sharoitlarni yaratishni ham o'z oldiga oliy maqsad qilib qo'ygan.

Erkparvarlik. Agar insonparvarlik tamoyili shaxsning barcha insoniy haq–huquqlari himoyasida tursa, ya'ni ancha keng qamrovli va umumiy intilish bo'lsa, erkparvarlik tamoyili uning ma'lum ma'noda muayyanlashgan bir qismi hisoblanadi. Erkparvarlik insonning eng oliy huquqi – erkin, ozod yashash huquqini himoya qilishi bilan muhimdir. Zero, erksiz inson – asir, erksiz millat – qul, erksiz mamlakat – mustamlaka. Erkparvarlik, avvalo, o'z millati, o'z Vatani erki uchun, qolaversa, boshqa millatlar va vatanlar erki uchun kurashni hayotining maqsadi qilib qo'ygan insonlar tamoyilidir.

Erkparvar inson qullikning, mutelikning har qanday ko'rinishini inkor etishi barobarida inson huquqlarining tom ma'nodagi jangchisiga ham aylanadi. Bu jangchi bir tomondan, har bir shaxsning so'z erkinligi, o'z fikrini erkin bayon qilishi, saylash huquqi, vijdon erkinligi uchun kurashadi, ikkinchi tomondan, butun–butun millatlar erki masalasini o'rtaga tashlar ekan, ma'lum ma'noda milliy ozodlik harakatlari uchun ham turtki beradi.

Odatda, erkparvar shaxslar muayyan davrning qahramonlariga aylanadilar. Zero, ular o'zgalar erki uchun o'z erkini, o'z hayotini qurbon qilishdan ham cho'chimaydilar. Buning yorqin misoli buyuk ingliz mumtoz shoiri Jorj Bayron siymosidir. U ingliz bo'laturib, o'z vatani Angliyada Irlandiya ozodligi, irlandlar erki uchun kurashdi: hayrat va nafratga uchradi, Vatanni tark etishga majbur bo'ldi. O'z yurtida erk uchun kurashish baxtidan mahrum bo'lgan shoir o'zga vatanlar erki uchun kurashga otlandi va Italiyani Avstriya istibdodidan ozod qilish harakatining rahbarlaridan biriga aylandi. Bu haqda u shunday deb yozgan edi:

Erk uchun Vatanda qilolmasang jang,
Sen qo'shni vatanlar erki deb kurash;
Tut Yunon, Rumoning tug'ini tarang,
Boshingni tika bil erk uchun sarkash!
*Ezgulik yo'lida bo'lsang qa*hramon,
Sen inson erki deb kurashsang azot,
Bir kuni, sirtmoqdan gar qolsang omon,
Jo'mard deb alqagay seni odamzod![133]

Italiyadagi ozodlik harakati mag'lubiyatga uchragach, Bayron Qadim Yunonistonni Turkiya zulmidan ozod qilish uchun kurashdi. U Yunonistonda, botqoqlik yonidagi Missolungi shahrida og'ir bezgakdan vafot etdi. Uning o'limi ham istibdodga qarshi shiorga aylandi. Benazir shoir, Yunonistonning ozod qilingan qismi general–gubernatori, erksevar qo'mondon va ulug' inson xotirasiga yunon xalqi yigirma bir kun qora kiyib, motam tutdi. Hamma cherkovlarda Bayron haqqiga ibodat qilindi.Darhaqiqat, erkparvarlik tamoyilini hayotining ma'nosi deb bilgan insonlarning ma'naviy umri boqiy, ular kelajak avlodlar uchun ideal bo'lib qoladilar.

Ayni paytda, bu tamoyil keng ijtimoiy–siyosiy ma'noda ham qo'llaniladi. Buni erkparvar davlatlar faoliyatida ko'rish mumkin. SHuni ham aytish kerakki, erkparvarlik tamoyilidan bir oz bo'lsa–da, o'z manfaatlari yo'lida

---

[132] *Достоевский Ф.М.* Собрание сочинений в 15 т. Т. 9, ч. I – III. А., «Наука», 1991. С. 394.
[133] *Byron.* Selections. M., «Progress publishers», 1979. P. 242.

foydalanishga, shu orqali siyosiy obro' olishga intilish hollari, afsuski, uchrab turadi. Ba'zi davlatlar tomonidan o'zga mamlakatlar ichki ishlariga aralashish uchun erkparvarlikni niqob qilib ish ko'rishga urinishlar ham yo'q emas. Biroq, bunday siyosiy qallobliklar jahon jamoatchiligi tomonidan darhol ilg'ab olinadi va fosh etiladi. Zero, erkparvarlik eng avvalo shaffoflik darajasidagi poklikni, halollikni talab qiladi, ozginagina dog'ni ham ko'tara olmaydi.

Vatanparvarlik. Eng ma'lum va mashhur tamoyil, bu – vatanparvarlik. U insonning o'z Vataniga muhabbatini, uni asrab–avaylashga bo'lgan ishtiyoqini anglatuvchi axloqiy tushuncha. Uni ko'pincha Vatan dushmanlariga qarshi ma'naviy–mafkuraviy qurol sifatidagina talqin etadilar. Aslida esa bu tamoyilning qamrovi ancha keng – u insonparvarlikning nisbatan muayyanlashgan shakli. U, eng avvalo, o'z vatandoshlari erkini asrash uchun kurash, inson ozodligi yo'lidagi xatti–harakatlardir. Vatan himoyasi, bu – inson himoyasi, millat himoyasi. Lekin bu himoya, yuqorida aytganimizdek, faqat jang maydonida emas, balki barcha sohalarda ham namoyon bo'lishi mumkin. Har jabhada Vatan erishgan muvaffaqiyatlardan quvonch, muvaffaqiyatsizliklardan qayg'u hissini tuyush, Vatan bilan g'ururlanish, uning har bir qarich yeriga, binosining har bir g'ishtiga, qadimiy obidalariga, ilm–fan va san'atdagi yutuqlariga mehr bilan qarash, ularni ko'z qorachig'idek asrab–avaylash bular hammasi vatanparvarlikdir.

Vatanparvarlik tamoyili Vatan tushunchasini fidoyilarcha idrok etish, muayyan hudud va xalqqa muhabbat hissi singari omillar bilan bog'liq. Zotan, ma'lum bir mamlakat fuqarosi o'sha mamlakatdagi asosiy etnik guruh vakili bo'lmasligi ham mumkin. Turli shart–sharoit taqozosi bilan boshqa bir hududga, mamlakatga kelib, qolib ketgan fuqarolar, o'z tarixiy vatanidan olisda tug'ilganlar kam emas. Ularning ko'pchiligida «tarixiy Vatan» tushunchasi xayoliy bir qo'msash, shirin g'ussa, o'tkinchi intilish tarzida ifoda topadi. Aslida esa bu – mazkur Vatanga muhabbat emas, balki o'z ajdodlariga, olis xotiraga hurmatdan, ekzotik hissiyotlardan kelib chiqadi; haqiqiy muhabbat esa, sharoit har ikki Vatandan birini tanlashni taqozo etganda, hozir yashab turgan Vatani va vatandoshlariga nisbatangina mavjud ekani aniq–ravshan ayon bo'ladi.

Mazkur holatni ajoyib gurji yozuvchisi Nodar Dumbadze o'zining «Hellados» hikoyasida g'oyatda jonli tasvirlab bergan: Suxumining Venetsian ko'chasida Yanguli ismli yunon bola otasi bilan birga yashaydi. Uning chap ko'ksida «Hellados» (Ellada) degan sanchma yozuv bor, u bu bilan faxrlanib yuradi. Lekin, vaqt kelib, yunonlarga tarixiy vatanlariga qaytishga ruxsat berilganida, Yanguli ketishni istamaydi. Otasi qattiq kaltaklab, majbur qiladi. Do'sti Jamol undan nega otang bilan birga ketmoqchimassan, deb so'raganida Yanguli shunday javob beradi:

«Qandoq tushuntirsamikin... – deya gap boshladi u nihoyat. – Onam yo'q, hatto eslolmayman ham. Otam uzzukun tomorqada yoki tirikchilik tashvishida... Men ko'chada, Venetsian ko'chasida katta bo'ldim... Mening Vatanim, mening Elladam bu – Suxumi, ko'cha, CHalbash...

– Bu nima bo'lmasa? – Men Yangulining ko'kragini ochib baland ovozda o'qidim: Hellados.

– Bu – naqsh, Jamol. Vatan – ichkariroqda, naqd yurakning o'zida! – Yanguli qo'lini ko'ksiga qo'ydi.

O'pkam to'lib, tomog'imga achchiq bir narsa qadaldi, unga yana bir nimalar demoqchi edim–u, ammo Yanguli eshagini no'xtasidan yetaklab, hovlidan chiqib ketdi».

Otasi zo'rlab, kaltaklab kemada olib ketishiga qaramay, Yanguli o'z asl Vatanidan ketishni istamaydi, o'zini dengizga tashlab, Vatani bag'rida halok bo'ladi. Buni yozuvchi shunday tasvirlaydi:

«Oradan bir kun o'tib, Kelasuri daryosining quyilish joyida dengiz to'lqinlari bir bolaning jasadini sohilga chiqarib tashlabdi. To'g'rirog'i, uni keksa baliqchilar suvdan tortib olib, qumga yotqizishibdi. So'ng murdaning kimligini aniqlash uchun shu atrofda o'ynab yurgan bolalarni chaqirishibdi. Marhumning basharasi shu qadar dabdala bo'lib ketgan ekanki, uni hech kim tanimabdi. Uni men tanidim. CHap to'shining ustidagi «Hellados» degan sehrli yozuvni ko'rgandan keyin tanidim. Nafasimni ichimga yutgancha sohildan, so'ng temir yo'l bo'ylab, keyin Venetsian ko'chasidan to'xtovsiz yugurib, telbalarcha uyga otilib kirdim.

– Ha, nima bo'ldi?!! – Xolamning kapalagi uchib ketdi.

– Nina xola... Yanguli qaytib keldi...

So'ng xolamning oldida cho'kkalab, oyoqlarini quchoqlab yig'lab yubordim...»[134].

Demak, vatanparvarlik tamoyili xayoliy tuyg'uga emas, balki muayyan zamonga, muayyan vatandosh–insonlarga bo'lgan muhabbatga asoslangan axloqiy xatti–harakatlar jamuljamidir. SHu jihatdan qaraganda, mamlakatimizdagi barcha millatlar tengligini e'tirof etuvchi, millatidan qat'i nazar, hammamiz bir Vatan farzandlari ekanimizni ta'kidlovchi Konstitutsiyamizning ana shunday demokratik tamoyillarga asoslanishi, yuksak axloqiy zaminga egaligi e'tibor va e'zozga loyiqdir.

Hozirgi paytda yoshlarimizda vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash, ularni Vatan ma'nosini teran anglab yetishga o'rgatish, vatanparvarlik – yuksak axloqiy tamoyil ekanini tushuntirish axloqshunoslikning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Millatparvarlik. Yana bir muhim axloqiy tamoyil, bu –millatparvarlik. U, ma'lum ma'noda, vatanparvarlik tamoyilining yanada muayyanlashgan shakli. Zero, millatni sevish keng ma'noda Vatanni sevish degani. Vatansiz millatning bo'lishi yoki rasmana erkin va baxtli yashashi mumkin emas.SHu o'rinda millatparvarlikni millatchilik bilan qorishtirib yubormaslik to'g'risida qisqacha to'xtalib o'tmoq lozim. Millatchilik o'z millatini ajratib olib, unga buyuklik maqomini berishga intilish bo'lsa, millatparvarlik, boshqalarni kamsitmagan holda, o'z millati ravnaqi uchun kurashish, bu yo'lda, lozim bo'lsa, o'z hayotini ham fido qilish demakdir. U insonparvarlik bilan ham

---

[134] *Думбадзе Н.* Hellados. Низом Комил таржимаси. «Тафаккур» журнали, 1995, 3 – 4-сонлар.

chambarchas bog'liq. CHunki o'z millatini chin dildan sevmagan odam hech qachon boshqa millatlarni seva olmaydi.

Asl millatparvar – milliy o'zligini anglab yetgan inson. U o'z millati bilan faxrlanadi, o'z millati bilan butun jahonning faxrlanishini istaydi. CHunonchi, Navoiy do'ppi bilan to'n kiygan o'zbekni har qanday shoh jamolidan afzal ko'radi:

SHohu toju xil'atekim, men tomosho qilg'ali
O'zbakim boshida qalpoq, egnida shirdog'i bas.[135]

Lekin Navoiy shu faxrlanishi, g'ururlanishi barobarida o'zgalarga kibr bilan qaragan emas, aksincha, o'zga til vakili bo'lmish Jomiyga bag'oyat hurmat–izzat ko'rsatib, unga, pirim, deb qo'l bergan.

Millatparvarlik tamoyili asosida milliy g'oya yotadi, u millatni sevish amaliyotining – millatparvarlikning ilmiy–nazariy asosi sifatida maydonga chiqadi. Milliy g'oyaning zamonaviy, biz tanlagan ko'rinishini, uning mafkuraviy jihatlarini Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov shunday ta'riflaydi: «Milliy mafkuramiz har qanday millatchilik va shunga o'xshash unsurlardan, boshqa elat va xalqlarni mensimaslik, ularni kamsitish kayfiyati va qarashlaridan mutlaqo xoli bo'lib, qo'shni davlat va xalqlar, umuman, jahon hamjamiyatida, xalqaro maydonda o'zimizga munosib hurmat va izzat qozonishda poydevor va rahnamo bo'lishi darkor».[136]

Uning ikkinchi jihati esa mana bunday talqin etiladi: «Milliy g'oya birinchi navbatda yosh avlodimizni vatanparvarlik, el–yurtga sadoqat yo'lida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek olijanob ishlarimizda madadkor bo'lishi zarur».[137]

Asl millatparvar ana shunday bo'lishi kerak. Asl millatparvar insonlarning umri millatning umri kabi mangudir. Millat yo'lida o'z jonini tikkan Munavvar qori, Behbudiy, Fitrat, Abdulla Qodiriy, CHo'lpon singari minglab fidoyilarni xalqimiz hech qachon unutmaydi.

Fidoyilik. Ma'lumki, inson muayyan mamlakat va jamiyatdagi qoidalarni, huquqiy me'yorlarni buzmay yashashi mumkin. Rasmiy–huquqiy idoralar va tuzilmalar tomonidan bunday odam rosmana, jamiyat uchun xavf tug'dirmaydigan shaxs hisoblanadi. Lekin bunday odam axloqsiz bo'lishi, huquq bilan hisoblashgan holda axloqni tan olmasligi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, u o'z mamlakatidagi jinoyat kodeksini e'tirof etishi barobarida, qalbidagi vijdon qonunlari bilan hisoblashmaydi, jinoiy jazodan qo'rqadi–yu, vijdon azobini bilmaydi.

SHu fikrlarni endi misolda ko'raylik. Deylik, kuz kunlaridan birida O'rdadagi Anhor bo'ylab shoshib ketayotgan odam suvga cho'kayotgan, yordamga muhtoj kishini ko'rdi. Lekin darhol o'zini suvga otib, uni qutqarmadi. CHunki birinchidan, cho'kayotgan u emas, ikkinchidan, egnidagi kostyum–shim suvga tushsa rasvo bo'ladi, uchinchidan, uning vaqti yo'q, foydali bir ish yuzasidan uchrashuvga ketyapti, to'rtinchidan, suv sovuq, shamollab qolishi mumkin, beshinchidan, axir, bu odamning cho'kishiga u sababchi emas–ku! SHunday qilib, bir odam cho'kib ketdi, ikkinchi bir odam, buni ko'ra–bila turib, o'z yo'lida davom etaverdi. Buning uchun uni qamamaydilar ham, jarimaga tutmaydilar ham, u haqda faqat, qanday beshafqat, vijdonsiz odam ekan, deb fikr bildiriladi, xolos.

Endi boshqa bir o'tkinchini tasavvur qiling: u shu zahoti o'zini suvga otib, cho'kayotgan odamni qutqardi, dastlabki yordamni ko'rsatdi va taksiga xarajat qilib, uyiga qaytdi: kiyim–bosh shalabbo, kattagina foydadan qoldi, besh–olti kun shamollab, dori–darmonga ham mablag' sarfladi. Lekin u bunga achinmaydi. Voqeani eslaganida afsuslanmaydi, balki o'z xatti–harakatidan qoniqish tuyib, jilmayib qo'yadi, hatto bu xotirlash unga ruh beradi.

Bu hodisada biz ikki xil tamoyil bilan harakat qilgan ikki kishini ko'rib turibmiz: birinchisi – xudbin, ikkinchisi – fidoyi inson. Garchand, qonun birinchi kishini xudbinligi uchun jazolamagani barobarida ikkinchi kishiga fidoyiligi uchun alohida imtiyoz bermasa–da, jamiyat, mahalla–ko'y, odamlar ularga ikki xil munosabatda bo'ladilar: xudbinlikdan ijirg'anib, nafratlanadilar, fidoyilikdan hayratlanib, minnatdorchilik bildiradilar.

Demak, fidoyi insonga boshqalar tomonidan bu qadar izzat–hurmat ko'rsatilishiga sabab shuki, u istisnoli holatlarda o'zining odatiy–kundalik hayotiy majburiyatlarini va munosabatlari darajasini ixtiyoriy ravishda oshira olish qudratiga ega bo'ladi. Fidoyi inson boshqalar manfaati yo'lida o'z qonuniy manfaatlarini, ba'zan esa hatto hayotini qurbon qilishga tayyor turadi va zarurat tug'ilganda qurbon qiladi ham; jamiyat uchun umumiy bo'lgan oliy maqsad va ideallarni deb o'zidan kechadi. Bunga Ikkinchi jahon urushi qahramoni mard o'zbek yigiti To'ychi Eryigitovning fidoyiligi yorqin misol bo'la oladi. U dushman pulemyotiga ko'ksini qalqon qilishi bilan o'nlab, balki yuzlab o'ziga o'xshash odamlar hayotini saqlab qoldi; bu odamlar esa o'z navbatida jahonda fashizm g'alabasining xavfini kamaytira borib, oxir–oqibat yo'qqa chiqardilar; ularning zurriyotlari esa hozir ham dunyoning Yangilanishi, o'zgarishi uchun, oliy maqsadlar uchun xizmat qilmoqdalar. To'ychi Eryigitovning nomi biz bilan birga, hech qachon xalq yodidan chiqmaydi.

SHuni ham aytish kerakki, fidoyilik tamoyilining mazmuni turli tarixiy davr va ijtimoiy jarayonlarda turlicha muayyanlashadi; u ma'lum bir davrlarda ommaviylashishi yoki kamayishi mumkin. CHunonchi, mustaqillikka erishganimizdan so'ng dastlabki paytlarda o'tish davriga xos bo'lgan – fidoyilikka nisbatan xudbinlik tamoyilining kuchayganini ko'rdik. Hozirga kelib esa, aksincha, asta–sekinlik bilan jamiyatimizda fidoyilik ustuvor tamoyil maqomini egallab bormoqda; Prezident Islom Karimovning fidoyilik tamoyili mohiyatini to'la anglatadigan «Elim deb, yurtim deb yonib yashash kerak!» degan so'zlarini axloqiy shior qilib olgan jamiyatimiz a'zolarining ilg'or

---

[135] *Навоий*. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик, 13–т. Т., «Фан», 1988, 201-б.
[136] Баркамол авлод орзуси. Т., «Шарқ», 1999, 38-б.
[137] Баркамол авлод орзуси. Т., «Шарқ», 1999, 38-б.

qismi tobora ko’payib bormoqda. Ana shu ko’payib borish jarayoni qancha tezlashsa, biz qurayotgan davlatning shakli–shamoyili shuncha muayyanlik kasb etadi.

Ziyolilik. Ziyolilik tamoyili hozir biz anglaydigan tushuncha ma’nosida nisbatan uzoq tarixga ega emas. U jadidchilik harakati bilan birga yuzaga keldi desak, xato qilmagan bo’lamiz. Lekin bu tamoyilning inson faoliyatidagi dastlabki unsurlari O’rta asrlar va undan keyingi davrlardagi ma’rifatparvarlar hayotida shakllanganini e’tirof etmoq lozim. Ya’ni, u insoniyat jamiyatidagi madaniy va intellektual – aqliy taraqqiyot bilan bog’liq. SHu bois uni inson paydo bo’lganidan ancha keyin vujudga kelgan axloqiy hodisa deb talqin etish maqsadga muvofiq. XX asr allomalaridan biri, buyuk olmon faylasufi, «Frankfurt maktabi»ning namoyandasi Teodor Adorno Ikkinchi jahon urushidagi genotsiddan so’ng, ziyolilik – axloqiy kategoriya, degan fikrga kelganida mutlaqo haq edi.

SHuni alohida ta’kidlash joizki, ziyolilik axloqiy tushuncha – tamoyil sifatida murakkab va ko’pyoqlamalik tabiatiga ega. Ba’zilar ziyolilik deganda oliy ma’lumotli kishiga xos bo’lgan fazilatni tushunadilar. Vaholanki, ziyolilik tamoyili tabaqa yoki guruhga mansublik ma’nolarini anglatmaydi. Oddiy fermer – dehqon ham, haydovchi ham, farrosh ham ziyolilik tamoyili bilan ish ko’rishi va atrofdagilar tomonidan: «Ha, falonchimi, juda ajoyib, ziyoli odam–da», degan yuksak ijtimoiy bahoga loyiq bo’lishlari mumkin. Bunda u odamning kasbidan qat’i nazar, ham bilim, ham fahm–farosat, ham oliy maqsadlar egasi ekani tushuniladi. SHunday qilib, ziyolilik asosida insonning ma’naviy–ma’rifiy yuksakligi, qalbidagi ichki nur, atrofni ham nurlantira oladigan ziyosi bilan belgilanadigan xatti–harakatlar yotadi.

Ziyolilik tamoyiliga hukmron–ma’muriy doiralar va xalq tomonidan o’ziga xos munosabatlar mavjud. CHunonchi, birinchi toifadagilar ko’p hollarda ziyolilikka umumiy tarzda ijobiy munosabatda bo’ladilar, lekin masala muayyan ziyoli shaxslarga borib taqalganda, manfaatlar to’qnashuvi ro’y beradi: ziyolilar hukmronlar toifasini ziyolilik tamoyili asosida yashashi va ish yuritishini talab qiladi, bu esa ularga, tabiiyki, yoqmaydi, buni hokimiyat ishlariga aralashish deb ijirg’anadilar, turli bahonalar topib, zimdan ziyolilarga qarshi kurashadilar. Bunga Lev Tolstoydek buyuk, pokiza insonning cherkov tomonidan la’natlanishi yoki norasmiy Turkiston Ligasining rahbari, istiqlol fidoyisi, mard sarkarda, haqiqiy ziyoli, chor armiyasi general–mayori Jo’rabek Qalandarqori o’g’liga suiqasd uyushtirilishi – Qorasuvdagi o’z yozgi bog’ida sirli ravishda o’ldirilishi hodisalari yaqqol misol bo’la oladi. Mustamlakachilikka va totalitar tuzumlarga asoslangan mamlakatlarda ziyolilik tamoyiliga sodiq kishilar to’g’ridan–to’g’ri, ochiq qatag’on qilinadilar. Bunga misol qilib, Fitrat, Qodiriy, CHo’lpon kabi jadidlarni va Stalin–Hitler konslagerlarida halok bo’lgan minglab ziyolilarni keltirish mumkin.

Ziyolilik tamoyiliga oddiy fuqarolarning munosabatida esa ikki xil yondashuv ko’zga tashlanadi. Ularning faol va ilg’or qismi, millatning o’zagini tashkil etadigan ko’pchilik odamlar ziyolilarga havas bilan qaraydilar, ziyolilarning xatti–harakatlarini nafaqat ma’qullaydilar, balki o’z farzandlari va yaqinlariga namuna qilib ko’rsatadilar. Ammo oddiy aholilik majburiyatidan boshqa narsani bilmaydigan, tarixdan «omma» deb atalib kelinadigan ijtimoiy qatlam kishilari, ularning ma’lumotlari oliy yoki o’rtaligidan qat’i nazar, ziyolilarga istehzo bilan, «hokimiyat bilan o’ynashgan esi pastlar» deb qaraydilar. Ana shu xudbin va mahdud «omma» qaysi yerda kamayib borsa, o’sha jamiyatda taraqqiyot yuksak darajaga ko’tariladi. Zero, ziyolilik keng ma’nodagi fidoyilikdir. SHu bois mustaqilligimizning ilk kunlaridanoq bizda ziyolilik tamoyilini har bir fuqaroga singdirish uchun muntazam kurash olib borilmoqda. Uni singdirish esa ma’naviyatni yuksaltirish orqali ro’yobga chiqadi. Bu kurash tepasida ma’naviyatni ustuvor soha deb e’lon qilgan Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov turibdi.

Mehnatsevarlik. Inson barcha mavjudotlar ichida xatti–harakatlarining, faoliyatlarining ko’pligi va xilma–xilligi bilan ajralib turadi. Mehnat ana shu xatti–harakatlarning aniq maqsadga yo’naltirilgan qismidir. To’g’ri, mehnatga o’xshash xatti–harakatlarni qaldirg’ochning in qurishida ham, polaponiga baliq tutib keltirayotgan chorloqda ham, yer kavlayotgan yumronqoziqda ham ko’rishimiz mumkin. Lekin bu xatti–harakatlar savqi’ tabiiy – tabiiyyatga (instinktga) asoslangan. Inson mehnati esa, aql vositasida amalga oshadi, u o’zi, yaqinlari, o’z jamiyati va kelajak avlodning yaxshi yashashi uchun mehnat qiladi. SHu sababli mehnatni sevgan odam ijtimoiy–iqtisodiy sharoit risoladagidek yo’lga qo’yilgan jamiyatda o’z ehtiyojlarini qondirib, farovon yashashga muyassar bo’la oladi, ishyoqmas odam esa aksincha, har qanday sharoitda ham hech qachon biri ikki bo’lmaydi. Bundan tashqari, mehnatsevar inson jamiyat a’zolari tomonidan e’zozlangani barobarida, dangasa odam ijobiy shaxs sifatida qabul qilinmaydi.

Mehnatsevarlik tamoyili mehnat jarayonida shaxsning o’z–o’zini namoyish etishiga, o’zligini ro’yobga chiqarishiga, o’zgalar bilan munosabatlar o’rnatishiga imkon yaratuvchi axloqiy fazilatdir. U insondan halollikni, intizomni, ishtiyoq va intilishni talab etadi, mehnatga nisbatan sub’ektiv tarzdagi ijobiy munosabatni taqozo qiladi.

Ma’lumki, mehnatdan maqsad – ehtiyojni qondirish. Lekin bu ehtiyojni qondirishning qay tarzda, qanday ma’naviy–ruhiy sharoitda amalga oshuvi muhim. Faqat tor manfaatparastlik nuqtayi nazaridan mehnat qilish, tinimsiz tirishib–tirmashish, mehnatga pul topish vositasi sifatidagina munosabatda bo’lish, tabiiyki, kishiga ma’naviy qoniqish, huzur baxsh etmaydi: bunday «tinib–tinchimas» odamda xushomadgo’ylik, torlik, asabiylik, nolish singari holatlar ko’zga tashlanadi. O’z kasbini yoki mehnat sohasini sevib mehnat qilgan odam majburiylik emas, ixtiyoriylik asosida ish ko’radi, mehnatining natijasigina emas, balki mehnat jarayonining o’zi ham unga quvonch, qoniqish bag’ishlaydi. Zero, bunday hollarda mehnatsevarlik zamirida o’z manfaati bilan birgalikda Vatanga, xalqqa, yaqinlariga xizmat qilishdek olijanob maqsadlar yotadi; ana shunday maqsadlar insonni «chumolilik» doirasidan kenglikka va yuksaklikka olib chiqadi.

Mehnatsevarlikni tarbiyalab borishda, uni kuchaytirishda raqobat alohida ahamiyatga ega. Zero, raqobat faqat moddiy ustunlikni emas, balki ma’naviy ustunlikni ham taqozo etadi, ya’ni unda moddiylik va ma’naviylik teng ishtirok etadi. Biz o’tmishda boshdan kechirgan «sotsialistik» deb atalgan tuzum shaxs mehnatini qadrlamaslik,

mehnatsevar bilan dangasani tenglashtirish – ularga bir xil umumiy haq to'lash, «hech kimni kamsitmaslik» shiori ostida ish ko'rish singari mohiyatan inson tabiatiga zid qoidalar va me'yorlarga asoslangan edi. «Sotsialistik musobaqa»ning soxtaligi, insoniyat jamiyatiga singib keta olmaganligiga sabab ana shunda. Zero, shaxs mehnatini qadrlash – shaxsning mehnatsevarligini, uning o'zini qadrlash demakdir. Mustaqilligimiz sharofati bilan mehnat yana erkin shaxsning o'ziga va atrofdagilarga individual munosabatiga aylandi, mohiyatan «besh qo'l barobar bo'lsin» degan tenglashtirish siyosati barham topdi. Mehnatsevarlik esa Yangi jamiyatimiz kishisining, jahoniy kenglikka chiqish huquqiga ega bo'lgan shaxsning sevimli va huzurbaxsh tamoyiliga aylandi.

Tinchlikparvarlik. Bu axloqiy tamoyil ham insoniyat hayotida muhim ahamiyatga ega. CHunonchi, tinchlikparvarlik urushning, qon to'kishning har qanday ko'rinishini inkor etadi, oddiy tinchliksevar shaxsning tinch–totuv yashashga bo'lgan ijobiy munosabati bilangina chegaralanib qolmaydi, balki dushmanlik va tajovuzkorlikka qarshi kurashni, zarba berishni taqozo etadi. Unda tinchlik haqida chiroyli gaplar aytish, yig'inlarda ma'ruzalar qilish emas, balki faol xatti–harakat, uyushtiruvchilik, tashkilotchilik birinchi darajali zaruriy faoliyat hisoblanadi.

Tinchlikparvarlar fidoyi insonlardir. Ularning ana shu fidoyilarcha xatti–harakatlari pirovard natijada har bir inson hayotiga takrorlanmas noyob qadriyat sifatida qarashga, har bir fuqaro qadrini, har bir davlat suverenitetini, har bir millatning o'z hayot tarziga monand yashash huquqini muqaddas deb tan olinishiga olib keladi, mamlakatlararo jamoat tartibini saqlashga, avlodlar ravnaqiga, tarixiy–madaniy hamkorlikka, millatlar va turli ijtimoiy guruhlar orasida o'zaro tushunishning qaror topishiga xizmat qiladi.

SHuni ham ta'kidlash joizki, ba'zi ulug'davlatchilik va buyukmillatchilik ruhi hukmron bo'lgan jamiyatlarda tinchlikparvarlar quvg'in qilinadilar, turmalarga tashlanadilar. Lekin ular o'z tamoyillaridan hech qachon qaytmaydilar. Ular insoniyatni barcha bahsli masalalarni tinch yo'l bilan hal qilishga chaqiradilar, Yyer yuzida tinchlik o'rnatish uchun tinimsiz kurash olib boradilar. SHunday tinchlikparvar buyuk siymolardan biri sifatida zamondoshimiz, ulug' ingliz faylasufi, Nobel mukofoti sovrindori Bertran Rassel (1812–1970) shaxsini misol qilib keltirishimiz mumkin. O'ttiz olti yoshida Qirollik Jamiyatiga a'zo bo'la olgan, har jihatdan jamiyatda obro'ga ega faylasuf tinchlikparvarlik faoliyati uchun ikki bora (dastlab Birinchi jahon urushi paytida, ikkinchi marta – AQSHning Vьetnamdagi bosqiniga qarshi kurash olib borganida) ingliz ma'muriyati tomonidan turmaga tashlandi. Lekin «insonparvarlik va hurfikrlilik havoriysi» (Rassel Nobel mukofoti bilan birga shunday faxrli nomni ham olgan edi) umrining so'nggigacha tinchlikparvarlik tamoyilidan chekinmadi.

Jo'mardlik. Jo'mardlik tamoyili esa SHarqda qadimdan mavjud. Ovro'pada uni altruizm nomi bilan Ogyust Kont ilmiy muomalaga kiritganini aytib o'tgan edik. U – kishidagi o'z qavmdoshiga achinish hissidan, unga baxt va farovonlik tilash tuyg'usidan kelib chiqadi, mohiyatan beminnat xayriyaga asoslanadi. O'z manfaatidan o'zga manfaatini ustun qo'yib, «o'z og'zidagini o'zga og'ziga tutib» yashash jo'mard insonning hayot tarziga aylanadi. Bu – oddiy xayriya emas, balki muhtojlikning har qanday ko'rinishiga qarshi o'ziga xos kurashdir. Ammo bu kurash insonparvarlik, vatanparvarlikdagi singari qat'iy jamiyat yoki jamoaning axloqiy–me'yoriy talablaridan kelib chiqmaydi, u faqat va faqat xususiylik tabiatiga ega, har bir shaxsning erkin ixtiyori bilan bog'liq axloqiy tamoyil. CHunonchi, biror kishi tomonidan insonparvarlik yoki vatanparvarlik talablarini bajarmaslik boshqalarda unga nisbatan nafrat hissini uyg'otadi, jo'mardlik ko'rsatmagan odam esa bunday ma'naviy javobgarlikka tortilmaydi. Zero, jo'mardlik mohiyatan «oddiy odamlik qobig'idan chiqa bilish», ilohiylik sifatlariga ega bo'lib borish demakdir, bu esa hammaga ham nasib etavermaydi.

Bundan tashqari, bizning milliy axloqshunosligimizda **o'zbekchilik, mehmondo'stlik** kabi tamoyillar mavjud. Ular millatimizning eng yaxshi an'analariga sadoqat tuyg'usidan kelib chiqadi va o'zbek kishisiga xos bag'ri kenglik, do'stga, mehmonga borini bag'ishlashdek xususiyatlarni o'zida mujassamlashtiradi.

O'zbekchilik tamoyilini o'z hayot tarziga singdirib yuborgan kimsaning nomi el–yurt orasida «baraka topgur» iborasi bilan qo'shib aytiladi. Qishloq yoki mahalladagi hasharlarda, ma'rakalarda «qamishdan bel bog'lab» xizmatda turish, bemor mahalladoshi yostig'i ustida dalda berishga doim vaqt topa olish, qo'ni–qo'shnilariga haqiqiy hamsoya bo'lib yashash o'zbekchilikning asosiy unsurlaridir. Yoki mehmondo'stlikni olaylik. Milliy–mintaqaviy an'analarga asoslangan bu tamoyil ma'lum ma'noda o'zbekchilik bilan singishib ketadi. Masalan, g'arb kishisi o'zi taklif qilmagan kishini eshikdan muloyim savol–javob bilan qaytarib yuboradi, axloqiy majburiyatdan o'zini ozod deb hisoblaydi, o'zining erkinlik huquqini ustuvor sanaydi. O'zbek esa, eshikdan kelgan kishini «bir piyola choyga» taklif etadi, kirsa, juda bo'lmaganda, oldiga non–choy qo'yadi, notanish bo'lsa, tanishadi, hol–ahvol so'raydi, millatidan qat'i nazar, unga hamdard, ko'makdosh bo'lishga intiladi va buni axloqiy majburiyat tarzida emas, bir an'anaviy odat deb izohlaydi.

Ayni paytda bu tamoyillarni suiiste'mol qilish ham hozirgi paytda tez–tez uchrab turadi. O'zi qo'l uchida kun ko'rib turgani barobarida qarz–havola bilan katta to'ylar o'tkazish, to'ylardagi isrofgarchiliklar, hatto aza oshlarini ham «kim o'zarga» tarzida berish, charlar, beshik to'yi singari marosimlarga dong chiqarish uchun ayamay mablag' sarflash, artistlarga qistirishlar, hatto boshidan pul sochishlar singari holatlar shular jumlasidan. Bunda biz fazilatning me'yor buzilishi natijasida illatga aylanganini ko'ramiz.

Lekin o'zbekchilik va mehmondo'stlikni bunday noto'g'ri tushunish sho'rolar davridan kelayotgan sarqit, o'tkinchilik tabiatiga ega bo'lgan hodisalardir. Aslida o'zbekchilik va mehmondo'stlik tamoyillari xalqimizning o'ziga xosligini ta'kidlaydi. Jahonning juda ko'p xalqlari bu tamoyillar egasi bo'lmish o'zbek millatiga doimo ehtirom, havas va hayrat bilan qaraydilar.

SHunday qilib, qisqacha xulosa yasaydigan bo'lsak, biz ko'rib o'tgan axloqiy tamoyillar individni yuksak axloqiy shaxs darajasiga ko'taradigan, uning hayotiga ijtimoiy–ma'naviy mazmun bag'ishlaydigan tushunchalardir.

Zero, har bir kimsa o’zi tanlagan tamoyillari majmui tufayli komillik darajasining muayyan bosqichidan o’rin oladi, o’z hayotining ma’nosini anglagan insonga aylanadi. SHu tufayli axloqiy tamoyillar hayotimizda nihoyatda katta ahamiyatga ega.

Axloqiy me’yorlar

Inson hayotida axloqiy me’yorlar ham katta ahamiyatga ega. Ular tamoyillarga nisbatan ancha sodda, umumlashmagan, tor qamrovli. Ularni kundalik hayotimizda muayyan axloqiy fazilatlarni aks ettirgan tushunchalar va tamoyillarning amalga oshish murvatlari ham deyish mumkin, ular axloqiy talablarning eng oddiy, lekin keng tarqalgan shakli sifatida ro’yobga chiqadi. Halollik, rostgo’ylik, hayolilik, insoflilik, xushmuomalalik, boodoblik, kamtarlik singari me’yorlar ayniqsa diqqatga sazovor.

H**alollik.** Halollik vijdon, adolat va burch kabi axloqshunoslik mezoniy tushunchalari bilan bog’liq, insoning o’zgaga munosabati o’ziga munosabatidek sof, pokiza bo’lishini talab qilidigan axloqiy me’yordir. Dastavval u diniy tushuncha sifatida vujudga kelib, har bir musulmonning yemak–ichmagi, jinsiy va iqtisodiy xatti–harakatlari sifatini belgilab beruvchi shar’iy me’yor bo’lib amal qilgan, uning ziddi – harom diniy nuqtayi nazardan salbiy hisoblangan xatti–harakatlarga nisbatan qo’llanilgan. M., bismil qilingan hayvon yo parranda go’shti – halol, o’laksa go’shti – harom, nikohdagi jinsiy aloqa – halol, zino – harom, mehnat haqi – halol, o’g’rilik bilan topilgan mol – harom v.h.

Ko’rib o’tganimizdek, har bir diniy e’tiqodning asosida axloqiylik yotadi va u ko’p hollarda ibodatdan baland qo’yilgan: solih bandalar, «Qur’on»da aytilganidek, eng avvalo go’zal axloq egalaridir. SHu boisdan keyinchalik halollik nisbatan tor shar’iy qobiqdan chiqib, asta–sekinlik bilan shaxs hayotidagi eng qamrovli axloqiy me’yorga aylandi, teran ma’naviylik kasb etgani holda, kundalik hayotdagi insoniylikni belgilaydigan umuminsoniy fazilat bo’lib qoldi. M., hozirgi kunda ixtisoslashgan mehnat taqsimotining takomillashuvi, ilm–fan taraqqiyotining yuksalishi natijasida biz kasbiy halollik, ilmiy halollik, iqtisodiy halollik v.b. haqida gapirishimiz mumkin.

Insoniyat jamiyatida haromlik yoxud nopoklikning halollikka nisbatan kam uchramasligi doimo axloqshunoslarni tashvishga solib kelgan. CHunonchi, imom G’azzoliyning harom yeyish haqida to’xtalib, mana bunday deyishi bejiz emas:

«…Xohi zulm bilan olingan bo’lsin (kuch ishlatib, xoinona undirish va bosqinchilik–o’g’rilik yo’llari bilan olish); xoh zavq va o’yin yo’li bilan olinsin (qimor va shunga o’xshash narsalar bilan bo’lganiday); xoh hiyla va nayrang yo’llari bilan olinsin (tovlamachilik va aldamchilik, tarozidan urish kabi); o’z moli va boyligini harom ishlarga (ichkilikbozlik, qimor, fohishabozlik) xarjlashi – hammasi harom yeyishga kiradi»[138].

Afsuski, G’azzoliy sanab o’tgan holatlarni atrofimizda ko’p ko’ramiz. CHunki nopok yo’l tutish oson, lekin halollikka erishish qiyin. Buning sababi shundaki. halollikning mavjudligi fidoyilik axloqiy tamoyili va rostgo’ylik axloqiy me’yori bilan shartlanadi; doimo halollik qilish yoki halol yashashi uchun kishi albatta nimalardandir kechishi, kimlargadir qarshi borishi, faqat rost gapirishi, so’z bilan ish birligiga erishishi kerak. SHu bois halol inson jamoatchilik o’rtasida obro’ga ega, hurmatga sazovor bo’ladi. Qaysi jamiyatda halol fuqarolar ko’paysa, o’sha yerda baxt va farovonlik hukm suradi.

Halollika birinchi bo’lib to’xtalishimizning sababi shundaki, mustamlakachilik davrida, ayniqsa, sho’rolar hukmronlik qilgan chorakam bir asr vaqt mobaynida yolg’on, aldov, nopoklik, haromxo’rlik, munofiqlik singari illatlar xalqimizga shu qadar ustalik bilan singdirildiki, hozirgi paytda ko’pchilik odamlar halollik, rostgo’ylik ustidan hatto kuladigan bo’lib qolganlar. So’z bilan ish birligi yo’qolgan, qog’ozdagi chiroyli gaplar hayotga to’g’ri kelmaydi. Lekin bularning hammasi, afsuski, odatiy holdek qabul qilinadi. SHu bois mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq bu illatlarga qarshi kurash boshlandi. Hozirgi kunda davlatimiz milliy–ma’naviy qadriyatlarni tiklashni, odamlarni halol, insofli, adolatli bo’lishga chaqirishni o’z ichki siyosatining muhim qismi deb bilgan holda ish tutmoqda. Zero, ko’z o’ngimizda nopoklik yolg’on, aldov, ikkiyuzlamachilik nimaligini deyarli bilmaydigan jamiyatlar, millatlar gullab–yashnamoqda. Yaponiya, Olmoniya, Frantsiya, AQSH, Buyuk Britaniya singari mamlakatlar shular jumlasidan. SHu o’rinda quyidagi misolni keltirib o’tish maqsadga muvofiq.

Falsafa jamiyati a’zolari bilan muloqot–uchrashuvga kelgan bir taniqli olim va jamoat arbobi qiziq voqeani so’zlab bergan edi. Olimning hikoya qilishicha, Finlyandiyada u bilan birga Rossiya Jamoat televideniesi xodimini o’z mashinasida olib yurgan fin fuqarosi yonilg’i quyish nuqtalaridan birida to’xtab, sakson litr benzin oladi va borib egasiga shuncha benzin olganini aytib, haqini to’laydi. Uning qancha yonilg’i quyib olganini kuzatishni xayoliga ham keltirmagan yonilg’i quyish shaxobchasi xo’jayini pulni olib, ishini davom ettiraveradi. Mashina yo’lga tushganda, sobiq SHo’rolar Ittifoqi hududidan kelgan mehmonlar hayratlanib so’rashadi: «Nega xo’jayin sizni benzin quyayotganingizda kuzatib turmadi?» U esa tushunmay yelkasini qisadi: «Nimaga kuzatib turishi kerak?» Mehmonlar tushuntirishmoqchi bo’lishadi: «Axir, siz sakson litrga haq to’lab, yuz litr benzin quyib olishingiz mumkin edi–ku!» U yana hayron qoladi: «Nega yuz litr olishim kerak ekan, menga faqat sakson litr zarur!». Mehmonlar yana tushuntirishga harakat qilishadi: «Siz kam pul to’lab, ko’p benzin olishingiz mumkin edi, nega unday qilmadingiz?» Mezbon esa yana yelka qisadi: «Nega men kam pul to’lashim kerak – sakson litr zarur edi, sakson litr oldim, tavba, buning nimasi tushunarsiz?!», deydi. Xullas, ikki birday kishi harom yo’l bilan ortiqcha benzin quyib olish mumkinligini Finlyandiya fuqarosiga tushuntira olmaydilar; harom va yolg’on nimaligini bilmaydigan mezbon bular meni kalaka qilyapti degan xayolga borib, asabiylasha boshlaganidan keyingina mehmonlar gapni boshqa yoqqa buradilar.

---

[138] *Газзолий Абу Ҳомид*. Мукошафат ул-кулуб. Т., «Адолат», 2002, 336-б.

Qanchalik achchiq bo'lmasin, bu – bor gap, haqiqat. Zero, Prezident Islom Karimov nutqlaridan birini «Halollik va fidoyilik faoliyatimizning asosiy mezoni bo'lsin» deb, boshqa bir suhbatini esa «Adolat har ishda hamrohimiz va dasturimiz bo'lsin» deb atagani bejiz emas; hozirda halol, rostgo'y, insofli, fidoyi insonlardan iborat bo'lgan fuqarolar jamiyatini qurish – faqat axloqiy muammo emas, balki kelajagi buyuk davlatimizning mohiyatini anglatuvchi ijtimoiy–siyosiy Yangilanishdir.

Rostgo'ylik. Rostgo'ylik yoki to'g'ri so'zlilik insonning haqiqatga intilishi bilan bog'liq, haqiqat esa doimo sinfiylik–tabaqaviylik, partiyaviylik–mafkuraviylik va tarixiylik–davriylikdan yuqori turadi. Haqiqatning ifodaviy shakllaridan biri rostgo'ylikdir. Demak, rostgo'ylik – insonning keyinchalik kasb etgan – o'z ongiga, ruhiga singdirgan, ijtimoiy–hayotiy, davriy–tajribaviy xususiyat emas, balki uning mohiyatida berilgan fazilat. M., yaqinda tili chiqqan yosh go'dakni olaylik. U nima desangiz ishonadi, o'zi nimaiki desa – rost gapiradi («Aldagani bola yaxshi» degan maqolni eslang). Go'dakning soddaligidan, ishonuvchanligidan, to'g'risini aytishidan biz – kattalar kulamiz; lekin haqiqat ustidan, rostgo'ylik ustidan kulayotganimizni o'ylab ham ko'rmaymiz. Go'dak kattarib, «aqli kirib» borgani sari atrof–muhitda yolg'on mavjud ekanligini, rost gapirsa yo kulgi bo'lishi, yo jazo olishi mumkinligini anglab yetadi va asta–sekin yolg'onga o'rgana boshlaydi, dastlabki maishiy yolg'on ijtimoiy bosqichga ko'tariladi. Endi xususiy yoki guruhiy manfaatdorlikni ta'minlovchi yolg'on atrofdagi voqelikning hamrohiga aylanadi. Insonni bu yo'ldan faqat yuksak ma'naviylik, birinchi galda axloqiy tarbiya qutqaradi. Ezgulik, nomus, or, qadr–qimmat, insonparvarlik, halollik, insof nima ekanini tushunib yetgan kishigina rostgo'y bo'la oladi.

Rostgo'ylik oson emas. U insondan sabr–toqat, matonat va jasoratni talab qiladi, rostgo'y inson qo'rquvdan forig' bo'ladi, har qanday holatda ham vijdoniga qarshi bormaydi: kimlarningdir ko'ziga qarab, yaqinlarini yoki hamkasabalarini xafa qilishdan, o'z moddiy manfaatdorligiga zarar yetkazishdan cho'chmaydi. To'g'ri, bunday munosabat tufayli rostgo'y inson aziyat chekishi, ta'na–dashnomlarga qolishi mumkin. Lekin bularning hammasi bir odamga yoki muayyan guruhga voqelikni asl holida yetgazganligidan, ularni noto'g'ri yo'lga solib yubormaganligidan qalbda paydo bo'lgan qoniqish hissi, xotirjamlik va orom tufayli yuvilib ketadi, ichki bir quvonch unga baland ruh bag'ishlaydi.

Yolg'onga kelsak, uni ko'pchilik donishmandlar eng katta yovuzliklar sirasiga kiritishgan. CHunki, yolg'onchi kishilar bo'lgan yoki bo'layotgan voqea–hodisalar haqida noto'g'ri axborot berib odamlarni adashtiradilar, o'zlari ham adashadilar. Kimningdir yoki kimlarningdir yolg'oni tufayli odamlar ishonchga loyiq narsalarga ishonish, ishonchsizlikka sozovor narsalarga ishonmaslik imkonidan mahrum bo'ldilar va turmushda, hatto hayot–mamot masalalarida noto'g'ri qarorlar qabul qiladilar, bu narsa esa fojeaga olib keladi. Yolg'onchilik qilgan odam ham «quruq» qolmaydi, u ham o'z «fojeaviy ulush» iga ega bo'ladi, unga bundan buyon nomusiz, kazzob, ishonib bo'lmaydigan odam sifatida munosabat qilinadi, bu bir tomondan, ikkinchi tomondan, o'zi ham zarar ko'radi. Bunga o'zbek xalq ertaklaridan biridagi ikki marta yarim kechada «Uyim yonib ketdi!» deb yolg'ondan faryod ko'tarib, hammani – sog'u kasalni, qariyu yoshni oyoqqa turg'izib ovora qilgan, uchinchi marta haqiqatan ham uyiga o't tushganida ko'tarilgan dod–voyga hech kim e'tibor qilmagan yolg'onchining qismati misol bo'la oladi. O'z qishloqdoshlarining ishonchini yo'qotgan ertak qahramoni faqat o'zgalarnigina emas, o'zini ham aldadi: uchinchi chorloviga hech kim yordamga kelmadi, uyi tag-tugi bilan yonib ketdi, boshpanasiz qoldi. Har qanday yolg'onchining peshonasida ana shunday «boshpanasiz», panohsiz qolish qismati bor. Zero har bir inson uchun o'zgalarning unga bo'lgan ishonchi eng qoim panohdir; o'zgalarning ishonchi insonning o'ziga ishonchini shakllantiradi va mustahkamlaydi.

Hayolilik. Bu me'yor xulqiy go'zallikning asosiy belgilaridan hisoblanadi. U, garchand, bir qarashda, uyat hissi bilan o'xshash bo'lsa–da, aslida o'zini ko'proq andisha va iboga yaqin fazilat tarzida namoyon qiladi, unda axloqiy mohiyat estetik xususiyat – nafosat bilan uyg'unlashib ketadi. Hayodan odatda, inson qizaradi, bu qizarish, ayniqsa xotin–qizlarda ichki go'zallikning yuzga tepchib chiqishiga sabab bo'ladi va alohida bir nafislikni, mayinlikni vujudga keltiradi. Insonning o'zi sodir etgan yoki boshqalar vositasida amalga oshirilgan axloqiylikka zid xatti–harakatlardan noqulay vaziyatga tushishi, o'ng'aysizlanishi, mulzam bo'lishi uyat hissida ham mavjud. Lekin bu holatlar uyatda ijtimoiylik kasb etgan bo'ladi, shu sababli ular xatti–harakat sodir qilingandan so'ng ham davom etadi va ko'p hollarda vijdon azobiga aylanadi. Hayotda esa mazkur holatlar sof ma'naviy tabiatga ega va vaqt doirasida cheklangan bo'lib, ular xatti–harakat sodir etilayotgan paytdagina yuzaga chiqadi.

SHarq donishmandlari, xususan, Abu Lays as–Samarqandiy, G'azzoliy, Navoiy kabi allomalar, keyinroq esa Avloniy, Fitrat singari jadid mutafakkirlari, hayoni yuksak axloqiy qadriyat sifatida olib qaraganlar, uni ikkiga – odamlar oldidagi hayoga va Alloh oldidagi hayoga ajratganlar hamda nomusning bir ko'rinishi deb ta'riflaganlar. CHunonchi, «Hayo, – deb yozadi Abdulla Avloniy «Turkiy guliston yohud axloq» asarida, – dilni ravshan qiladurgan bir nurdirki, inson har vaqt shul ma'naviy nurning ziyosiga muhtojdir… Iffatning pardasi, vijdonning niqobi hayodir»[139].

Darhaqiqat, hayolilik kishining ma'naviyatli, ma'rifatli, nomusli, ochiq ko'ngilli ekanini anglatadi, uning ziddi behayolik esa, aksincha, ma'naviyatsizlik, nopoklikka moyillik, qalban qattiqlik kabi illatlar bilan xarakterlanadi.

Bugungi kunda hayolilik alohida ahamiyatga ega. Turli tsivilizatsiyalarning o'zaro aloqalari, ba'zan esa omuxtalashuvi, urbanizatsiya, modaparastlik singari zamonaviy hodisalar o'zbek oilasidagi an'anaviy hayolilikka ma'lum ma'noda salbiy ta'sir ko'rsatayotir, ayniqsa xotin–qizlar va yoshlarning o'zini tutishida, muomalasida, kiyinishida bu ta'sirni yaqqol sezish mumkin. SHu sababli oiladagi va maktabdagi tarbiyada hayolilik xulqiy

[139] *Авлоний А.* Ўсон миллат. Т., «Шарк», 1993, 98-б.

go’zallik, nazokat; behayolik esa xulqiy xunuklik va qo’pollik ekanini uqdirish shaxs erkinligining doimo o’zgalar oldida mas’uliyat bilan bog’liqligini izchil ravishda tushuntirib borish muhim vazifalardan biri.

Insoflilik. Aflotun haqida gap borganida, uning adolatni davlatga xos fazilat, degan fikrini keltirib o’tgan edik. Darhaqiqat, adolat mohiyatan davlatning fuqaroga, jamiyatning shaxsga nisbatan munosabati tarzida namoyon bo’ladi. Bordi–yu, o’zaro adolatli munosabatlar haqida gap ketsa, unda odatda yuksak martabadagi tarixiy shaxsning quyi martabadagi shaxsga munosabati nazarda tutiladi. Insof esa ana shu adolatning tor qamrovli xususiy ko’rinishi sifatida namoyon bo’ladi. U fuqarolar, jamiyat a’zolari orasidagi o’zaro munosabatlar me’yoridir.

Insoflilik ham halollik kabi vijdon tushunchasi bilan bog’liq, ma’lum ma’noda halollikka o’xshab ketadi. Lekin bu yuzaki taassurot. CHunki halollik o’z haqi va haqqini, ya’ni moddiy va ma’naviy huquqini o’zgalarning haqi va haqqiga xiyonat qilmagan holda ajratib yashashni anglatadi. Insoflilik esa ijobiylikda halollikdan ham bir qadam olg’a tashlangan holatdir: unda kishi o’z halol haqi va haqqidan o’zganing hisobiga kechadi; «o’zga»ning sharoiti o’zinikidan nihoyatda og’ir va yomon ekanini hisobga olib, o’z qonuniy haqi va haqqini yoki ularning bir qismini ixtiyoriy ravishda o’zgaga beradi, muruvvat ko’rsatadi.

Misol tariqasida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining bir xatti–harakatini olib ko’raylik: u xorijda nashr etilgan kitoblaridan biri uchun 30.000 AQSH dollari miqdorida berilgan qalam haqini to’laligicha mehribonlik uyiga o’tkazdi. Vaholanki, mazkur qalam haqi uning halol aqliy mehnati tufayli ishlab topilgan mablag’, unga hech kimning da’vo qilishga haqqi yo’q. Lekin u, o’zi va oilasining ijtimoiy–iqtisodiy ahvoli shu 30.000 dollarsiz ham risoladagidek bo’lishi mumkinligini, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari va tarbiyachilarining sharoiti esa bu darajada emasligini hisobga olib, muruvvat ko’rsatdi: o’zi yoki avlodi uchun halol jamg’arma tarzida olib qo’yishi mumkin bo’lgan mablag’dan, insoflilik ko’rsatib, ixtiyoriy tarzda kechdi.

Bu axloqiy xatti–harakatning Prezidentlik vakolati doirasiga mutlaqo aloqasi yo’q; Islom Karimov uni xususiy kimsa, axloqli shaxs sifatida amalga oshirdi. Ana shu insof yuzasidan qilingan muruvvat esa halollikni yana bir pog’ona yuksakka ko’tardi. Qani endi o’ziga to’q odamlar, xususan, o’rta va quyi bo’g’in rahbarlari ana shu namunaga iqtido qilsalar! Zero, insoflilik va muruvvatlilik axloqiy me’yorlari jamiyat yetishtirgan moddiy boyliklarni uning a’zolari o’rtasida shaxsiy tashabbus asosida, og’riqsiz, huquqiy holatlarni poymol qilmagan holda qayta taqsimlanishiga, jamiyatning yanada farovonlashuviga o’ziga xos hissa qo’shadi.

Xushfe’llilik, shirinsuxanlilik, kamtarinlik, bosiqlik singari axloqiy xatti–harakatlar me’yoriylik nuqtayi nazaridan g’oyat muhim. CHunki har bir jamiyat darajasi ma’lum ma’noda undagi fuqarolar muomala madaniyatining yuksakligi bilan ham belgilanadi. Zero, xushfe’l, shirinsuxan inson o’zining har bir muvaffaqiyatsizligiga fojea sifatida qaramaydi, alam yoki g’azab bilan yomon kayfiyatini boshqalarga o’tkazishga intilmaydi; atrofdagi axloqiy muhitni buzmaydi. Natijada o’ziga ham, o’zgalarga ham ko’tarinki kayfiyat, turli–tuman omadsizliklarning o’tkinchiligini anglatuvchi hayotbaxsh bir umid bag’ishlaydi. Jamiyat doimo o’shanday odamlarni hurmat qiladi va ulardan o’rnak olishga intiladi.

Xushfe’llilik, shirinsuxanlilik qay darajadadir ko’proq ixtiyor bilan, kishining ma’lum bir insoniy tabiatga intilishi bilan bog’liq bo’lsa, bosiqlik, kamtarinlik, kamsuqumlik aksincha, ko’proq iroda kuchi natijasida yuzaga keladi. Zotan insonning o’z g’azabini bosa bilishi, noroziligini barvaqt bildirmasligi; so’zlagisi, biror–bir gap bilan o’zini ko’rsatgisi kelib qolganda o’sha xohish–ixtiyorni to’xtata olishi kuchli irodani talab qiladi. SHu bois muomalada bosiq, kamtarin, «etti o’lchab bir kesish» tamoyili asosida ish ko’rgan shaxslar oqil odamlar sanaladi va ular jamiyatda ham namunaviylik maqomiga noil bo’ladilar.

Ayni paytda ba’zi bir odamlar guruhi uchun me’yorga aylanib qolgan illatlar ham borki, ular haqida to’xtalib o’tmaslikning iloji yo’q. Ular ichidan eng keng yoyilgan, ma’lum ma’noda yuqumli ma’naviy kasallikka aylanib borayotgan ikkitasini – xudbinlik va shuhratparastlikni ko’rib chiqaylik.

Xudbinlik. U o’z individual ehtiyojlarini hamma narsadan yuqori qo’yadigan axloqiy sifat, illatni anglatuvchi tushuncha; biror – bir insonning moddiy–maishiy manfaatlarining boshqalarnikidan ustun qo’yilishini bildiruvchi manfaatparastlikdan va o’z shaxsini mutlaqlashtirishiga qaratilgan shaxsiyatparastlikning ba’zi unsurlaridan iborat salbiy xatti–harakatlar majmuidir.

U sharqona jo’mardlik axloqiy tamoyili va insoflilik meyo’rining aksi: agar jo’mardlik, ko’rib o’tganimizdek, biror shaxs, jamoa yoki jamiyat baxti, farovonligi yo’lida kishining hatto o’ziga eng zarur bo’lgan narsalardan ham voz kechishiga tayyor turishini anglatsa, xudbinlik o’z manfaatlari yo’lida, hech kimni, hech bir jamoani, hech qanday jamiyatni tan olmaydigan salbiy me’yor egasining bo’rtib ko’zga tashlanadigan xususiyati.

Xudbinlikni inson shaxsining o’ziga bo’lgan muhabbati bilan chaplashtirmaslik lozim. Biz Imom G’azzoliy muhabbatning besh turi haqida so’z yuritib, insonning o’ziga, o’zining a’zolariga, salomatligiga bo’lgan muhabbatini birinchi o’rniga qo’yganini yaxshi bilamiz. Uningcha, bu muhabbat Alloh, ota–ona, qarindosh–urug’, do’st–birodar, muhtoj–ehtiyojmandlar xizmatida bo’lishga imkon yaratuvchi vosita hisoblanadi. Xudbinlik esa muhabbat hissiga emas, nafsga, hirsga, rujuga asoslanadi, o’zini adolatsizlik, insofsizlik va berahmlik xislatlarida namoyon etadi. To’g’ri, hammaning ham qo’lidan jo’mardlik kelavermaydi, lekin insonning o’ziga bo’lgan muhabbati, boshqalarning ham o’ziga shunday muhabbati borligini inkor etmasligi kerak. SHu qoida buzilgan joydan xudbinlik boshlanadi.

Xudbinlik jinoyat emas, xudbin odam qonunni buzmaydi, aksincha doimo qonun oldida «toza», «faqat qonuniy haqi»ni qanday sharoitda bo’lmasin – birovlarning fojeasi ustidami, o’limi ustidami, – qat’i nazar, undirib oladi, xolos. Uning aqidasi: «Go’zal bino qulasa–qulayversin, men o’zimga tegishli yuzta g’ishtni sug’urib olishim kerak!»

SHuni afsus bilan qayd etish kerakki, xudbinlik jamiyatda ko'payib borsa–borayaptiki, kamaymayapti. CHunki qonunning mustahkamlanib borishi xudbin odamlar uchun qulaylik tug'diradi: ular qonunning ruhini – mohiyatini bir chetga surib qo'yib, uning jumlalaridan – shaklidan foydalanadilar. Avvalgi, an'anaviy urf–odatlar hukmron davrlarda xudbin odam jazolanishi – bir chetga chiqarib qo'yilishi, jamoadan, mahalladan haydalishi mumkin edi. Endilikda bunday munosabat erkin shaxs huquqlarini poymol qilish, noqonuniy yondashuv deb hisoblanadi. Demak, xudbinlikni yo'qotishning faqat bir yo'li bor, u ham bo'lsa jamiyatda axloqiy tarbiyani zamonaviy tarzda keng joriy etish.

SHuhratparastlik. SHuhratparastlik – shon–shuhrat ketidan quvadigan va bu yo'lda har qanday axloqsizlikdan qaytmaydigan insonlar toifasining xususiyati. SHuhratparast odam o'z nomining doimo atrofdagilar va jamiyat diqkat markazida turishiga, mashhurlikka, shov–shuvga, maqtovga ichki bir tiyiqsiz ehtiyoj sezadi. Bu ehtiyoj oxir–oqibat uni jamiyatning axloqiy – ijtimoiy talablari bilan ham, individ sifatidagi o'z biologik va ma'naviy–intelektual imkoniyatlari bilan ham mutlaqo hisoblashmaydigan ijtimoiy nafs bandasiga aylantirib qo'yadi.

SHuhratparastlikning axloqiy illat sifatidagi xatarli tomoni shundaki, u ravnaq topib borish xususiyatiga ega: dastavval kishi o'z «**men**»ining boshqa «**men**»lardan kam bo'lmasligini talab qiladi, keyin asta–sekin o'z «**men**»ining barcha «**men**»lardan baland turishini xohlab qoladi va nima qilib bo'lsa ham shu xohishni amalga oshirishga intiladi. Natijada u mavjud veqelikni, atrofdagilarning o'ziga bo'lgan asl munosabatini real baholay olmaydi; qaerda uni «ko'tar–ko'tar» qilib maqtashsa, o'sha yerga o'zini uradi, hayotda asl insoniy vazifasini bajarishdan chalg'iydi, tuzatib bo'lmas xatolarga yo'l qo'yadi. SHuhratparastlikka yorqin misol, umumbashariy timsol sifatida, odatda salkam 2,5 ming yildan buyon Herostratning nomi keltiriladi: u abadiy shuhrat qozonish uchun olamning yetti mu'jizasidan biri – Efes shahridagi Artemida ibodatxonasida o't qo'ygan. Uning nomi hozirgacha taajjub, hayrat, ayni paytda nafrat va la'nat bilan tilga olinadi.

SHuhratparastlik ham xuddi xudbinlik kabi zamonaviy jamiyatda avj olgan illatlardan hisoblanadi. Agar xudbinlikning keng yoyilishiga ma'lum ma'noda shaxs erkinligining qonuniy muhofazasi, ba'zi, demokratik tamoyillar yo'l ochib bersa, shuhratparastlik uchun zamonaviy ommaviy axborot vositalari ko'k chiroq vazifasini o'taydi: Nitsshe aytganidek, hozirgi paytda har qanday kichkinagina «**men**», yo'lini topib, sahnadan, sahifadan yoki ekrandan o'zi haqida jahonga jar solish huquqiga va imkoniga ega. Matbuot va so'z erkinligidan «o'ziga xos» foydalanadigan, «mashhurlar» haqidagi shov–shuvlar bilan shug'ullanadigan o'nlab gazetalar, ko'rsatuv va eshittirishlar shuhratparastlarning yomg'irdan keyingi qo'ziqorinlardek paydo bo'lishini ta'minlamoqda. Misol tariqasida ko'pchilik ommaviy axborot vositalarida aslida horijiy mualliflar musiqalarini, qo'shiqlarini noqonuniy o'zlashtirgani – o'g'irlagani (plagiat) uchun jazolanishi kerak bo'lgan shuhratparast «san'atkorlar»ning ko'klarga ko'tarilishini keltirish mumkin. SHuhratparstlikning bunday keng yoyilishiga qarshi faqat axloqiy tarbiya vositasida kurashish qiyin, shu sababli ularga nisbatan axloqiy yo'l bilan birga ichki va xalqaro huquq me'yorlaridan ham unumli foydalangan holda ish ko'rish maqsadga muvofiqdir.

SHunday qilib, uch bob mobaynida, qisqacha bo'lsa–da, axloqshunoslikning asosiy tushunchalarini, axloqiy tamoyillar va me'yorlar nima ekanini, ularning shaxs hamda jamiyat axloqiy hayotida naqadar muhim o'rin tutishini ko'rib chiqdik. Pirovard natijada quyidagicha xulosa chiqarish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz: agar axloqshunoslikning mezoniy tushunchalari bir–biriga bog'liq bo'lsa, axloqiy tamoyillarning bog'liqligi yanada mustahkamroq – ular biridan ikkinchisiga o'tib turish xususiyatiga ega; axloqiy me'yorlar esa bir–biri bilan shu darajada chambarchaski, ba'zan birini ikkinchisidan aniq ajratish qiyin, zero ular xulq va odob doirasidagi axloqiy amaliyotlardir.

Ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov

Ixtiyor erkinligi to'g'risida fikr yuritishdan oldin erkinlikning o'zi haqida mulohaza qilib ko'rish lozim bo'ladi. CHunki «erkinlik» atamasi bir tomondan, sodda, aniq hammaga tushunarli so'z, ikkinchi tomondan esa o'ta murakkab, tumanli, o'zgarib turuvchi tushuncha; u hammani, ayniqsa yoshlarni ohanrabodek o'ziga tortadi. «Aslida esa tarixda erkinlik nomi ostida ko'p ulug' ishlar amalga oshirilgan, lekin aynan shu nom bilan qanchadan–qancha gunohlar qilingan. Har bir kishining xayoliga kelganida yuragi dukillab urib ketadigan shu nom bilan qanchadan–qancha jinoyatu nodonliklar, ehtiros aldoviyu so'qirliklar o'zini bezadi va bezamoqda»[140]. V.Vindelband fikrini davom ettirib, erkinlik atamasining mazmuni siyosat va falsafa olamida hozirgacha turli xil bo'lib kelayotgannini, «haqiqiy erkinlik» tushunchasi esa nimani anglatishi hali ham ayon emasligini aytib o'tadi. Bunday «tushunmovchiliklar»ning sababi, bizningcha, shundaki, inson erkinligi hech qachon yolg'iz, alohida olingan erkinlik bo'lolmaydi, u, Sartr aytganidek, erkinliklar ro'parasidagi erkinlik. Aynan shuning uchun ham u hech qachon mutlaqlik kasb etolmaydi, uni doim zamon, makon, inson va narsalar erkinligi – boshqa erkinliklar cheklab turadi; inson butunlay erkinlikka erisholmaydi, faqat nimadandir, qaysidir bir narsadangina erkin, ozod bo'lishi mumkin. M., sport musobaqalarida universitet sharafini himoya qilish uchun boshqa shaharga borgan talaba darslarga qatnashish majburiyatidan ozod qilingan, lekin u darslarga nisbatan erkinlikka ega bo'lgani holda, butunlay erkin emas – sport musobaqalarida qatnashish majburiyatini olgan. SHunday qilib, bir erkinlikning qo'lga kiritilishi ikkinchi erkinlikdan – sport musobaqalarida qatnashmaslik erkinligidan voz kechishga olib keladi. Demak, bir tomondan erkinlik zaruriyatsiz, zaruriyat esa erkinliksiz mavjud emas, ikkinchi tomondan, shuning uchun ham, har qanday erkinlik cheklangan holdagina voqe bo'ladi.

---

[140] *Виндельбанд В. О* свободе воли. Минск - Москва, «Харвест» - АСТ, 2000. С. 8.

Endi ixtiyor erkinligi nima, degan masalaga to'xtalamiz. Dastlabki muammo atama bilan bog'liq. O'zbek tilidagi falsafiy adabiyotlarda asosan «iroda erkinligi» degan noto'g'ri ibora qo'llaniladi. Buning sababi – rus tilidagi «volya» so'zining mantiqan xato, «sila voli» tarzida tarjima qilishida, vaholanki «volya» – «erk», «erkinlik», «sila voli» – iroda («iroda kuchi» emas) ma'nolarini anglatadi. Bizda «iroda falsafasining» otasi deb nom olgan Artur SHopenhauerning mazkur falsafani asoslab bergan to'rt jildlik fundamental asarida gap iroda haqida emas, balki ixtiyor haqida boradi. Asar olmonchadagi asliyatda «Die Welt als Wille und Vorstellung» deb ataladi, o'zbekchasiga bu «Olam ixtiyor va tasavvur sifatida» (ruschasiga «Mir kak volya i predstavlenie») deb tarjima qilinadi. Zero *Wille* – ixtiyor degani, iroda esa – *Willenskraft* yoki *Willensstarke* (ruschasiga «sila voli»). Falsafiy adabiyotlarimizdagi atama borasidagi bunday mantiqsizlik o'ylab o'tirmasdan ruschadan «shartta ko'chirib tashlash» ning oqibatidan boshqa narsa emas.

Mantiqsizlik deganimizning ma'nosi shundaki, ixtiyor – xohish, istak demakdir, iroda esa o'sha xohish, istakni bosib turuvchi, uning amalga oshishiga yo'l qo'ymaydigan kuch, ya'ni ixtiyor g'ildirak bo'lsa, iroda – tormoz. M., siz chekishni tashladingiz, lekin juda bo'lmaganda, «bir tortib» qo'yishni nihoyatda xohlaysiz, shunda iroda vositasida bu xohishdan voz kechsangiz, irodali odam deb atalishga loyiqsiz, akasincha esa, siz irodasiz insonsiz. Demak, ixtiyor – erkinlik, iroda – zaruriyat sifatida namoyon bo'ladi. To'g'ri, «ixtiyor» va «iroda» so'zlari bir mazmunni anglatadigan holatlar ham mavjud. Lekin ular juda kam, sanoqli, faqat mislsiz qudratning xohishigina bir vaqtning o'zida iroda bilan mustahkamlanadi, bunda iroda xohishning yuksak darajasi sifatida talqin topadi. Bunday talqin to'rt narsaga xos: gap Xudo, xalq, ota–ona, podsho haqida borgandagina biz «Xudoning xohish–irodasi», «xalqning xohish – irodasi» v.h. deyishimiz mumkin xolos. Boshqa barcha hodisalarda ixtiyor bilan iroda bir–biridan muxtor tarzda va bir–birining ziddi sifatida namoyon bo'ladi. SHunday qilib, falsafa va axloqshunoslikdagi eng murakkab muammolardan biri «iroda erkinligi» emas, balki «ixtiyor erkinligi» degan istiloh bilan atalishi maqsadga muvofiqdir.

Ixtiyor erkinligi eng avvalo ixtiyorning uch bosqichda voqe bo'lishi bilan bog'liq. Birinchi bosqich – ichidan faqat bittasini tanlab olish va harakatga aylantirish mumkin bo'lgan alohida xohish–istaklarning tug'ilishidan iborat. Ikkinchi bosqichda mazkur xohishlarning o'zaro bir –birini tutib turishi, teng holatga keltirishi yuz beradi va bu – tanlov oraqali bir qarorda to'xtash imkonini yaratadi. Uchinchi bosqich tanlangan xohishning o'ziga mos jismoniy harakatga o'tishi bilan belgilanadi.

Erkinlikka kelsak, shuni aytish kerakki, muayyan ixtiyorga berilgan erkinlik faqat tanlovning boshlanishida va tanlov jarayonidagina mavjud bo'ladi. Tanlov jarayoni tugashi bilan, ya'ni ikki narsadan birini tanlaganingiz zahoti ixtiyoringiz uchun berilgan erkinlikning vakolati tugaydi: siz ixtiyor qilib bo'ldingiz, bundan buyog'iga erkin emassiz, endi tanlagan narsangizga mos harakatni boshlashingiz kerak. Demak, ixtiyor erkinligi tanlanayotgan ikki narsa oralig'idagi fikrlash mobaynidagina voqe bo'ladigan hodisadir.

Tanlovning o'zi esa ikki xil xohish o'rtasidagi kurashdan iborat. Bu kurashda faqat bitta hohish – qaysinisi kuchli bo'lsa, o'sha g'alaba qozonadi: ham unisining, ham bunisining baravar tanlanishi mumkin emas. Ruhshunoslik nuqtayi nazaridan tanlov hissiyotga asoslangan, qanday sabab orqali vujudga kelishi ahamiyatsiz bo'lgan ruhiy omil. Axloqshunoslikdagi tanlov esa qadriyat bilan bog'liq, aqlga asoslangan tushuncha. Birinchisi – bor narsa, ikkinchisi – bo'lishi kerak deb hisoblangan narsa; birinchisi –mavjud omilni, ikkinchisi – idealni, me'yorni anglatadi. SHunday qilib, insondagi ixtiyor erkinligi zaruriyat talabi bilan oqilona, aqlga bo'ysundirilgan ravishda, ideal va me'yorlarga mos tarzda cheklanadi. Aks holda, muayyan bir yo bir necha inson yoki guruhning betiyiq erkin ixtiyori na faqat boshqa insonlar va guruhlar, balki nabotot, hayvonot olami, butun dunyo uchun fojeaga aylanishi mumkin.

Yuqorida aytib o'tilganidek, ixtiyor erkinligi tufayli inson har qadamda axloqiy tanlov muammosiga duch keladi. Bu muammo kishida mas'uliyat hissi mavjudligidan dalolat beradi. Mas'uliyatni, o'zgalar va o'z vijdoni oldida javobgarlikni sezmagan kishi xohlagan ishga qo'l urishi mumkin – uni o'z qilmishining oqibati qiziqtirmaydi, u faqat manfaat ustuvorligini tan oladi, xolos. Unday odamni axloqsiz deb ataydilar. Zero inson yo ezgulikni, yo yovuzlikni tanlashi tufayli nimanidir ixtiyor etadi: axloqiy tanlov – har bir xatti–harakat, har bir qilmishning ibtido nuqtasi.

Umuman, inson hamda jamiyat axloqiy hayotida ixtiyor erkinligi va tanlovning ahamiyati beqiyos. Masalan, tarixdagi bir ta'sirchan voqeani olib ko'raylik: bozorda mutasavvif alloma, ozarboyjon, eski o'zbek (turkiy), fors tillarida o'lmas asarlar yaratgan buyuk shoir Imoiddin Nasimiyning g'azalini yod o'qiyotgan bir yosh yigitni kufrda ayblab, hibsga oladilar. Yigit oldida ikki yo'ldan birini tanlash turardi: yo piri Nasimiyni sotish va tavba qilib, banddan ozod bo'lish yoki g'azalni o'zimniki, deb o'limga tik borish. Pokdomon, or–nomusli yigit ikkinchi yo'lni tanlaydi. Qozi uning terisini shilishga buyuradi. Olomon–tomoshabinlar yig'iladi. SHu payt Nasimiy kelib qoladi. Voqeadan xabar topgan Nasimiy oldida ham endi tanlov turardi – tanlamaslikning iloji yo'q edi: yo o'zini oshkor qilib, yosh yigitni jallod qo'lidan qutqarishi va uning o'rnini egallashi, yoki olomon orasidan sekin sirg'alib chiqib ketib, muridining o'limga mahkum etilishi evaziga o'z jonini asrab qolishi kerak. Buyuk mutasavvif shoir birinchi yo'lni tanlaydi: o'zini jallod qo'liga tutqazib, begunoh yigitni ozod etadi. Qozi endi Nasimiyning terisini shilishga buyuradi. Jallod ishga kirishadi, atrofga qon sachraydi. SHunda qozi odamlarga, nari turinglar, bu kofirning tomchi qoni biror yeringizga tegsa, o'sha yerni kesib tashlash kerak bo'ladi, deydi. Qozi gapini tugatar–tugatmas, Tangri irodasi bilan bir tomchi qon sachrab uning jimjilog'iga tegadi. Olomon qozidan barmog'ini kesib tashlashini talab qiladi. Endi qozi oldida tanlov turardi: yo barmog'ini kesishga berib, gapining ustidan chiqishi yoki gapidan qaytib, sharmisor bo'lishi kerak. Qozi axloqan nopok, qo'rqoq va xudbin odam sifatida gapidan qaytadi. Nasimiy esa qiynoqqa mardonavor chidab, churq etmaydi, aksincha, qozining ahvolini ko'rib, istehzoli kuladi va so'nggi

g’azalini yoddan aytadi. Nasimiyning bu jasorati asrlardan–asrlarga o’tdi, ne–ne shoirlarning she’rlarida madh etildi, o’zi esa insoniy poklik va yuksak axloqiylikning o’lmas timsoli bo’lib qoldi. Bir namuna sifatida buyuk turkman shoiri Maxtumqulining «Aytishuv» she’ridan quyidagi sakkiz satrni keltirish mumkin:

M a h t u m q u l i – U nimadir, yemadilar – to’ydilar?
U nimadir, ulug’ kunga qo’ydilar?
Ul kim edi tovonidan so’ydilar?
SHoir bo’lsang, shundan bizga xabar ber!
D u r d i sh o i r – U diydordir, yemadilar – to’ydilar,
U namozdir, qiyomatga qo’ydilar,
Nasimiyni tovonidan so’ydilar,
Bizdan salom bo’lsin, javob shul erur!

SHunday qilib, ushbu misolda uch xil tanlovni, uch xil mas’uliyatni va ixtiyor erkinligidan uch xil foydalanishni ko’rdik. Demak, har bir insonning bu dunyoda axloqiy tanlov sinovidan o’tmasligi mumkin emas.

14-mavzu: Nikoh va oilaning axloqiy asoslari, uning yoshlar tarbiyasidagi o'rni

Reja:

1. Nikoh - eng qadimgi axloqiy munosabat shakli.
2. Milliy ma'naviyatimizda nikoh va oilaga doir axloqiy qadriyatlar.
3. O'zbekistonda yoshlar tarbiyasi, ma'naviy-axloqiy kamolotida nikoh va oila haqidagi milliy axloqiy qadriyatlarining o'rni.
4. Oila shartnomasini tuzishning axloqiy jihatlari

Oilani fuqarolik jamiyatining, davlatning eng muhim hujayrasi deyishadi. CHunki har bir jamiyat a’zosi, bo’lajak fuqaroning tarbiyasi oiladan boshlanadi. Oila uch jihatni: o’zining bevosita ko’rinishi bo’lmish nikohni; oilaviy mulk va anjomlar hamda ular haqidagi g’amxo’rlikni; bolalar tarbiyasini o’z ichiga oladi.

Nikoh va muhabbat. Avvalo, nikoh haqida to’xtalib o’taylik. Qonunga binoan nikoh tuzish shartlaridan eng muhimlari – nikohga kiruvchilarning o’zaro roziligi va ularning nikoh yoshiga yetganliklari. Bizda yigitlar uchun – 18, qizlar uchun – 17 nikoh yoshlari qilib belgilangan. Bu – masalaning huquqiy tomoni. Uning ikkinchi – axloqiy tomoni ham borki, u muhabbat bilan bog’liq. Nikoh tuzishdan avval ikki yosh orasida goh ochiq sevgi – muntazam uchrashuvlar, ahdu paymonlar qilish yoki orqavarotdan bir–birini yoqtirish hollari bo’lishi mumkin. Har ikkala holda ham rozilik o’zgarmas shart hisoblanadi.

Ba’zan, qadimda SHarq xalqlarida, shu jumladan, o’zbeklarda qizning yoki yigitning roziligisiz to’y qilib yubora berishgan, ota–onalar kelishishsa – bas, degan fikrlarni uchratadi kishi. Ayniqsa, bunday gaplar sho’rolar davrida tinimsiz takrorlanar edi. Vaholanki, bunday hol kam bo’lgan, uni musulmonchilik inkor etadi. Rivoyat qilishlaricha, Payg’ambarimiz Muhammad alayhissalom uylariga sovchi kelganida, qizlari Fotimadan doimo rozilik so’raganlar va rad javobi olganlar. Faqat Hazrat Ali sovchi qo’yganlarida, Bibi Fotima rozilik berganlar. Demak, farzandning roziligini olish bizga Payg’ambarimizdan qolgan sunnat.

Hozirgi kunda ham ko’pgina yoshlarimiz sovchi orqali turmush quradilar. Odatda sovchi kelib ketgach, yigit bilan qiz uchrashtiriladi, ikkalasi bir–birini ma’qul ko’rsagina fotiha qilinib, to’y taraddudi ko’riladi. Juda ko’p hollarda bunday yoshlar o’rtasida keyinchalik haqiqiy muhabbat shakllanadi. Abdulla Qodiriy «O’tgan kunlar» romanida tasvirlagan Otabek bilan Kumush o’rtasidagi sevgini buning mumtoz namunasi desa bo’ladi. Ochig’ini aytish kerakki, muhabbatning ham o’z darajasi bor: Layli bilan Majnunning muhabbati hamma sevishganlarga ham nasib etavermaydi. Bunday romantik–sururiy sevgi real hayotda kamdan–kam uchraydi. Buning ustiga, oilaviy muhabbat ma’lum ma’noda salobatli, ko’proq yashirin tarzda namoyon bo’ladi.

Oilaning asosi bo’lmish nikoh – ezgu maqsadga yo’naltirilgan, zimmasiga zurriyot qoldirishdek yuksak mas’uliyat yuklangan sevgi, sevishning ijtimoiylashgan ko’rinishi. Biroq sevgi–muhabbat faqat erkinlikda namoyon bo’ladi. SHu jihatni nazarda tutadigan bo’lsak, nikohni, ma’lum ma’noda, an’analar, urf–odatlar va e’tiqodlarga moslashtirilgan sevgining yashash sharti deyish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, nikoh zaruriyatga aylangan erkinlikdir. SHu bois nikohga kirayotgan har bir kimsa bundan buyon o’z erkining boshqa bir erk bilan kelishib yashashini, ixtiyoriy tarzda cheklanib, nisbiylashgan holda mavjud bo’lishini anglab yetmog’i lozim. Bundan tashqari nikoh o’z mohiyatiga ko’ra axloqiy hodisa. Unda ehtiroslar axloqqa bo’ysundiriladi. Oddiy birga yashashda esa tabiiy ehtiyojni qondirish birinchi o’rinda turadi, nikohda u ikkinchi darajali mavqe egallaydi.

Keyingi paytlarda nikoh bilan muhabbatning o’zaro chiqishmasligi haqida G’arb mutafakkirlari tez–tez yozadigan bo’lib qolganlar. CHunonchi, Erix Fromm, industrial jamiyatda muhabbat kamdan–kam uchraydigan hodisa ekanini, nikohning asosida boshqa – moliyaviy, siyosiy, iqtisodiy sabablar yotishini ta’kidlaydi. Umuman, G’arb olamida bunday hodisa anchadan buyon mavjud. SHu jihatdan Jorj Bayronning «Don Juan» she’riy romanidagi quyidagi satrlar diqqatga sazovor:

Bu juda qayg’uli h*odisa shaksiz,*
Insonning kajligi, jinoyati bu;
Ildizi gar bitta bo’lsa h*am,* h*argiz*
*CHiqishmas nik*o*h va mu*h*abbat mangu.*
Sirkaga aylangan vinodek, esiz,
*Nik*o*h mast qilmovchi taxir, nordon suv, –*
Vaqt undan jannatiy bo’yni oladir,

Ro’zg’oru oshxona hidi qoladir.[141]

Garchi bu satrlar yarim kinoya, yarim hazil tabiatga ega bo’lsa–da, ularda ma’lum ma’noda hayotiy asos bor. Agar muhabbat har ikki tomondan e’zozlab, avaylab–asralmasa, undagi jannatiy bo’yni yo’qotib qo’yish hech gap emas. Eng muhimi shuki, nikohdagi huquqiy holatning asosida muhabbat yotmog’i lozim, o’shanda bunday hollar ro’y bermasligi shubhasiz. Ayni paytda dunyodagi hamma narsa–hodisalar kabi muhabbat ham parvarishga muhtoj ekanini unutmaslik kerak.

Oilaviy muhit. Oilaning mustahkam bo’lishi, oila a’zolarining axloqiylik darajasi undagi muhitga bog’lik. Qaysi oilada sog’lom muhit, hukm sursa, uning ravnaqi, baxtliligi ta’minlangan bo’ladi. Sog’lom muhit deganda biz faqat oilada insonparvarlik, vatanparvarlik, ziyolilik, halollik, rostgo’ylik kabi tamoyillar va me’yorlarga amal qilinishinigina emas, balki uning eskicha an’anaviylik yoki Yangicha zamonaviyligini ham tushunishimiz lozim. Zero aynan ana shu ikki xil turmush tarzi oila kelajagi bilan bog’liq.

Eskicha an’anaviy oila kiyinishda, yeb–ichishda kasbu korda zamonaviy oiladan farq qilmaydi. U ham halol, hamma qatori zamonaviy sharoitda yashaydi. Faqat u o’zining «o’zbekchiligi», ajdodlarining an’anaviy ma’naviy qadriyatlarini «unutmagani» bilan faxrlanadi. Hamma gap shundaki, bunday oila asosiy kuchi va imkoniyatlaridan ana shu faxrlanish hissiga erishish uchun foydalanadi: an’anaviy o’zbekona to’y kechasida nikoh bazmida artistlarga «gaplashilgan» va «qistirilgan» millionlar hisobiga bemalol bitta bolalar bog’chasi qursa bo’ladi. Ayniqsa og’zini qimirlatib turish bilan (fonogramma orqali) harom pul topayotgan «artist»larning qudag’aylarni (ayol qudalarni) raqsga tushishga da’vat qilishini borib turgan odobsizlik: ortiqcha pul yig’ib berish uchun bechora qaynonalar Yangi kelin va kuyov oldida o’yinga tushadilar. An’anaviy to’ylar isrofgarchilik namunasi, muayyan ma’noda axloqsizning bir ko’rinishiga aylanib ketganini tan olish kerak. «Borda»–ku «bor», «yo’qlar» ham shunday qilishga intiladilar. «Eshak eshakdan qolsa qulog’ini kesadi» qabilidagi to’y uchun ko’p hollarda necha yilar davomida yaxshi yemay, yaxshi kiymay, quruq non–choy bilan kun o’tkazib yashash kerak bo’ladi. Bunday «orzu – havas»larning tagida yo odamlar nima der ekan degan qo’ruv yoki maqtanish, kibr, birovlarga o’zini ko’z–ko’z qilish kabi illatlar yotadi. Eng yomoni shundaki, bunday oilada sog’lom muhit qaror topmaydi, dasturxon ustida, bo’sh vaqtlarda bolalardan «qutilib olish» uchun ko’proq pul topish haqida tinmay so’zlanadigan, falonchining to’yi mundog’ o’tibdi, u unday qilibdi, bu bunday qilibdi, degan mayda gapalardan nari o’tilmaydigan bo’lib qoladi, axloqiy ideallar xiralashadi, estetik did o’tmaslashadi, ijtimoiy ma’naviy intilishlar nihoyat darajada sustlashadi. Bu masalaning bir tomoni. Ikkinchi tomoni ham bundan yaxshi emas: oilada totuvlik yo’qoladi, er va xotin o’rtasida moddiy yetishmovchiliklar, «sandiq to’lmayotgani» borasida tez–tez aytishishlar, ta’na–dashnomlar, janjallar bo’lib turadi, ba’zan ular katta oilaviy mojarolarga ham aylanib ketadi. Bunday eskicha–an’anaviy oiladagi muhit atrofdagi boshqa oilalarga ham salbiy ta’sir ko’rsatadi, jamiyatning zaif, ma’naviy saviyasi past xalqasi sifatida millat tarbiyasini ma’lum ma’noda buzadi. Ayni paytda o’z a’zolarining ham «gap–so’zdan» qo’rqadigan, maqtanchoq, ijtimoiy–siyosiy «savodsiz», umrini kundalik mayda tashvishlar bilan o’tkazadigan odamlar bo’lib qolishlariga olib keladi.

Yangicha zamonaviy oiladagi muhit esa buning aksi: to’y–ma’rakalarda eng yomon illat bo’lmish isrofgarchilikka yo’l qo’yilmaydi. Ularga ketadigan ortiqcha sarf–xarajatlar imkoni boricha qisqartirilib, asosiy mablag’ oilaning farovonligini, intellektual va maishiy darajasini yuksaltirishga yo’naltiriladi. Bunday oilada totuvlik, xotirjamlik qaror topadi, dasturxon ustidaga suhbatlar Yangi kitoblar, filmlar, ijtimoiy–siyosiy Yangiliklar, inernet xabarlari ustida boradi, dam olish maskanlariga borish rejalari tuziladi; asosiy xatti–harakat farzandlarning oliy ma’lumotli bo’lishiga, zamonaviy kasbiy mahoratni egallashiga, ularni halq va Vatan faxrlanadigan shaxslar bo’lib yetishishlariga qaratiladi.

Agar eskicha–an’anaviy oilaviy muhit O’zbekistonda erkin demokratik fuqarolik jamiyati qurilishiga to’sqinlik ko’rsatsa, Yangi zamonaviy oila muhiti uning tezroq ro’yobga chiqishi uchun muhim omil bo’lib xizmat qiladi.

Oilaviy mulk, farzand tarbiyasi va oilaning tarqalishi. Oilaning yana bir jihati – uning o’z mulkiga egaligi. Agar nikoh oilaning botiniy ko’rinishi bo’lsa, oilaviy mulkni uning tashqi ko’rinishi deyish mumkin. Oilaning mavjud bo’lishi uchun ishlab topiladigan mablag’ ham zarur. Oila uchun topiladigan ana shu mablag’, shubhasiz, axloqiy tabiatga ega: oila boshlig’i oila a’zolarini halol yedirib–ichirishi, kiydirishi lozim. Oilani odatda erkak kishi boshqaradi. U nafaqat «topib keladi», balki oilaviy mulkka xo’jayinchilik qilish, uni taqsimlash huquqiga ham ega.

Yuqorida aytganimizdek, nikoh ezgu maqsadga yo’naltirilgan, zimmasiga zurriyot qoldirishdek yuksak mas’uliyat yuklangan, axloq bilan chegaralangan qo’shiluv, birlashuv; bu birlashuvdan maqsad – hayotda o’zlaridan yaxshiroq, mukammalroq bo’lgan, o’zlari erisholmagan orzularni ro’yobga chiqaradigan odam nusxalarini yaratish. Bunday odamlar farzandlardir. SHu munosabat bilan SHimmel xonim o’zining avvalgi boblarda tilga olingan kitobida ba’zi mutasavviflar uchun umumiylik tabiatiga ega bo’lgan qiziq bir fikrni keltiradi: «Ba’zi so’fiy–teosofik oqimlarning tarafdorlarida mahsulot beradigan har bir xatti–harakatni «nikoh» deb atashga moyillik bor. Ularning fikricha, po’lat bilan chaqmoqtosh birlashsa, bu nikohdan yanada yetukroq farzand, ya’ni olov dunyoga keladi. Erkaklik va ayollik unsurlarining birlashuvi hayotni yanada yuqoriroq pog’onaga chiqaruvchi omildir»[142].

---

[141] *Byron. Don Juan.* M., Foreign language publishing house, 1948. P. 124.

[142] *Шиммел А.* Жонон менинг жонимда, 44 – 45-б.

SHu bois oilada bolaning ahamiyati nihoyatda katta. Ota bolada o'z jufti halolini, ona esa sevimli erini ko'radi: bolada er–xotinning muhabbati predmetlashadi, jonlanadi. Bola – oilani tutib turuvchi jonli muhabbat. Bolalar oilada umumiy oilaviy mulk hisobiga yeb–ichadilar, tarbiya oladilar.

Oilada bolalar intizomli bo'lib o'smoqlari, ota–onaga bo'ysunishlari lozim. Lekin bu intizom erkin o'sib kelayotgan go'dakni qullikka o'rgatish emas, balki bolalarga xos erka–tantiqlik, o'zboshimchalik singari salbiy xususiyatlarni yo'qotishga xizmat qilishi kerak. Ota–onaga bo'ysunishdan bosh tortishga yo'l qo'yish bolaning kelajakda qo'pol, badxulq, nokamtarin bo'lib yetishuviga olib keladi. SHu bois oila ilk axloqiy tarbiya o'chog'i sifatida katta ahamiyatga ega.

Oila tarqalishi ham mumkin. Buning turli sabablari bor. Biri – oilaning axloqiylik nuqtayi nazaridan tarqalishi. Bunda bolalar balog'atga yetgach, erkin shaxs sifatida Yangi oilaga asos bo'lishlari – o'g'il bolalarning uylantirilishi, qizlarning erga berilishi nazarda tutiladi. Uylantirilgan o'g'illarga ham, erga berilgan qizlarga ham Yangi oila qurish va uni moddiy jihatdan dastlabki paytlarda muhtojlikdan saqlab turish uchun yetarli bo'lgan uy–ro'zg'or ashyolari ajratiladi.

SHuningdek, oilaning tabiiy tarqalishi ham mavjud. Unda ota–onaning yoki otaning vafoti tufayli oila mulkining meros tarzida bir yoki bir necha farzandga o'tishi munosabati bilan oila tarqalishi mumkin.

Bundan tashqari, nikoh bekor qilinishi munosabati bilan oila tarqaladi. Aslida nikoh ham diniy, ham dunyoviy nuqtayi nazardan buzilmasligi kerak. Lekin o'rtada xiyonat sodir bo'lishi yoki yana boshqa bir xil sabablar tufayli nikohni faqat axloqiy obro'ga ega, qonun bilan tan olingan idoralar, masalan, sud, vakolatli ruhoniy bekor qilishi mumkin, zero u, aytganimizdek, axloqiy hodisa. Har bir jamiyat mana shu so'nggi turdagi oila tarqalishiga qarshi kurashadi. Bunday oila buzilishi qancha kamaysa, u o'sha jamiyatning axloqiy jihatdan takomillashib borayotganini anglatadi. «Muxtasar aytganda, **hammamizga ayon bo'lishi tabiiyki, oila sog'lom ekan – jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan – mamlakat barqarordir**»[143].

Dastlabki axloq maskani bo'lmish oilalar yig'indisi fuqarolik jamiyatini, millatni tashkil etadi. Fuqarolik jamiyati mohiyatan oila bilan davlat o'rtasidagi daraja. Garchand, uning taraqqiyoti davlat taraqqiyotidan keyinroq ro'y bersa ham, u albatta davlatni taqozo etadi, ya'ni fuqarolik jamiyatining yashashi uchun uning oldida mustaqil nimadir – rasmiy, tizimli boshqaruv bo'lishi kerak.

Fuqarolik jamiyati zamonaviy dunyomizda vujudga keladi, zero, hozirgi paytdagina fuqarolar huquqi haqiqatan ham inobatga olinadi. Fuqarolik jamiyatida har bir odam o'zi uchun maqsad. Biroq, u boshqalar bilan munosabatga kirishmasdan turib, o'z maqsadiga to'la erisha olmaydi: boshqalar uning maqsadga yetishishi yo'lidagi vositadir. Natijada har bir alohida maqsad boshqalar bilan o'zaro munosabatlar vositasida, ularning farovonlikka intilishini qanoatlantirgani holda, o'zi ham qanoatlanadi. Boshqacharoq qilib aytganda, fuqarolik jamiyatida yaxshi, badavlat, baxtli, huquqiy yashash uchun bo'lgan har bir fuqaroning intilishi pirovard natijada butun jamiyatning o'shanday yashashiga olib keladi.

Fuqarolik jamiyati, shunday qilib, bir kishining ehtiyojini uning mehnati vositasida qondirishi barobarida, shu mehnat vositasida barcha qolganlarning ham ehtiyojini qondiradi. U o'z a'zolarining shaxsiy erkinliklari va huquqlarini himoya qiladi, odil sud vositasida ular mulkiga daxl qilinishiga yo'l qo'ymaydi. Fuqarolik jamiyati turli tabaqalardan tashkil topadi. Ular orasida tabaqaviy yoki sinfiy ziddiyat singari hodisalar ro'y berishi mumkin emas. CHunki bunda shaxs – davlat fuqarosi, muayyan inson manfaatlari birinchi o'rinda turadi va bu manfaatlar, aytganimizdek, ham axloqiy, ham qonuniy jihatdan himoya qilinadi. Zotan, «Biz uchun fuqarolik jamiyati – ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z–o'zini kamol toptirishiga monelik qilmaydi, aksincha, yordam deradi. SHaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi»[144].

Fuqarolik jamiyatining yashash sharti – erkinlik. SHaxsning qonun doirasidagi so'z erkinligi, fikr erkinligi va faoliyat erkinligiga to'la yo'l qo'yilmas ekan, fuqarolik jamiyati amalda mavjud bo'la olmaydi. Bu jamiyatning yana bir muhim tomoni shundaki, unda qarindoshlik, urug'doshlik, elatdoshlik singari hissiyotlardan kasbdoshlik, mahalladoshlik hissiyotlari ustun maqomga ega bo'ladi; yonma–yon ishlayotgan va yashayotgan jamiyat a'zolari, «begonalar» – umumiy maqsad uchun kurashayotgan hamma yelkadoshlar o'zlarining uzoq qarindoshlaridan ko'ra bir–birlariga yaqinroq ekanliklarini anglab yetadilar. Undagi boshqaruv esa erkin tanlov va erkin saylov asosida, hokimiyat idoralari tazyiqidan qonun bilan himoyalangan ixtiyoriy tuzilmalar ko'magida ish olib boradi. SHu bois davlatimiz rahbari Islom Karimov fuqarolik jamiyatini mamlakatimiz siyosiy va davlat qurilishining asosiy xususiyatlaridan biri sifatida ta'kidlaydi va bu xususiyatning mohiyatini mahalliy hokimiyat va fuqarolarning o'zini–o'zi boshqarish organlari vazifalarini kengaytirish, ularga davlat vakolatlarining bir qismini bosqichma–bosqich o'tkazib borish, nodavlat va jamoat tuzilmalari huquqi va mavqeini oshirishni ko'zda tutadigan «Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari» konsepsiyasini amalga oshirishdan iborat» deb ta'riflaydi[145].

Mamlakatimizda hozir erkin, demokratik fuqarolik jamiyatini tuzishga kirishganmiz. Bu jamiyat, ma'lum ma'noda, g'arbliklar tasavvuridagi fuqarolik jamiyatlaridan farq qiladi. G'arbda bu borada e'tibor asosan huquqiy yo'nalishning ustuvorligiga qaratilsa, bizda axloqiy–ma'naviy yo'nalishning ustuvorligini ko'rish mumkin. SHu nuqtayi nazardan olib qaraganda, biz qurayotgan fuqarolik jamiyati G'arb dunyosi uchun o'rnak bo'lishi mumkin.

---

[143] *Каримов И.А.* Юксак маънавият – енгилмас куч. Т., «Маънавият», 2008, 58-б.

[144] *Каримов И.А.* Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т., «Ўзбекистон», 1998, 127-б.

[145] *Каримов И.А.* Донишманд халқимизнинг мустаҳкам иродасига ишонаман. «Фидокор» газетаси, 2000 йил, 8 июн.

Bu faxrlanish hissidan kelib chiqqan balandparvoz gap emas. Masala shundaki, G'arb jamiyatlari hozirgi paytda axloqiylikni huquqiylikning yuqori bosqichi sifatida qabul qilmoqdalar. Lekin ular uchun «axloqiy o'rin bo'shatishdan» ko'ra «huquqiy o'rinni egallab turish» nafaqat qonuniy, balki zavqliroq tuyuladi. Bizning mentalitetimizda esa buning aksi – har bir «axloqiy o'rin bo'shatish» o'zbek qalbiga quvonch, o'z insonlik burchini bajarganlik hissini to'ldiradi.

Bundan tashqari, bizda fuqarolik jamiyati qurishni ma'lum ma'noda tezlashtiradigan, G'arb mentalitetiga xos bo'lmagan mahallalar bor. O'zbek mahallalari tom ma'noda axloqiy tarbiyaning maskani; oila kattalari bolaga qanchalik tarbiya bera olsa, o'sha oila yashayotgan mahallaning tarbiya borasidagi hissasi ham shuncha bo'ladi, desak xato qilmaymiz. Buning ustiga, mahallada xalqimizning qadimiy demokratik an'analari hozir ham o'z kuchini yo'qotgan emas. Mahallada yashayotgan hukumat a'zosi ham, millioner tijoratchi ham, farrosh ham, oddiy o'qituvchi ham bir xildagi mahalladoshlik huquqiga ega. CHunonchi, mahallaning oqsoqoli oddiy o'qituvchi bo'lishi mumkin va ko'p hollarda shunday ham. Hukumat a'zosi yoki millioner esa, mahallada faqat mahalladoshlik «lavozimi»da bo'ladi. Ularning farqlanishi faqat axloqiy jihatlari bilangina belgilanadi. Ana shu xususiyatlari bilan mahalla o'z–o'zini boshqarish tuzilmasi sifatida oiladan fuqarolik jamiyatiga o'tish uchun axloqiy ko'prik bo'lib xizmat qiladi. Bunday oraliq bog'lovchi tuzilma, yuqorida aytganimizdek, G'arb olamida yo'q. Demak, shunga ko'ra ham, bizda fuqarolik jamiyatiga o'tish nisbatan osonroq kechadi, degan fikrni bildirish mumkin. Bu borada Respublikamiz Prezidenti Islom Karimovning: «SHu ma'noda mahallani o'z–o'zini boshqarish maktabi, ta'bir joiz bo'lsa, demokratiya darsxonasi, deb atash mumkin», – degan so'zlari ayni haqiqatdir.[146]

Shunday qilib, fuqarolik jamiyati muayyan xalq uchun jam bo'lib, jamoat tarzda yashashning eng oliy shakli hisoblanadi va nosiyosiy bo'lgan barcha munosabatlarni o'z ichiga oladi. Unda shaxs erkinligi «individning ochilishi» ixtiyoriy tarzda tuzilgan fuqarolar uyushmalari, tashkilotlari va birlashmalari doirasida o'zini namoyon qiladi; iqtisodiy, diniy, ma'naviy, axloqiy–estetik milliy, oilaviy v.b. munosabatlar davlat idoralarining aralashuvisiz, o'z–o'zini boshqarish asosida amalga oshiriladi.

15-mavzu: Axloqiy madaniyat va qadriyatlar

Reja:

1. Muomala madaniyati – axloqiy madaniyatning tarkibiy qismi va uning ijtimoiy-tarixiy ahamiyati.
2. Kasbiy odobning axloqiy madaniyat bilan uyg'unligi.
3. San'atning shaxs axloqiy tarbiyasiga ta'siri.
4. "Ommaviy madaniyat"ning yoshlar dunyoqarashiga ta'siri.

Axloqiy madaniyatning eng muhim unsurlaridan biri – muomala odobi. U, mohiyatan, o'zaro hamkorlikning shakllaridan biri. Inson zoti bir–biri bilan hamkorlik qilmasdan, o'zaro tajriba almashmasdan, bir–biriga ta'sir ko'rsatmasdan rasmana yashashi mumkin emas. Muomala odam uchun ehtiyoj, zarurat, sog'lom kishi usiz ruhan qiynaladi, kayfiyati tushib boradi. Bu o'rinda buyuk ingliz yozuvchisi Daniel Defo qalamiga mansub mashhur «Robinzon Kruzoning sarguzashtlari» asarini eslashning o'ziyoq kifoya: Jumaboyni topib olgan Robinzonning naqadar quvonishiga ham sabab ana shunda.

Muomala odobi boshqa kishilar qadr–qimmatini, izzatini joyiga qo'yishni, an'anaviy axloqiy–me'yoriy talablarni bajarishni taqozo etadi. SHuning barobarida, u insondagi yaxshi jihatlarni namoyon etishi, ko'zga ko'rsatishi bilan ham ajralib turadi. Uning eng yorqin, eng sermazmun va eng ifodali namoyon bo'lishi so'z, nutq vositasida ro'y beradi. So'zlash va tinglay bilish, suhbatlashish madaniyati muomalaning muhim jihatlarini tashkil etadi. SHu bois muomala odobi o'zini, eng avvalo, shirinsuxanlilik, kamsuqumlik, bosiqlik, xushfe'llilik singari axloqiy me'yorlarda namoyon qiladi.

Darhaqiqat, muomala odobida muloqotning asosi bo'lmish til katta ahamiyatga ega. Zero, odamlar bir–birlarini til orqali tushunadilar, til vositasida o'z fikrini o'zgaga yetkazish ma'lum ma'noda san'at. Zarur so'zni topish, muayyan holatga mos keladigan ifodaviy vositalarni qo'llash, fikrni jumlaviy jihatdan to'g'ri ifodalash, aniq, bosiq, salobat bilan so'zlash hamsuhbatingiz yoki tinglovchining diqqatini tortishda muhim rol o'ynaydi, so'zlovchining nutq madaniyati darajasini ko'taradi. Muomala odobida tilning sofligi masalasi ham muhim. Til sofligi buzilishining asosiy uch xil ko'rinishi mavjud: birinchisi – bir tilda so'zlashayotib, ikkinchi tilga o'tib ketish, to'g'rirog'i, birvarakay «ikki tilda» so'zlashish, misol qilib, ikki talabaning so'zlashayotganda o'zbek tilida rus tiliga, rus tilidan o'zbekchaga muntazam o'tib turishini olish mumkin, bu ba'zilar uchun odatiy hol bo'lib qolgan. Ikkinchisi – bir tilda so'zlashayotib, ikkinchi tildagi so'zlarni, ayniqsa jargonlarni ishlatish. M., «davay», «koroche», v.h. Til sofligining uchinchi buzilishi esa bir tilda so'zlashgan holda o'sha tildagi «parazit» so'zlarni qo'llashda ko'rinadi. M., «anaqa» «haliginday» v.h. Muomaladagi bunday til sofligining buzilishlari hamsuhbatlarga bilinmasa ham, chetdan kuzatgan odamga nihoyatda xunuk ko'rinadi.

Muomala odobida «siz» va «sen»ning o'z o'rnida qo'llanilishi ham ahamiyatga ega. Xususan, ota–ona, aka–opa yoki boshqa yoshi katta odamlar uchinchi shaxs bo'lganida ularga nisban birlikdagi «u» olmoshini emas, hurmatni anglatuvchi «ular» yoki «u kishi» shaklini qo'llash odobdan. M., «Otam shunday dedi» emas, «Otam shunday dedilar», «U kishi shuni xohlayaptilar» v.h.

[146] Ўша манба.

Suhbat paytida tinimsiz harakatda bo'lib turish, qo'lni paxsa qilib gapirish yoki suxbatdoshining yoshini nazarga olmay, uni oyoqni chalkashtirib o'tirgan holda tinglash, birov jon kuydirib so'zlayotganda esnash v.b. shunga o'xshash holatlar ham muomaladagi odobsizlikni bildiradi.

Muomala odobining yana bir «ko'zgusi», bu – insoniy qarash, nigoh, so'zsiz – noverbal harakatlar. Ma'lumki, odamning qarashida, yuz ifodasida, qo'l harakatlarida uning qay sabablardandir tilga chiqmagan, so'zga aylanmagan hissiyoti, talablari o'z aksini topadi. CHunonchi, suhbatdoshining gapini oxirigacha eshitmay, qo'l siltab ketish – muomaladagi madaniyatsizlikni anglatadi. Ba'zan qarab qo'yishning o'zi so'zdan ham kuchliroq ta'sir ko'rsatadi. Deylik, bir quruvchi usta o'z shogirdining xatti–harakatlaridan noroziligini bildirish uchun bosh chayqab, jilmayib qo'yishi mumkin. Ikkinchi usta esa, bir lahza o'qrayib qarash bilan munosabatini ifodalaydi. Birinchi usta yuz ifodasi va xatti–harakati bilan: «Obbo shovvoz–ey, sal shoshilibsan–da, ha, mayli, zarari yo'q, shunaqasi ham bo'ladi», degan ma'noni anglatsa, ikkinchi ustaning qarashidan: «Yana ishni rasvo qilibsan–ku, padarla'nat, qachon odam bo'lasan?!», degan so'zlarni uqish mumkin. SHubhasiz, birinchi usta muomalada odobga rioya qilgan bo'lsa, ikkinchisi uning aksi – shogirdining emas, o'zining odobsizligini ko'rsatmoqda.

Umuman olganda, muomala odobi kishilarning nasihat qilmasdan va odob o'rgatmasdan bir–biriga ta'siri, tarbiya va o'z–o'zini tarbiya vositasi sifatida diqqatga sazovor. SHu sababli yoshlarimizda muomala odobini shakllantirish hozirgi kunda jamiyatimiz oldida turgan muhim vazifalardan. Bunda ota–onaning, mahalla–ko'yning ta'siri katta. Undan foydalana bilish kerak. Zero, axloqiy komillikka erishish muomala odobini egallashdan boshlanadi.

Axloqiy madaniyat kasbiy odobda ham yaqqol ko'zga tashlanadi. CHunki inson voyaga yetib, bir kasbning boshini tutgach, o'z kasbi doirasida odamlar bilan muntazam munosabatda bo'ladi. Bu munosabat, bir tomondan, hamkasabalar davrasida ro'y bersa, ikkinchi jihatdan, u kasb talabiga binoan uchrashadigan turli toifadagi odamlar bilan yuzaga keladi. Ayni paytda, kasbiy odob axloqiy madaniyatning eng yuksak shakllaridan biri; uning jamiyat axloqiy hayotidagi o'rni yuksak. SHu bois kasbiy odobga bafurjaroq to'xtalish joiz.

Har bir jamiyatda muayyan guruhlar borki, egallagan kasblari ularni boshqa jamiyatdoshlariga nisbatan imtiyozli darajaga olib chiqadi. Ko'pchilik jamiyat a'zolarining hayot–mamotlari, sog'ligi, ma'naviy sog'lomligi, huquqiy himoyasi, ilmiy salohiyatining namoyon bo'lishi kabi omillar o'shanday imtiyozli kasb egalarining o'z kasbiy burch mas'uliyatini qay darajada his etishlariga, halollik va vijdon yuzasidan ish ko'rishlariga bog'liqligi hammaga ma'lum. CHunonchi, tabobat xodimini, jarrohni olaylik. Deylik, u har bir operatsiya kunida bir necha kishini hayotga qaytaradi; yuzlab odamlar uning yordamiga muhtoj, unga umid va ishonch, ilinj bilan qaraydilar. Bordi–yu, shaxsiy manfaat yo'lida jarroh o'z bemoriga xiyonat qilsa–chi, ya'ni, uni qasddan halok etsa–chi? Kim uni shunday qilmasligini kafolatlaydi? Yoki jurnalistni olaylik. U shaxsiy manfaati yo'lida, kasbining kamyobligidan foydalanib, begunoh kishilarni ma'naviy azobga qo'yishi, atayin jamiyat oldida sharmanda qilishi va shuning hisobiga o'zining ba'zi bir muammolarini hal qilib olishi mumkin emasmi? Mumkin. Zero, to haqiqat yuzaga chiqquncha nohaq tanqidga uchragan shaxsning adoi tamom bo'lishi hech gap emas. Xo'sh, jurnalistning shunday qilmasligini kim kafolatlaydi?

SHu bois boshqalarning qo'lidan kelmaydigan ishlarni bajara oladiganlar faoliyatida o'zboshimchalik, manfaatparastlik, xudbinlik va kasbni suiiste'mol qilish singari illatlarga yo'l qo'ymaslik uchun, shuningdek, ular axloqiy darajasini yuksak bosqichda turishini ta'minlash maqsadida ko'p hollarda o'zaro qoidalar majmui yaratilgan. Bu qoidalar majmui, odatda, qasamyod yoki me'yorlar ko'rinishini olgan. Uni buzish o'ta odobsizlik va axloqsizlik, hatto jamiyatga xiyonat tarzida baholanadi. Bunday qasamyodlar juda uzoq tarixga ega. Misol tariqasida hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan Qadimgi Yunon hakimi Hippokrat (milodgacha V–IV asrlar) tomonidan qisqa va lo'nda shaklda tuzilgan, tabobat xodimlari kasbiy odobi qonun–qoidalari jamlangan mashhur «Hippokrat qasami»ni keltirish mumkin.

Tarixda o'z dushmanini davolagan tabiblar ham ko'p uchraydi. CHunonchi, qadimgi hind eposi «Ramayana»da (II asr) behush yotgan Lakshman boshida turgan devlar shohining xos tabibi kechinmalari shu jihatdan muhim. Tabib oldida ikki yo'l bor edi: biri – saltanat dushmanini muhtoj bemor sifatida davolash, ikkinchi yo'l davolashdan bosh tortish bilan uni o'limga mahkum etish. Tabib uzoq mulohazadan so'ng tabiblik odobi qoidalariga bo'ysunishni – Lakshmanni davolashni afzal ko'radi. Zero, kasbiy odob qonun–qoidalari talabiga ko'ra, bemor to'shagi ustidagi tabib uchun do'st yoki dushman degan tushunchalar o'z ma'nosini yo'qotadi, uning qoshida faqat tibbiy yordamga intizor, shafqatga muhtoj, zaif inson yotadi. Davolanib hayotga qaytgan Lakshman devlar mamlakatining tengsiz buyuk jangchisi va saltanat valiahdi Indirjidni jangda halok etadi hamda tabib fuqaro bo'lgan Lanka davlatining tanazzuliga yo'l ochadi. Lekin, kitobxon tabibni xiyonatkor yoki sotqin demaydi, aksincha, uning ma'naviy jasoratiga, halolligiga, kasbiy burchiga sodiqligiga hayrat bilan tasannolar o'qiydi.

Yoki mashhur rus olimi akademik Andrey Saxarovning taqdirini olaylik. Buyuk nazariyotchi, fizik, termoyadro sohasida tengi yo'q mutaxassis, vodorod bombasining asosiy kashfiyotchisi, Vatan mudofaasini mustahkamlashdagi xizmatlari uchun o'nlab orden va medallar sohibi, ikki marta Sotsialistik Mehnat Qahramoni, obro'li, badavlat bu insonga nima yetishmasdi? Nega u hammasidan kechishga – ommaviy qirg'in qurollari, jumladan, o'zi yaratgan vodorod bombasi sinovlariga ochiq bayonotlar bilan qarshi chiqishga ahd qildi? Natijada qatag'onlarga asoslangan sho'rolar tuzumi uni ilmiy jamoatchilikdan ajratib, poytaxtdan olisdagi Rossiya shaharlaridan biriga badarg'a qildi, uning nomini matbuotda yoki kitoblarda qayd etilishini taqiqladi. Vaholanki, u hammadan izzatliroq yashay olishi mumkin edi. Saxarov yuksak axloq yo'lini tanladi – olimlik burchi, odobi talablarini bajarishni har qanday boylik, izzat–ikromdan baland qo'ydi. Buyuk olim o'z kashfiyoti insonning eng oliy huquqi bo'lmish – yashash huquqiga rahna solishi mumkinligi va qisman solayotgani uchun uni amalda

qo’llanilishiga qarshi kurashdi. U sho’rolar hukumati va mafkurachilari tomonidan o’zining Vatan mudofaasi quvvatini susaytirishga harakat qilgan salkam xiyonatkor fuqaro deb e’lon etilishiga, boshiga behisob tuhmatlar, ta’na–dashnomlar yog’dirilishiga sabot bilan chidadi, ahdidan qaytmadi, yovuzlik saltanati qo’lida o’z olimlik iste’dodining qo’g’irchoq bo’lishiga, harbiy murvatga aylanishiga yo’l qo’ymadi. Oxir–oqibatda u inson huquqlarining jahon tan olgan eng buyuk himoyachilaridan biri sifatida butun insoniyat tahsiniga sazovor bo’ldi. Bunday misollarni ko’plab keltirish mumkin.

Bulardan tashqari, muallimlik odobi, huquq–tartibot xodimlari odobi, muhandis odobi singari birqancha kasbiy odob turlari borki, ular ham jamiyatda axloqiy munosabatlar silsilasida muhim ahamiyatga ega. SHuni aytish kerakki, barcha kasbiy odob qonun–qoidalarining ta’sir doirasi, miqyosi bir xil emas. Ba’zi bir kasbiy odobning buzilishi oddiy odobsizlik doirasidan chiqib, axloqsizlikka aylanib ketadi. Masalan, rahbarlik odobidagi ba’zi nuqtalarga to’xtalaylik. Rahbar quyi lavozimdagilarga mensimay, qo’pol munosabatda bo’lishi, o’ziga ishonib topshirilgan hudud yoki tashkilotdagi oddiy odamlar arz–dodiga, orzu–istaklariga to’ralarcha qarashi odobsizlikka kirsa, uning shaxsiy boylik orttirishi yo’lida korruptsiya vositasida mamlakat, viloyat yoki tashkilot manfaatlarini qurbon qilishi axloqsizlik, nafaqat rahbarlik kasbiga, balki Vatanga ham xiyonat tarzida baholanishi mumkin. Ba’zan kasbiy odobning kasbiy axloq deb atalishi ham ana shundan.

Rahbarlikning axloqiy jihatlari, rahbar borasida Islom Karimovning mana bu fikrlari bag’oyat ibratlidir: «Oddiy odamlarning rahbarlarga munosabati ikki fuqaro o’rtasidagi munosabatgina emas. Ayni paytda u jamiyatda qaror topadigan ma’naviy–ruhiy, siyosiy–axloqiy muhitni ham yaratadi… Haqiqiy rahbar odamlarning ko’ngliga yo’l topib, ularni ezgulikka, yaxshilikka, yaratishga da’vat etadi»[147].

Yuqorida keltirilganlardan ko’rinib turibdiki, kasbiy odob muammosi, ba’zilar o’ylaganidek, axloqshunoslikning mayda masalalaridan emas. Uni har tomonlama o’rganish, kasbiy erkinlik va kasbiy burch munosabatini tadqiq etish XXI asr axloqshunosligida muhim o’rin egallayajak. Zero, kasbiy odob shaxs va jamiyat axloqiy hayotida o’zini amaliy axloq tarzida namoyon etuvchi ma’naviy hodisa sifatida baholanishi lozim.

Insonning axloqiy hayoti uning axloqiy tarbiyasi bilan chambarchas bog’liq. Zero, axloqiy tarbiya insonning shaxs bo’lib yetishuvini ta’minlaydigan uzluksiz jarayonlaridan biri. Unda individ axloqiy qadriyatlarni anglab yetadi, o’zida axloqiy fazilatlarni barqaror etadi, axloqiy tamoyillar va me’yorlar asosida yashashga o’rganadi.

Axloqiy tarbiya insoniyat tarixi mobaynida ikki muhim masalaga javob izlaydi: bulardan biri – qanday yashamoq kerak, ikkinchisi – nima qilmog’–u, nima qilmaslik lozim. Ana shu savollarga javob izlash jarayoni axloqiy tarbiyaning amaliy ko’rinishidir.

Tarbiya ona qornidan boshlanadi degan gap bor. Uning asl ma’nosi, avvalo, ota–onaning o’zi axloqiy tarbiya ko’rgan bo’lishi kerak degani. Zero, qush inida ko’rganini qiladi: ota–ona oilada yuksak axloq namunasini ko’rsatishi lozim.

SHuni ham alohida ta’kidlash joizki, axloqiylik insonda faqat axloqiy tarbiya vositasidagina vujudga keladi, degan moddiyatchilik qarashlari ko’p yillar mobaynida hukmronlik qilib keldi. To’g’ri, axloqiy tarbiyaning ahamiyati nihoyatda katta. Lekin axloqiylik insonga uning insoniylik belgilaridan eng muhimi sifatida ato etilgan ilohiy ne’mat. SHu ma’naviy ne’mat–asosni axloqiy tarbiya yordamida takomillashtiramiz. Aks holda maymun va itlardan ham axloqiy mavjudot tarbiyalab yetkazishimiz mumkin bo’lur edi.

SHunday qilib, axloqiy tarbiya inson farzandini takomilga, komillikka yetkazish yo’llaridan biri. Uning vositalari ko’p. Ularning bir qismi an’anaviy tarbiya vositalari bo’lsa, yana bir qismi zamonaviy vositalar. Odatda, har ikki turdagi vositalardan foydalaniladi. CHunonchi, maktabgacha bo’lgan axloqiy tarbiyada ertak va rivoyatlar vositasidagi an’anaviy tarbiya bilan o’yinchoqlar va o’yinlar vositasidagi zamonaviy tarbiya muvaffaqiyatli qo’llaniladi; bunda bola qizg’anchiqlik, g’irromlik qilmaslikka, halol bo’lishga o’yinlar yordamida da’vat etiladi. Bolalar axloqiy tarbiyasida televidenie, radio, qo’g’irchoq teatri, kino san’ati katta rol o’ynaydi.

Umuman, axloqiy tarbiyaning eng kuchli vositasi – san’at. Bu vosita aholining barcha tabaqasini, turli yoshdagi shaxslarni qamrab oladi. Ayniqsa, san’atning badiiy adabiyot turi keng qamrovli. Ertakdan tortib romangacha bo’lgan janrlarda chop etilgan asarlar shaxsning axloqiy shakllanishida ulkan xizmat ko’rsatadilar. Ular orqali kitobxon tarbiyalanuvchi sifatida ezgulik va yovuzlik nimaligini badiiy idrok etadi; ideal tanlashda ham ularning ahamiyati katta. Bundan tashqari, badiiy adabiyotning bevosita axloqiy tarbiyaga mo’ljallangan hikoyatlar, rivoyatlar va nasihatlar majmualari borki, biz ularni, avval aytganimizdek, pandnomalar deb ataymiz: «Kalila va Dimna», «Qobusnoma», «Guliston», «Zarbulmasal» singari bunday mumtoz asarlar an’anaviy axloqiy tarbiya vositasi sifatida necha asrlardan buyon qanchadan–qancha avlodlarga xizmat qilib keldi, bundan buyon ham shunday bo’lib qolajak.

Axloqiy tarbiyaning barcha zamonlar uchun dolzarb bo’lgan yo’li, bu – namunaviylik tamoyili. Oilada, avvalo, yuqorida aytilganidek, ota–ona bolaga axloqiy namuna bo’lishi kerak. Maktabda va oliy o’quv yurtida muallimlarning ta’lim berish usullaridan tortib, to «mayda–chuyda» xatti–harakatlarigacha o’z shogirdlari tomonidan shaxsiy namuna tarzida qabul qilinishini nazardan qochirmaslik lozim. Ustoz–shogirdlik munosabatlaridagi muomala odobi, halollik, rostgo’ylik yoshlar axloqiy tarbiyasi shakllanishini ta’minlovchi omillardandir.

Hozirgi paytda axloqiy tarbiyaning eng kuchli zamonaviy vositasi sifatida televidenieni keltirish mumkin. U deyarli barcha san’at turlarida yaratilgan asarlarni ekranlashtirish va ekranda ko’rsatish imkoniga ega. Bundan tashqari, unda maxsus axloqiy tarbiyaga bag’ishlangan muntazam ko’rsatuvlar ham berib boriladi. O’zbek tilidagi

---

[147] *Каримов И.А.* Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. Т., «Ўзбекистон», 1999, 77-б.

«Otalar so’zi – aqlning ko’zi», «Rivoyat», «Oqshom ertaklari» singari ko’rsatuvlar bunga misol bo’la oladi. SHu bois televidenie hech qachon yengiltaklikni targ’ib etuvchi qo’shiqlar, salkam pornografik reklamalar, inson qalbini qattiqlashtiradigan «o’ldir–o’ldir»lardan iborat seriallar korxonasi bo’lib qolmasligi kerak.

Axloqiy tarbiya aslida axloqiy madaniyatning o’zagini tashkil etadi, biz ko’rib o’tgan muomala odobi, etiket, kasbiy odob singari axloqiy xatti–harakatlar uchun asos vazifasini o’taydi. Biroq u o’zini yetarli namoyon qilishi uchun ta’lim bilan doimiy aloqada bo’lishi shart. SHuning uchun biz ko’pincha «ta’lim–tarbiya» degan qo’shaloq atamani qo’llaymiz. Ta’lim–tarbiyada tarbiyalanuvchiga bola deb emas, bo’lajak komil inson deb qarash muhim. SHu o’rinda Prezident Islom Karimovning quyidagi gaplari bag’oyat diqqatga sazovor:

«Buning uchun har qaysi ota–ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko’rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo’lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta’lim–tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo’lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta’lim va tarbiya ishini uyg’un holda olib borishni talab etadi»[148].

SHunday qilib axloqiy tarbiyaning aqliy–ma’naviy va jismoniy tarbiya bilan qo’shib olib borilishi maqsadga muvofiq. O’shanda jamiyatimiz har jihatdan kamol topgan fuqarolik jamiyatiga aylanadi. Mamlakatimizda buning uchun barcha huquqiy–ijtimoiy shart–sharoitlar yaratilgan.

Yana bir muhim muammo, bu – biologik axloq. Mazkur hodisa so’nggi bir necha o’n yillik ichida sof tabobat muammosidan axloqiy muammoga aylandi: endilikda, birovning muayyan a’zosini boshqa bemorga jarrohlik operatsiyasi yo’li bilan o’tkazish orqali kishi hayotini saqlab qolish axloqiy nuqtayi nazardan qanday baholanadi, degan savol kun tartibida dolzarb bo’lib turibdi.

Biologik axloq deganda, odatda, bizda ham, jahon axloqshunosligida ham asosan tibbiy axloq, tabobat muammolariga doir axloqiy yondashuvlar tushuniladi, xolos. Bu unchalik to’g’ri emas. Bizningcha, biologik axloq muammolari ikki yo’nalishdan iborat: biri – insonlarning kichik biologik olam sifatidagi katta biologik olamga bo’lgan munosabatlari bilan bog’liq «tashqi», ikkinchisi – insonlarning o’z–o’ziga va o’zaro munosabatlaridagi tibbiyot bilan bog’liq «ichki» axloqiy masalalar.

Biz odatda «ekologik axloqshunoslik» deganimizda aynan birinchi hodisani nazarda tutamiz. Ikki biologik olamning munosabatlarini, ya’ni ekologik axloqiy muammolarni biologik axloq doirasida o’rganish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi paytda ekologik axloqning insoniyat uchun naqadar muhimligini hamma biladi, lekin o’z bilganidan qolmaydi – muammoning murakkabligi shunda. Biz yuqorida noosfera, tafakkur borasidagi mulohazalarimizda ekologik buhronilarning ba’zi ko’rinishlariga to’xtalib o’tdik. Biroq, yana undan tashqari so’nggi paytlarda jahon bo’ylab sintetik jismlar ishlab chiqarish keng yo’lga qo’yilganligi, gibrid usulida hayvonot va ayniqsa o’simliklar Yangi turlarining vujudga keltirilishi singari hodisalar ham ekologik ahamiyatga ega. Xo’sh, ular tabiat bilan singishib, uyg’unlashib keta oladimi, tabiat ularni o’ziniki qila biladimi? Bunga hozir javob topish qiyin, ehtimol kashfiyotlarimizning oqibatlari, yuqorida aytib o’tganimiz – muayyan tafakkur bilan inson orasidagi «masofaning uzoqlashib» borishi natijasida ayon bo’lar?...

Biologik axloqning ikkinchi yo’nalishi tibbiyot ilmi va amaliyotining tobora taraqqiy topib borishi bilan bog’liq.

Biz XII bobda to’xtalib o’tganimiz: totli o’lim – evtanaziya ham biotibbiy axloqning global muammolaridan. Xudoning ixtiyoridan tashqari o’limni ixtiyor qilgan kishi diniy nuqtayi nazardan kechirilmaydi. CHunki sabrli, bardoshli bo’lish, bu dunyo iztiroblarini toqat bilan boshdan kechirish insonning vazifasi. Lekin axloqiy jihatdan olib qaraganda masala qanday baholanadi? Deylik, muayyan inson, bemor o’z kunlarining sanoqli ekanini, lekin bu kunlar sanoqsiz azoblar ichida o’tishini biladi. SHu bois u o’zining ana shu holatini juda yaxshi biladigan boshqa bir odam – shifokordan azoblariga chek qo’yishni so’raydi. Uning iltimosi va shu iltimosni bajarish uchun shifokor tomonidan qilingan xatti–harakatlarni qanday, baholash mumkin? Bu xatti–harakatlarni insoniylik va insonparvarlikning ko’rinishi sifatida qabul qilish to’g’rimi? Umuman, evtanaziya axloqiylikmi, axloqsizlikmi? Bu muammo ham umumjahoniy miqyosda o’z yechimini kutmoqda.

CHunki tabobat borasidagi so’nggi tadqiqotlar inson o’limi bir lahzada ro’y bermasligini, yurak urishi va nafas olish to’xtaganda ham, miya o’lmasa insonni o’ldi deyish mumkin emasligini isbotlab berdi. Dastlab miya qobig’i, undan keyin miya tanasi halok bo’ladi. SHundan keyingina insonni o’lgan deb hisoblash mumkin. Zero, hozirgi kunda toki miya o’lmas ekan, ko’pgina ichki a’zolarning Yangi tabobat texnikasi vositasida ishlashda davom etishini ta’minlash va shu orqali muayyan muddatgacha insonda tiriklikning minimal darajasini saqlab turish mumkin. Demak, yurak yoki buyrakning ko’chirib o’tkazilishi hali o’lmagan odamning minimal tiriklikka bo’lgan huquqini poymol qilishdir. Buning ustiga, amerikalik neyroxirurg Pol Pirson o’z tajribalariga asoslanib, yurak ko’chirib o’tkazilganda ruh ham ko’chib o’tadi, degan fikrni bildiradi. CHunonchi, 19 yashar qizning yuragi 40 yashar erkakka o’tkazilganida, uning fe’l–atvorida juda katta o’zgarishlar ro’y bergan. Yoki 20 yashar qizning yuragi va o’pkasi 36 yashar ayolga o’tkazilganda ham shunga o’xshash o’zgarishlar yuzaga kelgan: ayolning kulishigacha o’zgarib ketgan. Axloqiy nuqtayi nazardan buni qanday izohlash mumkin?

Biologik axloqshunoslikning anchadan buyon ko’pchilikka ma’lum muammosi, bu – abort. Ma’lumki, to’rtinchi haftaning oxirida homilada dastlabki yurak urishi paydo bo’ladi. Sakkizinchi haftaning oxirida esa miya tanasining elektrofiziologik faolligini kuzatish mumkin. Demak, har qanday abort, xalq ta’biri bilan aytganda,

---

[148] *Каримов И.А.* Юксак маънавият – енгилмас куч. Т., «Маънавият», 2008, 61-б.

jonlini jonsiz qilish, tirik organizmni tiriklikka bo'lgan huquqdan mahrum etishdir. Xo'sh, abortni axloqsizlik tarzida baholash kerakmi yo yo'qmi? Yoki AQSH olimlari tomonidan «inson zotini yaxshilashga» qaratilgan tadqiqotlarni olib ko'raylik. Ularda «yaxshilangan» – sog'lom, kuchli intellekt egasi bo'lgan odamlar hujayrasini ayol organizmidagi endi rivojlanishga kirishgan nisbatan «oddiy odam» hujayrasi o'rniga ko'chirib o'tkazish tajribalarini olib borish mo'ljallangan. Ular amalda tatbiq etilsa, asta–sekinlik bilan insoniyat irsiyat jamg'armasining (genofondining) bir yoqlama o'zgarishiga olib kelishi shubhasiz. Rumo papasi buni inson zotiga, insoniy tabiatga aralashuv, uni zo'rlik yo'li bilan o'zgartirish, na faqat katta gunoh, balki o'ta axloqsizlik deb atadi. Xo'sh, bunday tajribalarni qanday baholash kerak? Bu savollarga ham axloqshunoslik javob topmog'i lozim.

O'lim, ma'lumki, axloqiy nuqtayi nazardan eng ulkan yovuzlik hisoblanadi. Ayniqsa majburiy o'lim. SHunga ko'ra, o'lim jazosining huquqiy jihatdan qo'llanilishi mohiyatan jamiyat tomonidan yovuzlikka qarshi yovuzlik bilan javob berishdir.

Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom islom dinining uch asosi borligini aytib, ularning birinchisi odam o'ldirmaslik ekanini ta'kidlaydilar. Buni imom G'azzoliy «Mukoshafaat ul–qulub»da shunday keltiradi:

«Termiziy va boshqa hadischilar rivoyat qiladilar:

Rasulluloh buyurdilarki:

… Islomning uch dasturi bor. Dinning tamoyili shular ustiga qurilgan. Kim shu asoslardan tashqari chiqsa, bu bilan u kofirlikka qarab ketgan bo'ladi:

1 – Qonni (odam o'ldirishni) halol hisoblasa;

2 – Ollohdan boshqa iloh yo'qligiga guvohlik (shahodat) bermasa;

3 – Farz bo'lgan namozni va ro'zani inkor etsa».[149]

Demak, inson hayoti eng oliy qadriyat ekani diniy nuqtayi nazardan ham na faqat tan olinadi, balki birinchi o'ringa qo'yiladi.

O'lim jazosini kimlar qanchalik oqlashga harakat qilmasin, u – jinoyatchini jazolashdan ko'ra, undan o'ch olishga qaratilgan, qadim–qadimlardan kelayotgan xun olish tamoyilining «demokratlashgan», Yangilangan shakli sifatida namoyon bo'ladi. Aslida esa insonning muayyan jinoyatni sodir etgan hatti–xarakatlari qoralanishi kerak, uning o'zi emas, u qilgan yovuzlik o'limga mahkum etilishi lozim – odamni emas, yovuzlikni o'ldirish oqilona ish emasmi?! Yovuzlikni o'ldirish, yovuzlik sodir etgan kishining uzoq muddatli yoki bir umrlik qamoqdagi vijdon azobi va tazarrusi bilan amalga oshirilgani durustmasmi?!

Bu masalaning bir tomoni. Ikkinchi tomoni shundaki, nodemokratik tuzumlarda belgilangan o'lim jazosi kamdan–kam hollarda adolatli hukm bo'lib chiqadi. CHunonchi, Lenin, Stalin, Franko, Hitler, Pol Potlar hukmronligida millionlab odamlarning qatl etilishi yoki shu yaqin–yaqinlarda, sho'rolar tuzumi davrida O'zbekistonda o'tkazilgan «Paxta ishi» deb nomlangan qatag'on paytida otishga hukm qilinganlarning taqdiri bunga yaqqol misol bo'la oladi. Ana shu davrlarda o'limga hukm qilinganlarning juda ko'pchiligi ke–yinchalik oqlandi, ular gunohsiz deb topildi. Lekin hukm ijro qilib bo'lingan: nohaq jazolangan – qatl etilgan insonlar adolat tantanasini ko'rolmaydilar.

Uchinchidan, hatto demokratik jamiyatlarda sudlarning hamma vaqt ham yuz foiz to'g'ri va adolatli hukm chiqarishiga kim kafolat beradi – hakamlar ham inson, hamma qatori xato qilishi mumkin. Jamiyatning keyingi pushaymonidan qatl etilgan odamga nima foyda?

Bu misollarning hammasida o'lim – tor huquqiy jazo doirasidan chiqib ketadi hamda tarixda aldangan, adashgan insoniyatning, jamiyatning va shaxsning axloqsizligi sifatida baholanadi. SHu jihatdan qaraganda, hozirgi paytdagi ko'pgina demokratik mamlakatlarda o'lim jazosining bekor qilinishini o'sha jamiyatlar axloqiy darajasi bilan bog'liq ijobiy hodisa deyish mumkin. Bizning mamlakatimizda ham bu borada dadil qadamlar qo'yilganligi – avval yosh nuqtayi nazaridan o'lim jazosini qo'llashning chegaralanganligi (60 yoshgacha), keyinroq esa uni butunlay bekor qilishga qaratilgan insonparvarlik harakatlari quvonarli voqea. Bu nafaqat bizga, balki Yyer yuzidagi barcha mamlakatlarga taalluqli muhim, umumjahoniy muammo.

SHunday qilib, axloqshunoslik oldida ana shunday, tobora globallashib borayotgan axloqiy muammolarni hal etishda yetakchilik qilish vazifasi turibdi. Zero mazkur global muammolarni bugungi kunda axloqshunoslikning ahamiyatini belgilab beruvchi barometrlar, deyishimiz mumkin. CHunki ular faqat milliy–mintaqaviy muammolar bilan dialektik aloqada hal etilishi mumkin. Ya'ni, axloqiy insondan, axloqiy insoniyatga o'tish qanchalik tez va samarali amalga oshsa, odamzod uchun o'zini ham o'z sayyorasini ham asrab qolish imkoni shuncha oson reallashadi.

16-mavzu:Estetikaning predmeti maqsadi va vazifalari

Reja:

1. Estetika fanining predmeti, ob'ekti va falsafiy mohiyati
2. Estetika xaqidagi qarashlar tarixi
3. Estetika kategoriyalari va ularning o'zaro aloqadorligi.

Estetika yoxud nafosatshunoslik eng qadimgi fanlardan biri. Uning tarixi ikki yarim-uch ming yillik vaqtni o'z ichiga oladi. Biroq u o'zining hozirgi nomini XYIII asrda olgan. Ungacha bu fanning asosiy muammosi bo'lmish go'zallik va san'at haqidagi mulohazalar har xil san'at turlariga bag'ishlangan risolalarda, falsafa hamda ilohiyot borasidagi asarlarda o'z aksini topgan edi. «Estetika» atamasini birinchi bo'lib buyuk olmon faylasufi

[149] *Газзолий.* Мукошафат ул-кулуб, 253-б.

Aleksandr Baumgarten (1714—1762) ilmiy muomalaga kiritgan. Bunda u boshqa bir ulug’ olmon faylasufi G. Laybnist (1646-1716) ta’limotidan kelib chiqqan holda munosabat bildirgan edi.

Laybnist inson ma’naviy olamini uch sohaga: aql – idrok, iroda-ixtiyor, his-tuyg’uga bo’ladi va ularning har birini alohida falsafiy jihatdan o’rganish lozimligini ta’kidlaydi. Baumgartengacha aql – idrokni o’rganadigan fan – mantiq, iroda – ixtiyorni o’rganuvchi fan esa – axloqshunoslik (etika)ning falsafada ko’pdan buyon o’z o’rni bor edi. Biroq his-tuyg’uni o’rganadigan fan falsafiy maqomda o’z nomiga ega emasdi. Baumgartenning bu boradagi xizmati shundaki, u «his qilish», «sezish», «his etiladigan» singari ma’nolarni anglatuvchi yunoncha aisthetikos – «oyestetikos» so’zidan «estetika» (olmoncha «estetik» – «eshtetik») iborasini olib, ana shu bo’shliqni to’ldirdi.

Baumgarten estetikani hissiy idrok etish nazariyasi sifatida olib qaradi. Lekin, ko’p o’tmay, u goh «go’zallik falsafasi», goh «san’at falsafasi» sifatida talqin etila boshlandi. Nafosatshunoslik fanining eng buyuk nazariyotchilaridan biri Gegel esa o’z ma’ruzalarining kirish qismida yozadi: «Estetika» degan nom muvaffaqiyastiz chiqqani va yuzaki ekani sababli boshqa atama qo’llashga urinishlar bo’ldi...

So’zning o’z-o’zicha bizni qiziqtirmasligini nazarda tutib, biz «estetika» nomini saqlab qolishga tayyormiz, buning ustiga, u odatiy nutqqa singishib ketgan. SHunga qaramay, bizning fanimiz mazmuniga javob beradigan ibora, bu – «*san’at falsafasi*» yoki yana ham aniqroq qilib aytganda – «*badiiy ijod falsafasi*»[150].

Gegelning «estetika» atamasidan ko’ngli to’lmaganligiga jiddiy sabablar bor. Bulardan biri – yuqorida uning o’zi aytib o’tgan fikrlari bo’lsa, ikkinchisi – mazkur so’zning barcha his=tuyg’ularga taalluqliligi. Vaholanki, bu fan faqat nafosatli his tuyg’ular va ularning ziddini nazarda tutadi. Ayniqsa, mana shu ikkinchi sababga ko’ra, «estetika» atamasining talabga javob berishi shubhali. Buning ustiga allaqachon mazkur fan tadqiqot doirasi san’at hududidan chiqib, inson hayotining deyarli barcha sohalariga yoyilib ketgan. SHu bois «nafosatshunoslik» atamasi ham ilmiy muomalaga kiritildi. Zero mazkur atamaga asos bo’lgan «nafis», «nafislik», «nafosat» so’zlari o’z qamrovi bilan fan talablariga javob bera oladi. «Nafis» so’zi «O’zbek tilining izohli lug’ati»da – go’zal, nozik, latif, yoqimli, badiiy jihatdan juda yuksak degan ma’nolarda izohlanadi[151]*. SHu sababli Gegelning izidan borib, «Estetika» atamasini saqlab qolgan holda, «nafosatshunoslik» iborasidan ham foydalanish mumkin, deb o’ylaymiz.*

Endi «Estetika» fanining mohiyatini anglatadigan «*san’at falsafasi*» va *«go’zallik falsafasi»* iboralariga to’xtalamiz. Nafosatshunoslik tarixida birinchi ibora tarafdorlari ko’pchilikni tashkil etadi. Lekin, yuqorida aytib o’tganimizdek, san’at bu fanning yagona tadqiqot ob’ekti emas. Hozirgi paytda texnika estetikasi va uning amaliyotdagi sohasi dizayn, atrof-muhitni go’zallashtirish, tabiatdagi nafosat borasidagi muammolar bilan ham shu fan shug’ullanadi. Demak, uning qamrovini san’atning o’zi bilangina chegaralab qo’yishga haqqimiz yo’q. Zero bugungi kunda inson o’zini o’rab turgan barcha narsa=hodisalarning go’zal bo’lishini, har qadamda nafosatni his etishni istaydi: biz taqib yurgan soat, biz kiygan kiyim, biz haydayotgan mashina, biz uchadigan samolyot, biz yashayotgan uy, biz mehnat qiladigan ishxona, biz yurgizayotgan dastgoh, biz yozayotgan qalam, biz dam oladigan tomoshabog’lar – hammasidan nafis bir ruh ufurib turishi lozim.

YUqorida aytilganlardan kelib chiqsak, «Go’zallik falsafasi» degan ibora bu fanning mohiyatiga ko’proq mos keladi. Negaki, u faqat san’atdagi go’zallikni emas, balki insondagi, jamiyat va tabiatdagi go’zallikni ham o’rganadi. SHuningdek, go’zallikdan boshqa ulug’vorlik, fojeaviylik, kulgililik, mo’’jizaviylik, xayoliylik, uyg’unlik, noziklik singari ko’pdan-ko’p tushunchalar mavjudki, ularni tadqiq etish ham estetika fanining zimmasida. Lekin, bu o’rinda, shuni unutmaslik kerakki, mazkur tushunchalarning har birida go’zallik, bir tomondan, unsur sifatida ishtirok esta, ikkinchi tomondan, ularning o’zi go’zallikka nisbatan unsur vazifasini o’taydi. Ana shu xususiyatlarning voqelikda namoyon bo’lishini biz *nafosat* deb ataymiz.

Go’zallik, ko’rganimizdek, nafosatning bosh, etakchi xususiyati hisoblanadi. SHu bois u estetikaning mezoniy tushunchalaridan biri sifatida tadqiq va talqin etiladi. Zero go’zallikning ishtirokisiz yuqoridagi xususiyatlarning birortasi estetik tabiatiga ega bo’lolmaydi. Masalan, ulug’vorlikni olaylik. U asosan hajmga, miqyosga miqdorga asoslanadi: Buxorodagi Arslonxon minorasi yoxud Minorai Kalon ulug’vorligi bilan kishini hayratga soladi. Unga tikilar ekansiz, qalbingizni nafosat zavqi qamrab oladi. Lekin xuddi shunday balandlikdagi kimyoviy korxona mo’risidan zavqlanolmaysiz. YOki yonbag’irdan turib, toqqa tikilsangiz, estetik zavq tuyasiz, ammo xuddi shunday balandlikdagi shahar chetida o’sib chiqqan axlat «tog’i»ga qarab zavqlanmaysiz. Chunki Arslonxon minorasi me’morlik san’ati asari sifatida go’zallik qonuniyatlari asosida bunyod etilgan; tog’ esa tabiat yaratgan ulug’vor go’zallik. Zavod mo’risida ham, axlat «tog’»ida ham hajm, miqdor boru, lekin bir narsa – go’zallik etishmaydi. Minora bilan tog’dagi hajmni salobatga aylantiruvchi unsur, bu – go’zallik. Fojeaviylik xususiyatida ham go’zallikning ishtirokini ko’rish mumkin. Misol sifatida Lev Tolstoyning «Urush va tinchlik» romanidagi Austrlistda bo’lib o’tgan rus va franstuz qo’shinlari to’qnashuvidan so’ng, jang maydonida yarador bo’lib yotgan knyaz Andrey Bolkonskiyni eslaylik: bir qo’lida bayroq dastasini ushlagancha, ko’m=ko’k maysada moviy osmonga qarab yotgan, oppoq mundirli botir yigit – bayroqdor zobitning tepasiga kelgan Napoleon uni o’lgan deb o’ylab, bu manzaradan hayratlanib: «Mana bu – go’zal o’lim!», deydi. Bu o’rinda asar qahramonining o’limi – fojeaviylik, o’limning qahramonlikka aylanishi – ulug’vorlik; fojeaviylik bilan ulug’vorlik xususiyatlarining omuxtalashuvi natijasida esa go’zal manzara, qayg’uli va ulug’vor go’zallik vujudga kelgan. SHuning uchun ham Napoleonning hayrotomuz xitobi bejiz emas. Ayni paytda go’zallik yuqorida keltirilgan estetik xususiyatlar va tushunchalarning «mustaqilligiga» daxl qilmaydi, faqat ularning hujayrasida u yoki bu darajadagi

---

[150] Гегел Г. Эстетика. М., Искусство, 1968. С. 7.

[151] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки томли, 2 том, М., Русский язык, 1981. 497 – 498-б.

unsur sifatida ishtirok etadi. Demak, estetikaning asosiy tadqiqot ob'ekti – go'zallik, biroq, birinchi galdagi vazifasi ana shu go'zallikni aks ettirish bo'lgan san'at ham o'z navbatida nafosatshunoslikning keng qamrovli tadqiqot ob'ekti hisoblanadi.

San'at estetikaning tadqiqot ob'ekti sifatida o'ziga xos olam. Unda estetik xususiyatlar bo'rtib ko'zga tashlanadi. SHunga ko'ra, uni nafosatga burkangan ijtimoiy hodisa deyish mumkin. San'at hayotni in'ikos ettirar ekan, insonning o'zini o'ziga ko'rsatuvchi ulkan ko'zgu vazifasini o'taydi. U insonni o'rgatadi, da'vat etadi, go'zallashtiradi. Bu vazifalarni bajarishda estetika san'atning ko'makchisi, etakchisi hisoblanadi. Estetika bir tomondan, san'atning paydo bo'lishidan tortib, uning turlariyu janrlarigacha, san'at asarining ichki murvatlaridan tortib, san'atkorning ijodkorlik tabiatigacha bo'lgan barcha jarayonlarni o'rganadi. Ikkinchi tomondan, san'at uchun umumiy qonun-qoidalarni ishlab chiqadi va tadbiq etadi. Uchinchi tomondan esa, san'at asarini idrok etayotgan kishi ruhidagi o'zgarishlarni nafosat nuqtayi nazaridan tadqiq qiladi.

SHunday qilib, estetika san'atni to'la qamrab oladi va uning ich=ichiga kirib boradi: badiiy asarning yaratilish arafasidagi shart=sharoitlardan tortib, to u bunyodga kelib, asl egasi – idrok etuvchiga etib borgunigacha bo'lgan va undan keyingi jarayonlarni tadqiq etadi hamda ulardan nazariy xulosalar chiqaradi. Zero «San'at falsafasi» iborasining siri ana shunda.

Estetika – falsafiy fanlardan biri. Falsafa esa fanlarning podshosidir. Darhaqiqat, u fanlar podshosi sifatida barcha tabiiy va ijtimoiy ilmlar erishgan yutuqlarni o'z qamroviga olib, ulardan umumiy xulosalar chiqarib, shular asosida insoniyatni haqiqat tomon etaklaydi. SHu bois tafakkurni falsafaning predmeti deb atash maqsadga muvofiq. Estetika esa falsafiy fan sifatida barcha san'atshunoslik fanlari erishgan yutuqlardan umumiy xulosalar chiqarib, shu xulosalar asosida insonni go'zallik orqali haqiqatga etishtirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, estetika ishlab chiqqan qonun=qoidalar barcha san'atshunoslik fanlari uchun umumiylik xususiyatiga ega. Masalan, uslub, ritm, kompozistiya v. h. borasidagi qonuniyatlar barcha san'at turlariga taalluqli. Hech bir alohida san'at turi haqidagi fan bunday imtiyozga ega emas. Masalan, adabiyotshunoslik ishlab chiqqan qofiya nazariyasini musiqa yoki me'morlik san'atiga tadbiq etib bo'lmaydi.

Estetikaning falsafiy mohiyatini yana uning san'at asariga yondashuvida ko'rish mumkin. Ma'lumki, har bir san'atshunoslik ilmi o'z tadqiqot ob'ektiga uch tomonlama – nazariy, tarixiy, tanqidiy jihatdan yondashadi. Masalan, adabiyotshunoslikni olaylik. Adabiyot nazariyasi faqat adabiyotgagina xos bo'lgan badiiy qonuniyatlarni, badiiy qiyofa yaratish usuli va vositalarini o'rganadi. Adabiyot tarixi muayyan tarixiy=badiiy jarayonlar orqali badiiy adabiyotning rivojlanish qonuniyatlarini ochib beradi. Adabiy tanqid esa adabiy=badiiy ijodning zamonaviy jarayonlarini tadqiq etadi va har bir Yangi asarni baholaydi, asar ijodkorining ijodiy rivojlanishini kuzatib boradi. Musiqada ham, tasviriy san'atda ham, boshqa san'at turlarida ham shunday. Estetikada esa tadqiqot ob'ektiga yondashuv uch emas, birgina – nazariy jihatdan amalga oshiriladi: tarix ham, tanqid ham nazariyaga bo'ysundiriladi. To'g'ri, «estetika tarixi» degan ibora va shu nomda kurslar o'qitiladi. Lekin bu nom, ibora shartli tarzda qo'llaniladi. Chunki , u fan tarixi emas, balki tarixan davrlarga bo'lingan estetik nazariyalar tahlilidir.

Ma'lumki, san'at asarining mavjud bo'lishi uchun to'rt shart yoki omil albatta zarur. Bular: ijodkor – badiiy asar – badiiy asarni idrok etuvchi –vositachi. YUqoridagi misol nuqtayi nazaridan qaraydigan bo'lsak: yozuvchi – roman – kitobxon – tanqidchi. Adabiyotshunoslik bularning har birini odatda alohida=alohida o'rganadi. Deylik, yozuvchi Odil YOqubov ijodiy faoliyati haqida adabiy portret alohida, uning «Ulug'bek xazinasi» romani to'g'risida tadqiqiy maqola alohida, «Ulug'bek xazinasi» romani va zamonaviy kitobxonning didi, saviyasi va talablariga bag'ishlangan taqriz hamda unda kitob nashriga (nashriyotga) doir mulohazalar alohida yozilishi mumkin. Nafosatshunoslik fani hammasini bir yo'la, muayyan tizim sifatida tadqiq etadi va bu tadqiqot umumlashtiruvchilik, nazariylik xususiyatiga ega bo'ladi.

Shunday qilib, estetikaning falsafiy mohiyatini ko'rib o'tdik. Endi uning boshqa fanlar bilan o'zaro munosabatlariga to'xtalamiz.

Qadimgi dunyo xalqlarining estetik qarashlari

Inson tabiatan bo'sh vaqtga intilib yashaydi. Chunki bo'sh vaqt mobaynida u jisman va ruhan dam olish, kundalik mehnat, qorin to'ydirish tashvishidan forig' bo'lish imkoniga ega. Bo'sh vaqt insonda o'yin hissi o'yg'onishining asosiy omilidir. San'atning vujudga kelishida o'yinning ahamiyati katta ekanligi hammaga ma'lum. Demak, estetik anglash va estetik faoliyatning tadrijiy rivojida mehnat bilan birga bo'sh vaqt ham asosiy omil hisoblanadi. Ichki osoyishtalikni, mehnat va bo'sh vaqtga asoslangan muayyan tartibni jamiyatda qonun darajasiga ko'tarish esa davlat paydo bo'lganda ro'y berishi mumkin. Davlatning qanchalik o'z vazifasini adolatli va mukammal bajarishi, shunchalik jamiyat farovonligiga olib keladi. Farovon jamiyat esa o'z a'zolarining bo'sh vaqtini ta'minlay oladi va pirovard natijada estetik anglash hamda estetik faoliyat taraqqiyoti uchun etarli imkoniyat yaratib beradi. SHunday qilib, davlatchilik tizimi paydo bo'lishi bilan insonning badiiy-estetik taraqqiyotida Yangi davr boshlandi. Ana shu davr ibtidosini biz Mesopotamiya – Qo'sh daryo (Dajla va Frot daryolari) mintaqasida, xususan, Shumer davlatida ko'rishimiz mumkin.

Qadimgi Sharqdagi dastlabki estetik tasavvurlar

Shumer va Bobil. Shumer insoniyat tarixidagi hozirgacha bizga ma'lum bo'lgan ilk qudratli davlat bo'lgan. SHubhasizki, miloddan avvalgi IV ming yillikda bu davlatning qudrati uning madaniyatida, fuqarolarining badiiy-estetik darajasida hamda badiiy-estetik faoliyatida namoyon bo'lgan. Shumerliklar birinchi bo'lib yozuvni kashf etdilar va giltaxtachalarga qamish qalamlar bilan ilk rivoyatlarni, ilk nasihatlarni yozib qoldirdilar. SHuni alohida ta'kidlash joizki, hech bir qadimgi madaniyatdan bizning davrimizgacha bu qadar ko'p sonli yozma hujjatlar etib kelgan emas. San'at namunalarining ko'pligi jihatidan Somirni ancha orqada qoldiradigan Misr madaniyati ham

yozma yodgorliklar borasida Somirga yon beradi. Chunki misrliklar yozib qoldirgan minglab papiruslar chirib, yonib, yo'qolib ketgan, shumerliklarning giltaxtalardagi yozuvlari esa saqlanib qolgan, hozir ham ularni qumlar ostidan topib, sharhlash davom etmoqda.

Qadimgi Somirdagi dastlabki estetik g'oyalar haqida gap ketganda, eng avvalo undagi tasviriy san'atning ilk namunalariga to'xtalib o'tish joiz. Qadimgi Shumer tasviriy san'ati asosan muhrlar, idish-tovoqlardagi rasmlar va releflardagi tasvirlardan iborat. Bular orasidagi eng qadimiysi va bizgacha ko'p miqdorda etib kelgani muhrlardir. Ilk sulolalar davridayoq Somirda tosh o'ymakorligining badiiy-estetik tamoyillari ishlab chiqilgan va mustahkamlangan, sayqal berish texnikasi mukammallasha boshlagan. SHuning uchun ularga faqat moddiy madaniyat namunalari emas, balki san'at yodgorliklari sifatida ham qarash maqsadga muvofiq. Shumer muhrlariga razm solgan har bir inson ularda asotir yoki xalq og'zaki ijodiga doir syujetning ifodasini ko'radi: qanotli ajdaholarning ustida turgan erkak bilan ayol, etti boshli ajdahoni o'ldirayotgan pahlavon, xayoliy mavjudotlar – qush-odam va odam-arslon ustidan olib borilayotgan sud va boshqa tasvirlar shular jumlasidandir. Qisqasi, ularda go'zallik va xunuklik, ulug'vorlik va tubanlik, xayoliylik va mo''jizaviylik haqidagi dastlabki tasavvurlarni ilg'ash qiyin emas.

Shumerliklarning falsafiy-estetik qarashlariga kelsak, ularda falsafiy-kosmologik yoxud ilohiyotga, yoxud nafosatshunoslikka bag'ishlangan risolalar qabilidagi maxsus adabiy shakllar bo'lgan emas. Bunday qarashlarni (albatta ibtidoiy holda) bizgacha to'liq yoki qisman etib kelgan asotirlarda uchratish mumkin. Shumerliklardagi estetik tasavvurning paydo bo'lishi va, umuman, nafosatli tafakkurning kelib chiqishi asotirnomaga (mifologiyaga) borib taqaladi. Ma'lumki, qadimgi odam oldida turgan turli xil masalalardan biri estetik tabiatga ega bo'lish muammosi edi. Bu muammoni o'ziga xos tarzda hal etish uchun u dastlabki usul – mifologiyadan foydalandi. SHu bois asotirlarni inson yaratgan ilk nafosat konstepstiyasi, falsafiy umumlashma deb atash mumkin; faqat u nazariy emas, balki badiiy, timsoliy shaklda ifodalangan. Zotan asotirlardagi badiiy anglashda inson o'zi haqida, o'zining real borliq go'zalligi bilan bog'liqligi haqida fikr yuritishga ilk bor intiladi. Boshqacharoq qilib aytganda, asotirlar qadimgi tarixda birinchi marta olamni badiiy-estetik borliq sifatida taqdim etadi. Dastlabki faylasuflar (agar shunday deyish mumkin bo'lsa) mirza-xattotlar va shoirlar ekanini ilg'ash qiyin emas. Mirza-xattot va shoirlar asotirlarni yozib olishar hamda yozar ekanlar, ular uchun asosiy maqsad ma'budlar va ma'budlarni a'mollarini ulug'lash bo'lgan. Keyingi davrlar faylasuflari kabi ularni muayyan kosmologik yoki ilohiyotga oid haqiqatlar qiziqtirgan emas. Asotirlarni tadqiq etish shuni ko'rsatadiki, shumerliklar badiiy-estetik anglash orqali insoniyat jamiyatining tadrijiy va izchil rivojlanishi haqida muayyan tasavvurga ega bo'lganlar.

Shumer ma'budlari antropomorf (odam qiyofali). Ular ichida eng donishmand va eng qudratlisi ham o'z qiyofasi, orzu-o'ylari va a'mollari bilan odamlarga o'xshaydi. Ma'budlar odamlarga o'xshab rejalar tuzadi, harakat qiladi, ichadi, eydi, uylanadi, oila quradi, katta xo'jalikni boshqaradi, ilohiy zaifliklar va kasalliklarga ham duchor bo'ladi, hatto o'ladi ham. Zero ularning ulug'vorligi va go'zalligi odamlarga nisbatan olib qaraladi.

Qadimgi shumerliklarda «Me» tushunchasi mashhur bo'lgan. «Me» ilohiy qonun va ko'rsatmalar majmui bo'lib, Shumer faylasuflari fikricha, bu qonun – qoidalar olam yaratilgan kundan boshlab uni boshqarishni va olamning abadiy harakatini ta'minlab kelganlar. Unda «ulug'vor va abadiy toj», «ulug'vor ramz», «ulug'vor ibodatxona», «san'at», «musiqa», «yog'ochni ishlash san'ati», «metallni ishlash san'ati» «mirzalik (xattotlik) san'ati» singari nafosatshunoslik tushunchalarini anglatuvchi iboralar ham mavjud. SHunisi e'tiborga sazovorki, qadimgi shoir-faylasuf san'at bilan hunarni ajratishga harakat qiladi. Chunonchi, «yog'ochsozlik san'ati» bilan yonma-yon «quruvchilik hunari» va «savatchilik hunari», «temirsozlik san'ati» bilan yonma-yon «temirchilik hunari» iboralari keladi. Bundan tashqari, unda besh xil musiqa asbobining nomi ham qayd etilgan.

Shunday qilib, Shumer san'ati va adabiyoti insoniyat tarixidagi dastlabki estetik g'oyalardan va iboralardan bizni xabardor qiladi, bizga ba'zi janrlarning kelib chiqishi bilan tanishish imkonini beradi.

Shumerliklar va ularning shimoliy qo'shnisi bo'lmish akkadlar asrlar mobaynida olib borgan janglar oqibatida akkadlar podshosi Sargon I (milodgacha 2369-2314 yillar) Somirni Akkadistonga bo'ysindiradi. Dastlab akkadlar Shumer tilini ham, yozuvini ham qabul qiladilar va birgalikda somir-akkad madaniyatini yaratadilar. Keyinchalik bu ikki xalq qo'shilib, Bobil davlatini tashkil etadi, akkad tili esa asosiy tilga aylanadi. SHunda ham Shumer tili maktablarda o'qitiladigan o'lik til, Yevropaliklar uchun lotin tili qanday bo'lsa, shunday til bo'lib qoladi. Umuman olganda, qadimgi Sharq madaniyati ko'ptillilik yoxud ikki tillilik asosida bunyodga kelgan.

Bobil so'z san'atida «Enuma elish» («Osmonda qachonki...») dostoni, Agushayya, Gilgamesh, Adan, Etana, «Ishtarning qa'rga tushishi» haqidagi epik dostonlar, «Iztirobda qolgan haqgo'y», «Xo'jayinning qul bilan suhbati» singari diniy-falsafiy dostonlar muhim ahamiyatga ega. Ularning hammasidagi asosiy g'oya – hayot va mamot o'rtasidagi kurashdan iborat. «Xo'jayinning qul bilan suhbati» deb atalgan doston ular orasida kulgililik tabiatiga ega ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Unda xo'jayinning har bir buyrug'i oqilona ekanini maqollar va matallar bilan asoslashga intilgan qul – oqil, quv xizmatkor qiyofasi tasvirlangan. Bu suhbat-aytishuv deyarli oxirigacha kulgililik bilan yo'g'rilgan. Faqat uning nihoyasidagina hayot joniga tekkan xo'jayin «Endi nima yaxshi?» deb so'raganida qul: «Bo'ynimni mening sindirmoq va bo'yningni sening sindirmoq va daryoga tashlamoq, ana bu yaxshi. Kim shuncha balandki, osmonga esta, kim shuncha ulkanki, erni to'ldirsa!», – deydi. G'azablangan xo'jasi qulga o'ldiraman, deb do'q uradi. Doston-suhbatda so'nggi so'z qulga beriladi va u: «Unda mening xo'jam mendan uch kun ortiq yashasin», – deb o'zini qutqaradi.

Na faqat Gilgamesh kabi eposlarda, balki deyarli barcha Qadimgi Bobil shoirlari ijodida insonning to abad shaxsiy o'lmaslikka intilishi yuksak badiiy shakllarda o'z ifodasini topgan, ularda hayot – go'zallik, o'lim – xunuklik tarzida qabul qilingan. SHunday qilib, Somir-Bobil san'ati insoniyat tarixidagi dastlabki estetik g'oyalarning paydo bo'lishidan bizni xabardor qiladi.

Qadimgi Misr. Estetik tafakkur taraqqiyotiga qadimgi Misr madaniyati juda katta hissa qo'shgan. Barcha qadimgi xalqlar qatori misrliklar ham go'zallikni hayotda deb bilganlar va uni foydalilik mezoni bilan o'lchaganlar. Chunonchi, quyosh ma'budi Atonga (milodgacha XY asr) bag'ishlangan alqovlardan birida shunday deyiladi:

Sening go'zalliging o'zi hayotdir,
Umr bag'ishlaydi har bir yurakka[152].

Ma'lumki, Nil toshqini qadimgi Misr farovonligining asosi bo'lgan. Farovonlik esa, ular fikricha, go'zallikdir. SHuning uchun misrliklar Nilni ilohiy daryo sifatida talqin etadilar. Unga atalgan alqovlarning birida u barcha go'zallliklarning bunyodkori deb ta'riflanadi:

Er yayraydi u yoyilgan chog'ida,
Quvonadi bor jonzot.
Barcha tishlar ochilar,
YAraqlaydi har bir tish[153]
To'kin rizqu non keltirib, u butun
Go'zallikni yaratar.

Qadimgi Misr san'atining juda ko'p turlari ana shu manfaatli go'zallik asosida vujudga kelgan. Chunonchi, ma'budlar uchun qurilgan ibodatxonalar, ma'budlarning va o'limidan keyin ma'budga aylangan fir'avnlarning haykallari ulardan shafqat, mo'l hosil, rizq-ro'z so'rash maqsadida bunyod etilgan bo'lsa, xalq amaliy san'ati buyumlari esa kundalik hayotni go'zallashtirish uchun xizmat qilgan. Ayni paytda ba'zi san'at turlari manfaastiz go'zallikning namunasi sifatida diqqatni tortadi. Ayollarning go'zal bezaklari, taqinchoqlari, diniy-badiiy qissalar, ertaklar shular jumlasidan.

Misrdagi eng qadimgi badiiy ijod yodgorliklari V-IV ming yilliklarga borib taqaladi. Ular sopol idishlardir. Ularning qo'lda ishlanganligini sezish qiyin emas: shakllari va yuzasi notekis, ba'zan oddiy handasaviy naqsh bilan bezatilgan. Keyinchalik kulolchilik dastgohida ishlanib, ularda murakkab suvratlar va chizmalar aks ettirilgan.

Qadimgi Misrda me'morlik yuksak taraqqiyot va texnik mukammallikka erishgan. Qadimgi podsholar davrida Misr me'morligining o'ziga xos ajralib turuvchi ulkan monumentalligi ishlab chiqilgan. Bu borada ehromlar alohida o'rin tutadi. Ular orasida Xufu ehromi o'zining mahobati bilan ajralib turadi; balandligi 146,6; to'rt tomoni enining uzunligi (asosi) 233 metr. Xufu ulug'vorlikning ajoyib namunasi. Ehrom deyarli yaxlit tosh inshoot sifatida shunday aniq hisob-kitoblar bilan qurilganki, u qadimgi Misrda matematika yuksak darajada rivojlanganligidan ham dalolat beradi.

Qadimgi Misr haykallari xuddi me'morlikdek, badiiy ijodning haqiqiy noyob asarlari hisoblanadi. Ayniqsa, Luvr muzeyida saqlanayotgan mirza Kanning haykali o'zining realizmi bilan kishini hayratga soladi. Mirza chordana qurib o'tiribdi. U tizzalarida yozish uchun tayyorlangan papirus varag'ini, o'ng qo'lida qamish qalamni tutib turibdi. Uning katta quloqlari ding – eshitib bajo keltirishga o'rgangan. Ko'zlari alohida diqqatga sazovor – ular bir necha xil materialdan yasalgan: kosasi – brinch, unga ko'z oqini anglatuvchi ganch bo'lagi va tagiga silliqlangan yog'och qo'yilgan, billur qorachiq joylashtirilgan. Natijada tamomila tirik odam ko'zlaridek tasavvur uyg'otadi. Me'mor Raxotep va uning xotini Nefret haykali ham o'zining yumshoq tasviri, ranglari, inja nafosati bilan har bir tomoshabinga nafosat zavqini beradi. Bu haykallarning ko'pchiligi qadimgi yunon mumtoz haykaltaroshligi namunalaridan qolishmaydi, balki ko'z ifodasining berilishi bilan ulardan ko'ra jonli ko'rinish kasb etadi va qadimiy go'zallik namunasi sifatida kishini o'ziga rom etadi.

Yana bir ajoyib go'zallik namunasi bo'lmish qadimiy haykal bu –Axatetondagi haykaltarosh Tutmosning ustaxonasidan topilgan Nefertiti –Shohoyim boshining tasviri. Shohoyim qiyofasida nazokat, shohona g'urur va nafislik o'zining beqiyos ifodasini topgan. Nefertitining boshi xuddi noyob gulga o'xshaydi, u nozik gulbandga – bo'yinga nisbatan bir oz og'irroqday tuyuladi. SHohoyim qiyofasida tengsiz ayol go'zalligi va latofatini ko'rish mumkin.

Qadimgi Misr madaniyati taraqqiyotida faqat estetik g'oyalargina emas, balki nafosat mezonlari ham muhim o'rin egallaganligi shubhasiz. Bu qonun-qoidalar yig'indisini ma'lum ma'noda nafosatshunoslik risolalari deb atash mumkin. Afsuski, ular bizgacha etib kelmagan. Faqat bir risolaning nomigina saqlanib qolgan: ibodatxona kutubxonasi ro'yxatida «Devoriy rangtasvir va mutanosiblik qonuni bo'yicha tavsiya» degan nom uchraydi.

Qadimgi Misr so'z san'ati taraqqiyotida mirzalarning xizmati buyukdir. Biz so'z san'ati degan iborani ishlatdik. Zero quyidagi parcha qadimgi misrliklar badiiy adabiyotni boshqa san'atlar qatoriga kiritib, fikr yuritganliklaridan dalolat beradi. Chunonchi, «Pxatotep o'gitlari» deb atalgan qadimiy (bundan to'rt ming yillar avvalgi) she'riy matnda qo'yidagi satrlarni uchratish mumkin:

San'at sira bilmas chegara,
Mahoratning cho'qqisiga chiqolgaymi biror san'atkor!
Gavhar kabi yashirindir oqilona so'z,
Lekin uni topish mumkin don tuygan, huv, cho'ridan[154].

---

[152] История древного мира. М., ОГИЗ, 1937. Т. 1. С. 276.
[153] Поезия и проза Древного Востока. М., ИХЛ, 1973. С. 106.
[154] O'sha manba. S. 95.

Demak, so’z – san’at materiali, lekin u san’atga aylanishi uchun uni ishlata oladigan iste’dod lozim, iste’dod esa cho’rida ham bo’lishi mumkin. Bu o’rinda nafosatshunoslikning ko’p jihatlarini ko’ramiz: avvalo, san’atdagi yuksak mahorat doimo nisbiy. Ikkinchidan, so’z qo’llash ham san’at. Uchinchidan, badiiy adabiyotni, umuman, san’atni xalqning hamma qatlamlari, ya’ni oliy zotlar ham, xizmatkor-cho’rilar ham yaratadi, zero san’at mohiyatan demokratik xususiyatga ega bo’lib, hammaga birdek taalluqlidir.

Qadimgi Misrda mirzalar muayyan ma’noda ziyolilarning etakchilari hisoblanganlar. Dastlabki shoirlar ham ana shu mirzalardir. Ularning xizmatlari qadrlangan, ular ijodkor sifatida olqishga sazovor bo’lganlar. Chunonchi, «Mirzalarni sharaflash» deb atalgan she’rda noma’lum mirza bundan deyarli uch yarim ming yil avval, fir’avn Ramzes II davrida shunday deb yozgan edi:

Donishmand mirzalar...
Ular qurmadilar o’zlari uchun
Birinchdan qabrtosh
Va misdan ehrom.
Qoldirmadi ular va na merosxo’r, –
Nomlarin saqlagan zurriyotini.
Biroq qoldirdilar meroslarini –
O’zlari bitgan xat, pandnomalarda...[155]

O’sha asrlardagi mana bu satrlar qadimgi Rim shoiri Horastiydan salkam ikki ming yil, Pushkindan salkam to’rt ming yil avval yozilgan:

Haykal qo’ydim o’zimga, u misdan boqiyroqdir,
SHohona ehromlardan balandroqdir u.[156]

Qadimgi Misrda yaratilgan qissalar va ertaklar o’zining badiiy puxtaligi, shakliy go’zalligi bilan kishi diqqatini tortadi. Ularda asosan mo’’jizaviylik estetik hususiyati bo’rtib ko’zga tashlanadi. «Sinuxe qissasi», «SHirinsuhan dehqon haqida ertak», «Kema halokatiga uchragan kishi haqida ertak», «Nefertitining karomati», «Aka-uka haqida ertak» singari asarlar shular jumlasidandir. «Kema halokatiga uchragan kishi» ertagida qahramonning sehrli orolda ko’rgan-kechirganlari Sindbod dengizchi haqidagi ertakni va «Odisseya»ning ba’zi epizodlarini eslatadi. «Unamunaning sargardonligi» qissasi esa qadimgi Misr realistik nasrining ajoyib namunasidir. SHuningdek, qadimgi Misrda masal janri ham rosmana rivojlangan. Ularda kulgililik estetik xususiyati o’z ifodasini topgan.

Qadimgi Misr she’riyatida shakllarning turli-tumanligi, qabul qilingan muayyan uslub, she’r tuzilishi san’ati, ba’zan ma’lum darajadagi balandparvozlik, undagi uzoq taraqqiyot yo’lini ko’rsatib turadi. Qadimgi Misr muhabbat lirikasi orasida birinchi shoir ayol hisoblangan qadimgi yunon shoirasi Safodan ko’p asrlar avval yaratilgan, ayol shoir qalamiga mansub go’zal she’rlar bor.

Qadimgi Misrda teatr san’atining mavjud bo’lganligiga hozir hech qanday shubha bo’lishi mumkin emas. Qadimgi Misr teatri dastlab dafn marosimidagi ma’budlarning o’zaro dialoglari, shuningdek, turli ma’budlar sharafiga o’tkaziladigan xalq sayllari va bayramlarida o’sha ma’budlar hayotidan olingan lavhalarni sahnalashtirish natijasida bunyodga kelgan. Ma’budlar rolini kohinlar o’ynagan. Bunday sahnalar qadimgi podsholik davridayoq, ya’ni bundan 4–4,5 ming yillar avval ijro etilgan. O’shanday sahna-pesalardan bizgacha birginasi saqlanib qolgan. Uni fanda «Memfis ilohiyoti yodgorligi» deb atashadi. Kohinlar tasavvuridagi kosmologiya bayoni bo’lmish bu matnda Memfis ma’budi Pta tomonidan olamning yaratilishi va Osiris hamda uning o’g’li ma’bud Gor haqidagi juda qadimgi mifologik syujetlar, parchalar keltirilgan. Keyingi davrlardagi matnlar ham mifologik mazmunda bo’lib, ularda ko’proq ma’bud Gor ishtirok etadi. Bu tasodifiy emas. Qadimgi Misrda hukmron bo’lgan tasavvurga ko’ra, Gor taxtga o’tirgan har bir fir’avnning timsoli sifatida qabul qilingan, u har bir hukmdor uchun namuna, ideal hisoblangan.

Misrshunoslikdagi bebaho bitiklardan biri – Ixernofret degan a’yonning tarjimai holidir. Unda bu a’yon o’zini fir’avn Senusert III (miloddan avvalgi XIX asr) hukmronligining 19-yilida Abidosdagi ibodatxonani taftish qilish va har yili ko’p sonli tomoshabinlar ishtirokida sahnaga qo’yiladigan Osiris misteriyasini kuzatish uchun yuborilganini yozadi. Ixernofret bitigidan mazkur pesa quyidagi ko’rinishlardan tuzilganligini bilish mumkin:

1. Ma’bud Upuat (yo’l ochuvchi), Osirisning birinchi jangchisining kirib kelishi.

2. Osirisning qayiqda suzib kelishi va unga dushmanlarning h*ujum qilishi.*

3. Makkor akasi Set tomonidan Osirisning o’ldirilishi.

4. Ma’bud Tot tomonidan jasadning qayiqda olib ketilishi.

5. Osirisning o’ldirilgan joyi – Neditda ko’milishi.

6. Tirilgan Osirisning Abidosdagi o’z ibodatxonasiga qaytishi va umumxalq tantanasi.

Ko’rinishlarning hammasida bosh rolni Osirisning o’g’li – ma’bud Gor o’ynagan. Gor rolini esa a’yon Ixernofretning o’zi ijro etgan.

Heradot yunonlarning Dionisiy misteriyalarini Misr xalq diniy bayramlari bilan solishtirib, ular orasida shunchalik ko’p umumiylik topadiki, natijada yunonlar misrliklarning bayramlari va urf-odatlarini qabul qilganlar, degan xulosaga keladi. Dramatik matnlarni o’rganish misrshunoslarni qadimgi Misr teatri o’zining diniy-ilohiy

---

[155] O’sha manba. S. 102.

[156] Культура Древного Египта. М., Наука, 1976. С. 359.

mohiyatiga qaramay, faqat tor doiradagi diniy mavzular bilan cheklanib qolgan emas. Chunonchi, «Tobutlar matnlari»da, undan keyin «Mayyitlar kitobi»ning 78-bobida Gor va boshqa mifologik personajlar ishtirok etgan komediyadan parchalar saqlanib qolgan. Unda ma'bud Gorning elchisi qator holatlarda kulgili ahvolga tushib qoladi. «Mayyitlar kitobi»ning 39-bobida ham Misr iblisi – ilon Appop ishtirok etgan kulgili sstenariydan parcha berilgan. SHunday qilib, qadimgi Misr misteriyalarida faqat fojeaviylik emas, balki kulgililik ham o'z o'rniga ega bo'lgan.

Dunyoviy teatrning qadimgi Misrda mavjud ekani g'oyatda e'tiborga sazovor. Undagi rollarni kohinlar emas, mutaxassis-aktyorlar bajargan. Edfulik Enxeb degan kimsaning tarjimai holi yozilgan bitikdan uning sayyor aktyor va musiqachi bo'lganligini anglash mumkin. Hozirgacha bu bizga etib kelgan shu xildagi yagona matndir. U qadimgi Misrda professional teatrlarning, ya'ni dunyoviy teatrlarning mavjudligini isbotlashi bilan qimmatli. Demak, teatr san'ati qadimgi yunon va qadimgi hind teatridan ancha avval ham Sharqda mavjud bo'lgan ekan.

Qadimgi Misrda musiqa va musiqachilar hurmat-e'tiborga sazovor bo'lishgan. Qadimgi misrliklarning musiqaga katta qiziqishi bilan qaraganliklarini bizgacha etib kelgan yodgorliklar to'la isbotlab beradi. Qadimgi cholg'u asboblaridan tashqari, bizgacha cholg'u chalayotgan musiqachilarning nomlari ham saqlanib qolgan. Mirza-xattotga nasihatlardan birida uning nay va sibizg'a chalishi, chiltorga jo'r bo'lishni bilishi, next deb atalgan musiqiy asbob yordamida qo'shiq ayta olishi kerak, deyiladi. Qo'shiqchilar va musiqachilar ham erkaklardan, ham ayollardan bo'lgan. Demak, musiqa qadimgi Misr maktablari dasturidan o'rin olgan, ularda estetik tarbiya masalalariga alohida e'tibor berilgan. Etnografik ma'lumotlar, shuncha uzoq tarixiy davr o'tishiga qaramay, YUqori Misr fallohlari, qadimgi Misrdagi musiqiy unsurlarni saqlab qolganliklarini ko'rsatadi. Mushuk va sichqon haqidagi xalq qo'shig'i buning dalilidir.

Shunday qilib, qadimgi Misrda vujudga kelgan estetik g'oyalar, ijodiy tamoyillar, janrlar keyingi davrlar nafosat ilmi rivojiga harakatlantiruvchi ma'naviy kuch sifatida ta'sir ko'rsatganiga shubha yo'q.

Sharqda vujudga kelgan boshqa qadimgi davlatlarda yashagan xalqlar ilgari surgan estetik g'oyalar ham katta ahamiyatga ega. Chunonchi, muqaddas «Bibliy» kitobining avvalgi qismi bo'lmish «Ahd ul-qadim»ni qadimgi yaxudiylar dini bilan bog'liq so'z san'atining ulkan yodgorligi deb atash mumkin. Unda va keyinchalik qo'shilgan boshqa qismlarda qadimgi adabiyotning diniy asotirlar, tarixiy afsonalar, qahramonlik eposi shakllarida aks etganini ko'rsa bo'ladi. Ularda go'zallik haqidagi tasavvur o'zini diniy-mifologik shaklda namoyon qiladi. Bibliyadan o'rin olgan asarlarning ko'pchiligida Shumer-Bobil va Misrda ilgari surilgan g'oyalar ta'sirini ilg'ash qiyin emas.

Qadimgi Turon-Eron mintaqasi xalqlarining estetik qarashlari

Sharq xalqlari taraqqiyoti tarixida qadimgi Eronzamin va Turonzamin aholisi yaratgan madaniyat katta o'rin tutadi. Eronliklar va turonliklar o'rtasidagi aloqalar ko'pincha tinch-totuvlikka asoslangan emas. To'maris, SHiroq haqidagi qadimgi voqelikka doir afsonalar, keyinchalik Firdavsiy «SHohnoma»sidan o'rin olgan buyuk turk hoqoni Alp Er To'nga – Afrosiyobning Siyovush, Kaykovus, Kayxusrav bilan bo'lgan munosabatlari buning dalilidir. Ayni paytda, bu qadimgi ikki mintaqa orasida madaniy, ma'rifiy aloqalar yo'lga qo'yilganligi shubhasizdir. Xususan, mashhur zardo'shtiylikning muqaddas kitobi «Avesto»ning taqdiri bunga misol bo'la oladi. Bundan uch ming yil avval qadimgi Xorazmda Spitoma urug'idan dunyoga kelgan Zardusht dastlab o'z o'lkasida Axura Mazda dinini targ'ib etishda ko'p qiyinchiliklarga duch kelgach, o'zga yurtlarga bosh olib ketadi. Sakastana yurtida Kaviy Vishtaspa saroyida panoh va uzlat topadi.

«Avesto» gotlarini Zardo'sht badiha yo'li bilan omma orasida qo'shiq qilib aytgan. Bu turkum she'rlar – «got»larda o'sha davrdagi hayotiy lavhalar o'z aksini topgan. «Got» so'zi aslida «goh» ya'ni «kuy», «qo'shiq» degan ma'noni anglatadi. Bu so'z mumtoz musiqa merosimizda «Dugoh», «Segoh», «CHorgoh» kabi atamalar tarkibida saqlanib qolgan.

Qadimgi «Avesto»dan bizgacha etib kelgan qismlar «YAsna», «Vedevdot», «YAsht», «Visparat» kitoblaridir. Zardusht ijod qilgan gotlardan 17 tasi «YAsna» kitobiga kirgan. Ayrim parchalar yashtlar ichida ham uchraydi. Aynan ana shu gotlar orasida qadimgi turonliklar va eronliklarda estetik tasavvurlarning qanday shakllanganligini ko'rish mumkin.

Qadimgi turonliklar va eronliklarda ham atrof-muhitdagi go'zallikni anglab etish boshqa qadimiy madaniy xalqlardagi kabi insonning o'z-o'zini anglash va o'zligini barqaror etish jarayonlarida ro'y bergan. Ma'lumki, qadimgi Sharqda go'zallik axloqiy yuksaklik bilan mohiyatan bir tushuncha sifatida olib qaralgan. Bu jihatdan «Avesto» ham istisno emas: undagi «go'zal», «chiroyli», «qoyilmaqom» so'zlari «yaxshi», «ezgu», «beg'ubor» so'zlari bilan ma'nodosh tarzida keladi; «go'zal» degani «yaxshi», «odamga foydali» degan ma'noni anglatadi. «Avesto»da odatda «go'zal» sifatlashi «adl», «beg'ubor», «qudratli», «qo'rqmas», «dovyurak», «ezgu», «zarur» singari ijobiy baholar bilan yonma-yon keladi. Zero ko'rib o'tganimizdek, ko'pchilik qadimgi xalqlarda estetik g'oyalarning ibtidosi «go'zallik va ezgulik»ning, «go'zallik va zaruriylik»ning yaxlitligi bilan bog'lanadi.

«Avesto»da ham boshqa yuksak madaniyat sohibi bo'lgan qadimgi Sharq mintaqalaridagi an'anaviy estetik tushuncha bo'lmish nur alohida o'rin egallaydi. Unda quyosh, oy, yulduzlar nuri insonning ichki axloqiy ziyosi bilan qo'shilib ketgandek tuyuladi, nur nafosati o'zining yuksak darajasiga ko'tariladi.

Gotlarda go'zallik haqidagi tasavvur ilohiy nuqtayi nazardan adllikka, meyoriylikka, mutanosiblikka, ya'ni uyg'unlik tushunchasining ilk ibtidoiy ko'rinishlariga borib taqaladi. Zardusht gotlarda o'z ilohi Ahura Mazdani sharaflagani va bu sharaflash «mezonsiz emas, balki mezoniy so'zlar bilan» amalga oshuvini alohida ta'kidlaydi.

«Avesto»da fikr – so'z – a'mol uchligi yaxlitlikni tashkil etadi va bu yaxlitlikda so'z alohida o'rin egallaydi. Zardusht uchun Ahura Mazdani chiroyli so'zlar bilan ifodalash yovuz so'zlarni yanchish, ya'ni ezgulik vositasida

yovuzlikni yanchish demakdir. Bu esa so’zni muqaddaslashtirish, eng avvalo, gotlar shaklida badiiylashgan so’zni e’tiqod ramzi sifatida talqin etishdir.

Gotlarda «go’zallik», «ko’rkamlik», «chiroylilik», «ulug’», «ulug’vor», «viqor» singari so’zlar alohida tilga olinmasa-da, ular haqiqat, ezgulik, yaxshilik shaklida ifodalanadi.

Qadimgi hind eposi «Mahobxarat»da tasvirlanishicha, YUdhishtir tomonidan ruhlarga atab o’tkazilgan qurbonliq bayramida turli mamlakatlardan, jumladan Turondan shaklar, tohar va qang’ilar davlatining elchilari qatnashadilar. Bu elchilar keltirgan sovg’a-salomlar ichida xalq amaliy san’ati taraqqiyotidan dalolat beruvchi, o’z davri estetik didini aks ettiruvchi jundan, paxtadan, ipakdan to’qilgan matolar, nafis kiyim-boshlar, temir uchli nayzalar, oyboltalar, keskir bolta va teshalar bo’lgani aytiladi.

Xuddi shunday holatni milodning dastlabki asrlarida bitilgan qadimgi Xitoy manbalarida ham uchratish mumkin. Ulardan birida Markaziy Osiyodan, xususan, Toshkent vohasidan Xitoyga borgan artistlarning kiyimlari va bezaklari ta’riflanadi. Unda yozilishicha, raqqos-artistlar engi tor ko’ylak, boshlariga cho’ng’oq (uchi baland) telpak kiyganlar. Telpak tevaragi tepaga qayrilgan, chetlariga mayda qo’ng’iroqchalar taqilgan. Bundan tashqari, ular gulnusxa, durlar bilan bezalgan do’ppi ham kiyganlar. Solnomachi bu kiyimlar qadimdan mavjudligini, hanuzgacha o’zgarmaganligini ta’kidlaydi. Toshkentlik raqqos bolaning o’yinini madh etishga bag’ishlangan she’rlardan birida ham mazkur engillar tilga olinadi. SHe’rda raqqos bolaning ko’ylagi nafis jun matodan to’qilgani, boshida cho’ng’oq telpak, belida kumush kamar va oyog’ida naqshin etigi bo’lgani tasvirlanadi.

Milodiy IV-V asrlarga oid xitoy musiqiy risolalarida Buxoro (Ango), Samarqand (Kango) va Qang’li shjo yoki Qang’li (Sirdaryoning o’rta oqimi, Toshkent vohasi) nomli maqomlar mavjud bo’lganini ko’rish mumkin. Xitoyda mashhur bo’lgan xusyunsu raqsi Movarounnahrda keng tarqalgan raqslardan bo’lgan, uni Samarqand, Kitob va Shahrisabz mintaqalaridan chiqqan qiz-juvonlar ijro etganlar. Xusyunsu raqsida kichik, yumaloq koptokni tepaga otib, gir aylanib, mohirlik bilan ilib olib, oyoq tagiga tashlab, ustiga oyoq qo’yib, sirg’alib ketmasdan aylanib o’ynaganlar; sirg’alib ketmaslik o’yinchining mahoratini bildirgan.

Qadimgi Xitoyda shuhrat qozongan raqslardan yana biri Chjechji – Toshkent nomi bilan atalgan, uni 24 nafar raqqosa ijro qilgan, bu raqs davra olib o’ynalgan. O’yin milliy musiqa, maqom va xonanda ijrosi bilan jo’rlikda davom etgan. Raqqosalardan biri davra markazida o’ynab, o’yinni boshqarib borgan. Kuzatuvchi raqqosa «xuasin» («gulning markazi») deb atalgan. Raqqosalarning barchasi qimmatbaho nafis matolardan tikilgan, dur-javohirlar hamda go’zal kashtalar bilan bezalgan kiyim-boshlarda sahnaga chiqqanlar. O’sha davrlardagi xitoylik shoirlar bu Toshkent raqsining maftuni bo’lib, unga o’nlab she’ru qasidalar bag’ishlaganlar. Mashhur san’atshunos, akademik L.I. Rempel qadimgi dunyo Sharq san’ati haqida fikr yuritib: «O’rta Osiyoning Ahmoniylargacha bo’lgan va Ahmoniylar xukmronlik qilgan davrdagi qadimiy madaniyat va san’at o’chog’i sifatidagi roli aniq. Biroq qadimgi O’rta Osiyo mahalliy madaniyatining eng yuksalgan payti antik davrga to’g’ri keladi.

Qadimgi Hindistondagi estetik g’oyalar

Taxminan milodgacha bo’lgan II ming yillik o’rtalarida Shimoliy-G’arbiy Hindistonga, hozirgi Panjob mintaqasiga g’arbdan Hindukush dovonlari orqali o’zlarini oriylar deb atagan jangovar qabilalar kirib kela boshladilar. Ular na faqat harbiy iste’dodga, balki shoirlik qobiliyatiga, dunyoning qandayligi, uning qanday bo’lishi kerakligi haqidagi o’z qarashlariga ham ega edilar. Ularning alqovlari – Sharqiyalari eng qadimgi hind yodgorligi «Rigveda»ga asos bo’ldi. «Veda» – muqaddas bilim, «Rigveda» – alqovlar vedasi demakdir. «Rigveda» o’sha davr kishisining o’zi va atrof muhit: ma’budlar, iblislar, devlar, fazo, ijtimoiy turmush axloqiy va estetik qadriyatlar haqidagi bilimlarni o’z ichiga oladi.

Eng keng yoyilgan nuqtayi nazarga ko’ra, Hindistonga bostirib kirgunlariga qadar oriylar O’rta Osiyoning Amudaryo va Sirdaryo bo’yi, Orol hamda Kaspiy dengizigacha bo’lgan mintaqalarida yashaganlar. Zero «Rigveda» va «Avesto»ning tili bir-biriga nihoyatda yaqin. YAqinlik ba’zan shu darajadaki, ikki matn bir qadimiy matnning ikki xil variantiga o’xshaydi: faqat tovushlar mosligining qonun-qoidalarigina har xil. Buning ustiga «Rigveda» tili keyingi davrda sanskritda yozilgan she’rlar va mumtoz eposlar tilidan ko’ra, «Avesto» tiliga yaqin. «Rigveda»dagi qator mifologik personajlarning «Avesto»da mavjudligini ham aytib o’tish lozim; nomlar o’xshashligidan tortib, syujetlar o’xshashligigacha uchratish mumkin. Bundan tashqari, har ikki diniy tizimda sig’inish ob’ekti umumiy: «Rigveda»da ham, «Avesto»da ham olovga sig’inish e’tiqodiy asos sifatida namoyon bo’ladi. Bunday o’xshashliklar juda ko’p.

«Rigveda»da so’zning ahamiyati alohida o’rin tutadi. Ma’budlarni e’zozlashda so’z ibodat va qurbonliqdan kam hisoblangan emas. So’z poklovchi, muqaddas omil hisoblangan, «Rigveda»da u ma’buda Voch («voc»–«so’z», «nutq» degani) timsolida jonlantirilgan.

Sharqiya-alqovlarni shoir – kohinlar-rishilar yaratganlar. Rishilar san’ati bizning hozirgi baxshi-shoirlarimiz san’atiga o’xshash vorisiylik tabiatiga ega bo’lgan, otadan o’g’ilga o’tgan. Oriylarning Hindiston ichkarisiga kirib boraverishi bilan tabaqaviy to’siqlar yo’qola borgan; rishilar uchun zot emas, iste’dod birinchi o’ringa chiqqan.

«Rigveda»da oriylar jamiyatidagi shoir ilohiy karomatga dahldor, ma’budlar alqagan donishmand tarzida namoyon bo’ladi. SHoir ma’buddan ana shu karomatli onlarni baxshida etishni so’raydi. Donishmandlik, bu – bir zum namoyon bo’luvchi manzara. Unga erishishning usuli-ko’rishdir. SHoir ichki nigoh, savqi tabiiy bilan uning ilohiy haqiqat manzarasini nogoh yoritib yuboradigan uning nuri orqali ko’radi. Bir manzara o’rnini ikkinchisi egallaydi va bu manzara-karomatlar almashinuvi zaminida dhi deb nomlangan vedaga xos dunyoni bilish yotadi.

Dhi – «fikr, tasavvur, qarash, tushuncha; intuistiya (savqi tabiiy, fahm), bilish, aql, bilim, san’at, ibodat», shuningdek, «ko’z o’ngiga keltirish, fikrlash» ma’nolariga uyqash. SHoir dhira-dhi egasi, donishmand, iste’dod egasi deb atalgan. SHoirlar ma’budlardan dhi ato etishlarini so’raganlar. Dhi tufayli shoirlar ma’budlar bilan

odamlar orasidagi vositachiga aylanganlar. Zero shoir – «doimo ma'budlar olami bilan uchrashuv» timsolidir.[157] Ma'budlar olami esa mutlaq go'zallik maskani. Vedalardagi tasavvurga ko'ra, shoirlar o'zlari Yangi manzaralar yaratmaydilar, balki oddiy bandalar ko'rolmaydigan ma'budlar dunyosiga tegishli manzaralarni so'zga aylantiradilar. Bunda ilhomning o'rni muhim: ilhomgina shoirga Ilohiy So'z ustidan hukmronlik qilish imkonini beradi. SHu bois shoirning muvaffaqiyati Voch bilan bog'liq. Voch deydi: «Kimni suysam o'shani-qudratli, o'shani-brahman, o'shani-rishi, o'shani-donishmand qilaman. Zero shoir-baxshining «So'z bilan ko'rmoqchiman iloh Agni siyratini», deyishi bejiz emas. «Rigveda» – she'riy matn. Uning she'riy o'lchovi hijolarning muayyan soniga asoslangan. Ayni paytda uzun va qisqa hijolar farqlanadi. «Rigveda»da 1028 Sharqiya-alqovlar mavjud. Uzoq zamonlardan buyon Hindistonda bu Sharqiyalarni musiqa jo'rligida ijro etish odat tusiga kirgan. Chunonchi, «Samoveda»-butunasicha musiqaga solingan «Rigveda» Sharqiyalaridan iborat.

«Avesto»dagi kabi «Rigveda»da ham Nur estetikasi alohida o'rin tutadi. Juda ko'p Sharqiya-alqovlar muqaddas olov ma'budi Agniga bag'ishlangan. Qadimiy yodgorlikning birinchi alqovi-Sharqiyasidayoq Agni «shoirona zakiy, haqiqiy charaqlagan sharaf sohibi» deb ta'riflanadi. Agniga nisbatan «go'zal yoqilgan», «go'zal qiyofali» «charaqlagan» singari sifatlashlar qo'llaniladi; go'zallik haqidagi tasavvur nur bilan bog'liq tarzda namoyon bo'ladi.[158] Go'zallik «suvga to'la bodiyadek ezgulik to'la» ma'bud Indrning ham asosiy sifati tarzida talqin etiladi; uni Sharqiyalardan birida «qudratning go'zal harakat qiluvchi o'g'li», deyilsa, boshqa birida u:

Seni, ey go'zal qiyofa sohibi
Madh etmoq istaymiz, ey sahiy, –

deb ulug'lanadi[159]. Boshqa Sharq adabiiy yodgorliklaridek, «Rigveda»da ham asosan go'zallik ezgulik va yaxshilik tarzida talqin etiladi. Ayni paytda shunday o'rinlar borki, unda go'zallik bilan ezgulik ajratib ko'rsatiladi. Ma'bud Indrga bag'ishlangan alqovlardan birida ezgulik, qahramonlik va go'zallik ham sifat, ham tushuncha sifatida bir-birini to'ldirib keladi:

Botirliging, ey qahramon, kuylangay go'zal,
Ruh kuchi-la ezgulikni sen topgan mahal[160].

Qadimgi Hindiston falsafiy-estetik, diniy-axloqiy tafakkurida upanishadlarning ahamiyati beqiyos. «Upanishad» so'zi to'g'ridanto'g'ri «davra», «davra olmoq» (ustoz atrofida) demakdir. Lekin uning ikkinchi botiniy ma'nosi – «sirli bilim», «yashirin bilim». Upanishadlar vedalarga borib taqaladigan, ularning sirlarini tushuntiradigan diniy-falsafiy tabiatga ega ta'limotdir. Aynan milodgacha bo'lgan VII-IV asrlarda vujudga kela boshlagan ana shu upanishadlarda qadimgi hindlarning shakllangan estetik tasavvur va qarashlarni ko'rish mumkin. Upanishadlardagi nafosatli tasavvurlar ham axloqiy qarashlar bilan mustahkam bog'liq.

Upanishadlar yaratilgan davrga kelib, qadimiy Hindistonda musiqa san'ati, qo'shiq, raqs, me'morlik va tasviriy san'at taraqqiy topgan edi. Biroq, upanishadlarda ko'p hollarda bezaklar moddiy yoki ma'naviy bo'lishidan qat'i nazar, ular qoralanmasa-da, umuman olganda, san'at o'tkinchi hissiy lazzat, moddiy hodisa tarzida talqin etiladi. Asl donishmand abadiy haqiqatga intilishi, har qanday san'atdan yuz o'girishi lozim. Zero san'at, xususan, tasviriy va musiqiy san'at «aldamchi lazzat» beradi; kimki unga o'rganib qolsa, «oliy holatni yodidan chiqaradi».

Qadimgi Hind estetikasida, xususan, upanishadlarda nur nafosati bilan birga so'zlarda in'ikos etgan rang nafosatiga ham duch kelish mumkin. Ranglar muqoyasa-zidlashtirish usulida estetik xususiyat kasb etadi.

Upanishadlar mohiyatan «Brahman haqidagi ta'limot» degan ma'noni ham anglatadi. «Brahman» so'zining o'zi ko'p ma'noli. Upanishadlar Brahmanni universum, mavjudlikning yagona ibtidosi, o'z-o'ziga asoslangan, olamdagi bor narsaga va olamning o'ziga tayanch bo'luvchi qandaydir ulug'lik tarzida tushuntiradi. Donishmand uchun esa Brahman «intilish ob'ekti», ya'ni muayyan ma'noda ma'naviy ideal har qanday go'zallikdan go'zalroq go'zallikdir.

Oliy va pok brahmanga etishish buyuk quvonch, baxt bag'ishlaydi, u – insonning charaqlab turgan haqiqatni ko'ra bilishidir. Brahmanni bilish –«insondagi nurni» bevosita mushohada etish. Bu eng go'zal va eng ilohiy mushohadadir. SHunday qilib, upanishadlarda haqiqat, nur – ezgulik va oliy go'zallik ramzi tarzida talqin etiladi.

Qadimgi hind estetikasi so'nggi davrlari milodning dastlabki asrlarida nazariy risolalarning yuzaga kelishi bilan alohida ahamiyatga ega. Ana shunday qimmatli asarlardan biri «Nat'yashastra» – «Teatr san'atiga doir o'gitlar» (I-II asrlar) risolasi hisoblanadi. Odatda afsonaviy donishmand Bharatga nisbat beriladigan bu asarda asosan aktyorning ijro texnikasi va tarbiyasiga doir turli maslahatlar hamda o'gitlar keng o'rin olgan. Unda ishtirok etuvchilarning dramatik syujet asosida tug'ilgan ehtirosli holatlari aktyorning qadam tashlashi, imo-ishorasi, o'zini tutishi va barcha harakatini belgilaydigan shu kabi omil, degan fikr ilgari suriladi. Ifodalanayotgan hissiyotning tabiati, shuningdek, musiqiy jo'rlikni, grim va qisman libos tanlashni ham taqozo etadi. SHunday qilib, ehtiros na faqat aktyor harakatini, balki, umuman spektakl shaklini uyushtiruvchi ibtidodir. Sahnada badiiy qiyofa yaratish vazifasidan kelib chiqib, qadimgi hindlarning teatr haqidagi ilmi inson ruhiy holatlarini alohida tahlil etuvchi «bhava» deb atalgan tizimni yaratdi. Unda bir tomondan, ruhiy holatlarning tug'ilishiga olib keladigan sabablar («uyg'otuvchilar» – «vibhava»), ikkinchi tomondan esa, ularning tashqarida imo-ishora, so'z ohangi va hokazo ko'rinishlarda namoyon bo'lishi («onubhava») –hisobga olingan.

Bundan tashqari, «bxava»larni sakkiz guruhga bo'luvchi murakkab tasniflash yaratilgan. O'zida bir asosiy tasniflash turi va bir necha shunga yaqin ikkinchi darajali holatlarni mujassam etgan ana shunday har bir guruh

---

[157] Qarang: Ригведа. Мандалы I-IV. М., Наука, 1989. С. 116.
[158] O'sha manba. S. 99.
[159] Osha manba. S. 251.
[160] Qarang: o'sha manba. S. 360

muayyan ehtiros tushunchasi tarzida olib qaralgan. Barcha tushunchalar, ya'ni sakkiz tushuncha yagona «rasa» («did») degan ibora bilan ifodalangan. Keyinchalik «rasa» badiiy ehtirosni, nafosatni anglatadigan estetik tushuncha maqomini oldi va shu tarzda hind san'atshunosligida keng tarqaldi. «Rasa» tushunchasi musiqa nazariyasida pardalar, tovush qatorlari, bosqichlar va ohanglar turlarida, tasviriy san'at nazariyasida esa rangtasvir va haykaltaroshlik qo'llanib kelindi.

Qadimgi Hindiston estetikasidagi uslub nazariyasi taraqqiyotiga nazar tashlasak, milodning II asriga kelib, «bezaklar» deb nom olgan badiiy ifoda usullari haqidagi ta'limot shakllanganini ko'rish mumkin. IV-V asrlarga kelib, u uslub nazariyasining katta va muhim qismini tashkil etadi. Masalan, «Nat'yashastra»da 4 xil bezak haqida gap ketsa, «Kav'yalankara»da ularning soni 39 ta. Nihoyat, IV-V asrlarga kelib, qadimgi uslubiyatning uchinchi qismini tashkil etuvchi fazilatlar yoki sifatlar haqidagi ta'limot yuzaga keladi. Ana shu davrlarda nuqsonlar haqidagi ta'limot ham paydo bo'ladi.

Shunday qilib, ko'rib turibmizki, qadimgi hind estetikasida she'riy nutq, uslubga doir boy materiallar yig'ilgan va ularni uch ruknga-bezaklar, fazilatlar va nuqsonlarga bo'lib o'rganish tamoyillari ishlab chiqilgan.

Qadimgi Xitoy estetikasi

Qadimgi Xitoy estetikasi deganda, biz odatda, miloddan avvalgi VII asrdan milodning V asrigacha bo'lgan davrni nazarda tutamiz. Mana shu davrda Xitoyda, garchand estetik tafakkur mustaqil fan maqomiga ega bo'lmasa-da, lekin asosiy falsafiy-estetik tushunchalar shakllangan edi. Biroq, dastlabki nafosatga doir tasavvurlar, g'oyalar, tushunchalar bundan ancha avval «Shuszin» («Tarixlar kitobi» – miloddan avvalgi XII asr), «Shiszin («Qo'shiqlar kitobi» – miloddan avvalgi XI-VI asrlar), «Iszi» («O'zgarishlar kitobi» – miloddan avvalgi VIII-VII asrlar) deb nomlangan yodgorliklarda uchraydi. Ularni eng avvalo, mazkur kitoblardan joy olgan asotirlar-miflarda va she'riy eposlarda ko'rish mumkin.

Bular orasida «Shiszin» («Qo'shiqlar kitobi») alohida o'rin tutadi. Zero u qadimgi Xitoy xalqi tarixini ko'pgina tarixiy, etnografik va boshqa yodgorliklarga nisbatan to'laroq, chuqurroq aks ettiradi, desak Yanglishmaymiz. «Shiszin» 305 she'riy asarni o'z ichiga oladi. Ular to'rt qismga bo'lingan: «Gofun» («Saltanatlar odatlari»), «Syao ya» («Kichik qasidalar»), «Da ya» («Ulkan qasidalar») va «Sun» («Alqovlar»), «Shiszin»dagi she'riy asarlar asosan xalq og'zaki ijodining yozib olingan variantlaridir, to'g'rirog'i, musiqaga solingan she'rlardir. Agar qadimda musiqa va raqs bir-biridan ajralib chiqmaganini nazarda tustak, bu yodgorlikda ham so'z san'ati, ham musiqa san'ati, ham raqs san'ati ruhini, unsurlarini ko'rish mumkin. Chunonchi, «YUeszin» («Musiqa haqida kitob») deb atalgan qadimgi yodgorliklardan bizgacha etib kelgan bir parchada shunday deb yoziladi: «She'riyat, bu – so'zga aylangan intilish. Qo'shiq uni tovush orqali ifodalaydi; raqs badiiy qiyofani harakat orqali etkazadi. Har uchala tur yurakda ildiz otadi, keyin ularga musiqiy asboblar ergashadi»[161]. Bu parchadan o'sha paytlarda so'z san'ati kuy va raqs talablariga bo'ysundirilgani ko'rinib turibdi.

«Shiszin»dagi folklor qo'shiqlarida muhabbat va do'stlik tuyg'ulari o'ziga xos, rang-barang ifoda topgan. Bu tuyg'ular bejamadorlikdan, balandparvozlikdan, soxtalikdan yiroq, o'zida shakliy go'zallikning ajoyib namunasini aks ettiradi. Ana shu xalq qo'shiqlari xitoy yozma adabiyotiga asos bo'ldi: uch yarim ming yil avval xitoy yozuvi – ierogliflari yaratildi. SHuni aytish kerakki, ieroglif yozuv rang-barang, bazo'r ilg'anadigan nozik ishoralarni tasvirlashda mavhum va ko'pyoqlamali tushunchalarni, turli ma'no urg'ularini va qirralarini ifodalash uchun cheksiz imkoniyatlarga ega. Masalan, **mey** ieroglifi (go'zal, badiiy, estetik) degan ma'nolarni anglatadi. U ikki piktogramadan – rasmlashgan yozuvdan iborat; **yan** (qo'chqor, qo'y) va **da** (katta, ulkan). Dastlab bularning qo'shiluvi «katta qo'chqor» degan jo'n tushunchani, ya'ni, tengi kam, go'shti lazzatli, juni kamyob, go'zal tashqi ko'rinishga ega bo'lgan hayvonlarning g'ayri odatiy nusxasini anglatgan. Go'zallik haqidagi tushunchaning keyinchalik rivojlanib borishi bilan «mey» ieroglifining nisbatan murakkab va mavhum ifodasi bo'lmish go'zal, badiiy, estetik degan ma'nolar yuzaga kelgan. SHu tarzda muayyan timsol shakllana borish jarayonida umumlashgan, tipiklashgan va mavhumlashgan tushunchaning paydo bo'lishiga xizmat qilgan.

Ieroglif-belgilar odamlarning reallikka estetik munosabati taraqqiyotini, badiiy ijod umumiy qonunlari shakllanishining manzarali belgisi sifatida namoyon bo'ladi. SHu bois so'zning she'riy ma'nosi ko'p hollarda aniq va cheklangan doiralarda emas, balki asosiy ma'noga o'xshashligi, yaqinligi, ba'zan esa zidligi bilan ochiladi. Satrlarda tugallangan majoz o'rnida, o'sha majozning ko'lankasi, ishora, badiiy asosgina aks etadi; atayin qilingan nim ifoda, notugallik, ko'pma'nolilik, bir chizgi, belgida homaki matn tarzida in'ikos topgan ishora ba'zan asl ma'nodan muhimroq ahamiyat kasb etadi. Natijada ijodiy hamkorlik tug'iladi, o'quvchi san'atkorning asosiy fikriga bo'ysunuvchi, uni inkor etmaydigan rang-barang bo'yoqlarni tasavvur qiladi. Bunda muallif qancha kam so'z ishlatgan bo'lsa, shuncha ko'p ifoda vositalari iqtisod qilinadi, fikrlashga, tasavvurga, manzara yaratishni tugallashga shuncha katta imkon tug'iladi. SHu bois kamso'zlik, qisqalik, nozik ishora qimmatli hisoblanadi. Qadimgi Xitoy shoirlarining o'zlarini cheklashga, iloji boricha kam so'z ishlatishga, ifodaviy vositalarga «xasislik» qilishlariga intilishlari shundan.

Qadimgi Xitoy estetikasida ikki yo'nalish alohida ajralib turadi. Bular – daochilik va konfustiychilik. Daochilik yo'nalishining muhim belgisi, bu –fazo (kosmos) hamda tabiatning azaliy va abadiy go'zalligi; jamiyat va inson go'zalligi darajasi esa ana shu borliq go'zalligiga qanchalik o'xshash, yaqin ekanligi bilan belgilanadi. Konfustiychilik xulqiy go'zallik muammosini o'rtaga tashlaydi; axloqiy-estetik ideal uning eng muhim belgisi sanaladi.

---

[161] Федоренко Н.Т. Избранные произведения в 2 х т. Т.1. М., ИХЛ, 1987. С. 56.

Daochilikning («dao» – yo'l degani) asoschisi Laostzi (miloddan avvalgi VI-V asrlar) fikriga ko'ra, uyg'unlik (xe) «tinchlik», «kelishuv», «yumshoqlik», «kelishtirish» ma'nolarini anglatadi. «Me'yor» so'zini esa u etarlilik ma'nosida qo'llaydi. CHjuansi (IV-III asrlar) uyg'unlikning ta'sir doirasini Laosziga nisbatan kengaytiradi; u nafaqat ibtidoni vujudga keltiruvchi hodisa, balki butun kosmosning asosidir; u olamning bir butun yaxlitligini tashkil etgan unsurlar va qismlarning jo'r bo'lib chiqargan ohangdor tovushi tarzida tushuniladi. Bu anglash CHjuanszida badiiy shaklda ifodalanadi: koinotni u har bir parchasi alohida ohang chiqaruvchi va birgalikda hamroz kuyni tashkil etuvchi nayga o'xshatadi. CHjuanstzining go'zallik haqidagi tasavvuri tabiatga uyg'un va mukammal yaxlitlik tarzidagi munosabat bilan bog'liq, Osmon va Er ulug' go'zallikka ega, deydi u. Donishmand asl go'zallik va go'zallik bo'lib tuyuluvchi hodisalarni farqlaydi.

Laoszi izidan borib, Chjuanstzi san'atni bir odamdan ikkinchi odamga o'tkazib bo'lmaydigan, ya'ni o'rganib bo'lmaydigan oliy hodisa sifatida talqin etadi. San'at o'z ichki niyatiga tabiatdagi o'xshashlikni (aynanlikni) ilg'ab olish; «tutib qolish» qobiliyatidir. Niyatning o'zi san'atkor qalbida biror-bir ma'suliyastiz, hech qanday shaklu shamoyilsiz tug'iladi, shaklni esa u o'ziga yaqin (qardosh) bo'lgan tabiat bilan uyqashib (xe) ketgan lahzada oladi. Ijodiy jarayon barcha botiniy kuchlar oliy darajada jamlangan lahzada vujudga keladigan nogahoniy «bashorat» («karomat») tarzida tushuniladi.

Go'zallik haqida «Dao va De» kitobida («Dao de stzin») ham diqqatga sazovor fikrlar bayon etilgan. Jumladan, unda shunday deyiladi; «Butun Osmonosti go'zallikning go'zal ekanini bilib olganida o'sha payt xunuklik ham paydo bo'ladi. Qachonki hamma ezgulik, ezgulik ekanini bilib olganida, o'sha payt yovuzlik ham tug'iladi»[162].

«Xuaynanstzi» («Xuaynanlik faylasuflar») deb atalgan qadimgi Xitoy matni ham estetik g'oyalar taraqqiyotini ko'rsatuvchi manba sifatida muhimdir. Unda mualliflar go'zallikning me'yor bilan belgilanishini ta'kidlaydilar. Me'yor bilan belgilangan go'zallik va nuqs bo'lgani uchun ham bu dunyoda yaxlitlik mavjud; «Go'zallik me'yor bilan belgilanadi, nuqs o'zini foydalanish jarayonida namoyon etadi. Shu tufayli to'rt bahri muhit oralig'idagi makon birlashishi mumkin»[163].

«Xuaynanstzi»da san'atning uch xil darajasini ko'rsa bo'ladi. Birinchisi, daoga asoslangan san'at, bu – donishmandlik. U eng yuksak darajadagi narsalar bilan bog'liq; bular yaxlitlik, yo'qlik, dao, olam (kosmos). Bunday san'atning maqsadi «oliy uyg'unlikka» (toy xe) erishish va oxir-oqibatda tabiat bilan barobar darajada narsalar ijod qilish. Ikkinchi darajadagi san'at hisob-kitobga, ya'ni me'yorga asoslanadi. Bu – «boshqarish» (odamlarnimi, narsalarnimi – baribir) san'ati. Uchinchi xil san'at esa bizning tushunchamizdagi hunarga to'g'ri keladi; u yuzaki mohirlik oqibati bo'lmish tashqi bezak sifatida talqin etiladi.

Xuaynanlik faylasuflar yuqoridagi san'at xillarining, ayniqsa, ikkinchisiga alohida e'tibor qiladilar va shu munosabat bilan estetik muammolarni Yangicha talqin etadilar. Bu xil san'at darajasi haqida fikr yuritar ekan, ular o'rinlilikka, yohud joizlilikka (i, byan, shi) diqqatni qaratadilar. Bu tushuncha mualliflarning go'zallik haqidagi tasavvurlari bilan mustahkam bog'liq. «YUzdagi kulgichlar go'zal, – deyiladi risolada, – agar ular manglayda bo'lsa – xunuk; kiyimdagi kashta – go'zal, qalpoqdagisi esa – xunuk». O'rinlilik ayni vaqtida degan ma'noda ham talqin etiladi. San'at «lahzaga munosabatdan», «vaqtga ergashishdan» (in shi) tashkil topadi.

Mualliflar san'at texnika bilan, mahorat qurolini egallash bilan bog'liqligini alohida ta'kidlaydilar, san'at va uning vositasini qat'iy farqlaydilar. Mahorat, umuman olganda, daochilar fikriga ko'ra, botiniy ma'naviy ma'noni moddiy shakl orqali ifodalash qobiliyatidan iborat. Ayni paytda faqat «shakl deb atalgan hojani bo'ysindirmay turib», birgina tashqi shaklga shunchaki taqlid qilish odamlarda istehzo uyg'otadi. Har bir san'at asari ruh bilan sug'orilgani va u orqali san'atkor qalbi tilga kirgani uchun go'zaldir. Ana shu ruh mazmundan holi bo'lgan shakl o'likdir, o'likning esa go'zal bo'lishi mumkin emas.

Daochilar uchun ibtido nuqtasi olam (kosmos) bo'lsa, Konfustiy (miloddan avvalgi 551 – 479 yillar) va uning izdoshlari o'z estetik qarashlarini ijtimoiy-siyosiy nuqtayi nazardan kelib chiqib shakllantiradilar. Konfustiy «jo'mard o'g'lon» tushunchasini kiritadi. Jo'mard o'g'lon eng avvalo axloqiy va fuqarolik burchlarini chin dildan, namunali bajaruvchi jamiyatning ideal a'zosi. Jo'mard o'g'lon tarbiyasining asosini Konfustiy uch narsada – «qo'shiq», «udum» va «musiqa»da ko'radi. Demak, donishmand nuqtayi nazaridan tarbiya estetik asosda olib borilishi lozim.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Qadimgi Xitoy estetikasi nafaqat O'rta asrlarga kelib yuksak pog'onaga ko'tarildi, balki Yaponiya, Quriya, Vetnam xalqlari estetikasiga ham asos bo'ldi.

Qadimgi dunyoning mumtoz estetikasi

Qadimgi dunyoning mumtoz falsafasi haqida gap ketganda ko'pgina adabiyotlarda uni go'yo Yunonistonda o'z-o'zidan paydo bo'lib qolgan aqliy yuksaklik, ya'ni, yunonlarning (Yevropaliklarning) boshqa irqlarga nisbatan buyukligidan dalolat beruvchi hodisa sifatida talqin etiladi. Lekin, aslida qadimgi Yunoniston fani va madaniyati Eron, Bobil, qadimgi Misr va qadimgi Hindiston singari Sharq mamlakatlari erishgan yutuqlardan foydalanib, shu darajaga ko'tarildi. Qadimgi Sharq yunonlar uchun ulkan maktab vazifasini o'tadi. Chunonchi, Fales, Pifagor, Demokrit, Geraklit, Suqrot, Aflotun singari allomalar ana shu maktab ta'limotidan bahramand bo'lib, buyuklikka erishganlar. Buning isbotini deyarli barcha qadimgi manoqiblarda, xususan, yunonlardan qolgan falsafiy, adabiy va tarixiy manbalarda ko'rish mumkin.

---

[162] Дао. М., - Харков, Эксмо-пресс – Фолио, 2000. С. 9.

[163] Древнекитайская философия. Эпоха Хан. М., Наука, 1990. С. 75.

Qadimgi yunon mumtoz estetikasi deganda biz, asosan, uch buyuk siymoni nazarda tutamiz. Bular-Suqrot, Aflotun va Arastu.

Suqrot (miloddan avvalgi 469-399 yillar) jahon falsafasida birinchi bo'lib antropologik yondashuvga asos solgan mutafakkir, ungacha falsafaga faqat kosmologik yondashuv hukmron edi. U diqqatni kosmos – fazoga emas, balki insonga qaratdi, insonni amaliy xatti-harakati, axloqiyligi nuqtayi nazaridan o'rganishga kirishdi. Suqrot axloqshunoslik va nafosatshunoslikning, axloq va go'zallikning uzviy aloqasini ta'kidlab ko'rsatadi. Uning ideali – ma'nan va jisman go'zal inson. U insonni san'atning asosiy ob'ekti sifatida olib qaraydi, san'atning estetik va axloqiy mezonlari masalasini o'rtaga tashlaydi hamda shular orqali ijodiy jarayonni ochib berishga urinadi.

San'at, Suqrotning fikriga ko'ra, taqlid orqali hayotni in'ikos ettirishdir. Lekin bunday taqlid aslo nusxa ko'chirish emas. Haykaltarosh Pirrasiy bilan suhbatida mutafakkir, san'atkor insonni, tabiatni, voqelikni umumlashtirish orqali qaytadan jonlantiradi degan fikrni bildiradi. Haykal ham, ya'ni, tosh ham, boshqa san'at turlaridagi kabi «qalbning holatini», insonning ruhiy-ma'naviy qiyofasini aks ettirishi kerak. Axloqiy ideallargina in'ikos etilishga loyiq.

Qadimgi yunon nafosatshunosligida **Aflotun**ning (milodgacha 427 – 347) qarashlari diqqatga sazovordir. Uning nafosat borasidagi fikr-mulohazalari asosan «Ion», «Fedr», «Bazm», «Qonunlar», «Davlat» singari asarlarida o'z ifodasini topgan.

Aflotun, Suqrotdan farqli o'laroq, g'oyalar muammosini o'rtaga tashlaydi. Uning nazdida asl borliq ana shu g'oyalardan iborat. Umumiy tushunchalar qancha bo'lsa, g'oyalar ham shuncha. G'oyalarning o'rni narsalarga nisbatan birlamchi: avvalo g'oyalar, undan keyin narsalar. Atrof-tevarakdagi his etiluvchi narsalar hissiyotdan yuksak turuvchi g'oyalarning in'ikosidir. Aflotunning fikriga ko'ra, asl go'zallik his etilguvchi narsalar dunyosida bo'lmaydi, u g'oyalar olamiga taalluqli. «Davlat» asarida faylasuf Suqrot va Glaukon suhbati asnosida g'or haqidagi mashhur masal-afsonani keltirar ekan, bizga ko'rinib turgan, biz yashayotgan dunyo bor-yo'g'i soyalar o'yini, haqiqiy dunyoni ko'rish uchun esa inson ojizlik qiladi, deydi. Inson g'or devoriga kishanband qilingan tutqunga o'xshaydi, u faqat haqiqiy borliqning soyasini kuzata oladi, xolos, haqiqiy borliq esa ana shu soya ortida ko'rinmay qolaveradi. Go'zallik ham haqiqiy borliqqa taalluqli. Unga hissiyotlar yordamida etishish mumkin emas, faqat aql orqaligina uni anglash mumkin: u - o'zgarmas, zamon va makondan tashqarida. Bu o'rinda Aflotunning haqiqiy go'zallik sifatida Xudoni nazarda tutayotganini ilg'ash qiyin emas[164].

Ana shu nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda, Aflotun, san'atkorni o'ziga xos nusxa ko'chiruvchi sifatida talqin etadi; u his etiladigan narsalar olamini aks ettiradi, bu olam esa, o'z navbatida, g'oyalarning nusxalaridir. Demak, san'at asari-nusxadan olingan nusxa, taqlidga taqlid, soyaning soyasi. SHu bois in'ikosning in'ikosi sifatida san'at, birinchidan, bilish quroli bo'la olmaydi, aksincha, u aldamchi ro'yo, asl olamning mohiyatiga etib borish yo'lidagi to'siqdir. Ikkinchidin, u axloqqa nisbatan betaraf turadi, hatto axloqning buzilishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Uchinchidan, idrok etuvchini ma'naviy yuksaklikka emas, balki ruhiy kasallikka olib keladi. Chunki u his etilguvchi narsalar olamini turli vositalar orqali in'ikos ettirar ekan, ko'p hollarda go'zallikka taalluqli bo'lmagan, hunuklik, sharmandalik va behayolikni ham tasvirlaydi. SHu sababli ideal davlatdan san'atning o'rin olishi shart emas. Lekin ma'budlarga alqovlar, mardlik, vatanparvarlik tuyg'ularini uyg'otadigan qo'shiqlar bundan mustasno.

Aflotun ilhomning ikki xilini keltiradi, biri – «tartibga soluvchi», ikkinchisi – «lazzat beruvchi». Birinchisi odamlarning «yaxshilanishiga» xizmat qilsa, ikkinchisi – «yomonlashtiradi». Xo'sh, shuning uchun nima qilish kerak? Faylasuf o'ziga xos nazorat – stenzurani taklif etadi: yoshi ellikdan oshgan odamlar orasidan maxsus «baholovchi» kishilarni belgilash lozim, ular davlat miqyosida badiiy ijodni va shu asosdagi estetik tarbiyani nazorat qilishni doimiy amalga oshirib turadilar. Ideal davlatda kulgililikka doir asarlarni (komediyalarni) sahnalashtirish mumkin, faqat ularda rollarni muhojirlar va qullar o'ynashi kerak bo'ladi. Fojeani esa qat'iy stenzura asosidagina sahnalashtirishga ruxsat beriladi.

Aflotun san'atning asl manbaini bilimda emas, ilhomda deb hisoblaydi. Uning nazdida shoir faqat ilhomlangan va jazavaga tushgan paytida, es-hushi yo'qolgan paytda she'r yozadi; toki es-hushi joyida ekan, u ijod va karomat qobiliyatidan mahrum. U, o'zi anglamagan holda, telbavor, savdoyi bir holatda ijod qiladi. Shu bois haqiqiy ijodkor uchun san'at qonun-qoidalarini bilishning o'zigina etarli emas: san'atkor bo'lib tug'ilish lozim.

Qadimgi yunon estetikasining yuksak cho'qqisi **Arastu** (milodgacha 384 – 322) ijodidir. Uning asosan «Xitoba» («Ritorika»), «Siyosat», ayniqsa «SHe'riyat san'ati» («Poetika») asarlarida nafosatshunoslik muammolari o'rtaga tashlangan.

Arastu go'zallik masalasini o'z tadqiqotlari markaziga qo'yadi. U go'zallikni tartib, mutanosiblik va aniqlikda ko'radi. Go'zallikning nisbatan yuksak ifodasi esa, tirik jonzotlarda, ayniqsa, insonda namoyon bo'ladi. Go'zallikning yana bir belgisi, Arastu fikriga ko'ra, miqdorning cheklanganligi. «Jonsiz narsalar kabi jonli mavjudotlar ham hajman oson ilg'ab olinadigan bo'lishlari kerak, deydi faylasuf – Shunga o'xshash voqea (fabula) ham oson esda qoladigan cho'ziqlikka ega bo'lishi shart»[165]. Go'zallikning eng muhim belgisini esa,

---

[164] Qarang. Platon. G'or haqida masal. M.Qo'shmoqov tarjimasi. // «Sog'lom avlod uchun» jurnali, 1996, 1-son.

[165] Аристотел. Сочинения в 4 т. Т.4. М., Мысл, 1983. С. 654.

Arastu uzviy yaxlitlik deb ataydi. Uning talqiniga ko'ra, yaxlitlik ibtido, markaz va intihodan iborat bo'ladi[166]. Arastugacha go'zallik va ezgulik aynanlashtirilar edi. Arastu esa birinchi bo'lib ularni farqlaydi; ezgulik faqat harakat orqali, go'zallik harakastiz ham voqe bo'ladi, degan fikrni o'rtaga tashlaydi[167].

Arastuning san'at haqidagi mulohazalari ustozi Aflotun qarashlaridan jiddiy farq qiladi. Uning fikriga ko'ra, san'at asari, tabiat yaratgan narsalar singari shakl va materiya (moddiyat) birligidan iborat. San'atkor ongida Olamiy Aqlda mavjud narsalardan boshqa biror narsaning mavjud bo'lishi mumkin emas. Zero tabiat va inson faoliyatining manbai Olamiy Aqldagi g'oyalar yig'indisidir. Ular yo tabiatdagi jarayon, yoki san'at orqali o'zligini namoyon qiladi. San'at tabiat o'z maqsadini amalga oshiradigan shakllardan biri, xolos, lekin shakllarning eng etugi, mukammali. San'at tabiat oxiriga etkaza olmagan narsani oxiriga etkazadi.

San'at tabiatga taqlid qiladi, deganida Arastu, san'at tabiatning faoliyat usulini in'ikos ettirishini nazarda tutadi. San'at ana shu taqlid natijasida, tabiatga o'xshab organizm yaratadi. Mazkur organizmni yaratgan san'atkor faoliyati san'at qonun-qoidalariga bo'ysunadi, u haqiqiy aql-idrokka e'tiqod qilguvchi «ijodiy odatdir». Umuman olib qaraganda, san'atning taqlid ob'ekti odamlarning xatti-harakati, xatti-harakat bo'lganda ham, shunchaki emas, balki ularning axloqiy tabiati aks etadigan qilmishlaridir. Qisqacha qilib aytganda, nafis san'atning vazifasi insoniy tabiatni ifodalash, ya'ni unga taqlid qilish. Lekin bu taqlid, bu in'ikos voqelikdan shunchaki nusxa ko'chirish emas, balki ijodiy yondashuv asosidagi in'ikosdir. SHu munosabat bilan Arastu she'riyat va tarixni solishtirib, shunday deydi; «SHoirning vazifasi haqiqatan bo'lib o'tgan voqea haqida emas, balki ehtimol yoki zaruriyat yuzasidan ro'y berishi mumkin bo'lgan voqea haqida so'zlashdir»[168].

Arastu san'atning bilish tabiati borligini, u bilishning o'ziga xos turi ekanini ta'kidlaydi va bu bilan ustozi Aflotunga raddiya bildiradi. «Birinchi muallim»ning fikriga ko'ra, badiiy asarning mazmuni aniq-ravshan unda aks ettirilgan voqea-hodisa esa bilib olinishi oson bo'lishi kerak, xuddi hayotdagidek idrok qilinishi lozim. Biroq, badiiy idrok etish uchun estetik masofa zarur. Ana shu masofa tufayli badiiy reallik muxtor tarzda, amaliy hayotdagiga aynan bo'lmagan tarzda idrok etiladi. Bunday masofa badiiy til, musiqiy kompozistiya v. h. vositasida yaratiladi. Boshqacha aytganda, badiiyat olamining o'z zamoni, o'z makoni, o'z tili mavjud. Faqat undagi o'ziga xos mantiq haqiqiy hayot mantiqini aks ettirish lozim. SHu bois badiiy asar inson tomonidan qandaydir qalbga yaqin, tanish hodisa sifatida idrok etiladi va masofa tufayli idrok etuvchida mushohada qilish erki saqlanib qoladi. U hayajonlanadi, qalbi ravshan tortadi.

Ma'lumki, Pifagor birinchi bo'lib «forig'lanish» – «katarsis» tushunchasini diniy-e'tiqodiy ma'noda qo'llagan edi. Arastu esa uni san'atga nisbatan ishlatadi. Forig'lanish, Arastu talqiniga ko'ra, san'at o'z oldiga qo'ygan maqsad, xususan, fojea (tragediya)ning maqsadi. U mohiyatan qo'rquv yoki achinish tufayli inson qalbini salbiy hissiyotlardan forig'lantiradi. Natijada inson, bir tomondan, taqdir ko'rgiliklariga xotirjam qaray boshlasa, ikkinchi tomondan, baxstizlik girdobiga tushganlarga o'zida hamdardlik hissini tuyadi. YA'ni, san'at insonni olijanob qilish, yaxshilash, go'zallashtirish xususiyatiga ega Masalan, sizdan oshnangiz tez kunda qaytib beraman, deb pul qarz oldi-yu, lekin bir oy bo'lsa ham pulni qaytargani yo'q. Siz g'azabdasiz. Oshnangizni endi bir boplab sharmanda qilish niyatida yuribsiz. SHu orada teatrga tushdingiz. «Qirol Lir» spektakli ketayotgan ekan. Lirning fojeasi, otasini joni-dilidan sevgan Kordeliyaning fojeasi – bo'g'ib o'ldirilgan go'zal qiz, egilgan, lekin sinmagan haqiqat, adolat sizni larzaga soladi. Sizda pokizalik, halollik, xulqiy go'zallik timsoli bo'lmish bu odamlar qismatiga achinish, ularga hamdardlik hissi uyg'onadi, odatiy turmushning ikir-chikirlari, tashvishlari sizga sahnadagi buyuk insonlar jasorati va fojeasi oldida juda mayda ko'rinadi; qarz olgan oshnangiz haqidagi o'ylaringiz e'tiborsiz bir narsa bo'lib tuyuladi, kechagi xayollaringizdan o'zingiz uyalasiz. Qisqasi, siz san'at asarini idrok etganinigizdan so'ng mayda hislardan forig'lanasiz, ma'naviy jihatdan kechagiga qaraganda bir bosh yuksakka ko'tarilasiz. Arastu aytgan katarsis – forig'lanish mana shu. San'at – forig'lanish vositasida insonni tarbiyalaydi. Forig'lanishning estetik mohiyati ana shunda. Shunday qilib, antik davr estetikasining yuksak nuqtasi sifatida Arastu ijodi hanuzgacha kishilik tafakkurida o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

Qadimgi dunyoning mumtoz nafosatshunosligida qadimgi Rim mutafakkirlarining ham o'z o'rni bor. Chunonchi **Tit Lukrestiy Kar** (milodgacha 99-55 yillar), Kvint Horastiy Flakk (milodgacha 165-8 yillar)qarashlari diqqatga sazovor. Tit Lukrestiy Kar o'zining «Narsalarning tabiati» asarida san'atning kelib chiqishini tabiat bilan bilan bog'laydi. Biroq bu ehtiyoj alohida maqomga ega, u boshqa ehtiyojlardan farq qiladi, uning mohiyati «huzur»ga intilishdan iborat. Lekin u boshqa (ijtimoiy, maishiy) ehtiyojlar bilan yonma-yon turadi, ulardan kam emas:

Kemachilik, ziroatu yo'llar, devorlar,
Kiyimboshu qurollaru huquq va boshqa
Qulayliklar va huzurbaxsh barcha narsalar:
Rangtasviru qo'shiq, she'rlar, go'zal haykallar –
Hammasiga ehtiyoju aql o'rgatdi
Odamzotning olg'a intilishida[1].

---

[166] Аристотел. Сочинения в 4 т. Т.4. М., Мысл, 1983. С. 653.
[167] Qarang: Аристотел. Сочинения в 4 т. Т.1. С. 326.
[168] O'sha manba. S. 655.
[1] Лукреций Кар. О природе вещей. М., ИХЛ, 1983. С. 198.

Lukrestiyning o’z falsafiy qarashlarini she’riy shaklda – doston janrida ifodalashi tafakkurga ham o’ziga xos, estetik yondashuvni anglatib turadi. Uning nazdida ilmiy fikrni san’at ko’rinishida, she’riyat vositasida ifodalash ko’proq samara beradi, kitobxon – ilm tolibi «narsalar tabiatini» badiiy in’ikos yordamida yaxshiroq tushunib oladi:

……. istardim tustam
Bu ilmni senga she’riy harirga o’rab.
Ehtimolki shunda aqlu diqqatingni men
Qaratgayman shoirona misralarimga –
To narsalar tabiatan bilmaguningcha,
Toki undan biror foyda olmaguningcha[1].

YA’ni, san’at insonlarning real ehtiyojlaridan kelib chiqqan. Uning nazdida san’at faqat lazzat, orom bermaydi, balki, foydalilik xususiyatiga ham ega: u narsalarning tabiati haqida bilim beradi.

Qadimgi Rim shoiri H**orastiy** esa nafosatshunoslik borasidagi o’z qarashlarini «Pizonlarga maktub» yoki keyinchalik «SHe’riyat san’ati» deb atalgan asarida bayon etadi. «SHe’riyat san’ati» ham Lukrestiy Kar asari kabi she’riy shaklda yozilgan. U me’yoriy tabiatga ega. SHoir uchun izchillik, yaxlitlik, birlik, qamrovlilik kerakligini ta’kidlaydi. Asarda mazmun hal qiluvchi ahamiyatga molik deb hisoblanadi.

Horastiy shoirdan, avvalo, falsafiy bilim egasi bo’lishni, ikkinchidan, samimiyatni talab qiladi. Horastiy Demokritning iste’dodni, tug’ma qudrat, falak ato etgan ulug’ ne’mat, degan gaplariga san’atkor boshqalardan o’zining ilhom paytidagi holati bilan farqlanadigan, rosmana odamlarga nisbatan «bir oz tentakligi bor» insonlar ekani to’g’risida bildirgan fikrlariga ichki, ya’ni haqiqiy shoirligi, iste’dodi bilan emas, balki tashqi ko’rinishlari bilan amal qiladigan sayoz shoirlarni tanqid ostiga oladi. Ularning quruq maqtanchoqligini, o’zlarini – telbavor tabiatli, shoirona qilib ko’rsatishi iste’doddan ham, ilhomdan ham emasligini aytadi. Maqsad shoir degan nomga erishib, mashhur bo’lish:

Hozir shunday shoirlar ko’p o’stirib soqol,
Tirnoq olmay, hammom ko’rmay sahro kezadi
SHoirligu mashhurlikning yo’li shu deya[2].

Horastiy shoirdan avvalo falsafiy bilim egasi bo’lishni, ikkinchidan, samimiyatni talab qiladi. Suqrotning amaliy falsafa maktabini o’tagan shoirgina ana shu talabga javob bera oladi. Chunki uning dialog shaklidagi yozilgan falsafiy asarlari na faqat to’g’ri fikrlashga, ayni paytda drama san’ati va odamlar qiyofasini haqqoniy tasvirlashga o’rgatadi. Bu boradi u o’z ustidan kulib, kinoya bilan shunday deb yozadi:

o’zim yozmay hech narsani o’rgataman, bas,
Mazmun nima, shoirlikning qudrati nima,
Nimadandir yaxshi-yomon, zafaru xato.
To’g’ri yozay desang agar to’g’ri fikrla,
Buni senga o’rgatadi Suqrot maktabi,
Agar puxta fikrlasang, oqib kelar so’z[169].

Bundan tashqari Horastiy she’riyatning xil va turlariga ta’rif beradi, asosiy diqqatni fojeaga (tragediyaga) qaratadi. Rangtasvirni she’riyat bilan ko’p jihatdan o’xshashligini alohida ta’kidlab o’tadi. Har qanday nomutanosiblikni, soxtalikni qoralaydi, buni go’zallikning buzilishi deb aytaydi.

Qadimgi Rim estetik tafakkurida Plotin alohida maqomga ega. Uning estetik qarashlarida go’zallik muhim o’rin tutadi, u insonni ezgulikka, haqiqatga, Xudoga intilishini ta’minlaydi. Go’zallik – g’oyaning (eydosning) qiyofasi, moddiylik ustidan ma’naviyat g’alabasining mahsuli. Plotinning fikriga ko’ra, jismoniy go’zallik quyi pog’onadagi, qalb go’zalligi o’rtalikdagi, aqliy go’zallik esa oliy darajadagi maqomga ega. Jismoniy go’zallikning mohiyati inson vujudining g’oyada ishtirok etishi bilan bog’liq. Qalb go’zalligi o’zi uchun alohida idrok etish usulini talab qiladi, bu – hayratning mayin zavq, lazzat bilan omuxtalashib ketgan o’ziga xos idrok etish jarayonidan iborat. «Qalb go’zalligi, – deb yozadi Plotin «Go’zallik xususida» degan risolasida, – qiyofa ham, rang ham, umuman jismoniylik ham emas, balki har qanday moddiylikdan ajralib turadigan haqiqiy mohiyatdan iborat eydosdir»[170]. Plotin nazdida eydos (g’oya) aqlga taalluqli ekan, demak, «qalb maqsadi aqliy poklanishdir, u aqlga qarab yuksaladi, aql esa Birinchi ezgulikka intiladi, ikkinchi tomondan, u vujudga, quyiga qarab enadi».[171] Qalb xunukligi uning ana shu quyiga, vujudga qarab enishi tufayli vujudga keladi. SHunday qilib, qalb – aql bilan, aql – Yakayu yagona ezgulik bilan go’zaldir.

Plotin o’zining «Aqliy go’zallik xususida» deb atalgan boshqa bir estetik risolasida yuqoridagi fikr va mulohazalarini yanada chuqurlashtiradi. U aqliy go’zallikni Ilk qiyofa deb ataydi va uning sub’ektiv tomoni hayrat, degan fikrni ilgari suradi. «Aqliy go’zallik – Ilk go’zallik va u yaxlitlikdir va u hamma erda yaxlitdir, – deydi mutafakkir go’zallikning ibtidosi to’g’risida[172]. Bu yaxlitlik hech qachon buzilmaydigan va u Alo aql haqida bizga

---

[1] O’sha manba. S. 126.
[2] Гораций Флакк. Послание к пизонам // Фет А. Вечерные огни. М., Наука, 1971. С. 167.
[169] O'sha manba. S. 167-168.
[170] Лосев А.Ф. История античной эстетики. Поздный эллинизм. М., Искусства, 1980. С. 439.
[171] O’sha manba. S. 440.
[172] O’sha manba. S. 460.

tushuncha beradigan, aqlli arshdan taralgan go'zallikdir. Plotinning estetik ta'limotiga ko'ra, go'zal shakl ezgulik emas, zero borliqning to'laqonligi Ezgulikning shaklida emas, uning o'zida, ya'ni mohiyatida mavjud. SHunga qaramaay shakl quyi darajadagi shaklsiz moddiyatdan go'zalligi bilan yuqori turadi. SHakl qalbda moddiyatdan qutiladi, aqlda esa u yana-da ozod, yana-da erkin bo'ladi.

San'at va uning estetik mohiyati to'g'risida ham Plotin o'ziga xos fikrlar bildiradi. U san'atni ikki umumiy guruhga bo'ladi. Birinchisi – taqlidiy san'at (rangtasvir, haykaltaroshlik, raqs, musiqa v.b.). Ikkinchi guruh – amaliy san'at (me'morlik, ziroat san'ati, tabobat san'ati, siyosat san'ati v.b.). Birinchi guruhdagi sof san'at turlari idrok etuvchini Birinchi qiyofadan chetga, ikkinchi guruhdagi ishlab chiqarish san'atlari esa avvalgi guruhga nisbatan aksincha insonni Birinchi qiyofaga qarab tortadi. Chunki sof san'atda yaratish tamoyillari mutanosiblik va ritmgina U tomondan, uning mazmuni esa Bu tomondan olinadi. Ishlab chiqarish san'atlari esa aksincha: narsalar dunyosining sof san'at kabi taqlidiy, jo'n in'ikosini emas, balki Ilk YAratganga yaqin bo'lgan faol yaratuvchilik tamoyillariga asoslangani bilan diqqatga sazovor. Sof san'at ichida faqat musiqagina butunisicha mutanosiblik va ritmdan iborat bo'lgani uchun mazmunan U tomonga taalluqlidir. SHu bois buyuk faylasuf musiqaning tarbiyaviy ahamiyati hamma san'at turlaridan kuchli ekanini ta'kidlab, uni axloqiylik bilan bog'laydi: u insonni YAkkayu yagonani tushunish va sevishga o'rgatadi. Plotin ko'pchilik antik davr mutafakkirlari kabi fikrlaydi: sof san'at turlari, garchand bezarar taqlidiylikka asoslangan bo'lsa-da, ularni faol deb bo'lmaydi. Xullas, san'at, Plotinning fikricha, Aqliy olamga etishishdagi birinchi pog'onadir.

SHunday qilib, Plotinning Yangiaflotunchilik estetikasi go'zallik hamda san'atni Mutlaqlikka bog'lab tahlil qilishi bilan ajralib turadi va Qadimgi Rim estetikasida eng diqqatga sazovor ma'naviy hodisa sifatida katta ahamiyatga ega.

Biroq qadimgi Rim nafosatshunoslari, muayyan yutuqlariga qaramay, Arastu darajasidan yuqori ko'tarila bilmadilar, ularda qadimgi yunon mutafakkirlariga taqlidiy yondashuv katta o'rin egallaydi.

Umuman olganda, Qadimgi dunyo nafosatshunosligi, xususan, uning mumtoz davri keyingi davrlardagi estetik tafakkur taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi va bu ta'sirni hozir ham ma'lum ma'noda his qilish mumkin.

Umumjahoniy dinlar va san'at

Ma'lumki, har bir diniy e'tiqod da'vastiz, tarqibot-tashviqostiz keng omma orasiga kirib borolmaydi. Faqat muqaddas kitoblar va ibodatxonalar orqaligina ko'zlangan maqsadga erishish qiyin. SHu bois da'vatning yanada kengroq, boshqa ma'naviy hodisalar ko'magida olib borilishi tabiiy zarurat sifatida yuzaga chiqdi. Natijada asosiy vositalardan biri sifatida din san'atni tanladi. Zero san'at barcha ifoda shakllari ichida universalligi bilan ajralib turadi: u bir varakayiga rang-baranglik, mukammallik va jonlilik xususiyatlariga ega. SHunday qilib, umumjahoniy dinlar san'at bilan hamkorlik qila boshladi. Ana shunday hamkorlik mahsulida tug'ilgan ijodni biz diniy-badiiy asar deymiz.

Diniy-badiiy asarda ramz alohida o'ringa ega. Ramzning o'ziga xos xususiyati shundaki, u o'z mazmunini emas, butunlay boshqa mazmunni anglatadigan shakl, o'z mohiyatini emas, butunlay boshqa mohiyatni ifodalaydigan hodisa, qisqasi, butunlay boshqa botinni ifodalovchi zohirdir. SHu bois ham u sirli, yashirin: uni muayyan bilimga ega bo'lmay turib anglash mumkin emas. Chunonchi, nur, olov Allohning mohiyati, doimiy yorug'lik sochuvchi va shu bilan mavjudotga jon baxsh etuvchi abadiy hamda mutlaq ziyoning ramzi. Nasroniylar havoriylari boshidagi nurli gardish (nimba) esa ularning avliyoligini, Xudoga yaqinligini anglatadi. YOki birinchi ma'ruzada aytib o'tganimiz musulmon me'morchiligidagi gumbaz – Xudo jamolining, go'zalligining, minora – Xudo qudratining, peshtoqlardagi oyatlar – Xudo sifatining ramzlari ekanini eslaylik. Buddhachilikda g'ildirak yoki olovli doira Buddha ta'limotining ba'zan esa Buddhaning o'zini anglatadi.

Ideal muammosi ham diniy-badiiy janrda o'ziga xos tarzda talqin etiladi. Umuman olganda, idealni ma'lum ma'noda, antiqa holat – paradoks deyish mumkin. Unda bor narsa yo'q narsaning mezoni bilan o'lchanadi, ya'ni mavjud narsaga yoki hodisaga o'sha paytda mavjud bo'lmagan narsa yoki voqelik talablari bilan yondashiladi. Masalan, axloqiy idealni olaylik. U, shubhasiz, insonni kelajakda erishilishi lozim bo'lgan axloqiy yuksaklikka, ya'ni, olg'a chorlaydi. Lekin uning uchun o'tmishdagi, ya'ni ortdagi axloqiy qiyofa ideal bo'lib xizmat qiladi. Buning ustiga diniy-badiiy ideal hayotiy idealdan keskin farq qiladi, u hech qachon o'zgarmaydi: hech qachon biz uchun – Muhammad alayhissalomdan, nasroniylar uchun – hazrati Isodan, yahudiylar uchun – hazrati Musodan o'zga, Yangi payg'ambar paydo bo'lmaydi. Hayotiy ideal esa o'z hayotimiz davomida shohid bo'lganimizdek, vaqt, mafkura, davlat tuzumi, milliy ozodlikni yo'qotish yoki unga erishish va shu singari omillar tufayli o'zgarib turadi.

Barcha diniy-badiiy asarlar muayyan, qat'iy qonunlar vositasida yaratiladi. Qonunlar yillar yoki asrlar mobaynida ishlab chiqilgan mustahkam, ya'ni qonunlashtirilgan tizimga asoslanadi. So'z san'atidagi diniy-badiiy qonunni avliyolar hayotiga bag'ishlangan qissalar, dostonlarda ko'rish mumkin. Ularda bo'lajak avliyo yoshligida boshqa bolalardan ajralib turadi, o'yin-kulgilarga qo'shilavermaydi, kattarganida Allohga suyukli banda bo'lib, mo''jizalar ko'rsatadi va umrining oxirida noqis, kaltabin ulamolar yoki hukmdorlar tomonidan qatl etiladi. Masalan, «SHoh Mashrab qissasi»ni olaylik: avliyo-go'dak ona qornida gapirib yuboradi, maktabga borganida, hammani hayratda qoldirib, ilohiy she'r o'qib, darsxonadan chiqib ketadi, keyinchalik olisdagi piri murshidining o'limi unga ayon bo'ladi, huzuriga mo''jizaviy tarzda etib keladi hamda uning imonini shayton changalida qutqarib qoladi. Umri esa- qatl qilinish bilan nihoya topadi. Nasroniylarning «Avliyolar hayoti» («Jite svyatых») turkumidagi qissalari ham shunday qonun asosida yaratilgan.

Diniy-badiiy qonun me'morlikda ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, yirik masjid-jomening tashqi va ichki ko'rinishiga e'tibor qilaylik: kiraverishdagi peshtoqda Kalomullodan oyatlar, bir yonda mezna – minora, tomda gumbaz, hovlida tahorat uchun hovuz, ichkarida diniy va dunyoviy rahbarlarga atalgan maxsus joy – maqsura, fatvolar o'qiladigan, va'z aytiladigan minbar, qibla tomonda mehrob va hokazo. Bularsiz jome-masjidni

tasavvur qilish qiyin. YOki nasroniylar cherkovida mehrob (altar), devor-shiftlarda Bibi Maryam, Iso alayhissalomning tasvirlari, gumbazlar, qo'ng'iroqxona singari unsurlar albatta bo'lishi kerak.

Ma'lumki, diniy marosimlarda fotiha o'qilganda, ayniqsa ibodat paytida inson qalbida forig'lanish, tozarish ro'y beradi. Inson kundalik tashvishlar, g'azab, gina singari maydakashliklardan forig' bo'ladi, ularning o'rnini ilohiy orzular, ezgu – amallar qilish fikri egallaydi. Diniy-badiiy asarni estetik idrok etish jarayonida ham xuddi shunday holat ro'y beradi. Lekin bu forig'lanish ibodat jarayonidagiga nisbatan ancha uzoq davom qiladi; diniy-badiiy asarning ta'siri hatto bir necha kunga cho'zilishi mumkin. Diniy forig'lanishni qalbda tutib turish uchun esa ibodat har kuni takrorlanadi. Buning sababi shundaki, ibodat faqat ruhiy holatning o'zi, san'at esa, ya'ni badiiy yoki diniy-badiiy asar ruhiy holat bilan moddiylikning omuxtaligi ruh va vujud birligidir. SHu bois u insonga yaqinroq, zero inson ruh va vujud birligidan tashkil topgan.

Barcha umumjahoniy dinlar, yuqorida aytganimizdek, san'at bilan aloqador. SHu sababli ba'zi bir aqidaparastlarning islom dini san'at bilan sig'ishmaydi, degan gaplari butunlay noto'g'ri. Zero, Qur'oni karimning o'zi har jihatdan mutlaq ilohiy san'atdir. Undagi ohang, qofiyalar, uslub, qissalar hammasi mo'minlar qalbida Allohning buyuk, qudratli va go'zal zot ekaniga ishonch tuyg'usini, Uning go'zalligidan hayratlanish hissini uyg'otadi. Chunonchi, «Yusuf» surasidagi YUsuf alayhissalom qissasi badiiy asar sifatida ham kishini tong qoldiradi. Suraning 3-oyatida Alloh shunday marhamat qiladi: «(Ey Muhammad) Biz Sizga ushbu Qur'on surasini vahiy qilish bilan qissalarning eng go'zalini so'ylab berurmiz». Taniqli islomshunos, Qur'onga sovuq tadqiqotchi nigohi bilan emas, balki ulkan hayajon va ehtirom ila murojaat qilib, uni bosh harflar bilan yoziladigan «Kitob» deb atagan Mixail Borisovich Piotrovskiy YUsuf qissasi haqida so'z yuritar ekan, uni bir umumiy ohangga ega, deyarli bir qofiyadagi yaxlit badiiy asar deb ta'riflaydi; uning, boshqa qur'oniy hikoyatlardan farqli o'laroq, tinglovchilarga shakliy-badiiy jihatdan ham lazzat baxsh etishga mo'ljallanganini ta'kidlaydi. Darhaqiqat, Qur'oni karimdagi Yusuf qissasi Allohning o'zi tomonidan so'ylangan ilk islomiy diniy-badiiy asardir, islomiy san'atning ilk va go'zal namunasidir. Demak, san'atning, xususan, so'z san'atining ibtidosi Allohdandir.

Shu o'rinda yana bir narsani alohida ta'kidlash joiz. Ba'zi Yevropalik Sharqshunoslar va san'atshunoslar islomiy san'atga jiddiy e'tibor qilmasdan, mensimasdan munosabatda bo'ladilar. Buning asosiy sabablaridan birini, bizningcha, islomiy san'atning mohiyatini, o'ziga xos uslubiy sirlarini tushunib etmaslikdan, ikkinchisini Yevropaparastlikdan va uchinchisini islomni nasroniylikka nisbatan quyi darajadagi din deb qarashdan izlamoq lozim. Ularning fikriga ko'ra, go'yoki islomiy diniy-badiiy asarlar chuqur falsafiy mohiyatdan yiroq, olam haqida bir butun, yaxlit tasavvur bera olmaydigan nisbatan mavhum san'at. J. Dyuamel, X. Gibb, L. Massinon, A. Myuller, N. Xanikov singari Yevropalik olimlar ana shunday fikr bildiradilar. Xo'sh aslida ham shundaymi?

Bu savolga javob berish uchun mavlaviya tariqatining zikriga murojaat qilib ko'raylik. Ma'lumki, bu sulukning zikri o'zining nihoyatda estetiklashtirilgani bilan ajralib turadi: unda ham she'r, ham musiqa, ham qo'shiq, ham teatr san'ati unsurlari mujassam. Alloma E.E. Bertels mavlaviya tariqati darvishlari zikr tushadigan asrimiz boshlaridagi takya teatrga o'xshash sahnali bino ekanini, unga kirayotganda besh piastrga chipta olish, soyabon, qalin ust-boshlarini topshirish kerakligini aytadi. Na faqat bino va unga kirish usuli, balki zikrning o'zi ham teatrni eslatadi. Tomoshabinlar joylashib bo'lgan zalga to'qqiz, o'n bir yoki o'n uch darvish va ularning ketidan shayx kiradi. Darvishlar bir-biridan ma'lum masofada tashlab qo'yilgan po'staklar ustiga o'tiradilar, uzoq muddat jim qoladilar. Jimlikni shayx buzadi: dastlab fotiha o'qiladi, so'ng nay ohista qayg'uli ohangda yangrab, bemavrid hayotdan ko'z yumgan SHamsiddini Tabriziy haqida nola qiladi. Undan keyin hofiz darvishlik hayotini madh etuvchi g'azalni nayga jo'r tarzda kuylaydi, qo'shiq ohanglari ostida darvishlar o'rinlaridan turib, mehrobga yaqinlashadilar va Jaloliddin Rumiy nomi bitilgan lavh-taxtaga ta'zim bajo keltirib, zal bo'ylab aylanma harakat boshlaydilar. Musiqa kuchayadi. Tanbur jo'r bo'ladi. Darvishlar moviy yopinchilarini echib, konus shaklidagi oq ko'ylaklarida qoladilar.

Albatta bu zikrni oddiy e'tiqodiy manzara, islomiy ibodatning bir turi sifatida, mensimasdan kuzatgan odam unda yaxlitlik ko'rmaydi. Lekin kimda-kim unga muayyan bilim va oqilona nigoh bilan qarasa, u albatta yaxlit olamni ilg'ab oladi: o'rtadagi shayx – Allohga bo'lgan muhabbat ramzi, atrofdagi darvishlar esa – o'sha muhabbat o'qi tegrasida aylanayotgan sayyoralar. Inson ham, tashqi dunyo ham – hammasi bir butun olamdan iborat, hammasini Xudoga bo'lgan muhabbat harakatga keltiradi. Bu zikr teatr san'atining ajoyib namunasi sifatida ham e'tiqodiy-falsafiy, ham badiiy-estetik yaxlitlikka, teranlikka ega.

SHunday qilib, umumjahoniy dinlar vujudga kelgach, san'at bilan hamkorlik qila boshladilar, san'atdan vosita sifatida foydalanish barobarida uning ravnaqiga o'ziga xos hissa qo'shdilar, estetika taraqqiyotiga ham katta ta'sir ko'rsatdilar.

O'rta asrlar Budda Sharqi estetikasi

Xitoy. O'rta asrlar Budda Sharqi estetikasida Xitoy va YAponiya mutafakkirlarining qarashlari diqqati sazovor. Xitoyda, bu davrga kelib, badiiyatning darajalarini belgilaydigan bir necha estetika tasniflar ishlab chiqildi. Ulardan biri – to'rt bosqichli tasnif hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Bu to'rt bosqich komillikning to'rt darajasini belgilaydi, u mohiyatan inson takomilining to'rt davriga to'g'ri keladi: 1) texnika borasidagi mahorat; 2) bilim; 3) donishmandlik; 4) ma'naviy uyg'onish.

Eng quyi daraja, birinchisi, nen-pin atalib, unda san'atkor uslub qoidalari va uquvga ega bo'lib, hunarmand sifatida ish ko'radi. Bu darajaning eng yuksak yutug'i go'zallikning yoqimli shakliga erishish. Ikkinchi daraja – myao-pin, unda san'atkor mahorat egasi sifatida namoyon bo'ladi; o'z san'ati haqidagi bilimlarni egallab, endilikda qobiliyatini individual ifodaning kuchi bilan birlashtirishga o'tadi.

Uchinchi daraja – shen-pen, unda san'atkor Osmon va er oralig'idagi barcha mavjudlikning tabiatini anglab etadi; uning asari buyuk iste'dod tomonidan yaratilgan ilohiy bunyodkorlik. To'rtinchisi – i-pen, unda san'atkor daho sifatida o'zini ko'rsatadi. Uning mahoratini ta'riflash qiyin, asarlari tabiatning o'zi qadar tabiiy, zo'rakilikdan yiroq; u hech kim anglamagan narsani anglaydi, hech kim ko'rmagan narsani ko'radi. Takomilning bu bosqichi karomat va avliyolikka qiyoslanadi. Mazkur tasnif, garchand, rassomlik san'atini nazarda tutgan bo'lsada, uni hech bir ikkilanishsiz barcha san'at turlari uchun qo'llash mumkin.

Xitoyda VI asrdan boshlab buddhachilikning chan mazhabi keng yoyildi. CHan (yaponchasi dzen) o'rta asrlar Xitoy san'atiga katta ta'sir ko'rsatdi. CHan buddhachilik san'atining dastlabki namoyandalaridan biri shoir, rassom va nafosatshunos Van Veydir (699/701–759/761). Van Vey va uning davrasi ijod jarayonini ziyolanishga, nurlanishga o'xshatganlar va san'atning vazifasini insonni poklash, forig'lash, qutqarishdan iborat deb bilganlar.

Chan aql bilan mulohaza yuritishdan ko'ra – bir lahzalik nogahoniy nurafshonlikni, rastional o'rganishdan ko'ra-mushohada va meditastiyani ma'qul ko'radi. Chan buddhachilik nuqtayi nazaridan fikrni so'z bilan ifodalash mumkin emas, butun haqiqat esa ana shu haqiqat lahzasining o'zida mujassamlashgan. So'zdan ko'ra sukunat, chizmadan ko'ra oppoq bo'shliq, rang-baranglikdan ko'ra – qora tush muhim. «Rassom uchun oddiy tush hammasidan afzal, u tabiatning tabiatini ochib beradi,» – deb boshlanadi[173]. Van Veyning «Rangtasvir sirlari» risolasi.

Chan shoiri badiiy asarni estetik idrok etuvchi kishini hamkorlikka chaqiradi. SHe'riy tasvirlar ustida to'xtalib, u o'z qalbining qa'riga qarash kerak va unda «suv», «qamish», «tog'lar», «kimsasiz kechuv», «qush», «tund shaharcha» singari xasis so'z-harflarning aks-sadosini tinglashi lozim. Idrok etuvchi oldidagi vazifa oson emas: uning o'zi bir vaqt ichida ham shoir, ham rassom bo'lib, ichki nigoh – fahm bilan so'zlarni jonli, dinamik voqelikka aylantirish shart. Suv shildirab oqishi, qamish silkinishi, shaharcha tomlari uzra tutun burqsishi kerak. Ya'ni, shoir boshlagan ishni idrok etuvchi so'ngiga etkazishi lozim. Ana o'shanda jajjigina she'rning ulkan ma'nosi yuz ochadi, u etarli darajada estetik idrok etiladi.

O'rta asrlarda Xitoyda teatr estetikasi alohida mavqega ega bo'lgan. Bu paytga kelib, teatrda professional yondashuv to'liq g'alaba qozongan edi. Mashhur dramaturg, nafosatshunos va adabiy tanqidchi **Tan Syanszu** (1550 – 1616) o'zining adabiy ijod tamoyilini shunday ifodalaydi: «Har bir adabiy asarda to'rt unsur muhim (g'oya, mazmun), styuy (qiziqtirish, o'ziga tortish), shen' (ilohiylik, ilhom); se (rang, go'zallik). Mana shu to'rt hodisa tayyor bo'lganda latif so'zlar va chiroyli tovushlar topish imkoni yuzaga keladi. U teatrning ahamiyatini, estetik tarbiyadagi muhim rolini alohida ta'kidlaydi. Uning majoziy fikrlashi bo'yicha teatrda ko'r – yayragisi, kar – eshitgisi, gung – hayratdan xo'rsingisi, cho'loq o'rnidan turgisi keladi. Kimki hissiyotdan mahrum bo'lsa, hislari uyg'onadi, ovozsiz odam ovozga ega bo'ladi, sukut hayqiriqqa aylanadi, hayqiriq sukut bo'lib evriladi, pandavaqi – nazokat sohibi, to'pos – ma'naviyat egasi bo'lib qayta tiriladi. Teatr, shuningdek, hoqonlar bilan amaldorlar, ota bilan farzandlar orasida samimiy mehribonlikka yo'g'rilgan munosabat uyg'otadi.

Teatr san'atining forig'lantirish hususiyati haqida yana bir teatr nazariyotchisi **Lyu Yuy** (1611 – 1679) ajoyib fikrlar bildiradi. U o'zining «Bekorchining tasodifiy qaydlari» risolasida kulgililik mezoniy tushunchasiga o'ziga xos yondoshadi. Uning fikriga ko'ra, kulgi kishidagi har qanday niqobni ochib tashlaydi, uni ich-ichidan qiynayotgan narsadan, salbiy ehtiroslar va ishga solinmagan quvvatning ortiqchaligidan ozod qiladi. Inson kulishi barobarida o'zidagi kechmish bilan xo'shlashadi, Yangilanadi va qalban yosharadi. SHu bois kulgi – inson qalbi va jismining tabibi, fojeadagi forig'lanishga qaraganda yoqimli hamda engil forig'lanish, inson zoti hayotini davom ettirishning qulay vositasi hisoblanadi.

Li Yuy dramadagi yumorning asosiy estetik mezonini ajratib ko'rsatadi. Uning ta'kidlashicha, yumorning asosiy qimmati hazilning tabiiyligi, emin-erkinligi bilan belgilanadi; aynan shu щususiyatlar hazilni latofat va nazokat (myao) tushunchalari bilan bir qatorga olib chiqadi. Hazilda andak dag'allik (su) nafislik (ya) bilan, havoiylik (szi) zalvarlilik bilan omuxtalashib ketmog'i lozim. Satirani esa nafosatshunos har qanday qilichdan o'tkir qurol deb ta'riflaydi. U bilan insonni qilichdan ko'ra tezroq halok etish mumkin; u sahnada ulkan ta'sir maydoniga ega: odamlarni davolaydi, ularni falokatlardan xalos etadi, qisqasi tarbiyalaydi. Li Yuy, shunday qilib, qadimgi YUnoniston nafosatshunoslaridan farqli o'laroq, fojeaviylik emas, balki kulgililik orqali forig'lanish hodisasini yuksak estetik xossa deb biladi va uni birinchi o'ringa olib chiqadi[174].

Yaponiya. Qadimgi Xitoy estetikasi asosida yuzaga kelgan o'rta asrlar yapon estetikasi o'ziga xos milliy yo'nalishdan ketdi. Unda go'zallik ideali bir necha majoz-tushunchalarda o'z aksini topgan. Bular: «mono-no avare» – narsalarning qayg'uli maftunkorligi, «yugen» – yashirin go'zallik, «sabi» – tanholik qayg'usining go'zalligi.

Mono-no avare dastlab qalb qa'ridan otilib chiqqan ixtiyorsiz hayrat tarzida vujudga kelgan.: «Ax, qanday go'zal gul! Xare!» degan jumladagi hayratni anglatuvchi ikki so'z «Ax» va «Xare» keyinchalik «avare»ga aylangan. «Avare» – hayrat vositasida «mono»ning mohiyatiga etib borilgan. «Mono» esa — narsa yoki hodisa, lekin qiyofasiz narsaning mohiyati, «Mono-no avare» narsalarning mangu ibtidosiga qalb intilishi, ularning sirg'aluvchan ma'nosini ilg'ab olish demak. U tabiat va insonning o'zaro bog'liqligiga, o'zaro shartlanishiga, barcha mavjudlikning taqdir

[173] Ван Вей. Стихотворения. М., ИХЛ, 1979. С.22.
[174] O'sha manba. 231-233 b.

qonuniga ichki bo'ysunishiga nogahoniy erishuvidan iborat. o'rta asrlar yapon she'riyatida tashqaridan qaraganda bir-biridan juda uzoq bo'lgan narsalar orasida bog'liqlik topishga, olamning yashirin birligi majmuini ko'ra bilishga intilish ana shundan kelib chiqadi.

Go'zallikni anglab etishda eng muhim o'rinni «yugen» tushunchasi egallaydi. YUgen, bu – yashirin, sirli, qora, qa'rdagi go'zallik. U asli xitoycha so'z bo'lib, ikki qismdan iborat: «yu» – «qora, qa'r», «gen» – qorong'ulik, zulmat ma'nolarini anglatadi. U zulmatni yorib chiquvchi ziyo: zulmatni inkor etmaydi, lekin zulmatni ichdan yorib chiqar ekan faqat o'sha zulmatning o'zida mavjud. qisqasi, yugen – qorong'ulik qamrab ololmaydigan qorong'udagi nur.

Yugen estetik tushuncha sifatida Xeyyan davri (IX-XII asrlar) she'riyat nazariyasida qo'llanilgan. o'sha davr shoirlaridan biri Akira Komonaga yugentay-yugen ruhidagi uslubni o'zini kashf etolmaydigan hissiyotning aks-sadosi, dunyoga kelmagan kayfiyatning sharpasi, deb ta'riflaydi. Xullas, Xeyyan davri shoirlarida yugen tushunchasi teran ichki tuyg'u va g'ussa bilan yo'g'rilgan degan ma'noni anglatadi.

O'rta asrlar yapon teatr san'atida Noo teatri alohida o'rin tutadi. Noo spektakllari «alo tuyg'uni» uyg'otuvchi «alo vazifani» bajarishlari kerak edi. Unda hamdardlik, dahshat, shavq – hammasi go'zallikdan lazzatlanishni alohida his etish barobarida hal etiladi. Bu go'zallik o'zida ko'rinishdan xunuklikni, dahshatni mujassam etishi mumkin; ular Noo teatrida o'zlarining aksi bo'lmish go'zallikka aylanadilar. Buning uchun har bir sahnadagi badiiy qiyofa go'zal bo'la olishning yashirin imkonini topa bilish lozim. Bunday mo'jiza faqat yuksak san'atga xos.

Noo teatrining eng muhim vazifasi – sirli olamiy qudrat bo'lmish yugen muhitiga ijodiy tasavvur yordamida, mistik tajribalar va amaliy mahorat orqali kirib borish hamda yugenga namoyon bo'lish va tinchlanish xususiyatini baxsh etish; undan keyin yugen ishtirok qilgan mukammal sahnaviy ijod vositasida moddiylashgan go'zallikni kosmosga – falakka qaytarish. Buni boshqacharoq qilib tushuntirsak, quyidagicha bo'ladi: 1) falakdagi go'zallikni ilg'ab olish va unga kirib borish; 2) bu oxirigacha ilg'ab va ifodalab bo'lmaydigan mistik go'zallikni teatr san'ati qiyofalariga tadbiq etish; 3) uni sahna asaridan nurlangan go'zallik sifatida falakka qaytarish. (Spektakl ibodat kabi, ma'budlar ko'nglini yumshatadi.)

SHu o'rinda yapon buddhachiligidagi dzen mazhabi haqida to'xtalib o'tish joiz. Dzen (chan) XII asr oxirlarida Xitoydan kirib keldi va keng tarqaldi. Dzen ta'limotiga ko'ra, har qanday san'at, agar u hodisalarning, moddiy dunyoning ma'naviy mohiyatiga erishish uchun insonga ko'maklashsa, u mangu haqiqat tomon o'tadigan ko'prikdir. Dzen estetikasi badiiy ijodda shaxs va obekt orasidagi aloqani ushlab turish uchungina etarli bo'lgan eng kam so'z, eng kam ifoda vositalariga asoslanadi.

Dzen-buddachilik ta'siri ostida butunlay Yangi san'at turi – tosh bog'lar san'ati vujudga keldi. Tosh bog'larning asosiy g'oyasi bog'-mikrokosm kompozistiyasi orqali cheksiz olam hissini berish va insonning o'zligiga sho'ng'ib ketishi uchun sharoit yaratishdir. Har bir tosh bog' ikki asosiy unsurga ega, ular – suv va tosh. Suv tabiiy yoki qumdan iborat ramziy suv bo'lishi mumkin. Tosh doim tabiiy tarzda qo'llaniladi. Toshlarni joylashtirish san'ati – sutensi bog'dagi san'atkor ishining asosiysi hisoblanadi. Tosh shakliga, rangiga, salmog'iga qarab tanlanadi. San'atkorning vazifasi har bir toshning plastik imkoniyatini ilg'ab, ularni imkon boricha ifodaliroq qilib guruhlashtirishdan iborat. YApon tosh bog'lar san'atining o'ziga xosligi shundaki, siz qaysi tomondan qaramang, butun bog'ni nigohan qamrab ololmaysiz, qaysidir qismidagi go'zallik nazardan qolib ketadi. YA'ni o'n beshta toshdan doimo o'n beshinchisini ko'rolmaysiz. Aynan ana shu «o'n beshinchi tosh» – sirli: ehtimol, u koinotdir, ehtimol o'z qalbingizdir... Bunday san'atning kamyob namunalarini Kiotodagi Ryoandzi va Daysenin tosh bog'larida ko'rish mumkin.

Yaponlar – davlat ramzi sifatida xrizantema gulini tanlagan, o'z qalbi tabiatini gullagan olcha timsolida ko'radigan xalq. YAponiya alohida gulchilik, guldastalar tizimi san'ati – ikebana bilan ham mashhur. Ikebana – sirlarga to'la yurak va qo'llarning nozik harakatlari, go'zallik san'ati. Bunda muhimi – gullarning ko'pligi, o'simliklarning turli-tumanligi emas, balki har bir gulning o'ziga xosligida, ko'rinishining takrorlanmasligi, rangi, shaklidadir. Har bir gulda, yaproqda, ko'katda ma'no va ifoda, tabiatdagi va odamlardagi go'zallikni ramziy tarzda anglatuvchi o'z tili bo'lishi kerak. Xuddi sukunat kabi ohista, mayin musiqa ohangidek insonni o'rab turgan gullardagi ranglar majmui asab torlari tarangligini yumshatishi lozim.

O'rta asrlarda va hozir ham Yaponiyada choy taomili paytida choyxona tokchasida hali to'la ochilib ulgurmagan birgina gul turadi. Gul fasllarga monand tanlanadi. Gulga monand guldonlar qo'llaniladi. Yaponiyada chinni guldonlar orasida XV-XVI asrlarga oid iga deb atalganlari alohida qimmatli hisoblanadi. Igaga suv sepsa u xuddi harakatga kelgandek, jonlangandek bo'ladi. Ikebana san'atining mumtoz ustasi Ikenobo Sen-O (XV asr) gul go'zalligini tushunishda Yangilik kiritdi: siniq guldondagi gul ham, qurib qolgan butoqdagi gul ham qalbda nurafshonlik uyg'otadi. Qadimgilar gullarni joylashtirish orqali oliy donishmandlikka erishganlar.

Umuman olib qaraganda, o'rta asrlar Budda Sharqi estetikasi o'zining go'zallikka bo'lgan Sharqona, nazokatli munosabati bilan, injaligi bilan katta ahamiyat kasb etadi. Hozir ham u o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

O'rta asrlar Musulmon Sharqi estetikasi

o'rta asrlar musulmon Sharqi mutafakkirlari qadimgi dunyo mumtoz estetikasi yo'nalishlari va g'oyalarini davom ettirdilar. Ular Qadimgi yunon faylasuflari va olimlari asarlarini sharhladilar, tanqidiy o'rgandilar, tarjima qildilar. Arastuni esa «Birinchi muallim» deb atadilar. Shu o'rinda tabiiy savol tug'iladi: nima uchun ajdodlarimiz o'zimizning Sharqqa, deylik, qadimgi hayotga emas, Yevropaga – yunonlarga murojaat qildilar?

Buning asosiy sababi shundaki, musulmonchilik talablariga Qadimgi yunon falsafasi ma'lum darajada javob berar edi. Ma'lumki, musulmonchilikning asosi tavhidda – yakkaxudolikda. Alloh yagona, uning sherigi yo'q va bo'lishi mumkin emas. Qadimgi yunon mutafakkirlari esa ana shu yo'ldan bordilar. Birinchi bo'lib bu masalani

Suqrot o'rtaga tashladi. U o'limga mahkum etilganida, unga yunonlar ma'budlarini hurmat qilmaganligi, yoshlarni yo'ldan ozdirganligi (aslida tavhid yo'liga boshlaganligi) ayb qilib qo'yildi. Suqrotning o'limi oldidagi so'nggi so'zlari ham shuni tasdiqlab turadi, sikuta ichgach: «Men Uning (ularning emas – A. SH.) yoniga ketyapman», deydi u. SHuningdek, Aflotunning g'oyalar, olamiy ruh, emanastiya haqidagi fikrlari ham to'g'ridan-to'g'ri yakkaxudolik masalasiga borib taqaladi. Lekin, Suqrot va Aflotun tavhidni falsafiy-nazariy jihatdan alohida isbotlashni o'z oldilariga vazifa qilib qo'ymadilar, bunga urinmadilar. Bu ishni Arastu uddaladi. U o'zining mashhur «Metafizika» asarida Xudoning yakkaligi, jismsiz, hech narsa tomonidan harakatga kelmaydigan, aksincha, birinchi harakatga keltiruvchi kuch ekanini nazariy ta'riflab berdi. Uni «Oliy shakl» deb atadi. Arastu talqinida Xudo olam va barcha olamiy jarayonlarning maqsadi hisoblanadi, u Oliy tafakkur, tafakkur haqidagi Tafakkurdir. Aynan mana shuning uchun ham Arastu hakim bizning Sharqda «Birinchi muallim» nomini oldi, uning izdoshlari o'zlarini ustozlariga taqlidan mashshoiyyunlar (perpatetchilar) deb atadilar[175].

O'rta asrlar musulmon Sharqida Arastudan so'ng eng ulug' ustoz sifatida **Abu Nasr al Forobiy** (873 – 950) mashhur bo'ldi. U Arastudan keyingi – «Ikkinchi muallim» degan nomni oldi.

Forobiyning qarashlarida ezgulik bilan go'zallik ma'lum ma'noda aynanlashtiriladi, biri ikkinchisida yashovchi hodisalar sifatida talqin etiladi. SHuning uchun uning asarlarida «go'zal xatti-harakatlar», «go'zal qilmishlar» degan iboralarni ko'p uchratish mumkin. Go'zallikka etishishni u falsafa tufayli ro'y beradi, deb hisoblaydi. Uning fikriga ko'ra, har bir narsa-hodisaning go'zalligi uning o'z borlig'ini to'la namoyon etishi va mukammallikka erishuvi bilan bog'liq. Alloma faylasuf insonda ikki xil go'zallikni farqlaydi – ichki va tashqi. U ichki go'zallikni yuqori qo'yadi va bu boyning boyligini bezab, kambag'alning kambag'alligini yashiradigan go'zallikni «adab» deb ataydi. Bunday go'zallik yuksak axloqiy xatti-harakatlar va insoniy komillikda o'zini namoyon etadi. Tashqi go'zallikka kelganda, faylasuf tabiiy go'zallikni har qanday bezanish, yasanishlardan yuqori qo'yadi.

Ikkinchi muallim san'atning taqlidiylik xususiyatga egaligini ta'kidlaydi. Ana shu taqlidiylik idrok etuvchida hissiyot va tasavvur uyg'otadi. San'atkor o'z xayolot kuchi, ijodiy qudrati bilan umumiy g'oyalarni yakka qiyofalarda in'ikos ettiradi. U nutqning turlarini mantiqiy nuqtayi nazardan tadqiq etar ekan, she'riy nutqni – mutlaq yolg'on, sofistik nutqni – asosan yolg'on, xitobiy nutqni – bir xilda ham yolg'on, ham rost, dialektik nutqni – asosan rost, isbotiy (apodiktik) nutqni mutlaq rost deydi. SHe'riy nutqning mutlaq yolg'on deb atalishi kishiga dastlab erish tuyuladi. Lekin aslida Forobiy haq. Masalan, Oybekning mana bu ikki satrini olib ko'raylik:

Bir o'lkaki, tuprog'ida oltin gullaydi,
Bir o'lkaki, qishlarida shivirlar bahor...[176]

Oddiy mantiq nuqtayi nazaridan qarasak, haqiqatan ham Oybek yolg'on gapiryapti: oltin – rangli metall, u hech qachon o'simlikka o'xshab gullamaydi, bahor esa odam emas, u – fasl, hech qachon shivirlab gapirmaydi. Forobiy bu o'rinda san'at asari oddiy mantiq ilmi qonun-qoidalariga bo'ysunmaydigan o'ziga xos mantiqqa, badiiy mantiqqa ega bo'lishini ta'kidlamoqda. Boshqa bir o'rinda, «SHe'r san'ati» risolasida u yuqoridagi fikrlarini davom ettirib, shunday deb yozadi: «... isbotda ilm, tortishuvda ikkilanish, xitobada ishontirish qancha ahamiyatli bo'lsa, she'riyatda ham xayol va tasavvur shunchalik zarur bo'ladi»[2].

«SHoirlarning she'r yozish san'ati qonunlari haqida» degan boshqa bir risolasida Forobiy san'atkorning qobiliyati tug'ma bo'lishini alohida ta'kidlab o'tadi: «... shoirlar chindan tug'ma qobiliyatli va she'r bitishga tayyor tabiatli kishilar bo'ladi...» Ayni paytda faylasuf birgina iste'dod bilan etuk shoir bo'lish mumkin emasligini ham ta'kidlab o'tadi. SHu bois «shoirlarning she'r ijod qilish borasidagi ahvoli kamolotga etishgani va etishmagani jihatidan turlicha bo'ladi».

Arastu izidan borib, Muallimi soniy she'riyatni tasviriy san'at bilan qiyoslaydi va har ikkala san'at turi ham mohiyatan bir xil asosga – taqlidga borib taqalishini aytadi: «...she'r san'atini bezaydigan narsalar – so'z, mulohazalar bo'lsa, rassomlar san'atini bezaydigan narsa bo'yoqlar sanaladi. Bularning ikkovi o'rtasida farq bor, ammo ikkalasi ham odamlar tasavvuri va sezgilarida bir maqsadga – taqlid qilishga yo'nalgan bo'ladi»[3].

Forobiy ko'p jildlik «Musiqa haqidagi katta kitob» asarida musiqiy bilimni ikkiga – ijro san'ati bilan bog'liq bo'lgan musiqiy amaliyotga va musiqaning «sof o'zini», ijrochilikka bog'lanmagan holda o'rganadigan nazariyaga ajratadi. Kitobda ohang tizimidagi uyg'unlik, zarb singari hodisalar tahlil etiladi. SHu munosabat bilan u tovushlarni emas, balki tovushlar tasavvurini beruvchi raqqoslarning musiqiy g'oyaga bo'ysungan ohangiy harakatini anglatuvchi ritmik mimika – ohangiy harakat tushunchasini kiritadi. SHuningdek, kitobda YAqin va o'rta Sharqda ma'lum bo'lgan musiqiy asboblar, ularni ijro etish yo'llari, usullari haqida, umuman, musiqa tarixi to'g'risida atroflicha ma'lumot berilgan.

Yana bir buyuk qomusiy olim, bobokalonimiz **Ibn Sino** (980 – 1037) Forobiy qarashlarini davom ettirib, musiqadan olinadigan lazzat musiqiy uyg'unlikning makonda yoyilishidan, pardalarning navbatma-navbat kelishidan deb biladi. Musiqada gap tovushning o'zida emasligini, balki uni qanday chiqarish muhim ekanini aytadi, ya'ni bizda yoqimli yoki yoqimsiz sezgini tovushning o'zi emas, balki uni paydo qilish usuli uyg'otadi. Musiqaning kelib chiqishini esa inson nutqining boyligi bilan bog'laydi: xushomad qilayotganda ovoz pasayadi, mag'rur

---

[175] Qarang: Sher A. Axloqshunoslik. T., O'AJBNT – Yangi asr avlodi, 2003, 42-b.
[176] Oybek. Mukammal asarlar to'plami, 1 t., T., Fan, 1975 y., 309-b.
[2] Forobiy. Fozil odamlar shahri. T., A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993 y., 113-b.
[3] o'sha manba, 124-b.

so’zlayotganda qat’iy jaranglaydi v. h. Musiqa inson kayfiyatiga taqliddir, deydi Ibn Sino. SHuningdek, alloma go’zallik borasida ham Forobiy izidan boradi. Uning fikriga ko’ra, jismoniy go’zallik bevosita qalb go’zalligi bilan belgilanadi. «Ishq risolasi» asarida muhabbatning asosida go’zallik yotishini «aslida muhabbat go’zallikni ma’qullashdir», degan fikr bilan ifodalaydi[177].

O’rta asrlar estetikasida Ibn Sinoning «Fan ash-she’ri» «SHe’r san’ati» asari o’ziga xos o’rin egallaydi. Unda qomusiy alloma, Arastuning «SHe’riyat san’ati» risolasini sharhlar ekan, o’ziga xos Yangiliklar kiritadi va she’rning keyinchalik mashhur bo’lib ketgan mana bu qoidasini keltiradi: «She’r deb obrazli so’zlardan iborat bo’lgan ritmli, bir-biriga muvofiq iboralardan tarkib topgan hamda hijolar bir-biriga teng, vaznlari qaytariladigan, oxirgi tovushlari bir-biriga o’xshash satrlarga aytiladi»[2]. Uning fikriga ko’ra, she’r taqlidiy fikr natijasi o’laroq uch xil yo’l bilan yuzaga keladi. Birinchisi lahn – uyg’unlik, undan keyin kalom – so’z keladi (bunda albatta majoziy (obrazli) so’z nazarda tutiladi). Uchinchisi – vazn. Mana shu uch yo’lning bir-birga mos kelishi natijasida she’r paydo bo’ladi. Yo’qsa ko’ngildagidek she’r yaratish mumkin emas.

Ibn Sino haqiqiy she’riyat bilan nazmiy tizmalarning farqi borasida fikr yuritar ekan, fizika haqida doston yozgan Empedokl o’z kitobini vaznga solganini, lekin Empedokl bilan Homer asarlari o’rtasida vazndan boshqa hech qanday umumiylik yo’q ekanini ta’kidlagan ustozi Arastu qarashlarini to’la quvvatlaydi: «Empedoklning yozganlari, vaznning paydo bo’lishiga qaramay, tabiiy gaplardan iborat bo’lib qolgan xolos. Homerning vaznli gaplari esa she’riy so’zlar tusini olgan. SHuning uchun Empedoklning so’zlari hech qachon she’r bo’lolmaydi», – deydi alloma[178].

SHuningdek, Ibn Sino o’z risolasida, yunon she’riyati bilan arab she’riyatini solishtirib, she’riyatning vazifasi haqida fikr yuritadi va bu boradagi yunonlardagi ba’zi ustunliklarga ishora qiladi. Uning aytishicha, yunonlar she’riyatda fe’l-atvorga qarab taqlid ishlatishni ko’zlaganlar. Arablar esa, ikki vajdan she’r yozganlar. Bir tomondan, ular she’r orqali odamlar ruhiga ta’sir etmoqchi bo’lganlar. Zero she’r idrok etuvchida hayajonli hissiyot, to’lqinlanish uyg’otishi shubhasizdir. SHe’r yozishning ikkinchi sababi – odamlarni taajjubga solish bo’lgan. Arablar har bir narsaga tashbeh ishlataverganlar, ular bu tashbehlari bilan odamlarni hayratga solishni maqsad qilib qo’yganlar. YUnonlar esa she’r vositasida odamlar fe’l-atvoriga ta’sir etishni, yo bo’lmasa, she’r orqali odamlarni o’zlari ko’zlagan xatti-harakatlaridan tiyishni mo’ljallaganlar.

Bunday nazariy fikrlarni Ibn Sino, eng avvalo, o’z amaliyoti orqali tasdiqlaydi. Allomaning «Salomon va Ibsol», «Hayy ibn Yaqzon», «Yusuf qissasi», «Qush risolasi» singari nasrda yozilgan falsafiy-badiiy va majoziy asarlari bilan birga, bizgacha etib kelgan she’riy asarlari ham katta ahamiyatga molik. Ayni paytda alloma o’zining o’nga yaqin nazmda tizilgan ilmiy urjuza dostonlarini she’riy asar deb bilgan emas.

Ibn Sino she’riyatida buyuk faylasuf va buyuk shoir bir tilda – she’r tilida so’zlaydi. Bu uyg’unlik natijasi o’laroq shunday durdonalar yaratildiki, ular an’anaviylik kasb etib, keyinchalik Umar Xayyom va Mirzo Bedil singari Sharqning buyuk ruboiynavislariga namuna bo’lib xizmat qildi, desak adashmaymiz. SHoirning mana bu ruboiysini she’riyat chamanining eng go’zal guli deyish mumkin:

Dilda pinhon yig’i, kulamiz guldek,
Bir damgina hayot qilamiz guldek.
o’zimizni guldek o’rtaga tashlab,
Sochilmoqni baxt deb bilamiz guldek[179].

Darhaqiqat, inson ham qanday g’am-g’ussa, fojealar oldida ham o’z dardi bilan o’zi o’ralashib qoladigan mavjudot emas. U zamon va makon talabiga quloq tutib, shabnam qatralarini gulbarglari bag’rida yashirib, olamga xandon boqqan guldek, ko’z yoshlarini, yig’isini pinhon tutgan holda kula oladi. SHoir vaqt cheksizligi oldida o’zining bir damlikkina umr egasi ekanini ham, insondagi o’zini o’ziga, o’zgalarga va borliqqa ko’rsatish uchun oliy mavjudotga xos intilishini ham sertashvish hayot ichida o’sgan gul taqdiriga, go’zallikka taqqoslaydi. Gul nima uchun o’sadi? Borliqqa nafosat ruhini, xushbo’y hidlarni bag’ishlab, oxir-oqibatda to’kilish uchun o’sadi. Inson ham xuddi shu guldek o’zini bu va u dunyoga bag’ishlab, oxir-oqibatda zaminga sochilib, tuproqqa qo’shilib ketishni baxt deb, xulqiy go’zallik deb, biladi[180].

Mashshoiyyunlik estetikasining yana bir namoyandasi shoir va faylasuf **Umar Xayyomdir** (1048-1123). Mashshoiyyun-mutafakkirlar ichida u alohida ajralib turadi. Xayyom Forobiy va Ibn Sino izidan borib, falsafa, mantiq, astronomiya va boshqa fan sohalariga doir yirik asarlar yaratdi. Uning estetik qarashlari ko’proq ruboiylari va «Navro’znoma» asaridan joy olgan. Xayyom qarashlari, bir tomondan, chan-buddhachilik estetikasiga yaqin bo’lsa, ikkinchi tomondan, ularni ekzistenstiyachilikning ibtidosi deyish mumkin.

Xayyom murakkab faylasuf-shoir, uning merosiga faqat bir tomonlama yondashish mumkin emas. Ayniqsa faylasufning ruboiylari muallif dunyoqarashining ko’pqirraliligi bilan ajralib turadi. SHunisi muhimki, Xayyom o’z dunyoqarashini risolalaridan ko’ra, she’riyatida teranroq ifodalagan, uni estetik shaklda – nafis adabiyotning ruboiy janrida o’quvchiga etkazishga intilgan, go’zallik va xunuklik, fojeaviylik va kulgililik mezoniy tushunchalari prizmasidan o’tkazib taqdim etgan.

---

[177] Серебряков С.Б. Трактат Ибн Сины (Авиццена) о любви. Тибилиси, Мецнисреба, 1976. С. 49.
[2] Эстетика. Словар. М., Политиздат, 1989. С. 96.
[178] Ibn Sino. Salomon va Ibsol. T., G’. G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1980 y., 100-b.
[179] Ibn Sino. She’rlar va tibbiy doston. T., O’z KP MK nashriyoti, 1988 y., 52-b.
[180] Qarang, bu haqda bafurja berilgan, Sher A. «Sog’lom avlod» jurnali, 1996 y., 9-10 sonlar.

Xayyom nazdida inson, keyinchalik ekzistenstiyachi Karl YAspers ta'kidlaganidek, ertaga nima bo'lishini, u o'zini qaerda va qanday holatda ko'rishini bilmaydi, «u hamma hodisalarda bir xil bo'lolmaydi, u – yo'l»[1]. Ruboiylarning ko'pchiligida, ekzistenstiyachilar sevgan ibora bilan aytganda, inson o'z holiga tashlab qo'yilganini – unga ixtiyor erkinligi berilgani va taqdir kinoyaga mavzu bo'ladigan darajadagi hodisa ekanini ko'ramiz; har bir mavjudlikni Alloh yaratgan, lekin uning xususiyatlarini keyinchalik o'zgartmaydi – «o'z holiga tashlab qo'yadi».

Mavjudlik falsafasi deb tan olingan ekzistenstiyachilik esa o'zining asosiy maqsadini mohiyat mavjudlikni emas, mavjudlik mohiyatini belgilaydi degan g'oyani o'rtaga tashlashdan iborat deb biladi. SHu jihatdan Xayyomning mana bu ruboiysi diqqatni tortadi:

Kishi o'zligidan yaxshi, yomon ham,
Qazovu qadaru quvonch yoki g'am.
Aql aytur bularni charxga to'nkama,
Charx sendan ojizroq, bechorayu kam[2].

Aynan shu muammo Xayyom inson falsafasining asosini tashkil etadi. Inson olamiy uzukning ko'zi – gavhari (javhari) bo'lgani holda, o'z mavjudligi mobaynida asl mohiyatini va bu mohiyatning chegaralarini anglab etishga qodir emas. Natijada uning hayoti absurdga aylanadi, inson oxir-oqibat o'limga qarab boradigan zot ekan, uning dunyoga kelib ketganidan nima foyda, ehtimol, kelib-ketish ovoragarchiligidan bir yo'la qutulish uchun bu dunyoga kelmay qo'ya qolgani ma'qul emasmikan?

Xayyom-inson bu savolga javob topishga ojiz; inson mavjudligining absurdligi ana shunda:

Meni ayladilar dunyoda mavjud,
Hayotda topganim hayrat, taraddud.
Bu yo'lni o'tdimu tushunolmadim,
Kelmagu ketmakdan ne ekan maqsud?![3]

Inson mavjudligining absurdligi uning hayotidagi fojeaviylikni keltirib chiqaradi. Absurd – Xayyom ruboiylarida badiiy in'ikos topgan fojeaviylik tushunchasining moyasi, u odam, olam va zamon munosabatlari silsilasida namoyon bo'ladi. Odam mavjudligining imkoniyatlari, bir tomondan, olam abadiyligi, ikkinchi tomondan, zamon o'tkinchiligi bilan bog'liq. Abadiylikka dahldor ruh bilan o'tkinchilik xususiyatiga ega mavjudlik o'rtasidagi munosabatlar inson hayotini ziddiyatli, hech qanday tushuncha yordamida to'liq anglab etib bo'lmaydigan, o'z holiga tashlab qo'yilgan, o'zgaruvchan, xavotir, qo'rquv va tanlovdan iborat mavjudlik tarzida ko'rsatadi.

Bu fojeadan qutilishning yo'li bormi? Inson hayotini absurdlikdan qanday himoya qilish mumkin? Nima uchun:

Bizlar qo'g'irchog'u, falak ko'rchoqboz,
Bu so'zim chin so'zdir, emasdir majoz.
Yo'qlik sandug'iga bir-bir tushamiz
Vujud palosida o'ynagach bir oz[181].

Faylasuf-shoir ana shu savollarga javob topishga urinadi, javobni maydan, yor vaslidan, lazzatdan, tabiat go'zalligidan, axloqiy go'zallikdan, falsafiy fikrlashdan qidiradi.

SHu sababli Xayyom ham o'z salaflari kabi go'zallikka alohida e'tibor beradi, uni inson bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq holda olib qaraydi. Jumladan, narsalar go'zalligi ham inson bilan bog'liq. Masalan, oltin nima uchun go'zal? U qimmatbaho rangli metalligi uchun emas, balki insonga bezak bo'lgani, inson tashqi a'zolarini go'zallashtirishga xizmat qilgani sababli go'zaldir. U xulqiy go'zallik haqida fikr yuritar ekan, tashqi va ichki go'zallikning uyg'unligi masalasiga alohida urg'u beradi, barcha mashshoiyyun faylasuflar kabi go'zallik bilan ezgulikning yaxlit namoyon bo'lishi to'g'risida to'xtaladi; go'zallikni go'zal yuz bilan bog'lab talqin etadi:

«Go'zallik barcha tillarda vasf etiladi va har qanday aqlga xush keladi, – deb yozadi mutafakkir «Navro'znoma» asarida. – Dunyoda yaxshi narsalar ko'p, ularni ko'rib bahramand bo'lish odamlarni shod etadi va tabiatlarini pokiza qiladi, ammo hech narsa go'zal yuz o'rnini bosa olmaydi, Chunki go'zal yuz shunday quvonch baxsh etadiki, boshqa hech qanday quvonch unga teng kelolmaydi. Aytadilarki, go'zal yuz dunyoda saodat sababchisidir. Agar go'zal yuz yana yaxshi xulq bilan uyg'unlashsa, baxt-saodatning eng yuqori darajasi bo'ladi. Agar odam ham tashqi ko'rinishidan, ham tabiati bilan yaxshi bo'lsa, Xudo va odamlar uchun sevimlidir. Go'zal yuz to'rt fazilatga egadir. Ulardan biri shuki, go'zal yuz uni ko'rgan odamning shu kunini xayrli etadi, ikkinchisi, hayotdan bahramand bo'lish onlarini shirin qiladi, uchinchisi, u odamni ochiq ko'ngilli va olijanob etadi, to'rtinchisi, boylikni ko'paytiradi va yuqori mansab ato etadi»[182].

Xayyom go'zallikka real, hayotiy-insoniy yondashuvni maqbul ko'radi. Go'zallik bu, avvalo, tabiatda, gullarda, lolalarda, bahorda. Lekin u – o'tkinchi. SHu go'zallikdan lazzatlanish uchun juda qisqa vaqt berilgan; go'zallik umri bilan inson umri shu jihatdan o'xshash. Buni Xayyom bir ruboiysida shunday ifodalaydi:

---

1 К.Ясперс. Смысл и назначение истории. М., Политиздат, 1991. С.378.
[2] o'sha joyda
[3]Umar Xayyom. Ruboiylar. T.,O'z KP MK nashriyoti, 1981 y., 13-b.
[181] Ruboiylar, 13-b.
[182] Umar Xayyom. Navro'znoma, T., «Mehnat» 1990, 54-b.

Sabodan bo’libdi gul yoqasi chok,
Gul yuzidan bulbul bo’lmish tarabnok,
Gul tagida o’tir, Chunki juda tez
Gul erga to’kilur, biz bo’lurmiz xok[2].

Xayyom tabiat go’zalligini idrok etish uchun albatta muayyan imkon va shart-sharoit zarurligini; faqat ular mavjud bo’lgandagina inson o’zi uchun shu zaminda ham jannatiy go’zallik lazzatini tuyushi mumkinligini ta’kidlaydi:

Ko’nglim ochilmaydi bahor pallasi,
Bo’lmasa may, ma’shuq, mashshoq yallasi.
Bog’ ichra may, mashshoq, ma’shuqang bo’lsa,
Jannat ham, kavsar ham shudir xullasi[3].

Ba’zi ruboiylarida esa Xayyom go’zallikni, shu jumladan xunuklikni ham «Avesto» talqinlariga yaqin nuqtayi nazardan olib qaraydi. Go’zal yuz, go’zal xulq egasi bo’lmish nozanin vaqti kelib, gulga, maysaga, lolaga aylanadi:

Ariq labidagi har giyoh, ko’kat –
Malakday go’zalning yuzidagi xat.
Bu sabza loladek yuzlar tuprog’i,
Sabzaga avaylab oyoq qo’y g’oyat[183].

Xunuk xulq egasi qo’pol, go’zallikdan bebahra insonning ruhi esa xunuk jonzotlar qiyofasiga ko’chib o’tadi. SHu jihatdan Xayyomning o’ziga xos bir ruboiysi bor. Uning yaratilishi bilan bog’liq rivoyatda shunday voqea bayon qilinadi: Xayyom o’tib borar ekan, ko’cha bo’yidagi machitni ta’mirlayotgan odamlarga ko’zi tushadi; bir necha kishi g’isht yuklangan eshakni machit ostonasidan ichkariga kiritolmay halak edilar. Xayyom nima gapligini bilgach, borib eshakning qulog’iga nimalardir deydi, eshak darhol ichkari kiradi. Odamlar buning sababini so’raganlarida, Xayyom, bir vaqtlar shu machitda o’ta badfe’l, xunuk xulq egasi mutavalilik qilgan, o’lgach esa uning xunuklikka yo’g’rilgan ruhi shu eshak qiyofasiga o’tganini, hozir u o’zini tanimayotganlari uchun ichkariga kirmay tixirlik qilib turganini, eshakning qulog’iga «Biz seni tanidik» deb to’rt satr she’r aytgach, tixirlikni to’xtatganini aytadi. Mana o’sha rivoyatga sabab bo’lgan ruboiy:

Ketibsan, qaytibsan adashibroq yana ham,
Isming ko’tarilgandi yodimizdan, ey odam,
Soqoling dum bo’libdi, o’sib chiqib ortingdan,
Tirnoqlaring qo’shilib tuyoq bo’lmishdir bu dam[184].

Endi Xayyom ruboiylarida doimiy bahsga sabab bo’lib kelgan may tushunchasiga to’xtalib o’tamiz. Xayyom talqinidagi sharob, bu mutasavvif shoirlar kuylagan vahdat mayi emas. U real hayotdagi uzumdan tayyorlangan ichimlik. «Navro’znoma» asarida Xayyom hatto qizil, sariq va qoramtir may turlarini tayyorlashga alohida boblar ajratgan hamda ularni tayyorlash, qiyomiga etkazish usullari haqida batafsil ma’lumotlarni taqdim etgan. Biroq, ayni paytda, Xayyomning mayi ramziy ma’noga ham ega: u nazarda tutgan may go’zallikni idrok etish vositasi. May, musiqa – go’zal yor jamoli bilan birgalikda insonda forig’lanish (katarsis) hodisasini vujudga keltiradi –hayotning xunuk voqealaridan jamiyatdagi pastkashlik, maydakashlik, manfaatparastlik singari holatlaridan bir muddat forig’ bo’lish, ulardan bir bosh baland turish, bahor va yor go’zalligidan, gul va ko’ngil go’zalligidan lazzatlanish imkonini beradi.

Zamonasozlarning so’zlaridan kech,
Go’zallar qo’lidan sharob so’rab ich, –
deydi bir ruboiysida shoir-faylasuf[185].

Yana bir e’tiborli jihat shundaki, Xayyom ruboiylaridagi may inson uchun ko’zgu vazifasini o’taydi: u – insondagi axloq va axloqsizlikni, go’zallik va xunuklikni ham o’ziga, ham atrofga ko’rsatuvchi vosita; «shaxsni shaxs qiladi»:

Mayni toqqa bersang tog’ ham raqs etar,
YOmonlar yomonlab uni nahs etar.
Maydan asti tavba qilmayman, zero,
May tarbiya berar, shaxsni shaxs etar[2].

Bu satrlar shunchaki shoirona tashbeh, go’zal lutf uchungina aytilgan so’zlar emas, balki chuqur mushohada va mulohazalardan chiqarilgan xulosa, Xayyom mayni ishonch bilan an’anaviy estetik vosita sifatida talqin etadi. Zotan aynan shunday fikrlarni biz yuqorida tilga olganimiz «Navro’znoma» risolasidagi «Mayning foydasi haqida» degan bobida ham ko’rishimiz mumkin.

---

[2] Ruboiylar, 16-b.
[3] Ruboiylar, 122-b.
[183] Ruboiylar, 183-b.
[184] Navro’znoma.
[185] Ruboiylar, 84-b.

Tadqiqotchilarning ba’zilari Xayyom ijodidagi may timsolini, uning mohiyatini noto’g’ri tushunishlari natijasida soxta ilmiy xulosalar chiqaradilar. G.CHesterton o’zining «Umar Xayyom va muqaddas may» essesida bunday yozadi:

«Yomoni – Xayyomning mayni kuylagani emas, yomoni – uni narkotik xususiyatini kuylagani. Xayyom g’amni aritish uchun may ichishga chaqiradi. Uning uchun sarxushlik olam eshigini ochish emas, aksincha, yopish vositasidir»[3]. SHu essening yana bir o’rnida muallif «Ruboiyyot» o’tkinchi quvonch va lazzat ketidan quvishni hammadan baland pardalarda kuylaydi», deb yozadi[4]. Boshqa bir xil mualliflar esa (ular ko’pchilik) G.CHesterton fikrlarining ziddin aytadilar, ular nazdida Xayyom o’ta dindor, zohid, xarobada bir kosa suvu, yarimta non bilan kun kechirishni afzal biluvchi kishi, u kuylagan may – «mayi vahdat» yoki «sharob at-tahuro». Xo’p shunday ham deylik, u holda lirik qahramon uylanmoqchi bo’lgan «tok qizi»ni («do’xtari raz») – jannatdagi hur, «uzum suvi»ni («obi angur») vahdat mayi deb tushunish kerak bo’ladi. Bu aqlga to’g’ri kelmaydi. Gap shundaki, Xayyom narsalarni o’z nomi bilan ayta yotibdi xolos. Xullas, Xayyomni piyonistaga chiqarib qo’yish ham unga «so’fiylik diplomi»ni tutqazish ham kulgili hodisa[186].

SHu jihatdan alloma Abdurauf Fitratning «Fors shoiri Umar Xayyom» maqolasidagi: «Umar Xayyomning «mayi» Xudoning ishqi emas, saljuq sultonlari saroyida ichilgan uzum mayi bo’lgan. Xayyom bu maydan Saroy kechalaridagi bazmlardagina ichgan. Doimiy sarxush piyonista bo’lmagan», degan so’zlari diqqatga sazovor[187].

Qo’shimcha qilib shuni aytish kerakki, may u davrlarda biz hozir tushunadigan «bir yayrash» uchun ichilgan emas, Xayyom ham, uning salaflari ham mayga boshqacha munosabat bilan yondashganlar, boya aytib o’tganimizdek, Xayyom mayni insonning asl o’ziligini namoyon qiluvchi vosita, estetik hissiyotni uyg’otuvchi modda sifatida olib qaraydi, unga alohida falsafiy maqom – mahaklik (qimmatbaho toshlarni sinaydigan tosh) maqomini beradi. Bu bejiz emas. Chunki Xayyom insonni koinotning eng qimmatbaho moddasi deb biladi:

Dunyoning tilagi, samarii ham biz,
Aql ko’zin qorasi – javhari ham biz.
To’garak jahonni uzuk deb bilsak,
SHaksiz uning ko’zi – gavhari ham biz[188].

Ana shu ulug’ insonning real hayoti, uning mavjudligi mohiyatiga to’g’ri kelmasligi, ulkan fojeaviylik sifatida Xayyomda skeptistizmga, gohida agnosstizmga moyillik tug’diradi. Buni faylasuf adib Asqad Muxtor quyidagicha izohlaydi:

«Umar Xayyom mayni kuylagan. Ammo buni Abu Nuvosning hamriyatlari, Manuchehrning musammatlari va ko’p sonli soqiynomalari bilan aralashtirmaslik kerak. Xursandchilik mayxo’rligi boshqa, alamzadalik mayxo’rligi boshqa. Xayyom kayfi benihoya alamli va fojeiy kayf: inson o’limga mahkum, u bir lahza bo’lsa ham lazzat izlashi kerak. Chinakam shodlik lahzalarni guldek uzib emas, Dante aytgan abadiy so’lmas gulzorga ko’z tikib yashaydi. Abadiy so’lmas gulzor esa – umid. Xayyomda insonning xudodan bo’lak umidi yo’q.

Xayyom ruboiylari – foniy bandaning javobsiz faryodlaridir[1].

Xayyom shaxsi, falsafasi va ruboiylarining mohiyatini bundan ortiq lo’nda qilib aytish mumkin bo’lmasa kerak.

o’rta asrlar musulmon Sharq estetikasida mashshoiyyo’nlik yo’nalishi bilan birga tasavvufiy yo’nalish ham vujudga keldi. Uning buyuk vakili tasavvuf falsafasi asoschisi, tengi kam faylasuf-ilohiyotchi **Imom G’azzoliydir** (1058 – 1111). Mutasavvif-faylasufning «Ihyo ulum ad din» («Din haqidagi ilmlarning jonlantirishi») asarida estetikaga keng o’rin berilgan.

G’azzoliy estetika borasidagi qarashlarida o’simlik, hayvon hamda insonning tashqi muhitga munosabatiga, ulardagi nafis did, estetik hissiyotning bor yo’qligi muammolariga, shaxsning go’zallikka munosabati, uning komil insonga aylanishi, nisbiy va mutlaq go’zallik, ibodat bilan san’atning farqi singari masalalarga to’xtalib o’tadi.

Asarda muallif go’zallik tushunchasiga alohida e’tibor beradi, manfaastiz go’zallik, oltinchi sezgi vositasida his etiladigan go’zallik haqida o’ziga xos, Yangi nazariyalarni o’rtaga tashlaydi. U nafosatni axloq bilan, nafosatshunoslikni axloqshunoslik bilan dialektik bog’liq holda tadqiq qiladi va bu borada Suqrotdan keyingi eng mukammal qarashlarni olg’a suradi. SHuningdek, Aflotun, Arastu, Forobiy, Ibn Sino kabi buyuk faylasuflarning teran izlanishlarini beixtiyor tarzda muvaffaqiyatli davom ettiradi.

G’azzoliy go’zallik turlarini ham, inson sezgilarining ularga munosabatini ham muhabbat tushunchasiga uzviy bog’liq ravishda olib o’rganadi. Bunday qarash, bir tomondan, nafosatning axloqqa bog’liqligini ta’kidlasa, ikkinchi tomondan, muhabbatni inson sezgilariga asoslangan nafosatshunoslik tushunchasi sifatida ham talqin etadi: «Muhabbat, – deb yozadi faylasuf, – bilish va sezishga bo’ysunar ekan, tabiiyki, bilish va sezish ob’ektlari qay tarzda bo’linsa, u ham shunaqa bo’linishga ega. Har bir sezgi muayyan ob’ekt turini biladi va har bir sezgiga u yoki bu ob’ekt yoqimli bo’ladi. Inson esa zavq olgani tufayli ularga nisbatan o’zida moyillik his etadi va ular sog’lom

---

[2] Самосознание Европейской культуры XX века. М., Политиздат, 1991. С. 209.

[186] Qarang, bu haqda bafurja: Sher A. Kelmagu ketmakdan ne ekan maqsud? «Tafakkur» jurnali, 2006 y., 1-son

[187] Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar, II-jild, T., «Ma’naviyat», 2000. 156-b.

[188] Ruboiylar, 9-b.

[1] Muxtor A. Uyqu qochganda. T., Ma’naviyat, 2005, 27-b.

insonning muhabbat ob’ektlari hisoblanadi, – so’ng imom G’azzoliy besh sezgi haqida fikr yuritib, shunday davom etadi. – ...Besh sezgi zavqini insondan tashqari hayvon ham his etishi mumkin. Inson uchun aql, yoxud ziyo, yoxud yurak deb atash mumkin bo’lgan oltinchi sezgi muhim belgi hisoblanadi: qanday nomlanishidan qat’i nazar, u – mavjud. Botiniy aql zohiriy aqlga nisbatan qudratliroq, yurak esa bilish borasida ko’zga nisbatan kuchliroqdir. Aql biln anglanadigan go’zallik, ko’zga tashlanadigan go’zallikdan ulug’vorroqdir»[189].

Shunisi muhimki, faylasuf «yurak» so’zini alohida sharhlaydi. Uning ikki ma’nosi haqida gapirib: «Ulardan birinchisi – ko’krakning chap tomonida joylashgan konus shaklidagi o’ziga xos a’zo. Uning ichida esa qora qon bilan to’la ruhning ibtidosi va manbai bo’lgan bo’shliq bor... U ko’rinadigan va seziladigan olamga taalluqli, zero, uni odamlardan tashqari hayvonlar ham ko’z bilan ko’ra oladi.

Bu so’zning ikkinchi ma’nosi – mana shu moddiy yurak bilan bog’liq ilohiy tuhfa bo’lmish iste’doddir, u insondagi mavjud hamma narsaning tagiga etuvchi, biluvchi va anglovchi iste’doddir; ayni paytda u suhbatlashuvchi, nazorat qiluvchi, tanbeh beruvchi va talab etuvchidir»[2].

«Ihyo ulum ad-din» asaridagi estetikaga oid mulohazalar mana shu ikkinchi yurak, botiniy ko’z masalalari bilan bog’liq. Faqat mana shu ikkinchi yurakdagina muhabbat tug’ilishi mumkin. G’azzoliy muhabbatni besh turga bo’ladi. Uning dastlabki uch turi asosan axloqshunoslik bilan, so’nggi ikki turi nafosatshunoslik bilan bog’liq.

Muhabbatning uchinchi turi haqida yozar ekan, G’azzoliy go’zallikka manfaastiz yondashuv, nafosat hissining beg’arazligi to’g’risida fikr yuritadi. «Uchinchi xil muhabbat, – deydi faylasuf, – biror narsani shu turishicha sevish, uning o’zidan olinadigan zavqdan boshqa zavq olmagan holda sevishdir. U – o’zining qoimligi bilan poydor bo’lgan ulkan, haqiqiy muhabbat. U, Chunonchi, go’zallik va yoqimlilikka bo’lgan muhabbat, axir, go’zallik go’zallikni anglab etgan odam uchungina muhabbat ob’ektidir... Go’zallikni anglab etishning o’zi yoqimli, o’z-o’zicha muhabbat ob’ekti bo’lishi mumkin... Modomiki, ko’kat va Sharqirab oqayotgan suv, faqat ularni eyishimiz va ichishimiz mumkinligi uchun emas, balki bor-yo’g’i, ularni ko’rib zavqlanganimiz sababli, faqat shu sababligina muhabbat ob’ekti ekan, yuqoridagi fikrni inkor qilish mushkul»[1].

Imom G’azzoliy muhabbatning to’rtinchi turi haqida fikr yuritgan chog’ida nisbiy go’zallik xususida alohida to’xtaladi. Faqat o’z kamolotining barcha qirralariga to’liq ega bo’lgan narsanigina u oliy darajadagi go’zallik deb ataydi. Bunday komillikni faylasuf faqat Allohda ko’radi va payg’ambarimiz Muhammad alayhissalomning «Alloh go’zal va u go’zallikni sevadi», degan so’zlarini keltiradi. SHunday qilib, faylasuf mutlaq go’zallik faqat Allohga taalluqli bo’lishini, boshqa go’zalliklarning hammasi nisbiy ekanini aniq-ravshan bayon etadi. Chunonchi, u go’zal ot haqida gapirar ekan, otning go’zal sifatlarini insonga olib berilgani bilan insonning go’zal bo’lmasligini aytadi. Darhaqiqat, otning peshonasidagi qashqasi otga nisbatangina go’zal, odamning peshonasi qashqa bo’lsa, u hech qanday go’zallikka kirmaydi. Ana shunday nisbiy go’zallik haqida fikr yuritib, faylasuf ko’z bilan ko’rib, qo’l bilan ushlab bo’lmaydigan narsalarda ham go’zallik mavjudligini aytadi. Darhaqiqat, biz «go’zal ovoz» deganimizda faqat, quloq orqali, «yoqimli hid» deganimizda, dimoq orqali go’zallikni ajratamiz. Demak, go’zallikni his etishda besh sezgining hammasi baravar ishtirok etishi shart emas. Ayni paytda imom G’azzoliy ba’zan go’zallikni besh sezgining birortasi ham ishtirok qilmagan holda his etish mumkinligini alohida ta’kidlaydi. Darhaqiqat, agar biz «go’zal xulq», «go’zal hayot» v.h. deganimizda, besh sezgining birortasi ham ishtirok etmaydi. Uni biz oltinchi, botiniy sezgi bilan his qilamiz, G’azzoliy aytganidek, ichki ziyo yordamida ko’ramiz.

G’azzoliy ibodat bilan san’atning farqi xususida o’ziga xos fikrlar bayon qiladi. Zikr bilan raqsni chalkashtirmaslikka, jazavadagi muridning harakatlarida o’yin alomatlariga yo’l qo’ymaslikka chaqiradi. SHunday alomatlardan biri tepinish ekanini ta’kidlab, bunday harakatlarning ko’p hollarda ko’ngil ochish va o’yin bilan bog’liqligini aytadi. Xullas, zikr paytida o’yin unsurlarining namoyon bo’lishini ibodatni buzadigan holat sifatida qoralaydi. G’azzoliy musiqa va qo’shiq borasida ham shunga o’xshash fikrlarni bildiradi. Musiqani, o’yin-kulgini tilovatga aralashtirmaslikni, qiroatni qo’shiq bilan chalkashtirmaslikni qat’iy ta’kidlaydi. Bu borada, ayniqsa, uning Qur’on bilan she’riyatni, oyatlar bilan baytlarni taqqoslashi diqqatga sazovordir.

SHe’rning (qo’shiqning) Qur’onga nisbatan dunyoviy insonni ko’proq junbushga keltirishga qodir ekanini va buning sabablarini G’azzoliy etti nuqtayi nazardan isbotlab beradi.

Birinchisi – hamma oyatlar ham tinglovchining holatiga doimo to’g’ri kelavermaydi. Chunonchi, g’am-anduhga botgan yoki pushaymonlik olovida qovrilayotgan kishiga meros, bolalarning ulushlari, mahr, taloq haqidagi qoidalar ta’sir qilmaydi. Zero, yurakni unga mos narsagina harakatga keltiradi, shoirlar esa baytlarini o’z qalblarining holatidan kelib chiqib yaratadilar. Demak, har bir she’r muayyan ruhiy holatning intihosi sifatida o’shanday ruhiy holatni dildan kechirayotgan kishi uchun ta’sirchanroqdir.

Ikkinchisi – agar she’riy bayt boshqa bayt bilan almashtirilsa, hatto mazmun bir xilligiga qaramay, u tinglovchi yuragiga Yangi iz solmay qo’ymaydi. Chunki , mazmun bir xil bo’lsa ham, keyingi bayt avvalgisidan

---

[189] Qarang: «Воскрешение наук о вере» 117-122-б.

[2] O’sha manba. S. 140.

[1] O’sha manba. S. 234.

qofiya va vazni bilan farqlanadi, tinglovchining qalbini harakatga keltiradi. Lekin Qur'onni qori har gal har xil qilib o'qiy olmaydi. Qur'onga qo'shimchalar kiritish mumkin emas. Demak, har bir etuk she'r original badiiy asar sifatida ma'lum holatlarda ko'proq ta'sirchanlikka ega.

Uchinchisi – oddiy nutq bilan she'rning qalbga ta'siri solishtirilsa, hijolari tartibga solingan she'riy nutqning kuchli ekanini sezish mumkin. SHe'rning rang-barang ohangi qalbni junbushga keltiradi. Demak, har bir she'r o'ziga xos dolzarb ohangi bilan ta'sirchanroqdir.

To'rtinchisi – she'riy nutqning qalbga ta'siri qisqa bo'g'inlarni (yopiq hijolarni) cho'zib, uzun bo'g'inlarni (ochiq hijolarni) kesib talaffuz etish bilan bog'liq. So'zlar ruknlarga bo'ysundirilib talaffuz etiladi. Tilovat o'qilganda esa bunday qilish mumkin emas. Demak, she'rning vaznga ega bo'lishi unga kengroq imkoniyat beradi.

Beshinchisi – vaznga tushirilgan she'riy nutqqa bir me'yordagi zarbli tovushlar, Chunonchi, doira singari musiqa asboblari jo'r bo'lishi mumkin. Unday holda she'rning ta'sir kuchi oshadi. Oyatlarni esa bunaqangi jo'rlikdan asramoq lozim, zero, u o'ta jiddiy Haqiqatdir. Uni ko'chalarda, bazmlarda, to'yxonalarda o'qish mumkin emas. Demak, she'riy nutq musiqiy asboblar jo'rligiga yo'l berishi, joy tanlamasligi bilan ham muayyan imtiyozga ega.

Oltinchisi – badihago'y (maddoh) tinglovchining holatiga mos kelmaydigan baytni o'qishi, u bayt tinglovchiga yoqmasligi mumkin. U holda tinglovchi boshqa baytni talab qiladi. Chunki har qanday nutq ham kayfiyatga mos kelavermaydi. Bunday paytda tilovat tinglash majburiyati va bu majburiyatdan o'sha onda qutula olmaslik hissi tinglovchida oyatlarni yoqtirmay qolishdek gunohli holatni keltirib chiqarishi mumkin. Demak, she'r vaqt, holat va kayfiyatni hisobga olishi tufayli, ya'ni dunyoviy qamrovining kengligi bilan ham kuchliroq ta'sirga ega.

Ettinchisi – musiqiy tovushlar insonning tabiatiga mos keladi. Ularga Haqiqat emas, lazzat manbai sifatida qaralishi lozim. Xuddi shuningdek, she'r ham inson tabiatiga mos keladi, inson undan lazzatlanadi; ham o'zi she'r yarata oladi, zero, yaratilgan narsa (ya'ni she'r) yaratilganga (ya'ni insonga) o'xshash bo'ladi. Qur'on esa – Allohning so'zi, Uning sifatlaridan biri. Qur'on insoniyat yaratishga qodir bo'lmagan Haqiqatdirki, Allohning sifati tarzida u yaratilish jarayonini boshdan kechirmagan. Demak, insonga yaqinroq ekani, hissiyot bayoni bo'lgani uchun ham odamlar she'rga ko'proq mayl bildiradilar[1].

Buyuk mutasavvif-faylasuf yuqoridagi etti bandli chog'ishtirma orqali, birinchidan, Qur'on oyatlariga she'rga bo'lganidek erkin murojaat qilish mumkin emasligini, ikkinchidan, Muqaddas Kitobni to'g'ri kelgan joyda, to'g'ri kelgan holatda o'qimaslikni, uni jo'nlashtirmaslikni, ya'ni ilohiy munosabat bilan insoniy munosabatni qorishtirib yubormaslik lozimligini uqtiradi. SHu o'rinda u quyidagi voqeani keltiradi: payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom ar-Robiya ummi Ma'uz xonadonlariga kirganlarida, kanizaklar qo'shiq kuylayotgan edi; shunda ulardan biri darhol qo'shiqni to'xtatadi va u kishiga madhiya ayta boshlaydi. Payg'ambarimiz esa: «Buni qo'y, avval nimani aytayotgan bo'lsang, o'shani ayta ber», – deydilar. G'azzoliy mazkur ta'qiq Qur'on oyatlarining to'y-tomoshalarda o'qitishga ham taalluqli ekanini ta'kidlab, mutlaqo jiddiy narsani o'yin-kulgi shakliga solish, «she'r bilan aytishga ruxsat berilgan narsani Qur'on vositasida aytish mumkin emas», deydi[2].

SHunday qilib, Imom G'azzoliy qanchalik Qur'onni yuksakka ko'tarmasin, ulug'ligini qanchalik ta'rif qilmasin, uni she'riyat bilan solishtirar ekan, masalaga bag'oyat rastional tarzda yondashadi: ibodatga nisbatan san'atning, qiroatga nisbatan she'riyatning oddiy insonga yaqinligini inkor etmaydi, balki tasdiqlaydi. Bu o'rinda, diqqat qilinsa, muridlarning jazavaga tushishi hamda xayolan Ollohga etishgan holatlari bilan tomoshabin yoki tinglovchining san'at asaridan junbushiga kelishi va so'ng qalbida ro'y beradigan forig'lanish (katarsis) holatlari orasida ham o'xshashlik, ham katta farq borligini anglab olish qiyin emas.

G'azzoliy zohiriy va botiniy go'zallik xususida fikr yuritar ekan, tug'ma estetik tuyg'uning mavjudligi haqidagi g'oyani go'daklar va hayvonlarning ham estetik tuyg'uga egaligi bilan isbotlashga intiladi. Go'zallikni idrok etish tuyg'usining tug'maligi, tabiiyligi va uni estetik tarbiya vositasida anglab etish orqali his qilish borasida hozir ham bahsli qarashlarning mavjudligi G'azzoliy o'rtaga tashlagan estetika muammolari hanuz dolzarb ekanini tasdiqlaydi.

G'azzoliyning go'zallik to'g'risidagi, xususan, go'zallikka nisbatan beg'araz munosabat haqidagi nazariy fikrlaridan buyuk olmon faylasufi Immanuil Kant ijodiy foydalanadi. Chunonchi, Kant nafosat tuyg'usini manfaastiz, beg'araz, faqat predmetga sof muhabbat bilan munosabatda bo'lish tufayli yuzaga kelgan tuyg'u deb ataydi. Go'zallikning nisbiyligi borasida ham Kant G'azzoliy tutgan yo'ldan boradi. Hatto ba'zida misollar bir xillligiga yo'l qo'yadi: ikala faylasuf ham odam va otni misol tariqasida keltiradi. G'azzoliy fikrlarining rivojlangan shakllarini Hyum, Byork, SHefstberi, Xatcheson singari faylasuflarda ham uchratamiz.

---

[1] Qarang: o'sha manba. S. 117-122.

[2] O'sha manba. S. 121.

G’azzoliydan so’ng tasavvuf estetikasining muammolari asosan Temuriylar davrida Naqshbandiya sulukidagi mutafakkirlar tomonidan yaratilgan badiiy adabiyoti, musiqa va boshqa san’at turlariga doir risolalarda hamda tazkiralarda o’rtaga tashladi.

SHunday qilib, Sharqning daho mutafakkirlaridan biri – Imom G’azzoliy bir tomondan, tasavvufni mohiyatan islomning axloq va nafosat falsafasi sifatida talqin qilsa, ikkinchi tomondan o’z estetik g’oyalari hamda nazariyalari bilan jahon nafosatshunosligini Yangi pog’onaga ko’tarilishini boshlab berdi.

Temur va temuriylar davri estetikasi

XIII asrga kelib, Markaziy Osiyo mintaqasi hamma sohada yuksaklikka erishgan edi. Afsuski, mo’g’ul bosqini Turkiston, Movarounnahr, Rum, Xuroson singari gullab-yashnab turgan o’lkalarni vayron qildi. Ilm-fan, madaniyat tanazzulga yuz burdi, ne-ne shaharlar Yer yuzidan izsiz yo’qoldi, musulmon Sharqi zulmat ichida qoldi. Faqat tarix sahnasiga Amir Temur chiqqanidan keyingina Uyg’onish boshlandi. Sohibqiron bobomiz yuritgan oqilona siyosat butun mintaqada ma’naviy yuksalishga olib keldi. SHu bois Temur va Temuriylar davri ilm-fan va san’atning oltin davri hisoblanadi. Bu davr estetikasida buyuk o’zbek shoiri Alisher Navoiyning o’rni o’ziga xos. Navoiy go’zallik masalasiga tasavvufiy nuqtayi nazardan yondashadi – oliy go’zallikni Allohda ko’radi, shu bois go’zallikni u haqiqat bilan aynanlashtiradi: Alloh – haqiqat quyoshi, shuning uchun U go’zaldir. Har bir inson uchun Allohni tanish – Mashriqdan chiqqan quyosh go’zalligini anglash degan gap; uning nuridan kosadagi mayda haqiqat yo’li, Haq yo’li jilvalanadi. Ana shu jilvagarlik insonning umr yo’lini go’zallashtiradi, haqiqat yog’dusiga ko’madi:

Ashraqat min aksi shamsil-ka’si anvorul-hudo «YOr aksin mayda ko’r», deb jomdin chiqdi sado. Navoiy buyuk devon bo’lmish «Xazoyin ul-maoniyni ushbu bayt bilan boshlagani bejiz emas. Keyin u yana shunday deb yozadi: Toki ul maydin ko’ngul jomida bo’lg’ach jilvagar CHehrai maqsudi mahv o’lg’ay ham ul dam moado[1]. Demak, Chehra, Go’zallik ko’ngil qadahida jilvalanganida boshqa barcha narsalar ko’ngildan chekinadi, ikkinchi, uchinchi v.b. darajali hodisalarga aylanadi; ilohiy go’zallik lazzati birinchi o’ringa chiqadi. Lekin Navoiyda ilohiy go’zallik insoniy go’zallikni inkor etmaydi, aksincha ular orasida uyg’unlik vujudga keladi; insoniy go’zallik ilohiy go’zallik bilan boyiydi. Ilohiy – Mutlaq go’zallik tabiatda in’ikos etadi. Tabiatdagi ranglar Mutlaq go’zallikning tajallisi – jilvalanishi. SHu bois yor go’zalligi Navoiy she’rlarida tabiat ranglari bilan muqoyasa qilinadi, natijada oshiqning ohi ham ranginlik kasb etadi. Misol tariqasida uning «Qizil, sarig’, yashil» radifli g’azalini keltirish mumkin:

Hil’atin to aylamish jonon qizil, sorig’, yashil,

SHu’lai ohim chiqar har yon qizil, sorig’, yashil.

Yor go’zalligi, xatti, holi haqidagi hayollardan oshiqning boshi aylanadi, uning ko’z oldida butun olam, davru davron rangin ko’rinadi:

Orazu xoli bila xatting xayolidin erur

Ko’zlarimning ollida davron qizil, sorig’, yashil.

Oshiq-shoir o’z devonini go’zal kitobat qilishi uchun, bezashi uchun unga zar hal ham, alvon rang yoki zangori bo’yoqlar ham kerak emas, Chunki uning devoni o’z nazmidan ranginlik kasb etgan, bu nazm esa tabiat ranglariga uyg’un:

Navoiy oltinu shingarfu zangor istamas,

Bo’ldi nazming rangidin devon qizil, sorig’, yashil[1].

Alisher Navoiy g’azallarida rang estetikasi katta o’rin egallaganini ulardagi gul timsolida ham ko’rish mumkin. Uning asarlarida gul tabiat go’zalligi, zamin go’zalligi, inson taqlid qilishi lozim bo’lgan go’zallik sifatida namoyon bo’ladi.

Navoiy merosidagi ijod va ijodkor haqidagi o’rinlar ham alohida e’tiborga molik. U ijodkorning tabiatini va vazifasini quyidagicha ta’riflaydi: «Ishlari maoniy xazonidin ma’rifat javharin termak va el fayzi uchun vazn sulkida nazm termak». SHundan kelib chiqib, buyuk mutafakkir so’zga alohida e’tibor berishni talab qiladi, uni ko’ngil qutisi ichidagini gavhar deb ataydi, hatto falak jismining joni deydi, ya’ni uning ilohiylik asosiga ishora qiladi, shu bois ham shoir, ham she’rni estetik idrok etuvchi kimsa so’zga muqaddas ne’mat sifatida qarashi lozim.

Ko’ngul durji ichra guhar so’zdurur,

Bashar gulshanida samar so’zdurur.

Erur so’z falak jismining joni ham,

Bu zulumotning obi hayvoni ham[1].

---

[1] Navoiy. Mukammal asarlar tO'plami, 20 tomlik, 3-t. T., Fan, 1988 y. 25-b.

[1] O’sha manba, 6-t., 1990 y., 264-265-b.

Navoiy nafs uchun fikrini qurbon qilganlarini, ya’ni amal, mukofot, unvonlar olish maqsadida so’zini sotgan, Xudo bergan iste’dodni pulga, boylikka chaqqan shoiru olimlarni o’z qismatlari tomonidan la’natlangan kishilar deb ta’riflaydi; qanoatning o’zi bir saltanat, ijodkor inson o’sha saltanatda, ta’magirlikdan yiroq, mardona sabr bilan yashashi, ezgulik, go’zallik va haqiqat uchun xizmat qilishi lozim:

Vajhi maosh uchun kishikim desa fikr etay,

Qismat rizosidin anga begonaliq kerak.

Kunji qanoat archi erur saltanat valek

Eldin tama’ni uzgali mardonaliq kerak[2].

«Majolis un-nafois», «Mezon ul-avzon» asarlarida Navoiy ana shu mohiyatan muqaddas bo’lgan so’zdan foydalanish san’ati haqida fikr yuritadi. «Mezon ul-avzon» aruz nazariyasi sifatida diqqatga sazovor bo’lsa, «Majolis un-nafois» tengi kam tazkira sifatida estetikaga aloqadordir. Unda Navoiy 450 nafardan ortiq shoir ijodiga to’xtalib o’tadi va ular ijodi uchun xarakterli bo’lgan misollarni keltiradi. Ayni paytda, tazkirada did, shakl va mazmun singari estetika muammolari ham o’z aksini topgan. Chunonchi, tazkiraning temuriy shahzoda-shoirlarga bag’ishlangan ettinchi majlisida Amir Temur didi haqida fikr yuritar ekan, shunday deydi: ... agarchi nazm aytmoqqa iltifot qilmaydurlar, ammo nazm va nasrni andog’ xub mahal va mavqeda o’qubdurlarkim, aningdek bir bayt o’qug’oni ming yaxshi bayt aytgancha bor». Bu parchadagi, andak mubolag’adan qat’i nazar Navoiy shoirona, estetik did egasi bo’lishni ba’zi to’g’ri kelgan gapni vaznga solib, she’r deb taqdim etuvchi nazmbozlardan yuqori qo’yganini fahmlab olish qiyin emas.

Buyuk Navoiyning fikriga ko’ra, badiiy asar faqat go’zallikni kuylashi bilangina cheklanishi kerak emas, balki o’zi ham shaklan go’zal bo’lishi lozim. SHaklga ikkinchi darajali, bir qadar ahamiyastiz hodisa sifatida qarashni qattiq qoralaydi. Hatto Atoiydek buyuk shoirning qofiyaga bir oz e’tiborsizlik bilan munosabat qilganini ham nazardan qochirmaydi, ochiqchasiga, ammo ehtirom bilan tanqid qilib o’tadi:

Ul sanamkim suv qirog’inda paritek o’lturur,

G’oyati nozukligidin suv bila yusta bo’lur.

Qofiyasida aybg’inasi bor. Ammo Mavlono ko’p turkona aytur erdi, qofiya ehtiyotig’a muqayyad emas erdi»[1]. Temuriylar davri san’atida, u xoh rangtasvir – miniatyura, hoh me’morlik, hoh she’riyat bo’lsin, shakliy go’zallikning ajoyib namunalarini uchratish mumkin. SHe’riyatda buni kam so’z ishlatib, ko’p ma’noni anglatishga, qofiyaning bir bo’g’inli so’zdan, radiflarni esa bir necha so’zlardan iborat tarzida vaznga joylashda ko’rsa bo’ladi. Buning mumtoz namunasini, avvalo, Navoiyning o’zidan topish mumkin. Mana bu ruboiyga diqqat qiling:

Jondin seni ko’p sevarmen, ey umri aziz,

Sondin seni ko’p sevarmen, ey umri aziz.

Har neniki sevmak ondin ortiq bo’lmas,

Ondin seni ko’p sevarmen, ey umri aziz.

Navoiyning epik asarlarida esa go’zallik bilan ezgulik aynanlashtiriladi. Mutafakkir ichki va tashqi go’zallik uyg’unligi g’oyasini ilgari suradi. Uning «Xamsa»sidagi bosh qahramonlar ana shunday komil go’zallik egalari, YOsuman, Jobir, Xisrav singari badiiy qiyofalar, aksincha, xunuklik timsoli tarzida tasvirlanadi. Ayni paytda dostonlarda ulug’vorlik va tubanlik xususiyatlari ham izchil ochib beriladi. Masalan, Farhod va SHirinning o’z muhabbatlari yo’lida o’limga olib kelgan qahramonliklari naqadar ulug’vor bo’lsa, Xisrav va YOsumanlarning qilmishlari shunchalik tuban. Navoiy dostonlarining yana bir o’ziga xos Sharqona xususiyati shundaki, ularda muhabbat fojeaviylik xususiyati bilan chambarchas bog’liq tarzda aks ettiriladi. Bu borada Layli va Majnunni, Bahrom va Gulandomni eslashni o’ziyoq kifoya. Bir so’z bilan aytadigan bo’lsak, Navoiy asarlaridagi muhabbat fojeaviylikni muqaddaslashtiruvchi go’zallik, qayg’uli va ibratli go’zallik sifatida tahsinga sazovor.

SHunday qilib, Navoiy asarlarida go’zallik bir tomondan Haqiqat, ikkinchi tomondan Ezgulik bilan aynanlashtiriladi, goh esa ular bilan yonma-yon keladi: ularda Go’zallik, Haqiqat va Ezgulik muqaddas uchlik tarzida namoyon bo’ladi; ilohiylik insoniylik bilan omuxtalashib ketadi.

Temuriylar davri estetikasida Navoiyning piri murshidi buyuk alloma Abdurahmon Jomiy alohida o’rin egallaydi.

---

[1] O’sha manba, 3-t., 528-b.

[2] O’sha manba, 3-t., 542-543-b.

[1] O’sha manba, 13-t., T., 1997, 63-b.

Jomiy ham go’zallikka tasavvuf nuqtayi nazaridan yondashadi; u tabiat bilan Xudoni aynanlashtiradi, ya’ni tabiat YAratganning tajallisi, biroq ko’p hollarda uning estetik qarashlari Navoiyga o’xshab tasavvuf doirasidan chiqib ketadi va tabiat go’zallikning barcha unsurlarini (me’yor, uyg’unlik, mutanosiblik, nomutanosiblik) o’zida mujassamlashtirgan voqelik sifatida namoyon bo’ladi. Ayniqsa «Haft avrang» («Etti taxt», dostonlar turkumida tabiatga hurmat bilan qarashga da’vat etadi; muhabbat go’zalligi inson borlig’ining ontologik ildizi sifatida yuzaga chiqadi: muhabbat yo’q ekan, Olam ham o’z harakatini to’xtatadi.

San’atdagi go’zallikni Jomiy shakl va mazmun yaxlitligida ko’radi. Mazmun deganda u insonning g’oyaviy-ma’naviy intilishini tushunadi. U shoirlar ijodini tahlil etar ekan, har bir shoir o’z uslubi va o’z nigohiga ega ekanini ta’kidlaydi. «Bahoriston» asarida esa she’rni yuksak go’zallik sifatida quyidagicha ta’riflaydi: «Haqiqatan ham she’r nechog’li go’zal, nechog’li fazilatga boy va nechog’li yuksak! SHe’rdan buyukroq fazilat bormikan?! SHe’rdan sehrliroq sehr bormikan?!

Bormi husnga she’rdan ko’ra boy,

Xatidan chetga chiqmaydi chiroy...

YUziga tashlab majoz kokilin,

Pardadan cho’zar haqiqat tilin»[1].

Jomiy «Silsilat uz-zahab» («Oltin tizmalar») dostonining so’nggida ham she’r va shoirlik xususida to’xtalib o’tadi hamda bu muammoga ikki bob bag’ishlaydi. Buyuk shoir nazdida she’r (keng ma’noda san’at) na faqat go’zallikdan huzurlanishi, balki bilishning o’ziga xos vositasidir:

She’r chi buvad navoi murg’i xirad,

She’r chi buvad misoli mulki abad...

(She’r – donishmandlik qushining navosi,

She’r – mangulik mulkining timsoli)

Ayni paytda she’r agar latofatdan, nafosatdan yiroq bo’lsa, shoirda iste’dod va mahorat etishmasa, so’z – mazmunga, mazmun so’zga mos kelmasa, u – o’tmas moldek xaridor topolmaydi[2].

«Risolai musiqiy» («Musiqa risolasi») asarida Jomiy musiqaga Aflotun nuqtayi nazaridan yondashadi; musiqa – falak hodisasi, inson – ana shu hodisani in’ikos ettiruvchi zot. Ayni paytda musiqa mutafakkir nazdida dunyoni bilish vositasi, qalbni tarbiyalovchi omildir.

Temuriylar davri musulmon Sharqida musiqa amaliyoti va musiqa nazariyasiga katta e’tibor berilgan. Fitrat «Qari navo» kuyini Navoiy bastalaganini aytadi. Bundan tashqari, musiqaga oid risola bitgan degan fikrni ham bildiradi. Umuman o’sha davrda yozilgan san’at turlariga doir risola va tazkiralarni o’nlab emas, yuzlab sanash mumkin. Tasviriy san’at o’zining Sharqona ko’rinishi – miniatyura janrida yuksak darajaga ko’tarildi. Hirotda «Nigoriston» miniatyura maktabi vujudga keldi. Uning etakchi rassomi Kamoliddin Behzod keyinchalik Sharq Rafaeli nomini oldi. Navoiy zamonasida barcha Hirot ahli kasbi-koridan qat’iy nazar biror san’at turidan xabardor edi. Nafis majlislarda Yangi asar muhokamasi nihoyatda nozik didlilik bilan o’tgan. Zayniddin Vosifiy o’zining «Badoe’ ul-vaqoe’» asarida ana shunday nafis majlislardan birini keltiradi. Unda Behzod chizgan Alisher Navoiy suratining muhokamasi tasvirlanadi. Muhokamada Navoiy portreti fondagi bog’, qushlar – hammasining tabiiy chiqqanligi, surat ulkan iste’dod mahsuli ekani o’sha davrga xos nafosat bilan aytiladi. Mana, o’sha majlisning tasviri:

«SHunday bir hodisa mashhurki, ustoz Behzod (Suvrat chizilgan) sahifani buyuk Amir Alisherning firdavsmonand, osmon ziynatli majlisiga keltirdi. Suvratda tasvirlanishicha, orasta bog’cha-u turli-tuman daraxtlar bilan qoplangan va daraxt shoxlarida xushsuvrat turli-tuman qushlar, har tarafda ariqchalar shildirab oqib yotibdi. Ochilgan zangori gul tuplari va uning orasida Mir (Alisher)ning yoqimli xushsurati. U asoga tayangan holda turibdi. YOnida sochqi (odatini ijro etmoq uchun) zar to’la tabaqlarni qo’ygan. Hazrati Mir ul suratni mushohada va mulohaza qildi...

Mir (Alisher) ning ustozi va Xuroson ahlining mashhur kishilaridan bo’lgan Mavlono Fasihiddin bunday deydi:

– Maxdumlar! Ko’z oldimdagi bu ochilgan ra’no gullarni qo’l cho’zib uzsam-u, dastorimga sanchisam?!

---

[1] Jomiy. Bahoriston. T., Yozuvchi, 1997, 66-67-b.

[2] Qarang: Чёрный. Осор, дар ҳашт шилд, шилди сеют. Душанбе, Адиб, 1987, соч. 155.

Mir (Alisher)ning do’sti, ulfati sohib Doro bo’lsa:

– Menda ham shunday istak bor edi. Ammo qo’l cho’zsam, daraxtlar ustidagi qushlar hurkib uchib ketmasin, deb andisha qildim, – deydi. Xurosonning xushta’b ahlidan va peshvolaridan bo’lgan, Mir (Alisher) bilan doimo hazil-mutoyiba qilib yuradigan Mavlono Burhon:

– Men mulohaza bilan qo’limni tortib, tilimni tiymoqchiman: agar so’z qostam, mabodo hazrati Mir (Alisher) arazlaydilar va yuzlarini burushtirib qoshlarini chimiradilar, – deydi.

Nozik tabiatli va Mir (Alisher) unga «Latifatarosh» deb laqab qo’ygan xurosonlik xushomadgo’y (kishilardan) Mavlono Badaxshiy bo’lsa:

– Ey, Mavloni Burhon, agar beodoblik va gustohlik bo’lmaganda, suratdagi Mir (Alisher)ning qo’llaridagi asoni olib boshingga solar edim, — deydi.

Hazrati Mir (Alisher) suhbatni yakunlab:

– Azizlar yaxshi so’zlar aytishdi va ma’no durlarini (juda) ma’qul sochishdi. Agar Mavlono Burhon o’sha noma’qul ishni ravo ko’rmaganlarida va dag’allik qilmaganlarida, men (suratda tasvirlangan) tabaqlardagi oltinlarni boshlaridan somoqchi edim, – deydi.

SHundan so’ng Alisher Behzodga egar-jabdug’li ot va munosib to’n, majlis ahlining har biriga (esa) hashamatli libos in’om qiladi».

Biz imkon yuzasidan Temur va Temuriylar davri bo’yicha faqat Hirot maktabi estetikasiga to’xtalib o’tdik. Vaholanki, Movarounnahrda, Hindistonda va Turkistonda boshha temuriylar boshqargan mintaqalarda ham san’at gullab yashnadi. Buyuk Zahiriddin Boburning «Muxtasar», Davlatshoh Samarqandiyning «SHoirlar bo’stoni», Hasanxoja Nisoriyning «Muzakkari ashob», Atoulloh Husayniyning «Badoe’ us-sano’e», Do’st Muhammadning «San’atkorlar ahvoli», Qozi Ahmadning «San’at gulistoni» singari aruz nazariyasiga bag’ishlangan asarlar, tazkiralar, musiqa va hattotlik san’atiga bag’ishlangan risolalar singari yuzlab asarlar yaratildiki, ular ham mazkur davr estetikasida muhim o’rin tutadi.

Lekin, shuni ham aytish kerakki, Temuriylar davri estetikasida estetika ilmining Forobiy yoki G’azzoliy darajasidagi nazariy talqinlari ko’zga tashlanmaydi. Bu davr estetikasining o’ziga xos xususiyati shunda ediki, unda har bir san’at turi alohida-alohida tadqiq etildi, risolalar ko’proq aruz ilmi va musiqa san’ati tahliliga bag’ishlanadi. Eng muhimi bu davrda estetik g’oyalar va nazariyalar san’at amaliyoti bilan bog’liq tarzda ilgari surildi. SHu jihatdan Temuriylar davri estetikasi keyingi davrlar uchun ma’lum ma’noda namuna bo’lib xizmat qildi.

O’rta asrlar Yevropa estetikasi

O’rta asrlar Yevropa falsafiy tafakkuri asosan cherkov qisuvida, nasroniylik belgilab qo’ygan doiralarda ifoda topdi, unda musulmon Sharqi falsafasidagi erkinlik, teran ilmiylikni uchratish qiyin. Faqat o’rta asrlarning keyingi davrlarida, xususan, Uyg’onish davrida Yevropa mutafakkirlari Qadimgi yunon tafakkurining tadrijiy davomi bo’lmish musulmon falsafasi va faniga e’tiborni qaratdilar. SHu bois o’rta asrlar Yevropa tafakkuri Yangiaflotunchilikka, xususan, Plotinga ergashdilar. Estetikada transstentdental, ruhoniy, ilohiy go’zallik tan olinib, erdagi go’zallikka arshdagi go’zallikning ramziy ifodasi sifatida qaraldi.

O’rta asrlar Yevropa estetikasida Ilohiy Og’ustin – Avreliy Avgustin (354 – 430) qarashlarni katta ahamiyat kasb etadi. Avgustin go’zallikni shakl bilan, xunuklikni shaklning yo’qligi bilan izohlaydi. Uning fikriga ko’ra, mutlaq xunuklik yo’q, balki nisbatan mukammal tuzilmaga va mutanosiblikka ega narsalardan shakliy ojizligi, shaklsizligi bilan farq qiladigan narsalar bor, xolos. Xunuklik nisbiy nomukammallik, go’zallikning eng quyi bosqichi. YA’ni, yaxlit go’zallik tarkibida bo’lgan, lekin undan uzilib qolgan qism o’z go’zalligini yo’qotadi va aksincha, xunuklik go’zallik tarkibiga kirishi bilan go’zallikka aylanadi. Faqat pok qalb egalarigina olam go’zalligini ko’ra olishi mumkin. Bu go’zallik ilohiy go’zallikning in’ikosidir. Xudo – eng oliy go’zallik, moddiy va ma’naviy go’zallikning Ilk qiyofasi.

Avgustin go’zallikning ikki turi haqida fikr yuritadi. Birinchisi – shakl go’zalligi, u ko’rish orqali, ikkinchisi – harakat go’zalligi, u ko’rish va eshitish vositasida idrok etiladi. Harakatdagi go’zallik musiqada, she’rda, jism harakatlarida qisqa va uzun ritmlarning ketma-ket kelishi qonuniyatiga amal qilinishi orqali ro’y beradi. Estetik kechinma ham ikki xil – hissiy va aqliy idrok etish orqali yuzaga keladi. Estetik kechinma uchun tasavvur idrok etish kabi muhim ahamiyatga ega. Moslik go’zallikning asosi sifatida ko’z emas, aql vositasida idrok etiladi. Go’zallikni idrok etish uchun go’zal narsa-hodisalar bilan qalb o’rtasida moslik, go’zallikka manfaastiz munosabat – muhabbat, nimaiki go’zal bo’lsa, o’shanga moyillik bo’lishi lozim. Go’zallikni idrok etishda undagi muhim xususiyat – ritm katta ahamiyatga molik, zero inson barcha ritmlar ichidagi eng muhimi hisoblanmish tug’ma, doimiylik tabiatiga ega bo’lgan intellektual ritm bilan ta’minlangan, busiz u ritmlarni idrok etishi va ularni yaratishi mumkin emas.

Avgustinning sonlar haqidagi ta’limoti ham ritm bilan bog’liq; sonlar uzun va qisqa jism harakatlari, she’riy hijolar, musiqiy ohanglar kabi ritm o’zgarishlarini belgilashda muhim ahamiyatga ega. SHundan kelib chiqib, mutafakkir sonlarni besh turga bo’ladi: 1) sado beruvchi, idrok etish bilan bog’liq bo’lmagan, faqat tovushning ichidagi sonlar; 2) idrok etuvchining sezgilaridagi sonlar; 3) real tovush yo’q va eshitish mumkin bo’lmagan holatda tasavvur qilinadigan harakatdagi sonlar; 4) xotirada saqlanib qoladigan, biz eslamasak ham, yodimizda qolib ketgan

kuydagi sonlar; 5) hukm chiqaruvchi sonlar. Ular orasida eng muhimi – beshinchisi, estetik baholash, mezon vazifasini bajaradigan, hukm chiqaruvchi sonlar, ular orqali onglanmagan holda xotirada qolgan to'rt turdagi sonlarning hammasi baholanadi: qaysi biri yoqimli deb qabul qilinadi, qay biri yoqimsiz sifatida inkor etiladi. Bu sonlarning hammasi turli darajadagi o'tkinchilik xususiyatiga ega bo'lib, vujudga taalluqli, ular odamlarda ham, hayvonlarda ham, parrandalarda ham mavjud. Chunonchi, bulbulning sayrashi, mayna va to'tilarning ohanglarni eslab qolishi, fil yoki ayiqlarning, o'zlari kuylamasalar ham, kuyni yoqtirishlari ularda «hukm chiqaruvchi» sonlarning borligidan dalolat beradi. Xuddi shunday tabiiy musiqiylik odamlarga ham xos. Deylik oddiy odamlar soz chalishni, kuylashni, musiqa nazariyasini bilmaganlari holda iste'dodli xonanda yoki sozanda bilan iste'dodsiz xonanda yoki sozandani yaxshi farqlay oladilar. Bunday holat tomoshaviy shakllarni idrok etishga ham taalluqli, unda ham yaxshini yomondan ajratadigan xotira, hukm chiqaruvchi sonlar ishga tushadi.

Estetik baho zamirida yotgan onglanmagan tarzdagi hukm chiqaruvchi sonlardan Avgustin aqldagi sonlarni farqlaydi. Aql hissiyot sezmay qolgan xatolarni ocha oladi, u harakatdagi sonlar munosabatini ongga etkazadi, ya'ni estetik zavq to'g'risida tushuncha beradi. Masalan, biz boltani qaerga urishni «nazariy» jihatdan bilamiz, lekin faqat tajribali duradgorgina qo'lida mavjud bo'lgan sonlar yordamida yog'ochdagi kerakli nuqtaga aniq zarb urishi mumkin. Aqldagi sonlar, aslini olganda, haqiqiy «hukm chiqaradigan» onglanmaganlikka emas, aqlga asoslangan, oqilona baholaydigan oliy mezondir. Bunday baholash faqat insongagina xos. Estetik zavq beradigan harakatlarni aniqlashtirar ekan, Avgustin eng avvalo bir xil uzunlikdagi qismlardan tashkil topgan (1:1, 2:2, v.h.) sonlarga e'tibor beradi. Keyin noteng, biroq ko'payuvchi qismlardan (2:4, 6:8 v.h.) iborat sonlarni hisobga oladi. Uchinchi o'rinda turli tenglikdagi sonlar harakati (3:10, 4:11 v.h.) turadi. Avgustin insondagi va undan tashqaridagi ritmlar mosligini ana shunday o'ziga xos va murakkab yo'sinda tushuntirishga harakat qiladi.

Go'zallikning bunday aqliy tamoyillari nafaqat jism va harakatning estetik qadriyatini baholash mezoni bo'lib xizmat qiladi, balki badiiy faoliyatni ham boshqarish ibtidosidir. Har bir parranda turi o'ziga xos in quradi. Inson, go'zallik tamoyillarini o'zida mushohada qilgani holda, nafaqat hayvonotning qanday shakllarga intilishi va uni o'z instinktiv ijodida qay tarzda amalga oshirishini tushunadi, balki o'zi ham hisobsiz shakllar kashf etadi, ularni binolar qurishda, boshqa asarlarida mujassamlashtiradi. Ya'ni san'atkor san'atda, to'g'rirog'i o'z san'ati nazariyasida, sonlarni mushohada etadi. SHunday qilib, aqliy sonlar uning muskullarida mavjud bo'ladi. Ijod paytida jismida yashiringan va tashqariga chiqish imkoniga ega sonlar uning a'zolari harakatida namoyon bo'ladi. o'zaro kelishib olgan sonlardan vujudga kelgan ushbu harakatlar natijasi o'laroq badiiy asar vujudga keladi. «San'atkorlar-barcha jismoniy shakllarning ijodkorlari o'z asarlariga asos bo'ladigan san'atdagi sonlarga egadirlar, – deb yozadi Avgustin. – SHakllarni ishlar ekan, ular to sonlarning ichki ziyosiga mos tashqarida vujudga keladigan shakl zaruriy darajada poyoniga etmagunicha va oliy sonlarni mushohada etuvchi ichki hakam vositasida o'ziga yoqadigan holatni his qilmagunicha, qo'l va asboblari bilan harakatdan to'xtamaydilar»[190].

Shunday qilib, Avreliy Avgustin Aflotun hamda Yangiaflotunchilarning ilohiy go'zallik borasidagi qarashlariga suyanib, Xudo yaratgan olamiy yaxlitlik va tartibga asoslangan, ritmlar mohiyatini ochishga qaratilgan sonlar mosligi bilan belgilanadigan murakkab estetik ta'limotni yaratdi. Bu ta'limot butun o'rta asrlar estetikasining mohiyatini ochib beradigan o'ziga xos va keyingi davrlar uchun ham muhim ahamiyat kasb etgan qarashlar sifatida diqqatga sazovordir.

Uyg'onish davri. o'rta asrlar so'nggida G'arbiy Yevropada Uyg'onish davri deb atalgan madaniyat bosqichi vujudga keldi. Uning asosida nasroniylik olamiga kirib kelgan ilg'or musulmon falsafiy va ilmiy tafakkurini idrok etish yotadi. Zero o'rta asrlar musulmon Sharqi allomalari Yevropani uyg'otishdek, Yevropa xalqlari uchun o'zlari deyarli unutib yuborgan asl ildizlariga – Qadimgi yunon mutafakkirlari merosiga, erkin tafakkurga qaytishdek tarixiy imkoniyatni yaratishda muhim rol o'ynadilar.

Shunday qilib, Uyg'onish davri falsafiy va ilmiy tafakkurning, san'atning asrlar mobaynida o'z etovida saqlab kelgan cherkov siquvidan ma'lum ma'noda qutilishiga, xudoparvarlik bilan birga ayni paytda insonparvarlikning ham qaror topishiga olib keladi. Bu davrda Dante, Petrarka, Bokkachcho, Rafael, Rembrant, Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, Rable, Rotterdamlik Erazm, Servantes, SHekspir singari qator daho san'atkorlar va buyuk mutafakkirlar etishib chiqdi. Biz ulardan biri – ulug' me'mor va estetik **Leon Battista Alberti (1404 – 1472)** qarashlariga to'xtalib o'tamiz.

Alberti barcha Uyg'onish davri insonparvar mutafakkirlari kabi insonni ulug'laydi, unda hayvoniy jihatdan ilohiylik ustunligini ta'kidlaydi. Uning estetik qarashlari ana shu insonparvarlik asosiga qurilgan. Alberti iste'dodli me'mor bo'lishi barobarida go'zallik bilan birga san'at nazariyasiga alohida e'tibor beradi. Uning «Rangtasvir xususida», «Me'morlik xususida», «Haykaltaroshlik xususida» deb atalgan risolalarida estetikaning umumnazariy masalalari ham o'rtaga tashlanadi.

Alberti estetikasining markazida go'zallik muammosi turadi. U go'zallikka o'ziga xos yondashadi, bu yondashuvda garchand go'zallikka matematik mutanosiblik nuqtayi nazaridan qarash mavjud bo'lsa-da, lekin dastlabki o'rta asrlar mutafakkirlaridek (m., Avgustin) hamma narsani sonlar bilan chegaralamaydi. Uning fikriga ko'ra, go'zallikning mohiyati uyg'unlik bilan bog'liq. Me'moriy go'zallikning asosida uch unsur yotadi: sonlar, cheklanganlik, joylashtirish. Biroq go'zallik bu uch unsurdan kengroq ma'noga ega: «Boshqa yana kengroq ma'nodagi narsa borki, bu uch unsurning bir-biri bilan moslashuvidan vujudga keladi, u go'zallikning bor ko'rinishini mo'jizadek nurafshon qilib yuboradi. Biz uni uyg'unlik deb ataymiz, – deydi Alberti. – Aynan ana shu

[190] Августин А. Исповед. М., АСТ, 2003. С. 367.

narsa nafislik va go’zallikning asosidir. Zero uyg’unlikning vazifasi va maqsadi, umuman aytganda, tabiatan har xil bo’lgan qismlarni muayyan mukammal qiyoslash orqali tartibga solish, toki ular bir-biriga mos holda go’zallikni yarastinlar… Unga o’zini namoyon etishi va taraqqiy topishi uchun keng imkoniyat maydoni mavjud: u butun inson hayotini qamrab oladi, barcha narsalarning tabiatiga singib ketadi. Zero nimaniki tabiat yaratgan ekan – hammasi uyg’unlik qonuni bilan o’lchanadi»[191].

Shunday qilib, Alberti nazdida uyg’unlik nafaqat san’at qonuni, balki umuman hayot, mavjudlik qonuni. San’atdagi uyg’unlik hayotdagi universal uyg’unlikning in’ikosidir. U mukammallikning manbai va sharti, usiz hayotda ham, san’atda ham biror bir mukammallikning bo’lishi mumkin emas; u shunday qismlardan tashkil topganki, bu qismlardan birortasini olib tashlashning yoki almashtirishning mutlaqo iloji yo’q. Go’zallik ana shunday moslikni mujassam qilgan uyg’unlikdan iborat. Uyg’unlik san’at turlarida o’zini turlicha unsurlar orqali namoyon etadi: musiqada uning unsurlari – ritm, ohang, kompozistiya, haykaltaroshlikda – me’yor, chegara v. h.

Alberti «go’zallik» tushunchasini «bezak» tushunchasi bilan bog’lab talqin qiladi. Mutafakkir san’atkor bu ikki tushunchaning farqini so’z bilan ifodalash qiyinligini, uni ko’proq his etish mumkinligini aytib, shunday deydi: «… bezak go’zallikning ikkinchi ziyosiga o’xshaydi, uni go’zallikka qo’shimcha deyish mumkin… go’zallik jismga taalluqli va tug’ma, butun jism bo’yicha qanday go’zal bo’lsa, o’shanday darajada joylashgan hodisa, bezak esa tug’ma emas – qo’shimchalik tabiatiga ega»[192]. Demak, bezak go’zallikka qandaydir tashqaridan qo’shilgan, lekin go’zallikning ajralmas qismini tashkil etuvchi hodisa, ya’ni «go’zallik» va «bezak» go’zallikning ikki xil ko’rinishi: biri – botiniy, ichki; ikkinchisi – zohiriy, tashqi.

SHunday qilib, Alberti «bezak»ni go’zallikning nisbiy, tasodifiy shakli sifatida talqin qiladi va bu bilan go’zallikni tushunishda nisbiy, sub’ektiv erkinlik imkoni borligini ta’kidlaydi.

Xunuklik tushunchasi ham Alberti tomonidan o’ziga xos talqin etiladi: go’zallik san’atning mutlaq predmeti. SHunday ekan, xunuklik faqat muayyan xato tarzida namoyon bo’ladi. Demak san’atning vazifasi xunuklikni tuzatish emas, balki tasvirlash paytida xunuk va badbashara narsalarni yashirishdan, ya’ni go’zal va xunuk tomonlari mavjud narsa-hodisaning go’zal tomonini ko’rsatishdan iborat.

Alberti, birinchilardan bo’lib, san’atkor shaxsi masalasiga jiddiy e’tibor qaratadi. San’atkor har tomonlama kamolga etgan shaxs bo’lishi lozim. Keyinchalik san’atkorning bunday universal ideal darajasi to’g’risida boshqa insonparvarlar ham mulohaza yurita boshladilar. Endi, Qadimgi dunyo yo o’rta asrlardagidan farqli o’laroq, siyosiy arbob yoki faylasuf emas, balki san’atkor idealga aylandi. Zero san’atkor jamiyatda egallagan mavqe – uning aqliy va jismoniy mehnat o’rtasidagi bog’lovchi xalqa sifatidagi faoliyati shuni taqozo etardi. Har bir odam kasb, ijtimoiy holat nuqtayi nazaridan emas, balki qiziqish, ma’naviy yuksalish jihatidan san’atkorga taqlid qilishi kerak. SHu bois Uyg’onish davrida endi «Avliyolar hayoti» emas, «San’atkorlar hayoti» turkumidagi asarlar hammada qiziqish uyg’otdi va katta ahamiyatga ega bo’ldi.

Xullas, Alberti ilgari surgan estetik g’oyalar va nazariyalar o’ziga xos ekani barobarida ayni zamonda Uyg’onish davri san’ati hamda san’atkorlar dunyoqarashi, bilimi, mahorati uchun umumiy kalit vazifasini o’taydi, desak Yanglishmagan bo’lamiz.

Mumtozchilik. Uyg’onish davridan keyin vujudga kelgan barokko, mumtozchilik yo’nalishlarida ilgari surilgan estetik g’oyalar va nazariyalar asosan badiiy adabiyot (va shu asosda teatr) bilan chegaralanib qoldi. Bu yo’nalishlarda xususiy san’at turlariga doir nazariyalar ko’p hollarda umumestetik qonun-qoidalarga nisbatan ustuvorlik kasb etdi. SHunga ko’ra, bu davrlar estetik risolalarining mualliflari aksariyat shoirlar, yozuvchilar va dramaturglar bo’ldi. Ayniqsa, buni mumtozchilik yo’nalishida yaqqol ko’rish mumkin. SHu bois mumtozchilik davrini o’rta asrlar tafakkurining intihosi va Yangi davr tafakkurining ibtidosi deb aytish mumkin. Mumtozchilik davri mutafakkirlarini namunaviy vakili sifatida franstuz shoiri **Nikola Bualo (1636 – 1711)** estetik qarashlarini ko’rib o’tamiz. Ular «Horastiyning «Pizonlarga maktub» («SHe’riyat san’ati») asariga ergashib yaratilgan «SHoirlik san’ati» risolasida she’riy yo’l bilan ifodalangan.

Xullas, mumtozchilik badiiy-estetik jihatdan avvalgi davrlarga nisbatan she’riyatda balandparvozlik, dramada harakastizlik, «g’oyaviy» monologlarning o’rin olishi kabi qusurlari bilan bir qatorda, cherkov qisuviga qarama-qarshi o’laroq, aqliy ustuvorlikni, rastionallikni targ’ib qilishi tufayli estetik tafakkur tarixida o’ziga xos o’rin egallaydi.

Yevropa ma’rifatparvarlari estetikasi

Yangi davrdagi Yevropa ma’rifatparvarlari orasida shotland mutafakkiri **Deyvid** H**yum** (1711 – 1776) alohida o’rin tutadi. Uning «Didning me’yori xususida», «Fojea xususida», «Skeptik», «San’atlar borasida takomilga erishish xususida» kabi asarlarida estetik muammolar o’rtaga tashlangan. U nafosatni bilishdan tashqaridagi hissiyot olamiga taalluqli deb hisoblaydi. Hyumning fikriga ko’ra, go’zallik asosan idrok etuvchining ongida, ruhida mavjud bo’ladi, aniq ob’ektiv asosga ega emas. «Go’zallik, – deb yozadi u, – narsalarning o’zida mavjud bo’lgan sifat emas; u istisnosiz tarzda o’zini mushohada etayotgan ruhda mavjud, har bir insonning ruhi esa go’zallikni boshqacha idrok etadi. Boshqalar go’zallik degan narsani birovlar hatto xunuklik deb qabul qilishi mumkin, shuning uchun har bir idrok etuvchi o’zi his qilayotgan holatni o’zgalarga zo’rlab uqtirishga intilmasligi kerak»[193].

---

[191] История эстетической мысли в 6 т. Т. 2. М., Искусство, 1985. С. 155.
[192] O’sha manba. S. 156.
[193] Истории эстетической мысли. Т. 2. С. 285.

Go’zallikning aniq, ya’ni ob’ektdagi asosini Hyum asosan tan olmasa-da, sub’ektdan tashqarida ham go’zallik tuyg’usini uyg’otuvchi, «estetik reakstiya» qo’zg’atuvchi omillar borligini butunlay inkor etmaydi. Maqsadga muvofiqlikni u ana shunday asos-omil deb hisoblaydi. Uning nazdida go’zallik foydalilik va maqsadga muvofiqlikni idrok etish asosida vujudga keladigan kechinmadir.

Hyum «Inson tabiati xususida» asarida go’zallikni lazzat va huzur bag’ishlovchi, xunuklikni yoqimsiz taassurot uyg’otuvchi ruhiy-estetik hodisa sifatida olib qaraydi hamda ular talqiniga alohida bob bag’ishlaydi. Bu ikki xususiyatni u axloqiylik bilan bog’laydi. Chunonchi, vujudimiz go’zalligi bizda g’urur, xunukligi esa xoksorlik hissini uyg’otadi, go’zalligimizdan mag’rurlanamiz, xunukligimizdan uyalamiz, zero go’zallik ham, xunuklik ham bizning «men»imiz bilan mustahkam bog’liq. «Go’zallik, bu – qalbimizda lazzat, huzur uyg’otadigan qismlarning joylashuvi va moslashuvidir... YOqimsiz kayfiyat uyg’otadigan xususiyatga ega xunuklikdan uning farqi ana shunda. Shunday qilib, lazzat va yoqimsizlik nafaqat go’zallikning zaruriy hamrohlari hisoblanadi, balki ularning mohiyatini ham tashkil etadi. Go’zallikni xuddi hozirjavoblik kabi aniqlashtirishning iloji yo’q, biroq faqat alohida did yoki sezgi yordamida uni ajratish mumkin, shundan kelib chiqib, biz go’zallik lazzat bag’ishlaydigan shakldan boshqa narsa emas, xunuklik esa qismlarning yoqimsiz kayfiyat uyg’otadigan tarzda joylashuvidir... SHunday ekan, bu ikki sifatning barcha ta’siri ana shu sezgilarimizdan keltirib chiqarilishi lozim...»[194].

Ana shu go’zallikning faqat tasavvur qilish mumkin bo’lgan ob’ektiv asosidan Hyum estetik did me’yorini keltirib chiqaradi. Uning fikriga ko’ra, inson go’zallikning alohida ko’rinishlari va darajalarini o’zaro taqqoslash hamda shu borada mulohaza yuritishi natijasida tajribasi oshadi, o’z hissiyotini, estetik didini takomillashtirib boradi. Did borasidagi mulohazalardan u shunday xulosa chiqaradi: birinchidan, hamma odamlarda did bir xil emas, ikkinchidan, shunday shaxslar borki, ular butun insoniyat tomonidan o’zgalardan ustuvor turadigan insonlar sifatida tan olinadi. SHuningdek, didning har xilligi bir tomondan, alohida odamlar maylining o’zaro farqi bilan bog’liq bo’lsa, ikkinchi tomondan, turli zamon va mamlakatlarda odatlar hamda tafakkur yo’sinining turlichaligi didning manbai hisoblanadi.

Hyumning nazdida estetik did va uning xilma-xilligi axloqiy muhitdan kelib chiqadi. Ayni paytda san’at jamiyatning axloqiy hayotiga juda katta ijobiy ta’sir ko’rsatadi; u insonparvarlikning keng yoyilishiga, insonning hilmlashuvi va faollashuviga xizmat qiladi. Hyum san’at asarlarini falsafiy nazariyalar, diniy tizimlar bilan solishtirib san’atga ustuvorlik mavqeini beradi: mavhumiylikka asoslangan falsafiy nazariyalar va diniy tizimlar muvaqqat ekanini, hatto bir asr mobaynida birining o’rnini ikkinchisi, ikkinchisining o’rnini uchinchisi egallashini, eskirishini lekin haqiqiy san’at asarlari doimo dolzarb, Yangi bo’lib qolaverishini ta’kidlab o’tadi, badiiy bilishni hamma bilish turlaridan yuksak qo’yadi. Nafis san’at turlarini idrok etish – hayotning turli hodisalari to’g’risida mulohaza yuritish va hukm chiqarishga bo’lgan qobiliyatimizni takomillashtiradi, didimizni charxlaydi: «Hech narsa she’riyatda, suxandonlikda, musiqa va rangtasvirda go’zallikni o’rganish darajasida fe’l-atvorni takomillashtirmaydi, – deb yozadi Hyum. – Bu san’atlar hissiyotlarga muayyan nafislik bag’ishlaydi... nozik, yoqimli hayajon uyg’otadi. Ular ruhni turli tirikchilik tashvishlaridan, xudbinlarcha intilishlardan chalg’itadi, tafakkur qilishga, orom olishga yo’naltiradi, barcha ruhiy holatlardan ko’ra ko’proq muhabbat va do’stlikka moyillikni, uyg’otadigan yoqimli ma’yuslikni yuzaga keltiradi»[1].

Hyumning estetik qarashlari, ko’rib o’tganimizdek, muayyan nuqsonlariga qaramasdan, estetik did, go’zallik va san’atning inson ma’naviy olamiga beqiyos ta’sirini nazariy isbotlab berishi bilan diqqatga sazovordir. Uning asarlari shuning uchun ham A.Smit, E.Byork va G.Kant kabi mutafakkirlarning ta’limotlariga katta ta’sir ko’rsatdi.

Ma’rifatparvarlik estetikasida ingliz mutafakkiri **Edmund Byork** (1729 – 1797) qarashlari katta ahamiyatga ega. Uning «Ulug’vorlik va go’zallik to’g’risidagi g’oyalarimizning falsafiy tadqiqi» asarida estetikaning asosiy umumnazariy masalalari o’rtaga tashlanadi. Byork nimaiki, qandaydir darajada dahshatli bo’lsa yoki dahshat uyg’osta, o’sha narsa-hodisa ulug’vorlikning asosiy, manbai hisoblanadi, deya ta’kidlaydi. Boshqa hissiyotlarni esa aloqaga nisbat beradi. Aloqaning asosida muhabbat yotadi. Tor ma’noda u – inson zotini davom ettirishga qaratilgan jinsiy aloqa, keng ma’noda butun borliq bilan aloqa. SHunday qilib, Byorkning fikriga ko’ra, insonda ikki xil asosiy intilish bor: o’zini asrashga va aloqaga intilish. SHunga ko’ra, birinchisi – ulug’vorlikning, ikkinchisi esa – go’zallikning manbai hisoblanadi.

Buyuk franstuz faylasufi, estetik va adib **Deni Didro** (1813 –1884) Yevropaning eng taniqli ma’rifatparvarlaridan biri hisoblanadi. Didro estetik qarashlarining g’oyatda o’ziga xosligi shu bilan belgilanadiki, uning merosida falsafiy masalalar va badiiy amaliyot orasida keskin farq sezilmaydi. Uning ba’zi badiiy asarlari falsafiy risolaga, ayrim falsafiy asarlari va estetik risolalari esa badiiy asarga o’xshatib yozilganini ko’ramiz, xususan, chuqur falsafiy-nazariy fikrlarini u badiiy dialoglar shaklida ifodalaydi. U san’atga umumfalsafiy-nazariy jihatdan yondashar ekan, ayni paytda o’z davridagi ijodkorlar amaliyotiga suyanib ish ko’radi: uni qarashlari alohida, sof nazariya emas, balki san’at taraqqiyotining dolzarb masalalari bilan bog’liq nazariy fikrlardir.

Didro go’zallikni alohida bir narsa yoki o’z-o’zini tashkil etuvchi hodisa sifatida olib qaramaydi. Uning uchun go’zallik munosabat bilan bog’liq. «Go’zallikning vujudga kelishi va tabiati to’g’risida falsafiy tadqiqlar» risolasida: «SHunday qilib, men, – deb yozadi mutafakkir, – aqlimda munosabatlar g’oyasini uyg’otadigan qobiliyatni o’zida mujassam qilgan mendan tashqaridagi hamma narsani deb atayman»[1]. Bu bilan Didro mutlaq go’zallikning yo’qligini, u doimo nisbiy ekanini, kimgadir go’zal ko’ringan narsa boshqa odamga go’zallik bo’lib

---

[194] Юм. Д. Трактат о человеческой природе. Минск, Попурри, 1988. С. 350-351.

[1] История эстетической мысли. Т.2. С.289.

[1] Дидро Д. Эстетика и литературная критика. М.. ИХЛ, 1980. С. 117.

tuyulmasligi mumkinligini ta’kidlamoqchi. «SHundan kelib chiqib, – deb davom etadi u, – *mutlaq go’zal* narsaning o’zi yo’q esa-da, lekin bizga nisbatan olganda ikki xil go’zallik mavjud: *real go’zallik* va *bizning idrokimizdagi go’zallik*»[2].

Didro, falsafada haqiqat qanday ahamiyatga ega bo’lsa, go’zallik san’atda xuddi shunday muhimligini ta’kidlar ekan, bir san’at turidagi go’zallik ikkinchi san’at turi uchun, bir hodisadagi go’zallik ikkinchi hodisa uchun mohiyatan bir xil esa-da, bizning narsa-hodisaga bo’lgan munosabatimiz tufayli ularni har xil nom bilan atashmiz mumkin deydi: axloqdagi go’zallik – axloqiy, musiqadagi go’zallik – musiqiy, tabiatdagi go’zallik – tabiiy v.h. San’atdagi go’zallikning asosida badiiy haqiqat yotadi; mazmun haqqoniyligi va badiiy soddalik – mana san’atdagi go’zallikning asosiy sifatlari. «Go’zallik ezgulik va haqiqat, – deb yozadi Didro «Rangtasvir borasidagi tajriba» risolasida, – qo’lni-qo’lga berib bir yo’ldan borishadi. Dastlabki ikki sifatdan biri qandaydir kamdan-kam uchraydigan yoki qanaqadir fojeaviy holatga tushishi bilanoq – haqiqat go’zallikka aylanadi. Agar uch jismli kompozistiyani qog’oz yuzidagi uch nuqtani joylashtirish bilan hal qilsangiz, u holda bu – nochor haqiqat, aqldagi jonsiz haqiqat. Bordiyu, shu uch jismdan biri – bizni kunduzi nurafshon etadigan quyosh, ikkinchisi – tunda yog’du sochadigan oy, uchinchisi – o’zimiz yashayotgan Er kurrasi deb tasavvur qilinsa, shu zahotiyoq bu haqiqat ulug’vor va go’zal haqiqatga aylanadi»[1].

Didroning mazkur fikrlari, ko’rinib turibdiki, nafaqat haqiqat, ezgulik va go’zallikning o’zaro aloqalariga taalluqli, balki ularda badiiy tafakkurning ilmiy yoki odatiy jo’n tafakkurdan farqini, bu farqda namoyon bo’ladigan tasavvurning roli beqiyos ekanini anglatadi.

Did masalasi ham Didro estetikasida muhim o’rin tutadi. U, Hyumdan farqli o’laroq, estetik did faqat yaxshi yoki maxsus badiiy tarbiya ko’rgan odamlardagina mavjud bo’ladi, degan fikrni rad etadi, didning demokratik xususiyatini ta’kidlaydi. Ayni paytda go’zallik hissining tug’ilishi borasidagi Didroning fikrlari ham did bilan bog’liq, u Yevropa estetikasi tarixida Kantdan ancha avval go’zallikning «tahlilsiz» (tushunchalarsiz), to’g’ridan-to’g’ri, did yordamida idrok etilishini aytib o’tadi. «Go’zallik hissi, – uzoq davom etgan kuzatishlar mevasi. Biroq biz bu kuzatishlarni qachon amalga oshiramiz? – deb so’raydi va unga o’zi javob beradi. – Har soatda, har daqiqada. Aynan ana shu kuzatishlar bizni tahlil qilish zaruratidan ozod qiladi. Did, o’z hukmining sabablarini hali anglab etmasdanoq, darhol hukm chiqaradi; ba’zan esa bu sabablarni u samarasiz qidiradi va ularni topolmasa ham, baribir, o’z aytganidan qolmaydi... Did, yaxshi did dunyo kabi, odam kabi va fazilat kabi qadimiydir; asrlar uni faqat takomillashtirib boradi, xolos»[1].

Didroning san’at turlariga doir qarashlari ularning real hayotda tutgan o’rnidan kelib chiqadi. Mutafakkir san’atning barcha o’ziga xosliklari bilan bir qatorda, uning ijtimoiy tabiatiga ega ekanini qayta-qayta ta’kidlaydi; adabiyot, teatr, umuman san’at millat tarbiyasida nihoyatda katta rol o’ynaydi. San’at insoniyat taraqqiyotiga xizmat qilishi, xalqning ruhini ko’tarishi kerak. San’atkor fazilatni – yoqimli, illatni – jirkanch, kulgili narsani kulgili qilib tasvirlashi lozim. Haqiqat, ezgulik va go’zallikning kelib chiqishi tajribaviylik bilan bog’liq. SHu bois xurofotga qarama-qarshi o’laroq, axloq, san’at, fan tabiatni, shu jumladan, o’z tabiatimizni biz qay darajada bilishimizga qarab ravnaq topadi. Toki inson uchun oliy qiziqish insonning o’zi ekan, san’at axloqiylikka, insoniyat jamiyatining ravnaqiga xizmat qilishi, ezgulik tantanasi uchun kurashishi kerak.

Demak, san’at har ikki tabiatga taqlidan rivojlanishi lozim, har bir san’at turining taqlid vositasi bor: she’riyat – so’z, rassomlik – rang, musiqa – ohang bilan taqlid qiladi v.h. Ayniqsa «katta» tabiatda taqlid ob’ektlari san’atkor ko’ziga yaqqol tashlanadi: har bir tabiat yaratgan narsaning o’z tabiati, xarakteri bor. «Jonsiz narsalarda xarakter bo’lmaydi deyish to’g’ri emas. Metall va toshlar o’z xarakteriga ega. Kim oramizda o’rmondagi tolning egiluvchanligini, terakning adlligini, qarag’ayning to’g’riligi, emanning ulug’vorligini ko’nglidan o’tkazmagan? Gullar ichida esa atirgulning nozini, g’unchaning uyatchanligini, liliyaning (piyozgulning) mag’rurligini, binafshaning kamtarligini, qizg’aldoqning beparvo nazokatini kim sezmagan?»[1].

SHuningdek, Didroning nazdida san’at turlari inson tabiatiga, jamiyat tabiatiga o’xshaydi. «Spektakl, – deb yozadi Didro «Aktyor haqida antiqa gaplar» degan mashhur asarida, – har bir a’zosi barcha uchun va butunisicha jamiyat uchun o’z haq-huquqlarini qurbon qiladigan, yaxshi tashkil etilgan jamiyatga o’xshaydi. Kim bu fidoyilik mezonini hammadan yaxshi baholay oladi?.. Jamiyatda, bu – adolatli inson, sahnada – sovuq aql bilan ish ko’radigan aktyor. Sizning ko’chadagi tomoshangiz sahnasi dramatik sahnaga xuddi yovvoyilar o’rdasi stivilizastiyalashgan jamiyatga qaragandek munosabatda bo’ladi»[2].

Didro «sovuq aql bilan ish ko’rish» deganda, ortiqcha yonib-jo’shishlarga, balandparvoz tuyg’ularga berilishni nazarda tutadi. Uning nazdida hissiyotini jilovlay bilmagan aktyor bir xil darajada rol o’ynay olmaydi. Uning muvaffaqiyati ham, nuqsoni ham bir xildagi tasodifiylik tabiatiga ega. SHu bois Didro aktyordan o’z roli va yaratayotgan badiiy qiyofasining umumiy ma’nosidan kelib chiqqan holda, oqilonalik bilan o’zini boshqarishni talab qiladi. Estetik idrok etishda ham u asarga hissiyotdan kelib chiqib baho berishni tavsiya etmaydi. Zero aql ko’pincha

---

[2] O’sha manba. S. 117.

[1] Дидро Д. Салоны в двух томах. Т. 1. М., Искусство, 1989. С. 240.

[1] Дидро Д. Салоны. Т.2. С. 326.

hissiyot sezmasdan qoldirib ketgan yoki ortiqcha ko'pirtirib yuborilgan narsalarni topadi va hissiyotning xatosini tuzatadi.

Buyuk franstuz mutafakkiri va uning estetik ta'limoti to'g'risida yana ko'plab mulohazalar bildirish mumkin. Lekin imkon nuqtayi nazaridan xulosa yasaymiz: Didro o'z davri ma'rifatparvarlarining izlanishlarini umumlashtira olgan va san'atga Yangicha qarashni ilgari surgan buyuk alloma. Uning aksariyat asarlari o'z ahamiyatini hozir ham yo'qotgan emas.

Umuman olganda, Yevropa ma'rifatparvarlari insonni san'at, axloqiylik, ilm-fan vositasida tarbiyalashga intildilar. SHu bois axloqiy-estetik omillarga katta e'tibor berdilar, ular orqali Yangi, zamonaviy komil insonni va komil jamiyatni yaratish mumkin degan g'oyani o'rtaga tashladilar. Ma'rifatparvarlar Uyg'onish davri mutafakkirlarining ishini davom ettirdilar va uni Yangi bosqichga ko'tardilar.

Olmon mumtoz estetikasi

Biz yuqorida ko'rib o'tgan ma'rifatparvarlar va o'sha davrdagi boshqa nafosatshunoslar nafosatshunoslikning umumnazariy masalalari, estetik idrok eti shva san'at falsafasi borasida Yevropa estetik tafakkuriga ozmi-ko'pmi nazariy Yangiliklar kiritdilar. Olmon mumtoz estetikasi ana shunday xazinadan foydalanish natijasida o'zlari ham tengsiz tafakkur durdonalari yaratib, uni mislsiz boyitdilar.

Olmon mumtoz estetikasi ibtidosida buyuk faylasuf **Immanuil Kant** (1724-1804) turadi. U «Go'zallik va ulug'vorlik tuyg'ulari ustidan kuzatishlar» (1764), «Sof aqlning tanqidi» (1781), «Amaliy aqlning tanqidi» (1788), «Muhokama qobiliyatining tanqidi» (1796) asarlarida estetika muammolariga maxsus to'xtaladi.

Kantning fikriga ko'ra, estetik hissiyot manfaastiz, beg'araz va narsa-hodisaga bevosita maftunlikka borib taqaladi. Maftunlikning, muhabbatning ob'ekti esa shakldan boshqa narsa emas. Xullas, go'zallik manfaastiz maftunlikning, muhabbatning ob'ekti. Bu – go'zallikning birinchi belgisi. Ikkinchi belgisi esa shundaki, u tushunchalar yordamisiz, ya'ni, aql kategoriyasiz, bizga umumiy maftunlikning narsa-hodisasi sifatida namoyon bo'ladi; estetik muhokama hech qachon mantiiq qonun-qoidalariga asoslanishi mumkin emas. Go'zallikning uchinchi belgisi shundaki, u maqsadga muvofiqlik shakliga egaligi, ya'ni qandaydir aniq maqsad haqida tasavvur hosil qilmasdan turib, narsa-hodisadagi maqsadga muvofiqlikni idrok etish mumkinligi bilan ajralib turadi. Demak, go'zallik – narsa-hodisaning maqsadga muvofiqlik shakli, zero u maqsad haqida tasavvurga ega bo'lmasdan turib, idrok etiladi. To'rtinchi belgi shundaki, go'zallik bizga tushunchasiz, zaruriy maftunlikning ob'ekti, narsa-hodisasi sifatida yoqimlidir. SHunday qilib, go'zallik hammaga hech qanday manfaastiz, shundayligicha, o'zining sof shakli bilan yoqishi zarur bo'lmagan narsa-hodisadir: «Nimaiki hammaga tushunchalar yordamisiz yoqimli bo'lsa, o'sha – go'zaldir»[1].

Go'zallik bilan bir qatorda Kant ulug'vorlikni ham diqqat bilan tadqiq etadi. Uning fikriga ko'ra, go'zallikdan olinadigan lazzat-sifat, ulug'vorlikdan olinadigan lazzat-miqdorning namoyon bo'lishi bilan bog'liq. Ulug'vorlikni mutafakkir ikkiga ajratadi: matematik va dinamik ulug'vorlik. Matematik ulug'vorlik ekstensiv miqdorni – makon va zamondagi ko'lamli miqdorni, ikkinchisi kuch va qudrat miqdorini o'z ichiga oladi. Birinchi xil ulug'vorlikka yulduzli osmonni, okeanni, ikkinchisiga – yong'in, suv toshqini, dovul, zilzila, momaqaldiroqni misol qilib keltirish mumkin. Har ikkala holatda ham ulug'vorlik bizning hissiy tasavvurimizdan ustun keladi, uni uzib qo'yadi. Keyin ezilganlik hissi faoliyatimizning jonlanishi bilan almashinadi, Chunki bunda bizning faqat hissiyotimiz tang qoladi, ma'naviy jihatimiz, aksincha, yuksaladi. Aql hissiyot olamidagi barcha ulug'liklardan-da yuksak bo'lgan ulug'likni fikrlay bilishga qodir. Chunki biz o'zimizni hissiyotli mavjudot sifatida buyuk va qudratli sezamiz. Haqiqiy ulug'vorlik – bu aql, insonning axloqiy tabiati, hissiy anglash chegarasidan narigi tomondagi nimagadir intilishi. SHu bois Kant, haqiqiy ulug'vorlikni muhokama qilayotgan kishining qalbidan qidirish kerak, deydi. «Nimaiki, u haqda fikrlashning o'ziyoq qalb qobiliyati har qanday miqyosdagi tashqi hissiyotlardan miqyosliroq ekanini isbotlashi, o'sha – ulug'vorlikdir»[2].

Kant san'atni hunardan ajratib qaraydi: birinchisi – erkin, keyingisi pul topishga qaratilgan, yollangan san'at. Nimaiki tushunchaga asoslangan bo'lsa, uni o'rganish mumkin, lekin ilhomni o'qib, o'rganib bo'lmaydi, deydi faylasuf. Kant did muhokamasining umumiyligi va zarurliygini ta'kidlaydi; buni u barcha uchun umumiy bo'lgan hissiyotlarning mavjudligi bilan asoslaydi: Hyumning «Did haqida bahslashish mumkin emas», degan shiori o'rniga «Did haqida bahslashish mumkin va bahslashish mumkin emas» degan shiorni o'rtaga tashlaydi. Kant buni estetik g'oya tushunchasi bilan bog'laydi; did muhokamasi asosida yotgan tushuncha noaniq, u har bir mushohada zamiridagi nazariy jihatdan aniq ta'riflab bo'lmaydigan alo tuyg'u haqidagi aqlning transstendental (ong va bilish chegarasi ortidagi) tushunchasidir. Yoki boshqacha qilib aytganda: «Estetik g'oyani tasavvurning tushuntirib bo'lmaydigan namoyon bo'lishidir»[1].

Kantning estetik nazariyalari ba'zi bir «sub'ektivlik» jihatlariga qaramay, keyingi davrlar Yevropa va jahon nafosatshunosligi taraqqiyoti uchun eskirmaydigan ahamiyatga ega bo'ldi. Shu jihatdan Fixte, Gyote, SHelling, Gegel, Shopengauer va boshqa ko'pgina buyuk nafosatshunoslarni muayyan ma'noda «Kantdan o'sib chiqqan» deyish mumkin.

Bu davrning eng zabardast va o'ziga xos nafosatshunoslaridan biri buyuk olmon shoiri va dramaturgi **Fridrix Shillerdir** (1759 – 1805).

---

[1] Кант И. Сочинения в 6 т. Т. 5 М., Мысл, 1966. С. 222.

[2] O'sha manba. S. 257.

[1] O'sha manba. S. 363.

Shiller jamiyatni o'zgartirishni istaydi, lekin u inqilobiy o'zgarishlarga qarshi. SHillerning nazdida inqilob, avvalo, axloqsizlik, u asrlar mobaynida qaror topgan axloqiy tamoyillarni ag'dar-to'ntar qilib tashlaydi; qolaversa, u nafosatga qarshi – inson tabiati uyg'unligini buzadi, narsa mavjudligi tabiiy tartibining muqaddasligini va go'zalligini parchalab yuboradi. SHu bois jamiyatni qayta qurishdan avval insonni qayta qurmoq lozim. Buni esa shaxsning uyg'un rivojlanishini go'zallik vositasidagi tarbiya orqali amalga oshirish mumkin. SHiller uchun go'zallik – hodisaga aylangan erkinlik.

«Din bilan davlat, qonun bilan axloq bir-biridan yiroqlashgan, lazzat mehnatdan, maqsadga etishish vositasi maqsaddan, g'ayrat mukofotdan uzilib qolgan hozirgi paytda, – deb yozadi SHiller «Insonning estetik tarbiyasi xususida maktublar» asarida, – ulkan yaxlitlikning kichik bo'lagiga abadiy bog'langan insonning o'zi ham bo'lak shaklga kirib bormoqda; o'zi harakatga keltirayotgan g'ildirakning abadiyan bir xildagi shovqini ostida u endi tirikligining har tomonlama uyg'unligini ta'minlay olmaydi, u endi tabiatining insoniyligini ifodalash o'rniga o'z kasbi yoki ilmining surati bo'lib qoladi... hayotbaxsh zehnning o'rnini o'lik harfxo'rlikegallaydi, sovuqqon xotira inson uchun daho va hissiyotdan ko'ra yaxshiroq rahbarga aylanadi[195].

Foyda buyuk ma'buda maqomini bajarayotgan bu davrning qo'pol tarozusida san'atning ma'naviyatdagi xizmatlari tosh bosmaydi, natijada taqdirlanishdan mahrum bo'lgan san'at sershovqin asr bozoridanchetda yitib ketadi.

Xo'sh, bozor iqtisodiyoti sharoitidagi pulga sig'inishdan, insonni o'z kasbining murvatiga, parchasiga aylanib qolishidan halos etish uchun, unga qadimgi yunonlar davridagi uyg'unlikni qaytarish uchun nima qilmoq kerak? SHiller, yuqorida aytganimizdek, inqilobiy yo'lni qat'iy inkor etgan holda, «estetik tarbiya» tushunchasini kiritadi; erkinlikka yo'l faqat go'zallik orqali o'tadi, degan fikrni ilgari suradi.SHiller shakl va mazmun masalasini o'ziga xos talqin etadi. Hissiy go'zallik ma'naviylikka, ma'naviylik esa – moddiylikka olib boradi. Go'zallik zo'riqqan insonda uyg'unlikni tiklaydi, bo'shashgan odamda esa faollik uyg'otadi. SHakl insonga butinisicha, mazmun uning muayyan qismigagina ta'sir o'tkazadi. Go'zallik insonning oqillashuvi yo'lidagi zaruriy shartdir. Faoliyatning barcha boshqa turlari insonning alohida-alohida kuchlarini rivojlantiradi, faqatgina go'zallik uni bir butun yaxlitlik sifatida shakllantiradi.

«Insonning estetik tarbiyasi to'g'risida maktublar»ida SHiller, yuqoridagi fikridan tashqari, san'atning o'ziga xosligi masalasiga ham alohida to'xtaladi. SHu munosabat bilan u «o'yin»va «estetik ko'rinish» tushunchalarini qo'llaydi. Bu ikkisini SHiller san'atning belgilari deb ataydi. Yovvoyilikdan qutilgan har bir xalq ko'rinishdan zavq olishga, bezakka va o'yinga moyil bo'ladi. o'yin, majburiyatdan kelib chiqadigan, manfaatli va bir tomonlamalikka ega faoliyatdan farqli o'laroq, erkindir. o'yinda insondagi barcha kuchlar mutanosib tarzda kelishib harakat qiladi. Inson, faqat tom ma'noda inson bo'lgandagina o'ynaydi va o'ynagan paytidagina to'liq insonga aylanadi. San'at o'yinli faoliyat sifatida quvonchli. o'yinning mahsuli – ko'rinish. «Narsalarning realligi ularning ishi, narsalarning ko'rinishi – insonning ishi, – deydi, SHiller»[1]. Uning fikriga ko'ra, san'at voqelikdan butunlay ajralib, sof ideallik darajasiga etgandagina haqiqatga erishadi. Tabiat – hissiy idrok etilmaydigan ruhning g'oyasi. U hodisa ostida yotadi, biroq o'zi hech qachon hodisada namoyon bo'lmaydi. Faqat ideal san'atigina bu haqiqat ruhiga etishadi va uni seziladigan shakl bilan ta'minlaydi.

Olmon mumtoz faylasuflari orasida **Fridrix Vilgelm Yozef Shellingning** (1175 – 1854) estetik qarashlari ham diqqatga sazovor. Uning «San'at falsafasi», «Resi», «Tasviriy san'atning tabiatga munosabati» singari asarlarida estetika muammolari ko'tarilgan.

Shellingning fikriga ko'ra, san'at asarining o'ziga xos belgisi «onglanmaganlikning cheksizligi» hisoblanadi. San'atkor o'z tabiatidangina kelib chiqib ijod etar ekan, badiiy asar u aytishni hoxlagandan ortiq narsani o'z ichiga oladi. Zero san'atkor o'z asariga asar g'oyasiga kirmaydigan, yana «qandaydir cheksizlikni» ixtiyorsiz ravishda singdiradi. Bu cheksizlikni «cheklangan aql» qamrab ololmaydi. Ana shu onglanmaganlikning cheksizligidan SHelling go'zallik tushunchasini keltirib chiqaradi: go'zallik cheksizlikning cheklanganlikdagi ifodasi. Go'zallik san'atning asosiy xususiyati. Go'zalliksiz san'atning mavjud bo'lishi mumkin emas. San'atkor a'lo hissiy go'zallik g'oyasini anglashni shu g'oyani sezilarli qiluvchi narsa bilan biriktiradi. Dahoning vazifasi olam uyg'unligida Xudodagi oliy go'zallikni ko'ra bilishdir.

San'at taraqqiyotini SHelling asta-sekinlik bilan uning jismiylikdan qutilib borishida ko'radi. Chunonchi, yunon haykaltaroshligida ruhiy jihat jismda o'z ifodasini topgan. Haykallar ilohiy mavjudotlar tushunchasini beradi va shuning barobarida san'atning maqsadini belgilovchi qadimgi yunon mifologiyasida asoslagan. Yangi davrda ana shu vazifani nasroniylik bajaradi. Rangtasvir, nojismiy narsalardan, qay darajadadir ruhiy bo'lgan bo'yoq va jilodan foydalanar ekan, tobora Yangi davr san'atiga aylanib borada, rassom uchun eng muhimi-ma'naviy go'zallikni aks ettirish. SHunday qilib, SHelling nazdida san'at taraqqiyotining barcha jarayonlari hissiylikdan ma'naviylikka o'tish harakatidan, ruhning moddiyat ustidan g'alaba qozonib borishidan iborat.

Shelling san'atni ikki qatorga – real va idealga ajratadi. Real qator –musiqa, me'morlik, rangtasvir, haykaltaroshlikni; ideal qator esa – adabiyotni o'z ichiga oladi. Alohida san'at turlari tavsifini u musiqadan boshlaydi. Rangtasvir qiyofalarni in'ikos ettiruvchi ilk shakl. U alohidalik va xususiylikni umumiylikda aks ettiradi. Musiqa va rangtasvirni omuxtalashtiruvchi san'at turlari – me'morlik va haykaltaroshlik; me'morlik – qotib qolgan musiqa. Plastik san'at turlari ichida haykaltaroshlik eng muhim o'rinni egallaydi, zero uning predmeti olamning anglab etilgan ramzi bo'lmish insoniy vujuddir. So'z san'ati – oliy qatordagi ideal san'at. SHu bois SHelling

[195] Шиллер Ф. Собрание сочинений в 7 т. т.6. М., ГИКЛ, 1957. С. 265-266.

she’riyatni umuman san’atning mohiyatini ifodalovchi san’at turi tarzida qabul qiladi. Lirikada cheksizlik cheklanganlikda, eposda cheklanganlik cheksizlikda yuzaga chiqadi. Drama esa cheklanganlik va cheksizlikning, reallik va ideallikning sintezi. Romanga SHelling Yangi davr eposi, epos bilan dramaning sintezi sifatida qaraydi. Fojea borasida ham SHelling teran fikrlaydi. Fojeiy ziddiyatni u erkinlik va zaruriyat nuqtayi nazaridan olib qaraydi; erkinlik – sub’ektda, zaruriyat ob’ektda beriladi. Tarixiy zaruriyatning qahramondagi sub’ektiv intilishlar bilan to’qnashuvi fojeiy qarama-qarshilikning (kolliziyaning) asosini tashkil etadi. «SHunday qilib, – deb yozadi SHelling, – fojeaning (tragediyaning) mohiyati sub’ektdagi erkinlik bilan ob’ektiv zaruriyat o’rtasidagi haqiqiy kurashdan iborat. Kulgida (komediyada) esa buning aksi; zaruriyat – sub’ektda, erkinlik – ob’ektda mujassam bo’ladi»[1].

Umuman olganda, SHelling ilgari surgan ko’pgina g’oyalar keyinchalik Yevropa estetikasida dasturilamal qilib olindi, Yangi-Yangi nazariyalarning ibtidosiga aylandi.

Olmon mumtoz estetikasida eng e’tiborli o’rinlardan birini **Georg Vilgelm Fridrix** Gegel **(1770-1831)** egallaydi. Estetika borasida uning «Estetika» deb nomlangan ko’p jildlik ma’ruzalari mashhur. Gegel o’z falsafiy tizimini mutlaq g’oya asosiga quradi; uning uchun barcha mavjudlikning asosida qandaydir qiyofasiz, nosub’ektiv ruhiy ibtido yotadi – ana o’sha mutlaq g’oya. Mutlaq g’oya tabiat, ijtimoiy hayot va uning barcha ko’rinishlari mohiyatini tashkil etadi. Estetika ham muayyan taraqqiyot bosqichidagi g’oyaning o’zi. Mutlaq g’oya to tabiatga kirib borguniga qadar sof mantiqiy shaklda rivojlanadi. So’ng u o’zini tabiat sari begonalashtiradi, keyin yana o’ziga, ruhiy olamiga qaytadi. Biroq, bu qaytish shu lahzagacha bo’lgan barcha taraqqiyot hodisalari bilan boyish vositasida ro’y beradi. Taraqqiyotning ana shu uchinchi bosqichida mutlaq g’oya zaruriy muayyanlikka ega bo’ladi. Muayyanlashtirish shaklini g’oya sub’ektiv, ob’ektiv va nihoyat mutlaq ruh qiyofasida qo’lga kiritadi. Muayyan ruhning bu uch shakli nafaqat inson ongini, balki turli insoniy faoliyatlar hamda insoniy aloqalar va munosabatlar mohiyatini ham tashkil etadi. G’oya taraqqiyotining oliy bosqichi mutlaq ruh hisoblanadi. Mutlaq ruh – o’zi uchun o’zini predmet qilib, o’zi uchun o’z mohiyatini ifodalashdan boshqa hech qanday maqsadga ham, faoliyatga ham ega bo’lmagan erkin, haqiqiy, cheksiz ruh. U tashqi va hissiy mushohadada tasavvurga, tasavvurdan tushunchalar asosidagi tafakkurga qarab rivojlanib boradi.

Gegelning fikriga ko’ra, o’zini to’liq erkinlikda mushohada qiluvchi ruh – san’at; o’zini ixlos sifatida namoyon qiluvchi ruh – din; o’z mohiyatini tushunchalar orqali fikrlab, uni biluvchi ruh – falsafa. San’at, din va falsafaning mazmuni shunday qilib, bitta, farq faqat o’sha mazmunni ochish va anglab etishda. G’oyaning o’z-o’zini ochishning birinchi va eng nomukammal shakli, estetik bilish yoxud san’at. Uning maqsadi mutlaq ruhning hissiy tasvirini berish. San’at, axloq, davlat tuzumi, boshqarish shakli v.h. hammasi bitta umumiy ildizga borib taqaladi. Uni Gegel zamon ruhi deb ataydi.

Gegel g’oya va shakliy tuzilish munosabatlarinig uch xilini keltiradi. Dastlabki bosqichda g’oya mavhum va bir yoqlama shaklda namoyon bo’ladi. Bu san’atning ramziy shakli. Uni qadimgi Sharq xalqlari san’atida ko’rish mumkin. U sirliligi, balandparvozligi, majoziyligi va ramziyligi bilan ajralib turadi. Rivojlanmay qolgan mavhum mazmun bu erda o’ziga mos shakl topolmaydi. Ramziy shaklni mumtoz san’at shakli almashtiradi. Bu shaklda g’oya yoki mazmun etarli muayyanlikka ega bo’ladi. Mazmun uchun o’ziga mos shakl, qiyofa topiladi. Bu inson qiyofasidir. Agar ramziy san’at shakli Sharqona mustabidlikdan kelib chiqqan bo’lsa, mumtoz san’at shakli insonparvarlik va demokratik tabiatga ega. Mumtoz shakldan so’ng san’atning romantik (sururiy) shakli kechadi. Bu san’at shaklida yana g’oya va uning tashqi qiyofasidagi tugallangan birlik yo’qoladi va u orqaga qaytadi, lekin bu qaytish yuksalish darajasida ro’y beradi. Romantik san’at mazmuni – erkin muayyan ma’naviylik shunday ruhiy taraqqiyotga etadiki, unda qalb olami go’yo tashqi olam ustidan g’alaba qozonadi va o’z ma’naviy boyligi uchun teng keladigan hissiy qiyofa topa olmaydi. Ana shu bosqichda ruhning hissiy qobig’idan qutulish va o’zini anglashning boshqa Yangi shakllariga – dinga, undan keyin esa falsafaga o’tishi ro’y beradi. San’atning bunday o’z chegarasidan chiqib ketishi uning yo’qolishini emas, balki predmetning, mazmunining o’zgarishini bildiradi. U avvaldan mavjud bo’lgan tarixiy materialdan, an’anaviy-mifologik mavzu va syujetlardan qutiladi. Uning doirasi endi insonning ichki hayoti – quvonchu qayg’usi, intilishlari, qilmishlari va taqdirini o’z ichiga etadi. SHunday qilib, san’at xususiy hayotni aks ettiradigan erkin san’atga aylanadi[1].

Gegelning fikriga ko’ra, san’atning ibtidosi – me’morlik; u ramziy shakl sirasiga kiradi, zero unda his etiluvchi material g’oyadan ustun turadi, shakl va mazmun muvofiqligi yo’q. Bunda me’mor foydalanadigan noorganik material ma’naviy mazmun uchun bir shior, xolos. San’atning nisbatan yuksak turi sifatidagi haykaltaroshlikda, inson vujudidagi erkin ma’naviylik o’z aksini topadi. Bunda g’oya ruhga munosib ifoda bilan singishib ketadi, his etiluvchi qiyofa va g’oyaning to’liq uyg’unligi kuzatiladi. Haykaltaroshlik san’atning mumtoz shakli bo’lib, unga nisbatan yaqin san’at shakli – rangtasvir. Uning vositasi moddiy substrat (tosh, yog’och va h. k.) emas, balki rangin yuza, jiloning jonli tovlanishi. Rangtasvir moddiy jismning his etiladigan makondagi to’laligidan qutiladi, zero u birgina yassilik bilan o’lchanadi. Makondan to’liq qutilish musiqada ro’y beradi. Uning materiali tovush, tovushli jismning tebranishi. Material bu erda makoniy emas, zamoniy ideallik tarzida namoyon bo’ladi. Musiqa hissiy mushohada chegarasidan chiqib, faqatgina ichki kechinmalar doirasini qamrab oladi.

Nihoyat so’nggi, romantik san’at – she’riyat yoki so’z san’atida tovush o’z holicha hech qanday ma’no anglatmaydigan belgi sifatida yuzaga chiqadi. Poetik tasvirning asosiy unsuri shoirona tasavvur. SHe’riyat (adabiyot) hamma narsani tasvirga oladi. Uning materiali jo’ngina belgi emas, ma’no sifatidagi, tasavvur sifatidagi

---

[1] Шеллинг Ф. Философия искусства. М., Мысл, 1966. С. 400.

[1] Qarang: Гегел Г. Эстетика в 4 т. Т. 2. М., Искусство, 1969. С. 314.

tovush. Biroq material bunda erkin, o'z holicha emas, balki ritmik musiqiy qonunlarga binoan shakllanadi. SHe'riyatda go'yo san'atning hamma turlari bir-bir takrorlangandek; epos sifatida u tasviriy san'atga mos – xalqlar tarixini boy, badiiy qiyofali, majoziy va rangtasvirdagidek manzaralar bilan bafurja hikoya qiladi; u lirika sifatida – musiqa, qalb holatini aks ettiradi; nihoyat u dramatik she'riyat sifatida mazkur ikki san'atning birligi, zero u harakatdagi, ziddiyatli manfaatlar, insoniy xarakterlar orasidagi kurashni ko'rsatadi. Umuman, estetik faoliyat Gegel tomonidan erkinlikka olib boradigan yo'l sifatida talqin etiladi. SHuningdek, Gegel estetikaning asosiy mezoniy tushunchalari, estetik ideal va boshqa muammolar borasida ham teran fikrlar bayon etadi.

Umuman, olmon mumtoz estetikasi insoniyat tafakkuridagi muhim taraqqiyot bosqichi sifatida katta ahamiyatga ega. Olmon mumtoz estetikasida rastionallik o'zining yuksak cho'qqisiga ko'tarildi, lekin u bilan yonma-yon norastional yo'nalishning dastlabki yirik namoyandalaridan buyuk olmon faylasufi **Artur SHopenhauer (1788-1860)** ham ijod qildi.

SHopenhauerning estetik qarashlari asosan «Olam ixtiyor va tasavvur sifatida» deb nomlangan yirik asarida bayon etilgan. Faylasuf san'at bilan fanni bir-biriga solishtirar ekan, san'atni narsalarni asoslanish qonunidan mustaqil tarzda «mushohada qilish turi» deb ataydi. Estetik mushohada ob'ekti alohida narsa emas, balki asoslanish qonuni harakati ostidan olingan g'oya, aflotuncha ma'nodagi g'oya. Uni aql bilan emas, fahm-savqi tabiiy (intuistiya) yordamida payqash mumkin. San'atning fandan ustunligi ham ana shunda. SHu ma'noda SHopenhauer «g'oya»ni «tushuncha»ga qarshi qo'yadi. Tushuncha fanga zarur, san'at uchun esa befoyda. San'atning maqsadi – g'oyani in'ikos ettirish. San'at turlarining farqi esa ulardagi ifoda materiali bilan belgilanadi. San'atning mohiyati shundaki, unda bir hodisa minglab hodisa uchun javobgar, u muhim voqea-hodisani olib, nomuhimini tashlab yuboradi. Qiyofa – mushohadali g'oya, u tushunchadan farqli tarzda, son-sanoqsiz alohida narsalarning o'rnini mantiqiylik hamda mavhumiy umumiylik vositasida emas, balki fahmiy (intuitiv) idrok va tasavvur yo'li bilan egallaydi[1].

Shopenhauer falsafani fandan ajratadi va san'atga yaqinlashtiradi. Fan tushunchalar bilan ish ko'radi, falsafa esa, san'at kabi g'oyalar doirasiga kirib boradi. Falsafa ko'zga ko'rinib turgan hissiy qiyofalardan yuksakka ko'tarilgan holda, g'oyani ularda gavdalantirmasdan, aksincha ular mohiyatini sug'urib olish bilan san'atga nisbatan ustunlikka ega. Falsafaning san'atga munosabati, vinoning uzumga bo'lgan munosabatidek gap.

Buyuk olmon faylasufining fikriga ko'ra, daho ijod mahsuli aslo manfaat ob'ekti bo'lmaydi, foydasizlik uning eng muhim belgisi. Estetik idrok etishning vazifasi – foyda emas, lazzat. Bu fikrni SHopenhauer istisnosiz barcha san'at turlariga tadbiq etadi. Masalan, me'morlik – arxitekturada bino nechog'li qulay, foydali, obodonchilik namunasi bo'lgani uchun emas, balki unda sof estetik maqsadga – go'zallikdan lazzatlanishiga me'mor qanchalik erishganiga qarab, san'at asari hisoblanadi. «Har qanday san'atning asl maqsadi – go'zallik to bizga taalluqli emas ekan, hamma narsa go'zal. Hayot hech qachon go'zal bo'lmaydi, faqat san'at ko'zgusida tozalangan hayot manzaralarigina go'zal. Barcha san'at turlarini Shopengauer ana shu nuqtayi nazardan tahlil etadi. Qaysi san'at turi «hayot haqiqatini», ya'ni ixtiyorning mohiyatini ochib bersa, o'shaning darajasi yuksak. Tasviriy san'at, she'riyat, dramaturgiya g'oyani in'ikos ettiradi. G'oya esa ixtiyorning ob'ektivlashgan holati xolos, aslo ixtiyorning o'zi emas. Chunonchi me'morlik – ixtiyor olomonning ongsiz intilish g'oyasi tarzida aks etgan bosqichni anglatadi, fojea esa ixtiyorning o'z-o'zi bilan nizoga kirishganini ochib berishga qodir. Hamma san'at turidan musiqa yuksak turadi, Chunki barcha san'at turlari g'oyani –ixtiyorning ob'ektivlashgan holatini aks ettirsa, musiqa ixtiyorning o'zini ifodalaydi. Olamni musiqada ixtiyorda gavdalangan tarzda olib qarash mumkin. Musiqa g'oyalardan mustasno, hodisalar dunyosidan butkul inkor etgan holda, hatto, dunyo umuman mavjud bo'lmasa ham, qay darajadadir yashashi mumkin. Boshqa san'at turlari bunga qodir emas. Musiqaning ta'siri yana shuning uchun ham kuchliki, u, ixtiyor singari tinglovchida quvonch, qayg'u va boshqalarning g'oyasini emas, balki ularning o'zini uyg'otadi.

Shopengauer estetikaning Yangi mezoniy tushunchasini taklif etadi. U – qiziqarlilik. Garchand «Qiziqish» iborasini biz Didroning sahna asrlariga tadbiq estak-da, qiziqarlilik o'zining miqyosiylik, mezoniylik xususiyatlari bilan estetikada Yangi tushuncha maqomini olishga haqli deb o'ylaymiz. Shopengauerning fikriga ko'ra, «... go'zallik g'oyani bilish bilan belgilanadi... qiziqarlilik bizga ixtiyorimizni qo'zg'otish orqali ta'sir ko'rsatadi»[196]. Qiziqarlilik san'atda me'yorida bo'lishi kerak. Me'yoridan kami – zerikarlilikka, me'yoridan ortig'i idrok etuvchini go'zallikni his qilmasdan «sirg'anib o'tib» ketishiga olib keladi.

Rus mumtoz nafosat falsafasi

Bu davrga kelib Rossiyada ham falsafiy tafakkur yuksak darajaga ko'tarildi, rus san'ati ham mislsiz taraqqiyotga etishdi. SHu bois XIX asr oxiri va XX asr boshlarida rus tafakkurini tom ma'noda mumtoz deb atash mumkin. Ana shu mumtoz tafakkurning etakchi vakillaridan biri – shoir, ilohiyotchi, faylasuf **Vladimir Sergeevich Solovyovdir (1853-1900)**.

Solovyov go'zallikni o'zining ziddidan, ya'ni xunuklikdan (go'zal insoniy vujud xunuk embriondan vujudga kelganidek), bir-biriga qarama-qarshi ikki ibtido – modda va nurning o'zaro birikuvidan tug'iladi deb hisoblaydi. Qaerdaki modda nurafshon bo'lsa, o'sha erda go'zallik hodisasini uchratish mumkin. Modda va nurning uzviy omuxtaligi – hayot, deydi Solovyov. SHu bois qaerda hayotning ichki to'laqonligiga erishilsa yoki uning hodisalari

---

[1] Qarang: Шопенгауер А. Мир как воля и представление. Т.1. Минск, Попурри, 1998. С. 312-316.

[196] Шопенгауер А. Введение в филосифию. Новые паралипомены. Об интересном. Минск, Попурри, 2000. С. 397.

«jonli kuchlar o'yini taassurotini» qoldirsa, tabiat o'sha erda o'zining bor go'zalligi bilan namoyon bo'ladi. Nur va hayot - tabiatdagi estetik mazmunni baholashning ikki asosiy mezoni.

Buyuk rus mutaffakiri tabiiy go'zallikni uning noorganik dunyodan organik dunyoga, undan insonga qarab taraqqiy etib borishida ko'radi. Noorganik dunyoda go'zallik ikki turda mavjud bo'ladi; ziyoiy go'zallik (yulduzli osmon, kamalak, olmos) va hayotni oldindan anglatuvchi hodisalar aurasi - ufurishi (shildiragan irmoq, sharshara v.h.) sifatidagi go'zallik. Nabotot dunyosidagi estetik makonda hayratda qoldiradigan bezakdorlikka esa bo'lgan go'zallik etakchilik qiladi. Bunday go'zallikning oliy ifodasi gullardir. Hayvonot dunyosida go'zallik naqshlar (ranginlik) va musiqiy shakllarda namoyon bo'ladi. U go'zallikni ob'ektiv asosdan ajrata olmaydi, aksincha u, eng avvalo xususiyat, keyin tushuncha: «Go'zallik, – deb yozadi V.Solovyov «Tabiatdagi go'zallik» asarida, – haqiqiy voqelik, dunyoda ro'y berayotgan tabiiy jarayonlar asaridir»[1]. Bu bilan u tor doiradagi «estetlar» va estetik nazariyalarga radiya bildirmoqchi bo'ladi. SHu sababli L.Tolstoy: «Zero go'zallikka asoslangan, estetik risolalarda bayon etilgan va jamoatchilik tomonidan ilg'ar-ilg'amas tarzda tushuniladigan san'at nazariyasi, bizga, ya'ni ma'lum bir davradagi odamlarga nima yoqqan bo'lsa va yoqsa o'shani yaxshi deb tan olinishidan boshqa narsa emas», – deb yozadi o'zining «San'at nima?» risolasida[2]. Tabiiy go'zallik o'zining oliy ifodasini insonda topadi; u tabiat dunyosidagi estetik idealning eng mukammal ko'rinishi; ong ato etilgan inson tabiati voqeligini ijodiy o'zlashtirishga qodir. Biroq, Solovyovning fikricha, so'nggi paytlarda tabiat va inson orasida qarama-qarshilik chuqurlashib bormoqda; inson tabiatga, qandaydir qiyofasiz bir narsaga qaraganday munosabatda bo'lmoqda. SHu bois faylasuf ekologik muammoni axloqiy jihatdan hal etishning yagona usulini go'zallikda ko'radi. Bu o'rinda san'at asosiy tarbiyachi rolini o'taydi.

Vladimir Solovyov «San'atning umumiy ma'nosi» asarida san'at oldiga uch yoqlama vazifa qo'yadi; 1) tabiatning estetik ifodasida ifoda topilmaydigan jonli g'oyani, uning ichki mazmunini moddiylashtirish; 2) uning estetik borlig'ini ruhoniylashtirish; 3) uning muayyan hodisalarini mangulikka dahldor hodisalarga aylantirish. – Mana shu vazifani bajarib borish jarayonida san'at[3] ilhomli kafolatga aylanadi, voqelikning o'zida esa moddiylikni ma'naviylashtirish jarayonlari kuchayadi. Inson san'ati insonning o'zini komil go'zallikdan bevosita va bilvosita ogoh etadi. Bevosita ogoh etish musiqa va lirik she'riyatda ifodalanadi. Bilvosita ogoh etishning shakli ikki xil bo'ladi: a) tabiiy go'zallikni kuchaytirish, ideallashtirish (me'morlik, rangtasvirli manzaralar); b) ideal va voqelikning mos kelmasligini ifodalash (qahramonlik eposi, fojea, kulgi (komediya). Xullas, Vladimir Solovyovning san'at falsafasi dunyoni estetik tarzda ro'yobga chiqarish, voqelikni badiiy jihatdan qayta bunyod etish g'oyasiga asoslanadi.

Biz mumtoz deb atagan rus estetikasida o'nlab ulug' faylasuflar bilan birgalikda F.M.Dostoevskiy, Ya.N.Tolstoy, I.S. Turgenev, A.Fet, A.P.Chexov singari buyuk yozuvchi-shoirlar ham o'z o'rniga ega. Shulardan biri – **Lev Tolstoy** (1828 – 1910) qarashlariga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Tolstoy san'atning mohiyatini aniq-ravshan ifodalashga yo'l ochish uchun «hamma narsani chalkashtirib yuboradigan go'zallik tushunchasini» bir chetga surib qo'yishni taklif etadi. Uning fikriga ko'ra, san'atning nima ekanini aniqlab olish uchun, avvalo unga lazzat vositasi emas, balki inson hayotining shartlaridan biri sifatida qarash lozim. San'at Tolstoyning ta'biricha, shunday insoniy fazilatki, unda bir kishi ongli ravishda ma'lum tashqi belgilar bilan o'zi boshidan kechirgan hislarni etkazadi, boshqa odamlar esa o'sha hislarni o'ziga yuqtirib, ularni qayta ko'ngildan o'tkazadi.

Buyuk rus mutafakkiri ijodning maqsadini «fikrni badiiy ifodalash» deydi. Fan va san'at bir-biri bilan xuddi o'pka va yurakdek o'zaro bog'liq, agar bir a'zo buzilsa, ikkinchisi ham to'g'ri harakat qilolmaydi. Fanning ishi muhim haqiqatlarni izlab topish va ularni kishilar ongiga singdirish. San'at esa ana shu haqiqatlarni ilm-fan olamidan hissiyot olamiga o'tkazish bilan shug'ullanadi. Tolstoy san'atdagi g'oyasizlikni inkor etadi. SHu munosabat bilan mazmun va shaklning o'zaro aloqalariga to'xtaladi. U shakl va mazmun yaxlitligini tan oladi hamda bir tomondan, mazmunni asosiy hodisa sifatida talqin etar ekan, badiiy shaklsiz san'at asarining bo'lishi mumkin emasligini ta'kidlaydi.

Tolstoy Yangilikni haqiqiy san'at asarining asosiy belgisi deb ataydi. Asl san'atkor doimo odamlarga noma'lum nimadir, Yangi narsa topishga harakat qiladi. Mazmunni yorqin ifodalash uchun san'atkor Yangi shakllar izlaydi. Tolstoy dekadansni «bema'nilikning so'nggi bosqichi» deb ataydi. Nitstsheni dekadansning nazariy yo'lboshchisi sifatida tanqid qiladi, ularning san'atini, xuddi o'zlaridek tentaklardan tashkil topgan kichkinagina to'garak a'zolarigagina yoqadigan «ijod mahsullari», deb ataydi. Haqiqiy san'at esa eng keng sohalarni qamrab oladi. Inson qalbining mohiyatini o'ziga rom etadi. YUksak va asl san'at doimo shunday bo'lib kelgan.

Ko'pchilikni hayratda qoldiradigan yana bir narsa borki, bu Tolstoyning SHekspirga munosabati. Buyuk rus yozuvchisi «San'at nima?» risolasi va «SHekspir va drama haqida» maqolasida SHekspirni nafaqat tanqid qiladi, balki batamom inkor etadi. Tolstoyning fikriga ko'ra, SHekspir pesalari asosida «eng tuban, eng qabih dunyoqarash yotadi», ularda oliy tabaqalar ko'klarga ko'tarilib, omma nafratiga munosib qilib tasvirlanadi, mavjud tuzumni o'zgartirishga bo'lgan har qanday intilish, xususan, insonparvarlik yo'nalishidagi intilishlar ham qoralanadi. SHekspir ijodi aksildemokratik mohiyatga ega, uning asarlari axloqsiz asoslarga qurilgan. Ular beistisno tarzda yuqori sinflar san'atini tashkil etadi.

---

[1] Соловёв В. Сочинения в 2 т. Второе издание. Т. 2. М., Мысл, 1990. С. 359.

[2] Толстой Л. Собрание сочинения в 22 т. Т. XV, М., ИХЛ, 1983. С. 74.

Turkiston ma'rifatchi-jadid mutafakkirlarining estetik qarashlari.

Bu harakat ibtidosida turganlardan biri buyuk o'zbek shoiri **Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqatdir** (1958-1909). Agar shoirning g'azallari, muhammislari, musaddaslari lirik tabiatga ega bo'lib, ularda yor go'zalligi madh etilsa, masnaviylarida ijtimoiy muammolar o'rtaga tashlanadi. Masnaviylarning bir qismi («Ilm xosiyati», «Vistavka xususida», «Gimnaziya») ma'rifatni targ'ib qilishga bag'ishlangan. «Toshkent shahrida bo'lg'on nag'ma bazmi xususida», «Nag'ma va nag'magar va aning asbobi va ul nag'ma ta'siri xususida», «Suvorov haqida», «SHoir ahli va she'r mubolag'asi xususida» deb atalgan masnaviylar esa ma'lum ma'noda estetikaga taalluqli. Iste'dodli filolog olim SHuhrat Rizaev ulardan birini – «Suvorov haqida»gi masnaviyni ilk o'zbek teatr tanqidi namunasi, spektaklga she'riy yo'lda yozilgan taqriz deydi. Bu fikrda jon bor. Zero yuqoridagi masnaviylarni o'ziga xos estetik manzumalar deyish mumkin. Furqat «Nag'ma va nag'magar va aning asbobi va ul nag'ma ta'siri xususida» masnaviysida «Toshkand shahrida bo'lg'on nag'ma bazmi xususida» masnaviysidagi «taqrizchilik» doirasidan chiqib ketadi, xonandalar, sozandalar, konstert zali, unga kirish qoidalarini tasvirlashdan voz kechadi, asosiy e'tiborni musiqadan va undan olinadigan estetik lazzat haqida fikr yuritadi.

Anbar Otin (1870-1915) ijodida san'atning ijtimoiylik mohiyati birinchi o'ringa chiqadi. YA'ni Furqatdagi ibtido Anbar otinda markazga, markaziy masalaga aylanadi – Anbar otin badiiy ijodga mumtozchilik emas, jadidchilik nuqtayi nazaridan yondashadi: badiiy asar xalqqa, uni milliy ozodlikka olib chiqishga xizmat qilishi kerak. U bir she'rida Kamiyga murojaat etib, shunday deydi:

SHe'r yozsangiz xaloyiq holidan mavzu eting,
Ko'p ulug'larni madh etmoq erur bu isrof.
Avvalo o'ylang, el ichra zindagi qay holdadir,
Ikki yoqlik zulmni siz aylang hamisha e'tirof[2].

Anbar Otin «Qarolar falsafasi» risolasida shoirlik iste'dodiga, shoirlar toifalariga alohida to'xtaladi. SHoira ustoz shoirlarni yuzaki talqin etishga, ular ijodini yor ko'yidagi oh-vohlardan iborat deb qarashga keskin qarshi chiqadi. Mumtoz shoirlarning fikriy-falsafiy teranligini anglashga chaqiradi:

«Aksari zamona ahli mashhur nomvor ustodlar haqida alarning nazmi nolalarig'a zohiran baho berib, alar faqat yor ishqida ovora bo'lub, umr o'tkazibdur derlar...

Haqiqatda lojaram ul g'azallar botini hisobsiz falsafiy donish va aql gavharlari ila to'ladur»[3].

Anbar Otin badiiy ijod ahlida alohida, o'ziga xos nigoh borligini, ular boshqalar ko'rmagan narsalarni ko'ra bilishlarini ta'kidlaydi. Ana shu nigoh, iste'dodni shoira «ko'z» deb ataydi.

«..Mahfiy emaski, – deb yozadi Anbar otin – har shoirda o'tkir botindagi, ya'ni hayot ichidagi sirlarni ko'radigon ko'z bo'lur. o'shal o'tkir ko'z ilan boshqalar ko'rmagan sirlarni mushohida qilub, adab haririg'a burkab, arzi ma'nisini nafis iboralar ilan tarannum etar. Shundoq shoirni shoir desa bo'lur.

Modomiki, shoir shundoq falsafiy mushohada egasi ekan, aning barcha fikri takroriy yo'l ilan ta'lim olishga sazovordir». Ko'rinib turibdiki, Anbar Otin shoirona nigoh bilan ilg'ab olingan voqelikni «adab haririg'a burkab», «nafis iboralar bilan», ya'ni yuksak badiiyyat, majoziy ifoda va ravon til – go'zal shakl vositasida o'quvchiga etkazishni talab etmoqda.

Ayni paytda, risola muallifi tushkunlik ruhidagi she'rlarni va tarkidunyochilikni targ'ib etuvchi asarlarni hamda ularning ijodkorlarini qattiq tanqid ostiga oladi. Uning fikriga ko'ra, bunday asarlar jamiyat uchun zararli. Zero «bu kabi shoirlar g'azaliyotini o'qug'on odam umrini barham berib, tezroq dunyodin kechish fikrig'a duchor bo'lur...»[1] SHoira har bir badiiy asar hayotbaxsh ruhga ega bo'lishi va shu bilan jamiyatni Yangilashga xizmat qilishi, milliy ozodlik uchun kurashga da'vat etishi kerak degan fikrni ilgari suradi.

Agar biz Furqat va Anbar Otin ijodini, ma'rifatchi-jadidchilar estetikasining dastlabki bosqichi desak, uning yuksak pog'onasini Behbudiy, Fitrat, Hamza, Sadriddin Ayniy, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon singari ulkan ijodkorlar qarashlarida ko'rishimiz mumkin. Ular orasida, ayniqsa, **Fitrat** (1886-1938) bilan **Cho'lponning** (1898-1938) estetik qarashlari alohida diqqatga sazovor. Zero bu qarashlar ma'lum ma'noda san'at falsafasi sifatida muayyan nazariy asoslarga qurilgan. SHu jihatdan Abdurauf Fitratning «Adabiyot qoidalari» risolasi e'tiborga molik.

Avvalo shuni aytish kerakki, «Adabiyot qoidalari»da muallif na faqat adabiyot nazariyotchisi sifatida, balki keng quvvai hofizali nafosatshunos tarzida maydonga chiqadi. U badiiy adabiyotni alohida, muxtor, «katta san'at» sifatida olib qaramaydi. Fitrat nazdida u ham san'at turi, boshqa san'at turlari bilan uzviy aloqadorlikda ish ko'radi. SHu bois juda ko'p o'rinlarda «Adabiyot qoidalari» – misollari badiiy adabiyotdan keltirilgan estetika nazariyasiga aylanib ketadi. Bu tasodifiy emas. Fikrimizning isboti uchun risolaning o'ziga murojaat qilaylik.

Fitrat badiiy adabiyot nima ekanini anglatish, nazariy, amaliy ta'riflash uchun eng avvalo «san'at» va «go'zal san'atlar» iboralarini tushunib olish lozimligini aytadi. U san'atning ikki xil – manfaatli va manfaastiz, ya'ni hunar-san'at hamda sof-san'at bo'lishini tanbursoz usta bilan «Iroq» kuyini chalgan tanburchi misolida jonli tushuntirib beradi; tanburning yaxshiligi – ishga yaraganligi, foyda keltirgani. «Iroq kuyining yoxshilig'i esa kishiga ma'naviy

---

[2] o'sha manba, 46-47-b.

[3] Anbar otin. Tanlangan asarlar. T., G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1970 y., 48-b.

[1] O'sha manba, 98-b.

ta’sir etmak... Shuning uchun buning yoxshilig’iga, yoxshilig’ emas go’zallik deydilar. Bunday san’atlarga «go’zal san’atlar» deyiladir»[1].

Mutafakkir adib bu bilan bevosita bo’lmasada, bilvosita go’zallikning manfaastizlik xususiyatini ham ta’kidlayotgani ko’rinib turibdi. Ayni paytda u go’zallik yaratishga qaratilgan san’atlarning muayyan madaniy darajaga ko’tarilgan xalqlarda mavjud bo’lishini va uning asosiy vazifasi idrok etuvchini bir tomondan, ovuntirish, ikkinchi tomondan, tarbiyalash ekanini aytib o’tadi: «Miyasi yuksalmagan bolalar, san’atdan xabarsiz kishilar shodliqli, qayg’uli tuyg’ularini sakrab, o’ynab, kulib, yig’lab, talpinib jonlantiradilar, ochiqqa chiqarib boshqalarg’a onglatadilar-da, shu yo’l bilan ovuntirilg’an bo’ladirlar, san’at egalari esa turli tovar (material)lar yordami bilan o’zlarining tuyg’ularini jonlantirib maydong’a chiqaradi. SHu yo’lda boshqalarni o’z tuyg’ulari bilan tuyg’ulantirishga tirishadirlar». San’atning ana shu xususiyatlari va vazifalari to’g’risida fikr yuritib bo’lgach, Fitrat yana «go’zal san’atlar» ta’rifini, lekin endi boyigan, mukammallashgan ta’rifini keltiradi: «Mana shunday «yurak, fikr, tuyg’u to’lqunlarini so’z, tovush, bo’yov, shakl, harf, harakat kabi tovarlar (materiallar) yordami bilan jonlantira chiqarib, boshqalarda ham shu to’lqunni yaratmoq» hunariga «go’zal san’atlar» deyiladir».

Shundan so’ng Fitrat har bir «go’zal san’at»ning materialiga, substratiga (moddiy asosiga) qarab, ularni olti tur va ikki xilga (turkumga) bo’ladi. U musiqani birinchi o’ringa qo’yadi, undan keyin «rasm, haykalchilik, me’morlik, o’yun (tans), adabiyot» keladi. «Go’zal san’atlarning mana shu olti turlari bir-birlariga yaqinlashmoq e’tibori bilan ikki turkumga ayriladir, – deb yakunlaydi muallif o’z xulosasini. – Adabiyot, musiqa, o’yun (tans) bir turkum; rasm, haykal, me’morlik bir turkum bo’ladir»[1].

«Adabiyot qoidalari»da Fitrat uslub masalasiga ham atroflicha to’xtaladi. Uslubning zamonga, makonga va shaxsga xoslik xususiyatlarini aytib o’tadi, uni uyg’unlik bilan, ohang bilan uzviy bog’liq ravishda tadqiq etadi. Shuningdek, muallif kitob oxirida, «Adabiyotda oqim istilohlari» sarlavhasi ostida klassistizm, rastionalizm, romantizm, simvolizm, realizm, modernizm singari tarixiy va zamonaviy yo’nalishlarning qisqacha tavsifini beradi.

Fitratning «Adabiyot qoidalari»dan tashqari musiqamiz tarixi va aruz nazariyasiga bag’ishlangan alohida-alohida risolalari ham borki, ular ham estetika nuqtayi nazaridan qimmatlidir.

Turkiston badiiy tafakkuriga ulkan xissa qo’shgan yana bir jadid mutafakkiri Abdulhamid Cho’lpondir.

Cho’lponning go’zallik haqidagi tushunchasi o’ziga xos, asosan u shoir she’rlarida «go’zal» so’zi orqali aks etadi. o’z fikrini sho’rolar stenzurasidan yashirib ifodalash maqsadida shoir «go’zal» so’ziga turli xil ma’nolar yuklaydi: u, bir tomondan, qo’l etmas go’zal yor, ikkinchi tomondan sururiy (romantik) go’zallik. Lekin har ikki holatda ham tagma’no tutqunlikka mahkum go’zallikni, go’zal Turkistonni o’zida mujassam etadi.

U bir tomondan go’zal asar, ikkinchi tomondan asarda go’zallik yaratish uchun birgina iste’dodning kamlik qilishini, qattiq mehnat qayta ishlashlar – rejalashtirilgan estetik faoliyat ham zarurligini ta’kidlaydi. Chunonchi, Lutfulla Narzullaev ijodiga bag’ishlangan «Sahna sirlariga oshno san’atkor» maqolasida u aktyorning rol ustida ishlashini umumlashtirib, uning estetika talabi ekanini, ya’ni, san’at uchun xususiy emas, balki umumiy hodisa ekanini juda chiroyli ifodalaydi:

«Har qanday ijodiy asarni ham ishlab pishitadilar, – deb yozadi Cho’lpon. – SHoirning she’ri, nasrchining roman yo hikoyasi, bastakorning cholg’u asari, cholg’uchining bajarmasi, hatto zargarning chiroylik baldoq va shokilasi, yo’nmachi ustaning yo’nmakor asari... — bular hammasi ishlanish orqasidan pishadi, etiladi, qiymatli asar holiga keladi»[1].

YUqoridagi misollardan ko’rinib turibdiki, Cho’lpon ham boshqa jadid mutafakkirlari kabi millatni estetik tarbiya vositasida uyg’otishni birlamchi vazifa deb bilgan. SHu bois uning asosiy diqqati o’sha davrlarda nisbatan ommaviy bo’lgan san’at turlari – badiiy adabiyot va teatrga qaratildi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, Turkiston jadid-ma’rifatchilari qisqa vaqt ichida nafis san’at targ’ibotini yo’lga qo’ydilar. Afsuski, Yangi mustamlakachilik siyosati asosiga qurilgan sho’rolar davlati ularni qatag’on qilib, asarlarini ta’qiqlab, Turkiston xalqlari Uyg’onishi harakatiga chek qo’ydi. Shunga qaramay, jadidlar qoldirgan meros bugungi kunda ham o’z ahamiyati va ta’sir kuchini yo’qotgan emas.

Jadidchilikdan keyingi davrlar o’zbek estetikasi

Sho’rolar davri 1917 yil oktyabrda (7 noyabrda) bolsheviklar tomonidan amalga oshirilgan davlat to’ntarishi natijasida sobiq chor Rossiyasi hududida «proletar diktaturasi» nomi ostida totalitar tuzum o’rnatildi. Aldov va firibgarlik bilan hokimiyatni qo’lga olgan V.I.Lenin rahbarligidagi beshafqat kimsalar, o’zlarini xalq tarafdori qilib ko’rsatib, kimki qarshi tursa, hatto o’zlariga qo’shilmagan betaraflarni ham qatag’on qilishga kirishdilar. Lenin va uning korchalonlari maqsadini «Novaya jizn» gazetasining hammuassisi, buyuk rus yozuvchisi, ulug’ insonparvar Maksim Gorkiy «Bemavrid mulohazalar» falsafiy-publististik maqolalar turkumida fosh etib tashladi. Gazetaning 1917 yil 7 (20) noyabr, 74-sonidayoq «Demokratiya borasida» degan maqolasida u shunday deb yozgan edi:

«Lenin, Trostkiy va ularga ergashgan kimsalar allaqachon hukmdorlikning chirkin og’usi bilan zaharlanganlar, so’z erkinligi, shaxs erkinligi va barcha huquqlar tantanasi uchun kurashgan demokratiyaga nisbatan ulardagi sharmandalarcha munosabat shundan shohidlik beradi...Bu yo’lda Lenin va uning tarafdorlari Peterburg

[1] Fitrat. Adabiyot qoidalari. T., o’qituvchi, 1995, 20-b.

[1] o’sha manba, 21-b.

[1] o’sha manba, 141-b.

ostonalaridagi odamkushlik, Moskvani xarobaga aylantirish, so’z erkinligini yo’qotish, bema’ni hibslar singari Pleve va Stolipinlar qilgan qabihliklarga o’xshash barcha jinoyatlarni amalga oshirish mumkin deb hisoblaydilar»[1].

«Ishchilar diqqatiga» degan maqolasida esa («Novaya jizn», 1917 yil 10 (23) noyabr, 77-son) Gorkiy bolsheviklar boshlagan qatag’onlarning asl sabablarini ochib beradi:

«...Lenin va Trostkiy taqiqlar bilan kelishmaganlarning hammasini ochlik va qirg’in bilan qo’rqitib, bu «dohiylar» mamlakatdagi eng sara kuchlar ne-ne qiyinchiliklarni boshdan kechirib, uzoq vaqt qarshi kurashgan hukmdorlik zulmini oqlamoqdalar. o’zlarini sostializmning napoleonlari deb bilgan leninchilar, har hunarga tushib, Rossiyani xarob qilishni oxiriga etkazmoqdalar – rus xalqi hali buning uchun daryo-daryo qon bilan xun to’laydi.

Leninning o’zi, shaksiz, istisnoli darajadagi qudratli kishi... ayni paytda u «dohiylik»ning barcha xususiyatlariga, shuningdek, bu rol uchun zarur bo’lgan axloqsizlikka va omma hayotiga haqiqiy boyvachchalarcha beshafqat munosabat qila bilish qobiliyatiga ega»[2].

Biz Sho’rolar o’rnatgan totalitar tuzum mohiyatini, eng buyuk yovuz insonlar – Lenin va Stalin o’rnatgan YOvuzlik saltanatining ijtimoiy mohiyatini tahlil qilib o’tirmaslik uchun Gorkiydan kattaroq ko’chirma keltirib qo’ya qoldik. Ma’lumki, Gorkiy keyinchalik Stalin tomonidan zaharlab o’ldirildi, buyuk shoir Mayakovskiy esa o’zini otib tashladi. Bu hodisalar totalitar tuzum uchun nihoyatda qo’l keldi: Gorkiy va Mayakovskiy sovet adabiyotining (kengroq ma’noda san’atining, asoschilari deb e’lon qilindi va SHo’rolar Ittifoqi hududida sostialistik realizm deb atalgan soxta metod – asar yaratish uslubi yagona, hamma san’at turlari uchun majburiy uslub sifatida qonunlashtirildi. Sostialistik realizm metodi ijod erkinligi, fikr va so’z erkinligini mohiyatan inkor etadigan hamda san’atni rus ulug’davlatchilik shovinizmiga asoslangan sinfiylik va partiyaviylik degan, insoniylikka, insonparvarlikka qarshi mafkuraviy quyushqondan iborat edi. Bunga ko’nmagan ijodkorlar otib tashlandi, qamaldi, surgun qilindi, Ittifoq hududidan chiqarib yuborildi. Jahonni hayratga solgan XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi rus san’ati tom ma’noda inqirozga uchradi. Milliy respublikalar san’atida esa har bir asarda Lenin va Stalin madh etilar, albatta boshqa millatlarga «aql o’rgatib turadigan», «ulug’ og’a» – rus kishisi ishtirok etishi shart edi. Barcha respublikalarda milliy uyg’onishga xizmat qilgan oqimlar qatag’on qilinganidek, o’zbekistonda ham jadidchilik «tag-tugi bilan qo’porib tashlandi».

Shunday qilib, XX asrning 30-yillariga kelib, falsafiy tafakkur, shu jumladan estetik tafakkur ravnaqdan to’xtadi, aksincha tanazzulga qarab yo’l tutdi. Estetika falsafiylikdan ko’ra, targ’ibotchilik bilan shug’ullandi, mafkuraviy, soxta fanga aylandi. Yangi nazariy fikrlar o’rtaga deyarli tashlanmadi. Umumjahoniy estetik nazariyalarning hammasiga «reakstion burjua estetikasi» degan yorliq yopishtirilib, ulardan foydalanish ta’qiqlandi, faqat «tanqidiy yondashib», ularni inkor etish lozim edi. Estetik tafakkur tarixi ham xuddi shunday «tanqidiy o’rganildi». Natijada umumbashariy estetik qadriyatlar, mumtoz estetik tafakkur namunalari buzib talqin qilindi. Umumjahon estetikasida tamoyilga aylangan olimona xolislik – «kosmopolitizm», milliy estetik qadriyatlarga e’tibor – «millatchilik» tamg’alari ostida «yot qarashlar» deb e’lon etildi, bunday asarlar mualliflari qatag’onga uchradi. «Markscha-lenincha estetika» degan soxta fan o’ylab topildi, Leninning «Partiya tashkiloti va partiya adabiyoti» degan o’ta ketgan reakstion, so’z erkinligi va fikr erkinligini taqiqlaydigan, ommaviy axborot vositalaridagi erkinlikni yo’qqa chiqaradigan publististik maqolasi («dohiy merosida» estetikaga oid hech vaqo yo’qligi tufayli) san’at uchun estetik asos deb e’lon qilindi.

Barcha milliy respublikalar uchun karvonboshi hisoblangan rus sovet estetikasida A.Losev, M.Ovsyannikov, M.Kagan, V.SHestakov singari olimlar qator asarlar va darsliklar yaratdilar. Afsuski, bu asarlarning ko’pchiligi, mualliflarining iste’dodlariga qaramasdan, to’laligicha kommunistik mafkuraga bo’ysundirilgani tufayli yuqorida aytib o’tganimiz «sostialistik realizm» deb atalgan soxta metodni asoslashga qaratildi. Ularda go’zallik va xunuklik, ulug’vorlik va tubanlik, fojeaviylik va kulgililik tushunchalari, estetik anglash unsurlari bir yoqlama, sinfiylik va partiyaviylik tamoyillari asosida tahlil qilindi, mo’’jizaviylik va xayoliylik tushunchalari esa asosiy estetik adabiyotlardan umuman o’rin olmadi.

Lekin, keyinchalik, ikki bosqichli demokratiya tufayli estetika va san’atda muayyan jonlanishlar ro’y berdi. XX asrning 50-yillari so’nggi va 60-yillar boshida «Xrushchyov demokratiyasi» natijasida san’atda ko’tarilish ro’y berdi. Umumittifoq miqyosida S.Prokofev, Kandinskiy, M.Chyorlyonyus, Ch.Aytmatov, E.Evtushenko, o’.Sulaymonov, A.Voznesenskiy, V.Tendryakov, B.Qorieva, A.Xachaturyan, M.Saryan, M.Plisestkaya, M.Magomaev, A.Paxmutova, R.Hamzatov singari o’nlab buyuk san’atkorlar etishib chiqdi. «Falsafiy meros» va «Estetika tarixi yodgorliklar va hujjatlarda» deb atalgan nashriy turkumlarda Aflotun, Arastu, Kant, Hyum, Byork, Dyubo, Helvestiy, Shelling, Gegel, Houm, Zolger, Maststini singari buyuk faylasuflar hamda estetiklarning asarlari nashr etildi.

Agar «Xrushchyov demokratiyasi» davrida Stalinning Ittifoqni o’rab olgan temir devoridan darchalar ochilgan bo’lsa, ikkinchi bosqichdagi «Gorbachyov demokratiyasi» yillarida stenzura yumshatildi, so’z erkinligi, ijod erkinligi, qisman bo’lsa-da yo’lga qo’yildi, «sovet kishisining ichidagi qulni siqib chiqarish» boshlandi, ochiq jamiyat sari dastlabki qadamlar tashlandi. Avval taqiqlangan rus yozuvchilarining asarlari B.Pasternakning «Doktor Jivago», Fozil Iskandarning «CHegemlik Sandro», «Arbat bolalari», A.Axmatovaning «Rekviem» asarlari e’lon qilindi, teatr, kino, rassomlik va boshqa san’at turlaridagi ma’lum yo’nalishlarga qo’yilgan taqiqlar olib tashlandi. Falsafa sohasida G.SHpet, Z.Mamardashvili, M.Baxtin asarlari chop etildi. Falsafa tarixidagi «oq dog’lar» yo’qotila

[1] Gorkiy M. Bemavrid mulohazalar. A.Sher tarjimasi. «Jahon adabiyoti» jurnali, 2000y., 6-son, 128-b.

[2] O’sha manba, 130-b.

boshlandi – A.SHopenhauer, F.Nitstshe, Vl.Solovev, Z.Froyd, K.YUng, N.Berdyaev, N.Losskiy, E.Fromm va boshqa faylasuflar asarlari nashr qilindi.

Bu davrda estetika sohasida A.Guliganing «Estetik tamoyillar», YU.Borevning «Estetika» (ikkinchi nashri) asarlari e'tibor qozondi. Garchand, ularda markscha yo'nalish saqlanib qolgan esa-da, jahon estetikasidagi tajribalarga Yangicha, ma'lum ma'noda xolisona yondashuv va intilish yaqqol ko'zga tashlanib turardi. Ijod jarayonida onglanmaganlikning roli, badiiy asarda shaklning ahamiyati, turli, sostialistik realizm quyushqoniga sig'maydigan san'at yo'nalishlari to'g'risida dastlabki fikrlar bildirila boshlandi.

Bu davrda o'zbek estetikasida sohaviychilik, to'g'rirog'i, adabiyotshunoslik va san'atshunoslik hukmron bo'lib, estetikaning umumnazariy masalalari ko'tarilmas, hali ham falsafiy fanlar «dialektik materializm», «tarixiy materializm», «markscha-lenincha qarashlar» kabi quyushqonlardan chiqa olmas, Moskvaning «dasturlari»ga qarab ish ko'rilardi: prof. M.Nurmatov madaniy merosga «lenincha milliy siyosat» nuqtayi nazaridan yondashishni targ'ib qilar va o'zbek estetikasining muhim jihatini milliy kiyinish estetikasida ko'rar, prof. T.Mahmudov esa Leninning «Partiya tashkiloti va partiya adabiyoti» maqolasini 1991 yilda ham («Sharq yulduzi», 4-son) estetik ko'rsatma sifatida talqin qilar edi.

o'zbek estetikasida mustaqillik yillaridagina ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. Dastlabki paytlarda «sohaviylik» kasali hali ham o'z kuchini yo'qotmasa-da, lekin tadqiqot ob'ektiga haqiqiy estetik yondashuvlar vujudga kela boshladi. Bu davrdagi eng faol estetiklar sifatida yuqorida nomi tilga olingan olim T.Mahmudov va atoqli yozuvchimiz Asqad Muxtor nomlarini qayd etish mumkin. Tilab Mahmudovning rangtasvir estetikasiga doir o'nlab maqolalari, o'zbek va rus tillarida kitoblari chop etildi. Eng muhimi, shunda ediki, T.Mahmudov zamonaviy rangtasvir haqida fikr yuritar ekan, tor san'atshunoslik doirasidan chiqishga va muayyan rassom ijodi yoki asarga falsafiy-estetik jihatdan yondasharga: tadqiqot ob'ektini go'zallik, ulug'vorlik v.b. estetik tushunchalar ziyosida yoritib berardi, shuningdek estetik madaniyat masalalariga ham katta e'tibor qaratar edi. Ayniqsa, Rahim Ahmedov, CHingiz Ahmarov va uning shogirdlari – Bahodir Jalolov, Javlon Umarbekov asarlarining tahlili yuksak estetik saviyasi bilan diqqatga sazovor bo'ldi. Ayni paytda T.Mahmudov «San'at», keyinchalik «Nafosat» jurnallarining bosh muharriri sifatida o'zbek milliy estetikasi taraqqiyotiga katta xizmat qildi, hozir ham uning maqolalarida tor sohaviylikni emas, estetik kenglikni ko'rish mumkin.

Atoqli adib Asqad Muxtor sho'rolar davridayoq go'zallik haqida, uning qudrati haqida fikrlar bildirgan. Uning «Go'zallik» degan kichkinagina maqolasida bu estetik xususiyat va tushunchani o'ziga xos sharxlaydi. Asqad Muxtor sho'rolar tuzumida go'zallikka, estetikaga e'tiborning etarli emasligini ro'y-rost aytadi:

«Go'zallikni ta'rif qila bilmaslik ayb emas. Lekin uni tushuna bilmaslik, go'zallikka befarqlik, loqaydlik, didsizlik bizning davrimizda ayb. Hayotga estetik munosabatimizning oliy shakli – san'at asari. Bizda hali san'at asarining qalblarga zilzila soladigan kuchini mensimaydigan odamlar yo'q emas. Go'zallik hissini tarbiyalash ishlari uncha yaxshi yo'lga qo'yilmagan... Estetika masalalari yaxshi ishlanmagan, ommabop risolalar yo'q... Kim go'zal desa – men: go'zallikni tushunadigan odam go'zal, deb javob berardim»[1].

Boshqa bir maqolasida atoqli yozuvchimiz ma'naviy va estetik komillikni yonma-yon qo'yadi, estetik tarbiya insonning tasavvurga boy, o'ziga ishonadigan kuchli shaxs bo'lib etishuviga ko'maklashadi degan fikrni ilgari suradi:

«Ma'naviy va estetik takomil har qanday kasbdagi odamga ham zarur, – deb yozadi Asqad Muxtor. – U ijodiy tasavvur kuchini oshiradi, fantaziyani kengaytiradi, eng og'ir sharoitlarda qat'iyatli, o'ziga ishonchli, quvnoq va izchil bo'lishga o'rgatadi»[2].

Asqad Muxtorning so'nggi kitobi – «Uyqu qochganda» asari asosan falsafiy-estetik mushohadalardan, qaydlardan tashkil topgan. Unda muallif K.YUng estetik qarashlariga hamohang fikr yuritadi: faqat asarni emas, uning ijodkorini ham o'rganish zarurligini ta'kidlaydi, asar ijodkordan o'sib chiqishni, ijodkor «beixtiyor fidoiy» inson ekanini aytadi. SHuningdek, uning ijodiy tasavvur to'g'risidagi mulohazalari ham diqqatga sazovor. Tasavvurni u insonga berilgan ilohiy ne'mat – «oliy savqi tabiiy» deb ataydi[3]. Asqad Muxtorning Umar Xayyom ruboiylarining mohiyati haqidagi fikrlari ham teran falsafiy-estetik ma'noga ega, Xayyomni tushunishda ma'lum ma'noda kalit vazifasini o'tashi mumkin.

Asqad Muxtorning fikriga ko'ra, Xayyom o'z ruboiylarida inson umrining absurdligini, go'zallikdan vaqtincha lazzatlanish uni qoniqtirmasligini, lekin boshqa chora yo'qligini, faqat bita imkon borligini aytmoqchi: u ham bo'lsa – umid, Mutlaq Go'zallikdan umidvorlik. SHu bois Xayyomning kayfi shodlik qiyqirig'ini emas, fojeaviy faryodni eslatadi.

Bu davrda, shuningdek, M.Abdullaevaning estetik madaniyat borasidagi, A.Qurbonmamadovning estetika tarixiga bag'ishlangan tadqiqotlarini, E.Umarovning teatr estetikasiga doir maqolalarini, B.Husanov kabi yosh estetik-faylasuflarning faoliyatini ham ta'kidlab o'tish mumkin.

SHunday qilib, mustaqillik davrida haqiqiy milliy estetikani yaratishga kirishildi, shubhasizki, stenzuraning konstitustion va amaliy jihatdan yo'q qilinishi, so'z erkinligi, ijod erkinligi o'zbek san'ati va estetikasini umumjahoniy ma'naviy maydonga chiqishi uchun imkoniyat yaratdi. Bugungi kunda ijodkorlarimiz va estetik

---

[1] Muxtor A. Yosh do'stlarimga. T., Yosh gvardiya, 1971, 70-b.

[2] o'sha manba, 72-b.

[3] Qarang: Muxtor A. Uyqu qochganda. T.. Ma'naviyat, 2005, 37-39 b.

olimlarimiz oldida ana shu imkoniyatdan samarali foydalanish vazifasi turibdi, zero estetik ravnaqqa keng yo'l ochildi.

Estetika fanining boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqadorligi

Estetika va axloqshunoslik. Estetika qadim-qadimlardan buyon ko'pgina fanlar bilan mustahkam aloqada rivojlanib kelgan. SHulardan biri bo'lgan falsafa haqida, ular orasidagi bog'liqlik to'g'risida yuqorida aytib o'tdik. Estetika uchun yana bir yaqin aloqador, «qadrdon» fan axloqshunoslikdir.

Bu ikkala fan shu qadar bir-biriga yaqinki, hatto ba'zi davrlarda ayrim mutafakkirlar tomonidan ular etarli darajada o'zaro chegaralanmagan. Chunki insonning xatti-harakati va niyati ko'pincha ham axloqiylikka, ham nafosatga tegishli bo'ladi, ya'ni muayyan ijobiy faoliyat ham ezgulik, ham nafosat xususiyatlarini o'zida birvarakay mujassam qiladi. SHu sababli «Avesto», «Bibliyo» va «Qur'on» kabi muqaddas kitoblarda, Suqrot, Aflotun, Forobiy singari qadimgi faylasuflar ta'limotlarida axloqiylikni – ichki go'zallik, nafosatni – tashqi go'zallik tarzida talqin etganlar. Bundan tashqari, ko'rib o'tganimizdek, san'at nafosatshunoslikning asosiy tadqiqot ob'ektlaridan hisoblanadi. Har bir san'at asarida esa axloqning dolzarb muammolari ko'tariladi va ijodkor eng yuksak axloqiy darajani badiiy qiyofalar orqali in'ikos ettiradi. Bu in'ikos bevosita ijobiy qahramonlar qiyofasida amalga oshsa, bilvosita salbiy voqea-hodisalarga muallif nuqtayi nazari orqali ro'y berishi mumkin. YA'ni, biror-bir badiiy asarda ijobiy qahramonlar umuman bo'lmaydi, lekin undagi voqea-hodisalarga ijodkor o'z zamonasi erishgan axloqiy yuksaklikdan turib baho beradi. SHu bois axloqsiz badiiy asarning bo'lishi mutlaqo mumkin emas. Demak, nafosatshunoslik o'rganayotgan har bir badiiy asar ma'lum ma'noda axloqshunoslik nuqtayi nazaridan ham tadqiq etilayotgan bo'ladi. Biroq, bunday yaqinlik, yuqorida aytganimizdek, aslo aynanlikni anglatmaydi. Bu ikkala fanning tadqiqot ob'ektlari orasidagi farqni birinchi bo'lib buyuk Arastu «Metafizika» asarida nazariy jihatdan isbotlab bergan edi; u, ezgulik faqat harakatda, go'zallik esa harakastiz ham namoyon bo'ladi, degan fikrni bildiradi[1].

Darhaqiqat, axloqiylik faqat insonning xatti-harakati, qilmishi orqali yuzaga keladi; odam toki harakastiz ekan, biz uning na yaxshiligini, na yomonligini bilamiz. Muayayn xatti-harakat sodir qilinganidan keyingina biz uni yo ezgulik, yo yovuzlik, yo yaxshilik, yo yomonlik sifatida baholaymiz. Go'zallik esa, o'zini harakastiz ham namoyon etaveradi. Olaylik, Ko'kaldosh madrasasi. U hech qachon harakat qilmaydi, lekin go'zallik sifatida mavjud, harakastizligidan uning go'zalligiga putur etmaydi. Bundan tashqari, axloqning qonun-qoidalari, nasihatlar, hikmatlar umumiylikka, barchaga bir xilda taalluqlilik xususiyatiga ega. Nafosat esa muayyanlikni, aniqlikni yoqtiradi. Masalan, axloqshunoslikdagi «yaxshi odam» tushunchasi hammaga – ayolga ham, erkakka ham, yoshu qariga ham tegishli bo'lishi mumkin. Estetikada esa «go'zal odam» tushunchasi yo'q: yo «go'zal yigit», yo «go'zal qiz» degan tushunchalargina mavjud. Chunki , erkak kishidagi chiroyli mo'ylov faqat erkakning yuzida, ayol kishidagi husnlardan biri – ko'krak faqat ayol kishi vujudida go'zallikka ega. Endi mo'ylov burab so'zlayotgan ayolni-yu, siynaband taqib yurgan erkakni tasavvur qiling! Boyagi go'zalliklar xunuklikka aylanadi-qoladi. SHuningdek, go'zallik bir vujudda ham faqat o'z o'rnini talab qiladigan «o'ta injiqlik» xususiyatiga ega. SHu joyda olmon nafosatshunosi Fexner qo'llagan misolni keltirish o'rinli: qiz bola yuzidagi qizillik uning go'zalligidan dalolat beradi. Biroq, qizillik uning burni ustiga ko'chsa – xunuklikka aylanadi. Demak, axloq uchun – umumiylik, nafosat uchun esa – muayyanlik mavjudlik sharti hisoblanadi.

Estetika va ruhshunoslik. Estetika ruhshunoslik (psixologiya) bilan ham mustahkam aloqada. Ma'lumki, insonning ruhiy hayotini o'rganar ekan, ruhshunoslik hissiyotlar masalasiga katta o'rin beradi. Go'zallikni, san'at asarini yaratish va idrok etish ham ma'lum ma'noda hissiyotlar bilan bog'liq. Masalan, oddiy xarsang tosh kishida alohida bir hissiy taassurot uyg'otmaydi. Lekin toshga haykaltarosh qo'l urganidan so'ng, undan hayot nafasi, insoniy hissiyotlar ufura boshlaydi. Gap bunda toshga odam qiyofasi berilganida emas, balki shu qiyofaga bir lahzalik insoniy tuyg'ularning jamlanganidadir. Boshqacharoq qilib aytganda, ijodkor toshga o'zi tomoshabinga etkazishni maqsad qilib qo'ygan hissiyotlarning suratini chizadi va oddiy toshni haqiqiy san'at asariga aylantiradi. Agar ijodkor - haykaltarosh ana shu hissiyotlarni o'zi mo'ljallagan darajada tomoshabinga etkaza olsa va tomoshabinda o'sha hissiyotlarga yo aynan, yo monand tuyg'ular uyg'ota olsa, mazkur haykal haqiqiy san'at asari hisoblanadi. Nafosatshunoslik haykaltaroshdan haykalga, haykaldan tomoshabinga o'sha hissiyotlarning qay darajada o'tgan-o'tmaganligini, ya'ni, badiiy qiyofa qanchalik puxta yaratilganligini o'rganadi va shu asosda asarni baholaydi. Ruhshunoslik esa ana shu xissiyotlarning o'zini o'rganadi. Bundan tashqari, ruhshunoslik asar g'oyasidan tortib, to badiiy asar – estetik qadriyat vujudga kelgunga qadar bo'lgan ijodkorning hissiyotlar olamini tadqiq etadi. Albatta, bunday tadqiq va tahlillar, o'rganishlar alohida-alohida, muxtor holda emas, balki ikkala fanning bir – biri bilan hamkorligi, birining ikkinchisi hududiga o'tib turishi vositasida ro'y beradi. SHu bois ruhshunoslikka ham, nafosatshunoslikka ham teng aloqador bo'lgan san'at ruhshunosligi va badiiy ijod ruhshunosligi deb atalgan yo'nalishlar mavjud.

Estetika va sotsiologiya. Bugungi kunda estetikaning sostiologiya (ijtimoiyshunoslik) bilan aloqadorligi juda ham muhim. Ma'lumki, har bir san'at asari alohida inson shaxsiga e'tibor qilgani holda, jamiyatni ijtimoiy munosabatlar tizimi sifatida badiiy tadqiq etadi. Hatto inson va jamiyat bevosita aks etmagan manzara janridagi asarda ham ijtimoiylik jamiyat a'zosi – muallif qarashlarining bilvosita in'ikosi bo'lmish uslubda o'zini ko'rsatadi. Zero asar muallifi hech qachon o'zi mansub jamiyatdan chetda «tomoshabin» bo'lib turolmaydi. SHuningdek, yirik asarlar sostiologik tadqiqotlar uchun o'ziga xos material bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, sostiologiya jamiyat

[1] Qarang: Аристотел. Сочинения в 4-х т., Т-1, М., Мысл, С. 326.

bilan san’atning o’zaro aloqalarini, san’atning ijtimoiy vazifalarini o’rganadi; san’atkorning jamiyatdagi o’rni, mavqei, o’quvchi va tomoshabinlarning ijtimoiy-demografik holatlarini tadqiq etadi; shaxs ijtimoiylashuvida san’atkor va san’at asarining ahamiyatini tahlil qiladi. Bu muammolarni atroflicha o’rganish uchun maxsus san’at sostiologiyasi sohasi ham mavjud. U ham ijtimoiyshunoslikka, ham nafosatshunoslikka birday tegishlidir. Ayni zamonda, muayyan san’at asarlari, janrlari va turlarining jamiyatdagi mavqeini aniqlab beruvchi maxsus sostiologik so’rov usullari ham mavjudki, ular shubhasiz, san’at taraqqiyotiga, estetikaning san’at sohasida to’g’ri yo’nalish tanlashiga ko’maklashadi.

Estetik va dinshunoslik. Estetikaning dinshunoslik bilan aloqasi alohida diqqatga sazovor. Chunki din va san’at doimo bir-birini to’ldirib keladi va ko’p hollarda biri boshqasi uchun yashash sharti bo’lib maydonga chiqadi. Buning ustiga, har bir umumjahoniy dinning «o’z tasarrufidagi» san’at turlari bor: buddhachilik uchun - haykaltaroshlik, nasroniylik uchun -tasviriy san’at, musulmonchilik uchun - badiiy adabiyot. SHuningdek, barcha umumjahoniy dinlar o’z ibodatxonalari bo’lishini taqozo etadi. Ibodatxonalarning esa me’morlik san’ati bilan bog’liqligi hammamizga ma’lum.

Umuman olganda, dinlar deyarli barcha san’at turlari bilan aloqadorlikda ish ko’radi. Asrlar mobaynida ana shu aloqalar natijasi o’laroq, san’at asarining o’ziga xos ko’rinishi – diniy-badiiy asar vujudga keldi. «Abu Muslim jangnomasi», SHohizinda me’morlik majmui, Kyoln jomesi, Rembrandtning «Muqaddas oila» asari, Hindi-Xitoy mintaqasidagi Buddha ibodatxonalari ana shunday diniy-badiiy asarlardir. Ularda diniy g’oyalar badiiyat orqali ifoda topgan. Nafosatshunoslik bunday asarlarni tadqiq etar ekan, albatta, dinshunoslik bilan hamkorlik qilmay iloji yo’q: u o’sha diniy g’oyalarning mohiyatini, har bir umumjahoniy dinning san’at oldiga qo’ygan talablarini yaxshi bilmog’i va hisobga olmog’i lozim.

Estetika va pedagogika. Estetikaning pedagogika bilan aloqasi tarbiya muammolarini hal qilish borasida yaqqol ko’zga tashlanadi. Chunki pedagogika ham ma’lum ma’noda nafosat tarbiyasi bilan shug’ullanadi. Lekin bu tarbiya alohida-alohida, muxtor qismlarga bo’lingan holda, turli yosh va sohalar uchun maxsus belgilangan tarbiya tarzida, ya’ni muayyan, aniq chegaralarda olib boriladi. Masalan, maktabgacha tarbiya, o’quvchilar tarbiyasi, sportchilar tarbiyasi v. h. Pedagogika ana shu sohalar va yosh bo’yicha olib borilayotgan estetik tarbiya muammolarini o’rganadi. Estetika esa nafosat tarbiyasining umumiy qonun-qoidalarini ishlab chiqadi, ya’ni, inson tug’ilganidan boshlab to o’lgunigacha bosib o’tadigan bosqichlar uchun umumiy bo’lgan tarbiya falsafasi sifatida ish ko’radi. Demak, rus nafosatshunosi M. Kagan aytganidek, pedagogika tarbiya borasida taktik tabiatga ega bo’lsa, nafosatshunoslik uning strategiyasidir.

17-mavzu:Tabiat va texnogen tsivilizatsiya estetikasi.

Reja:

1. Jamiyat rivojida tabiatga estetik munosabatning shakllanishi.
2. Tabiatni estetik idrok etishning an'anaviy va noan'anaviy usuli.
3. Texnogen tsivilizatsiyaning ishlab chikarish estetikasi va fan taraqqiyotiga ta'siri.
4. Dizaynning estetik xususiyatlari.

Estetik munosabat

Inson zoti dunyoga kelganidan boshlab tabiat va jamiyat deb atalgan tashqi muhit bilan munosabatga kirishadi. Dastlab bu munosabat anglanmagan, intuitiv, biologik-genetik tarzda, keyinroq esa anglab etilgan, yuksak darajadagi ijtimoiy hodisa sifatida ro’y beradi. Uni odatda, ikki xil deb ta’riflash qabul qilingan: birinchisi – insonning salomatligi va turmush tarzini farovonlashtirishga qaratilgan zohiriy-moddiy maqsadga erishish tamoyiliga asoslangan utilitar-empirik manfaatdorlik, ikkinchisi – botiniy-ruhiy manfaatdorlikni, maqsadga muvofiqlikni ta’minlaydigan hissiy-ma’naviy munosabatlar. Mana shu ikkinchi xil munosabatlar insonning insonligini belgilaydigan hodisalar hisoblanadi. Ular ichida estetik munosabat alohida ащamiyatga ega, Chunki u nafaqat birinchi xil munosabat turlaridan yuksak darajaligi bilan farqlanadi, balki o’ziga xildosh bo’lgan axloqiy yoki e’tiqodiy munosabatga nisbatan ham miqyosli va qamrovlidir.

Gap shundaki, estetik munosabatdan boshqa barcha munosabat turlari inson «aqlini taniganidan» so’ng, ya’ni go’daklik davridan o’tgandan keyin voqe bo’ladi. Masalan, go’dak hali uyat hissini bilmaydi, unda axloqiy munosabat hattoki ibtidoiy darajada ham shakllanmagan, xohlagan vaqtida, to’g’ri kelgan joyda tabiiy ehtiyojni qondiradi. Lekin u beshikda yotar ekan, tushib turgan ola-chalpoq quyosh nuridan quvonadi, uni kuzatadi, u bilan o’ynagisi keladi yoki beshikka osig’liq rangli o’yinchoqdan zavqlanadi, g’adir-budir, shaklan qo’pol materialni emas, mayin duxobani yoki shunga o’xshash yumshoq, silliq narsalarni xush ko’radi, ularni siypalab zavqlanadi, alla eshitib orom oladi. Bularning bari estetik munosabatning insoniy mohiyatda namoyon bo’luvchi hodisa sifatida ibtidodan mavjud ekanini ko’rsatadi. SHuningdek, keksayib, umrining qolganini ko’proq to’shakda o’tkazayotgan kishi jisman zaifligi tufayli tashqi muhit bilan utilitar-empirik munosabatini davom ettira olmasligi mumkin. Lekin, u badiiy adabiyot o’qib, televizor ko’rib, musiqa eshitib zavqlanadi, ya’ni tashqi dunyoga estetik munosabatda bo’la biladi: inson moddiy boylik yaratishdan mahrum bыlgan paytda ham estetik munosabat tufayli, to o’lguncha o’z ma’naviyatini boyitish imkonini yo’qotmaydi. Estetik munosabatning qamrovliligi va uning bir umrli ma’naviy hodisa sifatidagi ahamiyati ana shunda.

Barcha munosabatlar qatori estetik munosabat ham ikki asosiy unsurdan tashkil topadi: ob’ekt va sub’ekt. Lekin bunda ob’ekt sub’ekt tomonidan belgilanadi: agar sub’ekt estetik jarayonga kirishmasa, uning munosabati, ob’ekt qanchalik go’zal yoki ulug’vor bыlmasin, estetik shakl kasb etmaydi. Estetik jarayon esa sub’ektning botiniy his-tuyg’ulariga, kayfiyatiga, vaqtiga, kuzatishiga, mushohadasiga, fikrlash imkoniyati va darajasiga, qobiliyatiga,

iste'dodi, ob'ekt bilan o'rtadagi masofa tasavvuri kabi tug'ma hamda ta'lim-tarbiya va tajriba vositasida vujudga kelgan qarashlarga bog'liq. Estetik munosabat ana shu estetik jarayonning pirovard natijasidir. Masalan, o'rol Tansiqboevning «Tog'dagi qishloq» asarini sotayotgan do'kon xizmatchisida bu rasmga nisbatan estetik munosabat tug'ilmaydi, sotuvchi unga faqat tovar sifatida qaraydi, maqsadi uni iloji boricha kattaroq pulga sotish. YA'ni sotuvchi estetik jarayonni boshidan kechirmaydi, o'z vaqti, kuzatishi, diqqat-e'tiborini asosan, oldi-sotdi jarayoniga yo'naltiradi. Uning munosabati iqtisodiy-moliyaviy chegaradan nariga o'tmaydi. Rasmni sotib olgan xaridor esa unda Vatanning bir parchasini, tog' qishlog'ining o'ziga xos go'zalligini ko'radi, undagi ko'zga ko'rinmaydigan, lekin botiniy bir tuyg'u bilan ilg'ab olinadigan ruhni, olislarda qolib ketgan bolalik deb atalgan umrning bir bo'lagini qalban his qiladi, xo'rsiniq aralash quvonch hissini tuyadi. Chunki uning butun botiniy-ruhiy murvatlarining faoliyati, ongi, diqqat-e'tibori, mushohadasi, tasavvuri, qobiliyati, intellektual tajribasi rasmdagi go'zallikning nimasi bilandir tanish va ayni paytda notanish ko'rinishini ilg'ab olishga qaratilgan; har gal u shu rasmga tikilganida ana shu ichki faoliyatga asoslangan jarayonni qayta boshdan kechiradi. Uning rasmga har galgi munosabati estetik munosabatdir. SHunday qilib, sotuvchi qo'liga tushgan mablag'dan qoniqish hosil qilsa, rasm ixlosmandi tasvirlangan manzara go'zalligidan, qalbida uyg'ongan hissiyotdan, olislarga «borib kelgan» xayolotidan, hatto tasavvuridagi, shu tasavvur «turtkisi» tufayli paydo bo'lgan xayoliy manzaradan zavqlanadi. YOki Ko'kaldosh madrasasi yonidan ishga kechikishdan havotirlanib shoshilinch o'tib borayotgan xizmatchini olaylik. U mahobatli estetik ob'ektning ulug'vorligini his etmaydi, bu yodgorlikka nisbatan unda estetik munosabat yuzaga kelmaydi, Chunki vaqt va kundalik tashvishlar iskanjasida yuqoridagi sotuvchiga o'xshab estetik jarayonni boshidan kechirishga tayyor emas. SHunga o'xshash misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Biroq, aytilganlaridan estetik munosabat faqat sub'ektga bog'liq, hamma narsani sub'ekt hal qilar ekan, degan xulosa chiqmasligi kerak. To'g'ri, estetik munosabat individual hodisa, unda ko'p narsa sub'ektga bog'liq lekin hammasi emas, Chunki ob'ekt go'zalligi, ulug'vorligi, ranginligi va hokazo estetik ko'rinishlari bilan muayyan shart-sharoitda o'ziga nisbatan estetik munosabat uyg'otish xususiyatiga ega. Zero estetik ob'ekstiz sub'ekt estetik jarayonni boshidan kechira olmaydi, ya'ni estetik munosabatning faqat bir tomonlama ro'y berishi mumkin emas. Bu o'rinda ob'ekt – estetik «qo'zg'atuvchi», sub'ekt – «qo'zg'aluvchi» rolini o'ynaydi. «Qo'zg'atuvchi» estetik ko'rinishi bilan ta'sir ko'rsasta, «qo'zg'aluvchi» mohiyati bilan ta'sirni qabul qiladi, idrok etadi. Bu idrok etish ob'ektni o'z tasavvurida Yangitdan yaratish bilan yakunlanadi; estetik jarayonning qolaversa, butun boshli, estetik munosabatning ijodiyligi ham ana shunda. Demak, ikki tomonning *biri* (ob'ekt) – yoqimli yoki hayratga soladigan shakl va mazmunni o'zida ifodalaydigan estetik ko'rinishi tufayli, *ikkinchisi (*sub'ekt) – o'sha ko'rinishining idrok etilishini ta'minlovchi hissiy va intellektual murvatlarini o'zida mujassam etganligi bilan estetik munosabatni vujudga keltiradi. Bu munosabat esa, yuqorida aytganimizdek, sub'ekt va ob'ekt o'rtasidagi o'zaro aloqani tashkil etgan estetik jarayonning nisbatan tugallangan shakli sifatida namoyon bo'ladi. Ana shu estetik jarayon ro'y beradigan maydonni biz **nafosat** deb ataymiz.

Nafosat. Nafosat bir tomondan real voqelikni, ikkinchi tomondan ilmiy tushunchani anglatadi. U real voqelik sifatida inson hayotining barcha sohalarini nurlantirib turuvchi qamrovli ma'naviy hodisa, tushuncha sifatida esa estetika faniga oid yuzlab, ehtimol, minglab atamalarni o'z ichiga olgan eng yirik istiloh, Yevropacha ta'rifda – metakategoriya. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, nafosatning «hududi» nihoyatda keng: u ob'ektiv voqelik sifatida narsa-hodisalarning estetik xususiyatlarni anglasta, sub'ektiv voqelik tarzida insonning ana shu estetik xususiyatlarini anglash va idrok etish borasidagi botiniy faoliyatidir. SHu o'rinda estetik xususiyatlar o'zi nima, ularning mavjudlik shartlari nimalar bilan belgilanadi, degan masalaga to'xtalib o'tish joiz.

Odatda go'zallik, ulug'vorlik, fojeaviylik, kulgililik singari istilohlar haqida gap ketganida, biz ularni estetikaning mezoniy tushunchalari yoki asosiy kategoriyalari deymiz. Chunki ular estetika fanining mezonlarini belgilab beradigan istilohlar, fan salmog'ini o'lchaydigan o'lchov tushunchalar vazifasini bajaradi, ya'ni ular yuqorida aytilganidek, o'zlari voqelik bo'lmagani holda estetik voqelikning mohiyati, tuzilmasi shakli v. h. to'g'risida fikrlash uchun maxsus kalit bo'lib xizmat qiladilar. Deylik, go'zallik tushunchasi tabiat, jamiyat yoki san'atda mavjud bo'lgan estetik ob'ektning go'zalligini tadqiq va talqin etish, sharhlash uchun zarur; lekin u narsa-hodisaning ob'ektiv reallikdagi estetik xususiyatini sharxlar ekan, ayni paytda shu xususiyat to'g'risidagi ilmiy talqin mezonlarini belgilab berish vazifasini ham o'taydi. Ana shu ob'ektiv reallikdagi estetik xususiyatlar (go'zallik, ulug'vorlik, fojeaviylik, mo''jizaviylik va boshqalar) nafosatni tashkil etadi. Bu hususiyatlar ham san'at, ham tabiat, ham jamiyat olamidagi ob'ektlarda mavjud bo'ladi. Masalan, CHotqol tog' tizmalariyu, tungi yulduzli osmonning va Samarqanddagi Registon majmuasiyu, Buxorodagi Arslonxon minorasining ulug'vorligi, bahordagi rang-barang lolazorlaru, bujur g'oyani yorib chiqqan tog' gulining va Berta Davidova ijro etgan «Munojot» qo'shig'iyu, Cho'lpon qalamiga mansub «Go'zal» she'rining go'zalligi har ikkala turdagi – tabiat va san'atdagi ob'ektlarga mansub estetik xususiyatlardir. Bundan tashqari, bunday estetik xususiyatlarni biz ishlab chiqarishda – texnika sohasida, dizaynda, atrof-muhitni go'zallashtirishda, oilaviy turmushdayu, sportda va boshqa sohalarda ham ko'rishimiz mumkin. Bularning bari bizni o'rab turgan estetik muhit bo'lmish nafosatni tashkil etadi. Biroq, bu – nafosatning bir tomoni, uni shartli ravishda tashqi nafosat yoki ob'ektdagi nafosat deyishimiz mumkin. Nafosatning ikkinchi tomoni ham borki, o'zini ichki nafosat yoki sub'ektdagi nafosat tarzida namoyon qiladi. Ana shu ikkinchi jihat estetik jarayonni vujudga keltirish xususiyatiga ega bo'lgan falsafiy hodisa-voqelikni estetik anglash bilan belgilanadi. SHunday qilib, biz imkon qadar ichki nafosat-botiniy estetik faoliyat tarixi xususida to'xtalib o'tdik. San'at asarining yaratilishi, umuman badiiy ijod jarayoni, ya'ni tashqi-zohiriy estetik faoliyat to'g'risida keyingi boblarda ma'lumot beramiz.

Estetik did tushunchasining o'ziga xosligi shundaki, u bir tomondan, idrok, fahm, farosat kabi ildizi aqlga borib taqalsa, ikkinchidan, o'zining ehtiros, his-hayajon, sub'ektiv baholash xususiyati bilan ulardan ajralib turadi. SHu sababli biz did haqida gapirganimizda odatda, estetik didni – insondagi go'zallik, ulug'vorlik, fojeaviylik singari estetik xususiyatlarni, umuman, nafosatni idrok etish qobiliyatini nazarda tutamiz. Masalan, osmonni qora bulut to'liq qoplab olganini ko'ra-bila turib, yomg'irpushsiz va soyabonsiz yo'lga chiqqan odamni fahmsiz, chang, loy poyafzalini echmay, gilamni bosib, ichkariga kirgan odamni farosastiz deb ataymiz, qalampirnusxa rangli ko'ylak, jinsi shim va ayni paytda kirza etik kiyib, salla o'rab olgan odamni ko'rsak, uni didsiz deymiz. Birinchi hodisada biz tabiiy sharoitga moslashmay, o'ziga jabr qilayotgan kishini, ikkinchisida ham gigienik, ham axloqiy qonun-qoidalarga amal qilmay tarbiyasizligi tufayli uy egasini ranjitgan odamni, uchinchi hodisada kiyinishdagi uyg'unlikni tushunmagan, go'zallik bilan bachkana yaltiroqlilikning farqiga bormagan kimsani ko'ramiz. YOki, boshqacha qilib aytganda, biz ongning, birinchi hodisada – haqiqatga, keyingisida – ezgulikka, uchinchisida – go'zallikka munosabatini uchratamiz. Har uchala hodisaning asosida ham qobiliyat yotadi. Fahm – aqliy, farosat – axloqiy, did – estetik qobiliyatni yuzaga chiqaradi. Uchala qobiliyatning ham ibtidosi, tabiiy-tug'malikka borib taqalsa-da, ular o'zlarini asosan tarbiya, ijtimoiy munosabatlar orqali ro'yobga chiqaradi. Ayniqsa, estetik did murakkab tarbiya jarayonini taqozo etadi. Chunki u ham aqliy, ham axloqiy, ham hissiy tarbiya uyg'unlashgan umumiylikdan iboratdir.

Biz yuqorida estetik bahoning estetik did va ideal bilan bog'liqligini aytib o'tgan edik. Xuddi shunday holat estetik did uchun ham xos. U estetik baho bilan shu qadar uzviy bog'liqki, ularni ba'zan ajratib bo'lmay qoladi, go'yo estetik baho estetik didning ajralmas qismiday tuyuladi. Lekin, shunday bo'lsa-da, ularni aynanlashtirish yoki bir hodisa sifatida qabul qilish mumkin emas, aks holda bunday qarash ilmiy tahlil tamoyillaridan yiroq «ko'cha gapi»ga aylanib qoladi. Zero estetik did muayyan estetik baho yoki baholar yig'indisi emas, balki estetik bahoga layoqatni anglatadigan, sub'ekt uchun baho me'yorlarini va mezonlarini tayyorlab beruvchi – «ishlab chiqaruvchi» jarayondir. Demak, estetik didsiz estetik bahoning mavjudligi mumkin emas. Ayni paytda shunday holni estetik ideal bilan bog'liqlikda ham ko'rish mumkin: estetik ideal estetik didning yashash sharti hisoblanadi; did ma'lum ma'noda idealning amaliyotda namoyon bo'lishidir; estetik idealning o'zgarishi albatta didning o'zgarishiga olib keladi. SHunday qilib, did estetik anglash jarayonidagi o'rnini almashtirib bo'lmaydigan muhim xalqalaridan biri, estetik anglashning eng muhim unsuridir. Ana shu nuqtai nazardan estetik did tarbiyasi inson shaxsi kamolotida katta rol o'ynaydi, estetik did tarbiyasining asosan uch ildizi mavjud. Ular go'zallik**,** san'at va badiiy ijod. Albatta, badiiy ijod deganda faqat san'at asarlarining yaratilish jarayonini tushunish kerak emas, u ayni paytda dizaynda, modada, atrof-muhitni va mehnatni go'zallashtirishda ham namoyon bo'ladi. To'g'ri, badiiy did estetik didga nisbatan xususiy, tor qamrovli, lekin u shuning barobarida estetik didning asosini tashkil etadi, deyish mumkin.

Estetik did har kimda har xil bo'lishini, unda sub'ektiv mushohada kuchli ekanini yaxshi bilamiz. Buyuk ingliz faylasufi Deyvid Hyum shundan kelib chiqib, did haqida bahslashmaydilar, ya'ni har kimning didi har xil degan fikrni ilgari surgan. Lekin shunday estetik qadriyatlar borki, ular muayyan zamon, ijtimoiy hayot, umummilliy, umuminsoniy madaniy daraja bilan shartlanadi. Ular idrok etilganida bahslashish mumkin emas, Chunki bunda bir-ikki odamning yoki guruhning didi o'zgacharoq bo'lsa, xususiylikka nisbatan maxsus e'tiborini qaratish shart emas: ularning fikri sukut saqlash yo'li bilan inkor etiladi. Chunki yuz minglab yoki millionlab shaxslar va qator zamonlar tan olgan qadriyatni «bu menga yoqmaydi», deyishga hech kimning ma'naviy haqqi yo'q, agar shunday deydiganlar topilsa, ularning didi, aytilganidek, e'tiborga noloyiq. SHuning uchun ham Kant o'zining did haqida bahslashish ham mumkin va aksincha bahslashmaslik ham mumkin, degan mashhur qoidasini, o'ziga xos antinomiyani o'rtaga tashlaydi. Kantning haqligini quyidagi misolda yaqqol ko'rish mumkin.

Deylik, Eshmat chinnigulni, Toshmat esa atirgulni yaxshi ko'radi. Bu holatda ularning birortasini tanqid qilib bo'lmaydi, Chunki har ikki did o'ziga xos sub'ektiv kechinmalarga asoslansa-da, ularning umumiy ob'ektiv ildizlari bor, ular gullardagi go'zallikni ikki xil shaklda ko'radilar va bu holat tabiiy. SHu sababli har ikki did ham hurmatga, e'tiborga loyiq. Bordiyu Eshmat tovus va uning dumini, Toshmat esa echkiemar va uning dumini go'zal desa, Toshmatning fikri yo nom chiqarish uchun qilinayotgan oliftagarchilik yoki estetik didsizlik tarzida qabul qilinadi. Chunki insoniyat zamonlar mobaynida tovusni – jannat qushi, go'zallik ramzi tarzida, echkiemarni esa xunuklik timsoli sifatida qabul qilib keladi: bu o'rinda did borasida bahslashish mumkin emas, tovusning go'zalligi umubashariy «tasdiqdan o'tgan». SHu sababli Toshmatning fikri tanqid rad etiladi, uning «o'ziga xos», «sub'ektiv» qarashi hisobga olinmaydi.

SHunday qilib, umumbashariy yoki umuminsoniy estetik qadriyat sifatida tan olingan estetik ob'ektlar haqida bahslashilmaydi, ular barcha rasmona did egalari tomonidan yuksak baholanadilar.

Ayni paytda shuni ham nazarda tutish lozimki, did yagona, mutlaq estetik hodisa emas, u ham muayyan nisbiylik tabiatiga ega. Chunonchi, uning to'rt xil darajasi haqida fikr yuritish mumkin, bu darajalar odamlarning mavqei, saviyasi, madaniylik toifasi bilan bog'liq. Birinchisi, estetik ob'ektni qanday bo'lsa, shundayligicha, aniq bir reallik tarzida idrok etuvchi sub'ektiv fikri ojiz, biror ob'ektni hamma zo'r desa, zo'r ekan deb qaraydigan faqat jo'n idrok etishga asoslangan did. Ikkinchisi, uning aksi – nafosatni zavqlanish uchun emas, balki o'zining boshqalardan madaniyatliligini, o'qimishliligini ko'rsatish uchun bir vosita deb biladigan, zavqlanishni murakkab tahlil bilan almashtiradigan did egalari. Ularni odatda, nafosatbozlar-estetlar deb ataymiz. Uchinchisi, bejamadorlikdan, yaraqlab turadigan narsa-hodisalardan hayratlanadigan, modaparast did egasi. To'rtinchisi, milliy va umumbashariy estetik qadriyatlardan zavqlanadigan, ularni, baholay oladigan, badiiy soddalikni anglay biladigan kishilar didi.

Birinchi xildagi did estetik ob'ektni faqat hodisa tarzida qabul qilib, uning mohiyatini butunlay anglamaydigan, jo'n hissiyotga asoslangan did; ikkinchisi, mohiyatni hodisadan ajratib olib, uni «kavlashtiraveradigan», o'ta murakkablashtiradigan, faqat intellekt bilan, aql bilan ish ko'radigan did; uchinchisi, o'ta yaltiroqlikni, yoqtiradigan har bir Yangilikni qadriyat sifatida qabul qiladigan bachkana did. To'rtinchisi, hodisa bilan mohiyatni yaxlitlik tarzida idrok etadigan, hissiy-intellektual yondashuvning uyg'unligiga asoslangan did. Ana shu to'rtinchi xil didni haqiqiy yuksak estetik did, deyish mumkin.

Aytilganlardan estetik did masalasi shaxs, jamiyat va millat madaniyati uchun katta ahamiyatga ega ekani ravshan bo'lib turibdi. SHu sababli estetik did tarbiyasi har doim ham muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Ayniqsa, mustamlaka botqog'idan chiqqan halqimizning tenglar ichida teng bo'lib, jahonga rosmana chiqishi uchun estetik did tarbiyasi alohida dolzarblikka ega. Biz qurayotgan erkin fuqarolik jamiyati va unda har bir shaxsning yuksak estetik didga erishishi zamon talabidir. Chunki faqat yuksak estetik did egasigina haqiqiy erkin fikrlash salohiyatiga, dunyoni, Vatanni, hayotni go'zallik prizmasi orqali ko'ra bilish qobiliyatiga ega bo'la oladi.

Estetik did murakkab hissiy-intellektual hodisa, dedik. Uning bu xususiyati doimo, yuqorida aytganimizdek, estetik ideal bilan bog'liq – estetik ideal, bir tomondan, didni belgilab bersa, ikkinchi tomondan, estetik did estetik idealning amaldagi ko'rinishidir. Xo'sh, estetik idelning o'zi nima? Endi estetik anglashning ana shu unsuriga to'xtalamiz.

Estetik ideal. Ideal deganda, biz odatda muayyan bir inson shaxsi yoki ijtimoiy-tarixiy hodisaning boshqalar tomonidan yuksak namuna, oliy maqsad hamda komillik tarzida qabul qilinishini nazarda tutamiz. U tasavvurdagi shaxs yoki jamiyatni real shaxslar va mavjud jamiyatdan yuqori qo'yish, ya'ni ideallashtirish bilan bog'liq. Masalan, o'zbekistonni kelajagi buyuk davlat sifatida tasavvur etishimiz uning hozirgi reallikdan baland, namunaviy bo'lishi lozimligini anglatadi. Ayni paytda ana shu yuksak namunaviylik har bir o'zini tanigan odam uchun oliy ijtimoiy maqsaddir. Yoki Navoiy shaxsini olib ko'raylik, u komil inson sifatida biz uchun ideal hisoblanadi. Bularni biz ijtimoiy ideallar sirasiga kiritamiz. SHuningdek, har bir inson o'zi intiladigan sub'ektiv ideallar ham mavjud bo'ladi, o'z idealini belgilab olmagan inson shaxs hisoblanmaydi. Zero har bir odam ko'rib turganidan yorug'roq, musafforoq, yuksakroq narsaga intilishi shart, aks holda uning hayoti ma'nosiz kechadi, uning mavjudligi faqat biologik jonzodligi bilan chegaralanib qoladi.

Ideal borasida gap ketganda, uning mavjudlik shartlari masalasi muhim. Ijtimoiy ideal ko'proq kelajak bilan, shaxsiy ideal esa asosan o'tmish bilan bog'liq. Masalan Forobiyning fozil odamlar shahri – kelajakda ma'lum ma'noda reallikka aylanishi mumkin bo'lgan ideal jamiyat. Bir necha asr avval yashab o'tgan Jaloliddin Manguberdi esa o'zbek millati uchun, ayniqsa yoshlarimiz uchun ideal qahramon. Lekin har ikki holda ham ideal real hayotimizda mavjud emas – biri kelajakdan, ikkinchisi esa o'tmish qa'ridan turib bizni yuksak axloqiylik, baxt va qahramonlikka chorlaydi. To'g'ri, shaxsiy ideal real hayotda ham mavjud bo'lishi mumkin. Biroq bunday ideal ko'pincha ma'naviyatni mafkuraga bo'ysundirish oqibatida vujudga keladi. SHu sababli unga ko'proq vaqtinchalik, o'tkinchilik xususiyati xos: u jamiyatga hodisa sifatidagina ruhiy ta'sir ko'rsatadi va Yangi bir mohiyat ochilgan paytda o'z ideallik xususiyatini yo'qotadi: «unday emas», «bunday» bo'lib chiqadi. G'oyaning o'z realligiga mos emasligi ochilib qoladi. «Zero ideal – deydi, Gegel – o'z realligi bilan aynanlashgan g'oyadir». Masalan, Lenin, Stalin kabi shaxslar Yolg'on tashviqot, siyosiy firibgarliklar, vositasida jamiyatni totalitar mafkuraviylashtirish natijasida ma'lum muddat ideal sifatida qabul qilindilar. Lekin ularning asl mohiyati, munofiqliklari, qattolliklari, qizil terrorga asoslanib siyosat yurgizganliklari fosh etilgach, ular aksil idealga aylandilar.

Idealning murakkab tomoni shundaki, u qadriyat bilan bog'liq. Qadriyat idealning ob'ektdagi in'ikosi tarzida namoyon bo'ladi. Gegel so'zlari bilan aytganda: «Ideal mavjud bo'lishi uchun tashqi shakl o'z-o'zicha qalbga mos kelishi lozim». Ya'ni ideal jonli sub'ektning qalbiga mos keladigan namunaviy shakldir, unda inson o'z g'oyalarining hissiy-intellektual ko'rinishini ma'naviy qadriyat sifatida idrok etadi. Bordiyu mazkur g'oyalar o'ta mafkuraviylashtirilsa yuqorida aytganimizdek, ideal o'rnida aksil ideal paydo bo'ladi. Ijtimoiy-axloqiy idealning o'zgaruvchanlik xususiyati ko'pincha ana shu bilan bog'liq. Bu hodisa tarixiy jarayonlar, zamon, jamiyat talablaridan kelib chiqib, qadriyatlarning qayta baholanishi natijasida ro'y beradi. Lekin diniy ideal o'zgarmaslik tabiatiga ega. Masalan, musulmonlar uchun Muhammad alayhissalom, nasroniylar uchun Iso alayhissalom, buddhaviylik dinidagilar uchun Buddha ideal hisoblanadi va har qanday sharoitda ham ular idealligicha qolaveradi.

Mana, biz ma'lum ma'noda ijtimoiy ideal haqida tushunchaga ega bo'ldik. Endi estetik ideal nimada, uning ahamiyati nima degan savollarga javob topishga harakat qilamiz.

Avvalo shuni aytish kerakki, estetik ideal inson, shaxs va jamiyatning estetik tajribasidan vujudga keladi. Inson dunyoni ana shu tajriba vositasida estetik idrok etadi. SHu sababli estetik ideal go'zallik, ulug'vorlik mo''jizaviylik va boshqa. estetik xususiyatlarni belgilovchi mezon sifatida yuzaga chiqadi. Inson ana shu idealga mos keladigan go'zallik yoki ulug'vorlikni tan oladi, mos kelmaydiganlarini esa aksil estetik hodisa sifatida inkor etadi.

Estetik ideal o'ziga mos go'zallik, ulug'vorlikni yoki mo''jizaviylikni ko'proq san'atdan topadi. SHu tufayli u doimo erkinlikni talab qiladi. Avvalo san'at asari orqali san'atkor voqelikni o'z ideali prizmasidan o'tkazib tasvirlaydi, boshqacharoq aytganda, o'z ideallarini san'at vositasida moddiylashtiradi: binoga, haykalga, romanga, spektaklga, rasmga, badiiy asarga va boshqa ma'naviy hodisalarga aylantiradi: san'atkor erkin harakat qiladi. Biz esa o'z ideallarimizni ulardagi obrazlar orqali tanlaymiz, ularni o'zimiz uchun ma'lum muddatga yoki bir umrga namuna qilib belgilaymiz, bu holatdagi xatti-harakatimiz ham erkinlik orqali ro'y beradi. Ya'ni, san'at har bir insonni individual o'ziga xosligini hisobga olgan holda, uning o'z estetik idealini obrazlar vositasida shakllantiradi. Estetik idealning ana shu shakllanish jarayoni murakkab; uzoq muddatni, hissiy-intellektual qudratni, tanlov

imkonini beradigan muayyan shart-sharoitni, erkin jamiyatni taqozo etadi; ana o'shanda shaxs uchun to'g'ri ruhiy yo'lanma vujudga keladi.

Qisqacha qilib aytganda, estetik idealning shakllanishida go'zallik, ulug'vorlik, hayoliylik, mo''jizaviylik, uyg'unlik singari xususiyatlar asos vazifasini o'taydi. Ayni paytda u fojeaviylik va kulgililik tushunchalarida ham o'zini namoyon etadi, xunuklik va tubanlik kabi hodisalarni baholashda ishtirok qiladi.

Estetik go'zallikning xilma - xil ko'rinishlari orasida tabiatning go'zalligi inson uchun hammadan ko'ra yaqinroq va tushunarliroqdir. Tabiat - butun tabiiy xilma - xilligi bilan bizni o'rab turgan dunyo demakdir.

Tabiat go'zalligidan inson nafaqat moddiy foyda, balki ma'naviy zavq otldi. Ollox jamiyat bilan birga tabiatni ham shu qadar go'zal qilib yaratganki, kishi tabiat qo'ynida bir marta sayr qilsa qalbi yana tabiat qo'yniga oshiqadi. Tabiat go'zalligi - ne shoirlarni qalam tebratishga undagan. Tabiat ne'matlaridan, go'zalligidan bahra olib shoirlarimiz she'rlar bitishgan.

Tabiat- estetik tarbiyaning zaruriy vositasi. Shuni maxsus ta'kidlash kerakki, zamonaviy inson tarbiyasini estetik jihatdan kamol toptirishda oila qanchalik ustuvor omil bo'lib hisoblansa, bu jarayonda tabiat ham undan kam ahamiyat kasb etmaydi. Chunki tabiat bilan ongli tarzda murosa qilmaslik shaxsni nafosatli jihatdan mukammal bo'lib yetishishiga monelik ko'rsatadi. Shuning uchun inson va tabiat o'rtasidagi munosabat inqiroz va halokat yoqasiga kelib qolgan hozirgi vaqtda bu muammoni chetlab o'tish maqsadga muvofiq bo'lmaydi.

Informatsion texnologiyalar-estetik tarbiyaning global vositasi. Bir paytlar tabiiy va texnika bo'yicha mutaxassislar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalari talabalariga " Sizning idealingiz asosan qaysi sohalarda aks etadi?", degan savolga ularning ko'pchiligi san'at, adabiyot va ma'rifat sohasida ko'proq aks etadi, degan javob berishgani ham fikrlarimizni isbotlaydi.

Aytish mumkinki, axborot va kommunikatsiya texnologiyasi bugungi kunda insoniy va iqtisodiy taraqqiyotning muhim vositasiga aylanishi natijasida odamlarning turmush tarzini, o'zaro aloqasini hatto tashqi ko'rinishi ham tubdan o'zgarishiga olib keldi.

Estetikaning xususiyatlaridan biri : Estetikaning borliqni estetik o'zlashtirish moxiyati va qonuniyatlari haqidagi fan sifatida bir qancha xususiyatlarga ega.

• Estetika fani inson tevarak atrofidagi moddiy va ma'naviy boyliklarning barchasini qamga olishga,

• Inson faoliyatining barcha jabxalaridagi nafosat olamini san'at turlari vositasida chuqur o'rganishga da'vat etadi. San'at esa-estetik boyliklarni yaratish manbaidir.

• San'atni ilmiy jixatidan taxlil va tadbiq etish bilan estetik faoliyatining barcha ko'rinishlariga ilmiy jixatdan yondashish uchun zamin yaratiladi.

• San'at va badiiy ijodning tabiatini va mohiyatini o'rganish, qonuniyatlarini o'zlashtirish, go'zallikni o'rganish uchun kalit vazifasini o'taydi.

Boshqa fanlarda bo'lgani singari estetikani ham bir qancha muammolari bor. Estetika fanining muammolaridan biri go'zallik muammosidir.

Estetika jamiyatdagi, tabiat va san'atdagi go'zallik nimadan iborat ekanligini tushuntirib beradi. Go'zallikning ob'ektiv mezonini ochib beradi. Estetika go'zallik voqelikning o'zida mavjuddir. Shuning uchun san'at, hayotdagi go'zallikni bilish va aks ettirish deb hisoblaydi. San'atdagi go'zallik voqelikdagi go'zallikdan ustun turmaydi, faqat voqelikdan ayrim konkret ko'rinishlariga qaraganda, san'atdagi go'zallik mukammalroq namoyon bo'ladi xolos. Insonning eng go'zal fazilatlari uning mehnatga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi. Odam bolasi yoshlikdan boshlab mexnatga o'rgansa, mexnat orqali baxtini va quvonchini, hayotdagi o'rnini topishni yaxshi tushunib etsa ayni muddao. AKS Holda mexnatni hayotiy extiyoj deb bilmagan shaxs nafosatni inson go'zalligini ham tushunib etmaydi.

2. ikkinchi muammo. Estetika fani san'atning mazmun va shakli singari masala ham muxim o'rin tutadi. Estetika fani.

3. Estetikaning yana bir muxim muammolardan biri badiiy obraz muammosidir. Badiiy obraz hayotni aks ettirishni , uni umumlashtirishning san'atga xos spesifik xususiyatidir.

4. Va nixoyat yana bir muammo badiiy diddir.

Badiiy did-kishining adabiyot va san'at asarlaridan ma'naviy quvonch olishi uning badiiy dididа namoyon bo'ladi. Negaki, kishilar san'at va adabiyotni sevadilar. Badiiy ijodiyotsiz insoniyat hayotini tasavvur etish qiyin. San'at asarlarini idrok etganda inson ko'ngil ila vujudga kelgan tuyg'ular o'zini kuchli turkuni , ijtimoiy mazmuni bilan ajralib turadi. Chunki, badiiy ijodiyotdagi har bir obraz, har bir xarakter ma'lum ijtimoiy idealni ifodalaydi, ma'lum axloqiy va estetik g'oyani ilgari suradi. Bu jihatdan san'atning ijtimoiy ong formalaridan biri sifatida kishilaming tushunchasiga, ijtimoiy faoliyatiga ko'rsatadigan ta'siri nixoyatda kattadir. San'at universal xususiyatlarga ega bo'lib, barcha ijtimoiy guruxlarni, voqe'likni estetik jihatdan o'zlashtirishga da'vat etadi.

Estetika tuyg'ularning ma'naviy tus olishi uchun yetakchi omilga aylanadi. Estetika ishlab chiqarish, kishilarning mehnatiga tobora ko'proq kirib bormoqda. Endilkda korxonalarda Yangi xil stanoklar, sex jihozlarining estetik sifatini ta'minlash, korxonalarning barcha binolari estetik talablarga javob berishi, go'zallik tuyg'ularini uyg'ota olishi va qondirish uchun g'amxo'rlik qilish bilan bevosita mutaxasislar paydo bo'lmoqda.

Bozor iqtisodiyoti sharoitidagi talabalaridan yana biri o'quv yurtlari, binolari va o'quvxonalarini yosh avlodning badiiy didiga, hamda estetik ehtiyojlariga javob beradigan tarzda jixozlantirishdir.

Maxsus fan ishlab chiqarish estetikasi, texnika estetikasi fani paydo bo'ldi. Ilgari ishlab chiqarishda uchramagan «texnika estetikasi», «dizayn» kabi tushunchalar hayotimizga kirib keldi.

Hozirgi zamon sanoat ishlab chiqarishning estetik tomonining o'rganadigan fani texnika estetikasi deyiladi. Bu bilan mutaxassis rassomlar shug'ullanadi. Ularning san'ati «dizayn» degan nom bilan yuritiladi.

Dizayn nima? Dizayn- bu ishlab chiqarishda rassomlar, «dizaynerlar» tomonidan bo'lajak buyum loyixasining yaratilishini o'z ichiga oladigan estetik faoliyatning turi hamda ijod natijasi sifatga, ega bo'lgan tayyor sanoat buyumi.

Predmetlartarning vazifasi: 1) Predmetlartar tibsizligiga barham berish 2) predmetlar olamini tartibga keltirish 3) texnika estetikasi va dizayn, uning nazariya va amaliyotining vazifasi ana shubdan iborat.

Har qanday texnik shaklga dizayn tomonidan qo'yiladigan asosiy talab - *foydalilik qulaylik va go'zallikdir* .

Masalan : Dastlabki avtomobil shakl jixatidan oddiy qadimgi ekipajni eslatgan. Uning havo qarshiligiga kamroq uchraydigan, o'qlarining past tushishi kabi sifatlari bilib olingandan so'ng, bizning bugungi kunda zavqlantiradigan va ko'zimizni quvontiradigan o'sha dinamik shakli yaratilgan .

Hozirgi zamon avtomobilining go'zalligini uning amaliy vazifasidan ajratib bo'lmaydi .

Yaqin kelajak texnikasi yanada mukammalroq va go'zalroq mashinalar yaratadi. Buning guvohi qudratli kemalar va laboratoriyalarda ranglar tanlab, operatorlik posti signalizasiyasini soddalashtirib, dizayner unga Yangi, go'zal qiyofa beradi. U avtomobil, samolyot, teploxod, sex, zavodning ichki salonining jihozlashi mumkin.

18-mavzu: Estetikaning zamonaviy muammolari.

Reja:

1. Estetik tarbiyaning turlari va yo'nalishlari.
2. Insonning tabiiy, axokiy va estetik didining mutanosibligi. "Ommaviy madaniyat"ning yoshlar estetik didiga ta'siri.
3. Sport va uning ma'naviy-estetik jihatlari.
4. Olamni estetik anglashda texnologiyalarning roli. Reklamaning estetik jihatlari va g'ayriestetik xolatlar.

Estetik tarbiya – jamiyatda ma'naviy muhitni paydo qilishga ko'mak beruvchi muhim unsur bo'lib, u inson didini shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi hamda ana shu orqali insonni jamiyat munosabatlariga yaqinlashtiruvchi kuchdir.

Hozirda estetik tarbiyaning ko'lami tobora kengaymoqda. Shunga ko'ra, u o'z oldiga talaygina muhim vazifalarni qo'ygan. Bular: -kishilarda san'at asarlari, badiiy ijod namunalarini nafaqat faol o'zlashtirish balki, ularning estetik mohiyatini anglash va baholash qobiliyatini takomillashtirish;

-jamiyat a'zolarining ijodiy imkoniyatlarini namoyon qildirish va ulardan foydalana bilishga ishonch tuyg'usini uyg'otish;

- tabiat hamda jamiyat ijtimoiy jarayonlariga sof tuyg'u bilan munosabatda bo'lishga va ularni ravnaq toptirish yo'lida astoydil faoliyat olib borish ko'nikmalarini hosil qilish;

- o'tmish ma'naviy merosimizga hurmat hissini uyg'otish, milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'ularini shakllantirish uchun zamin yaratish;

- ijodning barcha turlarini taraqqiy ettirib jahonga yuz tutish va ularni millat manfaatlari uchun naf keltiradigan tomonlarini targ'ib qilishga undashdir.

Estetik tarbiyaning asosiy vositalari tarkibiga- san'at, information texnologiyalar, tabiat, mehnat, sport kabi sohalarni kiritish mumkin.

San'at- estetik tarbiyaning muhim vositasi. Bugungi kunda jamiyatimizda inson faoliyatini boshqarib borishdan ko'ra, ushbu jarayonni insonning o'zi tashkil etishi kerakligi bot-bot uqtirilmoqda. Bu jarayonda san'at mohiyatan shaxsning his-tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan muhim vosita sifatida insonni doimo o'ziga jalb etib kelgan. San'at insonning ehtiroslar va tuyg'ular olamiga singib borib ularni yig'latadi, kuldiradi, o'ylashga majbur qiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak san'at barcha davrlarda insonga hamroh bo'lib kelgan.

San'at o'zining estetik bisotini to'laligicha namoyon qilishi uchun ham tarbiya jarayoni bilan chambarchas bog'lanadi. Chunonchi, inson tafakkurini go'zallashtirish estetikaning tadqiqot obyekti hisoblansa, estetik tarbiyaning predmeti esa ma'naviy dunyoni inson tomonidan estetik anglash bilan belgilanadi.

San'at xillari va turlarini tasniflashtirish muammosi

Tasniflashtirish avvalo san'atni xillashdan boshlanadi. San'at an'anaviy tarzda uch xilga bo'lib kelinadi: 1) epos; 2) lirika; 3) drama.

«Epos» atamasi qadimgi yunonchadan olingan bo'lib, so'z, hikoya, qissa ma'nolarini anglatadi. Unda muallifning o'zi aralashmagan holda voqeanavislik qilishi, ya'ni ijodkor-sub'ektdan voqelik-ob'ekt alohidalik tabiatiga egaligi eng muhim belgi hisoblanadi. U dastlab badiiy adabiyot doirasida qo'llanilgani uchun hozir ham ba'zilar uni faqat og'zaki va yozma adabiyot namunalariga nisbatan tadbiq etishga urinadilar. Bunga qo'shilib bo'lmaydi. Chunki san'at turlari ravnaq topib borishi natijasida hozir eposni epiklik ma'nosida qo'llash, boshqa san'at turlariga ham nisbat berish mumkin. Endilikda faqat Homerning «Iliada»si, «Alpomish», «Kalevala» dostonlarigina, roman janrining vujudga kelishi bilan, L.Tolstoyning «Urush va tinchlik», Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar» romanlari singari asarlar ham san'atning epos xiliga kiradi. Bugina emas, keyingi paytlarda rangtasvir, musiqa v.b. san'at turlariga ham eposni tadbiq etish mumkin bo'lib qoldi. M., Rixard Vagnerning «Nibelunglar uzugi» operasini, Bahodir Jalolovning panno-polotnolarini, xalq qahramonligiga bag'ishlagan haykaltaroshlik majmularini v.b. shu kabi miqyosli asarlarni misol qilib keltirish mumkin.

Lirika eposdan ko'pincha qat'iy syujet chiziqlariga ega emasligi, voqelikni ob'ektda emas, sub'ektda berilishi, bevosita muallifning «aralashuvi» bilan shartlanganligi tufayli vajralib turadi. Ayni paytda ko'lam nuqtayi nazaridan ham uni farqlash mumkin; lirikadagi voqelik muallifning hissiyotlari prizmasidan o'tib, idrok etuvchiga etib boradi; unda hajm eposdagidek katta ham bo'lishi mumkin, lekin miqyos, ko'lam sub'ektlashtirilgan ob'ekt tarzida, sub'ektning bir qismi sifatida nisbatan torayadi va kichrayadi. Lekin idrok etuvchi dunyosini eposdagidan kam boyitmaydi, voqeiylikning kambag'allashuvi hissiyotlarning mo'lligi orqali o'z rasamadini topadi. Xullas, eposda muallif idrok etuvchini olisdan kuzatib borsa, lirikada u bilan yonma-yon «suhbatlashib» boradi. SHuning uchun muallifni odatda «lirik qahramon» deb ataydilar. Lekin lirik qahramonni muallif «men»i bilan hamma vaqt ham aynanlashtirish maqsadga muvofiq emas. Bu «men» umuman inson, m., u yo kosib, yo qari, yoki yosh, yo o'tkinchi, yo bevafo sevgilisini o'ldirgan kishi v.h. Muallif esa, aslida ularning birortasi ham emas, butunlay boshqa odam bo'lishi mumkin. Bu erda «men»ning kimligi masalani hal qilmaydi, balki uning idrok etuvchiga beradiga lirik kayfiyati muhim. Zero lirikaning asosiy vazifasi aynan ana shu. Mohiyatan lirik kayfiyat bag'ishlashga qaratilgan asarlarni biz faqat she'riyatda, badiiy adabiyotda emas, san'atning rangtasvir, qo'shiqchilik, musiqa kabi turlarida ham uchratamiz. Ya'ni, lirikani yaratishda so'zdan tashqari rang, ohang, ovoz singari badiiy asar «tillari»ning ishtiroq etishini e'tirof qilmoq lozim.

Drama (yunonchada-harakat degani) sahnada ijro etishga mo'ljallangan, matni qatnashuvchilarning dialog va monologlari asosiga qurilgan, voqelikdagi hayotiy qarama-qarshiliklarni zididiyat holati (konflikt) orqali ifodalaydigan, san'atning nisbatan «sof» adabiy xili. Dramada lirikadagi sub'ektivlashish hodisasi yo'q, eposdagi voqeanavislikni ham uchratmaymiz: hamma narsani ishtirok etuvchilarning xatti-harakatlari va nutqlari hal qiladi. SHuningdek, unda eposdagi «og'ir karvonlikni», lirikadagi «oniy kayfiyatni» ham ko'rmaymiz: qahramonlar taqdiri dinamik tarzda rivojlanib boradigan fojeaviy azob-uqubatlar, og'ir ko'rgiliklar yoki tanqidiy kulgi vositasidagi echim bilan nihoya topadi. Kino san'ati vujudga kelganidan keyin kinokomediya, kinodramaturgiya kabi atamalar ham estetikaga kerib keldi.

San'at o'ziga xos yaxlitlikka ega ekanini ko'rib o'tgan edik. SHu jihatdan olganda, uning bu uch xilini juda qat'iy chegaralab, ajratib tashlash mumkin emas: ular muayyan yaxlitlikning uch qismi sifatida harakat qiladi, bir-biri bilan dialektik aloqada voqe bo'ladi. Eposda lirika va drama unsurlarini, lirikada epik va dramatik holatlarni, dramada – lirizmni ko'p uchrtamiz. Chunonchi, «liro-epik doston», «lirik drama», «dramatik doston», «she'riy darama», singari janriy ko'rinishlar, epik asarlardagi lirik chekinishlar – ularaning o'zaro aloqadorlignini ta'kidlab turadi.

Shunday qilib, san'atni xillash borasida qisqacha fikrlashib oldik. Endi eng og'ir muammo - san'at turlarini tasniflashtirishga o'tamiz. Bu haqda o'nlab ilmiy taklif-mulohazalar mavjud. Ba'zi olimlar - voqelikning in'ikos ettirilishi, boshqalar - asarning idrok qilinishi, yana birovlar - badiiy mazmunning o'ziga xos «til»da ifodalanishi nuqtayi nazaridan tasniflashtirshga yondashganalar. M., so'z san'ati, tovush san'ati, plastik san'at yoki tomoshaviy san'at, tasviriy san'at, ifodaviy san'at v.h. Eng so'nggi Yangilik sifatida ularning bor-yo'g'i ikki turkumga bo'linishini keltirish mumkin.: tasviriy san'at va notasviriy san'at. Afsuski, bularning birortasini ham turkumlashtirishdagi to'g'ri yo'l deb atash qiyin. M., badiiy adabiyot – so'z san'ati. Lekin mohiyatan u so'z orqali tasvirlash san'ati. Xuddi shuningdek, musiqa – ohang orqali, haykaltaroshlik – substrat orqali, raqs – harakat orqali tasvirlash san'ati emasmi?! YOki boshqa bir misol. Teatr, kino – tomosha san'ati. Lekin tasviriy san'at turkumiga kiradigan rassomlikni, haykaltaroshlikni tomosha qilmaymizmi?! YOki bemalol hamma san'at turlarini ifodaviy degan bir turkumga kiritish mumkin emasmi?! Axir, hammasi muayyan mazmunni «o'z tili» - rang, ohang, so'z, substrat v.h. bilan ifodalamaydimi?! Xullas, bunday tasniflashtirishda manaman degan estetik-faylasufning ham, motorni echib, bir chekkadan ochib, so'ng yiqqan paytida ancha muncha gayka, bolt, vint kabi murvatlari ortib qolib, ularni qayoqqa joylashtirishni bilmay boshi qotgan haydovchining ahvoliga tushishi hech gap emas. Bizning nazarimizda, bu borada mantiqiy yondashuv tamoyili yaxshi ish bermaydi. Chunki san'atda shartlilik ustuvor rol o'ynaydi, uning alohida o'z mantiqi – badiiy mantiq bor, shu bois doim ham unga doir mulohazalar, oddiy mantiq ilmi qoidalariga amal qilavermaydi.

Mazkur muohazalarni hisobga olgan holda, biz, san'atning mavjudlik shartidan, ya'ni uning ma'naviy borliq sifatida namoyon bo'lish holatidan kelib chiqib, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan makon (me'morlik, haykaltaroshlik v.h.), zamon (badiiy adabiyot, musiqa v.h.) va makon-zamon (teatr, stirk v.h.) bo'yicha tasniflashtirishni ma'qul deb hisoblaymiz. Biroq san'at tarixiy hodisa ekanini, u qadimdan tadrijiy rivojlanib kelganini, taraqqiyoti mobaynida o'zgarishlarga uchraganini va ma'lum bir tarixiy davrda muayyan san'at turi faol, etakchi bo'lganini nazarda tutib, ayni paytda yuqoridagi birgina turkumlashtirish hamma tomonni qamrab olomasligini hisobga olib, masalaga tarixiylik tamoyili asosida yondashuvni ham maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Shundan kelib chiqqan holda, biz taklif etayotgan tasnif san'at turlarini uch turkumga bo'lib o'rganishin taqozo qiladi. Bular: 1) arxaik - endilikda tarixga aylangan, hozirga paytda real hayotda amalda bo'lmagan; 2) an'anaviy - qadimdan hozirgi kungacha o'z o'rnini va ahamiyatini yo'qotmay kelayotgan; 3) zamonaviy – ilmiy-texnik taraqqiyot natijasida vujudga kelgan «texnikaviy», Yangi san'at turlari.

Ushbu tasnifga ko'ra, arxaik san'at turlari – badihago'ylik va xattotlikni; an'anaviy san'at turlari – badiiy adabiyot, baxshilik, me'morlik, ko'rgazmali amaliy san'at, haykaltaroshlik, rangtasvir, grafika, musiqa, teatr, raqs, qo'shiqchilik, estrada, stirk va askiyani; zamonaviy san'at turlari – fotosan'at (badiiy suratkashlik), kino, televidenieni o'z ichiga oladi.

Mazkur ikki yo'nalishdagi turkumlashtirish ma'lum ma'noda san'at turlarini tasniflashtirishni estetik boshqotirmaga aylanib ketishdan saqlashga xizmat qiladi, deb o'ylaymiz.

Arxaik san'at turlari

Arxaik turga qaysi san'at turlari kirishi sizga ma'lum. SHu bois to'g'ridan-to'g'ri ular, imkon doiramizdan kelib chiqqan holda, qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Badihago'ylik. Bu san'at turi asosan lirik yoki didaktik she'rlarni o'z ichiga oladi. Badihago'ylarni ba'zan maddohlar deb ham atashgan. U asosan Sharqda vujudga kelgan va taraqqiy topgan. Uni g'arb adabiyotidagi imporovizastiya yoki ekspromt san'atkorlar bilan chalkashtirish kerak emas. Chunki ular muayyan san'at turi ichidagi hozirjavoblik, xolos. Badihago'ylik – og'zaki ijod qiluvchi san'atkor. Uning baxshidan farqi o'z mavzuiga ega ekanligi, she'rlarning jamoaviy, halq og'zaki ijodi variantlari yoki versiyalari emas, balki mustaqil asar sifatida idrok etish bilan bog'liq. Badihaqigo'y buyurtmaga binoan ko'pincha bozorlarda, ba'zan saroylarda she'r o'qigan, goho she'rni musiqiy asbob jo'rligida ijro etgan. Badihaning bahosi uning qay darajada originalligi, tashbehlarning quyuqligi, buyurtma egasining qalbida etib borishi, ya'ni ta'sirchanligi kabi xususiyatlariga qarab belgilangan. Idrok etuvchi (buyurtmachi) ba'zi misralar yoqmasa, uni badihago'ydan o'zgartirishni talab qilgan va uning talabi albatta bajarilishi kerak bo'lgan. Bu qoidaning azaldan mavjudligini Imom G'azzoliy "Ihyo ulum ad din" asarida Qur'on oyatlari bilan she'riy misralarni solishtirish asnosida misol tariqasida keltirganini eslaylik. Badihago'ylik faqat musulmon Sharqida emas, balki budhaviylik mintaqasida ham qadimdan keng yoyilgan. U nafis, inja bir san'at turi tarzida zadogonlar oilasida katta e'tibor qozongan, yuqori baholangan. SHu sababli badihago'ylik iste'dodiga ega bo'lgan a'yonlar Xitoy hoqonlari saroyida g'oyatda qadrlanganlar. Biroq yozma adabiyotning keng yoyishdagi natijasida badihago'ylik mustaqil san'at turi sifatidagi mavqeini asta-sekin yo'qota bordi, keyinchalik baxshilik san'ati bilan singishib ketdi. Afsuski, u jamoaviy ijod emas, balki individual og'zaki ijod bo'lgani uchun uning namunalari saqlanib qolmagan, faqat tarixiy va falsafiy-tasavvufiy asarlarda uchratishimiz mumkin.

Xattotlik. Yozma adbiyotning keng yoyilishi bir tomondan, badihago'ylik ravnaqiga chek qo'ygan bo'lsa, ikkinchi tomondan Yangi san'at turi xattotlikning vujudga keltirdi. Xattotlik Xitoy, YAponiya, Suriya va musulmon mintaqasida va Yevropada keng yoyildi, dastlab unga qimmatbaho kitoblarni chiroyli yozuv bilan ko'chirib ko'paytirish xunari sifatida qaralgan. Keyinchalik u mustaqil san'at turiga aylandi. Xattotlik quroli sifatida musulmon Sharqida qamish qalam, Budha Sharqida mo'yqalam, Yevropada –patqalam qo'llanilgan. Xattotlikda harf yoki ieroglif ham aniq, ham chiroyli yozilishi bilan go'zallikni namoyon etadi. Har bir xattot san'atkor sifatida o'z yozish uslubiga ega bo'lgan. Bizning mintaqamizda ushbu san'at tufayli arab yozuvining turli xil go'zallashgan ko'rinishi vujudga keldi. Nasta'liq, nasx, suls, kufiy, Rayhoniy va b. shular jumlasidandir.

Hukumdorlar devonlaridagi mirzalar ham chiroyli yozuv sohiblari bo'lgan. Lekin ular farmonlar, ko'rsatmalar, rasmiy maktublar bilan shug'ullanganlar, ularda real, diplomatik talablar ifoda topgan. Xattotlikda harflar go'zalligi, birinchi o'rinda turgan. Bunga misol tariqasida Sultonali Mashhadiy ko'chirgan Navoiy devonlarini keltirish mumkin. Xattotlik san'atining ravnaqi O'rta asarlarga to'g'ri keladi. Tabriziy, Sultonali Mashhadiy, Majnun ibn Kamoliddin Rafiqiy, Munis Xorazmiy singari xusnixatning yirik san'atkorlari ayni paytda xattotlik san'ati to'g'risida estetik risolalar ham bitganlar.

Xattotlikning san'at tarixidagi yana bir muhim xizmati shuki, u musulmon Sharqida rangtasvir san'ati rivojiga, xususan uning minatyura janri taraqqiyotiga ulkan xissa qo'shdi. Kitoblar nafaqat o'simliksimon tasvirlar bilan bezatila boshlandi, balki ko'chirilayotgan asar syujetlariga mos minatyuralar ham rusm bo'ldi. Bularning hamasi Navoiy davrida Hirotda "Nigoriston" miniatyura maktabining vujudga kelishiga olib keldi. SHuningdek, keyinchalik Buxoro, Hindiston, SHeroz minatyura ham paydo bo'ldi va endi miniatyura maktablari alohida, faol janr sifatida ma'naviy hayotda katta o'rin egalladi. M., SHafiiy Abbosiyning "Uxlayotgan darvish" (Isfaxon, 1650), Mirza Alining "SHaxmat o'yini" (Mashhad 1556 – 65) Buxoro maktabida yaratilgan "Ustoz va shogird kurashi" (XVIasr), "CHashma bo'yidagi bazm" (1578) kabi minatyuralar ana shunday mustaqil maktablar namunalaridir.

Ko'rib o'tganimizdek, xattotlik san'ati kitobat, ya'ni kitobni o'quvchiga go'zal shaklda etkazish bilan bog'liq. SHu bois bosma tarzda kitob chop etish vujudga kelgach, xattotlikka ehtiyoj qolmadi va tez orada u san'at sifatida faollikni yo'qotib, tarixga aylandi.

An'anaviy san'at turlari.

Avval aytganimizdek, barcha san'at turlari dastlab vujudga kelganida, ularda bevosita manfaatdorlik, fidoyilik jihatlari ustuvor bo'lgan, hunar sifatida qabul qilingan: yuqoridagi badihago'ylik ham, xattotlik ham tekinga bajarilmagan. Keyichalik ularda estetik xususiyatlar, xususan, go'zallik asosiy maqsadga aylangan. An'anaviy san'at turlarining ba'zilarida ana shu ikki tomon baravar, bevosita tarzda saqlanib qolgan. Bunday san'at turlari sirasiga me'morlik va ko'rgazmali san'at kiradi.

Me'morlik. Bu san'at turining paydo bo'lishi insonning turar joyiga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqqan va odamning estetik tabiati uni tobora go'zallashtirib borishni talab etgan. Keyinchalik bu talab o'limdan keyingi "turar joyga" maqbarlarga tadbiq etilgan. Undan so'ng hukumdorlar saroyilari, devonxonalar turli rasmiy va norasmiy xizmat binolari, ibodatxonalar ham ana shu go'zallik qonuniga binoan qurilgan. Ispaniyadagi Al-Humro masjidi, Olmoniyadagi Kyoln jomesi, Xivadagi Nurillavoy saroiy v. b. shular jumlasidan.

Me'morlik – mavjudligi makon bilan shartlangan san'at turi. Unda hajm, makonni egallash xususiyati birinchi o'rinda turadi, deyishadi, aslida "xajm" emas, mahobat atamasini qo'llash maqsadga muvofiq, zero mahobat ulug'vorlik ifoda topgan hajmdir. Me'morlikning san'at sifatidagi estetik mohiyati uning kulgililik xususiyatini inkor qilishi va ulug'vorlik xususiyatini barqaror etishi bilan bog'liq, hech bir san'at turida ulug'vorlik bu qadar o'zini yaqqol namoyon qilmaydi. Ayni paytda unda tasviriylik, noziklik, injalik kabi go'zallik unsurlari katta ahamiyatga ega, ular mahobatning tarkibiy qismini tashkil etgani holda, xandasaviy yoki bargsimon naqshlarda, stirkor narsalarda, devoriy yozuvlarda, peshtoqiy tasvirlarda o'z aksini topadi. Masalan, Samarqanddagi Registon

majmuyiga kiruvchi SHerdor madrasasini 1619-1939 olib ko'raylik. Madrasa peshtoqidagi koshinkorli bezak orasida qora zamini koshinga oq harflar bilan me'mor Abdujabbor nomi bitilgan. Peshtoq ravog'ining tepasida qizg'ish zarhal tusli sher oq kiyikni quvib bormoqda. Quyosh bodomqovoq, qiyiq ko'zli tarzda tasvirlanib, yuzi zarhal yog'duga yo'g'rilgan[197]. Binoga sinchikovlik bilan qarar ekanmiz, uning bir paytlar mulavachchalar (talabalar) o'qiydigan oliy o'quv yurtlaridagi madrasa bo'lganiga hatto ishongingiz kelmaydi..

Albatta zamonaviy me'morlikda bunday jihatlarining hammasini, tasviriy to'kiislikni uchratish qiyin. Ayniqsa sho'rolar davridagi o'quv yurtlari, rasmiy va turar-joy binolari qurilishlari vaqt nuqtayi nazaridan an'anaviy me'morlikdan qanchalik uzoqlashgan sari, shunchalik san'atlik xususiyatini yo'qotib bordi. Masalan, ikkinchi jahon urushi davridagi me'morlik qurilishlari (Alisher Navoiy nomidagi katta akademik teatr binosi) bilan 60-80 yillarda tiklangan binolarni solishtirishda bu farq yaqqol ko'rinadi. Ayniqsa turar joy binolarining bir xilligi, xususan, to'qqiz qavvatli "quti"larga me'morlik san'ati haqida o'ylashing o'zi g'ayritabiiy tuyuladi. Buni mashhur rus kinorejisyori E.Razyanov o'zining hammamiz yaxshi biladigan "Qushday engil bo'ling" filmida ko'rsatib bergan. Filmning premerasida dastlab ekranda meksikancha shlyapa kiygan, qo'lida ulkan qamchi tutgan, qavog'i soliq haybatli kishi paydo bo'lgan. U me'morlik san'ati qo'llangan turli ko'rinishdagi binolarni har qamchilaganida yalong'ochlab (avval tomlardagi va peshtoqlardagi, keyin derazalardagi va devorlardagi bezaklarni ko'chirib tushirish asnosida) bir xildagi "quti"larga aylantirib chiqadi(keyinchalik «qamchili hukmdor» olib tashlandi). Ana shundan so'ng bir xildagi «qutilarga joylashgan» sovet kishilarining kulgili sarguzashtlari boshlanar edi.

Insonga asosan ishlab chiqaruvchi kuch sifatida qaragan, har bir shaxsning noyob hodisa, takrorlanmas oliy qadriyat ekanligi tan olinmagan totalitar tuzum me'morlikka san'at, ya'ni ma'naviy qadriyat tarzida munosabatda bo'lmasdi ham. Ne-ne me'moriy yodgorliklarning – yuzlab qadimgi, takrorlanmas sa'nat namunalari hisoblangan madrasalar, maqbaralar va cherkovlarning portlatib tag-tugi bilan yo'q qilib tashlanganini eslang. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng me'morlik yana o'zining san'atligiga qaytdi. Respublikamiz prezidenti Islom Karimovning tashabbusi bilan qator me'moriy majmular, loyihalar yaratildi, qadimgi yodgorliklar ta'mirlandi. Shuning natijasi o'laroq, bugun biz Imom Buxoriy me'moriy majmui kabi ulug'vor san'at namunalariga egamiz. Yakka tartibdagi binolar ham, jamoat binolari ham, ishlab chiqarish inshoatlari ham endilikda har xil original loyihalar asosida, me'morlik san'ati qoidalariga binoan bunyod etilmoqda.

Zero har bir binoni umumiy qolip asosida emas, alohida me'mor – arxitektor taklif qilgan loyiha vositasida bunyod etilishi me'morlikning san'at ekanini belgilaydigan eng muhim omil hisoblanadi. Chunki me'mor – quruvchi-injener emas, san'atkor. Uning uchun bino loyihasi shunchaki hisob-kitob qilingan chizmalar emas, ilhom, iste'dod natijasi bo'lgan ijodiy ish, bo'lajak asarning g'oyasi va rejasidir. Shu bois ba'zi bizgacha etib kelgan ulug'vor, go'zal me'moriy obidalar Amir Temur, (Samarqanddagi Amir Temur Jome masjidi), Ulug'bek (Ulug'bek madrasasi, Observatoriya) kabi hukmdorlar loyihalari asosida qurilgani bejiz emas.

Hozirgi paytda zamonaviy materiallar asosida qurilayotgan binolar ham san'atlik xususiyatiga ega ekani bilan diqqatga sazovor. Ularda ko'rgazmali-amaliy san'at, atrof-muhit go'zallashtirish estetikasi binoning mahobati bilan uyg'unlashib ketadi. Natijada bino yanada ulug'vorroq ko'rinish kasb etadi. M., «SHeraton» mehmonxonasi, Oliy Majlis binosi kabi inshootlarni shunday zamonaviy me'morlik namunalari qatoriga kiritish mumkin.

Ko'rgazmali-amaliy san'at. Bu san'at turiga turli materiallardan turmushda foydalanish maqsadida yaratilgan, lekin bir paytning o'zida estetik ehtiyojni ham qondiradigan, go'zallik ruhini ufurib turadigan, bezaklilik xususiyatiga ega narsalar dunyosi kiradi. Narsalar dunyosi deyishimizning sababi shundaki, ko'rgazmali-amaliy san'at mohir zargar ishlagan jajji uzukdan tortib, Xiva gilami-yu, ulkan devoriy rasmlar – pannolargacha xilma-xil hajm va shakllarda kompozistiya, ritm, ranginlik orqali in'ikos etgan go'zallikni o'z ichiga oladi.

Bu san'at turining ko'rinishlari shu qadar xilma-xilki, ularni sanab chiqishning o'zi juda ko'p vaqtni oladi. Ayni paytda bu ko'rinishlar aslo bir-birining o'rnini bosolmaydi, bir-birini takrorlaydi ham.

Ko'rgazmali-amaliy san'at qadimdan, mehnat qurollari, hunarmandchilikning rivojlanib borishi bilan kundalik turmush ehtiyoji uchun qo'llaniladigan ash'yolarni bezash, me'morlik inshootlarini turli naqshlar va koshinlar vositasida go'zallashtirish orqali estetik telablarga javob berib keladi. Aynan ana shu san'at turida hunarmandchilikning san'atga aylanishi ro'y beradi. M., aytib o'tganimizdek, XVIII-XIX asrlardagi Buxoro-Qo'qon uslubida naqshlangan go'zal mis qumg'onlar dastlab faqat o'zining muayyan maqsadga xizmat qilishi bilan diqqatga sazovor edi. Lekin hozirgi paytda ular har biri betakror san'at namunasi, misgar ustaning san'atkorlik mahorati tajassum topgan ma'naviy qadriyat tarzida idrok etiladi. Yoki yog'och o'ymakorligini olaylik, uni biz hozirgi paytda hunar emas, san'at mahsuli tarzida qabul qilamiz.

Ko'rgazmali-amaliy san'at turi deganda, yuqorida atganimizdek, biz faqat xalq amaliy san'atini tushunmasligimiz kerak. Qadimlardan bizgacha etib kelgan devoriy rasmlarni ham unutmasligimiz lozim. Xalchayon, Fayoztepa, Bolalik tepa, Afrosiyobdan topilgan devoriy tasviriy san'at namunalari o'zining monumentalligi bilan hanuzgacha kishini hayratga soladi. Ana shunday an'anaviy san'at namunalarini hozir zamonaviy binolarga tatbiq etish yaxshi natijalar berayotgani bizga ma'lum. M.,CHingiz Ahmarovning Navoiy teatri foyesi devorlariga ishlagan, B.Jalolovning «Bahor» konstert zali devorlariga ishlagan monumental ponnolari shunday go'zal va ulug'vor san'at asarlaridir.

Shunday qilib, bu qadimiy va doimo navqiron san'at turi atrofimizda, shaharsozlikda, oilaviy muhitimizda gulzoru manzaralar, gulchin peshtoqlar, o'ymakor ustunlar, devoriy rasmlar, me'moriy releflar, uzuklaru sirg'alar

---

[197] Qarang: Zohidov P. Me'mor olami. T., Qomus, 1996, 128 b.

v.h. shaklida namoyon bo'lib, o'zining xilma-xil estetik ko'rinishlari bilan kundalik hayotimizni go'zallashtirishga, badiiy-estetik didimizning yuksalishiga hissa qo'shib turadi.

H**aykaltaroshlik.** Eng qadimgi, ibtidoiy davrlardan boshlab hozirgacha haykaltaroshlik o'z maqeini yo'qotmay kelayotgan san'at turlaridan biri. Haykaltaroshlik materiali bo'lib, yumshoq (ganch) va qattiq (tosh, yog'och) substrat xizmat qiladi. Lekin haykalning tayyor holatida yumshoq materiallarning ham qattiqlashganini ko'ramiz. M., ganch, eritilgan mis, brinj avval suyuq (yumshoq holida bo'lib, zarur qoliplarga) solgandan keyin qattiqlashadi.

Bu san'atning asosida faqat oniy, bir lahzalik san'at tasviri yotadi. Haykaltarosh tomonidan ana shu eng muhim harakatini topish hamda unga mos nur va soyani tanlash yuksak isde'dodni talab qiladi. Zero o'sha tanlangan oniy harakt bizga avvalgi haraktlar haqida estetik tasavvur beradi va bo'lajak harakatlarga ishora qiladi. Shu uch – (o'tgan, hozirgi, kelasi) zamondagi harakat ifodasi joy, nur va soyaning o'rin almashishi bilan o'zgaradi, ya'ni haykal ma'lum ma'noda o'zgacha tovlanish kasb etadi. Boshqacha qilib aytganda, haykal nur va soya o'yini bilan idrok etuvchini maftun qiladi. Unda estetik hissiyot uyg'otadi.

Haykaltaroshlik monumental san'at deyiladi. Chunki ko'pincha u katta hajmli haykallar yoki majmularni o'z ichiga oladi. Ayni paytda uning kichik hajmdagi va har biri o'ziga xos bo'lgan holda muayyan yuzalikda shakllar uyg'unligini tashkil etadigan ko'rinishlari ham mavjud. Haykaltaroshlikning birinchi hiliga alohida makonni egallagan va har hil rakkursda tomosha qilish mumkin bulgan asarlar kiradi. Unga qadimgi Yunonistonning Rodost oralidan chiqqan san'atkorlar Agesandr, Atenador va Polidor yaratgan mashhur «Lokon» haykallar majmui misol bo'la oladi. Ikkinchi hil haykaltaroshlik releflarda, peshtoqlar va devorlarni bezab turuvchi bo'rtma shakllarda, asosan me'morlik san'atiga singishib ketgan holda namoyon bo'ladi. Masalan, buddhachilik davriga oid «Ayritom musiqachilari» deb shartli nomlanadigan bo'rtma haykallar guruhi shular jumlasidan.

Haykaltaroshlik hayvonlarni, o'simliklarni ham tas'virlaydi. Lekin uning asosiy mazmuni – inson va uning ruhiyati. Haykaltarosh, sumba, iskana, qolib yoki lo'mboz vositasida bizga toshdagi, yog'ochdagi, (bironza) birinch yoki ganchdagi inson qiyofasini taqdim etadi. Badiiy qiyofa qanchalik jonli chiqsa, uni turli nuqtadan tomosha qilish imkoni qancha keng bo'lsa, o'sha asar haqiqiy san'at namunasi deb qabul qilinadi. Haykallar san'at asari sifatida bir-birini takrorlamasligi kerak. Shu bois sho'rolar davrida bir qolipda quyilgan, har bir maydonga, guzarlarga, davlat idoralari oldiga o'rnatilgan ulug' rahbarning qiyofasi, bir qolipda quyilgan «dohiylar» haykallari hech qachon san'at asari bo'lolmaydi.

Ko'pgina san'at turlarida bo'lganidek, haykaltaroshlik ham deyarli barcha estetik xususiyatlarni namoyon etadi. M., poytaxtdagi Motamsaro Ona haykali fojeaviylikni, D.Qutimurodov yog'ochdan ishlagan «Qoraqalpoq qizi» go'zallikni, Toshkent zilzilasiga bag'ishlangan me'morial – ulug'vorlikni o'zida in'ikos ettiradi.

Baxshilik san'ati. Odatda baxshilikni estetikada sa'nat turiga kiritish qabul qilinmagan va xalq og'zaki adabiy ijodi sifatida badiiy adabiyotning xili deb hisoblab kelinadi. Aslida "bunday kamsitish"ning sababi o'zbek estetikasida shu paytgacha Yevropaga, to'g'rirog'i, ruslarga taqlidning nihoyatda kuchli bo'lganida. SHunday qilib, biz uni to'laqonli san'at turi deb bilamiz va buni isbotlashga harakat qilamiz.

Baxshilik san'ati asosan Sharq xalqlarida mavjud, kelib chiqishi qadimgi Hindiston bilan bog'liq, sanskritchadagi "bhikshu" (qalandar, darvesh) so'ziga borib taqaladi. Keyinchalik,"baxshi", "baxsha", "baxshi", va boshqa shakllarda Sharq xalqlarining ko'pchiligida ustoz, ma'rifatchi degan ma'nolarda qo'llanilgan. G'arbda uni faqat qadimgi yunonlar madaniyatida ko'rishimiz mumkin. Qadimgi Hindiston ta'sirida bo'lsa kerak, baxshilar ularda dastlab,"aedlar"(qo'shiqchilar), keyinroq "rapsodlar"(qo'shiq to'quvchilar) deb atalgan, ular "Iliada", "Odessiya" kabi yirik epik dostonlarni torli soz jo'rligida kuylaganlar.

Bizda baxshilik san'ati qadimdan mashhur bo'lib kelgan. Ilmiy farazlarga ko'ra (V.Jarmunskiy, H.Zarif v.b.), "Alpomish" dostonining idlizlari Homer eposlari bilan tutashib ketgani qayd etiladi. "Alpomish" ham, boshqa alohida dostonlar ham, dostonlar turkumlari ham mintaqamizda, do'mbira, qo'biz va dutor jo'rligida kuylanadi. Baxshi, xalq dostonlarini yodda saqlovchi, meyoriga etkazib kuylovchi, ularning o'ziga xos variantlarini, versiyalarini yaratuvchi san'atkor. U, bir tomondan, shoirlik iste'dodiga ega bo'lishi kerak, ikkinchi tomondan, mahorat bilan kuylay bilishi, "Xudo bergan ovozga" ega bo'lishi lozim.

Baxshilik san'ati ibtidodan bizda sof og'zaki ijod bo'lib kelgan, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, baxshilar madrasalarda tahsil ko'rib, ba'zi asarlarini yozma holda ham qoldirganlar. Lekin, asosan folklorshunoslar tomonidan dostonlar va termalar yozib olingan, hozir ham bu an'ana ma'lum ma'noda davom etmoqda. Shuningdek, bu san'atning yana o'ziga xos tomoni shundaki, unda ustoz – shogirdlik an'anasi qat'iy tarzda o'rnatilgan, doimo shunga amal qilib kelinadi. Natijada biz baxshilik san'atining bir necha o'ziga xos maktablariga egamiz. M.Qo'rg'on dostonchilik maktabi, Bulung'ur dostonchilik maktabi, Xorazm maktabi shular jumlasidan. O'zbek baxshilik san'atida ikki yo'l bilan dostonlar kuylanadi. Biri – Surxandaryo, Qashqadaryo, Samarqand yo'li, unda doston yo terma do'mbira jo'rligida, ichki g'arg'ara ovoz bilan, ikkinchisi – Xorazm yo'li, unda oddiy, ochiq ovoz orqali ijro etiladi. Baxshilik san'atining Ergash Jumanbulbul, o'g'li, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Po'lkan shoir kabi ulug' namoyandalari xalq dostonchiligi namunalarini yaratganlar. Ular an'anaviy syujet asosida o'ziga xos go'zal asarlar ijod etdilar.

Xalq dostonlaridagi tasvirlar, majoziylik ko'p hollarda mubolag'aga va alliterastiyaga asoslanadi, natijada badiiy qiyofa afsonaviylashtirilgan, mo''jizaviylashtirilgan tarzda gavdalan-tiriladi. Masalan, "Go'ro'g'li" turkumi dostonlaridagi bahodirlardan biri – Hasan Ko'lbar bir to'yning oshini eb to'ymaydi, murtining ichiga kalamushlar in qurib tashlagan v.h. YOki Amin baxshining o'zbek bahodirlariga chaqiriqday yangraydigan mana bu mubolag'a satrlarini olaylik:

Ariq tubinda indiz,
Daryo tubinda Qunduz,
Tog'larni osmonga oting,
Tutday to'kilsin yulduz[1].

Dostonlarda ot ham asosiy qahramonlardan biri. "Alpomish"da Boychibor, "Go'ro'g'li" turkumi dostonlarida G'irot xuddi odamlarday tasvirlanadi. Ayni paytda ularning uchqurligi favqulodda va rang-barang o'xshatishlar vositasida ta'riflanadi. Masalan, G'irot "qulog'ini qalam, dumini alam qilib" elib boradi. Ya'ni G'irot –muqaddas ot, uning qulog'i insoniyat uchun muqaddas bo'lgan, uchi uchlangan adl qamish qalamga, dumi qadimiy popukli muqaddas bayroqqa o'xshatiladi. Dostonlarda turli badiiy vositalarning qo'llanishi, baxshining ovozi va do'mbiraning ohanglari uyg'unlashib ketadi. Natijada uchqur otning yo'l bosishini tinglovchi nihoyatda yaqqol tarzda idrok etadi. Ergash Jumanbulbul kuylagan "Ravshan" dostonidagi mana bu parchaga e'tibor qiling:

Qulon yurmas erlardan
Quvib o'tib boradi.
Bulon yurmas erlardan
Buvib o'tib boradi.
Qarsoq yurmas erlardan
Qalqib o'tib boradi.
Bo'ri yurmas erlardan
Bo'zlab ketib boradi...[198]

Bu tasvirdagi alliterastiyalar (ohangdosh tovushlar) soz va ovoz vositasida ot bilan yaxlitlashib ketgan chavondoz qiyofasi haqida tasavvur beradi.

Baxshilik san'atida nasr, nazm shakllari, barmoq vaznining turli ko'rinishlari o'z aksini topadi. Ular go'zallik, ulg'vorlik, mo''jizaviylik, kulgililik kabi estetik xususiyatlarning yanada bo'rtib ko'zga tashlanishini ta'minlaydi. Ayni paytda bu san'at turi maqol, matal va hikmatlarga boyligi bilan katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Fozil Yo'ldosh o'g'lidan yozib olingan "Alpomish" dostonidagi Boysari tilidan aytilgan mana bu satrlarni haqiqiy hikmat namunasi desak Yanglishmaymiz: Davlat ko'nsa bir chibining boshiga,
Semurg' qushlar salom berar qoshiga[199]

Baxshilik so'z va ijro san'atining uyg'unligi sifatida hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. XIX-XX asrlarda ustoz borliqlarining an'analarini davom ettirgan va davom ettirayotgan ulkan san'atkorlar etishib chiqdi. Xorazmlik Bola baxshi, qashqadaryolik Qodir baxshi, surxandaryolik SHoberdi baxshilar shular jumlasidan.

Rassomlik san'ati. Bu san'at turi ham qadimdan mavjud, uning dastlabki namunalarini qadimgi tosh asridagi g'orlar devoriga ishlangan rasmlarda ko'rish mumkin. Ularda asosan ov hayvonlari va inson tasviri berilgan. Keyinchalik tasvirda tabiat ko'rinishlari ham aks ettira boshlangan. Dastlab ular bir yo'lda – rangli va oq-qora rang tasvir sifatida Sharqda (Xitoy, Hindiston, musulmon mintaqasida) xattotlik, kitobat bezagi sifatida taraqqiy topgan, biz ularni hozirgi zamon tili bilan minatyuralar deb ataymiz. Minatyuralar odatda rangli bo'lgan va ko'pincha tabiat (daraxtlar, cho'llar, butoqlar) fanidagi inson, qushlar, xayvonlar tasvirini o'z ichiga olgan holda kitobdagi mazmunning bir qismini ifodalagan, boshqacha qilib aytganda, bosma texnikasi qo'llanila boshlangunga qadar ular grafika – kitobiy rasmlar vazifasini bajargan.

Rassomlik san'atining yana bir ko'rinishi qadimda saroy devorlariga ishlangan katta hajmli rangli tasvirlar bilan bog'liq. Ularni hozirgi davr pannolarining ibtidosi deyish mumkin. M., Afrosiyobdagi to'y marosimini aks ettirgan yoki Varaxshadagi hayvonlar bilan olishayotgan bahodirning tasvirlari (VII-VIII asrlar) shular jumlasidan.

Keyingi paytlarda bosma texnikasining vujudga kelishi va san'at turlarining taraqqiy topib borishi natijasida rassomlik uch turga bo'lindi: devoriy rasmlar (ko'rgazmali-amaliy san'at), rangtasvir va grafika – kitob bezash san'ati. Ko'rgazmali-amaliy san'at turini ko'rib o'tganimiz uchun rangtasviri to'xtalamiz.

Rangtasvir voqelikning san'atkor tanlagan nuqtayi nazardan mo'yqalam va bo'yoqlar vositasida muayyan tekis materialga rasm tarzida tushirishdan iborat. Unda rassomning uslubi, bo'yoq tanlashdagi mahorati, nur va soyalar o'yini Yangicha kompozistion yondashuv kabi san'atkor iste'dodini belgilaydigan jihatlar muhim ahamiyatga ega. Aynan ana shular tufayli rassom tabiat, jamiyat, shaxs hayotidagi voqea-hodisalarning takrorlanmas serjilo manzaralarini bizga etkazib beradi, voqelikdagi estetik xususiyatlarni rang vositasida tasvirlaydi. Rassom bularning hammasini faqat rasm yo'li bilangina emas, balki rasmga o'xshash lekin aslida rasm bo'lmagan havo, nur, tuman v.h. singari asarning estetik ruhini belgilab beradigan chiziq tasvirlar vositasida in'ikos ettiradi. Buning yorqin misoli sifatida iste'dodli o'zbek rassomi V. Oxunovning "Tashlandiq odam"asarini ko'rastish mumkin. Unda rang, nur, soya fonida baland kunda va unga qo'yilgan bosh tasviri berilgan, atrof bilan kunda bir olam, bosh o'zi bir olam. Diqqat bilan kuzastangiz, qaysi rankkursdan qaramang, kundaga qo'yilgan olamni ko'rasiz va ekzitenstiyachilar ta'biri yodingizga tushadi, o'z holiga tashlab qo'yilgan olamdagi tashlandiq odam. Tasvirning nochiziqligi, ranglarning kontrastlikka asoslangan tarzda qorishuvi, ko'zi yumilgan bosh va

[1] Bulbul taronalari. 5-tomlik, 5-tom. T., G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1973, 110-b.
[198] Bulbul taronalari. 2-tom, 534 b.
[199] Alpomish. T., G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979 y., 13-b.

hilpirashini hohlagan, lekin hilpirashga majoli yo'q sochlarining tashqi olamiga ulanib ketishi ulkan bir fojeaviylik ruhini ufurib turadi, asarni kuzatar ekansiz, seskanganingizni ham, ho'rsinganingizni ham sezmay qolasiz.[200]

Biz zamonaviy rangtasvir haqida mulohaza yuritdik. Mumtoz rangtasvir namunalarini esa muzeylarda ko'p uchratgansiz. Rembrand, Rubens, Rafael, Botichelli, Bryullov, Surikov, Levitan, Tansiqboev, Ahmedov, Choriyev va boshqa ulug' rassomlar asarlari shular jumlasidan.

Rassomlik san'atining yana bir ko'rinishi bu grafikadir – ham rasm, ham bosma badiiy asa. M., taniqli rassomimiz M.Reyx tomonidan V. Yanning "Chingizxon" romaniga ishlangan rasmlari, mashhur rus haykaltaroshi va rassomi V.Favorskiyning Robert Byorns asarlariga yog'ochdan o'yib ishlagan gravyuralari har ikkisi grafik asarlaridir. Grafika rangtasvirga yaqin, lekin ayni paytda qat'iy chiziqlilik xususiyati egaligi va rangga ko'ra voqelikning muayyan tasvirini aks ettirishi bilan ajralib turadi. Ayni paytda u doimo rangtasvirdagi asarlarga nisbatan hajman kichik bo'ladi. Chunki grafika eng avvalo kitobda nashr etishi uchun mo'ljallanadi. SHu bois undagi rangtasvir unsurlari bosma texnikasiga moslangan bo'ladi. O'zbek rassomlari grafikaning nihoyatda go'zal namunalarini yaratganlar. CH.Ahmarovning "Ravshan" dostoniga, V. Kaydalovning o'zbek xalq dostonlariga, I.Ikromovning Navoiy va Pushkin asarlari muqovalariga ishlagan rasm hamda bezaklari shular jumlasidan.

Rassomlik san'atida qadimgi minatyura yana tiklanganligini ham ko'rish mumkin. Bunga iste'dodli grafik rassom T. Muhamedovning o'zbek halq ertaklariga ishlangan rasmlari, Sh.Muxammadjonovning "Mahmud Qoshg'ariy", "Chilangar Kova qo'zg'aloni" kabi asarlarni misol bo'la oladi. T.Muhamedov minatyuralarida asosan takrorlanmas grafika san'atini ko'ramiz, Sh. Muhammadjonovni rangtasvir, usulida zamonaviy minatyurani boyitayotganiga guvoh bo'lamiz. T.Muhamedov asosan kulgilikka, Sh.Muhammadjonov esa ko'proq go'zallik va ulug'vorlikka e'tiborni qaratadi.

Xullas, rassomlik "qarimaydigan" san'at turi sifatida har bir zamonda o'z imkoniyatlarini kengaytirib borayotgan katta tarbiyaviy ahamiyatini susaytirmagan faol estetik faoliyatdir.

Musiqa. Agar rassomlik san'atida deylik uning manzara janridagi Levitanning mashhur "Qarag'ayzor" asari ko'z oldimizda muayyan ma'noda tugallangan rangtasvir sifatida namoyon bo'lsa, musiqa asari, m., Betxovenning "Oydin sonata"si yoki Hoji Abdulazizning "Guluzorim" kuyi ohanglar vositasida tinglash jarayonida chizilayotgan rangtasvirdir. Ya'ni rangtasvir badiiy mazmundagi markazni in'ikos ettirgan holda ibtido bilan intihonni tasavvurimizga havola qilsa, musiqada ibtido, markaz va intiho asarning o'zida mujassam bo'ladi. SHu bois rassomlik san'atini ranglar musiqasi, musiqani esa tovushlar tasviri deyish mumkin. Ayni paytda musiqa rassomlikdagi yoki badiiy adabiyotdagi aniq yo muayyan tasvirlash imkoniga ega emas, lekin u ohangdor tovush orqali inson qalbiga kuchli ta'sir ko'rsatish, uning ruhini qisqa vaqt ichida o'zgartirish qudratiga ega. Bu jihatdan unga teng keladigan san'at turi yo'q. Shu sababli musiqadagi "musiqiylik" tushunchasi barcha san'at turlari uchun yuksak mahorat ma'nosini anglatadi. M., she'riyatdagi musiqiylik, nasrdagi musiqiylik, me'morlik – qotib qolgan musiqa, ranglar musiqasi v.h.

Musiqa san'ati keskin farqlanadigan milliylik va mintaqaviylik xususiyatiga ega. Xususan, G'arb bilan Sharq musiqasida intonastiya, ohang, ijro uslublari va usullari, musiqiy asboblarning xar xilligi yaqqol ko'zga tashlanadi. To'g'ri, g'arbliklar va Sharqliklar odam sifatida bir-biriga (ichki dunyosi nuqtayi nazaridan) muayyan o'xshashliklarga ega bo'lganidek, ularning musiqasida, ijro asboblarida qay ma'nodadir umumiylik bor. M., ba'zi franstuz, olmon xalq qo'shiqlari bilan o'zbek xalq qo'shiqlari orasida intanastion o'xshash jihatlarni, fortapiyano bilan chang, g'ichchak bilan skripka, nay bilan fleyta v.b. musiqiy asboblarda umumiy tomonlarni uchratamiz. Lekin, ayni paytda biz Mostart asarlari bilan Hoji Abdulaziz asarlari orasidagi katta farqni darhol anglab etmasligimiz mumkin emas. Chunki musiqa pardalar pastu balandligiga asoslangan, oddiy tovushga qaraganda uzoq davom etadigan ohangdor tovush vositasida inson ichki dunyosini ifodalaydi. Eng avvalo ana shu ichki dunyo inson millatini, mentalitetini belgilaydi, uning tashqi ko'rinishidagi farqlar ham ayni o'sha ichki dunyo bilan bog'liq. Shu sababli musiqani millatning qalbi deb atashlari bejiz emas. M. F.Verdinelning "Jiz" operasini tomosha qilib o'tirgan oddiy o'zbek dehqoni "Nima bu oddiy gapni qo'shiqqa o'xshatib, uning ustiga juda baland ovozda aytadi", deb hayron bo'ladi va uni rasmona estetik idrok eta olmaydi. Ammo o'sha dehqon Sulaymon YUdakovning "Maysaraning ishi» operasini har gal Toshkentga kelganda jon qulog'i bilan, maza qilib eshitib, tomosha qiladi. Unga oddiy gapni qo'shiq qilib aytilishi ham, ovozlardagi intonastiya ham erish tuyulmaydi, bularni u sezmaydi ham asarni estetik zavq bilan idrok etadi. Chunki "Jizel" – Yevropa mentalitetining italyan kishisining qalbiga, "Maysaraning ishi" o'zbekning qalbiga mos milliy ohanglar uyg'unligi bilan murojaat qiladi.

Biroq, musiqa mohiyatan umuminsoniy tabiatga ega, qaysi millatga taalluqli bo'lishidan qat'i nazar, musiqa tarjima qilinmaydi, rassomlik san'atiga o'xshab, uning tili – bitta. Faqat o'sha tilni tushunish uchun har bir millat o'z estetik tarbiyasini yuksak darajasiga ko'tarishi, estetik didini ilmiy-amaliy asosida shakllantirishi lozim. Nima uchun Muhiddin Qoriyoqubov XX asrning 30-yillarida, Munojot Yo'lchieva 90-yillarida Parij konstert zallarida bergan konstertlariga ko'pchilikka chipta etishmagan, zalga kirganlar esa ularni bir mo''jizaday tinglashgan, konstert so'ngida deyarli yarim soat tik turib qarsaklar bilan olqishlashgan. Demak, hali bizning estetik tarbiyamiz, didimiz franstuzlarga qaraganda ancha past. SHuning uchun ham biz Yevropa musiqa san'at durdonasini ham rosmana idrok etolmaymiz. Vaholanki, jahonda barcha sohada integrastiyalashuv jarayoni jadal sur'atlar bilan bormoqda. O'zbek estetikasining vazifasi ana shu jarayonda millatimizning to'laqonli ishtirokini ta'minlashga xizmat qilishdir.

---

[200]Qarang. "San'at"jurnali, 1991 y, 5-sonidagi zarvaraq.

Musiqa san’atida qo’shiq janrining o’rni alohida uni ba’zan qo’shiqchilik san’ati ham deb atashadi. Chunki aynan qo’shiq, ohangdor inson ovozi musiqaning vujudga kelishida ulkan rol o’ynagan. Aynan qo’shiq ohangga solingan so’zlar orqali millat tarix-dn, xalqning ijodiylik qobiliyatidan bizga xabar beradi. Eng go’zal, eng badiiy yuksak xalq she’rlari qo’shiqlar matni sifatida yuzaga kelgan. Masalan:

Andijonda o’t yoqsam,
O’shda tutun.
Bu dunyoda bormikan
Bag’ri butun.

Bu dunyoda bo’lsa agar
Bag’ri butun,
Qog’ozdan hazon yasang,
Guldan – o’tin.

Bu satrlardagi o’xshatishlarni, majoziylikni, ohangga solingan inson qismatining badiiy qiyofasini hech bir buyuk san’atkorda uchratolmaysiz. Buni faqat xalq dahosigina yaratishi mumkin. Ayni paytda muayyan shoirning sheoriy matniga bastakorlar tomonidan maxsus kuy bastalash asosida ham qo’shiqlar vujudga keladi. Ularning eng yaxshilari mumtozlik maqomini oladi. Qo’shiq janri ko’rinishlarga boyligi bilan ham alohida ajralib turadi: tarixiy qo’shiqlar, marosim qo’shiqlari, laparlar, lirik qo’shiqlar siyosiy qo’shiqlar, ariyalar, intermeststolar. v.h.

Musiqaning turlari va janrlari juda ko’p: xalq musiqasi, mumtoz musiqa, simfonik musiqa, vokal, musiqa v.h. Biroq u qaysi janrda bo’lmasin, Y.Baxning organ uchun yozilgan xorallarimi, «CHo’li Iroq» kuyimi, SHopenning etyudimi, Tarkanning qo’shig’imi – hammasi inson hissiyotlarini tarbiyalashda, ularni hayvonlikdan insoniylikka ko’tarishda va bu hissiyotlarni noziklashtirishda muhim ahamiyatga ega. Zero musiqa inson qalbini hilmlashtiruvchi, yumshatuvchi eng kuchli estetik omildir.

Raqs san’ati. Bu san’at turi Yevropada xoreografiya deb ataladi va raqsning barcha turlarini o’z ichiga oladi. Raqs qo’l va oyoq harakatlariga asoslanadi, lekin bu harakatlar ritm, muqom va badanning plastik egiluvchanligi vositasida shiorona xayolot parvozini ifodalaydi. Bu vositalarning hammasi musiqa yordamida (juda bo’lmaganda bir musiqiy asbob ishtirokida) umumiy bir uyg’unlikni tashkil etadi, ana shu uyg’unlik raqsning san’at sifatidagi mohiyatini anglatadi. Raqsning ham o’z ichki turlari ko’p, diniy-falsafiy raqslar, mehnat raqslari yoki kasbiy raqslar, sof o’yindan iborat raqslar, insoniy kayfiyatni anglatadigan raqslar, maxsus sstenariy (libretto) asosida sahnalashtiriladigan va uzoq vaqt davom etadigan raqslar v.h. M., hind mumtoz raqslarida diniy-falsafiy mazmunni ifodalash birinchi o’rinda turadi, qo’llar, oyoqlar, qosh-ko’z harakatlari olamning vujudga kelishidan tortib, qadimgi Hindiston ma’budlarining hayotigacha aks ettiradi. Bu raqslar daqiqalar emas, soatlar mobaynida ijro etiladi. Zamonaviy balet ham mazmunni aks ettirishda hind raqslariga o’xshab ketadi, lekin bu erda asarni sahnalashtirish – teatrlashtirish muhim o’rin egallaydi. O’zbek xalq raqslarida esa egiluvchanlik, o’yin unsuri bo’rtib ko’zga tashlanadi va butun xatti-harakat asosan tomoshabin qalbiga quvonch hamda zavq berishga yo’naltiriladi. Unda ayol latofatining she’riyati, nozikligi, noz-karashmasi erkaklarning mardona ulug’vorligi, qudrat ramzini anglatuvchi harakatlari aks etadi. Kasbiy raqslarda esa muayyan mehnat turining shoirona tasviri o’z ifodasini topadi («CHo’pon raqsi», «Terimchi raqsi» v.h.).

Raqs san’ati, yuqorida aytganimizdek, folklorning uzviy qismi tarzidagi va sahnaviy – teatrlashtirilgan ko’rinishlarga egaligi bilan birga, mintaqaviy-mahalliylik xususiyatiga ham ega. M., o’zbek raqsida uch yo’nalish mavjud: Toshkent-Farg’ona, Xorazm va Buxoro yo’llari (ba’zan usullari ham deyiladi). Ular bir-biridan ifodaviy usullarning o’ziga xosligi bilan farqlanadi, ayni paytda har bir raqqosa yoki raqqosning o’z uslubi bor. M., Mukarrama Turg’unboeva bilan Galiya Izmaylovaning raqslari bu san’atning buyuk namunalari bo’lgani holda, uslubiy jihatdan bir-biridan farq qiladi.

So’nggi paytlarda raqs san’ati bizda keng yoyildi va unda havaskorlik unsurlari shu qadar ko’payib ketdiki, natijada istagan qo’shiqchi o’zi raqqosalik, raqqoslik qila boshladi, raqsning san’at turi sifatidagi qonun-qoidalari tan olinmay qo’yildi. Goho bir qo’shiqchi 6-8 nafar raqqosani, ba’zan esa ayollar ayollarni «o’ynatadi». Bunday hol professional san’at havaskorlik darajasiga tushirishga, uning tanazzulga uchrashiga xizmat qilmoqda. O’zbek milliy raqsi an’analari, haqiqiy san’at «erkin», «ommaviy raqs bo’tqasi» ichida asl yuzini yo’qotib bormoqda. Shu sababli, ming afsuski, hozirgi paytda kechagina sahnada bo’lgan qizlarxon Do’stmuhamedova, Malika Ahmedova, Rushana Odamboeva kabi san’atkorlarning o’rnini bosish u yoqda tursin, ularning yoniga yaqin keladigan raqqosalar yo’q.

Teatr. Insoniyat ma’naviy hayotida Teatr san’ati juda qadamdan o’z o’rnini yo’qotmay keladi. Bundan bir necha ming yillar avval qadimgi Hindiston, qadimgi Xitoy va qadimgi Yunonistonda dastlab teatr bir kishilik sahnadan iborat bo’lgan, keyinchalik ikki kishilik sahnadan, undan keyingina jamoviy san’at turiga aylangan. YA’ni spektakl jamoaviy ijod mahsuli – rejissyor, dramaturg, aktyor va rassomning ijodiy izlanishlari natijasi o’laroq yuzaga keladi. Ayni paytda unda bir necha san’at turi omuxta tarzda namoyon bo’ladi: me’morlik, rassomlik (dekorastiya), musiqa va notiqlik san’atining hamkorligi spektaklning sahnaviy asosini, dinamik tarzda rivojlanib boradigan dramatizm esa uning badiiy – estetik mohiyatini belgilab beradi.

Har bir spektaklning muvaffaqiyatli chiqishi rejissyor va aktyorlik iste’dodi, mahorati bilan bog’liq. Rejissyor ham, aktyor ham ijodkor. Rejissyor butun spektaklning ibtidodan intihosigacha yaxlit asar tarzida tasavvur qiladi va o’z g’oyaviy niyatini aktyorlar ovozi, harakati hamda sahnaviy ko’rinishlardagi moddiy ashyolar orqali ro’yotga chiqaradi. U drama yoki dramalashtirilgan epik asar (roman, qissa) asosida undan ma’lum ma’noda farqlanadigan

o’zining badiiy-estetik talqinidagi Yangi asarni taqdim etadi, ya’ni drama yozuvchining, spektakl esa asosan rejissyorning asari. Rejissyorning mahorati, aktyor va rassom ko’magida sahnani o’ziga xos olamga aylantiradi: unda biz o’z zamonamizni ham, kechmish zamonlarni ham ko’ramiz, ularning eng muhim, xarakterli jihatlarini ilg’ab olamiz.

Rejissyor o’ylagan g’oyani aktyorlar amalga oshiradi. Aktyor – sahnaning joni, uning har bir holati, yuz ifodasi, ovozidagi ohang, monolog va dialog paytlaridagi qo’l harakatlari badiiy qiyofani yaratadi. Zero spektaklning o’zi boshdan-oyoq dinamik harakat mahsulidir. Shu bois ham aktyor mahorati, iste’dodi sahna asari darajasini belgilaydigan asosiy omillardan. M., Otello rolini buyuk aktyor Abror Hidoyatov bilan ijro etgan spektakl orasida T. Azizov garchand u ham iste’dodli aktyor bo’lsa-da juda katta, qiyoslab bo’lmaydigan darajada farq bor.

Teatr san’atining yana bir o’ziga xos jihati shundaki, unda sahna asari tomoshabin oldida yaratiladi, o’sha rejissyor, sahnaga qo’ygan o’sha aktyorlar o’ynagan bugungi spektakl kechagidan farq qiladi. Bu sahna san’atining doimiy ijodiyligini ko’rsatadi, bugungi ijroga aktyor nimanidir qo’shadi yoki undan olib tashlaydi. Bu uning ruhi, ijodiy kayfiyati, ikki yoki uch kunlik o’sishi bilan bog’liq.

Teatrning turlari ko’p: yoshga qarab bo’linadigan yoshlar teatri, bolalar teatri, jonli aktyor ishtirok etmaydigan qo’g’irchoq teatri bor. SHuningdek, musiqadan juda keng foydalanadigan, butun boshli piesa yoki librettoga bastakor alohida, davomli, kuy bastalaydigan balet musiqali drama, operetta, opera singari estetik mohiyatiga qarab ajratiladigan teatr turlari ham mavjud. Lekin qaysi turdagi teatr san’ati bo’lmasin, u millat va shaxs estetik didini yuksaltirishda katta ahamiyatga ega.

O’zbek milliy teatri qadim zamonlarda avval qo’g’irchoq («chodir xayol») tarzida mavjud edi. Faqat keyinchalik, XX asr boshlarida milliy drama paydo bo’lgach (M.Behbudiy, «Padarkush»), zamonaviy teatr vujudga keldi, deb aytishimiz mumkin. Teatr jadidchilik harakati bilan uzviy bog’liq bo’lib, favqulodda juda tez va keng yoyildi. O’zbekiston hududida XX asr 10-yillarining o’zida Samarqandda, Toshkentda va Qo’qonda teatr truppalari paydo bo’ldi, o’zbek xalqi ma’naviyati xazinasi yana bir go’zal san’at bilan boyidi. Behbudiy, Avloniy, Hamza kabi buyuk ziyolilar bunda katta xizmat qildilar. Keyinchalik Mannon Uyg’ur, Etim Bobojondek ulkan rejissyorlar, Abror Hidoyatov, Obid Jalilov, SHukur Burxon, Olim Xo’jaev, Sora Eshonto’raeva, Nabi Rahimov, Hamza Umarov, Rahim Pirmuhamedov kabi buyuk dramatik aktyorlar etishib chiqdi. Karim Zokirov, Halima Nosirova, Bernora Qorieva, Soadat Qobulova, Muyassar Razzoqova, Guli Hamraeva singari opera va baletning mumtoz ustalari jahonga tanildilar. Hozirgi o’zbek teatri ma’naviy-axloqiy maskan, haqiqiy ibratxona sifatida diqqatga sazovordir. «Chunki sahna san’atining odamlarga nafaqat zavq-shavq baxsh etishi. ayni paytda milliy g’urur, milliy iftixor manbai, qudratli tarbiya vositasi ham bo’la olishi – bu isbot talab qilmaydigan haqiqatdir»[201].

Sirk. Sirk eng qadimgi an’anaviy san’at turlaridan biri. U Sharqda vujudga kelgan va dorbozlik san’ati deb ham atalgan, ko’chma tomosha sifatida xalq orasida shuhrat qozongan. Unda dorda langar bilan yurishdan tashqari, dorboz havo gimnastikachisi (chig’iriqda) vazifasini ham bajargan. Pastda albatta nog’ora dorbozning harakatlariga mos ohangda yangrab turgan. Ayni paytda pastda qiziqchi, ko’zboylog’ich, akrobat (besuyak), ayiq o’ynatuvchi ishtirok etgan, ba’zan askiyadan ham foydalanilgan.

Hozirgi paytda zamonaviy stirk o’sha unsurlarni asosan saqlab qolgani holda, yanada murakkablashgan inson dovyurakligini, tanasining eguluvchiligini, erishib bo’lmaydigan darajadagi epchillikni aktyor mahorati orqali namoyon etadi, unutilmas badiiy qiyofa yaratadi. Endilikda buning uchun maxsus aylana shaklida qurilgan, tomoshabinlar o’rindiqlari ham aylana qilib joylashtirilgan bino va arena deb ataladigan aylana o’yin maydonidan foydalaniladi. Undagi tomoshalarda inson tanasi go’zalligini kuzatish bilan birga biz aktyor harakatlaridan vujudga kelgan insoniy mo’’jizalarni ham ko’ramiz. STirk insonning nafaqat o’z a’zolari va hissiyotlari, balki hayvonlar, o’yin asbobi bo’lmish narsalar, makon, tomoshabinlar hissiyotlari, atrof-muhit ustidan, kengroq ma’noda olganda, dunyo ustidan cheksiz hukumronligini namoyish etishi bilan bizni doimo xavotirdan hayratga aylanadigan estetik idrok etish jarayonini boshdan kechirishimizni ta’minlaydi. Zero stirk «sof estetik» san’at, unda bevosita manfaatdorlikni uchratmaymiz. M., bir shlyapa ostida ko’zboylog’ich uchirgan besh yoki o’nta kaptardan, olov halqa ichidan arslonning sakrab o’tishidan, hech qaysi sportchi bajarolmaydigan chig’iriq (gimnastik) yoki akrobotik (belsuyak) o’yinlardan qanday manfaat bo’lishi mumkin? Chunki stirkda respublika yoki jahon birinchiligi uchun (manfaatli) musobaqa o’tkazilmaydi, umuman, stirk musobaqa degan tushunchani inkor etadi.

Sirkning yana bir o’ziga xos xususiyati, unda doimiy masxaraboz-qiziqchining ishtirok etishi, ya’ni kulgililik xususiyatining doimiy mavjud bo’lishi bilan belgilanadi. Masxaraboz faoliyati stirkdagi barcha narsalarni (namoyishlarini), sirtdan bo’lsa-da, bog’lab turadigan, tomoshabinni bir hayratlanarli keskin kechinmali, havotirli holatdan ikkinchisiga o’tishi uchun kulgili tanaffusni, muayyan ma’nodagi forig’lantirishni o’z ichiga oladi. Masxaraboz mantiqiylik ustidan nomantiqiylikning, absurdning shartli ravishdagi g’albasini ko’rsatadigan va shu bilan tomoshabinda kulgi uyg’otadigan, har bir davr uchun zamonaviy bo’lgan, ya’ni har bir zamonning «o’z kulgisini» topa oladigan o’lmas badiiy qiyofa.

Shuningdek, sirk san’atida vorisiylik birinchi navbatda oilaviy san’atkorlik, qolaversa ustoz-shogirdlik an’analari hukumron. M., o’zbek stirkida Toshkenboevlar oilasi bu san’atning, deyarli barcha sohalarida faoliyat ko’rsatdilar va ko’rsatmoqdalar, hozir biz stirkka kirsak, «nevara va evara san’atkorlar» namoyishlaridan estetik zavq olamiz.

---

[201] Karimov.I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T., O’zbekiston, 2002 y., 55–56-b.

Umuman olganda, stirk san’ati millatni, ayniqsa yoshlarni mo’’jizaviylikdan hayratlanib, kulgililikdan forig’lanib-jismonan baquvat, epchil, o’z ruhi a’zoi badani ustidan hukumronlik qila oladigan, katta tabiatining bir qismi bo’lmish hayvonlar tabiatidan xabardor shaxs sifatida kamol topishida muhim ahamiyatga ega.

Askiya. Baxshilik san’atiga o’xshab, askiya ham xalq og’zaki ijodi mahsuli. U arab tilidagi «o’tkir zehnli» ma’nosini anglatadigan «zakiya» (ko’pligi – «azkiya») so’zidan olingan bo’lib, qadimgi, xalq sevgan san’at turlaridan biri. U – ikki va undan ortiq kishi tarafma-taraf bo’lib, davrada, to’g’ridan-to’g’ri, tomoshabinlar olqishi shaklidagi baholash usulida o’tkaziladigan so’z o’yini.

Ammo askiya oddiy so’z o’yinidan qat’iy belgilangan mavzui bilan ajralib turadi. Uning bu xususiyati payrov janrida yaqqol ko’zga tashlanadi. Bu janr nihoyatda izchillikni talab etadi, payrovdan chiqish, chetga uni chala qoldirib ketish, mumkin emas. «To’laqonli adabiy asarda, masalan, tabiat manzaralari, kishilar obrazi va xarakteri, ularning hayotga munosabatlari, voqealarning rivojlanishi va tugallanishi, g’oya va harakatni to’lduruvchi detallar tasvir etilganday, - deb yozadi askiyashunos R.Muhammadiev, - payrovda ham bu talablar amalga oshirilishi shart, aks holda u «chala», «xom» bo’lib qoladi. SHu jihatdan qaraganda payrov syujetli yaxlit badiiy asar hisoblanadi»[202]. M., «Imorat» payrovida olingan eru poyolvorga qazilgan chuqurlindan boshlab, to tom yopilib, imorat uvog’u bo’yoqdan chiqqunicha bo’lgan jarayon aks etishi kerak.

Payrovdan farqli o’laroq, o’xshatdim, bo’lasizmi, gulmisiz, rayhonmisiz qofiya, radif, kabi kichik janrlarda askiyachi o’z raqibining ba’zi sifatlarini, xislatlarini boshqa narsalarga o’xshatish, nisbat berish orqali kulgi uyg’otadi. Bunda, R.Muhammadiev ta’kidlaganidek, ikki tarafning har safargi savol-javobdan keyin mavzu tugashi va ikkinchi savol-javobida boshqa mavzuga o’tish mumkin.

Askiyaning hamma janrlarida ham so’z qo’llashdagi mohirlik, mubolag’a, kinoya, kessatiq, qo’l, yuz harakatlari singari vositalardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Lekin, eng muhimi, bu san’at turining hamma janrlarida belgilovchi xususiyatlardan biri –hozirjavoblik. Raqib tomonning savoliga yoki sifatlashiga sayoz, kulgi uyg’otmaydigan tarzda javob bergan, «hujum»ni munosib rad etolmagan tomon engilgan hisoblanadi, zero favqulodda ko’chma ma’no, majoziylik qonuniyatiga binoan izchil va nozik fikrlash hozirjavoblikning moyasi hisoblanadi.

Askiyaning yaxlit san’at turi sifatidagi yashash sharti – bu uning erotik tabiatga egaligi. Unda mazmun mehnat turlariga, kasbga, muomalaga doir so’z va atamalarga nihoyatda nozik, pardali tarzda jinsiy ma’noni jolash orqali ochiladi. Aynan ana shu ko’chma ma’no tinglovchi hozirjavobligi tomoshabinda kulgi uyg’otadi. Zero hozirjavoblik erotik-seksual urg’uga ega bo’lsagina, askiyaga aylanadi, aks holda u topib aytilgan hazildan nariga o’tmaydi. Ayni paytda askiyada laqab ishlatish ham o’ziga xos o’rin egallaydi. Lekin laqab askiyada shaxsning jismoniy nuqsini ochish, hajv uchun emas, balki zaminida mehr yotgan hazil tariqasidagi latifa so’z o’yinlari vositasida kulgi qo’zg’otish uchun qo’llaniladigan usul hisoblanadi.

Askiya o’zbeklarda urug’chilik-qabilachilik davrida vujudga kelgan degan faraz bor. Zotan, darslikning tarixiy qismida ko’rib o’tganimizdek, SHrayber-Froyd nazariyasiga binoan qadimgi odam jinsiy munosabatlarga doir so’zlarni mehnat turlariga qo’llab, og’ir mehnatga huzurbaxshlik berishga intilgan. Askiyaning kelib chiqishi ham ehtimol shundadir. Bu san’at turining eng ravnaq topgan davri ilmda XIV-XV asrlar deb tan olingan. O’sha davrda mavlono Burhon lang, Said G’iyosiddin Sharfa, Mavlono Xalil Sahof, Mavlono Abdulvose’ munshiy kabi askiyachilar bu boradagi eng kuchli san’atkorlar hisoblangan. Keyingi davrlarda ham askiya o’zbek xalqining to’y-tomoshalari, tantanali marosimlarida o’z o’rniga ega nazokatli san’at sifatida taraqqiy topib bordi. Biroq sho’rolar davrida u «qayta ishlandi», ya’ni uning erotik san’at turi sifatidagi xususiyati inkor etildi. Natijada askiya zo’raki kulgi asosiga qurilgan jiddiy «xalq og’zaki ijodi janri»ga aylandi. M., biz iqtibos keltirgan «Askiya» kitobida o’sha davrlarda yozib olingan va «Mushtum» jurlarida e’lon qilingan payrovlar, askiyaning kichik janrlari, askiyachilarning mahoratiga qaramasdan, yoniningizda birov qitiqlab tursa ham, sizda kulgi qo’zg’otishi mushkul. Chunki mazmunan sostialistik, shaklan milliy bo’lgan bu askiyalarda o’q tomir – nihoyatda nozik pardalangan erotik xususiyat yo’q. Aynan ana shu xususiyat tufayli boshqa san’at turlariga (M., badiiy adabiyotga, teatrga v.b.) o’xshab bolalar askiyasi, o’simirlar askiyasi, yoki yoshlar askiyasi degan tushuncha qo’llanilmaydi. Askiya faqat balog’atga etgan kishilar uchun mo’ljallangan san’at turi. Lekin alohida ayollar askiyasi, erkaklar bilan ayollar yonma-yon ishtirok etgan askiyalar mavjud. M., mohir askiyaboz Muhabbatxon Yo’ldosheva, Muhiddin Darvishov, Zaynobidin va Madaminjon YUsupovlar, Abdulhay mahsum Qozoqov kabi erkak askiyabbular davrasida ulardan qolishmagan holda ishtirok etib keladi.

Hozir Mustaqillikdan keyin askiya yana o’z asl qiyofasiga qaytdi. Haqiqiy askiyani keyingi paytlarda askiyabozlar musobaqalarida, respublika miqyosida katta tantanalarda, teleekranda tinglab, tomosha qilyapmiz. Bunday askiyalardagi kulgi o’ziga xos tanqidiy ruhga ega. U jamiyatimizning yanada ravnaq topishi, estetik didni yuksaltirish uchun xizmat qilib kelayotgan san’at turi. Lekin ba’zi bir bizning mashhur «profesional» qiziqchilarimizning azbaroiy odamlarni kuldiraman deb bachkanalikka, bepardalikka yo’l qo’yayotgan holatlari ham uchrab turishi kishida afsus yug’otadi. Vaholanki askiya, bir suhbatda ulkan yozuvchimiz Abdulla Qahhor aytganidek, usti bir qavat yupqa tuproq bilan yopilgan bir uyum go’ng ustida o’sgan atirguldek go’zal, uning rangidan, hididan bahramand bo’lish lozim, tagidagi tuproqni ochib, go’ngni titish kerak emas. Aks holda askiyaning bor go’zalligiyu, nozikligi, hayo pardasi yo’qoladi, u so’kish va so’kinishning madaniylashgan shakliga aylanadi-qoladi.

---

[202] Askiya G’. G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, T., 1970 y., 6–b.

Estrada. Qadimda estrada bilan stirk yaxlit bir san'at turi hisoblangan. XIX asrga kelib, estrada stirkdan mustaqil tarzda faoliyat ko'rsata boshlagan. O'zbekistonda u Qo'qon xonligida XIX asr boshlarida tashkil etilgan keyinchalik «qiziqchilar» teatri deb atalgan.[203] Umuman olganda, u an'anaviy san'atlar ichida nisbatan Yangisi va ba'zi jihatlari bilan zamonaviy – texnikaviy san'at turlariga ma'lum ma'noda yaqinligi bor (estrada musiqasining zamonaviyligi, elektron asboblar ijrosi v.h.).

San'at turi sifatida estrada omuxtalik tabiatiga ega, unda teatr, musiqa, stirk, askiya unsurlari yaqqol ko'zga tashlanadi. M., drama va komediyaning, kichik shakllari, intermediyalar, akrobotika, pontomima, janglyorlik, qo'shiq, badiiy o'qish v.b. janrlar muvafaqiyatli ijro etiladi. Unda zamonaviy muammolarning ko'ngil ochish usullari va kulgi vositasida ifodasini, xilma-xil tanqid yo'llarini ko'rish mumkin. Falsafiylik, ijtimoiy-siyosiy mavzular, estradada qisqa, lo'nda, qiziqarlili tarzda ochib beriladi. Estrada, sahnaviy san'at bo'lsa-da, teatrdan aynan ana shu «engilligi», «ko'ptomonlamaligi» bilan farq qiladi. Mashhur rus estrada aktyori E.Petrosyan shuni nazarda tutgan holda, bu san'at turini «san'atdagi jurnalistika» deb ataydi.

Estrada namoyishlarini (nomerlarini) ko'pincha konferense bir tizimga solib turadi. Ba'zan esa buni aktyorning o'zi amalga oshiradi, estradada aktyor mahorati, uning xatti-harakatlari, yuz ifodasi, zarur paytdagi pauzasi v.b. hodisalar muvafaqqiyatning asosiy omili hisoblanadi. Estrada aktyori tomoshabin bilan uzviy aloqada bo'ladi: sahna va zal ba'zan bir-birini to'ldiradi. SHu o'rinda yana E.Petrosyanni eslashga to'g'ri keladi, mening bosh rejissyorim, tomoshabin u menga nima qilish kerakligini aytib berib turadi, deydi buyuk aktyor.

Hozirgi paytda maxsus «estrada teatrlari» mavjud. Rus va jahon estradasida aktyorlar asosan yozuvchilar maxsus yozib borgan yoki matbuotda e'lon qilingan eng yaxshi hajviyalar asosida ish ko'radi. Afsuski, bizning aktyorlar «Obid A» teatrida ham «Mirza» teatrida ham asosan matnlarni o'zlari to'qiydilar va jahon latifalarini o'zbekchalashtirib tomoshabinga taqdim etadilar. Natijada aktyorlarimiz qanchalik iste'dodli bo'lmasin, (ularning ko'pi haqiqatan ham iste'dodli), chiqishlari qiziqchidan ko'ra, ko'proq bachkanalikka aylanib ketadi.

XX asrda jahon estradasida o'ziga xos estrada qo'shiqchiligi maxsus janr sifatida keng yoyildi. Jahonga mashhur estrada guruhlari va qo'shiqchilari katta shuhrat qozondilar («AVVA», «Yalla», Jekson, Tarkan v.b.), ulkan stadionlarda o'tkaziladigan «gala konstertlar» paydo bo'ldi. Bularning hammasi estradaning zamon talablariga, jurnalistlar tili bilan aytganda, «operativ» javob beradigan jurnalistik ruhdagi san'at turiga aylanganini ko'rsatadi. SHundan kelib chiqadigan bo'lsak, bizning estradamizga qo'yiladigan talablar hozirgidan bir necha barobar yuksak bo'lishi kerak.

Zamonaviy san'at turlari

Texnikaviy yutuqlar asosida vujudga kelgan zamonaviy san'at turlari insonning har qanday qulay sharoitdan Yangi san'at turi yoki asarlarini yaratish uchun foydalanishini ko'rsatadi, insondagi san'atga bo'lgan azaliy va abadiy intilishidan dalolat beradi. Bir paytlar, o'ta rastional, san'at bilan sig'ishmaydigan, qo'pol deb hisoblangan texnikadan hozirgi paytda inson ildizi norastionallikka borib taqaladigan badiiy qiyofa yaratish uchun foydalanmoqda. SHuning natijasi o'laroq, keyingi bir yarim asr ichida bir necha zamonaviy (texnikaviy) san'at turlari paydo bo'ldi va rivojlandi. Endi shularni qisqacha ko'rib o'tamiz.

Fotosan'at. XIX asrning 20-30-yillarida franstuzlar J.Nens, L.Dager, ingliz U.Tolbot tomonidan shahar manzaralari, mevalarning rassomlik san'atidagi ko'rinishlarini optika va kimyo yordamida suratga ko'chirish amalga oshiriladi. Uni dastlab «fotogeniya», «fotogenik san'at» deb, keyinroq esa, uni rassomlik san'atidagi rangtasvir va grafikaga yaqinligi nazarda tutib, «fotografiya» degan nom bilan atashdi. Muhimi shundaki, suratga tushirishni badiylashtirish, fototexnika asosida san'at asari yaratish boshlandi. Ayni paytda, endi rangtasvirning kuni bitdi, degan, shoshib aytilgan fikrlar ham o'rtaga tashlandi.

Lekin tez orada uni rangtasvirning raqibi emas, balki janrlaridan biri sifatida qabul qilish odat tusiga kirdi. Nihoyat, XX asrning dastlabki yillaridayoq u o'ziga xos tasviriy imkoniyatlarga ega alohida san'at turiga aylandi. Ayniqsa chex foto san'atkori Frantshek Drtikol (1883-1961) ijodi jahon madaniyatida alohida iz qoldirdi. U badiiy suratkashlikning Rafeli degan nom oldi.

Keyingi davrlarda, fototexnika taraqqiyoti natijada, A.Stilist (AQSH), E.Atje (Franstiya), A.Jumaev (O'zbekiston), M.Rodchenko, (Rossiya) v.b. badiiy suratkashlik san'ati namoyandalari asarlari har qanday rangtasvir bilan bellashadigan darajaga ko'tarildi. Bu san'atkorlarda endi, Drtikoldan farqli o'laroq, rangtasvir uslublaridan foydalanish o'rnini bir lahzalik fototasvirning ifodaviy vositalaridan kelib chiqqan holda, fotosan'atga nurtasvir san'ati sifatida qarash ijodiy tamoyil tusiga kirdi. Bunda suratkash lahzalik sahnaning rejissyori bo'lishi, ob'ektdan badiiy qiyofaga aylanishi mumkin bo'lgan xususiyatni topishi, eng mos rakkurs va suratga olish nuqtasini tanlashi, kompozistion miqyosni ilg'ashi muhim. O'shanda fotosan'atkor «mangu lahza»ni tasvirga tushirishga, ya'ni lahzani mangulashtirishga erishishi mumkin.

Badiiy suratkashlikning, ya'ni nurtasvirning rangtasvirdan farqi va eng muhim belgisi – bu uning hujjatlilik xususiyati, undagi har bir suratga olingan hodisa real asosga ega. Rassom o'zi tanlagan syujet tasvirida tasavvur va xayolotga keng o'rin beradi, fotosan'atkorda bu imkoniyat yo'q, u tasvir ob'ektini real, hayotdagi holatida qanday bo'lsa, shunday suratga tushiradi. Lekin u ob'ektning «yalt» etgan jonli ko'rinishini topa bilishi va o'sha jonlilikni saqlab qoladigan nuqtadan turib ijod qilishi, ba'zan ob'ektning ishiga aralashishi, uni muayyan ruhiy yoki manzaraviy holatga kelishi uchun ko'maklashishi kerak bo'ladi. Biroq u rassomning erkin aralashuvi imkoniga ega emas. SHu bois biz fotosan'atda eng yuksak darajadagi jonlilikni ko'ramiz, tom ma'nodagi real borliqning

[203] Qarang: O'sha manba, 129-b.

qo’shig’ini tinglaymiz. Kinoshunos Z.Krakauer: «Fotografiya bilan bir qatorda kino ham materialni nisbatan qo’l tegmagan ko’rinishda etkazib beradigan yagona san’at turidir... Suratga tushirilgan tasvirni idrok etar ekan, tomoshabin ba’zan haqiqiy reallikning ovozini – «borliqning shivirini» tinglaydi», – deganida haqiqatni aytgan edi.[204]

Fotosan’atning ham turli janrlari mavjud, ularning ko’pi rassomlikdan «o’tgan»: portret, manzara, natyurmort v.h. Ammo har ikki san’at turidagi bir xil janr o’ziga xos tafovutga ega. M., portret janrida rassomlik san’ati har qanday syujetdan yiroq, o’z dunyosiga o’zi sho’ng’igan individual inson tasvirini beradi. Badiiy suratkashlikdagi portret esa aynan «odam ishtirokidagi syujetni» aks ettiradi, undagi individ o’z dunyosidan chiqib ketadi va o’zi ishtirok etayotgan jarayonning bir qismi sifatida gavdalanadi. Ya’ni fotosan’atda insonning o’zi emas, uning tashqi dunyoga munosabati birinchi o’rinda turadi.

Fotosan’atda montaj katta ahamiyatga ega. Montaj orqali badiiy qiyofa yaratish imkoni nihoyatda keng. Fan va texnikaning ravnaqi tufayli u «mo’’jizaviy» darajaga ko’tarildi. Hozirgi kunda tasvir tayyorlashning kompyuterlashtirilishi natijasida badiiy suratkashlik eng qamrovli san’atga aylanib bormoqda va boshqa san’at turlariga tobora katta ta’sir ko’rsatmoqda. Ayni paytda fotoreklama va fototanqiddagi o’ziga xos go’zallik hamda go’zallikka aylanishi kerak bo’lgan xunuklikning badiiy qiyofalar darajasidagi tasviri ham jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega.

Kino. Eng miqyosli zamonaviy san’at turi, bu – kino. Bugungi kunda u hamma erda «hoziru nozir». Uni kinoteatrlarda jamoaviy, televidenie va videomagnitafon orqali esa oilaviy yoki individual tomosha qilish mumkin. Hozirgi paytda kino o’zining dastlabki «harakatdagi fotografiya» holatidan shu qadar uzoqlashib ketganki, endi uning ovozsiz davridagi montaj dramaturgiyasiga suyanib qolgan san’at sifatida tasavvur ham qilish qiyin. Hozir aktyorlar yaratgan, murakkab psixologizmga asoslangan badiiy qiyofalar, adabiy sstenariy zaminida ekranlashtirilgan real hayotni badiiy aks ettiradigan davomli, ko’pchiziqli syujet birinchi o’rinda turadi. Kinoda teatrdagidek dinamik dramatizm hamda uning asosini tashkil etgan harakat, harakat va yana harakat (bunda fikriy harakat ham nazardan qochirilmasligi lozim) asarning moyasini tashkil etadi. Biroq kino, teatrdan farqli ravishda, kadrlar orqali zamondan-zamonga «sakrab» o’tish imkoniga ega, biroq bu «sakrash», agar film rejissurasi puxta bo’lsa, tomoshabinga sezilmaydi, u hozirgi voqealarning ibtidosi, sababchisi – avval bo’lib o’tgan voqealar ekanini his qilib turadi. Chunki o’tgan voqealarning eng muhim, qahramonlar taqdirini belgilaydigan holatlari kadrlarda bugungi voqealar bilan tabiiy ulanib ketadi, ya’ni kecha – bugunga, bugun – kechaga o’tib turishi ekran imkoniyati doirasidagi «oddiy gap», kino san’ati usullaridan biri. Sahnada esa bunday imkoniyat yo’q, unda mazkur holatlar tomoshabinga to’g’ridan-to’g’ri emas, balki dekorastiya va musiqa o’zgarishlari yordamida aktyorlar monologlarida, ba’zan diologlarida nutq (so’z) orqaligina shartli ravishda etkazib beriladi.

Ekranning imkoniyatlari, haqiqatan ham nihoyatda keng: u rassomlik, teatr, adabiyot, stirk, musiqa, estrada v.b. san’at turlaridan bemalol foydalana oladi, ularning zarur jihatlarini o’ziga «qo’shib oladi». Bundan tashqari kinoda kinematografiya tili bilan aytganda «plan»lar bor: umumiy. o’rta, yirik M., umumiy planda film qahramonlari yoki asosiy ob’ekt atrof-muhitdan alohida ajratib olinmaydi, umumiy tasvirning bir qismi sifatida, o’rta planda – u ajratib, lekin atrof-muhit unga fon sifatida xizmat qilgan holda tasvirlanadi. Yirik planda esa qahramon yoki ob’ektning faqat eng muhim tomonlari – inson yuz-ko’zi va undagi ruhiy evrilishlar yoki, deylik, bayroqning butun ekranni tutib hilpirashi kabi holatlar «tomoshabinga qarab keladi». Bunda va umuman, kinoda rejissyor g’oyasi bilan birga tasvirchi – operatorning roli katta. Agar muqim suratga olishda asosan rejissyorning «degani-degan» bo’lsa, harakatdagi kamera orqali tushiriladigan tasvirlarda tasvirchining mahorati, tajribasi, ijodiy fikrlash qobiliyati muhim. SHu bois iste’dodli tasvirchilarning keyinchalik taniqli rejissyorlarga aylanganini kino tarixida uchratishimiz mumkin. Mashhur rejissyor Malik Qayumov ko’p yillar tasvirchi bo’lib ishlagani bunga misol bo’la oladi.

Jahon kinosi bilan deyarli bir vaqtda vujudga kelgan, Hudoybergan Devonov asos solgan o’zbek kinematografiyasi bugungi kunda katta tarix va salohiyatga ega. N.G’anievning «Tohir va Zuhra», K.YOrmatovning «Alisher Navoiy» kabi filmlari kino san’atidagi mumtoz asarlar hisoblanadi. Bugungi kunda xususiy kinostudiyalarning ko’plab vujudga kelishi, ijod erkinligi tufayli o’zbek kinosi ravnaqi uchun har tomonlama etarli sharoit mavjud.

Televidenie. Agar estrada «san’atdagi jurnalistika» bo’lsa, televidenieni «jurnalistikadagi san’at» deyishimiz mumkin. Hozir uni faqat ommaviy axborot vositasi va san’at targ’ibotini texnikaning eng Yangi yutuqlari asosida amalga oshiruvchi zamonaviy omil sifatida olib qarash uni kamsatishdan boshqa narsa emas. To’g’ri, telejurnalistika mavjud va uni inkor etish aqlga to’g’ri kelmaydi. Lekin ayni paytda ana shu real hayot real voqealar va real odamlar ishtirokidagi «jurnalistik» syujetlarning san’at darajasiga ko’tarilganini, ularning estetik ahamiyat kasb etganini yaqqol ko’ramiz. M., Farhod Bobojonning «Bir o’lkaki...» turkumidagi ko’rsatuvlarini olaylik. Ularni oddiy jurnalistik televizon reportaj deyish mumkinmi?! Bu ko’rsatuvlarning deyarli har biri o’ziga xos film, shunday filmki, oldiga oddiy «hujjatli» degan sifatlashni qo’yish nohaqlik. Ularda real haqiqat telekamera orqali badiiy haqiqatga aylangani, real odamlar badiiy qiyofalar darajasiga ko’tarilganini, ko’rsatuvni olib boruvchining o’zi qahramonlardan biri bo’lib xotiramizda qolishi bilan ajralib turadi. Teleko’rsatuv muallifi, telerejissyor, tasvirchi mahorati hamda harakatdagi kamera imkoniyatlari televidenieni san’at, ta’bir joyiz bo’lsa, «hujjatli san’at» sifatidagi o’rnini belgilab beradi.

---

[204] Михалкович В.И., Стигнеев В.Т. Поетика фотографии. М., Искусство, 1989. С. 122.

Albatta, bu – televidenie faqat hujjatlilikka tayanadi degan gap emas. Uning imkoniyatlari (agar bu san'at kelajagini ham inobatga olsak) tasavvur qilib bo'lmaydigan darajada keng. Zero televidenie oilaviy va individual estetik idrok etiladigan san'at turi, u bizning uydagi kinoteatirimiz, uydagi stirkimiz, uydagi teatrimiz v.h. Ayniqsa, uning kinodasturlari alohida ahamiyatga ega M., davomli teleseriallarni, deylik, uch oy yoki yil mobaynida qaysi kinoteatrda ko'rishimiz mumkin? Kinoteatrlarda bunday imkoniyat yo'q. Bundan tashqari telekamera hamma erda - quruqlikda ham, suv ostida ham, osmonda ham ishlay oladi, qo'limiz, oyog'imiz, nigohimiz etmaydigan joylardan badiiylik darajasiga ko'tarilgan reallikni. bizga etkazib beradi. Biroq, buning uchun eshittirish muallifi yoki yolg'iz teletasvirchi, Yu.Borev aytganidek, ham aktyor, ham jurnalist, ham rejissyorlik bo'lib ishlash xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirishi, bir so'z bilan aytganda, katta iste'dod va bilimga. hozirjavoblik va o'tkir nigohga ega bo'lishi lozim.[205]

Agar ta'bir joyiz bo'lsa, televidenieni «tashviqotchi san'at» yoxud «estetik tashviqotchi» deyishimiz mumkin. Ekran orqali biz sho'rolar davrida oddiy «urf-odatlar» atamasi ostida qolib ketgan asl ma'naviy qadriyatlarimizning qanday qadrlanishi zarurligini anglab etamiz. M., o'zbek televideniesining baxshilik san'atiga bag'ishlangan dasturlari ko'pchilik tomoshabinlar uchun xalq og'zaki ijodi an'analaridan shunchaki bahramand bo'lish emas, balki haqiqiy san'at bayrami sifatida qabul qilinadi yoki «Ming bir rivoyat» kabi «lahzalik» ko'rsatuvlardagi falsafiylikning badiylik bilan uyg'unlashib ketishi katta tassurot qoldiradi. SHunday qilib, televidenie san'atlar ichida misli yo'q qudratli tarbiya quroli.

Biroq, shuni taassuf bilan ta'kidlash kerakki, bu qurol «teskarisiga» ishlashi, ya'ni televidenie xalqning estetik didini hamma vaqt yuksaltirishga emas, balki pasaytirishga, jo'nlashtirishga ham xizmat qilishi mumkin. M., O'zbek milliy televideniesidagi (yuqoridagi yutuqlarini ta'kidlagan holda) ba'zi bir amallab ishga kirib olgan saviyasi past jurnalistlarning real voqelikni badiylashtirib ko'rsatish o'rniga «o'zini ko'rsatish» uchun urinishlari shular jumlasidan. Ayniqsa, televideniedagi estrada qo'shiqchiligi saviyasining pastligi jihatidan ajralib turadi. Ekranda Xudo ovozdan qisgan (barmoq bilan sanarli iste'dod egalaridan tashqari) horijiy qo'shiqlar musiqalarini o'g'irlab, kompyuter orqali «ovoz yasab» mashhurlikka intilayotgan kimsalarni ko'rib, hayratga tushasan. Chunki ular yoki tushunib-tushmay, yoki surbetlarcha o'zlarini «biz san'atkorlar» deb ataydilar va Nitstshe aytganidek, o'zining suvarak darajasidagi kichginagina «men»ini butun O'zbekistonga yoyishga harakat qiladi. Ularning asosiy maqsadi «televizorda chiqib», shuhrat qozonish va shu orqali to'ylardagi otarchiligiga balandroq narx so'rashdan iborat. Bundaylar haqida suhbatlaridan birida buyuk xonandamiz Muyassar Razzoqova «San'atni to'ydagi qistiriqqa sotadigan kimsalardan hazar qilaman», degan edi. Afsuski, televideniemiz ana shu «suvarak-san'atkorlar»ning ko'payishiga xizmat qilayotgani bor gap.

Televideniemizdagi yana bir nojoyiz narsa, bu – klip muammosi. Klip, bir qaraganda, texnikaviy mo''jiza, ammo ikkinchi tomondan, san'at asarini idrok etishda zararli hodisa. YA'ni klipda rejissyor o'z tasavvuridagi manzaralarni, (ba'zan xonandaning taklifini ham) qo'shiqqa ilova qiladi, ko'p hollarda qo'shiqning o'zi emas, ana shu «ilova» tinglovchi-tomoshabin diqqatini tortib ketadi. Demak, klipda estetik idrok etishdagi demokratiya yo'qoladi, rejissyor o'zining tasavvurini tinglovchi-tomoshabinga «tiqishtiradi» Afsuski, ko'pchilik hozir ishlanayotgan kliplar ana shunday salbiy tabiatga ega. Bundan tashqari, bizdagi kliplarning aksariyatini o'ta beodoblik deb atash mumkin. Gap «go'zal ma'shuqalar»ning ba'zan salkam yarim yalang'och chiqishida emas, balki klipda «buyuk san'atkor»ning dang'illama hovli-joyi, qimmatbaho ashyolari, avtomobili v.h. ko'z-ko'z qilinadi. Endi o'ylab ko'ring-chi, qishloqdagi qurbi bir mahallik issiq ovqatu non-choyga etadigan jo'jabirday jon oilaning boshlig'i bunday klipni ko'rgandan keyin qanday ahvolga tushishi mumkin? Maqsad qo'shiqmi yoki kimlarnidir o'ksitishmi?

Xullas, televideniening buyuk qudratidan, qay tarzda foydalana bilish nihoyatda muhim masala. Uni ko'pyoqlama, miqyosli san'at turi va estetik tarbiya maktabi darajasiga ko'tarishi ham televidenie hodimlariga, ham biz – tomoshabinlarga bog'liq.

Endi ikki og'ir so'z "ommaviy madaniyat" haqida. Uning kelib chiqishi, ta'siri, tahdidi borasida mazkur anjuman ishtirokchilarining barchasi habardor, desam Yanglishmagan bo'laman. Lekin, bir narsaga g'oyatda tahdidli, u ham bo'lsa, ommaviy madaniyat insonni "qiyofasiz" oqimning bir qismiga aylantirib qo'yishidadir.

Bu illat aksariyat hollarda haqiqat, go'zallik, ezgulik singari muqaddas tushunchalarni umumiste'molchilik ehtiyoji bilan bog'lab, iste'mol va tovar sifatida xaridorgir bo'lishiga qaratilgan maqsadni targ'ib qiladi. Bu esa pirovardida "bozor adabiyoti", "bozot san'ati" degan ma'naviyatga tahdid soluvchi hodisalarning "gullab-yashnashi"uchun imkon yaratadi. Bugun turli arzonbaho ishqiy yoki detektiv sarguzashtlarning bozori chaqqon. Didsiz, saviyasiz, "millati"ning tayini yo'q "badiiy"filmlar ham ko'payib ketgan. "Bozor san'ati"deganda, birinchi navbatda, ana shunaqa filmlar va bayram sahnalarida qarsillatib aytiladigan yangroq ashulalar esga tushadi

XXI asr ommaviy madaniyati zamonaviy qiyofada go'yo rivojlangan madaniy dunyoga integratsiyalashish niqoblariostida namoyon bo'lmoqda. Bu niqoblar ostidagi salbiy holatlar va ular shakllantirish mumkin bo'lgan illatlar bilan umuminsoniy qadriyatlar orasidagi keskin tafovutni anglay bilish zamon talabidir.

Ommaviy madaniyat eng avvalo, milliy axloqqa zarba berib, jamiyatning g'oyaviy tizimini izdanchiqarishi bilan xatarli ekanligini ham to'g'ri tushnish kerak. Bu xavf-xatarga qarshi qatiy tura oladigan shaxsni shakllanririshda tarbiyaning barcha ko'rinishlarini uyg'un holda olib borishlari shart. Etetik tarbiya aynan shu

[205] Qarang: Борев Ю. Эстетика. М., 2003. С. 305.

maqsad yo'lida yosh avlodni milliylikka zid bo'lmagan estetik ideal timsolida, yuksak didli qilib tarbiyalash bilan dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

"Ommaviy madaniyat"ning asl maqsadi har kuyga solish mumkin bo'lgan olamonni shakllantirish bo'lgani bois, u ma'naviy oziq beradigan, badiiy yuksak, o'quvchini mushohadaga undab, tasavvur olamini kengayishiga xizmat qiladigan asarlarni yaqiniga yo'latmaydi. Shuning uchun "ommaviy madaniyat" namunalarini badiiy –estetik qimmatga ega emas. Ommaviy madaniyat xoh G'arb xoh Sharq bo'lsin uning ma'naviy hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. U yildan-yilga inson shaxsiga, uning estetik tafakkuriga juda katta kuch bilan daxl qiluvchi hodisaga aylanib bormoqda. Bu ayniqsa, estetik tarbiyaning eng muhim vositasi bo'lgan san'at orqali jamoatchilikka ta'sir etmoqda. Bu hodisa san'atda behayo filmlar tuturiqsiz musiqalar ko'rinishida namoyon bo'lib, ularning asosida fahsh, zo'ravonlik, shafqatsizlik kabi axloqiy illatlar yotishini bugungi kunda jamiyatimizning ziyoli qatlami tushunib yetmoqda.

Bu borada XX asrning 70-yillarida amerikalik bir qator sotsiologlar, faylasuflar, san'atshunoslar "ommaviy madaniyat"ning ijtimoiy taraqqiyotga, ayniqsa umumadaniy jarayonlarga ta'siri haqida bir qator tadqiqotlarni olib borgan edilar. Xususan, sotsiolog Ch.Reych o'zining "Gullayotgan Amerika" kitobida "isyonkor yoshlar o'zlarining shaxsiy "madaniyat"larini yaratmoqdalarki, bu madaniyatning asosini kiyim, musiqa va narkotiklar tashkil etmoqda. Yosh "isyonkor" madaniyatning ijtimoiy taraqqiyot bilan bog'liq falsafiy axloqiy, estetik ahamiyatidan hamda muomala va muloqat madaniyatidan yuz o'girgan holda o'zlariga mos qadriyatlarni yaratmoqdalar va ularni himoya qilmoqdalar. Bu kabi "Yangi odam" uchun maskur qadriyatning asosi –bu o'zini mavjud tizimdan tashqarida his qilishga bo'lgan layoqatidir",-degan fikrni bayon etgan edi.

San'at turlarining o'zaro aloqadorligi va ularda – janr muammosi

San'at turlarining o'zaro aloqadorligi. Biz estetikaning asosiy tushunchalari haqida fikr yuritganimizda, ularning o'zaro dialektik aloqadorligi mavjud ekanini aytib o'tgan edik. SHunday holatni san'at turlarida ham uchratamiz. O'z holicha «sof» mavjud bo'lgan san'at turi yo'q. Muayyan san'at turi boshqasidan yoki boshqalaridan nimalarnidir o'ziga oladi va nimalarnidir unga yoki ularga beradi, bu-san'at turlarining yashash sharti. M., me'morlik san'ati haykaltaroshlikdan, rassomlikdan, ko'rgazmali-amaliy san'atdan «foydalanadi». Biz go'zal bino peshtoqida bo'rtma haykallarni, yaproqnusxa bezaklarni, devoriy rasmlarni – pannolarning me'moriy uyg'unlik asosidagi yaxlitligini ko'rib estetik zavq olamiz, yoki Alisher Navoiy nomidagi Davlat akademik katta opera va balet teatri binosi foyesining devoriga buyuk rassomimiz Chingiz Ahmarov chizgan go'zal monumental rasmlarni xuddi «ikkinchi teatr»dek tomosha qilamiz. Musiqa bilan badiiy adabiyotning, teatr bilan rassomlikning v.b. san'at turlarining ham o'zaro aloqadorligi shu tartibda.

Bunday aloqalarni estetikada sintezlashuv – omuxtalik deb ham atashadi. San'at turlari sintezida bir g'oyaviy niyat, bir uslub va bir ijro yaxlitligida uyushgan badiiy qiyofa, yoki badiiy qiyofalar tizimi har xil san'at turlari qonun-qoidalarga binoan yaratilgan bo'ladi, ya'ni unda turli san'atlar badiiy vositalari va majoziylik unsurlari estetik idrok uchun uyg'un bir yaxlitlikni tashkil etadi. Hozirgi paytda biz san'at turlarining uch xil sintezini uchratishimiz mumkin. Bular: plastik san'atlar sintezi (ko'rib o'tganimiz me'morlikda haykaltaroshlik, rassomlik va ko'rgazmali-amaliy san'at turlarining omuxtaligi); san'atlarning teatrlashgan sintezi (musiqa, rassomlik, raqs, san'atlarining teatr orqali, sahnadagi omuxtalashuvi); san'atlarning kinomatografik sintezi (deyarli barcha san'at turlarining montaj tamoyili asosida ekrandagi omuxtalashuvi).

Sintezlashuv jarayonlari fan-texnika taraqqiyoti natijasida ma'lum ma'noda Yangi san'at shakllarini, Yangicha ijod turlarini vujudga keltirdi. Ularni biz sintetik san'atlar deb ataymiz. Teatr, musiqa, raqs, estrada, stirk v.b. shular jumlasidan. Ularda deyarli boshqa barcha san'at turlari aktyor ijrosi, sahna dinamikasi asosida sintezlashadi. Kino va televidenie esa "eng sintetik" san'at turlari hisoblanadi, zero ularda sintetik badiiy qiyofa yaratiladi. Umuman, sintetik san'at turlarini estetik idrok etar ekanmiz, bir vaqtning o'zida ularni ham tomosha qilishimiz, ham tinglashimiz mumkin.

Shunday qilib, ko'rib turibmizki, san'at turlarining o'zaro aloqalari shu qadar mustahkam, xilma-xil va miqyosliki, bu aloqadorlik hatto turli san'at unsurlaridan Yangi san'at turini yaratish qudratiga ham ega.

San'atda janr muammosi. Biz yuqorida san'atning xillarga va turlarga bo'linishini hamda har bir san'at turi voqelikni estetik in'ikos ettirishda o'ziga xos mavqega ega ekanini ko'rib o'tdik. San'at turlarining o'zi ham ana shunday muayyan qismlarga bo'linadi – ularni biz janrlar deb ataymiz. Estetikaga doir adabiyotlarda janrni san'atshunoslik fanlarining muammosi deb hisoblash va uning estetik mohiyati to'g'risida engil-elpi to'xtalib o'tish hollari ko'p uchraydi. Bu – noto'g'ri yondashuv: estetika san'at xilini, undan kelib chiqadigan turlarni, badiiy asarni atroflicha o'rgangani holda, san'at turi bilan badiiy asar oralig'idagi janr muammosiga jiddiy e'tibor qilmay, o'tib ketolmaydi. Chunki hech bir san'at turi to'g'ridan-to'g'ri o'zini namoyon eta olmaydi, faqat janr vositasidagina muayyan san'at turiga oid badiiy asar vujudga keladi.

San'at turlarining janrlarga bo'linishi ularni tasniflashtirish singari murakkab, "motorni yig'ganda, doimo bir necha murvat ortib qoladigan" estetik muammo, sababi, bir tomondan janrlarning nihoyatda rang-barangligi bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularning san'at turlaridagi mavqeini belgilashdagi fikrlar xilma-xilligi, ya'ni ko'p hollarda muayyan janr haqiqatan ham janrmi yoki uning ko'rinishlaridan birimi degan masala estetiklar oldida ko'ndalang turadi. Masalan, badiiy adabiyotdagi – janrlar bo'linishi eng murakkab bo'lgan san'at turidagi she'r janrini olib ko'raylik. She'r o'zi, qissa yoki dostondan farqli o'laroq, alohida janr, lekin ayni zamonda u intim, ijtimoiy, falsafiy, manzaraviy, hajviy janrlarda yozilishi mumkin. Demak, she'r janri yana janrlarga bo'linadi. Bunday janriy bo'linish ko'proq g'oyaviy-hissiy tabiatga ega: intim she'r – lirik qahramonning ishqiy, sub'ektiv kechinmalarini aks ettiradi, falsafiy she'rda–hikmatli xulosaga, donishmandlikka moyillik birinchi o'rinda turadi v.h. Ayni paytda bunday

she’rlar har xil ko’rinishlarda yozilishi mumkin; g’azal, sonet, ruboiy, masal v.b. Endi savol tug’iladi: she’r – janr, falsafiy she’r – janr bo’lsa, unda hikmatli satrlardan iborat g’azal shaklidagi she’r nima? Uni janr nuqtayi nazaridan falsafiy she’r deymizmi, yoki g’azalmi? SHuningdek, Oybekning “Navoiy” asari romanmi yo tarixiy roman janridagi badiiy ijod mahsulimi?

Bu boradagi tadqiqotlarning so’nggi xulosasi tizimli tahlil natijalari bo’lib, unga ko’ra janrlar bosqichma-bosqich bo’linish tabiatiga ega[206]. YA’ni, roman ham janr, tarixiy roman ham janr, hajviy roman ham janr v.h. Darhaqiqat, hozircha san’at turlarining bundan qulayroq janriy bo’linishini tasavvur qilish qiyin. To’g’ri, ba’zi estetiklar, janr va uning ko’rinishlari degan atamani qo’llashni taklif etishadi, komediya – janr, kinokomediya – janrning bir ko’rinishi yoki shakli. Lekin bunday, deylik, tarixiy romanni–roman janrining tarixiy ko’rinishi deb atashimiz noamaliy va sun’iy ekanini hamma yaxshi his qilsa kerak. Buning ustiga, shunday asarlar borki, ular bir necha janrga birvarakay taalluqli bo’lishi mumkin. Masalan, Fitratning “Qiyomat” asarini ham hikoya, ham hajviy hikoya, ham xayoliy hikoya tarzida janrlarga bo’lishimiz mumkin. Ba’zan ikki alohida, hatto bir-biriga qarama-qarshi janr birlashib, Yangi janrni tashkil etganini ko’ramiz. Masalan, teatr san’atida tragikomediya janri mavjud. SHuningdek, bir janr ikki va undan ortiq san’at turiga “xizmat” qilishi mumkin. Masalan, telefilm ham kino, ham televidenie san’atida, manzara janri esa, ham rassomlik ham badiiy adabiyotda qo’llaniladi. Farq shundaki, ular badiiy asarni o’zlari taalluqli bo’lgan san’at turlari talablari vositasida yaratilishini ta’minlaydilar.

Umuman, san’at tarixida janrlarning doimiy o’zgarib turishi–Yangilanishi, eskirishi, ko’payishi, iste’moldan chiqib ketishi kabi hollarni tabiiy deb hisoblash kerak. Chunki jamiyat taraqqiyoti, inson shaxsining cheksiz darajadagi o’zgarib borishi an’anaviy janrlardan kechish va Yangilarini yaratishni talab qiladi. Masalan, keyingi ikki asr mobaynida she’riy roman, she’riy qissa, she’riy novella janrlari vujudga kelgani holda, o’nlab “eskirgan” she’riy janrlar iste’moldan chiqib ketdi. Biroq, bunday hodisalarning hech biri qandaydir ko’rsatmalar yoki qonunlar talabi asosida ro’y bermaydi, balki san’atning demokratik xususiyatidan kelib chiqqan holda, san’atkor va badiiy asarni idrok etuvchi o’rtasidagi bir-birini tushunishning pirovard natijasi sifatida voqe bo’ladi.

Shunday qilib, biz mazkur bob mobaynida san’at xillari, turlari va janrlarini tasniflashtirishdek murakkab masalalarni baholi qudrat ko’rib o’tdik. Bizning ba’zi mulohazalarimiz, ilmiy xulosalarimiz umumjahoniy ildizga ega bo’lgan milliy estetikamizda bu boradagi dastlabki nazariy yondashuvlardir. Biroq ularni mutlaqlashtirishdan yiroqmiz, asosiy maqsad talabalar va domlalarda mustaqil fikrlash malakasini yuksaltirishdan iborat.

*Sport- estetik tarbiyaning zamonaviy vositasi***.** Sport estetik tarbiya vositasi sifatida zamonaviy insonni kamol toptirishda alohida e’tiborga ega. Hozirda sportni rivojlantirish mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko’tarildi. Bundan ko’zlangan asosiy maqsad avlodni jismonan baquvvat, sog’lom, vatanning jasur himoyachisi qilib tarbiyalashdir. Hozirda yurtimizda sportni rivojlantirishga doir ko’plab dasturlar ishlab chiqilgan va ular jamiyat munosabatlaridan amalda ishtirok qilmoqdalar. Keyingi kunlarda O’zbekiston ko’plab sport turlari bo’yicha jahon musobaqalarni uyushtiruvchi va o’tkazuvchi mamlakat sifatida jahon hamjamiyatda ko’zga ko’rinib bormoqda. Ana shularning barchasi muayyan ma’noda inson nafosatli dunyoqarashini, tafakkurini sog’lomlashtirishga qaratilgan. Bir so’z bilan aytganda, sport estetik tarbiyaning muhim vositasi sifatida “Farzandlari sog’lom yurtning kelajagi porloq bo’ladi”,- degan maqsadni amalga oshirishga muhim hissa qo’shadi.

[206] Qarang: Эстетика. Словар. М., Политиздат, 1989. С.89.

Asosiy va qo‘shimcha o‘quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari

Asosiy adabiyotlar

1. Falsafa. Axmedova M. Tahriri ostida.-T.: UFMJ, 2006.
2. Falsafa. Mamashokirov S. Tahriri ostida. -T.: Sharq, 2005.
3. SHermuxamedova H.A. Falsafa.-T.: Noshir, 2012. -1207 b.
4. SHermuxamedova N.A. Gnoseologiya-bilish nazariyasi.-T.: Noshir, 2009.
5. SHermuxamedova N.A. Falsafaga kirish.-T.: Noshir, 2012. 320 b.
6. SHermuxamedova N.A. Borliq va rivojlanish falsafasi.-T.: Noshir, 2013,720 b
7. SHermuxamedova N.A. Inson falsafasi.-T.: Noshir, 2017. 460-b.
8. Izzetova E., Pulatova D. Философия. -T.: SHarqshunoslik, 2012. 340-b
9. SHaripov M. Fayzixujaeva D. Mantiq. -T.: Universitet, 2007.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik Uzbekiston davlatini birgapikda barpo etamiz. T.: Uzbekiston, 2016. -536.
2. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalkimiz bilan kuramiz. T.: Uzbekiston, 2017 -484 b.
3. Mirziyoev SH.M. Konun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt tarakkiyoti va xagj farovonligining garovi. T.: 2017.-28 6.
4. Karimov I.A. Asarlar tuplami. 1-24 jildlar.- T.: Uzbekiston, 1996-2016.
5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat—engilmas kuch. 2-nashr -T.: Ma’naviyat, 2016, -176 b.
6. Gunnar Skirbekk, Nils Gilge. A history of Western Thought. Scandinavian University Press. 11 New Fetter Lane, London, EC4P 4EE. 2001. P-l-4
7. K. S.Guttenplan. J.Hornsby. C. Janavay. Reading philosophy. Blackwell Publishers Ltd. UK. 2003. P - 341.
8. Jaspers. The origin and goal of history. New Haven and London. Yale University Press. 1965. P - 77. (P - 19)
9. A.Fitrat. Tanlangan asarlar -T.:Ma’naviyat, 2010-301 b.
10. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shaxri.-T.:Yangi asr avlodi,2016.-3186.
11. J. Rumiy. Ichingdagi ichingdadur.-T.: Yangi asr avlodi, 2016.-272 b.
12. A.Mamanov. Milliy mentalitet: xususiyatlar va omillar, S.: «Zarafshon»-2015.-155 b.
13. Аристотель. Сочинения В 4-х томах. -М.: 1975. ч.1.
14. Асмус В. Античная философия. -М.: 1999.
15. Abu Ali ibn Sino tugilgan kunining 1000 yilligiga bagishlangan makolalar tuplami. -T.: Fan nashriyoti, 1980.198 b.
16. Allayarova S. Badiiy ijod germenevtikasi - T.: Universitet, 2011.
17. Allayarova S.N. Falsafiy germenevtikaning metodologik jixatlari. Fals.fan. nomz. Diss. -T.: Universitet, 2010.
18. Axborotlashuv va jamiyat ma’naviyati. Ilmiy makolalar tuplami - T.: “I ktisodiyot” - 2013 136 6.
19. Bekmurodov M. Uzbek mentaliteti -T.: Yangi asr avlodi, 2004.-23 b.
20. Bozarov D. Sinergetik paradigma. -T.: Tafakkur, 2010. -1606.

21. Yokubova M. Jamiyat axborotlashuvning falsafiy asoslari. Fals.fan. nomz. Diss. -T.: Universitet, 2007.
22. Yokubova M. Fan axborotlashuvining jamiyat rivojidagi uRni_ T.:”Star - Poligraf", 2010.-180 b.
23. Juraev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. - T.: Ma’naviyat, 2008. -560 b.
24. Madaeva SH. Milliy mentalitet va demokratik tafakkur. -T.: Falsafa va xukuk, 2007.
25. Mamashokirov S., Usmanov E. Barkaror tarakkiyotning ekologik xavfsizlik masalalapari. -T.: Fan, 2009.
26. Musaev F. Demokratik davlat kurishning falsafiy xukukiy asoslari. -T.: Uzbekiston. 2007.
27. Otamurodav S. Globallashuv va millat. - T.: Yang i asr avlodi. 2008.
28. Ochildiev A. Milliy goya va millatlararo munosabatlar.- T.:Uzbekiston. 2004.
29. Ochilova B. Milliy-ma’naviy yuksalishda meros, kadriyatlar va vorisiylik. -T.: Istiklol, 2009.
30. Plutarx. Saylanma. Z.A’lam va Urfon Otajon tarjimasi. - T.: Yangi asr avlodi, 2006.
31. Соифназаров И. Курс лекций по философии. - Т.: ТДИУ, 2004.
32. Sirojiddinov I. Mirzo Ulugbek dunyosi.-T.: “SHark”-2015.108 b.
33. Kaxxorova SH. Global ma’naviyat-globallashuvning goyaviy asosi.-T.:Tafakkur, 2009. -670 b.
34. Kurbonova L. Borlik falsafasi. -Andijon: ADU, 2009
35. Kurbonova L. Inson falsafasi. -Andijon: ADU, 2009
36. Xayitov SH., Xayitova K., Ziyautdinova X. Falsafa asoslari. Alьbom sxema. -T.: Alisher Navoiy nomidagi Uzbekiston Milliy kutubxonasi, 2009.
37. Choriev A. Inson falsafasi. -Toshkent.: **O ’FMJ,** 2006.
38. Uzbekiston : dinlararo xamjixatlik - tinchlik garovi.-T.:2005.
39. Shermuxamedova N. Falsafa va fan metodologiyasi - T.: Axborot texnologiyaiari, 2008.
40. SHermuxamedova N.A. Fan falsafasi. -T.: Noshir, 2017. -3606
41. SHermuxamedova N.A. Texnika falsafasi. -T.: Universitet, 2017. -420b

INTERNET saytlari

1. www.ziyo.net
2. www.referat.uz